

MIRZAQULOV TURSUNALI O'TAYEVICH

IBRATGA YO'G'IRILGAN UMR



IPAK YO'LI INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

Mirzakulov Tursunali O‘tayevichning 78 yilligi va uning 60 yillik

ilmiy-pedagogik faoliyatiga bag‘ishlangan

“TIL – MILLATNING BORLIG‘I, MILLIY-MA’NAVIY RUHIYATI”

**mavzusida Respublika
ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

Olmalik shahar Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti Ilmiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Mirzakulov Tursunali O‘tayevichning 78 yilligi va uning 60 yillik ilmiy-pedagogik faoliyatiga bag‘ishlangan “Til – millatning borlig‘i, milliy-ma’naviy ruhiyati” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman munosabati bilan tayyorlandi.

Tahrir hayati:

- 1. Qodirov Qaxramon Raxmonovich.**– Universitet rektori
- 2. Sattorov Eldor Bobir o‘g‘li** – Ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor
- 3.Rajabova Dildora Shakarbayevna** – Katta o‘qituvchi
- 4.Ergashev Laziz Eshqobil o‘g‘li** – Bo‘lim boshlig‘i
- 5. Qahramonov Javoxir Siroj o‘g‘li** – Matbuot kotibi

UNIVERSTETIMIZNING ILM OTASI

**Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti rektori,
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori Qaxramon Qodirov**

Ilmga baxshida umr — bu inson hayotining eng yuksak ma’nolaridan biridir. Ayniqsa, tilshunos olimlarning hayoti va faoliyati bunga yorqin misol bo‘la oladi. Ular tilni nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki millatning ruhi, madaniyati va tarixini aks ettiruvchi bebaho boylik sifatida o‘rganadilar.

Biz ustoz bilan universitetga kelganimdan buyon tanishman. Ularning kundalik hayotda ishlatadigan so‘zlari va misollari ham o‘ta badiiylilikda yo‘g‘rilgan holda. Oddiy suhbatlari ham bir dastur sifatida eng saviyali ko‘rsatuvlarda namoyish qilishga arziydi.

Tilshunos olim butun umrini so‘z sirlarini anglashga, til qonuniyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlaydi. U har bir so‘zning kelib chiqishi, ma’nosi va qo‘llanishidagi nozik jihatlarni o‘rganar ekan, aslida xalqning o‘tmishi va bugunini tadqiq etadi. Bunday olimlar tufayli tilimiz boyiydi, uning me’yorlari shakllanadi va avloddan avlodga sof holda yetib boradi.

Ilm yo‘li oson emas. U sabr, matonat va fidoyilikni talab qiladi. Tilshunos olim ko‘pincha yillar davomida izlanadi, manbalarni solishtiradi, yangi xulosalarga keladi. Ba’zan esa uning mehnati darhol e’tirof etilmasligi mumkin. Ammo haqiqiy olim uchun eng katta mukofot — bu haqiqatni topish va ilmga ozgina bo‘lsa-da hissa qo‘shishdir.

Shuningdek, tilshunos olimlar yosh avlodni tarbiyalashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat ilmiy tadqiqotlar olib boradi, balki o‘z bilim va tajribasini talabalarga o‘rgatadi. Shu tariqa ilm davomiyligi ta’minlanadi, yangi olimlar yetishib chiqadi.

Mirzakulov ustoz ham talabalarimiz uchun haqiqiy bilim shajarasidir!!!

FANGA BAXSHIDA UMR

**Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti
bosh direktori, boshqaruv raisi Aziz Kutlimuratov**

Bag‘rikeng, mehridaryo, kamtarin va zarofatli inson, taniqli ta’lim va jamoat arbobi Mirzakulov Tursunali O‘tayevichni 78 yillik tavallud ayyom bilan chin qalbimdan muborakbod etaman. Ustoz nafaqat universitetimiz, Olmaliq shahri, qolaversa, butun respublikamiz faxri, zahmatkash fan arbobi. Men bir universitet ta’sischisi sifatida shunday taniqli olim ushbu universitetda faoliyat ko‘rsatayotganidan bag‘oyat mamnunman. Jamoam tarkibidagi eng yoshi ulug‘, eng saviyali va eng oliy ilmiy darajadagi inson aynan ulardir.

Sizning tashkilotchi va rahbarlik qobiliyatingiz ko‘plab taniqli zamondoshlarimiz-u yirik ziyolilar va ustoz olimlarimiz tomonidan yakdillik bilan e’tirof etilayotganligi ham hayot yo‘lingiz sermahsul va natijador bo‘lganligidan dalolat beradi.

Ustozning ilmiy maktabi uning nazariy qarashlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan, shogirdlarini mustaqil ilmiy tafakkurga yo‘naltirgan pedagogic maktab sifatida shakllantirgan.

Mirzaqulov 20 yildan e’tiboran respublika yetakchi davriy matbuotida ilmiy-ma’rifiy tadqiqotlarini muntazam nashr ettirish bilan shug‘ullanadi. Uning “Ma’rifat”, “Milliy tiklanish”, “Adabiyot ziyosi” kabi nashrlardagi publikatsiyalari adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari va madaniyatshunoslikning konseptual masalalari tahlilida ilmiy metodologiyaning qat’iyligi bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, olim mintaqaviy va sohaviy matbuot nashrlari bilan konstruktiv hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, “Olmaliq hayoti”, “Ohangaron hayoti”, “Angren hayoti”, shuningdek, “Rangli metallar” va “Almalykskiy rabochiy” kabi nashrlarda o‘z tadqiqot natijalarini tizimli ravishda yoritib boradi. Ushbu yondashuv fundamental fanning ijtimoiy amaliyot bilan integratsiyalashuvini ta’minlash hamda jamiyatda intellektual muhit barqarorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЖТИМОИЙ- БАДИИЙ МАҚОМИ

**Турсунали МИРЗАҚУЛОВ,
филология фанлари доктори, профессор**

Туркий тил ҳамда ўзбек тилининг ижтимоий-бадий мавқеи ва мақомини ҳимоя қилиш, унинг бошқа тиллар орасидаги муносиб ўрнини кўрсатиш, бойлигини амалий исботлаш ҳаракати узоқ тарихга эга. Қадимги туркий битиктошлардаги қуйма бирикмалар, фикрларнинг ойдин ва тиниклиги эли ва тупроғи, тили ва эътиқодига бўлган эзгу туйғуларнинг берилиши аجدодларимизга нисбатан фахр ҳиссини уйғотади.

Биринчи « Ҳоконнома » (« Шохнома ») яратган Йўллий Тегин махсус битиктош-Билга Ҳокон тошёзувида Билга Ҳокон ва ундан олдин ўтган турк ҳоконларининг ўз элининг мустақиллиги учун курашганликларини зўр меҳр билан тасвирлайди ва Билга Ҳокон номидан авлодларга қарата шундай мурожаат қилади: «Турк беклар, турк халким, бу ҳоконингдан, бу бекларингдан, ерингдан, сувингдан ажралмасанг, турк халки, ўзинг эзгулик кўражаксан, уйингга киражаксан, беташвиш бўлажаксан ».

И. Стеблеванинг қайд этишича, « Билга Ҳокон битигининг бадий фазилатлари туркий халқлар орасида адабий жараён битик тошларгача аллақачон мавжуд бўлганлигидан далолат беради. Руний ёзувдаги битиклар туркий халқларнинг жуда қадимдан ривожланган ёзма анъаналари бўлган- лигини исботлаб турибди ». (1)

Кейинги асрларда юз берган кучли ижтимоий- сиёсий воқеалар-араб босқини, зодагонларнинг ўзаро қонли курашлари, муғулларнинг вахшийлиги туркий тили ва маданиятга зарба берган бўлса- да, уни йўқота олмади. Аксинча, ўзининг яшовчанлиги туфайли мавқеини тобора мустаҳкамлай борди. Туркий давлатлар- Қорахонийлар, Салжуқийлар, Ғазнавийлар сулоласининг тарих майдонига кириб келиши манзарани тамомила ўзгартирди. Қорахоний туркий, салжуқий туркий, қорлук ва кипчок адабий анъаналари бир қанча туркий адабий тиллар, шу жумладан, туркий тил, чигатой тили деб номланувчи ўзбек адабий тилининг шаклланишига олиб келди. ХIУ аср охири ва ХI асрнинг биринчи ярмида яшаб ижод этган Лутфий, Атоий, Саккокий, Ҳайдар Хоразмий, Ахмадий, Юсуф Амирий, Якиний, Гадоий, Дурбек каби ўзбек шоирлари она тилининг мавқеини ўрнига қўйиш борасида катта ва биринчи босқичдаги ишларни амалга оширган бўлсалар, Алишер Навоий уларнинг ишини муносиб равишда давом эттириб, ўзбек тили ва туркий лаҳжаларнинг бойлигини оламга кўз-кўз қилди, ижтимоий ва бадий-адабий мақомини абадий мустаҳкамлади.

Алишер Навоий она тилида, халқ тилида ижод қилиш қўлланмасини

« Муҳокаматул- луғатайн » асарида ишлаб чиқди. Маълумки, Навоий даври нафақат ижтимоий-сиёсий, балки тил сиёсати жиҳатидан ҳам мураккаб бир давр эди. Лекин темурийлар давлатининг мавқеи, Ҳусайн Бойқаронинг кўмаги Навоий томонидан белгиланган режаларнинг амалга ошувига қулай имконият яратди, ўзбек тилининг ҳуқуқлари (албатта, бошқа тиллар ҳисобига эмас) кенгайди, у ривожланишнинг янги кенгликларига чиқиб олди.

Айрим олимлар чигатой тили сунъий тил, халқ тилидан узоклашган тил деб ҳам даъво қиладилар. Бунга Навоий асарларида арабча, форсча- тожикча сўзларнинг нисбатан кўпроқ учрашини ва ж килиб кўрсатадилар. Академик Алибек Рустамовнинг алоҳида кўрсатишича, туркий лаҳжалардаги луғавий ва грамматик бирликлар Навоий асарларига чегараланмаган ҳолда, араб ва форс тилларига оид бирликлар чегараланган ҳолда ўтган. Шунингдек, Навоийнинг ўзи ҳам тил қонунларини бузмаган ҳолда кўпгина сўз ва иборалар яратган, мавжуд сўз ва ибораларни янги маънода моҳирона қўллаган. Чет сўзларга бўлган муносабати ҳақида профессор А. Рустамов шундай дейди: « Навоий туркий сўзлардан тўлиқ фойдаланган ҳолда форс ва араб сўзларидан ҳам фойдаланади. Масалан, арабча « каф » сўзини ишлатар экан, шу маънодаги туркий сўзлар « очув » билан « оя>>> дан воз кечмайди... форс- тожик сўзи бўлмиш « лаб » дан фойдаланар экан, шу маънодаги туркий « эрин » билан

« дудок » ни ҳам эсдан чиқармайди ». (2)

Навоийнинг хизмати туфайли ўзбек тили бутун ўтмишнинг- Шарк ва Ғарб бадиий-фалсафий фикрини ўзлигида ифодалай олиш имкониятини кўрсатди. Аристотель ва Платон, Сократ ва Демокрит, Форобий ва Абу Али ибн Сино, Беруний ва Хоразмий, Саъдий, Хайём, Низомий ва Дехлавий ижодий оламига хос тафаккур категориялари ўзбек тилига таклидан кўчирилмаган, балки янги шароит ва эҳтиёж талаби билан янгича мазмун ва образларда ижодий ривожлантирилган ҳолда қўлланади. Ўзбек тилининг ҳам жаҳоний ғояларни, инсоният орзуларини, умумбашарий кадриятларни бера олиш қобилияти ҳеч бир тилдан кам эмаслиги амалда исботланди. Бу ишнинг унчалик қийин бўлмагани, « турк алфози » нинг ички имкониятлари нақадар кенглигини Навоий куйидагича эътироф этади:

**Шеър ҳар синфини қилдим ибтидо,
Турк алфози била топти адо,
Тўрт девон бирла назми панжи ганж,
Даст берди чекмайин андуҳу ранж.**

Туркий тил бойлиги асосида Навоий фикрларнинг буюк силсиласини яратди, унинг ижоди туфайли Шарқда жаҳон ижтимоий тафаккури тарихида янги давр, янги боскич яратилди. Бу даврни Европадаги Уйғониш даври билан ҳам киёслайдилар (3). Академик И. Мўминов « бундай таққослашлар маълум даражада тўғри, лекин уйғониш даври Ғарбий Европа мамлакатларида ХУ асрнинг иккинчи ярмидан бошланганлигини назарда тутиш керак », деб қайд қилади, Навоий Уйғониш даври алломаларига хос барча белгиларга эга эди ва ҳатто айрим жиҳатларда уларга намуна бўла олиши мумкин.

Маълумки, тил халқни, давлатни бирлаштирувчи вазифани ҳам бажаради. Навоий асарларининг шон-шуҳрати туфайли ўзбек тили қўлланилиш ҳудудларини кенгайтириб, Мовароуннахр ва Хуросонда мавқеини мустахкамлади, Кавказ, Волга бўйи, Дашти Қипчок ерларига ҳам бориб етди. Навоий ушбу мисраларни бежиз битган эмас:

**Мен туркча бошлабон ривоят,
Қилдим бу фасонани хикоят,
Ким шуҳрати жаҳонга тўлғай,
Турки била даги баҳра олғай,
Турк назмида чу тортиб мен алам,
Айладим ул мамлакатни яккалам,**

Шуни алоҳида қайд қилиш зарурки, Навоий давригача туркий тилда ижод қилувчилар микдоран кам бўлиб, улар форс- тожик тилида ҳам асарлар ёзган бўлсалар, Навоий даврига келиб уларнинг микдори орта борди, « зуллисонайнлик »- икки тиллилик нисбати ҳам ўзгарди: форс- тожик шоирлари ҳам туркий тилда, ҳам ўз она тилида ижод қила бошладилар. Ана шу даврдан бошлаб ўзбек- тожик зуллисонайнлиги кучайган.

Жаҳон халқлари тарихида « Олтин давр », « Қаҳрамонлик даври », « Уйғониш даври » атамалари билан юритиладиган юксалиш давлари тасодифий ҳодиса бўлмай, балки қонуний боғланишлар, дунё минтакаларидаги маданиятлараро ўзига хослик, ворисийлик ва муштаракликни акс эттирадиган жараёнларнинг номидир.

Туркий ва форсий маданиятда IX асрдан XV асрнинг иккинчи ярмигача бўлган давр жаҳоншумул ютуқлар ва кашфиётлар давридир. Араб халифалигининг сусайиши, турк ва эрон халқларининг мустақиллик учун олиб борилган курашлари бошқа соҳалар каби, маданият, адабиёт соҳасида кенг қўламдаги ўзликни англаш, ўтмишни қайта тиклаш даврини юзага келтирди. Марказлашган давлатларнинг пайдо бўлиши йирик маданий марказлар- шаҳарлар мавқеининг оша бориши Уйғониш даврининг асосий омилларидандир. Хусусан, туркий адабиётнинг « кошғар даври » (Е.Э. Бертельс)-XI асрдан бошланган давр жаҳон Уйғониш даврининг узвий қисми бўлиб, темурийлар даврида юксак чўккига кўтарилган. А. Жомий форс- тожик адабиётининг бир неча асрлик синтезини

берган бўлса, Алишер Навоий туркий халқлар тарихи ва маданиятида улкан ўзгариш ясади. Буюк янгиловчи (реформатор) жаҳон маданияти тарихидан муносиб ўрин олди. Уйғониш даврида Навоий ўз ижоди ва фаолияти билан жараёнга янги романтик жўшқинлик бағишлади. Унинг ижодида туркий оламга хос катта ички қудрат бор бўйи- баста билан гавдаланди, жаҳоншумул умумбашарий аҳамият касб этди Жаҳон маданиятининг кейинги тараққиётига кучли таъсир ўтказди.

Англашиладики, туркий ва форсий маданият жаҳон маданиятидан айри бир ҳодиса эмас. Ана шу маданиятнинг жаҳон маданияти тарихидаги ҳаққоний ўрнини белгилаш долзарб масалалардан саналади.

Хуллас, буюк бобомиз Алишер Навоий ўзбек тилига жаҳон тиллари қаторидан фуқаролик ҳукукини олиб берди. Бу ҳуқуқ туркий тил бойлиги, халқ оғзаки ижоди, жаҳондаги энг яхши адабий анъаналар асосида мустаҳкамланган эди. Буюк аллома « Муҳокаматул- луғатайн » ни ёзиб тугатар экан, келгуси авлодларга қарата катта ишонч билан куйидаги фикрларни битади: « Хаёлимга мундоқ келурким, турк улуси фасиҳларига ҳақ собит қилдимки, ўз алфоз ва иборатлари ҳақиқати ва ўз тил ва луғатлари кайфиятидин воқиф бўлдилар... Алар дағи ранж ва машаққат муқобаласида, чун бу махфий илмдинки, зоҳир қилибмен, вукуф топсалар, умид улким, бу фақирни хайр дуоси била ёд кил- гайлар ».

Ўзбек халқи буюк инсон- Алишер Навоийнинг катта жасорати ва машаққатли меҳнат эвазига келган оламшумул хизматларини бугун миннатдорчилик билан эсламоқда. Биз бобомиз Навоий белгилаб берган она тилининг гўзаллиги, бойлиги, мавқеи ва мақомини асраш, кўпайтириш ва ҳимоя қилишдек улўғ ишнинг муносиб давомчилари бўлишимиз керак.

АДАБИЁТ ВА АЙРИМ ИЗОҲЛАР:

1. Стеблева И. Кадим ёднома. « Ўзбекистон адабиёти ва санъати » газетаси, 27 сентябрь 1985 йил.

2. Рустамов А. Навоий ва ўзбек адабий тили. ТошДУ Илмий асарлари « Ўзбек тилшунослиги масалалари », Тошкент, 1975.

3. Жирмунский В. М. Алишер Навои и проблема Ренессанса в литературах Востока. Избранные труды: «Сравнительное литературоведение. Восток и Запад ». Л., 1979, 174-184.

4. Туркий тиллар, ўзбек тилининг кадимги даврлардан бошлаб то шу кунгача бўлган мавқеи ва мақоми масаласи, тилнинг амалий қўлланилиши- функционал парадигмаси функционал босқичланиши нуктаи назаридан кўриб чиқилиши керак. Бу йўналишда айрим ишлар бажарилган. Каранг: Кононов А. Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников (УП- IX вв.), Л., 1980;

Наджип Э. Н. К вопросу о языковой ситуации в средневековой Средней Азии. Исследования по истории тюркских языков (XI- XIV вв.). М., 1989 ; Благова Г. Ф. О языковой ситуации в Тимуридском Мавераннахре.- Сб.

« Туркология- 1986 », Л., 1986.

УСТОЗ ЗИЁСИНИНГ СЎНМАС МАШЪАЛИ

(Филология фанлари доктори, профессор

Турсунали Ўтаевич Мирзақулов таваллудининг

78 йиллигига ва илмий педагогик фаолиятининг 60 йиллигига бағишланади)

Қосимбой Мамуров, кафедра профессори, ф.ф.н., таржимон

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети

Аннотация. Мақолада филология фанлари доктори, профессор Турсунали Ўтаевич Мирзакуловнинг ўзбек тилшунослиги, айниқса морфемика назарияси ривожига қўшган хиссаси, унинг илмий-педагогик фаолияти ва устозлик мактаби илмий таҳлил ҳамда адабий мушоҳада уйғунлигида ёритилади. Олимнинг морфема назарияси, аналитик ва синтетик бирликлар ҳақидаги концепциялари, тилшунослик таълими тараққиётидаги хизматлари баҳоланади.

Калит сўзлар: Турсунали Мирзакулов, морфемика, парадигматика, синтагматика, ўзбек тилшунослиги, илмий мактаб, устозлик анъанаси, филология.

Кириш. Ҳар бир давр ўзининг йирик маънавий ва илмий сиймолари билан қимматли. Ана шундай шахсиятлардан бири — филология фанлари доктори, профессор Турсунали Мирзакуловдир. Унинг қарийб олтимиш йилдан зиёд илмий-педагогик фаолияти ўзбек тилшунослиги тараққиёти билан чамбарчас боғлиқ.

Олимнинг илмий изланишлари 1970-йиллардан бошлаб морфемика соҳасида янгича назарий ёндашувларни шакллантирди [2;3;4]. Унинг “Ўзбек тилида шакл ясовчи қўшма аффикслар” мавзусидаги тадқиқоти [1] ўз вақтида туркий тилшуносликда муҳим илмий воқеа сифатида баҳоланган.

Асосий қисм. Морфемика соҳасида янги назарий йўналиш. Турсунали Мирзакулов ўзбек тилшунослигида морфемани мустақил тил бирлиги сифатида тадқиқ этиб, морфем парадигматикаси ва синтагматикаси назариясини ривожлантирди [6].

Олимнинг агглютинация ва фузия муносабати ҳақидаги қарашлари туркий тиллар табиатига янгича назар ташлаш имконини берди [3]. Қўшма аффикслар ва шакл ясовчи воситаларга бағишланган ишларида у морфемаларни функционал-семантик жиҳатдан таҳлил қилиш йўлини таклиф қилди [4;5].

Айниқса, аналитик ва синтетик морфемалар ҳақидаги таснифи морфема назариясида янгилик сифатида қабул қилинди [6]. Бу ёндашув академик А.П. Ҳожиев томонидан ҳам ўзбек тилшунослигида янги йўналиш сифатида эътироф этилган.

Т. Мирзакуловнинг тадқиқотлари Аюб Ғуломов илмий мактаби анъаналарини давом эттириб, уни янги босқичга кўтарди [11].

Илмий-педагогик фаолият ва устозлик мактаби

Олим назарий тадқиқотларни таълим амалиёти билан уйғун олиб борди. “Морфемика, сўз ясалиши, морфология” [7], “Тилшуносликка кириш” [8], “Туркий ва ўзбек тилшунослиги тарихидан лавҳалар” [9], “Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари” [10] каби асарлари ўзбек тилшунослиги ва филология таълими ривожига муҳим манбага айланди.

Бу асарларда назария билан методиканинг уйғунлиги кузатилади. Айниқса грамматика ўқитишнинг лингвистик асосларини ишлаб чиқиш соҳасидаги қарашлари ҳозир ҳам долзарб аҳамият касб этади [10].

Олимнинг яна бир улкан хизмати — илмий мактаб яратганидир. Унинг раҳбарлигида шаклланган шогирдлар бугун ўзбек филологиясининг турли йўналишларида самарали меҳнат қилмоқдалар.

Олим ва шахс феномени

Профессор Турсунали Утаевич Мирзакулов фақат назариячи олим эмас, юксак маънавият соҳибидир. Устоз шахсиятида олимга хос теран фикр, муаллимга хос меҳр ва зиёлига хос камтарлик уйғунлашган.

Ф. де Соссюр ва Л. Блумфилд қарашларини морфем сатҳида ижодий ривожлантириши [13;14] унинг жаҳон тилшунослиги билан ҳамоҳанг тафаккур соҳиби эканини кўрсатади.

Шу маънода, олимнинг фаолиятини фақат илмий мерос эмас, маънавий мерос сифатида ҳам баҳолаш мумкин.

Xulosa. Профессор Турсунали Утаевич Мирзакуловнинг 78 йиллик муборак санаси муносабати билан шуни таъкидлаш мумкинки, унинг ҳаёти ва ижоди ўзбек тилшунослиги тарихида алоҳида саҳифани ташкил этади.

Унинг морфемика соҳасидаги концепциялари, таълим методикасига қўшган ҳиссаси, устозлик мактаби ва шогирдлар тарбияси миллий филология ривожига муносиб хизмат қилмоқда.

Шу жиҳатдан олим мероси фақат ўтмиш ютуғи эмас, балки келажак тилшунослиги учун ҳам муҳим назарий манба бўлиб қолаверади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзақулов Т.Ў. *Ўзбек тилида шакл ясовчи қўшма аффикслар*. Тошкент, 1980.
2. Мирзақулов Т.Ў. Қўшма аффикслар ҳосил бўлишдаги етакчи усуллар. 1977.
3. Мирзақулов Т.Ў. Агглютинатив ва флектив тилларнинг бир хусусияти ҳақида. 1977.
4. Мирзақулов Т.Ў. Кенгайган шакл ва қўшма аффикслар муносабати. 1979.
5. Мирзақулов Т.Ў. *Қўшма аффикслар ва уларга ёндош ҳодисалар*. Душанбе, 1983.
6. Мирзақулов Т.Ў. *Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари*. Тошкент, 1994.
7. Мирзақулов Т.Ў. *Морфемика, сўз ясалиши, морфология*. Душанбе, 1988.
8. Мирзақулов Т.Ў. *Тилшуносликка кириш*. Хўжанд, 1996.
9. Мирзақулов Т.Ў. *Туркий ва ўзбек тилшунослиги тарихидан лавҳалар*. Хўжанд, 1996.
10. Мирзақулов Т.Ў. *Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари*. Тошкент, 1994.
11. Гуломов А. *Ўзбек тили морфологияси масалалари*. Тошкент.
12. Ҳожиёв А.П. *Ўзбек тилшунослиги назариясига доир тадқиқотлар*. Тошкент.
13. Bloomfield L. *Language*. New York, 1933.
14. Saussure F. de. *Course in General Linguistics*. London.

ИБРАТЛИ ИЛМ ЙЎЛИ

Шарифа ИСКАНДАРОВА,
филология фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Республикасида хизмат
кўрсатган ёшлар мураббийси

Ўзбек тилшунослигининг бугунги ривожини ва етук мақомга эга бўлиши, миллий филологиямизнинг тараққий топишида кўплаб заҳматқаш, она тилига чексиз муҳаббатли, илмга фидойи олимларнинг меҳнатлари алоҳида ўрин тутди. Қувонарлиси, илм олиш ва уни элга етказишни ўз умрининг мазмуни, ҳаётининг матлаби деб билган фидойи зотларни нафақат кенг илмий жамоатчилик, балки бутун халқимиз ардоқлайди, уларга муносиб эҳтиром кўрсатади. Ўзбек тилшунослиги тараққиёти йўлида узоқ йиллардан буён хизмат қилиб келаётган ва ўзининг салмоқли илмий-педагогик фаолияти билан элнинг назари, ҳамкасблар эътирофи ва албатта, шогирдлар эҳтиромига эришиб келаётган олимлар кўплигидан ҳамиша фахрланамиз. Ана шундай ибратли йўл соҳибларидан бири профессор Турсунали Мирзақуловдир.

Турсунали Мирзақуловни оддий мактаб ўқитувчилигидан олий ўқув юрти профессоригача бўлган ўта заҳматли ва шарафли йўлни матонат билан босиб ўтган, илмга садоқатли олимлардан бири сифатида эътироф этсак арзийди. У етук туркийшунос олим, профессор А.Гуломов раҳбарлигида илмий изланишлар олиб борди. 1980 йилда “Ўзбек тилида шакл ясовчи қўшма аффикслар” мавзусидаги номзодлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилган олим тилшуносликда агглютинация ва фузия нисбати масаласини тадқиқ этиб, туркий тилларда бу жараённинг табиий ҳодиса эканлигини асослаб берди.

Олим, айниқса, ўзбек морфемикасининг шаклланиши ва ривожланиши учун муносиб хизмат қилди. Бу борада “Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари” номли монографик тадқиқоти ва 1994 йили ҳимоя қилган мазкур йўналишдаги докторлик диссертацияси билан илмий изланишлари натижаларини ўзбек тилшунослиги тарихига муҳрлай олди. Академик А.Ҳожиёв таъбири билан айтганда, Т.Мирзақуловнинг илмий тадқиқотлари ўзбек тилшунослигида янги йўналиш очди, унинг қарашлари нафақат морфемика масалалари, балки бошқа қатор соҳаларнинг муаммоларини ҳам тўғри ҳал қилишга восита бўлди.

Таъкидлаш керакки, олимнинг кадр-қиммати маълум фан тараққиёти учун қўшган улуши, самарали фаолияти билан ҳам белгиланади. Профессор Мирзақулов домла Фердинанд де Соссюрнинг парадигматик ва синтагматик назария ҳақидаги қарашларини ўзбек тилшунослигида морфем сатҳни тадқиқ этиш орқали ривожлантирди.

Олим ўз илмий изланишларини педагогик фаолият билан чамбарчас боғлиқ ҳолда олиб борди. Унинг олий ўқув юртлари талабалари учун мўлжалланган “Морфемика, сўз ясалиши, морфология” (1988), “Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспекти ва уларнинг муносабати” (1992), “Тилшуносликка кириш” (1996), “Туркий ва ўзбек тилшунослиги тарихидан лавҳалар” (1996) қўлланмалари ва шунингдек, “Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари” (1994) китоби тил ўқитишда алоҳида аҳамият касб этиб келмоқда. Унинг 30 дан ортиқ ўқув ва ўқув-услубий қўлланмалари, 300 га яқин илмий мақола ва тезислари тилшуносликнинг муҳим масалаларига қаратилгани билан қимматлидир.

Мирзақулов домла нафақат етук олим, камтарин инсон, балки шогирдпарвар устоз сифатида ҳам ибратга лойиқ. Унинг илмий раҳбарлигида изланишлар олиб борган ўндан ортиқ фан номзоди ва фан докторлари бугунги кунда республикаимиз олий таълим муассасаларида меҳнат қилиб келмоқда. Бир қатор шогирдлари илмий ишларини ҳимоя қилиш ва юртимиз тилшунос олимлари сафига қўшилиш арафасида.

Бу йил қутлуғ ёшни қаршилаётган профессор Мирзақулов ҳамон катта ғайрат, илм-фанга садоқат ва муҳаббат билан самарали илмий-педагогик фаолият олиб бормоқда.

Домла олтмиш йилдирки, илм йўлини танлаб, бу йўлда самарали меҳнат қилиб келмоқда. Олим ўзбек тилшунослиги ривожига қўшган салмоқли ҳиссаси туфайли катта обрў-эътибор ва юксак эҳтиромга муносиб. Устоз Мирзақулов домлага шижоатга тўла узок умр, мустаҳкам соғлиқ, илмий-педагогик фаолиятига эса янада улкан ютуқлар ва бардавомлик тилаймиз.

Umar O‘tayev



[1953.17.08 – 2016.19.12]

Oltintopkan koni yaqinidagi Cholota qishlog‘ida tug‘ilgan. Tojikiston madaniyati a‘lochisi. Xo‘jand davlat universitetining o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limini bitirgan. Uning ijod namunalari “Umrin ranglari” (Xo‘jand 2014) “Yuksak cho‘qqi” (Xo‘jand 2015) to‘plamlarida jamlangan. She‘rlari O‘zbekiston va Tojikiston vaqtli matbuotida chop etilgan, ayrimlariga kuy qo‘shiq bastalangan .

She‘rlari:

Oy bilan suhbat

Ey, to‘lin oy, men sevgan qiz
Sendan suluv, qaragin.
Nurlaringni taroq qilu
Sochlarini taragin.
Sen ilk bor chiqqan kecha
Qoshlariga o‘xshaysan.
To‘lganida o‘n sakkizday
Yoshlariga o‘xshaysan.
Rostini ayt, dunyo kezib
Shunday qizni ko‘rdingmi?
Nurlaringni taroq qilib,
Sochlarini o‘rdingmi?
Tan ola qol, hech qayerda
O‘xshashini ko‘rganing yo‘q.
Ham nurlaring taroq qilib
Sochlarini o‘rganing yo‘q.
Teng yo‘qdir bu dunyoda
Yagonadir, bittadir.
Ta’rifida qancha shoir
Yonib she’rlar bitgandir.
Quramanning bulog‘i ko‘p,
Bulog‘icha qishlog‘i.
Mard, iymonli xalqi bordir,
Mehr to‘la quchog‘i.
Qishloqlarning bittasida
Yashar u, men mushtoqi.
Sarvqomat, sho‘x, barkamol,
Lablari bol, pistoqi.
O, shum taqdir peshonamga
Azob, g‘ammi ko‘p ekkan.
Hech zamonda majruh yigit
Oshiq bo‘lmasin ekan.
Boray desam oyim yo‘q,
Qanot emas qo‘llarim.
Yo‘llar-ilon izi so‘qmoq,
Tog‘dir o‘ngu so‘llarim.
Oymomojon, oshiqligim,
Sendan o‘zga bilmasin.
Nurlaringday pok sevgimdan
Benavolar kulmasin.
Quramadan o‘tganingda,
Shoshma, asta-sekin jil.
O’sha qizning hovlisini
Yorit, oppoq, oydin qil.
Darchasidan boqib zora,
Senga tushsa ko‘zlari.
Bir zum sirli quchog‘ingda
Tutashsa ko‘z nurlari.
Yor vasliga to‘yib derdim,
Shunisiga ham shukur!
Aytardim ming bora senga
Shu asnoga tashakkur.

Ey to‘lin oy, men sevgan qiz,
Sendan suluv, qaragin.
Oqshomlari oqsoch bo‘lib,
Sochlarini taragin.

Yo‘lovchi

Otib borar bitta suvoriy,
Chaqin chaqnar tosh tuyoqlaridan.
Qay manzilga shoshar, bilmadim,
Va kelmoqda u qayerlardan.
Tuyoqlarning dupur-dupuri
Xonam ichra berar aks-sado,
Egar uzra mag‘rur o‘tirgan,
Yo‘lovchiga qilaman nido.
Osmon osti keng, yo‘l poyonsiz,
Yurgan daryo-o‘tirgan bo‘yra.
Ot jilovini bir zum torta qol,
Derazamdan bir lahza bo‘yla.
O‘tirsam-da qo‘lsiz oyoqsiz,
Hamroh deb bil, o‘zdan ko‘rma kam.
Bu bevafo dunyo yo‘lida
Yo‘lovchilar safida men ham.

Baxor

Qorlar erir tog‘larda,
Baxor kezar bog‘larda,
Novdalarda gunchalar,
Chiroylidir bunchalar,

Osmon ko‘m-ko‘k, beg‘ubor,
Unda baxor aksi bor.
Ochilibdi boychechak,
Baxordan u suylar ertak,

Erta-indin qushlar ham,
Chug‘urlashib bo‘lar jam.
To‘p-to‘p bo‘lib yelishar,
Gul sayliga kelishar.

Uchib kelar qaldirg‘och,
Deydi, «tez eshigingni och,
Uyingga in solaman
Do‘sting bo‘lib qolaman».

“TIL – MILLATNING BORLIG‘I, MILLIY-MA’NAVIY RUHIYATI”

**Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy
ishlar bo‘yicha birinchi prorektor,**

sanatshunoslik fanlari bo‘yicha

falsafa doktori, dotsent

Imankulova Inobat Maxkambayevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning millat borlig‘ini ifodalovchi asosiy omil sifatidagi o‘rni, uning milliy-ma’naviy ruhiyat bilan bog‘liq jihatlarini ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, filolog olim Mirzakulov Tursunali O‘taevichning o‘zbek tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi, uning ilmiy qarashlari va pedagogik faoliyati baholanadi.

Kalit so‘zlar: til, millat, ma’naviyat, nutq madaniyati, tilshunoslik, milliy identifikatsiya, antropotsentrizm

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi kunda milliy tillarni saqlash va rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylandi. Til nafaqat muloqot vositasi, balki millatning tarixi, madaniyati va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan ijtimoiy hodisadir.

“Til – millatning borlig‘i” degan g‘oya zamonaviy tilshunoslikda keng tarqalgan kontsepsiya bo‘lib, u tilning inson va jamiyat hayotidagi fundamental o‘rnini ifoda etadi.

Til va millat munosabatini ilmiy tahlil qilish orqali Mirzakulov Tursunali O‘taevichning mazkur sohadagi ilmiy merosini o‘rganish maqsad qilindi.

O‘zbek tilshunosligida tilning ijtimoiy va ma’naviy tabiatiga doir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Bu borada Mirzakulov Tursunali O‘taevichning ishlari alohida o‘rin tutadi.

Mirzakulov Tursunali O‘taevich 1966-yili Tojikiston Respublikasi Mastchoh tumani Cholota qishlog‘ida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sifatida o‘z ish faoliyatini boshladi. 1967-1971 yillari Leninobod (Xo‘jand) davlat pedagogika instituti talabasi, 1971-1976 yillari Leninobod (Xo‘jand) davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchi, 1982 yili shu kafedraning katta o‘qituvchisi bo‘ldi.

1980 yili Mirzakulov Tursunali O‘taevich gilologiya bo‘yicha fan nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Olim bo‘lish — bu faqat diplom yoki ilmiy unvon emas, balki uzoq davom etadigan ichki kurash, intizom va fidoyilik yo‘lidir. Bu yo‘l ko‘pincha tashqaridan jozibali ko‘rinsa-da, aslida katta mashaqqat va sabr talab qiladi. Avvalo, ilm yo‘li doimiy o‘rganishni talab etadi. Olim hech qachon “men hammasini bilaman” demaydi. Har bir yangi bilim — yangi savollarni tug‘diradi. Shu sababli, ilm bilan shug‘ullanuvchi inson doim izlanishda bo‘ladi, kechalari kitob o‘qiydi, maqolalar yozadi, tajribalar o‘tkazadi. Bu jarayon esa ko‘p vaqt va kuch talab qiladi.

Ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatsizliklar ko‘p uchraydi. Har bir tajriba muvaffaqiyatli chiqavermaydi, har bir maqola ham darhol qabul qilinmaydi. Ba‘zan oylar, hatto yillar davomida qilgan mehnat kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu paytda insonning sabri, ruhiy chidamliligi sinovdan o‘tadi.

Yana bir jihat — tanqidni qabul qilish. Ilmiy muhitda fikrlar doim bahs-munozara ostida bo‘ladi. Boshqalar sizning ishlaringizni tahlil qiladi, kamchiliklarini ko‘rsatadi. Bu esa oson emas, lekin aynan shu jarayon orqali olim o‘sadi, fikri charxlanadi.

Bundan tashqari, olimlik yo‘li ko‘pincha moddiy jihatdan ham oson emas. Ilmiy izlanishlar darhol katta daromad keltirmasligi mumkin. Shuning uchun bu yo‘lni tanlagan insonda ichki motivatsiya — bilimga muhabbat, haqiqatni izlash istagi kuchli bo‘lishi kerak.

Shu bilan birga, bu mashaqqatli yo‘lning o‘ziga xos zavqi ham bor. Yangi g‘oyani kashf qilish, muammoning yechimini topish, insoniyat bilimiga kichik bo‘lsa-da hissa qo‘shish — bu juda katta ruhiy qoniqish beradi.

Mirzakulov Tursunali O‘taevich ilm mashaqqatlaridan qochmadi, munozara va bahslarda o‘zining ilmiy qarashlarini doil ilgari surdi. Olimning ilmiy qarashlari ilmiy ishlarida til: ijtimoiy tizim sifatida, ma’naviy qadriyat sifatida, madaniy fenomen sifatida tadqiq qilindi.

1982-1987 yillari Mirzakulov Tursunali O‘taevich Leninobod davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida dotsenti bo‘lib, 1987-1992 yillari Leninobod davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti dekani o‘rinbosari, 1992-1994 yillari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi sifatida faoliyatini olb bordi. Mehnat faoliyati davomida qat’iyat va halollikni o‘zining doimiy shiyoriga

aylantirdi. Bunday yo‘lni faqat chin dildan ilmni sevgan, qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan insonlar oxirigacha bosib o‘ta oladilar. Mirzakulov Tursunali O‘taevich shunday olimlar sirasiga kiradi.

1995 yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutidagi ixtisoslashgan Kengashning komissiyasiga ko‘ra Mirzakulov Tursunali O‘taevichga filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi berildi.

Olim bo‘lish — bu sabr, mehnat, qat‘iyat va halollikni talab qiladigan yo‘l. Bu yo‘lni faqat chin dildan ilmni sevgan, qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan insonlar oxirigacha bosib o‘ta oladi.

Mirzakulov Tursunali O‘taevich 1995-2005 yillari Xo‘jand davlat universiteti sirtqi bo‘lim prorektori, umumiy tilshunoslik kafedrasini mudiri 2005-2017 yillari Navoiy davlat konchilik instituti Olmaliq kon-metallurgiya fakulteti “Gumanitar fanlar” kafedrasini professori, kafedra mudirilik faoliyatini olib bordi. 2007-2014 yillari ustoz O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi eksperti bo‘ldi. Eng yetuk olim nafaqat ilm yaratadigan, balki o‘zidan keyingi avlodni ham shakllantira oladigan olimdir. Ustozning yetishtirgan olim shogirdlari bugunda yurtimiz hamda hamdo‘stlik davlatlarda ham ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishmoqda.

Mirzakulov Tursunali O‘taevich shogirdlari: Rahmonqulov Abdunazar O‘zbek tilida morfologik fakultativlik (nomzodlik) Toshkent, 2000 yil, Mirzoaxmedov Muxtor Mavlonovich Мотивация синхронного словообразования в узбекском языке (nomzodlik) Xo‘jand, 2005, Uralov Azamat Begnarovich O‘zbek tili qo‘shimchalari tizimida murakkab va “kengaygan shakl”lar (nomzodlik) Toshkent, 2019, Tursunov Akmal Rahmatullayevich O‘zbek tilshunosligida yasama so‘z talqini (nomzodlik) Buxoro, 2021, Uralov Azamat Begnarovich O‘zbek tili morfologik shakllari tizimida nomutanosiblik (doktorlik DsC) Samarqand, 2024.

Mirzakulov Tursunali O‘taevich ilm bilan birga insoniy fazilatlarni ham o‘zida mujassam etgan ustozdir. Bunday olimni faqat bilim darajasi emas, balki uning shogirdlar qalbida qoldirgan izi ulug‘qiladi. Bunday olim bilim beruvchi emas, yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘ldi. U shogirdiga tayyor javobni bermadi, balki mustaqil fikrlashga o‘rgatdi. Natijada shogird faqat ma’lumot emas, tafakkur egasiga aylandi.

Ustoz adolatli va halol baholovchi hamdir. Shogirdlar uning bahosiga ishonadi, chunki u shaxsiy munosabatni emas, ilmiy mezonni ustun qo‘yadi. Bu esa Ustoz hurmatining eng muhim asoslaridan biridir. Bunday olim insoniy jihatdan ham ibrat bo‘ladi.

Mirzakulov Tursunali O‘taevich kamtarlik, sabr, samimiyat, mehnatsevarlikda shogirdlariga aynan shu fazilatlari bilan ham o‘rnak bo‘la oldi. Ustozning bunday kamtarin xulqi uning darsidan ham kuchliroq ta’sir qildi. Ustoz yana shogird muvaffaqiyatidan quvonadigan insondir. Haqiqiy ustoz shogirdining o‘zidan ham yuqoriga chiqishini istaydi. Shuningdek, bunday olim eslab qolinishni talab qilmaydi — uni unutishning iloji bo‘lmaydi. Shogirdlar yillar o‘tib ham uning nasihatlari, o‘gitlari va munosabatini yodda tutadi. Shogirdlari hurmat qiladigan olim — bu ilmni o‘rgatgan ustoz emas, balki hayotni o‘rgatgan murabbiydir. Uning haqiqiy bahosi ilmiy unvonlarda emas, balki shogirdlar qalbidagi ehtiromda namoyon bo‘ladi. Bugungi konferensiyada buning misolini sizlar bilan birga ko‘rib turibmiz.

Ilm va ma’naviyat bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Agar ilm faqat texnik yoki nazariy darajada qolib ketsa, u insonni komillikka yetaklamaydi. Olim esa o‘z bilimini ezgulikka xizmat qildirgan olganida, u **ziyoga** — **nurga** aylanadi. Ya’ni, u nafaqat ongni, balki qalbni ham yoritadi. 2007 yildan boshlab Mirzakulov Tursunali O‘taevich Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Toshkent viloyati va Olmaliq shahri bo‘linmasi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar guruhi a’zosi, 2016-2023 yillari Olmaliq shahar “Nuroniylar” Kengashi raisi o‘rinbosari bo‘lib faoliyat olib bordi.

Olim o‘zining **axloqi bilan ham ta’sir ko‘rsatadi**. Uning halolligi, adolati, kamtarligi va haqiqatparvarligi jamiyat uchun namuna bo‘ladi. Shuning uchun ham tarixda buyuk olimlar ko‘pincha ma’naviy yetakchi sifatida ham e’tirof etilgan.

Ustoz jamiyatda **to‘g‘ri yo‘nalish beruvchi kuch**dir. U yolg‘on va jaholatga qarshi ilm bilan kurashadi, insonlarni tafakkur qilishga undaydi. Bu esa ma’naviy uyg‘onishning eng muhim omillaridan biridir.

2022 yildan boshlab Mirzakulov Tursunali O‘taevich Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti “Pedagogika – psixologiya va umumta’lim fanlar” kafedrası professori, shuningdek, Samarqand davlat universiteti huzuridagi 10.00.01 – “O‘zbek tili” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy Kengash a‘zosi ham.

Mirzakulov Tursunali O‘taevich — faqat ilm egasi emas, balki **ma’naviyat nuri tarqatuvchi olim**dir. Uning haqiqiy qadri ilmiy kashfiyotlari bilangina emas, balki jamiyat qalbiga olib kirgan nur — ma’naviyati bilan o‘lchanadi.

Til – millat borlig‘ining asosiy belgisi . Til millatning eng muhim identifikatsion belgilaridan biri hisoblanadi . Millat o‘z tarixini til orqali saqlaydi, madaniy merosini til orqali uzatadi, milliy o‘zligini til orqali anglaydi. Shu ma’noda til yo‘qolsa, millatning ma’naviy qiyofasiga jiddiy putur yetadi.

Til va milliy-ma’naviy ruhiyat. Milliy ruhiyat — bu xalqning ichki dunyosi, qadriyatlari va dunyoqarashidir. Bu ruhiyat eng avvalo tilda namoyon bo‘ladi.

Til — milliy ma’naviyatning oynasi hisoblanadi.

Mirzakulov Tursunali O‘taevichning tadqiqotlarida nutq madaniyatiga alohida e’tibor berilgan bo‘lib , u nutqni shaxs ma’naviyatining ko‘rsatkichi sifatida baholaydi. Olimning tadqiqotlarida nutq madaniyati masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. U nutqni nafaqat tilning amaliy ko‘rinishi, balki shaxsning ma’naviy darajasini aks ettiruvchi mezon sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shuningdek, Mirzakulov Tursunali O‘taevichning ilmiy merosida: til va jamiyat munosabati, til taraqqiyotida ijtimoiy omillar roli, adabiy til me’yorlari va ularning shakllanishi kabi masalalar chuqur ilmiy asosda yoritilgan.

Olimning ilmiy -pedagogik faoliyati esa alohida e’tirofga loyiq . 60 yil davomida u yuzlab talabalarga bilim berdi, ko‘plab ilmiy shogirdlar tayyorladi, milliy tilshunoslik maktabining rivojiga hissa qo‘shdi. Bu jihat uni nafaqat olim, balki ustoz sifatida ham yuksak maqomga ko‘taradi.

Nutq madaniyati va shaxs kamoloti — bu tildan to‘g‘ri , maqsadga muvofiq va estetik jihatdan samarali foydalanish qobiliyatidir. Mirzakulov Tursunali O‘taevich fikricha, nutq madaniyati shaxs madaniyatining ajralmas qismi, to‘g‘ri nutq — ma’naviy yetuklik belgisi, tilga e’tibor — millatga hurmat ifodasidir.

Olim Mirzakulov Tursunali O‘taevichning 60 yillik pedagogik faoliyati davomida yuqorida qayd etilganidek, ko‘plab malakali kadrlar tayyorlangan, ilmiy maktab shakllangan, tilshunoslik sohasida yangi yo‘nalishlar rivojlangan. Bu esa ustozning ilmiy merosini yanada qimmatli qiladi.

Globalashuv sharoitida til masalasi tillar aralashuvini kuchaytirmoqda, milliy tillarga tahdid solmoqda, madaniy assimilyatsiyaga olib kelishi mumkin. Shu bois milliy tilni asrash, uni rivojlantirish, ta’limda samarali qo‘llash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Til — millatning borlig‘ini belgilab beruvchi asosiy omildir. U millatning tarixi , madaniyati va ma’naviy dunyosi bilan uzviy bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, til — millatning faqat aloqa vositasi emas, balki uning borlig‘ini belgilab beruvchi asosiy mezonidir.

Mirzakulov Tursunali O‘taevichning 60 yillik ilmiy -pedagogik faoliyati ana shu haqiqatni ilmiy asoslash va amaliyotga tatbiq etishga bag‘ishlangan. Uning ilmiy merosi bugungi va kelgusi avlodlar uchun muhim ma’naviy va ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mirzakulov Tursunali O‘taevichning ilmiy faoliyati mazkur g‘oyani ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**O‘zbek tilshunosligida morfemik paradigmatica va sintagmatika masalalari: professor
Tursunali Mirzakulov ilmiy merosi**

Baxtiyor Mengliyev
Turdibekov Mo‘min Turayevich
filologiya fanlari doktori, professor
Renessans ta‘lim universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: mominjonturdibekov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida morfemik paradigmatica va sintagmatika masalalarining ilmiy-nazariy asoslari professor Tursunali Mirzakulovning ilmiy merosi misolida tahlil qilingan. Unda morfemalarning paradigmatic va sintagmatic munosabatlari, ularning til tizimidagi o‘rni, grammatik ma’no ifodalashdagi funksional imkoniyatlari hamda morfologik tizimning ichki qonuniyatlari yoritilgan. Shuningdek, olimning o‘zbek morfologiyasi va so‘z yasalihi nazariyasiga qo‘shgan hissasi, morfemik tizimni struktur-funksional yondashuv asosida tadqiq etishdagi ilmiy qarashlari ochib berilgan. Maqolada morfemik paradigmatica va sintagmatika hodisalarining mumtoz adabiyot tili misollarida namoyon bo‘lishi ham ko‘rsatilib, bu yo‘nalishning bugungi tilshunoslikdagi nazariy va amaliy ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: morfema, morfemik paradigmatica, morfemik sintagmatika, paradigmatic munosabat, sintagmatic munosabat, morfologiya, so‘z yasalihi, grammatik shakl, affiks, Tursunali Mirzakulov, o‘zbek tilshunosligi, morfologik tizim.

O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida morfologiya va so‘z yasalihi masalalarini chuqur o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Til tizimining ichki qonuniyatlarini anglashda morfemalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash, ularning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada o‘zbek tilshunosligida salmoqli ilmiy maktab shakllangan bo‘lib, mazkur maktab rivojiga professor Tursunali Mirzakulovning ilmiy tadqiqotlari katta hissa qo‘shgan. Til tizimi o‘zaro bog‘langan birliklar majmuasidan iborat bo‘lib, unda fonema, morfema, leksema va sintaktik birliklar o‘zaro murakkab munosabatlar asosida faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur birliklarning har biri paradigmatic va sintagmatic munosabatlar orqali til tizimining yaxlitligini ta‘minlaydi. Morphemik paradigmatica va sintagmatika masalalari aynan shu jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Professor Tursunali Mirzakulov 1948 yilda sobiq Leninobod viloyati Mastchoh tumani Avziken qishloq yig‘inining Cholota qishlog‘ida tug‘ilgan. 1971 yilda Leninobod davlat pedagogika institutining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetini tamomlagan. Shundan so‘ng ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirib, o‘zbek tilshunosligining morfologiya sohasida izchil ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

1980 yilda “O‘zbek tilida shakl yasovchi affikslar” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1994 yilda esa O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutida “O‘zbek tili morfemik paradigmaticasi va sintagmaticasi masalalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, o‘zbek tilshunosligida muhim ilmiy nazariy yo‘nalishlardan birini rivojlantirdi.

Tilshunoslikda paradigmatica va sintagmatika tushunchalari mashhur shveytsariyalik tilshunos tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, til birliklari o‘rtasidagi ikki xil munosabatni ifodalaydi. Paradigmatic munosabat – bu bir xil vazifani bajaruvchi birliklarning tizimli qarama-qarshiligi va o‘zaro almashuv imkoniyatidir. Sintagmatic munosabat esa birliklarning nutq jarayonida ketma-ketlik asosida birikishidir.

Morfemik paradigmatica – morfemalarning tizim ichidagi o‘zaro qarama-qarshi munosabatlarini o‘rganadi. Masalan, o‘zbek tilidagi shaxs-son qo‘shimchalari quyidagi paradigmatic tizimni tashkil etadi:

boraman – borasan – boradi – boramiz – borasiz – boradilar.

Bu misolda -man, -san, -di, -miz, -siz, -dilar morfemalari bir paradigmatic tashkil etadi. Ular o‘zaro qarama-qarshi bo‘lsa-da, bir xil grammatik kategoriya – shaxs va sonni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Professor Mirzakulov o‘z tadqiqotlarida morfemalarning paradigmatic tizimini aniqlashda ularning semantik va funksional xususiyatlarini birgalikda tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydi. Chunki morfema faqat grammatik shakl emas, balki ma’lum semantik yukni ham tashiydi.

Bu jihat o‘zbek mumtoz adabiyoti tilida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Masalan, buyuk mutafakkir o‘z g‘azallarida turli morfologik shakllarni badiiy maqsadda keng qo‘llagan:

“Ko‘nglum ichra dardu g‘am nihon ayladim necha,

Ko‘rgan elga sirrimni ayon ayladim necha.”

Bu misrada “ayladim” fe‘l shaklida -di va -m morfemalari birikib, zamon va shaxs ma’nosini ifodalaydi. Bu morfemalar o‘z paradigmatic tizimi orqali grammatik ma’noni aniq ifodalashga xizmat qilmoqda.

Morfemik sintagmatika esa morfemalarning nutq jarayonida ketma-ketlik asosida birikishini o‘rganadi. Masalan: kitob + lar + im + ni

Bu yerda morfemalar ma’lum tartibda joylashgan. Agar tartib buzilsa, grammatik ma’no ham buziladi. Demak, morfemalarning sintagmatik joylashuvi til tizimining muhim qonuniyatlaridan biridir.

Mirzakulov o‘z ilmiy ishlarida morfemalarning sintagmatik imkoniyatlarini tahlil qilib, ularning birikish chegaralarini ham aniqlab beradi. Masalan, ayrim qo‘shimchalar faqat ma’lum turdagi so‘zlarga qo‘shila oladi. Bu esa morfemalarning distributiv xususiyatlari bilan bog‘liq.

Til tarixiga nazar tashlasak, morfemik tizimning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon mahsuli ekanligini ko‘ramiz. Qadimgi turkiy yodgorliklarda ham morfologik tizim ancha rivojlangan bo‘lgan. Masalan, asarida ko‘plab fe‘l va ot shakllari qayd etilgan.

Bu asar muallifi turkiy tillardagi qo‘shimchalarning vazifasi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. U ayrim qo‘shimchalarning semantik farqlarini ham ko‘rsatib o‘tadi. Morfemik paradigmatica masalasini o‘rganishda turkiy tilshunoslik an‘analariga ham tayanish muhimdir. Masalan, qadimgi turkiy matnlarda ko‘plik qo‘shimchasining turli variantlari uchraydi. Bu variantlar fonetik muhitga moslashib, turli shakllarda namoyon bo‘ladi.

Til taraqqiyoti jarayonida morfemalar semantik kengayish yoki torayish jarayonlarini ham boshdan kechiradi. Bu hodisa til evolyutsiyasining tabiiy natijasidir.

O‘zbek tilida so‘z yasashi tizimi ham morfemik paradigmatica bilan bevosita bog‘liq. Masalan:

yo‘z – yo‘zuvchi – yo‘zuvchilik – yo‘zuvchan

Bu yerda har bir qo‘shimcha yangi grammatik yoki leksik ma’no hosil qilmoqda.

Mumtoz adabiyotimizda ham morfologik shakllarning badiiy imkoniyatlari keng qo‘llangan. Buyuk shoir o‘z asarlarida tilning grammatik imkoniyatlaridan mohirona foydalangan.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, morfemik tizim tilning eng muhim struktur komponentlaridan biridir. Morfemalar nafaqat grammatik ma’nolarni ifodalaydi, balki tilning estetik va badiiy imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Professor Mirzakulov o‘z tadqiqotlarida morfemik tizimni struktur-funksional yondashuv asosida tahlil qilib, uning paradigmatic va sintagmatik munosabatlarini chuqur ilmiy asoslab berdi. Bu tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida morfologiya nazariyasining rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Bugungi kunda ham olimning ilmiy merosi yosh tadqiqotchilar uchun muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Til tizimini chuqur anglashda morfemik paradigmatica va sintagmatika masalalarini o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Professor Tursunali Mirzakulovning ilmiy faoliyati nafaqat nazariy tilshunoslik rivojiga, balki pedagogik jarayon takomiliga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. U uzoq yillar davomida oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritib, ko‘plab shogirdlar yetishtirdi.

Olimning ilmiy merosi o‘zbek tilshunosligining muhim sahifalaridan birini tashkil etadi. Uning tadqiqotlari morfologiya va so‘z yasashi nazariyasini yangi bosqichga ko‘targan ilmiy ishlardan hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida morfologik tizimning ichki qonuniyatlarini o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Til tizimining eng muhim birliklaridan biri bo‘lgan morfema

nafaqat grammatik shaklni, balki ma’no va funksiyani ham ifodalaydi. Shu sababli morfemalarning tizim ichidagi munosabatlarini aniqlash, ularning paradigmatic va sintagmatik imkoniyatlarini o‘rganish tilshunoslikning muhim nazariy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida ushbu yo‘nalishning shakllanishi va rivojida filologiya fanlari doktori, professor Tursunali Mirzakulovning ilmiy tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Olim o‘zining ilmiy izlanishlarida morfemik tizimni chuqur tahlil qilib, morfemalarning paradigmatic va sintagmatik xususiyatlarini aniqlashga katta e’tibor qaratgan.

Til – murakkab va ko‘p qatlamli tizim bo‘lib, unda har bir birlik boshqa birliklar bilan muayyan munosabatlarga kirishadi. Til birliklari o‘rtasidagi bunday munosabatlar paradigmatic va sintagmatik munosabatlar orqali namoyon bo‘ladi. Paradigmatic munosabat bir xil vazifani bajaruvchi birliklarning tizimli qarama-qarshiligini ifodalaydi. Sintagmatik munosabat esa birliklarning nutq jarayonida ketma-ket birikishidir. Morfemalar ham aynan shu ikki turdagi munosabat orqali til tizimida faoliyat ko‘rsatadi.

Professor Mirzakulov o‘z tadqiqotlarida morfemik paradigmatica tushunchasini o‘zbek tilining grammatik tizimi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladi. Uning fikricha, har bir morfema o‘z paradigmasiga ega bo‘lib, u boshqa morfemalar bilan o‘zaro qarama-qarshi munosabatda bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi shaxs-son qo‘shimchalari bir paradigmatic tizimni tashkil etadi:

boraman – borasan – boradi – boramiz – borasiz – boradilar.

Bu misolda -man, -san, -di, -miz, -siz, -dilar morfemalari shaxs-son kategoriyasining paradigmatic qatorini hosil qiladi. Ularning har biri grammatik ma’no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lsa-da, umumiy funksional tizimga kiradi.

Morfemik sintagmatika esa morfemalarning nutq jarayonida bir-biri bilan qanday ketma-ketlikda birikishini o‘rganadi. Masalan:

kitob + lar + im + ni

Bu struktura o‘zbek tilida morfemalarning qat’iy tartibda joylashishini ko‘rsatadi. Agar morfemalar tartibi o‘zgarsa, grammatik ma’no ham buziladi. Shu sababli morfemik sintagmatika til tizimining muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi.

Morfologik tizimni chuqur o‘rganishda mumtoz adabiyot tili ham muhim manba hisoblanadi. Buyuk mutafakkir asarlarida morfologik shakllarning boy imkoniyatlari keng namoyon bo‘ladi. Navoiy g‘azallarida fe’l shakllari va affikslarning badiiy vazifasi ayniqsa diqqatga sazovordir:

Ko‘nglum ichra dardim nihon ayladim necha,

Ko‘rgan elga sirrimni ayon ayladim necha.

Bu baytda “ayladim” fe’l shakli tarkibidagi -di va -m morfemalari zamon va shaxs ma’nolarini ifodalaydi. Morfemalarning bunday uyg‘unligi grammatik ma’noni aniq ifodalash bilan birga badiiy ohangni ham kuchaytiradi.

Morfemik paradigmatica hodisasi asarlarida ham yorqin ko‘rinadi. Boburning g‘azallarida fe’l shakllarining turli variantlari nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.

Bu misolda -sa shart mayli qo‘shimchasi paradigmatic tizimning muhim elementi sifatida namoyon bo‘ladi. U fe’lning shart ma’nosini ifodalaydi va boshqa mayl shakllari bilan paradigmatic munosabatga kiradi.

Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandasi asarlarida ham morfologik shakllarning boyligi ko‘zga tashlanadi. Ogahiy g‘azallarida ko‘plik, egalik va zamon qo‘shimchalari badiiy ifodaning muhim vositasiga aylanadi. Masalan:

Ko‘rdum seni, ey dilbar, ko‘nglum yana shod bo‘ldi.

Bu misolda “ko‘rdum” shakli tarkibidagi -du va -m morfemalari zamon va shaxs ma’nolarini ifodalaydi.

Ma’rifatparvar shoir ijodida ham morfologik shakllarning nutqiy imkoniyatlari keng qo‘llanadi. Furqat she’rlarida zamon, mayl va shaxs qo‘shimchalari badiiy ifodaning muhim vositasiga aylangan. Masalan:

Ilm o‘rganmoq har kishiga farzdur.

Bu misolda -moq infinitiv qo‘shimchasi fe‘lning umumiy harakat ma’nosini ifodalaydi.

Morfemik paradigmatika va sintagmatika masalalarini o‘rganish til tizimining ichki tuzilishini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Professor Mirzakulov o‘z tadqiqotlarida morfemik tizimni struktur-funktsional yondashuv asosida tahlil qilib, o‘zbek tilshunosligida yangi ilmiy yo‘nalish rivojiga zamin yaratdi.

Tilshunoslikda morfemalarning paradigmatic va sintagmatic munosabatlarini o‘rganish nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Chunki bu tadqiqotlar grammatik tizimni chuqur anglashga, lug‘at tuzish va til o‘qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Professor Mirzakulovning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Uning tadqiqotlari o‘zbek tilshunosligida morfologiya nazariyasining rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan ilmiy ishlardan hisoblanadi. Olimning ilmiy faoliyati yosh tadqiqotchilar uchun muhim metodologik maktab vazifasini o‘tamoqda.

Умр мазмунини тил билан уйғунлаштирган олим ёхуд маънавий-маърифий баркамоллик йўлида...

***ТДИУ Фалсафа кафедраси профессори,
сиёсий фанлар доктори, Ваҳоб Қўчқоров***

Инсон ҳаёти ва умр мазмунини инсонни ким ва қандай эканлиги билан ўлчаниши бежиз эмас. Албатта, инсоннинг “Мен”и ва “Мен”ини ахтариб яшаган инсон ҳаётининг мазмуни ўзига хос хусусиятлар билан алоқадор. Шундай экан, дунёда инсон ўз ўрнини билиши ва маълум тамойиллар орқали умргузаронлик қилиб дўстлари ва ҳамюртлари орасида обрў топиши инсонийлик белгиси ҳисобланади. Айниқса, илму фан билан шуғулланиб, эл юртда обрўй топганлар, ёзган мақолалари, фанга, тараққиётга хизмат қилиб илму-фанда ўз овозига эга бўлганлар чинакам бахт ва ҳаёт мазмунини баҳоли қудрат ўтказганлар чин инсонлик бурчини бажарганлар қаторига киради. Аслида илм бу ижодкорликдир. Илм ва ижод бир-биридан фарқли иккита турлича соҳадир. Илм, бу – билим, фан, назария. Янада содда қилиб айтганда, “илм” тушунчаси ўқиш ва ўрганиш, тадқиқ ва таҳлил этиш орқали эришиладиган кўникма ва маълумотлар, деганидир. “Ижод” сўзи эса яратиш, кашф этиш, вужудга келтириш, деган луғавий маъноларни англатади. Яъни, ижод – бадиий, илмий, санъатга оид асар ёки моддий бойлик яратиш, таъбир жоиз бўлса, яратувчанлик фаолияти, демакдир. Ўз навбатида, ижоднинг ҳам турлари кўп. Адабиёт, санъат, фалсафа ва турфа фанлар билан ўзаро уйғунлик.

Дарҳақиқат, фан, ижодкорлик ва ана шу турлар орасида ўзига хослиги ҳамда долзарб ижтимоий-сиёсий ва маданий-маърифий аҳамияти билан ажралиб туради. Яна бир муҳим жиҳат, ўнлаб шогирдларни ўз йўлида илму фанда ўз ўрнини топишида ёрдам бериб сарварлик қилиши устозликнинг олий мақоми десак муболаға бўлмайди. Минглаб шогирдларга олам ва одам сирларини, ўзбек тилининг ўзга хос жиҳатларини, ҳаёт мазмунини, юксак маънавият ва маърифатни ўргатиб одамийликдан сабоқ бериш орқали обрўй топиши чин устоз маъсулиятини ҳис этишдир.

Биз ҳикоя қилмоқчи бўлган ва юқоридаги сифатларга хос бўлган ҳамда, филология, фалсафа, сиёсат оламида ўз ўрнига ва обрўга, сўзига эга бўлган шахс, филология фанлари доктори профессор Мирзакулов Турсунали Ўтаевич, устозимиз ўзининг 78 йилликлари ва илмий-педагогик фаолиятининг 60 йиллини нишонлаш арафасида.

Табиийки, профессор Турсунали Мирзакулов деганда ўзига хос пурсавлат, жиддий боқишлари, файласуфона мушоҳадалари билан фикр чанқоғини жумбушга келтира оладиган ҳамсухбат инсон кўз олдингизда гавдаланади. Дарвоқе, мен устозни талабалик аудиториясидан, яъни 1983 йилдан, ЛДПИ хорижий тиллар факультетида ўқиш давриданок яхши биламан. Ўшанда устоз, Т.Мирзакулов бизларга иккита фандан маъруза ва амалий машғулотлар олиб борар эдилар. Булар “Тилшуносликка кириш” ва “Ҳозирги ўзбек адабий тили” дан ҳам назарий маъруза ва амалий курсларни олиб борганлар ва бу фанлар биз инглиз тили талабалари ва умуман тилни билувчилар учун асосий фанлардан ҳисобланар эди. Курс охирида имтиҳонларни “аёло” га курс бўйича икки киши топширишга муяссар

бўлдик. Домла фанни шунчалар ҳам илмий ва ҳам ҳаётий қилиб ўтган эдиларки, бу фанлар биз талабалар учун, бир умрлик ёдда қоладиган десам муболаға бўлмайди. Устоз шунчалар дарсга жиддий ва айти пайтда талабчан, ҳар бир талабани педагогик ва психологик хусусиятини обдан яхши ўрганган ҳамда мавзунини аниқ ва тушунарли, соф ўзбек тилида чиройли етказа олардилар. Яна бир муҳим жиҳати, ҳар бир ўтирадиган мавзу онда, хотирада яхши муҳрланиб қолардики, бунинг аҳамиятини кундалик тажрибамизда фойдаланиб турганлигимизни таъкидлаш жоиз. Сабаби, устоз жуда талабчан ва ҳар бир маъруза ўзига хос хусусиятга эга бўлиб, ўрта мактабдаги билимларимиз тўлдирилиб, деярли фанни ёдлаб, “уқиб” олардик десам тўғри фикрни айтган бўламан. Ж. Абдурахмонов маълумлар бошчилигида тайёрланган “Ҳозирги ўзбек адабий тили” китоби сарик рангда бўлиб, ҳар бир мавзунини бетларига эсимизда қолар эди...

Инсонни баҳолашда ва уни барча ўлчовларни мезони деб аллома Абдер Протагор бекорга айтмаган. Айнан профессор Турсунали Мирзакулов акани ботиний ва зоҳирий томонидан инсоний хусусиятларини ёритганда, у киши билан узоқ вақт кузатиш, билиш, мушоҳада жараёнлари билан ҳам билвосита ва ҳам бевосита мулоқотда бўлиш лозим бўлади. Зеро, Турсунали Мирзакуловни ҳам шахс, ҳам педагог ва тилшунос, забоншунос олим, қолаверса инсоний хусусиятларини, имиджини ёритишда бир қатор ҳолатларни, имиджини изоҳлашга ўтиш ўринли.

Улардан бир нечталарини келтириб ўтиш мақсадга мувофиқ:

Биринчидан, Профессор Турсунали Мирзакуловнинг илмий педагогик фаолиятига назар ташласак қуйидагилар маълум бўлади. Табиийки, ҳар соҳанинг эътироф этилган арбоблари, пиру муршидлари бўлади. Шундай йирик дарғалардан бири – таниқли олим, устозимиз, филология фанлари доктори, профессор Турсунали Мирзакулов 78 ёшга тўлди. Устознинг ҳаёт йўллари мурожаат этсак қуйидаги Инсон умри қанча яшагани билан эмас, балки қилган ишлари билан ўлчанади, дейди доно халқимизнинг ибратига мингазсак тўғри бўлади. Тожикистон Ресубликаси Сўғд (Ленинобод вилоятида) зиёли оиласида вояга етган бу инсон бошланғич синф ўқитувчилигидан фан доктори даражасига бўлган зафарли йўлни босиб ўтди.

Ленинобод давлат педагогика институти тарих филология факультетининг ўзбек тили ва адабиёти бўлимини имтиёзли диплом билан тугатиб, шу таълим муассасасида ўзининг илмий – педагогик ижтимоий фаолиятини бошлади. У дастлаб ўзбек тили ва адабиёти кафедрасида ўқитувчи, катта ўқитувчи, сўнг кафедра доценти, филология факультети декани муовини, катта илмий ходим, сиртки бўлим проректори, кафедра мудири лавозимларида ишлади.

Буюк ҳадиснавис Имом Бухорий раҳматуллоҳи алайҳнинг машҳур сўзларидан бирида “Илмдан бошқа нажот йўқ ва бўлмаган!”,- деганлар. Дунёда ҳам, охирада ҳам инсонга илмдан кўра кўпроқ фойда келтирадиган нарса йўқ. Жаҳолатдан-да кўра зарар берувчи нарса ҳам йўқ. Шу маънода устоз изланишлари ва илмий салоҳияти бошқа олимга шогирдлар учун катта мактаб ва иш фаолиятининг ғоят серқирра, ибратлилиги бу инсонни ҳамюртлари, ҳамкасблари орасида азиз қилди. Т. Мирзакулов бу даражаларга илмга бўлган муҳаббати, касбига бўлган садоқати, олимлик машаққатларига бўлган матонатни орқали эришди. Машҳур туркийшунос олим, профессор А. Ғуломов раҳбарлигида “Ўзбек тилида шакл ясовчи қўшма аффикслар” бўйича илмий изланишлар олиб борди. Унинг “Қўшма аффикслар ҳосил бўлишдаги етакчи усуллар” (1977), “Аглютинатив ва флектив тилларнинг бир хусусияти ҳақида” (1977), “Кенгайган шакл ва қўшма аффикслар муносабати” (1979), “Қўшма аффикслар ва уларга ёндош ҳодисалар” (1983) каби қатор мақолалари ҳамда 1980 йилда ТошДУ да ҳимоя қилган “Ўзбек тилида шакл ясовчи қўшма аффикслар” мавзусидаги номзодлик диссертацияси мана шу изланишларнинг самараси ҳисобланади. Академик А.П. Ҳожиёвнинг фикрича,

Таниқли тилшунос олим Т.Ў. Мирзакулов “амалга оширган илмий тадқиқот ўзбек тилшунослигида янги йўналиш очади, нафақат морфемика масалалари, балки бошқа соҳаларнинг муаммоларини ҳам тўғри ҳал қилишга кўмаклашади”.

Иккинчидан, устоздаги муҳим бир олам, имидж - бу салмоқли олимлар, шогирдлар тайёрлашдаги фаолиятларидир. Дейдиларким, буюк форс-тожик шоири “Саъдий Шерозийнинг «Бўстон» асаридан, “Хар кишидан қолмаса нишон у бир мевасиз дарахтдир бил бегумон”инсон ҳаётининг мазмуни, ортидан қолдирадиган яхши номи ва эзгу амаллари ҳақида қайғуришини назарда тутсак, бу борада ҳам устознинг омади чопган. 2007 – 2014 йиллари Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий атестация комиссияси таркибида юқори малакали илмий ходимлар тайёрлаш ишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшган. Унинг раҳбарлигида олти докторлик ва номзодлик диссертацияси муваффақиятли ҳимоя қилинди. Айни пайтда унинг бир қатор шогирдлари номзодлик ва докторлик диссертацияларини ҳимоя қилиш арафасида турибди.

Устоз сабоқ берган, биргина ЛДПИ хорижий тиллар факултетидан, таниқли мутаржим, Авестодан, “Алпомиш” достони, лапарлар сингари ўзбек халқ ижодиётига мансуб ёрқин асарлар ҳамда бугунги кундаги шеърининг асл намуналарини мумтоз адабиётимиз намояндаларидан Алишер Навоий ғазаллари ва ҳикматларини, Заҳриддин Муҳаммад Бобур ғазалларини инглиз тилига таржима қилган профессор, Қосим Маъмуров, сиёсий фанлар доктори, профессор камина Ваҳоб Қўчқоров, таржимон ва кўплаб хорижий компанияларда фаолият юритган Муҳиддин Ганиев ва бошқаларни келтириш ўринли.

Учинчидан, Олим илмий изланишларини педагогик фаолият билан чамбарчас боғлиқ ҳолда олиб борди. Унинг олий ўқув юртлари талабалари учун мўлжаллаган “Морфемика, сўз ясалиши, морфология” (1988), “Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспекти ва уларнинг муносабати” (1992), “Тилшуносликка кириш” (1996), “Туркий ва ўзбек тилшунослиги тарихидан лавҳалар” (1996) қўлланмалари ва “Ўқитувчи” нашриётида 13000 нусхада чоп этилган “Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари” китоби (1994) тил ўқитишда алоҳида аҳамият касб этиб келмоқда. Шу вақтгача 20 дан ортиқ ўқув ва ўқув услубий қўлланмалар, 280 га яқин илмий мақолалар эълон қилган. Т. Мирзакуловнинг илмий изланишлари доираси кенг. Тарих, этнография, фольклор масалалари ҳам унинг қизиқишлари доирасидан четда қолмаган. Кўп йиллик илмий тадқиқотлари ҳаммуаллифликда яратилган фундаментал “Олмалиқ китоби” (“Олмалиқ тарихи”, Тошкент, 2021) да жамланган. Буюк мутафаккир А. Навоий ижодини ўрганиш юзасидан қатор илмий ишлар эълон қилган. “А. Жомий ва А. Навоий - қардошлик ва дўстлик меъмори” (1990), “А. Навоий ва маъно илмининг айрим масалалари” (1991), “А. Навоий ва ўзбек тилининг ижтимоий-бадний мақоми” (1991), “Сомонийлар даврида тилларнинг мавқеи ва ўзаро таъсири ҳақида” (1990), “Тожик тилидаги туркий ўзбекча сўзлар” (2000) “А. Жомий ва А. Навоий ижодининг Шарқ Ренессансидаги ўрни” (2025) номли мақолалари шу соҳадаги қизиқишларнинг меваси ҳисобланади. Сўнги йиллар мобайнида ҳам кўплаб илмий назарий ва илмий амалий анжуманларда ҳам фаол иштирок этиб келмоқдалар.

Илму фан фидойиси Т. Мирзакулов ҳам ОАВ ва илмий журналлардаги мақолалари, тезислари Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев томонидан белгилаб берилган стратегияни хусусан, тилшунослик, ва умуман гуманитар фанлари йўналишидаги фанлар ҳамда уларнинг, прагматик мазмун-моҳиятини, амалга ошириш механизмларини асослаб бериш борасидаги долзарб илмий назарий, илмий амалий йўналишларни ўз ичига олган. Бугунги кунда барқарор тараққиётга таҳдид ҳисобланган Коррупцияга қарши курашдан тортиб, таълим сифати, ижтимоий муаммолар ва уларнинг фалсафий ечими билан алоқадор салмоқли мақолалари билан илмий фалсафий жамоада обрўйга ўзини “мени”га хос бўлган олимдир. “Илм-фан билан шуғулланиш, янги кашфиёт ва ихтиролар қилиш игна билан қудуқ қазишдек гап, - деди Президентимиз. Шундай экан, бу машаққатли соҳада фидокорона меҳнат қилаётган олимларимиз меҳнати таҳсин ва рағбатга муносиб. Мамлакатимиз ва жамиятимизнинг замон талаблари даражасида ривожланишини илм-фансиз тасаввур қилиш қийин. Илм-фан тараққиётида фундаментал тадқиқотлар муҳим аҳамият касб этади. Айнан улар орқали янги билимлар ўзлаштирилади ва назариялар шакллантирилади, келгуси амалий тадқиқотлар ва инновацион ишланмалар учун

мустаҳкам асос яратилади”¹. Илмни юксак қадрлаган олим Т.Мирзакулов Олмалик Ипак йўли инновациялар университети профессори сифатида фаолият юритиб келмоқда ва устознинг ўнлаб шогирдлари баҳоли қудрат устоз изидан борётганлиги фахр ифтихор туйғусидир.

Тўртинчидан, устоз Т.Мирзакуловдаги инсонийлик, шогирдпарварлик, қолаверса, устоздаги шогирдларга нисбатан, талабчанликда ва уларга меҳр кўрсатишида. Илмий ҳимояни ўзи бўлмайди. Ҳар бир шогирдларини дардини ҳаракатини жиддий кузатиб, уларга ёрдам кўрсатиб оталарча ғамхўрлик қилади. Уларнинг муваффақиятларидан қувониб, камчиликларига шерик бўлади.

Умуман олганда, устознинг бахти ва тахти ҳисобланган оиласи, ошёнидир ва айтиш мумкинки Турсунали ака том маънода оилапарвар инсон. Унинг фарзандлари, набиралари олий маълумотли давлат ва жамият ташкилотларида фаолият кўрсатади. Катта фарзандлари Музаффар ота изидан бориш ва илм қилиб, оилавий сулолада илмий ворисийликни давом эттиришга ҳаракат қилмоқда. Оилада тинчлик ва осойишталик, ҳукм суради. Бир сўз билан айтганда бахтли хонадон. Умрингиз бунданда зиёда бўлсин, бахт ва омад Сизни тарк этмасин деймиз.

ТУРСУНАЛИ МИРЗАКУЛОВ, ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ДОКТОРИ, ИПАК ЙЎЛИ ИННОВАЦИЯЛАР УНИВЕРСИТЕТИ ПРОФЕССОРИ

**Ипак йўли инновациялар университети
“Иқтисод ва амалий математика”
кафедраси дотценти, физика-математика
фанлари номзоди Шаҳобиддин Бекматов**

Маърифат йўлида собитқадам инсон

Ўзбек тилшунослиги ривожига муносиб ҳисса қўшган олимлардан бири — Мирзакулов Турсунали Ўтаевич 1948-йил 10-майда Тожикистон Республикасининг Ленинобод вилоятида таваллуд топган. Миллати ўзбек бўлган бу инсон бутун умри давомида илм-маърифат йўлини танлаб, юксак фидойилик билан хизмат қилиб келмоқда.

Унинг меҳнат фаолияти 1966–1967-йилларда Мастшоҳ тумани Чолота қишлоғида бошланғич синф ўқитувчиси сифатида бошланган. Ёш педагогнинг илмга чанқоқлиги уни 1967–1971-йилларда Ленинобод (Хўжанд) давлат педагогика институтида таҳсил олишга ундади. Олий таълимни муваффақиятли тамомлагач, у шу даргоҳда “Ўзбек тили ва адабиёти” кафедрасида ўқитувчи сифатида фаолиятини давом эттирди. 1976–1982-йилларда катта ўқитувчи, 1982–1987-йилларда доцент сифатида фаолият юритиб, илмий-педагогик тажрибасини янада бойитди. 1987–1992-йилларда филология факултети декани ўринбосари сифатида ёш мутахассисларни тарбиялашда муҳим рол ўйнади. 1992–1994-йилларда Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тил ва адабиёт институтида катта илмий ходим бўлиб ишлади. 1994–1995-йилларда Хўжанд давлат педагогика институтида “Умумий тилшунослик” кафедрасига раҳбарлик қилди. 1995–2005-йилларда эса Хўжанд давлат университетида сиртки бўлим проректори ва кафедра мудури сифатида самарали фаолият олиб борди.

2005–2017-йиллар давомида Навоий давлат кончилик институти Олмалик кон-металлургия факултетида “Гуманитар фанлар” кафедраси профессори ва мудури сифатида ишлади. Шу билан бирга, 2007–2014-йилларда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси эксперти сифатида илмий кадрлар тайёрлаш жараёнига ўз ҳиссасини қўшди. 2007-йилдан буён Республика Маънавият ва маърифат марказининг Тошкент вилояти ҳамда Олмалик шаҳар бўлинмаларида “Маърифат” тарғиботчилар гуруҳи аъзоси сифатида фаолият юритиб келмоқда. 2016–2023-йилларда Олмалик шаҳар “Нуронийлар” кенгаши раиси ўринбосари сифатида жамият ҳаётида ҳам фаол иштирок этди.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Янги йил арафасида – 2016 йил 30 декабрь куни мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намояндалари билан учрашди. <https://president.uz/uz/lists/view/169>.

2023-йил 20-февралдан бошлаб Ипак йўли инновациялар университетида “Педагогика – психология ва умумтаълим фанлар” кафедраси профессори сифатида фаолият юритмоқда. 2022-йилдан эса Самарқанд давлат университети хузуридаги “Ўзбек тили” ихтисослиги бўйича илмий кенгаш аъзоси сифатида илмий жамоатчиликда ўз ўрнига эга.

Профессор Т. Мирзакуловнинг илмий мероси ниҳоятда бой. У томонидан 250 дан ортиқ илмий ишлар чоп этилган бўлиб, улардан 20 таси ўқув қўлланма, 2 таси услубий қўлланмадир. Унинг илмий изланишлари тилшуносликнинг долзарб масалаларига, хусусан, морфемика, тил типологияси, туркий тиллар тарихий тараққиёти ва шевашунослик йўналишларига бағишланган.

Олим 1980-йилда ТошДУда номзодлик, 1994-йилда эса Фанлар академияси Тил ва адабиёт институтида докторлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилган. Унинг “Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари” номли докторлик диссертацияси ўзбек тилшунослигида янги илмий йўналиш — морфемика назариясини асослаб бергани билан алоҳида аҳамиятга эга.

1994-йилда “Ўқитувчи” нашриётида чоп этилган “Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари” асари олий ва умумтаълим муассасалари учун муҳим қўлланма сифатида кенг қўлланилмоқда. Шунингдек, унинг муаллифлигида яратилган “Олмалик китоби” юртимиз тарихий-маънавий ҳаётида муҳим воқеа бўлди.

Унинг раҳбарлигида 6 нафар илмий тадқиқотчилар докторлик ва номзодлик диссертацияларини ҳимоя қилган бўлиб, ҳозирда ҳам бир қатор олимлар унинг илмий мактабида етишиб чиқмоқда.

У 2001-йилда “Тожикистон маорифи аълочиси” ҳамда “Олий таълим аълочиси” кўкрак нишонлари билан тақдирлангани бежиз эмас. Бу юксак эътироф унинг йиллар давомида илм йўлида қилган фидокорона меҳнатлари, таълим тизимида қўшган бекиёс ҳиссаси ва юзлаб, минглаб шогирдлар қалбида ёкқан маърифат масҳаласининг ёрқин натижасидир. Умумий иш стажининг 60 йилни ташкил этиши эса унинг бутун умрини илм-фан, таълим ва тарбия йўлига бағишлаганининг, бу йўлдан ҳеч оғишмай, собитқадамлик билан хизмат қилганининг яққол далилидир. Шу билан бирга, Мирзакулов Турсунали Ўтаевич нафақат етук олим ва моҳир устоз, балки ўз оиласига меҳрибон ва садоқатли инсон сифатида ҳам алоҳида эътирофга лойиқдир. У ҳаётнинг ҳар бир жабҳасида мувозанатни сақлаб, илмий фаолияти билан бир қаторда оила бағрида ҳам меҳр-оқибат, ҳурмат ва эътибор тимсоли бўлиб келмоқда. Унинг инсоний фазилатлари — самимийлик, камтарлик ва бағрикенглик — уни нафақат илмий жамоа, балки яқинлари, дўстлари ва ҳамкасблари орасида ҳам юксак обрў-еътибор соҳибига айлантирган.

Устоз сифатида у жамоада ҳамиша ҳурмат билан тилга олинади. Ҳамкасблари унинг ҳар бир ишга масъулият билан ёндошишига ва кенг дунёқарашига юксак баҳо берадилар. Дўстлари эса уни садоқатли, ишончли ва доимо кўмакка тайёр инсон сифатида қадрлайдилар. Бундай фазилатлар эса ҳар қандай инсонни улуғлайдиган, унинг ҳаёт йўлини янада мазмунли қиладиган бебаҳо ҳислатлардир. Хулоса қилиб айтганда, Мирзакулов Турсунали Ўтаевичнинг ҳаёт йўли — бу илмга садоқат, устозликка фидойилик, оилага меҳр ва инсонийликка хизматнинг ёрқин тимсолидир. У нафақат илм аҳли, балки кенг жамоатчилик учун ҳам ибрат бўлиб хизмат қиладиган сиймо, ёш авлод учун эса чинакам ҳаёт мактабидир.

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR TURSUNALI O‘TAEVICH
MIRZAQULOVNING ILMIY MAKTABI VA MA’RIFIY FAOLIYATI UCHINCHI
RENESSANS SHAKLLANISHI KONTEKSTIDA**

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti, “Pedagogika-psixologiya
va umumta’lim fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Usmanova Mashkura Mirzoroximovna

Annotatsiya. Maqolada filologiya fanlari doktori, professor T. O‘. Mirzaqulovning ko‘p qirrali ilmiy-pedagogik va ma’rifiy faoliyati tahlil qilingan. Muallif olimning zamonaviy O‘zbekiston filologiya maktabi rivojiga qo‘shgan hissasini avlodlar vorisiyligi va uchinchi

Renessans konsepsiyasini amalga oshirish prizmasi orqali ko‘rib chiqadi. T. O‘. Mirzaqulovning o‘tmishning buyuk mutafakkirlari (M. Qoshg‘ariy, A. Navoiy, Z. M. Bobur) merosiga, jadidlarning islohotchilik faoliyatiga, shuningdek, akademik T. N. Qori-Niyozov va professor A. G‘ulomovning fundamental asarlariga bag‘ishlangan tadqiqotlariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Ishda professornig ommaviy axborot vositalari va televideniye orqali gumanitar bilimlarni ommalashtirishdagi roli ta’kidlangan. Maqolaning ilmiy diskursi o‘zbek ilmiy terminologiyasining shakllanishi, morfonologiya, aksentologiya va turkiy tillarning tizimli tahlili masalalarini qamrab oladi. Maqolada T. O‘. Mirzaqulovning faoliyati millatning intellektual merosini saqlab qolish va O‘zbekistonning yangi madaniy hamda ilmiy yuksalishi uchun poydevor yaratishda muhim omil ekanligi haqidagi tezis asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: T. O‘. Mirzaqulov, uchinchi Renessans, o‘zbek filologiyasi, ilmiy vorisiylik, lingvistik meros, Ayub G‘ulomov, T.N. Qori-Niyozov, turkiy tilshunoslik, jadidchilik, terminologiya, milliy ma’rifat, madaniy identifikatsiya.

Filologiya fanlari doktori, professor Tursunali O‘tayeovich Mirzaqulov zamonaviy o‘zbek filologiya maktabining fundamental asoslarini rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan yetakchi olimlardan hisoblanadi. Uning ilmiy faoliyati nazariy izlanishlar va jamiyatda gumanitar tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining dialektik birligi bilan xarakterlanadi.

T.O‘. Mirzaqulov 2005-yildan e‘tiboran respublika yetakchi davriy matbuotida ilmiy-ma’rifiy tadqiqotlarini muntazam nashr ettirish bilan shug‘ullanadi. Uning “Ma’rifat”, “Milliy tiklanish”, “Adabiyot ziyosi” kabi nashrlardagi publikatsiyalari adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari va madaniyatshunoslikning konseptual masalalari tahlilida ilmiy metodologiyaning qat’iyligi bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, olim mintaqaviy va sohaviy matbuot nashrlari bilan konstruktiv hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, “Olmaliq hayoti”, “Ohangaron hayoti”, “Angren hayoti”, shuningdek, “Rangli metallar” va “Almalykskiy rabochiy” kabi nashrlarda o‘z tadqiqot natijalarini tizimli ravishda yoritib boradi. Ushbu yondashuv fundamental fanning ijtimoiy amaliyot bilan integratsiyalashuvini ta’minlash hamda jamiyatda intellektual muhit barqarorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Professor T. O‘. Mirzaqulov “O‘zbekiston tarixi”, “Mahalla” va “Olmaliq telekanali” kabi teleradiokanallarning qator ma’rifiy media-loyihalarida asosiy ekspert sifatida faoliyat yuritadi. Olim o‘z chiqishlari va ma’ruzalarida:

1. O‘tmishning buyuk mutafakkirlari va davlat arboblari ijodiy yo‘lini chuqur tahlil qilish, ularning g‘oyalarini zamonaviy chaqiriqlar va voqeliklar kontekstida talqin etish.
2. O‘zbekiston suvereniteti shakllanishi bosqichlarini hamda milliy o‘zlikni shakllantirishda muhim davlat sanalarining ahamiyatini tadqiq etish.
3. Uchinchi Renessans strategiyasini amalga oshirishda ajdodlar ma’naviy merosining fundamental poydevor sifatidagi rolini ilmiy asoslash kabi konseptual yo‘nalishlarni yoritib beradi

Muallif ijodiy faoliyatida o‘zbek davlatchiligi tarixidagi uchinchi Renessans fenomeniga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar ustuvor ahamiyatga ega. Olimning ilmiy nashrlari retrospektiv tavsifdagi materiallar bo‘lish bilan birga, O‘rta Osiyo intellektual taraqqiyotining turli bosqichlarini kontseptual jihatdan birlashtiruvchi chuqur falsafiy-kulturologik tahlil natijasidir.

Muallif tadqiqotlarida Mahmud Qoshg‘ariy merosi fundamental tahlil etiladi. Bunda “Devonu lugatit turk” asari turkiy xalqlar sivilizatsiyasining ilk universal ensiklopediyasi hamda lingvistik va madaniy integratsiyaning kontseptual asosi sifatida tavsiflanadi.

Muallif ilmiy e‘tiborini Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati hamda faoliyatiga qaratadi. Navoiy gumanizmi va Boburning ma’rifatparvar hukmdorlik tamoyillari o‘rtasidagi konseptual bog‘liqlik, ularning ilm-fan va madaniyat rivojidagi o‘rni hamda ushbu fenomenning Temuriylar davri intellektual yuksalishidagi roli atroflicha tadqiq qilinadi.

Tadqiqotchi asarlarining muhim qismi jadidchilik harakati namoyandalariga qaratilgan bo‘lib, ularning ijtimoiy-siyosiy va pedagogik faoliyati mumtoz ma’rifatparvarlik an‘analari hamda bugungi kun taraqqiyoti o‘rtasidagi kontseptual bog‘liqlik sifatida tadqiq etiladi. Bunda

maorif tizimini modernizatsiya qilish, tafakkur hurligi va milliy identifikatsiyani shakllantirish masalalari ilmiy tahlil ob’ekti bo’lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotlarda uchinchi Renessans fenomeni deklarativ xarakterdagi shior emas, balki quvvatli intellektual bazaga tayanuvchi davlat rivojlanishining qonuniy evolyutsion bosqichi sifatida asoslab beriladi. Bunda quyidagi konseptual tamoyillar ustuvorlik qiladi:

- O’rta asrlar qomusiy tafakkurining jadidchilik modernizatsiyasi bilan bog’liqligi.
- Milliy madaniy-ma’naviy merosning global ilm-fan yutuqlari bilan integratsiyasi.
- Strategik maqsadlarga erishishda ajdodlar merosining yangi intellektual qatlamni shakllantirishdagi deterministik roli.

Muallif o’tmish mutafakkirlarining intellektual merosini fundamental tahlil qilish orqali yangi madaniy-ma’rifiy va ilmiy yuksalishning tarixiy deterministik xarakterini dalillaydi. Bunda tarixiy xotira va merosni retrospektiv anglash barqaror taraqqiyot hamda istiqbolli kelajakni modellashtirishning fundamental sharti ekanligi alohida urg’ulanadi.

Tursunali O’tayevich o’zining tadqiqotlarida O’zbekiston intellektual elitasining yirik namoyandalari tomonidan erishilgan ilmiy natijalarni hamda ularning global sivilizatsiyadagi o’rnini fundamental tahlil qiladi. Xususan, olimning ilmiy izlanishlarida akademik Toshmuhammad Niyozovich Qori-Niyozov qoldirgan boy ilmiy merosning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish va targ’ib qilish masalasiga alohida konseptual ahamiyat qaratilgan.

Akademik T.N. Qori-Niyozov maorif tizimini modernizatsiya qilish maqsadida Farg’onada dastlabki yangi uslubdagi o’zbek maktabiga, 1920-yilda esa Qo’qon pedagogika texnikumiga asos soldi. Olimning ilmiy-pedagogik faoliyatidagi eng muhim yutuqlardan biri — barcha ta’lim bosqichlari uchun matematika bo’yicha milliy darsliklarning yaratilishi va o’zbek tili tabiatiga mos matematik terminologik apparatning shakllantirilishidir. Uning “Ulug’bek astronomiya maktabi” nomli fundamental monografiyasi jahon ilm-fani hamjamiyati tomonidan yuksak e’tirof etilib, Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Professor T. O’. Mirzaqulov ilmiy izlanishlarining konseptual markazida global ilm-fan taraqqiyotiga beqiyos hissa qo’shgan O’zbekiston akademik elitasining faoliyatini komparativ (qiyosiy) va istoriografik jihatdan o’rganish masalasi turadi. Tadqiqotchi taniqli fan arboblari hayot yo’lini milliy ilmiy maktablarning shakllanish va rivojlanish evolyutsiyasi kontekstida tahlil qilib, intellektual meros vorisiyligining uzviyligini asoslab beradi.

Professor ilmiy maqolalarida zamonaviy o’zbek matematika maktabining fundatori va yirik jamoat arbobi, akademik Toshmuhammad Niyozovich Qori-Niyozovning shaxsi hamda uning ilmiy-ma’rifiy merosini tadqiq etishga ustuvor ahamiyat qaratadi. T. O’. Mirzaqulov olim faoliyatining quyidagi kontseptual yo’nalishlarini alohida ajratib ko’rsatadi:

1. Tadqiqotchi mintaqaviy maorif tizimini transformatsiya qilishda akademik T. N. Qori-Niyozovning xizmatlari beqiyos ekanligini asoslab beradi. Bunda olimning Farg’onada yangi tipdagi (yevropacha) ilk o’zbek maktabiga asos solgani hamda 1920-yilda Qo’qon shahrida pedagogik kadrlar tayyorlovchi professional ta’lim muassasasi — texnikumni tashkil etgani institutsional o’zgarishlarning poydevori sifatida tahlil qilinadi.
2. Tadqiqotchi akademik T. N. Qori-Niyozov tomonidan barcha ta’limiy instansiyalar uchun matematika fanidan milliy darsliklar korpusining yaratilishini fan tarixidagi burilish nuqtasi deb baholaydi. T.O’. Mirzaqulov olimning o’zbek tilining ichki imkoniyatlari negizida matematik terminologik tizimni ishlab chiqishdagi lingvistik xizmatlarini tahlil ob’ektiga aylantiradi. Natijada ilmiy diskursga quyidagi terminologik birliklar muvaffaqiyatli integratsiya qilingan: qo’shmoq, ko’paytirmoq, uchburchak, tenglama, ildiz ostiga olmoq va boshqalar.
3. Professor T.N. Qori-Niyozovning yuksak e’tirof etilgan “Ulug’bek astronomiya maktabi” (1950) fundamental monografiyasiga alohida ilmiy e’tibor qaratadi. T.O’. Mirzaqulov ushbu tadqiqotni Temuriylar davri intellektual merosi va zamonaviy fan paradigmaları o’rtasidagi transformatsion ko’prik hamda Sharq Renessansi fenomenini o’rganishning metodologik asosi sifatida tavsiflaydi.

T.O‘. Mirzaqulov akademik T.N.Qori-Niyozov singari yirik fan namoyandalari faoliyati XX asr O‘zbekiston intellektual rivojlanishining strategik yo‘nalishini belgilab berganligini ilmiy asoslab beradi. Tadqiqotchi ushbu merosni ommalashtirish orqali ilmiy intellektual uzviylik kontseptsiyasini translyatsiya qiladi. Unga ko‘ra, bugungi O‘zbekiston ilmiy maktabi Sharq klassik an‘analarining jahon fani yutuqlari bilan transformatsiyalashgan holdagi bevosita vorisiy davomchisi sifatida talqin etiladi.

Professor T.O‘. Mirzaqulov ilmiy izlanishlarida o‘z ustozlari — yirik turkiyshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Ayub G‘ulomovich G‘ulomovning ilmiy-nazariy merosini o‘rganish konseptual ahamiyatga ega. A. G‘. G‘ulomovning vatanparvarlik va ilmiy salohiyat nuqtai nazaridan tilshunoslik fanidagi mavqei Mahmud Qoshg‘ariy fenomeniga qiyoslanadi. Mazkur konseptual qiyos taniqli munaqqid Umarali Normatov tomonidan ham ilmiy muomalada faol qo‘llanilgan.

A.G‘. G‘ulomovning ilmiy tadqiqotlari o‘zbek tilshunosligining zamonaviy metodologik poydevorini shakllantirdi. Xususan:

1. Tadqiqotchi turkiy tillarda urg‘u fenomenining ob‘ektiv ilmiy interpretatsiyasini ishlab chiqdi. Urg‘uning derivatsion (so‘z yasovchi) va semantik differentsiatsiya (ma‘no farqlash) xususiyatlari borasidagi olimning konseptual qarashlari keyinchalik S. Otamirzayeva tomonidan o‘tkazilgan eksperimental-fonetik izlanishlarda empirik jihatdan verifikatsiya qilindi.
2. Akademik A.G‘. G‘ulomov N. S. Trubetskoy tomonidan ilgari surilgan fundamental nazariyalarga tayangan holda, o‘zbek tili qurilishida fonologiya va morfonologiya sathlarini konseptual jihatdan differensiyaladi. Bu esa o‘zbek tilshunosligida morfonologiyani mustaqil lingvistik burchak (distsiplina) sifatida shakllanishiga xizmat qildi.
3. Professor A.G‘. G‘ulomovning fundamental tadqiqotlari natijasida turkiyshunoslikda so‘z yasaliishi avtonom ilmiy yo‘nalish maqomini oldi. Olimning qarashlari tilshunoslikning quyidagi sohalari evolyutsiyasida determinant funksiyasini o‘tadi:
 - Morfosemantika va morfotaktika: morfemalarning ma‘no mundarijasi va ularning so‘z tarkibidagi birikish qonuniyatlari;
 - Leksikologiya va grammatika: lug‘at tarkibi va grammatik qurilishning o‘zaro aloqadorligi;
 - Lingvistik stilistika: til birliklarining uslubiy imkoniyatlarini tadqiq etish.

Professor T.O‘. Mirzaqulov o‘z ustozlari A.G‘. G‘ulomovning ilmiy-nazariy qarashlarini yirik zamonaviy turkiyshunos-komparativistlar — akademiklar A.N. Kononov, A.P. Xajiyev hamda professorlar N.A. Baskakov, M.Z. Zakiyev, F.A. G‘aniyevlarning fundamental tadqiqotlari bilan qiyosiy-sinxron aspektida tahlil qiladi. Mazkur intellektual hamjamiyatning konsolidatsiyalashgan ilmiy izlanishlari jahon tilshunosligi tizimida turkiy tillar evolyutsiyasining konseptual paradigmalarini shakllantirishga xizmat qildi.

Ushbu ilmiy izlanishlar ob‘ekti sifatida tilshunoslikning quyidagi fundamental nazariy kategoriyalari tahlil etiladi:

- agglutinatsiya va fuziya jarayonlarining komparativ tahlili;
- lingvistik transpozitsiyaning funksional-semantik jihatlari;
- til belgisining asimmetrik dualizmi fenomeni;
- sinxroniya va diaxroniya aspektlarining dialektik korrelyatsiyasi;
- til birliklarining valentlik imkoniyatlari va strukturaviy simmetriyasi.

T.O‘. Mirzaqulov faoliyatida namoyon bo‘ladigan ilmiy vorisiylik tamoyili uchinchi Renessans paradigmasi sharoitida milliy tilshunoslikning istiqbolli evolyutsiyasini ta‘minlovchi fundamental kafolatdir. Ushbu yondashuv akademik an‘analar va zamonaviy innovatsion g‘oyalar o‘rtasidagi konseptual muvozanatni saqlab, o‘zbek filologik tafakkurini xalqaro ilmiy makon bilan integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

(Professor Tursunali Mirzaqulov siymosiga chizgilar)

Ilm yo‘lidagi ilk qadamlar va shakllanish davri

“Haqiqiy olimning tarjimai holi uning yozgan asarlari va shogirdlarining yutuqlarida aks etadi”.

O‘zbek tili morfemikasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan zahmatkash tadqiqotchi, filologiya fanlari doktori, professor Tursunali Mirzaqulovning hayot yo‘li – ilmga sadoqatning yorqin namunasidir. Bugun 78 yoshni qarshilayotgan ustozning bosib o‘tgan yo‘li yosh tadqiqotchilar uchun matonat va professional o‘shish maktabi sifatida qadrli.

Tursunali Mirzaqulovning filologiya olamiga kirib kelishi ona tilining ichki qurilishiga bo‘lgan cheksiz muhabbat bilan bog‘liq. Uning ilmga bo‘lgan ilk ishtiyoqi so‘zning strukturaviy tahliliga bo‘lgan qiziqishida namoyon bo‘lgan. Bu intilish uni keyinchalik oliy ta‘lim tizimida o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilim olishga yetakladi.

1971-yilda pedagogika institutining tarix-filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limini tamomlagan yosh mutaxassis, o‘zining iqtidori va bilimga tashnaligi bilan darhol ilmiy jamoatchilik e‘tiborini tortdi. Shuning uchun ham u faoliyatini aynan oliy ta‘lim dargohida o‘qituvchilikdan boshladi. Professional faoliyatidagi pog‘onama-pog‘ona yuksalish olim uchun nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlashda o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tadi. Jumladan, 1971 – 1976-yillarda O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi sifatida dars berish mahoratini shakllantirdi. 1976 – 1981-yillar oralig‘ida katta o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritib, talabalarga tilshunoslikning murakkab jihatlarini sodda va tushunarli tilda yetkazish uslubini yaratdi. 1982-yildan e‘tiboran kafedra dotsenti sifatida nafaqat dars berish, balki o‘zbek tilining ichki strukturaviy qonuniyatlarini fundamental tadqiq qilishga kirishdi.

Professor A.Berdialiyev rahbarligidagi ilmiy izlanishlar Tursunali Mirzaqulovning ilmiy-nazariy qarashlari shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi. Olimning “O‘zbek tilida shakl yasovchi qo‘shma affikslar” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi o‘sha davr tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri sifatida baholandi. Bu tadqiqot o‘zbek tili morfemikasi uchun mustahkam poydevor o‘laroq, affiksial morfemalarning nafaqat miqdorini, balki ularning o‘zaro birikish qonuniyatlari tahlilini ham qamrab oldi. Shuningdek, tilimizdagi yangi ma’no va shakl hosil qiluvchi yordamchi elementlarning funksional imkoniyatlari ochib berildi. Bu ish orqali T.Mirzaqulov o‘zbek tilshunosligida morfemika masalalari bilan tizimli shug‘ullanuvchi yetuk mutaxassis sifatida e‘tirof etildi.

Nomzodlik himoyasidan so‘ng, olimning faoliyat doirasi yanada kengaydi. U nafaqat nazariyotchi, balki mohir rahbar sifatida ham samarali mehnat qildi. Professor fakultet dekani o‘rinbosari va kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat yuritib, o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishining ilmiy va moddiy bazasini mustahkamlashga hissa qo‘shdi. 1995-yilda unga erishgan ilmiy yutuqlari uchun professor unvoni berilishi uning ko‘p yillik zahmatli mehnatiga berilgan munosib baho edi.

Tursunali Mirzaqulovning ilm yo‘lidagi dastlabgi o‘n yilliklari ilmiy maktab yaratish yo‘lidagi tayyorgarlik bosqichi sifatida zahmatli mehnat samarasi o‘laroq, professorlik darajasigacha bo‘lgan sharaflari yo‘lga qamrab oldi. Olimning ilk izlanishlari bugungi zamonaviy o‘zbek morfemikasining shakllanish nuqtasi va poydevori sifatida e‘tirof etiladi.

Olimning bu davrdagi faoliyati shuni ko‘rsatadiki, ilmda natijaga erishish uchun kuchli ustoz o‘giti, tinimsiz mutolaa va o‘z sohasiga bo‘lgan cheksiz sadoqat eng muhim omillardir. Bu mustahkam poydevor keyinchalik uning o‘zbek tilshunosligida inqilobiy yangilik bo‘lgan doktorlik dissertatsiyasini yaratishiga zamin yaratdi.

O‘zbek tilshunosligida yangi soha – morfemika darg‘asi

“Ilmda yangi yo‘l ochish – jasorat va yuksak intellektual salohiyat mahsuli”.

Tursunali Mirzaqulovning ilmiy faoliyatidagi eng samarali va inqilobiy davr 1990-yillarning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda olim o‘zbek tilshunosligining fundamentini boyitgan, sohaning nazariy va amaliy qirralarini butunlay yangi bosqichga olib chiqqan tadqiqotini yakunladi.

Doktorlik dissertatsiyasi: Milliy tilshunoslikdagi burilish

.....1994-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida himoya qilingan “Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари” (O‘zbek tili morfem paradigmaticasi va sintagmaticasi masalalari) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi o‘zbek filologiyasida yangi bir sahifa ochdi. Tadqiqotning fundamental ahamiyati, avvalo, o‘zbek tilshunosligida morfemikaning ilk bor mustaqil soha sifatida nazariy jihatdan asoslab berilgani bilan belgilanadi. Ish doirasida sohaning o‘rganish obyekti, tayanch birliklari va mazmun-mundariyasi aniq chegaralab olindi. Shu bilan birga, morfemikaning leksika, morfologiya hamda sintaksis kabi boshqa til sathlari bilan ichki aloqalari va o‘zaro munosabatlari ilmiy dalillar asosida to‘laonli yoritib berildi. Professor T.Mirzaqulov o‘zbek morfemikasini shunchaki o‘rganish bilan cheklanib qolmay, uni to‘laonli va mukammal bir tizim holiga keltirdi. Olim o‘z asarlarida quyidagi fundamental masalalarni yoritib berdi:

Birinchidan, *morfem paradiigmatika* doirasida morfemalarning o‘zaro munosabati va til tizimidagi o‘rni aniq belgilab berildi; ikkinchidan, *morfem sintagmatika* yo‘nalishida morfemalarning so‘z tarkibida birikish qonuniyatlari hamda nutq jarayonidagi funksiyalari atroflicha tahlil qilindi; uchinchidan, *funksional-semantik yondashuvda* morfema va funksional-semantik maydon munosabati, morfem-morfologik paradigma hamda morfem ayniyatlilik kabi murakkab masalalar chuqur ilmiy asosda yoritildi.

Olim o‘zbek tilidagi so‘zlarning analitik shakllarini hosil qiluvchi yordamchi unsurlarga (yordamchi so‘zlar, ko‘makchi fe‘llar va boshqalar) ham yangicha yondashdi. U bu elementlarni shunchaki yordamchi vosita emas, balki affikslarga vazifadosh bo‘lgan yordamchi morfemalar sifatida talqin qildi. Bunday qarash o‘zbek tili grammatik qurilishini tushunishda yangi ufqlar ochdi.

Fundamental asarlar – ilm ahlining dasturi

Olim faoliyatining samarali pallasini bo‘lgan 1990-yillarning birinchi yarmida qator salmoqli ilmiy asarlar dunyo yuzini ko‘rdi. Xususan, 1992-yilda “Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспекти ва уларнинг муносабати” hamda 1993-yilda “Ўзбек тили морфемикасида парадигматик ва синтагматик муносабатлар” kabi tadqiqotlari nashr etildi. 1994-yilda Toshkentda chop etilgan “Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари” kitobi ilmiy izlanishlarining amaliy natijasi bo‘ldi. Diqqatga sazovori shundaki, 13 000 nusxada tarqalgan bu qo‘llanma bugungi kunda ham respublikamizning oliy va o‘rta maktablarida o‘zbek tili grammatikasini o‘qitishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tursunali Mirzaqulovning ilmiy izlanishlari quruq nazariya emas, balki tilning jonli hayotini aks ettiruvchi amaliy xulosalarga tayanadi. U o‘zbek tili morfemalar tizimini zamonaviy tilshunoslikning (rus, tatar, boshqird va boshqalar) eng ilg‘or qarashlari asosida o‘rganib, ularni milliy tilimiz xususiyatlariga mahorat bilan tatbiq etdi. Aynan shu davrdagi mehnati unga o‘zbek morfemikasining haqiqiy darg‘asi degan sharaflı nomni keltirdi. Olimning bu davrdagi faoliyati nafaqat uning shaxsiy muvaffaqiyati, balki o‘zbek milliy tilshunosligining jahon ilm-fan maydonidagi nufuzini oshirishga xizmat qildi.

Fundamental asarlar va xalqaro tajriba tatbiqi

“Ilm – cheksiz ummon, uning tubidagi durdonalar esa yillar davomida qilingan zahmatli izlanishlar mahsuli”.

Professor Tursunali Mirzaqulov – milliy tilshunoslikning ichki imkoniyatlarini tadqiq etish bilan bir qatorda jahon tilshunosligidagi eng ilg‘or va zamonaviy qarashlarni o‘zbek tili tabiatiga mahorat bilan tatbiq etgan yetuk olim. Uning ilmiy merosi ko‘p qirraliligi va nazariy teranligi bilan ajralib turadi. Tursunali Mirzaqulov o‘zbek tili morfemalar tizimini tadqiq etishda rus, tatar, boshqird va boshqa rivojlangan turkiy tillar tilshunosligida ilgari surilgan zamonaviy nazariyalarni

chuqur o‘rgandi. Olim jahon tajribasini o‘zbek tili morfemalar tizimining tabiatiga mahorat bilan singdirib, milliy morfemikani xalqaro tilshunoslik mezonlari darajasiga olib chiqdi. Bunday uyg‘unlashtirilgan yondashuv sohaning ilmiy nufuzini va tadqiqotlar ko‘lamini tubdan oshirishga xizmat qildi.

Morfemika olamidagi fundamental tadqiqotlar

Olimning “Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспекти ва уларнинг муносабати” hamda “Ўзбек тили морфемикасида парадигматик ва синтагматик муносабатлар” kabi asarlari o‘zbek tilining morfemik qurilishini o‘rganishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Bu asarlarda morfem ayniyatlilik masalasi, xususan, morfema va uning variantlari o‘rtasidagi munosabatlar hamda ularning o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlari aniq belgilab berilgan. Shu bilan birga, morfemalarning tildagi vertikal (tizimli) va gorizontal (nutqiy birikuv) munosabatlari paradigmatic hamda sintagmatic aloqalar doirasida ilmiy asosda tahlil qilingan. Funksional-semantik maydon tushunchasi orqali esa morfemalarning til tizimidagi vazifasi va ma’no doirasi funksional-semantik yondashuv negizida atroflicha yoritilgan.

Amaliyotga yo‘naltirilgan ilm

Ustoz Mirzaqulovning ilmiy faoliyati faqatgina nazariya bilan cheklanib qolmagan. Uning 1994-yilda chop etilgan “Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари” kitobi 13 000 nusxada nashr qilinib, respublikamizning oliy va o‘rta maktablarida o‘zbek tili o‘qituvchilari hamda talabalari uchun eng muhim qo‘llanmalardan biriga aylandi. Bu asar grammatika fanini o‘qitishda quruq qoidalaridan voz kechib, til birliklarining mohiyatini anglashga xizmat qilishi bilan qadrli.

Olim o‘zbek tilshunosligida o‘ziga xos jasorat ko‘rsatib, yordamchi vazifaviy unsurlarni (ko‘makchilar, ko‘makchi fe‘llar va boshqalar) affikslarga vazifadosh bo‘lgan yordamchi morfemalar sifatida talqin qildi. Bu yondashuv o‘zbek tili grammatikasidagi ko‘plab bahsli masalalarni morfemik sathda hal qilish imkonini berdi va o‘zbek morfemikasini to‘laqonli soha sifatida shakllantirdi. Professor Tursunali Mirzaqulovning uchinchi bosqichdagi faoliyati o‘zbek tili morfemikasini tizimli va mukammal bir fan darajasiga olib chiqdi. Uning ilmiy asarlari nafaqat bugungi kunda, balki kelajak avlodlar uchun ham o‘zbek tili grammatik qurilishini o‘rganishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ustozning har bir kitobi va maqolasi o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini ilmiy asoslashga qaratilgan zahmatli mehnatning mevasidir.

Zahmatkash ustoz va jamoatchi olim

“Ustozning umri shogirdlar kamolida, olimning hayoti esa tahrir qilingan satrlarda davom etadi”.

Professor Tursunali Mirzaqulovning ilmiy va pedagogik faoliyati faqatgina nazariy tadqiqotlar bilan cheklanib qolmay, uzoq yillik zahmatli mehnat va insoniy fazilatlarining go‘zal namunasidir. Bugungi kunda ustoz o‘zbek tilshunosligining tirik ensiklopediyasi, yuzlab shogirdlarning yo‘lchi yulduzi bo‘lib kelmoqda.

Professor Tursunali Mirzaqulov o‘z atrofida butun bir ilmiy maktabni shakllantira oldi. Olimning bevosita rahbarligida bugungi kunga qadar 3 nafar tadqiqotchi nomzodlik ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan bo‘lsa, ayni paytda 5 nafardan ortiq izlanuvchi doktorlik dissertatsiyalari ustida ish olib bormoqda. Ustoz shogirdlariga nafaqat ilm sirlarini, balki fanga bo‘lgan halollik va sadoqatni ham o‘rgatib kelmoqda.

Ilmiy merosning ko‘lamdorligi

Olimning qalami ostidan chiqqan asarlar o‘zining ko‘p qirraliligi bilan kishini hayratga soladi. Uning sermahsul ilmiy faoliyati davomida 15 dan ortiq ilmiy kitob va monografiyalar chop etilgan bo‘lsa, e‘lon qilingan 200 dan ziyod ilmiy maqolalarida nafaqat tilshunoslik, balki tarix, adabiyot, etnografiya va shevashunoslikning dolzarb masalalari qamrab olingan. Shuningdek,

“Grammatika o‘qitishning lingvistik asoslari” asari respublikamiz o‘quv tizimida hamon eng nufuzli qo‘llanmalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Professor Mirzaqulovning faoliyati mamlakatimiz ilmiy nufuzini oshirishda ham muhim o‘rin tutadi. U 2007-yildan buyon Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) a‘zosi sifatida ilmiy kadrlarning sifatini nazorat qilish va fanning sof saqlanishiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Shuningdek, u 2005-yildan buyon Navoiy davlat konchilik instituti (Olmaliq filiali)da faoliyat ko‘rsatib, texnik soha mutaxassislariga ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda o‘ziga xos uslub yaratgan.

78 yoshdagi hayotiylik va ehtirom

Bugun 78 yoshni qarshi olayotgan Tursunali Mirzaqulov hamon saflarda. U shaharning madaniy-ma’rifiy tadbirlarida faol ishtirok etib, yosh mutaxassislar va talabalarga o‘zining qimmatli ilmiy maslahatlarini bermoqda. Uning hayot yo‘li – ilmga tikilgan umrning naqadar sharaflilik ekanligini isbotlovchi jonli namunadir. O‘zbek morfemikasining darg‘asi, professor Tursunali Mirzaqulov nafaqat yangi bir sohaning poydevorini qo‘ydi, balki o‘zbek tilining milliy o‘zligini ilmiy asosda dunyoga tanitdi. Ustozga bo‘lgan shogirdlik ehtiromimiz cheksiz. Zero u kishi ochib bergan morfemika olami kelajakda ham minglab tilshunoslar uchun bitmas-tuganmas ilmiy xazina bo‘lib qolaveradi.

B.R. Mengliyev

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, filologiya fanlari doktori

M.T. Turdibekov

Renessans ta’lim universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Ipak yoli innovatsiyalar universiteti

“pedagogika-psixologiya va umumta’lim fanlar” kafedrasida

Katta o‘qituvchisi, v.b.dotsenti. Yuldasheva Inobat Ashuraliyevna

Men Mirzaqulov Tursunali O‘tayevich bilan bir jamoada 2003 yildan Navoiy davlat konchilik institutining Olmaliq kon-metallurgiya fakultetida, Toshkent davlat texnika universitetining “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida birga ishlaganman. Tursunali O‘tayevich tilshunoslik bo‘yicha o‘tgan asrning 80 yillaridan buyon ter to‘kib kelayotgan ustoz bu yillarda bir qancha ishlarni amalga oshirgan, bir nechta shogirdlar, tilshunos olimlar, fan doktorlari tayyorlagan kamtarin va jonkuyar olim sifatida yaxshi bilaman. 2003 yillar o‘shanda men “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri edim. Kechagidek yodimda dekanimiz professor Abdurashid Soliyevich professor Tursunali O‘tayevichni kafedraga olib kelib, u haqida iliq gaplar aytib, ishga olishimiz kerak degan fikrni bildirdi. Ustozni o‘sha paytda navqiron, yuzidan ilm nuri yog‘ilib turgan kamtarona siymosi yodimda. Ustoz bilan birgalikda Olmaliq shahrining ko‘p korxona va tashkilotlarida, harbiy qismlarda, Respublika IIB Olmaliq shahridagi malaka oshirish va qayta tayyorlash bo‘limida muntazam ravishda ma’naviyat bo‘yicha ma’ruzalar, kollej va maktablarida milliy qadriyatlarni, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirish maqsadida ilmiy seminarlar o‘tkazib, ma’ruzalar oqidik, shahar va viloyat siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etdik. Ustoz kafedramizda yoshlarga maslahatgo‘y, kamtarin, samimiy, sofdil va o‘ta madaniyatli inson sifatida professor-o‘qituvchilarni mehrini qozonib, ilmiy ishlar qilishga undardi. Ilm-fan baland qoyalar bag‘rida ko‘z ochgan shaffof chasmaga o‘xshaydi unga tirmashib cho‘qqiga chiqmagan inson bu mo‘jizani sir-asrorlarini ko‘rolmas, zilol suvlaridan qonib-qonib icholmas. Ilm o‘z egasini pinhon kutib yotgan bir xazina kabi dirdim soflilik, sabr-toqat quroli ila yo‘lga chiqmagan odam unga hech qachon yeta olmas. Ilm o‘z egasigagina itoat etuvchi o‘jar malak kabi dirdim, uning dargohiga adashib kirganlar, shunchaki havas qilganlar bu malakning chehrasini ko‘rmoqqa muyassar bo‘lolmaslar. Maqsadsiz kelib ketaveradilar. Ana shunday maqsadsiz yo‘lda azob chekish baxti hammaga ham nasib qilavermaydi. Tursunali O‘tayevich ana shunday ilmni mashaqqatli va sharaflilik yo‘llarni bosib o‘tgan taniqli ilm darg‘alaridan biridir. Olimlar orasida o‘z kasbini ulug‘lab va ardoqlab kelayotgan Tursunali Mirzaqulovni Olmaliq shahrini ma’naviy-

ma’rifiy ishlarini rivojlantirishda xizmatlari katta, uning muallifligida yaratilgan “Olmaliq haqidagi kitobi” tahsinga sazovardir. Universitetimizda ustoz talabalarda ma’naviy tarbiya faoliyati uchun zarur bo’lgan shaxsiy va kasbiy qadriyatlarni, milliy g’urur tuyg’ularini, mustaqilligimizni qadrlash, asrash bilan birga bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda, ilm va adabiyot sohasida olib borayotgan ishlariga yuksak zafarlar tilab qolaman.

PROFESSOR MIRZAQULOV TURSUNALI O‘TAYEVICHNING ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATI VA ILMIY MAKTABI

Uralov Azamat Begnarovich

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligining yirik namoyandalaridan biri Mirzaqulov Tursunali O‘tayevichning ilmiy-pedagogik faoliyati tahlil qilinadi. Unda olimning o‘zbek tili grammatikasi, xususan morfologiya va morfemika sohasidagi nazariy qarashlari yoritiladi. Shuningdek, uning lingvodidaktik konsepsiyasi hamda grammatika o‘qitishdagi tizimli yondashuvi asoslab beriladi. Maqolada ustozning ilmiy maktabi, ustoz-shogird an’anasi va zamonaviy tilshunoslik rivojiga qo‘shgan hissasi umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tilshunosligi, grammatika, morfologiya, morfemika, affiks, lingvodidaktika, ilmiy maktab, ustoz-shogird, grammatik kategoriya, til tizimi

Tilshunoslik fanining rivojlanishida ayrim olimlarning o‘rni faqat ularning ilmiy natijalari bilan emas, balki yaratgan ilmiy maktablari, shakllantirgan nazariy yo‘nalishlari va yetishtirgan shogirdlari bilan belgilanadi. Shu jihatdan qaraganda, professor Mirzaqulov Tursunali O‘tayevich o‘zbek tilshunosligida o‘ziga xos ilmiy maktab yaratgan olimlardan biridir.

Ustozning ilmiy qarashlari va tadqiqotlari grammatik tizimni chuqur o‘rganishga, morfologik va morfemik birliklarning ichki qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Mirzaqulov Tursunali O‘tayevichning ishlari nafaqat nazariy jihatdan ahamiyatga ega, balki o‘zbek tilini o‘qitish metodikasida ham keng qo‘llaniladi. Shuningdek, ustozning ilmiy maktabi va shogirdlar bilan ishlash tajribasi, ilmiy izchillik va tizimli yondashuvlari bugungi kunda o‘zbek tilshunosligining rivojida muhim rol o‘ynamoqda. Mazkur maqola ustozning ilmiy merosini, uning metodologik tamoyillarini va ilmiy maktab fenomenini tizimli tarzda yoritishga qaratilgan.

Dastlab, Tursunali O‘tayevichning ilmiy-nazariy qarashlari haqida fikr yuritsak. Professor Mirzaqulov Tursunali O‘tayevich o‘zbek tilshunosligida nazariy tadqiqotlarning yangi konsepsiyalarini ilgari surgan yetuk olimlardan biri. Uning ilmiy qarashlari grammatik tizimni faqat tashqi, tavsifiy jihatdan o‘rganish bilan cheklanmay, balki uning ichki tuzilishi, funksional mexanizmlari va til birliklari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan.

Olimning tadqiqotlarida grammatik hodisalarni tizimli yondashuv asosida o‘rganish asosiy o‘ringa ega. Shu nuqtayi nazardan Mirzaqulovning ilmiy yondashuvi morfemalarning tizimli tuzilishi va funksional yuklamasini chuqur o‘rganish bilan ajralib turadi. U morfemalarni nafaqat formal birlik sifatida, balki semantik va sintaktik vazifalari doirasida tahlil qiladi, ularning affiksial tizimdagi o‘rni va grammatik kategoriyalari bilan bog‘liqligi aniq ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, olim grammatik birliklar orasidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlarni aniqlashga katta e’tibor qaratadi. Bu yondashuv orqali grammatik shakllarning hosil bo‘lish mexanizmlari va ularning semantik funksiyalari chuqurroq anglanadi. Tursunali O‘tayevichning ilmiy qarashlarida morfologik jarayonlarni fonologik va morfonologik hodisalar bilan uzviy bog‘lashga alohida urg‘u beriladi. Masalan, affikslarning talaffuzdagi o‘zgarishi, kelishik va qo‘shimchalarning kombinator xususiyatlari nazariy jihatdan izohlanadi. Ustozning yondashuvi nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida morfologik va morfemik jarayonlarni tizimli va asoslangan tarzda tahlil qilish imkonini yaratadi. Shu orqali uning ilmiy-nazariy qarashlari til tizimini ilmiy asosda o‘rganish, grammatik shakllar va kategoriya tushunchalarini chuqur talqin qilish hamda affiks va morfemalarning vazifalarini aniqlash masalalarida keyingi olimlar uchun mustahkam metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Mirzaqulov Tursunali O‘tayeovich o‘zbek tilshunosligida morfologiya va morfemika sohasida chuqur iz qoldirgan olim sifatida e‘tiborga loyiq. U morfemalarni tilning faqat tashqi formal birliklari sifatida emas, balki ularning semantik, sintaktik va funksional yuklamalari doirasida tahlil qilgan. Shu bilan birga olim morfemalarning grammatik tizimdagi o‘rni, ularning affiksial va qo‘shimcha birliklar bilan bog‘liqligi, morfologik shakllarning hosil bo‘lish mexanizmlari va kombinator xususiyatlarini batafsil o‘rganadi. Mirzaqulovning ilmiy qarashlarida affikslarning variantliliigi, ularning qo‘llanish shartlari va morfemalarning kontekstga bog‘liqligi alohida o‘rin egallaydi. U olim sifatida affikslarning talaffuzdagi o‘zgarishlari, kelishik va qo‘shimchalarning morfonologik alternatsiyalar bilan bog‘liqligi masalasini chuqur tahlil qilgan. Shu orqali morfemalarning til tizimida qanday vazifa bajarishi, ularning ma’no hosil qilish mexanizmi va boshqa morfemalarga nisbatan moslashuv xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslangan.

Mirzaqulov qo‘shimchalarning murakkablashuvi, ularning kengayishi va morfologik tizimdagi funksional o‘zgarishlarini chuqur ilmiy asosda tadqiq etgan tilshunos olimlardan biri sifatida ajralib turadi. Uning ilmiy qarashlarida affikslarning faqat shakliy emas, balki mazmuniy va funksional jihatdan ham taraqqiy etib borishi alohida ta’kidlanadi. Olim qo‘shimchalarning sodda (bir komponentli) ko‘rinishdan murakkab (ko‘p komponentli) shakllarga o‘tishini til tizimining ichki rivojlanish qonuniyatlari bilan bog‘laydi. Bu jarayonda qo‘shimchalarning bir-biriga qo‘shilishi, semantik jihatdan torayishi yoki kengayishi, shuningdek, yangi grammatik ma’nolarni ifodalash imkoniyatining ortishi asosiy omillar sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Mirzaqulov tadqiqotlarida ayniqsa qo‘shimchalarning kengayishi masalasi muhim o‘rin egallaydi. Unga ko‘ra, til taraqqiyoti davomida ayrim affikslar o‘zining dastlabki vazifasidan chiqib, yangi funksiyalarni bajarishga o‘tadi yoki boshqa morfemalar bilan birikib, murakkab affiksial birliklarni hosil qiladi (soddalashadi). Bunday kengayish nafaqat formal jihatdan, balki semantik qatlamda ham yuz beradi. Natijada qo‘shimchalar ko‘p ma’nolilik kasb etadi yoki aniq grammatik vazifaga ixtisoslashadi. Bu esa tilning iqtisodiyliigi va ifoda imkoniyatlarining kengayishini ta’minlaydi (tejash tamoyillari).

Olim murakkab shakllar masalasini ham alohida tahlil qiladi. Uning fikricha, murakkab morfologik shakllar ko‘pincha bir nechta affikslarning ketma-ket qo‘llanishi yoki qo‘shma morfemalarning shakllanishi natijasida yuzaga keladi. Bunday shakllar til tizimida yangi grammatik kategoriyalarni ifodalashga xizmat qiladi va nutqda aniqlik hamda ifoda boyligini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, murakkab affikslar tilning rivojlanganlik darajasini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichlardan biri sifatida baholanadi.

Mirzaqulov analitik va sintetik morfemalar o‘rtasidagi munosabatni ham chuqur o‘rganadi. U sintetik vositalarni – ya’ni qo‘shimchalar orqali ifodalanadigan grammatik ma’nolarni tilning an’anaviy va ichki imkoniyati sifatida talqin qilsa, analitik vositalarni – yordamchi so‘zlar, bog‘lovchi elementlar va konstruktsiyalar orqali ifodalanadigan shakllarni esa tilning funksional kengayishi va kommunikativ ehtiyojlar natijasi sifatida izohlaydi, ayni shu jarayonni shogirdlariga ham o‘rgatadi. Olim bu ikki tur vositaning qarama-qarshi emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi hodisa ekanligini asoslab beradi. Ya’ni, ayrim hollarda sintetik shakllar analitik konstruktsiyalar bilan almashtiriladi yoki aksincha, analitik vositalar sintetiklashib boradi. Bundan tashqari, Ustoz morfemalarning kombinatsion imkoniyatlariga ham alohida e‘tibor qaratgan. U morfemalarning turli shakllarda birlashishi va grammatik ma’no hosil qilishi jarayonlarini batafsil ko‘rsatib bergan, bu esa o‘zbek tilidagi morfonologik va morfologik jarayonlarni izchil tushunish uchun mustahkam nazariy asos yaratgan. Shu tariqa, uning ilmiy merosi morfologiya va morfemika sohasida nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Mirzaqulov Tursunali O‘tayeovichning ilmiy merosida lingvodidaktika alohida o‘rin tutadi. U til o‘qitish jarayonida grammatik bilimlarni tizimli va izchil o‘rgatish zarurligini konseptual darajada asoslab bergan. Uning qarashlariga ko‘ra, tilni o‘rgatish faqat grammatik qoidalarni yodlashdan iborat bo‘lmasligi, balki til birliklari o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning funksional va kommunikativ jihatlarini anglashga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Ustozning lingvodidaktik yondashuvi o‘quv jarayonini nazariya va amaliyot birligi asosida tashkil etishni ta’kidlaydi. U grammatik bilimlarni faqat alohida mavzu sifatida emas, balki ularni til tizimi va kommunikativ jarayon bilan uyg‘unlashtirilgan holda o‘rgatishni tavsiya qiladi. Shu bilan birga, olim

o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni ilmiy tafakkurga yo‘naltirish va grammatika qoidalarini mantiqiy asosda tushuntirishga katta e‘tibor bergan.

Ustozning lingvodidaktik konsepsiyasida o‘quvchilarni til birliklarini tizimli tarzda o‘rgatish, ularni kontekstga bog‘lab tushuntirish va grammatik shakllarning kommunikativ funksiyasini ko‘rsatish asosiy tamoyillar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchi faqat qoidalarini yodlab qolmasdan, balki tilning ichki tizimini, morfologik va morfemik jarayonlarni tushunishga o‘rgatiladi. Shuningdek, Mirzaqulov Tursunali O‘tayeichning lingvodidaktik qarashlari zamonaviy o‘qitish metodikalariga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatgan. Ustozning yondashuvi maktab va oliy ta‘lim jarayonida, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasida, shuningdek tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, uning konsepsiyasi shogirdlar orasida mustaqil ilmiy izlanish va pedagogik faoliyatni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Ilmiy maktab va ustoz-shogird an‘anasi doirasida ham katta maktab yaratgan. Mirzaqulov Tursunali O‘tayeich o‘zbek tilshunosligida nafaqat olim sifatida, balki yetuk pedagog va ilmiy rahbar sifatida ham e‘tiborga loyiqdir. Ustozning ilmiy maktabi uning nazariy qarashlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan, shogirdlarini mustaqil ilmiy tafakkurga yo‘naltirgan pedagogik maktab sifatida shakllangan. Hatto ikkinchi avlod shogirdlari ham ilmiy darajalarga ega bo‘lmoqda. Shogirdlarini o‘z ilmiy izlanishlariga jalb qilish, ularni metodologik jihatdan mustahkamlash va nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga rag‘batlantirish bilan ajralib turgan.

Ilmiy maktabning asosiy xususiyati shundaki, u shogirdlarga nafaqat alohida mavzuni o‘rgatish, balki ularni ilmiy izlanishga tayyorlash, mustaqil tadqiqot olib borish va o‘z fikrini ilmiy asosda ifodalash imkoniyatini yaratadi. Mirzaqulovning rahbarligida shogirdlar morfologiya, morfemika, morfonologiya, terminologiya va lingvodidaktika sohalarida mustahkam ilmiy tayyorgarlik olib, o‘zbek tilshunosligiga yangi qarashlar va tadqiqotlar kiritishgan. Shuningdek, ustoz-shogird an‘anasi ilmiy maktabning izchilligi va davomiyligini ta‘minlaydi. Olim shogirdlarini faqat ilmiy rahbar sifatida nazorat qilmagan, balki ularni o‘zaro hamkorlik, ilmiy muhokama va tajriba almashishga rag‘batlantirgan. Bu yondashuv ilmiy merosning uzluksizligini, o‘zbek tilshunosligida ilmiy izlanishlarning tizimli rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Natijada, ustozning ilmiy maktabi va ustoz-shogird an‘anasi o‘zbek tilshunosligida nazariy va metodologik tadqiqotlarni rivojlantirish, morfologik va lingvodidaktik yondashuvlarni chuqur o‘rganish va keyingi avlod olimlarini tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Ustozning pedagogik va ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘zbek tilshunosligining rivojlanishi va ilmiy tadqiqotlarning metodologik asosini boyitishda dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, **professor Mirzaqulov Tursunali O‘tayeichning ilmiy-pedagogik faoliyati, nazariy qarashlari, morfologiya va morfemika sohasidagi hissasi, lingvodidaktik konsepsiyasi hamda ilmiy maktabi tizimli tarzda tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Mirzaqulovning ilmiy yondashuvi o‘zbek tilining grammatik tizimini chuqur anglash, morfemalar va affikslarning funksional vazifalarini aniqlash hamda morfonologik jarayonlarni izchil tahlil qilish imkonini yaratgan. Ustozning lingvodidaktik konsepsiyasi nafaqat til o‘qitishda nazariy asoslarni shakllantirishga, balki o‘quvchilarning til tizimini tizimli va mantiqiy tushunishlariga xizmat qiladi. Shogirdlar bilan ishlashdagi ustoz-shogird an‘anasi esa ilmiy maktabning izchilligi va davomiyligini ta‘minlab, olimning ilmiy merosini keyingi avlodlarga uzluksiz yetkazishga xizmat qiladi.**

Shu tariqa, Mirzaqulov Tursunali O‘tayeich nafaqat o‘z davrining yetuk olimi, balki o‘zbek tilshunosligida ilmiy maktab yaratgan, nazariy va amaliy jihatdan tilshunoslikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan shaxs sifatida tarixga kirgan. Uning ilmiy merosi va pedagogik yondashuvi bugungi kunda ham o‘zbek tilshunosligining rivojlanishi va ilmiy tadqiqotlarning metodologik asosini boyitishda dolzarb ahamiyatga ega.

O‘ZBEK TILI MORFEMIKASINING YETUK TADQIQOTCHISI

Ixtiyor Ermatov

GulDU professori

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Mirzaqulov Tursunali O‘tayevich 1948-yil 10-may kuni Tojikiston Respublikasi So‘g‘d (Leninobod) viloyati Mastchoh tumani, Avzikent qishloq kengashidagi Cholota qishlog‘ida tug‘ilgan.

1971-yil Leninobod davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyot bo‘limini tugatgan.

1971-1976-yillarda Leninobod davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi, 1976-1981-yillarda katta o‘qituvchi, 1982-1991-yillarda o‘zbek tili kafedrası dotsenti, 1987-1991-yillarda tojik filologiyasi fakulteti dekani o‘rinbosari, 1992-1994-yillarda o‘zbek filologiyasi fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari, 1992-1994-yillarda O‘zbek tilshunosligi kafedrasining katta ilmiy xodimi, 1995-1996-yillarda Xujand davlat universiteti sirtqi bo‘lim mudiri, 1996-1997-yillarda umumiy tilshunoslik kafedrası mudiri, 1997-2002-yillarda o‘zbek tili kafedrası mudiri, 1995-yildan o‘zbek tili kafedrası professori lavozimlarida ishlagan. 2001-yilda Tojikiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi unvoni berilgan. 2002-yildan O‘zbekiston Respublikasiga ko‘chib o‘tgan.

1980-yili taniqli olim, professor A.Berdialiyev rahbarligida ToshDUda “O‘zbek tilida shakl yasovchi qo‘shma affikslar” mavzusida nomzodlik, 1994-yilda O‘zFA Til va adabiyot institutida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. “O‘zbek tili morfem paradigmaticasi va sintagmaticasi masalalari” deb nomlanuvchi doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek tilshunosligida birinchi marta yangi soha – o‘zbek tili morfemikasi, uning obyekti, birliklari, mazmun-mundariyasi, yondosh sathlar bilan munosabati aniq ko‘rsatib berilgan.

Xujand davlat universitetidagi faoliyatida u o‘zbek tili morfemikasining turli masalalari bo‘yicha maqolalar e’lon qilgan. Shu mavzu bo‘yicha ikki qismdan iborat monografiya nashr etgan. Kitobda morfemika va funktsional-semantik maydon, morfem-morfologik paradigma, morfem ayniyatlilik masalalari yoritilgan. Morfemalar tasnifi va ular bilan aloqador qonuniyatlar xususida so‘z yuritilgan.

T.Mirzaqulov o‘zbek tili morfemalar tizimini, xususan, affiksalar morfemalar tizimini rus, tatar, boshqird va boshqa rivojlangan tilshunosliklarda olg‘a surilgan zamonaviy qarashlarni chuqur o‘rganib, ularni o‘zbek tili morfemalar tizimiga ham tatbiq etadi. O‘zbek tilida so‘zlarning analitik shakllarini hosil qiluvchi yordamchi vazifaviy unsurlarni (yordamchi so‘zlar, ko‘makchi fe‘llar va h.k.) ham affikslarga vazifadosh yordamchi morfemalar sifatida qaraydi. O‘zbek tili morfemikasini bir qator lisoniy hodisalarni o‘z ichiga olgan to‘laqonli soha sifatida mukammallashtiradi.

Olimning “O‘zbek tili morfemikasining asosiy aspektlari va ularning munosabati”², “O‘zbek tili morfemikasida paradigmatic va sintagmatic munosabatlar”³ nomli ikki kitobdan iborat ilmiy asarlari chop etilgan. 1994-yili “O‘qituvchi” nashriyotida 13 000 nusxada chop etilgan “Grammatika o‘qitishning lingvistik asoslari” kitobi⁴ Respublikamiz oliy va o‘rta maktablarida muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda.

Uning o‘n beshta ilmiy kitoblari, 200 dan ortiq ilmiy maqolalari tilshunoslik, tarix, adabiyot, etnografiya va shevashunoslikning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan. Uning rahbarligida 13 kishi nomzodlik, 5 kishi doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan.

2005-yildan Navoiy davlat konchilik instituti Olmaliq kon – metallurgiya fakultetida faoliyat yuritmoqdalar. 2007-2012-yillari shu fakultetda “Ijtimoiy – gumanitar fanlar” kafedrası mudiri lavozimlarida ishlagan. 2007-yildan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi a’zosi.

Navoiy davlat konchilik instituti Olmaliq kon – metallurgiya fakultetida ijtimoiy fanlarning o‘qitilishi, ilmiy salohiyatning o‘shishiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Shahar miqyosida turli tadbirlar o‘tkazishda faol qatnashmoqda. Dars mashg‘ulotlarini yuqori saviyada o‘tkazadi, yosh mutaxassis va talabalar uning ilmiy maslahatlaridan bahramand bo‘lmoqdalar.

²Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспекти ва уларнинг муносабати. – Хужанд, 1992.

³Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфемикасида парадигматик ва синтагматик муносабатлар. – Хужанд, 1993.

⁴Мирзақулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 56 б.

АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЖТИМОИЙ- БАДИИЙ МАҚОМИ

Турсунали Ўтаевич Мирзакулов,
Ипак йўли инновациялар университети
филология фанлари доктори, профессори
mirzakulovt.u.1948@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада туркий тиллар, хусусан, ўзбек адабий тилининг шаклланиш тарихи ва унинг ижтимоий-бадий мавқеини мустаҳкамлаш йўлидаги тарихий жараёнлар таҳлил қилинади. Муаллиф қадимги Ўрхун-Енисей битиктошларидан бошлаб, Қорахонийлар ва Темурийлар давригача бўлган тил тараққиётини кузатади. Мақолада Алишер Навоийнинг ўзбек тили бойлигини илмий ва бадий жиҳатдан исботлашдаги беқиёс хизматлари, хусусан, «Муҳокаматул-лугатайн» асарининг аҳамияти очиб берилган. Шунингдек, Навоий ижодининг Шарқ Уйғониш даври контекстидаги ўрни ва тилнинг халқни бирлаштирувчи куч сифатидаги вазифаси илмий асослаб берилади.

Таянч сўзлар: Алишер Навоий, ўзбек тили, туркий тиллар, ижтимоий мақом, «Муҳокаматул-лугатайн», Шарқ Ренессанси, битиктошлар, чигатой тили, зуллисонанлик.

Abstract: This article analyzes the history of the formation of the Turkic languages, particularly the Uzbek literary language, as well as the historical processes aimed at strengthening its socio-artistic status. The author examines the evolution of the language, beginning with the ancient Orkhon-Yenisei inscriptions and continuing through the Karakhanid and Timurid periods. Particular attention is given to the invaluable contributions of Alisher Nava'i in his scholarly and artistic substantiation of the richness of the Uzbek language, particularly the significance of his treatise "Muhokamatul-lugatayn" ("Judgment on Two Languages"). The role of Nava'i's work in the context of the Eastern Renaissance and the function of language as a unifying force for people and state are also scientifically substantiated.

Keywords: Alisher Navai, Uzbek language, Turkic languages, social status, Muhokamatul-lugatayn, Eastern Renaissance, runic inscriptions, Chagatai language, bilingualism.

Аннотация: В данной статье анализируется история формирования тюркских языков, в частности, узбекского литературного языка, а также исторические процессы, направленные на укрепление его социально-художественного статуса. Автор рассматривает эволюцию языка, начиная с древних Орхон-Енисейских надписей до эпох Караханидов и Тимуридов. Особое внимание уделяется неоценимым заслугам Алишера Наваи в научно-художественном обосновании богатства узбекского языка, в частности, значению его трактата «Муҳокаматул-лугатайн» («Суждение о двух языках»). Также научно обосновывается роль творчества Наваи в контексте Восточного Ренессанса и функция языка как объединяющей силы народа и государства.

Ключевые слова: Алишер Наваи, узбекский язык, тюркские языки, социальный статус, «Муҳокаматул-лугатайн», Восточный Ренессанс, рунические надписи, чагатайский язык, двуязычие.

Туркий тиллар ҳамда ўзбек тилининг ижтимоий-бадий мавқеи ва мақомини ҳимоя қилиш, унинг бошқа тиллар орасидаги муносиб ўрнини кўрсатиш, бойлигини амалий исботлаш ҳаракати узоқ тарихга эга. Қадимги туркий битиктошлардаги қуйма бирикмалар, фикрларнинг ойдин ва тиниклиги, эли ва тупроғи, тили ва эътиқодига бўлган эзгу туйғуларнинг берилиши аждодларимизга нисбатан фахр ҳиссини уйғотади.

Биринчи « Ҳоконнома » (« Шохнома ») яратган Йўллик Тегин махсус битиктош - Билга Ҳокон тошёзувида Билга Ҳокон ва ундан олдин ўтган турк ҳоконларининг ўз элининг мустақиллиги учун курашганликларини зўр меҳр билан тасвирлайди ва Билга Ҳокон номидан авлодларга қарата шундай мурожаат қилади: «Турк беклар, турк халқим, бу ҳоконингдан, бу бекларингдан, ерингдан, сувингдан ажралмасанг, турк халқи, ўзинг эзулик кўражаксан, уйингга киражаксан, беташвиш бўлажаксан ».

И. Стеблеванинг қайд этишича, « Билга Ҳоқон битигининг бадий фазилатлари туркий халқлар орасида адабий жараён битик тошларгача аллақачон мавжуд бўлганлигидан далолат беради. Руний ёзувдаги битиклар туркий халқларнинг жуда қадимдан ривожланган ёзма анъаналари бўлган- лигини исботлаб турибди » (1).

Кейинги асрларда юз берган кучли ижтимоий - сиёсий воқеалар - араб босқини, зодагонларнинг ўзаро қонли курашлари, мўғулларнинг вахшийлиги туркий тил ва маданиятга зарба берган бўлса - да, уни йўқота олмади. Аксинча, ўзининг яшовчанлиги туфайли мавқеини тобора мустаҳкамлай борди. Туркий давлатлар - Қорахонийлар, Салжуқийлар, Ғазнавийлар сулоласининг тарих майдонига кириб келиши манзарани тамомила ўзгартирди. Қорахоний туркий, салжуқий туркий, қорлуқ ва кипчоқ адабий анъаналари бир қанча туркий адабий тиллар, шу жумладан, туркий тил, чиғатой тили деб номланувчи ўзбек адабий тилининг шаклланишига олиб келди. XIV аср охири ва XI асрнинг биринчи ярмида яшаб ижод этган Лутфий, Атоий, Саккокий, Ҳайдар Хоразмий, Юсуф Амирий, Яқиний, Гадоий, Дурбек каби ўзбек шоирлари она тилининг мавқеини ўрнига қўйиш борасида катта ва биринчи босқичдаги ишларни амалга оширган бўлсалар, Алишер Навоий уларнинг ишини муносиб равишда давом эттириб, ўзбек тили ва туркий тилларнинг бойлигини оламга кўз-кўз қилди, ижтимоий ва бадий-адабий мақомини абадий мустаҳкамлади. Алишер Навоий она тилида, халқ тилида ижод қилиш қўлланмасини « Муҳокаматул- луғатайн » асарида ишлаб чиқди.

Маълумки, Навоий даври нафақат ижтимоий - сиёсий, балки тил сиёсати жиҳатидан ҳам мураккаб бир давр эди. Лекин темурийлар давлатининг мавқеи, Ҳусайн Бойқаронинг кўмаги Навоий томонидан белгиланган режаларнинг амалга ошувига қулай имконият яратди, ўзбек тилининг ҳуқуқлари (албатта, бошқа тиллар ҳисобига эмас) кенгайди, у ривожланишнинг янги кенгликларига чикиб олди.

Айрим олимлар чиғатой тили сунъий тил, халқ тилидан узоқлашган тил деб ҳам даъво қиладилар. Бунга Навоий асарларида арабча, форсча - тожикча сўзларнинг нисбатан кўпроқ учрашини важ килиб кўрсатадилар. Академик Алибек Рустамовнинг алоҳида кўрсатишича, туркий лаҳжалардаги луғавий ва грамматик бирликлар Навоий асарларига чегараланмаган ҳолда, араб ва форс тилларига оид бирликлар чегараланган ҳолда ўтган. Шунингдек, Навоийнинг ўзи ҳам тил қонунларини бузмаган ҳолда кўпгина сўз ва иборалар яратган, мавжуд сўз ва ибораларни янги маънода моҳирона қўллаган. Чет сўзларга бўлган муносабати ҳақида академик А. Рустамов шундай дейди: « Навоий туркий сўзлардан тўлиқ фойдаланган ҳолда форс ва араб сўзларидан ҳам фойдаланади. Масалан, арабча « каф » сўзини ишлатар экан, шу маънодаги туркий сўзлар « овуч » билан « оя » дан воз кечмайди... форс - тожик сўзи бўлмиш « лаб » дан фойдаланар экан, шу маънодаги туркий « эрин » билан « дудоқ » ни ҳам эсдан чиқармайди » (2).

Навоийнинг хизмати туфайли ўзбек тили бутун ўтмишнинг- Шарк ва Ғарб бадий-фалсафий фикрини ўзлигида ифодалай олиш имкониятини кўрсатди. Аристотель ва Платон, Сократ ва Демокрит, Форобий ва Абу Али ибн Сино, Беруний ва Хоразмий, Саъдий, Хайём, Низомий ва Дехлавий ижодий оламига хос тафаккур категориялари ўзбек тилига таклидан кўчирилмаган, балки янги шароит ва эҳтиёж талаби билан янгича мазмун ва образларда ижодий ривожлантирилган ҳолда қўлланган. Ўзбек тилининг ҳам жаҳоний ғояларни, инсоният орзуларини, умумбашарий қадриятларни бера олиш қобилияти ҳеч бир тилдан кам эмаслиги амалда исботланди. Бу ишнинг унчалик қийин бўлмагани, « турк алфози » нинг ички имкониятлари нақадар кенглигини Навоий қуйидагича эътироф этади:

**Шеър ҳар синфини килдим ибтидо,
Турк алфози била топти адо,
Тўрт девон бирла назми панжи ганж,
Даст берди чекмайин андуху ранж.**

Туркий тил бойлиги асосида Навоий фикрларнинг буюк силсиласини яратди, унинг ижоди туфайли Шарқда жаҳон ижтимоий тафаккури тарихида янги давр, янги босқич

яратилди. Бу даврни Европадаги Уйғониш даври билан ҳам киёслайдилар (3). Академик И. Мўминов «бундай таққослашлар маълум даражада тўғри, лекин Уйғониш даври Ғарбий Европа мамлакатларида XV асрнинг иккинчи ярмидан бошланганлигини назарда тутиш керак» - деб қайд қилади, Навоий Уйғониш даври алломаларига хос барча белгиларга эга эди ва ҳатто айрим жиҳатларда уларга намуна бўла олиши мумкин.

Маълумки, тил халқни, давлатни бирлаштирувчи вазифани ҳам бажаради. Навоий асарларининг шон-шуҳрати туфайли ўзбек тили қўлланилиш ҳудудларини кенгайтириб, Мовароуннахр ва Хуросонда мавқеини мустаҳкамлади, Кавказ, Волга бўйи, Дашти Қипчок ерларига ҳам бориб етди. Навоий ушбу мисраларни бежиз битган эмас:

**Мен туркча бошлабон ривоят,
Қилдим бу фасонани хикоят,
Ким шуҳрати жаҳонга тўлғай,
Турки била даги баҳра олғай,
Турк назмида чу тортиб мен алам,
Айладим ул мамлакатни яккалам,**

Шуни алоҳида қайд қилиш зарурки, Навоий давригача туркий тилда ижод қилувчилар микдоран кам бўлиб, улар форс - тожик тилида ҳам асарлар ёзган бўлсалар, Навоий давrigа келиб уларнинг микдори орта борди, «зуллизонаинлик» - икки тиллилик нисбати ҳам ўзгарди: форс - тожик шоирлари ҳам туркий тилда, ҳам ўз она тилида ижод қила бошладилар. Ана шу даврдан бошлаб ўзбек-тожик зуллизонаинлиги кучайган.

Жаҳон халқлари тарихида «Олтин давр», «Қаҳрамонлик даври», «Уйғониш даври» атамалари билан юритиладиган юксалиш давлари тасодифий ҳодиса бўлмай, балки қонуний боғланишлар, дунё минтакаларидаги маданиятлараро ўзига хослик, ворисийлик ва муштаракликни акс эттирадиган жараёнларнинг номидир.

Туркий ва форсий маданиятда IX асрдан XVI асрнинг иккинчи ярмигача бўлган давр жаҳоншумул ютуқлар ва кашфиётлар давридир. Араб халифалигининг сусайиши, турк ва эрон халқларининг мустақиллик учун олиб борилган курашлари бошқа соҳалар каби, маданият, адабиёт соҳасида кенг қўламдаги ўзликни англаш, ўтмишни қайта тиклаш даврини юзага келтирди. Марказлашган давлатларнинг пайдо бўлиши йирик маданий марказлар - шаҳарлар мавқеининг оша бориши Уйғониш даврининг асосий омилларидандир. Хусусан, туркий адабиётнинг «кошғар даври» (Е.Э. Бертельс) - XI асрдан бошланган давр жаҳон Уйғониш даврининг узвий қисми бўлиб, темурийлар даврида юксак чўққига кўтарилган. А. Жомий форс - тожик адабиётининг бир неча асрлик синтезини берган бўлса, Алишер Навоий туркий халқлар тарихи ва маданиятида улкан ўзгариш ясади.

Буюк янгиловчи (реформатор) жаҳон маданияти тарихидан муносиб ўрин олди. Уйғониш даврида Навоий ўз ижоди ва фаолияти билан жараёнга янги романтик жўшқинлик бағишлади. Унинг ижодида туркий оламга хос катта ички қудрат бор бўйи - басти билан гавдаланди, жаҳоншумул умумбашарий аҳамият касб этди. Жаҳон маданиятининг кейинги тараққиётига кучли таъсир ўтказди.

Англашиладики, туркий ва форсий маданият жаҳон маданиятидан айри бир ҳодиса эмас. Ана шу маданиятнинг жаҳон маданияти тарихидаги ҳаққоний ўрнини белгилаш долзарб масалалардан саналади.

Хуллас, буюк бобомиз Алишер Навоий ўзбек тилига жаҳон тиллари қаторидан фуқаролик ҳуқуқини олиб берди. Бу ҳуқуқ туркий тил бойлиги, халқ оғзаки ижоди, жаҳондаги энг яхши адабий анъаналар асосида мустаҳкамланган эди. Буюк аллома «Муҳокаматул - луғатайн» ни ёзиб тугатар экан, келгуси авлодларга қарата катта ишонч билан куйидаги фикрларни битади: «Хаёлимга мундоқ келурким, турк улуси фасиҳларига ҳақ собит қилдимки, ўз алфоз ва иборатлари ҳақиқати ва ўз тил ва луғатлари кайфиятидин воқиф бўлдилар... Алар дағи ранж ва машаққат муқобаласида, чун бу махфий илмдинки, зоҳир қилибмен, вукуф топсалар, умид улким, бу фақирни хайр дуоси била ёд қил - гайлар».

Ўзбек халқи буюк инсон - Алишер Навоийнинг катта жасорати ва машаққатли меҳнат эвазига келган оламшумул хизматларини бугун миннатдорчилик билан эсламоқда. Биз бобомиз Навоий белгилаб берган она тилининг гўзаллиги, бойлиги, мавқеи ва мақомини асраш, кўпайтириш ва ҳимоя қилишдек улуғ ишнинг муносиб давомчилари бўлишимиз керак.

АДАБИЁТ ВА АЙРИМ ИЗОҲЛАР:

1. Стеблева И. Қадим ёднома. « Ўзбекистон адабиёти ва санъати » газетаси, 27 сентябрь 1985 йил.
2. Рустамов А. Навоий ва ўзбек адабий тили. ТошДУ Илмий асарлари « Ўзбек тилшунослиги масалалари », Тошкент, 1975, 5 - бет.
3. Жирмунский В. М. Алишер Навоий и проблема Ренессанса в литературах Востока. Избранные труды: «Сравнительное литературоведение. Восток и Запад ». Л., 1979, стр -174-184.
4. Туркий тиллар, ўзбек тилининг қадимги даврлардан бошлаб то шу кунгача бўлган мавқеи ва мақоми масаласи, тилнинг амалий қўлланилиши - функционал парадигмаси функционал босқичланиши нуктаи назаридан кўриб чиқилиши керак. Бу йўналишда айрим ишлар бажарилган. Қаранг: Кононов А. Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников (VII - IX вв.), Л., 1980; Наджип Э. Н. К вопросу о языковой ситуации в средневековой Средней Азии. Исследования по истории тюркских языков (XI- XIV вв.). М., 1989 ; Благова Г. Ф. О языковой ситуации в Тимуридском Мавераннахре.- Сб. « Туркология - 1986 », Л., 1986.

ЮКСАК МАҚСАДЛАР ВА ОРЗУЛАР ОСМОНИДА “ПАРВОЗ”

Алижан Каримжанов-

Чирчиқ давлат педагогика университети

“Бошланғич таълим методикаси”кафедра доценти,
педагогика фанлари номзоди.

Сўз мулкининг султони Алишер Навоий ҳазратларнинг:

**Ҳақ йўлида ким сенга бир ҳарф ўқитмиш ранж ила,
Айламак бўлмас адо онинг ҳақин юз ганж ила.**

-деган ҳикмат сўзлари устозларга атаб айтилган.

Дунёда эътироф деган юксак баҳо борки, бу баҳога ҳамма ҳам сазовор бўла олмайди. Ҳамага ҳар доим манзур ва маъқул бўлиш барчанинг қўлидан келадиган иш эмас. Атрофдагиларнинг кўнглига йўл топиш инсониятнинг энг жиддий, саодатли юмушларидан биридир. Инсон ўз умри давомида кўп ишларни қилиши, кўп юмушларни адо этиши мумкин. Аммо уларнинг барчаси инсон деган номга шараф келтирмайдиган бўлса, изсиз, белгисиз кетаверади.

Биз ажойиб бир инсон ҳақида сўз юритамизки, бу инсон ҳаётда ўз ўрни, ўз инсоний фазилатларини юқори поғонага етказиб, ҳаётни, илму маърифатни улуғлайган. Бу инсон замон алломалари, олимларнинг олими, устозларнинг устози, қалби пок инсон, филология фанлари доктори, профессор, 78 йил ширин шакар ҳаётини илму маърифат ва ёшларнинг тарбиясига бағишлаган олим Мирзакулов Турсунали бўлади.

У 10 май 1978 йил Ленинобод вилоятида туғилиб вояга етган. Унинг ижодий фаолияти 1965 йилда бошланган бўлиб, Ленинобод давлат педагогика институти, филология факултети талабаси, 1971 йилдан Хужанд давлат педагогика институти “Ўзбек тилшунослиги” кафедраси профессори, кафедра мудири, ўзбек тили ва адабиёти факультети декани, сиртки таълим бўйича проректор.

Олим ва устоз Мирзакулов Турсунали ҳақида кўп ва хўп гапириш, ёзиш мумкин. Чунки устозлар буладик, ўзларининг фидойилиги, инсонийлиги ва чин маънода билим ва заковатини шогирди ва талабаларига армуғон этади. Ўзининг сўзига, истеъдодига эга бўлиб, бир умрга қилган ҳатти - ҳаракати билан қалбга таъсир этади, инсоннинг инсон сифатида шаклланишига ҳисса қўшади. Бундай олимларни тажрибали мутахассисга,

устага ўхшатадилар ва улар ҳаттоки хом лойдан санъат асарлари яратиш ва мустақил фикрловчи шахсларни шакллантириш кўлидан келадиганлардандир.

Мирзакулов Турсуналининг ҳаёт йулларига бир назар ташласак, қаерда меҳнат қилмасин, доимо ижобий натижаларга эришганлигини кузатамиз. Бу киши ўз зиммасига юклатилган илмий, тарбиявий ва маърифий вазифаларини юқори савияда бажариб келган.

Профессор Мирзакулов Турсуналининг ишларига қараб, бу кишининг шахсиятига, илмий ва оммавий салоҳиятига ёшлигидан жуда пухта, мустаҳкам ва зарурий асос қўйилган, десангиз адашмайсиз. Албата ўзининг шахсий ривожланишига эътибор, тиришқоқлик, ўз ўзига талабчанлик, муаммоларни асосидан ўрганиш иштиёқи, илмий тадқиқот ва маориф масалаларини муҳокама қилганда, фикрлар теранлиги ва қилинадиган тақлифлар ва ёхуд бериладиган вазифаларнинг аниқ ва лўндалиги устоз шахсиятининг алоҳида ажралиб туришини таъминлайди.

Донишмандлар: “Ҳар бир инсоннинг бахти-ўзига хос бўлган ишларни тўлиқ, мукаммал содир қилишдадир”, - дейдилар. Назаримда, олим, устоз учун бахт деган тушунчанинг ҳикмати ҳам аслида шу бўлса керак. Бу бахтнинг асоси – устознинг файзли, оқил ва доно оиласи, садоқатли шогирдлари, эъзозлайдиган олийгоҳи, деб биламан. Халқимизда ажойиб анъаналар мавжуд.

Инсондаги инсонийликни кўра билиш ва тарбиялаш юксак маданият ва маънавият белгисидир. Шу боис устоз бир пиёла чой устида ёки бўлмаса расмий ҳолда баҳс мунозаралар орқали биз касбдошларга баҳо бериб, тўғри йўлга бошлаб, қиматли маслаҳатларини илмий-педагогик тавсияларини берганликлари ва ҳар томонлама қўллаб қувватлаганликлари эътирофга сазовордир.

Устоздаги самиймийлик, ҳар қандай хато ва танқидни ҳам кўнгилга тегмас ҳолда бериши ва муаммони бартараф этиш юзасидан тўғри қарор қабул қилиш ҳолатларини бир неча бор кузатганман.

Устознинг инсонийлик қиёфасидаги яна бир фазилатли жиҳати -у кишининг оилапарварлигидадир. Табиийки, оила - табиатнинг шоҳ асари бўлиши билан бирга, бизнинг кундалик муваффақиятимиз, осойишта фаолият юритишимиз кафолати. Биз оиладаги аҳлик, ота-она фарзандлар, муносабатларининг ўзаро бир бирига эҳтироми, ҳамкорлик ва юксак маданият даражасида эканлигини далолатидир. Устоз ақлий ишдан чарчаганларида оиладаги муҳитни фароғатга айлантиради. Менинча бахт дегани шу бўлса керак.

Мирзакулов Турсунали илмий тилшунослик жараёнини бугунги кун талабларига жавоб бера оладиган ва меҳнат бозорида рақобат қиладиган кадрлар тайёрлаш борасида фаолият юритаётган жонкуяр, холис айти пайтда халол баҳо берадиган устоздир.

Устоз деганда, ҳар қайси инсон кўнглида чуқур ҳурмат-эҳтиром ва чексиз миннатдорчилик туйғулари, шу билан бирга, ҳеч қандай бойлик билан ўлчаб ва адо қилиб бўлмайдиган қарздорлик ҳисси пайдо бўлади.

Ҳар қайси инсон-қаерда ишламасин, қандай касбу кор, лавозим эгаси бўлмасин, унга билим ва тарбия бериб, ҳаётга йўллаган муҳтарам устоз ва мураббийлари олдида ҳамиша қарздордир.

Қаҳрамонимиз таълим соҳасидаги 60 йиллик фаолияти давомида Кадрлар тайёрлаш дастури негизида таълим сифатини ошириш ва амалиётга тадбиқ этиш бўйича қатор ишларни амалга оширган. Шунингдек, фан ва таълимни ривожлантириш бўйича давлат дастурларини ишлаб чиқиш, таълим стандартларини, касблар классификаторини такомиллаштириш ва модернизациялашда, умумий ўрта таълим муассасалари учун дарсликлар ва ўқув қўлланмалар, беҳисоб илмий мақолалар халқ маориф соҳасида катта мақомга эга деб биламиз.

У С Т О З

Ҳаётда аёндир ажиб бир ҳикмат,
Отангдай улуғдир хокисор бир зот.
Илму толибларга бахшида неъмат,
Бунчалар азизсиз, мўтабар устоз !

78 йўлларида нурлар таратар,
Шогирдлар интилган 78 дур-китоб.
Ҳали қанча баҳор йўқлайди Сизни,
Сиз боқий зиёсиз, мўътабар устоз!

Йўллар суронида чархланар умр,
Тарбият боғида боғбонсиз абад.
Сиз сўнмас ёғдусиз, чарақлаган нур,
Ҳар сўзи бир мактаб, муътабар устоз!

PROFESSOR MIRZAQULOV TURSUNALI O‘TAYEVICH – IBRATLI HAYOT VA SAMARALI ILMIY FAOLIYAT TIMSOLI

Inson umrining eng yuksak sahifalari – bu ilmga, ma’rifatga va inson tarbiyasiga bag‘ishlangan yillardir. Ana shunday mazmunli va sharaflilik umr sohiblaridan biri – ustoz, olim va fidoyi inson, professor Mirzaqulov Tursunali O‘tayevidir. Inson hayotida shunday zotlar bo‘ladiki, ular nafaqat o‘z taqdiri, balki butun bir ilmiy maktab, ma’naviy muhit taqdirini belgilab beradi. Professor Mirzaqulov Tursunali O‘tayevidir ana shunday ulug‘ insonlar sirasiga mansub bo‘lib, yillar davomida shakllangan boy hayotiy tajriba, chuqur ilm va mustahkam iroda Tursunali aka faoliyatida uyg‘unlashib, ularni nafaqat yetuk olim, balki katta maktabga aylantirdi.

Men uchun u kishi, avvalo, ilmga fidoyi, so‘zga sadoqatli, o‘z kasbiga beqiyos muhabbat bilan yondashadigan haqiqiy ustoz, nafaqat yirik tilshunos olim, balki ma’naviy ustun, haqiqiy ziyoli timsoli hamdir. Ustozning hayot yo‘liga nazar tashlar ekanman, uning har bir bosqichida mehnat, izlanish va ilmga sadoqat mujassam ekanini yana bir bor his qilaman. Zero, mazkur yetuk olim, tajribali pedagog va fidoyi insonning hayot yo‘li, ilmiy faoliyati va boy pedagogik merosi bugungi kunda nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki butun turkiy filologiya taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi.

Mirzaqulov Tursunali O‘tayevidir 1948-yil 10-mayda Tojikiston Respublikasining Leninobod viloyatida tavallud topgan. Ustozning mehnat faoliyati juda erta — oddiy boshlang‘ich sinf o‘qituvchiligidan boshlangani uning hayotidagi ilk fidoyilik namunasi edi. Keyinchalik u Leninobod davlat pedagogika institutida tahsil olib, o‘z bilim va salohiyatini izchil ravishda rivojlantirdi. Uning ilmiy-pedagogik faoliyati aynan shu dargohda shakllanib, oddiy o‘qituvchilikdan tortib, katta o‘qituvchi, dotsent Yu professor kabi bosqichlarni bosib o‘tdi. Bu yo‘l oson kechmagan, albatta. Ammo ustozning matonati, ilmga bo‘lgan cheksiz muhabbati va izlanishdan to‘xtamas tabiati uni mana shunday yuksak ilmiy maqomlarga olib chiqdi.

Professor Tursunali Mirzaqulov o‘zbek tilshunosligida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri — morfemika sohasini chuqur tadqiq etgan yetuk olimlardan biridir. Uning “O‘zbek tili morfem paradigmatisasi va sintagmatikasi masalalari” nomli doktorlik dissertatsiyasi tilshunosligimizda yangi ilmiy qarashlarni shakllantirdi. Ushbu tadqiqot orqali o‘zbek tili morfemikasi, uning ob’ekti, birliklari va boshqa til sathlari bilan munosabati ilk bor tizimli ravishda yoritib berildi. Bu esa nafaqat nazariy, balki amaliy tilshunoslik uchun ham muhim ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qildi. Ustozning ilmiy izlanishlari, ayniqsa, o‘zbek tili morfemikasiga oid tadqiqotlari tilshunosligimizda yangi sahifa ochganini alohida ta’kidlash joiz.

Olimning ilmiy merosi nihoyatda salmoqli: 250 dan ortiq ilmiy ishlar, 20 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta uslubiy qo‘llanma, ko‘plab xalqaro va respublika anjumanlaridagi maqolalar. Ayniqsa, “Grammatika o‘qitishning lingvistik asoslari” asari o‘z vaqtida ta’lim tizimida muhim qo‘llanma sifatida keng qo‘llanilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, ustozning o‘zbek tilshunosligida morfemika sohasiga qo‘shgan hissiy alohida ta’kidga loyiq. U tomonidan ilgari surilgan ilmiy g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, yangi tadqiqotlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Ustozning 250 dan ortiq ilmiy ishlari, o‘quv qo‘llanmalari va kitoblari — bu faqat raqam emas. Bu — bir umrlik mehnat, bir umrlik izlanish va bir umrlik sadoqatning ifodasidir.

Professor Mirzaqulov faqat ilmiy izlanishlar bilan cheklanib qolmay, jamiyat hayotida ham faol ishtirok etgan. U turli yillarda kafedra mudiri, fakultet dekani o‘rinbosari, prorektor, ilmiy kengash a’zosi, O‘zR OAK eksperti sifatida samarali faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, u ma’naviy-ma’rifiy ishlar, jamoatchilik faoliyatida ham faol ishtirok etib, yosh avlodni tarbiyalashga ulkan hissa qo‘shib kelmoqda.

Ustozning eng katta fazilatlaridan biri — bu uning ustozlik maktabidir. U kishining ilmiy rahbarligida bir qator tadqiqotchilar kamol topgan, bugungi kunda esa yangi avlod olimlari uning ilmiy maktabini davom ettirmoqda. U dars jarayonida faqat bilim beribgina qolmay, talabani o‘ylashga, izlanishga, savol berishga undaydi. Bu esa haqiqiy ustozga xos noyob fazilatlarandir.

Men ustozning yana bir fazilatini alohida e’tirof etmoqchiman — bu ularning insonparvarligi va ustozlik mehri. Chunki ustoz har bir shogirdga faqat bilim emas, balki hayot sabog‘ini ham bera

oladigan noyob insonlardan. Shu bois uning shogirdlari nafaqat bilimli mutaxassis, balki yuksak ma’naviyatli shaxslar sifatida shakllanmoqda.

Ayni paytda professor Mirzaqulov Olmaliq Ipak yo‘li innovatsiyalar universitetida samarali faoliyat yuritib, o‘z bilim va tajribasini yoshlarga ulashishda davom etmoqda. U kishining har bir ma’ruzasi — ilm ziyosi, har bir maslahati esa haqiqiy hayot maktabidir.

Professorning ko‘p yillik samarali mehnatlari munosib baholangan. U “Tojikiston maorifi a’lochisi” va “Oliy ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. Bu mukofotlar — ustozning ilm-fan va ta’lim rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasining yorqin e’tirofidir.

Ustozning hayot yo‘li — bu mehnat, izlanish va sabrning yorqin namunasidir. Oddiy o‘qituvchilikdan boshlangan faoliyat, yillar davomida yuksalib, professorlik maqomigacha yetgani — bu tasodif emas, balki uzluksiz mehnat va ilmga sadoqat samarasidir. Tursunali aka nafaqat ilmiy ishlari bilan, balki inson sifatidagi fazilatlar bilan ham barchamizga o‘rnakdirlar. Kamtarlik, samimiyat, talabchanlik va ayni paytda mehribonlik — bu sifatlar ularning tabiatida uyg‘un mujassam.

Bugun, ushbu qutlug‘ sana munosabati bilan, ustozimizni chin dildan tabriklar ekanmiz, ularga mustahkam sog‘liq, uzoq umr va yana ko‘plab ilmiy zafarlar tilaymiz.

Men ustoz Mirzaqulov Tursunali O‘tayeichga chuqur ehtirom va samimiy minnatdorligimni bildiraman. U kishining hayoti va faoliyati biz uchun ibrat maktabidir. Ustozga sog‘lik-salomatlik, uzoq umr, ilmiy va ijodiy faoliyatlarida yanada ulkan yutuqlar tilayman. U kishining nurli yo‘li yana ko‘plab avlodlarga yo‘l ko‘rsatishda davom etsin, ilmiy merosi va ustozlik an‘analari yana ko‘p yillar davomida yangi avlodlarga xizmat qilsin.

Hurmat bilan, Saodat Muhamedova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

“O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedra mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

ILMGA BAXSHIDA UMR

**Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti
xotin-qizlar maslahat kengashi raisi**

Rajabova Dildora Shakarboyevna

Hayot yo‘li ezgulik va nur bilan yo‘o‘rilgan, sabr va fidoyilik namunasi bo‘lgan ustozlar chin ma’noda jamiyatning faxr-u g‘ururidir. Har bir ustoz alohida ehtiromga loyiq, ular o‘z mehnati, tafakkuri, mehr-muhabbati bilan boshqalardan ajralib turadi. Ana shunday ulug‘ insonlardan biri mo‘tabar ustoz, mehnatkash, zukko va oqil ustoz Mirzaqulov Tursunali O‘tayeich.

Bugun u kishi 78 bahorni qarshi olmoqda. O‘rtda qolgan yillar shunchaki son emas, balki hayot sinovlari, fidokorlik, ilmga sadoqat va shogirdlarga bag‘ishlangan umr sahifalaridir. O‘zbek tilshunosligi sohasida o‘z o‘rnini topgan, ko‘plab shogirdlar qalbiga bilim va tarbiya uruo‘ini qadagan bu inson hayoti, albatta, ibrat maktabidir.

Ustoz bu jamiyatning tayanchi, oilaning quvonchi, farzand tarbiyasining bosh muallimi. Ayniqsa, vatanimiz taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan, umrini ilm-fan, ta’lim-tarbiya sohasiga bag‘ishlagan oqil ustozlarning o‘rni beqiyosdir. Bugungi kunda ustozning 78 yillik yubileyi munosabati bilan o‘tkazilayotgan ilmiy-amaliy konferensiya bu nafaqat bir inson faoliyatining e’tirofi, balki yosh avlod uchun katta ibratdir. Zero, mehnat va fidoyilik doimo ehtirom bilan qadrlanadi.

Shunday fidoyi, sabrli va bilimdon ustozlar bor ekanki, yurtimiz ta’limi, kelajagi porloq bo‘lishiga ishonchimiz komil.

Ayniqsa, o‘zbek tilining rivojlanishi uchun zahmat chekib, ilm ahli manfaatlarini himoya qilish, ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish yo‘lida ham ulkan ishlarni amalga oshirganliklari e’tiborga loyiqdir.

U kishining oilaviy hayoti ham ko‘pchilik uchun namunadir. Mehnat bilan birga oila, farzand tarbiyasiga ham katta e’tibor bergan. Farzandlari ham otaonasining yo‘lidan borib, ilm-fan, ta’lim, jamiyat xizmatida faoliyat yuritmoqda.

Tursunali O‘tayeovich hayotida oila va mehnatni birdek ulug‘lab yashaganini ko‘ramiz. U kishi nafaqat bilimli pedagog, balki mehribon ota, shogirdlariga jonkuyar ustoz sifatida ham e‘tirof etamiz.

Kamtarin va zarofatli inson, bag‘rikeng va mehdaryo ustoz, taniqli jamoat arbobi Mirzakulov Tursunali O‘tayeovichga unutilmas shukrona Kunlarida samimiy tilaklarimiz: Jo‘shqin daryomisol aziz umringizning yuksak bir dovoni-insoniy kamolotga yetishishdek sharaflari rutbangiz--tabarruk 78 bahoringiz barcha yaqinlaringizga va butun jamoamizga muborak bo‘lsin! Bu muborak sana nafaqat Ipak yo‘li innovatsiyalar universitetimiz jamoasi uchun katta shodiyona, balki bu Respublikamiz ziyolilari uchun ham faraxbaxsh bir kun. Hikmatli va mas‘uliyatli umringizning bu yuksak dovoniga, Siz, eng avvalo, hayot deb atalmish buyuk ne‘matning asl mohiyati va qadriga yetib, uning achchiq-chuchugini tatib, ilm va ijodning ham mashaqqatli, ham sharaflari onlarini boshdan kechirish va teran anglash orqali erishganligingizga qo‘shni Respublika va viloyatlardagi ko‘plab zamondosh-tengdoshlaringiz va ixlosmand shogirdlaringizbarchamiz shohidmiz. Darhaqiqat, necha minglab yoshlarga ota-onalariday ardoqli, zukko bir inson va e‘zozli ustoz-murabbiy bo‘la olishdek sharaflari rutbaga Siz, hech shubhasiz, o‘zingizning aql - zakovatingiz, mustahkam iroda-e‘tiqodingiz va samarali mehnatingiz bilan erishib, shunday nurli manzilga yetib kelganligingiz havas qilishga va faxrlanishga arziydigan unutilmas voqea.

Sizning tabiatan nekbin va xayrixoh insonligingiz, tashkilotchi va rahbarlik qobiliyatingiz ko‘plab taniqli zamondoshlarimiz- yirik ziyolilar va ustoz olimlarimiz tomonidan yakdillik bilan e‘tirof etilayotganligi ham hayot yo‘lingiz o‘oyat ibratli, ma‘rifatparvarlik va pedagogik faoliyatingiz sermahsul va natijador bo‘lganligidan yorqin dalolat berib turadi. Sizning ham quvonchli, ham sinoqli kunlar bilan kechgan mazmundor hayotingiz va serqirra ustoz-murabbiylik faoliyatingiz tahsinga loyiq. Ayniqsa, yarim asr avval tashkil topgan pedagogika institutimizning respublikamizdagi yetakchi bir universitet bo‘lishida Sizdek fidoiy ustozlarning xizmati beqiyosdir. Sizning boy hayotiy tajriba-bilimingiz, mutasaddilik salohiyatingiz, insonlarga hamdard-nadimaligingiz barcha ilmiy daraja-unvonlardan yuksakroq va ahamiyatliroqdir. Sizning 60 yil davomida jonajon Vatanimizda fidoyilik ila samarali pedagogik faoliyatingiz, o‘zi - katta bir hayotiy dorilfunun desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Siz va Sizdek jonkuyar faxriylarimiz hamisha xalqimizning umid-ishonchini oqlab, o‘qituvchimurabbiylik kasbimiz bilan yoshlarning ona tili-adabiyotimizga va Vatanimizga mehr-sadoqatini oshirib, jamiyatimizga munosib xizmat qilib kelayotganligimiz umrimizga chuqur mazmun, ko‘nglimizga xotirjamlik bag‘ishlaydi. Sizning o‘zingizday oliyhimmat javonmard INSON, sadoqatli umr yo‘ldoshingiz bilan qo‘shqanot bo‘lib, ibratli oilangizga va ikki jumhuriyatdagi bardavom sulolangizga mehr-oqibatli rahnamoligingizga ham havas qilamiz. Iloho, solih farzandlar, umidli nevaralar va jon-jigarlarning -u kamolini ko‘rib, shukronalik bilan yashash barchamizga nasib etsin. Ushbu saodatmand kunlarda Siz qadrdonlarga ezgu orzu-niyatlar bilan yo‘o‘rilgan bebaho faoliyatingiz yanada fayzli bo‘lishini yaratgandan tilaymiz. Ustoz ilohim umringiz uzoq, tani joningiz omon bolsin, Olohim umringizga, rizqingizga, kasb-u koringizga baraka bersin. Martabangiz bundan-da ulug‘ bo‘lsin.

Nechog‘ baxtiyorman, ta‘zimda shu tob
Sizning sha‘ningizga bitmoqdaman bayt.
Ne odam bo‘lardim qo‘limda kitob,
Biron harf tanimay tursaydim loqayd.

Sizku alifbodan qomusgacha to,
Bari-barisini tanitgan ustoz.
Ilk bor siz ko‘rsatgan darahshon zuxro,
Bu kun she‘rim ichra tashbehdir mumtoz.

Siz mo‘jaz yurakda yoqolgan yog‘du
Oqibat quyoshdek socha olgan nur.
Buyuklar haqqiga qasamyod gap bu,
Sizdan boshlanadi asli tafakkur.

**“ILMGA BAXSHIDA UMR: MIRZAKULOV TURSUNALI O‘TAYEVICHNING
ILMIY FAOLIYATI VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIGA QO‘SHGAN HISSASI”**

Sadriddinova Zarina Shuhrat qizi
Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti assistenti
shukhratovnazarina00@gmail.com
+998 50 188 28 05

Annotatsiya. Mazkur maqolada filologiya fanlari doktori, professor Mirzakulov Tursunali O‘tayeichning ilmiy-pedagogik faoliyati, o‘zbek tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hisssasi hamda tilshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlari tahlil qilinadi. Olimning o‘zbek tilining morfologik tizimi, morfemalar va ularning funksional xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlari yoritilib, uning ilmiy merosining bugungi tilshunoslik fanidagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, olimning pedagogik faoliyati, ilmiy maktab yaratishdagi o‘rni va yosh tadqiqotchilarni tayyorlashdagi hisssasi haqida ham so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mirzakulov Tursunali O‘tayeich, o‘zbek tilshunosligi, morfologiya, morfema, til tizimi, ilmiy meros, tilshunos olim, ilmiy faoliyat, pedagogik faoliyat.

Til – millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy boyligi va madaniy merosini o‘zida mujassam etgan eng muhim ijtimoiy hodisalardan biridir. Har bir xalqning milliy o‘zligi, tafakkuri va dunyoqarashi avvalo uning tili orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois tilni o‘rganish, rivojlantirish va ilmiy jihatdan tadqiq etish har bir jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilshunosligi ham uzoq tarixga ega bo‘lib, bu sohada ko‘plab olimlar samarali ilmiy izlanishlar olib borgan va tilshunoslik fanining rivojiga munosib hissa qo‘shgan.

O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida tilning grammatik qurilishi, uning morfologik va semantik xususiyatlarini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, til birliklarini tizimli tahlil qilish, morfemalarning strukturaviy va funksional xususiyatlarini aniqlash tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu borada bir qator yetuk olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, ular orasida filologiya fanlari doktori, professor **Mirzakulov Tursunali O‘tayeich** alohida o‘rin egallaydi.

Mirzakulov Tursunali O‘tayeich o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan, ilmiy izlanishlari bilan tanilgan yetuk olimlardan biridir. U o‘z ilmiy faoliyati davomida tilshunoslik fanining dolzarb masalalarini o‘rganishga katta e‘tibor qaratgan. Olimning ilmiy izlanishlari asosan o‘zbek tilining grammatik qurilishi, morfologik tizimi hamda morfemalarning strukturaviy va funksional xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan.

Mirzakulov Tursunali O‘tayeich o‘zbek tilining morfemik tizimini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Olimning **“O‘zbek tilida morfemika obyekti va birliklari haqida”** nomli ilmiy maqolasida morfemika tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri ekanligi ta’kidlanadi. Unda morfema tilning eng kichik ma’noli birligi bo‘lib, so‘zning tarkibiy tuzilishini aniqlashda asosiy rol o‘ynashi qayd etiladi.

Olimning fikricha, o‘zbek tilidagi so‘zlarning morfemik tarkibini o‘rganish tilning ichki tuzilishini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, u so‘z tarkibini **asos (o‘zak)** va **affiksalar morfemalar** orqali tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv til birliklarini tizimli ravishda o‘rganish imkonini beradi.

Olimning **“O‘zbek tilida morfemika obyekti va birliklari haqida”** nomli ilmiy ishida morfemika tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida talqin qilinadi. Mazkur tadqiqotda morfema so‘z tarkibining eng kichik ma’noli birligi sifatida izohlanadi hamda morfemalarning o‘zaro munosabatlari, ularning strukturaviy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot o‘zbek tilining morfemik tizimini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, olim o‘z ilmiy izlanishlarida morfemalarning paradigmatic va sintagmatik munosabatlarini ham tahlil qiladi. Paradigmatic munosabatlar til birliklarining tizim ichidagi o‘zaro bog‘liqligini ifodalasa, sintagmatik munosabatlar ularning nutq jarayonidagi birikish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Mirzakulov Tursunali O‘tayeich ushbu masalalarni tahlil qilish orqali o‘zbek tilining morfologik tizimini yanada chuqurroq tushuntirib beradi.

Olimning tadqiqotlarida o‘zbek tilining agglutinatib tabiati ham alohida e’tiborga olinadi. Ma’lumki, o‘zbek tili agglutinatib tillar qatoriga kiradi va bunda so‘zlar asosan o‘zakka turli qo‘shimchalar qo‘shish orqali hosil qilinadi. Mirzakulov Tursunali O‘tayeovich affikslarning grammatik va semantik funksiyalarini tahlil qilib, ularning til tizimidagi ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Masalan, **“-chi”**, **“-lik”**, **“-siz”**, **“-li”** kabi qo‘shimchalar yordamida yangi so‘zlar hosil qilinishi o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlari keng ekanligini ko‘rsatadi.

Olimning fikricha, o‘zbek tilida so‘z yasalishi jarayoni asosan affiksatsiya orqali amalga oshadi. Bu jarayon tilning agglutinatib xususiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, o‘zbek tilidagi **“ishchi”**, **“bilimli”**, **“o‘qituvchi”**, **“yurakli”** kabi so‘zlarning yasalishi o‘zakka turli qo‘shimchalar qo‘shish orqali hosil bo‘ladi. Mirzakulov Tursunali O‘tayeovich bunday misollar orqali o‘zbek tilidagi morfologik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan izohlaydi.

Olimning ilmiy ishlari faqat nazariy jihatlar bilan cheklanib qolmay, amaliy ahamiyatga ham ega. Uning tadqiqotlari o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida morfologik hodisalarni tushuntirish, so‘z tarkibini tahlil qilish hamda grammatik kategoriyalarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli Mirzakulov Tursunali O‘tayeovichning ilmiy merosi nafaqat tilshunoslik fanida, balki ta’lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, olim morfemalarning semantik va grammatik xususiyatlarini tahlil qilishga ham alohida e’tibor qaratadi. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, har bir morfema nafaqat grammatik vazifani bajaradi, balki muayyan semantik ma’no ham ifodalaydi. Shu sababli morfemalarni o‘rganishda ularning ma’no ifodalash imkoniyatlarini ham hisobga olish zarur.

Mirzakulov Tursunali O‘tayeovichning ilmiy izlanishlarida til birliklarini tizimli o‘rganish tamoyili muhim o‘rin egallaydi. Olim tilni murakkab tizim sifatida qarab, undagi barcha birliklar o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritishini ta’kidlaydi. Bu yondashuv til hodisalarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi hamda tilshunoslik tadqiqotlarining ilmiy asoslarini mustahkamlaydi.

Olimning ilmiy ishlari o‘zbek tilshunosligining nazariy asoslarini boyitish bilan birga, amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, uning tadqiqotlari o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida morfologik hodisalarni tushuntirish, so‘z tarkibini tahlil qilish hamda til birliklarini ilmiy asosda o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mirzakulov Tursunali O‘tayeovich ilmiy faoliyati davomida ko‘plab ilmiy maqolalar, o‘quv qo‘llanmalar va tadqiqot ishlarini yaratgan. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘zbek tilshunosligi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Olimning ilmiy qarashlari yosh tadqiqotchilar uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mirzakulov Tursunali O‘tayeovich o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan, ilmiy izlanishlari bilan tilshunoslik fanining rivojiga xizmat qilgan yetuk olimlardan biridir. Uning ilmiy faoliyati asosan o‘zbek tilining morfologik tuzilishi, morfemika masalalari hamda til birliklarining tizimli xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu tadqiqotlar tilshunoslik fanining nazariy asoslarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olim o‘z ilmiy ishlarida morfemalarni til tizimining muhim elementi sifatida talqin qilib, ularning semantik va grammatik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari o‘zbek tilidagi morfemalarning strukturaviy tuzilishi, ularning o‘zaro munosabatlari hamda til tizimidagi funksional vazifalarini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Shu orqali o‘zbek tilining morfologik tizimini yanada chuqurroq anglash imkoniyati yaratilgan.

Mirzakulov Tursunali O‘tayeovich nafaqat olim, balki fidoyi pedagog sifatida ham tilshunoslik fanining rivojiga katta hissa qo‘shgan. U ko‘p yillar davomida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borib, yosh avlodni ilmiy izlanishlarga yo‘naltirish, ularning mustaqil fikrlash va ilmiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Olim rahbarligida ko‘plab yosh tadqiqotchilar shakllanib, o‘zbek tilshunosligining rivojiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Shu jihatdan Mirzakulov Tursunali O‘tayeovichning ilmiy merosi o‘zbek tilshunosligi tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning ilmiy qarashlari, olib borgan tadqiqotlari va pedagogik faoliyati bugungi kunda ham tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy

va metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Olimning ilmga baxshida umr yo‘li, ilmiy merosi hamda pedagogik faoliyati yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib qoladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzakulov T.O‘. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Mirzakulov T.O‘. Til va nutq madaniyati masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Mirzaqulov T. O‘zbek tili morfemikasining obyekti va birliklari haqida// O‘zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1989, № 4. B. 35-40
4. Abdullayev A., Hojiyev A. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
5. Mahmudov N. Til va jamiyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
6. Rasulov R. O‘zbek tilshunosligiga kirish. – Toshkent: Fan, 2008.
7. Nurmonov A. Lingvistika nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
8. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zME davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005.
9. O‘zbek tiliga oid ilmiy maqolalar va materiallar. – www.ziynet.uz

XOTIMA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, professor Mirzaqulov Tursunali O‘tayevichning ilmiy-pedagogik faoliyati, nazariy qarashlari, morfologiya va morfemika sohasidagi hissasi, lingvodidaktik konsepsiyasi hamda ilmiy maktabi tizimli tarzda tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Mirzaqulovning ilmiy yondashuvi o‘zbek tilining grammatik tizimini chuqur anglash, morfemalar va affikslarning funksional vazifalarini aniqlash hamda morfonologik jarayonlarni izchil tahlil qilish imkonini yaratgan. Ustozning lingvodidaktik konsepsiyasi nafaqat til o‘qitishda nazariy asoslarni shakllantirishga, balki o‘quvchilarning til tizimini tizimli va mantiqiy tushunishlariga xizmat qiladi. Shogirdlar bilan ishlashdagi ustoz-shogird an‘anasi esa ilmiy maktabning izchilligi va davomiyligini ta‘minlab, olimning ilmiy merosini keyingi avlodlarga uzluksiz yetkazishga xizmat qiladi.

Olim Mirzakulov Tursunali O‘taevichning 60 yillik pedagogik faoliyati davomida yuqorida qayd etilganidek, ko‘plab malakali kadrlar tayyorlangan, ilmiy maktab shakllangan, tilshunoslik sohasida yangi yo‘nalishlar rivojlangan. Bu esa ustozning ilmiy merosini yanada qimmatli qiladi.

Globalashuv sharoitida til masalasi tillar aralashuvini kuchaytirmoqda, milliy tillarga tahdid solmoqda, madaniy assimilyatsiyaga olib kelishi mumkin. Shu bois milliy tilni asrash, uni rivojlantirish, ta‘limda samarali qo‘llash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Til — millatning borlig‘ini belgilab beruvchi asosiy omildir. U millatning tarixi, madaniyati va ma’naviy dunyosi bilan uzviy bog‘liq.

2-SHO‘BA - TURKIY TILLAR BIRLIGI VA MADANIY MEROS

ТИЛ ТАРИХИ ТАДҚИҚИДА ТАРИХИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ

Назаров Насриддин Атакулович,

Фалсафа фанлари доктори, Алишер Навоий номидаги
Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университети

профессори. nasrid@mail.ru

+998909150288

Аннотация: Мақолада тил тарихи масалаларини ўрганишда тарихий қадриятларнинг ўрни масалаларига эътибор қаратилади. Бунда, асосан тарихий тафаккур ривожига хизмат қилувчи илк туркий ёзма манба – Ўрхун ёдгорликларидаги тарихий ҳикматлар, уларнинг тил тарихини ўрганишдаги аҳамияти масалаларига эътибор қаратилади. Шунингдек, Ўрхун тошбитикларини ўрганишда туркология фани, унинг туркий тадқиқотлар ривожига роли тадқиқ этилади. Тошбитиклардаги ҳикматларнинг бугунги кунда ҳам маънавий ғоявий тарбия манбаи эканлиги масалалари таҳлил этилади.

Калит сўзлар: Тил тарихи, қадриятлар, Ўрхун ёдгорликлари, битиктошлар, тарихий тараққиёт, маънавият, туркология.

THE ROLE OF HISTORICAL VALUES IN THE STUDY OF LANGUAGE HISTORY

Abstract: The article examines the role of historical values in studying the history of language. It primarily focuses on the earliest Turkic written sources – the Orkhon inscriptions, which serve as a vital foundation for the development of historical thinking. The significance of historical aphorisms found within these monuments and their importance in exploring the history of language are thoroughly analyzed. Furthermore, the article investigates the field of Turkology and its pivotal role in the advancement of Turkic studies. The author highlights that the wisdom preserved in these stone inscriptions continues to serve as a significant source of spiritual and ideological education in the modern era.

Keywords: History of language, values, Orkhon monuments, inscriptions, historical development, spirituality, Turkology.

Роль исторических ценностей в исследовании истории языка

Аннотация: В статье рассматривается роль исторических ценностей в изучении вопросов истории языка. Основное внимание уделяется первым тюркским письменным памятникам — Орхонским надписям, которые служат фундаментом развития исторического мышления. Анализируется значение исторических изречений, запечатленных в данных памятниках, и их роль в исследовании генезиса тюркских языков. Также исследуется становление тюркологии как науки и её значение в развитии современных тюркских исследований. Автор подчеркивает, что мудрость, зафиксированная в древних каменных письменах, и сегодня остается важнейшим источником духовно-идеологического воспитания.

Ключевые слова: История языка, ценности, Орхонские памятники, надписи, историческое развитие, духовность, тюркология.

Тарихий қадриятларимиз илк намуналаридан бўлган турк рунологияси, яъни Ўрхун ёзма ёдгорликлари тарихий манбалар бўлиши билан бир қаторда уларда учинчи ренесанс асослари шаклланаётган бугунги кунда миллий тилимиз тарихини ўрганиш асосида туркий халқлар бирлигини таъминлаш ғояларининг ҳам устивор моҳият касб этганлиги билан эътиборлидир. Маълумки, тарихий тараққиёт давомида туркий халқлар тиллари бирлигини тарғиб этиш асосида ўзаро умумийликни таъминлаш доимо етакчилар ҳамда зиёлиларнинг диққат эътиборида бўлиб келганлиги манбалардан маълум. Хусусан, VII-асрнинг охири ва VIII-асрнинг бошларида қадимги туркий мутафаккир Йўлғи тегин – Култегин, Билга

хоқон, Қутлуғ Элтериш хоқонлар шарафига қўйилган ёзма ёдгорликларнинг муаллифи, теран тафаккур соҳиби туркий маънавият ва маърифатнинг тамал тошини қўйган мутафаккир сифатида турк хоқонлиги даврида ўзига хос ўрин тутганлиги Ўрхун тошбитикларидаги маълумотлардан аён. Ёзувларда қадимги туркларнинг умумий адабий тили асосида маданий турмуш даражаси, адабий имкониятлари, тарихий воқеалар инъикоси, тафаккур кенгликлари ифодаланганлиги билан диққатни жалб этади. Қадимги турклар сиёсий бирлигининг етакчилари Билга хоқон ёдгорлиги (732 йил) ва унинг укаси Култегин ёдгорлиги (735 йил) (Кошо-Сайдам ёзувлари) ва шунингдек, маслаҳатчи Тонюқуққа аталган ёзув (716 йилдан кейин яратилган)ларда қадимги туркий тил имкониятларидан фойдаланиш асосида даврнинг тарихий воқеалари силсиласини ўзида ифодалаб, турк баҳодирлари жасоратли фаолиятларининг акс этганлиги – туркий халқлар лингво-тарихи ва маданиятининг тошбитикларда ифодаланган дастлабки боби эканлиги билан характерлидир.

Туркий халқлар ҳамда уларнинг маданиятга мансублик хислатлари ҳақида гап кетганда туркийларни кўчманчилик маданияти билан боғлаш анъаналари илмда устувор моҳиятга эга. Лекин, бу аждодларимизни бутунлай кўчманчи бўлган, ўтроқ маданият туркийларга ёт дегани эмас. Кўчманчилик маданиятида мужассам бўлган пассионарлик салоҳияти дунёни туркларга танитгани каби, туркларни ҳам дунёга танитди. Турклар ўтроқлашиб, илгари умуминсоний цивилизацияга ҳисса қўшиб келган бўлса, энди цивилизациялашув жараёнларининг бошида турди. “Уч минг йил давомида икки цивилизация: кўчманчи ва ўтроқ, нисбий ички автономияни сақлаб, бир-бири билан ёнма-ён ривожланиб, бир-бирини янада бойитиб, ягона умумий цивилизация яратдилар. Кўчманчилар орасида туғилган гумбаз меъморчилиги бутун дунё бўйлаб тарқалиб, дунё халқларининг мулкига айланди; шаҳар аҳолисининг устахоналарида пайдо бўлган ҳунармандчиликни кўчманчи халқлар ўзлаштирди» [Турсунов, 2001: 8]. Бундай умумий цивилизация туркий цивилизация сифатида умуминсоний тараққиётнинг ривожига ҳисса қўшиб келди. “Улар (қадимги турклар – Н.Н.) чорвачилик билан шуғулланишган, алоҳида ўтроқ шароитларига ҳам эга бўлишган. Металларни, жумладан олтинни қайта ишлаш техникасини ўзлаштирган эдилар” [Батманов, 1959: 10]. Демак, металлургия саноатининг ҳам тамал тоши қадимги турклар томонидан қўйилган бўлиб, ушбу жиҳат ҳам қадимги туркларнинг ўтроқ ҳаёт кечирганлигини тасдиқлайди. Зеро, метал, жумладан олтин қазиб чиқариб, уларга ишлов бериш – фақат ўтроқ турмуш тарзига эга бўлган халқларгагина хосдир. Бундай ўтроқ турмуш тарзи умумий туркий адабий тилни шакллантирдики, Ўрхун ёзувлари бунга мисолдир.

Қадимги турклар тарихи ва маданияти айрим хорижий манбалар билан бир қаторда турк тилида ёзилган битиктошларда ўзининг ифодасини топган бўлиб, унда қадимги туркларга хос бўлган умумий адабий тил етакчилик қилганлиги билан эътиборни тортади. Адабий тил имкониятлари асосида битилган Ўрхун ёзма ёдгорликларининг тарихий моҳиятига эътибор қаратгудек бўлсак, унда: «Отамни хон сифатида, онамни эса хотун сифатида эъозлаб кўкка кўтарган осмон: “Турк халқининг исми ва шон-шарафи сўнмасин!”, Қабилаларини берган осмон (хоннинг ҳукмронлиги остига) (бу сафар ҳам): «Турк халқининг номи ва шон-шухрати сўнмасин» деди: “Бу исм йўқ бўлиб кетмаслиги учун ҳам осмон мени кўтарди (ва хон қилди)» [Радлов, 1897: 23], - деган ҳикматлар мавжуд. Ушбу сатрлар бугунги кунда ҳам ёшларимиз орасида туркий халқларнинг тарихан бирлиги ғоясини тарғиб этувчи тафаккурдаги ўзгаришларни таъминлашга хизмат қилиб, тарбиявий аҳамияти билан бир қаторда, уларда тарихий тафаккурни юксалтириш орқали ифтихор туйғусини, фахру ғурурни, ватан ва эл тақдири учун масъуллик ҳиссини, умумий тақдир учун бирлашиш масъулиятини юксалтиради. Ушбу жиҳатлар бугунги маънавий янгилинишлар шароитида, жамиятнинг ижтимоий-маданий юксалишида муҳим.

Зеро, муайян элнинг муваффақияти, ўзаро бирлашишга мойиллик хусусияти шахсий омил билан, яъни етакчининг маҳорати билан боғлиқ: «Фалакдай Тангри яратган Турк Билга хоқон сўзим: отам турк доно хоқони тахтга ўтирганда тўққиз ўғуз қаҳрамонлари, унинг машҳур беклари ва унинг халқи ҳурмат кўрсатдилар.Ўн етти ёшимда Тангут

тарафга лашкар тортдим... Ўн саккиз ёшимда Олти чуб суғдак томонга қўшин тортдим, халқини тор-мор қилдим... Йигирма икки ёшимда Табғач томонга лашкар тортдим.... Тангри ёрлақгани учун, мен муваффақиятга эришганим учун, Турк халқи ғалаба қозонди. Мен томондан давлат бундай бошқарилмаса, Турк халқи ўлажак эди, йўқ бўқлажак эди» [Отаули, 2015: 136-137]. Албатта, муайян халқнинг ғалабасида ҳамда зафар қучишида сиёсий-ҳарбий етакчининг ўрни бекиёс.

Маълумки, тарихий тафаккур аждоларимиз томонидан ижтимоий-тарихий тараққиёт шароитида яратилган моддий ва маънавий бойликларнинг инсон ёки муайян гуруҳ онгида акс этиб, намоён бўлиб, эл ва юрт манфаатлари йўлида хизмат қилиш иштиёқининг устунлик даражадаги инъикосидир. Юқоридаги жиҳатларнинг умумий тил воситасида намоён бўлиши бирлик ва ҳамжиҳатликни таъминлашга хизмат қилади. Шу боис, ҳар бир шахсда тарихий тафаккур ва миллий тил ўзлигини англаб, тарихий қадриятларига содиқ бўлиб, элпарварлик ва ватанпарварлик хислатининг тафаккурда мустаҳкам қарор топиб, тилда ифодаланишини таъминлайдиган асосий омилдир. Тафаккурда юз бераётган эврилишлар шароитида ҳар бир шахс ўзининг ўтмишига ҳурмат ва эҳтиром асосида муносабатда бўлиши тақозо этилади. Шунингдек, тарихий тафаккурда маданий ёки маънавий меросга мансубликни ифодалашда ҳар бир ижтимоий-тарихий даврга хос бўлган йўналтирувчи ғоя зарурий аҳамиятга эга бўлиб, ижтимоий-тарихий тараққиёт давомида тафаккурда элпарварлик ва ватанпарварлик хислатлари ривож бевосита ушбу омил билан боғлиқ. Ушбу жиҳат табиий равишда ўтмишда ягона адабий тилга эга бўлган туркий халқлар бирлиги ва ҳамжиҳатлигини таъминлашда муҳим.

Ўрхун тошбитикларида ўша давр адабий тил имкониятлари асосида битилган аждоларимизнинг зафарли юришлари идроки тарихий тафаккур ривожини таъминловчи омилдир. Аждоларимизга хос бўлган бундай қаҳрамонлик ва эл бирлигини таъминлаш йўлида фаолиятни ўрганиш туркий халқларга мансуб миллатлар орасида ўзликни англаб, тарихий қадриятларга мансублик хислатларининг ривожини таъминлашда ҳам муҳим. Бу туркий халқларда, айниқса ёшларда аждоларимиз руҳига ҳурмат ва эҳтиром руҳини шакллантириш билан бир қаторда, тарихан шаклланган умумий тилга мансублик ҳиссининг юксалишида ҳам аҳамиятлидир.

Маълумки, туркий халқларга хос этно-ижтимоий, маданий ва тарихий жараёнлар тадрижий тақомили, жумладан Ўрхун ёзма ёдгорликлари талқинини «Туркология» фани ўрганади. Ўрхун тошбитикларини ўрганишнинг тарихий босқичларига эътибор қаратгудек бўлсак, 1889 йилда Россия География Жамиятининг Шарқий Сибир бўлими Н.М.Ядринсев бошчилигида экспедиция ташкиллаштириб, дарё ҳавзасидаги бир қатор ёдгорликларни ўрганди. Ўрхун ёдгорликларининг кашф этилиши туркологиянинг ривожланишида янги шарафли саҳифани очиб, бу шарафли саҳифа Ўрхун-Енисей ёзма ёдгорликлари тилшунослик, илк туркий ёзма ижод намунаси сифатида адабий манба ва тарихий нуқтаи назардан тадқиқ ва таҳлил этилишига илмий доираларда иштиёқ қучилиги билан аҳамиятлидир. Ва бундай иштиёқ ва зарурат туркология фанининг шаклланиши шарт-шароит яратиб, бугунги кунда ҳам унинг ривожини таъминлаб келмоқда.

«Туркология – шаклланиш жараёни туркий бўлган, туркий тилда сўзлашувчи халқларнинг тилини, адабиётини, тарихини, этнографиясини, маданиятини яна руҳоний, маданий қадриятларини тадқиқ этувчи илмнинг соҳаси. Туркология илмининг номланиши ҳозирги туркий халқларга хос, уларнинг аждолари, VI-IX асрларда яшаб, Ўрхун, Енисей, Талас ва бошқа ёзма ёдгорликларни келажак авлодларга мерос этиб қолдирган, бир-неча уруғ ва қабилалар иттифоқидан ташкил топган макроэтнокалик бирлик – туркларнинг номи билан шаклланиб, ривожланди» [Туймебаев, Ескеева, 2015: 14]. Яъни, туркология фани туркий тилларда сўзлашувчи халқларнинг тиллари, тарихи, этнографияси, дунёқараши, оғзаки ижоди, урф-одат ва анъалари, диалектал ўзига хослик ўзакларида мужассамлашган умумийлик каби жиҳатларни ўрганувчи фан. Туркология фани туркларнинг тадрижий тақомил босқичларида ушбу элга хос бўлган тарихий-ғоявий жараёнлар эволюциясини ўрганиш учун манба сифатида тошбитиклардан ҳам манба сифатида фойдаланади. «Ҳозирги туркология фанида турли хил белгилар билан ёзилган туркий ёдгорликлар кенг

тарқалган ҳамда улар ўрганилган бўлиб, булар руник, уйғур, манихей, брахма, араб, арман-кипчоқ, чигатой ёзувларидир» [Великая степь, 2018: 492]. Ва бу тошбитиклар турклар тарихини ўрганиш билан бир қаторда ҳар бир ижтимоий-тарихий даврга хос бўлган ғоявий жараёнларни ўрганишда ҳам муҳим роль ўйнайди. Зеро, ҳар қандай муваффақиятнинг асосида жамият аъзоларида ғоявий яхлитлик, умумфаолиятни таъминлашда сафарбар қилувчи ғояга содиқлик хислатлари ётади.

Ижтимоий-тарихий тараққиёт натижасида туркий халқлар маънавияти юксала борди. Асрлар давомида тўпланган халқ маданияти ва маънавияти, демакки адабий тили ворисийлик анъаналари асосида кейинги авлодларга узатила борди. Шунингдек, ташқи ижтимоий-маданий таъсирлар ички таъсирлар билан бойиб, халқчил моҳият касб этиб бораверди.

Тарихий тафаккур сарчашмалари бўлган Ўрхун ёзма ёдгорликларида аждодларимизга хос бўлган мардлик, тантилиқ ва ватанпарварликнинг акс этиши ҳамда бугунги кунда уларни талқин этиб, тарғиб қилиш миллий қадриятларимиз ривожини таъминлаш билан бир қаторда жамиятимиз аъзолари, хусусун ёшлар тафаккуридаги ўзгаришларни таъминлаб, ватанга ва элга муҳаббат ҳиссининг ривожини юксалтириб борадики, бугунги янгиланишлар шароитида эл бирлини янада таъминлаб боришда ушбу омил муҳимдир. Ўтхун битигидаги ушбу жиҳатлар қадимги туркий адабий тил имкониятлари асосида тарғиб этилганлиги эътиборлидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жолдасбеков М., Сарткожаулы К. Атлас Орхонских памятников. – Астана: Культегин, 2006. – С. 8-9.
2. Турсунов Е.Д. Древнетюркский фольклор: истоки и становление. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2001. – С. 8.
3. Батманов И.А. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. – Фрунзе: Изд-во АН Киргизской ССР, 1959. – С. 10.
4. Радлов В.В., Мелиоранский П.М. Древне-тюркские памятники Кошо-Цайдам. – Санкт-Петербург: Типография императорской Академии Наук, 1897. – С. 23.
5. Отаули. Билга ҳоқон достони. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2015. – Б. 136-137.
6. Народ в потоке истории. Научная серия /Составители Т.Шанбай, А.Ибраева. – Астана: Фоллиант, 2014. – С. 145-146.
7. Туймебаев Ж.Ж., Ескеева М. Туркитанудын тарихи-лингвистикалык негиздери (Историко-лингвистические основы Тюркологии). – Алматы, 2015. – Б. 14.
8. Великая степь: Материалы III Форума гуманитарных наук. I-том. – Астана, 2018. – С. 492.

ТЕМИР АТАМАСИ ҚАНДАЙ ПАЙДО БЎЛГАН?

Мирзақулов Турсунали Ўтаевич, филология фанлари доктори,
Ипак йўли инноватциялар университети профессори
Мирзақулова Феруза Турсуналиевна, Алишер Навоий номидаги
Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети магистри

Калит сўзлар: темир, демир, темир қозик, пақир, мис, Илоқ давлати

Кишилиқ жамиятининг пайдо бўлиши тарихгача ва тарихий деб икки даврга ажратилади. Тарихгача бўлган давр ҳақида кўплаб фаразлар, қарашлар мавжуд. Тарихий давр ибтидоий ҳаётдан бошланиб, у ҳақда ашъвий далиллар - тош қуроллар, қояларга ўйилган турли тасвирлар сақланиб қолган. Меҳнат инсоннинг аниқ бир мақсадга қаратилган фаолиятидир. Кутилган натижага тезроқ ва кўнгилдагидек эришиш, бунда вақт ва меҳнат сарфини камайтириш, уларни тежаш эҳтиёжи туфайли, инсон тажрибаси ва кўникмаларининг такомиллашуви янгидан янги меҳнат қуролларининг яратилишига

олиб келди. Ана шундай эҳтиёж темир маъданини аниқлаш ва ундан турли қуроллар, уй-рўзгор буюмлари яшаш имконини яратди. Кейинчалик саноат инқилоби туфайли темир буюмлар, воситалар инсоният ҳаётининг барча соҳаларидан мустаҳкам ўрин олди.

Тил, тарих, этнография, этногеография каби фанлар эришган натижалар бугунги кунда ЕвроОсиё кенгликларида қадимги даврлардан яшаб келган қавмлар ва халқларнинг тилларини Олтой тиллари оиласи деб умумлаштиришга олиб келди. Энди бу тил оиласига туркий тиллар, мўғул тиллари, тунгусс-маньчжур тиллари ва шартли равишда корейс ва япон тиллари киритилмоқда.

Ўзбек тили туркий тиллар гуруҳига мансуб бўлиб, қозоқ, қирғиз, уйғур, туркман, озарбайжон, турк, татар, бошқирд, чуваш, ёкут, қрим-татар каби 30 дан ортиқ тиллардан ташкил топган.

Бу халқлар ҳам инсоният цивилизацияси ривожига муносиб ҳисса қўшиб келганлар. Инсоният тарихида қадимги цивилизация ўчоқлари экваторга яқин минтақалар, жумладан, Шарқ минтақалари – Корея, Хитой, Ҳиндистон, Ўрта Осиё, Яқин Шарқ ва айрим бошқа ҳудудларда жойлашган.

Темир сўзи демир, дамир, темир, тимур, темур каби шаклларда деярли барча Олтой тиллари ва уларнинг шеваларида сақланиб қолган. Бу сўз турк тили орқали эса славян тиллари, жумладан, болгар ва серб тилларига ҳам ўтган.

Дунёнинг жуда кенг ҳудудларига тарқалган бу сўзнинг келиб чиқиши (этимологияси)ни айрим олимлар қадимги ҳинд тили- санскритча қора- қизил металл маъносини англатувчи тамра, тамрака сўзи билан боғлайдилар, бошқа олимлар эса умумолтой тилларидаги термур шаклининг қисқаришидан ҳосил бўлган сўз деб тахмин қиладилар. Албатта, бу борада аниқ бир фикрга келиш қийин. Сабаби, темир ва у билан боғлиқ хунармандчилик қадимги даврларга бориб туташади. Фойдали

қазилмалардан темир ажратиб олиш инсон турмушини янги босқичга олиб чиққан, унинг меҳнатини енгиллаштирган, кўплаб фойда ва қулайликлар яратган.

Туркий эл ва қавмларнинг ўз даврида юсак маданий савияси ва салоҳиятини кўрсатувчи милоднинг VII асри ва VIII аср бошларига оид Ўрхун -Енисей ёдгорликлари (Қултегин ҳама Тонюқуқ тошбитиклари) да Темир қапуғ (“Темир дарвоза”) ибораси учрайди. Ибора таркибидаги қапуғ, қопқа сўзи тарихий даврларда йўл ўтган тоғ дарасининг энг тор қисмини- “дарвоза” маъносини англатган.

Олимларнинг фикрича, темир сўзи тошбитиклар яратилган даврдан анча олдин ҳам ишлатилишда бўлган.

Қадимги ёдгорликларда **Темир қозик** бирикмаси ҳам қайд этилган. Бу кўҳна астрономик тушунча аجدодларимизнинг ўша даврлардаги самовий билимлари ҳам юқори даражада бўлганлигини кўрсатади. Темир қозик атамаси ”Қутб юлдузи” - “Полярная звезда” маъносини билдирган. Бу каби тушунчалар осмон жисмларининг ўзига хос ўринлашиш ҳолатини билиш, дунё томонларини белгилаш, фасллар алмашинуви, об-ҳавони кузатиш каби ҳаётий эҳтиёжлардан келиб чиққан.

Алишер Навоийнинг “Тарихи анбиё ва ҳукамо” асарида қайд этилишича, Довуд пайғамбар худодан бир хунар сўраган: “Яратувчи Тангри унга темирчилик, совутсозлик хунарини каромат қилди. Яна бир мўъжизаси шу эдики, темир унинг кўлида мумдек юмшарди, қийинчилик тортмай истаган асбобин ясар, ясалгандан кейин эса темир яна ўз холига бориб қотарди. ”

Темирчи ва темирчилик қадимдан юқори ҳурмат ва эътиборга сазовор бўлган. Темирчи уста ноёб касб эгаси бўлиб, бу касбни эгаллаш юсак маҳорат, малака ва тажрибани талаб этган.

Жамиятларда даврлар оша аجدодлардан авлодларга ўтувчи, ўзига хос сир - синоатни жамлаган касб-хунар эгалари- темирчилар сулоласи шаклланган. Шаҳар ва қишлоқларда темирчилар маҳаллалари, бозорларда темирчилар расталари ва дўкони кўпая борган. Довуд пайғамбар темирчиларнинг пири, ҳимоячиси деган ақида, эътиқод халқ онгидан мустаҳкам ўрин ола бошлаган.

Темирчилар сулоласига мисол тариқасида худудимиздаги Оҳангарон шаҳрининг пайдо булиши тарихини келтириш мумкин. Оҳангарон сўзи тожик тилидан олинган бўлиб, оҳан-темир, оҳангар-темирчи, оҳангарон- темирчилар дегн маънони билдиради.

Рус – немис олими Макс Фасмер немис тилида яратилган ва қарийб қирк йиллик умрини сарфлаган тўрт жилдлик “ Рус тилининг этимологик луғати “(Этимологический словарь русского языка “, 3 – наشري, С.-Петербург, 1996 йил, 174-бет)да темирчи (“кузнец”) маъносидаги блехчий сўзи рус тилига Европа тилларидан эмас, балки туркий тиллардан олинган бўлиши мумкин деб кўрсатади, яъни географик тарқалиши ва сўз ясалиш хусусияти ҳисобга олинса, рус – славян тилларига бошқирд ва татар тиллари учун асос бўлган қадимги булғор тилидан ўзлашган.Туркий тилларда кенг тарқалган уддабурон , ақлли , донишманд маъноларини билдирадиган биликчи, билгучи сўзлари блехчий шаклида рус – славян тилларига мослашган кўриниш сифатида баҳоланади.

Қадимги тилимизда темирчи маъносида тархон, дархон сўзи ҳам ишлатилган, кейинчалик сўзнинг бу маъноси унутилиб, уста, тадбиркор, солиқлар ва айбланишдан озод қилинган шахс, юқори мансаб ва хусусий мулк эгаси каби маъноларни ифодалаган.Айни шу маънолари билан рус – славян тилларига кенг тарқалганлигини М.Фасмер ўз луғатида махсус қайд этади (IV жилд, 25 – бет).

Ўзбек халқ шеваларидан Поп шевасида дархон сўзи “озод киши” маъносида ишлатилса, курама шевасида дарқанчилик “кенгчилик, ўзини эркин сезмоқ, мўлкўлчилик” каби маъноларда ишлатилади.

Ҳозирги илмий талқинга кўра, темир болғаланганда яссиладиган, исталган шаклга қирадиган, углерод билан қўшилганда пўлат ва чўян ҳосил қиладиган қорамтир кумуш рангли оғир металл ҳисобланади.

Темир сўзи ҳозирги тилимизда бир қанча кўчма маъноларни билдиради. Темир дафтар, темир интизом, темир ирода, темир қанот (чумчуқ болалари- полапонлар ҳақида), темир хотин, темирни қизигида бос, гапга темирчи(эзма, миждов) каби маънолар бир қанча даврларнинг маҳсулидир.

Демак, сўзлар борлиқдаги турли нарса, белги,ҳаракат ва жараёнлардаги энг асосий маънони ифодалаб, якка шахс ва ижтимоий онг, тафаккур тараққиётини ўрганишда бебаҳо манбадир.

Мис (бақир) атамаси

Мис атамаси тожик тилидан олинган бўлиб, рангли металллардан бирини англатади.Қадимги даврларда –мис олина бошланган даврлардан бошлаб, ушбу металл бақир атамаси билан юритилган. Ушбу атама туркий тиллар ва уларнинг шеваларида мис, қизил мис, ҳатто бронза, латунь, мис аралашмаси (окись меди) каби маъноларни билдиради.

Оҳангарон водийсида ташкил топган Илоқ давлатида жаҳон бозори эҳтиёжлари учун олтин ва кумуш тангалар чиқарилган бўлса, маҳаллий муомала учун мис тангалар тайёрланган. Ҳозирги Оҳангарон яқинида жойлашган Хонободда Соҳибқирон Амир Темурнинг зарбхоналаридан бири жойлашган бўлиб, таркиби юқори сифатли тангалар давлат хазинасини бойитишга хизмат қилган.

Мис тангалар маҳаллий бозорларда кўп ишлатилганлигидан бақир атамаси “майда мис танга”, “кичик муомала бирлиги” маъноларини билдирган.Ўзбек тилида ушбу бирлик “пақир” шаклида келиб, икки тийинлик чақа” қийматини ифодалаган. Шу асосда кўчма маъноли “бир пақирга қиммат, ҳеч нарсага арзимаиди” каби иборалар пайдо бўлган.

Ўрта асрларда ва ундан кейин йармақ (“Девону луғотит турк” асарида) , ақча, пайса каби пул бирлиги (танга) муомалада бўлган. Ўрхун –Енисей ёдномаларида ағри, ағи-баргга ўхшаш қилиб тайёрланган олтин танга.

”Қадимги туркий луғат” да бақир ўлчов бирлиги сифатида тўрт граммдан камроқ ёки 0,1 унция миқдорни билдириши қайд этилган. Тошкент , Қашқадарё шеваларида пақир сўзи “мис чақа” маъносида ишлатилади.

Бақир (мис)дан турли идиш ва анжомлар ясалган : пақир (челак), мис кўвача, мис қумғон, мис қозон, мис кўшқулоқ (кастрюль), эшик ҳалқалари кабилар. Агар уста мисдан ясалган идишларни сифатсиз тайёрлаган бўлса, иссиқ суюқлик куйилиши билан мис эритмаси юзага қалқиб чиққан. Шу асосда халқ тилида “миси чиқди” ибораси пайдо бўлган. Бу ибора кўчма маънода алдамчилик, ёлғончилик, фирибгарликнинг фош бўлиши маъносини касб этган. Мис рангига ўхшашликка кўра планеталардан бири- Марс “Бақир соқим” деб номланган. Юпитер юлдузи- Эрантуз, Мизон юлдузи- Қорақуш, Сурайё юлдузи- Хулқар, Етти қароқчи- Йетикан, Қутб юлдузи- Темирқозик атамалари борлик (коинот) ни кузатиш, самовий жисмлар ҳақидаги билимларни умумлаштириш натижалари ҳисобланади.

Буюк Алишер Навоий асарларида ўн саккиз минг олам етти қават осмон каби тушунчалар ишлатилади. Ер юзасидаги маъданлар Ой ва Қуёшдан олинган:

Чарх еткурди ою кундин хишт,
Ясанур деб ер узра етти биҳишт

QARDOSH TILLARDAGI IBORALAR (O‘zbek va turk tillari misolida)

**Jahongirova Dilso‘z,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti,
Ilmiy rahbar: dots.Almamatova Shahnoza**

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va turk tillaridagi iboralar (frazеologik birliklar) qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Iboralarning semantik, strukturaviy va lingvokulturologik xususiyatlari o‘rganilib, ularning milliy mentalitetni aks ettirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ikki qardosh til o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek va turk tillarining tarixiy-genetik yaqinligi hamda madaniy aloqalari iboralarda yaqqol namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: ibora, frazeologizm, o‘zbek tili, turk tili, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya, semantika, milliy mentalitet.

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tilning eng boy va ifodali qatlamlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Iboralar xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati, urf-odatlar va dunyoqarashini o‘zida mujassam etadi. O‘zbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, ularning frazeologik tizimida ko‘plab umumiyliklar mavjud. Mazkur maqolaning maqsadi — o‘zbek va turk tillaridagi iboralarni semantik, strukturaviy va lingvokulturologik jihatdan qiyosiy tahlil qilish, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlashdan iborat.

Iboralar yoki frazeologik birliklar — tarkibiy qismlarining ma‘nosi ko‘chma yoki yaxlit holda anglashiladigan, nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan barqaror birikmalardir. Tilshunos olimlar, jumladan, V. V. Vinogradov, iboralarni semantik yaxlitligi va barqarorligi bilan tavsiflaydi⁵.

O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklar bir muddat “so‘zga muqobil” nazariyasi tadqiq va tavsif qilindi. Bu nazariyaga ko‘ra, “frazemalar ham leksemalar kabi nominativ xususiyatiga ega bo‘lgan til birligidir deb e‘tirof etilib, leksemaning alohida shakli sifatida tadqiq etildi va leksikologiya tarkibida o‘rganildi. Darhaqiqat, frazemalarning vazifaviy xususiyatlari leksemalarga monand bo‘lsa-da, frazemalar murakkab til birligi bo‘lganligidan leksemalardek tadqiq va tavsif etish yetarli emas. Frazemalar so‘z va so‘z shakllaridan shaklan tarkib topadi. Leksemalarning genetik asosi frazemalarning yuzaga kelishi uchun asosiy manba hisoblanadi, chunki aynan leksemalar frazemalar uchun "qurilish ashyosi"dir”⁶. Shunga binoan har bir

⁵ Виноградов, В. В. (1977). Русский язык: грамматическое учение о слове. Москва: Наука.

⁶ Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 2008.- Б.13.

millatning leksik qatlamidan joy olgan iboralarining quyidagi asosiy belgilari bilan boshqa sath birliklaridan farq qiladi:

1.Barqarorlik – tarkibiy qismlari o‘zgarmas holda qo‘llaniladi.

2.Ko‘chma ma’no – ibora umumiy ma’noga ega bo‘lib, so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosidan farq qiladi.

3.Ekspressivlik – nutqqa ta’sirchanlik va obrazlilik bag‘ishlaydi.

4. Tayyor holda qo‘llanish – nutqda erkin emas, balki tayyor birlik sifatida ishlatiladi.

Yuqoridagi nazariy va ilmiy qarashlarimiz asosida qardosh tillar hisoblangan o‘zbek va turk tillaridagi iboralarining o‘xshash jihatlari haqida fikr yuritmoqchimiz. O‘zbek va turk tillaridagi iboralarining semantik o‘xshashliklari turkiy tillarning umumiy ildizga ega ekanligi bilan bevosita bog‘liq. Bu ikki til Turkiy tillar oilasi tarkibiga kirgani sababli ularning leksikasi, frazeologiyasi va ayniqsa iborolari (frazeologik birliklari) o‘rtasida sezilarli yaqinlik kuzatiladi.

O‘zbek va turk tillarining tarixiy va genetik yaqinligi sababli ko‘plab iboralar semantik jihatdan o‘xshashdir.

To‘liq mos keluvchi iboralar

O‘zbek tili	Turk tili	Ma’nosi
Ko‘z yumoq	Göz yummak	E’tibor bermaslik
Yuragi og‘ziga kelmoq	Yüreği ağzına gelmek	Juda qo‘rqmoq
Qo‘l qovushtirib o‘tirmoq	Elini kolunu bağlamak / Eli kolu bağlı olmak	Ojiz qolmoq
Ko‘zdan kechirmoq	Gözden geçirmek	Tekshirib chiqmoq
Og‘iz ochmoq	Ağzını açmak	Gap boshlamoq

Qisman mos keluvchi iboralar

O‘zbek tili	Turk tili	Ma’nosi
Boshi osmonga yetmoq	Havalara uçmak	Juda xursand bo‘lish
Jon qulog‘i bilan tinglamoq	Can kulağıyla dinlemek	Diqqat bilan tinglash
Ko‘ngli ochiq	Gönlü geniş inson	Saxiy va bag‘rikeng

Keltirilgan misollardan anglashiladiki, “Lisoniy tasnif”ga ko‘ra bir guruhga mansub tillardagi frazemalarning o‘xshashligi xalqlarning lingvomadaniy jihatiga ham bog‘liqdir. Prof.A.Mamatov fikricha, frazeologizmlar milliy madaniyatni o‘z prototiplari bilan aks ettiradilar, negaki frazeologik birlik bo‘lib qolgan erkin so‘z birikmalari ma’lum urf-odatlarini, an’analarni, turmush va madaniyatning tafsilotlarini, tarixiy voqealarni va boshqa ko‘plab narsa va hodisalarni tasvirlaganlar⁷. Bu tasvirlash o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, xalqning milliy kolorit tushunchasi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Aynan mana shu jarayonda “Lingvokulturologik xususiyati” namoyon bo‘ladi.

⁷ Mamatov A. Zamonaviy lingvistika.- Toshkent: Noshir, 2019.- B. 136.

Iboralarning milliy madaniyat va mentalitetni aks ettiruvchi muhim vosita ekanligi bir necha marta qayd etilgan. Shunday iboralar borlik, umuminsoniyat an’nalari va turmush sharoitini aks ettirsa, ayrimlari faqatgina birgin xalqqa mansubligi bilan xarakterlanadi. Faqat o‘zbek xalqining turmush tarzi va an’analarni aks ettiradigan iboralar:

“Do‘ppisini osmonga otmoq” – juda xursand bo‘lish.

“Oshig‘i olchi” – omadi kelmoq.

“Gapning tuzi” – nutqning mazmuni va jozibasi.

Faqat Turk tiliga xos iboralar:

1. “Pabucu dama atilmak” – e’tibordan chetda qolmoq.

2. “Kafayı yemek” – aqlini yo‘qotmoq.

3. “İpe un sermek” – bahona qilib ishni cho‘zmoq.

Tana a’zolari ishtirokidagi (somatik frazeologizmlar) iboralar ham keng tarqalgan. Bu turdagi frazeologizmlar “nafaqat tildagi iboralardan iborat, balki insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, hissiyotlar va madaniy ko‘rinishlarni ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ularning metaforik tahlili esa til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi”⁸.

Ko‘z / Göz: ko‘z tikmoq – göz dikmek

Yurak / Yürek: yuragi ezilmoq – yüreği ezilmek

Qo‘l / El: qo‘l uchida – el ucıyla

‘Ba’zi iboralar faqat ma’lum bir xalq madaniyatiga xos bo‘lib, boshqa tilda to‘liq muqobilga ega emas. Bu holat tarjimada qiyinchilik tug‘diradi. Frazeologik birliklar tarjimada eng murakkab birliklardan biri hisoblanadi. Tarjima jarayonida quyidagi usullar qo‘llaniladi:

To‘liq ekvivalent bilan tarjima: Ko‘z yumoq → Göz yummak

Qisman ekvivalent bilan tarjima: Boshi osmonga yetmoq → Havalara uçmak

Tavsifiy tarjima: Oshig‘i olchi → çok şanslı olmak

Madaniy moslashtirish;

Milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda tarjima qilish.

“O‘zbek va turk tillaridagi iboralar semantik o‘xshashlikka ega”, - degan fikrdan quyidagi xulosaga kelsak bo‘ladi:

1. Umumturkiy lingvistik asosga egaligi;

2. Kognitiv va madaniy birlikni aks ettirishi;

3. Aksiologik qadriyatlarni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbek va turk tillaridagi iboralar qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilning frazeologik tizimi tarixiy-genetik yaqinlik va umumiy madaniy qadriyatlar asosida shakllangan. Shu bilan birga, har bir til o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarni ham aks ettiradi. Iboralarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjima nazariyasi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 2008.- 114 б.

2. Azizova N. SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING METAFORIK MA’NOSI // B. 92.

3. Виноградов, В. В. (1977). Русский язык: грамматическое учение о слове. Москва: Наука.

4. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika.- Toshkent: Noshir, 2019.- 142 b.

TIL VA TAFAKKUR UYG‘UNLIGI –INSON KAMOLOTINING ASOSI

*Nishonova Munira Azimjonovna
Ipak yo‘li innavatsiyalar universiteti
“pedagogika-pisxologiya va umumta’lim
fanlar “kafedrasi boshlang‘ich*

⁸Azizova N. SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING METAFORIK MA’NOSI // B. 92.

ta’lim yo’nalishi 22/9 guruh talabasi.

Annotatsiya : Ushbu maqolda til va tafakkur o’rtasidagi o’zaro munosibdir. Ularni inson rivojida o’rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Til boyligining fikrlash darajasiga ta’siri hamda zamonaviy jamiyatda tilning ahamiyati haqida ma’lumot berildi.

Kalit so’zlar: Til, tafakkur, muloqat, rivojlanish, bilim.

Abstract: This article analyzes the relationship between language and thinking, as well as their role in human development from a scientific perspective. It also examines the impact of language richness on the level of thinking and the importance of language in modern society.

Keywords: language, thinking thought, communication, development, knowledge.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь языка и мышления а также их роль в развитии человека с научной точки зрения. Кроме того рассматривается влияние богатства языка на уровень мышления и значение языка в современном обществе.

Ключевые слова: Язык, мышление, общение, развитие, знание.

Hozirgi davrda tilning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Til nafaqat aloqa vositasi balki inson tafakkurining asosiy ifodasidir.

Har qanday fikr til orqali shakllanadi. Shu sababli til va tafakkur uyg’unligini o’rganish dolzarb ilmiy masalalardandir.

Asosiy qism:

Til va tafakkur tushunchalari

Insonlar o’rtasidagi bu muloqatni ta’minlovchi vosita til tafakkur esa-bu insonning fikrlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu bu ikki tushuncha bir-birini to’ldiradi. Inson tafakkuri til orqali namoyon bo’ladi. Til esa tafakkur yordamida rivojlanadi.

Til boyligining tafakkurga ta’siri:

Til boy bo’lsa inson o’z fikrini aniq va ravshan ifodalay oladi. So’z boyligi kam bo’lgan inson esa fikrini to’liq yetkaza olmaydi.

Shu bois tilni boyitish tafakkurini rivojlantiradi.

Keng fikrlaydigan inson: murakkab fikrlarni oson tushuntiradi, yaxshi va nutqi ravon bo’ladi fikri teran bo’ladi. Nutq –tilning amaliy ko’rinishidir. Nutqni rivojlantirish orqali insonning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Yosh bolalarni nutqini rivojlantirishda ko’proq ertaklar o’qish, she’r yodlash hikoya tuzish kabi ko’proq o’qazilsa nutqi tafakkuri rivojlanadi.

Lekin axborot almashinuvi tezlashgan sabab internet va texnologiyalar rivoji tilga ham o’z ta’sirini ko’rsatadigan. Ya’ni nutq uslubi o’zgarib bormoqda. Shu sababli tilni asrab-avaylash, adabiy me’yorlarga rioya qilish ona tilini rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo’lib kelmoqda.

Har bir inson ilk bor dunyoni ona tilida shakllangan tafakkur boshqa tillarni o’rganishda ham kerak bo’ladi. Ona tilini yaxshi o’zlashtirish zarurdir. Shu sababli til va tafakkur o’rtasidagi munosabatni o’rganish nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarining ham muhim masalalardan biridir. Til bu insonlar o’rtasida fikr almashish, his tuyg’ularni ifodalash va insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan.

Tilning asosiy funksiyalari

1. Kommunikativ (aloqa vositasi)
2. Kognitiv (bilish vositasi)
3. Ekspressiv (his-tuyg’ularni ifodalash)
4. Komulyativ (tajribani saqlash)

Til inson ongida shakllangan fikrlarni tashqi ifodaga chiqaradi. Demak til –tafakkurning moddiy shaklidir

Tafakkur –bu insonning borliqni ongida aks ettirish tahlil qilish va umumlashtirish jarayonidir. Tafakkur orqali inson:

1. Muammolarni hal qiladi
2. Xulosa chiqaradi
3. Yangi g’oyalar yaratdi

Tafakkurning asosiy shakllari:

1. Tushuncha
2. Hukm
3. Xulosa

Tafakkur til bilan uzviy bog‘liq bo‘lib tilsiz fikrlash jarayoni to‘liq amalga oshmaydi.

Xulosa qilib aytganda .Til va tafakkur o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib inson kamolotida muhim o‘rin tutadi. Til boyligi tafakkur rivojiga xizmat qiladi .Tafakkur esa tilni boyitadi. Har bir insonning tilni rivojlantirish uni to‘g‘ri qo‘llash va asrash muhimdir.

“So‘z to‘g‘ri bo‘lsa ,ish ham to‘g‘ri bo‘ladi”.Til tafakkur inson kamolotining ajralmas qismi hisoblanadi . Ularning uyg‘unligi insonning bilimli ,ongli va yetuk shahs bo‘lib shakillanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Til rivojlangan sari tafakkur kengayadi tafakkur rivojlangan sari esa til boyiydi. Shu bois har bir inson til va tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishi lozim.Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim jihatlardan biri bu uning tafakkuri va tilidir. Til va tafakkur o‘zaro chamcharchas bog‘liq bo‘lib ular insonning ijtimoiy hayotida bilim olishda va shahs sifatida shakillanishda muhim ro‘l o‘ynaydi Shu bois til va tafakkur uyg‘unligi masalasi doimo dolzarb ilmiy miammo sifatida qaralib kelinadi.

Foydalalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch/
- 2.Mahmudov N. Til va tafakkur masalasi.
- 3.Nurmatov A. O‘zbek tishunosligi asoslari .
- 4.Abduazizova A .Tilshunoslik nazariyasi
5. Hojiev A. O‘zbek tili stilistikasi
- 6.Rasulov R.Umumiy tilshunoslik (Toshkent 2007)
- 7.Mirtojiyev M.Til va nutq Toshkent 2004
- 8.O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi
- 9.Internet manabalari(Ziyo NET,Google scholar)
- 10.”Til va adabiyot ta’limi” ilmiy –metodik jurnali.

ZAMONAVIY O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLI YECHIMLAR

Akmal Tursunov Raxmatullayevich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti dotsenti (93) 437-37-11
akmal_tursunov_1971@gmail.com

Annotatsiya.Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari, ularning paydo bo‘lish sabablari va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Xususan, o‘zbek tilining ilmiy tadqiqot bazasi, terminologiya tizimi, raqamli tilshunoslik, til siyosati va o‘quv jarayonidagi muammolar ko‘rib chiqiladi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilining davlat tili maqomi mustahkamlanib, tilshunoslik sohasida yangi ilmiy yo‘nalishlar yuzaga keldi. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligining rivojlanishi ilmiy tadqiqotning yangi usullari, raqamli texnologiyalar va xalqaro ilmiy hamkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yechimlar taklif etilgan.

Abstract.This article analyzes the current problems of modern Uzbek linguistics, the reasons for their emergence and future development directions. In particular, the scientific research base of the Uzbek language, the terminology system, digital linguistics, language policy and problems in the educational process are considered.

During the years of independence, the status of the Uzbek language as a state language has been strengthened, and new scientific directions have emerged in the field of linguistics. The development of modern Uzbek linguistics is closely related to new methods of scientific research, digital technologies and international scientific cooperation. Also, scientific and practical solutions aimed at the development of Uzbek linguistics are proposed.

Keywords: Uzbek linguistics, linguistics, terminology, language policy, digital linguistics, corpus linguistics.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tilshunosligi, lingvistika, terminologiya, til siyosati, raqamli lingvistika, korpus lingvistikasi.

Kirish Hozirgi o‘zbek tilshunosligi jadal rivojlanayotgan, shu bilan birga, yangi muammolar va ilmiy yondashuvlarni talab qilayotgan sohalaridan biridir. XXI asrda tilshunoslik nafaqat lingvistik tizimni o‘rganish, balki uni ijtimoiy, madaniy, texnologik va psixologik omillar bilan bog‘liq holda talqin etish zaruratini yuzaga chiqardi. O‘zbek tili ham globallashtirish, raqamli kommunikatsiya, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy ong o‘zgarishlari ta’sirida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Shu sababli hozirgi o‘zbek tilshunosligida tilning ijtimoiy funksiyalari, leksik-semantik tizimdagi o‘zgarishlar, terminologiyaning me’yorlanishi, nutq madaniyati va raqamli muhitda tilning o‘ziga xos rivojlanish yo‘nalishlari alohida e’tibor markazida turibdi.

Bugun zamonaviy jahon tilshunosligidan muhim o‘rin olayotgan jihat bu inson faoliyatining turli sohalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ilmiy ma’lumotlar singishi va o‘zaro ta’siri hisoblanadi. Lingvistikaning turli fan sohalar bilan munosabatga kirishi natijasida tilshunoslikda etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, matematik lingvistika, kompyuter tilshunosligi kabi paydo bo‘lgan yangi yo‘nalishlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida talabalarga puxta bilim berish, yosh iste’dodlarni mazkur sohalariga dadil yo‘llash lozim. Bugun oliy o‘quv maskanlarida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida unga tizim sifatida yondashish, tizim qonunlari negizida til va uning birliklari hamda hodisalarini talqin etish, shakl va mazmun asimmetriyasi, ona tilining funksional ko‘pqirraligi haqida chuqur ilm berish, nazariy jihatdan etuk lingvistlar tayyorlashda tarixiy tilshunoslik tutgan mavqeini aniq belgilash zarur.

Terminologiya tizimidagi muammolar. Ilm-fan va texnologiya rivoji yangi tushunchalar va terminlarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Biroq ko‘plab sohalarida terminlarning o‘zbekcha muqobillari yetarli darajada ishlab chiqilmagan yoki yagona standartga ega emas. Natijada bir termin uchun bir necha variant qo‘llanilishi ilmiy kommunikatsiyada chalkashliklarni keltirib chiqaradi.

Til ta’limi va amaliy lingvistika muammolari. Ta’lim tizimida o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi zamonaviy kommunikativ yondashuvlar bilan yetarli darajada integratsiyalashmagan. Ayniqsa, oliy ta’limda lingvistik tadqiqot metodlari va amaliy til texnologiyalarini o‘rgatish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Yagona terminologik tizimni shakllantirish

Ilmiy terminlarni standartlashtirish uchun soha mutaxassislari ishtirokida maxsus terminologik komissiyalar faoliyatini kuchaytirish zarur. Elektron terminologik lug‘atlar yaratish ham ilmiy izchillikni ta’minlaydi.

Milliy til korpusini rivojlantirish. O‘zbek tilining katta hajmdagi elektron matn bazasini yaratish lingvistik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday korpus tilning grammatik, leksik va stilistik xususiyatlarini avtomatik tahlil qilish imkonini beradi.

Raqamli lingvistika va sun’iy intellekt integratsiyasi. Tilshunoslikni axborot texnologiyalari bilan integratsiyalash orqali avtomatik tarjima tizimlari, ovozni matnga aylantirish dasturlari hamda lingvistik analizatorlar ishlab chiqish mumkin.

Demak, hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, milliy tilni ilmiy asosda rivojlantirish, uni global kommunikatsiya tizimiga moslashtirish va kelajak avlodlar uchun mukammal til muhitini yaratish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi o‘zbek tilshunosligi zamonaviy ilmiy tafakkurning eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

XXI asrda tilshunoslik fanining o‘zgarish sur’ati, globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va raqamli kommunikatsiya vositalarining keng qo‘llanilishi natijasida o‘zbek tili tizimida tub yangilanishlar yuz bermoqda. Bu jarayon nafaqat tildagi leksik va grammatik birliklarning boyishiga, balki tilning ijtimoiy funksiyalari, uslubiy imkoniyatlari va madaniy qadriyat sifatidagi ahamiyatining ortishiga ham olib kelmoqda.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligining rivojlanish jarayoni, uning oldida turgan ilmiy muammolar va yangi tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha bir qator manbalar tahlil qilindi.

Tilshunoslikdagi zamonaviy nazariy yondashuvlarni o‘rganish, ularni o‘zbek tili misolida qo‘llash hozirgi davrda dolzarb hisoblanadi. O‘zbek tili taraqqiyoti, xususan, mustaqillikdan keyingi davrda til siyosati, adabiy til me‘yorlari va leksik-semantik tizimda sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi [1]. Shu jihatdan, tilning milliy xususiyatlarini saqlagan holda uni global til muhitiga moslashtirish masalasi tilshunoslikning markaziy muammosiga aylandi [2].

T.Mirzaqulov o‘zbek tili morfemalar tizimini, xususan, affiksial morfemalar tizimini rus, tatar, boshqird va boshqa rivojlangan tilshunosliklarda olg‘a surilgan zamonaviy qarashlarni chuqur o‘rganib, ularni o‘zbek tili morfemalar tizimiga ham tatbiq etadi. O‘zbek tilida so‘zlarning analitik shakllarini hosil qiluvchi yordamchi vazifaviy unsurlarni (yordamchi so‘zlar, ko‘makchi fe‘llar va h.k.) ham affikslarga vazifadosh yordamchi morfemalar sifatida qaraydi. O‘zbek tili morfemikasini bir qator lisoniy hodisalarni o‘z ichiga olgan to‘laqonli soha sifatida mukammallashtiradi [12, 1993].

Morfemika bo‘yicha M.Dushaboyev, V.Qodirova, M.Zokirova, M.Erkayev singari yosh tadqiqotchilar ham shug‘ullanganlar. M.Dushaboyev, V.Qodirova til morfem qurilishida yuz beruvchi shakliyl-ma’noviy o‘zgarishlar bo‘yicha; M.Zokirova morfemalarning struktur tasnifi va onomasiologik belgilari; M.Erkayev esa morfem ma’nolarning ob‘ektiv borliq bilan munosabati masalalariga doir maqolalar e‘lon qilgan [23, 2000]. O‘zbek tili morfemikasiga doir monografik rejada yirik ish professor A.Berdialiyev tomonidan amalga oshirilgan. U “So‘z tarkibi va shakl-ma’no nomutanosibli” nomi bilan 2013 yili Bishkekda nashr etilgan [6, 164].

Leksikologiya va frazeologiya sohalari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar. Tojikiston o‘zbek ilmiy tilshunoslik maktabida leksikologiya va frazeologiya masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilgan hamda monografik rejada dissertatsiya ishlari qilingan. A.Berdialiyev, B.Eshonqulov, B.Jabborov, D.Berdialiyeva, O.Boymatov, D.Hasanovalar tomonidan ayrim maqolalar o‘zbek tilining lug‘aviy va frazem tizimida tadqiqotchilar e‘tiboridan chetda qolgan masalalarni o‘rganishga qaratilgan. Masalan, prof. A.Berdialiyevning “Suppletivizm va unga daxldor ba’zi tushunchalar haqida” [21, 3-14] maqolasida, rus tilshunosligida maxsus ishlanmagan, turkologiyada esa, til ilmi mutaxassislariga noma’lum bo‘lgan lug‘aviy sathning dolzarb bir muammosi haqida fikr yuritiladi. E’tirof etilishicha, bir umumiy klassemaga ega bo‘lgan har xil lug‘aviy-grammatik kategoriyaga mansub ikki leksema munosabatida suppletiv munosabat vujudga kelib, shu munosabatni tashkil qilgan so‘zlar lug‘aviy suppletivizmga mansub bo‘larkan. Ana shu umumiy klassema asosida ikki lug‘aviy birlik – lug‘aviy suppletiv sintagmatik munosabatga kirishib, sintagma (birikma) hosil qilar ekan. Olim *qo‘l* va *ushlamoq*, *ko‘z* va *ko‘rmoq*, *tabib* va *davolamoq*, *oyoq* va *yurmoq* singari so‘zlararo suppletiv aloqa mavjud va shu sabab bu so‘zlarni lug‘aviy suppletivlar deya izohlaydi.

Professor A. Berdialiyevning assimilyatsiya va dissimilyatsiya singari fonetik jarayonlarning izomorfizm qonuniyati ta’sirida tilning lug‘aviy sathida ham boshqacha lisoniy qiymat bilan amal qilishi haqidagi qarashlari uning “Semantik assimilyatsiya va dissimilyatsiya hodisalari haqida” deb nomlanuvchi maqolasida o‘z ifodasini topgan [22, 5-12]. Maqola til ilmining o‘ta murakkab va dolzarb muammolariga qaratilgan. Ma’lum bo‘lishicha, semantik assimilyatsiya semantik dissimilyatsiya bilan mantiqiy-lisoniy jihatdan o‘zaro bog‘liq har xil tushunchalardir. Maqolada semantik assimilyatsiya va semantik dissimilyatsiyaning uch amaliy turi ajratiladi. Ular: a) sinxron semantik assimilyatsiya va dissimilyatsiya; b) diaxron semantik assimilyatsiya va dissimilyatsiya; v) qiyosiy semantik assimilyatsiya va dissimilyatsiya [22, 10]. A.Berdialiyevning nomi yuqorida tilga olingan ikki maqolasi ham umumtilshunoslik nuqtai nazaridan o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yirik monografik tadqiqotlar uchun mavzudir. Biroq maqolaning e’lon qilinganiga qariyb chorak asr bo‘layotgan bo‘lsa-da, afsuski, bu mavzu o‘zining fidoyi tadqiqotchilarini topgan emas.

B.Eshonqulovning “Arab-fors lug‘aviy o‘zlashmalarining ba’zi semantik xususiyatlari haqida” [17, 99-103]; “Arab leksik o‘zlashmalarining antonimiyaga munosabati” [18, 45-48]; “Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi arabcha so‘zlarning tematik guruhlanishi haqida” [19, 33-35]; “So‘z o‘zlashtirishning ba’zi masalalari haqida” [20, 7-10] maqolasi o‘zbek tili leksikologiyasi masalalariga bag‘ishlangan.

Dotsent O.Abdunazarovning “Umumtil iborolari asosida yaratilgan individual frazeologik neologizmlar haqida” [22, 21-24] maqolasida o‘zbek frazeologiyasiga oid masalalardan biri o‘rganilgan.

Tojikistonda o‘zbek tili lug‘aviy va frazeologik tizimining nazariy masalalari bilan shug‘ullanishga 2000-yillardan keyin alohida e‘tibor berila boshlandi. Prof. A.Berdialiyev va uning D.Hasanova, SH.Rasulova, Q.Jabborova, B.Jabborov, O.Boymatov singari yosh shogirdlari tomonidan o‘zbek tili leksikologiyasining tadqiqotchilar nazari tushmagan zamonaviy masalalari o‘rganilib, ularning tadqiqotlari natijalari bo‘yicha ayrim maqolalar e’lon qilindi. Masalan, “O‘zbek tilshunosligi muammolari” ilmiy maqolalar to‘plamining 2008 yili “Xuroson” matbaasida nashr etilgan 17-kitobida M.Turdibekovning (“Konibodom makrotoponimi tizimidagi mikrotoponimlar haqida”), B.Jabborovning (“Qarindoshlik nomlarining yaqinlik ma’nolarida qo‘llanishi haqida”), H.Hamzayevning (“O‘zlashma lug‘aviy birliklar va ularning ba’zi lisoniy xususiyatlari haqida”), Z.Abdualiyeva va SH.Rasulovalarning (“Lug‘aviy-semantik mikroqurilmalar tizimidagi ekvonim va ekvonimiya hodisalari haqida”) o‘zbek tilining sinxron leksikologiyasining turli masalalariga bag‘ishlangan maqolalari berilgan. O.Boymatovning xuddi shu to‘plamdan joy olgan “Jon so‘zi ishtirokida shakllangan frazeologik iboralarining xususiyatlari haqida” maqolasida tojik tili lug‘aviy birliklari ishtirokida hosil bo‘lgan o‘zbek frazeologik iboralarining bir ko‘rinishi xususida fikr yuritilgan.

Prof. A.Berdialiyevning “Lug‘aviy birliklararo lisoniy munosabatlar masalasiga doir” nomli maqolasida lug‘aviy birliklar: a) shakldoshlar so‘zlar; b) ohangdosh so‘zlar; v) ma’nodosh

so‘zlar kabi uch guruhga ajratiladi. Lug‘aviy birliklarning denotativ asosda farq qiluvchi guruhi o‘z navbatida yana giponimlar, ekvonimlar, partonimlar va graduonimlarga ajratiladi [14, 9-16].

Tojikistonlik yosh tilshunoslarning ilmiy maqolalari qo‘shni respublika oliy o‘quv yurtlari ilmiy to‘plamlarida ham nashr etilgan. Qirg‘iziston Respublikasi Batken davlat universitetining Sulukta gumanitar-iqtisodiyot instituti ilmiy to‘plamlarining “Aktualnie problemi gumanitarno-pedagogicheskix nauk” nomi bilan nashr etilgan 2-kitobida [1, 2011] B.Jabborovning “Lug‘aviy sathni sistema sifatida o‘rganish masalasiga doir” [1, 48-53]; Xujand davlat universiteti o‘zbek tili kafedrasining tadqiqotchilari D.Hasanova va O.Boymatovlarning “O‘zlashma lug‘aviy birliklarning o‘zbek tili so‘z yasashidagi mavqei haqida (arab lug‘aviy o‘zlashmalari misolida)” [1, 66-73] hamda “O‘zlashma lug‘aviy birliklar ishtirokida o‘zbek tili frazeologizmlarining yasashi haqida” [1, 53-61] ikki maqolasi chop qilingan. Bundan tashqari, ayni shu nashrda tadqiqotchi D.Hasanovanning “O‘zlashma lug‘aviy birliklar so‘z yasash bazasi sifatida” nomli maqolasi ham berilgan [1, 37-42]. Bu ma’lumotlardan tojikistonlik o‘zbek filologlarining boshqa respublika oliy o‘quv yurtlari va ilmiy muassasalari bilan yaqin aloqada bo‘lganligidan darak beradi.

Tojikistonda o‘zbek tilshunosligining leksikologiya va frazeologiya sohalari bo‘yicha amalga oshirilgan yirik ishlar sifatida B.Eshonqulovning 2005 yili himoya qilingan “O‘zbek tilida arab lug‘aviy o‘zlashmalarining sinxron tahlili” nomli nomzodlik dissertatsiyasini tilga olish mumkin.

NATIJALAR. Ushbu maqolada quyidagi masalalarga e’tibor qaratilgan bo‘lib, Tojikistonda o‘zbek tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy asoslari belgilangan; Tojikistonda nashr etilgan ilmiy maqolalar to‘plamlari va ularga kiritilgan maqolalar o‘zbek tilshunosligining sohalari bo‘yicha guruhlariga ajratilib, tahlil qilingan; Tojikistonda nashr etilgan monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalari sohaviy tahlil etilgan; o‘zbek tilshunosligi sohasida barakali va simarali ijod qilgan ba’zi mutaxassislar faoliyatiga alohida e’tibor berilgan. Tojikistonda o‘zbek tilshunosligi bo‘yicha qilingan ilmiy, ilmiy-ommabop, ilmiy-uslubiy ishlar sohama-soha tahlil etilgan.

XULOSA. Tojikiston o‘zbek tilshunosligi maktabida olib borilayotgan va amalga oshirilgan ishlar, o‘zbek tilshunosligining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Shu bois bu ilmiy maktabda amalga oshirilgan ishlarni quyidagi sohaviy guruhlariga ajratish mumkin: fonetika va fonologiya sohasiga oid, morfemika va so‘z yasashi sohasiga oid, leksikologiya va frazeologiya sohasiga oid, morfologiya sohasiga oid, sintaksis sohasiga oid, lug‘aviy va grammatik semasiologiya sohasiga oid, badiiy asar tilini o‘rganish sohasiga oid, dialektologiyaga oid, o‘zbek tilini o‘qitish uslubiyatiga oid, o‘zbek sinxron sotsiolingvistikasiga oid amalga oshirilgan ishlar. Bundan tashqari o‘zbek tilshunosligining amaliy (praktik) jabhasiga oid amalga oshirilgan ishlar ham mavjud. Ularga quyidagilar kiradi: turli xarakterdagi lug‘atlar; tilshunoslikning ayrim sohalari bo‘yicha amalga oshirilgan mashqlar majmuasi; o‘zbek tilshunosligining ayrim sohalari bo‘yicha amalga oshirilgan test-sinov mashqlari majmualari va boshqalardan iborat.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aktualnie problemi gumanitarno-pedagogicheskix nauk. Nauchniy sbornik. №2. – Batken, 2011.
2. Berdialiyev A. O‘zbek tili sintaktik paradigmikasi asoslari. – Toshkent, 1991. – 50 b.
3. Berdialiyev A. Fonetika va fonologiya hamda ularning o‘zaro munosabati masalasiga doir // Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 3-kitob. – Xujand, 2015. – B. 5.
4. Berdialiyev A. Slojnie slovoobrazuyushie affiksi v uzbekskom yazike. Avtoreferat kandidatskoy dissertatsii. – Tashkent, 1970. – 24 s.
5. Berdialiyev A. So‘z yasashi masalalariga doir ba’zi mulohazalar // O‘zbek tilshunosligi muammolari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 17-kitob. – Xujand, 2008. – B. 5-14.
6. Berdialiyev A. So‘z tarkibi va shakl-ma’no nomutanosibligi. Monografiya. – Bishkek, 2013. – 164 b.

7. Ilmiy asarlar. XXII. Til va adabiyot masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Leninobod, 1964.
8. Ilmiy asarlar. XXVI. Til va adabiyot masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Leninobod, 1967.
9. Ilmiy asarlar. Til va adabiyot masalalari. XXXIV. – Leninobod, 1970.
10. Mahmudov N., Madvaliev A., Sheraliyev E. Tojikistonlik o‘zbek tilshunoslari sardori. O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – №2. – B. 121-125.
11. Mirzaaxmedov M. Motivaniya sinxronnogo slovoobrazovaniya v uzbekskom yazike. – Xujand, 2005. – 24 s.
12. Mirzaqulov T. O‘zbek tili morfemikasida paradigmatic va syntagmatic munosabatlar. – Xujand, 1993.
13. So‘z zargari. (Professor A.Berdialiyev tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan anjuman materiallari to‘plami. Nashrga tayyorlovchilar Turdiboev T., Eshmurodov E.) – Xujand, 2019. – 102 b.
14. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Xujand: “Nuri ma’rifat”, 2011. – B. 9-16.
15. Sheraliyev E. Til ilmi fidoyisi / Xalq ovozi. 2007 yil 18 oktyabr.
16. Sheronov B. Alloma tilshunos // Sharqnoma. №2(11). – Xujand, 2014. – B. 80-93.
17. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Xujand, 1993. – B. 99-103.
18. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari 2-kitob, – Xujand, 1994. – B. 45-48.
19. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 5-kitob. – Xujand, 1995. – B. 33-35.
20. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 6-kitob. – Xujand, 1995. – B. 7-10.
21. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 7-kitob. – Toshkent, 1996. – B. 3-14.
22. O‘zbek tilshunosligi masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 10-kitob. – Xujand, 1997. – B. 5-12.
23. O‘zbek tilshunosligi masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 14-kitob. – Xujand, 2000.

O‘ZBEK TILINING BUGUNGI NUFUZI HAQIDA

M.M.Abdullayev

Farg‘ona davlat texnika universiteti,

YSM kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tilining bugungu kundagi holati hamda shundan kelib chiqib, texnik adabiyotlarda va maqolalarda o‘zbek tilining sofliqini saqlash maqsadida texnik so‘z va atamalarining umumiydashgan, barcha texnik sohalarni qamrab olgan, mukammal lug‘atini tuzib chiqish zarurati va bunda barcha texnik soha vakillari va tilshunos olimlar hamjihatlikda ishlamo‘g‘i dardkorligi haqida fikr yuritilgan. Ta’kidlanadiki, har bir muallif biron bir chet tilidagi so‘zni tilimizga kiritishdan avval uni chuqur o‘rganib, muqobil ma’nodoshini topib, yoki topilmasa, asoslab va undan so‘ng belgilangan tartibda nutqimizga kiritmog‘i kerak.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, ibora, tarjima, chet tili, til sofliqi, o‘zbek adabiy tili, lug‘at, izoh, ona tili, muallif, nutq, maqola.

O‘zbek tili haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo bu tilning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini ko‘rib chiqaylik. O‘zbek tili Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Bu tilda so‘zlashuvchilar esa, O‘zbeklar hisoblanadi. O‘zbeklar asosan O‘rta Osiyo davlatlarida va Afg‘onistonda istiqomat qiladilar. O‘zbek millatining Vatani – O‘zbekiston Respublikasi.

O‘zbek (turkiy) tili qadimiy tillardandir. Dastlabki yozma yodnomalar VI-VII asrlarga oid O‘rxun-Enasoy yozuvlarida uchraydi [1]. X-XI asarlardan boshlab o‘zbek (turkiy) tilda yirik asarlar yaratila boshlandi. Jumladan: Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” asarlari. Ahmad Yassaviy,

Rabg‘uziy, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Xorazmiylar turk (o‘zbek) tilining rivojlanishida katta xizmat qildilar. Turk (o‘zbek) tilining rivojida A.Navoiyining o‘rni beqiyosdir. A.Navoiy o‘zbek tili mavqeyini ham nazariy, ham amaliy jihatdan barqaror etdi.

Buyuk mutaffakir A. Navoiy o‘zbek (turkiy) tilining asoschisi hisoblanadi. Navoiy turkiy tilning rivojida shoh asarlar yaratish bilan hissa qo‘shib qolmay, uning taraqqiyotini nazariy jihatdan ham boyitdi. Bu borada xizmatlaridan biri 1499-yilda yaratilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til mihokamasi”) asaridir [2].

XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo‘llangan til **eski o‘zbek adabiy tili** deb nomlangan. Atoiy, Sakkokiy, Sayfi, Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi. O‘zbekistonda Davlat tili haqidagi Qonun 1989-yil 21-oktyabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi. Hozirda O‘zbekistonda lotin harflariga asoslangan alifbodagi o‘zbek yozuvi joriy qilingan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha ishlatib kelinayotgan til **hozirgi o‘zbek adabiy tili** deb yuritiladi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga salkam 37 yil bo‘lmoqda. Mustaqillikdan oldin, hatto, Mustaqillik haqidagi deklaratsiyadan ham oldin o‘zbek tiliga davlat tili berilishida ramziylik borgan o‘xshaydi. Chunki millat ozod bo‘lishi uchun avvalo o‘z o‘rni, sha’nini anglab yetishi kerak. Til esa millat uchun or-nomusning asosiy ustuni [3].

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida o‘zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi ta’siri va nufuzini oshirish bo‘yicha vazifalarni sanab o‘tdi. *Jumladan u o‘z nutqida shunday fikrni bildirdi: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir.*

Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin [4].

Xo‘sh, davlat tili haqidagi qonun qabul qilinib istiqloлга erishganimizdan keyin o‘zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasi (polivalentligi) to‘liq shakllandimi? O‘zbek milliy adabiy tili lisoniy aloqaning universal vositasiga aylandimi? Afsuski bu savolga ha deb javob bera olmaymiz [5].

Bu fikrni isboti sifatida bir qator mualliflarimiz bugungi kunda ko‘chalarimizdagi peshtoq yozuvlari, turli jarnomalar (reklamalar) va tashkilotlar nomlari kabi yozuvlardagi turli chet tillardan olingan so‘zlarni misol qilib keltiradilar. Lekin, ziyolilarimizni va xukumat rahbarlarimizni birinchi navbatda o‘zlarining o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartirishlarini istardim.

O‘zbek tilimizda “me’uor” va “me’yoriy” kabi chiroyli so‘zlarimiz o‘rniga “norma” va “normativ” so‘zlarini qachongacha qo‘llash mumkin.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 24-noyabrda qabul qilingan “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” qonunida har qadamda “normativ” so‘zi (hatto qonun nomida ham) ishlatilgan. Shu qonunning 8-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid bo‘lishi mumkin emas” deyilgan.

Birinchi navbatda o‘zbek tilida muqobil tarjimai bo‘lishiga qaramay turli chet tillardan (ayniqsa ingliz tilidan) olingan iboralarni kiritish va ularni muomalada qo‘llash yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan holat hisoblanadi. Misol uchun yaqin yillardan boshlab o‘quv muassasalarida guruh ***murabbiyi*** degan chiroyli nom bilan ataluvchi xodimlar bor edi, endichi, bugungi kunda biz ularni ***tyuter*** deb atayapmiz. O‘quv rejasi iborasini esa uning ingliz tilidagi tarjimai bo‘lmish ***syllabus*** iborasiga almashtirdik (lotinchada ***syllabus*** – *ro‘yxat*, ingliz tilida ***syllabus*** - *o‘quv reja*). Mazkur o‘quv reja matnida keltirilgan inglizcha iboralarni bizga ilgaritdan tanish bo‘lgan so‘zlar bilan

ifodalansa, tushunarliroq bo‘lmaydimi, masalan **q/a** ya’ni questions answers - **savol va javoblar**, **chart - diagramma**, **link - havola**, **interview - intervyu**, **keys stadi - holatning aniq tahlili**, **SWOT** – ingliz tilidagi kuch, zaiflik, imkoniyat va xavf so‘zlarining qisqartmasi, demak uni **KZIX** deb yozish va o‘quvchiga o‘zbek so‘zlari bilan tushuntirilsa eslab qolish oson bo‘ladi. Bu kabi misollarni ko‘p keltirish mumkin. Bular o‘zbek tilini boyitish emas, kamsitish, o‘zbek tiliga nisbatan hurmatsizlik belgisidir.

1995 yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqidagi” qonuni 7-moddasida shunday yozilgan: *Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalariga normalariga rioya etiladi. Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy, texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarini joriy etish hisobiga ta’minlaydi. Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tilidagi nutqqa joriy etiladi* [6]. Qonunning ushbu moddasidagi normalariga iborasini me’yorlariga deb yozilsa bo‘lmasmi?!

Ko‘chib kiruvchi so‘zlar to‘plami ayrim hollarda “internatsional so‘zlar” sifatida xaspo‘shlanadi. Bunga “biznes”, “market”, “mini”, “super”, “menejer”, “vip”, “lider”, “audio”, “video”, “aut”, “inter”, “servis” kabi bir qancha so‘zlar misol bo‘ladi. “Orgtexnika”, “kanselyariya” va bularga bog‘liq vositalar, jihozlar nomlanishi ham shundayligicha qabul qilingan. Ayniqsa, kompyuter sohasidagi iboralar xorijiy nomlari bilan atalishi davom etib kelmoqda (masalan: fayl, sayt, korzina, ssilka, giperssilka, snoska, domen, setevoye okrujenie, slayd, spam, bulutus va hokazo). Biz bu so‘zlarning iloji boricha o‘zbekcha muqobilini topishimiz kerak, albatta. Misol uchun “menejer”-boshqaruvchi, “lider”-sardor yoki sarkor, “kanselyariya”-devonxona, “korzina”-savatcha, “ssilka”-havola, “setevoye okrujenie”-tarmoq qamrovi va hokazo.

Ushbu holatlar azaldan mavjud bo‘lib, o‘zbek ziyolilari doimo bunday holatlarga o‘z munisabatlarini bildirib kelganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Til masalasi” (1915) maqolasida o‘sha paytdagi tilimizga kirib kelayotgan forsiy va arabiy so‘zlarning muqobil tarjimalari bo‘lsada, ularning asl ko‘rinishida ishlatilayotganligiga e’tibor qaratadi. Shuningdek o‘sha paytdagi mualliflarning o‘z asarlarida turli o‘zbek tili shevalaridagi so‘zlardan foydalanayotganliklarini tanqid ostiga olgan. M.Behbudiy o‘z maqolasida kinoya bilan shunday xulosa qiladi: *Xulosa fikrimiz shuki, yalg‘uz turkcha so‘ylamak va yozmoq abadan mumkin yo‘q. Baqadri imkon arabiy va forsiyni oz yozayluq. Barcha ilmu fan istiloh va lug‘atlarig‘a turkchadan muqobil oxtarib vaqtini zoe etmayluk. Taraqqiy etgan turkiy shevadagi ilmiy va fanniy kitoblarni anglamoqg‘a sa’y va g‘ayrat etayluk. Kellar zamon uchun hozirlanayluk, o‘tgan zamon uchun emas* [7].

Ushbu maqolada nazarda tutilgan muammo, ya’ni texnik adabiyotlar va maqolalardagi tilimizning sofliqini saqlash qay darajada? Bu sohada muammo anchagina jiddiy. Chet tilidan kiritilgan iboralar ishlatilmagan birorta texnik adabiyot yo‘q deyish mumkin va ular shiddat bilan kirib kelmoqda. “Korpus”, “richag”, “koromislo”, “val”, “sharnir”, “uzel”, “zona”, “krivoship”, “mufta”, “model”, “dizayn”, “moda”, “komplekt”, “elktrodivigatel”, “glossariya”, “balka” va hokazo. Bunday so‘zlar qatorini davom etsak, bir necha o‘n varoq to‘ladi. Bu so‘z va iboralarning hammasi ham o‘zbek tilida muqobil tarjimasiga ega emasmi. Yo‘q albatta ularning aksariyatini ma’nodosh tarjimalari mavjud va o‘zbek tilidagi ana shu so‘zlar hozirda unutilmoqda, muloqotdan chiqib qolmoqda. Bu endi ona tilimizni boyitish emas, balki so‘zlarni yo‘qotish, tilni faqirlashtirish hisoblanadi.

Fikrimni isboti uchun, izlanishlar natijasida aniqlangan, bir nechta misollarni keltirmoqchiman: “Richag” - tayanch nuqtasi atrofida aylanadigan va kichikroq kuch bilan ko‘proq kuchni muvozanatlash uchun xizmat qiladigan novda [8]. Bu buyuk russ olimi V.I. Dal bergan ta’rif. A.Madvaliyev tahririda ishlab chiqilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘ziga shunday ta’rif berilgan: “Richag” – biror tayanch nuqtasiga ega bo‘lgan va oz kuch bilan kata kuchni muvozanatga keltiradigan oddiy qurilma; pishang [9]. Shu lugatning 270 betida pishang eskichasiga aynan richag deb yozilgan. Demak richagni pishang deb tarjima qilish mumkin.

Izlanishlar natijasida bir qator chet tillardan kirib kelgan so‘zlarning tarjimalari aniqlandi: korpus-qobiq, koromislo-shayn, langar, glossariya-izohli lug‘at, model-namuna, elektrodvigatel-yuritgich, krivoship-tirsak, sharnir-aylanuvchan bog‘, komplet-jamlanma, regulyator-rostlagich,

tyaga(bo‘lak)-dasta, bashmak-boshmoq (oyoq kiyimi), podmyotka-kapaki, mufta-bog‘lagich va hokazo.

Farg‘ona politexnika oliygohining 2021 yildagi “ChBK” fanidan uslubiy qo‘llanmasida tabiiy terining markaziy qismi “cheprak” deb aynan qabul qilingan bo‘lsa, Namangan texnologiyalar oliygohi uslubiy qo‘llanmasida bu so‘z yopqich deb tarjima qilingan. Yuqoridagi kamchiliklar texnik fanlar uchun texnik iboralar lug‘atlarining etarli darajada mavjud emasligining oqibatidir.

Toshkent to‘qimachilik va engil sanoat oliygohi mutahassislari tomonidan to‘qimachilik sohasida, kimyo fani bo‘yicha va bir qator sohalarda kichik hajmdagi lug‘atlar ishlab chiqilgan. Ayniqsa 2006 yilda chop etilgan A.A.Xaydarov va S.Xusniddinovlarning “Charm buyumlariga oid ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” bir muncha mukammalroq tayyorlangan. Garchand bu erda ham “cheprak” so‘zi tarjimasiz qolgan bo‘lsada.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Til – millat ko‘zgusidir. Unda xalqimizning asrlar silsilasidan, mustabidlik to‘fonlaridan sabr-matonat bilan bosib o‘tgan hayot yo‘li, madaniyati, tarixi, saviyasi, aql-zakovati aks etadi. “Qadimgi ajdodlarimiz zardushtiylarning kitobi “Avesto”da to‘rtta unsur – suv, tuproq, olov va havo muqaddas sanalgan. Men bular sirasiga beshinchi qilib tilni ham kiritgan bo‘lardim. Tilimizni ham inson uchun muhim omil, aziz va qadrlil unsurlar qatori muqaddas bilib, pokiza va ozoda saqlash, lug‘atimiz ko‘rki bo‘lgan “Vatan”, “Ona”, “Kitob”, “Mustaqillik” kabi so‘zlar mohiyatini chuqur anglash, milliy qadriyatlarimiz hamda til boyligimizni bor butunligicha kelajak avlodlarga yetkazib berish barchamizning burchimizdir”[4].

Har bir muallif biron bir chet tilidagi so‘zni tilimizga kiritishdan avval uni chuqur o‘rganib, muqobil ma‘nodoshini topib, yoki topilmasa, asoslab va undan so‘ng belgilangan tartibda nutqimizga kiritmog‘i kerak.

Texnik adabiyotlarda va maqolalarda o‘zbek tilining sofligini saqlash maqsadida texnik so‘z va atamalarning umumiy lashgan, barcha texnik sohalarni qamrab olgan, mukammal lug‘atini tuzib chiqish zarur. Bunday lug‘atni tuzishda barcha texnik soha vakillari va tilshunos olimlar hamjihatlikda ishlamo‘g‘i darkor.

Mualliflarimiz oldida turgan eng oliy vazifa tayyorlayotgan yozma ma‘lumotlarida, maqolalarida, kitoblarida va boshqa asarlarida o‘zbek tili sofligiga e‘tibor qaratish va tilga munosabat – elga munosabat ekanligini unutmasliklaridir.

Agar tilimizga jiddiy e‘tibor qaratmas ekanmiz, uni avaylab-asramas ekanmiz, Ona tilimiz turkiy tillar tarkibiga kiruvchi o‘zbek tili emas, balki, turkiy, arab, fors, rus, ingliz va shu singari tillar quramasiga aylanib qoladi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 M. Allamberganova “O‘rxun-Enasoy obidalarining O‘zbekistonda o‘rganilishi” , - Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021, May.

2 <https://cyberleninka.ru/article/n/alisher-navoiyning-tilshunoslikka-oid-qarashlari/viewer>

3 <https://sof.uz/uz/post/o-zbek-tilining-tarixi-yoxud-xodja-dosmat-maxamatlar-qanday-paydo-bo-lgani-haqida>

4 <https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/22/uzbek-language/>

5 Safarov F., Istiqlol davrida o‘zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasi. / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, -Toshkent., 2022-yil 19-oktabr. 349-b.

6 O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqidagi” qonuni.1995-yil 21-dekabr. Lex.uz.

7 Mahmudxo‘ja Behbudiy. “TIL MASALASI” “Oyna” jurnali, 1915 yil, 11—12-sonlar. 306-311-betlar. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/mahmudxo-ja-behbudiy-til-masalasi-1915>

9 A.Madvaliev tahriri ostidagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” -Toshkent, “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti” 2006-2008 y.y.

Xaydarova Zulfiya Tursunxo‘jayevna

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti

Pedagogika fanlari nomzodi.

xaydarovazt@gmail.com

Sadriddinova Zarina Shuhrat qizi

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti

Assistent

shukhratovnazarina00@gmail.com

+998 50 188 28 05

Annotatsiya. Mazkur maqolada rus tilidagi “kimnidir qandaydir harakat yoki faoliyatga undash” tipidagi fe‘llar sinfi semantikasining lingvodidaktik talqini taklif etiladi. Tadqiqot rus tilida so‘zlashmaydigan auditoriyada distributiv-transformatsion va komponent tahlil asosida amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: aktant, distributsiya, interpretatsiya, leksema, obyekt, predikat, semantika, subyekt, transformatsiya.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СЕМАНТИКИ ГЛАГОЛОВ РУССКОГО ЯЗЫКА ТИПА «ПОБУДИТЬ КОГО-ЛИБО К КАКОМУ- ЛИБО ДЕЙСТВИЮ ИЛИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ»

Аннотация. В данной статье предлагается лингводидактическая интерпретация семантики класса глаголов русского языка типа «побудить кого-либо к какому-либо действию или деятельности». Исследование выполнено на основе дистрибутивно-трансформационного и компонентного анализа в нерусскоязычной аудитории.

Ключевые слова: актант, дистрибуция, интерпретация, лексема, объект, предикат, семантика, субъект, трансформация.

Universitetlar va pedagogika institutlarining milliy guruhlarida o‘qitish maqsadida fe‘llar semantikasini o‘rganishning dolzarbligi rus tilida har qanday kommunikatsiya akti uchun fe‘l semantemalarini faol egallash zarurligi bilan belgilanadi. Fe‘l semantikasining ushbu fragmenti nutq faoliyati uchun zarur bo‘lgan fe‘l leksikasining eng ko‘p qo‘llaniladigan qatlamiga kiradi va har qanday yoshda hamda vaziyatda qo‘llanadi.

Tadqiq qilinayotgan fe‘l semantikasi nutq faoliyati uchun zarur bo‘lgan fe‘l leksikasining eng ko‘p qo‘llaniladigan qatlamiga kiradi. Bu fe‘llarning semantikasi avvalo maktab va oliy o‘quv yurtlarida o‘rganilishi lozim.

Ma‘lumki, gap tarkibida fe‘llar faqat bitta ma‘noda namoyon bo‘ladi, shuning uchun ushbu maqolada o‘rganish obyekti ko‘p ma‘noli fe‘lning barcha ma‘nolari emas, balki shu semantik sinfga kiruvchi ko‘p ma‘noli fe‘lning bitta ma‘nosi – **lekse** hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ko‘p ma‘noli fe‘llarning leksemalari emas, bitta ma‘nosi ya‘ni lekse o‘rganiladi.

Barcha so‘z shakllari bilan birga olingan so‘z **leksema** deb ataladi (Shelyakin, 2001, 17-bet).

Fe‘lning ma‘nosi fe‘lni predikativ iborada, kerakli predlog va kelishik konstruksiyalarida ifodalangan aktantlar subyekt, birinchi va ikkinchi obyektни qo‘llash qobiliyati sifatida tushuniladi. Shunday qilib, aktantlar fe‘l leksasining ma‘nosi komponentlari sifatida qatnashadi.

Shuningdek, fe‘l semantikasini o‘rganish uning pragmatik ma‘nolarini ham egallashni nazarda tutadi, ya‘ni aktantlarning majburiy va ixtiyoriy shakllarini ajratish, predikativ iborada aktantni majburiy yoki ixtiyoriy shaklda ifodalash va predikativ iborani transformatsiya qilish imkoniyatini bilish kerak bo‘ladi. Bunda aktant subyekt, birinchi va ikkinchi obyekt pozitsiyalarida turishi mumkin, shu bilan birga predlog-kelishik shakllari, fe‘l prefiks va suffikslari o‘zgaradi.

“Kimnidir qandaydir harakat yoki faoliyatga undash” tipidagi fe‘llar

$S^1_{im} + G + S^2_{od\ v} + k\ S^3_{neod\ d}$

Ko‘rsatilgan distributiv formulaga ega bo‘lgan fe‘llar sinfga quyidagilar kiradi: ishchini mehnatga qaytarish, umidsizlangan kishini yangi hayotga qayta tiklash, qizni yangi umidlarga ruhlantirish, raqibni chekinishga majbur qilish, bolani universitetga tayyorlash, talabani imtihonlarga qo‘yish, suhbatdoshni kelishuvga og‘dirish, o‘quvchini imtihonga tayyorlash, qizni

turmushga majbur qilish, insonni yaxshi xulqqa yo‘naltirish, amaldorni qarzni to‘lashga majbur qilish, o‘quvchini manbaga yo‘naltirish, insonni mehnatdan sovutish, odamlarni qat’iy harakatlarga undash, tinglovchilarni to‘g‘ri qarorga olib kelish, bolalarni chiqishga tayyorlash, yangi xodimni jamoat ishlariga jalb qilish, muharrirni javobgarlikka tortish, jinoyatchini o‘lim jazosiga hukm qilish, bolani universitetga tayyorlash, odamlarni tinchlikka chaqirish, shoirni fitnaga aralashtirish, qizni turmushga majbur qilish, dushmani taslim bo‘lishga majbur qilish, yigitni adabiyotga jalb qilish, bolani musiqaga qiziqtirish, jinoyatchini otuvga hukm qilish, guvohlarni javobgarlikka tortish, bolani uy mehnatiga o‘rgatish, odamlarni faoliyatga uyg‘otish, boshliqni kelishuvga ko‘ndirish, aybdorni javobgarlikka tortish, do‘stlarni kelajakka yo‘naltirish va boshqalar (44 ta leksema).

Bu fe’llarning distributiv formulasida subyekt pozitsiyasi ko‘pincha jonli otlar bilan, kamroq hollarda jonsiz otlar bilan ifodalanadi.

Masalan: Dekan talabani imtihonlarga qo‘ydi. Repetitor o‘quvchini imtihonga tayyorladi. Ma’ruzachi tinglovchilarni to‘g‘ri qarorga olib keladi. Kotib yangi xodimni jamoat ishlariga jalb qildi. Ota bolani o‘qishga qiziqtirdi. Ona o‘g‘lini musiqaga qiziqtirdi. Tinchlik insonni fikrlashga undaydi.

S2 pozitsiyasi odatda jonli otlar bilan ifodalanadi va fikrlovchi obyektни bildiradi.

k S3 D pozitsiyasi esa odatda jonsiz otlar bilan ifodalanadi. Ko‘pincha bu otlar fe’ldan yasalgan bo‘ladi yoki fe’llar bilan bog‘liq ma’noga ega bo‘ladi.

Masalan:

raqibni chekinishga majbur qilish odamlarni qat’iy harakatlarga undash bolalarni chiqishga tayyorlash bolani universitetga tayyorlash = universitetda o‘qishga tayyorlash yigitni adabiyotga jalb qilish = adabiyot bilan shug‘ullanishga jalb qilish

Shunday qilib, **k S3 D** pozitsiyasi obyektни qanday harakat yoki faoliyatga undashni bildiradi.

So‘z shaklining “fe’llik” ma’nosi sababli ko‘p hollarda bu shakl **infinitiv** bilan almashtirilishi mumkin.

Masalan:

raqibni chekinishga majbur qilish → raqibni chekinishga majbur qilish qizni turmushga chiqishga majbur qilish amaldorni qarzni to‘lashga majbur qilish odamlarni qat’iy harakat qilishga undash dehqonlarni qo‘zg‘olonga undash yigitni uylanishga majbur qilish dushmani taslim bo‘lishga majbur qilish bolani mehnat qilishga o‘rgatish

Ko‘pchilik fe’llarda uchinchi pozitsiya majburiy hisoblanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan fe’llar **“kimnidir qandaydir harakat yoki faoliyatga undash”** ma’nosini bildiradi. Umumiy qoida bo‘yicha bu guruhga qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan **“sovutmoq, qiziqishini kamaytirmoq”** ma’nosidagi fe’llar ham kiradi (Fomenko, 1977).

Mazmun jihatdan tahlil qilinayotgan fe’llar **8 ta kichik sinfga** bo‘linadi.

1-kichik sinf

Obyektga ma’lum bir xulq-atvor yo‘lini majburlab yuklash ma’nosini bildiruvchi fe’llar kiradi: qaytarmoq, qo‘zg‘atmoq, qayta tiklamoq, tiriltirmoq, majbur qilmoq, og‘dirmoq, majburlamoq, yo‘naltirmoq, majbur etmoq, undamoq, olib kelmoq, gijgijlamoq, majbur qilmoq, ko‘ndirmoq, jalb qilmoq, chaqirmoq, majburlab qildirmoq, majbur qilmoq, javobgarlikka tortmoq, uyg‘otmoq, ko‘ndirmoq, rozi qilmoq, turtmoq, tortmoq, tinchitmoq, yo‘naltirmoq.

2-kichik sinf

Obyektga biror faoliyatga qiziqish uyg‘otish ma’nosini bildiruvchi fe’llar: jalb qilmoq, qiziqtirmoq, moyil qilmoq, o‘rgatmoq.

3-kichik sinf

Biror faoliyatga tayyorlash uchun bilim va ko‘nikmalar berish ma’nosini bildiruvchi fe’llar: tayyorlamoq, tayyorlab qo‘ymoq, tayyor qilib qo‘ymoq, imtihonga tayyorlamoq.

4-kichik sinf

Sud javobgarligiga tortish yoki muayyan jazoga hukm qilish ma’nosini bildiruvchi fe’llar: javobgarlikka tortmoq, hukm qilmoq, jazoga hukm qilmoq.

5-kichik sinf

Kimnidir biror ishga aloqador deb hisoblash ma’nosini bildiruvchi fe’llar: aralashtirmoq, qo’shib qo’ymoq, aralashtirib yubormoq.

6-kichik sinf

Biror ish uchun sharoit yaratish yoki unga yordam berish ma’nosini bildiruvchi fe’llar: moyillik uyg’otmoq, sharoit yaratmoq.

7-kichik sinf

Ruxsat berish yoki imkon yaratish ma’nosini bildiruvchi fe’llar: ruxsat bermoq.

8-kichik sinf

Kimdadir biror ishga bo’lgan qiziqishni so’ndirish ma’nosini bildiruvchi fe’llar: sovutmoq.

“Undamoq” tipidagi fe’llarga **chaqirmoq, majbur qilmoq, iltimos qilmoq, gijgijlamoq, vasvasaga solmoq, ishontirmoq** kabi fe’llar ham yaqin turadi. Bu fe’llarda distributiv formuladagi uchinchi pozitsiyani faqat **infinitiv** egallaydi.

Bu fe’llar haqida quyidagi manbalarda ham so’z yuritilgan: **Апресян, 1967.**

Fe’l “pobudit” (undamoq)

(kimni) – kitobiy uslubda: biror ish qilishga undamoq, qo’zg’atmoq, majbur qilmoq, fikr uyg’otmoq.

Masalan: mehnatga undamoq odamlarni qat’iy harakatlarga undamoq

Fe’l “vozbudit”

(kimni) – bezovta qilmoq, hayajonga solmoq.

Masalan:

yigitni kurashga ruhlantirmoq.

Rus va o’zbek tillaridagi bu fe’llarning semantikasi o’zaro ekvivalentdir.
— Zulfiya Tursunhodjayevna Xaydarova

Mashq №1

Quyidagi fe’lli birikmalar bilan quyidagi mikrotizim bo’yicha gap tuzing:

S1 + fe’l + S2 + k S3

Fe’llarning semantikasiga e’tibor bering.

Namuna:

Danko yuragi haqidagi afsona odamlarni qahramonlikka undaydi.

Quyidagi birikmalar bilan gap tuzing:

- ishchini mehnatga qaytarish
- yigitni kurashga ruhlantirish
- raqibni chekinishga majbur qilish
- bolani universitetga tayyorlash
- talabani imtihonlarga qo’yish
- odamlarni qat’iy harakatlarga undash
- bolalarni chiqishga tayyorlash
- talabani jamoat ishlariga jalb qilish
- jinoyatchini o’lim jazosiga hukm qilish
- bolani uy mehnatiga o’rgatish
- do’stlarni kelajakka yo’naltirish

Bizning fikrimizcha, ushbu mashq o’rganilayotgan fe’l sinflari semantikasini **aniqlash va nutqda qo’llash ko’nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.**

Xulosa

Mazkur maqolada rus tilidagi **“kimnidir biror harakat yoki faoliyatga undash”** tipidagi fe’llar semantikasining lingvodidaktik talqini tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, ushbu fe’llar nutq jarayonida muhim o’rin tutib, ular orqali bir shaxsning boshqa shaxsga muayyan harakat yoki faoliyatni amalga oshirishga ta’siri ifodalanadi. Fe’llarning semantik tuzilishini o’rganishda distributiv-transformatsion hamda komponent tahlil usullaridan foydalanish ularning ma’no xususiyatlarini aniqroq ochib berishga yordam beradi.

Tadqiqot davomida mazkur fe’llarning distributiv modeli, aktant tuzilishi hamda semantik xususiyatlari aniqlanib, ular bir nechta kichik semantik guruhlariga ajratildi. Bu esa fe’llarning

ma’no jihatdan o‘zaro bog‘liqligini va nutqda qo‘llanish imkoniyatlarini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Shuningdek, rus tilini o‘rganuvchi, ayniqsa rus tilida so‘zlashmaydigan auditoriya uchun bunday fe’llarning semantikasini tizimli tarzda o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Chunki fe’llarning aktant tuzilishini, ularning predikativ birikmalarda qanday qo‘llanishini hamda turli transformatsion shakllarini o‘zlashtirish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari rus tilidagi ushbu fe’llar sinfini lingvodidaktik jihatdan o‘rganish va o‘qitishda samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yuri Derenikovich Apresyan. Rus fe’li semantikasining eksperimental tadqiqi. – Moskva: Nauka, 1976.
2. Leonid Mikhailovich Vasilev. Hissiyot, tafakkur va nutq fe’llarining semantik sinflari // Rus fe’li semantikasi bo’yicha ocherklar. – Ufa: Bashqird davlat universiteti, 1971.
3. Yuri Vladimirovich Fomenko. Rus tilidagi ko‘p o‘rinli fe’llarning semantik sinflari bo’yicha kuzatishlar. – Novosibirsk, 1977.
4. Mikhail Alekseevich Shelyakin. Rus tilining funksional grammatikasi. – Moskva: Rus tili, 2001.
5. Xaydarova Zulfiya Tursunxo‘jayevna. O‘zbekiston OTMLarida hissiyot fe’llari semantikasini o‘qitishning lingvodidaktik asoslari. Monografiya. – Toshkent, 2021.

TURKIY TILLARNI AREAL O‘RGANISH TARIXIDAN

*Sobirov Abdulhay Shukurovich,
filologiya fanlari doktori, professor,
Andijon davlat universiteti, Andijon, O‘zbekiston
sobirov195715@ gmail.ru
+99890-547-78-57*

Abstract: Amerikalik olim U.Uitnining fikricha: “Til bir turdagi qismlarning oddiy bir agregati emas. U bir-biri bilan chambarchas holda bog‘lanib ketgan, biri ikkinchisini to‘ldirib keluvchi elementlarning kompleks sistemasidir. Bu sistema yaxlit bo‘lib, simmetrik strukturaga ega. Tilning bu xususiyati olamdagi ma’lumotlarni tashqarida va o‘z ichida qamray biladigan, so‘ngra muloqot jarayonida ularning har biridan o‘z o‘rnida unumli foydalana oladigan ongning amaliy faoliyatiga borib taqaladi”⁹.

Darhaqiqat, tilda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatini tushunib yetish, muomala-munorsabatlarda ulardan o‘rinli foydalanish, nutqda yangi paydo bo‘layotgan leksik birliklarni tartibga solish, tizimlashtirishda ularga qaysi tomondan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilamizki, bu borada o‘zbek tilshunosligi bir qancha bosqichlarni bosib o‘tdi. O‘tgan asrning boshlaridan to 80-yillarning o‘rtalarigacha hukm surgan an’anaviy tilshunoslik o‘zbek tilining ilmiy hamda amaliy asoslarini shakllantirish va rivojlantirishda katta o‘rin egalladi. Ilmiy qarashlar, fikrlar yangilanishlari bilan e’tiborli. Agar ilmda rang-barangliklar, bahs va munozaralar, masalaga turlicha yondashuvlar bo‘lmaganida u hech qachon o‘rnidan siljimagan va hayotga zarracha bo‘lsa-da ta’sirini o‘tkaza olmagan bo‘lar edi.

O‘zbek tilshunosligi ham bir joyda qotib qolgan dogma emas. U muntazam harakatda, yangilanishda. Bu borada teran fikrli, innovatsiyalarga tayangan, katta hayotiy tajribaga ega tilshunoslarning xizmatlarini e’tirof etish joiz. Ular orasida filologiya fanlari doktori, professor Tursunali O‘taevich Mirzaqulovning alohida o‘rni bor. Uning 1994-yili “O‘zbek tili morfem paradigmikasi va sintagmatikasi masalalari” mavzusida himoya qilgan doktorlik ishi morfemika

⁹ Бу ҳақда қаранг: Слюсарева Н.А. Соссюр и соссюриантво//Философские основы зарубежных направлений в языкознании. – М.: Наука, 1977. – С. 85.

sohasidagi an’anaviy qarashlarga barham berib, sohada yangi yo‘nalish ochilishiga turtki bo‘lib xizmat qildi, desak yangilashmaymiz. Olim faqat bilan morfemika sohasi bilan shug‘ullanmadi, uning ilmiy faoliyati qirralari rang-barang. “Morfemika, so‘z yasalihi, morfologiya” (1988), “O‘zbek tili morfemikasining asosiy aspektlari va ularning munosabati” (1992) kabi fundamental asarlari qatorida “Tilshunoslikka kirish” (1996), “Turkiy va o‘zbek tilshunosligi tarixidan lavhalar” (1996), “Grammatika o‘qitishning lingvistik asoslari” (1994), “A. Navoiy va o‘zbek tilining ijtimoiy-badiiy maqomi” (1991), “Somoniyilar davrida tillarning mavqei va o‘zaro ta’siri haqida” (1990), “Tojik tilidagi turkiy-o‘zbekcha so‘zlar” (2000) kabi kitoblari o‘zbek tilshunosligining sara asarlari bo‘lib qolmoqda.

Ularga asoslangan holda ushbu tadqiqotimizda T.O‘.Mirzaqulov faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolgan turkiy tillar taqdiri masalasida fikrlashmoqchimiz.

Kalit so‘zlar: *til, tilshunoslik, o‘zbek tili, turkiy tillar, turkiyshunoslik, lahja, dialekt, areal tilshunoslik, lingvistik xarita, lingvistik atlas.*

Abstract: According to the American scholar W. Whitney, "Language is not simply a collection of parts of a single type. It is a complex system of elements, closely interconnected and complementary. This system is integral and has a symmetrical structure. This feature of language is due to the practical activity of the mind, capable of encompassing information from the external and internal worlds and then effectively using each of them in its proper place in the process of communication" [1].

Indeed, it is important to understand the fundamental essence of the processes occurring in language, to use them appropriately in communication, and to organize and systematize newly emerging lexical units in speech.

We know that Uzbek linguistics has gone through several stages in this regard. Traditional linguistics, dominant from the beginning of the last century until the mid-1980s, played a significant role in the formation and development of the scientific and practical foundations of the Uzbek language. It is distinguished by the renewal of scientific views and ideas. If science were without diversity, debate, discussion, and diverse approaches to the problem, it would never advance or have the slightest impact on life.

Uzbek linguistics, too, is not a static dogma. It is constantly evolving and innovating. In this regard, it is worth noting the contributions of linguists who possess profound thinking, embrace innovation, and possess a wealth of life experience. Among them, Doctor of Philology and Professor Tursunali Otaevich Mirzakulov holds a special place. It is no exaggeration to say that his doctoral dissertation, defended in 1994, on "Issues of Morphemic Paradigmatics and Syntagmatics in the Uzbek Language," put an end to traditional views in the field of morphemics and served as the impetus for the discovery of a new direction in this field. Mirzakulov's research was not limited to morphemics; his work was multifaceted. Among his fundamental works, such as "Morphics, word formation, morphology" (1988), "The main aspects of morphemics of the Uzbek language and their relationship" (1992), "Introduction to linguistics" (1996), "From the history of Turkish and Uzbek linguistics" (1996), "Linguistic foundations of teaching grammar" (1994), "A. Navoi and the socio-artistic status of the Uzbek language" (1991), "On the status and interaction of languages in the Samanid era" (1990), "Turkish-Uzbek words in the Tajik language" (2000), remain outstanding works on Uzbek linguistics. Based on them, in this study we intend to consider the fate of the Turkic languages, which became one of the main areas of activity of T.O. Mirzakulov.

Keywords: *language, linguistics, Uzbek language, Turkic languages, Turkic studies, dialect, areal linguistics, linguistic map, linguistic atlas.*

Asosiy qism. Turkiy tillar uzoq Sibirdan Bolqon yarim oroligacha bo‘lgan ulkan hududga tarqalib ketgan yirik til oilalaridan biri sanaladi. Hozirda bu til oilasiga kirgan 30dan ortiq tillarda 200 milliondan ortiq inson gaplashadi.

Nufuz jihatidan ularda so‘zlashuvchilarning miqdori bir xil emas. Masalan, usmonli turk tilida 86 million, o‘zbek tilida 60 million, ozarbayjon tilida 35 million, qozoq tilida 25 million, qirg‘iz tilida 6,7 million, turkman tilida 6,2 million inson so‘zlashadi. Shu bilan birga, oz sonli turkiy tillar ham mavjud. Sibirda tofalar 800 nafar, tuvalar 300 nafar, Yoqutistonda dolganlar

5500, Oltoyda teleutlar 2700, Kemerovada shorlar 13 ming, Qrimda krimchaklar 1500, karaimlar 2000 nafar qolgan¹⁰.

Turkiy tillarni areal o‘rganishga buyuk tilshunos Mahmud Koshg‘ariy asos solgan. U o‘zining “Devonu lug‘otit turk” nomli asari bilan turkiy tillarda areal lingvistika tarixini boshlab bergan. Fanga areal lingvistika atamasini 1943-yilda olib kirgan kirgan M.J.Bartoli va Dj.Vidossilardan 867 yil avval 1076-yilda u 20ta turkiy qabilaning Mahmud Koshg‘ariy areal lingvistika terminini qo‘llamagan, lekin uning “Devonu lug‘otit turk” asarida hozirda areal lingvistikada qo‘llanayotgan qiyosiy-tarixiy, lingvistik geografiya, tavsifiy metodlardan keng foydalanilgan va, eng muhimi, turkiy qabila tillari hududiylik asosida o‘rganilib, xaritaga tushirilgan.

Bunday yondashuv Alisher Navoiy asarlarida, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Mirza Mahdixonning “Sangloh”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” kabi asarlarida ham bor.

“Boburnoma” shunday satrlarga duch kelamiz: “O‘n bir-o‘n ikki lafz bila Kobul vilotida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo‘g‘uliy, hindiy, afg‘oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg‘oniy. Muncha muxtalif aqvom v muhojir alfoz ma‘mur emaskim, hech viloyatda bo‘lg‘ay”; “Alishang rudi Mildin chiqar. Hazrati Nuh payg‘ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba‘zi tarixta Mehtar Lomni Lamak Lamkon debturlar. Ul elni xili mulohaza qililibturkim, ba‘zi mahal “kof” o‘runig‘a “g‘ayn” talaffuz qilurlar, bu jihattin g‘olibo bu viloyatni Lamg‘on debturlar”; “Hindiston avvalg‘i iqlimdin va ikkinchi iqlimdin va uchunchi iqlimdinur. To‘rtunchi iqlimdin Hindustonda yo‘qtur. G‘arib mamlakate voqi’ bo‘lubtur. Bizning viloyatlarga boqa o‘zga olamedur. Tog‘ va daryosi va jangal va sahrosi, mavozni va viloyoti va hayvonot va nabototi, eli va tili va yomg‘uri va yeli borcha o‘zgacha voqi’ bo‘lubtur”¹¹.

Ko‘rinib turibdiki, “Boburnoma”da areal lingvistikaga oid muhim ma‘lumotlar uchraydi va ular o‘zbek areal lingvistikasi tarixi uchun o‘ziga xos ahamiyat kasb etishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, turkiy tillarni areal o‘rganish, asosan, sobiq ittifoq paytida boshlandi. Turkiy tillarning tarixi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi ustida jiddiy izlanishlar olib borgan V. A. Bogoroditskiy, Y. D. Polivanov, V. V. Reshetov, K. K. Yudaxin, A. K. Borovkov, N.Z.Gadjieva, G.F.Blagova kabi olimlar turkiy tillarga garchi areal aspektda yondashmagan bo‘lsalar-da, ularning qarashlarida areal tahlil unsurlari uchrab turardi. Turkiy tillar ichidan tatar, chuvash va Kavkazdagi turkiy tillarni areal o‘rganish borasida ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, V. A. Bogoroditskiy o‘zining “Tatar tilini chuqur ilmiy o‘rganish haqida” (1932) “Tatar tilshunosligining oldidagi vazifalar” (1935), “Tatar va turkiy tillar yuzasidan etyudlar” (1933), “Tatar tilshunosligiga turkiy tillar bilan bog‘liq holda kirish” (1955) kabi asarlarda tatar tili unli va undoshlar tizimini o‘rganib, bunda turkiy tillar aralashgan hududlarni hisobga olish lozimligini, boisi, eski turkiy tilga xos bo‘lgan belgilar zamonaviy turkiy tillarda turli darajada saqlanib qolganini e’tirof etdi¹². Bu kabi qarashlar boshqa turkiyshunoslarning ham qarashlarida qayd etilgan.

Turkiy tillarni areal o‘rganish masalalari, asosan, o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlandi. Bu jarayon ikki xil yo‘nalishda olib borildi.

1. Turkiy tillarni yalpi o‘rganish, ular o‘rtasidagi umumiy hamda xususiy faprlarni aniqlashga qaratilgan ishlar. Bunga quyiagi tadqiqotlarni kiritish mumkin.

N.Z.Gadjieva 1975-yilda “Проблемы тюркской ареальной лингвистики” (Среднеазиатский ареал) kitobini nashr ettirdi³. Olima qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman va o‘zbek tillaridagi unli va undosh tovushlarning izofonema vazifasini o‘tashi, assimiylatsiya,

¹⁰ <https://www.google.com/search>.

¹¹ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 175-, 178-179, 72-373 бетлар.

³ Гаджиева Н.З. “Проблемы тюркской ареальной лингвистики” (Среднеазиатский ареал). – М.: Наука, 1975. – 304 с.; Гаджиева Н.З. Тюркоязычные ареалы Кавказа – М.: Наука, 1979. – 262 с.

¹² Bu haqda qarang: “В.А. Богородицкий и современная лингвистика: труды и материалы Международной научной конференции “ (Казань, 18–20 ноября 2024 г.). – Казань: Издательство Казанского университета, 2024. – Т. 1. – 200 с.

singarmonizm, shaxs va zamon shakllari, chegara rayonlaridagi izoglassalarning holati, areal lingvistika metodlari, turkiy tillarni areal tasnif qilish masalalari, areal tadqiqotlarning turkiy tillar uchun ahamiyati yuzasidan jo‘yali fikr mulohazalarini bayon etdi¹³.

N.Z.Gadjieva tadqiqotlarini davom ettirib, 1979-yili “Тюркоязычные ареалы Кавказа” asarini nashr qildi. Unda Kavkaz hududida amalda bo‘lgan ozarbayjon, qorachoy-balqar, nog‘ay, qo‘miq, mesxeti turklari, salar tillaridagi tovushlar tizimini, ko‘plik, kelishik, shaxs-son kategoriyalarini areal aspektda o‘rgandi. Chegara tumanlaridagi jarayonlarga alohida to‘xtaldi, Kavkazdagi o‘g‘uz va qipchoq guruhlariga kirgan turkiy tillarning shakllanish va rivojlanish tarixiga nazar tashladi¹⁴.

Turkiy tillarni areal o‘rganishda G.F.Blagovaning xizmatlari katta. Uning 1982-yilda nashr etilgan “Тюркское склонение в ареально-историческом отношении” kitobi bu boradagi muhim yutuqlardan bo‘ldi¹⁵. Asarda turkiy tillardagi turlanish tarixiga areal-tarixiy tamoyilda yondashilgan. E’tiborlisi, asarga turlanish jarayonlarini o‘zida aks etgan 7ta karta sxema ilova qilingan.

2. Alohida turkiy tillarda olib borilgan tadqiqotlar. Bunga V. Tatarinning “Tatar tilining dialektologik atlasini”ni va L.P. Sergeyev “Chuvash tilining dialektologik atlasini”ni misol qilib olishimiz mumkin.

Sobiq ittifoqning parchalanishi milliy davlatlar va milliy tillarning taraqqiyoti uchun keng ochib berdi. Oldinlari turkiy tillarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ma’lum bir ma’noda markaz rejasi ostida olib borilgan bo‘lsa, 90-yillardan boshlab ular dunyo tillari qatoriga qo‘yilib, tadqiq etila boshlandi.

Hozirda turkiy tillarda areal lingvistika shakllanish va rivojlanish jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Areal tadqiqotlar ikki yo‘nalishda bajarilayotgani bilan xarakterlanadi.

1. Areal lingvistikaning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar. Bunga tatar tilida bajarilgan quyidagi ishlar misol bo‘la oladi: Хабибуллина Л. Г. Краткая история становления татарской ареальной лингвистики // Филология и человек, 2024. – № 2. – С. 188-194; Махмутова Л. Т. Опыт исследования тюркских диалектов. Мичарский диалект татарского языка. М., 1978; Сухачев Н. Л. Что изучает структурная диалектология? / В кн.: Ареальные исследования в языкознании и этнографии (язык и этнос). Л., 1983 ва бошқалар.

2. Turkiy tillarning dialektologik xaritalari yaratilgan. Bunga Н. Б. Бурганова, Л. Т. Махмутова, F. S. Bayazitova, D. B. Ramazanova, Z. R. Sadikov, Т. X. Xayrutdinovlarning 2 jildlik “Атлас татарских народных говоров Среднего Поволжья и Приуралья” (Казань. – 1989– 240 с.); “Комментарии к Атласу татарских народных говоров Среднего Поволжья и Приуралья. – (Казань: Татпрокаттехприбор, 1989. – 300 с.) asarlari misol bo‘la oladi. Ularda tatar tilining g‘arbiy (michar), o‘rta (Qozon) va sharqiy (G‘arbiy Sibir) dialektlari farqlangan.

N.X. Ishbulatovning “Башкирский язык и эго диалекты” (Уфа: Китап, 2000. — 212 с.); ва “Северо-западный диалект башкирского языка (Уфа, 1991) “Диалектологический атлас башкирского языка” (Уфа: Гилем, 2005. 234 с.) kabi asarlari kiradi. Ularda boshqird tilidagi dialektlarni hududiy jihatdan o‘rganish bilan birga dialektologik atlaslar yaratishda ham muayyan tajribalar bayon etilgan. Jumladan, oxirgi manbaga 169ta karta kiritilgan.

Chuvash tilining dialektologik atlasini yaratishda L.P.Sergeevning xizmatlari katta. U tomonidan quyidagi ishlar e’lon qilingan: “Диалектная система чувашского языка” (Чебоксары: Чуваш. гос. пед. ун-т, 2007. – 428); Чувашский язык: диалектологический аспект: избранные статьи: в 2-х т. Т. 1. – (Чебоксары: Чуваш. гос. пед. ун-т, 2008. – 322 с.). U tomonidan chuvash tilining dialektologik xaritasi ishlab chiqilgan.

¹³ Гаджиева Н.З. “Проблемы тюркской ареальной лингвистики” (Среднеазиатский ареал). – М.: Наука, 1975. – 304 с.

¹⁴ Гаджиева Н.З. Тюркоязычные ареалы Кавказа – М.: Наука, 1979. – 262 с.

¹⁵ Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом отношении – М.: Наука, 1982. – 304 с.

Shuningdek, N.X. Olmesova, N.E. Gadjiaxmedova, M. Xangishiyeva, R.G. Shaxmanovalar tomonidan qo‘miq tili areali bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

N. S. Sharafutdinovning “Лингвистическая типология и языковые ареалы (Ульяновск, 2009); N.X. Olmesovning “Сравнительноисторическое исследование диалектной системы кумыкского языка. Фонетика. Морфология” (Махачкала, 1997) kabi taqiqotlari e‘tirofga loyiq.

Qozoq tilida J.K. Tuymebayev, N.I. Yegorov, A.A. Chechenovlar Turon “til ittifoqi”, Markaziy Osiyodagi tillarning tarixi, bir-biriga ta’siri va kelajagi to‘g‘risida “Актуальные проблемы исследования языков Центральной Азии. Туранский языковой союз” (Изд.: КГУ, Кокшетау, 2009. – 108 s). asarini yaratishgan.

O‘zbek tilshunosi N.Murodovning “Turkiy areal lingvistikasining ba’zi metodologik masalalari//Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy, 2023. – 7-11 betlar maqolasi turkiy tillarni areal o‘rganishga bag‘ishlangan.

Umuman olganda, turkiy tillarda areal lingvistikaning rivojlanishi hozirga yangi bosqichga kirdi.

O‘zbek tilida areal lingvistika birdaniga shakllanmadi. Uning paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun uzoq vaqt kerak bo‘ldi. Bu borada V. A. Bogoroditskiy, Y. D. Polivanov, V. V. Reshetov, K. K. Yudaxin, A. K. Borovkov, N.Z.Gadjieva, G.F.Blagova singari rus va G‘ozi Olim, Sh. Shoabdurahmonov, A. G‘ulomov, S. Ibrohimov, R. Abdullaev, M. Mirzaev, A. Aliev, A. Shermatov, X. Doniyorov, N. Rajabov kabi milliy kadrlarning xizmatlari katta bo‘ldi¹⁶.

O‘tgan asrning 20-30 yillaridan boshlangan o‘zbek xalq shevalarini dialektologik maqsadlarda o‘rganish ishlari pirovard natijada ularni areal o‘rganishga olib keldi.

O‘zbek tilshunosligiga areal va areal tilshunoslik tushunchalarining kirib kelishini shartli ravishda uch davrga bo‘lish mumkin:

1. Areal va areal tilshunoslik tushunchalarining shakllanish davri. Bu davr o‘tgan asrning 70-yillaridan Mustaqillik yillariga bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda V.V.Reshetovning Toshkent, F.A.Abdullayevning Xorazm, M.Mirzayevning Buxoro, A.Aliyevning

Namangan, A.Shermatovning Qashqadaryo dialektal zonalari bo‘yicha dialektologik kartalarini yaratish yo‘lidagi sa’y-harakatlarini e‘tirof etish lozim. Bajarilgan ishlar ichida A.Shermatovning “Из опыта картографирования узбекских говоров Низовья Кашкадары” (ВИИ региональная конференция по диалектологии языков. – Алма-Ата, 1973. – С. 489); Y. Aliyev va K. Nazarovlarning “ O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo‘yicha material to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma” (Toshkent: 1976); A.Shermatov va Sh. Shoabdurahmanovlarning “Атлас узбекских народных говоров” (Тюркское языкознание: материалы III Всесоюзной конференции. – Tashkent, 1985. – S. 498) kabi tadqiqotlarini alohida eslab o‘tish joiz.

80-yillarga kelib o‘zbek tilshunosligida lingvistik geografiya va areal tilshunoslik bo‘yicha dastlabki ilmiy ishlar yuzaga kela boshladi. O‘zbek tilshunosligida lingvistik geografiya haqida ilk bor fikr bildirgan olimlardan biri professor A.Shermatov “Lingvistik geografiya nima?” nomli risolasida: “*Lingvistik geografiya (lotincha lingua – til va geographie – yozaman so‘zlaridan olingan) tilshunoslik fanining har bir alohida til hodisasi tarqalish chegarasini aniqlaydigan sohasi bo‘lib, uning ham asosiy tekshirish obyekti dialektologiya singari dialekt hisoblanadi, chunki dialekt tarixan tarkib topgan territorial birlikdir*”, – deb yozgan edi¹⁷.

A.Shermatov lingvistik geografiyaning o‘rganish ob’yektlari sifatida lingvistik atlaslar, mos hodisalar, areallar, izoglossalar, til landshafti, aralash zonalar, innovatsiya markazi, irradiatsiya, lingvogeografik kartalar, kartalashtirish kabi tushuncha va terminlarga izoh bergan edi.

Areal lingvistika tushunchasi Q.Muhammadjonovning doktorlik dissertatsiyasida yanada rivojlantirildi. Olim qadimdan o‘zbeklar istiqomat qilib kelgan Turkiston, Chimkent, Iqon, Sayram

¹⁶ Qarang: Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 148 b.

¹⁷ Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981. – 56 бет.

va boshqa shevalar areali bo‘yicha doktorlik ishini bajardi. Uning “Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана” (Автореф.дис...д-ра филол.наук. – Т., 1988. – 44 с.) va “Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari” (Toshkent: Fan, 1981. –178 b.) deb nomlangan tadqiqotlari o‘zbek areal lingvistikasi sohasidagi ishlarining oldinga siljishiga sababchi bo‘ldi.

2. Areal tilshunoslik bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining yo‘lga qo‘yilishi. (1991-2016 yillar)

Mustaqillik o‘zbek tilshunosligi uchun keng istiqbolli yo‘llarni ochib berdi. Pragmalingvistika, sotsiolingvistika, matematik lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, kompyuter lingvistikasi, ekolingvistika kabi zamonaviy yo‘nalishlar shakllandi va taraqqiy topdi. Ular qatorida areal lingvistika ham rivojlandi. O‘zbek areal lingvistikasining fan sifatida yangi sifat bosqichiga o‘tishida prof. A.Jo‘rayevning 1991-yili yoqlagan doktorlik dissertatsiyasi va monografiyasi alohida o‘rin tutadi. A.Jo‘rayev o‘z tadqiqotlarida turkiy tillar bo‘yicha sobiq ittifoqda bajarilgan ishlarga tavsif bergan holda, o‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib dialektal zona, fokus nuqta, innovatsion markaz, azonal hudud kabi tushunchalarga ilmiy izoh berdi. O‘zbek tilidagi dialektal zonalarni 11 ta, azonal hududlarni 7ta turga ajratib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, tarqalish hududlari, bir-biriga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslashga urindi. Uning ushbu tadqiqotlari keyingi ishlar uchun turtki vazifasini bajardi.

Y.M. Ibrohimovning “Janubiy Orolbo‘yi o‘zbek shevalari tadqiqi” (Filol. fan. dokt. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2000. – 56 b.); N. Murodovaning “O‘zbek tilli Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini”(Filol. fanlari d-ri... diss. – T., 2006. – 309 b.; “O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini. – Toshkent: Fan. 2006. – 220 bet) kabi tadqiqotlari negizida fanda o‘zbek areal lingvistikasi qaror topdi.

3. Areal lingvistikaning alohida fan sifatida shakllanishi (2016-yildan keyingi davr).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yilning 13-may kungi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF 4797-, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5850, “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6084-sonli Farmonlari dialektologik, shu jumladan, areal lingvistika sohasidagi tadqiqotlarni jonlantirish va yo‘lga qo‘yishda metodologik asos vazifasini bajardi.

Yuqorida tilga olingan universitetda “O‘zbek shevashunosligi markazi”ning tashkil etilishi areal tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, soha rivoji uchun yosh, iqtidorli tadqiqotchilarni jalb etish ishlarining jonlanishiga sababchi bo‘ldi. Bugun prof. S.Ashirboyevning sa’y-harakatlari bilan o‘zbek tilshunosligida haqiqiy ma’nodagi “Areal lingvistika” fani yuzaga keldi. Uning o‘zi “Arayel lingvistika” (Toshkent: Bookmany print, 2023. – 148 b.) nomli birinchi darsligini yaratdi.

N.Murodova va N. Rahmonovlarning “O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini (fonetik va morfologik materiallari asosida)” (Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017); I. Darvishovning “Janubiyg‘arbiy Namangan shevalari fonetik-fonologik xususiyatlarining areal tadqiqi” (filol.fanlari fals.d-ri (PhD) ...diss.avtoref. – 2018. – 21 b.; “Areal lingvistika: Janubiy-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari” (Toshkent: Navro‘z, 1919); N. Rahmonovning “O‘zbek tili Navoiy viloyati o‘zbek shevalari morfologik xususiyatlarining lingvoareal tadqiqi” (Filol. fan. fals. d-ri (PhD) ...diss. – Samarqand, 2019. – 139 b.); kabi tadqiqotlarni Mustaqillik yillarining mevasi sifatida baholash mumkin.

O‘zbek areal lingvistikasi hozirda mustaqil fan sifatida shakllanib bo‘ldi va jadal rivojlanayotgan istiqbolli yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом отношении – М.: Наука, 1982. – 304 с.

2. Гаджиева Н.З. “Проблемы тюркской ареальной лингвистики” (Среднеазиатский ареал). – М.: Наука, 1975. – 304 с.; Гаджиева Н.З. Тюркоязычные ареалы Кавказа – М.: Наука, 1979. – 262 с.

3. В.А. Богородицкий и современная лингвистика: труды и материалы Международной научной конференции “ (Казань, 18–20 ноября 2024 г.). – Казань: Издательство Казанского университета, 2024. – Т. 1. – 200 с.
4. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 175-, 178-179, 72-373 бетлар.
5. Слюсарева Н.А. Сосюр и сосюриантво//Философские основы зарубежных направлений в языкознании. – М.: Наука, 1977. – С. 85.
6. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981. – 56 бет.
7. <https://www.google.com/search>.

О‘ZBEK TILIDA AKSIOLINGVISTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQ YO‘NALISHLARI

**Boymatova Dilnoza Baxtiyorovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
f.f.d.(PhD)**

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan aksiolingvistikaning nazariy asoslari, tadqiq obyektlari va asosiy tushunchalari tahlil qilinadi. Til va qadriyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, aksiologik birliklarning lisoniy ifodasi hamda ularning semantik va pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek tilida aksiologik birliklarning namoyon bo‘lishi, milliy madaniyat va mentalitet bilan bog‘liqligi misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Maqolada aksiolingvistik yondashuvning lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika va pragmalolingvistika bilan o‘zaro aloqasi ham ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: aksiolingvistika, qadriyat, baho, aksiologik birlik, lingvokulturologiya, semantika, pragmatika, o‘zbek tili.

Zamonaviy tilshunoslikda tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va qadriyatlarini aks ettiruvchi tizim sifatida o‘rganish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Shu jihatdan aksiolingvistika alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, til va qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi.

Aksiolingvistika til tizimida qadriyatlarning qanday ifodalanishini, baholash kategoriyalarining lisoniy vositalar orqali qanday namoyon bo‘lishini tadqiq etadi. Bu yo‘nalishda til “aksiologik axborot manbai” sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, mazkur tilshunoslik sohasida qadriyatlar asosiy mezon vazifasini bajaradi. Reinhard Pauls fikriga ko‘ra, “qadriyatlar inson xatti-harakatlarini tushuntirishga hissa qo‘shishi mumkin, ya’ni, baholash standartlari sifatida ular inson harakatlarining sabablari yoki motivlarini taqdim etadi, shuning uchun ular individual va ijtimoiy xulq-atvorning tushuntiruvchi o‘zgaruvchilari sifatida qaraladi”¹⁸.

Aksiolingvistika – aksiologiya (qadriyatlar haqidagi fan) va lingvistika tutashgan nuqtada shakllangan ilmiy yo‘nalishdir. Uning asosiy obyekti – qadriyat va baho kategoriyalarining tildagi ifodasidir. Til insonning borliqni idrok etish usulini aks ettiradi. Har bir til o‘ziga xos “dunyo manzarasi”ni yaratadi va bu manzarada qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Shu sababli aksiolingvistika til orqali qadriyatlar tizimini o‘rganadi.

Tilshunoslikning bu yo‘nalishi zamonaviylik “bo‘yog‘iga” ega bo‘lsa ham, lekin u bilan bog‘liq qarashlar va tadqiqotlar Yevropa olimlari tomonidan XVII-XVIII asrlarda yuzaga kela boshladi. Xususan, bu yo‘nalishning shakllanishida bir qator olimlarning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi:

Vilgelm fon Gumboldt – tilning milliy tafakkur va madaniyat bilan bog‘liqligini asoslab berdi¹⁹.

Edward Sapir va Benjamin Lee Whorf – tilning dunyoqarashni shakllantirishdagi rolini ko‘rsatdi²⁰.

¹⁸ Minniqulov I. Aksiolingvistikaning o‘rganish obyekti va predmeti // Ilm sarchashmalari, 2022, № 2.- B.69. (69-72)

¹⁹ Humboldt, W. von. (1988). On Language: The Diversity of Human Language-Structure and Its Influence on the Mental Development of Mankind. Cambridge University Press.

²⁰ Sapir, E. (1921). Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt, Brace & Company

Anna Vejbitskaya (Anna Wierzbicka) – semantik primitivlar va madaniy qadriyatlarning til orqali ifodalanishini tadqiq etdi²¹.

Yuriy Stepanov – madaniy konseptlar nazariyasini rivojlantirdi²².

Viktor Karasik – lingvokulturologik va aksiologik yondashuvlarni tizimlashtirdi²³.

O‘zbek tilshunosligida ham bu yo‘nalish so‘nggi yillarda faol rivojlanib, til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Til nafaqat kommunikativ vosita, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy mezonlarini aks ettiruvchi muhim madaniy fenomen hisoblanadi. Mazkur jarayonda aksiolingvistika o‘ziga xos tadqiq obyekti va asosiy tushunchalarga ehtiyoj sezadi.

Ilmiy manbalarda aksiolingvistikaning asosiy tushunchalari quyidagilar deb ko‘rsatiladi:

1. Aksiologik baho;
2. Lisoniy qadriyatlar;
3. Qadriyatlar orientatsiyasi;
4. Aksiologik birliklar.

Aksiologik baho — bu til birliklari orqali voqelik, shaxs, hodisa yoki predmetga nisbatan ijobiy yoki salbiy qadriy munosabatni ifodalovchi baholashdir. Ushbu tushuncha aksiolingvistika va aksiologiya fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan bo‘lib, jamiyatning madaniy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarini til orqali aks ettiradi. Tadqiqotchilar fikricha, aksiologik baholash narsa, hodisa yoki jarayonning iqtisodiy qiymatini, foydaliligini belgilash orqali emas, balki uning subyekt ma’naviy olami uchun qanday ahamiyat kasb etishini aniqlash orqali amalga oshadi²⁴. Demak, aksiologik baho jamiyatda qabul qilingan axloqiy va madaniy qadriyatlarga tayanadi. Masalan, o‘zbek jamiyatida *hurmat*, *halollik*, *mehmondo‘stlik* kabi tushunchalar ijobiy baholanadi.

Lisoniy qadriyatlar — bu muayyan xalq yoki jamiyat uchun ahamiyatli bo‘lgan ijtimoiy, madaniy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarning til birliklari orqali ifodalanishidir. Ular tilning leksik, frazeologik, paremiologik va matn darajalarida namoyon bo‘ladi. Shunga binoan har bir xalqning mentaliteti, urf-odatlar va tarixiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, o‘zbek tilida mehmondo‘stlik, kattaga hurmat, oila muqaddasligi kabi qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Ular tilning turli sathlarida namoyon bo‘ladi:

1. Leksik sath: halol, mehribon, sadoqat, vatanparvar.
2. Frazologik sath: “oq ko‘ngil”, “yuragi keng”.
3. Paremiologik sath: “Kattaga hurmat, kichikka izzat”.
4. Matniy sath: badiiy asarlar, nutqlar va publitsistik matnlar

Qadriyatlar orientatsiyasi — bu shaxs yoki jamiyatning muayyan qadriyatlarga nisbatan barqaror yo‘nalganligi, ya’ni ularning hayotiy maqsadlari, qarorlari va xulq-atvorini belgilovchi qadriyatlar tizimidir. Boshqacha aytganda, qadriyatlar orientatsiyasi insonning: nimani muhim deb bilishi, qanday axloqiy mezonlarga amal qilishi, hayotda qaysi maqsadlarni ustuvor deb hisoblashini ifodalaydi. Barqarorlik, ierarxik tuzilish, motivatsion xarakter, madaniy shartlanganlik, ijtimoiylashuv natijasi- qadriyatlar orientatsiyasining asosiy xususiyatlari sifatida talqin etiladi.

Aksiologik birliklar aksiologiya (qadriyatlar falsafasi) va lingvistika kesishgan nuqtada o‘rganiladi. Bu birliklar tilning semantik va pragmatik qatlamlarida namoyon bo‘lib, baholash (evaluativlik) kategoriyasi bilan chambarchas bog‘liq. Aksiologik birliklarning asosiy xususiyatlari:

1. Baholovchilik (evaluativlik):

Aksiologik birliklar voqelikni ijobiy yoki salbiy jihatdan baholaydi.

Ijobiy: halol, mehribon, vatanparvar;

²¹ Wierzbicka, A. (1992). *Semantics, Culture and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations*. Oxford University Press.

²² Степанов, Ю. С. (2004). *Константы: Словарь русской культуры*. Москва: Академический Проект.

²³ Карасик, В. И. (2002). *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. Волгоград: Перемена.

²⁴ Mardonov Sh., Xodjayev B., Taylanova Sh., Xojimuxamedova D. *Pedagogik aksiologiya.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.- B.16. (185)*

Salbiy: xiyonatkor, baxil, yolg‘onchi.

2. Milliy-madaniy xususiyat: Ular muayyan xalqning mentaliteti, urf-odatları va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Masalan, o‘zbek tilida mehmondo‘stlik va kattalarga hurmat alohida qadriyat sifatida ifodalanadi.

3. Ekspressivlik: Aksiologik birliklar nutqqa hissiy va ta’sirchan ohang bag‘ishlaydi. Masalan: “oq ko‘ngil”, “yuragi toza”.

4. Barqarorlik: Ko‘plab aksiologik birliklar maqol, matal va frazeologizmlar tarkibida avloddan-avlodga o‘tib keladi.

5. Kontekstga bog‘liqlik: Ba’zi birliklarning baholovchi ma’nosi nutqiy vaziyatga qarab o‘zgarishi mumkin. Masalan, “oddiy” so‘zi ba’zan ijobiy (kamtarin), ba’zan salbiy (e’tiborsiz) ma’noda qo‘llanadi.

Har bir soha ma’lum tadqiqot yo‘nalishi va metodologik yo‘nalishlarga tayanadi. Aksiologivistik tadqiqotlar ham quyidagi turli metodologik yondashuvlarga asoslangan holda ish olib boradi:

1. Semantik tahlil – so‘z va iboralarning baholash ma’nolarini aniqlash.
2. Konseptual tahlil – madaniy konseptlarning tuzilishini o‘rganish.
3. Diskursiv tahlil – qadriyatlarning nutq jarayonidagi ifodasini tadqiq etish.
4. Qiyosiy tahlil – turli tillardagi qadriyatlarni solishtirish.
5. So‘rovnoma va assotsiativ tajribalar – qadriyatlarning psixolingvistik jihatlarini aniqlash.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, aksiologivistika tilshunoslikning zamonaviy va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, til orqali jamiyatning qadriyatlar tizimini o‘rganishga xizmat qiladi. O‘zbek tilidagi aksiologik birliklar xalqning milliy mentaliteti, madaniyati va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida aksiologivistik izlanishlarni korpus lingvistikasi va raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish ushbu sohaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Humboldt, W. von. (1988). On Language: The Diversity of Human Language-Structure and Its Influence on the Mental Development of Mankind. Cambridge University Press.
2. Sapir, E. (1921). Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt, Brace & Company.
3. Wierzbicka, A. (1992). Semantics, Culture and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. Oxford University Press.
4. Степанов, Ю. С. (2004). Константы: Словарь русской культуры. Москва: Академический Проект.
5. Карасик, В. И. (2002). Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена.
6. Mardonov Sh., Xodjayev B., Taylanova Sh., Xojimuxamedova D. Pedagogik aksiologiya.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.- 185 b.
7. Minniqulov I. Aksiologivistikaning o‘rganish obyekti va predmeti // Ilm sarchashmalari, 2022, № 2.- B. 69-72.

O‘ZBEKISTON KO‘P MILLATLI JAMIYATIDA TIL SIYOSATI VA MADANIYATLARARO INTEGRATSIYA: INKLYUZIV MODELNING NAZARIY HAMDA AMALIY ASOSLARI

Zokirov Muxtorali Turdaliyevich
Farg‘ona davlat universiteti professori, f.f.n.
Farg‘ona, O‘zbekiston
mukhtar63@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tezis O‘zbekistonning ko‘p millatli jamiyatidagi til siyosati, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy integratsiya masalalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda mamlakatdagi ko‘p tillilik muhiti, davlat tilining birlashtiruvchi roli, etnik tillarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ta‘lim, ommaviy axborot vositalari va milliy madaniy markazlar faoliyati misolida inklyuziv til siyosatining amaliy natijalari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat tilining maqomini mustahkamlash bilan birga, boshqa millatlar tillariga hurmat va sharoit yaratish jamiyatda barqarorlik, fuqarolik birdamligi va madaniyatlararo totuvlikni ta‘minlaydi. O‘zbekistonning til siyosati davlat tilining nufuzini oshirish, etnik tillarning saqlanishini ta‘minlash va ko‘p millatli jamiyatni “yagona fuqarolik makoni”ga birlashtirish o‘rtasidagi muvozanatli model sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kalit so‘zlar: til siyosati, ko‘p millatlilik, ko‘p tillilik, O‘zbekiston, davlat tili, madaniyatlararo integratsiya, milliy madaniy markazlar, ta‘lim, OAV

Bugungi globallashuv sharoitida ko‘p millatli jamiyatlarda til siyosati masalasi faqat lingvistik emas, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorlik bilan uzviy bog‘liq murakkab strategik yo‘nalishga aylangan. O‘zbekiston ana shunday ko‘p millatli davlatlardan biri bo‘lib, unda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Bunday murakkab etnomadaniy tarkib sharoitida davlat oldida ikki asosiy vazifa turadi: birinchisi, davlat tilining jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatidagi mavqeini mustahkamlash; ikkinchisi esa mamlakat hududida yashovchi boshqa millat vakillarining tillari, urf-odatlar va madaniyatlarini qo‘llab-quvvatlash. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu ikki yo‘nalish raqobatdosh emas, aksincha, bir-birini to‘ldiruvchi strategiyalar sifatida amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mamlakat hududida yashovchi barcha millat vakillarining tillari, urf-odatlar va an‘analariga hurmat ko‘rsatish, ularni rivojlantirish uchun sharoit yaratish kafolatlangan. Shu bilan birga, o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘lib, u fuqarolik integratsiyasi va ijtimoiy birlikning markaziy vositasi sifatida maydonga chiqadi. Bu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, davlat tili jamiyatni umumfuqarolik makonida birlashtiradi, etnik tillar esa madaniy xilma-xillik va tarixiy xotirani saqlashga xizmat qiladi. Demak, O‘zbekistondagi til siyosati assimilyatsion emas, inklyuziv modelga asoslanadi.

Ko‘p millatli jamiyatlarda til siyosatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ta‘lim tizimiga bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekistonda umumta‘lim tizimi 7 tilda faoliyat yuritishi ushbu siyosatning eng muhim amaliy ko‘rsatkichlaridan biridir. O‘zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman tillarida ta‘lim olib boriladigan maktablarning mavjudligi har bir yirik etnik guruh vakillariga o‘z ona tilida ta‘lim olish imkonini beradi. Shu bilan birga, barcha milliy maktablarda o‘zbek tili majburiy fan sifatida o‘qitilishi davlat tilining integrativ funksiyasini ta‘minlaydi. Bu model bir tomondan etnik o‘ziga xoslikni mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa umumdavlat kommunikativ maydoniga kirish uchun zarur bo‘lgan til kompetensiyasini shakllantiradi. Oliy ta‘lim muassasalarida ham turli tilli guruhlarining mavjudligi ushbu siyosatning davomiyligini ko‘rsatadi.

Ta‘lim sohasidagi bunday yondashuv Fishman ilgari surgan funksional domenlar nazariyasi bilan hamohangdir²⁵. Unga ko‘ra, ko‘p tilli jamiyatlarda turli tillar turli ijtimoiy vazifalarni bajaradi va ularning sohalari bo‘yicha oqilona taqsimlanishi barqaror bilinguallikni ta‘minlaydi. O‘zbekiston sharoitida o‘zbek tili davlat, huquq, ijtimoiy integratsiya va umumfuqarolik muloqotining markaziy vositasi bo‘lsa, rus tili xalqaro aloqa, fan va ayrim professional sohalarda qo‘shimcha ko‘prik vazifasini saqlab qolmoqda. Qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman va boshqa tillar esa etnik o‘ziga xoslik, oilaviy va mintaqaviy muloqot, madaniy merosning davomiyligini ta‘minlaydi. Demak, mamlakatdagi ko‘p tillilik tasodifiy aralashuv emas, balki muayyan ijtimoiy zarurat bilan bog‘liq funksional tizimdir.

Ommaviy axborot vositalari ko‘pmadaniyatli jamiyatda til siyosatining amaliy namoyon bo‘lishidagi eng muhim maydonlardan biridir. O‘zbekistonda 10 dan ortiq tilda gazeta-jurnallar nashr etilishi, tele va radio dasturlarning bir necha tillarda efirga uzatilishi axborot makonining

²⁵ Fishman J.A. **Reversing Language Shift: Theory and Practice of Assistance to Threatened Languages.** – Clevedon: Multilingual Matters, 1991. – P.177-180.

ko‘p tillilik tamoyiliga asoslanganidan dalolat beradi. Bu jarayon, bir tomondan, turli etnik jamoalarning axborot ehtiyojlarini qondiradi, ikkinchi tomondan esa ularni umumiy ijtimoiy-siyosiy maydondan uzib qo‘ymaydi. Masalan, biror etnik guruhga mo‘ljallangan nashr yoki ko‘rsatuv o‘z tilida axborot yetkazgan holda, mamlakatdagi umumiy siyosiy, ma’naviy va madaniy kun tartibini ham targ‘ib etadi. Natijada OAV til siyosatining birlashtiruvchi instrumentiga aylanadi.

Milliy madaniy markazlar faoliyati O‘zbekistonning inklyuziv modelini amaliyotda ko‘rsatuvchi yana bir muhim sohadir. Respublikada 150 ga yaqin milliy madaniy markaz faoliyat yuritadi. Ular o‘z xalqining tili, adabiyoti, san’ati, urf-odati va madaniy an’analarini saqlash bilan birga, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bunday markazlar ikki yo‘nalishda ishlaydi: ichki yo‘nalishda etnik guruhning o‘zligini mustahkamlaydi, tashqi yo‘nalishda esa o‘sha guruhni boshqa jamoalar bilan muloqotga olib chiqadi. Shu ma’noda ular madaniyatlararo ko‘prik vazifasini bajaradi. “Do‘stlik uylari”, festival va milliy tadbirlar, til kurslari va madaniy uchrashuvlar ham ana shu vazifani bajaruvchi amaliy platformalardir.

E. Hall nazariyasiga ko‘ra, turli madaniyatlar o‘zaro muloqotda yuqori va past kontekstli kommunikativ uslublarga tayangan holda harakat qiladi²⁶. O‘zbekistonning ko‘p millatli muhitida aynan mana shu tafovutlarni hisobga olish ijtimoiy uyg‘unlikning muhim sharti hisoblanadi. Mamlakatdagi til siyosati faqat huquqiy-me‘yoriy mexanizmlar orqali emas, balki bag‘rikenglik, hurmat, murosa va o‘zaro tushunishga asoslangan muloqot madaniyati orqali ham amalga oshiriladi. Shu bois bu yerda madaniyatlararo treninglar, ta’lim dasturlari, millatlararo totuvlikka bag‘ishlangan tadbirlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ko‘p tillilikni saqlab turishning o‘zi yetarli emas; u bilan bir qatorda o‘sha tillar ortidagi kommunikativ qadriyatlarni ham anglash talab etiladi.

G. Hofstede ilgari surgan jamoaviylik va individualizm, qudrat masofasi kabi mezonlar O‘zbekiston jamiyatini izohlashda ham muhimdir²⁷. O‘zbekistonda tarixiy-an’anaviy ravishda jamoaviylik, kattalarga hurmat, bag‘rikenglik va qo‘shnichilik qadriyatlari kuchli. Bu qadriyatlar til siyosatida ham o‘z ifodasini topadi. Davlatning ko‘p millatli jamiyatni “yagona oila” sifatida talqin qilishi ana shu jamoaviylik modelining siyosiy-diskursiv shaklidir. Shu bilan birga, zamonaviy demokratik islohotlar individual huquqlar, shu jumladan til huquqlarining kafolatlanishini ta’minlashga qaratilgan. Natijada an’anaviy jamoaviy qadriyatlar va zamonaviy huquqiy prinsiplar o‘rtasida muvozanat yaratishga intilish kuzatiladi. Bu holat O‘zbekiston tajribasini alohida tadqiqot obyekti sifatida qiziqarli qiladi.

Til siyosatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan davlat tilining kuchayishi boshqa tillarning cheklanishi hisobiga emas, balki o‘zaro uyg‘unlik asosida amalga oshirilishiga bog‘liq. O‘zbekistonda aynan shu prinsip kuzatiladi. Davlat tili maqomini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va ma’naviy chora-tadbirlar bilan bir qatorda, rus tilining ilmiy integratsiyadagi roli, ingliz tilining xalqaro kommunikatsiyadagi ahamiyati va etnik tillarning madaniy-hududiy funksiyalari ham inkor etilmaydi. Bunday yondashuv bir nechta kommunikativ ehtiyojni bir vaqtning o‘zida qondiradi: milliy birlikni mustahkamlaydi, xalqaro ochiqlikni ta’minlaydi va etnik xilma-xillikni saqlaydi.

Ko‘p tillilik sharoitida kod-almashtirish, aralash nutq va funksional bilingvizm hodisalari tabiiy ravishda yuzaga keladi. O‘zbekiston sharoitida bu ayniqsa shaharlarda yaqqol ko‘rinadi. Biroq bu holatni faqat “me’yordan chekinish” sifatida emas, balki kommunikativ moslashuv shakli sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Chunki turli tillardan mos vaziyatda foydalanish muloqot samaradorligini oshiradi, ijtimoiy ko‘priklar yaratadi va madaniyatlararo aloqani kuchaytiradi. Albatta, davlat tilining rivoji nuqtayi nazaridan muvozanat va me’yor masalasi dolzarb bo‘lib qoladi. Shu sababli O‘zbekiston til siyosati bir tomondan davlat tilining nufuzini oshirishga, ikkinchi tomondan ko‘p tilli muhitni konflikt emas, resurs sifatida boshqarishga intiladi.

Xalqaro maydonda ham O‘zbekistonning til va madaniyatlararo siyosati ijobiy baholanmoqda. UNESCO tamoyillariga qo‘shilish, madaniy va diniy muloqotni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar, BMT minbarida ilgari surilgan rezolyutsiyalar mamlakatning ushbu

²⁶ [Edward T. Hall](#) *The Silent Language*. – New York: Knopf Doubleday Publishing Group, 1990.

²⁷ Hofstede G. *Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations*. – 2nd ed. – California:Thousand Oaks: Sage Publications, 2001. – P.33-38.

masalaga strategik qarashini ko‘rsatadi²⁸. Bu tashabbuslar O‘zbekistonni nafaqat ichki etnomadaniy uyg‘unlik namunasi, balki mintaqaviy hamkorlik va madaniyatlararo dialog markazlaridan biri sifatida ko‘rsatmoqda. Demak, mamlakat tajribasi nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga munosib model bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning til siyosati ko‘p millatli jamiyatda barqarorlik, integratsiya va madaniyatlararo totuvlikni ta’minlashga qaratilgan muvozanatli inklyuziv model sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu modelning asosiy ustunlari quyidagilardan iborat: davlat tilining birlashtiruvchi roli; etnik tillarning huquqiy va madaniy himoyasi; ko‘p tilli ta’lim tizimi; turli tillardagi OAV faoliyati; milliy madaniy markazlar tarmog‘i; bag‘rikenglik va muloqotga asoslangan siyosiy-ijtimoiy muhit. Bunday yondashuv natijasida turli millat vakillari o‘z tillari va madaniyatlarini saqlagan holda yagona O‘zbekiston fuqarolik makonida yashash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shu ma’noda O‘zbekiston tajribasi zamonaviy ko‘p millatli jamiyatlar uchun foydali ilmiy-amaliy model bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Fishman J. *Language and Ethnicity in Minority Sociolinguistic Perspective*.
3. Edward T. Hall **The Silent Language**. – New York: Knopf Doubleday Publishing Group, 1990.
4. Hofstede G. **Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations**. – 2nd ed. – California:Thousand Oaks: Sage Publications, 2001.
5. UNESCO. *World Atlas of Languages*. <https://www.unesco.org>

ZAMONAVIY DIZAYNDA KOSTYUMNI BADIY LOYIHALASHNING YANGI USULLARINI ISHLAB CHIQISH

Mamatqulova Saida Raxmatovna

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
Yengil sanoat muhandisligi kafedrasini,
katta o‘qituvchi (PhD),

E-mail: sm.mamatqulova@ferpi.uz

Abdumitalova Muqaddas Ro‘zimatjon qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti
1-bosqich 43-25 TBTNA magistratura talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada kostyumni badiiy loyihalashning zamonaviy usullari tahlil qilinib, kostyumni badiiy loyihalashda zamonaviy texnologiyalar, kompyuter grafikasi hamda yangi materiallardan foydalanish dizayn sifatini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion dizayn yondashuvlari asosida yangi loyihalash usullarini ishlab chiqish masalalari ko‘rib chiqiladi va ko‘rsatilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: yengil sanoat, energiya tejash, ekologik toza ishlab chiqarish, sanoat texnologiyalari, ekologik xavfsiz materiallar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, kimyoviy moddalar minimallashtirish.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar sanoat, san‘at, ta’lim va ko‘plab boshqa sohalarda yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Shu bilan birga, kiyim-kechak va moda sanoatida ham zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. An’anaviy qo‘l mehnatiga asoslangan kostyum yaratish jarayoni, endilikda virtual muhitda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan murakkab, ammo samarali texnologiyalar yordamida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Shu sababli, kostyumni virtual badiiy loyihalash sohasidagi yangi yondashuvlar va

²⁸ UNESCO. *World Atlas of Languages*. <https://www.unesco.org>

usullarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biriga aylangan.

Kostyum dizayni o‘z ichiga nafaqat kiyimni yaratish, balki uning estetik qiyofasi, funktsional imkoniyatlari va foydalanuvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda loyihalashni oladi. An’anaviy tarzda, badiiy loyihalash jarayoni qo‘l san’ati, eskiz chizish, mato va materiallarni tanlash hamda kiyim namunalarini tayyorlashni o‘z ichiga olgan ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, bu jarayon ko‘pincha vaqt va resurs talab qiluvchi hamda inson omiliga bog‘liq bo‘ladi. Biroq, raqamli texnologiyalar va virtual reallik vositalarining rivojlanishi tufayli ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish, tezlashtirish va yanada samarali qilish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Virtual badiiy loyihalash usullari nafaqat dizaynerlarga o‘z g‘oyalarini aniqroq ifodalashga yordam beradi, balki mijozlar bilan interaktiv aloqani osonlashtiradi, narx va vaqt xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, bugungi kunda sanoat va ilm-fan sohasida yangi texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt, 3D modellashtirish, simulyatsiya, virtual va kengaytirilgan reallik kabi innovatsiyalar keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat mahsulot sifatini yaxshilash, balki dizayn jarayonini tubdan qayta ko‘rib chiqishga yordam bermoqda. Aynan shu nuqtada kostyumni virtual badiiy loyihalashning yangi usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurati tug‘iladi.

Zamonaviy dasturiy ta’minot vositalari va algoritmlar yordamida, kostyum dizayni ko‘proq ijodiy va eksperiment qilish uchun qulay maydonga aylanadi. Shu sababli, ushbu ilmiy ishning asosiy vazifasi — kostyumni virtual badiiy loyihalashning yangi usullarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish yo‘llarini o‘rganishdan iborat. Bu borada mavjud usullar va texnologiyalar tahlil qilinib, ularning afzalliklari hamda kamchiliklari aniqlanadi. Shuningdek, yangi yondashuvlar yordamida dizayn jarayonini optimallashtirish va virtual muhitda badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirish masalalari o‘rganiladi. Ilmiy ishning dolzarbligi nafaqat zamonaviy moda sanoatining raqamli transformatsiyasi bilan bog‘liq, balki iqtisodiy samaradorlik, ekologik tozalikka oid masalalar va mijozlarning shaxsiylashtirilgan ehtiyojlariga javob berish talablaridan ham kelib chiqadi. Virtual loyihalash texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarida qoldiq materiallar kamayadi, qayta ishlash imkoniyatlari oshadi va natijada ishlab chiqarish samaradorligi ortadi. Bu esa atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirlarni kamaytirish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda moda sanoati raqamli texnologiyalarni faol joriy qilmoqda, ammo kostyumni aynan badiiy jihatdan virtual muhitda loyihalash bo‘yicha yangi usullar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois, ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borish, yangi texnologiyalarni sinab ko‘rish va amaliyotga tatbiq etish zarurati mavjud. Ilmiy ishda ko‘rib chiqiladigan masalalar sifatida, virtual modellashtirish jarayonlari, badiiy dizayn printsiplari, 3D grafik vositalari, sun’iy intellekt yordamida dizaynni takomillashtirish imkoniyatlari va ularning amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Shuningdek, ushbu ishda ko‘zda tutilgan maqsadlardan biri — kostyumni virtual loyihalash jarayonida inson omilini minimallashtirish va jarayonni avtomatlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Buning uchun yangi algoritmlar va dasturiy ta’minot yechimlari ishlab chiqiladi. Bu nafaqat loyihalash sifatini oshirishga, balki ish jarayonini sezilarli darajada soddalashtirishga imkon beradi. Kostyum dizayni sohasida raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish orqali, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois, ushbu ilmiy ish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u zamonaviy moda sanoati uchun yangi texnologiyalarni yaratish va qo‘llash borasida muhim qadam bo‘ladi. Natijada, ushbu ilmiy ish natijasida kostyumni virtual badiiy loyihalash jarayonlarining yangi usullari ishlab chiqilib, ularning samaradorligi va amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Bu esa moda va kiyim-kechak sanoatida zamonaviy innovatsiyalarni joriy qilish va raqamli iqtisodiyot talablariga moslashishda muhim rol o‘ynaydi.

Yoritish tizimlarini optimallashtirish. Yengil sanoat korxonalarida yoritish tizimlarining energiya samaradorligini oshirish juda muhimdir. LED yoritgichlar va sensorli tizimlar yordamida ishlab chiqarish hududlarida yoritishning faqat zarur bo‘lgan qismlarida ishlatilishi ta’minlanadi, bu esa energiya sarfini sezilarli darajada qisqartiradi.

Yengil sanoatning ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlariga qaratilgan yondashuvlar hamda texnologiyalar ham samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Bu sohadagi asosiy maqsad atrof-muhitga minimal zarar etkazish va resurslarni tejashdir[4].

Bugungi kunda tabiiy xomashyo va ekologik toza materiallarga talab ortib bormoqda. Paxta, bambuk, lana va boshqa tabiiy tolalar yordamida ishlab chiqarilgan matolar, shuningdek, ekologik sertifikatlarga ega bo‘lgan sintetik materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish atrof-muhitni himoya qilishga xizmat qiladi; Kimyoviy moddalar va bo‘yoqlardan foydalanishni minimallashtirish. Yengil sanoatdagi bir qator ishlab chiqarish jarayonlari bo‘yicha bo‘yoq va kimyoviy moddalar ishlatiladi. Bu moddalar atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlari bo‘yicha bo‘yoq moddalari va kimyoviy moddalarni minimallashtirish yoki ekologik xavfsiz alternativalarini qo‘llash zarurdir; Suv resurslarini tejash va qayta ishlash. Yengil sanoatning boshqa bir muhim jihati bu ishlab chiqarish jarayonlarida suvdan foydalanishning samaradorligini oshirishdir. Suvni qayta ishlash tizimlari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatilgan suvni qayta tiklash mumkin, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va suv resurslarining tejashiga yordam beradi; Ekologik sertifikatlarga erishish[5].

Ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirgan korxonalar uchun xalqaro ekologik sertifikatlarga ega bo‘lish imkoniyati mavjud. Bu sertifikatlar mahsulotning atrof-muhitga bo‘lgan ta’sirini kamaytirganini tasdiqlaydi va iste’molchilar uchun yuqori sifatli ekologik mahsulotlarni taklif etishda yordam beradi[6].

Xulosa. Yengil sanoatning ekologik toza ishlab chiqarishga va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan yondashuvlari butun sanoat tarmog‘ining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishlar, nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, balki atrof-muhitni himoya qilishga ham katta hissa qo‘shadi. Kelajakda yengil sanoat korxonalari energiya samaradorligini oshiradigan, resurslarni tejaydigan va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etishga yanada e’tibor qaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Tursumatova Shaxlo Samiyevna, & Mamatqulova Saida Raxmatovna. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*,3(05),1–10.

[2].Raxmatovna.M.S.(2022). Analysis of women’s clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. *International Journal of Advance Scientific Research*.2(03).16-21.

[3].Raxmatovna.M.S.(2022).Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knitting production; basic raw materials, their composition and properties.*Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5,May,2022.7

[4]. Raxmatovna.M.S.(2021). The description of perspective fashion trends in men’s clothing. *Innovative Technological:Methodical Research Journal*,2(10),15-20.

[5].Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(9), 18-23.

[6]. Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).

DIGITALIZATION IN MODERN TECHNICAL SCIENCES AND ITS THEORETICAL FOUNDATIONS

*Isroilova Navruza Bakhtiyorjon kizi, assistant
Oripov Jasurbek Ikromjon ugli, Phd
Fregana state technology university*

Abstract:This article analyzes the role of digitalization in modern technical sciences, as well as its theoretical foundations and practical significance. The study highlights the optimization of production processes, improvement of efficiency, and minimization of human factors through

the implementation of digital technologies. In addition, the main principles of digitalization, information systems, and the impact of automated control processes on the development of technical sciences are examined. The article also provides scientifically grounded proposals for addressing the challenges arising in the process of digital transformation in modern industrial sectors.

Keywords: digitalization, digital technologies, technical sciences, theoretical foundations, automation, information systems, digital transformation, innovative technologies, production efficiency.

In recent decades, rapid advancements in science and technology have led to the emergence of digitalization as a key driver of development across various sectors, particularly in technical sciences. Digitalization refers to the integration of digital technologies into all aspects of scientific research, engineering processes, and industrial production, fundamentally transforming traditional approaches and methodologies. As a result, it has become an essential component in enhancing productivity, accuracy, and efficiency within modern technical systems.

The growing complexity of industrial processes and the increasing demand for high-quality, cost-effective production have necessitated the adoption of advanced digital solutions. Technologies such as automation systems, data analytics, artificial intelligence, and smart control mechanisms are now widely used to optimize operations and reduce the influence of human error. These developments are closely associated with the concept of Industry 4.0, which emphasizes interconnected systems, real-time data exchange, and intelligent decision-making.

From a theoretical perspective, digitalization is grounded in several fundamental principles, including systems theory, information processing, and cyber-physical integration. These principles provide a scientific basis for understanding how digital tools and platforms can be effectively applied to solve complex engineering problems. Furthermore, the integration of information systems and automated control technologies plays a crucial role in shaping the modern landscape of technical sciences.

Despite its numerous advantages, the process of digital transformation also presents several challenges. These include issues related to data security, system integration, high implementation costs, and the need for skilled professionals capable of managing digital infrastructures. Addressing these challenges requires a comprehensive theoretical framework combined with practical solutions tailored to specific industrial contexts.

Therefore, the study of digitalization in technical sciences, along with its theoretical foundations and practical implications, remains a highly relevant and important research area. This article aims to explore these aspects, analyze current trends, and propose effective approaches for the successful implementation of digital technologies in modern technical fields.

Digitalization in technical sciences is based on a set of fundamental theoretical concepts that define its structure, functionality, and application in various fields. At its core, digitalization relies on the transformation of physical processes into digital formats, enabling efficient data collection, processing, and analysis. This transformation is supported by advances in information and communication technologies, which provide the necessary infrastructure for integrating digital tools into engineering and industrial systems.

One of the key theoretical foundations of digitalization is systems theory, which considers technical processes as interconnected and interdependent systems. According to this approach, each component of a system interacts with others through the exchange of information, allowing for coordinated and optimized performance. Digital technologies enhance this interaction by enabling real-time monitoring and control, thus improving overall system efficiency and reliability.

Another important concept is information theory, which focuses on the transmission, processing, and storage of data. In the context of technical sciences, information serves as a critical resource for decision-making and process optimization. The use of digital platforms allows for the rapid analysis of large volumes of data, often referred to as “big data,” which can be used to identify patterns, predict outcomes, and improve system performance.

Cyber-physical systems (CPS) also play a central role in the theoretical framework of digitalization. These systems integrate computational algorithms with physical processes, creating intelligent environments where machines can communicate, learn, and adapt autonomously. This concept is closely linked to automation and smart manufacturing, where production systems are capable of self-regulation and continuous improvement.

Furthermore, the theory of automation and control systems provides the basis for implementing digital technologies in technical processes. Automated control systems use sensors, feedback mechanisms, and algorithms to regulate operations with minimal human intervention. This leads to increased precision, reduced operational costs, and enhanced safety in industrial environments.

In addition, the concept of digital transformation extends beyond technological changes and includes organizational and methodological shifts. It requires the adaptation of existing processes, the development of new competencies, and the integration of innovative approaches to problem-solving. As a result, digitalization is not only a technical phenomenon but also a multidisciplinary process that combines engineering, computer science, and management principles. Thus, the theoretical foundations of digitalization in technical sciences provide a comprehensive framework for understanding its impact and potential. These theories support the development of advanced technologies and guide their effective implementation in modern industrial and scientific practices.

In conclusion, digitalization has become a fundamental factor in the development of modern technical sciences, significantly influencing both theoretical approaches and practical applications. The integration of digital technologies into engineering and industrial processes has led to increased efficiency, improved accuracy, and enhanced productivity. The theoretical foundations of digitalization, including systems theory, information theory, cyber-physical systems, and automation principles, provide a solid framework for understanding and implementing these technological advancements.

Annotatsiya: Ushbu maqola tilni millatning borlig‘i va milliy-ma’naviy ruhiyatining asosiy ustuni sifatida ko‘rib chiqadi. Unda tilning faqatgina aloqa vositasi emas, balki xalqning tarixi, madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan tirik organizm ekanligi ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Til orqali milliy o‘zlikni anglash, avlodlar aloqasini mustahkamlash, ma’naviy merosni saqlash va rivojlantirishdagi o‘rni chuqur asoslab beriladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy tilni asrash va uning nufuzini oshirish, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda tilning hal qiluvchi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, milliy o‘zlik, ma’naviy-ruhiyat, davlat tili, milliy meros, madaniyat, taraqqiyot, til istiqboli, millat ko‘zgusi, qadriyat.

Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida til nafaqat o‘zaro aloqa vositasi, balki millatning borlig‘i, uning qadimiy tarixi, madaniy qiyofasi va milliy-ma’naviy ruhiyatini ifodalovchi bosh omil bo‘lib kelgan. Har bir xalqning o‘zligini anglatuvchi eng oliy qadriyati — uning ona tilidir. Zero, til yashasa, millat yashaydi, til taraqqiy etsa, davlat va jamiyat barcha sohalarida yuksalaveradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev** ta’kidlaganidek:

"Ona tilimiz — milliy ma’naviyatimizning mustahkam poydevoridir. Kimda-kim o‘z ona tilining borlig‘ini, jozibasini, uning cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, u avvalo o‘zbek tilini o‘rganishi kerak." Ushbu fikr zamirida tilning millat taqdiridagi strategik o‘rni yotadi. Davlatimiz rahbarining "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni ham tilimizning milliy ruhini saqlash va uni zamonaviy ilm-fan tiliga aylantirish yo‘lidagi muhim tarixiy qadam bo‘ldi. Ilmiy nuqtai nazardan, til va ruhiyat uzviyligi masalasi jahon tilshunosligida **lingvokulturologiya** va **etnopsixolingvistika** fanlarining markazida turadi. Mashhur nemis faylasufi va tilshunosi **Vilgelm fon Gumboldt** o‘zining fundamental asarlarida: *"Til — xalq ruhining bevosita in‘ikosidir. Xalqning tili uning ruhi, xalqning ruhi esa uning tilidir"*, — deya xulosa qiladi. Darhaqiqat, o‘zbek tilidagi har bir so‘z, har bir ibora xalqimizning asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan dunyoqarashi, andishasi va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Tarixiy faktlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, buyuk jadid mutafakkiri **Abdulla Avloniy**ning: *"Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinasi hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur"*, — degan hayqirig‘i bugungi globallashuv davrida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, buyuk shoir va davlat arbobi **Alisher Navoiy** o‘zining "Muhokamat-ul lug‘atayn" asari bilan turkiy tilning ma’no qatlamlari naqadar chuqur va ruhiy quvvati naqadar yuksak ekanligini ilmiy isbotlab bergan edi.

O‘zbek tili misolida oladigan bo‘lsak, tilimizdagi "andisha", "mehr-oqibat", "sharmu hayo", "himmat" kabi tushunchalar shunchaki so‘z emas, balki o‘zbek xalqining milliy-ma’naviy qiyofasini belgilovchi kategoriyalardir. Ularni boshqa tillarga birgina so‘z bilan aynan tarjima qilib bo‘lmazligi, tilning millat ruhiyati bilan qanchalik qattiq bog‘langanini isbotlaydi. Ilmiy nuqtai nazardan, til — milliy xotira omboridir. **Mahmud Koshg‘ariy** o‘zining "Devonu lug‘atit turk"

asari bilan turkiy tillarning naqadar boy ekanligini ko‘rsatib, milliy g‘urur va o‘zlikni asrashning til orqali ekanligini amalda isbotlagan.

Bugungi zamonaviy tilshunoslikda (lingvokulturologiya) til va madaniyat o‘rtasidagi aloqa quyidagi uchta muhim funksiyada namoyon bo‘ladi:

1. **Kumulyativ funksiya:** Til xalqning barcha tajribasini, an‘analarini va tarixiy bilimlarini o‘zida to‘playdi.
2. **Kommunikativ funksiya:** Avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqani ta’minlaydi.
3. **Kognitiv funksiya:** Insonning dunyo haqidagi bilimlarini tizimlashtiradi.

Jadid mutafakkiri **Ismoil Gasprinskiy**ning *"Tilda, fikrda, ishda birlik"* degan shiori zamirida ham, aynan til birligi orqali milliy ruhni jipslashtirish g‘oyasi yotadi. Til millatning ichki "men"ini shakllantiradi va uni boshqa xalqlardan ajratib turuvchi asosiy belgi bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda o‘zbek tili dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biri bo‘lib, u 50 milliondan ortiq inson uchun qadrli hisoblanadi. Maqolaning maqsadi — tilning milliy-ma’naviy ruhiyatni shakllantirishdagi funksional vazifalarini tahlil qilish, uning borlig‘imizni saqlashdagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy asoslab berishdan iborat.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, til — millatning shunchaki muloqot quroli emas, balki uning **genetik xotirasi**, ma’naviy qiyofasi va davlat mustaqilligining eng mustahkam ustunidir. Maqola davomida tahlil etilganidek, til va millat ruhiyati o‘rtasidagi bog‘liqlik uzviy bo‘lib, birining inqirozi ikkinchisining tanazzuliga olib keladi. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili o‘zining ko‘p asrlik taraqqiyot yo‘lida nafaqat boy so‘z xazinasini, balki xalqimizning bag‘rikenglik, andisha va yuksak ma’naviyat kabi nodir fazilatlarini ham asrab kelgan. **Alisher Navoiy** bobomiz asos solgan buyuk tilshunoslik an‘analari bugun yangi O‘zbekiston poydevorini qurishda ma’naviy kuch-quvvat manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, ona tilimizga bo‘lgan e’tibor — bu bevosita **Vatanga bo‘lgan e’tibordir**.

Mening fikrimcha, globallashuv va axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davrda ona tilimizni saqlash faqatgina tilshunos olimlarning emas, balki har bir vijdonli fuqaroning muqaddas burchiga aylanishi zarur. Til — millatning o‘zligini anglatuvchi eng buyuk mo‘jiza ekan, uni asrash orqali biz o‘zligimizni, tariximizni va kelajagimizni asragan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Alisher Navoiy.** Muhokamat-ul lug‘atayn. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.
2. **Avloniy, Abdulla.** Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O‘qituvchi", 1992.
3. **Boduen de Kurtene, I.A.** Izbrannye trudy po obshemu yazikoznaniyu. – Moskva: Izdatelstvo Akademii nauk SSSR, 1963.
4. **Gumboldt, Vilgelm fon.** O razlichii stroeniya chelovecheskix yazikov i ego vliyanii na duxovnoe razvitie chelovechestva. – Moskva: Progress, 1984.
5. **Mahmud Koshg‘ariy.** Devonu lug‘atit turk (Tarjimon S. Mutallibov). 1-3 jildlar. – Toshkent: "Fan", 1960-1963.
6. **Mirziyoyev, Shavkat.** Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2017.
7. **Mirziyoyev, Shavkat.** Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2021.
8. **O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.** Davlat tili haqida (Yangi tahriri). – Toshkent, 1995.
9. **Sayfullayeva, R.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2009.
10. **Yusuf Xos Hojib.** Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim). – Toshkent: "Yulduzcha", 1990.

TIL – MILLATNING BORLIG‘I, MILLIY-MA’NAVIY RUHIYATI

Xalbayeva Farangiz G‘ulomjon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi

e-mail:farangizxalbayeva61@gmail.com

Tel: +998940251861

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilning millat taqdiri, uning tarixiy davomiyligi va ma’naviy-ruhiy qiyofasini shakllantirishdagi fundamental roli ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Til nafaqat axborot almashish vositasi, balki xalqning asriy tajribasi, qadriyatlari, urf-odatlar va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan "milliy xotira" ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqotda lingvofalsafiy va etnopsixologik yondashuvlar asosida tilning boy berilishi millatning o‘zligidan ayrilishi va ma’naviy inqirozga yuz tutishi bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning til va millat birligi haqidagi qarashlari zamonaviy globallashuv jarayonlari kontekstida qayta talqin etiladi. Muallif tilning davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, uning sof ma’naviy quvvatini saqlab qolish va yosh avlod ongiga milliy ruhni singdirish strategik ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘z: Ona tili, milliy o‘zlikni anglash, milliy-ma’naviy ruhiyat, lingvistik dunyo manzarasi, millat genofondi, davlat tili maqomi, globallashuv va til, etnik madaniyat, ma’naviy meros, til siyosati, milliy tafakkur, lingvofalsafa, milliy g‘oya, madaniy immunitet, tarixiy xotira, ma’naviyat sarchashmasi, lingvokulturologiya, vatanparvarlik, nutq madaniyati, til va jamiyat. Til — insoniyat tarixidagi eng buyuk kashfiyot bo‘lish bilan birga, har bir millatning o‘zligini tasdiqlovchi bosh hujjati, uning ma’naviy asosi hisoblanadi. Dunyo xaritasi faqat geografik chegaralar bilan emas, balki til sarhaddari bilan ham belgilanadi. Binobarin, til millatning shunchaki muloqot vositasi emas, balki uning o‘tmishi, buguni va kelajagini bog‘lovchi oltin ko‘prikdir.

Bugungi shiddatli globallashuv davrida milliy tillarni saqlab qolish va ularning davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish har bir xalqning milliy xavfsizligi va ma’naviy barqarorligi masalasiga aylandi. O‘zbek tili ham o‘zining boy lug‘at tarkibi, jozibador grammatik qurilishi va asriy an‘analari bilan millatimizning ruhiy dunyosini aks ettiruvchi beqiyos xazinadir. Ushbu maqolada tilning millat borlig‘idagi o‘rni, uning ma’naviy-ruhiy qiyofasini shakllantirishdagi deterministik ahamiyati ilmiy va hayotiy misollar yordamida tahlil etiladi.

Har bir millatning o‘ziga xos dunyoqarashi, mantiqiy fikrlashi va ruhiyati uning tilida muhrlangan bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi **"andisha"**, **"shafqat"**, **"istihola"** yoki **"oqibat"** kabi so‘zlarni boshqa tillarga aynan tarjima qilish mushkul. Bu so‘zlar ortida millatning asriy qadriyatlari, tarbiya mezonlari va ruhiy holati yashiringan. Til — millatning ma’naviy genofondini saqlaydigan yagona va takrorlanmas makondir. Buyuk jadid olimi Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, *"Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti tili va adabiyotidir"*. Bu fikr tilning naqadar ulkan ijtimoiy-siyosiy kuchga ega ekanligini anglatadi. Alisher Navoiy bobomiz esa tilni ko‘ngil xazinasining kalitiga o‘xshatganlar. Ya’ni, insonning ichki ma’naviy dunyosi uning tilga bo‘lgan munosabati va nutqi orqali namoyon bo‘ladi. Milliy ruhning yuksalishi bevosita tilga bo‘lgan ehtiromdan boshlanadi.

Hozirgi kunda dunyoda kechayotgan integratsiya jarayonlari milliy tillarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. "Ommaviy madaniyat" ta’sirida tilimizga yot unsurlarning kirib kelishi, o‘rinsiz olingan so‘zlarning ko‘payishi milliy ruhiyatning yemirilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tilning sofligini saqlash — bu faqat filologlarning ishi emas, balki millat ruhini asrashni xohlovchi har bir fuqaroning burchidir. Til yashasa — millat yashaydi, til o‘lsa — millat o‘ladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, til — millatning shunchaki muloqot quroli emas, balki uning mavjudligini belgilovchi **ontologik asosi**, ma’naviy-ruhiy qiyofasining ko‘zgusidir. Tadqiqot davomida olingan natijalar quyidagi yakuniy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

O‘zlikni anglash mezon: Millatning o‘zligi uning tilida yashaydi. Tilni yo‘qotish — xalqning tarixiy xotirasidan, asriy qadriyatlaridan va o‘ziga xos milliy mentalitetidan mahrum bo‘lishidir. Shuning uchun tilni asrash milliy o‘zlikni asrash bilan teng tushunchadir.

Ma’naviy vorisiylik: Ona tili — ajdodlarimizdan qolgan eng buyuk meros va kelajak avlodni milliy ruhda tarbiyalovchi asosiy vositadir. Milliy-ma’naviy ruhiyatning barqarorligi bevosita ona tilining jamiyatdagi mavqeyi va uning sof holda saqlanishiga bog‘liq.

Davlat va Til uzviyligi: O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, uni ilm-fan va innovatsiyalar tiliga aylantirish — millatning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashini ta’minlovchi strategik vazifadir.

Madaniy mudofaa: Globallashuv sharoitida milliy tilni yot unsurlardan himoya qilish, undagi ma’naviy quvvatni asrab qolish har bir fuqaroda kuchli lingvistik immunitet va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlari

1. **Avloniy, A.** Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: „O‘qituvchi“, 1992. – 160 b.
2. **Behbudiy, M.** Tanlangan asarlar. – Toshkent: „Ma’naviyat“, 1999. – 224 b.
3. **Gumboldt, V.** Til va madaniyat (tarjima). – Moskva: „Progress“, 1985. – 448 b.
4. **Daniyelyan, E.** Lingvokulturologiya: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: „Fan va texnologiya“, 2012. – 180 b.
5. **Karimov, I. A.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: „Ma’naviyat“, 2008. – 176 b.
6. **Mahmudov, N.** Til. – Toshkent: „Yozuvchi“, 1998. – 140 b.
7. **Mirziyoyev, Sh. M.** Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: „O‘zbekiston“, 2017. – 592 b.
8. **Navoiy, Alisher.** Muhokamatul-lug‘atayn. Mukammal asarlar to‘plami. 16-jild. – Toshkent: „Fan“, 2000.

ONA TILI - MILLAT RUHI

Xasanov Abduraxim Xasanovich- Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi,
Telefon:+998(77) 256-25-53 Telegramm:998(77) 256-25-53

Abstract: The article deals with the social significance of physical culture and sports in education. Physical education as a part of the general culture has practical significance. The article deals with the social significance of physical culture and sports in education.

Key words:: Physical education, sports, education, spiritual education, aesthetic education, labor education, recruiting offices.

Kalit so‘zlar: millatning ruhi, o‘zlikni anglash, milliy ong, millat va elat, millat qiyofasi, davlat tili, huquqiy kafolat, milliylik, til

Annotatsiya: Maqolada ona tilimiz millatimiz faxri, g‘ururi, orzu umidlarimiz, istiqbolimiz unda bo‘y ko‘rsatadigan, qalbimiz oynasi ekanligi yoritilgan.

Inson qalbi bilan hazillashmang siz,
Unda millat yashar, unda til yashar!
Abdulla Oripov

Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkur, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir. Darhaqiqat, ona tilimiz – millatimiz faxri, g‘ururidir, ayni chog‘da ona tilimiz orzu umidlarimiz, istiqbolimiz unda bo‘y ko‘rsatadigan, qalbimiz oynasi hamdir. Shunday ekan, ona tilimizga doimo hurmat va e’tiborda bo‘lib, uning jamiyatimizdagi mavqeyini yuksaltirishga har birimiz o‘z hissamizni qo‘shishimiz darkor. Zero, til bor ekan millat barhayot, uning istiqboli nurli va charog‘ondir.

Bosh Qomusimizning 4-moddasida "O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", deb belgilanishi ham bejiz emas.

Dunyoda qancha til bo‘lmasin, ular orasida o‘zbek tilining o‘rni alohida va beqiyosdir. Chindan ham o‘zbek tili nihoyata beqiyos va bejirimdir. 2020 yil 23 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75 yubiley sessiyasida o‘zbek tilida nutq so‘zlashi, adabiy kechalar, turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarimiz aynan o‘zbek tilida o‘tkazilayotgani bilan, albatta, faxrlanamiz. Zero, biz Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Nodirabegim, Erkin Voxidoa, Abdulla Oripov avlodlarimiz.

Til - millat qiyofasining bir bo‘lagi. Shu sababli hali mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davrdayoq o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu olamshumul hodisaning tub mohiyatini kelajak avlod ongiga singdirish, unga muhabbati, sadoqatini yanada mustahkamlash shu til jonkuyarlari – o‘qituvchilar, ustozlar, murabbiylar, metodistlar, trenerlar, tilshunoslar, umuman o‘zini shu millatning farzandi deb bilgan har bir shaxsning har kunlik burchi bo‘lishi shart. Shundagina o‘zib kelayotgan yosh avlod til nega milliy g‘urur ekanligini his etadigan, turli ma’naviy, mafkuraviy tahdidlar ta’siriga tushmaydigan bo‘lib yetishadilar.

Taniqli ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning 1910 yilda aytgan quyidagi so‘zlarini yodga olaylik: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oйнаi hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun kundan-kun unutmak va yo‘qatmaqdadurmuz. Tilimizning bir chetiga rus tilini ham yopishtirmakdadurmiz. Durust, rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o‘z yerinda ishlatmak va so‘zlamak lozimdur”.

... Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning bu so‘zlari hech bir zamonda ahamiyatini yo‘qotmaydi. Chunki millat deganlari tilga qarab belgilanadi. Til – millatning mavjudlik sharti. Millat vujud bo‘lsa, til – ruh. Shu bois o‘zini tanigan, o‘zligiga ega har bir millat ona tili rivojini hayot-mamot masalasi deb biladi. Til taraqqiysi uchun bor imkoniyatini ishga soladi.

Ona tilimiz davlat tili maqomiga ega bo‘lgani bu uning rivoji uchun huquqiy kafolat demakdir. Biroq tilning chinakam rivoji uchun buning o‘ziga kifoya qilmaydi. Ona tilining bor imkoniyati bilan ravnaq topishi uchun bizning nazarimizda yana to‘rt omil mutanosibliigi talab etiladi:

1. Ona tili taqdiri uchun kuyinish hissi millatning har bir vakili qalbiga ko‘chishi;
2. Til ilmining milliy negizda rivojlanishi;
3. Zamonaviy texnika-texnologiyalar va tilning o‘zaro teng ta’sir asosida taraqqiy etishi;
4. Milliy tilda yaratilgan adabiyotning ravnaqi.

Tan olish kerak, mazkur omillarning barchasi jam bo‘lgandagina til chin ma’noda taraqqiy etadi. Aks holda, uning rivoji haqidagi orzu orzuligicha qolib ketishi mumkin. Afsuski, ushbu tuyg‘u millatimizning har bir farzandida qalb amri darajasiga ko‘tarilgan, deya olmaymiz.

Milliy til – milliy urf-odat, qadriyatlarni, milliy ma’naviy meros-manbalarni bilish, o‘zlashtirish, yetkazib berish, targ‘ib etishda, o‘zlikni anglash, anglatishda birlamchi vosita. O‘z milliy tiliga muhabbati yo‘q, o‘zga tillarga ehtiromi yuksak insonni millat vakili, vatanparvar shaxs deb atash mumkinmi? Til millatga, jamiyatga, Vatanga daxldor oliy tushuncha. Shu boisdan bu borada ehtiyotkor bo‘lish, ajdodlardan meros buyuk ne’mat ildiziga bolta urmaslik kerak bo‘ladi.

Masalaga munosib yechim izlab olib borilgan tahliliy kuzatishlar o‘zbek tilining davlat tili maqomidagi rutbasini yanada mustahkamlash, qonuniy asoslarni kengaytirish, qat’iylashtirish zarurati mavjudligini ko‘rsatadi. Nafaqat ayni shu kunlarda, balki o‘tgan yillar davomida ham millatsevar tilshunoslar, ma’rifat ziyolilarini o‘zbek tilining rasmiy talablarini kuchaytirish, milliy martabasini oshirish, barcha soha vakillarining adabiy til me’yorlariga amal qilishiga erishish kabi dolzarb muammolar hamisha o‘ylantirib, munozaraga chorlab kelgan.

Malaka oshirish kurslarida o‘tkaziladigan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida ba’zi hurmatli domlalarimiz davlat tili qoidalariga har doim ham amal qilavermasligi, ma’ruza darslari jarayonida o‘zbek guruhlarida goh ruscha, goh o‘zbekcha qilib, ya’ni, aralashtirib gapirishlari quloqqa chalinib qoladi. Nashr etilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda ham o‘zbek

tilida yaxshi jaranglashi va tushunarli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ba’zi jismoniy tarbiya va sportga oid atamalar rus tilida berilganining ham guvohi bo‘lamiz.

O‘zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanishida jismoniy tarbiya va sportning o‘rni beqiyosdir. Bu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Darhaqiqat, o‘zbek tili dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri ekan, uning sofligi, purma’noligi, ta’sirchanligi, go‘zalligi, boyligiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz zarur. Til odamning onglik darajasini belgilovchi omil ham sanaladi. Millatni dunyoga tanitadigan ma’naviy asos, uning muhim belgisi, uzviy va ajralmas bir bo‘lagi ona tilidir.

Xalqimizning o‘z tiliga, eliga bo‘lgan cheksiz muhabbati, ijodkorlik qudrati til masalalariga milliylik nuqtai nazar bilan yondashishda namoyon bo‘ladi. Hazrat Navoiyning “Tilga ixtiyorsiz-elga e’tiborsiz” degan xikmati necha asr o‘tsa ham o‘zining ma’no-mohiyatini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, tarixiy jarayonlar bu xikmatning naqadar haqqoniyligini isbotlab kelmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei oshirish haqida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2019 yil 21 oktabr.
2. Mirziyoev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020 yil 21 oktabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Yangi ahriri. 2023-yil 30-aprel. 4-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni. Yangi tahriri. 1995 yilda qabul qilingan.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoki axloq. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995. 26-bet.

ТИЛ ТАРИХИ ТАДҚИҚИДА ТАРИХИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ

Назаров Насриддин Атакулович,

Фалсафа фанлари доктори, Алишер Навоий номидаги
Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университети
профессори. nasrid@mail.ru
+998909150288

Аннотация: Мақолада тил тарихи масалаларини ўрганишда тарихий қадриятларнинг ўрни масалаларига эътибор қаратилади. Бунда, асосан тарихий тафаккур ривожига хизмат қилувчи илк туркий ёзма манба – Ўрхун ёдгорликларидаги тарихий ҳикматлар, уларнинг тил тарихини ўрганишдаги аҳамияти масалаларига эътибор қаратилади. Шунингдек, Ўрхун тошбитикларини ўрганишда туркология фани, унинг туркий тадқиқотлар ривожига роли тадқиқ этилади. Тошбитиклардаги ҳикматларнинг бугунги кунда ҳам маънавий ғоявий тарбия манбаи эканлиги масалалари таҳлил этилади.

Калит сўзлар: Тил тарихи, қадриятлар, Ўрхун ёдгорликлари, битиктошлар, тарихий тараққиёт, маънавият, туркология.

THE ROLE OF HISTORICAL VALUES IN THE STUDY OF LANGUAGE HISTORY

Abstract: The article examines the role of historical values in studying the history of language. It primarily focuses on the earliest Turkic written sources – the Orkhon inscriptions, which serve as a vital foundation for the development of historical thinking. The significance of historical aphorisms found within these monuments and their importance in exploring the history of language are thoroughly analyzed. Furthermore, the article investigates the field of Turkology and its pivotal role in the advancement of Turkic studies. The author highlights that the wisdom preserved in these stone inscriptions continues to serve as a significant source of spiritual and ideological education in the modern era.

Keywords: History of language, values, Orkhon monuments, inscriptions, historical development, spirituality, Turkology.

РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ИССЛЕДОВАНИИ ИСТОРИИ ЯЗЫКА

Аннотация: В статье рассматривается роль исторических ценностей в изучении вопросов истории языка. Основное внимание уделяется первым тюркским письменным памятникам — Орхонским надписям, которые служат фундаментом развития исторического мышления. Анализируется значение исторических изречений, запечатленных в данных памятниках, и их роль в исследовании генезиса тюркских языков. Также исследуется становление тюркологии как науки и её значение в развитии современных тюркских исследований. Автор подчеркивает, что мудрость, зафиксированная в древних каменных письменах, и сегодня остается важнейшим источником духовно-идеологического воспитания.

Ключевые слова: История языка, ценности, Орхонские памятники, надписи, историческое развитие, духовность, тюркология.

Тарихий қадриятларимиз илк намуналаридан бўлган турк рунологияси, яъни Ўрхун ёзма ёдгорликлари тарихий манбалар бўлиши билан бир қаторда уларда учинчи ренесанс асослари шаклланаётган бугунги кунда миллий тилимиз тарихини ўрганиш асосида туркий халқлар бирлигини таъминлаш ғояларининг ҳам устивор моҳият касб этганлиги билан эътиборлидир. Маълумки, тарихий тараққиёт давомида туркий халқлар тиллари бирлигини тарғиб этиш асосида ўзаро умумийликни таъминлаш доимо етакчилар ҳамда зиёлиларнинг диққат эътиборида бўлиб келганлиги манбалардан маълум. Хусусан, VII-асрнинг охири ва VIII-асрнинг бошларида қадимги туркий мутафаккир Йўлғи тегин – Култегин, Билга ҳокон, Қутлуг Элтериш ҳоконлар шарафига қўйилган ёзма ёдгорликларнинг муаллифи, теран тафаккур соҳиби туркий маънавият ва маърифатнинг тамал тошини қўйган мутафаккир сифатида турк ҳоконлиги даврида ўзига хос ўрин тутганлиги Ўрхун тошбитикларидаги маълумотлардан аён. Ёзувларда қадимги туркларнинг умумий адабий тили асосида маданий турмуш даражаси, адабий имкониятлари, тарихий воқеалар инъикоси, тафаккур кенгликлари ифодаланганлиги билан диққатни жалб этади. Қадимги турклар сиёсий бирлигининг етакчилари Билга ҳокон ёдгорлиги (732 йил) ва унинг укаси Култегин ёдгорлиги (735 йил) (Кошо-Сайдам ёзувлари) ва шунингдек, маслаҳатчи Тонюқққа аталган ёзув (716 йилдан кейин яратилган)ларда қадимги туркий тил имкониятларидан фойдаланиш асосида даврнинг тарихий воқеалари силсиласини ўзида ифодалаб, турк баҳодирлари жасоратли фаолиятларининг акс этганлиги – туркий халқлар лингво-тарихи ва маданиятининг тошбитикларда ифодаланган дастлабки боби эканлиги билан характерлидир.

Туркий халқлар ҳамда уларнинг маданиятга мансублик хислатлари ҳақида гап кетганда туркийларни кўчманчилик маданияти билан боғлаш анъаналари илмда устувор моҳиятга эга. Лекин, бу аждодларимизни бутунлай кўчманчи бўлган, ўтроқ маданият туркийларга ёт дегани эмас. Кўчманчилик маданиятида мужассам бўлган пассионарлик салоҳияти дунёни туркларга танитгани каби, туркларни ҳам дунёга танитди. Турклар ўтроқлашиб, илгари умуминсоний цивилизацияга ҳисса қўшиб келган бўлса, энди цивилизациялашув жараёнларининг бошида турди. “Уч минг йил давомида икки цивилизация: кўчманчи ва ўтроқ, нисбий ички автономияни сақлаб, бир-бири билан ёнма-ён ривожланиб, бир-бирини янада бойитиб, ягона умумий цивилизация яратдилар. Кўчманчилар орасида туғилган гумбаз меъморчилиги бутун дунё бўйлаб тарқалиб, дунё халқларининг мулкига айланди; шаҳар аҳолисининг устахоналарида пайдо бўлган хунармандчиликни кўчманчи халқлар ўзлаштирди» [Турсунов, 2001: 8]. Бундай умумий цивилизация туркий цивилизация сифатида умуминсоний тараққиётнинг ривожига ҳисса қўшиб келди. “Улар (қадимги турклар – Н.Н.) чорвачилик билан шуғулланишган, алоҳида ўтроқ шароитларига ҳам эга бўлишган. Металларни, жумладан олтинни қайта ишлаш техникасини ўзлаштирган эдилар”[Батманов, 1959: 10]. Демак, металлургия саноатининг ҳам тамал тоши қадимги турклар томонидан қўйилган бўлиб, ушбу жиҳат ҳам қадимги туркларнинг ўтроқ ҳаёт кечирганлигини тасдиқлайди. Зеро, метал, жумладан олтин қазиб чиқариб, уларга ишлов бериш – фақат ўтроқ турмуш тарзига эга бўлган халқларгагина хосдир. Бундай ўтроқ турмуш тарзи умумий туркий адабий тилни шакллантирдики, Ўрхун ёзувлари бунга мисолдир.

Қадимги турклар тарихи ва маданияти айрим хорижий манбалар билан бир қаторда турк тилида ёзилган битиктошларда ўзининг ифодасини топган бўлиб, унда қадимги туркларга хос бўлган умумий адабий тил етакчилик қилганлиги билан эътиборни тортади. Адабий тил имкониятлари асосида битилган Ўрхун ёзма ёдгорликларининг тарихий моҳиятига эътибор қаратгудек бўлсак, унда: «Отамни хон сифатида, онамни эса хотун сифатида эъзозлаб кўкка кўтарган осмон: "Турк халқининг исми ва шон-шарафи сўнмасин!", Қабилаларини берган осмон (хоннинг ҳукмронлиги остига) (бу сафар ҳам): «Турк халқининг номи ва шон-шухрати сўнмасин» деди: "Бу исм йўқ бўлиб кетмаслиги учун ҳам осмон мени кўтарди (ва хон қилди)» [Радлов, 1897: 23], - деган ҳикматлар мавжуд. Ушбу сатрлар бугунги кунда ҳам ёшларимиз орасида туркий халқларнинг тарихан бирлиги ғоясини тарғиб этувчи тафаккурдаги ўзгаришларни таъминлашга хизмат қилиб, тарбиявий аҳамияти билан бир қаторда, уларда тарихий тафаккурни юксалтириш орқали ифтихор туйғусини, фахру ғурурни, ватан ва эл тақдири учун масъуллиқ ҳиссини, умумий тақдир учун бирлашиш масъулиятини юксалтиради. Ушбу жиҳатлар бугунги маънавий янгилинишлар шароитида, жамиятнинг ижтимоий-маданий юксалишида муҳим.

Зеро, муайян элнинг муваффақияти, ўзаро бирлашишга мойиллик хусусияти шахсий омил билан, яъни етакчининг маҳорати билан боғлиқ: «Фалакдай Тангри яратган Турк Билга ҳоқон сўзим: отам турк доно ҳоқони тахтга ўтирганда тўққиз ўғуз қаҳрамонлари, унинг машҳур беклари ва унинг халқи ҳурмат кўрсатдилар.Ўн етти ёшимда Тангут тарафга лашкар тортдим... Ўн саккиз ёшимда Олти чуб суғдақ томонга кўшин тортдим, халқини тор-мор қилдим... Йигирма икки ёшимда Табғач томонга лашкар тортдим.... Тангри ёрлақгани учун, мен муваффақиятга эришганим учун, Турк халқи ғалаба қозонди. Мен томондан давлат бундай бошқарилмаса, Турк халқи ўлажак эди, йўқ бўқлажак эди» [Отаули, 2015: 136-137]. Албатта, муайян халқнинг ғалабасида ҳамда зафар қучишида сиёсий-ҳарбий етакчининг ўрни бекиёс.

Маълумки, тарихий тафаккур аждодларимиз томонидан ижтимоий-тарихий тараққиёт шароитида яратилган моддий ва маънавий бойликларнинг инсон ёки муайян гуруҳ онгида акс этиб, намоён бўлиб, эл ва юрт манфаатлари йўлида хизмат қилиш иштиёқининг устунлик даражадаги инъикосидир. Юқоридаги жиҳатларнинг умумий тил воситасида намоён бўлиши бирлик ва ҳамжиҳатликни таъминлашга хизмат қилади. Шу боис, ҳар бир шахсда тарихий тафаккур ва миллий тил ўзлигини англаб, тарихий қадриятларига содиқ бўлиб, элпарварлик ва ватанпарварлик хислатининг тафаккурда мустаҳкам қарор топиб, тилда ифодаланишини таъминлайдиган асосий омилдир. Тафаккурда юз бераётган эврилишлар шароитида ҳар бир шахс ўзининг ўтмишига ҳурмат ва эҳтиром асосида муносабатда бўлиши тақозо этилади. Шунингдек, тарихий тафаккурда маданий ёки маънавий меросга мансубликни ифодалашда ҳар бир ижтимоий-тарихий даврга хос бўлган йўналтирувчи ғоя зарурий аҳамиятга эга бўлиб, ижтимоий-тарихий тараққиёт давомида тафаккурда элпарварлик ва ватанпарварлик хислатлари ривож бевосита ушбу омил билан боғлиқ. Ушбу жиҳат табиий равишда ўтмишда ягона адабий тилга эга бўлган туркий халқлар бирлиги ва ҳамжиҳатлигини таъминлашда муҳим.

Ўрхун тошбитикларида ўша давр адабий тил имкониятлари асосида битилган аждодларимизнинг зафарли юришлари идроки тарихий тафаккур ривожини таъминловчи омилдир. Аждодларимизга хос бўлган бундай қаҳрамонлик ва эл бирлигини таъминлаш йўлида фаолиятни ўрганиш туркий халқларга мансуб миллатлар орасида ўзликни англаб, тарихий қадриятларга мансублик хислатларининг ривожини таъминлашда ҳам муҳим. Бу туркий халқларда, айниқса ёшларда аждодларимиз руҳига ҳурмат ва эҳтиром руҳини шакллантириш билан бир қаторда, тарихан шаклланган умумий тилга мансублик ҳиссининг юксалишида ҳам аҳамиятлидир.

Маълумки, туркий халқларга хос этно-ижтимоий, маданий ва тарихий жараёнлар тадрижий тақомили, жумладан Ўрхун ёзма ёдгорликлари талқинини «Туркология» фани ўрганади. Ўрхун тошбитикларини ўрганишнинг тарихий босқичларига эътибор қаратгудек бўлсак, 1889 йилда Россия География Жамиятининг Шарқий Сибир бўлими Н.М.Ядринсев бошчилигида экспедиция ташкиллаштириб, дарё ҳавзасидаги бир қатор ёдгорликларни

ўрганди. Ўрхун ёдгорликларининг кашф этилиши туркологиянинг ривожланишида янги шарафли саҳифани очиб, бу шарафли саҳифа Ўрхун-Енисей ёзма ёдгорликлари тилшунослик, илк туркий ёзма ижод намунаси сифатида адабий манба ва тарихий нуқтаи назардан тадқиқ ва таҳлил этилишига илмий доираларда иштиёқ кучлилиги билан аҳамиятлидир. Ва бундай иштиёқ ва зарурат туркология фанининг шаклланиши шарт-шароит яратиб, бугунги кунда ҳам унинг ривожини таъминлаб келмоқда.

«Туркология – шаклланиш жараёни туркий бўлган, туркий тилда сўзлашувчи халқларнинг тилини, адабиётини, тарихини, этнографиясини, маданиятини яна руҳоний, маданий қадриятларини тадқиқ этувчи илмнинг соҳаси. Туркология илмининг номланиши ҳозирги туркий халқларга хос, уларнинг аجدодлари, VI-IX асрларда яшаб, Ўрхун, Енисей, Талас ва бошқа ёзма ёдгорликларни келажак авлодларга мерос этиб қолдирган, бир-неча уруғ ва қабилалар иттифоқидан ташкил топган макроэтнокалик бирлик – туркларнинг номи билан шаклланиб, ривожланиб, ривожланди» [Туймебаев, Ескеева, 2015: 14]. Яъни, туркология фани туркий тилларда сўзлашувчи халқларнинг тиллари, тарихи, этнографияси, дунёқараши, оғзаки ижоди, урф-одат ва анъалари, диалектал ўзига хослик ўзакларида мужассамлашган умумийлик каби жиҳатларни ўрганувчи фан. Туркология фани туркларнинг тадрижий такомил босқичларида ушбу элга хос бўлган тарихий-ғоявий жараёнлар эволюциясини ўрганиш учун манба сифатида тошбитиклардан ҳам манба сифатида фойдаланади. «Ҳозирги туркология фанида турли хил белгилар билан ёзилган туркий ёдгорликлар кенг тарқалган ҳамда улар ўрганилган бўлиб, булар руник, уйғур, манихей, брахма, араб, арман-кипчок, чигатой ёзувларидир» [Великая степ, 2018: 492]. Ва бу тошбитиклар турклар тарихини ўрганиш билан бир қаторда ҳар бир ижтимоий-тарихий даврга хос бўлган ғоявий жараёнларни ўрганишда ҳам муҳим роль ўйнайди. Зеро, ҳар қандай муваффақиятнинг асосида жамият аъзоларида ғоявий яхлитлик, умумфаолиятни таъминлашда сафарбар қилувчи ғояга содиқлик хислатлари ётади.

Ижтимоий-тарихий тараққиёт натижасида туркий халқлар маънавияти юксала борди. Асрлар давомида тўпланган халқ маданияти ва маънавияти, демакки адабий тили ворисийлик анъаналари асосида кейинги авлодларга узатила борди. Шунингдек, ташқи ижтимоий-маданий таъсирлар ички таъсирлар билан бойиб, халқчил моҳият касб этиб бораверди.

Тарихий тафаккур сарчашмалари бўлган Ўрхун ёзма ёдгорликларида аجدодларимизга хос бўлган мардлик, тантилик ва ватанпарварликнинг акс этиши ҳамда бугунги кунда уларни талқин этиб, тарғиб қилиш миллий қадриятларимиз ривожини таъминлаш билан бир қаторда жамиятимиз аъзолари, хусусун ёшлар тафаккуридаги ўзгаришларни таъминлаб, ватанга ва элга муҳаббат ҳиссининг ривожини юксалтириб борадики, бугунги янгиланишлар шароитида эл бирлини янада таъминлаб боришда ушбу омил муҳимдир. Ўтхун битигидаги ушбу жиҳатлар қадимги туркий адабий тил имкониятлари асосида тарғиб этилганлиги эътиборлидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жолдасбеков М., Сарткожаулы К. Атлас Орхонских памятников. – Астана: Культегин, 2006. – С. 8-9.
2. Турсунов Е.Д. Древнетюркский фольклор: истоки и становление. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2001. – С. 8.
3. Батманов И.А. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. – Фрунзе: Изд-во АН Киргизской ССР, 1959. – С. 10.
4. Радлов В.В., Мелиоранский П.М. Древне-тюркские памятники Кошо-Цайдам. – Санкт-Петербург: Типография императорской Академии Наук, 1897. – С. 23.
5. Отаули. Билга ҳокон достони. – Тошкент: «O‘zbekuston», 2015. – Б. 136-137.
6. Народ в потоке истории. Научная серия /Составители Т.Шанбай, А.Ибраева. – Астана: Фоллиант, 2014. – С. 145-146.

7. Туймебаев Ж.Ж., Ескеева М. Туркитанудын тарихи-лингвистикалык негиздери (Историко-лингвистические основы Тюркологии). – Алматы, 2015. – Б. 14.

8. Великая степь: Материалы III Форума гуманитарных наук. I-том. – Астана, 2018. – С. 492.

ТЎРКУНЛАБ КЕТМОҚ ЁКИ ТУРК, ТУРКИЙ АТАМАЛАРИ ҲАҚИДА

Мирзақкулов Турсунали Ўтаевич, филология фанлари доктори, Ипак йўли инновациялар университети профессори

Мирзакулова Феруза Турсуналиевна, Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети магистри

Ўзбек миллий тилининг асосларидан бири қипчоқ лаҳжаси ҳисобланади. Қипчоқ лаҳжасига мансуб қурама шевасида тўркунлаб кетмоқ ибораси ишлатилади. Бу ибора жуда қадимий бўлиб, туркий қабилалар бирлашмалари шаклланаётган даврдаги кўпгина қабилаларга тегишли сўзлардан ҳисобланади. Ибора мазмунидан келин ота-онасиникига тўрт кунга кетди маъносини ҳам англаш мумкин. Аслида тўркун сўзи умум- туркий сўз бўлиб, қадимдан қуйидаги ўзаро яқин шакл ва маъноларда ишлатилган: туркун- “қабила тўпланадиган жой”, “қариндош-уруғлар”, “ота-она уйи” каби.

Маҳмуд Кошғарийнинг XI асрда яратилган “Девону луғотит турк” асарида туркун-“халқ”, “қабила”, “ота-она уйи” маъноларини билдиради. Қирғиз тилида эса тўркун “аёл кишининг ота-онаси ва қариндош-уруғлари” маъносидадир.

Академик В.В. Радловнинг “Туркий лаҳжалар луғати” да бу сўзга “ота, ота-она, аёлнинг барча қариндош-уруғлари” деб изоҳ берилган.

Бошқирд тилида туркен “ота-она уйи”. “Қадимги туркий луғат” (“Древнетюркский словарь”, Л., 1969 581- бетда) туркун, тўркун “уруғ”, “қабила”, “қон-қариндошлар уйи” маънолари қайд этилган. Мўғул тилида торгун (кўплик шакли торгут) “она томондан қариндош-уруғлар”, “аёлнинг қариндошлари” мазмунини англатади. Академик А.Н. Кононовнинг кўрсатишича, тўркун-туркун сўзининг ўзаги тура, туру, тўру шаклида бўлиб, “пайдо бўлмоқ”, “туғилмоқ”, “келиб чиқмоқ” маъноларини билдирган. Бурят тилида турэхэ, мўғулча торох “туғмоқ”, “туғилмоқ”. Кейинчалик туркун сўзининг қисқариши натижасида турк атамаси “ҳукмрон қабилага тегишли зодагонлар оиласига мансуб шахс” маъносида ишлатилган. Олимларнинг фикрича, турк атамаси “ҳоконликни ташкил этган қабилалар уюшмаси”, “ҳарбий –сиёсий уюшма” каби маъноларни ҳам ифодалаган.

Араб тилидаги илмий манбаларда турк атамаси ЕвроОсиё ҳудудларида келиб чиқиши ва тил яқинлигига эга бўлган халқларга нисбатан қўллана бошлаган.

М.Кошғарий “Девону луғотит турк” асарида “Мовароуннаҳрдан Шарққача бўлган ўлкаларни турк шаҳарларидан деб ҳисоблашнинг асоси шуки, Самарқанд - Семизканд, Тошканд- Шош, Ўзканд, Тунканд номларининг ҳаммаси туркчадир. Канд туркча шаҳар демакдир. улар бу шаҳарларни қурдилар ва шундай ном қўйдилар. Ҳозиргача ҳам шундай келмоқда”, -деб ёзади. (III жилд, 164-бет) X-XI асрларда қорлуқ – чигил, қипчоқ, ўғуз каби қабилаларнинг бирлашуви асосида ўзбек халқи шаклланди. Бу халқ турк ва унинг тили туркий тил атамаси билан бошқа халқ ва тиллардан фарқланди.

Амир Темур салтанати ва ҳазрат Алишер Навоий даврида ўзбеклар турк ва ўзбек адабий тилини туркий тил деб номлаш кенг ёйилди.

Алишер Навоий фахр билан ёзади :

Турк назмида чу тортиб мен алам,

Айладим ул мамлакатни якқалам

Мазмуни: мен турк (ўзбек) назмида байроқ кўтариб, ул мамлакатни ягона адабий тилга бирлаштирдим.

Тахти фармонимға олибмен осон,

Черик чекмай Хитодин то Хуросон.

Мазмуни : Қўшин тортмай Хитодин Хуросонгача бўлган ерларни қўл остим (тахти фармоним) га осонлик билан бирлаштирдим.

Атоқли адиб Чингиз Айтматов 80-йилларида Алишер Навоий даври ўзбек маданияти ҳақида фикр юритар экан : “Византия маданияти славян маданиятига қай даражада таъсир ўтказган бўлса, ўзбек маданияти ҳам Ўрта Осиё халқлари маданиятига шу даражада таъсир ўтказган”, - деб ёзган эди.

Аниқ бўладики, қадимда “ота-она уйи”, “қариндош - уруғлар” маъносини ифодаладиган ва курама шевасида ҳозир ҳам ишлатиладиган тўркун сўзидан “қабилалар уюшмаси”, “қабилалар яшайдиган макон-манзил” маъносидаги турк атамаси пайдо бўлган ва бу атама кейинчалик ижтимоий-сиёсий атама сифатида ўзбек халқи, унинг тили маъносида қатъийлашган. А.Навоий ўзбек тилининг мақоми ва мавқеини форсий тил билан чоғиштирган ҳолда турк тили, турк алфози (нутқи), туркий тил номи билан абадий мустаҳкамлади.

Ҳозирги даврда турк атамаси Туркия давлатида яшайдиган асосий этник бирлашмани англатади, келиб чиқиши бир бўлган, тил яқинлигига эга бўлган 30 дан ортиқ халқлар ва уларнинг тиллари туркий халқлар ва туркий тиллар деган ном билан юритилади.

O‘ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA ZONIMLARNING ETNOLINGVISTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Sattarova Nargiza Oblanazarovna

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

nargiza.sattarova@adpi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, ya’ni topishmoqlar tarkibidagi zoonimlarning etnolingvistik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda zoonimlarning narsa-hodisalarni jonlantirish, metafora vositasida umumlashgan obraz yaratish hamda ularning semantik-funksional tabiati ochib beriladi. Maqolada zoonimlarning onomastik tizim bilan bog‘liqligi, xususan, ularning antroponimik va ijtimoiy-statusli modelyatsiyasi tahlil qilinadi. Etnolingvistik jihatdan xalqning hayvonot dunyosiga bo‘lgan munosabati va lingvokulturologik nuqtayi nazardan til-madaniyat o‘zaro ta’siridagi roli yoritiladi. Topishmoq matnlarida atoqli otlarning predmetni yashirish vositasi sifatidagi o‘rni hamda “konseptdan nomga” o‘tish mexanizmlari ilmiy asoslab beriladi. Mazkur izlanish o‘zbek lisoniy olam manzarasida zoonimlarning tutgan o‘rnini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: onomastika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, xalq og‘zaki ijodi, topishmoq, zoonim, antroponim, lisoniy olam manzarasi, madaniy kod, metafora, personifikatsiya.

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию этнолингвистических и лингвокультурологических особенностей зоонимов в узбекских народных загадках. В работе раскрываются семантико-функциональная природа зоонимов, их роль в олицетворении предметов и явлений, а также создание обобщенных образов посредством метафоры. Анализируется связь названий животных с ономастической системой, в частности, их антропонимическое и социально-статусное моделирование. Рассматривается отношение народа к животному миру с этнолингвистической точки зрения и роль взаимодействия языка и культуры в лингвокультурологическом аспекте. Научно обосновывается значение имен собственных как средства шифрования объекта в текстах загадок. Исследование способствует определению места зоонимов в узбекской языковой картине мира.

Ключевые слова: ономастика, этнолингвистика, лингвокультурология, фольклор, загадка, зооним, антропоним, языковая картина мира, культурный код, метафора, персонификация.

Abstract. This article is devoted to the study of ethnolinguistic and linguacultural characteristics of zoonyms in Uzbek folk riddles. The research reveals the semantic-functional nature of zoonyms, their role in the personification of objects and events, and the creation of

generalized images through metaphors. The connection zoonyms with the onomastic system, specifically their anthroponymic and social-status modeling, is analyzed. The study highlights the people's attitude towards the animal world from an ethnolinguistic perspective and the role of language-culture interaction from a linguacultural point of view. The function of proper nouns as a means of concealing the object in riddle texts and the "concept-to-name" mechanisms are scientifically substantiated. This research serves to define the place of zoonyms in the Uzbek linguistic picture of the world.

Keywords: onomastics, ethnolinguistics, linguaculturology, folklore, riddle, zoonym, anthroponym, linguistic picture of the world, cultural code, metaphor, personification.

Kirish. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi milliy madaniyatimizning eng qadimiy va boy qatlamlaridan biri bo‘lib, unda xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari va til boyligi o‘zining yorqin ifodasini topgan. Topishmoq va maqollar kabi folklor janrlari nafaqat aqliy tarbiya va ma’naviy tarbiya vositasi, balki tilning ichki imkoniyatlarini, uning obrazli va metaforik qudratini namoyon etuvchi muhim manbadir. Ushbu janrlarda onomastik birliklar alohida o‘rin tutadi: ular oddiy nomlash vositasi bo‘lib qolmay, balki xalqning lisoniy olam manzarasini shakllantirishda, madaniy kodlarni saqlashda va badiiy obraz yaratishda faol ishtirok etadi.

Asosiy qism. Zamonaviy tilshunoslikda onomastika sohasining taraqqiyoti, xususan, etnolingvistika va lingvokulturologiya yo‘nalishlarining shakllanishi bilan bog‘liq holda, folklor matnlaridagi onomastik birliklarni kompleks tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda. O‘zbek tilshunosligida onomastika sohasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlandi hamda E.Begmatov, T.Nafasov, Z.Do‘simov, S.Qorayev, H.Hasanov kabi olimlarning fundamental tadqiqotlari natijasida muhim ilmiy yutuqlarga erishildi. Biroq, mavjud izlanishlar asosan onomastikaning umumiy masalalari yoki hududiy toponimik birliklar tahliliga yo‘naltirilgan bo‘lib, olimlarning folklor matnlari badiiy-estetik tizimidagi o‘rni va funksiyasi hamon yetarlicha o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqotda o‘zbek xalq topishmoqlari materiallari asosida onomastik birliklarning etnolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari kompleks tarzda tadqiq etiladi. Xususan, onimlarning xalq dunyoqarashi, urf-odatlar va milliy mentaliteti bilan uzviy bog‘liqligi etnolingvistik nuqtayi nazardan, ularning madaniy kod sifatidagi o‘rni hamda metafora va personifikatsiya vositalari orqali umumlashgan obraz yaratishdagi vazifasi lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, onomastik birliklarning badiiy matnda narsa-hodisalarni jonlantirish hamda estetik ta’sirni kuchaytirishdagi funksional-semantik tabiati yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek xalq topishmoqlarida zoonimlarning etnolingvistik tabiatini tahlil qilishda tilshunoslikning onomasiologik, kognitiv va semiotik yo‘nalishlaridagi fundamental qarashlarga tayaniladi. Ushbu jarayonni ilmiy jihatdan asoslashda quyidagi konseptual yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, o‘zbek onomastika maktabining asoschisi akademik E.Begmatov atoqli otlarning lisoniy tabiati va ularning turdosh otlar bilan aloqasini quyidagicha tavsiflaydi: “Atoqli otlar appellativ leksikadan o‘sib chiqadi va unga o‘tib turadi, semantik va funksional transformatsiyalarga uchraydi... Ular tilning lisoniy olam manzarasini shakllantirishda faol ishtirok etadi” [1: 4-5.]. Ushbu metodologik qarash topishmoqlardagi antroponimik birliklarning (masalan, Azamat xo‘ja, Sultonboyvachcha) nima uchun aynan muayyan zoonimik tushunchani ifodalashga yo‘naltirilganini hamda onimlarning lisoniy tahrirdagi dinamikasini izohlashda fundamental xizmat qiladi.

Ikkinchidan, taniqli folklorist Archer Taylor topishmoqlarning janr xususiyatini lisoniy nominatsiya nuqtayi nazaridan baholab, ularni “metaforik ekvivalentlar” tizimi deb ataydi. Olimning ta’kidlashicha, topishmoq matni obyektini bevosita nomlashdan qasddan voz kechib, uning o‘rniga shifrlangan alternativ nomlar (kvazi-nomlar) orqali tinglovchini kognitiv faollikka undaydi [2: 3.]. Bu esa zoonimik topishmoqlardagi lisoniy qurilmalarni shunchaki so‘z o‘yini emas, balki murakkab kognitiv-estetik hodisa sifatida baholashga imkon beradi.

Uchinchidan, topishmoqlarni semiotik tizim sifatida tadqiq etgan Dan Ben-Amos ularni “og‘zaki metaforalar” sifatida tasniflaydi [3: 250.]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, topishmoqdagi har

bir onomastik birlik ma’lum bir denotatni anglatuvchi simvol vazifasini bajaradi. Tadqiqotimizda tahlilga tortilgan zoonimik obrazlar aynan mana shu semiotik tizimning tarkibiy qismi bo‘lib, lisoniy belgi va tushuncha o‘rtasidagi assotsiativ bog‘liqlikni yuzaga chiqaradi.

To‘rtinchidan, zamonaviy kognitiv tilshunoslik namoyandalari J. Lakoff va M. Jonson nazariyasiga ko‘ra, metafora va personifikatsiya shunchaki badiiy tasvir vositasi emas, balki inson tafakkurining fundamental kognitiv mexanizmi hisoblanadi [4: 35.]. Topishmoq ijodkori subyektiv etnik tajribaga tayangan holda obyektini (masalan, chumolini) insoniy sifatlar hamda miflik-ijtimoiy onimlar (masalan, kulrang ot) bilan nomlar ekan, bu jarayon “konseptdan nomga” yo‘nalgan onomasiologik tamoyil asosida amalga oshadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari tarkibidagi onomastik birliklarning milliy-madaniy va lisoniy xususiyatlarini ochib berish, ularning til va madaniyat o‘zaro ta’siridagi o‘rnini aniqlashdan iboratdir. Bu orqali folklor tilining lisoniy tabiatini chuqurroq anglash bilan birga, o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlarning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirishga hissa qo‘shish ko‘zda tutilgan.

Belgilangan ushbu maqsadga erishish uchun xalq topishmoqlarini onomasiologiya va onomastika chorrahasida tadqiq etish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu fanlar kesishmasida topishmoq matni noyob lisoniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi: unda tilning an’anaviy nomlash vositalari (standart zoonimlar – ot, eshak, chumoli, xo‘roz, ari va h.k.) qasddan yashiriladi va ularning o‘rniga yangi, kognitiv-obrazli metaforik kvazi-nomlar yuzaga keladi. Mazkur jarayon tilning nominativ quvvatini, ya’ni muayyan bir tushunchani turli kreativ strategiyalar orqali qayta nomlash imkoniyatlarini amaliy jihatdan namoyon etadi.

O‘zbek onomastikasining asoschisi E.Begmatov ta’kidlaganidek, “til lug‘at tarkibida atoqli otlar o‘ziga xos alohida qatlam sifatida ajratiladi” hamda ular appellativ leksika bilan doimiy aloqada bo‘lib, semantik va funksional transformatsiyalarga uchraydi [1: 4]. Folklor matni, xususan, topishmoq janri bu jarayonni o‘ziga xos tarzda amalga oshiradi: unda standart zoonim (javob) qasddan “yashirin” holatga keltirilib, uning o‘rniga metafora, personifikatsiya va sinekdoxa vositalari yordamida yaratilgan kvazi-nomlar faollashadi.

Aslida, topishmoq matni – bu o‘ziga xos nominativ o‘yin maydonidir. Unda predmetning haqiqiy nomi yashirilishi shunchaki janr talabi emas, balki tinglovchini kognitiv bog‘lanishlarni izlashga undovchi lisoniy mexanizmdir. Ushbu jarayonda qo‘llaniladigan tavsifiy va personifikatsiyalangan kvazi-nomlar oddiy leksik birikmalar bo‘lmay, balki tilning ichki imkoniyatlari hisobiga yaratilgan yangi nominativ birliklar sanaladi. Bunday birliklar zoonimning semantik maydonini kengaytiradi, uni kognitiv jihatdan “qayta nomlaydi” va xalqning lisoniy olam manzarasini boyitadi. Natijada, tilning nominativ quvvati oshishi bilan birga, milliy madaniyatga xos etnik kodlar ham lisoniy shaklda muhrlanadi.

O‘zbek xalq topishmoqlarida zoonimik javob (referent) va uning matndagi tavsifi o‘rtasida murakkab kognitiv-lisoniy bog‘lanish mavjud bo‘lib, u quyidagi ilmiy parametrlar asosida namoyon bo‘ladi:

1. Topishmoq matnida haqiqiy zoonim (standart nom) yashirin holatga o‘tkaziladi va uning o‘rniga tavsifiy kvazi-nomlar tizimi yuzaga keladi. Ushbu jarayon sinekdoxa, metafora va personifikatsiya kabi lisoniy mexanizmlar orqali reallashadi:

Masalan, 1) javob: Ot → Kvazi-nom: “To‘rt oyaqli, temir tuyoqli” (sinekdoxa — qism orqali butunni ifodalash); 2) javob: Eshak → Kvazi-nom: “Tapir-tupir to‘rtovlon, hangragani birovlon” (onomatopeya va personifikatsiya); 3) javob: Chumoli → Kvazi-nom: “Beli nozik kurang ot” (zoonimik metafora).

Taniqli tilshunos S. Dadaboyev ta’kidlaganidek, “Badiiy matnda nominatsiya jarayoni faqat nomlash emas, balki predmetning mohiyatini yangidan ochishga xizmat qiladi” [5: 12.]. Topishmoqdagi kvazi-nomlar ham aynan obyektning lisoniy mohiyatini kognitiv jihatdan qayta modellashtiradi.

2. Topishmoq matni va uning javobi o‘rtasida muayyan “semantik bo‘shliq” mavjud bo‘lib, uni to‘ldirish tinglovchidan yuqori kognitiv faollikni talab etadi. Archer Taylor yondashuviga ko‘ra, bu bo‘shliq tinglovchini metaforik tavsifni tahlil qilishga va xalqning madaniy-etnik

tajribasini ishga solishga majbur qiladi [2: 3.]. Natijada tilning nominativ mexanizmi “qayta ishga tushadi” – an’anaviy zoonim yangi atributiv belgilar orqali qayta kashf etiladi.

3. Kvazi-nomlar shunchaki lisoniy tavsif emas, balki chuqur madaniy kodlardir. Masalan, chumoliga nisbatan qo‘llanilgan “kurang ot” metaforasi o‘zbek lisoniy olam manzarasida otning “kuch va chidamlilik” etaloni ekanligidan dalolat beradi. Bu o‘rinda onomasiologiya nomlashning kognitiv bosqichlarini yoritib bersa, onomastika ushbu kvazi-nomlarning konnotativ tabiatini asoslaydi. E. Begmatov qayd aytganidek, “Atoqli otlar zamirida milliy madaniyat, tarix va etnik tasavvurlar muhrlangan bo‘ladi” [1: 6.].

4. Topishmoqdagi kvazi-nomlar personifikatsiya vositasida predmetni shaxslantiradi va umumlashgan obraz yaratadi. Standart zoonim (javob) esa bu badiiy obrazni kundalik denotatga qaytarish orqali mantiqiy nuqtani qo‘yadi. Bu jarayon tilning nominativ quvvatini, ya’ni bitta tushunchani cheksiz lisoniy variatsiyalarda ifodalash imkoniyatini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq topishmoqlari tizimida zoonimlar nafaqat obyekt nomi, balki murakkab kognitiv-estetik model sifatida namoyon bo‘ladi. Quyida “Ot” zoonimi misolida ushbu lisoniy jarayonni tahlil qilamiz:

Zoonim: Ot. Kvazi-nomlar (nominativ variatsiyalar): 1. *“To‘rt oyaqli, temir tuyoqli”*. 2. *“Suvday chopadi, manzilga yetadi”*.

Mazkur topishmoqlarda nominatsiya jarayoni qayta nomlash tamoyili asosida amalga oshgan. *Sinekdoxik nominatsiya:* Birinchi kvazi-nomda (“to‘rt oyaqli, temir tuyoqli”) hayvonning butun tanasi uning funksional tayanch nuqtalari – oyoq va tuyoq orqali ifodalangan. Bu yerda obyektning eng muhim identifikatori uning lisoniy kodiga aylantirilgan. *Metafora:* Ikkinchi namunadagi “suvday chopadi” birikmasi harakatning dinamik xususiyatini gidronimik obraz orqali ifodalaydi. Suvning to‘xtovsizligi va shiddati zoonimning “tezlik” semasini kognitiv jihatdan kuchaytiradi. Akademik E. Begmatov ta’kidlaganidek, bunday lisoniy transformatsiyalar “so‘zning nominativ va funksional imkoniyatlarini kengaytirib, uning zamiridagi madaniy qatlamlarni faollashtiradi” [1: 4].

Ot zoonimining topishmoq matnida “temir” va “suv” kabi tushunchalar bilan assotsiatsiyalanishi bevosita o‘zbek xalqining qadimiy chorvachilik va ko‘chmanchilik madaniyati bilan bog‘liq. Temir (taqa) – sivilizatsiya va chidamlilik ramzi, suv – hayot va cheksizlik ramzi sifatida zoonimga lingvokulturologik konnotatsiya yuklaydi. Shuningdek, topishmoq matnida ot shunchaki ish hayvoni emas, balki “manzilga yetkazuvchi” – sadoqatli yo‘ldosh sifatida ideallashtiriladi. Bu esa tilshunoslikda lisoniy shaxsning olam manzarasini shakllantiruvchi muhim etnomadaniy komponent hisoblanadi.

Ushbu nominativ strategiya Archer Taylorning “metaforik ekvivalentlik” nazariyasini tasdiqlaydi: topishmoq obyektini bevosita nomlashdan qochish orqali, uning lisoniy maydonini atributiv belgilar bilan boyitadi. Natijada “ot” zoonimi topishmoq ichida o‘zining birlamchi denotativ ma’nosidan uzoqlashib, “shiddat + sadoqat + qudrat” tushunchalarini birlashtiruvchi onomastik konseptga aylanadi.

“Eshak” zoonimi misolida. Kvazi-nomlar: “Quyong emas, uzun quloq. Ot emas, to‘rtta tuyoq” hamda “Tapir-tupir to‘rtovlon, hangragani birovlon”.

Mazkur topishmoqlarda inkor (quyon emas / ot emas) va onomatopeik personifikatsiya (tapir-tupir, hangrash) usullari yetakchilik qiladi. Differensial belgilarning (uzun quloq, tuyoq) boshqa hayvonlar bilan qarama-qarshi qo‘yilishi ob’ektning lisoniy portretini aniqlashtiradi. Eshak xalq lisoniy olam manzarasida nafaqat mehnat hayvoni, balki “ekstremal sabr” va “qanoat” madaniy kodi sifatida gavdalanadi. “Birovlon hangrash” – uning ijtimoiy-biologik individual identifikatoridir.

“Tuya” zoonimi misolida. Kvazi-nomlar: “Oyoqi popik, og‘zi ko‘pik” va “Og‘zi qulqulum, uzun oyoqu kalta dum”. Bu yerda eksterer nominatsiyasi (tashqi ko‘rinish tavsifi) metonimiya vositasida berilgan. “Popik oyoq” va “qulqulum og‘zi” kabi birliklar tuyaning morfologik xususiyatlarini onomastik konnotatsiyaga ko‘chiradi. Standart nomning yashirilishi va uning o‘rniga vizual-akustik obrazlarning qo‘yilishi tilning nominativ potensialin namoyon etadi.

“Echki” zoonimi misolida. Kvazi-nomlar: “Soqoli bor, mo‘ylovi yo‘q” va “Soqoli bor, aqli yo‘q”. Ikkinchi namunada ironik personifikatsiya yetakchi o‘rin tutadi. “Aqli yo‘q” semasi

hayvonning inijligi va boshqarilishi qiyinligiga ishora qiluvchi etnolingvistik koddir. Xalq mentalitetida echki ko‘pincha “beqarorlik” yoki “shaytoniy epcillik” (Taka – Sultonmurod misolida ko‘rilganidek) timsoli sifatida lisoniy shakllantiriladi.

“Qo‘y” zoonimi misolida. Kvazi-nomlar: “Aylantirilgan to‘ni bor” va “Buyuk tog‘ning boshida bukri qo‘chqor o‘ynaydi”. “Aylantirilgan to‘n” metaforasi obyektning asosiy iqtisodiy-biologik qiymati (juni)ga ishora qiladi. “Bukri qo‘chqor” obrazi esa uning shoxlari va harakat dinamikasini personifikatsiyalash orqali beradi. Bu o‘rinda onomasiologik yo‘nalish “shakl → nom” tamoyili asosida qurilgan.

“It” zoonimi misolida. Kvazi-nomlar: “Savatdek yerni oladi” va “Soyada yotar, ming qo‘y boqar”. Bu yerda giperbolik metafora (ming qo‘y boqar) orqali itning xizmat ko‘rsatish funksiyasi ulug‘lanadi. “Savatdek yerni olish” – uning uxlash holatini geometrik shakl orqali qayta nomlashdir. Bu lisoniy personajda sadoqat va hushyorlik semalari dominantlik qiladi.

“Mushuk” va “Fil” zoonimlari misolida. Mushuk: “Kichkinagina qumg‘on, o‘tirib ko‘zini yumg‘on”. Qumg‘on metaforasi hayvonning tan tuziishiga, personifikatsiyalangan harakat (ko‘zini yumish) esa uning sirliligiga ishora.

Fil: “Uyday joyni olar, sichqondan qo‘rqar”. Bu yerda paradoksal personifikatsiya usuli qo‘llanilgan. Katta hajm (uyday) va kutilmagan qo‘rquv (sichqon) o‘rtasidagi kontrast filning lisoniy portretidagi kognitiv qarama-qarshilikni ochib beradi.

Tahlil etilgan zoonimik topishmoqlar shuni ko‘rsatadiki, xalq og‘zaki ijodida hayvon nomlari shunchaki biologik termin emas, balki kognitiv-metaforik birliklardir. Ularning kvazi-nomlar orqali qayta nomlanishi tilning nominativ tizimi naqadar moslanuvchan va madaniy kodlarga boy ekanligini isbotlaydi. Har bir zoonim zamirida o‘zbek xalqining ko‘p asrlik kuzatuvlari, hazil-mutoyibasi va hayotiy falsafasi muhrlangan.

Folklor matnlarida yovvoyi tabiat vakillarining tavsifi faqat tashqi belgilar bilan cheklanib qolmay, ularning etnik dunyoqarashdagi ijtimoiy va mifologik maqomini ham ochib beradi.

1. Yo‘lbars: “Yo‘l-yo‘l to‘ni bor, odam qo‘rqar turqi bor.” Ushbu kvazi-nomda tekstil metaforasi (yo‘l-yo‘l to‘n) orqali hayvonning terisi ijtimoiy status belgisi (to‘n) sifatida modellashtirilgan. Akademik E.Begmatov ta’kidlaganidek, atoqli otlar va ularning o‘rnini bosuvchi birliklar madaniy yuklamani o‘zida mujassamlashtiradi [3: 6]. Etnolingvistik jihatdan yo‘lbars obrazi “ehtirof va qo‘rquv” kontrastini yuzaga chiqaradi, bu esa uning o‘zbek mentalitetidagi “tabiat podshosi” sifatidagi arxetipik maqomini tasdiqlaydi.

2. Ayiq: “Kelganda to‘rt oyoq, ketganda ikki oyoq.” Mazkur nominativ model antropomorfik personifikatsiya asosiga qurilgan. Ayiqning harakati insoniy qiyofaga yaqinlashtirilishi orqali uning folklorik “Polvon bobo” obrazi vizuallashadi. Archer Taylor yondashuviga ko‘ra, bunday metaforik ekvivalentlar tinglovchida kognitiv assotsiatsiyani faollashtiradi [2: 3]. Lingvokulturologik jihatdan ayiq – xavf va hazil o‘rtasidagi madaniy koddir.

3. Bo‘ri: “Dalama-dala qidiradi, qo‘y bilan echki oh uradi.” Bu yerda giperbolik lokativ (dalama-dala) va akustik onomatopeya (oh uradi) vositasida dushmanlik arxetipi yaratilgan. Etnolingvistik nuqtayi nazardan, bo‘ri chorvador xalqning real hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda “yirtqichlik va ochko‘zlik” ramzi sifatida kognitiv diskursga kiradi.

4. Tulki: “Qashqir mangan, eshak o‘ngargan, echki haydagan, tuya yetaklagan.” Kvazi-nom iyerarxik ironiya asosida yaratilgan. Tulkining jismonan kuchli hayvonlarni “boshqarishi” uning intellektual ustunligini anglatuvchi madaniy koddir. Bu mentalitetda “kuchsiz, lekin aql bilan g‘olib” g‘oyasini aks ettiradi va hazil-mutoyiba an‘anasini boyitadi.

5. Kiyik: “Shoxlari bor qo‘chqordek, bo‘yi misli daraxtdek.” Bu o‘rinda komparativ metafora yetakchilik qiladi. Kiyikning estetik go‘zalligi flora va fauna olami birligi orqali tavsiflanadi. Lingvokulturologik jihatdan kiyik – erkinlik va tabiat nafosati kodi hisoblanadi.

6. Sichqon: “Tokchama-tokcha, Azamat xo‘ja.” Ushbu topishmoq antroponimik nominatsiyaning eng yorqin namunasidir. Sichqonga nisbatan qo‘llanilgan “Azamat xo‘ja” onimi uning ijtimoiy munosabatlar maydonidagi ziyraklik va ustomonlik xususiyatini shaxslantiradi. Bu kognitiv mexanizm kichik obyektning katta ijtimoiy status (xo‘ja) bilan nomlash orqali lingvistik kontrast yaratadi.

Xulosa. Topishmoqlarda predmetni qayta nomlash (renominatsiya) jarayoni an’anaviy zoonimni metafora, sinekdoxa va personifikatsiya vositasida kvazi-nomlar bilan almashtirish orqali amalga oshadi. Bu jarayon tilning nominativ potensialini namoyon etadi. Har bir zoonim zamirida xalqning ko‘p asrlilik chorvachilik, ovchilik va kuzatuvchanlik tajribasi muhrlangan. Hayvonlarga nisbatan qo‘llanilgan “Sulton”, “Xo‘ja”, “Polvon”, “Azamat” kabi onimlar xalq mentalitetidagi ijtimoiy-madaniy modellarning tabiatga ko‘chishidir. Zoonimlar o‘zbek lisoniy olam manzarasida murakkab madaniy kodlar vazifasini bajaradi. Ular bolalar va tinglovchilar ongida tabiatni jonli va ijtimoiy sub’ekt sifatida idrok etish mexanizmini faollashtiradi. Topishmoq matni – bu nafaqat lisoniy o‘yin, balki milliy mentalitet va qadriyatlarni avloddan-avlodga o‘tkazuvchi muhim kognitiv vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1992. – 144 b.
2. Taylor A. English Riddles from Oral Tradition. – Berkeley: University of California Press, 1951. – 959 p.
3. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – 108 b.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 276 p.
5. Ben-Amos D. Folklore Genres. – Austin: University of Texas Press, 1976. – 291 p.
6. Dadaboev S. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – 160 b.
7. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqqa, 2010. – 352 b.

TIL — MILLATNING BORLIG‘I VA MILLIY-MA’NAVIY-RUHIYATI

Axrorjonova Nafisa G‘olibjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
E-Mail: axrorjonovanafisa@gmail.com
Tel: +998998388783

Annotatsiya:

Ushbu maqolada millatning mavjudligi va barqaror rivoji uning milliy ma’naviy-ruhiyati bilan uzviy bog‘liqligi badiiy va mazmunli tarzda yoritiladi. Asarda ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar millat ruhining asosi sifatida talqin qilinadi. Muallif milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash hamda yosh avlod qalbida ma’naviy merosga sadoqatni shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy ruhiyatni asrash va boyitish masalasi badiiy ifodalar orqali ochib berilib, millat kelajagi aynan shu ruhiy poydevorga tayanishi g‘oyasi ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar:

millat, milliy ma’naviyat, ruhiyat, milliy o‘zlik, qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar, vatanparvarlik, ma’naviy meros, globallashuv, birlik, fidoyilik, yosh avlod, madaniyat, milliy ong

Kirish:

Har qanday millatning borligi va uning tarixiy taraqqiyoti, eng avvalo, uning milliy ma’naviy-ruhiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Zero, insonni inson qiladigan, jamiyatni esa mustahkamlaydigan kuch — bu ma’naviyatdir. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ta’kidlaganidek, “odamiylikning mezoni — bu ezgulik va komillik sari intilishdir”. Bu fikr milliy ruhiyatning inson kamolotidagi o‘rnini yaqqol ifodalaydi.

Milliy ma’naviy-ruhiyat — bu xalqning asrlar davomida shakllangan ichki dunyosi, uning orzu-intilishlari, qadriyatlari va hayotiy qarashlarining mujassamidir. Bu borada buyuk olim Abu Nasr Forobiy jamiyatning barkamolligi, avvalo, undagi insonlarning ma’naviy yetukligiga bog‘liq ekanini alohida qayd etgan. Demak, millatning kuchi nafaqat uning iqtisodiy yoki siyosiy salohiyatida, balki uning ma’naviy-ruhiy poydevorida ham namoyon bo‘ladi.

Bugungi globallashuv sharoitida turli madaniyatlar o‘zaro ta’sirga kirishar ekan, milliy o‘zlikni saqlab qolish, ma’naviy merosni asrash masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu jihatdan, Abdulla Avloniy ning “tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot masalasidir” degan hikmati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki aynan tarbiya orqali milliy ruhiyat avloddan-avlodga o‘tadi va mustahkamlanadi.

Mazkur maqolada millatning borligi va uning milliy ma’naviy-ruhiyati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, ushbu tushunchaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda uni asrab-avaylash zarurati ilmiy-badiiy yondashuv asosida yoritiladi.

Asosiy qism

Millatning borligi uning milliy ma’naviy-ruhiyati bilan bevosita bog‘liq. Til, urf-odat, madaniyat va qadriyatlar millat ruhining tayanchi bo‘lib, ularni asrab-avaylash orqali xalq o‘zligini saqlaydi va avloddan-avlodga yetkazadi. Til millatning eng muhim belgisidir. Til orqali tarix, adabiyot, ilm-fan va madaniyat saqlanadi, insonlar o‘rtasida muloqot, birlik va milliy o‘zlik mustahkamlanadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ta’kidlashicha, til va adabiyot millatning ko‘zgusi, uning qalbidir. Tilni asrash — millatni asrash demakdir. Shu bois, har bir avlod milliy tilga e’tibor berib, uni toza va ravon saqlashi zarur.

Milliy ma’naviy-ruhiyat esa xalqning tarixiy tajribalari, qadriyatlari, odat va an’alarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bu ruhiyat insonlarni Vataniga sadoqatli, vatanparvar va bir-biriga mehribon bo‘lishga o‘rgatadi. Buyuk olim Abu Nasr Forobiy jamiyatning rivoji, barkamolligi va tinchligi avvalo uning insonlari ma’naviy yetuk bo‘lishiga bog‘liqligini ta’kidlagan.

Globalashuv davrida milliy qadriyatlar va ma’naviy-ruhiyatni asrab qolish masalasi ayniqsa dolzarbdir. Zamonaviy hayotning tezkor o‘zgarishlari, turli madaniyatlarning aralashuvi milliy o‘zlikni susaytirishi mumkin. Shu bois har bir inson o‘zining ma’naviy va madaniy merosini qadrlashi, yosh avlodni milliy ruhiyat ruhida tarbiyalashi lozim.

Shunday qilib, millatning borligi va uning barqaror rivoji bevosita til va milliy ma’naviy-ruhiyat bilan bog‘liq. Til millatning ko‘zgusi, ma’naviy-ruhiyat esa uning yuragi bo‘lib, bu ikki omil birgalikda millatni mustahkamlab, uni kelajak avlodga yetkazadi.

Xulosa

Shuni ta’kidlash joizki, millatning borligi uning milliy ma’naviy-ruhiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Til millatning ko‘zgusi bo‘lib, uni asrab-avaylash orqali xalq o‘zligini saqlaydi va ajdodlar merosini kelajak avlodga yetkazadi. Milliy ma’naviy-ruhiyat esa insonlarni vatanparvarlik, birlik va fidoyilik ruhida tarbiyalaydi, jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotining poydevorini yaratadi.

Buyuk allomalar ta’kidlashicha, tilni asrash — millatni asrash, ma’naviyatni rivojlantirish esa uning kelajagini mustahkamlash demakdir. Shu bois har bir avlod o‘z milliy qadriyatlarini qadrlashi, uni boyitishi va yoshlar qalbiga singdirishi muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, millatning borligi til va milliy ma’naviy-ruhiyatning mustahkamligiga bog‘liq. Bu ikki omil millatni birlashtiradi, kuch-quvvat bag‘ishlaydi va uni kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu sababli milliy ruhiyatni asrab-avaylash har birimizning eng muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. *Tarbiya va ma’naviyat*. Toshkent: O‘zbekiston, 1985
2. Abu Rayhon Beruniy. *Tarixiy asarlar va ilmiy izlanishlar*. Toshkent: Fan, 1995.
3. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-Qulub*. Toshkent: O‘zbekiston, 2002.

3-SHO‘BA - O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

O‘ZBEK TOPONIMIKASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Ergasheva Nodira Abdurayimovna

+99890 732 68 16

Annotatsiya: O‘zbek toponimikasini o‘rganishda lingvistik tahlil usullari bilan bir qatorda tarixiy-qiyosiy va etimologik tahlil usullari ham keng qo‘llaniladi. Tarixiy-qiyosiy usul orqali toponimlarning turli davrlardagi shakllari va o‘zgarishlari aniqlanadi, etimologik tahlil esa ularning asl ma’nosi va kelib chiqishini ochib beradi. Bu usullar toponimlarning ilmiy izohini berishda asosiy nazariy tayanch hisoblanadi.

Toponimlar tizimini o‘rganishda areal va lingvogeografik yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: o‘zbek toponimikasini, lingvistik tahlil, ilmiy-nazariy asoslari, joy nomlari.

Аннотация: При изучении узбекской топонимики наряду с лингвистическими методами анализа широко применяются также историко-сопоставительный и этимологический методы. С помощью историко-сопоставительного метода выявляются формы топонимов в различные периоды и их изменения, а этимологический анализ раскрывает их исходное значение и происхождение. Данные методы являются основными теоретическими опорами при научном толковании топонимов. При изучении системы топонимов важное значение имеют также ареальный и лингвогеографический подходы.

Ключевые слова: узбекская топонимика, лингвистический анализ, научно-теоретические основы, географические названия.

Abstract:

In the study of Uzbek toponymy, along with linguistic methods of analysis, historical-comparative and etymological methods are also widely used. The historical-comparative method helps identify the forms of toponyms across different periods and their changes, while etymological analysis reveals their original meaning and origin. These methods serve as the main theoretical foundations for the scientific interpretation of toponyms. Areal and linguo-geographical approaches are also of great importance in studying the system of toponyms. **Keywords:** Uzbek toponymy, linguistic analysis, scientific-theoretical foundations, geographical names.

Toponimika tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo‘lib, u joy nomlarini o‘rganish, ularning kelib chiqishi, ma’nosi, shakllanish jarayonlari va funksional xususiyatlarini tadqiq etish bilan shug‘ullanadi. O‘zbek toponimikasi esa milliy til va madaniyatning ajralmas qismi sifatida xalqning tarixiy xotirasi, etnik tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va tabiiy muhiti haqida qimmatli ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan. Shu jihatdan, o‘zbek toponimikasining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, geografiya, etnografiya kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Har qanday toponim manba inson faoliyatining mahsuli bo‘lib, u geografik obyekt nomi sifatida yer yuzining muayyan nuqtasida shakllangan. Har bir davr o‘zining o‘ziga xos ijtimoiy tuzilmasi, mafkurasi va madaniyati, e’tiqodiy qarashlari, hududning tabiiy holati va hayot tarziga tayanib joy nomlarini yaratadi. Shu sababli, toponimlar insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarini aks ettiruvchi tarixiy belgilar bo‘lib, ularda xalqning hayot tarzi, madaniy qadriyatlari va muhim voqea-hodisalar o‘z aksini topadi. Geografik nomlar oddiy so‘zlar majmuasi emas, balki xalqning tarixi, tili va madaniy xotirasini o‘zida mujassam etgan bebaho ma’lumot manbaidir³⁰.

Toponimika ilmiy fan sifatida umumiy onomastika tizimi tarkibiga kiradi. Onomastika inson tomonidan qo‘llaniladigan barcha nomlar tizimini o‘rgansa, toponimika shu tizimning joy nomlariga oid qismini tashkil etadi. O‘zbek toponimikasida geografik obyektlarning nomlari turli

³⁰Охунов Н. Тил ва жой номлари. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1988. – Б.3.

manbalar asosida shakllangan bo‘lib, ularning asosiy qismini gidronimlar, oronimlar, oykonimlar va mikrotoponimlar tashkil qiladi. Bu nomlar o‘z navbatida tabiiy-geografik sharoit, etnik omillar, tarixiy voqealar va madaniy ta’sirlar natijasida yuzaga kelgan.

O‘zbek toponimikasining ilmiy-nazariy asoslarini belgilashda eng muhim masalalardan biri — toponimlarning kelib chiqish manbalarini aniqlashdir. O‘zbek tilidagi joy nomlari turkiy, eron, arab va boshqa til manbalariga ega bo‘lishi mumkin. Bu holat Markaziy Osiyo hududidagi ko‘p asrlik etnik va madaniy aloqalar natijasidir. Masalan, turkiy qatlamga mansub toponimlar tabiat xususiyatlari, hayvonot va o‘simlik dunyosi bilan bog‘liq bo‘lsa, eron va arab manbalariga oid toponimlar ko‘proq madaniy va diniy ta’sirlar natijasida shakllangan.

Toponimlarning shakllanishida morfologik va semantik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Morfologik jihatdan toponimlar sodda, qo‘shma va birikmali shakllarda uchraydi. Sodda toponimlar bir ildizdan tashkil topgan bo‘lsa, qo‘shma toponimlar ikki yoki undan ortiq asosning birlashishi natijasida yuzaga keladi. Birikmali toponimlar esa sintaktik birikma shaklida bo‘lib, ularda atribut va aniqlanmish munosabati kuzatiladi. Bu kabi tuzilishlar toponimlarning ma’nosi va vazifasini aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

Semantik nuqtai nazardan toponimlar muayyan ma’no yuklamasiga ega bo‘lib, ular orqali geografik obyektning xususiyatlari ifodalanadi. Masalan, joyning relyefi, iqlimi, suv manbalari yoki o‘simlik qoplamasi toponimlarda aks etadi. Shu bilan birga, ayrim toponimlar inson faoliyati, kasb-hunar, urug‘-qabila nomlari yoki tarixiy shaxslar nomi bilan bog‘liq holda shakllangan. Bu holat toponimlarning nafaqat til birligi, balki madaniy-tarixiy hujjat sifatida ham qimmatli ekanligini ko‘rsatadi.

Birinchi qarashda mantiqsiz yoki tushunarsiz tuyulgan ba’zi joy nomlari chuqur tadqiq etilganda, kutilmagan tarixiy va lingvistik ma’nolarni ochib berishi mumkin. Shu sababdan, har bir toponim maxsus ilmiy tahlilni talab qiladigan muhim tarixiy-madaniy meros hisoblanadi. Ba’zan geografik obyekt nomi o‘z asosini tashkil etgan o‘simlik yoki hayvon yo‘qolib ketgan bo‘lsa ham, ushbu toponim lingvistik xotira sifatida saqlanib qoladi³¹.

O‘zbek toponimikasini o‘rganishda lingvistik tahlil usullari bilan bir qatorda tarixiy-qiyosiy va etimologik tahlil usullari ham keng qo‘llaniladi. Tarixiy-qiyosiy usul orqali toponimlarning turli davrlardagi shakllari va o‘zgarishlari aniqlanadi, etimologik tahlil esa ularning asl ma’nosi va kelib chiqishini ochib beradi. Bu usullar toponimlarning ilmiy izohini berishda asosiy nazariy tayanch hisoblanadi.

Toponimlar tizimini o‘rganishda areal va lingvogeografik yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar orqali ma’lum bir hududdagi toponimlarning tarqalishi, ularning o‘zaro aloqasi va umumiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Masalan, muayyan hududdagi toponimlarda ma’lum bir til qatlamining ustunligi yoki muayyan nomlash an’anasining saqlanib qolganligi kuzatilishi mumkin. Bu holat esa o‘sha hududning etnik va tarixiy rivojlanishini yoritishga xizmat qiladi.

O‘zbek toponimikasining nazariy asoslarini shakllantirishda milliy va umumjahon toponimikasidagi ilmiy qarashlar muhim o‘rin tutadi. Toponimlarni klassifikatsiya qilish, ularning tipologiyasini aniqlash, nomlash modellarini belgilash kabi masalalar bu sohadagi asosiy nazariy muammolardan hisoblanadi. Shu bilan birga, toponimlarning funksional jihatdan tahlili, ya’ni ularning kommunikatsiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyati ham nazariy tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi.

Zamonaviy toponimikada antropotsentrik yondashuv ham keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuvga ko‘ra, toponimlar insonning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tajribasi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Ya’ni joy nomlari nafaqat obyektning belgilash vositasi, balki insonning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini ifoda etuvchi til birligi sifatida qaraladi. Bu esa toponimlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

O‘zbek toponimikasining yana bir muhim nazariy masalasi — nomlash motivlarini aniqlashdir. Har bir toponim muayyan sabab va motiv asosida yuzaga keladi. Bu motivlar tabiiy-

³¹Усмонов М., Ҳакимов Қ.М., Бурхонов Э. Зоотопонимлар географияси ҳақида. Ўзбекистон география жамияти ахборотномаси. 42-жилд. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2013. – Б. 68-70.

geografik, iqtisodiy, ijtimoiy yoki madaniy omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, suv manbalariga yaqin joylar suv bilan bog‘liq nomlar bilan atalsa, qishloq xo‘jaligi rivojlangan hududlarda esa dehqonchilikka oid nomlar ko‘proq uchraydi. Bu holat toponimlarning motivlanganlik xususiyatini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, toponimlarning o‘zgarish va rivojlanish jarayoni ham ilmiy-nazariy jihatdan muhimdir. Tarixiy davrlar davomida joy nomlari fonetik, morfologik va semantik jihatdan o‘zgarishi mumkin. Bu o‘zgarishlar til taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy omillar va madaniy ta’sirlar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Shu sababli toponimlarni o‘rganishda ularning tarixiy dinamikasiga e’tibor qaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek toponimikasining ilmiy-nazariy asoslari ko‘p qirrali va murakkab tizimni tashkil etadi. Unda tilshunoslik, tarix, geografiya va etnografiya fanlarining uyg‘unligi namoyon bo‘ladi. Toponimlarning kelib chiqishi, tuzilishi, ma’nosi va funksional xususiyatlarini chuqur o‘rganish orqali milliy madaniyat va tarixni yanada teran anglash mumkin. Shu bois o‘zbek toponimikasini ilmiy asosda tadqiq etish va uning nazariy bazasini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Охунов Н. Тил ва жой номлари. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1988. – Б.3.
2. Усмонов М., Ҳакимов Қ.М., Бурхонов Э. Зоотопонимлар географияси ҳақида. Ўзбекистон география жамияти ахборотномаси. 42-жилд. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2013. – Б. 68-70.
3. Низомов А. Топонимика. – Тошкент, “Шарқ”, 2013. – Б.10-18.
4. Хасанов Н. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент, “Фан”, 1965. – Б.18.
5. Аҳмадалиев А.А. Топонимика ва географик терминшунослик. – Фарғона, 2018. – Б. 31-34.

O‘ZBEK TILIDAGI -MOQCHI + EDI, -DIGAN + EDI SHAKLLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Muminova Aziza Odilovna
Doktorant (DSc) Samarqand davlat chet tillar instituti
Samarqand, O‘zbekiston
aziza-310187@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu tezisda o‘zbek tilidagi o‘tgan zamon maqsad shakli (*-moqchi edi, -digan edi*)ning semantik va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Mazkur shakl harakatning bajarilganligini emas, balki o‘tmishda yuzaga kelgan maqsad-niyatni ifodalashi asoslab beriladi. Turli olimlar qarashlari solishtirilib, ushbu shaklning modallik ma’nolari ochib beriladi hamda uni o‘tgan zamon shakllari paradigmasiga kiritmaslik zarurligi xulosalanadi.

..... **Kalit so‘zlar:** o‘tgan zamon, sifatdosh, ravishdosh, fe’l o‘zagi, affiks, suffiks, shakl;

Hozirgi zamon o‘zbek tilida *yaqin o‘tgan zamon, uzoq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon hikoya fe’li, o‘tgan zamon davom fe’li, o‘tgan zamon maqsad fe’li* farqlanib, ularning har biri o‘z ifoda vositasiga ega. Jumladan: yaqin o‘tgan zamon - fe’l o‘zagiga *-di* affiksi, uzoq o‘tgan zamon - fe’l o‘zagiga *-gan* sifatdosh yasovchi va *edi* to‘liqsiz fe’li, o‘tgan zamon hikoya shakli - fe’l o‘zagiga ravishdosh yasovchi *-b (-ib)* affiksi, o‘tgan zamon davom shakli - fe’l o‘zagiga *-(a) r + edi* to‘liqsiz fe’li hamda *-yot* affiksi bilan yasalgan hozirgi zamon sifatdoshiga *edi* to‘liqsiz fe’lini tuslab biriktirish, o‘tgan zamon maqsad shakli - fe’l o‘zagiga *-moqchi* yoki *-digan* affiksini qo‘shish va *edi* to‘liqsiz fe’lini biriktirish bilan yasaladi [Rahmatov, 2020: 808 - 809].

O‘tgan zamon maqsad shakli nutq so‘zlanib turgan paytdan avval maqsad qilingan harakatni ifodalaydi. O‘tgan zamon maqsad shakli *-moqchi, -digan* affikslari va *edi* to‘liqsiz fe’li yordamida yasaladi: *ol+moqchi edi+m, ol+moqchi edi+ng; ol+adigan edi+m, ol+adigan edi+ng* kabi [Fayzullayeva va b., 2022: 60].

Yana bir tadqiqotda mazkur shaklga quyidagicha ta’rif berilgan: “o‘tgan zamon maqsad shakli fe’l o‘zagiga *-moqchi* affiksini qo‘shish hamda, *edi* to‘liqsiz fe’lini tuslab biriktirish yoki *-digan* affiksi yordamida yasalgan kelasi zamon sifatdoshiga *edi* to‘liqsiz fe’lini tuslab, biriktirish

bilan ifoda etiladi. Masalan: *Men ishlamoqchi edim - Biz ishlamoqchi edik. Men ishlaydigan edim - Biz ishlaydigan edik* va hokazo [Rahmatov, 2020: 808 - 809].

O‘zbek olimasi M. Sodiqova *-moqchi + edi* shakli maqsadning o‘tgan zamonga taalluqli ekanini yoki maqsad-niyatning o‘tgan zamonda paydo bo‘lganini ifodalash uchungina emas, maqsad-niyat bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha modallik ma’nolarini ham voqelantirishda qo‘llanishini aytadi. Masalan, *Men bormoqchi edim* — «*Men bormoqchi edim, o‘rnimga boshqa odam belgilanibdi*» (afsuslanish), *yozmoqchi edi* — «*yozishi aniq edi*» - (ta’kid), *uxlamoqchi eding?* — «*uxlamoqchi eding, nega uxlamay yuribsan?*» (ajablanish) va b.

-moqchi + edi affiksli ushbu shakldan o‘tgan zamonga taalluqli harakat-holat, voqea-hodisani eslatish, bayon etish ma’nolari anglashiladi. Bu konstruksiya davom (ishning yoki biror holatning davomi bilan bog‘liq *-guchi (-kuchi) + edi*) ma’nosida ham qo‘llanib, u o‘tgan zamondagi takrorlanuvchi holatni ifodalash, odatdagilik tusidagi harakatni, voqea-hodisani eslab, eslatish uchun ishlatiladi: *Qizil gul o‘sgan yerlarda bulbul sayraguchi edi. U qish paytida ovga chiqquchi edi* [Sodiqova, 1975: 28 - 29].

O‘tgan zamon maqsad shaklini yasovchi *-digan* affiksi mo‘ljalli kelasi zamon shakliga qo‘shiladi: *gapir + a + digan edi + m* kabi. Bunda kelasi zamon uzoqroq (oldingiroq) o‘tgan zamon sathiga ko‘chiriladi. Shuningdek, *-moqda + edi* affiksli shakl juda ham kam qo‘llanadi [Rahmatullayev, 2006: 187].

Sh. Shukurovning bayonicha, *-moqchi* affiksli shaklga to‘liqsiz fe’l *edi* qo‘shilishi bilan zamon nuqtayi nazaridan yangi forma hosil bo‘lsa ham, bu shakllarda *-moqchi*, *-digan* affiksli formalarga xos bo‘lgan modallik ma’nolari saqlanadi [Shukurov, 1976: 23]. Demak, Sh. Shukurov uni “o‘tgan zamon shakli”ni yasovchi sifatida qayd etsa, A. Hojiyevda bu fikrning aksini kuzatamiz. Tilshunos A. Hojiyev o‘zining “Fe’l” nomli monografiyasida bu borada quyidagilarni yozadi: *-moqchi* affiksi *edi* to‘liqsiz fe’li bilan qo‘llanganda o‘tgan zamonni ifodalashi mumkin. Lekin bunda harakatning o‘tgan zamonda bajarilishi emas, balki maqsadning o‘tgan zamonga oidligi ifodalanadi: *Samovarchi sandiq ustidagi ikkita ko‘rpaning birini olib, yostiq bilan Yo‘ldoshboyning oldiga qo‘ydi-da*, «*allamahol bo‘lib qoldi, yotaylik*» *dedi*, *o‘zi esa uxlamoqchi emasdi* (H. Nu‘mon, A. Shorahmedov). *Domlaning yer olgani rost, buni Saidiyga bildirmoqchi ham emasdi* (A. Qahhor). Ikkala misolda ham *-moqchi* affiksi maqsad ma’nosini aks etadi, *edi* to‘liqsiz fe’li esa shu maqsadning o‘tgan zamonga (o‘tmishga) oidligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu affiks yordamida yasaluvchi fe’l formasi harakatning nutq momentiga munosabatini ko‘rsatmaydi, balki harakatni bajarish maqsadini bildiradi. *-moqchi* affiksi bilan yasaluvchi kesim vazifasida kelganda maqsad yoki lozimlik ma’nosini ifodalashi mumkin. Lekin u harakatning nutq momentiga munosabatini bildirmaydi [Hojiyev, 1973: 126 - 130].

A. Hojiyevning fikriga tayanadigan bo‘lsak, *-moqchi edi*, *-digan edi* shakllari harakatning o‘tgan zamonda bajarilganligini emas, balki maqsadning o‘tmishga oid ekanligini bildiradi. Biz olimning ushbu qarashlariga qo‘shilamiz, chunki *-moqchi* subyektning amalga oshirishni niyat qilgan muayyan maqsadini, *edi* - ushbu maqsadning o‘tgan zamonga oidligini bildiradi.

Shu sabab bo‘lsa kerak, tadqiqot davomida to‘plangan materiallar orasida *-moqchi edi*, *-digan edi* affiksli shakllar borasida deyarli ma’lumot uchramadi. Masalan, 1975 yilda chop etilgan “O‘zbek tili grammatikasi” 1 jild, Morfologiya, U. Tursunov boshchiligidagi mualliflar tomonidan 1992 yilda nashr etilgan “O‘zbek adabiy tili”, Sh. Shoabdurahmonov va b.lar tomonidan 1980 yilda yozilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, A. A. Koklyanovanning 1963 yilda chop etilgan “Категория времени в современном узбекском языке – Zamonaviy o‘zbek tilida zamon kategoriyasi” kitoblarida o‘tgan zamon shakli yasovchi sifatida *-di*, *-gan*, *-gan edi*, *-moqda edi*, *(-i)b + edi*, *(-a)r + edi* kabilar qayd etilib, *-moqchi edi*, *-digan edi* shakllari borasida fikr yuritilmagan.

Xulosa shundan iboratki, o‘tgan zamon maqsad shakli ish-harakatning nutq oniga munosabatini emas, balki shaxsning muayyan maqsadini o‘tgan zamonga oidligiga ishora qilgani sababli biz, A. Hojiyev va boshqa tilshunoslarimizning fikriga tayangan holda, mazkur shaklni o‘zbek tili o‘tgan zamon shakllari paradigmasiga kirita olmaymiz.

Adabiyotlar:

1. Fayzullayeva I., Mustafayev Sh. //O‘zbek va italyan tillarida zamon, mayl va fe’ning vazifadosh shakllari o‘rtasidagi o‘xshashliklar “Pedagogs” international research journal Volume - 22, Issue-2, November - 2022. B. 59-66.
2. Rahmatov F. Tillarda zamon kategoriyasini umumiy-qiyosiy o‘rganish. // Academic Research in educational sciences. Volume 1 / Issue 3/ 2020.
3. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Т.: 2006. – 450 б.
4. Содиқова М. Феъл стилистикаси. – Т.: Фан, 1975. - 107 б.
5. Шукуров Ш. Ўзбек тилида феъл замонлари тараққиёти. – Т.: Фан, 1976. - 160 б.
6. Ҳожиёв А. Феъл. – Т.: Фан, 1973. - 192 б.

DEMINUTIV MORFEMALAR SEMANTIKASI

A.Mamajonov. Filologiya fanlari doktori, professor
Farg‘ona davlat universiteti

I.Axmadjonov. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ot turkumiga mansub bo‘lgan morfem birliklar tadqiq etilgan. Ularning grammatik xususiyatlari, semantik noziklari, morfosemantik jihatlarini misollar asosida tahlil etilib, nozik qirralari yoritilgan.

Kalit so‘z: morfema, kichraytirish shakllari, demunitiv affiks, affiks, subyektiv ma’no.

Ot turkumida erkalash, modal ma’no anglatuvchi morfemalardan tashqari, kichraytirish ma’nosiga ega bo‘lgan affikslar ham mavjud. Bunday qo‘shimchalar ayrim ilmiy manbalarda “deminutiv morfemalar” deb yuritiladi³².

-cha affiksining asosiy ma’nosi kichraytirish hisoblanadi:

*Bir ayvoncha, ayvoncha labida hovuzcha,
Hovuzcha labida hovoncha, hovoncha ichida
Bir hovuchcha dovuchcha bor. (Tez aytish)*

Misoldagi ayvoncha, hovuzcha leksemalaridagi -cha morfemasi kichraytirish ma’nosini ifoda etmoqda. Lekin bu morfema har doim ham kichraytirish ma’nosini bildiravermaydi. Ayrim o‘rinlarda o‘ziga xos xususiy ma’nolarni ham anglatishi mumkin. Masalan,

*O‘ksimasin zardob to‘la ko‘ngilchangiz,
Daryo-daryo ko‘z yoshim bor cho‘milsangiz. (M.Yusuf)*

Yuqorida keltirilgan she’riy parchadagi ko‘ngilchangiz so‘z shaklida -cha affiksi kichraytirish ma’nosi bilan birga kesatq, piching kabi subyektiv baho munosabatini ham ifoda etmoqda.

-cha affiksi erkalash ma’nosini ham ifodalab kelishi mumkin. Bunday hollarda qo‘shimcha subyektiv baholar kichraytirish ma’nosi bilan hamroh holda, kichraytirish ma’nosining ustiga qo‘yilgan holda yuzaga chiqadi. Ya’ni kichraytirish ma’nosi+boshqa subyektiv ma’nolar ifodalanadi. Masalan, *qizaloqcham, singilcham* kabi leksemalar bunga misol bo‘la oladi. Ayrim hududlarda opa leksemasi tarkibida -cha morfemasi qo‘llanish holatlari ham kuzatiladi. Bu asosan, murojaatda ishlatilib, hurmat ma’nosini anglatadi. Masalan, *Yanayam ishonchli bo‘lsin deb, kitob ko‘mgan yerlarimning qartasini chizib YUNESKOning gadoytopmas saytlaridan biriga, orqa tuynugidan kirib, hatto o‘sha mo‘tabar tashkilotning o‘ziyam bilmaydigan internet tokchalaridan biriga joylab qo‘ydim. Chunki bu ablahlarga ham ishonib bo‘lmaydi, Doda bilan tili bir chiqib qolishi mumkin, bitta opachamiz o‘sha yerda ishlaydi axir! Faqat tiriklay ko‘milgan u kitoblarim bu gal yer tagida uzoq qolib ketmas deb umid qilaman.* (N.M.Raufxon)

-chak affiksi kichraytirish xususiyatiga ega. Lekin bu morfema hajmni toraytirmay, insonlar yoshini, holatini kichraytiradi. Boshqa kichraytirish qo‘shimchalarning o‘zaro farqi uning yosh bilan bog‘liqligidadir. Masalan:

*Dilbar kelinchakning ko‘ksida g‘ulu,
Zardolu shoxiga tashlar ko‘z qirin.*

³² Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б.31.

Barg aro shulalar kaftlarmikan u...

Bahor tetapoya go ‘dakday shirin. (A.Oripov)

-chak affiksi kelin leksemasining vaqt jihatidan yangiligi, yoshroq ekanligini ifodalab kelgan. -chak morfemasi kelin leksemasini ijobiy bo‘yoq bilan ta’minlagan. Bu affiks boshqa kichraytirishni ifodalovchi morfemalardan bo‘yoqdorligi bilan ajralib turadi. Taqqoslash uchun kelin va kelinchak leksemalaridagi ma’noga e’tibor qaratish kifoya.

-choq morfemasi hayvonlarni ifodalovchi leksemalar tarkibida kelib kichraytirishni ifodalaydi. Masalan,

*Kelajak toychoq‘-u toyingizdadir,
Jannat ham, albatta poyingizdadir,
Vatan-ku, Siz turgan joyingizdadir,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi*

Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi. (A.Oripov)

-choq morfemasi shaxs semali leksemalar tarkibida kelganda, kichraytirish ma’nosi bilan birga erkalash ma’nosini ham ifodalaydi. Masalan:

*Onam meni erkalab,
“Qo‘zichog‘im” deydi.*

Qo‘zichoqlar marashib,

O‘t-o‘lanlar yeydilar... (O‘.Rahmonberdiyev)

Egalik affiksini olgan *qo‘zichog‘im* leksemasidagi -choq affiksi kichraytirish+erkalash ma’nosiga ega. Keyingi *qo‘zichoq* so‘z shaklida esa faqat kichraytirish ma’nosi mavjud.

-kay va -(a)loq morfemalari kichik yoshdagi bolalarni ifodalovchi leksemalarga qo‘shilib keladi. Ikkisi ham kichraytirish ma’nolarini ifodalaydi, -kay va -aloq morfemalari o‘rtasidagi farq shundaki, -kay morfemasi o‘g‘il bola ma’nosini ifodalash uchun, -aloq morfemasi qiz bola ma’nosini ifodalash uchun ishlatiladi. -aloq morfemasida kichraytirish ma’nosidan tashqari, erkalash ma’nosi ham yuzaga chiqadi. Masalan:

Joning omon bo‘lsin, ko‘zlari munchog‘im,

Gohida horganimda chin ovunchog‘im.

Dunyolarga alishmasman, qizalog‘im,

O‘zing menga Alloh bergan nur, charog‘im. (Bayram O‘serov)

-loq affiksi shaxslardan tashqari, hayvonlar bolasiga xos kichraytirish ma’nosini ham ifodalab kelish imkoniyatiga ega. Tuyanining bolasi bo‘ta deyiladi. Ayrim o‘rinlarda esa uni *bo‘taloq* tarzida ishlatilish holatlari ham uchrab turadi.

-kay morfemasi, deyarli, kichraytirish ma’nosini ifodalaydi. Uning erkalash va boshqa ma’nolarda kelishi esa so‘zlovchi maqsadi va nutq ohangiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan,

Bolakay koptok tepib,

O‘yinga xo‘p berildi.

Bir payt koptogi uchib,

Derazaga urildi. (A.Pulatov)

-ak morfemasi ham kichraytirish xususiyatiga ega. Bu morfema, asosan, predmetlarni kichraytirish uchun qo‘llanadi. Kichraytirish ma’nosidan tashqari boshqa yondosh ma’nolarga ega emas, ya’ni subyektiv baho ifodalay olmaydi. Masalan:

Ko‘prik – transport uchun, Siz uchun – yo‘lak!

U yerga piyodalar ko‘chasidan boring,

“O‘tish” siz uchun tanish bo‘lgan joyda.

Svetaforda – qizil chiroq! (V.Sematinnin)

Yo‘l va *yo‘lak* leksemalari o‘rtasidagi semantik farq yo‘lakning kichikroq ekanligidadir. Bu kichiklik ma’nosi -ak shakli orqali hosil qilingan.

-bek va -jon affikslerini yigitlar ismiga qo‘shib aytilganda o‘zaro almashtirib qo‘llash mumkin. Masalan, Alisherbek – Alisherjon. Lekin bu affikslar barcha ismlarda ham almashavermaydi. Masalan, Ulug‘bek ismidagi -bek shakli o‘rniga -jon affiksining ishlatilishi o‘zbek tilida uchramaydi.

-xon va -jon affikslari o‘zaro sinonim bo‘lishi uchun qarindoshlik bildiruvchi shaxs otlari tarkibida kelishi zarur. Masalan, onajon – onaxon. -jon affiksi o‘rnida -xon affiksining ishlatilishi ma’lum shevalardagina uchraydi. Onaning o‘ziga nisbatan **onaxon** leksemasi qo‘llanmaydi. Holahvol so‘rash jarayonida **onaxon, otaxon** leksemalaridan foydalaniladi. Masalan, **Onaxonning** ahvollari yaxshimi?

-cha va -aloq affikslari **qiz** leksemasi tarkibida kelganda ma’nodoshlik hosil qiladi. Masalan, **Qizaloq – qizcha**. -aloq affiksi va -cha affiksi sinonimlikni yuzaga keltirganda, -aloq affiksida ijobiy bo‘yoq ko‘proqligi sezilib turadi. Uslubiy qo‘llanishda ham farq mavjud. -aloq affiksi -cha shakliga qaraganda nutqda ko‘proq ishlatiladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tildagi deminutiv morfemalar nafaqat kichraytirish ma’nosini ifodalashi, balki o‘ziga xos subyektiv baholarni anglatishi o‘zbek tiliga xos xususiyatlardandir.

Adabiyotlar:

1. Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б.31.

2. I.Axmadjonov. Ot turkumiga xos morfem birliklarning semantik-uslubiy tadqiqi. Filol.fan.bo‘yi.fals.dok. ... diss. – Farg‘ona. 2023.

Mamajonov Alijon Boboyevich. Filologiya fanlari doktori, professor. Farg‘ona davlat universiteti.

Axmadjonov Ilxomjon Toxirjon o‘g‘li. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent. Farg‘ona davlat universiteti.

O‘zbek tilshunosligining muammo va yechimlari yo‘nalishi bo‘yicha tezis.

Telefon: +99894 494 21 78

Email: ahmadjonovilhomon35@gmail.com

ADABIYOTSHUNOSLIKDA KOGNITIV YONDASHUV: BADIY MATNNI

ANGLASHNING YANGI GORIZONTLARI

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti,

“Pedagogika-psixologiya va umumta’lim fanlar”

kafedrasida katta o‘qituvchisi Usmanova Mashkura Mirzoroximovna

Annotasiya: Ushbu maqolada adabiyotshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri — kognitiv yondashuvning badiiy matn tahlilidagi o‘rni yoritilgan. Muallif matnni inson ongidagi bilimlar tuzilmasi va olamning individual manzarasi sifatida talqin qilish masalalarini ko‘rib chiqadi. Tadqiqotda konseptual metafora, mental model va konsept tushunchalarining badiiy asar mazmunini ochishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv adabiyotshunoslik, badiiy matn, konsept, olamning lisoniy manzarasi, mental model, interpretasiya.

Когнитивный подход в литературоведении: новые горизонты понимания художественного текста

Аннотация: В данной статье рассматривается роль когнитивного подхода — одного из современных направлений литературоведения — в анализе художественного текста. Автор исследует вопросы интерпретации текста как структуры знаний в сознании человека и индивидуальной картины мира. В исследовании анализируется значение понятий концептуальной метафоры, ментальной модели и концепта в раскрытии содержания художественного произведения.

Ключевые слова: когнитивное литературоведение, художественный текст, концепт, языковая картина мира, ментальная модель, интерпретация.

Cognitive Approach in Literary Studies: New Horizons for Understanding Literary Texts

Abstract: This article examines the role of the cognitive approach—one of the modern directions in literary studies—in the analysis of literary texts. The author explores the interpretation of text as a knowledge structure in the human mind and an individual picture of the world. The study analyzes the significance of conceptual metaphor, mental models, and concepts in revealing the content of a work of art.

Keywords: cognitive literary studies, literary text, concept, linguistic picture of the world, mental model, interpretation.

Zamonaviy filologik paradigmada badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari an’anaviy deskriptiv (tasviriy) metodidan antroposentrik va kognitiv yo’nalishlarga tomon transformasiyalanmoqda. Adabiyotshunoslikning hozirgi taraqqiyot bosqichi badiiy asarni shunchaki til birliklarining ierarxik yig’indisi yoki ijtimoiy-tarixiy voqelikning ko’zgusi sifatida emas, balki inson tafakkurining murakkab mahsuli sifatida o’rganishni taqozo etadi. An’anaviy filologik tahlil ko’pincha matnning ekzoterik (tashqi) strukturasi, syujeti va tarixiy konteksti bilan cheklanib, ijod psixologiyasi va matn qabulining mental jarayonlarini e’tibordan chetda qoldiradi.

Kognitiv adabiyotshunoslik esa mazkur bo’shliqni to’ldirishga xizmat qiluvchi yangi metodologik asos sifatida namoyon bo’lmoqda. U badiiy matnni ijodkorning individual-mualliflik olam manzarasi va o’quvchining reseseptiv faoliyati o’rtasidagi universal kognitiv ko’prik deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvning dolzarbligi matnning ichki, yashirin ma’no qatlamlarini “verbalizasiya qilingan bilim tuzilmalari” sifatida tahlil qilish imkoniyati bilan belgilanadi.

Nazariy jihatdan kognitiv yondashuv quyidagi fundamental masalalarni ilgari suradi:

1. Badiiy konseptuallashtirish: Ijodkor ongida borliqning muayyan fragmenti qanday qilib lisoniy va badiiy shaklga ko’chishi.
2. Mental modellar reprezentasiyasi: Badiiy asarning muallif tomonidan qurilgan va o’quvchi tomonidan qayta tiklanadigan o’ziga xos “mental dunyo” ekanligi.
3. Konseptual integrasiya: Matndagi turli ramz va obrazlarning umumiy ma’no tarmog’iga birlashishi va inson tafakkurida yangi ma’nolar hosil qilish jarayoni.

Mazkur yo’nalishning ilmiy yangiligi shundaki, u badiiy matn tahliliga “til — ong — madaniyat” triadasi asosida yondashadi. Bunda matn nafaqat estetik ob’ekt, balki muallifning olamni anglash modellarini, uning qadriyatlar tizimini va milliy tafakkur tarzini tizimli ravishda kodlagan murakkab kognitiv tuzilma sifatida talqin etiladi. SHu bois, kognitiv adabiyotshunoslik istiqbollari badiiy matn interpretasiyasida yangi gorizontlarni ochib, adabiy asarni anglashning eng chuqur, psixologik va gnoseologik ildizlarini tadqiq etish imkonini beradi.

METODLAR

Tadqiqotning metodologik asosini kognitiv adabiyotshunoslikning eng zamonaviy usullari tashkil etadi. Badiiy matndagi yashirin ma’no qatlamlarini ochish va muallifning olam manzarasini tiklash maqsadida quyidagi uchta asosiy metoddan foydalanildi:

1. Konseptual tahlil metodi

Ushbu metod matnning mazmuniy o‘zagini tashkil etuvchi eng muhim tushunchalarni — konseptlarni aniqlash va ularning mazmun ko‘lamini yoritishga qaratilgan. Konsept shunchaki lug‘aviy ma’no emas, balki milliy, madaniy va shaxsiy tajribani o‘zida jamlagan mental birlikdir.

Asarning markaziy konseptual o‘zagi sifatida “Muvozanat” konsepti tanlab olindi. Tahlil jarayonida ushbu konseptning faqatgina fizik muvozanat emas, balki inson ruhiyatidagi “haqiqat va yolg‘on”, “e’tiqod va nafs” o‘rtasidagi nozik chiziqli ekanligi aniqlandi. Shuningdek, roman matnida “inson”, “zamon” va “iymon” konseptlarining o‘zaro bog‘lanishi (konseptual maydoni) o‘rganildi.

2. Kognitiv-semantik tahlil metodi

Bu metod til birliklari (so‘zlar, frazeologizmlar) va ular inson ongida uyg‘otadigan tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etadi. Bunda badiiy so‘zning oddiy ma’nosi emas, balki uning zamiridagi bilimlar tuzilmasi va obrazli assosiasiyalar tahlil qilinadi.

Asardagi “tarozi” yoki “sirpanish” kabi leksemalar kognitiv-semantik jihatdan tahlil qilinganda, ular shunchaki harakat yoki buyum emas, balki qahramon ichki dunyosidagi beqarorlikni ifodalovchi semantik markerlar ekanligi namoyon bo‘ladi. So‘zlarning bunday tanlanishi muallifning voqelikni "titrayotgan olam" sifatida idrok etishini ko‘rsatadi.

3. Interpretativ metod

Mazkur metod badiiy obrazlarni muallifning dunyoni anglash modellari (mental modellari) sifatida talqin qilishga asoslanadi. Bunda matn ijodkorning shaxsiy konseptual tizimi sifatida o‘qiladi.

Bosh qahramon YUsofning obrazi shunchaki badiiy to‘qima emas, balki muallifning “ma’naviy komillik va ijtimoiy inqiroz” haqidagi mental modeli sifatida talqin qilinadi. Qahramonning ichki iztiroblari va mushohadalari orqali Ulug‘bek Hamdamning o‘tish davri jamiyati va ziyolilar fojiasi borasidagi individual-mualliflik olam manzarasi interpretatsiya qilinadi.

Ushbu metodlarning integrasiyalashuvi badiiy matnni shunchaki tasvir vositasi emas, balki ijodkor tafakkurining murakkab xaritasi sifatida tadqiq etishga imkon beradi.

Kognitiv yondashuv asosida badiiy matnni tahlil qilish quyidagi natijalarni berdi:

1. Matn — bilimlar bazasi sifatida: Badiiy asar nafaqat voqealar bayoni, balki muallifning e’tiqodi, madaniyati va tajribasi jamlangan kognitiv tuzilma ekanligi isbotlandi.

2. Konseptlar ierarxiyasi: Har bir badiiy asarning markazida muayyan konseptlar (masalan, "taqdir", "erk", "muvozanat") yotadi va ular matnning butun ma’no qatlamini boshqaradi.
3. Metaforaning yangi funksiyasi: Kognitiv nuqtai nazardan metafora shunchaki bezak emas, balki yangi ma’no yaratish va olamni anglash vositasidir.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnni anglashda o‘quvchining “fon bilimlari” muhim rol o‘ynaydi. Agar an’anaviy tahlilda matn statik ob’ekt bo‘lsa, kognitiv yondashuvda u dinamik jarayondir. Muallif matnga kodlagan konseptual markerlar o‘quvchi tomonidan uning shaxsiy kognitiv tajribasi asosida qayta jonlantiriladi. Bu esa bitta asarning turlicha talqin qilinishining ilmiy asosini tushuntirib beradi.

Adabiyotshunoslikda kognitiv yondashuv badiiy matnni inson olami bilan bog‘lovchi eng samarali yo‘llardan biridir. Ushbu metod orqali biz:

- muallifning individual olam manzarasini tiklashimiz;
- badiiy obrazlarning ong osti qatlamlarini ochishimiz;
- adabiyotshunoslikni tilshunoslik va psixologiya bilan integrasiya qilishimiz mumkin.

Bu yangi gorizontlar milliy adabiyotimizdagi murakkab asarlarni zamon talablari asosida qayta anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. (Kognitiv tilshunoslik va metafora nazariyasining asosi).
2. Stockwell P. *Cognitive Poetics: An Introduction*. – London: Routledge, 2002. (Kognitiv adabiyotshunoslik bo‘yicha fundamental qo‘llanma).
3. Boldirev N.N. *Kognitivnaya lingvistika: Kurs leksiy*. – Tambov: TGU, 2014. (Konseptlar va lisoniy olam manzarasi nazariyasi uchun).
4. Safarov SH. *Kognitiv tilshunoslik*. – Jizzax: Sangzor, 2006. (O‘zbekistonda kognitiv yo‘nalishdagi asosiy nazariy manba).
5. Hamdam U. *Muvozanat*. – Toshkent: Sharq, 2003. (Siz tahlil qilgan asosiy badiiy manba).
6. Yo‘ldoshev Q. *Yoniq so‘z*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. (Badiiy matn tahlili va talqin metodologiyasi).
7. Ashurova D.U., Galieva M.R. *Kognitologiya asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. (Matn interpretatsiyasi va kognitiv aspektlar bo‘yicha).
5. Holat fe'llarining adresat valentligini reallashtiruvchi so'zlar shaxs ma'nosini ifodalab, jo'nalish kelishigi formati bilan shakllanadi. Dativ (jo'nalish kelishigi) agens holati qaratilgan obyektga adresat obyektga o'tishini, o'zgarishini to'la ta'minlaydi.

6. Adresatning asosan **ot+ga** ba'zan **olmosh+ga** mobelidagi nutq birliklarida qayd etilishi uning asosiy morfologik belgisidir.

7. O'zbek tilidagi "ijro" va "fiziologik" integral semali holat fe'llari adresat valentligiga egaligi bilam ajralib turadi.

LISONIY PARADIGMA VA TASNIFNING AMALIY QO'LLANILISHI

Uralov Azamat Begnarovich

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Tilshunoslik tadqiqotlarida paradigma va tasnif metodlari til birliklarini tizimli o'rganish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash uchun asosiy vosita sifatida qo'llanadi. Paradigma metodlari til birliklarini assotsiativ va alternativ bog'liqliklar asosida guruhlaydi, ularning o'zaro farqlarini, grammatik kategoriyalarini va morfemalararo bog'lanishini ko'rsatadi. Tasnif metodlari esa birliklarni fonologik, morfologik va sintaktik mezonlar asosida guruhlash imkonini beradi, tilning struktural tizimini ochib beradi va til birliklarining ierarxiasini aniqlashga yordam beradi. Paradigma metodlari tilshunoslarga til birliklarining variant va alternativ shakllarini o'rganish imkonini beradi. Masalan, fe'llarning turli zamon va shaxs shakllari – "yozaman, yozasan, yozadi, yozamiz, yozasiz, yozadilar" – paradigmaga kiradi va ular orasidagi morfemalarning farqi, grammatik kategoriyalarning ifodalanishi va ularning nutqdagi ishlatilish xususiyatlari o'rganiladi. Shu tarzda paradigma metodlari tilning struktural va semantik qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tasnif metodlari til birliklarini tizimli guruhlashtirishga xizmat qiladi. Fonologik tasnif yordamida fonemalar va ularning talaffuz xususiyatlari tahlil qilinadi, morfologik tasnif so'zlar va morfemalarning shakllanish qonuniyatlarini aniqlaydi, sintaktik tasnif esa so'z va iboralarning gap tarkibidagi tartibini, sintagmatik va ierarxik bog'lanishini ko'rsatadi. Shu tarzda tasnif metodlari tilning barcha sathlarini bir-biri bilan uyg'unlashtiradi va til birliklarini kompleks tarzda o'rganishga imkon beradi.

Tilshunoslik tadqiqotlarida paradigma va tasnif metodlari birgalikda qo'llaniladi, chunki ular til birliklarining strukturaviy, semantik va kommunikativ xususiyatlarini to'liq ochib beradi. Paradigma metodlari asosida birliklarning o'zaro alternativligi va grammatik bog'lanishlari tahlil qilinadi, tasnif metodlari esa birliklarning guruhlanishi va ierarxiasini aniqlaydi. Masalan, morfologik paradigmalar va tasniflar yordamida fe'llar, otlar yoki sifatlarning turkumlanishi, ularning gap tarkibidagi ishlatilish qoidalari va semantik kontrastlari o'rganiladi. Paradigma va tasnif metodlarining amaliy ahamiyati tilshunoslik tadqiqotlarida tilning normativ va ijtimoiy vazifalarini aniqlash, yangi leksik birliklarni tahlil qilish, frazeologik birliklarni o'rganish va nutq jarayonida til birliklarining ishlatilish qonuniyatlarini o'rganishda namoyon bo'ladi. Shu tarzda bu metodlar tilshunoslarga til birliklarini tizimli, ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish imkonini beradi hamda tilning morfologik, sintaktik va leksik sathlarini birlashtiradi. Til strukturasi til birliklarining tartiblangan va o'zaro bog'langan tizimini ifodalaydi. So'zlar, morfemalar, frazemalar va gaplar til strukturasi ichida o'zaro bog'lanadi, grammatik qoidalar asosida ierarxik tizim hosil qiladi. Grammatik tahlil esa tilning strukturaviy xususiyatlarini aniqlash, so'zlar va iboralarning gap tarkibidagi o'rini, morfologik va sintaktik munosabatlarni o'rganish imkonini beradi.

Amaliy misollar orqali til strukturasi va grammatik tahlil yanada aniqroq tushuniladi. Masalan, o'zbek tilidagi fe'l shakllarini tahlil qilishda fe'lning zamon, shaxs va son kategoriyalari aniqlanadi. "Yozaman", "yozasan", "yozadi" kabi shakllar morfologik tahlil asosida paradigmalariga ajratiladi, so'z tarkibidagi morfemalar va qo'shimchalar aniqlanadi, ularning grammatik vazifasi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, sintaktik tahlil yordamida bu fe'llar gap ichida subyekt va predikat bilan qanday bog'lanishini aniqlash mumkin. Masalan, "Men maktabga boraman" gapida fe'l subyekt "men" bilan bog'lanib, predikat vazifasini bajaradi va sintaktik ierarxiya ko'rinadi. Shuningdek, ot va sifatlilar bilan bog'liq amaliy misollar ham til strukturasi va grammatik tahlilni tushunishda foydali hisoblanadi. Masalan, "katta uy" ifodasida sifat va ot o'rtasidagi morfologik va sintaktik bog'lanish tahlil qilinadi: sifat ot bilan kelishik jihatidan

moslashadi va gap tarkibida iboraning yaxlit ma’nosini hosil qiladi. Bu tarzda grammatik tahlil yordamida til birliklarining o‘zaro bog‘liqligi, morfemalarning funksional roli va gapdagi sintagmatik munosabatlar aniqlanadi. Til strukturasi va grammatik tahlil amaliy jihatdan so‘z turkumlari, gap tarkibi va frazeologik birliklarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Masalan, sinonim frazalar yoki murakkab gaplarda grammatik birliklar tahlil qilinib, ularning sintaktik va semantik bog‘lanishi aniqlanadi. Shu bilan birga, grammatik tahlil nutqdagi so‘zlarning ierarxik joylashuvi, morfologik va sintaktik kategoriyalar bilan moslashuvi, frazeologik birliklarning ishlatilish xususiyatlarini tushunishga yordam beradi.

Til strukturasi va grammatik tahlilning amaliy misollari tilshunoslarga til birliklarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning gap tarkibidagi vazifasini aniqlash, morfologik va sintaktik qonuniyatlarni ko‘rsatish hamda tilning kommunikativ va normativ vazifalarini o‘rganish imkonini beradi. Shu tarzda amaliy misollar til strukturasi va grammatik tahlilning nazariy bilimlar bilan birlashtirilishini ta’minlaydi va tilshunoslik tadqiqotlarida muhim vosita sifatida ishlatiladi.

Til birliklarini tasniflash tilshunoslikda tilning strukturaviy va semantik tizimini o‘rganish uchun muhim vosita hisoblanadi. Til birliklarini turkumlash orqali so‘zlar, morfemalar, frazemalar va boshqa birliklarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning grammatik, fonetik va leksik xususiyatlari aniqlanadi. Tasnif til birliklarini ilmiy tahlil qilish, ularning ierarxik o‘rnini belgilash va tilning normativ va kommunikativ vazifalarini tushunishda yordam beradi. Til birliklarini tasniflash mezonlari bir nechta asosiy jihatlariga asoslanadi. Fonologik mezon birliklarning tovush darajasidagi farqlanishini aniqlaydi. Bu so‘zlarning talaffuz qoidalari, fonemalarning qarama-qarshi joylashuvi va ularning semantik ifodasi uchun zarurdir. Morfologik mezon esa so‘zlarni hosil qiluvchi morfemalar va qo‘shimchalar asosida tasniflaydi, so‘z shakllanishi va grammatik kategoriyalarni tahlil qilish imkonini beradi. Sintaktik mezon so‘zlarning gap ichidagi o‘rnini, sintagmatik bog‘lanishini va ularning kombinatsiyasini aniqlashga yordam beradi. Leksik mezon esa birliklarning ma’nosini, sinonimlik, antonimlik va omonimlik kabi semantik munosabatlarini ko‘rsatadi.

Tasnif yordamida til birliklarining strukturaviy va funksional xususiyatlari sistematik tarzda o‘rganiladi. Bu jarayon tilshunoslarga morfologik va sintaktik qoidalarni aniqlash, so‘z birikmalarining semantik kontrastlarini tahlil qilish va til birliklarining ierarxik tizimini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tasnif til birliklarining kontekstga mos ishlatilishini, nutqning samaradorligi va tilning normativ vazifasini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda til birliklarini tizimli o‘rganish jarayonida ular turli mezonlar bo‘yicha tasniflanadi, bu tilning struktural, semantik va funksional xususiyatlarini chuqur tushunishga imkon beradi. Fonologik, morfologik va sintaktik tasniflar tilshunoslikning markaziy vositalaridan biri bo‘lib, til birliklarining turkumlanishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va til tizimidagi o‘rni aniqlanadi. Ushbu tasniflar tilshunoslarga nafaqat til birliklarini tahlil qilish, balki ularning grammatik, fonetik va leksik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish imkonini beradi.

Fonologik, morfologik va sintaktik tasniflar til birliklarining normativ va ijtimoiy ishlatilishini tushunish uchun ham zarurdir. Misol uchun, sinonim fe’llarning ishlatilishi nutqning uslubiy rang-barangligini oshirsa, morfologik tasnif so‘zlarning grammatik qoidalar asosida shakllanishini ko‘rsatadi va sintaktik tasnif esa ularning gap tarkibidagi o‘rnini belgilaydi. Shu bilan birga, tasniflar yordamida til birliklari orasidagi qarama-qarshi va alternativ munosabatlar, semantik kontrastlar va morfologik farqlar aniq ko‘rinadi. Fonologik, morfologik va sintaktik tasniflar birgalikda tilshunoslik tadqiqotlarida so‘zlarning turkumlanishi, ierarxik tizimi, semantik qarama-qarshiliklari va nutqdagi ishlatilishini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Bu tasniflar til birliklarining yaxlit xususiyatlarini, tilning vazifa va muloqot imkoniyatlarini ochib beradi, shuningdek, tilni chuqur, ilmiy asosda o‘rganish va amaliy nutq jarayonida qo‘llashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Tilshunoslikda til birliklarini tasniflashning ilmiy ahamiyati juda katta bo‘lib, u tilning strukturaviy va vazifaviy xususiyatlarini chuqur tushunishga imkon beradi. Tasnif til birliklarini tizimli tarzda o‘rganish vositasi bo‘lib, so‘zlar, morfemalar, frazemalar va boshqa birliklarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlarini aniqlashga xizmat

qiladi. Shu orqali tilshunoslar tilning ichki qonuniyatlarini, til birliklari o‘rtasidagi ierarxik tizimni va ularning nutq jarayonidagi ishlatilishini ilmiy asosda tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Tilshunoslikda tasnifning ilmiy ahamiyati bir necha jihatdan namoyon bo‘ladi. Birinchi jihat bu til birliklarini tartibga solish va ularni sistematik tarzda o‘rganishdir. Til birliklari tasnif yordamida morfologik, fonologik va sintaktik mezonlar bo‘yicha guruhlanadi, bu esa ularning grammatik va semantik imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, fe‘l va otlar paradigmasi yordamida so‘zlarning gap tarkibidagi vazifasi va shakllanish mexanizmi tahlil qilinadi. Shu tarzda til birliklarining ierarxik va semantik bog‘liqligi ochib beriladi. Ikkinchi jihat – til qoidalari va normativ vazifani aniqlash. Til birliklarini tasniflash orqali ularning grammatik qonuniyatlarga mosligi va nutq jarayonida ishlatilish tartibi o‘rganiladi. Morfologik tasnif so‘z shakllanishi va qo‘shimchalarning ishlatilishini aniqlasa, sintaktik tasnif gap ichidagi birliklarning o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tasnif tilning normativ me‘yorlarini tushunish va nutqning aniq, samarali ifodalanishini ta‘minlashga yordam beradi. Uchinchi jihat – til birliklarining semantik va kommunikativ imkoniyatlarini aniqlash. Tasnif yordamida sinonim, antonim, omonim va boshqa leksik birliklarning semantik qarama-qarshiligi aniqlanadi, frazemalar va iboralar o‘rganiladi. Bu esa nutqda to‘g‘ri ma’no yaratish, tilni stilistik rang-baranglikda ishlatish va kommunikativ vazifalarni bajarishda muhimdir. Til birliklarini tasniflash orqali ularning kontekstga mos ishlatilishi va stilistik vazifasi tizimli tarzda o‘rganiladi.

Shuningdek, tasnifning ilmiy ahamiyati tilshunoslik tadqiqotlarida amaliy natijalar hosil qilish imkonini beradi. Paradigmalar va tasniflar orqali til birliklarining o‘zaro bog‘liqligi, grammatik strukturasi, semantik kontrastlari va nutqdagi ishlatilish doirasi aniqlanadi. Bu esa tilshunoslarga morfologik va sintaktik tahlil, leksik tizimlarni o‘rganish hamda tilni normativ va didaktik jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Til birliklarini tasniflash tilshunoslikda nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun zarur vosita, balki tilning strukturaviy, semantik va kommunikativ xususiyatlarini chuqur o‘rganishga xizmat qiluvchi asosiy metodlardan biri hisoblanadi. Tasnif til birliklarini sistematik tarzda tahlil qilish, ularning gap tarkibidagi vazifasini aniqlash, morfologik va sintaktik qonuniyatlarni ko‘rsatish hamda tilning normativ va kommunikativ vazifasini o‘rganishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov A. Tilshunoslikka nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq. 2010.
2. Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Xolmanova Z., Majidova R., Sultonova Sh. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish). – Toshkent: Shafoat Nur Fayz. 2020.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2022.
4. Sayfullayeva R.R., Abuzalova M.Q., Mamadaliyeva N.S., Yuldasheva D.N. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi. 2021.
5. Xayrullayev X. Z., Ibragimova M.A. Tilshunoslik asoslari / Fundamentals of Linguistics. – Samarqand: SamDCHTI. 2014.
6. Xayrullayev X. Z. Tilshunoslik. O‘quv-uslubiy majmua. – Samarqand: SamDCHTI. 2016.
7. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi: fonetika, morfologiya va sintaksis. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2008.
8. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Shafoat Nur Fayz. 2020.

QO‘L JANGI SPORT TURINING O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI, NATIJALARI VA YOSHLARNI TEXNIK TAYYORLASH XUSUSIYATLARI

Yulchiyev Farruh Fozilovich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Jangovar yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasida o‘qituvchisi

Chirchiq, O‘zbekiston

Abstract

O‘zbekistonda qo‘l jangi sport turi so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, yoshlar va harbiy xizmatchilar o‘rtasida keng ommalashmoqda. Mamlakat bo‘ylab 10 000 dan ortiq mashg‘ulotchi faoliyat yuritib, 230 nafar sport ustasi va 60 nafar xalqaro toifadagi sport ustasi yetishib chiqqan.

2025 yilda O‘zbekiston terma jamoasi Butunjahon sport o‘yinlarida 13 ta oltin medal qo‘lga kiritdi. Ushbu maqolada qo‘l jangining O‘zbekistondagi tashkiliy tizimi, yoshlarni bosqichma-bosqich texnik tayyorlash metodikasi, erishilgan xalqaro natijalar va mavjud muammolar tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar berilgan.

Keywords: qo‘l jangi, yoshlar tayyorgarligi, texnik mahorat, sport natijalari, O‘zbekiston, tayyorlov metodikasi, jangovar sport.

1. Kirish

Qo‘l jangi — jismoniy kuch, tezkorlik, texnik mahorat va taktik tafakkurni o‘zida mujassam etgan jangovar sport turi bo‘lib, u shaxsni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab ushbu sport turi davlat miqyosida qo‘llab-quvvatlanib, harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etib kelinmoqda.

2022 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus qarori bilan "Qo‘l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" tasdiqlandi. Ushbu hujjat qo‘l jangini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini, moliyalashtirish mexanizmlarini va mas‘ul tashkilotlarni belgilab berdi. Bugungi kunda O‘zbekiston huquqni muhofaza qilish organlarining Qo‘l jangi federatsiyasi ushbu sportni boshqarishda markaziy o‘rin tutmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — O‘zbekistonda qo‘l jangining hozirgi holati, erishilgan natijalar va yoshlarni texnik jihatdan tayyorlash xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

2. O‘zbekistonda qo‘l jangining tashkiliy tizimi va holati

Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda hozirda qo‘l jangi bo‘yicha 10 000 dan ortiq yoshlar va harbiy xizmatchilar muntazam mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanmoqda. Shu bilan birga, 230 nafar O‘zbekiston sport ustasi va 60 nafar xalqaro toifadagi O‘zbekiston sport ustasi yetishib chiqqan — bu ko‘rsatkich mamlakatimizda professional kadrlar bazasining shakllanganidan dalolat beradi.

Prezident qaroriga muvofiq, har bir hududning bitta tuman yoki shahrida qo‘l jangi ustuvor sport turi sifatida belgilanib, sport bazalari tashkil etilmoqda yoki mavjud inshootlar ushbu sport turiga qayta ixtisoslashtirilmoqda. Shuningdek, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab taniqli sportchilar va trenerlar ishtirokida seminar, trening va mahorat saboqlari tizimli ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

Musobaqa tizimi ham izchil rivojlanib bormoqda: har yili respublika chempionatlari, viloyat kubogi musobaqalari va yoshlar o‘rtasida turnirlar o‘tkaziladi. 2025 yil fevral oyida "Universal" sport majmuasida O‘zbekiston chempionati bo‘lib o‘tdi. 2026 yil fevral oyida ham O‘zbekiston chempionati muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

3. Xalqaro natijalari va erishilgan yutuqlar

O‘zbekiston terma jamoasi xalqaro maydonda yuqori natijalar ko‘rsatib kelmoqda. 2025 yilda Butunjahon sport o‘yinlarida o‘zbek sportchilari 13 ta oltin, 3 ta kumush va 1 ta bronza medallari qo‘lga kiritib, mutlaq g‘olib bo‘ldi. Musobaqada Ukraina, Moldova, Fransiya, Avstriya kabi mamlakatlar ham ishtirok etdi.

O‘zbekiston jamoasi Osiyo kubogi musobaqalarida ham an‘anaviy ravishda yetakchi o‘rinlarda turadi. Bu natijalar faqat sportchilarning shaxsiy mahoratiga emas, balki mamlakatda yaratilgan tizimli tayyorlov infratuzilmasiga ham bog‘liqdir. Xalqaro federatsiya bilan hamkorlik, tajriba almashish dasturlari va xorijiy murabbiylar taklif etish orqali milliy terma jamoa tarkibi izchil mustahkamlanib bormoqda.

4. Yoshlarni texnik tayyorlash metodikasi

Yoshlarni qo‘l jangiga tayyorlash ko‘p bosqichli va izchil tizim asosida qurilgan bo‘lib, uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi:

1-bosqich — Boshlang‘ich tayyorlov (8–12 yosh):

- Umumiy jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish: tezkorlik, chaqqonlik, muvozanat, moslashuvchanlik
- Asosiy turish holatlari (stoykalar), harakatlanish texnikasi va zarbalar koordinatsiyasini o‘rgatish

- Sport intizomi, jamoaviy ruh va psixologik barqarorlikni tarbiyalash

2-bosqich — Ixtisoslashgan tayyorlov (13–17 yosh):

- Murakkab kombinatsion zarbalar va himoya-hujum texnikasini o‘zlashtirish
- Taktik tafakkur va musobaqa sharoitlarida qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish
- Jismoniy yuklamani asta-sekin oshirish va maxsus kuch tayyorgarligi
- Dastlabki rasmiy musobaqalarda ishtirok etish orqali amaliy tajriba to‘plash

3-bosqich — Yuqori mahorat bosqichi (18 yosh va undan yuqori):

- Individual texnik uslubni takomillashtirish va musobaqa strategiyasini ishlab chiqish
- Zamonaviy video tahlil vositalari yordamida texnikadagi xatolarni aniqlash va tuzatish
- Yuqori darajali milliy va xalqaro musobaqalarga tayyorlanish

Zamonaviy tayyorlov metodikasida biomexanik tahlil, raqamli video yozuvlar va kompyuter dasturlari tobora keng qo‘llanilmoqda. Trenerlar va hakamlarning malakasini oshirish kurslarini tashkil etish ham rasmiy qaror darajasida belgilab qo‘yilgan.

5. Mavjud muammolar va tavsiyalar

Qo‘l jangini rivojlantirishda quyidagi muammolar hali o‘z yechimini topishi lozim:

- Murabbiylar sifati: Viloyat va tuman darajasida zamonaviy metodikalardan xabardor bo‘lgan malakali trenerlar yetishmaydi;
- Moddiy-texnika bazasi: Qishloq hududlarida maxsus sport jihozlari va zallari yetarli emas;
- Ilmiy-uslubiy ta‘minot: O‘zbek tilida metodik qo‘llanmalar va ilmiy adabiyotlar soni cheklangan;
- Musobaqa tizimi: Yoshlar orasida turli yoshdagi guruhlarda muntazam musobaqalar o‘tkazish izchilligini ta‘minlash zarur.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi:

1. Markazlashtirilgan trenerlar malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish.
2. Xalqaro federatsiya bilan hamkorlikda ilmiy-uslubiy materiallar ishlab chiqish.
3. Maktab dasturlariga qo‘l jangi elementlarini keng joriy etishni davom ettirish.
4. Iqtidorli yoshlarni erta aniqlash (seleksiya) tizimini takomillashtirish.

Xulosalar: O‘zbekistonda qo‘l jangi sport turi davlat qo‘llab-quvvatlashi va mustahkam tashkiliy tizim orqali yuqori sur‘atlar bilan rivojlanib, xalqaro maydonda yuksak natijalar ko‘rsatmoqda. Yoshlarni bosqichma-bosqich texnik tayyorlash metodikasini yanada takomillashtirish, zamonaviy raqamli tahlil vositalarini keng joriy etish va ilmiy-metodologik bazani mustahkamlash orqali bu sportning kelajagi yanada porloq bo‘lishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qo‘l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori. Toshkent, 2022 yil 19 iyun. [PQ-287-son]
2. O‘zbekiston huquqni muhofaza qilish organlarining Qo‘l jangi federatsiyasi. 2024 yil sarhisobi va 2025 yil ustuvor vazifalari. Toshkent, 2025.
3. Gazeta.uz. "O‘zbekiston qo‘l jangi bo‘yicha Butunjahon sport o‘yinlarining mutlaq g‘olibi". 2025 yil 8 iyun.
4. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Kiyev: Olimpiyskaya literatura, 2015.
5. Abdullayev S.R. Bolalar va o‘smirlar sporti: pedagogik asoslar. Toshkent: TDPU nashri, 2022.
6. Nazarenko L.D. Sredstva i metody razvitiya dvigatelnyx koordinatsiy. Moskva: Teoriya i praktika fizicheskoy kultury, 2003.

THE RELEVANCE OF THE DIGITAL-COMMUNICATIVE APPROACH IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION

Eshnazarova Munavvarbonu Ilxomovna, PhD researcher, NPUU.

Abstract. This paper examines the relevance of integrating digital technologies with the communicative approach in teaching English in non-philological higher education. Traditional grammar-focused instruction is insufficient for developing communicative competence required

in professional contexts. Drawing on the frameworks of communicative competence, CLT, CALL, and ESP, the study conceptualizes a digital-communicative approach by critically examining its key components. The analysis highlights the role of digital technologies in extending communicative environments, supporting learner autonomy, and enabling context-specific language use. It is concluded that this approach represents a pedagogically grounded and contextually relevant direction for modern language teaching.

Keywords: digital-communicative approach, communicative competence, CLT, CALL, ESP, language teaching.

The transformation of English language teaching in non-philological higher education is closely associated with global socio-economic changes and the increasing demand for communicative competence in professional and academic contexts. English is no longer perceived as a purely academic discipline but rather as a functional tool that enables participation in international communication, professional interaction, and knowledge exchange. Consequently, language instruction must shift from knowledge transmission to competence-oriented learning.

However, despite these changes, traditional teaching approaches, particularly grammar-translation methods, continue to dominate in many educational contexts. These approaches emphasize the memorization of grammatical rules and vocabulary, focusing primarily on structural accuracy, which often limits learners’ ability to use language effectively in real-life situations. This persistent gap between knowledge and use highlights the need for a shift toward communicative and context-sensitive language instruction.

The concept of communicative competence provides a strong theoretical foundation for such transformation. Introduced by Hymes (1972), it redefined language ability by emphasizing the importance of using language appropriately in social contexts rather than merely mastering grammatical structures. This perspective was further elaborated by Canale and Swain (1980), who developed a more structured model by distinguishing grammatical, sociolinguistic, discourse, and strategic components, thereby making the concept more applicable to language teaching practice. Communicative Language Teaching (CLT) operationalizes these principles by prioritizing interaction, learner-centered instruction, and authentic communication (Richards, 2006), effectively translating the abstract concept of communicative competence into classroom practice. Within this framework, language is treated as a tool for meaning-making, and instructional activities are designed to simulate real-life communicative situations. Nevertheless, in non-philological higher education, the implementation of CLT often remains limited due to restricted contact hours, insufficient access to authentic materials, and a lack of opportunities for meaningful interaction.

In this context, digital technologies offer significant potential for extending communicative learning environments. Within the framework of Computer-Assisted Language Learning (CALL), technology is conceptualized as a facilitator that enhances language learning processes and enables interaction beyond the physical classroom (Blake, 2013), thereby creating broader opportunities for communicative engagement. Contemporary digital environments provide access to authentic input, support real-time communication, and enable multimodal learning experiences, all of which contribute to more dynamic and interactive language learning.

At the same time, the pedagogical value of digital technologies cannot be taken for granted. As emphasized by Stickler (2022), the effectiveness of technology integration depends on its alignment with pedagogical objectives, since digital tools alone do not automatically lead to meaningful learning outcomes. When used without a clear communicative purpose, technology may result in superficial engagement rather than deep learning. Therefore, its role should be understood as supporting communicative processes rather than replacing pedagogical design.

From this perspective, a digital-communicative approach can be understood as an integration of communicative language teaching principles with the affordances of digital technologies. This approach emphasizes communicative tasks, technology-mediated interaction, and contextually relevant content, creating conditions in which learners can actively use language in meaningful and authentic contexts.

Its relevance becomes particularly evident in non-philological higher education, where learners require English for specific academic and professional purposes. In this regard, English for Specific Purposes (ESP) provides a theoretical and methodological basis for aligning language instruction with learners’ needs (Dudley-Evans & St. John, 1998), ensuring that learning is both relevant and applicable to real-world contexts. Digital technologies further enhance ESP instruction by providing access to discipline-specific materials and enabling the simulation of professional communication scenarios, thereby strengthening the connection between language learning and professional practice.

Furthermore, the digital-communicative approach supports the development of learner autonomy, which is a key factor in effective language acquisition. Digital tools allow learners to regulate their learning process, access resources independently, and engage in continuous practice beyond the classroom, which is particularly important in non-philological contexts where instructional time is limited.

However, the successful implementation of this approach requires careful consideration of several factors. Teachers must develop both pedagogical and digital competence to ensure effective integration. In addition, the selection of digital tools should be guided by their contribution to communicative objectives rather than technological novelty. Issues of access and equity must also be addressed to ensure equal learning opportunities for all learners. Finally, maintaining a balance between digital and face-to-face interaction remains essential, as direct human communication plays a crucial role in developing pragmatic and sociolinguistic competence.

In conclusion, the integration of communicative language teaching with digital technologies represents a meaningful and contextually relevant direction in teaching English in non-philological higher education. By extending communicative environments, supporting learner autonomy, and enabling context-specific language use, digital technologies contribute to more effective language learning. However, their impact depends on principled and pedagogically grounded implementation. When aligned with communicative objectives and supported by appropriate teacher competence and institutional conditions, a digital-communicative approach can significantly enhance communicative competence and better prepare learners for real-world professional communication.

Reference

1. Blake R. *Brave new digital classroom*. Georgetown, 2013.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches. *Applied Linguistics*, 1980.
3. Dudley-Evans T., St John M. *Developments in ESP*. Cambridge, 1998.
4. Hymes D. On communicative competence, 1972.
5. Richards J. *Communicative language teaching today*. Cambridge, 2006.
6. Stickler U. *Technology and language teaching*. Cambridge, 2022.

O‘ZBEK XALQ DOSTONI “ALPOMISH” VA INGLIZ XALQ BALLADALARIDA ROBIN HOOD OBRAZI: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL

Yangiboyeva Baxtigul

Oriental Universiteti, 1-bosqich Magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alpomish dostoni va Robin Hood haqidagi balladalar qiyosiy-tipologik yondashuv orqali tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi epik matnlarda qahramon arxetipi, adolat tushunchasi va ijtimoiy idealning badiiy shakllanish mexanizmlarini aniqlashdir. Struktur-semantik, komparativ va diskursiv metodlardan foydalanilgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikki epik an‘anada ideal qahramon va adolat tushunchasi mavjud, ammo ular turli tarixiy-madaniy kontekstda farqlanadi. Alpomish jamiyat barqarorligini mustahkamlovchi integrativ qahramon sifatida, Robin Hood esa ijtimoiy tenglik va qarshilik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Formulaviy poetika va ayol obrazlari har ikki matnda epik strukturaning muhim qismi sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: folklor poetikasi, epik diskurs, qahramon arxetipi, adolat konsepti, formulaviy poetika, qiyosiy-tipologik tahlil, epik xronotop, gender motivlari

Abstract. This article offers a comparative-typological analysis of the Uzbek folk epic Alpomish and the English folk ballads about Robin Hood. The primary objective of the study is to identify the artistic and narrative mechanisms through which the hero archetype, the concept of justice, and the social ideal are constructed within two distinct cultural traditions.

The research applies structural-semantic, comparative, and discursive approaches to examine the mythopoetic formation of the hero, the use of formulaic poetics, the organization of epic chronotope, and the representation of gender roles. The findings indicate that while both traditions share common archetypal foundations—such as the ideal hero, moral values, and the pursuit of justice—their interpretation is shaped by specific historical and cultural contexts.

Keywords: folklore poetics, epic discourse, hero archetype, concept of justice, formulaic poetics, comparative typology, epic chronotope, gender motifs

Аннотация. В данной статье представлен сравнительно-типологический анализ узбекского народного эпоса Alpomish и английских народных баллад о Robin Hood. Основная цель исследования заключается в выявлении художественных механизмов репрезентации архетипа героя, концепта справедливости и социального идеала в различных культурных традициях.

В работе используются структурно-семантический, компаративный и дискурсивный методы анализа. Рассматриваются мифопоэтическое формирование образа героя, особенности формульной поэтики, модель эпического хронотопа, а также гендерные аспекты. Результаты исследования показывают, что при наличии общих архетипических основ интерпретация ключевых понятий зависит от национально-культурного контекста.

Ключевые слова: поэтика фольклора, эпический дискурс, архетип героя, концепт справедливости, формульная поэтика, сравнительно-типологический анализ, эпический хронотоп, гендерные мотивы

Kirish. Folklor - jamiyatning tarixiy xotirasi va madaniy ongini saqlovchi murakkab semantik tizimdir. Epik janrlar xalqning ideal inson haqidagi tasavvurlarini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi.

Alpomish dostonida qahramonlik, sadoqat va vatanparvarlik g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. Masalan, Alpomishning bolalikdagi jasorati va favqulodda kuchi uni epik arxetip sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, uning zindonga tushishi va undan qutulishi -V. Proppning “qahramonning sinovdan o‘tishi” modelining epik versiyasi sifatida qaraladi.

Robin Hood balladalarida esa ijtimoiy adolat va erkinlik g‘oyalarini ilgari suradi. Masalan, Sherif bilan to‘qnashuvlarda Robin Hood boylardan olib kambag‘allarga beradi, shuningdek, “Merry Men” bilan hamkorlik qilib jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi.

Qahramon arxetipi shundaki Alpomish arxetipi klassik “alp” qahramon modeliga mos keladi. Bolalikdagi jasorati, janglarda ko‘rsatgan mardligi va zindondan qutulishi uni ideal epik qahramonga aylantiradi.

Masalan: “Alpomish bir qo‘lida qilich, bir qo‘lida qamchi bilan yovlarni mag‘lub etdi va qabilasini himoya qildi” [1, 45-b.].

Robin Hood esa ijtimoiy adolat himoyachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Boylar va kambag‘allar o‘rtasida tenglikni tiklash orqali u epik matnda subversiv qahramon sifatida ko‘rsatiladi. Masalan, balladalarda Robin Hood:

“He took from the rich, gave to the poor, and led his men through the forest in defiance of the law” [2, Vol. 3, p. 101].

Shu bilan, Alpomish jamiyat barqarorligini ta‘minlovchi integratsiyaga xizmat qilsa, Robin Hood individual va kollektiv qarshilikni ramziy qiladi.

Formulaviy poetikasi: Og‘zaki epik ijodning markaziy xususiyati - formulaviylik.

Alpomish dostonida: takroriy epitelar, parallel sintaksis va tipik syujet modellar keng qo‘llaniladi. Masalan, jang sahnalarida:

“Qo‘li qilichli, ko‘zi olovli Alpomish yovlarni birma-bir mag‘lub etdi” [1, 78-b.].

Robin Hood balladalarida esa refrenlar, hamkorlik dialoglari va “Merry Men” harakatlari ritmik va struktur barqarorlikni ta‘minlaydi:

“With bow in hand and heart so true, he roamed the greenwood all anew” [2, Vol. 1, p. 12].

Adolat konsepti shundaki Alpomishda adolat urug‘-qabila birdamligi va jamiyat barqarorligi bilan bog‘liq. Masalan, Alpomish yovlarni mag‘lub etib, qabilasini xavfsizligini ta‘minlaydi, bu restorativ adolatning epik tasviridir.

Robin Hoodda adolat boylar va kambag‘allar o‘rtasida tenglikni tiklash orqali namoyon bo‘ladi.

Masalan: “He robbed the greedy Sheriff to feed the hungry, ensuring fairness in the land” [2, Vol. 3, p. 78].

Natijada, adolat konsepti har ikki epik matnda mavjud, ammo tarixiy va madaniy sharoitga qarab talqini farq qiladi.

Gender va ayol obrazlari: Alpomishda Barchin qahramonning axloqiy legitimatsiyasini ta‘minlaydi va faqat sevgi obyekti emas, balki semantik jihatdan faol subyektdir [1, 142-b.].

Robin Hood an‘anasida Maid Marian obrazining roli ruhiy tayanch sifatida namoyon bo‘lib, ba‘zan faol epik harakatlarda ham ishtirok etadi [2, Vol. 3, p. 110].

Shu bilan, har ikki epik matnda ayol obrazlari passiv emas, balki qahramonlarning harakatlariga semantik jihatdan bog‘liq va faol rol o‘ynaydi.

Epik xronotop jixatdan Alpomish va Robin Hood matnlarida epik xronotop vaqt va makon orqali qahramon harakatlarini strukturaviy ravishda tashkil etadi. Masalan: Alpomish safarlari, janglar va zindondan qutulishi orqali vaqt-makon tizimi yaratiladi. Robin Hood esa o‘rmon va shahar makonida faoliyat ko‘rsatib, epik voqealarni ritmik va formula asosida tarqatadi.

Xulosa. Qiyosiy-tipologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Alpomish dostoni hamda Robin Hood haqidagi balladalar turli madaniy makonlarga mansub bo‘lishiga qaramay, ular umumiy arxetipik asosga ega bo‘lgan epik tizimlar sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki an‘anada qahramon obrazi nafaqat individual jasorat timsoli, balki jamiyatning axloqiy, ijtimoiy va ideologik qadriyatlarini ifodalovchi markaziy semantik yadroni tashkil etadi.

Tahlil shuni aniqladiki, Alpomish obrazi klassik epik “alp” modeli doirasida shakllanib, unda qahramonning asosiy funksiyasi jamiyat yaxlitligini saqlash, urug‘-qabila birdamligini mustahkamlash va tashqi tahdidlarga qarshi kollektiv himoyani ta‘minlashdan iborat. Bu esa uni integrativ va stabilizator qahramon tipiga kiritadi. Aksincha, Robin Hood obrazi ijtimoiy tizim ichidagi nomutanosiblikka qarshi chiqadigan, mavjud tartibni tanqid qiluvchi va adolatni qayta taqsimlash orqali tiklashga intiluvchi subversiv qahramon sifatida shakllangan. Shu jihatdan, u ijtimoiy qarshilik va alternativ adolat modelining ramziy ifodasidir.

Formulaviy poetika nuqtai nazaridan, har ikki epik tizim og‘zaki ijod an‘analariga xos bo‘lgan takroriy strukturalar, epitetlar va sintaktik parallelizmlar orqali shakllangan. Biroq ularning funksional yuklamasi turlicha: Alpomishda formulalar epik ulug‘lash va qahramonlikni idealizatsiya qilishga xizmat qilsa, Robin Hood balladalarida ular ko‘proq ritmik dinamika va kollektiv harakatni ifodalash vositasi sifatida ishlaydi. Bu farq epik matnlarning kommunikativ strategiyasidagi tafovutni ko‘rsatadi.

Adolat konsepti ham har ikki matnda markaziy kategoriya bo‘lsa-da, uning semantik talqini sezilarli darajada farqlanadi. Alpomishdagi adolat restorativ xarakterga ega bo‘lib, mavjud ijtimoiy tartibni tiklash va mustahkamlashga qaratilgan. Robin Hood an‘anasida esa adolat redistributiv model asosida qurilib, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va boylikni qayta taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Bu esa epik matnlarning tarixiy-kontekstual shartlanganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Gender aspektlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikkala an‘anada ayol obrazlari passiv fon elementi emas, balki qahramon faoliyatini legitimatsiya qiluvchi va semantik jihatdan yo‘naltiruvchi muhim komponent hisoblanadi. Barchin va Maid Marian obrazlari orqali epik diskursda axloqiy me‘yorlar, sadoqat va ijtimoiy rollar tizimi aks ettiriladi.

Epik xronotop darajasida esa makon va zamon kategoriyalari qahramonning sinovdan o‘tishi, transformatsiyasi va ijtimoiy funksiyasini ochib beruvchi strukturaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Alpomishda keng geografik harakat va vaqt davomiyligi epik monumentalizmni yuzaga keltirsa, Robin Hood balladalarida o‘rmon makoni va qisqa epizodik vaqt birliklari dinamik va fragmentar narrativni shakllantiradi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot epik folklorda universallik va milliy o‘ziga xoslikning dialektik birligini ko‘rsatadi. Arxetipik strukturalar global xarakterga ega bo‘lsa-da, ularning

konkret badiiy ifodasi har bir xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy tuzumi va madaniy qadriyatlari bilan bevosita belgilanadi. Shu bois, epik qahramon obrazi faqat badiiy konstruksiya emas, balki muayyan madaniy ong va ijtimoiy idealning konsentrlashgan ifodasi sifatida talqin qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alpomish / H. Zarif. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1998. – 400 b.
2. Child F. J. The English and Scottish Popular Ballads. – Boston: Houghton, Mifflin and Company, 1882–1898. – Vol. 1–5.
3. Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetikasi. – Toshkent: Fan, 2005. – 256 b.
4. Vladimir Propp. Morfologiya skazki. – Moskva: Nauka, 1969. – 168 s.
5. Alan Dundes. Interpreting Folklore. – Bloomington: Indiana University Press, 1980. – 312 p.

DISKURS TAHLILIDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUV: SIYOSIY, IJTIMOIIY VA MEDIAL DISKURSDA INSON OMILI

*Xunarova Lobar Akbaraliyevna,
Pedagogika-psixologiya va umumta’lim fanlar
kafedrasida katta o‘qituvchisi,
Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti, Olmaliq
lobarhunarova@gmail.com*

Abstract . This article explores the anthropocentric approach in discourse analysis, focusing on the role of the human factor in political, social, and media discourse. The study examines how language reflects human intentions, values, and identities within different communicative contexts. Using methods of discourse analysis, pragmatic interpretation, and cognitive linguistics, the research identifies key linguistic strategies that reveal the speaker’s position and influence audience perception. The findings show that anthropocentrism plays a crucial role in shaping discourse, as it emphasizes the interaction between language, thought, and social reality.

Аннотация

В данной статье рассматривается антропоцентрический подход в дискурс-анализе с акцентом на роль человеческого фактора в политическом, социальном и медиадискурсе. Исследуется, как язык отражает намерения, ценности и идентичность человека в различных коммуникативных ситуациях. С использованием методов дискурс-анализа, прагматического и когнитивного подходов выявляются языковые стратегии, раскрывающие позицию говорящего и влияющие на восприятие аудитории. Результаты показывают, что антропоцентризм играет ключевую роль в формировании дискурса.

Annotatsiya

Ushbu maqola nutq tahlilidagi antroposentrik yondashuvni o‘rganadi, siyosiy, ijtimoiy va ommaviy axborot vositalarida inson omilining roliga e’tibor beradi. Tadqiqot turli kommunikativ kontekstlarda til inson niyatlari, qadriyatlari va o‘ziga xosligini qanday aks ettirishini o‘rganadi. Diskurs tahlili, pragmatik talqin va kognitiv lingvistika usullaridan foydalangan holda, tadqiqot ma’ruzachi pozitsiyasini ochib beruvchi va tinglovchilarning idrokiga ta’sir qiluvchi asosiy lingvistik strategiyalarni aniqlaydi. Topilmalar shuni ko‘rsatadiki, antroposentrizm nutqni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki u til, fikr va ijtimoiy voqelik o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga urg‘u beradi.

Keywords: anthropocentrism, discourse analysis, political discourse, media discourse, human factor, pragmatics, identity

Ключевые слова: антропоцентризм, дискурс-анализ, политический дискурс, медиадискурс, человеческий фактор, прагматика, идентичность

Kalit so‘zlar: antroposentrizm, diskurs tahlili, siyosiy nutq, media nutqi, inson omili, pragmatika, o‘ziga xoslik

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik yondashuv tilni inson faoliyati, tafakkuri va ijtimoiy mavjudligi bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi. Diskurs tahlili esa tilning

real kommunikativ jarayondagi qo‘llanilishini o‘rganadi. Shu nuqtai nazardan, siyosiy, ijtimoiy va medial diskurslarda inson omilining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — diskurs tahlilida antroposentrik yondashuvni o‘rganish hamda turli diskurs turlarida inson omilining qanday ifodalanishini aniqlashdir.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Diskurs tahlili metodi
- Pragmatik tahlil
- Kognitiv yondashuv
- Kontekstual tahlil

Nazariy asos sifatida Teun A. van Dijk ning diskurs nazariyalari hamda Norman Fairclough ning kritik diskurs tahlili konsepsiyalaridan foydalanildi.

Natijalar

1. Siyosiy diskursda inson omili

Siyosiy diskursda nutq egasining shaxsiy pozitsiyasi, ideologiyasi va maqsadi muhim rol o‘ynaydi. Til vositalari orqali auditoriyani ishontrish, ta’sir o‘tkazish va manipulyatsiya qilish kuzatiladi. Masalan, nutqda “biz”, “xalq”, “kelajak” kabi birliklar kollektiv identitetni shakllantiradi.

2. Ijtimoiy diskursda insonning roli

Ijtimoiy diskursda shaxsning ijtimoiy maqomi, qadriyatlari va madaniyati til orqali namoyon bo‘ladi. Bu yerda insonning o‘zini ifodalashi va jamiyat bilan o‘zaro aloqasi muhim hisoblanadi. Til ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

3. Medial diskursda inson omili

Medial diskurs (OAV, internet, ijtimoiy tarmoqlar) inson ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu diskursda:

- emotsional leksika
- baholovchi birliklar
- sarlavhalar orqali ta’sir kuchaytiriladi

Natijada auditoriyaning fikri va qarashlari shakllantiriladi.

Muhokama

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, diskurs har doim inson omili bilan belgilanadi. Har bir nutq egasi o‘zining:

- maqsadi
- tajribasi
- ijtimoiy roliasosida til vositalarini tanlaydi.

Antroposentrik yondashuv diskursni faqat til tizimi sifatida emas, balki inson faoliyati mahsuli sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu yondashuv til va jamiyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ochib beradi.

Xulosa

Diskurs tahlilida antroposentrik yondashuv inson omilining markaziy o‘rinni egallashini tasdiqlaydi. Siyosiy, ijtimoiy va medial diskurslarda til insonning fikri, hissiyoti va maqsadini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu sababli, zamonaviy tilshunoslikda diskursni o‘rganishda inson omilini hisobga olish muhim metodologik asos hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Teun A. van Dijk T.A. Идеология: мультидисциплинарный подход. – Лондон: Sage Publications, 1998. – 365 с.
2. Norman Fairclough Н. Критический дискурс-анализ: критическое изучение языка. – Лондон: Longman, 1995. – 265 с.
3. George Lakoff Дж., Mark Johnson М. Метафоры, которыми мы живем. – Чикаго: University of Chicago Press, 1980. – 242 с.
4. Wilhelm von Humboldt В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества. – Кембридж: Cambridge University Press, 1988. – 298 с.

5. Edward Sapir Э. Язык: введение в изучение речи. – Нью-Йорк: Harcourt, Brace & Company, 1921. – 258 с.
6. Benjamin Lee Whorf Б.Л. Язык, мышление и реальность. – Кембридж: MIT Press, 1956. – 278 с.
7. Deborah Tannen Д. Разговорные голоса: повтор, диалог и образность в дискурсе. – Кембридж: Cambridge University Press, 2007. – 310 с.
8. Michel Foucault М. Археология знания. – Нью-Йорк: Pantheon Books, 1972. – 245 с.
9. John L. Austin Дж. Как совершать действия при помощи слов. – Оксфорд: Oxford University Press, 1962. – 168 с.
10. John Searle Дж. Речевые акты: очерк философии языка. – Кембридж: Cambridge University Press, 1969. – 203 с.

TOJIKISTONDA O‘ZBEK TILI LISONIY QURILISHINING SOHAVIY O‘RGANILISHI

Ermatov Ixtiyor Rizakulovich
Guliston davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası professori
Filologiya fanlari doktori (DSc)
ixtiyor_ermatov@mail.ru, tel. +99890 241 84 66

ANNOTATSIYA. Tojikistonda o‘zbek tilshunosligining shakllanishi, taraqqiyoti va rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillar hamda o‘zbek tilshunosligining rivojiga hissa qo‘shgan tilshunolar haqida fikr yuritiladi. Maqolada o‘zbek tilshunosligi O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida, unga qo‘shni respublikalarda ilk bor o‘rganilishiga e‘tibor qaratilgan.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi muammolarini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada mamlakatimizdagi mavjud ko‘p tilli jamiyat va amalda bo‘lgan turli tillarning o‘zaro ta’siri, holati, mukammallashuvi, mavqening oshishi hamda funktsional rivojlanishi masalalariga oid izchil tahlillarning yetarli emasligi, bu yo‘nalishdagi ilg‘or jahon tajribasini tadqiqotlarda samarali qo‘llash hamda o‘zbek tilining chet davlatlardagi taraqqiyoti masalalari bo‘yicha izlanishlarni olib borish tilshunosligimizdagi muhim vazifalardan biridir.

O‘zbek tilshunosligi turkiy tilshunoslikning nazariy jihatdan atroflicha mukammal rivoj topgan tarmoqlaridan biridir. O‘zbek tilshunosligi tilning jahon tilshunosligi so‘nggi yillarda qo‘lga kiritgan yutuqlarini o‘rganib, uni tilning barcha sath hodisalariga tatbiq etayotir. Bu xususiyatni o‘zbek tilshunosligining fonetika va fonologiya, so‘z yasalishi va morfemika, leksikologiya va frazeologiya, morfologiya va sintaksis sohalarida ko‘rish mumkin.

Mazkur maqola o‘zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, Tojikistonda o‘zbek tilshunosligining shakllanishi va taraqqiyoti, o‘zbek tili lisoniy qurilishining sohaviy o‘rganilishi masalalariga alohida e‘tibor qaratadi. Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilshunosligining Tojikistonda shakllanishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek tilshunosligining taraqqiyotida tutgan muhim o‘rni tahlil qilinadi. Shu bilan birga bu masalani yirik planda o‘rganish o‘zbek tilshunosligining hozirgi holatini ilmiy jihatdan chuqur va atroflicha tasavvur etishga imkon yaratadi. O‘zbek tilshunosligi Tojikistonda to‘liq shakllangan va rivojlangan fanlardan biridir. Shu jihatdan bu fanning ishlanishi, unga e‘tibor O‘zbekistondan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Ushbu ishda Tojikistonda o‘zbek tilshunosligining ana shu xususiyatlarini yoritish maqsad qilingan. Tadqiqotning maqsadini amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilangan: Tojikistonda o‘zbek tilshunosligi shakllanishi va taraqqiyotini yoritishda adabiyotlarni tahlil qilish, mavjud nazariyalarga tanqidiy munosabat bildirish; o‘zbek tilining sohaviy o‘rganilishini yoritish.

Kalit so‘zlar: turkologiya, tilshunoslik maktabi, fonetika, morfemika, leksikologiya, frazeologiya.

KIRISH. O‘zbek tilshunosligida til hodisalarini, xususan, lug‘aviy birliklarni komponent tahlil usulida o‘rganishga allaqachon kirishilganki, tahlilning bu usulini boshqa turkiy xalqlar til ilmidagi hozircha ko‘rish qiyin. “Tojikistonda o‘zbek tilshunosligi” mavzusi umumiy tilshunoslik mundarijasiga aloqador muammolar sirasiga kirib, mavzu zamonaviy dolzarb xarakter kasb etadi. Uning zamonaviy va dolzarbligi shundaki, o‘zbek tilshunosligi O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida, unga qo‘shni respublikalarda ilk bor o‘rganilayotir. Bunga yetarlicha asos ham bor, albatta. Tojikiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlarida o‘n beshdan ortiq mutaxassislar o‘zbek tilining fonetik-fonologik, morfem va so‘z yasalishi, morfologik va sintaktik qurilishi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tinimsiz shug‘ullanib keladi. Shuningdek, bu mamlakatda o‘zbek tilining lug‘aviy qurilishi, til birliklarining mazmuniy plani (semantikasi), badiiy asar tilini sinxron va diaxron rejalarida o‘rganish masalalari ham tadqiqotchilar e‘tibori markazida bo‘lib kelgan. Tojikiston o‘zbeklari shevalarini o‘rganish ham tojikistonlik tilshunoslar e‘tiboridan chetda qolmagan. Bunday murakkab va rang-barang mavzular bo‘yicha tadqiqotlar O‘zbekistonning Tojikistondan boshqa qo‘shni mamlakatlarida amalga oshirilmagan.

Tojikistonda o‘zbek tilshunosligi bilan asosan Xujand davlat universitetining (sobiq Leninobod davlat pedagogika instituti) o‘zbek filolog-olimlari shug‘ullanganlar va shug‘ullanmoqdalar. Shuning uchun Xujand davlat universitetida o‘zbek ilmiy tilshunoslik maktabi shakllangan va uning faoliyati, Tojikistonning o‘zidan tashqari, O‘zbekiston, Qirg‘iziston filologlari tomonidan tan olingan. Shunday dolzarb masalalardan biri Tojikistonda o‘zbek tili lisoniy qurilishining sohaviy o‘rganilishini keng yoritishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. O‘zbek tilshunosligining Tojikistonda shakllanishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan 2-3 maqola yozilgan va nashr etilgan bo‘lsa-da, u maxsus tadqiq etilmagan. Bu masalani yirik planda o‘rganish o‘zbek tilshunosligining hozirgi holatini ilmiy jihatdan chuqur va atroflicha tasavvur etishga imkon yaratadi. Xususan, T.Turdiboev, E.Eshmurodov tomonidan nashrga tayyorlangan “So‘z zargari” deb nomlangan maqolalar to‘plami [13, 102], N.Mahmudov va boshqalar tomonidan chop etilgan “Tojikistonlik o‘zbek tilshunoslari sardori” maqolasi [10, 121-125] o‘zbek tilida dastlabki ushbu yo‘nalishda o‘rganilgan ish hisoblanadi. Bundan tashqari E.Sheraliyevning “Til ilmi fidoyisi” [15, 2007], B.Sheronovning “Alloma tilshunos” [16, 80-93] maqolalari ushbu masalaga bag‘ishlangan.

Tadqiqot ishi ob‘ekti sifatida Xujand davlat universitetining 1964-1970 yillarda nashr etilgan o‘zbek tilshunosligi masalalariga bag‘ishlangan uch ilmiy maqolalar to‘plami “Ilmiy asarlar. XXII. Til va adabiyot masalalari” [7, 1964], “Ilmiy asarlar. XXVI. Til va adabiyot masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami” [8, 1967], “Ilmiy asarlar. XXXIV. Til va adabiyot masalalari” [9, 1970] tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot ob‘ekti Xujand davlat universitetida o‘zbek tilshunosligi masalalariga bag‘ishlangan konferentsiyalar hamda ilmiy to‘plamlarda nashr etilgan o‘zbek tilshunosligi muammolariga oid maqolalar tashkil etadi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy tahlil metodlaridan foydalanilgan: lingvistik tavsiflash, sistem, statistik, kontekstual tahlil usullari. Tadqiqot mavzusiga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda lingvistik tahlil usulidan foydalanilgan. Tojikistonda o‘zbek tilshunosligi shakllanishi va taraqqiyoti, o‘zbek tili lisoniy qurilishining sohaviy o‘rganilishi masalalarini yoritishda sistem tahlil usuli qo‘llanilgan. Statistik tahlil turli yillarda nashr etilgan ilmiy maqolalarda o‘zbek tili lisoniy qurilishining sohaviy o‘rganishda keng foydalanilgan.

MUHOKAMA. O‘zbek tili fonetikasi va fonologiyasiga oid amalga oshirilgan ishlar. Tojikiston o‘zbek ilmiy tilshunosligi maktabida, dialektologik tadqiqotlarni hisobga olmaganda, fonetika va fonologiyaga bag‘ishlangan yirik rejada ish qilinmagan. Bu masalada prof. A.Berdialiyev qalamiga mansub ikki ishni ko‘rsatish mumkin. Birinchisi olimning 1991 yili Toshkentda nashr etilgan “O‘zbek tili sintaktik paradigmatisasi asoslari” nomli risolasining “Til birliklarining paradigmatisasi va sintagmatik asoslari” qismida o‘zbek tili unlilar sistemasining tahlilidir [2, 50]. Risola pedagogika institutlarining o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun maxsus kursning nazariy materiali xarakterini kasb etadi. Unda o‘zbek adabiy tili unli fonemalarining paradigmatisasi ko‘lami haqida qimmatli ma‘lumot beriladi. Muallif o‘zbek adabiy tilidagi olti unli (i, u, o‘, a, o, e)ning hosil bo‘lish o‘rni, lablarning ishtiroki va qattiq-yumshoqlik,

uzun-qisqalik belgilariga ko‘ra 72 korrelyativ a‘zolarini paradigma asosida aniq va ishonarli belgilaydi, ishonarli sxema asosida barchaga tushunarli tarzda izohlaydi [2, 11-12].

Fonetika va fonologiya masalalariga bag‘ishlangan ikkinchi maqola o‘ta nazariy bo‘lib, umumiy tilshunoslik bahsida yozilgan. Maqolada fonema va tovush tushunchalari va ularning Leningrad va Moskva fonologik maktablardagi farqli talqini haqida, ularning asosli va asossiz tomonlari haqida fikr yuritiladi. Fonemalarni o‘rganishga rasmiy ixtisoslashgan fonologiya haqida olim quyidagilarni yozadi: “Fonologiya atamasiga real nutq tovushlarining barcha fiziologik va akustik xususiyatlari majmuasini o‘zida mujassamlashtirgan noreal, ya’ni xotirada shakllangan tiplarini o‘rganish yuklangan. Fonemalarga nisbatan real nutq tovushlarining tipiklashgan muqobili sifatida qaralishi ham ana shundan. Xullas, fonema tilning psixik xarakterdagi eng kichik segment birligi sifatida tushuniladigan bo‘ldi”. Maqolani olim “...fonemalar va ularning xususiyatlarini o‘rganuvchi mutaxassis – fonolog ayni o‘rinda nutq tovushlari va ularning amalini o‘rganuvchi fonetist esa, hissiy farq qiluvchi real nutq tovushlarini mavhumlashtiradigan fonemalarni o‘rganuvchi fonolog ham bo‘lmog‘i shart va zarur” deya yakunlaydi [3, 5-6].

Morfemika va so‘z yasalishi sohalariga oid amalga oshirilgan ishlar. Tojikiston o‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi va morfemikaning nazariy masalalari bilan shug‘ullanish o‘tgan asrning 60-yillari oxiridan boshlangan deyish mumkin. Chunki prof. A.Berdialiyevning ilmiy faoliyati o‘zbek tilida so‘z yasalishi va morfemika masalalarini o‘rganishdan boshlangan. Olimning 1970 yili taniqli tilshunos, prof. A.G‘ulomov rahbarligida yozilib, himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasi affiksial morfemalarning o‘zbek tilshunosligidagina emas, balki umumturkologiyada qo‘l urilmagan masalalaridan birini o‘rganishga qaratilgan edi. Bu tadqiqot “O‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shma affikslar” deb atalgan [4, 24].

Yosh olimning S.M.Kirov nomidagi Leninobod davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchilarining 1970 yili nashr etilgan ilmiy maqolalar to‘plamidan “O‘zbek tilida -chilik affiksi” hamda “-garu affiksi haqida” [9, 143-153] deb nomlangan ikki maqolasi joy olgan.

Birinci maqolasida A.Berdialiyev hozirgi o‘zbek adabiy tili so‘z yasalishi jarayonlarida faol amalda bo‘lgan va tarkibi -chi hamda -lik qo‘shimchalaridan tarkib topgan murakkab affiks haqida so‘z yuritgan bo‘lsa, ikkinchi maqolasida hozirgi vaqtda *ilgari, ichkari, tashqari, yuqori* so‘zlarining tarkibiga singishib ketgan va tarixan ikki jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi (-ga//ka//qa hamda -ra//ru)dan tarkib topgan murakkab qo‘shimcha va uning lisoniy amali xususida fikr yuritadi.

A.Berdialiyev so‘z yasalishi va morfemika masalalarini nazariy jihatdan o‘ta chuqur va mukammal tushunganligi uchun ham, shu mavzuda yozilgan doktorlik (T.Mirzaqulov) va nomzodlik (T.Mirzaqulov, Sh.Mirzaqulov, M.Atamurodov, M.Mirzaahmedov, D.Hasanova, O.Boymatov) dissertatsiyalarining ilmiy rahbari bo‘lgan. Prof. A.Berdialiyev so‘z yasalishi bilan bog‘liq rus, o‘zbek, tatar, boshqird, qirg‘iz va boshqa turkiy xalqlar tilshunosligida shu masala bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar mazmuni bilan jiddiy tanishib, so‘z yasash usullaridagi har xil qarashlar va ulardagi nomushtarak fikr va xulosalarga nisbatan o‘zining xolisona ob‘ektiv munosabatini bildiradi: so‘z yasash tizimida faqat affiksial va noaffiksial usulning mavjudligi va ularning ustuvorligi xususida o‘zining mantiqiy asosli fikrini olg‘a suradi [5, 5-14]. O‘zbek tili so‘z yasalishi yirik rejada SH.Mirzaqulov va M.Mirzaahmedovlar tomonidan o‘rganilgan.

Sh.Mirzaqulovning “O‘zbek tili so‘z yasalishi paradigmatisasi” nomi bilan nomzodlik dissertatsiyasi maqomida yakun topadi va Samarqand davlat universiteti qoshida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini berish uchun ixtisoslashgan dissertatsion kengashda 1995 yili himoya qilingan. Dissertatsiya natijalari Xujand davlat universitetining “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” nomi bilan nashr etilgan bir qator ilmiy maqolalar to‘plamida e‘lon qilinadi.

So‘z yasalishi bo‘yicha ikkinchi monografik ish M.Mirzaahmedov tomonidan amalga oshirilgan. U “O‘zbek tilida sinxron so‘z yasash motivlari” [11, 24] deb ataladi. Ishda sinxron so‘z yasalishi va uning strukturasiga xarakteristika beriladi. Yasovchi unsurlari (yasovchi-motivlovchi asos, yasovchi-motivlovchi vosita) shakl va ma’nosi hamda vazifasi bilan aniq va yorqin ajratiluvchi yasalmalar va ularning strukturasiga nisbatan “sinxron” atamasi nisbatlanib, so‘z yasashning ana shunday qurilishli turi sinxron so‘z yasalishi deb atalgan. Sinxron so‘z yasashning

markerli va markersiz turlari ham ajratiladi. Markerli sinxron so‘z yasashi qurilmalarida yasovchi-motivlovchi unsur shaklan va mazmunan bir butunlikda ishtirok etadi. Bu turga so‘z yasashning affiksali hamda qo‘shma so‘zlar xarakteridagi noaffiksali ko‘rinishlari kiritiladi. Sinxron so‘z yasashning markersiz turida ma’no ko‘chishining metonimiya, metafora shuningdek, konversiya va transpozitsiya yo‘llari bilan hosil bo‘lgan yasalmalar nazarda tutiladi. Olim dissertatsiyasining natijalari Xujand davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasining “O‘zbek tilshunosligi masalalari” nomi bilan nashr etilgan 7-kitobidan 19-kitobigacha e‘lon qilib borilgan.

Tojikistonda, xususan, Xujand o‘zbek tilshunosligi ilmiy maktabida morfemika masalalari ham keng perespektiv planda tadqiq etilgan. Bu masala Leninobod davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” ixtisosligini imtiyozli bitirib, kafedraga asissent-o‘qituvchi sifatida ishga qoldirilgan iqtidorli olim, filologiya fanlari doktori, professor T.Mirzaqulov va uning shogirdlari faoliyati bilan bog‘lanadi. T.Mirzaqulov 1980 yili “O‘zbek tilida shakl yasovchi qo‘shma affikslar” mavzusida nomzodlik, 1994 yili “O‘zbek tili morfem paradigmikasi va sintagmatikasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi himoya qilgan (har ikki ishga ilmiy rahbar – professor A.Berdialiyev). Olim 2002 yilga qadar Xujand davlat universitetida sirtqi bo‘lim prorektori, fakultet dekan o‘rinbosari, umumiy tilshunoslik va o‘zbek tili kafedralarida mudir vazifalarida ishlagan. Xujand davlat universitetidagi faoliyatida u o‘zbek tili morfemikasining turli masalalari bo‘yicha maqolalar e‘lon qilgan. Shu mavzu bo‘yicha ikki qismdan iborat monografiya ham chop etgan. Kitobda morfemika va funktsional-semantik maydon, morfem-morfologik paradigma, morfem ayniyatlilik masalalari yoritilgan. Morfemalar tasnifi va ular bilan aloqador qonuniyatlar xususida so‘z yuritilgan.

T.Mirzaqulov o‘zbek tili morfemalar tizimini, xususan, affiksali morfemalar tizimini rus, tatar, boshqird va boshqa rivojlangan tilshunosliklarda olg‘a surilgan zamonaviy qarashlarni chuqur o‘rganib, ularni o‘zbek tili morfemalar tizimiga ham tatbiq etadi. O‘zbek tilida so‘zlarning analitik shakllarini hosil qiluvchi yordamchi vazifaviy unsurlarni (yordamchi so‘zlar, ko‘makchi fe‘llar va h.k.) ham affikslarga vazifadosh yordamchi morfemalar sifatida qaraydi. O‘zbek tili morfemikasini bir qator lisoniy hodisalarni o‘z ichiga olgan to‘laqonli soha sifatida mukammallashtiradi [12, 1993].

Morfemika bo‘yicha M.Dushaboyev, V.Qodirova, M.Zokirova, M.Erkayev singari yosh tadqiqotchilar ham shug‘ullanganlar. M.Dushaboyev, V.Qodirova til morfem qurilishida yuz beruvchi shakliyl-ma’naviy o‘zgarishlar bo‘yicha; M.Zokirova morfemalarning struktur tasnifi va onomasiologik belgilari; M.Erkayev esa morfem ma’nolarning ob’ektiv borliq bilan munosabati masalalariga doir maqolalar e‘lon qilgan [23, 2000]. O‘zbek tili morfemikasiga doir monografik rejada yirik ish professor A.Berdialiyev tomonidan amalga oshirilgan. U “So‘z tarkibi va shakl-ma’no nomutanosibli” nomi bilan 2013 yili Bishkekda nashr etilgan [6, 164].

Leksikologiya va frazeologiya sohalari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar. Tojikiston o‘zbek ilmiy tilshunoslik maktabida leksikologiya va frazeologiya masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan hamda monografik rejada dissertatsiya ishlari qilingan. A.Berdialiyev, B.Eshonqulov, B.Jabborov, D.Berdialiyeva, O.Boymatov, D.Hasanovalar tomonidan ayrim maqolalar o‘zbek tilining lug‘aviy va frazem tizimida tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgan masalalarni o‘rganishga qaratilgan. Masalan, prof. A.Berdialiyevning “Suppletivizm va unga daxldor ba’zi tushunchalar haqida” [21, 3-14] maqolasida, rus tilshunosligida maxsus ishlanmagan, turkologiyada esa, til ilmi mutaxassislariga noma’lum bo‘lgan lug‘aviy sathning dolzarb bir muammosi haqida fikr yuritiladi. E’tirof etilishicha, bir umumiy klassemaga ega bo‘lgan har xil lug‘aviy-grammatik kategoriyaga mansub ikki leksema munosabatida suppletiv munosabat vujudga kelib, shu munosabatni tashkil qilgan so‘zlar lug‘aviy suppletivizmga mansub bo‘larkan. Ana shu umumiy klassema asosida ikki lug‘aviy birlik – lug‘aviy suppletiv sintagmatik munosabatga kirishib, sintagma (birikma) hosil qilar ekan. Olim *qo‘l* va *ushlamoq*, *ko‘z* va *ko‘rmoq*, *tabib* va *davolamoq*, *oyoq* va *yurmoq* singari so‘zlararo suppletiv aloqa mavjud va shu sabab bu so‘zlarni lug‘aviy suppletivlar deya izohlaydi.

Professor A. Berdialiyevning assimilyatsiya va dissimilyatsiya singari fonetik jarayonlarning izomorfizm qonuniyati ta’sirida tilning lug‘aviy sathida ham boshqacha lisoniy qiymat bilan amal qilishi haqidagi qarashlari uning “Semantik assimilyatsiya va dissimilyatsiya

hodisalari haqida” deb nomlanuvchi maqolasida o‘z ifodasini topgan [22, 5-12]. Maqola til ilmining o‘ta murakkab va dolzarb muammolariga qaratilgan. Ma’lum bo‘lishicha, semantik assimilyatsiya semantik dissimilyatsiya bilan mantiqiy-lisoniy jihatdan o‘zaro bog‘liq har xil tushunchalardir. Maqolada semantik assimilyatsiya va semantik dissimilyatsiyaning uch amaliy turi ajratiladi. Ular: a) sinxron semantik assimilyatsiya va dissimilyatsiya; b) diaxron semantik assimilyatsiya va dissimilyatsiya; v) qiyosiy semantik assimilyatsiya va dissimilyatsiya [22, 10]. A.Berdialiyevning nomi yuqorida tilga olingan ikki maqolasi ham umumtilshunoslik nuqtai nazaridan o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yirik monografik tadqiqotlar uchun mavzudir. Biroq maqolaning e’lon qilinganiga qariyb chorak asr bo‘layotgan bo‘lsa-da, afsuski, bu mavzu o‘zining fidoyi tadqiqotchilarini topgan emas.

B.Eshonqulovning “Arab-fors lug‘aviy o‘zlashmalarining ba’zi semantik xususiyatlari haqida” [17, 99-103]; “Arab leksik o‘zlashmalarining antonimiyaga munosabati” [18, 45-48]; “Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi arabcha so‘zlarning tematik guruhlanishi haqida” [19, 33-35]; “So‘z o‘zlashtirishning ba’zi masalalari haqida” [20, 7-10] maqolasi o‘zbek tili leksikologiyasi masalalariga bag‘ishlangan.

Dotsent O.Abdunazarovning “Umumtil iborolari asosida yaratilgan individual frazeologik neologizmlar haqida” [22, 21-24] maqolasida o‘zbek frazeologiyasiga oid masalalardan biri o‘rganilgan.

Tojikistonda o‘zbek tili lug‘aviy va frazeologik tizimining nazariy masalalari bilan shug‘ullanishga 2000-yillardan keyin alohida e’tibor berila boshlandi. Prof. A.Berdialiyev va uning D.Hasanova, SH.Rasulova, Q.Jabborova, B.Jabborov, O.Boymatov singari yosh shogirdlari tomonidan o‘zbek tili leksikologiyasining tadqiqotchilar nazari tushmagan zamonaviy masalalari o‘rganilib, ularning tadqiqotlari natijalari bo‘yicha ayrim maqolalar e’lon qilindi. Masalan, “O‘zbek tilshunosligi muammolari” ilmiy maqolalar to‘plamining 2008 yili “Xuroson” matbaasida nashr etilgan 17-kitobida M.Turdibekovning (“Konibodom makrotoponimi tizimidagi mikrotoponimlar haqida”), B.Jabborovning (“Qarindoshlik nomlarining yaqinlik ma’nolarida qo‘llanishi haqida”), H.Hamzayevning (“O‘zlashma lug‘aviy birliklar va ularning ba’zi lisoniy xususiyatlari haqida”), Z.Abdualiyeva va SH.Rasulovalarning (“Lug‘aviy-semantik mikroqurilmalar tizimidagi ekvonim va ekvonimiya hodisalari haqida”) o‘zbek tilining sinxron leksikologiyasining turli masalalariga bag‘ishlangan maqolalari berilgan. O.Boymatovning xuddi shu to‘plamdan joy olgan “Jon so‘zi ishtirokida shakllangan frazeologik iboralarining xususiyatlari haqida” maqolasida tojik tili lug‘aviy birliklari ishtirokida hosil bo‘lgan o‘zbek frazeologik iboralarining bir ko‘rinishi xususida fikr yuritilgan.

Prof. A.Berdialiyevning “Lug‘aviy birliklararo lisoniy munosabatlar masalasiga doir” nomli maqolasida lug‘aviy birliklar: a) shakldoshlar so‘zlar; b) ohangdosh so‘zlar; v) ma’nodosh so‘zlar kabi uch guruhga ajratiladi. Lug‘aviy birliklarning denotativ asosda farq qiluvchi guruhi o‘z navbatida yana giponimlar, ekvonimlar, partonimlar va graduonimlarga ajratiladi [14, 9-16].

Tojikistonlik yosh tilshunoslarning ilmiy maqolalari qo‘shni respublika oliy o‘quv yurtlari ilmiy to‘plamlarida ham nashr etilgan. Qirg‘iziston Respublikasi Batken davlat universitetining Sulukta gumanitar-iqtisodiyot instituti ilmiy to‘plamlarining “Aktualnie problemi gumanitarno-pedagogicheskix nauk” nomi bilan nashr etilgan 2-kitobida [1, 2011] B.Jabborovning “Lug‘aviy sathni sistema sifatida o‘rganish masalasiga doir” [1, 48-53]; Xujand davlat universiteti o‘zbek tili kafedrasining tadqiqotchilari D.Hasanova va O.Boymatovlarning “O‘zlashma lug‘aviy birliklarning o‘zbek tili so‘z yasallishidagi mavqei haqida (arab lug‘aviy o‘zlashmalari misolida)” [1, 66-73] hamda “O‘zlashma lug‘aviy birliklar ishtirokida o‘zbek tili frazeologizmlarining yasallishi haqida” [1, 53-61] ikki maqolasi chop qilingan. Bundan tashqari, ayni shu nashrda tadqiqotchi D.Hasanovanning “O‘zlashma lug‘aviy birliklar so‘z yasash bazasi sifatida” nomli maqolasi ham berilgan [1, 37-42]. Bu ma’lumotlardan tojikistonlik o‘zbek filologlarining boshqa respublika oliy o‘quv yurtlari va ilmiy muassasalari bilan yaqin aloqada bo‘lganligidan darak beradi.

Tojikistonda o‘zbek tilshunosligining leksikologiya va frazeologiya sohalari bo‘yicha amalga oshirilgan yirik ishlar sifatida B.Eshonqulovning 2005 yili himoya qilingan “O‘zbek tilida

arab lug‘aviy o‘zlashmalarining sinxron tahlili” nomli nomzodlik dissertatsiyasini tilga olish mumkin.

NATIJALAR. Ushbu maqolada quyidagi masalalarga e’tibor qaratilgan bo‘lib, Tojikistonda o‘zbek tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy asoslari belgilangan; Tojikistonda nashr etilgan ilmiy maqolalar to‘plamlari va ularga kiritilgan maqolalar o‘zbek tilshunosligining sohalari bo‘yicha guruhlariga ajratilib, tahlil qilingan; Tojikistonda nashr etilgan monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalari sohaviy tahlil etilgan; o‘zbek tilshunosligi sohasida barakali va simarali ijod qilgan ba’zi mutaxassislar faoliyatiga alohida e’tibor berilgan. Tojikistonda o‘zbek tilshunosligi bo‘yicha qilingan ilmiy, ilmiy-ommabop, ilmiy-uslubiy ishlar sohama-soha tahlil etilgan.

XULOSA. Tojikiston o‘zbek tilshunosligi maktabida olib borilayotgan va amalga oshirilgan ishlar, o‘zbek tilshunosligining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Shu bois bu ilmiy maktabda amalga oshirilgan ishlarni quyidagi sohaviy guruhlariga ajratish mumkin: fonetika va fonologiya sohasiga oid, morfemika va so‘z yasalishi sohalariga oid, leksikologiya va frazeologiya sohasiga oid, morfologiya sohasiga oid, sintaksis sohasiga oid, lug‘aviy va grammatik semasiologiya sohasiga oid, badiiy asar tilini o‘rganish sohasiga oid, dialektologiyaga oid, o‘zbek tilini o‘qitish uslubi-yatiga oid, o‘zbek sinxron sotsiolingvistikasiga oid amalga oshirilgan ishlar. Bundan tashqari o‘zbek tilshunosligining amaliy (praktik) jabhasiga oid amalga oshirilgan ishlar ham mavjud. Ularga quyidagilar kiradi: turli xarakterdagi lug‘atlar; tilshunoslikning ayrim sohalari bo‘yicha amalga oshirilgan mashqlar majmuasi; o‘zbek tilshunosligining ayrim sohalari bo‘yicha amalga oshirilgan test-sinov mashqlari majmualari va boshqalardan iborat.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aktualnie problemi gumanitarno-pedagogicheskix nauk. Nauchniy sbornik. №2. – Batken, 2011.
2. Berdialiyev A. O‘zbek tili sintaktik paradigmaticasi asoslari. – Toshkent, 1991. – 50 b.
3. Berdialiyev A. Fonetika va fonologiya hamda ularning o‘zaro munosabati masalasiga doir // Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 3-kitob. – Xujand, 2015. – B. 5.
4. Berdialiyev A. Slojnie slovoobrazuyushie affiksi v uzbekskom yazike. Avtoreferat kandidatskoy dissertatsii. – Tashkent, 1970. – 24 s.
5. Berdialiyev A. So‘z yasalishi masalalariga doir ba’zi mulohazalar // O‘zbek tilshunosligi muammolari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 17-kitob. – Xujand, 2008. – B. 5-14.
6. Berdialiyev A. So‘z tarkibi va shakl-ma’no nomutanosibligi. Monografiya. – Bishkek, 2013. – 164 b.
7. Ilmiy asarlar. XXII. Til va adabiyot masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Leninobod, 1964.
8. Ilmiy asarlar. XXVI. Til va adabiyot masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Leninobod, 1967.
9. Ilmiy asarlar. Til va adabiyot masalalari. XXXIV. – Leninobod, 1970.
10. Mahmudov N., Madvaliev A., Sheraliyev E. Tojikistonlik o‘zbek tilshunoslari sardori. O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – №2. – B. 121-125.
11. Mirzaaxmedov M. Motivaniya sinxronnogo slovoobrazovaniya v uzbekskom yazike. – Xujand, 2005. – 24 s.
12. Mirzaqulov T. O‘zbek tili morfemikasida paradigmatic va sintagmatic munosabatlar. – Xujand, 1993.
13. So‘z zargari. (Professor A. Berdialiyev tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan anjuman materiallari to‘plami. Nashrga tayyorlovchilar Turdiboev T., Eshmurodov E.) – Xujand, 2019. – 102 b.
14. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Xujand: “Nuri ma’rifat”, 2011. – B. 9-16.
15. Sheraliyev E. Til ilmi fidoyisi / Xalq ovozi. 2007 yil 18 oktyabr.
16. Sheronov B. Alloma tilshunos // Sharqnoma. №2(11). – Xujand, 2014. – B. 80-93.

17. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Xujand, 1993. – B. 99-103.
18. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari 2-kitob, – Xujand, 1994. – B. 45-48.
19. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 5-kitob. – Xujand, 1995. – B. 33-35.
20. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 6-kitob. – Xujand, 1995. – B. 7-10.
21. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 7-kitob. – Toshkent, 1996. – B. 3-14.
22. O‘zbek tilshunosligi masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 10-kitob. – Xujand, 1997. – B. 5-12.
23. O‘zbek tilshunosligi masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 14-kitob. – Xujand, 2000.

TIL VA MILLIY RUHIYAT FIDOYISI!

*Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti
23-11 guruh 3-kurs talabasi
Ismatova Xursanoy Abdinazar qizi
Ismatovaxursanoy19@gmail.com
+998931219108*

Annotatsiya: Ushbu maqolada filolog olim Mirzakulov Tursunali O‘tayevichning o‘zbek tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi, uning 60 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida amalga oshirgan ishlari tahlil qilinadi. Muallif tilning milliy-ma’naviy ruhiyat bilan bog‘liqligi masalalarini olimning ilmiy qarashlari asosida yoritib beradi.

Abstract: This article analyzes the contribution of the philologist-scholar Mirzakulov Tursunali Utayevich to the development of Uzbek linguistics, as well as his activities during 60 years of scientific and pedagogical career. The author highlights the issues of the connection between language and national-spiritual mentality based on the scholar's scientific views.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, milliy ruhiyat, filologiya, pedagogik mahorat, ilmiy meros, o‘zbek tili.

Keywords: linguistics, national spirit, philology, pedagogical skill, scientific heritage, Uzbek language.

Til nafaqat aloqa vositasi, balki millatning madaniy kodi, uning tarixiy xotirasi va ma’naviy qiyofasidir. O‘zbekistonda tilshunoslik fanini yangi bosqichga olib chiqqan, til va millat ruhini uyg‘unlikda tadqiq etgan olimlar orasida Mirzakulov Tursunali O‘tayevichning alohida o‘rni bor. Ustozning 78 yillik umr yo‘li va 60 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati haqiqiy zahmatkash olimning hayot maktabidir.

Tursunali O‘tayevichning ilmiy faoliyati o‘zbek tili grammatikasi, leksikologiyasi va tili o‘qitish metodikasining eng murakkab qirralarini qamrab oladi. Olimning ilmiy qarashlarida "Til — millatning borlig‘i" tamoyili markaziy o‘rinni egallaydi.

1. Ilmiy vorislik va metodologiya: 60 yillik faoliyat davomida olim o‘zbek tili qurilishini shunchaki qoidalar yig‘indisi emas, balki jonli bir tizim sifatida tadqiq etdi. Uning ilmiy izlanishlari zamonaviy o‘zbek tilshunosligida nazariya va amaliyotning uyg‘unligiga xizmat qiladi.

2. Ma’naviy-ma’rifiy ta’sir: Tursunali Mirzakulov nafaqat quruq faktlar ustida ishlaydigan olim, balki har bir so‘z ortidagi milliy ruhni his qila oladigan mutaxassisdir. U o‘z asarlarida tilning millat ma’naviyatini

shakllantirishdagi xizmatini ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan asoslab bergan.

3. Pedagogik mahorat: 60 yillik pedagogik staj — bu minglab shogirdlar, yuzlab davomchilar deganidir. Ustozning ma’ruza xonalari hamisha yosh tadqiqotchilar bilan gavjum bo’lib kelgan. U kishining o’qitish uslubida ustoz-shogird an’alarining eng go’zal namunalari ko’rinadi.

TIL — MILLIY RUHIYAT KO’ZGUSI

Anjuman mavzusidan kelib chiqib aytish mumkinki, Tursunali O’tayevich o’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, uning imkoniyatlarini dunyo miqyosida ko’rsatish borasida tinimsiz mehnat qildi. Olimning ta’kidlashicha, millatning ruhi uning tilida yashaydi va til yo’qolsa, millatning o’zligi ham tanazzulga yuz tutadi.

Filolog olim Mirzakulov Tursunali O’tayevichning ilmiy merosida markaziy o’rin tutuvchi "Til — milliy ruhiyat ko’zgusi" kontsepsiyasi, tilning shunchaki aloqa vositasi emas, balki millatning o’zligini anglatuvchi jonli xazina ekanligiga asoslanadi. Olim o’zining 60 yillik tadqiqotlari davomida shuni ilmiy isbotladiki, o’zbek tilining har bir tovushi, har bir lisoniy birligi xalqimizning asriy tafakkur tarzi, dunyoqarashi va ruhiy kechinmalarini o’zida aks ettiradi. Masalan, tilimizdagi andisha, shukronalik va ehtiromni ifodalovchi o’ziga xos iboralar o’zbek millatining bag’rikenglik va mehmondo’sstlik kabi xislatlari bilan uzviy bog’liqdir. Tursunali O’tayevichning fikricha, millat o’zining ijtimoiy-tarixiy tajribasini, etik va estetik qarashlarini aynan so’z qoliplariga quyadi; shu sababli ham tilni o’rganish — bu millatning qalbini va tarixiy xotirasini anglash demakdir. Olim tilni milliy ruhiyatning "genetik kodi" deb hisoblab, uning sof saqlanishi milliy ma’naviyatning pokligini ta’minlashini uqtiradi. U kishining ilmiy maktabida tilshunoslik quruq qoidalar majmuyidan iborat emas, balki insonning ichki olamini, ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi qudratli tarbiya vositasi sifatida talqin etiladi. Mazkur qarashlar bugungi kunda o’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish va yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda g’oyaviy poydevor bo’lib xizmat qilmoqda. Zero, ustoz ta’kidlaganidek, tilimiz qanchalik jilolansa, milliy ruhiyatimiz ham shunchalik yuksalaveradi.

Mirzakulov Tursunali O’tayevich — o’zbek filologiyasi va pedagogikasining tirik ensiklopediyasidir. Uning 78 yoshni qarshilashi va ilmiy maydondagi 60 yillik barakali mehnati yosh avlod uchun yuksak namuna bo’lib xizmat qiladi. Olimning ilmiy merosi hali ko’plab tadqiqotlar uchun poydevor bo’lishi shubhasiz.

Mirzakulov Tursunali O’tayevichning 78 yoshni qarshilashi — bu o’zbek tilshunosligining sharaflı bekatidir. Olimning 60 yillik faoliyati davomida erishgan yutuqlari quyidagilarda o’z aksini topadi:

Birinchidan, til va milliy ruhiyatning o’zaro aloqasini ilmiy-nazariy jihatdan yangi bosqichga ko’tardi.

Ikkinchidan, o’zbek tili o’qitish metodikasining fundamental asoslarini takomillashtirdi.

Uchinchidan, milliy ma’naviyatimizni boyituvchi yuzlab ilmiy asarlar va minglab munosib mutaxassislar armiyasini yetishtirdi.

Ustozning ilmiy merosi — kelajak avlodlar uchun bitmas-tuganmas xazinadir. U kishining hayoti ilmga sadoqat bilan yashashning, ona tilini muqaddas bilishning tirik timsolidir.

Tabrik so’zi:

Muhtaram Tursunali O‘tayeovich! Sizni sharaflı 78 yoshingiz va 60 yillik ilmiy zafarlaringiz bilan qutlaymiz. Siz yaratgan ilmiy maktab hamisha nurli, shogirdlaringiz kamoli esa doimiy bo‘lsin!

“Daryo o‘zanidan chiqmaydi, daryo mangu oqadi. Ilm ham daryo kabi avlodlardan avlodlarga o‘tib, insoniyat ma’naviyatini sug‘oradi.”

Siz ana shu ilm daryosining zahmatkash va sharaflı bunyodkorisiz. 78 yillik shukrona kuningiz muborak bo‘lsin, Aziz Ustoz!

КОГНИТИВЛИК ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ТАЛҚИНЛАРИ

Xojaliyev Ismail Tajibayevich

Farg‘ona davlat universiteti professori, f.f.n.

Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada kognitivlik tushunchasi va uning turli fanlar doirasidagi talqinlari atroflicha yoritilgan. Tilshunoslik, psixologiya va falsafa sohalarida kognitivlikka berilgan ta’riflar qiyosiy tahlil qilinib, uning mental jarayon sifatidagi mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, kognitiv tilshunoslikda konsept tushunchasi, uning tilda ifodalanish vositalari hamda tadqiq etish metodlari, jumladan, freym tahlil, komponent tahlil va kontekstual tahlil usullari keng yoritilgan. Konseptual tahlil metodining universalligi asoslanib, u orqali lisoniy birliklarning semantik va madaniy xususiyatlarini aniqlash imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Maqolada kognitiv yondashuvning zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kognitivlik, konsept, tilshunoslik, mental jarayon, tahlil metodlari, semantika, kognitiv yondashuv

Keyingi yillarda tilshunoslikda kognitiv tadqiqotlarga e’tibor kuchayib bormoqda. Bu esa mazkur tushuncha va uning ifodasi bo‘lgan termin va atamalarga alohida izoh berish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Ko‘plab tilshunoslar kognitivlikni til birliklariga kognitiv jihatdan yondashishni nazarda tutsa, boshqa bir tilshunoslar kognitivlikni tilshunoslikning alohida yo‘nalishi sifatida talqin qilmoqda, ayrim tilshunoslar esa unga lingvistik paradigma sifatida yondashmoqdalar. Shuningdek, kognitivlikka antropotsentrik paradigma ichidagi bir yo‘nalish sifatida qarash ham ko‘zga tashlanmoqda. Mavjud lug‘atlarda ham turlicha izohlarni ko‘rish mumkin. Jumladan, P.X.Kollinning Londonda yaratilgan «Easier English Student Dictionary» lug‘atida «kognitivlik – tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon»³³ deb qisqa ta’rif keltirilsa, Oksford lug‘atida mazkur terminning ma’nosi kengaytirilib, «kognitivlik – bu, tushunishning mental jarayoni»³⁴ sifatida ta’riflanadi. Malayziyada chop etilgan «Makmillan ingliz tili lug‘ati»da «Kognitivlik termini psixologiya sohasida keng qo‘llaniladigan hamda narsa-buyumlar, atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni tanish va tushunish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi»³⁵ deya ta’riflanadi. J.Richards va R.Schmidtning «Tilni o‘qitish va amaliy tilshunoslik bo‘yicha Longmen lug‘ati»da «kognitivlik – fikrlash, eslab qolish, idrok etish, tanish, tasniflash kabi turli xil mental jarayonlarni o‘z ichiga oladi»³⁶ deyiladi. AQShda chop etilgan «Merriam-Vebstr lug‘ati»da ham kognitivlik terminiga yuqoridagi lug‘atlardagi kabi o‘xshash ta’riflar keltirilgan: «kognitivlik – bu fikrlash, eslab qolish, anglash kabi jarayonlarni o‘z tarkibiga oladigan mental jarayon sifatida qaraladi»,³⁷ deyilsa, 2017-yilda Massachusetsda chop etilgan «Merriam-Vebstr lug‘ati»da esa «kognitivlik – ongli intellektual faoliyat bo‘lib, o‘z ichiga fikrlash, eslash, anglash yoki tildan foydalanish

³³ Easier English Student Dictionary, P.H. Collin, Bloomsbury Reference Book, British Library Cataloguing-in-Publication Data, London, 2003, pp 1025, p 147

³⁴ Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English, Oxford University Press, New York, 2005, pp 1780, p 288

³⁵ Macmillan English Dictionary for advanced learners, New Edition, printed and bound in Malaysia, 1748, 2012, p 278

³⁶ Jack C. Richards, Richard Schmidt, Longman Dictionary of Language teaching and applied linguistics, Fourth Edition, Routledge Taylor & Francis Group, London and New York, 2013, www.routledge.com. 644/ p 90

³⁷ Merriam-Webster’s Advanced Learner’s English Dictionary, The United States of America, 2008, pp 2014, p 354.

kabi jarayonlarni oladi»³⁸ deyilgan. «Collins Cobuild» ingliz izohli lug‘ati ham yuqoridagi lug‘atlarda keltirilgan ta’riflarni tasdiqlab, «kognitivlik bilish, o‘rganish va tushunishni o‘z ichiga oluvchi mental jarayondir»³⁹ deb ta’riflanadi.

Demak, kognitivlik – bu, ongli, intellektual, mental jarayon, faoliyat bo‘lib, o‘z ichiga tushunish, anglash, fikrlash, eslab qolish, tasniflash, idrok etish, voqea-hodisalarni tanish va hattoki tildan foydalanish kabi turli xil jarayonlar majmuidir.

SH. Safarov «*cognitive*» so‘zi ingliz tilida «bilishga oid», «*cognize*» bilmoq, anglamoq, tushunmoq, «*cognition* – bilish» kabi ma’nolarni keltirib, «dunyoni, voqelikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emasligini, ayrim hollarda bilishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog‘lab qo‘yishadi»⁴⁰ kabi fikrlarni bayon qiladi.

«Kognitivlik» terminiga falsafaga oid lug‘atlarda ham e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu lug‘atlarda kognitivlik tushunchasini falsafiy qonuniyatlar bilan bog‘liq jihatlari izohlangan. Jumladan, «Falsafa qomusiy lug‘at»ida «kognitivlik» so‘zi lotin tilidagi «*cognitio*» «bilim, bilish» kabi ma’nolarni berib, 1. Hozirgi zamon g‘arb fan sotsiologiyasida, falsafasi bilish nazariyasida aynan bilimga oid tomonini ishlatiladigan atama; 2. Kognitivlik yoki bilishga muvofiq, hodisani bilish imkoniyatini ifodalovchi tushuncha; 3. Maqsadga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlar to‘g‘risidagi ilmiy g‘oya, axborotlar va h.k.»⁴¹ kabi ta’rifni keltirsa, A.R.Leysining «Falsafa lug‘ati»da «bilim, ishonch, o‘ylash va aqliy jarayonlar kognitiv deyiladi»⁴² kabi ta’riflanadi. Antoni Flyu «kognitivlik» termining ta’rifini kengaytirib, «tushunish, fikrlarning shakllantirish va bilimlarni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan aqliy jarayonlarni bildiradi va shu sababli biror-narsani xohlash yoki niyat qilish kabi ixtiyoriy jarayonlardan ajralib turadi»⁴³ degan fikrni o‘zining «Falsafa lug‘ati» da keltiradi. B.V.Minsning «Tanlangan falsafiy terminlar glossariy» sida «kognitiv» terminini quyidagicha izohlaydi: «kognitivlik, bu bilish qobiliyati yoki bilish hodisasi;

Moskvada chop etilgan E.N.Zaxarenko, L.N.Komarov, I.V.Nechayevalarning xorijiy so‘zlar izohiga bag‘ishlangan lug‘atida «kognitiv» termini «idrok, bilim kabi ma’nolarini berib, bilish, fikrlash hamda idrok etish bilan bog‘liq tushunchadir»⁴⁴ deb ta’riflanadi. Taniqli tilshunos V.A.Maslova «bilim va ma’lumotlar bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni kognitiv jarayonlar deyiladi, «kognitivlik» so‘zi bilan bir qatorda «aqliy», «mental» kabi so‘zlar ishlatiladi»,⁴⁵ deb qaraydi.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, kognitivlik – bu, shunchaki, bilish emas, insonni qurshab olgan narsa-buyumlar, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni tushunish, ularni chuqur anglab, fikr bera olishda xizmat qiladigan juda keng ma’nodagi bilim ekanligi hamda u inson ongida yuzaga keladigan aqliy jarayon ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Konseptlar xalqning turmush tarzi va tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi hamda madaniyatni tushunish uchun xizmat qiladigan bebaho kalit vazifasini bajaruvchi til tizimidagi murakkab mental birliklar bo‘lib⁴⁶, konseptlarni tadqiq etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

A.Vejbiskaya, N.D.Arutyunova, A.P.Babushkin, N.A.Krasavskiy, V.P.Neroznak kabi tilshunos olimlarning fikrlaridan kelib chiqqan holda shuni aytish joizki, konseptning ifodalanishi verbal vositalari bilan bog‘liqdir. Konseptlar tilda leksema, frazema, paremiya, metafora, tasviriy ifoda hamda gaplar

³⁸ The Merriam-Webster Dictionary, New Edition, Merriam-Webster, Incorporated Springfield, Massachusetts, USA, 5th Printing, 2017, pp 939, p139

³⁹ Collins Cobuild Advanced Learner’s Dictionary, Published by Collins, An imprint of HarperCollins Publishers, Westerhill Road, Bishopbriggs, Glasgow G64 2QT, Ninth Edition 2018, HarperCollins Publishers 2018, pp 2077, pp 1812-1813

⁴⁰ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах “Сангзор” нашриёти, 92-бет. 2006, 10-бет

⁴¹ Фалсафа қомусий луғат, “Ўзбекистон Файласуфлари Миллий жамияти нашриёти”, “Шарқ” нашриёт-матбаа Акциядорлик компанияси Бош тахририяти, Тошкент-2004, - 491, 198 бет

⁴² A.R. Lacey, A Dictionary of Philosophy, third edition, Department of Philosophy, King’s College, University of London, Routledge is an imprint of the Taylor & Francis Group, Taylor & Francis e-Library, 2005., pp 394, p 64

⁴³ Antony Flew, A Dictionary of Philosophy, Laurence Urdang Associates Ltd, 1979, Oxford, pp 363, p 61

⁴⁴ Захаренко Е.Н., Комаров Л.Н., Нечаева И.В. Новый словарь иностранных слов. М., Азбуковник, 2008. С. 389

⁴⁵ Маслова В.А, Когнитивная лингвистика, учебное пособие, Минск, ТетраСистемс, 2004,- 256 с, стр 7

⁴⁶ Леонтович О.А. Русские и американцы: парадоксы межкультурного общения: Монография / О.А. Леонтович. – М.: Гнозис, 2005. – 352 с.

orqali voqelanadi. Shuning uchun konseptlarni o‘rganishda turli metodlardan foydalaniladi. «Kognitiv tilshunoslikda freym tahlili, kognitiv metafora va kognitiv xarita metodlari faol hisoblanadi».⁴⁷ Shuningdek, konseptlarni tahlil qilishda quyidagi metodlarga ham murojaat qilinadi: leksikografik tadqiq metodi, komponent tahlil metodi, so‘z yasash tahlili metodi, so‘zning ichki yasashini o‘rganish metodi, sintagmatik (distributiv) metod, leksik-semantik guruhlarini tadqiq etish metodi, paremiologik tahlil metodi, kontekstual tahlil metodi, eksperimental tahlil metodi kabi. Biroq bu metodlar konseptual tahlilni atroflicha tadqiq etish uchungina ishlatiladi.

Konseptual tahlil metodi konseptni chuqurroq o‘rganish uchun xizmat qiladi. Chunki tilshunoslarning fikriga ko‘ra, ma’lumotlarni izohli луғатларда таҳлил qilish zaruriyati ularning semantik jihatdan ochishga turtki bo‘ladi va konseptlarning assotsiativ hamda konnotativ komponentlarini tasniflash imkonini ham beradi⁴⁸. Masalaga bunday yondashuvda konseptning yadro (o‘zagi) va periferiyasini aniqlash imkoni yuzaga keladi. Shuningdek, «konsept mazmunining dinamikasi»ni aniqlash uchun turli yillarda nashr qilingan lug‘atlarni solishtirish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.⁴⁹ Bu metod bilan bog‘liq holatda komponent tahlilga ham murojaat qilishga zarurat tug‘iladi. Bu metod so‘zlarning semantik tarkibini aniqlash orqali ma’nolarni o‘rganish, shuningdek, konsept, so‘z, tushuncha o‘rtasidagi munosabatlarni tasniflashda qo‘l keladi. Shuning uchun konseptni o‘rganishda komponent tahlil muammosini o‘rgangan M.V.Nikitin⁵⁰, S.G.Vorkachev⁵¹ kabi tilshunoslar bu masalaga alohida e’tibor qaratgan. Chunki komponent tahlil metodi so‘zning ta’riflanishiga asoslanganda, lekin bu metod so‘z ma’nosining lug‘atdagi talqinidan tashqari, so‘zning «leksik, leksikologik, grammatik yoki mantiqiy-konseptual xususiyatga ega» ekanligini ham ko‘rsatadi.

Agar konsept, so‘z, tushuncha munosabatlari leksikografik tadqiq orqali oydinlashtirilsa, komponent tahlilda konseptning semantik strukturasi va uning shakllanishi muammolari aniqlanadi. So‘z yasash tahlilida esa konseptning nominativ hamda derivativ imkoniyatlarini aniqlash imkoniyatlarni ochib beradi. ya’ni leksemaning yasash «faoliyati»ning tahlili, verballashgan konsept, uning etimologiyasi (kelib chiqishi), derivatlar semantikasining aniqlash va tavsiflash ham bir qator «o‘rganilayotgan tushunchaning qo‘shimcha kognitiv xususiyatlarini»⁵² ochishga xizmat qiladi.

So‘zning ichki strukturasi tahlil qilish ham konseptni o‘rganishga keng yo‘l ochadi. Chunki so‘z ma’nosidagi o‘zgarish, ma’no kengayishi, ma’no torayishi kabilar tushunchaning oydinlashtirib bersa, bu orqali «ma’naviy yoki moddiy madaniyatning bir parchasini tiklash mumkin»⁵³ bo‘ladi. Chunki konsept olamning lisoniy manzarasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu til egalarining etnomadaniyatini o‘zida ifodalaydi. So‘zning ichki shakli har doim nominant va nomlash negizini anglash asosida yotgan «tirik» xususiyat sifatida tushuniladi va uni so‘zning etimologiyasi bilan aralashtirib yubormaslik zarur.⁵⁴ Misol uchun, «izba» so‘zi dastavval «isitmoq» fe’li bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, «pechkali uy, issiq uy» degan ma’nolarini anglatadi. Vaqt o‘tishi bilan esa bu so‘z o‘z ichki shaklini yo‘qotib, «izba» endi «har

⁴⁷ Аъзамова Г.С., Адекватлик ва эквивалентликнинг лингвокогнитив аспекти, F.B.F.D diss. (PhD), – Фарғона, 2022, 100-бет.

⁴⁸ Крючкова Н.В. Методы изучения концепта / Н. В. Крючкова // Русская и сопоставительная филология: состояние и перспективы. Международная научная конференция, посвященная 200-летию Казанского университета (Казань, 4-6 октября 2004 г.): труды и материалы ; под ред. К. Р. Галиуллина. – Казань: Казан. гос. ун-т, 2004. – С.271-272.

⁴⁹ Михайлова Ю.Н. Об эволюции лексикографического представления концепта / Ю. Н. Михайлова // Известия Уральского государственного университета. – 2003. – № 28. – С. 181-191.

⁵⁰ Никитин М.В. Лексическое значение слова (структура и комбинаторика) : учеб. пособие. – М.: Высш. шк., 1983. – 127 с.

⁵¹ Воркачев С.Г. Эталонность в сопоставительной семантике / С. Г. Воркачев // Язык, сознание, коммуникация. – 2003. – Вып. 25. – С.6-15.

⁵² Крючкова Н.В. Методы изучения концепта / Н. В. Крючкова // Русская и сопоставительная филология: состояние и перспективы. Международная научная конференция, посвященная 200-летию Казанского университета (Казань, 4-6 октября 2004 г.) : труды и материалы; под ред. К. Р. Галиуллина. – Казань: Казан. гос. ун-т, 2004. – С.271-272.

⁵³ Никитин М.В. Лексическое значение слова (структура и комбинаторика) : учеб. пособие. – М.: Высш. шк., 1983. – 12 с.

⁵⁴ Шафиков С.Г. Языковые универсалии и проблемы лексической семантики / С. Г. Шафиков. – Уфа: Изд-во Башкир. ун-та, 1998. – 57 с.

qanday yog‘ochdan yasalgan dehqon uyi» deb atalishni boshladi». ⁵⁵ Buni o‘zbek tili misolida kulba so‘ziga qiyoslash mumkin

«Konseptni o‘rganishda paremiologik tahlil alohida o‘rin tutadi, chunki tahlilning bu turi maqollar, matallar va aforizmlar kabi materiallarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi, ular esa til fondida alohida o‘rin tutadi hamda xalqning lisoniy olam manazarasini aks ettiradi». ⁵⁶ Paremiologik tahlil kontekstual tahlil bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda maqol va matallar semantik strukturasi va konseptual sferasi ochib beriladi. Paremalarning «semantikasi milliy va madaniy tarkibiy qismiga ega bo‘lib, badiiy matnda milliy-madaniy fon yaratishda ishtirok etadi». ⁵⁷

Kontekstual tahlil esa konseptning yashirin mazmunini aniqlashtirish va to‘ldirish imkonini beradi. Matnning konseptual tuzilishini o‘rganish alohida ahamiyatga ega, chunki badiiy asarlar milliy konseptual olam manazarasini ham, alohida muallifning individual olamini aks ettiradi. Shuning uchun V.L.Maslova bu masalalaga alohida e’tibor qaratgan. ⁵⁸

«Konseptning mazmun-mohiyatini o‘rganish matnda, leksik va frazeologik tezaurusda uning ifodalanish yo‘llarini tavsiflashga asoslanadi. Kontekstual tahlil uch jihatdan amalga oshiriladi:

a) leksik tizim jihatdan, ya’ni so‘z haqidagi ta’limotga asoslangan leksik tizim birligi sifatida;
b) funksional jihatdan, bunda kommunikativ faoliyat kontekstida so‘zlar va frazeologik birliklarning ishlatilishining tahlil qilish;

v) kognitiv jihatdan, ya’ni kognitiv tilshunoslikning asosiy tamoyillariga asoslanadi». ⁵⁹

Yuqorida keltirilgan metodlarni konseptual tahlil metodi o‘z ichiga jamlab, kompleks metod sifatida qaraladi, shuning uchun ham u o‘z ichiga so‘zning lisoniy hamda madaniy semasini qamrab olgan holda tabiiy tildagi konseptlarning mantiqiy tahlilini to‘liq va obyektiv tarzda amalga oshirish imkoniyatini beradi. Konseptual tahlil metodi bir tomondan, konseptni ifodalashning lingvistik metodlarini ko‘rib chiqishdan, ikkinchi tomondan, konseptni va uning ortida turgan lisoniy olam manazarasining parchalar (fragmentlar)ini qayta shakllantirishdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan metodlarning umumiy jihati shundan iboratki, ularning barchasi lisoniy birliklar ma’nosi asosidagi konseptual mazmunni tavsiflashga qaratilgan. Har bir metod o‘zining qo‘llanish sohasiga egaligi bilan ajralib turadi. Konseptual tahlil metodi metodlar orasida eng universali bo‘lib, kognitiv tilshunoslikning asosiy tahlil metodlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Easier English Student Dictionary, P.H. Collin, Bloomsbury Reference Book, British Library Cataloguing-in-Publication Data, London, 2003, pp 1025, p 147
2. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English, Oxford University Press, New York, 2005, pp 1780, p 288
3. Macmillan English Dictionary for advanced learners, New Edition, printed and bound in Malaysia, 1748, 2012, p 278
4. Jack C. Richards, Richard Schmidt, Longman Dictionary of Language teaching and applied linguistics, Fourth Edition, Routledge Taylor & Francis Group, London and New York, 2013, www.routledge.com. 644/ p 90
5. Merriam-Webster’s Advanced Learner’s English Dictionary, The United States of America, 2008, pp 2014, p 354.
6. The Merriam-Webster Dictionary, New Edition, Merriam-Webster, Incorporated Springfield, Massachusetts, USA, 5th Printing, 2017, pp 939, p139
7. Collins Cobuild Advanced Learner’s Dictionary, Published by Collins, An imprint of HarperCollins Publishers, Westerhill Road, Bishopbriggs, Glasgow G64 2QT, Ninth Edition 2018, HarperCollins Publishers 2018, pp 2077, pp 1812-1813

^{55 55} Валеева Д.Р. «О методах исследования концепта», кафедра гуманитарных наук подготовительного факультета Казанского федерального университета, Российская Федерация, г. Казань

⁵⁶ Валеева Д.Р. «О методах исследования концепта», кафедра гуманитарных наук подготовительного факультета Казанского федерального университета, Российская Федерация, г. Казань, <https://scipress.ru/philology/articles/o-metodakh-issledovaniya-kontseptov.html> (murojaat sanasi: 22.11.2023)

⁵⁷ Маслова, В. А. Лингвокультурология: учеб. пособие /– М.: Академия, 2001. –208 с., с 9

⁵⁸ Маслова, В. А. Келтирилган манба – с. 9

⁵⁹ Валеева Д.Р. Келтирилган манба – с. 25

8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах “Сангзор” нашриёти, 92-бет. 2006, 10-бет
9. Фалсафа қомусий лугат, “Ўзбекистон Файласуфлари Миллий жамияти нашриёти”, “Шарқ” нашриёт-матбаа Акциадорлик компанияси Бош тахририяти, Тошкент-2004, - 491, 198 бет
10. A.R. Lacey, A Dictionary of Philosophy, third edition, Department of Philosophy, King’s College, University of London, *Routledge is an imprint of the Taylor & Francis Group*, Taylor & Francis e-Library, 2005., pp 394, p 64
11. Antony Flew, A Dictionary of Philosophy, Laurence Urdang Associates Ltd, 1979, Oxford, pp 363, p 61
12. Захаренко Е.Н., Комаров Л.Н., Нечаева И.В. Новый словарь иностранных слов. М., Азбуковник, 2008. С. 389
13. Маслова В.А, Когнитивная лингвистика, учебное пособие, Минск, ТетраСистемс, 2004,- 256 с, стр 7
14. Леонтович О.А. Русские и американцы: парадоксы межкультурного общения: Монография / О.А. Леонтович. – М.: Гнозис, 2005. – 352 с.
15. Аъзамова Г.С., Адекватлик ва эквивалентликнинг лингвокогнитив аспекти, F.B.F.D diss. (PhD), –Фарғона, 2022, 100-бет.
16. Крючкова Н.В. Методы изучения концепта / Н. В. Крючкова // Русская и сопоставительная филология: состояние и перспективы. Международная научная конференция, посвященная 200-летию Казанского университета –Казань: Казан. гос. ун-т, 2004. – С.271-272.
17. Михайлова Ю.Н. Об эволюции лексикографического представления концепта / Ю. Н. Михайлова // Известия Уральского государственного университета. – 2003. – № 28. – С. 181-191.
18. Никитин М.В. Лексическое значение слова (структура и комбинаторика): учеб. пособие. – М.: Высш. шк., 1983. – 127 с.
19. Воркачев С.Г. Язык, сознание, коммуникация. – 2003. – Вып. 25. – С.6-15.
20. Крючкова Н.В. Методы изучения концепта//Русская и сопоставительная филология: состояние и перспективы. Международная научная конференция, – Казань: Казан. гос. ун-т, 2004. – С.271-272.
21. Никитин М.В. Лексическое значение слова (структура и комбинаторика): учеб. пособие. – М.: Высш. шк., 1983. – 12 с.
22. Шафиков С.Г. Языковые универсалии и проблемы лексической семантики / С. Г. Шафиков. – Уфа: Изд-во Башкир. ун-та, 1998. – 57 с.
23. Маслова, В. А. Лингвокультурология: учеб. пособие /– М.: Академия, 2001. –208 с., с 9

ILMIY IZLANISHLARDA OLIMNING IJTIMOIIY MAS’ULIYATI

UDK-316.6

**Gapparova Mastona Safaraliyevna
IYI Universiteti Pedagogika va psixologiya
va umumta’lim fanlar kafedrasi o’qituvchisi
ORCID: 0009-0008-0309-8791**

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ilmiy izlanish jarayonida olimning ijtimoiy mas’uliyati, uning ilmiy-etika tamoyillariga munosabati hamda jamiyat oldidagi javobgarligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ilm-fan rivojida yuzaga kelayotgan etik muammolar, ilmiy halollik mezonlari va olim faoliyatining ijtimoiy oqibatlari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy mas’uliyatni shakllantirishning pedagogik va institutsional mexanizmlari ko’rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy mas’uliyat, ilmiy etika, akademik halollik, olim, ilm-fan, bioetika, ijtimoiy javobgarlik, tadqiqot madaniyati.

Abstract: This scientific article analyzes the social responsibility of a scientist in the process of scientific research, his/her attitude towards scientific ethical principles, and accountability to society from a theoretical and scientific perspective. The study highlights ethical challenges emerging in the development of modern science, criteria of scientific integrity, and the social consequences of scientific activity. In addition, pedagogical and institutional mechanisms for the formation of scientific responsibility are examined.

Keywords: scientific responsibility, scientific ethics, academic integrity, scientist, science, bioethics, social responsibility, research culture.

Аннотация: В данной научной статье теоретически и научно анализируется социальная ответственность учёного в процессе научных исследований, его отношение к принципам научной этики, а также ответственность перед обществом. В исследовании освещаются этические проблемы, возникающие в развитии современной науки, критерии научной добросовестности и социальные последствия научной деятельности. Также рассматриваются педагогические и институциональные механизмы формирования научной ответственности.

Ключевые слова: научная ответственность, научная этика, академическая честность, учёный, наука, биоэтика, социальная ответственность, исследовательская культура.

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, XXI asrda ilmiy kashfiyotlar tezlashuvi olimlar zimmasiga nafaqat ilmiy natijalar yaratish, balki ularning ijtimoiy oqibatlarini baholash mas’uliyatini ham yuklamoqda.

UNESCO tomonidan qabul qilingan “Science and Scientific Knowledge” deklaratsiyasida ilm-fan jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi va olimlar etik javobgarlikka ega bo‘lishi zarurligi alohida ta’kidlangan¹.

Olimning ijtimoiy mas’uliyati — bu ilmiy faoliyat natijalarining jamiyatga zarar yetkazmasligi, inson huquqlari va axloqiy qadriyatlarga zid bo‘lmasligi uchun javobgarlik hissidir.

Ilmiy adabiyotlarda bu tushuncha quyidagi jihatlar orqali izohlanadi:

ilmiy halollik;

natijalarning ishonchliligi;

ijtimoiy oqibatlarni baholash;

bioetik me’yorlarga rioya qilish;

ochiqlik va shaffoflik².

Ilmiy halollik — bu tadqiqot natijalarini soxtalashtirmaslik va plagiatdan saqlanish tamoyilidir.

D. Resnik ilmiy halollikni “ilmiy ishonchning asosiy poydevori” sifatida ta’riflaydi³.

Ilmiy etika olim faoliyatini tartibga soluvchi normativ tizim hisoblanadi.

Asosiy tamoyillar

Halollik

Ob’ektivlik

Shaffoflik

Mas’uliyatlilik

Adolat

Jadval 1. Ilmiy etika tamoyillari va ularning mazmuni

Tamoyil	Mazmuni
Halollik	Ma’lumotlarni soxtalashtirmaslik
Ob’ektivlik	Shaxsiy fikrlardan holi bo‘lish

Tamoyil	Mazmuni
Shaffoflik	Natijalarni ochiq e’lon qilish
Mas’uliyat	Ijtimoiy oqibatlarni hisobga olish
Adolat	Mualliflik huquqiga rioya qilish

Ilm-fan va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik

Ilm-fan jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Har bir ilmiy yangilik jamiyat hayotining turli sohalariga ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan:

tibbiyotdagi innovatsiyalar sog‘liqni yaxshilaydi;

raqamli texnologiyalar iqtisodiy tizimni o‘zgartiradi;

ekologik tadqiqotlar tabiatni muhofaza qiladi.

Ijobiy va salbiy ta’sirlar: Ilmiy kashfiyotlar ikki tomonlama ta’sirga ega:

Ijobiy:

hayot sifatining oshishi

texnologik taraqqiyot

iqtisodiy rivojlanish


Salbiy:

bioetik muammolar

ekologik xavflar

texnologik tengsizlik

Diagramma 1. Ilmiy kashfiyotlarning ijtimoiy ta’siri modeli



Zamonaviy ilmiy muhitdagi muammolar

Bugungi kunda ilmiy faoliyatda bir qator muammolar mavjud:

Akademik insofsizlik

Plagiat va ma’lumotlarni soxtalashtirish holatlari ortib bormoqda.

Tijoratlashuv

Ilmiy tadqiqotlar ba’zan ilmiylikdan ko‘ra foyda olishga yo‘naltirilmoqda.

Etik nazoratning zaifligi

Bioetik me’yorlar har doim ham to‘liq bajarilmayapti.

Olimning ijtimoiy mas’uliyati modeli

Olimning mas’uliyati quyidagi tizim orqali shakllanadi:

individual ong

akademik muhit

institutsional nazorat

xalqaro standartlar

Jadval 2. Olim mas’uliyatiga ta’sir etuvchi omillar

Daraja	Omillar
Individual	shaxsiy axloq, bilim
Institut	universitet siyosati
Milliy	qonunchilik tizimi
Xalqaro	UNESCO, ilmiy standartlar

Ilmiy mas’uliyatni shakllantirish yo‘llari

Ilmiy mas’uliyatni rivojlantirish uchun:
akademik halollik kurslarini joriy etish;
mentorlik tizimini kuchaytirish;
plagiatga qarshi dasturlar;
etik kodekslarni ishlab chiqish.

Ilm-fan tarixida ko‘plab olimlar o‘z kashfiyotlarining ijtimoiy oqibatlariga e’tibor qaratgan. Masalan, ayrim olimlar o‘z ishlari harbiy maqsadlarda ishlatilishiga qarshi chiqqan. Bu holat ilmiy mas’uliyatning global ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Olimning ijtimoiy mas’uliyati zamonaviy ilm-fanning ajralmas va strategik ahamiyatga ega tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida ilmiy faoliyatning ko‘lami kengayib, uning natijalari nafaqat alohida davlatlar, balki butun insoniyat taqdiriga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli ilm-fan faqat yangi bilimlarni yaratish vositasi bo‘lib qolmasdan, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi, xavfsizligi va farovonligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ilmiy izlanishlar natijasida yuzaga kelayotgan innovatsiyalar, texnologiyalar va kashfiyotlar inson hayotini yengillashtirish bilan birga, agar ular noto‘g‘ri yoki nazoratsiz qo‘llanilsa, jiddiy ijtimoiy, ekologik va axloqiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Aynan shu jihat olimning nafaqat bilim ishlab chiqaruvchi shaxs, balki o‘z faoliyatining oqibatlari uchun javobgar ijtimoiy subyekt ekanligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, har bir olim ilmiy faoliyat jarayonida ilmiy halollik, ob’ektivlik, shaffoflik va mas’uliyatlilik tamoyillariga qat’iy rioya qilishi zarur. Ilmiy etika qoidalariga amal qilish tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash bilan birga, ilmiy hamjamiyatga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, olimlar o‘z tadqiqotlarining ijtimoiy oqibatlarini oldindan baholash, ularning inson salomatligi, atrof-muhit va jamiyat barqarorligiga ta’sirini chuqur tahlil qilishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, ilm-fanning haqiqiy taraqqiyoti faqat ilmiy yutuqlar miqdori bilan emas, balki ularning insoniyat manfaatiga xizmat qilish darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois olimning ijtimoiy mas’uliyati uning kasbiy faoliyatining markaziy mezon bo‘lib qolishi kerak. Kelajakda ilm-fan rivojining barqaror va xavfsiz yo‘nalishda davom etishi aynan olimlarning axloqiy pozitsiyasi va ijtimoiy javobgarligiga bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.UNESCO. (2017). *Science and Scientific Knowledge Declaration*.
- 2.World Conference on Science. (1999). Budapest Declaration.
- 3.Resnik, D. (2015). *Scientific Research Ethics*. Springer.
- 4.Ziman, J. (2000). *Real Science*. Cambridge University Press.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni.
- 6.Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*.

O‘ZBEKISTONDA TA’LIMY QADRIYATLAR VA TARBIYA USTUVORLIGINI O‘RGANISHDA PEDAGOGIK HAMDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Narzulloeva Ra’no Mardonovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

ranonarzulloyeva024@gmail.com

Ilhomova Dilbar

2-bosqich talaba

ilhomova92@gmail.com

Bo’tayeva Sabina

2-bosqich talaba

botayevasabina19@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda ta’limiy qadriyatlar va tarbiya ustuvorligining mazmuni, ularning milliy tarbiya an’analari bilan bog‘liqligi hamda zamonaviy islohotlar sharoitida tutgan o‘rni yoritiladi. Milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligi interfaol ta’lim metodlari, innovatsion texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish, oila-mahalla hamkorligi, xalq og‘zaki ijodi va an’anaviy marosimlarning pedagogik imkoniyatlari misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, tarbiyani o‘rganishda shaxs rivojlanishi, motivatsiya, ijtimoiy muhit, milliy identitet va etnopsixologik omillarni inobatga oluvchi psixologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: ta’limiy qadriyatlar; tarbiya ustuvorligi; milliy an’analari; pedagogik yondashuv; psixologik yondashuv; mahalla; milliy-zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligi

Abstract. The article examines educational values and the priority of upbringing in Uzbekistan, focusing on their roots in national traditions and their role within ongoing educational reforms. It explores the harmony of national and modern values through interactive teaching methods, innovative technologies, project-based learning, family–mahalla cooperation, and the pedagogical potential of oral folklore and traditional ceremonies. Psychological approaches to studying upbringing are discussed, including motivation, social environment, ethnopsychological factors, moral development, and identity formation in children. The paper concludes with practical recommendations to improve value-oriented and personality-centered educational practices in Uzbekistan’s education system.

Keywords: educational values; priority of upbringing; national traditions; pedagogical approach; psychological approach; mahalla; harmony of national and modern values

Kirish

Mustaqillikning ilk yillaridanoq O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor berilgani, ta’lim-tarbiya tizimi isloh qilinayotgani yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ta’limiy qadriyatlar va tarbiya ustuvorligi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida yetuk, ijtimoiy faol, ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalash ta’lim konsepsiyalari va islohotlarining mazmunini belgilab bermoqda.¹ Bu jarayonda milliy madaniy meros, xalq pedagogikasi, mahalla va oila institutining tarbiyaviy salohiyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda psixologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois O‘zbekistonda ta’limiy qadriyatlar va tarbiya ustuvorligini o‘rganish, pedagogik hamda psixologik asoslangan model va texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekistonda ta’limiy qadriyatlar va milliy tarbiya an’analari

Bilamizki, o‘zbek ta’limiy qadriyatlarining ildizlari xalqning ko‘p asrlik ma’naviy merosida – ma’rifiy-ta’limiy manbalar, xalq og‘zaki ijodi, dostonlar, maqol va matallarda mujassamlangan. Ular esa o‘z navbatida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, halollik, jamiyatga sadoqat, o‘z kasbiga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Qadimdan mahalla “institut” jamoaviy nazorat va qo‘llab-quvvatlash orqali bolalar va yoshlar tarbiyasining muhim maktabi bo‘lib kelgan, unda hamjihatlik, birodarlik, o‘zaro yordam qadriyat sifatida qaraladi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab to hozirga qadar milliy qadriyatlar davlat ta’lim siyosati, o‘quv dasturlari, tarbiyaviy konsepsiyalar bilan uyg‘unlashtirilib, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlarning integratsiyasi yo‘lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Tarbiya ustuvorligini ta’minlashda pedagogik yondashuvlar

Zamonaviy tadqiqotlar tarbiya ustuvorligini ta’minlash uchun milliy qadriyatlarni ta’lim mazmuni va texnologiyalariga chuqur integratsiya qilish zarurligini ko’rsatadi. Ta’limni shunchaki bilim berish, ma’lumotlar to’plamini yetkazish deb emas, balki tarbiya va shaxs kamolotini ta’minlovchi, **shaxsni shakllantirish asosi** deb bilish — inson kapitalini rivojlantirishning bosh omilidir. Ushbu yondashuvning asosiy jihatlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Ta’lim va tarbiya: Uzviy birlik

Pedagogik jarayonda bilim (kognitiv rivojlanish) va tarbiya (axloqiy shakllanish) bir-biridan ajralmasdir.

- **Bilim:** Intellektual salohiyatni oshiradi.
- **Tarbiya:** Bilimdan to’g’ri maqsadda foydalanish uchun ma’naviy filtr vazifasini o’taydi.

Zero, "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir." degan edi *Abdulla Avloniy*.² Zero, **tarbiya — ta’limning mazmuni hamdir**. Pedagogik nuqtayi nazardan, O’zbekistonda ta’lim mazmuni faqat Davlat ta’lim standartlari (DTS) bilan emas, balki **ijtimoiy ideal** bilan ham belgilanadi. *Akhmedjanovich (2025)*³ va *Xaydarova (2021)*⁴ tadqiqotlariga ko’ra, o’quv dasturlariga "Tarbiya" fanining integratsiya qilinishi — ta’limning tarbiyaviy funksiyasini institutsionallashtirishning muhim bosqichi hisoblanadi.

2. Shaxs kamoloti va kompetensiyalar

Zamonaviy tadqiqotlar ta’limda faqat "nimani bilish" emas, balki "kim bo’lib yetishish"ga urg’u beradi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

Bosqich	Ta’rifi	Natija
Kognitiv	Faktlar va nazariyalarni o’zlashtirish	Bilimli utaxassis
Psixologik	Iroda, hissiy intellekt (EQ) va motivatsiya	Barqaror shaxs
Ijtimoiy	Jamiyatda muloqot qilish va mas’uliyatni his etish	Faol fuqaro

Bugungi kunda interfaol ta’lim, loyiha asosida o’qitish, muammoli o’qitish, sport va san’at orqali tarbiya, xalq og’zaki ijodidan foydalanish kabi metodlar orqali o’quvchilar, talabalar va umuman ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, fuqarolik mas’uliyati va ma’naviy immunitet shakllantiriladi. Milliy va sekulyar qadriyatlar uyg’unligida ta’lim tizimini tashkil etish, ayniqsa, san’at, madaniyat, jismoniy tarbiya, “kurash” kabi milliy sport turlarida tarbiyaviy imkoniyatlardan foydalanish samarali yo’nalish sifatida ko’riladi. Shuning qatorida, o’qituvchilarning ma’naviy-axloqiy va kasbiy kompetensiyasini milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezi asosida rivojlantirish muhim shart sifatida ta’kidlanadi.

Pedagogik yo’nalishlar va misollar

Figure 1 Tarbiya ustuvorligini ta’minlovchi pedagogik yo’nalishlar.

	Yo’nalish	Qisqa mazmun
1.	Milliy–zamonaviy integratsiya	Milliy qadriyatlarni interfaol, loyihaviy ta’lim bilan uyg’unlashtirish
2.	Vatanparvarlik tarbiyasi	Sport, tarixiy shaxslar, “kurash” orqali fuqarolik ruhini mustahkamlash
3.	Mahalla–oila–maktab hamkorligi	Ijtimoiy nazorat va qo’llab-quvvatlov orqali tarbiyaviy samaradorlikni oshirish

3. Tarbiya ustuvorligini o’rganishda psixologik yondashuvlar

O‘tkazilgan psixologik tadqiqotlar milliy va an’anaviy qadriyatlar ta’lim oluvchilarning axloqiy rivoji, “men” konsepsiyasi, etnik identiteti va ijtimoiy moslashuviga kuchli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Qiyosiy etnopsixologik ishlar (o‘zbek, qozoq, qirg‘iz an‘analari tahlili), taqiqlovchi iboralar, marosimlarning shaxsda xulq normalari, kundalik madaniyat, mehnat intizomi, estetik did va munosabatlarni shakllantirishdagi o‘rnini yoritadi. Mahalla va oila makonida farzandlardan maslahat so‘rash, kattalar roziligini izlash kabi urf-odatlar emotsional yaqinlik, ishonch va ijtimoiy identitetni mustahkamlaydi. Shuningdek, psixologik yondashuvlar qadriyatlarining ichkilashtirilishi, yoki o‘zlashtirilishi (internalizatsiya), motivatsiya va ijtimoiy rol o‘zlashtirilishi jarayonlarini tahlil etib, tarbiyaviy ishlarni yosh va individual xususiyatlarga moslashtirish zarurligini asoslaydi. Psixologik yondashuv tahliliga ko‘ra qadriyatlar shunchaki qoidalar emas, balki shaxsning **ichki e’tiqodiga** aylanish jarayoni deyiladi va quyidagicha tavsiflanadi:

Mexanizm: Bilim → Hissiy munosabat → Motiv → Xulq-atvor.

Gasanova o‘zining *“Pedagogik mahorat”* darsligida ta’kidlaganidek, agar ta’lim jarayonida psixologik qulaylik va subyekt-subyekt munosabati o‘rnatilmasa, qadriyatlar "shunchaki ma'lumot" bo‘lib qoladi va shaxs kamolotiga xizmat qilmaydi.⁵ Shuningdek, G. Gasanova o‘z izlanishlarida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarni shunchaki axborot almashinuvi emas, balki **ma’naviy-ruhiy muloqot** sifatida talqin etadi.⁶ Olimaning ushbu asarida ta’limning insonparvarlashuvi masalasi markaziy o‘rin tutadi.

4. Milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligi: integratsion model

Integratsion modelning markazida milliy qadriyatlar (vatanparvarlik, ma’naviyat, jamoaviylik, hurmat, mehnatsevarlik) hamda zamonaviy qadriyatlar (innovatsion fikrlash, raqamli madaniyat, inson huquqlari, pragmatik dunyoqarash)ning uyg‘un tizimi turadi. Tadqiqotlarda “Sharq axloqi – G‘arb texnologiyasi” tamoyiliga yaqin yondashuvlar qo‘llab-quvvatlanadi, hamda milliy ruhda global kompetensiyalarga ega shaxsni tarbiyalash zarurligi ta’kidlanadi. Ba’zi tadqiqotchi olimlarning fikricha o‘quv dasturlarida milliy meros, xalq maqollari, marosim va an‘analarni aks ettiruvchi mavzularni ko‘paytirish, ularni raqamli resurslar va interfaol metodlar orqali talabalarga yetkazish samarali yo‘nalish ekanligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, oilada va mahallada ma’naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyaning yagona konsepsiyasini shakllantirish tarbiya ustuvorligini amaliy jihatdan ta’minlaydi.

5. "Raqamli avlod tarbiyasi"

"Raqamli avlod tarbiyasi" — bu nafaqat texnologik, balki chuqur pedagogik va psixologik transformatsiya jarayonidir. O‘zbekona an’anaviy tarbiya metodlarini zamonaviy **"Z"** (1997–2012) va **"Alfa"** (2012-yildan keyin) avlodlariga moslashtirish, milliy o‘zlikni saqlab qolgan holda global dunyoga integratsiyalashuvni talab etadi.⁷

➤ Raqamli avlodning psixologik portreti va muammolar tahlili

An’anaviy usullarni moslashtirishdan avval, maqsadli auditoriyaning o‘ziga xosliklarini tushunish lozim:

✓ **Klipcha fikrlash (Clip Thinking):** Axborotni qisqa, yorqin va tezkor qismlarda qabul qilish. Bu uzoq davom etadigan "nasihatimiz" suhbatlarning samaradorligini pasaytiradi.

✓ **Vizuallashtirishga moyillik:** Matndan ko‘ra tasvir va videolarga ishonchning yuqoriligi.

✓ **Gadjetlarga bog‘liqlik:** Smartfon ular uchun shunchaki asbob emas, balki ijtimoiy muhit va o‘zini namoyon qilish maydonidir.

➤ An’anaviy tarbiya usullarini moslashtirish strategiyalari

O‘zbek pedagogikasining oltin qoidalar — **andisha, kattaga hurmat, qanoat va mehnatsevarlikni** quyidagi zamonaviy formatlarda taqdim etish mumkin:

➤ Nasihatdan — "Storitelling" (Hikoiyachilik) ga o'tish

An’anaviy "bola odobli bo‘lishi kerak" degan quruq o‘gitlar o‘rniga, milliy qahramonlar yoki ajdodlarimiz hayotini **vizual kontent** orqali yetkazish.

✓ **Amaliy yechim:** Alisher Navoiy yoki Amir Temur hayotini "short-video" (qisqa metrajli) formatida, ularning mantiqiy qarorlariga urg‘u bergan holda ko‘rsatish. Bu klipcha fikrlashga mos keladi.

➤ "Ibrat" metodini raqamli makonga ko'chirish

O‘zbek tarbiya tizimida "ota-onaning namunasi" eng muhim usul hisoblanadi.

✓ **Amaliy yechim:** Ota-ona farzandidan gadgetni olib qo'yishdan avval, o'zi ham "raqamli gigiyena"ga amal qilishi (ovqat ustida telefon ishlatmaslik, kitob o'qish namunasini ko'rsatish) lozim. Shunda "andisha" va "hurmat" tushunchalari tabiiy shakllanadi.

➤ **Jamoaviylikni (Mahalla institutini) virtual formatda tiklash**

"Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" tamoyilini ijtimoiy tarmoqlardagi sog'lom hamjamiyatlar orqali amalga oshirish.

✓ **Amaliy yechim:** Farzandning qiziqishlariga mos (robototexnika, san'at, IT) ijobiy va milliy qadriyatlarga zid bo'lmagan guruhlariga a'zo qilish orqali uning "gadgetga bog'liqligi"ni foydali tomonga yo'naltirish.

➤ **Ilmiy-tahliliy xulosalar**

Tadqiqotlar va pedagogik kuzatuvlar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Xususiyat	An'anaviy yondashuv	Zamonaviy moslashuv (Gibrid tarbiya)
Axborot berish	Uzoq suhbat va pand-nasihat	Interaktiv muloqot va vizual keyslar
Intizom	Qat'iy taqiq va nazorat	Tanlash huquqi va raqamli etika
Qadriyat	Ma'lumot sifatida o'rgatish	Shaxsiy tajriba va loyihalar orqali singdirish

G. Gasanova ta'kidlaganidek, ta'lim va tarbiyada **subyekt-subyekt** munosabati o'rnatilmas ekan, har qanday texnologiya ham, qadriyat ham "shunchaki ma'lumot" bo'lib qolaveradi.⁸ "Z" va "Alfa" avlodi uchun tarbiya — bu **buyruq emas, balki hamkorlikdir**. O'zbekona tarbiyaning mazmunini (ma'naviyatni) saqlab qolgan holda, uning shaklini (yetkazish usulini) raqamli texnologiyalar tiliga o'girish — bugungi kunning eng asosiy pedagogik vazifasidir. Farzandni smartfondan ajratish emas, smartfon ichidagi dunyoni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish samaraliroq yo'ldir.

Xulosa

O'zbekistonda ta'limiy qadriyatlar va tarbiya ustuvorligini ta'minlash milliy meros, mahalla va oila institutining tarbiyaviy salohiyatini zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirishga tayanadi. Pedagogik jihatdan interfaol texnologiyalar, sport va san'at, xalq og'zaki ijodi, oila-maktab-mahalla hamkorligi asosida vatanparvar, ma'naviy yetuk shaxsni shakllantirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Psixologik yondashuv esa qadriyatlarning ichkilashtirilishi, identitet va motivatsiya jarayonlarini hisobga olib, tarbiyaviy ishlarni yosh, madaniy va individual xususiyatlarga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu asosda milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg'unligiga tayangan integratsion model tarbiya ustuvorligini ilmiy va amaliy jihatdan ta'minlashning muhim yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son.
2. Avloniy, A. "Turkiy guliston yoxud axloq". – Toshkent: "O'qituvchi", 1992. – 160 b.
3. Akhmedjanovich, N. M. (2025). Ta'lim tizimini institutsionallashtirish va "Tarbiya" fanining integratsiyasi. *O'zbekiston innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 1(1), 40-55-betlar.
4. Xaydarova, S. (2021). "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasining pedagogik asoslari. *Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar*, 4(2), 15-22-betlar.
5. Gasanova, G. "Pedagogik mahorat". Darslik. – Toshkent: "Barkamol fayz media", 2018. – 232 b.
6. Gasanova, G. K. "Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi". Monografiya. – Toshkent: "Fan", 2012.

7. Xaydarova, S. (2022). "Raqamli avlod tarbiyasida milliy va zamonaviy yondashuvlar". – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo".
8. Gasanova, G. K. "Pedagogik mahorat". Darslik. – Toshkent: "Voriz-Nashriyot", 2017. – 216 b.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA FAN, TA'LIM VA MADANIYATNING O'RNI

Ilmiy maqola Annotatsiya Ro'ziyeva O'g'iloy Ravshanbek qizi Ushbu maqolada fan, ta'lim va madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada uch asosiy omil — ilmiy-texnik taraqqiyot, ta'lim tizimi va madaniy muhit — bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Real misollar va xalqaro tajribaga tayanib, ushbu omillarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojga ta'siri asoslanadi. Maqola xulosasida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ko'rsatilgan uch sohani birgalikda rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. Kalit so'zlar: fan, ta'lim, madaniyat, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy taraqqiyot, ilmiy texnik inqilob, inson kapitali.

I. KIRISH Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, har qanday sivilizatsiyaning yuksalishi uchta asosiy ustun — fan, ta'lim va madaniyat — asosida qurilganini ko'ramiz. Bu uch soha bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro ta'sir va bog'liqlik tizimida jamiyat rivojini belgilab kelgan. Qadimgi Yunonistonda Aflotun akademiyasi fanning, ta'limning va madaniyatning uzviy birligini namoyish etgan bo'lsa, Renessans davri Yevropasi ushbu uchligining o'zaro ta'siridan g'oyat barakali mevalarga erishdi. Zamonaviy dunyoda bu muammo yanada dolzarb tus olmoqda. Globallashuv sharoitida raqobatbardosh jamiyat qurishning asosiy sharti sifatida insonning intellektual va madaniy salohiyatini oshirish masalasi birinchi o'ringa chiqmoqda. Jahon iqtisodiy forumining (WEF) ma'lumotlariga ko'ra, XXI asrda milliy boylikning asosiy manbai tabiiy resurslar emas, balki bilim va innovatsiyalar hisoblanadi. Shu munosabat bilan ushbu maqolada fan, ta'lim va madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatlardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot strategiyasida ushbu sohalarga ustuvor ahamiyat qaratmoqda va ularda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimiz istiqboli uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

II. ASOSIY QISM 2.1. Fanning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni Fan — bilimlarning tizimli va metodik ravishda to'planishi, nazariyalar ishlab chiqilishi va ularga asoslangan kashfiyotlar qilinishi jarayonidir. Francis Bekon XVII asrdayoq 'Bilim — kuch' degan tamoyilni ilgari surib, fanning jamiyat hayotidagi transformativ rolini e'tirof etdi. Zamonaviy falsafa va sotsiologiyada fan jamiyatni o'zgartiruvchi eng muhim kuch sifatida tan olingan. Ilmiy-texnikaviy inqilob (ITI) tushunchasi birinchi marta 1950-1960-yillarda fanga kirib kelgan bo'lib, u fan va texnikaning o'zaro bog'liq holda jadal rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish kuchlarida sodir bo'ladigan tub o'zgarishlarni ifodalaydi. Bugungi kunda sun'iy intellekt, kvant hisoblash, biotexnologiya va nanomateriallar sohasidagi kashfiyotlar insoniyat hayotini tubdan o'zgartirmoqda. Misol tariqasida shuni keltirish mumkin: CRISPR-Cas9 genni tahrirlash texnologiyasining kashf etilishi (Jennifer Doudna va Emmanuelle Charpentier, 2012) tibbiyot, qishloq xo'jaligi va farmatsevtika sohaslarida inqilob yasadi. Ushbu kashfiyot 2020-yilda Nobel kimyo mukofotiga sazovor bo'ldi. Bu misol fanning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham jamiyatni o'zgartirishga qodirligini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham fan va innovatsiyalarga e'tibor kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrda PF-6097-son Farmoni asosida 'Raqamli O'zbekiston — 2030' strategiyasi qabul qilingan bo'lib, unda ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar rivojiga alohida urg'u berilgan. Shuningdek, 2022-yildan boshlab YaIMning ilmiy tadqiqotlarga ajratiladigan ulushini 2 foizga yetkazish maqsad qilib qo'yildi. Robert Solouning Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan iqtisodiy o'sish modeli (1956) shuni ko'rsatdiki, texnologik taraqqiyot — ya'ni fanning amaliy natijalari — uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy manbaidir. Empirik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydi: 1950-2000-yillar orasida rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy o'sishning 50-60 foizi texnologik innovatsiyalar hissasiga to'g'ri kelgan.

2.2. Ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni Ta'lim — jamiyatning ijtimoiy institutlari ichida eng ko'hna va eng muhimlaridan biri. U faqat bilim uzatish mexanizmi bo'libgina qolmay, balki fuqarolik madaniyatini shakllantirish, qadriyatlarni avloddan avlodga o'tkazish va shaxsni kamolotga yetkazishning asosiy vositasidir. Sotsiolog Emile Dyurkgeym ta'limni 'jamiyatning o'zini o'zi reproduksiya qilish vositasi' sifatida ta'riflagan. Zamonaviy ta'lim nazariyasida 'inson kapitali' tushunchasi markaziy o'rin egallaydi. Teodor Shultz va Geri Beker

tomonidan ishlab chiqilgan inson kapitali nazariyasi (1960-1970 yillar) ta'limga investitsiya kiritishning uzoq muddatda iqtisodiy samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu nazariyaga ko'ra, ta'limga qilingan har bir dollar kelajakda bir necha baravar daromad keltirishi mumkin. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, maktabda o'qishning har bir qo'shimcha yili kishining bo'lajak ish haqini o'rtacha 8-10 foizga oshiradi. OECD tadqiqotlari esa shuni ko'rsatadiki, oliy ma'lumotli fuqarolar davlatga ko'proq soliq to'laydi, kamroq ijtimoiy nafaqaga muhtoj bo'ladi va sog'liqni saqlashga kam xarajat sarflaydi. Shunday qilib, ta'limga qilingan investitsiya nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy foydani ham ta'minlaydi. Finlyandiya ta'lim tizimi bugungi kunda dunyo bo'yicha etalon sifatida tan olingan. 1970-yillarda boshlangan ta'lim islohotlari natijasida Finlyandiya PISA xalqaro baholash dasturida muntazam ravishda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Bu muvaffaqiyatning asosida o'qituvchi kasbiga yuqori ijtimoiy maqom berish, o'quv dasturlarini o'quvchi qiziqishlariga moslash va raqobat o'rniga hamkorlikka asoslangan muhit yaratish yotadi. O'zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida 500 dan ortiq yangi maktab qurildi, oliy ta'lim qamrovi 2016-yilgi 9 foizdan 2023-yilga kelib 28 foizga oshdi. Xorijiy universitetlarning filiallarini tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik asosida ta'lim muassasalari ochish kabi chora-tadbirlar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

2.3. Madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi o'рни Madaniyat — jamiyatning o'ziga xos 'ijtimoiy DNK'si bo'lib, u qadriyatlar, normalar, urf-odatlar, til, san'at va hayot tarzi majmuasidan iborat. Madaniyatning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri nozik, lekin o'ta chuqur va uzoq muddatlidir. Samuel Xantington o'zining 'Sivilizatsiyalar to'qnashuvi' asarida madaniyatni XXI asrning asosiy siyosiy va tarixiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida tavsiflab berdi. Iqtisodiyot nuqtai nazaridan madaniyatning roli Max Veber tomonidan 'Protestant etikasi va kapitalizm ruhi' (1904) asarida ilmiy jihatdan asoslangan. Veber protestant mehnat etikasi va tejamkorlik madaniyatining Shimoliy Yevropada kapitalizmning jadal rivojlanishiga zamin yaratganini ko'rsatib berdi. Bu fikr keyinchalik ko'plab iqtisodchilar tomonidan turli madaniyatlar misolida tekshirilgan va tasdiqlangan. Ronald Inghart va Xristian Velts tomonidan olib borilgan 'Jahon qadriyatlari so'rovi' (World Values Survey) 1981-yildan buyon 100 dan ortiq mamlakatda muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, fuqarolar qadriyatlari (o'zini ifoda etish, ta'lim, tolerantlik) va demokratik, bozor tizimlaridagi iqtisodiy rivojlanish o'rtasida kuchli korrelyatsiya mavjud. Janubiy Koreya 'Xallyu' (koreya to'liqini) hodisasi madaniyatning iqtisodiy kuch sifatidagi rolining yorqin namunasi hisoblanadi. K-pop, K-drama va koreya oshxonasining butun dunyoda tarqalishi Janubiy Koreyaning turistik jozibadorligini va eksport hajmini sezilarli darajada oshirdi. Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 'Xallyu' Koreya iqtisodiyotiga 10 milliard dollardan ortiq hissa qo'shdi. O'zbekiston uchun milliy madaniy meros — Navruz, miniatyura san'ati, arxitektura obidalar, hunarmandchilik — nafaqat ma'naviy boylik, balki turizm iqtisodiyotining asosi hisoblanadi. UNESCO Madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan o'zbek obidalar va nomoddiy madaniy meroslar davlatimizning xalqaro obro'sini mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda.

2.4. Fan, ta'lim va madaniyatning o'zaro bog'liqligi Fan, ta'lim va madaniyat bir-biridan ajralgan holda emas, balki murakkab o'zaro ta'sir tizimida faoliyat yuritadi. Ta'lim — fanning yutuqlarini jamiyatga yetkazuvchi ko'priq va madaniy merosni saqlovchi asosiy institutdir. Fan esa ta'lim mazmunini boyitib, madaniyatning yangi qirralarini ochib beradi. Madaniyat esa fanning qaysi yo'nalishda rivojlanishi va ta'limning qanday qadriyatlar asosida qurilishi kerakligini belgilaydi. Bu uchlikni Venn diagrammasi orqali tasavvur qilish mumkin: uch doiraning kesishmasi — jamiyatning eng yuksak taraqqiyot nuqtasidir. Renessans davri Italiyasi, XVII asr Gollandiyasi, XIX asr Germaniyasi — bularning barchasi fan, ta'lim va madaniyat uyg'unligiga erishgan sivilizatsiyalarning gullash davrlari edi. Sotsiolog Talcott Parsons o'zining ijtimoiy tizimlar nazariyasida ushbu uch institutning har birini jamiyatning funksional talablaridan biriga javob beruvchi sifatida tavsiflaydi: ta'lim — moslashuv (adaptation) funksiyasini, madaniyat — integratsiya funksiyasini, fan esa — maqsadga erishish funksiyasini ta'minlaydi.

III. XULOSA

Tahlil natijalariga ko'ra, fan, ta'lim va madaniyat jamiyat taraqqiyotining uchta asosiy ustuni ekanligi yaqqol ko'rinadi. Ularning har biri o'z funksiyasini bajarsa-da, haqiqiy taraqqiyot faqat ularning uyg'un va parallel rivojlanishi natijasida mumkin. Fan texnologik innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishning asosi bo'lsa, ta'lim bu innovatsiyalarni amalga oshirishga qodir insoniy

kapitalning yetishtirgichi hisoblanadi. Madaniyat esa taraqqiyot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-psixologik muhit — ishonch, hamkorlik, ijodiy erkinlik va axloqiy mas'uliyat muhitini vujudga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi uchun amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat: birinchidan, ilmiy tadqiqotlarga davlat mablag'larining ulushini YaIMning kamida 2 foiziga yetkazish; ikkinchidan, ta'lim sifatini xalqaro standartlarga mos ravishda oshirish va pedagog kasbining ijtimoiy maqomini yuksaltirish; uchinchidan, milliy madaniy merosni muhofaza qilish bilan bir qatorda zamonaviy madaniy innovatsiyalarni rag'batlantirish. Xulosa qilib aytganda, insoniyat taraqqiyotining haqiqiy o'lchovi moddiy boylikda emas, balki jamiyat a'zolarining bilim darajasi, madaniy saviyasi va ilmiy fikrlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Fan, ta'lim va madaniyat — bu taraqqiyotning moddiy boyliklardan ko'ra bardoshli va uzoq umrli poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR 1. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. University of Chicago Press, 1964. <https://www.nber.org/books-and-chapters/human-capital-theoretical-and-empirical-analysis-special-reference-education> 2. Solow, R. M. A Contribution to the Theory of Economic Growth. The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94, 1956. <https://doi.org/10.2307/1884513> 3. UNESCO. UNESCO Science Report: The Race Against Time for Smarter Development. UNESCO Publishing, 2021. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377433> 4. World Bank. World Development Report 2018: Learning to Realize Education's Promise. World Bank, 2018. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2018> 5. Inglehart, R., & Welzel, C. Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence. Cambridge University Press, 2005. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511790881> 6. Weber, M. The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism. Routledge (trans. Parsons, T.), 2001 [1904]. <https://www.routledge.com/The-Protestant-Ethic-and-the-Spirit-of-Capitalism/Weber/p/book/9780415254069> 7. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. OECD Publishing, 2023. <https://doi.org/10.1787/e13bef63-en> 8. Huntington, S. P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster, 1996. <https://www.simonandschuster.com/books/The-Clash-of-Civilizations-and-the-Remaking-of-World-Order/Samuel-P-Huntington/9780743231497> 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6097-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020. <https://lex.uz/docs/5031048> 10. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023. WEF, 2023. <https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2023/>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH VA MANTIQIY TAFAKKURINI O'STIRISHDA TA'LIM METODLARINING AHAMIYATI

G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim metodlarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlarning samaradorligi tahlil qilingan.

Аннотация: В статье освещается роль и значение современных методов обучения в формировании мировоззрения и развитии логического мышления учащихся начальных классов. Также анализируется эффективность интерактивных методов.

Annotation: This article highlights the role and importance of modern educational methods in shaping the worldview and developing logical thinking of primary school students. It also analyzes the effectiveness of interactive methods.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, dunyoqarash, mantiqiy tafakkur, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, malaka oshirish maktabi, kasbiy faoliyat.

Ключевые слова: начальное образование, мировоззрение, логическое мышление, интерактивные методы, педагогические технологии, школа повышения квалификации, профессиональная деятельность.

Keywords: Primary education, worldview, logical thinking, interactive methods, pedagogical technology, advanced training school, professional activity.

Bugungi kunda yurtboshimiz Sh.M. Miromonovich ham ta’lim sohasida chuqur islohotlar olib bormoqda. Ayniqsa maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim sohalarida tubdan o‘zgarishlar olib borildi. Xususan “Matematika” fanini boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim, oliy ta’limda ham o‘rganilish sifatini oshirish uchun yangi darsliklar tuzildi, turli tanlovlar tashkillandi, talabalar uchun O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika instituti tashkillandi va aynan “Matematika” fanini yanada chuqurroq o‘rganish uchun qaror va farmoyishlar qabul qilindi. “Matematika ko‘p fanlarga yo‘l ochadi. Uni talabalar shaharchasida barpo etganimiz bejiz emas. Matematika instituti ta’lim va ilm-fan o‘rtasida uzviylikni ta’minlashi, mamlakatimiz rivojiga zamin yaratishi kerak”, - deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 12-iyun kuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika institutiga tashrifida so‘zlagan nutqidan o‘rganilib joriy hayotimizga tadbqiq qilinmoqda. Shuni ochiq aytish joizki, biz qanchalik ilm olsak, shunchalik ongimiz, tasavvurimiz, hayotimiz, fikrlash dunyoyimiz rivojlanadi hamda hayotimizdagi turli xil muammolarning yo‘qolishiga, shaxsiy, kasbiy faoliyatimizni yuksalishiga yo‘l ochadi.

Dunyoqarash – bu shaxsning borliq haqidagi bilimlari, qarashlari, e’tiqodi va munosabatlarining tizimidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dunyoqarash shakllanishi quyidagi omillar asosida amalga oshadi:

- ta’lim jarayoni;
- o‘qituvchi shaxsi;
- oila va ijtimoiy muhit;
- axborot vositalari.

Dunyoqarashning kengligi o‘quvchining bilim doirasi, fikrlash darajasi va ijtimoiy faoliyatiga bog‘liqdir.

Mantiqiy tafakkur – bu voqea va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy tafakkur quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

- konkret fikrlash;
- solishtirish va tahlil qilish;
- umumlashtirish;
- xulosa chiqarish.

Mazkur jarayonda ta’lim metodlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim metodlari – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘quv faoliyatini tashkil etish usullaridir.

Ular quyidagicha tasniflanadi:

- an’anaviy metodlar (ma’ruza, tushuntirish);
- interaktiv metodlar (bahs, aqliy hujum);
- muammoli ta’lim metodlari;
- o‘yin texnologiyalari;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Interaktiv metodlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan:

- “Aqliy hujum” – tez fikrlashni rivojlantiradi;
- “Klaster” – tushunchalarni tizimlashtiradi;
- “Debat” – mustaqil fikr bildirishni o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin orqali ta’lim eng samarali usullardan biridir. O‘yinlar orqali:

- o‘quvchilarning qiziqishi ortadi;
- mantiqiy fikrlash rivojlanadi;
- jamoaviy ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.

Muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilar:

- mustaqil fikrlashga o‘rganadi;

- muammoni hal qilish yo‘llarini izlaydi;
- ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Zamonaviy darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish:

- darsni qiziqarli qiladi;
- vizual tasavvurni kuchaytiradi;
- o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga undaydi.

Tajriba-sinov ishlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borildi. Unda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- interaktiv metodlar;
- o‘yin texnologiyalari;
- muammoli vaziyatlar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish va mantiqiy tafakkurini o‘stirishda ta‘lim metodlarini o‘rgatish orqali quyidagi natijalarga erishildi:

o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasi oshdi;

- savollarga mustaqil javob berish ko‘nikmasi rivojlandi;
- darsga qiziqish kuchaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda ta‘lim metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri tanlangan metodlar o‘quvchilarning bilimni mustahkamlash bilan birga ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida interaktiv, muammoli va innovatsion metodlardan keng foydalanish zarur.

- interaktiv metodlardan keng foydalanish;
- o‘yin texnologiyalarini darslarga joriy etish;
- AKT vositalaridan samarali foydalanish;
- o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

Yurtimizda ayni damda olib borilayotgan islohotlarning asosiy omilidan biri bu har bir shaxsni fikrlashga, mantiqan tahlil qilishga o‘rgatishdir. Mantiqiy fikrlash bu o‘z-o‘zidan mantiq ilmi va uning tarixi bilan uzviy bog‘liq. Mantiq ilmi esa juda qadimdan paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan. Xususan mantiq ilmiga doir ilk tasavvurlarni qadimgi yunon olimlari Perminid, Aristotel, Demokrit, Platon, Suqrot kabi olimlar asarlarida so‘z brogan. Undan so‘ng esa Abu Nasir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Bedil, Umar Hayyom kabi olimlar tomonidan o‘z asarlari yordamida mantiq ilmi chuqur talqin qilingan. Shu tariqa yangi o‘rta asr Yevropasida ham mantiq ilmini yangi yo‘nalishlari o‘rganila boshlagan. Bu jarayonda T.Gobbs, V.Leybnist, V.F.Gegel, I.Kant, R.Dekart, F.Bekon kabilar o‘z xissasini qo‘shgan. Vatanimizda mantiq tushuncha va masalalari bilan M.M.Xayrullayev, E.Yu.Yusupov, V.Qobulov, I.Rahimov, M.Sharipov, O.Imomxo‘jayev, D.Fayzixo‘jayeva va boshqa olimlar mantiq ilmiga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni ta‘lim tizimining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda o‘quvchilar tafakkurining poydevori shakllanadi, ularda sabab–natija bog‘lanishlarini tushunish, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chi qarish ko‘nikmalari rivojlanadi. Matematika darslari esa bu jarayon uchun eng qulay muhitni yaratadi. Chunki matematika fani nafaqat hisob-kitoblarni o‘rgatadi, balki mantiqiy fikrlashni, aniq mulohaza yuritishni, mustaqil fikr bildirishni talab qiladi. Matematik topshiriqlar o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi, ularda muammoni yechishga yo‘naltirilgan izlanish faoliyatini shakllantiradi. Ayniqsa, mantiqiy mazmundagi masalalar, qiziqarli topshiriqlar, kombinatorik holatlar, ketma-ketliklarni aniqlash, mantiqiy bog‘liqliklarni topishga yo‘naltirilgan mashqlar o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini kengaytiradi. Bu jarayon o‘qituvchidan ham yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni talab etadi. Har bir topshiriq o‘quvchining yosh xususiyatlariga, bilish imkoniyatlariga va qiziqishlariga mos ravishda tanlanishi zarur. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari va ijodiy yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi. Bugungi kunda

mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda raqamli o‘quv vositalari, virtual topshiriqlar va multimediali dasturlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning motivatsiyasini yanada oshiradi. Ular orqali o‘quvchi masalani faqat yechmaydi, balki uning mazmunini tushunishga, mantiqiy bog‘lanishni izlab topishga o‘rganadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, xatolarni tahlil qilish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyatlari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida mantiqiy mazmundagi topshiriqlardan tizimli foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur salohiyatini kengaytiradi, ularda tahliliy, ijodiy va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantiradi. Shu bois, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida muntazam ravishda qo‘llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni,
2. 2020-yil 12-iyun kuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika institutiga tashrifida so‘zlagan nutqidan
3. Jo‘rayev, A. (2020). Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
4. Xo‘jayev, M., & Tursunova, G. (2021). Matematika darslarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish usullari. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.
5. Ahmedova M. umumiy tahrir ostida. Falsafa. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – T.: 2006-y. – B 506, 495bet.
6. Baratov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. – T.: O‘qituvchi, 2005-y. – B 418,236-bet.
7. Berdieva O. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar // Xalq ta’limi. – Toshkent. – 2003-y
8. G‘afforova T. va b.1-sinf O‘qish darsligi. – T.: Sharq. 2015-y
9. G‘afforova T. va b. 2- sinf O‘qish darsligi. – T.: Sharq. 2015-y.

DAVLAT TILI VA ISH YURITISH MADANIYATI: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG‘UNLIGI

Abduvaitov Eldorbek Farxod o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

e.abduvaitov@cspu.uz

Annotatsiya: maqolada davlat tilining ish yuritishdagi roli va ish yuritish madaniyati bilan uyg‘unligi masalalari o‘rganilgan. Maqolada nazariy va amaliy jihatlar tahlil qilinib, rasmiy hujjatlar va idoraviy ish jarayonlarida tilning to‘g‘ri, aniq va mantiqiy ishlatilishining ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ish yuritish madaniyatini oshirish orqali xodimlar o‘rtasida samarali muloqot va hujjat aylanishini ta’minlashning usullari va me’yoriy tamoyillari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: davlat tili, ish yuritish madaniyati, rasmiy hujjat, nazariya va amaliyot uyg‘unligi, til me’yori, idoraviy muloqot, hujjat aylanishi.

Davlat tilining ish yuritishdagi roli milliy madaniyat va davlat boshqaruvining samaradorligini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Rasmiy hujjatlar, idoraviy xatlar va boshqa ish yuritish materiallarida tilning aniqligi, tushunarli va mantiqiy shaklda ishlatilishi nafaqat hujjatlarning qonuniy kuchini oshiradi, balki xodimlar o‘rtasida samarali muloqot va o‘zaro tushunishni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, davlat tilini ish yuritish jarayonida to‘g‘ri qo‘llash nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Ish yuritish madaniyati esa rasmiy ish jarayonlarida tartib-intizom, aniq ifoda, muloqot etikasi va hujjatlarning me’yoriy talablariga rioya etish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Davlat tili va ish yuritish madaniyati o‘rtasidagi uyg‘unlik idoraviy ishlarni sifatli, tezkor va qonuniy asosda amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, har bir xodim davlat tilining me’yoriylariga rioya qilgan holda ish yuritish jarayonida professional madaniyatni namoyon etishi lozim.

Davlat tilining ish yuritishdagi roli va ish yuritish madaniyati sohasida olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatadiki, rasmiy til va ish yuritish madaniyati uyg‘unligi nafaqat hujjatlarning qonuniy kuchini oshirish, balki idoraviy jarayonlarning samaradorligini ham ta’minlaydi. Xorijiy olimlar, jumladan Anderson (2020), rasmiy til va ish yuritish jarayonlarida tilning to‘g‘ri ishlatilishi, hujjatlarning aniq va mantiqiy tuzilishi ish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi[1]. Ularning tadqiqotlarida shuningdek, elektron hujjat aylanishida til va uslub me’yorlariga rioya qilinmasligi ish jarayonida noto‘g‘ri talqinlar va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbek olimlarining tadqiqotlari esa, milliy kontekstda davlat tilining ish yuritishdagi normativ va amaliy qo‘llanilishiga e’tibor qaratadi. Qo‘qonov (2018) rasmiy hujjatlarda davlat tilining me’yorlari va idoraviy muloqot madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni batafsil tahlil qilgan va hujjatlarning til jihatidan bir xilligi ish samaradorligini oshirishda muhim ekanligini ta’kidlagan[2]. Islomov (2021) esa, idoraviy ish jarayonlarida nutqning aniqligi, muloqot etikasi va rasmiy uslubga rioya qilish davlat tilini amaliy qo‘llashning asosiy omillari ekanligini ko‘rsatgan[3]. Shu bilan birga, o‘zbek tadqiqotlarida til me’yorlariga rioya qilmagan holda tayyorlangan hujjatlar xodimlar o‘rtasida tushunmovchilikka va ish jarayonining sekinlashishiga olib kelishi mumkinligi qayd etilgan.

Metodologik jihatdan, ushbu tadqiqotda bir necha yondashuvlar birgalikda qo‘llanildi. Birinchi navbatda, tahliliy-uslubiy yondashuv orqali rasmiy hujjatlar namunalarining til va uslub me’yorlariga muvofiqligi o‘rganildi. Bu yondashuv yordamida hujjatlarning struktura, ifoda aniqligi va mantiqiy bog‘liqligi tahlil qilindi. Ikkinchi yondashuv sifatida lingvopragmatik tahlil ishlatilib, ish yuritish jarayonida tilning muloqotdagi samaradorligi, rasmiy nutqning ifodali va aniq bo‘lishi, shuningdek, xodimlar o‘rtasida ish yuritish madaniyatining uyg‘unligi o‘rganildi. Shuningdek, tadqiqotda solishtirma tahlil ham qo‘llanildi. Rasmiy hujjatlar namunalarining turli idoralarda va turli shakllardagi hujjatlarda qo‘llanilishi solishtirilib, ularning til va uslub jihatidan farqlari aniqlandi. Bu yondashuv davlat tilining amaliy ishlatilishidagi muammolarni aniqlash va ularni nazariy asosda yechish imkonini berdi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ish yuritish madaniyatini oshirish, xodimlar o‘rtasida samarali muloqot va rasmiy hujjatlarni to‘g‘ri tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijada, xorijiy va milliy tadqiqotlar davlat tili va ish yuritish madaniyati uyg‘unligini ta’minlash, hujjatlarning qonuniy kuchini oshirish, idoraviy jarayonlarni samarali tashkil etish hamda xodimlar malakasini oshirish uchun muhimligini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat tilining ish yuritishda to‘liq va samarali qo‘llanilishiga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat tilining ish yuritishdagi to‘g‘ri qo‘llanilishi va ish yuritish madaniyati uyg‘unligi idoraviy jarayonlarning samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Rasmiy hujjatlarda til me’yorlariga rioya qilish, nutqning aniqligi va muloqot etikasi xodimlar o‘rtasida tushunmovchiliklarni kamaytiradi hamda ish jarayonini tez va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy tavsiya shundan iboratki, tashkilotlarda xodimlarning davlat tilini amaliy qo‘llash bo‘yicha malakasini muntazam oshirish, rasmiy uslub va ish yuritish madaniyati bo‘yicha trening va seminarlar tashkil etish lozim. Bu nafaqat hujjat aylanishini soddalashtiradi, balki idoraviy muloqot va boshqaruv sifatini ham yaxshilaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, davlat tilini ish yuritishda samarali qo‘llash va ish yuritish madaniyatini rivojlantirish orqali tashkilotlar o‘z faoliyatini yanada tizimli, izchil va professional tarzda olib borish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, bu milliy tilni mustahkamlash va davlat tilining amaliy ishlatilishini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anderson, R. (2020). Digital History and the Internet Era: Language and Administration. Cambridge: Cambridge University Press, p. 45–67.
2. Qo‘qonov, M. (2018). Davlat tilining ish yuritishdagi normativ va amaliy jihatlari. Toshkent: Fan nashriyoti, p. 23–56.
3. Islomov, A. (2021). Idoraviy hujjatlarda rasmiy uslub va ish yuritish madaniyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, p. 12–48.
4. E.F. Abduvaitov “Davlat tilida ish yuritish: an’anaviylik va tarixiy tadqiq”. Chirchiq davlat pedagogika universiteti. “YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINI YANGI

PEDAGOGLAR BILAN BIRGA RIVOJLANTIRAMIZ!” mavzusidagi I ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. Chirchiq – 2024. 80-82-betlar.

INNOVATSION IQTISODIYOT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA IQTISODIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Esheva Sarvinoz Axmatovna

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti

katta o‘qituvchisi

E-mail: sarvinovzaripova22022022@gmail.com

Abdurashidova Mahliyo Shuxrat qizi

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti

2-kurs talabasi

E-mail: amahliyo221@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli texnologiyalar, xususan, sun‘iy intellekt (AI) algoritmlaridan foydalanishning kontseptual asoslari hamda uning savdo korxonalaridagi strategik o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati, elektron tijorat bozorining joriy konyunkturasi va undagi o‘rish dinamikasi iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida yoritilgan. Shuningdek, sohani rivojlantirishdagi dolzarb masalalar, biznes-jarayonlarni optimallashtirishning afzalliklari hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ustuvor vazifalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, savdo korxonalari, elektron tijorat, raqamli transformatsiya, iqtisodiy samaradorlik, investitsion muhit.

KIRISH

XXI asr iqtisodiyoti innovatsiyalar va raqamlashtirish jarayonlari bilan tubdan o‘zgarib bormoqda. An‘anaviy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimlari o‘rni zamonaviy, texnologik yechimlarga asoslangan model egallamoqda. Innovatsion rivojlanish har bir davlatning raqobatbardoshligini ta‘minlovchi omilga, raqamli iqtisodiyot esa global iqtisodiy muhitning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu maqolada innovatsion taraqqiyot va raqamli iqtisodiyotning mohiyati, ularning o‘zaro bog‘liqligi va O‘zbekiston tajribasi misolida tahlil qilinadi.

Innovatsion rivojlanish tushunchasi va uning iqtisodiyotdagi roli. Innovatsion rivojlanish — bu yangi g‘oyalarni yaratish, ularni mahsulot, xizmat yoki texnologiya ko‘rinishida joriy etish orqali iqtisodiy o‘rishga erishish jarayonidir. Bu jarayon ilmiytadqiqot ishlari, texnologik yangiliklar, ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslashish orqali amalga oshadi. Innovatsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, bandlikni rivojlantiradi va raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi. Innovatsiyaning asosiy shakllari: Mahsulot innovatsiyasi – yangi yoki yaxshilangan mahsulotlar yaratish. Jarayon innovatsiyasi – ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish usullarini takomillashtirish. Tashkiliy innovatsiya – boshqaruv, axborot oqimlari, resurs taqsimoti sohasidagi yangiliklar. Marketing innovatsiyasi – bozorni o‘rganish, narx siyosati yoki mijozlar bilan aloqadagi yangi yondashuvlar. Innovatsiyaning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati – Iqtisodiy o‘rishni jadallashtiradi. Innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, bu esa yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning o‘rishga olib keladi.

Raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi masalan Texnologik yangiliklarga asoslangan mahsulot va xizmatlar ichki va tashqi bozorda ustunlik beradi, Ish o‘rinlari yaratadi masalan Innovatsion sohalarda yangi kasblar, yangi talablar va bandlik turlarini yuzaga keltiradi. Ilm-fan va ta‘lim bilan bog‘liqligini mustahkamlaydi. Innovatsiyalar ilmiy tadqiqotlarga asoslangan bo‘lib, bilimga asoslangan iqtisodiyot shakllanishiga xizmat qiladi. Resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlaydi. Energiya tejankor texnologiyalar, chiqindisiz ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlar ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi. Tadqiqotning vazifalari esa sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni

oshirish bosqichlarini tadqiq qilish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or boshqaruvni qo‘llashni kengaytirishra ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma’lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish, taqqoslash, iqtisodchi olimlarning qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha izlanishlari hamda sohaga doir xulosalar tahlil qilinib fikr mulohaza yuritildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Innovatsion iqtisodiyot — bu faqatgina yangi g‘oyalar emas, balki raqamli texnologiyalar, xususan, sun‘iy intellekt (AI), bulutli texnologiyalar (Cloud Computing) va katta ma’lumotlar (Big Data) kabi instrumentlarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish zanjiriga integratsiyalashuvidir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion muhitning samaradorligi bevosita inson kapitali sifati va raqamli infratuzilma bilan belgilanadi. O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli shakllantirilmoqda. Raqamli texnologiyalar sharoitida iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismlari. Tadqiqot davomida iqtisodiy o‘shishni ta’minlovchi quyidagi asosiy raqamli komponentlar aniqlandi: sun‘iy intellekt (AI) savdo korxonalarida biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish, mijozlar segmentatsiyasini amalga oshirish va talabni prognozlash orqali operatsion samaradorlikni oshiradi. Elektron platformalar va E-commerce: Amazon va Alibaba kabi global modellar asosida mahalliy marketpleyslar rivojlanishi, tranzaksiya xarajatlarini (transaction costs) optimallashtirmoqda.

Fintech va Raqamli to‘lovlar: Click, Payme va blokcheyn tizimlari orqali moliyaviy oqimlarning shaffofligi ta’minlanib, yashirin iqtisodiyot ulushi qisqartirilmoqda.

Iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va davlat strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasining 2019–2021 va 2022–2030 yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyalari iqtisodiyotni texnologik transfer bosqichiga olib chiqdi. Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi 5 yilda davlat xizmatlarining 80% dan ortig‘i raqamli formatga o‘tkazildi, bu esa iqtisodiy munosabatlarda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etdi, IT-parklar va startap ekotizimi: Innovatsion mahsulotlarni prototiplashtirish va tijoratlashtirish jarayoni 3D simulyatsiyalar hisobiga bir necha barobar tezlashdi.

Kiberxavfsizlik: raqamli iqtisodiyotning barqarorligi uchun axborot resurslarini himoya qilish tizimlari jadal modernizatsiya qilinmoqda.

Savdo korxonalarida innovatsiyalarning ahamiyati. Raqamli transformatsiya sharoitida savdo korxonalari nafaqat tovar sotish, balki ma’lumotlar tahlili (Data Analytics) orqali qiymat yaratish markazlariga aylanmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omilidir. Kelgusida raqamli savodxonlikni oshirish va “Industry 4.0” elementlarini joriy etish iqtisodiy rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘lib qoladi.

Xulosa va takliflar

XXI asr global iqtisodiyoti innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar asosida shakllanmoqda. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat iqtisodiy o‘shishning muhim manbai, balki davlatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi strategik omilga aylandi. Innovatsiyalar iqtisodiyotga yangi turtki beradi, texnologik yangilanishni ta’minlaydi va inson kapitalidan samarali foydalanishga yo‘l ochadi. Raqamli iqtisodiyot esa bu innovatsiyalarning amaliyotga tez va keng miqyosda tatbiq etilishiga imkon yaratadi. O‘zaro bog‘liq holda rivojlanayotgan innovatsion va raqamli yo‘nalishlar sanoat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, moliya va davlat boshqaruvi kabi asosiy sohalarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun‘iy intellekt, Big Data, blokcheyn, raqamli to‘lov tizimlari va elektron hukumat kabi texnologiyalar iqtisodiy faoliyatda shaffoflik, tezkorlik va samaradorlikni oshirmoqda. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishlarda izchil siyosat olib borilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “Innovatsion rivojlanish strategiyasi” kabi muhim dasturlar orqali mamlakat innovatsion iqtisodiyotga o‘tish yo‘lida mustahkam zamin yaratmoqda. Ilm-fan, texnologiya, AKT va inson kapitaliga

yo‘naltirilgan islohotlar natijasida raqamli transformatsiya va innovatsion muhit shakllanmoqda. Xulosa qilib aytganda, innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot bir-birini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi omillar bo‘lib, ularning uyg‘unligi har bir mamlakat iqtisodiy salohiyatini ochib berishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston bu yo‘nalishda salmoqli yutuqlarga erishmoqda va bu strategik yondashuv milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lean Enterprise Institute. "Lean Thinking and Practice." <https://www.lean.org/lexicon-terms/lean-thinking-and-practice/>
2. Ohno, T. (1988). Toyota Production System: Beyond Large-Scale Production. Productivity Press.
3. Manufacturing Tomorrow. (2023). "The 8 Wastes of Lean Manufacturing." <https://www.manufacturingtomorrow.com/article/2023/03/the-8-wastes-of-leanmanufacturing/20284>
4. Womack, J.P., Jones, D.T. (1996). Lean Thinking: Banish Waste and Create Wealth in Your Corporation. Simon & Schuster.
5. Shavqiyev, E., Yarmuxammedova, B. (2025). "Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslari tejamkorligini ta'minlash yo'llari." Modern Education and Development, 20(2), 55–58. <https://inlibrary.uz/index.php/mead/article/view/95079>
6. Womack, J.P., Jones, D.T., Roos, D. (1990). The Machine That Changed the World. Free Press.
7. Liker, J.K. (2004). The Toyota Way: 14 Management Principles from the World's Greatest Manufacturer. McGraw-Hill.
8. Antonio, A. (2024). "Lean Manufacturing and Its Impact on Production Efficiency." JRIBM, 11: 025. <https://www.interestjournals.org/articles/leanmanufacturing-and-its-impact-on-production-efficiency.pdf>
9. Lean Enterprise Institute. (2022). Research Reports on Lean Manufacturing Adoption and Impact. <https://www.lean.org/>
10. OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2023.
11. "Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi
12. Rustamov, I. A. (2023). Raqamli iqtisodiyot asoslari.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli Farmoni. "Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. 2020-yil 5-oktyabr

TIL O‘RGANISHDA KOGNITIV VA PSIXOLOGIK OMILLAR

Axmedova Nigina Ixtiyor qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis institut

“Tillarni o‘qitish kafedrası o‘qituvchisi

e-mail: akhmedovanigina0@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada til o‘rganish jarayonida kognitiv va psixologik omillarning o‘rni har tomonlama tahlil qilinadi. Xususan, xotira, diqqat, tafakkur kabi kognitiv jarayonlarning yangi til birliklarini o‘zlashtirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Shu bilan birga, motivatsiya, emotsional holat va individual psixologik xususiyatlarning o‘quv jarayoniga ta’siri ochib beriladi. Tadqiqot davomida til o‘rganish samaradorligini oshirishda kognitiv strategiyalar va ijobiy psixologik muhitning muhimligi asoslab beriladi. Olingan natijalar zamonaviy til o‘qitish metodikasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *kognitiv jarayonlar, psixologik omillar, til o‘rganish, motivatsiya, psixolingvistika, diqqat, xotira.*

Zamonaviy tilshunoslik va pedagogika fanlarida til o‘rganish jarayoni murakkab psixik va kognitiv faoliyat sifatida qaraladi. Inson yangi tilni o‘rganar ekan, u nafaqat grammatik qoidalarni o‘zlashtiradi, balki ongidagi mavjud bilimlar tizimi bilan yangi ma’lumotlarni integratsiya qiladi. Shu sababli, til o‘rganishda kognitiv va psixologik omillarni hisobga olish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Kognitiv yondashuvga ko‘ra, til o‘rganish jarayoni axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlarda xotira alohida

o‘rin tutadi. Xususan, qisqa muddatli xotira yangi so‘z va iboralarni vaqtincha saqlashga xizmat qilsa, uzoq muddatli xotira ularni mustahkamlab, keyinchalik faol qo‘llash imkonini beradi [1, 45-bet]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali til o‘rganish uchun ma’lumotni takrorlash, kontekstda qo‘llash va assotsiativ bog‘lanishlar yaratish muhim hisoblanadi.

Diqqat ham kognitiv jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchining o‘rganilayotgan materialga qanchalik e’tibor qaratishini belgilaydi. Diqqatning yetarli darajada bo‘lmashligi o‘rganish samaradorligini pasaytiradi. Shu bois zamonaviy o‘qitish metodlarida interaktiv usullardan foydalanish orqali o‘quvchilarning diqqatini jalb etish muhim hisoblanadi. Kognitiv jarayonlar bilan bir qatorda psixologik omillar ham til o‘rganishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ulardan eng muhimi motivatsiyadir. Motivatsiya o‘quvchini til o‘rganishga undovchi ichki va tashqi omillar majmuasidir. Ichki motivatsiya, ya’ni tilni o‘rganishga bo‘lgan shaxsiy qiziqish va ehtiyoj, yuqori natijalarga erishishda muhim omil hisoblanadi [2, 78-bet]. Tashqi motivatsiya esa baho olish, ish topish yoki boshqa tashqi rag‘batlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Til o‘rganishda emotsional holat ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik jihatdan qulay muhit o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Aksincha, qo‘rquv, stress va o‘ziga ishonchsizlik kabi salbiy emotsiyalar o‘rganish jarayonini sekinlashtiradi. Shu jihatdan, o‘qituvchining vazifasi ijobiy psixologik muhit yaratishdan iborat [3, 112-bet]. Shaxsiy xususiyatlar ham til o‘rganishga ta’sir qiluvchi muhim omillardandir. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos o‘rganish uslubi mavjud. Ba’zi o‘quvchilar vizual materiallar orqali yaxshiroq o‘rganadi, boshqalari esa eshitish yoki amaliy faoliyat orqali bilimni tezroq o‘zlashtiradi. Shuningdek, ekstravert o‘quvchilar muloqot orqali tilni o‘rganishga moyil bo‘lsa, introvertlar mustaqil o‘rganishni afzal ko‘radi [4, 67-bet]. Shuningdek, til o‘rganishda ijtimoiy-kognitiv yondashuv ham muhim hisoblanadi. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘rganish jarayoni faqat individual faoliyat emas, balki ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir natijasidir. Guruhda ishlash, muloqot qilish va real kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etish tilni o‘zlashtirishni tezlashtiradi.

Motivatsiyaning yana bir turi — instrumental va integrativ motivatsiya ham muhim hisoblanadi. Instrumental motivatsiya tilni ma’lum maqsad (masalan, ish topish yoki imtihon topshirish) uchun o‘rganishni anglatadi. Integrativ motivatsiya esa til egasi bo‘lgan jamiyatga yaqinlashish, uning madaniyatini tushunish istagi bilan bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, integrativ motivatsiya ko‘proq barqaror va uzoq muddatli natijalar beradi.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi ham til o‘rganishda yangi psixologik va kognitiv imkoniyatlarni yaratmoqda. Masalan, mobil ilovalar, sun’iy intellekt asosidagi platformalar va onlayn kurslar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida metakognitiv va motivatsion omillarni kuchaytiradi.

Zamonaviy psixolingvistika fanida til o‘rganish jarayonini tushuntirishda kognitiv strategiyalarga alohida e’tibor qaratiladi. Bunday strategiyalar qatoriga takrorlash, tahlil qilish, umumlashtirish va assotsiatsiya qilish kiradi. Ushbu strategiyalar o‘quvchilarga yangi bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash imkonini beradi. Bundan tashqari, til o‘rganishda ijtimoiy omillar ham psixologik jarayonlar bilan uzviy bog‘liq. O‘quvchining atrof-muhiti, o‘qituvchi bilan munosabati va guruhdagi ijtimoiy muhit uning o‘rganish faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy ijtimoiy muhit motivatsiyani oshiradi va o‘quvchini faol bo‘lishga undaydi. [9, 43] Shunday qilib, til o‘rganish jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, unda kognitiv va psixologik omillar o‘zaro chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bu omillarni chuqur o‘rganish va amaliyotda qo‘llash til o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, til o‘rganish jarayoni faqat lingvistik bilimlarni egallash bilan chegaralanmaydi, balki u insonning murakkab kognitiv va psixologik faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xotira, diqqat va tafakkur kabi kognitiv jarayonlar til materialini qabul qilish, qayta ishlash va mustahkamlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ayniqsa, uzoq muddatli xotiraning rivojlanganligi o‘rganilgan til birliklarini faol nutqda qo‘llash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, psixologik omillar — motivatsiya, emotsional holat va shaxsiy xususiyatlar — o‘quvchining til o‘rganishga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan o‘quvchilar tilni tezroq va samaraliroq o‘zlashtiradi, chunki ular

o‘rganish jarayonida faol va mustaqil bo‘ladi. Aksincha, salbiy psixologik holat, jumladan, qo‘rquv, stress yoki o‘ziga ishonchsizlik til o‘rganish samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Bundan tashqari, individual yondashuvning ahamiyati alohida ta’kidlash lozim. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos kognitiv uslubi va psixologik xususiyatlari mavjud bo‘lib, o‘qituvchi ushbu jihatlarni inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishi zarur.

Umuman olganda, kognitiv va psixologik omillarni uyg‘un holda hisobga olish til o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyada yanada chuqurlashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007. – p 45.
2. Gardner, R. C. Motivation and Second Language Acquisition. – New York: Peter Lang, 2010. –p 78.
3. Lightbown, P. M., Spada, N. How Languages are Learned. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – p 112.
4. Oxford, R. L. Language Learning Strategies. – Boston: Heinle & Heinle, 1990. – p 67.
8. Jamolxonov, H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013. – 25-b.
9. Mahmudov, N. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan, 2010. – 43- bet.

CODE-SWITCHING IN THE CONTEXT OF LANGUAGE CONTACT AND LINGUISTIC INTERFERENCE

Murodova Nazira Ilkhomovna

Candidate of Philological Sciences, Senior Lecturer

Practical Department of English

Ferghana State University

Ferghana, Uzbekistan naziramurodova8@gmail.com

Abstract

Language contact represents one of the most important mechanisms influencing linguistic development and transformation. Continuous interaction between linguistic communities leads to various phenomena such as bilingualism, diglossia, interference, and borrowing. Among these processes, code-switching occupies a special position as a manifestation of bilingual speech behavior. This article examines code-switching within the theoretical framework of contact linguistics, focusing on its relationship with bilingualism, diglossia, and linguistic interference. The study analyzes theoretical approaches to language contact and demonstrates that code-switching should be understood as a natural communicative strategy emerging from the interaction of linguistic systems within multilingual environments. Particular attention is paid to the role of cognitive, social, and cultural factors influencing language alternation in bilingual communication.

Keywords

code-switching, language contact, bilingualism, diglossia

Аннотация

Языковые контакты являются важным фактором развития языков в многоязычных обществах. Взаимодействие языков приводит к возникновению таких явлений, как билингвизм, диглоссия, интерференция и заимствования. В статье рассматривается код-переключение как проявление билингвальной речевой деятельности в условиях языковых контактов. Особое внимание уделяется теоретическим аспектам взаимодействия языков, роли билингвизма и интерференции в формировании многоязычного коммуникативного пространства.

Ключевые слова: переключение кода, языковые контакты, билингвизм, диглоссия

Annotatsiya

Til kontaktlari ko‘p tilli jamiyatlarda tillarning rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Turli til jamoalari o‘rtasidagi aloqa bilingvizm, diglossiya, interferensiya va qarzlash kabi lingvistik hodisalarni yuzaga keltiradi. Mazkur maqolada kod almashinuvi bilingval nutq faoliyatining muhim ko‘rinishi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot til kontaktlari nazariyasi, bilingvizm va interferensiyaning o‘zaro bog‘liqligini yoritadi hamda ko‘p tilli muhitda til tizimlarining o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kod almashinuvi, til kontaktlari, bilingvizm, diglossiya

Introduction

Modern linguistic research increasingly recognizes that languages do not exist in isolation but constantly interact with each other. Such interaction occurs when speakers belonging to different linguistic communities communicate regularly within shared social, cultural, or economic environments. These processes are studied within the field of **contact linguistics**, which investigates the mechanisms and consequences of language interaction.

Language contact often results in the emergence of bilingualism and multilingualism. In multilingual societies speakers frequently operate with several linguistic systems simultaneously, which leads to various linguistic phenomena including interference, borrowing, convergence, and language switching. These processes demonstrate that linguistic systems influence each other not only at the structural level but also within the cognitive and communicative practices of speakers. One of the manifestations of bilingual communication is **code-switching**, understood as the alternation between languages in the speech of bilingual individuals. Although code-switching has been widely studied in sociolinguistics, its theoretical foundations are closely connected with broader issues of language contact, bilingualism, and linguistic interference. Understanding these theoretical foundations allows researchers to analyze how languages coexist and interact within multilingual communities.

The purpose of this article is to examine code-switching as a phenomenon emerging from language contact and to analyze its theoretical relationship with bilingualism and linguistic interference.

Language contact occurs when speakers of different languages interact within a common communicative space. Such interaction may arise as a result of migration, political integration, cultural exchange, trade, or educational processes. In these situations languages begin to influence one another, leading to structural and functional changes within linguistic systems.

One of the primary conditions of language contact is **bilingualism**, which refers to the ability of individuals or communities to use two languages in communication. Bilingualism can manifest itself at both individual and social levels. Individual bilingualism describes the linguistic competence of a speaker who operates with two linguistic systems, whereas social bilingualism refers to the coexistence of several languages within a particular community.

The presence of bilingual speakers creates conditions for constant interaction between languages. Within such environments languages may influence each other through various mechanisms, including lexical borrowing, grammatical adaptation, and structural convergence. These processes demonstrate that linguistic systems remain dynamic and flexible when functioning in multilingual contexts.

Within this theoretical framework, code-switching appears as a natural outcome of bilingual speech behavior. It reflects the ability of speakers to activate different linguistic systems depending on communicative needs and social conditions.

One of the central phenomena associated with language contact is **linguistic interference**, which refers to the influence of one language on another within the speech of bilingual individuals. Interference occurs when elements of one linguistic system affect the structure or usage of another system. This influence may manifest itself at various levels of language, including phonology, grammar, and lexicon.

Researchers have emphasized that interference arises from the coexistence of multiple linguistic systems within the cognitive structure of bilingual speakers. When individuals use a second language, the structures of their native language may influence the selection and organization of linguistic elements. As a result, deviations from the norms of the second language may occur.

However, interference should not be understood solely as an error or deficiency. In many cases it reflects the natural interaction between linguistic systems in the process of bilingual communication. Interference therefore represents an important mechanism through which languages influence each other in multilingual environments.

The study of interference has also demonstrated that language contact does not always lead to negative outcomes. On the contrary, interaction between languages may contribute to linguistic enrichment, expansion of communicative possibilities, and development of new forms of linguistic expression.

Within the context of language contact and bilingualism, code-switching can be interpreted as a specific communicative strategy used by bilingual speakers. When individuals possess knowledge of several languages, these languages form part of their communicative repertoire. Depending on social context, communicative goals, and interlocutors, speakers may alternate between linguistic systems during communication.

Code-switching therefore represents a manifestation of linguistic flexibility in bilingual speech. Rather than reflecting instability or confusion between languages, it demonstrates the ability of speakers to manage multiple linguistic resources within a single communicative situation.

From a sociolinguistic perspective, code-switching is closely connected with social identity and cultural affiliation. Language choice often reflects the speaker’s relationship with the interlocutor, the communicative domain, and the social norms governing language use in a particular community.

In addition, code-switching illustrates the interaction between linguistic systems at the cognitive level. Bilingual speakers constantly navigate between languages, activating different linguistic structures depending on communicative needs. This process reflects the dynamic organization of bilingual competence and the complex interaction between linguistic systems in the speaker’s mind.

The theoretical analysis of language contact demonstrates that code-switching cannot be studied in isolation from other phenomena such as bilingualism, diglossia, and linguistic interference. All these processes emerge from the interaction between languages and reflect the sociocultural conditions of multilingual communication.

In multilingual societies language choice is often influenced by functional distribution of languages within different social domains. Some languages may perform official or institutional functions, while others may be associated with everyday communication or cultural identity. Such distribution of functions contributes to the formation of complex linguistic environments in which language alternation becomes a common communicative practice.

The phenomenon of code-switching therefore reflects both linguistic and social dimensions of bilingual communication. It demonstrates how languages coexist within multilingual communities and how speakers adapt their linguistic behavior to changing communicative contexts.

Conclusion

Language contact plays a crucial role in shaping linguistic behavior in multilingual societies. The interaction between languages leads to the emergence of bilingualism, linguistic interference, and various forms of language alternation. Code-switching represents one of the most visible manifestations of these processes.

The analysis shows that code-switching should be understood as a natural communicative strategy emerging from bilingual competence and language interaction. It reflects the dynamic coexistence of linguistic systems within the communicative practices of bilingual speakers.

Further research on code-switching should continue to explore the cognitive, sociolinguistic, and cultural factors influencing bilingual communication, particularly in multilingual environments where several languages coexist within the same social space.

References

1. Bardinas, J. (2025). *Code-switching in multilingual classrooms: A bridge in language learning*. Journal of English Language Education.
2. Beatty-Martínez, A. L., Navarro-Torres, C. A., & Dussias, P. (2020). *Codeswitching: A bilingual toolkit for opportunistic speech planning*. Frontiers in Psychology.

3. Matras, Y. (2020). *Language Contact*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Sato, R. (2023). *Willingness to communicate in L2 conversations: The effects of code-switching and translanguaging*. TESL-EJ.
5. Smolak, E., et al. (2019). *Code-switching in bilingual toddlers: A longitudinal study*. Journal of Child Language.
6. Tarigan, K. E. (2024). *Code-switching and mixing among bilingual students: Sociolinguistic perspectives*. Journal of Language and Cultural Communication.
7. Tenés, L. T., et al. (2023). *Language proficiency predictors of code-switching behavior in bilingual children*. Bilingualism: Language and Cognition.
8. Winata, G. I., et al. (2022). *A survey of code-switching research in natural language processing*. ACM Computing Surveys.

FE’L ASOSLARI VA AFFIKSAL MORFEMALAR CHEGARASIDAGI MORFONOLOGIK HODISALARNING LISONIY TAHLILI

Mamatkulova Nasiba Maxamadjonovna, Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili fe’l paradigmasidagi morfonologik alternatsiyalar, ularning kelib chiqish asoslari va lisoniy tabiatini tadqiq etishga qaratilgan. Muallif affiksalar morfemalarning shakllanishini nafaqat agglutinatsiya, balki murakkab diaxronik jarayon — so‘zlarning desementizatsiyasi va fonetik qisqarishi natijasi sifatida asoslaydi. Maqolada o‘zbek tili fe’llaridagi unli va undoshlar almashuvi, geminatsiya hamda fonosemantik o‘zaklardagi barqarorlik masalalari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: morfonologiya, alternatsiya, grammatikalizatsiya, desementizatsiya, fe’l o‘zagi, geminatsiya, fonosemantik barqarorlik, affiksatsiya.

Abstract: This article is devoted to the study of morphonological alternations in the verb paradigm of the Uzbek language, their origins, and linguistic nature. The author substantiates the formation of affixal morphemes not only as agglutination but as a result of a complex diachronic process — desementization and phonetic reduction of words. The article analyzes vowel and consonant shifts, gemination in Uzbek verbs, and issues of stability in phonosemantic roots.

Keywords: morphonology, alternation, grammaticalization, desementization, verb root, gemination, phonosemantic stability, affixation.

Tilshunoslikda morfonologiya fonologik va morfologik tizimlar o‘rtasidagi bog‘lovchi halqa sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tili taraqqiyotida fe’llarning shakllanishi va yangi affiksalar birliklarning yuzaga kelishi ko‘pincha mustaqil leksik birliklarning grammatik ko‘rsatkichlarga aylanishi (grammatikalizatsiya) bilan bog‘liq. V.D. Arakin ta’kidlaganidek, leksik birliklar o‘zining semantik mustaqilligini yo‘qotib, fonetik jihatdan qisqarishi oqibatida affiksalar morfemalarga aylanadi. Ushbu jarayon o‘z navbatida morfonologik alternatsiyalarni yuzaga keltiruvchi asosiy mexanizmlardan biridir.

Affiksalar morfemalarning shakllanishi tarixan erkin so‘z birikmalarining jipslashuvi natijasidir. Masalan, qadimgi turkiy tildagi birlar birligining qisqarib, -ila/-la ko‘rinishiga kelishi nutqiy tejamkorlik (fonetik iqtisod) tamoyiliga misol bo‘ladi. Nutq jarayonida ko‘p ishlatiladigan birliklarning ixchamlashishi (masalan, olib bormoq > obormoq) tilda analitik qurilmalardan sintetik shakllarga o‘tishni ta’minlaydi.

O‘zbek tili fe’l yasashida quyidagi alternatsiya ko‘rinishlari tizimli xarakterga ega:

1. Vokalik almashuv: Bir bo‘g‘inli otlardan fe’l yasashida o‘zakdagi unlining o‘zgarishi kuzatiladi (ong – angla, son – sana). Bu yerda o – a alternatsiyasi yangi semantik maydon hosil qiladi.

2. Konsonantik qisqarish: Sifatdan fe’l yasashda asos oxiridagi q fonemasining tushib qolishi (quruq – quri+moq, sovuq – sovu+moq) va uning o‘rniga unli yoki jarangli undoshlarning paydo bo‘lishi fonetik tajash bilan birga morfologik differensiasiyani ham ta’minlaydi.

Morfonologik alternatsiya o‘timsiz va o‘timli fe’llarni farqlashda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Boshladi – boshlandi, ko‘rindi – ko‘rildi kabi juftliklarda o‘zak va qo‘shimcha chegarasidagi o‘zgarishlar fe’lning sintaktik vazifasini belgilaydi. Bu jarayonda morfonologik birliklar grammatik kategoriyalarni differensiasiya qiluvchi vositaga aylanadi.

Bir bo‘g‘inli fe’llarga affikslar qo‘shilganda o‘zak oxiridagi undoshning ikkilanishi (geminatsiya) holatlari tez-tez uchraydi (kek – kekaymoq, taq – taqqillamoq). Taqlidiy o‘zaklarda (g‘o‘ng-, biz-, ship-) esa morfologik shakllanish bo‘lsa-da, morfonologik alternatsiya deyarli kuzatilmaydi. Bu holat tovush taqlidi asosidagi so‘zlarning fonetik tarkibi semantik barqarorlikni saqlashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili fe’l tizimidagi morfonologik alternatsiyalar shunchaki fonetik moslashuv emas, balki tilning ichki qonuniyatlari va diaxronik asoslari bilan bog‘liq murakkab hodisadir.

Alternatsiyalar leksik birliklarning grammatiklashuvi jarayonida "ko‘prik" vazifasini o‘taydi. Ular fe’lning nisbat va zamon kategoriyalarida semantik va sintaktik farqlanishni ta‘minlovchi differensial belgidir. Fonetik tejash tamoyili nutq oqimida morfonologik soddalashuvni yuzaga keltirsa-da, til tizimida morfologik boyishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аракин В. Д. О превращении лексических единиц в аффиксальные морфемы (к проблеме взаимодействия уровней языка). Уровни языка и их взаимодействие. – М., 1967.
2. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010.
3. Zokirova H.R. O‘zbek tili morfonologiyasi. – Andijon, 2016.
4. Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л., 1970.

LISONIY PARADIGMA VA TASNIFNING AMALIY QO‘LLANILISHI

Uralov Azamat Begnarovich

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Tilshunoslik tadqiqotlarida paradigma va tasnif metodlari til birliklarini tizimli o‘rganish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash uchun asosiy vosita sifatida qo‘llanadi. Paradigma metodlari til birliklarini assotsiativ va alternativ bog‘liqliklar asosida guruhlaydi, ularning o‘zaro farqlarini, grammatik kategoriyalarini va morfemalararo bog‘lanishini ko‘rsatadi. Tasnif metodlari esa birliklarni fonologik, morfologik va sintaktik mezonlar asosida guruhlash imkonini beradi, tilning struktural tizimini ochib beradi va til birliklarining ierarxiyasini aniqlashga yordam beradi. Paradigma metodlari tilshunoslarga til birliklarining variant va alternativ shakllarini o‘rganish imkonini beradi. Masalan, fe’llarning turli zamon va shaxs shakllari – “yozaman, yozasan, yozadi, yozamiz, yozasiz, yozadilar” – paradigmaga kiradi va ular orasidagi morfemalarning farqi, grammatik kategoriyalarning ifodalanishi va ularning nutqdagi ishlatilish xususiyatlari o‘rganiladi. Shu tarzda paradigma metodlari tilning struktural va semantik qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tasnif metodlari til birliklarini tizimli guruhlashtirishga xizmat qiladi. Fonologik tasnif yordamida fonemalar va ularning talaffuz xususiyatlari tahlil qilinadi, morfologik tasnif so‘zlar va morfemalarning shakllanish qonuniyatlarini aniqlaydi, sintaktik tasnif esa so‘z va iboralarning gap tarkibidagi tartibini, sintagmatik va ierarxik bog‘lanishini ko‘rsatadi. Shu tarzda tasnif metodlari tilning barcha sathlarini bir-biri bilan uyg‘unlashtiradi va til birliklarini kompleks tarzda o‘rganishga imkon beradi.

Tilshunoslik tadqiqotlarida paradigma va tasnif metodlari birgalikda qo‘llaniladi, chunki ular til birliklarining strukturaviy, semantik va kommunikativ xususiyatlarini to‘liq ochib beradi. Paradigma metodlari asosida birliklarning o‘zaro alternativligi va grammatik bog‘lanishlari tahlil qilinadi, tasnif metodlari esa birliklarning guruhlanishi va ierarxiyasini aniqlaydi. Masalan, morfologik paradigmalar va tasniflar yordamida fe’llar, otlar yoki sifatlarning turkumlanishi, ularning gap tarkibidagi ishlatilish qoidalari va semantik kontrastlari o‘rganiladi. Paradigma va tasnif metodlarining amaliy ahamiyati tilshunoslik tadqiqotlarida tilning normativ va ijtimoiy vazifalarini aniqlash, yangi leksik birliklarni tahlil qilish, frazeologik birliklarni o‘rganish va nutq jarayonida til birliklarining ishlatilish qonuniyatlarini o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Shu tarzda bu metodlar tilshunoslarga til birliklarini tizimli, ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganish imkonini beradi hamda tilning morfologik, sintaktik va leksik sathlarini birlashtiradi. Til strukturasi til birliklarining tartiblangan va o‘zaro bog‘langan tizimini ifodalaydi. So‘zlar, morfemalar, frazemalar va gaplar til strukturasi ichida o‘zaro bog‘lanadi, grammatik qoidalar asosida ierarxik

tizim hosil qiladi. Grammatik tahlil esa tilning strukturaviy xususiyatlarini aniqlash, so‘zlar va iboralarning gap tarkibidagi o‘rnini, morfologik va sintaktik munosabatlarni o‘rganish imkonini beradi.

Amaliy misollar orqali til strukturasi va grammatik tahlil yanada aniqroq tushuniladi. Masalan, o‘zbek tilidagi fe‘l shakllarini tahlil qilishda fe‘lning zamon, shaxs va son kategoriyalari aniqlanadi. “Yozaman”, “yozasan”, “yozadi” kabi shakllar morfologik tahlil asosida paradigmalariga ajratiladi, so‘z tarkibidagi morfemalar va qo‘shimchalar aniqlanadi, ularning grammatik vazifasi ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, sintaktik tahlil yordamida bu fe‘llar gap ichida subyekt va predikat bilan qanday bog‘lanishini aniqlash mumkin. Masalan, “Men maktabga boraman” gapida fe‘l subyekt “men” bilan bog‘lanib, predikat vazifasini bajaradi va sintaktik ierarxiya ko‘rinadi. Shuningdek, ot va sifatlar bilan bog‘liq amaliy misollar ham til strukturasi va grammatik tahlilni tushunishda foydali hisoblanadi. Masalan, “katta uy” ifodasida sifat va ot o‘rtasidagi morfologik va sintaktik bog‘lanish tahlil qilinadi: sifat ot bilan kelishik jihatidan moslashadi va gap tarkibida iboraning yaxlit ma‘nosini hosil qiladi. Bu tarzda grammatik tahlil yordamida til birliklarining o‘zaro bog‘liqligi, morfemalarning funksional roli va gapdagi sintagmatik munosabatlar aniqlanadi. Til strukturasi va grammatik tahlil amaliy jihatdan so‘z turkumlari, gap tarkibi va frazeologik birliklarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Masalan, sinonim frazalar yoki murakkab gaplarda grammatik birliklar tahlil qilinib, ularning sintaktik va semantik bog‘lanishi aniqlanadi. Shu bilan birga, grammatik tahlil nutqdagi so‘zlarning ierarxik joylashuvi, morfologik va sintaktik kategoriyalar bilan moslashuvi, frazeologik birliklarning ishlatilish xususiyatlarini tushunishga yordam beradi.

Til strukturasi va grammatik tahlilning amaliy misollari tilshunoslarga til birliklarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning gap tarkibidagi vazifasini aniqlash, morfologik va sintaktik qonuniyatlarni ko‘rsatish hamda tilning kommunikativ va normativ vazifalarini o‘rganish imkonini beradi. Shu tarzda amaliy misollar til strukturasi va grammatik tahlilning nazariy bilimlar bilan birlashtirilishini ta‘minlaydi va tilshunoslik tadqiqotlarida muhim vosita sifatida ishlatiladi.

Til birliklarini tasniflash tilshunoslikda tilning strukturaviy va semantik tizimini o‘rganish uchun muhim vosita hisoblanadi. Til birliklarini turkumlash orqali so‘zlar, morfemalar, frazemalar va boshqa birliklarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning grammatik, fonetik va leksik xususiyatlari aniqlanadi. Tasnif til birliklarini ilmiy tahlil qilish, ularning ierarxik o‘rnini belgilash va tilning normativ va kommunikativ vazifalarini tushunishda yordam beradi. Til birliklarini tasniflash mezonlari bir nechta asosiy jihatlariga asoslanadi. Fonologik mezon birliklarning tovush darajasidagi farqlanishini aniqlaydi. Bu so‘zlarning talaffuz qoidalari, fonemalarning qarama-qarshi joylashuvi va ularning semantik ifodasi uchun zarurdir. Morfologik mezon esa so‘zlarni hosil qiluvchi morfemalar va qo‘shimchalar asosida tasniflaydi, so‘z shakllanishi va grammatik kategoriyalarni tahlil qilish imkonini beradi. Sintaktik mezon so‘zlarning gap ichidagi o‘rnini, sintagmatik bog‘lanishini va ularning kombinatsiyasini aniqlashga yordam beradi. Leksik mezon esa birliklarning ma‘nosini, sinonimlik, antonimlik va omonimlik kabi semantik munosabatlarni ko‘rsatadi.

Tasnif yordamida til birliklarining strukturaviy va funksional xususiyatlari sistematik tarzda o‘rganiladi. Bu jarayon tilshunoslarga morfologik va sintaktik qoidalarni aniqlash, so‘z birikmalarining semantik kontrastlarini tahlil qilish va til birliklarining ierarxik tizimini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tasnif til birliklarining kontekstga mos ishlatilishini, nutqning samaradorligi va tilning normativ vazifasini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda til birliklarini tizimli o‘rganish jarayonida ular turli mezonlar bo‘yicha tasniflanadi, bu tilning struktural, semantik va funksional xususiyatlarini chuqur tushunishga imkon beradi. Fonologik, morfologik va sintaktik tasniflar tilshunoslikning markaziy vositalaridan biri bo‘lib, til birliklarining turkumlanishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va til tizimidagi o‘rni aniqlanadi. Ushbu tasniflar tilshunoslarga nafaqat til birliklarini tahlil qilish, balki ularning grammatik, fonetik va leksik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish imkonini beradi.

Fonologik, morfologik va sintaktik tasniflar til birliklarining normativ va ijtimoiy ishlatilishini tushunish uchun ham zarurdir. Misol uchun, sinonim fe‘llarning ishlatilishi nutqning

uslubiy rang-barangligini oshirsa, morfologik tasnif so‘zlarning grammatik qoidalar asosida shakllanishini ko‘rsatadi va sintaktik tasnif esa ularning gap tarkibidagi o‘rni belgilaydi. Shu bilan birga, tasniflar yordamida til birliklari orasidagi qarama-qarshi va alternativ munosabatlar, semantik kontrastlar va morfologik farqlar aniq ko‘rinadi. Fonologik, morfologik va sintaktik tasniflar birgalikda tilshunoslik tadqiqotlarida so‘zlarning turkumlanishi, ierarxik tizimi, semantik qarama-qarshiliklari va nutqdagi ishlatilishini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Bu tasniflar til birliklarining yaxlit xususiyatlarini, tilning vazifa va muloqot imkoniyatlarini ochib beradi, shuningdek, tilni chuqur, ilmiy asosda o‘rganish va amaliy nutq jarayonida qo‘llashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Tilshunoslikda til birliklarini tasniflashning ilmiy ahamiyati juda katta bo‘lib, u tilning strukturaviy va vazifaviy xususiyatlarini chuqur tushunishga imkon beradi. Tasnif til birliklarini tizimli tarzda o‘rganish vositasi bo‘lib, so‘zlar, morfemalar, frazemalar va boshqa birliklarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu orqali tilshunoslar tilning ichki qonuniyatlarini, til birliklari o‘rtasidagi ierarxik tizimni va ularning nutq jarayonidagi ishlatilishini ilmiy asosda tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Tilshunoslikda tasnifning ilmiy ahamiyati bir necha jihatdan namoyon bo‘ladi. Birinchi jihat bu til birliklarini tartibga solish va ularni sistematik tarzda o‘rganishdir. Til birliklari tasnif yordamida morfologik, fonologik va sintaktik mezonlar bo‘yicha guruhlanadi, bu esa ularning grammatik va semantik imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, fe‘l va otlar paradigmasi yordamida so‘zlarning gap tarkibidagi vazifasi va shakllanish mexanizmi tahlil qilinadi. Shu tarzda til birliklarining ierarxik va semantik bog‘liqligi ochib beriladi. Ikkinchi jihat – til qoidalari va normativ vazifani aniqlash. Til birliklarini tasniflash orqali ularning grammatik qonuniyatlarga mosligi va nutq jarayonida ishlatilish tartibi o‘rganiladi. Morfologik tasnif so‘z shakllanishi va qo‘shimchalarning ishlatilishini aniqlasa, sintaktik tasnif gap ichidagi birliklarning o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tasnif tilning normativ me‘yorlarini tushunish va nutqning aniq, samarali ifodalanishini ta‘minlashga yordam beradi. Uchinchi jihat – til birliklarining semantik va kommunikativ imkoniyatlarini aniqlash. Tasnif yordamida sinonim, antonim, omonim va boshqa leksik birliklarning semantik qarama-qarshiligi aniqlanadi, frazemalar va iboralar o‘rganiladi. Bu esa nutqda to‘g‘ri ma’no yaratish, tilni stilistik rang-baranglikda ishlatish va kommunikativ vazifalarni bajarishda muhimdir. Til birliklarini tasniflash orqali ularning kontekstga mos ishlatilishi va stilistik vazifasi tizimli tarzda o‘rganiladi.

Shuningdek, tasnifning ilmiy ahamiyati tilshunoslik tadqiqotlarida amaliy natijalar hosil qilish imkonini beradi. Paradigmalar va tasniflar orqali til birliklarining o‘zaro bog‘liqligi, grammatik strukturasi, semantik kontrastlari va nutqdagi ishlatilish doirasi aniqlanadi. Bu esa tilshunoslarga morfologik va sintaktik tahlil, leksik tizimlarni o‘rganish hamda tilni normativ va didaktik jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Til birliklarini tasniflash tilshunoslikda nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun zarur vosita, balki tilning strukturaviy, semantik va kommunikativ xususiyatlarini chuqur o‘rganishga xizmat qiluvchi asosiy metodlardan biri hisoblanadi. Tasnif til birliklarini sistematik tarzda tahlil qilish, ularning gap tarkibidagi vazifasini aniqlash, morfologik va sintaktik qonuniyatlarni ko‘rsatish hamda tilning normativ va kommunikativ vazifasini o‘rganishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov A. Tilshunoslikka nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq. 2010.
2. Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Xolmanova Z., Majidova R., Sultonova Sh. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish). – Toshkent: Shafoat Nur Fayz. 2020.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2022.
4. Sayfullayeva R.R., Abuzalova M.Q., Mamadaliyeva N.S., Yuldasheva D.N. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi. 2021.
5. Xayrullayev X. Z., Ibragimova M.A. Tilshunoslik asoslari / Fundamentals of Linguistics. – Samarqand: SamDCHTI. 2014.
6. Xayrullayev X. Z. Tilshunoslik. O‘quv-uslubiy majmua. – Samarqand: SamDCHTI. 2016.

7. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi: fonetika, morfologiya va sintaksis. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2008.
8. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Shafoat Nur Fayz. 2020.

O‘ZBEK TILINING RAQAMLI MUHITDA RIVOJLANISH MASALALARI

Xodjamqulov Umid Negmatovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori,
Pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining raqamli muhitdagi hozirgi holati, rivojlanish darajasi va mavjud tizimli muammolari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, o‘zbek tilida to‘liq shakllanmagan lingvistik korpuslar va elektron ma’lumotlar bazalarining yetishmasligi, sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarida tilning cheklangan darajada qo‘llanilishi, mobil ilovalar hamda dasturiy mahsulotlarda o‘zbek tilining to‘liq integratsiyalashmaganligi, shuningdek ilmiy-texnik terminologiyaning standartlashmaganligi masalalari chuqur ilmiy asosda yoritiladi.

Tadqiqotda o‘zbek tilining raqamli ekotizimdagi o‘rni, uning global axborot makonidagi raqobatbardoshligi va lingvistik resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, rivojlangan tillar tajribasi bilan qiyosiy tahlil asosida o‘zbek tilining raqamli rivojlanishidagi asosiy to‘siqlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, raqamli muhit, lingvistik korpus, sun’iy intellekt, tabiiy tilni qayta ishlash, elektron resurslar, terminologiya, raqamli transformatsiya.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируется текущее состояние, уровень развития и системные проблемы узбекского языка в цифровой среде. Особое внимание уделяется недостаточному развитию лингвистических корпусов и электронных баз данных, ограниченному использованию узбекского языка в системах искусственного интеллекта и обработки естественного языка, слабой интеграции языка в мобильные приложения и программные продукты, а также отсутствию единого стандарта научно-технической терминологии.

В исследовании рассматривается место узбекского языка в цифровой экосистеме, его конкурентоспособность в глобальном информационном пространстве и уровень обеспеченности лингвистическими ресурсами. На основе сравнительного анализа с развитыми языками выявлены ключевые барьеры цифрового развития узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, цифровая среда, лингвистический корпус, искусственный интеллект, обработка естественного языка, электронные ресурсы, терминология.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the current state, development level, and systemic challenges of the Uzbek language in the digital environment. It focuses on the недостатки in linguistic corpora and electronic databases, the limited use of Uzbek in artificial intelligence and natural language processing systems, insufficient integration into mobile applications and software products, and the lack of standardized scientific and technical terminology.

The study examines the position of the Uzbek language in the digital ecosystem, its competitiveness in the global information space, and the availability of linguistic resources. Through comparative analysis with well-developed languages, key barriers to the digital development of Uzbek are identified.

Keywords: Uzbek language, digital environment, linguistic corpus, artificial intelligence, natural language processing, digital resources, terminology.

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi — raqamli jamiyat shakllandi. Ushbu jarayon ishlab chiqarish, iqtisodiyot va boshqaruv tizimlari bilan bir qatorda madaniyat, ilm-fan va til rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, tilning funksional imkoniyatlari kengayib, u

nafaqat kommunikativ vosita, balki strategik raqamli resurs sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Til millatning o‘ziga xosligini, madaniyatini va tarixini aks ettiruvchi muhim vositadir. Har bir til o‘ziga xos grammatik, leksik va fonetik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlar millatning o‘ziga xosligini belgilaydi. Masalan, o‘zbek tili o‘zining boy leksikasi, an’anaviy iboralari va fonetik xususiyatlari bilan o‘zbek millatining madaniyati va tarixi haqida ma’lumot beradi. Til orqali millat o‘z qadriyatlarini, urf-odatlarini va an’analarini avloddan-avlodga o‘tkazadi. Shunday qilib, til millatning o‘zligini saqlashda va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Millatning til bilan aloqasi, shuningdek, uning tarixi va madaniyatining rivojlanishi bilan ham bog‘liqdir. Tarix davomida til o‘zgarib, rivojlanib borgan, bu esa millatning o‘zgarishi va rivojlanishida aks etgan. Millatning tarixiy tajribalari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va madaniy aloqalari tilga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tilning o‘zgarishi va rivojlanishi millatdagi ijtimoiy jarayonlar va madaniy o‘zgarishlar bilan ham bog‘liqdir. Masalan, yangi so‘zlar va iboralar tilga kirib kelishi, millatning global maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlashiga yordam beradi.

Til va millat o‘rtasidagi munosabatlar shuningdek, ijtimoiy identifikatsiya jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Insonlar o‘zlarini bir millatga mansubligini his qilganda, til ularga o‘zaro

aloqalarini mustahkamlash va birlashish imkonini beradi. Bu esa millat ichida birlik va birdamlikni ta‘minlaydi. Millat va til o‘rtasidagi bu bog‘lanish, shuningdek, milliy g‘urur va o‘zlikni anglashni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, til va millat o‘rtasidagi aloqalar madaniyatning rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Madaniyatning turli jabhalari, masalan, san‘at, adabiyot va an‘analar, til orqali ifodalanadi va avlodlarga yetkaziladi. Tilning boyligi va xilma-xilligi millatning madaniy merosini saqlash va rivojlantirish uchun zarurdir. Shu sababli, til va millat o‘rtasidagi munosabatlar, nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va rivojlantiradi. Til va millat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, shuningdek, globalizatsiya jarayonida millatlarning o‘zligini saqlab qolishida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar, til va millatni bir-biriga yaqinlashtiradi va ularning rivojlanishida yangi imkoniyatlar yaratadi. Til va millat tushunchalari, insoniyat madaniyatining ajralmas qismlari sifatida, bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Til, millatning o‘ziga xosligini, tarixini va madaniyatini ifodalaydi, shuningdek, millatning ichki va tashqi aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Millat esa, o‘z navbatida, til orqali o‘zining tarixi, qadriyatlari va an‘analari bilan bog‘lanadi. Til va millat o‘rtasidagi bu o‘zaro aloqalar, shuningdek, identifikatsiya va ijtimoiy birlikni shakllantirishda ahamiyatlidir. Globalizatsiya jarayonida, til va millatning o‘zaro ta‘siri yanada kuchayadi, bu esa xalqaro miqyosda madaniy almashinuvni va o‘zaro tushunishni ta‘minlaydi. Shu sababli, til va millat tushunchalarini chuqur o‘rganish, zamonaviy jamiyatning rivojlanishi uchun zarurdir.

Milliy-ma‘naviy ruhiyat va til

Milliy-ma‘naviy ruhiyat, har bir xalqning o‘ziga xos xususiyatlari, qadriyatlari va umumbashariy madaniyatga bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydi. Bu ruhiyat, asosan, tarixiy tajribalardan, urf-odatlardan, an‘analardan va xalqning o‘ziga xos hayot tarzidan kelib chiqadi. Milliy-ma‘naviy ruhiyatning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri til bo‘lib, u xalqning fikr va hissiyotlarini ifodalaydigan, madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Til orqali milliy ruhiyatni ifodalash, o‘z navbatida, xalqning o‘zligini, uning tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlab qolishiga yordam beradi. Til, shuningdek, milliy ma‘naviyatni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Har bir xalqning tili uning fikr yuritish uslubini, hissiyotlarini va ma‘naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Masalan, o‘zbek tili o‘ziga xos so‘z boyligi, ibora va ifodalar bilan milliy ruhiyatni aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilidagi maqollar, aforizmlar va xalq og‘zaki ijodi milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni va tarixiy xotirani saqlab qolishga xizmat qiladi. Shunday qilib, til orqali milliy ma‘naviyatni ifodalash, xalqning ruhiy holatini, uning o‘ziga xosligini va madaniy merosini saqlash imkonini beradi. Milliy-ma‘naviy ruhiyat va til o‘rtasidagi bog‘lanish, shuningdek, madaniyat va urf-odatlar bilan ham aloqador. Madaniyat, til orqali ifodilangan qadriyatlar, an‘analar va urf-odatlar milliy ruhiyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir xalq o‘z madaniyati orqali o‘zining tarixiy tajribasini, urf-odatlarini va hayot tarzini namoyish etadi. O‘zbek madaniyati, o‘z navbatida, o‘zbek tilida, uning so‘z boyligi va ifodalarida aks etadi. Masalan, o‘zbeklarning mehmondo‘stligi, oilaga bo‘lgan hurmati va an‘anaviy qadriyatlari til orqali o‘z ifodasini topadi. Globalizatsiya jarayonida, milliy-ma‘naviy ruhiyatni saqlab qolish va rivojlantirish uchun til va madaniyatni qo‘llab-quvvatlash zarur. O‘zbek tilining rivojlanishi, uning xalqaro miqyosda tanilishi va madaniy almashinuvda ishtirok etishi, milliy ruhiyatni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, til va madaniyat orqali milliy ruhiyatni ifodalash, xalqning o‘zligini va o‘ziga xosligini saqlab qolishga yordam beradi. O‘zbek tilining boyligi va uning madaniyat bilan bog‘liqligi milliy ma‘naviyatni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, milliy-ma‘naviy ruhiyat va til o‘rtasidagi bog‘lanish, xalqning o‘ziga xosligini, tarixiy merosini va madaniy qadriyatlarini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilining rivojlanishi, madaniyat va urf-odatlar bilan bog‘liq bo‘lishi, milliy ruhiyatni yanada kuchaytiradi va xalqning o‘zligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Milliy-ma‘naviy ruhiyat, xalqning o‘ziga xos shaxsiyati va tarixiy tajribasi bilan bog‘liq bo‘lib, uning til orqali ifodalanishi millatning madaniyati va urf-odatlari bilan bevosita aloqadordir. Til, milliy ruhiyatning asosiy vositasi sifatida, xalqning fikrlash, his-tuyg‘ularini va qadriyatlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Har bir so‘z, ibora va ifoda millatning o‘ziga xosligini aks ettiradi va uning tarixiy, madaniy va ma‘naviy merosini saqlashga xizmat qiladi. O‘zbek tilida yashovchi xalqning urf-odatlari,

an‘analari va qadriyatlari, til orqali avloddan-avlodga o‘tadi. Shuningdek, milliy-ma’naviy ruhiyat, til orqali o‘z ifodasini topganida, xalqning birligini va ma’naviy bog‘liqligini mustahkamlaydi. Shu sababli, milliy-ma’naviy ruhiyat va til o‘rtasidagi munosabat, madaniyat va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tilning tarixiy rivojlanishi

Tilning tarixiy rivojlanishi insoniyat tarixida muhim o‘rin tutadi. Til, nafaqat aloqa vositasi, balki millatlarning ma’naviy va madaniy merosini saqlovchi, shakllantiruvchi omil sifatida ham xizmat qiladi. Har bir til o‘z tarixiy jarayonida ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarga duch keladi. Bu o‘zgarishlar esa tilning strukturasi, leksikasi va uslubiga ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, til tarixiy jarayonlarning aks-sadosi bo‘lib, o‘z ichida millatlarning o‘tgan va hozirgi davrlarini aks ettiradi.

Millatlarning tarixi va til o‘rtasidagi bog‘lanishlar juda chuqur va murakkabdir. Har bir millat o‘z tarixida o‘ziga xos tilga ega bo‘lib, bu til millatning kimligini, madaniyatini va qadriyatlarini belgilaydi. Til, millatning tarixiy tajribasini o‘zida mujassam etadi va bu tajriba avloddan avlodga o‘tadi. Shunday qilib, tilning rivojlanishi millatning tarixi bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, urushlar, migratsiyalar, madaniy aloqalar kabi tarixiy voqealar tilning o‘zgarishiga olib keladi. Bu jarayonda yangi so‘zlar, iboralar va grammatik qoidalar paydo bo‘ladi. Tilning rivojlanishi shuningdek, millatlarning o‘zaro aloqalari va muloqotlarida ham o‘z aksini topadi. Turli tillar o‘rtasida o‘zaro ta’sirlar, so‘zlarning o‘zgarishi va yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishini ta’minlaydi. Bu jarayon millatlarning madaniy almashinuvi va o‘zaro tushunishida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, bir millatning tiliga boshqa millatlarning so‘zlari kirib kelishi, ularning madaniyati va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Bu esa, o‘z navbatida, millatlarning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytiradi.

Tilning tarixiy rivojlanishidagi yana bir muhim jihat, uning ijtimoiy qatlamlar va guruhlar o‘rtasidagi farqlanishidir. Har bir jamiyatda turli ijtimoiy qatlamlar o‘zlariga xos tilni, jargon yoki dialektini ishlatadi. Bu esa tilning o‘zgarishiga, yangi uslublar va leksik birliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi til farqlari, o‘z navbatida, jamiyatda ijtimoiy tengsizlik va farqlanishlarni ham aks ettirishi mumkin.

Umuman olganda, tilning tarixiy rivojlanishi insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Til, millatlarning kimligini belgilovchi, ularning tarixiy tajribasini saqlovchi va kelajak avlodlarga yetkazuvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Millatlarning tarixi va til o‘rtasidagi bog‘lanishlar esa, tilning rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shunday ekan, tilni o‘rganish va uning tarixini o‘rganish, nafaqat tilshunoslik, balki tarixshunoslik va madaniyatshunoslik uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayonlar orqali biz insoniyat tarixining murakkabligini va uning turli qatlamlarini anglash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Tilning tarixiy rivojlanishi insoniyatning o‘ziga xos bir qismidir, chunki u millatlarning tarixi va madaniyatini shakllantiradi. Til, o‘z navbatida, tarixiy jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi, chunki u millatlar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir til o‘zining tarixiy rivojlanishi davomida ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarga, madaniy almashuvlarga va iqtisodiy taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatadi. Millatlarning tarixi va til o‘rtasidagi bog‘lanishlar esa, tilning o‘zgarishi va rivojlanishida madaniy meros va an‘analar qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shu sababli, tilni o‘rganish orqali biz nafaqat uning strukturaviy xususiyatlarini, balki uning tarixiy kontekstini ham chuqurroq tushunish imkoniyatini qo‘lga kiritamiz. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, insoniyatning umumiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Til inson shaxsining shakllanishida va uning milliy identitetini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Til, nafaqat muloqot vositasi, balki madaniyat, urf-odat va tarixiy tajribalarning aks etishi sifatida ham qaraladi. Har bir til o‘ziga xos tuzilmalarga ega bo‘lib, bu tuzilmalar tilni gapirish va tushunish jarayonida shaxsning o‘zligini anglashiga yordam beradi. Til orqali inson o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini va qarashlarini ifodalaydi, bu esa uning shaxsiy va ijtimoiy identitetini shakllantiradi. Shaxsning tilga bo‘lgan munosabati, uning o‘zini qanday his qilishi va qaysi millatga mansubligini anglashida muhim ahamiyatga ega. Til va identitet o‘rtasidagi bog‘liqlik, insonning o‘zligini anglashida va ifodalashida ko‘rinadi. Har bir inson o‘z tilida fikr yuritadi, o‘z

his-tuyg'ularini ifodalaydi va o'zini boshqalar bilan bog'laydi. Til orqali inson o'zining kimligini, qanday qadriyatlar va an'analar bilan yashayotganini tushunadi. Bu jarayon, o'z navbatida, milliy identitetni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Millat tilini bilish va uni qo'llash, shaxsning o'z millatiga bo'lgan bog'liqligini kuchaytiradi. Shuning uchun, til faqat muloqot vositasi emas, balki shaxsiy va ijtimoiy identitetni shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Til orqali o'zligini anglash va ifodalash jarayonida, shaxsning madaniy va tarixiy konteksti ham muhim ahamiyatga ega. Har bir til o'zining tarixiy rivojlanishiga ega bo'lib, bu rivojlanish jarayonida millatning tarixiy voqealari, urf-odatlar va madaniy merosi aks etadi. Til orqali o'zligini anglash, insonni o'z millatining tarixiga, madaniyatiga va urf-odatlariga bog'laydi. Bu bog'lanish, shaxsga o'zining tarixiy o'rnini anglash imkonini beradi va uni o'z millatining bir qismi sifatida his qilishiga yordam beradi. Til va identitet o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, tilning o'zgarishi va evolyutsiyasi bilan ham bog'liq. Zamonaviy sharoitda, globalizatsiya jarayonlari va madaniy almashinuvlar, tillarning o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu o'zgarishlar, shaxsning identitetini qanday anglashiga va ifodalashiga ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, til o'zgarishi, insonning o'zligini anglashida yangi imkoniyatlar yaratadi, lekin shu bilan birga, o'ziga xos madaniyat va an'analarning yo'qolishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Natijada, til shaxsning o'zligini anglash va ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, shaxsning milliy identitetini shakllantirishda va o'ziga xos madaniy merosini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Til, insoniyatning o'zligini anglash va ifodalash manbai sifatida, madaniyat va tarix bilan chambarchas bog'liqdir. Til, shaxs va millat identitetining ajralmas qismi sifatida, insonning o'ziga xosligini anglashda va ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Har bir til o'ziga xos tuzilma, lug'at va ifoda shakllariga ega bo'lib, bu orqali inson o'z fikrlarini, hissiyotlarini va tajribalarini boshqalar bilan baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Til, shuningdek, shaxsning ijtimoiy muhitida o'z o'rnini topishga yordam beradi, chunki u odamlarni birlashtiruvchi va ularning o'zaro aloqalarini kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Millat identiteti, ko'pincha til orqali shakllanadi, chunki til milliy madaniyatni, an'analarni va qadriyatlarni ifodalaydi. O'z tilini bilish va undan foydalanish, shaxsga o'zining madaniy merosini anglash va saqlash imkonini beradi. Shu tariqa, til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki shaxsning ichki dunyosini va millatining tarixiy kontekstini aks ettiruvchi muhim elementdir. Bunday munosabatlar, shaxsning o'zligini anglash jarayonida tilning ta'sirini yanada kuchaytiradi. Til, shaxs va millat identitetining muhim tarkibiy qismi bo'lib, insonning o'zini anglash va ifodalash jarayonida markaziy rol o'ynaydi. Har bir til o'ziga xos madaniyat va tarixiy tajribalarning aksidir, bu esa shaxsning o'zligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Til orqali insonlar o'z hissiyotlarini, fikrlarini va qadriyatlarini ifodalaydi, bu esa ularga o'z milliy kimligini tushunish va saqlashda yordam beradi. Shu sababli, til shaxsiy va jamoaviy identitetni belgilovchi kuchli vosita hisoblanadi.

1. Karimov, I. (1998). O'zbek tilining rivojlanishi. Tashkent: O'zbekiston nashriyoti.
2. Rahmonov, A. (2005). Til va madaniyat. Tashkent: Fan va texnologiya.
3. Abdullayev, B. (2010). Millat va identitet. Tashkent: Sharq.
4. Nurmatov, D. (2018). Milliy-ma'naviy ruhiyat. Tashkent: O'zbekiston.
5. Qodirov, S. (2021). Til va tarix. Tashkent: Yangi asr avlodi.
6. Xudoyberdiyev, M. (2022). Zamonaviy til va madaniyat. Tashkent: O'zbekiston nashriyoti.

JADID ADABIYOTSHUNOSLIGIDA TASAVVUF VA TASAVVUF ADABIYOTIGA MUNOSABAT

*G'afurov Nodirjon Sayfutdin o'g'li
O'zMU tayanch doktranti*

Annotatsiya

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bo'lib o'tgan, xalqning ongini yuksaltirishga, ilm-ma'rifatni yoyishga qaratilgan ijtimoiy harakat jadidchilik edi. Bu davrda xalq orasidan yetishib chiqib, bir qancha sabablar bilan chet el xalqlarining turmush tarzi bilan tanishib, o'z elining o'zga ellardan yangiliklarni ko'rishda va ularni o'zlashtirish borasida ortda qolayotganini anglagan bir

toifa bor edi. Bu toifa vakillari yangilikni o‘zlashtirib, o‘z yurtiga ham ularni tatbiq etish maqsadi bilan birlashgan qatlam edi.

Kalit so‘zlar: *jadid, tasavvuf, tabaqa, axloq darslari, hikoyat.*

Abstract

Jadidism was a social movement that emerged in the late 19th and early 20th centuries, aimed at raising public consciousness and spreading enlightenment. During this period, a specific group of people emerged from the common folk who, for various reasons, became acquainted with the lifestyles of foreign nations. They realized that their own people were lagging behind in terms of adopting innovations and modern advancements. This group was united by the goal of learning these innovations and implementing them in their own homeland.

Keywords: Jadid, Sufism, social class, ethics lessons, narrative.

Аннотация

Джадидизм был общественным движением конца XIX — начала XX века, направленным на повышение самосознания народа и распространение просвещения. В этот период из среды народа выделилась группа людей, которые по ряду причин ознакомились с образом жизни зарубежных стран и осознали, что их народ отстает от других в плане восприятия и освоения новшеств. Представители этого слоя объединились с целью освоения инноваций и их внедрения в своей родной стране.

Ключевые слова: джадид, суфизм, социальный слой, уроки этики, рассказ (хикоят).

Insoniyat tarixining barcha rivojlanish bosqichlarida badiiy adabiyot san’at turlarining biri va, ko‘p hollarda, ular orasidagi eng yetakchisi sifatida juda katta o‘rin tutib, faol rol o‘ynab kelmoqda. Shu rolning nimadan iborat ekanini va nimalarda o‘z ifodasini topganini juda qisqa ravishda esga olib o‘tmasdan turib, adabiyotni o‘rganishga kirishish mumkin emas. Chunki adabiyotning mohiyati dastavval uning ana shu faol ijtimoiy rovida namoyon bo‘ladi. Tarixiy davrlar – quldorlik, feodalizm, kapitalizm kabi hukmronlik yuritgan tuzumlar sharoitida badiiy adabiyotni yagona jarayon tarzida tasavvur qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki har bir davrda, har bir adabiyotda doimo ilg‘or va unga qarshi adabiy oqimlar orasida tinimsiz va murosasiz kurash davom etgan⁶².

Shunday davrlardan biri XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bo‘lib o‘tgan, xalqning ongini yuksaltirishga, ilm-ma’rifatni yoyishga qaratilgan ijtimoiy harakat jadidchilik edi. Bu davrda xalq orasidan yetishib chiqib, bir qancha sabablar bilan chet el xalqlarining turmush tarzi bilan tanishib, o‘z elining o‘zga ellardan yangiliklarni ko‘rishda va ularni o‘zlashtirish borasida ortda qolayotganini anglagan bir toifa bor edi. Bu toifa vakillari yangilikni o‘zlashtirib, o‘z yurtiga ham ularni tatbiq etish maqsadi bilan birlashgan qatlam edi. Ular ichidan yetishib chiqqan shaxslar orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is’hoqxon to‘ra Ibrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon kabi bir qancha namoyandalar borligi, barchamizga ma’lum. Bular jadidlar va ularning bunday harakati jadidchilik edi. Nomlari qayd qilinganlar safini oshirganimiz bilan ularning g‘oyalari yagona bo‘lib qolaveradi.

Bu haqida “Jadid adabiyoti ikki katta davrni o‘tdi. Birinchisi inqilobdan ilgarigi, Chor hukumati vaqtidagi, ikkinchisi, inqilobdan keyingi proletariat hokimiyati vaqtidag‘i davrdir”⁶³ – deb yozadi Otajon Hoshim. Shu kabi ijtimoiy o‘zgarishlar bevosita jadidchilik harakati vakillarining faoliyatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmagan.

Yuqoridagi kabi davrlashtirish ham mumkin. Ammo xuddi shu davr haqida Saydulla Mirzayevning “XX asr o‘zbek adabiyoti” kitobidan ushbu jummalarni keltirish o‘rinli bo‘ladi: “Ko‘rinadiki, 1905-1917-yillar jamiyatida turli pozitsiyada turgan ijtimoiy guruhlar bo‘lganidek, xilma-xil adabiy yo‘nalish va ijodiy to‘dalar ham bo‘lgan. Lekin ular orasida ijtimoiy hayotga, mehnatkashlarning istaklariga eng yaqini va o‘sha davr muammolarini yechish yo‘llarini izchillik bilan qidirgani, hayotiy muammolarni baralla kuylagani, shubhasiz, jadid adabiyoti va jadid yozuvchilaridir. Shunday qilib, mamlakatimizda XX asrning boshida keng tarqalib, faol kuchga

⁶² Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik, 1-jild, 1978.10-bet.

⁶³ Отажон Ҳошим. Жаид адабиёти тўғрисида. XX АСР УЗБЕК АДАБИЁТИ МАСАЛАЛАРИ. – Т.: “Фан” нашриёти, 2012 йил. Б – 17.

aylangan jadid adabiyoti — xalq va mamlakat hayotida muhim o‘rin tutgan”.⁶⁴ Ushbu fikrlar, yuqorida keltirilgan kichik va katta davrlarga bo‘lish sababi, albatta, jadidchilik harakati davrida o‘zini o‘zligini qanday saqlab qolishdek buyuk maqsadni unutmaslikka chorlaydi.

“Jadidchilik”ning asosida “jadid” so‘zi yotadi. “Jadid”ning ma’nosi “yangi” demakdir. U shunchaki “yangi” yo bo‘lmasa, “yangilik tarafdori” degani emas. Balki “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan”.⁶⁵

Alisher Navoiyning fikricha, shoirda darveshlik xislati bo‘lmasa, uning iste’dodi ulug‘ maqsadga xizmat qilolmaydi, har bir ziyoli zohiriy ilmlar bilan birga botiniy ilmni ham egallashi lozim, bu uning fazlu kamolini oshiradi, go‘zal axloq sohibi bo‘lishiga ko‘maklashadi. Buni u Pahlavon Muhammad, Sayyid Hasan Ardasher, Mavlono Muqimiy, Xoja Yusuf Burxon kabi zamondoshlari misolida ko‘rsatib o‘tgan. Chunonchi, Xoja Yusuf Burxon “faqr va fano tariqida suluk qilur erdi. Jamiyki ahli turuqning sohibtariqi erdi va musiqiy ilmini ham yaxshi bilur erdi, ko‘proq o‘z she’riga musiqiy bog‘lar erdi.” O‘z zamonasida faqru fanoda tengsiz bo‘lgan Sayyid Hasan Ardasher haqida Navoiy “Tasavvufda tab‘i xo‘b erdi”, deb yozadi.

Shuningdek, “Nasoyim u-muhabbat” asarida “tabaqa⁶⁶” so‘zi uchraydi. Bu tushuncha tasavvuf shayxlarining darajasiga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, ularni har bir asr yoki avlod sifatida belgilash uchun xizmat qilgan. Bu tasavvuf shayxlarining silsilasining boshlanishi bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, “Koshifiy, tasavvuf nima? – degan savolga javob ko‘pligini so‘zlab quyidagi ma’nolarni bayon etadi.

1. Tasavvuf – tahliya (holi bo‘lmoq) va yaxshi axloq...
2. Tasavvuf – tasfiya, yani Ruhni ag‘yordan poklash.
3. Tasavvuf – nafsni sindirmoq va ma’rifat tariqa arkonlarini egallamoq.
4. Tasavvuf – da’vo tarki va ma’noni odamlardan sir tutish...
5. Tasavvuf – husni ibodatga ishorat.
6. Tasavvuf – nafsni xor etib, amri ilohiyni aziz tutmoq.

7. Tasavvuf – butunlay odob bo‘lib, kimda kim faqrlik odobidan tahovun etsa, tasavvufning nomidan o‘zga hech nimani bilmaydi. Koshifiy tasavvuf ta’limoti qamrab olgan masalalar sifatida ilm, hilm, taqvo, saxo, shukr, sidq, vafo, rizo, safo va ishqni ko‘rsatadi. Uningcha, tasavvuf so‘zidagi “t” harfi – tajrid, “s” harfi – sidq-u safo, “v” harfi – vafo, “f” harfi – fanoga ishoratdir”.⁶⁷

“Hamma joyda bir xil mazmunda qabul qilinmagan tasavvuf tushunchasi, - deydi A.E.Krimskiy, – g‘arb-islom olamida faqat odatiy mistikani ifodalagan bo‘lsa, sharq-islom (fors va fors-hind) dunyosida buddizm va yunon neoplatanizmga juda yaqin panteistik taosofiyani anglatgan”

Shuningdek, tasavvuf va tasavvuf adabiyotini ham shu tarzda farq etishimiz mumkin bo‘ladi. Tasavvuf (ta’limot haqida allomalar?)haqida adabiyotshunos olim I.Haqqulov “Tasavvuf – xudosevarlik, Xudo ishq va xayoli bilan bog‘lanmaydigan, insonni ruhoniylar komillik martabasiga ko‘tarilishiga xizmat qilmaydigan har qanday xorijiy fikr, tushuncha va harakatlardan forig‘ bo‘lmoq demak”⁶⁸ – deb yozadi.

Bugunga kelib tasavvuf adabiyoti deyilganda asarlarida Allohni ulug‘lab, uning hukm va buyruqlarini xalqqa eslatib, uning elchisi bo‘lmish Muhammad (s.a.v.)ning hikmatlarini yetkazish va yodda saqlash uchun, shu bilan birga, Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon, Ali (r.a.)larning fazilat va xislatlarini xotirlab yozilgan adabiy-badiiy asarlar tushuniladi.

Masalan, axloq va tasavvufga oid tushunchalar, dastlab, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adib us-soniy”⁶⁹ darsligida “Axloq darslari” nomi ostida keltirilgan hikoyatlar axloqni targ‘ib qilsa, Abdulla Avloniyning “Muallimi avval”⁷⁰ darsligida “Qanoat”

⁶⁴ Saydulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2005-y. 14-b.

⁶⁵ Бегали Қосимов. Миллий уйғониш: Жасорат, Маърифат, Фидойилик. – Т.: “Маънавият”. 2002 й. Б – 5.

⁶⁶ Tabaqa – ko‘pligi tabaqot. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tabaqat>

⁶⁷ Ҳаққулов И.Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва таракқиёти. Фил.фан.док.дисс.– Т.: 1995.Б – 21

⁶⁸ Ҳаққулов И.Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва таракқиёти. Фил.фан.док.дисс.– Т.: 1995.Б – 17

⁶⁹ Munavvar Qari_Adib-i Sani_1911

⁷⁰ Abdulla Avloniy - Tanlangan asarlar. 1-jild

hikoyasi, “Turkiy Guliston yoxud axloq”⁷¹ nomli kitobidan har bir inson zotiga xos sifatlar o‘rin olgandi. 1915-yilda Sho‘ro jurnalida tatar tilida Ahmad Sardor tomonidan Ahmad Yassaviy va uning maqbarasi haqida “Hazrat Xo‘ja Ahmad Yassaviy”⁷² maqolasi e‘lon qilingan va unda maqbaradagi mavjud yozuvlar va foydalaniladigan ashyolar tahlil qilinadi. 1922-yil “Inqilob” jurnalida Abdurahmon Sa‘diy “Yassaviy kim edi” sarlavhali maqolasini o‘quvchilarga taqdim qiladi. 1923-yilda Abdulla Qodiriy “Ikki og‘iz tariqatdan ham bo‘lsun”⁷³ nomli maqolasi bilan “Turkiston” gazetasi va “Tavakkaltu Alloh”ni degan er”⁷⁴(So‘fi Olloyorda she‘riga qarang) nomli maqolasi bilan “Mushtum” jurnalida chiqishlar qildi. Abdurauf Fitrat esa “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida 1927-yilda “Ahmad Yassaviy”⁷⁵, 1928-yilda “Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar”⁷⁶, 1930-yilda “Ilmiy fikr” majmuasining 1-sonida “Mashrab”⁷⁷ nomli maqolalarini e‘lon qildi.

Shuningdek, jadid adabiyotidan ma‘lumotlarni o‘rganar ekanmiz, tasavvufga bo‘lgan munosabatni avvalo, axloq doirasida, keyin diniy-falsafiy doirada, so‘ng butunlay dunyoviy masala sifatida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy darsliklarida axloq normalari sifatida namoyon bo‘lsa, mulla Xolmuhammad To‘raqulining “Al-Isloh” jurnalidagi maqolalari diniy-tasavvufiy shaklda o‘z ifodasini topadi, Abdurauf Fitratning tasavvuf namoyandalari bo‘lgan munosabati butunlay dunyoviy nigo bilan aks ettirilgan.

Bu maqolalar o‘z qadr-qimmatini bilan adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Yuqorida nomlari keltirilgan maqolalar va ularning mualliflari ayni mavzudagi bir-biriga bog‘liq ma‘lumotlarni yoritishar ekan, biri tarixiylik, biri tanqidiy ruhda, biri diniy-falsafiy jihatdan, boshqasi nazariy yo‘nalishda yoritilgan. Jadid davrida yaratilgan bunday manbalarni yuqoridagi kabi guruhlarga ajratilgan holda topish, ularni o‘rganish va tadqiq etish dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Avloniy - Tanlangan asarlar. 1-jild
2. Abdulla Avloniy - Tanlangan asarlar. 2-jild
3. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik, 1-jild, 1978.1
4. <https://doi.org/10.59402/EE006202412>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tabaqat>
6. Munavvar Qari Adib-i Sani 1911.
7. Saydulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2005-y.
8. Бегали Қосимов. Миллий уйғониш: Жасорат, Маърифат, Фидойлик. – Т.: “Маънавият”. 2002 й.
9. Қодирий А. Танланган асарлар. – Т.: «Шарқ». 2018. – 592 бет.
10. Отажон Ҳошим. Жадид адабиёти тўғрисида. XX АСР УЗБЕК АДАБИЁТИ МАСАЛАЛАРИ. – Т.: “Фан” нашриёти, 2012 йил.
11. Фитрат А. Танланган асарлар: 5 томлик.- Тошкент: Маънавият, 2000.- Т.2.
12. Ҳаққулов И.Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва тараққиёти. Фил.фан.док.дисс.– Т.: 1995.

TILAK VA TABRIK NUTQIY AKTLARINING NUTQIY TA’SIR KO‘RSATISH VAZIFASI

Muratova Nafisa Baxtiyarovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktranti

⁷¹ Abdulla Avloniy - Tanlangan asarlar. 2-jild

⁷² <https://doi.org/10.59402/EE006202412>

⁷³ Қодирий А. Танланган асарлар. – Т.: «Шарқ». 2018. – 592 бет.

⁷⁴ Қодирий А. Танланган асарлар. – Т.: «Шарқ». 2018. – 606 бет.

⁷⁵ Фитрат А. Танланган асарлар: 5 томлик.- Тошкент: Маънавият, 2000.- Т.2.- 208 б.

⁷⁶ Фитрат А. Танланган асарлар: 5 томлик.- Тошкент: Маънавият, 2000.- Т.2.- 208 б.

⁷⁷ Фитрат А. Танланган асарлар: 5 томлик.- Тошкент: Маънавият, 2000.- Т.2.- 208 б.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilak va tabrik nutqiy aktlarining lingvopragmatik xususiyatlari, ularning kommunikativ jarayondagi funksional ahamiyati hamda nutqiy ta’sir ko’rsatish mexanizmlari keng tahlil qilinadi. Muallif mazkur aktlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ochib berib, ular orqali ijobiy emotsional muhit yaratish, suhbatdoshga ta’sir o’tkazish va munosabatlarni mustahkamlash imkoniyatlarini yoritadi. Shuningdek, tilak va tabrikning pragmatik jihatlari, ularning nutqiy strategiya va taktikalardagi o’rni ilmiy asosda izohlanadi. Shuningdek, ushbu nutqiy birliklarning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o’rni va ularning insonlararo munosabatlarni tartibga solishdagi roli yoritiladi.

Kalit so’zlar: nutqiy akt, tilak, tabrik, pragmatika, kommunikatsiya, illokutsiya, perlokutsiya, nutqiy ta’sir.

Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy aktlar nazariyasi tilning faqatgina axborot uzatish vositasi emas, balki inson faoliyatining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko’rsatadi. Nutq orqali inson nafaqat ma’lumot yetkazadi, balki suhbatdoshga ta’sir ko’rsatadi, uning hissiyotlari va xulq-atvoriga yo’naltirilgan ta’sirni amalga oshiradi⁷⁸. Tilak va tabrik nutqiy aktlari aynan shunday ta’sirchan nutqiy vositalardan biri bo’lib, ular insonlar o’rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, emotsional yaqinlikni oshirish hamda ijobiy psixologik muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — tilak va tabrik nutqiy aktlarining nutqiy ta’sir ko’rsatish xususiyatlarini lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilishdir.

Nutqiy aktlar nazariyasi asoschisi sifatida J. Ostin e’tirof etiladi. U nutqni uch darajaga ajratadi: lokutsion akt (mazmunni ifodalash), illokutsion akt (maqsadni ifodalash), perlokutsion akt (ta’sir ko’rsatish)⁷⁹. Tilak va tabrik nutqiy aktlari aynan illokutsion va perlokutsion darajalarda faol ishlaydi. Chunki bunda so’zlovchi nafaqat ma’lum fikrni bildiradi, balki suhbatdoshda ijobiy hissiyot uyg’otishni maqsad qiladi. J. Syorl esa nutqiy aktlarni tasniflab, ularni direktiv, komissiv, deklarativ, ekspressiv kabi turlarga ajratadi.⁸⁰ Tilak va tabriklar ekspressiv nutqiy aktlar sirasiga kiradi, chunki ular so’zlovchining ichki hissiyotlarini ifodalaydi.

Tilak nutqiy aktlari so’zlovchining adresatga nisbatan ijobiy istaklarini ifodalovchi nutqiy birliklardir. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Semantik xususiyatlar. Tilaklarda kelajak zamon ustuvor bo’ladi: “Omad tilayman”. “Yaxshi natijalarga erishing”. Bu yerda ehtimollik va istak semantikasi ustun turadi.
2. Pragmatik xususiyatlar. Tilak nutqiy aktlari quyidagi vazifalarni bajaradi: suhbatdoshga ijobiy munosabat bildirish; ijtimoiy aloqani mustahkamlash; ruhiy qo’llab-quvvatlash. Masalan, imtihon oldidan bildirilgan tilak motivatsion kuchga ega bo’ladi.
3. Strukturaviy xususiyatlar. Tilaklar ko’pincha quyidagi shakllarda ifodalanadi: fe’l orqali (“tilayman”, “bo’lsin”); modal birliklar orqali (“iloji bo’lsa”, “nasib etsa”).

Tabrik nutqiy aktlari muayyan voqea yoki hodisa munosabati bilan bildiriladi. Ular ijtimoiy marosimlar bilan chambarchas bog’liq. Tabrikning asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: e’tirof etish (yutuqni tan olish); ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash; ijobiy emotsional fon yaratish. Masalan: “Sizni muvaffaqiyatingiz bilan tabriklayman” ifodasi adresatning yutug’ini legittimlashtiradi.

Tabrik nutqiy aktlari ko’pincha stereotip shakllarda qo’llanadi: “Bayramingiz muborak bo’lsin”. “Tug’ilgan kuningiz bilan tabriklayman”. Bu esa ularning ijtimoiy norma sifatida shakllanganligini ko’rsatadi.

⁷⁸ Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford, 1962.

⁷⁹ O’sha manba.

⁸⁰ Searle J.R. Speech Acts. – Cambridge, 1969.

Tilak va tabrik nutqiy aktlarining eng muhim jihati — ularning ta’sirchanligidir. Bu nutqiy aktlar adresatda ijobiy hissiyotlar uyg‘otadi. Bu esa muloqot samaradorligini oshiradi⁸¹. Psixologik ta’sir. Tilak va tabriklar insonda ishonch va motivatsiyani kuchaytiradi. Ayniqsa, muhim vaziyatlarda aytilgan tilaklar katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy ta’sir. Ular ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va kommunikativ muvozanatni saqlaydi.

Nutqiy akt natijasida quyidagi o‘zgarishlar yuz beradi: kayfiyat yaxshilanadi; ijtimoiy yaqinlik oshadi; faoliyatga rag‘bat paydo bo‘ladi.

Tilak va tabrikning lingvokulturologik xususiyatlari ham o‘ziga xos. Har bir madaniyatda tilak va tabrik nutqiy aktlari o‘ziga xos shakllarga ega.

Milliy xususiyatlar. O‘zbek tilida tilak va tabriklar ko‘pincha diniy va an’anaviy elementlar bilan boyitilgan: “Xudo xohlasa”. “Baraka toping”.

Madaniy stereotiplar. Tilak va tabriklar madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Masalan: oilaga yo‘naltirilgan tilaklar; farovonlik va sog‘liq tilash.

Diskursiv kontekst. Tilak va tabrikning ta’siri ularning qayerda va kim tomonidan aytilganiga bog‘liq. Rasmiy nutq bilan norasmiy nutq o‘rtasida sezilarli farq mavjud.

Bugungi kunda raqamli kommunikatsiya vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar) tilak va tabrik nutqiy aktlarining shakliga ta’sir ko‘rsatmoqda. Qisqartirilgan shakllar. “Tabriklayman!”, “Omad!”

Vizual elementlar bilan uyg‘unlik. Emoji va stikerlar nutqiy ta’sirni kuchaytiradi.

Bir vaqtning o‘zida ko‘p kishiga yo‘naltirilgan tabriklar (masalan, bayram tabrikleri) ijtimoiy birlikni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilak va tabrik nutqiy aktlari kommunikativ jarayonda muhim pragmatik vosita hisoblanadi. Ular orqali insonlar o‘rtasida ijobiy munosabatlar shakllanadi, ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi va psixologik qo‘llab-quvvatlash ta‘minlanadi. Mazkur nutqiy birliklar nafaqat emotsional-ekspressiv xususiyatga ega, balki kuchli perlokutsion ta’sirga ham ega bo‘lib, inson xulq-atvori va kayfiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, tilak va tabrik nutqiy aktlarini chuqur lingvopragmatik tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekmirzayev N. Notqlik san’ati asoslari. - Toshkent, 2007. 90- b.
2. Z. Pardayev, Pragmatik lingvika. Samarqand: O‘quv – uslubiy qo‘llanma 2013. 101- b.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. – Тошкент: Мериус, 2017.
4. Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзарасига муносабати. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Akademhashr, 2012. – 376 б.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Санзор, 2006. – Б.23.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008. 285 б.
7. Сафаров Ш., Тоиров Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. - Самарқанд, 2007. 150 б.
8. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford, 1962.
9. Searle J.R. Speech Acts. – Cambridge, 1969.
10. Leech G. Principles of Pragmatics. – London, 1983.
11. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge, 1983.
12. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2012.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR SEMANTIK TUZILISHIDA MOTIVATSIYA VA ABSTRAKSIYA

⁸¹ Leech G. Principles of Pragmatics. – London, 1983.

S.A. Karimov – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrası professori

U.M.Rashidova – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Maqolada frazeologik birliklarning mazmuniy qurilishida motivatsiya va abstraksiya hodisalari tahlil qilinadi. Frazeologizmlarning oddiy so‘z birikmalaridan farqli o‘laroq, qanday qilib obrazlilik asosida shakllanishi va ularning manosi qay tariqa umumlashib, mavhumlashib borishi (abstraksiya) ilmiy nuqtayi nazardan yoritib berilgan. Maqolada frazeologik ma’noning shakllanishida turli xil ko‘chimlarning o‘rni, shuningdek, iboralarning tarkibiy qismlari va yaxlit mano o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, semantik tuzilish, motivatsiya, abstraksiya, ichki shakl, obrazlilik, metaforik ko‘chim, kognitiv tahlil, semantik yaxlitlik.

Til birliklarining semantik tuzilishi ularning shakllanishida ishtirok etuvchi turli lingvistik omillar bilan motivatsiyalanadi. Shu bois tilshunoslikda ma’noning motivatsiyalashuvi muammosi muhim nazariy masalalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar (FB) semantikasi so‘z semantikasiga nisbatan murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lib, ularning ma’nosi ko‘pincha ichki shakl, obrazlilik hamda struktur-semantik omillar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. F. de Sossyur ta’kidlaganidek, til belgilarining motivatsiyalanganligi ularning sintagmatik tuzilishi va tarkibiy qismlarining semantik shaffofligi bilan belgilanadi. Frazeologik birliklarda esa bu shaffoflik nisbiy bo‘lib, ma’no ko‘pincha komponentlarning bevosita lug‘aviy ma’nolaridan chekinib, umumlashgan, ko‘chma va mavhum mazmunga ega bo‘ladi.

A.M.Meleroich konsepsiyasiga ko‘ra, invariant frazeologik ma’no quyidagi lingvistik omillar bilan motivatsiyalanadi:

1. Frazeologizm hosil bo‘lgan erkin so‘z birikmasining dastlabki semantikasi;
2. FB tarkibidagi leksik komponentlarning lug‘aviy ma’nolari;
3. Komponentlarning fonetik va morfologik tuzilishi;
4. Ildiz morfemalarning predmet-ashyoviy mazmuni;
5. Sintaktik konstruksiyaning tipik (model) semantikasi⁸².

Masalan, *ko‘zi ochiq, boshi qotgan, yuragi tosh* kabi frazeologik birliklarda *ochiq, qotgan, tosh* komponentlari erkin qo‘llanishda mos ravishda “ochiq”, “qotgan”, “tosh” ma’nolarini bildiradi, biroq mazkur birikmalar tarkibida ular bevosita predmet ma’nosida emas, balki sifat belgisini kuchaytiruvchi, baholovchi semantik funktsiya bajaradi. Xususan, *ko‘zi ochiq* birligida *ochiq* komponenti “ziyrak, ogoh”, *boshi qotganda qotgan* “hayron, gangigan”, *yuragi toshda esa tosh* “rahmsiz, shafqatsiz” ma’nosida idrok etiladi. Bu yerda komponentlar o‘zining asl leksik ma’nosidan uzoqlashib, grammatik jihatdan aniqlovchi vazifasida kelib, shaxsholatini kuchaytirib ifodalaydi.

Frazeologik ma’noning uni tashkil etuvchi so‘zlar semantikasi bilan bog‘lanish darajasiga ko‘ra, Meleroich motivatsiyaning ikki asosiy turini farqlaydi:

1. Bevosita motivatsiya. Bu turga to‘g‘ridan to‘g‘ri motivatsiyaga ega bo‘lgan terminlashgan so‘z birikmalari kiradi. Ular komponentlarning lug‘aviy ma’nolariga tayangan holda shakllanadi va ularning yig‘indisidan kelib chiqadi, biroq umumlashtirilgan, terminlashgan xarakter kasb etadi. Masalan: *oliy ta’lim, xalq xo‘jaligi, ilmiy tadqiqot, mehnat bozori* kabi birikmalarda komponentlar o‘zining asl leksik ma’nosini saqlagan holda, bir butun tushunchani nomlaydi. Ularning frazeologik ma’nosi tarkibiy qismlarning semantik yig‘indisiga tayanadi, ammo mustaqil nominativ birlik sifatida kengroq mazmunni ifodalaydi.

2. Bilvosita motivatsiya. Bu turdagi birliklarda esa frazeologik ma’no erkin so‘z birikmasi ma’nosi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki obraz, qiyos va assotsiatsiya orqali bog‘lanadi. Masalan: *suvdan quruq chiqmoq, ko‘ziga cho‘p solmoq, yuragini yemoq, qo‘li uzun* kabi frazeologik birliklarda komponentlarning bevosita predmet ma’nolari emas, balki ular asosida

⁸² Мелерович А. М. Проблема семантического анализа фразеологических единиц современного русского языка. Ярославль : Яросл. гос. пед. ин-т, 1979. – С. 28-35.

yuzaga kelgan obraz orqali “ayyorlik”, “javobgarlikdan qutulish”, “aldash”, “hasad qilish”, “ta’sir doirasi keng bo‘lish” kabi ko‘chma, umumlashgan ma’nolar ifodalanadi.

Frazeologik birlikning ichki shakli va ma’noning motivatsiyalanganligi uning semantik tuzilishining markaziy kategoriyalaridan bo‘lib, ular FBning moddiy shakli bilan mazmun rejasi o‘rtasidagi munosabatni belgilaydi. Ichki shakl – frazeologik ma’no asosiga qo‘yilgan, obrazli negiz bo‘lsa, motivatsiya shu ichki shaklning semantik ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bevosita motivatsiyaga ega bo‘lgan frazeologik birliklarda **ichki shakl** frazeologik ma’no tarkibiga kiradi. Bilvosita motivatsiyaga ega bo‘lgan frazeologik birliklarda esa frazeologik ma’no va ichki shakl faqat ayrim unsurlardagina mos keladi va o‘zaro **kesishish munosabatida** bo‘ladi. Frazeologik birlikning ichki shakli va frazeologik ma’noning tilga xos motivatsiyasi frazeologik ma’noning FBning moddiy shakli bilan semasiologik bog‘lanishining eng muhim jihatlari — **mazmuniy va formal** tomonlarini tashkil etadi.

Ichki shakl frazeologik ma’noning asosiga qo‘yilgan va FBning tovush shaklida obyektivlashgan mazmuniy negiz sifatida talqin etilsa, frazeologik ma’noning motivatsiyasi **frazeologik birlik ichki shaklining ifodalanish usuli** sifatida ta’riflanishi mumkin.

Obyektiv voqelikning til vositalari orqali aks ettirilishi alohida predmet va hodisalarning xilma-xil xususiyatlaridan til birliklari semantikasini **umumlashtirish va abstraksiyalashga** asoslanadi. Til ma’nolarining turli tiplari tafakkur mazmunining shakllanishi va ifodalanishida turlicha ishtirok etadi. Til birliklarining turli sathlaridagi semantikada **tilga xos abstraksiyaning** turli tiplari namoyon bo‘ladi.

Frazeologik ma’noni mustaqil semantik kategoriya sifatida asoslab berish uchun **frazeologik abstraksiyaning** o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash zarur. Frazeologik ma’noning shakllanish jarayonidagi muhim hodisalardan biri *frazeologik abstraksiya* hisoblanadi. U FB tarkibidagi til birliklari semantikasidan qonuniy ravishda chekinish, umumlashish va ko‘chma ma’no hosil bo‘lishi bilan bog‘liq jarayonni ifodalaydi. Melerovich frazeologik abstraksiyaning quyidagi asosiy turlarini ajratadi:

1. Komponentlarning leksik va grammatik ma’nolaridan abstraksiyalanish. Masalan, *ko‘z ochib-yumguncha* birligida ko‘z va ochish-yumish harakati real holatni emas, balki “juda tez fursatda” degan vaqt kategoriyasini ifodalaydi. *Qo‘li kalta birligida qo‘lning jismoniy uzun-qisqaligi* emas, balki insonning moddiy yoki imkoniy jihatdan cheklanganligi anglashiladi. Sifat belgisi grammatik aniqlovchi pozitsiyasi orqali umumlashgan ijtimoiy-baholovchi ma’no kasb etgan. *Yuragi og‘ziga kelmoq iborasida ichki a’zolar harakati real fiziologik holatni* emas, balki “juda qattiq qo‘rqmoq” psixologik holatini ifodalaydi. Bu yerda ham predmet semantikasi yo‘qolib, holatning darajasi mavhum tarzda ifodalanagan.

2. Genetik asos bo‘lgan so‘z birikmasi ma’nosidan abstraksiyalanish. Masalan, tili achchiq “qattiq, ranjituvchi gapiradigan”; boshi osmonga yetmoq “juda xursand bo‘lmoq, mag‘rurlanmoq”; *ko‘ngli tog‘day* “kengfe’l, bag‘rikeng” kabi. Tili achchiq iborasida achchiq ta’m belgisi erkin birikmada ovqat xususiyatini anglatadi, frazeologik birlikda esa “qattiq, ranjituvchi so‘zlaydigan” degan baholovchi ma’noga ko‘chadi. Ta’m bildiruvchi sifat nutq xarakteriga ko‘chirilgan. Boshi osmonga yetmoq birligida jismoniy balandlik obrazi asosida “juda xursand bo‘lmoq, mag‘rurlanmoq” degan ichki holat ifodalanadi. Erkin birikmaning makon ma’nosi psixologik holat ma’nosiga abstraksiyalangan. *Ko‘ngli tog‘day* iborasida tog‘ning kattalik va barqarorlik belgisi insonning ma’naviy sifatini ifodalovchi “bag‘rikeng, sabrli” ma’nosiga ko‘chgan.

3. Sintaktik konstruksiyaning tipik semantikasidan abstraksiyalanish. Masalan, *Gap bitta!* — “qaror qat’iy” degan ma’noni bildiruvchi to‘liq bo‘lmagan gap. Gap bitta! birligi tuzilish jihatdan to‘liq bo‘lmagan gap bo‘lsa-da, u real axborot emas, balki modal-baholovchi ma’no “qaror qat’iy, tortishuvga o‘rin yo‘q” degan umumlashgan ma’noni anglatadi. Bu yerda sintaktik modelning nominativ funksiyasi susayib, modal ma’no ustuvorlashgan.

Ayniqsa, gap tuzilishiga ega bo‘lgan to‘liq yoki qisman parchalanmas frazeologik birliklarda sintaktik sxema semantikasi turli darajada abstraksiyalanadi. Bunday birliklar nutqda yo yakka so‘zga teng funksional-nominativ birlik sifatida yoki barqaror modal-baholovchi formula

sifatida ishlatiladi. Gap tipidagi frazeologik birliklarni sintaktik model semantikasidan uzilish darajasiga ko‘ra ikki yo‘nalishda joylashtirish mumkin:

1. Modal-zamon va propozitiv mazmuni strukturasi bilan qisman motivatsiyalangan gap-frazeologizmlar. Bunda gap qolipi saqlanadi, zamon-modallik o‘zgarishi mumkin. Masalan, Qo‘lidan (ish) keladi. → Qo‘lidan (ish) kelmaydi. Qo‘lidan (ish) kelar ekan. Ma’no barqaror, sintaktik model fe‘lli gap bo‘lib qoladi.

2. Strukturasi bilan motivatsiyalanmagan, to‘liq semantik formula sifatida qotib qolgan gap-frazeologizmlar (ya’ni gap shakli “muzlagan”, o‘zgarmaydi). Yetti o‘lhab, bir kes! → Shakli o‘zgarmaydi, umumiy aql-nasihat ma’nosida tayyor formula.

Ko‘ringanidek, frazeologik abstraksiya va motivatsiya o‘zaro bog‘liq, bir-birini shartlaydigan jarayonlar sifatida frazeologizatsiya mexanizmining semantik asosini tashkil qiladi va frazeologik birliklarni til tizimida mustaqil, barqaror nominativ-semantik birlik sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman, frazeologik ma’noning motivatsiyasi va abstraksiyasi o‘zaro teskari proporsional munosabatda bo‘ladi: motivatsiya kuchli bo‘lgan sari abstraksiya sustlashadi, abstraksiya kuchaygan sari esa ichki shakl va komponent ma’nolari bilan bog‘lanish zaiflashadi. Shu bois frazeologik birlik semantik tuzilishida ichki shakl, motivatsiya va abstraksiya kategoriyalari dialektik birlikda, mazmun rejasi bilan ifoda rejasi o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni namoyon etadi. Mazkur yondashuv frazeologik birliklarni mustaqil semantik tizim birligi sifatida tavsiflash, ularning nominativ, obrazli va abstrakt xususiyatlarini izohlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev D. Til madaniyatida somatik frazemalarning vazifadoshligi xususida // Xorijiy filologiya, 1(38) 2011. 9-11
2. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. Filol. fanlari doktori... diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 56 b.
3. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. Monografiya. – Toshkent: Muharrir, 2013. – 300 b.
4. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. – М.: Наследие, 1997. - 207 с.
5. Мелерович А.М. Проблема семантического анализа фразеологических единиц современного русского языка. – Ярославль: Яросл. гос. пед. ин-т, 1979. – С. 28-35.
6. Суколенко Н.И. Отражение обыденного сознания в образной языковой картине мира. – Киев: Наукова думка. 1992. -164 с.
7. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры.-М.: Языки русской культуры, 1999. – С.13-25.

ZULFIYA SHE’RIYATIDA TAKRORNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

2-bosqich talabasi Azamatova Sevinch Shuxrat qizi

Telefon nomer: +998934972670 // sho‘ba raqami 2

Sevincha77@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots Rashidova U

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan shoira Zulfiya she’riyatida takror badiiy vositasining qo‘llanish xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot davomida takrorning turli ko‘rinishlari – leksik, sintaktik hamda fonetik takrorlar misollar asosida o‘rganilib, ularning she’riy matndagi estetik va emotsional yuklamasi ochib beriladi. Shuningdek, takror vositasining shoira lirikasida obrazlilikni kuchaytirish, ruhiy kechinmalarni chuqurlashtirish va musiqiylikni ta’minlashdagi o‘rni asoslab beriladi. Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek she’riyati poetikasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Poetik uslub, takror san’ati, obrazlilik, ritm va ohang, emotsional ifoda.

KIRISH

Takror (arab. – qaytarish, takrorlash) termini, lingvistik adabiyotda “*takrorlash*”, *reduplikatsiya*” (*so‘z negizini takrorlash yo‘li bilan yangi so‘z yasash*), “*ikki martaga oshirish*” kabi ayrim holatlarda bir-birdan farqlanmaydigan, yana boshqa hollarda esa turli ma’nomlarni ifodalovchi tushuncha sifatida talqin qilinadi [1, 378].

Namoyon bo‘lishiga ko‘ra, takror hodisasi rang-barang va turli xildir. Sh.Vengning ta’kidlashicha, takror har yerda, kundalik tilning barcha jabhalarida mavjud, shuningdek, adabiy diskursda ham, qolaversa, tovush va diskursning mazmun darajalaridagi muqarrar musiqiy isyon, tovush takrorlari va takror sinonimlarning har xil turlari o‘rtasida namoyon bo‘ladi [2, 37].

Yana bir tadqiqotda P. Fridrix she’riy nutqda tovush (*allitiratsiyasi, assons*) va so‘z (*takrir, tarji*) takrorini nutqning kompleks shakllari uzviyligi hamda turli eksperimentlar yordamida takrorning ahamiyatini diskursda tahlil qilgan [3.154].

Biz takror turlarini *fonetik takror, leksik takror, sintaktik takrorlarga* bo‘lib o‘rganishimizni oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Fonetik takror turlariga *onomotopiya, alitteratsiya, rifma va ritmlar* kiradi. Leksik takror turlariga *metafora, metonimiya, ironiya, zevgma, so‘z o‘yini va kalambur, epitet, oksyumoron, antonomaziya, o‘xshatish, perifraza, evfemizm, mubolag‘a, klishe, maqol va matal, epigramma, sitata (istiboq), allyuziya (sha‘ma)* kabilari kiradi. Sintaktik takror turlariga *stilistik inversiya, ajratilgan konstruksiya, parallel konstruksiya, xiazm (pardi aks), sanash, gradatsiya (klimaks), antiteza, asindeton, polisindeton, sillepsis, ellipsis, aposiopesis, ritorik so‘roq, litota* va boshqalar kiradi.

Yuqoridagi takror turlarining bir qanchasini quyida Zulfiyaxonim she’rlari misolida ko‘rib chiqamiz.

ASOSIY QISM

Assons – fonetik takrorning muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, unda nutq jarayonida bir xil yoki o‘xshash unli tovushlarning muayyan tartibda va muntazam ravishda takrorlanishi kuzatiladi. Ushbu hodisa misraning fonetik tuzilishini boyitib, undagi *ohangdorlik, ritm va emotsional ta’sirchanlikni* kuchaytirishga xizmat qiladi. Assons orqali muallif nutqda ma’lum bir kayfiyat, harakat dinamikasi yoki tasviriylikni yanada jonlantiradi. Shu bois, u badiiy matnlarda nafaqat estetik vosita, balki semantik yukni kuchaytiruvchi stilistik birlik sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida Zulfiyaning “*Bahor keldi seni so‘roqlab*” she’ridan olingan parchada assonsni ko‘rishimiz mumkin:

*Ona tuproq oromda yotar,
Olib tungi risqi-qudratni.
Mening tongim qalbimdan otar,
Uydan, ko‘zdan haydab zulmatni* [5].

Mazkur she’riy parchada **u** va **a** unlilarining takrori fonetik tizimda yetakchi o‘rin egallaydi. Xususan, *tuproq, tungi, qudratni, uydan, zulmatni* kabi birliklarda “u” tovushi muntazam takrorlanib, parchaga *chuqurlik, sokinlik va ichki og‘irlik ohangini* singdiradi. Bu tovushning fonetik xususiyati (lablangan va nisbatan yopiq unli bo‘lishi) sababli u ko‘proq *ichki kechinma, tinchlik va tabiiy jarayonlarning sokin kechishini* ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, *ona, oromda, yotar, qalbimdan, haydab* kabi so‘zlarda “a” unlisi faol qo‘llanib, ochiq va keng jarang orqali *harakat, jonlanish va kenglik* semasini yuzaga chiqaradi. “A” tovushining ochiq artikulyatsiyasi misralarga *yorug‘lik, dinamizm va ruhiy uyg‘onish kayfiyatini* olib kiradi. Natijada assons nafaqat fonetik bezak vazifasini bajaradi, balki she’rning semantik qatlamini ham boyitib, undagi *zulmatdan yorug‘likka o‘tish, tinchlikdan harakatga kelish* g‘oyasini kuchaytiradi. Shu tariqa, unli tovushlar takrori she’riy nutqda mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlovchi muhim stilistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Takrorning ikkinchi turi *leksik takror* bo‘lib, bu turga mansub bo‘lgan metafora hodisasining o‘zaro uyg‘unlashuvi Zulfiya she’ri asosida ko‘rib chiqiladi. Avvalo, *metafora* – bu narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi bo‘lib, u badiiy matnda obrazlilikni kuchaytiradi, hissiy-ta’siriy qatlamni boyitadi.

Keltirilgan misrada:

*“Derazamning oldida bir tup,
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...
Gulni ko‘rib ishqparast qalbim,
Ming aytilgan darddan kuyladi” [5].*

“gul” obrazi markaziy badiiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu so‘z semantik jihatdan nafaqat real predmet – o‘rik daraxtining guli, balki ramziy ma’noda go‘zallik, poklik va ichki kechinmalarining uyg‘onishini ifodalaydi. Shu jihatdan u metaforik mazmun kasb etadi. Biroq, muhim jihat shundaki, mazkur parchada “gul” so‘zining takrorlanishi oddiy leksik takror sifatida emas, balki ma’no chuqurligini kengaytiruvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda. Birinchi misrada u tabiiy hodisani bildirsa, keyingi misrada inson qalbidagi hissiy holatni qo‘zg‘atuvchi badiiy obrazga aylanadi. Demak, bu yerda takror semantik transformatsiya bilan birga kelib, metaforik kengayish hosil qilmoqda. Natijada, leksik takror parchaning kompozitsion yaxlitligini ta’minlaydi, metafora esa ushbu takror orqali yangi, chuqurroq ma’no qatlamini yuzaga chiqaradi, *gul* obrazi tashqi manzaradan ichki kechinmaga o‘tuvchi ko‘prik vazifasini bajaradi.

Takrorning uchinchi turi sintaktik takror bo‘lib, bu turning tarkibiga kiruvchi antitezani Zulfiya she’rida ko‘rib chiqamiz. Antiteza bu (antithesis – qarama-qarshi qo‘yish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo‘yish, zidlash hodisasiga aytiladi. Zulfiyaning “Tun” she’ridagi quyidagi misrada antiteza (qarama-qarshi qo‘yish) badiiy usuli yaqqol namoyon bo‘ladi:

*Tog‘ ortiga o‘tib ketdi kun,
Sokin cho‘kdi toza, salqin tun...* [5].

Bu yerda *kun* va *tun* tushunchalari o‘zaro zid holda qo‘yilgan. Ya’ni *kun* – yorug‘lik, harakat, hayot timsoli bo‘lsa, *tun* – sokinlik, osoyishtalik, sukunat timsoli hisoblanadi. Shoir birinchi misrada kunning ketishini tasvirlab, ikkinchi misrada uning o‘rmini *tun* egallaganini ko‘rsatadi. Shu orqali *vaqt almashinuvi, tabiatdagi qarama-qarshilik* badiiy tarzda ifodalanadi. Antiteza nafaqat mantiqiy qarama-qarshilikni, balki *obrazlar orqali hissiy kontrastni* ham yuzaga keltiradi. Natijada she’rda ohangdorlik va ta’sirchanlik kuchayadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya she’riyatida takror san’ati muhim poetik funksiyani bajaradi va u nafaqat shakliy bezak, balki mazmunni chuqurlashtiruvchi asosiy stilistik unsurlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fonetik, leksik va sintaktik takrorlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanib, she’riy nutqda ohangdorlik, ritm va emotsional ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Xususan, fonetik takrorlar (assons) orqali she’rning musiqiyligi ta’minlanib, muayyan kayfiyat va ruhiy holat ifodalanadi. Leksik takror esa metafora bilan uyg‘unlashgan holda obrazlilikni kuchaytirib, badiiy tasvirni yanada jonlantiradi hamda ma’no qatlamining kengayishiga xizmat qiladi. Sintaktik takror turlari, jumladan, antiteza, she’riy matnda qarama-qarshi tushunchalarni uyg‘unlashtirish orqali fikrning ta’sirchanligini oshiradi va obrazlar o‘rtasida kuchli semantik kontrast hosil qiladi.

Shu tariqa, takror vositasi Zulfiya lirikasida nafaqat estetik go‘zallikni ta’minlovchi, balki muallifning ichki kechinmalari, ruhiy holati va badiiy tafakkurini chuqur ifodalovchi muhim poetik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jihatlar esa o‘zbek she’riyati poetikasini yanada chuqurroq anglash va tahlil qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахманова С.О. Словарь лингвистических терминов. – М., 1987.
2. Wang Shih-ping. Corpus-based Approaches and Discourse Analysis in Relation to Reduplication and Repetition//Journal of Pragmatics 2005.
3. Fredrich P. The Language Parallax: Linguistic Relativism and Poetic Indeterminacy//Austin T.X University of Texas Press. 1986 .
4. Yo‘ldosheva G. Takror va uning turlariga doir ayrim mulohazalar (maqola). –B. 111-115. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7481949>
5. Manba: <https://talimuchun.uz/sherlar/zulfiya-sherlari/>

L’INFLUENCE DU BILINGUISME SUR LA STRUCTURE ET LE FONCTIONNEMENT DU CERVEAU

Qahhorov Firdavs Jahongir o‘g‘li

Renessans ta’lim universiteti,

Filologiya va tarix fakulteti,

Xorijiy til va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi.

Xo‘jamuratova Dilnura G‘ayrat qizi

Renessans ta’lim universiteti,

Filologiya va tarix fakulteti, 2-bosqich talabasi

Annotation :Le bilinguisme, défini comme la maîtrise de deux langues ou plus, constitue un objet d’étude majeur en linguistique, en psychologie et en neurosciences. Les recherches indiquent qu’il influence non seulement les compétences linguistiques, mais également la structure et le fonctionnement du cerveau. Les individus bilingues présentent généralement des performances cognitives accrues, notamment en matière d’attention, de mémoire de travail et de résolution de problèmes, en raison de l’interaction constante entre les langues, qui mobilise une flexibilité mentale importante. Par ailleurs, le bilinguisme est associé à une plasticité cérébrale renforcée, favorisant l’adaptation du cerveau et le développement des connexions neuronales, ainsi qu’une augmentation de la matière grise dans certaines régions. Ainsi, le bilinguisme apparaît comme un atout cognitif et linguistique significatif. Les recherches futures viseront à approfondir ces mécanismes et à en explorer les applications dans les domaines éducatif et neurologique.

Annotation :Bilingualism, defined as the mastery of two or more languages, is a major subject of study in linguistics, psychology, and neuroscience. Research indicates that it influences not only linguistic skills but also the structure and functioning of the brain. Bilingual individuals generally demonstrate enhanced cognitive performance, particularly in terms of attention, working memory, and problem-solving abilities, due to the constant interaction between languages, which requires significant mental flexibility. Furthermore, bilingualism is associated with increased brain plasticity, promoting the brain’s ability to adapt and strengthening neural connections, as well as increasing gray matter density in certain regions. Thus, bilingualism appears to be a significant cognitive and linguistic asset. Future research will aim to further investigate these mechanisms and explore their applications in the fields of education and neurology.

Аннотация: Билингвизм, определяемый как владение двумя или более языками, является важным объектом изучения в области лингвистики, психологии и нейронауки. Исследования показывают, что он влияет не только на языковые навыки, но и на структуру и функционирование мозга. Билингвы, как правило, демонстрируют более высокие когнитивные показатели, особенно в области внимания, рабочей памяти и способности решать проблемы, что обусловлено постоянным взаимодействием между языками, требующим значительной умственной гибкости.

Кроме того, билингвизм связан с повышенной пластичностью мозга, способствующей его адаптации, укреплению нейронных связей, а также увеличению плотности серого вещества в определённых областях. Таким образом, билингвизм представляет собой значительное когнитивное и лингвистическое преимущество. Будущие исследования будут направлены на более глубокое изучение этих механизмов и их применение в сфере образования и неврологии.

Les mots-clés: Bilinguisme, cognition, plasticité cérébrale, mémoire de travail, attention, réserve cognitive, maladie d'Alzheimer, neuroplasticité, cortex préfrontal, aire de Broca, compétences linguistiques, avantages cognitifs, structure cérébrale, multilinguisme, développement cognitif

Key words: Bilingualism, cognition, cerebral plasticity, working memory, attention, cognitive reserve, Alzheimer's disease, neuroplasticity, prefrontal cortex, Broca's area, linguistic skills, cognitive advantages, cerebral structure, multilingualism, cognitive development.

Ключевые слова: двуязычие, познание, церебральная пластичность, рабочая память, внимание, когнитивный резерв, болезнь Альцгеймера, нейропластичность,

префронтальная кора, область Брока, языковые навыки, когнитивные преимущества, структура головного мозга, многоязычие, когнитивное развитие.

Le bilinguisme, entendu comme la faculté de maîtriser **deux langues ou davantage**, suscite un intérêt scientifique croissant dans les champs de la linguistique, de la psychologie cognitive et des neurosciences. Les travaux de recherche ont mis en évidence que cette compétence ne se limite pas aux seules aptitudes linguistiques, mais qu'elle exerce également une influence significative sur l'organisation structurelle et le fonctionnement du cerveau. Les individus bilingues présentent, de manière récurrente, des performances cognitives supérieures, notamment en matière d'attention sélective, de mémoire de travail et de résolution de problèmes complexes. Ces avantages sont étroitement liés à l'interaction constante entre les systèmes linguistiques, laquelle requiert une importante flexibilité cognitive.

Sur le plan neurobiologique, le cerveau des bilingues se distingue par une plasticité accrue, c'est-à-dire une capacité renforcée à se modifier et à s'adapter en fonction des expériences. L'acquisition et l'usage régulier de plusieurs langues favorisent le renforcement des connexions neuronales et peuvent conduire à une augmentation de la densité de la matière grise dans certaines régions cérébrales spécifiques. Ainsi, le bilinguisme se caractérise par des effets profonds et multidimensionnels sur le cerveau. En optimisant les capacités cognitives et en stimulant la plasticité cérébrale, il constitue un atout majeur, tant sur le plan linguistique que sur le plan cognitif. Les recherches futures devraient poursuivre l'exploration de ces interactions complexes, ouvrant des perspectives prometteuses pour des applications concrètes dans les domaines de l'éducation et des sciences neurologiques.

D'un point de vue définitionnel, le bilinguisme peut être envisagé comme la capacité d'un individu à utiliser deux langues distinctes, tant à l'oral qu'à l'écrit. Il convient de distinguer plusieurs formes de bilinguisme. Le bilinguisme simultané renvoie à l'acquisition précoce de deux langues dès la petite enfance, généralement dans un environnement familial plurilingue. À l'inverse, le bilinguisme successif correspond à l'apprentissage d'une seconde langue postérieurement à la maîtrise de la langue première, le plus souvent durant l'enfance ou l'adolescence. Par ailleurs, les niveaux de compétence peuvent varier sensiblement entre les langues, traduisant une maîtrise parfois asymétrique. Le contexte sociolinguistique, incluant les facteurs culturels et géographiques, joue un rôle déterminant dans la construction du bilinguisme.

Au-delà de sa dimension linguistique, le bilinguisme exerce des effets notables sur les sphères cognitive, sociale et culturelle. Les individus bilingues manifestent généralement une plus grande flexibilité mentale, une créativité accrue ainsi qu'une aptitude renforcée à résoudre des problèmes. De surcroît, certaines études suggèrent que le bilinguisme pourrait retarder l'apparition de pathologies neurodégénératives, notamment la maladie d'Alzheimer, en contribuant à la constitution d'une réserve cognitive.

Sur le plan socioculturel, le bilinguisme favorise l'ouverture à l'altérité et le développement de l'empathie, permettant une meilleure compréhension des divers cadres culturels. Dans les systèmes éducatifs, les dispositifs d'enseignement bilingue participent non seulement à l'acquisition de compétences linguistiques solides, mais également à une meilleure appropriation des savoirs académiques. En outre, la maîtrise de deux langues contribue à la construction identitaire des individus, leur offrant la possibilité de s'inscrire dans plusieurs espaces culturels et d'élargir leur sentiment d'appartenance.

Néanmoins, le bilinguisme peut également s'accompagner de certains défis, tels que le déséquilibre fonctionnel entre les langues, où l'une tend à dominer l'autre, ou encore l'existence de stéréotypes et de représentations sociales associées aux pratiques linguistiques. Les choix linguistiques s'inscrivent souvent dans des contextes spécifiques, variant selon les sphères familiale, scolaire ou professionnelle. Par ailleurs, les politiques linguistiques et éducatives mises en œuvre par les institutions étatiques jouent un rôle déterminant dans la promotion et la régulation du bilinguisme au sein des sociétés.

D'autres formes de bilinguisme peuvent également être identifiées, telles que le bilinguisme coordonné, dans lequel les langues sont acquises de manière distincte, ou encore le

bilinguisme complémentaire, caractérisé par une répartition fonctionnelle des langues selon les contextes d’usage.

Sur le plan cognitif, le bilinguisme est associé à une amélioration des fonctions exécutives, incluant la gestion de l’attention, la mémoire de travail et la capacité à effectuer plusieurs tâches simultanément. Il favorise également une flexibilité cognitive accrue et pourrait contribuer à retarder l’apparition de troubles cognitifs liés au vieillissement. Par ailleurs, les individus bilingues développent des compétences interculturelles significatives et bénéficient d’un accès élargi à des ressources culturelles diversifiées.

D’un point de vue neurofonctionnel, plusieurs structures cérébrales sont impliquées dans le traitement des langues. Le cortex préfrontal joue un rôle essentiel dans les fonctions exécutives, notamment la régulation de l’attention, la prise de décision et le contrôle inhibiteur, ainsi que dans l’alternance entre les langues. L’aire de Broca, localisée dans le lobe frontal, intervient dans la production du langage et l’organisation syntaxique. L’aire de Wernicke, située dans le lobe temporal, est essentielle à la compréhension du langage. Le lobe temporal est également impliqué dans la mémoire linguistique. Le système limbique influence les dimensions affectives et motivationnelles liées à l’apprentissage des langues, tandis que le cervelet participe à la fluidité, au rythme et à l’intonation de la parole. Les recherches montrent que les bilingues présentent une connectivité accrue entre ces différentes régions cérébrales, ce qui favorise une plus grande efficacité dans le traitement et l’accès aux informations linguistiques.

La bibliographie

1. Bialystok, E. (2018). Le bilinguisme : un atout pour le cerveau. In *Cognition et Langage*, 14(1), 25-36.
2. Arnaud, P. (2015). *Le bilinguisme et ses effets cognitifs*. Nantes : Éditions Universitaires.
3. Dehaene, S. (2011). *Le code de la lecture*. Paris : Éditions Odile Jacob.
4. Kecskes, I., & Papp, T. (2012). *La langue étrangère et la langue maternelle*. Paris : Springer.
5. Müller, N. (2019). Les avantages cognitifs du bilinguisme. *Revue de Psychologie*, 167(3), 215-230.
6. Grosjean, F. (2010). *Bilinguisme : Au-delà de la langue*. Paris : Éditions Nathan.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFEMIK PARADIGMATIKA VA SINTAGMATIKA MASALALARI: PROFESSOR TURSUNALI MIRZAKULOV ILMIY MEROSI

Turdibekov Mo‘min Turayevich
filologiya fanlari doktori, professor
Renessans ta’lim universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: mominjonturdibekov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida morfemik paradigmatica va sintagmatika masalalarining ilmiy-nazariy asoslari professor Tursunali Mirzakulovning ilmiy merosi misolida tahlil qilingan. Unda morfemalarning paradigmatic va sintagmatic munosabatlari, ularning til tizimidagi o‘rni, grammatik ma’no ifodalashdagi funksional imkoniyatlari hamda morfologik tizimning ichki qonuniyatlari yoritilgan. Shuningdek, olimning o‘zbek morfologiyasi va so‘z yasashi nazariyasiga qo‘shgan hissasi, morfemik tizimni struktur-funksional yondashuv asosida tadqiq etishdagi ilmiy qarashlari ochib berilgan. Maqolada morfemik paradigmatica va sintagmatika hodisalarining mumtoz adabiyot tili misollarida namoyon bo‘lishi ham ko‘rsatilib, bu yo‘nalishning bugungi tilshunoslikdagi nazariy va amaliy ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: morfema, morfemik paradigmatica, morfemik sintagmatika, paradigmatic munosabat, sintagmatic munosabat, morfologiya, so‘z yasashi, grammatik shakl, affiks, Tursunali Mirzakulov, o‘zbek tilshunosligi, morfologik tizim.

O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida morfologiya va so‘z yasalihi masalalarini chuqur o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Til tizimining ichki qonuniyatlarini anglashda morfemalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash, ularning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada o‘zbek tilshunosligida salmoqli ilmiy maktab shakllangan bo‘lib, mazkur maktab rivojiga professor Tursunali Mirzakulovning ilmiy tadqiqotlari katta hissa qo‘shgan. Til tizimi o‘zaro bog‘langan birliklar majmuasidan iborat bo‘lib, unda fonema, morfema, leksema va sintaktik birliklar o‘zaro murakkab munosabatlar asosida faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur birliklarning har biri paradigmatic va sintagmatic munosabatlar orqali til tizimining yaxlitligini ta‘minlaydi. Morfemik paradigmatica va sintagmatica masalalari aynan shu jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Professor Tursunali Mirzakulov 1948 yilda sobiq Leninobod viloyati Mastchoh tumani Avzikeht qishloq yig‘inining Cholota qishlog‘ida tug‘ilgan. 1971 yilda Leninobod davlat pedagogika institutining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetini tamomlagan. Shundan so‘ng ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirib, o‘zbek tilshunosligining morfologiya sohasida izchil ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

1980 yilda “O‘zbek tilida shakl yasovchi affikslar” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1994 yilda esa O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutida “O‘zbek tili morfemik paradigmatica va sintagmatica masalalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, o‘zbek tilshunosligida muhim ilmiy nazariy yo‘nalishlardan birini rivojlantirdi.

Tilshunoslikda paradigmatica va sintagmatica tushunchalari mashhur shveytsariyalik tilshunos tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, til birliklari o‘rtasidagi ikki xil munosabatni ifodalaydi. Paradigmatic munosabat – bu bir xil vazifani bajaruvchi birliklarning tizimli qarama-qarshiligi va o‘zaro almashuv imkoniyatidir. Sintagmatic munosabat esa birliklarning nutq jarayonida ketma-ketlik asosida birikishidir.

Morfemik paradigmatica – morfemalarning tizim ichidagi o‘zaro qarama-qarshi munosabatlarini o‘rganadi. Masalan, o‘zbek tilidagi shaxs-son qo‘shimchalari quyidagi paradigmatic tizimni tashkil etadi:

boraman – borasan – boradi – boramiz – borasiz – boradilar.

Bu misolda -man, -san, -di, -miz, -siz, -dilar morfemalari bir paradigmatic tashkil etadi. Ular o‘zaro qarama-qarshi bo‘lsa-da, bir xil grammatik kategoriya – shaxs va sonni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Professor Mirzakulov o‘z tadqiqotlarida morfemalarning paradigmatic tizimini aniqlashda ularning semantik va funksional xususiyatlarini birgalikda tahlil qilish zarurligini ta‘kidlaydi. Chunki morfema faqat grammatik shakl emas, balki ma‘lum semantik yukni ham tashiydi.

Bu jihat o‘zbek mumtoz adabiyoti tilida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Masalan, buyuk mutafakkir o‘z g‘azallarida turli morfologik shakllarni badiiy maqsadda keng qo‘llagan:

“Ko‘nglum ichra dardu g‘am nihon ayladim necha,

Ko‘rgan elga sirrimni ayon ayladim necha.”

Bu misrada “ayladim” fe‘l shaklida -di va -m morfemalari birikib, zamon va shaxs ma‘nosini ifodalaydi. Bu morfemalar o‘z paradigmatic tizimi orqali grammatik ma‘noni aniq ifodalashga xizmat qilmoqda.

Morfemik sintagmatica esa morfemalarning nutq jarayonida ketma-ketlik asosida birikishini o‘rganadi. Masalan: kitob + lar + im + ni

Bu yerda morfemalar ma‘lum tartibda joylashgan. Agar tartib buzilsa, grammatik ma‘no ham buziladi. Demak, morfemalarning sintagmatic joylashuvi til tizimining muhim qonuniyatlaridan biridir.

Mirzakulov o‘z ilmiy ishlarida morfemalarning sintagmatic imkoniyatlarini tahlil qilib, ularning birikish chegaralarini ham aniqlab beradi. Masalan, ayrim qo‘shimchalar faqat ma‘lum turdagi so‘zlarga qo‘shila oladi. Bu esa morfemalarning distributiv xususiyatlari bilan bog‘liq.

Til tarixiga nazar tashlasak, morfemik tizimning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon mahsuli ekanligini ko‘ramiz. Qadimgi turkiy yodgorliklarda ham morfologik tizim ancha rivojlangan bo‘lgan. Masalan, asarida ko‘plab fe‘l va ot shakllari qayd etilgan.

Bu asar muallifi turkiy tillardagi qo‘shimchalarning vazifasi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. U ayrim qo‘shimchalarning semantik farqlarini ham ko‘rsatib o‘tadi. Morfemik paradigmatika masalasini o‘rganishda turkiy tilshunoslik an‘analariga ham tayanish muhimdir. Masalan, qadimgi turkiy matnlarda ko‘plik qo‘shimchasining turli variantlari uchraydi. Bu variantlar fonetik muhitga moslashib, turli shakllarda namoyon bo‘ladi.

Til taraqqiyoti jarayonida morfemalar semantik kengayish yoki torayish jarayonlarini ham boshdan kechiradi. Bu hodisa til evolyutsiyasining tabiiy natijasidir.

O‘zbek tilida so‘z yasalishi tizimi ham morfemik paradigmatika bilan bevosita bog‘liq. Masalan:

yo‘z – yozuvchi – yozuvchilik – yozuvchan

Bu yerda har bir qo‘shimcha yangi grammatik yoki leksik ma’no hosil qilmoqda.

Mumtoz adabiyotimizda ham morfologik shakllarning badiiy imkoniyatlari keng qo‘llangan. Buyuk shoir o‘z asarlarida tilning grammatik imkoniyatlaridan mohirona foydalangan.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, morfemik tizim tilning eng muhim struktur komponentlaridan biridir. Morfemalar nafaqat grammatik ma’nolarni ifodalaydi, balki tilning estetik va badiiy imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Professor Mirzakulov o‘z tadqiqotlarida morfemik tizimni struktur-funksional yondashuv asosida tahlil qilib, uning paradigmatic va sintagmatik munosabatlarini chuqur ilmiy asoslab berdi. Bu tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida morfologiya nazariyasining rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Bugungi kunda ham olimning ilmiy merosi yosh tadqiqotchilar uchun muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Til tizimini chuqur anglashda morfemik paradigmatika va sintagmatika masalalarini o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Professor Tursunali Mirzakulovning ilmiy faoliyati nafaqat nazariy tilshunoslik rivojiga, balki pedagogik jarayon takomiliga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. U uzoq yillar davomida oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritib, ko‘plab shogirdlar yetishtirdi.

Olimning ilmiy merosi o‘zbek tilshunosligining muhim sahifalaridan birini tashkil etadi. Uning tadqiqotlari morfologiya va so‘z yasalishi nazariyasini yangi bosqichga ko‘targan ilmiy ishlardan hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida morfologik tizimning ichki qonuniyatlarini o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Til tizimining eng muhim birliklaridan biri bo‘lgan morfema nafaqat grammatik shaklni, balki ma’no va funksiyani ham ifodalaydi. Shu sababli morfemalarning tizim ichidagi munosabatlarini aniqlash, ularning paradigmatic va sintagmatik imkoniyatlarini o‘rganish tilshunoslikning muhim nazariy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida ushbu yo‘nalishning shakllanishi va rivojida filologiya fanlari doktori, professor Tursunali Mirzakulovning ilmiy tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Olim o‘zining ilmiy izlanishlarida morfemik tizimni chuqur tahlil qilib, morfemalarning paradigmatic va sintagmatik xususiyatlarini aniqlashga katta e’tibor qaratgan.

Til – murakkab va ko‘p qatlamli tizim bo‘lib, unda har bir birlik boshqa birliklar bilan muayyan munosabatlarga kirishadi. Til birliklari o‘rtasidagi bunday munosabatlar paradigmatic va sintagmatik munosabatlar orqali namoyon bo‘ladi. Paradigmatic munosabat bir xil vazifani bajaruvchi birliklarning tizimli qarama-qarshiligini ifodalaydi. Sintagmatik munosabat esa birliklarning nutq jarayonida ketma-ket birikishidir. Morfemalar ham aynan shu ikki turdagi munosabat orqali til tizimida faoliyat ko‘rsatadi.

Professor Mirzakulov o‘z tadqiqotlarida morfemik paradigmatika tushunchasini o‘zbek tilining grammatik tizimi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladi. Uning fikricha, har bir morfema o‘z paradigmasiga ega bo‘lib, u boshqa morfemalar bilan o‘zaro qarama-qarshi munosabatda bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi shaxs-son qo‘shimchalari bir paradigmatic tizimni tashkil etadi:

boraman – borasan – boradi – boramiz – borasiz – boradilar.

Bu misolda -man, -san, -di, -miz, -siz, -dilar morfemalari shaxs-son kategoriyasining paradigmatic qatorini hosil qiladi. Ularning har biri grammatik ma’no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo’lsa-da, umumiy funksional tizimga kiradi.

Morfemik sintagmatika esa morfemalarning nutq jarayonida bir-biri bilan qanday ketma-ketlikda birikishini o’rganadi. Masalan:

kitob + lar + im + ni

Bu struktura o’zbek tilida morfemalarning qat’iy tartibda joylashishini ko’rsatadi. Agar morfemalar tartibi o’zgarsa, grammatik ma’no ham buziladi. Shu sababli morfemik sintagmatika til tizimining muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi.

Morfologik tizimni chuqur o’rganishda mumtoz adabiyot tili ham muhim manba hisoblanadi. Buyuk mutafakkir asarlarida morfologik shakllarning boy imkoniyatlari keng namoyon bo’ladi. Navoiy g’azallarida fe’l shakllari va affikslarning badiiy vazifasi ayniqsa diqqatga sazovordir:

Ko’nglum ichra dardim nihon ayladim necha,

Ko’rgan elga sirrimni ayon ayladim necha.

Bu baytda “ayladim” fe’l shakli tarkibidagi -di va -m morfemalari zamon va shaxs ma’nolarini ifodalaydi. Morfemalarning bunday uyg’unligi grammatik ma’noni aniq ifodalash bilan birga badiiy ohangni ham kuchaytiradi.

Morfemik paradigmatica hodisasi asarlarida ham yorqin ko’rinadi. Boburning g’azallarida fe’l shakllarining turli variantlari nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.

Bu misolda -sa shart mayli qo’shimchasi paradigmatic tizimning muhim elementi sifatida namoyon bo’ladi. U fe’lning shart ma’nosini ifodalaydi va boshqa mayl shakllari bilan paradigmatic munosabatga kiradi.

Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandasi asarlarida ham morfologik shakllarning boyligi ko’zga tashlanadi. Ogahiy g’azallarida ko’plik, egalik va zamon qo’shimchalari badiiy ifodaning muhim vositasiga aylanadi. Masalan:

Ko’rdum seni, ey dilbar, ko’nglum yana shod bo’ldi.

Bu misolda “ko’rdum” shakli tarkibidagi -du va -m morfemalari zamon va shaxs ma’nolarini ifodalaydi.

Ma’rifatparvar shoir ijodida ham morfologik shakllarning nutqiy imkoniyatlari keng qo’llanadi. Furqat she’rlarida zamon, mayl va shaxs qo’shimchalari badiiy ifodaning muhim vositasiga aylangan. Masalan:

Ilm o’rganmoq har kishiga farzdur.

Bu misolda -moq infinitiv qo’shimchasi fe’lning umumiy harakat ma’nosini ifodalaydi.

Morfemik paradigmatica va sintagmatika masalalarini o’rganish til tizimining ichki tuzilishini anglashda muhim nazariy asos bo’lib xizmat qiladi. Professor Mirzakulov o’z tadqiqotlarida morfemik tizimni struktur-funksional yondashuv asosida tahlil qilib, o’zbek tilshunosligida yangi ilmiy yo’nalish rivojiga zamin yaratdi.

Tilshunoslikda morfemalarning paradigmatic va sintagmatic munosabatlarini o’rganish nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Chunki bu tadqiqotlar grammatik tizimni chuqur anglashga, lug’at tuzish va til o’qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Professor Mirzakulovning ilmiy merosi bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Uning tadqiqotlari o’zbek tilshunosligida morfologiya nazariyasining rivojiga katta hissa bo’lib qo’shilgan ilmiy ishlardan hisoblanadi. Olimning ilmiy faoliyati yosh tadqiqotchilar uchun muhim metodologik maktab vazifasini o’tamoqda.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH VA MANTIQUIY TAFAKKURINI O’SHTIRISHDA TA’LIM METODLARINING AHAMIYATI

G’afforova Zarnigor Abdumo’min qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim metodlarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlarning samaradorligi tahlil qilingan.

Аннотация: В статье освещается роль и значение современных методов обучения в формировании мировоззрения и развитии логического мышления учащихся начальных классов. Также анализируется эффективность интерактивных методов.

Annotation: This article highlights the role and importance of modern educational methods in shaping the worldview and developing logical thinking of primary school students. It also analyzes the effectiveness of interactive methods.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, dunyoqarash, mantiqiy tafakkur, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, malaka oshirish maktabi, kasbiy faoliyat.

Ключевые слова: начальное образование, мировоззрение, логическое мышление, интерактивные методы, педагогические технологии, школа повышения квалификации, профессиональная деятельность.

Keywords: Primary education, worldview, logical thinking, interactive methods, pedagogical technology, advanced training school, professional activity.

Bugungi kunda yurtboshimiz Sh.M. Miromonovich ham ta’lim sohasida chuqur islohotlar olib bormoqda. Ayniqsa maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim sohalarida tubdan o‘zgarishlar olib borildi. Xususan “Matematika” fanini boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim, oliy ta’limda ham o‘rganilish sifatini oshirish uchun yangi darsliklar tuzildi, turli tanlovlar tashkillandi, talabalar uchun O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika instituti tashkillandi va aynan “Matematika” fanini yanada chuqurroq o‘rganish uchun qaror va farmoyishlar qabul qilindi. “Matematika ko‘p fanlarga yo‘l ochadi. Uni talabalar shaharchasida barpo etganimiz bejiz emas. Matematika instituti ta’lim va ilm-fan o‘rtasida uzviylikni ta’minlashi, mamlakatimiz rivojiga zamin yaratishi kerak”, - deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 12-iyun kuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika institutiga tashrifida so‘zlagan nutqidan o‘rganilib joriy hayotimizga tadbiq qilinmoqda. Shuni ochiq aytish joizki, biz qanchalik ilm olsak, shunchalik ongimiz, tasavvurimiz, hayotimiz, fikrlash dunyoyimiz rivojlanadi hamda hayotimizdagi turli xil muammolarning yo‘qolishiga, shaxsiy, kasbiy faoliyatimizni yuksalishiga yo‘l ochadi.

Dunyoqarash – bu shaxsning borliq haqidagi bilimlari, qarashlari, e’tiqodi va munosabatlarining tizimidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dunyoqarash shakllanishi quyidagi omillar asosida amalga oshadi:

- ta’lim jarayoni;
- o‘qituvchi shaxsi;
- oila va ijtimoiy muhit;
- axborot vositalari.

Dunyoqarashning kengligi o‘quvchining bilim doirasi, fikrlash darajasi va ijtimoiy faoliyatiga bog‘liqdir.

Mantiqiy tafakkur – bu voqea va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy tafakkur quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

- konkret fikrlash;
- solishtirish va tahlil qilish;

- umumlashtirish;
- xulosa chiqarish.

Mazkur jarayonda ta’lim metodlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim metodlari – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘quv faoliyatini tashkil etish usullaridir.

Ular quyidagicha tasniflanadi:

- an’anaviy metodlar (ma’ruza, tushuntirish);
- interaktiv metodlar (bahs, aqliy hujum);
- muammoli ta’lim metodlari;
- o‘yin texnologiyalari;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Interaktiv metodlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan:

- “Aqliy hujum” – tez fikrlashni rivojlantiradi;
- “Klaster” – tushunchalarni tizimlashtiradi;
- “Debat” – mustaqil fikr bildirishni o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin orqali ta’lim eng samarali usullardan biridir. O‘yinlar orqali:

- o‘quvchilarning qiziqishi ortadi;
- mantiqiy fikrlash rivojlanadi;
- jamoaviy ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.

Muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilar:

- mustaqil fikrlashga o‘rganadi;
- muammoni hal qilish yo‘llarini izlaydi;
- ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Zamonaviy darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish:

- darsni qiziqarli qiladi;
- vizual tasavvurni kuchaytiradi;
- o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga undaydi.

Tajriba-sinov ishlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borildi. Unda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- interaktiv metodlar;
- o‘yin texnologiyalari;
- muammoli vaziyatlar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish va mantiqiy tafakkurini o‘stirishda ta’lim metodlarini o‘rgatish orqali quyidagi natijalarga erishildi:

o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasi oshdi;

- savollarga mustaqil javob berish ko‘nikmasi rivojlandi;
- darsga qiziqish kuchaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda ta‘lim metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri tanlangan metodlar o‘quvchilarning bilimni mustahkamlash bilan birga ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida interaktiv, muammoli va innovatsion metodlardan keng foydalanish zarur.

- interaktiv metodlardan keng foydalanish;
- o‘yin texnologiyalarini darslarga joriy etish;
- AKT vositalaridan samarali foydalanish;
- o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

Yurtimizda ayni damda olib borilayotgan islohotlarning asosiy omilidan biri bu har bir shaxsni fikrlashga, mantiqan tahlil qilishga o‘rgatishdir. Mantiqiy fikrlash bu o‘z-o‘zidan mantiq ilmi va uning tarixi bilan uzviy bog‘liq. Mantiq ilmi esa juda qadimdan paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan. Xususan mantiq ilmiga doir ilk tasavvurlarni qadimgi yunon olimlari Perminid, Aristotel, Demokrit, Platon, Suqrot kabi olimlar asarlarida so‘z brogan. Undan so‘ng esa Abu Nasir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Bedil, Umar Hayyom kabi olimlar tomonidan o‘z asarlari yordamida mantiq ilmi chuqur talqin qilingan. Shu tariqa yangi o‘rta asr Yevropasida ham mantiq ilmini yangi yo‘nalishlari o‘rganila boshlagan. Bu jarayonda T.Gobbs, V.Leybnist, V.F.Gegel, I.Kant, R.Dekart, F.Bekon kabilar o‘z xissasini qo‘shgan. Vatanimizda mantiq tushuncha va masalalari bilan M.M.Xayrullayev, E.Yu.Yusupov, V.Qobulov, I.Rahimov, M.Sharipov, O.Imomxo‘jayev, D.Fayzixo‘jayeva va boshqa olimlar mantiq ilmiga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni ta‘lim tizimining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda o‘quvchilar tafakkurining poydevori shakllanadi, ularda sabab–natija bog‘lanishlarini tushunish, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chi qarish ko‘nikmalari rivojlanadi. Matematika darslari esa bu jarayon uchun eng qulay muhitni yaratadi. Chunki matematika fani nafaqat hisob-kitoblarni o‘rgatadi, balki mantiqiy fikrlashni, aniq mulohaza yuritishni, mustaqil fikr bildirishni talab qiladi. Matematik topshiriqlar o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi, ularda muammoni yechishga yo‘naltirilgan izlanish faoliyatini shakllantiradi. Ayniqsa, mantiqiy mazmundagi masalalar, qiziqarli topshiriqlar, kombinatorik holatlar, ketma-ketliklarni aniqlash, mantiqiy bog‘liqliklarni topishga yo‘naltirilgan mashqlar o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini kengaytiradi. Bu jarayon o‘qituvchidan ham yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni talab etadi. Har bir topshiriq o‘quvchining yosh xususiyatlariga, bilish imkoniyatlariga va qiziqishlariga mos ravishda tanlanishi zarur. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari va ijodiy yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi. Bugungi kunda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda raqamli o‘quv vositalari, virtual topshiriqlar va multimediali dasturlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning motivatsiyasini yanada oshiradi. Ular orqali o‘quvchi masalani faqat yechmaydi, balki uning mazmunini tushunishga, mantiqiy bog‘lanishni izlab topishga o‘rganadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, xatolarni tahlil qilish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyatlari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida mantiqiy mazmundagi topshiriqlardan tizimli foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur salohiyatini kengaytiradi, ularda tahliliy, ijodiy va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantiradi. Shu bois, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ta‘lim jarayonining ajralmas qismi sifatida muntazam ravishda qo‘llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni,
2. 2020-yil 12-iyun kuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika institutiga tashrifida so‘zlagan nutqidan
3. Jo‘rayev, A. (2020). Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
4. Xo‘jayev, M., & Tursunova, G. (2021). Matematika darslarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish usullari. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.
5. Ahmedova M. umumiy tahrir ostida. Falsafa. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – T.: 2006-y.– B 506, 495bet.
6. Baratov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. – T.: O‘qituvchi, 2005-y. – B 418,236-bet.
7. Berdieva O. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar // Xalq ta’limi. – Toshkent. – 2003-y
8. G‘afforova T. va b.1-sinf O‘qish darsligi. – T.: Sharq. 2015-y
9. G‘afforova T. va b. 2- sinf O‘qish darsligi. – T.: Sharq. 2015-y.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti

Yunusova Xusnora

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida nutqning rivojlanishini ilmiy va nazariy nuqtai nazardan o‘rganadi. Nutq rivojlanishining psixologik va pedagogik asoslari, til va bilish o‘rtasidagi ichki bog‘liqlik va boshlang‘ich ta’lim davrida nutq faolligini rivojlantirishning didaktik usullari ta’kidlangan. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini oshirishning zamonaviy yondashuvlari va texnologiyalarining asosidagi ilmiy tamoyillar ham yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich maktab amaliyotida nutqni rivojlantirish samaradorligini oshiradi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, nutqni rivojlantirish, nutqiy faoliyat, og‘zaki nutq, yozma nutq, til va tafakkur, pedagogik texnologiya, metodika.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING SPEECH IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This scientific article examines the development of speech in primary school students from a scientific and theoretical perspective. The psychological and pedagogical foundations of speech development, the internal relationship between language and cognition, as well as didactic methods for developing speech activity during the primary education period are highlighted. The article also reveals the scientific principles underlying modern approaches and technologies aimed at improving students’ oral and written communication skills. The research results contribute to increasing the effectiveness of speech development practices in primary school education.

Keywords: Primary education, speech development, speech activity, oral speech, written speech, language and thinking, pedagogical technology, methodology.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной научной статье развитие речи у учащихся начальных классов рассматривается с научно-теоретической точки зрения. Освещаются психологические и педагогические основы развития речи, внутренняя взаимосвязь языка и мышления, а также дидактические методы развития речевой активности в период начального обучения. Также

раскрываются научные принципы современных подходов и технологий, направленных на повышение устных и письменных коммуникативных навыков учащихся. Результаты исследования способствуют повышению эффективности развития речи в практике начального школьного образования.

Ключевые слова: начальное образование, развитие речи, речевая деятельность, устная речь, письменная речь, язык и мышление, педагогическая технология, методика.

KIRISH (INTRODUCTION)

Boshlang'ich maktab o'quvchilarida og'zaki muloqotni rivojlantirish ta'lim tizimining muhim maqsadi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning til qobiliyati, kognitiv ko'nikmalari va muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Nutq insonning bilish qobiliyati, intellektual faolligi va ijtimoiy moslashuvining asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi, bu esa uni rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan metodologiyani talab qiladi. Natijada, ushbu maqolada nutqni rivojlantirishning ilmiy va nazariy asoslari o'rganiladi, bu juda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsiy rivojlanishning poydevori hisoblanadi, bu davrda bolalarning og'zaki ko'nikmalari tez rivojlanadi. Nutq bolaning kognitiv rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va akademik yutuqlarining muhim elementidir. Bu nutqni rivojlantirishga amaliy va qat'iy ilmiy va nazariy tamoyillarga asoslangan yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqola boshlang'ich maktab o'quvchilarida nutqni rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganishga, tegishli adabiyotlarda taqdim etilgan ilmiy nuqtai nazarlarga tayanishga va ularni izchil ilmiy asosga umimlashtirishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Boshlang'ich maktab o'quvchilarida nutqning rivojlanishi ko'plab mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Ushbu matnlarda nutqning rivojlanishi pedagogik, psixologik va lingvistik nuqtai nazardan o'rganiladi. M. Abdullayeva boshlang'ich ta'lim usullarini o'rganishda nutqni rivojlantirishni ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi deb biladi. Olim nutqda muntazam mashq qilish o'quvchilarning ongli ravishda bilim olishiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi. U nutq faoliyatini metodik tartibga solish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muloqot madaniyatining rivojlanishini tasdiqlaydi. O. Asqarova boshlang'ich maktablarda nutqni rivojlantirishni bolalarning yoshi va individual xususiyatlari bilan bog'laydi. Uning tadqiqoti nutqni rivojlantirishda munozara, hikoya qilish va matn tahlili kabi strategiyalarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi. D. G'anieva bolalar nutqining psixologik asoslarini o'rganishda nutq va bilish o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ta'kidlaydi. Olim nutqni rivojlantirishni bolaning ko'rish, xotira va bilish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq deb biladi. Ular nutq harakatlarini rivojlantirishda lingvistik materialni ataylab o'zlashtirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Z. Karimova, L. Rahmonova, S. Rustamova va boshqa tadqiqotchilar og'zaki va yozma nutq shakllarini rivojlantirish usullarini alohida tadqiqot sohasi sifatida o'rganib chiqdilar.

Nutq inson faoliyatining bir shakli bo'lib, fikrni lingvistik vositalar (so'zlar, iboralar, jumlar) orqali namoyon qiladi. Nutq muloqot vositasi sifatida ishlaydi, his-tuyg'ularga to'la tushunchalarni ifodalaydi va boshqalarga ta'sir qiladi. Yaxshi ifodalangan nutq jamiyat bo'ylab insoniy o'zaro ta'sirning muhim vositasini tashkil qiladi. Talaba uchun nutq akademik muhitda samarali o'rganish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqni rivojlantirish nimani anglatadi? O'quvchini va uning til bilan aloqasini o'rganishda nutqni rivojlantirish tilni uning barcha o'lchamlari (talaffuz, lug'at, grammatik tuzilma va izchil nutq) bo'yicha faol va amaliy o'zlashtirish sifatida belgilanadi. Ona tili dasturining tarkibiy qismlari "Savodxonlikni o'rgatish va nutqni rivojlantirish", "O'qish va nutqni rivojlantirish" va "Grammatika, imlo va nutqni rivojlantirish" deb belgilangan. Nutq faoliyatini osonlashtirish va o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini oshirish uchun ko'plab shartlarga rioya qilish muhimdir: 1. Shaxsning nutqini rivojlantirish uchun zarur shart mavjud bo'lishi kerak. O'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini oshirishning metodologik zarurati - bu ularning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifoda etish istagi va zarurligini rag'batlantiradigan kontekstni yaratishdir. 2. Har qanday nutq mazmunli va mazmunli bo'lishi kerak. Ushbu material qanchalik to'liq, boy va qimmatli bo'lsa, uning tasdiqlanishi shunchalik

muhim bo'ladi. O'quvchilar nutqini rivojlantirishning ikkinchi zarurati nutq faoliyatining mazmuniga tegishli bo'lib, o'quvchining nutqi mazmunli bo'lishini ta'minlaydi. Yosh bola nutq faoliyati orqali tilni mukammal egallaydi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u faqat nutqni yuzaki egallaydi. Nutqni o'zlashtirish bir nechta jihatlarni qamrab oladi. Bularga quyidagilar kiradi: 1. Adabiy tilning konventsionalini o'zlashtirish. Muassasa talabalarga adabiy tilni asosiy so'zlashuv tili, lahjalar va jargonlar o'rtasidagi farqni o'rgatadi, shu bilan birga ularni adabiy tilning badiiy, ilmiy va so'zlashuv versiyalari bilan tanishtiradi. 2. Jamiyatning barcha a'zolari uchun zarur bo'lgan muhim notiqlik qobiliyatlarini, xususan, savodxonlik va kompozitsiya ko'nikmalarini egallash. Bu talabalarga yozma nutqning xususiyatlarini va uning og'zaki nutqdan farqlarini tushunishga yordam beradi. 3. O'quvchilar orasida notiqlik madaniyatini oshirish. Til jamiyat ichidagi muloqotning asosiy vositasidir. Tilning ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda, ta'lim muassasalarida talabalarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan tuzilgan mashg'ulotlarni amalga oshirishi kerak. Bolalar nutqini rivojlantirishni yaxshilash tushunchasini tushunish juda muhimdir.

Nutq rivojlanishida uchta alohida yo'nalish aniqlangan: 1) Lug'atga e'tibor qaratish; 2) So'z birikmalari va gap tuzilishiga e'tibor qaratish; 3) Izchil nutqni rivojlantirish. Leksikologiya, frazeologiya va stilistika, morfologiya va sintaksis bilan birgalikda, so'zlar, so'z birikmalari va gaplarni tahlil qilish uchun lingvistik asosni tashkil qiladi; izchil nutq mantiqqa, adabiyotshunoslikka va murakkab sintaktik tuzilmalar lingvistikasiga tayanadi. Belgilangan uchta yo'nalish bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi: lug'atni rivojlantirish nutq uchun material beradi, so'zlar, iboralar va gaplarga e'tibor esa izchil ifodani osonlashtiradi. Maktabda o'quvchilarning og'zaki muloqotini yaxshilash ona tilini o'qitishning asosiy maqsadi sifatida qaratiladi. Nutqni rivojlantirish ona tili va o'qish bo'yicha ta'limdan tashqariga chiqadigan mas'uliyat bo'lib, o'quv dasturidagi barcha fanlarni (shu jumladan, fan, matematika, kasb-hunar ta'limi, tasviriy san'at va musiqa), shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarni qamrab oladi. Shaxslar o'z qarashlarini ifoda etish vositasi sifatida tildan foydalanadilar. Ichki nutqqa jalb qilish o'quvchining og'zaki va kognitiv rivojlanishini yaxshilashning muhim vositasidir. Maktabda o'quvchilarning tashqi va ichki nutqi rivojlantiriladi. Bolalar ichki o'qish ko'nikmalarini egallaydilar, mazmunni o'zlashtiradilar, ko'plab muammolarni mustaqil ravishda hal qiladilar va, eng muhimi, o'zlarining ovozli va yozma ifodalarini shakllantiradilar. Fikrlar og'zaki va yozma nutq orqali ifodalanadi. Og'zaki muloqot eshitish orqali amalga oshiriladi, yozma muloqot esa vizualdir. Og'zaki muloqotda eshitish idroki eng muhim ahamiyatga ega, yozma muloqotda esa vizual idrok va qo'l imo-ishoralari juda muhimdir. Og'zaki va matnli muloqot shaxslararo almashinuv vositasi sifatida ishlaydi, ammo og'zaki muloqot muayyan hayot sharoitlarida sodir bo'ladi. Muloqot to'g'ridan-to'g'ri sodir bo'ladi; yozma nutq mustaqil ravishda, ma'lum kontekstlardan xoli va inson ishtirokisiz qo'llaniladi. Og'zaki muloqot odatda dialog shaklida namoyon bo'ladi, yozma muloqot esa odatda monolog shaklida bo'ladi. Yozma nutq ma'lum lingvistik tuzilmalarni istisno qilmasdan mantiqiy izchillikni talab qiladi. Ortiqcha takrorlanmasdan bayonot zarur. Natijada, yozma nutq yanada murakkab va mavhumroq deb hisoblanadi. Talabalar taqdimotlari uchun mezonlar O'quvchilar nutqini rivojlantirishda aniq belgilangan mezonlar to'plami qayd etilgan:

Talabalarning nutqi mazmunli bo'lishi kerak. Hikoya yoki insho faqat o'quvchilarga tanish bo'lgan faktlar, ularning kuzatuvlari, hayotiy tajribalari va adabiyot, tasvirlar, radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlardan olingan ma'lumotlarga asoslangan taqdiridagina ahamiyatli bo'ladi. Talabalarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari hisobga olinadi. 2. Nutqning oqilona ekanligiga ishonch hosil qiling. Talabalarning nutqi mantiqan to'g'ri, izchil, yaxshi qo'llab-quvvatlangan, asosiy mavzularida keng qamrovli bo'lishi va ahamiyatsiz takrorlanishlar va ortiqcha mazmundan xoli bo'lishi kerak. Nutqning izchilligi mavzu va tegishli voqealarni to'liq tushunishga bog'liq, mantiqiy xato esa materialda aniqlik yo'qligi va mavzuni noto'g'ri tanlashdan kelib chiqadi. Bu ikki mezon nutqning mazmuni va tashkil etilishiga tegishli. Nutqning grammatik tuzilishi haqida boshqa shartlar ham mavjud. 3. Nutqning aniq ifodalanganligiga ishonch hosil qiling. Talaba o'z faktlarini, idroklarini va taassurotlarini aniq ifodalashni o'rganishi kerak, shu bilan birga samarali ifoda etish uchun yorqin tasvirlar va optimal til vositalaridan (so'zlar, iboralar, jumalar) foydalanishi kerak. 4. Nutq til resurslariga boy bo'lishiga ishonch hosil qiling. Talabaning nutqi

lingvistik jihatdan murakkab bo'lishi kerak, bu har qanday kontekstda eng mos sinonimlarni tanlash va turli xil jumla tuzilmalarini tuzish qobiliyatini namoyish etishi kerak. Boshlang'ich maktab o'quvchilariga qat'iy til bilimi talablarini qo'yish amaliy bo'lmasa-da, o'qituvchilar o'quv faoliyatida so'z boyligini oshirishga doimiy ravishda ustuvor ahamiyat berishlari kerak. 5. Nutq tushunarli bo'lishi kerak. 6. Nutqning aniq ifodalanganligiga ishonch hosil qiling. Jonli va ishonarli bo'lgan ifodali nutq tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir qiladi. Agar og'zaki muloqot tinglovchiga intonatsiya orqali ta'sir qilsa, og'zaki va yozma muloqot tinglovchi va o'quvchiga hikoyaning umumiy mohiyati, argumentlar, tanlangan lug'at, hissiy rezonans va jumlar hamda iboralarning tashkil etilishi orqali ta'sir qiladi. Nutq aniq va ravshan bo'lishi, dialekt va ortiqcha tildan xoli bo'lishi kerak.

O'qish darslari, tegishli kuzatishlar va ekskursiyalar bilan birgalikda, bolalarga tabiiy hodisalar, inson tajribalari va kasblari, axloqiy tamoyillar va shaxslararo o'zaro ta'sirlar haqida bilim beradi. Ular tovush, harf, bo'g'in, so'z, ildiz, qo'shimcha, so'z guruhi, ot, sifat, fe'l, son, ravish, bog'lovchi, gap, gap komponenti, ravish gap, so'roq gap va undov gap kabi turli xil yangi tushunchalardan tashqari, narsalar, harakat va belgilarni bildiruvchi ko'plab atamalarini o'zlashtiradilar. Boshlang'ich sinfnining qo'shimcha mashg'ulotlarida bolalarning so'z boyligi turli xil atamalar yordamida yanada boyitiladi. Ushbu darslarda bilim olish va tushunchalarni shakllantirishni osonlashtirish uchun kuzatish va turli xil vizual vositalardan foydalaniladi. Matematika darslarida bolalar yangi g'oyalar va tushunchalar bilan so'z boyligini boyitadi, ko'plab so'zlar va atamalarini o'zlashtiradi va sodda va qo'shma gaplar tuzishni o'rganadi: 5 soni 3 sonidan katta ($5 > 3$) yoki 3 soni 5 sonidan past ($3 < 5$); agar biz bir o'nlikka ikkita o'nlik va 5 birlikni qo'shsak, uchta o'nlik va 5 birlikni olamiz ($10 + 25 = 35$) va boshqalar. Muammolarni yechish orqali bolalar ilgari ishlatilgan atamalarining yangi talqinlarini, masalan, bo'ladi, davom etadi, qilingan va teng; ular shuningdek, ... bilamiz, qiyinchilik so'rashda kabi iboralarni qo'llashni o'rganadilar. Matematika darslari o'quvchilarning aniq ifodasini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Ularga muammoni hal qilishda har tomonlama javob berish, terminologiyadan aniq foydalanish va qoidalarini o'z mahoratiga mos ravishda aniq ifodalash o'rgatiladi. Bular o'quvchilarning og'zaki ifodasini yaxshilash va rag'batlantirish usuli bo'lib xizmat qiladi. U yoshlarga tilga nisbatan sezgirlikni tarbiyalash bilan birga ifodali nutq so'zlashni, benuqson va estetik jihatdan yozishni o'rgatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (METHODS)

Ushbu maqoladagi tadqiqot pedagogika, psixologiya va tilshunoslikning asosiy tushunchalariga asoslangan. Tadqiqot jarayonida ilmiy materiallarni tahlil qilish, taqqoslash, analitik umumlashtirish va tizimlashtirish usullari qo'llanilgan. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining nutqini rivojlantirish bo'yicha ilmiy nuqtai nazarlarni o'rganish va umumlashtirish uchun adabiyotlarni tahlil qilish yondashuvi qo'llanilgan. Turli olimlarning metodologiyalari o'rtaidagi umumiylik va farqlarni aniqlash uchun qiyosiy tahlil o'tkazildi. Tizimli metodologiya bizga nutqni rivojlantirish jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida tushunish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSION)

Adabiyotlarni ko'rib chiqish natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich maktab o'quvchilarida nutqni rivojlantirish ilmiy va nazariy nuqtai nazardan bir nechta asosiy yo'nalishlarga asoslangan. Dastlab, nutqni rivojlantirish shaxsiy o'sishning asosiy komponenti sifatida qaraladi. Ko'pgina olimlar nutqni bolaning kognitiv jarayonlari va fikrlash shakllari bilan tubdan bog'liq deb bilishadi. Bu usul nutqni rivojlantirish faqat til mashqlari bilan cheklanib qolmasligini ko'rsatadi; u umumiy ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, nutqni rivojlantirishda didaktik tushunchalarning ahamiyati ta'kidlanadi. Izchillik, tizimlilik, ongli o'zlashtirish va faollik tushunchalari nutq faoliyatini samarali rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ilmiy asoslangan metodologiya nutqni rivojlantirish jarayonining samaradorligini kafolatlaydi va o'quvchilarning nutq qobiliyatini shakllantirishga hissa qo'shadi.

XULOSA (CONCLUSION)

Boshlang'ich maktab o'quvchilarida nutqni rivojlantirish ilmiy va kontseptual jihatdan keng qamrovli fan bo'lib, ta'lim, psixologiya va tilshunoslikning uyg'unligiga asoslangan. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining nutqni rivojlantirish psixologiya, pedagogika va tilshunoslik fanlari bilan

tubdan va nazariy jihatdan bog‘liqdir. Nutqni rivojlantirishda yoshga bog‘liq xususiyatlarni, nutq talablarini va o‘quv mazmunining izchilligini hisobga olish muhimdir. Ilmiy asoslangan metodologiyalar va texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning nutq qobiliyatini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashlarini oshiradi va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva, M. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi. – Toshkent: Fan va ta‘lim, 2021. – 45–52-betlar.
2. Asqarova, O. Boshlang‘ich sinflarda nutq o‘stirish metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 33–40-betlar.
3. G‘aniyeva, D. Bolalar nutqining psixologik asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 61–68-betlar.
4. Hasanova, N. Ta‘lim jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirish. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 74–80-betlar.
5. Ismoilov, R. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 90–96-betlar.
6. Karimova, Z. Nutq va tafakkur rivoji muammolari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 55–60-betlar.
7. Qodirov, B. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limi nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 102–108-betlar.
8. Rahmonova, L. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish yo‘llari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 41–47-betlar.
9. Rustamova, S. Yozma nutqni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021. – 66–72-betlar.
10. Saidova, M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot madaniyati. – Toshkent: Akademiya, 2023. – 58–64-betlar.

O‘ZBEK TILINING ZAMONAVIY TARAQQIYOTIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

*Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti
23-11 guruh 3-kurs talabasi
Ismatova Xursanoy Abdinazar qizi
Ismatovaxursanoy19@gmail.com
+998931219108*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash jarayonida yuzaga kelayotgan lingvistik, ijtimoiy va texnik muammolar keng ko‘lamda tahlil qilinadi. Xususan, lotin alifbosiga o‘tishning grafik muammolari, terminologiya va neologizmlarni tartibga solish, tilning raqamli muhitdagi o‘rni (NLP texnologiyalari) hamda milliy korpus yaratish masalalari ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Maqolada tilshunoslikdagi zamonaviy metodlar yordamida muammolarning yechimlari taklif etiladi.

Abstract: This article analyzes the linguistic, social, and technical problems arising in the process of strengthening the status of the Uzbek language as a state language on a large scale. In particular, the graphic problems of switching to the Latin alphabet, the regulation of terminology and neologisms, the role of the language in the digital environment (NLP technologies), and the issues of creating a national corpus are highlighted

on a scientific basis. In the article, solutions to problems are proposed using modern methods in linguistics.

Kalit so‘zlar: Davlat tili, milliy o‘zlik, lotin alifbosi, terminologiya, raqamli tilshunoslik, korpus lingvistikasi, neologizmlar, lingvistik ekspertiza, NLP.

TIL TARAQQIYOTINING EKSTRALINGVISTIK VA INTRALINGVISTIK OMILLARI

Har qanday tilning taraqqiyoti ikki xil omilga bog‘liq: ekstralingvistik (ijtimoiy-siyosiy vaziyat) va intralingvistik (tilning ichki qonuniyatlari). O‘zbek tili 1989-yilda davlat tili maqomini olganidan buyon katta o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Biroq, XXI asrning shiddatli globallashuv jarayoni tilning imkoniyatlarini yangidan qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi oldida turgan eng katta vazifa — tilni faqat muloqot vositasi emas, balki fan, texnika va raqamli iqtisodiyot tiliga aylantirishdir. Bu jarayonda uchrayotgan to‘siqlar nafaqat lingvistik, balki milliy xavfsizlik va ma’naviy yaxlitlik masalasidir.

ALIFBO VA IMLO MUAMMOLARI: GRAFIK TAKOMILLASHUV ZARURIYATI

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng lotin yozuviga asoslangan alifboga o‘tish haqida qaror qabul qilingan edi. Biroq, oradan chorak asrdan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, imlo va grafik tizimda muammolar saqlanib qolmoqda.

Grafik simvollar va klaviatura muammosi

Hozirgi alifbomizdagi o‘, g‘, sh, ch harflarining yozilish shakli xalqaro standartlardan (ASCII) birmuncha uzoq. Bu holat kompyuter texnologiyalarida kodlash (encoding) va qidiruv tizimlarida (SEO) jiddiy qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

Ilmiy asos: Lingvistik iqtisodlik (economy of effort) tamoyiliga ko‘ra, yozuv tizimi imkon qadar sodda va bir tovushga bir harf (monografik) tamoyiliga asoslanishi kerak. Digraflarning (sh, ch) ko‘pligi o‘qish va yozish tezligini 15-20% ga kamaytirishi ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan.

Savodxonlik darajasining tushishi

Ikki xil alifboning (kirill va lotin) parallel qo‘llanishi "funktional savodsizlik"ni keltirib chiqardi. Yosh avlod lotincha o‘qisada, katta avlod va ilmiy merosimizning katta qismi kirill yozuvida qolmoqda. Bu esa ilmiy uzviylikning buzilishiga olib kelmoqda.

TERMINOLOGIYA VA NEOLOGIZMLARNI TARTIBGA SOLISH

Globallashuv o‘zbek tiliga chet tillaridan (asosan ingliz va rus tillari orqali) terminlar oqimini kuchaytirdi.

Terminologik xaos

Iqtisodiyot, IT, tibbiyot va huquq sohalarida har kuni yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Masalan: blockchain, artificial intelligence, content creator. Ushbu so‘zlarning o‘zbekcha muqobillarini yaratishda yagona markazlashgan tizim mavjud emas.

Muammo: Ba’zi terminlar arab va fors tillaridan olingan eskirgan soʻzlar bilan almashtirilmoqda (arxaizatsiya), boshqalari esa shunchaki kalka (toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima) qilinmoqda.

Yechim: "Terminologik monitoring" tizimini yoʻlga qoʻyish va xalqaro terminlarni oʻzbek tili fonetikasiga moslab qabul qilish (internatsionalizatsiya).

KORPUS LINGVISTIKASI VA RAQAMLI TARAQQIYOT

Zamonaviy tilda "agar til internetda yoʻq boʻlsa, u oʻlik til hisoblanadi" degan qarash mavjud. Oʻzbek tilining raqamli dunyodagi ulushi hali ham past.

Oʻzbek tili milliy korpusi

Milliy korpus — bu tilning barcha lugʻat boyligi, badiiy, ilmiy va publitsistik matnlarining ulkan elektron bazasidir.

Ilmiy ehtiyoj: Korpus yaratilmaguncha, biz tilning statistik oʻzgarishlarini, soʻzlarning qoʻllanilish chastotasini aniqlay olmaymiz. Google Translate yoki Yandex tarjimonlarining oʻzbekcha tarjimalari xatoliklarining asosiy sababi ham korpusning yetarli emasligidir.

NLP (Natural Language Processing): Oʻzbek tili uchun nutqni matnga aylantirish (Speech-to-Text) va matnni nutqqa aylantirish texnologiyalarini yaratish ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishi boʻlishi shart.

NUTQ MADANIYATI VA IJTIOIY TARMOQLAR TA’SIRI

Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, TikTok) oʻzbek tili uchun oʻziga xos "tajriba maydoni"ga aylandi. Bu yerda tilning buzilishi, jargonlar va "aralash til" (pajin tili) keng tarqalmoqda.

Pajin tili (Code-switching): Nutqda oʻzbek va rus yoki ingliz soʻzlarini aralashtirib gapirish ijtimoiy norma darajasiga chiqmoqda. Bu tilning grammatik qurilishiga putur yetkazadi.

Lingvistik ekspertiza: Reklama, eʼlonlar va ijtimoiy tarmoqlardagi kontent uchun qatʼiy lingvistik standartlar va ekspertiza nazoratini kuchaytirish lozim.

Oʻzbek tilining taraqqiyotini ilmiy asosda taʼminlash uchun quyidagi strategik qadamlarni amalga oshirish lozim:

Alifbo islohoti: Lotin yozuvidagi muammoli harflarni (oʻ, gʻ, sh, ch) bir belgili (diakritik belgili) shaklga oʻtkazish va buni qatʼiy yakunlash.

Raqamlashtirish: Oʻzbek tili milliy korpusini toʻliq shakllantirish va sunʼiy intellekt tizimlariga oʻzbek tili algoritmlarini integratsiya qilish.

Terminologik standart: Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Atamalar komissiyasi faoliyatini jonlantirish va sohalar boʻyicha dinamik elektron lugʻatlar yaratish.

Til siyosati: Davlat idoralari, tadbirkorlik va ilmiy faoliyatda davlat tilining qoʻllanilishini nazorat qiluvchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni, 21-oktabr, 2019.
2. Mahmudov N. "O‘zbek tili taraqqiyoti: kecha va bugun". — Toshkent: Akademya, 2015.
3. Mengliyev B. "Lingvistik texnologiyalar va korpus lingvistikasi". — Toshkent, 2021.
4. Sayfullayeva R. "Hozirgi o‘zbek adabiy tili". — Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
5. Crystal, D. "Language Death". — Cambridge University Press, 2000. (Tilning yo‘qolishi va saqlanishi haqida nazariy asoslar).
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. — Toshkent: O‘zME, 2006-2008.

NOMUTANOSIBLIKNING TIL SATHLARI BILAN ALOQADORLIGI VA XUSUSIYATLARI

Aslanova Ozoda Ibrohimovna, katta o‘qituvchi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
o.aslanova83@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida morfologik shakllar nomutanosibligining tilshunoslik bo‘limlari va til sathlari bilan o‘zaro aloqadorligi tahlil qilinadi. Nomutanosiblikning morfemika, leksikologiya, semasiologiya hamda so‘z yasalihi bilan bog‘liq jihatlari misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, shakl, ma’no, vazifa, vaziyat, mavhumlik va belgilar asosidagi nomutanosiblik xususiyatlari izohlanadi. Tadqiqotda til taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan soddalashuv, qayta bo‘linish va murakkablashuv hodisalari morfologik birliklar tarkibidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: nomutanosiblik, morfologiya, morfemika, leksikologiya, so‘z yasalihi, shakl va ma’no munosabati, til sathlari, morfologik shakl, semasiologiya

O‘zbek tilida morfologik shakllar nomutanosibligining tilshunoslik bo‘limlari va til sathlari bilan aloqadorligi har doim kuzatiladi. Chunki har bir tilda bo‘lgani kabi o‘zbek tilida ham har bir sath boshqa bir sath yoki tilshunoslikning bo‘limlariga aloqador tarzda ifodalanadi, o‘rganiladi. Leksikologiyaning morfologiyaga, sintaksisga aloqasi bo‘lgani singari, morfologiyaning ham so‘z tarkibiga ko‘ra morfemikaga, asos va yasovchilar bilan yonma-yon tarzda so‘z yasalihi, so‘zlarning ma’nolari bo‘yicha leksikologiyaga, semasiologiyaga, grammatik ma’nolarning ifodalanishiga ko‘ra sintaksisga har doim aloqasi mavjud. Bu aloqalar o‘ziga xos xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. Biz bo‘lim yuzasidan nomutanosiblikning tilning boshqa sathlariga aloqadorligini tekshirib ko‘rmoqchimiz.

Nomutanosiblikning morfemika bilan aloqasi. Morfemalar xususida so‘z borganda ularning sinxron hamda diaxron tomonlarini aralashtirib yuborilmaslik kerak. Tilda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar so‘zning tarkibiga ham o‘z ta’sirini, albatta, o‘tkazadi, natijada, u ham

asta-sekin o‘zgarib boradi. Bunday o‘zgarishlar bir qarashda sezilmaydi, faqat kuzatishlar jarayonida aniqlanadi. Tilshunoslik tarixidan ma’lumki, so‘z tarkibi uch (ayrim manbalarda ikki) yo‘l bilan o‘zgaradi. Bular: “soddalashuv, qayta tuzilish, murakkablashuv”⁸³ yoki “soddalashuv, qayta bo‘linish, murakkablashuv”⁸⁴ deb nomlanadi.

So‘z tarkibi haqida fikr yuritganda asos va qo‘shimchalarni ajratishning o‘zi kamlik qiladi, ularning kelib chiqishi, o‘zgarishi, qotib qolishi, singishi, qayta bo‘linishi, bo‘linish chegarasi, qo‘shilishi yoki ajralishi kabi holatlarni nazarda tutish kerak bo‘ladi. So‘z tarkibida o‘zgarish sodir bo‘lar ekan, albatta, bu o‘zgarish avvalgisiga nisbatan nomutanosibdir. Bu haqda A.G‘ulomovning “O‘zbek tili qo‘shimchalari tizimida yondosh hodisalar”⁸⁵ asarida batafsil ma’lumot berilgan.

Mening, sening olmoshlari tarkibidagi kelishik shakli (*men+ning, sen+ning*) qo‘shilishi bilan asos tarkibida o‘zgarish sodir bo‘lmoqda. Binobarin, *men* va *sen* shaklidagi *-n* fonemasi kelishik shaklining tarkibiga o‘tib ketgan. Yoki *men, sen* morfemalariga qaratqich kelishigi affiksi *-ning* birligining *-ing* varianti qo‘shilgan bo‘lishi aniqroqdir. Chunki uning *-im* varianti ham bor (*manim* kabi) (Buni yuqorida tejash tamoyili va nomutanosiblikni yuzaga chiqishi xususida yozganimizda batavsil qayd etganmiz).

“So‘z morfologik strukturasi haqida dastlabki bo‘linish chegarasining o‘zgarishi: *uniki* so‘zi aslida *u(l)* olmoshi, *-ing* qaratqich kelishigi ko‘rsatkichi va tegishlilikni ifodalovchi *-ki* affiksidan iborat bo‘lgan. Hozirda esa u ikki komponentdan iborat: *u + -niki*”⁸⁶. Aslida, *ulning*ning qisqargan shakli hisoblanadi. Bu holat olmoshga nisbatan ham, qaratqich shakliga nisbatan ham nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda. Chunki asos va qaratqich shaklining tarkibida o‘zgarish sodir bo‘lib, asl mohiyatini saqlagan holda (maxsus tekshirish orqali tiklash mumkin) tashqi tomondan qisqarishga uchragan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bunday birliklarning tarkibi hozir o‘zlarining lug‘aviy ma’nolarini yo‘qotgan. Endi ularni shu so‘zlar tarkibi nuqtayi nazaridan lug‘aviy qiymatga ega morfema deb bo‘lmaydi, chunki so‘zlar tarkibida soddalashish yuz bergan. Bunday shakllarning hosil bo‘lish jarayoni til taraqqiyotidagi murakkablashuv, qayta bo‘linish, soddalashuv singari omillar ta’sirida yuzaga keladi va ular morfem birliklar doirasida o‘ziga xos o‘rin egallaydi va turli xilda nomutanosibliklarni ko‘rsatadi.

Nomutanosiblikning leksikologiya va so‘z yasalihi bilan aloqadorligi.
Nomutanosiblikning leksikologiya va so‘z yasalihi bo‘limlari hamda sathlari bilan aloqador


⁸³ Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari, –Toshkent, 2007. –B.135.

⁸⁴ Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 1981. –Б. 129.

⁸⁵ Гулямов А. Г. О сопутствующих явлениях при аффиксации в узбекском языке /1 Научные труды ТашГУ, вып. –Ташкент, 1963. –С. 211.

⁸⁶ Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент, 1985. –Б. 57.


bo‘lgan xususiyatlaridan biri shaklga nisbatan nomutanosiblikdir. Shaklga nisbatan nomutanosiblik har bir sohada, fanda mavjud. Uning borligi, ma’lum shakldagina ifodalanadi. Shaklga yuklangan mazmun uning turli belgilarini ko‘rsatadi. Bizningcha, nomutanosiblik dastlab shaklda paydo bo‘ladi, keyin esa mazmunda rivojlanadi. Leksik sath jihatdan nomutanosiblikni turli xil ko‘rinishlarda ifodalash mumkin. Leksik jihatdan so‘zlar shakl va mazmun munosabatida turli ko‘rinishlarga ega. Jumladan, yasama so‘zlarda ham. Shakl jihatidan nomutanosiblikka ega bo‘lish ma’lum bir shaklda namoyon bo‘ladi. Bu holat leksemalarda ham so‘z va shakl yasovchi morfemalarda ham namoyon bo‘ladi (3.1-rasm).



1.1-rasm. Nomutanosiblikning leksema, so‘z va shakl yasovchi morfemalarda ifodalanishi.


Ma’noga nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Ongda anglangan ma’noning turli variantlari, bunda tushuncha ongda boshqa ma’nolar bilan boyiydi: *idrok, fikr, tafakkur*; *-siz, no-, be-; -moq, -ish, -uv*. Bu ma’nolarning ko‘rinish (vizual) jihati hamda tushunish (virtual) jihatidan ham taqsimlash mumkin:

- yozuvdagi belgining ongda turli ma’nolar bilan gavdalanishi:



mohirlik...

– tilshunoslikdagi bir terminning ma’no ifodalash xususiyati yoki shu termin anglatayotgan ma’no qamrovidagi tushunish, sema maydonining ongda gavdalanishi:



Vazifaga nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Bunda bir tushuncha mavjud bo‘ladi va tushuncha doirasida boshqa tushunchalar shakllanadi. Anglash maydoni (aurasi) bir shaklning vazifasiga qarab belgilanadi:

<i>chizish</i> –	daftarga ruchka yordamida <i>chizish</i> :	yozish;
–	qalam bilan varaqqa rasm <i>chizish</i> :	chizish;
–	qo‘shnilar bilan chegarani <i>chizish</i> :	belgilash;
–	xayolda sog‘inch obrazini <i>chizish</i> :	yaratish;
–	quyonning rasmini <i>chizish</i> (ibora):	<i>qochish</i> ...

Vazifasiga nisbatan nomutanosiblik holati ongning o‘zidagini emas, bir shakl doirasidagi tasavvurlarni ham shakllantiradi: *qora mol* – *sigir*, *buqa*, *ho‘kiz*, *tana*, *buzoq*... (bu tushunchalar jinslar o‘rtasigagi tafovutni ham shakllantirishi mumkin: *sigir*, *qochar*; *ho‘kiz*, *buqa*). Bu birliklar tashqi tomondan turli shakllar hisoblansa-da, mazmun tomoni umumlashib ketadi yoki aksincha bo‘lishi mumkin. Biz *buqa* yoki *sigir* haqida gapirsak ham, ongda *qora mol* haqida tafakkur yuritilaveriladi, binobarin, bu so‘zlarni tushunishda boshqa hayvon yoki mavjudot haqida tasavvur qilib bo‘lmaydi (*buqa*, *sigir* deganimizda, *echki* yoki *chigirtka* haqida tasavvur bo‘lmaydi).

Vaziyatga nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Fikr yoki tushunchani ayni vaziyatga qarab anglash, tushunish nazarda tutiladi. Ya’ni bir belgi ayni vaziyatda boshqa ma’no ifodalaydi. Bu

holat ma’no ko‘chishida yaqqol seziladi: *asal – asal bola, shirin asal; -cha – yigitcha* (qanday?) *yigitcha* (kim?); *borasan – borasan-a borasan*, vaziyatga qarab inkor ma’nosida ham qo‘llanadi (*bormaysan* mazmunida). Tasdiq shakli orqali inkor mazmunini hosil qilinishidagi nomutanosiblik yuzaga chiqmoqda.

Shuningdek, vazifaga nisbatan ishlatilgan *qora mol* tushunchasi vaziyatga nisbatan ham nomutanosib bo‘lishi kuzatiladi. Bu yerda qora mol tipidagi yana boshqa tushunchalar borki, buni nutq momentida anglash mumkin, bunda so‘zning vazifasi o‘zgaradi: qora mollar – taqiqlangan ashyo, sigir – (og‘zaki nutqda) qizlar uchun “saxiy yigit”, buqa – (og‘zaki nutqda) jismoniy baquvvat yigit. Demak, anglashilmoqdaki, asli “hayvon” ma’nosini beruvchi bu so‘zlar nutq vaziyatida boshqa ma’nolarda ham ishlatiladi va o‘sha vaziyatga nisbatan asl so‘z nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Mavhumlikka (noaniqlikka) nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Bunda tushuncha tushunarsiz bo‘ladi. Lisonda ma’no ifodalamasligi mumkin, sababi bu shakl haqida tafakkurda hech bir ma’no ifodalanmaydi. Mavhumlikka nisbatan nomutanosiblikni tildagi ko‘makchilar va bog‘lovchilar yuzaga keltiradi. Shuningdek, yangi paydo bo‘lgan leksik yoki sintaktik shakllar (so‘zlar) dastlabki tushunish vaqtiga nisbatan ham nomutanosib bo‘ladi. Ma’no anglab yetilgunicha ongdagi mavhumlik, tushunmaslik holati bilan bog‘liq bo‘ladi: *kovid* – korona virus (garchi fanda ma’lum bo‘lsa-da, 2019-yilgacha insonlar jamoasi uchun noaniq tushuncha bo‘lgan); *bilan, va, uchun* – ma’nolari mavhum.

Belgilarga nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Bunday nomutanosiblik turli belgilarga nisbatan shakllanadi. Nomutanosiblikning bunday xususiyati grafika bo‘limiga ham aloqador bo‘lib, mavjud belgilarning ekvivalenti paydo bo‘ladi va bu ikkinchi variant ham aynan bir ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Turli yozuvlar doirasida boshqa belgilar bilan ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari, –Toshkent, 2007.
- Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 1981.
- Гулямов А. Г. О сопутствующих явлениях при аффиксации в узбекском языке /1 Научные труды ТашГУ, вып. –Ташкент, 1963.
- Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент, 1985.

MORPHOLOGICAL DISPROPORTION IN THE UZBEK LANGUAGE AND ITS RELATION TO ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

Aslanova Ozoda Ibrokhimovna, senior teacher
Farangiz , student of group 5-25 AI.

Islamova
Navoi state university
of mining and technologies o.aslanova83@gmail.com

Abstract: This article examines the phenomenon of morphological disproportion in the Uzbek language and its relationship with different branches and levels of linguistics, including morphemics, lexicology, semantics, and word formation. The study also analyzes how disproportion appears through form, meaning, function, context, ambiguity, and symbolic representation. In addition, the paper connects these linguistic processes with modern Artificial Intelligence (AI) technologies, especially natural language processing, machine translation, speech recognition, and computational linguistics. The research demonstrates that morphological disproportion creates both challenges and opportunities for AI systems working with the Uzbek language.

Keywords: morphological disproportion, morphology, morphemics, lexicology, artificial intelligence, natural language processing, computational linguistics, semantics, language technologies.

Every language possesses its own structural system and internal relationships between linguistic levels. In the Uzbek language, morphology is closely connected with lexicology, syntax, semantics, and word formation. Morphological forms often undergo structural and semantic changes during historical development. These changes may create disproportion between form and meaning, function and expression, or structure and interpretation.

Morphological disproportion is one of the important linguistic phenomena observed in Uzbek linguistics. It appears when linguistic units lose their original structural balance or develop new grammatical and semantic functions. Such disproportion can be seen in morphemes, lexical units, grammatical forms, and contextual meanings.

Today, the rapid development of Artificial Intelligence technologies has increased the importance of studying linguistic structures deeply. AI-based systems such as machine translation, speech recognition, chatbots, intelligent assistants, and text analysis software require accurate understanding of morphological structures. Therefore, investigating morphological disproportion in the Uzbek language is highly important for computational linguistics and AI applications.

This article studies the linguistic nature of morphological disproportion and explains its relevance to Artificial Intelligence technologies.

Morphological disproportion is strongly connected with morphemics. Morphemes are the smallest meaningful units of language, and their historical development often changes the structure of words. Linguistic studies show that word structures change through simplification, reanalysis, and complication.

For example, in Uzbek pronouns such as *mening* and *sening*, the boundary between the root and suffix changes over time. Historically, the structure of these forms demonstrates phonetic and grammatical transformation. Such changes create disproportion between the original and modern forms of words.

Another example is the word *uniki*. Historically, it originated from a more complex structure, but today speakers perceive it as a simpler grammatical unit. This demonstrates how linguistic evolution changes morphemic boundaries and creates disproportion within language systems.

From the perspective of Artificial Intelligence, such morphological changes create difficulties for automatic text analysis. AI systems must correctly identify roots, affixes, and grammatical meanings. Morphological disproportion may confuse machine-learning models because one form can contain several historical or grammatical interpretations.

For this reason, computational linguistics requires advanced morphological analyzers capable of understanding historical and contextual variations in Uzbek morphology.

Morphological disproportion is also related to lexicology and word formation. Words may demonstrate disproportion between form and meaning. In many cases, one lexical form may express multiple semantic meanings depending on context.

For instance, the Uzbek word *qo‘y* may represent an animal or indicate the meaning of “to place” in another grammatical context. Similarly, suffixes such as *-chi* and *-lar* may express different semantic and stylistic functions.

This phenomenon is especially important for Artificial Intelligence systems. Natural Language Processing (NLP) technologies must distinguish between lexical meanings according to context. AI systems working with Uzbek texts need semantic recognition mechanisms capable of identifying polysemy and contextual meaning shifts. Machine translation systems often face difficulties when translating morphologically disproportionate words. A word with several meanings may be translated incorrectly if contextual information is not analyzed properly. Therefore, lexical disproportion becomes a significant challenge for AI-based translation technologies.

Modern neural networks partially solve this issue by analyzing contextual patterns. However, languages with rich morphology like Uzbek still require deeper linguistic modeling. Functional disproportion appears when one linguistic form performs several grammatical or semantic functions. For example, the Uzbek verb *chizmoq* may express different meanings according to context:

- drawing a picture,
- marking a border,
- creating an image mentally,
- escaping metaphorically.

Similarly, the expression *qora mol* may refer generally to cattle, but in colloquial speech it may acquire figurative meanings depending on social context.

Contextual disproportion becomes especially visible in spoken language. One grammatical form may express affirmation, negation, irony, or emotional emphasis according to intonation and communication conditions.

For Artificial Intelligence technologies, contextual disproportion is one of the most difficult linguistic problems. Chatbots and intelligent assistants must understand contextual meaning rather than only grammatical structure. AI systems should analyze discourse, pragmatic meaning, emotional tone, and situational context.

For example, sentiment analysis systems may misunderstand irony or figurative expressions if contextual disproportion is ignored. Therefore, contextual modeling remains a central task in AI linguistics.

Another important type of disproportion is semantic ambiguity. Some linguistic units appear unclear or abstract until contextual interpretation clarifies their meaning.

Conjunctions, particles, and auxiliary words frequently demonstrate ambiguous meanings. Newly introduced lexical units also remain semantically vague during early stages of usage. For example, before the COVID-19 pandemic, the term *covid* was unfamiliar to many language users.

Semantic ambiguity creates major challenges for Artificial Intelligence systems. AI models require large datasets and semantic networks to identify the correct interpretation of ambiguous words.

In Uzbek language technologies, ambiguity resolution is particularly important because many grammatical markers possess multifunctional meanings. AI systems must determine whether a suffix expresses plurality, politeness, grammatical agreement, or stylistic emphasis. Deep learning models improve ambiguity resolution by analyzing large contextual datasets. Nevertheless, linguistic expertise remains necessary for creating accurate Uzbek NLP systems.

Computational linguistics combines linguistic theory with computer science. Uzbek morphology presents unique difficulties because the language is agglutinative and highly productive morphologically.

Morphological disproportion influences:

- machine translation,
- automatic speech recognition,
- text generation,
- voice assistants,
- search engines,
- educational AI systems.

For example, speech recognition software may incorrectly identify grammatical forms if disproportion between pronunciation and spelling exists. Similarly, AI-generated texts may contain grammatical inaccuracies when morphological patterns are not fully learned.

To solve these problems, researchers develop:

- morphological parsers,
- semantic analyzers,
- context-sensitive algorithms,
- neural language models.

Artificial Intelligence systems trained specifically on Uzbek linguistic data can gradually improve their understanding of morphological disproportion.

The development of Artificial Intelligence opens new opportunities for Uzbek linguistics. Digital corpora, machine learning technologies, and neural networks help researchers analyze large linguistic datasets more effectively. AI technologies may contribute to:

- preservation of linguistic heritage,
- automatic grammar correction,
- intelligent dictionaries,
- educational applications,
- automated translation systems,
- speech synthesis and recognition.

At the same time, linguistic research helps improve AI quality. Accurate morphological analysis allows intelligent systems to process Uzbek language more naturally and effectively.

The cooperation between linguistics and Artificial Intelligence therefore becomes increasingly important. Studying morphological disproportion not only enriches theoretical linguistics but also supports technological innovation.

Morphological disproportion is a complex linguistic phenomenon connected with morphemics, lexicology, semantics, syntax, and word formation in the Uzbek language. It appears through changes in form, meaning, function, context, ambiguity, and symbolic representation.

This phenomenon plays an important role in Artificial Intelligence and computational linguistics because AI systems require accurate understanding of linguistic structures. Morphological disproportion creates difficulties for machine translation, speech recognition, semantic analysis, and NLP technologies.

Therefore, integrating linguistic research with Artificial Intelligence technologies is essential for the future development of Uzbek digital language resources. Further interdisciplinary research will help improve both theoretical linguistics and intelligent language systems.

References:

1. G‘ulomov, A. *O‘zbek tili qo‘shimchalari tizimida yondosh hodisalar.*
2. Nurmonov, A. *O‘zbek tilshunosligi nazariyasi.*
3. Crystal, David. *Linguistics.*
4. Jurafsky, Daniel & Martin, James. *Speech and Language Processing.*
5. Manning, Christopher. *Foundations of Statistical Natural Language Processing.*
6. Chomsky, Noam. *Language and Mind.*

**ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БОБУРНИНГ “БОБУРНОМА” АСАРИ
ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА**

Ишанкулова Гулшан Равшановна, катта ўқитувчиси

Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети

gulshanishankulova72@gmail.com

Аннотация: Шоир ўз хотираларини бадий нақл услубида содда ва равон баён этади. Унда 1494 йилдан 1530 йилгача Ўрта Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистонда кечган воқеалар баён этилган. “Бобурнома” қўлёзмаларининг чиройли расмлар билан безатилиши ҳам таржиманинг шуҳрат қозонишига сабаб бўлган. “Бобурнома”нинг форсий нусхаларига ишланган миниатюралар Шарқ рассомлик санъатининг ажойиб намуналари ҳисобланади. Буюк шоҳ Бобур Ҳиндистонда темурийларга хос улуг бунёдкорлик анъаналарини давом эттирди.

Таянч сўзлар: “Бобурнома, шоҳ, бунёдкорлик, урф-одат, асар, жой номлари, фазилятлар, атамалар, маданият, этнограф, табиатшунос, тилшунос.

З.М.Бобурнинг тарихий фактларни шунчаки қайд этиш, жангу жадаллар, юришлар ҳақида хронологик ахборот бериш билангина кифояланмай, воқеаларни жонли тилда қизиқарли ҳикоя қилади, табиатни, этнографик ҳолатларни тасвирлайди, даврни, унинг хусусиятларини гавдалантиради. “Бобурнома”да ўнлаб тарихий шахсларнинг аниқ характерини яратади, табиат манзараларининг суратини чизади, китобни ҳар хил сюжетлар, ишқий саргузаштлар, шеърӣ парчалар билан безайди. Тилга олинган шахсларнинг шахсияти, ташқи кўринишини, феъл атворини, одатлари, ўтмиши, авлод-аждодини бирма бир таъриф этилади.

Асардаги марказий образ Бобурнинг ўзи, албатта. Унинг ҳис туйғуларига бой қалби кўз олдимизда ёрқин жонланади. Ўз замондошлари биографиясини, уларнинг қиёфалари, урф-одати, интилишлари, қизиқиш ва қилиқларини кўзгуда акс этгандек равшан тасвирлайди. Бу жиҳатдан “Бобурнома” Ўрта Осиёдаги ягона чинакам тарихий тасвир намунасидир” деб ёзади. Бобур Ўрта Осиё, Ҳуросон ва Ҳиндистон географияси, ҳайвонот ҳамда наботот олами тўғрисида бой маълумот берган. Хусусан, “Бобурнома”да ҳиндларнинг этнографияси, илму фани, санъат ва маданияти ҳақида қимматли фактлар бор. Даврнинг жуда кўп хусусиятларини қамраб олиши, қомусий характери ва ўзбек адабий тилининг беқиёс бой имкониятларини намойиш этиши билан “Бобурнома” Алишер Навоийнинг “Ҳамса”сига қиёс қилгудек маданий обида ҳисобланади. Асарнинг тез орада шуҳрат қозониб, XVI асрнинг ўзидаёқ бир неча марта форс тилига таржима этилиши ҳам фикримизнинг исботидир.

“Бобурнома” форс тилига биринчи марта 1589 йилда шоирнинг невараси Акбаршоҳ саройида хизматда бўлган Абдурахимхон ибн Байрамхон томонидан таржима қилинган. Таржима кўп нусхада кўчирилиб, “Воқеоти Бобурий”, “Тарихи Бобуршоҳӣ” номлари остида Шарқ мамлакатларида кенг ёйилди. Абдурахимхон таржимада Бобурнинг ўзига хос баён тарзини бера олган, асар форс адабиёти ва тарихчилигида улкан янгилик сифатида қабул қилинган. Қамраб олинган тарихий воқеаларнинг рўйи-рост кўрсатилиши, илмий фактларга бойлиги билангина эмас, балки равон услуби, содда ва жозибадорлиги билан ҳам Бобур асари ўзидан кейин яратилган тарихий мемуарларга кучли таъсир кўрсатган.

Шарқнинг илғор зиёлилари туркий тилда (эски ўзбек тилида) яратилган адабиётнинг катта нуфузга эга. эканлигини кўриб илм аҳлини бу тилни ўрганишга даъват эта бошлайдилар. Навоий ва Бобурнинг ажойиб асарларини таржима қилиб, форсий забонларни баҳраманд этишни муҳим вазифа деб биладилар.

“Бобурнома” қўлёзмаларининг чиройли расмлар билан безатилиши ҳам таржиманинг шуҳрат қозонишига сабаб бўлган. Акбаршоҳ саройида 104 нафар рассом доимий иш олиб борган. Таржимон Абдурахимхоннинг ўзи ҳам расм чизиш билан шуғулланган. Акбар саройида ўнлаб китобларга расмлар чизилган. “Бобурнома”нинг форсий нусхаларига ишланган миниатюралари Шарқ рассомлик санъатининг ажойиб намуналари ҳисобланади.

XIX аср бошларига келиб, “Бобурнома” бутун Европа илм аҳлига маълум бўлган. Бобур меросининг жаҳоний шуҳратида, айниқса, инглиз шарқшуносларининг хизмати каттадир. Улар “Бобурнома”ни таржима қилиш ва нашр этишдагина эмас, балки тадқиқ ва тарғиб этиш борасида ҳам биринчиликни эгаллайдилар. Таржимонлар таржимага асарнинг ўзбекча ва форсча нусхаларини асос қилиб олдилар. У.Эрскин китобга каттагина муқаддима ёзган, унда Бобур ва унинг асарларини инглиз китобхонларига таништиради: “Биз Осиёдаги ҳукмдорлар ичида Бобур сингари гениал ва талантли кишиларни камдан кам учратамиз. Ақлининг равон фаолияти, хушчақчақ ва совуққонлиги, бевафо тақдирнинг найрангларига қарамай, руҳининг тетиклиги, подшолар орасида жуда кам учрайдиган саҳийлиги, мардлиги, истеъдодлилиги, фанга, санъатга муҳаббат ва улар билан фаол шуғулланиши жиҳатдан Осиё подшолари орасида Бобурга тенг келадигани йўқ”. 1921 йилда Оксфорд университети нашриёти томонидан кўп жилдли қилиб, иккинчи марта чоп этилди. Бу нашрда Дублин университетининг профессори Л.Кивт сўзбоши ёзиб, “Бобурнома” нашрлари, унинг жаҳон қўлёзма фондларидаги нусхалари, таржималари ҳақида маълумот беради, инглизча вариантни қайта таҳрирдан чиқаради.

Биринчи жилднинг ярмини ташкил этадиган илмий очеркида у Мовароуннаҳр ва Хуросон тарихи, географияси, Бобур тилга олган Самарқанд, Андижон, Ўратепа, Кобул ва бошқа шаҳарларнинг ҳозирги аҳволини кенг ёритган. Мазкур нашрнинг яна бир фазилати шундаки, таржиманинг илмий аниқлигини таъминлаш учун хошияларда кўп миқдорда изоҳ ва шарҳлар берилган, китобдаги шеърларнинг кимга тааллуқли эканлиги ва қайси тилда ёзилгани ҳам кўрсатилган.

Шунингдек, Бобур асарларининг Туркияда тарқалишига атоқли олим Рашид Раҳмат Оратнинг хизмати катта. Инглиз тилида Бобур ҳаёти ва ижодини ўрганишга бағишланган бир талай махсус монографиялар ҳам яратилган.

Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўлланадиган бир қатор сўзларнинг маънолари эски ўзбек тили давридаги маъноларидан фарқ қилади. Масалан, **Кўпор** - “турғиз”, “тикла”, “олиб ташла”, “қўзғамок”. Мазкур сўзнинг асоси бўлган кўп - қадимги туркий тилда “**кўтарилмоқ**”, “**учмоқ**” маъноларида қўлланган. Асарда қўлланган қишлоқ термини ҳозирдагидан фарқли ўлароқ, асл луғавий маъносида келган, яъни “**қишлайдиган уй, макон**” тушунчасини англатган: Бир кўрғонда қишлоқ солмоқ керак... Неча кун қишлоқи уйлар тайер бўлгунча ўлангда ўлтурулди. Қадимги туркий тилда: **Қишлағ** - “**қишланадиган жой**” тушунчасини англатган. Қишлоқ қиш отита - **ла** қўшимчасини қўшиб ясалган қишла феъ-лига ғ қўшимчасини қўшишдан ҳосил бўлган; “аҳолиси езда далаларга кетиб, қишда қайтиб “**келиб яшайдиган жой**” маъносини англатган. Ҳозирда аҳолиси, асосан, қишлоқ хўжалиги билан шуғулланадиган яшаш жойини билдиради.

Қишлоқ сўзининг **“қишлайдиган уй”** маъносида қўлланиши терминнинг эски ўзбек адабий тили давридаги нарса-объект номидан маъмурий-худудий терминга айланиш жараёни ҳақида тасаввур беради.

"Бобурнома" тилидаги бир қатор сўзлар архаизмга айланган. Бундай сўзлар табиатини қуйидаги мисоллар асосида изоҳлаш мумкин: илик архаик сўз бўлиб, **“қўл”** маъносини билдирган. Иликдан ясалган иликла феъли **“эгалламок”** маъносида келган. ...Беклар, йигитлар била илғор тайин қилдукким, бориб Ёр яйлоқ қўрғонларини сўз била ё зўр била иликлагайла... Чарга, жарга - **“доира”**, **“ҳалқа”**, **“ўров”** **“чаргаламок”**, **“айланмок”**. Алишанглик чарга қилиб, тоғдин кийикни индурдилар. Кўчма маънода ҳам қўлланган. Ўшал тақсир қилганни муча чаргасидин узатиб, вилоят ва парганасидин йиратқайбиз. **Муча – “амал, мансаб” бўлиб, муча чаргаси – “амал доираси”** тушунчасини ифода этади.

Шарқ халқлари тарихи билан шуғулланган яна бошқа инглиз ва америкалик олимлар Бобурнинг шахсий қобиляти ва фаолиятига юқори баҳо бериб ўтганлар. Замондошимиз атоқли шарқшунос олим Ж.Л. Бонте Граммон **“Бобурнома”**нинг француз тилидаги янги таржимасини яратди. У бир неча бор юртимизга келиб, ўзбек халқининг турмуш тарзи, тарихи билан яқиндан танишди. 1912 йилда Тоғай Мурод Қорлуқ Хатлоний уни яна бир марта форс тилига таржима қилди. Бу таржима қўлёзмаси Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланмоқда.

1944-1946 йилларда эса асар усмонли турк тилига таржима қилиниб, Анқарада икки жилда босилган. Россияда **“Бобурнома”** анча илгари пайдо бўлган эди. XIX аср охирларида **“Бобурнома”**дан айрим қисмлар И.Пантусов, С.Поляков, В.Вяткин таржимасида рус китобхонларига қисман тақдим этилган бўлсада, яхлит русча таржимаси амалга оширилмаган эди. Бу шарафли ва хайрли иш моҳир таржимон ва олим М.Салье томонидан бажарилди ва асар 1958 йили Тошкентда босмадан чиқарилди. М.Салье таржима устида ўн йилдан кўпроқ вақт меҳнат қилди, асар тилини чуқур ўрганди. Беҳад кўп атамалар, ибора ва номлар транскрипсиясини бериш, шунингдек, Бобур қаламининг **“мардона услубини”** сақлашга муваффақ бўлди. Шунга қарамай, М.Салье таржимасида ҳамон талай ноаниқликлар мавжуд. **“Бобурнома”** даги бир қанча номлар

нотўғри берилган. Чунончи, Аҳмад Мирзо севгилиси Қутлукбегим **“Катак бегим”** бўлиб кетган, **“буқаламун”**, **“муча”** каби баъзи сўз ва иборалар таржимасиз ва изоҳсиз келтирилгани сабабли рус китобхонига тушунарсиз бўлиб қолган. Таржима ва нашрлардаги нуқсонларнинг аксарияти асарнинг илмий танқидий матнига эҳтиёж борлигидан келиб чиққан.

Шунга ўхшаш талай ноаниқликларни бартараф этиш учун **“Бобурнома”**нинг энг эътиборли қўлёзма нусхаларини чоғиштириб, унинг илмий матнини тайёрлаш зарур эди. Ниҳоят, бу ишни япониялик бобуршунос олимлар амалга оширдилар. Асарнинг танқидий матни яратилиб, нашр этилди.

Кўриниб туринибдики, Мирзо Бобурнинг ҳаёти ва ижоди турли мамлакатларда ўрганилмоқда ва халқаро илмий ҳамкорлик воситасига айланиб бормоқда. Бу ҳам ўзбек халқининг улуғ истеъдоди, ифтихоридан нишонадир. Ҳар бир халқнинг тарихий, маданий миллий қиёфасини аниқ белгиловчи улуғ шоҳлари, буюк олимлари, йирик адиб ва шоирлари бўлади. Инсониятнинг адабиётга мансуб ана шундай буюк фарзандлари сафида Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам ўз ўрнига эга. Кишилиқ тарихида Бобурчалик

шахсий имкон, иқтидор ва фазилатлари беқиёс кишилар жуда кам учрайди. Бобур буюк подшоҳ, мумтоз шоир, назариётчи адабиётшунос, фақих, тилшунос, санъатшунос, этнограф, ҳайвонот ва наботот оламининг билимдони сифатида кўпқиррали фаолият ва ижод соҳиби бўлганлигидан хабар беради.

Муҳаммад Бобур мард ва тадбиркор одам бўлган. Бобур ўта маданиятли ва жозибали инсонлар орасида энг етук инсонлардан бири эди. У мансабпарастлик каби чекланишдан ва мутаассибликдан йироқ эди... Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асари тарихий адабий манба сифатида шуниси билан эътиборлики, асарда кўплаб тарихий шахслар, жой номлари, адабиёт ва санъат аҳллари, дин пешволари, шох ва шахзодалар, беклар, амиру улламааролар ҳақида маълумотлар учрайди. “Бобурнома”да бир неча юз тарихий шахслар, уларнинг фаолияти ва саргузаштлари тасвир этилади.

“Бобурнома”да илм-фан, санъат ва адабиёт аҳлларига катта ўрин берилган. Бобур Навоий, Жомий, Биноий, Муҳаммад Солих, Ҳилолий, Сайфи Бухорий, Мир Хусайн, Муаммоний, Шайхим Суҳайлий, Юсуф Бадавний, Аҳмад Хожибек, Беҳзод, Султон Али, Ҳожи Абдулла Марворий, Шох Музаффар, Ғулом Шодий, Хусайн Удий каби бир қатор шоирлар ва санъаткорлар ҳақида маълумот беради, уларни мактайди, асарларидан намуналар келтиради, баъзан ҳаёти, фаолияти ёки шахсий сифатлари ҳақида қизиқарли фикрлар сўзлайди.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жойизки, “Бобурнома” бу кишиларнинг ҳаёти ва фаолиятини ўрганишда уларнинг маданий ҳаётидаги ўрнини белгилашда жуда аҳамиятлидир. Натижада биз Бобур замонида яшаган ва тарихимиз, маънавиятимизда муҳим воқеага эга бўлган давлат ва маданият арбоблари билан ҳам танишамиз. Асарда ҳар бир йил воқеалари алоҳида берилади. Бу каби қимматли маълумотлар ва келтирилган мулоҳазаларнинг ҳаммаси тарих учун муҳимдир. Демак бундан кўриниб турибдики, “Бобурнома” XV аср охири – XVI асрнинг биринчи чорагида мазкур уч минтақада кечган воқеаларни ўрганишда муҳим манба ҳисобланади.

Асар юзасидан тадқиқот олиб борган М. Абдуллаеванинг маълумотига кўра “Бобурнома” да ҳаммаси бўлиб 1540 нафар киши номлари тилга олинган бўлиб, шундан 357 нафари Мовароуннаҳрлик тарихий шахсларнинг номларидир. Қолган қисми эса турли даврда, турли мамлакатларда яшаган тарихий шахслар номидир. Асарда бирор тарихий воқеа баёнидан олдин ёки баён жараёнида чекинилиб шу воқеа юз бераётган жой тасвирланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азимжонов С. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. - Москва, 1977.
2. Ўзбек адабиёти тарихи.—Тошкент, 1978 й.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент, 1960. Машрабов З.,
4. Шокаримов С., Асрларни бўйлаган Бобур, Тошкент, 1997.
5. Воҳидов Р., Биз билган ва билмаган Бобур, Тошкент, 2000.
6. З.Холманова "Бобурнома"даги айрим сўзларнинг тарихий-этимологик таҳлили.

4-SHO‘BA - FAN, TA‘LIM VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ISTIQBOLLARI

КОНЧИЛИК ВА МАЪДАНЧИЛИК САНОАТИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР РИВОЖИ

**А.С. Хасанов Олмалик
КМК “АЖ” т.ф.д., профессор**

Марказий Осиё халқлари цивилизациясининг шаклланиши ва босқичма-босқич ривожланиб бориши, шу жумладан, бу ҳудуддаги давлатлар иқтисодий-маданий тизимининг интенсив тақомилида кончилик ва маъданчилик фаолияти бошқа минтакалардан фарқли равишда ишлаб чиқаришнинг етакчи тармоқларидан санаб келинган. Маълумки, ҳозирги даврда дунё мамлакатлари ўртасида сиёсий ва иқтисодий мавқеи тобора ортиб бораётган Ўзбекистон тарихан халқаро савдо ва маданий алоқа йўллари чорраҳасида жойлашган.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев эътироф этганларидек, “юртимизда барча асослар: табиий бойликлар, унумдор ер, катта иқтисодий ва илмий-техникавий, инсоний ва маънавий салоҳият мавжуд. Энг муҳими, бу диёрда ана шу фаровон ҳаётни ўз кучи, ўз ақл-заковати билан барпо этишга қодир бўлган меҳнатсевар ва истеъдодли халқ яшайди...”. Зеро бугунги кунда Ўзбекистоннинг дунёдаги турли мамлакатлар билан амалга оширилаётган иқтисодий-маданий алоқалари ривож қўп жиҳатдан табиий бойликларимизнинг қадимги давр ва ўрта асрлардаги тарихий ривож йўналишлари, хусусиятлари, характерли белгиларини ўрганишга ҳам боғлиқдир.

Ҳозирги глобал иқтисодиётда кончилик ва маъданчилик саноати стратегик аҳамиятга эга бўлган тармоқлардан бири ҳисобланади. Табиий ресурсларга бўлган талабнинг ортиши, экологик муаммоларнинг кучайиши ҳамда ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш зарурати ушбу соҳада инновацион технологияларни жорий этишни тақозо этмоқда.

Сўнгги йилларда кончилик саноатида рақамли технологиялар кенг қўлланилмоқда. Жумладан, геологик қидирув ишларида катта маълумотлар таҳлили орқали кон захираларини аниқлаш аниқлиги сезиларли даражада ошди. Бу эса ортиқча ҳаражатларни камайтириш ва ресурслардан оқилона фойдаланиш имконини бермоқда. Шунингдек, автоматлаштирилган ва роботлаштирилган ускуналар жорий қилиниши ишлаб чиқариш жараёнларини хавфсиз ва самарали ташкил этишга хизмат қилмоқда.

Гидрометаллургия ва биотехнологик усулларнинг ривожланиши ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Қамбағал рудалардан металлларни ажратиш олишда биоэритиш технологиялари қўлланилиб, анъанавий усулларга нисбатан арзон ва экологик тоза ечимлар таклиф этилмоқда. Бу усуллар, айниқса, мис, олтин ва уран каби металлларни қайта ишлашда самарали ҳисобланади.

Экологик барқарорликни таъминлаш мақсадида “яшил технологиялар”га алоҳида эътибор қаратилмоқда. Чиқиндиларни қайта ишлаш, сув ресурсларидан қайта фойдаланиш ва атмосферага чиқариладиган зарарли газларни камайтиришга қаратилган инновацион ечимлар кенг жорий этилмоқда. Бу эса саноатнинг атроф-муҳитга таъсирини камайтиришга хизмат қилади.

Ўзбекистонда ҳам кончилик саноатини модернизация қилиш ва инновацион технологияларни жорий этиш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Янги инвестиция лойиҳалари, хорижий технологияларни жалб қилиш ва илмий-тадқиқот ишларни ривожлантириш орқали тармоқнинг рақобатбардошлиги оширилмоқда.

Электр энергия, сув ва табиий газ каби хом ашёларнинг иқтисод қилиниши, ҳар томонлама таннархнинг камайишига олиб келмоқда. 2026 йили март ойида “Олмалик КМК” АЖ 3-мис бойитиш фабрикасининг ишга туширилиши, ҳар кунига кам деганда 100 тоннага яқин соф мис катодини ажратиш олишни, келажакда эса бу кўрсаткич 3 баробарга ошишини билдиради. Умуман олганда, Республика кон саноати ва геология вазирлигининг тасдиқланган маълумотларига эътибор қаратадиган бўлсак, бугунги кунда республикада табиий хом ашё базасига оид 2537 та турли фойдали қазилма конлари аниқланганини кўришимиз мумкин. Шундан: 1855 та маконлар қурилиш материаллари бўлса, 296 таси

нефть, газ конденсатлардан иборат углеводородлар конидир. Нодир металлларнинг аниқланган ва фаолият юритаётганлар сони жами 92 та (асосан олтин ва кумуш конлари), рангли ва ноёб металллар таркибли конлар сони 20 та (мис, молибден, вольфрам, рух, кўрғошин ва б.). Шунингдек, металлмас (металлоид) конлар ҳам мавжуд бўлиб, уларнинг сони 128 дан ортиқдир.

Республикамизда кўмир қазиб олиш ҳажми 2025 йилда илк бор Ўзбекистон тарихида 7,1 млн тоннага етди. Эътибор қаратадиган бўлсак, сотув нархи сўнги бир йил давомида умуман ўзгармаган. Кўмир ва сланец бўйича истиқболли конлар сони – 8 та. Уларнинг 3 таси мунтазам фаолият юритмоқда.

Фойдали қазилма конлари ҳақида фикр юритар эканмиз албатта, гарчи ишга тушмаган бўлсада, геологлар томонидан ҳисоблаб чиқилган, қазиб олиш ва ундан темирни ажратиб олиш иқтисодий самарадорлиги юқори бўлган 5 та кон аниқланган ва илмий асосланган.

Ҳар қандай излаб топилган конлардаги заҳиралар, уларнинг таркибидаги қимматбаҳо металллар ҳисоблаб чиқилади. Уларнинг самарадорлиги, фазовий таркиби, қандай бирикмалар билан жойлашуви ҳамда маъданлашуви аниқланиб, илмий жиҳатдан тадқиқ этилади. Муҳтарам Президентимиз халқ олдидаги чиқишларида олтин заҳираларимиз 5 000 тонна, кумуш заҳиралари эса 27 000 тоннадан ортиқ эканлигини қайд этган эдилар. Олмалиқ шаҳридаги 3- МФБга ташрифи чоғида, фабрика қурилишига тамал тошини қўйиш маросимида умумий мис заҳираси 45 млн тонна эканлигини мамнуният билан эълон қилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 й. 24.05 даги ПФ-79-сонли фармонида “Ер қаридан фойдаланиш, саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги, ҳамда атом энергиясидан фойдаланиш соҳаларида давлат бошқаруви ва назорати тизимини такомиллаштириш чора тадбири тўғрисида ва 2022 й. 14.07 даги ПК - 319 - сонли қарорида “2022-2030 йилларда “Навоий уран” ДК да урани қазиб олиш, қайта ишлаш ҳажмларини ошириш, ҳамда уни трансформация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” кўрсатилган мақсад ва вазифалар мамлакатда уран қазиб олишни, келажакда 15 000 тоннага етказишга қаратилгандир. Бугунги кунга келиб тасдиқланган уран заҳираси 139 000 тоннани ташкил этади.

Уран ишлаб чиқариш ҳажми 2025 йил якунига кўра 7000 тоннага етказилди, таққослаш учун билиш жоизки, 2021 йили 3,5 минг тонна эди, холос. 2030 йилга бориб бу кўрсаткични янада ошириш режалаштирилган. Ўта қаттиқ, оловбардош, ўтга чидамли вольфрамнинг дунё талаби йилдан йилга ортиб бормоқда. Унинг тасдиқланган заҳираси 250 000 тоннани ташкил этади. Критик металлларнинг тождорларидан бири бўлган, ўта енгил ноёб металллардан бири литийдир. Литий заҳирасини аниқлаш, уни қазиб олиш, техноген чиқиндилардан ажратиб олиш бўйича илмий тадқиқот ишлари амалга оширилмоқда. Ҳозиргача литий металл сифатида ҳатто бир килограмм ҳам олинмаган бўлса-да, унинг заҳиралари Тошкент вилоятининг Шаввотсой конида, Қашқадарё вилоятида ва бошқа ҳудудларда мавжуд бўлиб, унинг 172 000 тонна эканлиги аниқланган. Бу ноёб металл учун ниҳоятда йирик заҳира манбаи ҳисобланади, чунки, камёб литий металл килограммлаб олинади ва граммлаб ишлатилади. Умуман хулоса қилиб айтилса, Ўзбекистоннинг кончилик ва маъданчилик саноати бугунги кунда ўзининг энг юқори чўққисига эришиб, инновацион бурилиш бўсағасида турибди, десак, айни ҳақиқатни айтган бўламиз.

Ta’lim muassasalari rahbarlarining liderlik kompetensiyalarini neyromenejment va kognitiv yondashuvlar asosida rivojlantirish texnologiyalari.

Egamov Jo ‘shqin Jumanazar o‘g‘li

Ipak yo ‘li innovatsiyalar universiteti, PhD

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ta’lim muassasalari rahbar kadrlari boshqaruv va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda neyromenejment va kognitiv tahlil yondashuvlarining nazariy-metodologik asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Rahbarlik faoliyatida qaror qabul qilishning neyropsixologik mexanizmlari, kognitiv jarayonlar, emotsional intellekt va strategik

fikrlash o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganiladi. Shuningdek, muallif tomonidan rahbar kompetensiyalarini rivojlantirishning ko‘p bosqichli mexanizmi va integrativ modeli taklif etilib, uning amaliy samaradorligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: neyromenejment, kognitiv tahlil, liderlik kompetensiyalari, ta’lim boshqaruvi, emotsional intellekt, strategik fikrlash, qaror qabul qilish, boshqaruv psixologiyasi.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi globallashtirish, raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish jarayonlari ta’sirida tubdan o‘zgarib bormoqda. Ushbu sharoitda ta’lim muassasalari rahbarlaridan faqatgina ma’muriy boshqaruv emas, balki yuqori darajadagi liderlik, strategik fikrlash va inson resurslarini samarali boshqarish kompetensiyalari talab etilmoqda.

An’anaviy boshqaruv modellarining chegaralanganligi inson omilini yetarlicha hisobga olmasligi bilan izohlanadi. Shu sababli, so‘nggi yillarda boshqaruvda neyromenejment va kognitiv tahlil kabi yangi ilmiy yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuvlar rahbar faoliyatini inson miyasi faoliyati, fikrlash jarayonlari va xulq-atvor mexanizmlari bilan bog‘liq holda o‘rganishga imkon beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – neyromenejment va kognitiv tahlil asosida ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv-liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

1. Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari

1.1. Neyromenejment tushunchasi va rivojlanish bosqichlari

Neyromenejment XX asr oxiri va XXI asr boshlarida shakllangan bo‘lib, u neyrofanlar, psixologiya va menejment integratsiyasi asosida rivojlangan. Ushbu yo‘nalish inson miyasi faoliyatini o‘rganish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishni maqsad qiladi.

Neyromenejmentning asosiy tamoyillari:

- qaror qabul qilishda irratsional omillarni hisobga olish;
- emotsional va kognitiv jarayonlar uyg‘unligini ta’minlash;
- stressni boshqarish;
- motivatsion mexanizmlarni chuqur tushunish.

1.2. Kognitiv tahlilning ilmiy asoslari

Kognitiv tahlil insonning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalanish jarayonlarini o‘rganadi. Rahbarlik faoliyatida bu jarayonlar qaror qabul qilish sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kognitiv yondashuv quyidagi metodlarni o‘z ichiga oladi:

- analitik tahlil;
- tizimli yondashuv;
- muammoli vaziyatlarni modellashtirish;
- refleksiv tahlil.

2. Rahbar faoliyatida neyropsixologik jarayonlar

2.1. Qaror qabul qilishning neyrobiologik asoslari

Qaror qabul qilish jarayoni prefrontal korteks, amigdala va gipokamp faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Prefrontal korteks mantiqiy fikrlashni ta’minlasa, amigdala emotsional reaksiyalarni boshqaradi.

Rahbar faoliyatida ushbu tizimlar o‘rtasidagi nomutanosiblik quyidagi muammolarga olib keladi:

- impulsiv qarorlar;
- ortiqcha ehtiyotkorlik;
- stress ostida noto‘g‘ri tanlov.

2.2. Stress va kognitiv samaradorlik

Stress gormoni bo‘lgan kortizolning ortishi diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarini susaytiradi. Shu sababli rahbarlar uchun stressni boshqarish kompetensiyasi muhim hisoblanadi.

2.3. Emotsional intellektning roli

Emotsional intellekt quyidagi komponentlardan iborat:

- o‘zini anglash;
- o‘zini boshqarish;

- empatiya;
- ijtimoiy ko‘nikmalar.

3. Kognitiv jarayonlar va liderlik samaradorligi

3.1. Tanqidiy fikrlash

Tanqidiy fikrlash rahbarning muammolarni chuqur tahlil qilish va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

3.2. Strategik fikrlashni rivojlantirish

Strategik fikrlash uzoq muddatli rejalashtirish va tashqi muhitni tahlil qilishga asoslanadi.

4. Liderlik kompetensiyalarining tuzilmasi

Zamonaviy ta’lim muassasasi rahbarining kompetensiyalari ko‘p qirrali bo‘lib, ular bir nechta o‘zaro bog‘liq bloklardan tashkil topadi. Ushbu kompetensiyalar nafaqat boshqaruv samaradorligini, balki jamoaning psixologik iqlimi va ta’lim sifatini ham belgilaydi.

Kognitiv kompetensiyalar rahbarning fikrlash faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, unga analitik tafakkur, tanqidiy fikrlash, muammolarni tizimli hal qilish va axborotni chuqur tahlil qilish qobiliyatlari kiradi. Bunday kompetensiyalarga ega rahbar murakkab vaziyatlarda asosli va samarali qarorlar qabul qila oladi.

Emotsional kompetensiyalar rahbarning o‘z emotsiyalarini boshqarish va boshqalarning hissiy holatini anglash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiyalar jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratish, nizolarni bartaraf etish va xodimlarni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar samarali muloqot, muzokara olib borish, jamoa bilan ishlash va lider sifatida ta’sir o‘tkazish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Ushbu kompetensiyalar rahbarning tashkilot ichida va tashqarisida samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi.

Strategik kompetensiyalar esa uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, tashqi va ichki muhitni tahlil qilish, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Strategik fikrlashga ega rahbar tashkilotni barqaror rivojlanish yo‘liga olib chiqa oladi.

Mazkur kompetensiyalar o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlanib, rahbarning kompleks professional portretini shakllantiradi.

5. Rivojlantirish mexanizmi (mualliflik yondashuvi)

5.1. Diagnostika bosqichi

Ushbu bosqich rahbarning mavjud bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, rivojlantirish jarayonining boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Diagnostika jarayonida rahbarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi hamda individual rivojlanish ehtiyojlari belgilab olinadi.

Bu bosqichda psixometrik testlar (intellekt darajasi, emotsional intellekt), kognitiv baholash usullari, 360 daraja baholash tizimi va kompetensiyalar auditi kabi metodlardan foydalaniladi. Shuningdek, rahbarning boshqaruv uslubi, qaror qabul qilish xususiyatlari va kommunikativ qobiliyatlari ham chuqur tahlil qilinadi.

Natijada har bir rahbar uchun individual kompetensiya profili shakllantiriladi.

5.2. Loyihalash bosqichi

Ushbu bosqich diagnostika natijalariga asoslanib, rahbarning individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu jarayonda aniq maqsadlar belgilanadi, rivojlanish yo‘nalishlari tanlanadi va kutilayotgan natijalar aniqlanadi.

Rahbar uchun kompetensiyalar xaritasi tuziladi, rivojlanish indikatorlari va baholash mezonlari belgilanadi. Shu bilan birga, o‘quv dasturlari, trening modullari va rivojlantiruvchi faoliyat shakllari rejalashtiriladi.

Mazkur bosqich rivojlantirish jarayonining tizimlilikini va maqsadlilikini ta’minlaydi.

5.3. Rivojlantirish bosqichi

Ushbu bosqich rahbarning aniqlangan ehtiyojlari va kompetensiya bo‘shliqlarini bartaraf etishga qaratilgan tizimli o‘quv-amaliy jarayonni o‘z ichiga oladi. Unda quyidagi yondashuvlar kompleks tarzda qo‘llaniladi:

Trening va seminarlar. Mazkur shakl an’anaviy ma’ruzalardan farqli ravishda interaktivlikka asoslanadi. Treninglar davomida rahbarlar real boshqaruv vaziyatlari asosida qaror qabul qilish, muammolarni hal etish, jamoa bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Seminarlar esa nazariy bilimlarni tizimlashtirish, zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarini o‘rganish va ularni amaliyot bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Trening jarayonida “feedback”, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlaridan faol foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Neyrotreninglar. Neyrotreninglar rahbarning kognitiv va emotsional jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar majmuasidir. Ular diqqatni jamlash, tezkor fikrlash, stressga chidamlilik, emotsiyalarni boshqarish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Neyrotreninglarda meditatsiya, mindfulness (ongli e’tibor), neyropsixologik mashqlar, vizualizatsiya texnikalari keng qo‘llaniladi. Bu usullar rahbarning neyrofiziologik holatini barqarorlashtirib, samarali qaror qabul qilish imkonini oshiradi.

Coaching va mentoring. Coaching individual rivojlanishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda rahbar o‘z maqsadlarini aniqlaydi, ichki resurslarini faollashtiradi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Mentorlik (mentoring) esa tajribali mutaxassis tomonidan yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, bilim va tajriba almashish jarayonidir. Ushbu ikki yondashuvning uyg‘unligi rahbarning professional va shaxsiy rivojlanishini tezlashtiradi, shuningdek, boshqaruv faoliyatida barqaror natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Case-study va role-play metodlari. Case-study (vaziyatli tahlil) metodi real yoki model asosidagi boshqaruv vaziyatlarini chuqur tahlil qilish orqali rahbarlarning analitik va strategik fikrlashini rivojlantiradi. Role-play (rol o‘ynash) esa rahbarlarni turli ijtimoiy va boshqaruv rollarini sinab ko‘rishga, murakkab kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri xulq-atvorni tanlashga o‘rgatadi. Ushbu metodlar rahbarning amaliy tajribasini boyitib, nazariy bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash imkonini yaratadi.

Mazkur yondashuvlarning integratsiyalashuvi rahbar kadrlarning boshqaruv-liderlik kompetensiyalarini kompleks va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

5.4. Integratsiya bosqichi

- real boshqaruv vaziyatlarida qo‘llash;
- loyiha asosida o‘qitish;
- jamoaviy boshqaruv amaliyoti.

5.5. Monitoring va baholash

- KPI tizimi;
- samaradorlik indikatorlari;
- muntazam feedback;
- refleksiya.

6. Empirik tadqiqot (namunaviy model)

Tadqiqot doirasida 50 nafar ta’lim muassasasi rahbarlari ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazildi (model sifatida keltirilmoqda).

Natijalar shuni ko‘rsatdiki: 68% rahbarlarda stressni boshqarish past darajada, 72% da strategik fikrlash yetarli darajada shakllanmagan, 81% emotsional intellektni rivojlantirish zarurligini bildirgan. Ushbu natijalar neyromenejment asosidagi yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

7. Integrativ model tavsifi

Taklif etilayotgan model quyidagi elementlardan iborat:

- Kirish (input): rahbarning mavjud kompetensiyalari;
- Jarayon (process): neyro-kognitiv rivojlantirish;
- Natija (output): samarali liderlik;
- Feedback: doimiy takomillashtirish.

Model tizimli va moslashuvchan xarakterga ega.

8. Amaliy ahamiyati

Mazkur yondashuv orqali boshqaruv sifati oshishi, jamoada ijobiy psixologik muhit shakllanishi, innovatsion faoliyat kuchayishi va ta’lim sifati yaxshilanishi kuzatiladi.

Xulosa. Neyromenejment va kognitiv tahlil asosida rahbar kadrlar kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim boshqaruvining ustuvor yo‘nalishidir. Taklif etilgan mexanizm rahbarlarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi hamda ta’lim tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
2. Kahneman, D. Thinking, Fast and Slow. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011. – 499 p.
3. Rock, D. Your Brain at Work: Strategies for Overcoming Distraction, Regaining Focus, and Working Smarter All Day Long. – New York: HarperBusiness, 2009. – 304 p.
4. Mintzberg, H. Management. – San Francisco: Berrett-Koehler Publishers, 2009. – 304 p.
5. OECD. Improving School Leadership. Volume 1: Policy and Practice. – Paris: OECD Publishing, 2008. – 200 p.
6. Boyatzis, R. E. Competencies in the 21st Century // Journal of Management Development. – 2008. – Vol. 27, No. 1. – P. 5–12.

ILMIY IZLANISHLARDA OLIMNING IJTIMOY MAS’ULIYATI

UDK-316.6

Gapparova Mastona Safaraliyevna
IYI Universiteti Pedagogika va psixologiya
va umumta’lim fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0008-0309-8791

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ilmiy izlanish jarayonida olimning ijtimoiy mas’uliyati, uning ilmiy-etika tamoyillariga munosabati hamda jamiyat oldidagi javobgarligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ilm-fan rivojida yuzaga kelayotgan etik muammolar, ilmiy halollik mezonlari va olim faoliyatining ijtimoiy oqibatlari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy mas’uliyatni shakllantirishning pedagogik va institutsional mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy mas’uliyat, ilmiy etika, akademik halollik, olim, ilm-fan, bioetika, ijtimoiy javobgarlik, tadqiqot madaniyati.

Abstract: This scientific article analyzes the social responsibility of a scientist in the process of scientific research, his/her attitude towards scientific ethical principles, and accountability to society from a theoretical and scientific perspective. The study highlights ethical challenges emerging in the development of modern science, criteria of scientific integrity, and the social consequences of scientific activity. In addition, pedagogical and institutional mechanisms for the formation of scientific responsibility are examined.

Keywords: scientific responsibility, scientific ethics, academic integrity, scientist, science, bioethics, social responsibility, research culture.

Аннотация: В данной научной статье теоретически и научно анализируется социальная ответственность учёного в процессе научных исследований, его отношение к принципам научной этики, а также ответственность перед обществом. В исследовании освещаются этические проблемы, возникающие в развитии современной науки, критерии научной добросовестности и социальные последствия научной деятельности. Также рассматриваются педагогические и институциональные механизмы формирования научной ответственности.

Ключевые слова: научная ответственность, научная этика, академическая честность, учёный, наука, биоэтика, социальная ответственность, исследовательская культура.

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, XXI asrda ilmiy kashfiyotlar tezlashuvi olimlar zimmasiga nafaqat ilmiy natijalar yaratish, balki ularning ijtimoiy oqibatlarini baholash mas’uliyatini ham yuklamoqda.

UNESCO tomonidan qabul qilingan “Science and Scientific Knowledge” deklaratsiyasida ilm-fan jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi va olimlar etik javobgarlikka ega bo‘lishi zarurligi alohida ta’kidlangan¹.

Olimning ijtimoiy mas’uliyati — bu ilmiy faoliyat natijalarining jamiyatga zarar yetkazmasligi, inson huquqlari va axloqiy qadriyatlarga zid bo‘lmasligi uchun javobgarlik hissidir.

Ilmiy adabiyotlarda bu tushuncha quyidagi jihatlar orqali izohlanadi:

ilmiy halollik;

natijalarning ishonchliligi;

ijtimoiy oqibatlarni baholash;

bioetik me’yorlarga rioya qilish;

ochiqlik va shaffoflik².

Ilmiy halollik — bu tadqiqot natijalarini soxtalashtirmaslik va plagiatdan saqlanish tamoyilidir.

D. Resnik ilmiy halollikni “ilmiy ishonchning asosiy poydevori” sifatida ta’riflaydi³.

Ilmiy etika olim faoliyatini tartibga soluvchi normativ tizim hisoblanadi.

Asosiy tamoyillar

Halollik

Ob’ektivlik

Shaffoflik

Mas’uliyatlik

Adolat

Jadval 1. Ilmiy etika tamoyillari va ularning mazmuni

Tamoyil	Mazmuni
Halollik	Ma’lumotlarni soxtalashtirmaslik
Ob’ektivlik	Shaxsiy fikrlardan holi bo‘lish
Shaffoflik	Natijalarni ochiq e’lon qilish
Mas’uliyat	Ijtimoiy oqibatlarni hisobga olish
Adolat	Mualliflik huquqiga rioya qilish

Ilm-fan va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik

Ilm-fan jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Har bir ilmiy yangilik jamiyat hayotining turli sohalariga ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan:

tibbiyotdagi innovatsiyalar sog‘liqni yaxshilaydi;

raqamli texnologiyalar iqtisodiy tizimni o‘zgartiradi;

ekologik tadqiqotlar tabiatni muhofaza qiladi.

Ijobiy va salbiy ta’sirlar: Ilmiy kashfiyotlar ikki tomonlama ta’sirga ega:

Ijobiy:

hayot sifatining oshishi

texnologik taraqqiyot

iqtisodiy rivojlanish


Salbiy:

bioetik muammolar

ekologik xavflar

texnologik tengsizlik

Diagramma 1. Ilmiy kashfiyotlarning ijtimoiy ta’siri modeli



Zamonaviy ilmiy muhitdagi muammolar

Bugungi kunda ilmiy faoliyatda bir qator muammolar mavjud:

Akademik insofsizlik

Plagiat va ma’lumotlarni soxtalashtirish holatlari ortib bormoqda.

Tijoratlashuv

Ilmiy tadqiqotlar ba’zan ilmiylikdan ko’ra foyda olishga yo’naltirilmoqda.

Etik nazoratning zaifligi

Bioetik me’yorlar har doim ham to’liq bajarilmayapti.

Olimning ijtimoiy mas’uliyati modeli

Olimning mas’uliyati quyidagi tizim orqali shakllanadi:

individual ong

akademik muhit

institutsional nazorat

xalqaro standartlar

Jadval 2. Olim mas’uliyatiga ta’sir etuvchi omillar

Daraja	Omillar
Individual	shaxsiy axloq, bilim
Institut	universitet siyosati
Milliy	qonunchilik tizimi
Xalqaro	UNESCO, ilmiy standartlar

Ilmiy mas’uliyatni shakllantirish yo’llari

Ilmiy mas’uliyatni rivojlantirish uchun:

akademik halollik kurslarini joriy etish;

mentorlik tizimini kuchaytirish;

plagiatga qarshi dasturlar;

etik kodekslarni ishlab chiqish.

Ilm-fan tarixida ko’plab olimlar o’z kashfiyotlarining ijtimoiy oqibatlariga e’tibor qaratgan.

Masalan, ayrim olimlar o’z ishlari harbiy maqsadlarda ishlatilishiga qarshi chiqqan. Bu holat ilmiy mas’uliyatning global ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi.

Olimning ijtimoiy mas’uliyati zamonaviy ilm-fanning ajralmas va strategik ahamiyatga ega tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida ilmiy faoliyatning ko’lami kengayib, uning natijalari nafaqat alohida davlatlar, balki butun insoniyat taqdiriga bevosita ta’sir ko’rsatmoqda. Shu sababli ilm-fan faqat yangi bilimlarni yaratish vositasi bo’lib qolmasdan, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi, xavfsizligi va farovonligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo’lmoqda.

Ilmiy izlanishlar natijasida yuzaga kelayotgan innovatsiyalar, texnologiyalar va kashfiyotlar inson hayotini yengillashtirish bilan birga, agar ular noto‘g‘ri yoki nazoratsiz qo‘llanilsa, jiddiy ijtimoiy, ekologik va axloqiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Aynan shu jihat olimning nafaqat bilim ishlab chiqaruvchi shaxs, balki o‘z faoliyatining oqibatlari uchun javobgar ijtimoiy subyekt ekanligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, har bir olim ilmiy faoliyat jarayonida ilmiy halollik, ob‘ektivlik, shaffoflik va mas‘uliyatlilik tamoyillariga qat’iy rioya qilishi zarur. Ilmiy etika qoidalariga amal qilish tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta‘minlash bilan birga, ilmiy hamjamiyatga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, olimlar o‘z tadqiqotlarining ijtimoiy oqibatlarini oldindan baholash, ularning inson salomatligi, atrof-muhit va jamiyat barqarorligiga ta’sirini chuqur tahlil qilishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, ilm-fanning haqiqiy taraqqiyoti faqat ilmiy yutuqlar miqdori bilan emas, balki ularning insoniyat manfaatiga xizmat qilish darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois olimning ijtimoiy mas‘uliyati uning kasbiy faoliyatining markaziy mezoni bo‘lib qolishi kerak. Kelajakda ilm-fan rivojining barqaror va xavfsiz yo‘nalishda davom etishi aynan olimlarning axloqiy pozitsiyasi va ijtimoiy javobgarligiga bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.UNESCO. (2017). *Science and Scientific Knowledge Declaration*.
- 2.World Conference on Science. (1999). Budapest Declaration.
- 3.Resnik, D. (2015). *Scientific Research Ethics*. Springer.
- 4.Ziman, J. (2000). *Real Science*. Cambridge University Press.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni.
- 6.Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MA’NAVİY QIYOFASINI RIVOJLANTIRISHDA KASBIY VA SHAXSIY SIFATLAR.

*Samarqand davlat pedagogika instituti pedagogika
kafedrası dotsenti, p.f.f.d Utanov Utkir Qurbonovich*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda shaxsiy va kasbiy fazilatlarning o‘zaro mutanosibligi hamda pedagogik faoliyat samaradorligidagi o‘rni tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, ma’naviy qiyofa, kasbiy fazilatlar, shaxsiy sifatlar, kasb standarti, pedagogik mahorat, insonparvarlik, pedagogik takt, raqamli ta’lim.

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь личных и профессиональных качеств будущих учителей в процессе формирования их духовного облика, а также их роль в эффективности педагогической деятельности.

Ключевые слова: будущий учитель, духовный облик, профессиональные качества, личностные качества, профессиональный стандарт, педагогическое мастерство, гуманизм, педагогический такт, цифровое образование.

Annotation. This article analyzes the correlation between personal and professional qualities of future teachers in the process of developing their spiritual image, as well as their role in the effectiveness of pedagogical activity.

Keywords: future teacher, spiritual image, professional qualities, personal qualities, professional standard, pedagogical skill, humanism, pedagogical tact, digital education.

Ta’lim tizimi taraqqiyotining bosh mezoni – bu pedagog shaxsining kasbiy va ma’naviy yetukligidir. Ayniqsa, **bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari va axloqiy tamoyillari**

nafaqat ta’lim sifati, balki butun jamiyatning axloqiy-madaniy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu bois, pedagog shaxsi ilmiy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilinishi zarur bo’lgan asosiy ijtimoiy-pedagogik hodisalardan biridir.

Bo’lajak o’qituvchining ma’naviy qiyofasi deganda yuksak ma’rifatli, insoniy fazilatlari bilan barchaga ibrat bo’ladigan, botiniy va zohiriy go’zallikni o’zida mujassamlashtirgan hamda yuqori kasbiy mahorat va ilg’or pedagogik tajribaga ega bo’lgan pedagog qiyofasini tushunish mumkin.

Bo’lajak o’qituvchi — har qanday jahon madaniyatida muhim o’rin tutuvchi alohida kasbdir. Zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan axborot jamiyati bo’lajak o’qituvchiga nafaqat kasbiy mahorat, balki shaxsiy jihatdan ham yangicha talablarni qo’ymoqda. Bo’lajak o’qituvchi shunday shaxs bo’lishi kerakki, u yosh avlodni samarali o’qitish va tarbiyalash jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshira olsun.

Bo’lajak o’qituvchi shaxsida ortiqcha bo’ladigan biror ijobiy sifatni tasavvur qilish mushkul. Biroq har bir kasb, shu jumladan, pedagogik kasb ham, xodimdan o’ziga xos shaxsiy fazilatlarni talab etadi. Pedagog shaxsining kasbiy ahamiyatga ega fazilatlari deb aqliy va emotsional-irodaviy jihatlar majmuasi tushuniladi. Ular bo’lajak o’qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatiga bevosita ta’sir ko’rsatadi va uning individual ish uslubini belgilaydi. Pedagogik adabiyotlarda bo’lajak o’qituvchiga xos bo’lgan kasbiy ahamiyatli fazilatlar to’g’risida turli qarashlar mavjud.

Zamonaviy bo’lajak o’qituvchi o’z o’quvchisini sevishi va tushunishi, kuzatuvchan va talabchan bo’lishi, kommunikativ hamda konstruktiv qobiliyatlarga ega bo’lishi, o’quv materialini o’quvchilarga tushunarli tarzda yetkazish, ijodkor bo’lish va o’quvchilar jamoasini tashkil qila olish qobiliyatlariga ega bo’lishi lozim.

Bo’lajak o’qituvchining shaxsiy fazilatlari ro’yxati juda keng bo’lib, ularga quyidagilar kiradi: sabr-toqat va o’zini tuta bilish, xatti-harakatdagi moslashuvchanlik, fuqarolik pozitsiyasi, insonparvarlik, intizomlilik, vijdonlilik, g’oyaviy e’tiqod, tashabbuskorlik, samimiylik, halollik, o’z ustida ishlashga intilish va boshqalar. Aynan shu fazilat va qobiliyatlarning majmuasi bo’lajak o’qituvchini o’ziga xos, noyob shaxs sifatida shakllantiradi. Bo’lajak o’qituvchi shaxsiyati tuzilmasida uyg’unlik barcha sifatning bir xilda va mutanosib rivojlanishi asosida emas, balki shaxsiy hayoti va pedagogik faoliyatiga ma’no beruvchi asosiy qobiliyatlarining maksimal rivojlanishi orqali yuzaga keladi.

Pedagogning insoniy fazilatlari ta’lim-tarbiya jarayonida sog’lom va samimiy munosabatlar shakllanishi uchun zarur bo’lgan kasbiy muhim shart-sharoitlardan biridir. Ushbu fazilatlar qatoriga quyidagilar kiradi: insonparvarlik, mehribonlik, adolatparvarlik, sabr-toqat, halollik, vijdonlilik, mas’uliyat, sadoqat, xolislik, sahiylik, odamlarga hurmat, yuksak axloqiylik, hayotga ijobiy munosabat (optimizm), ruhiy barqarorlik, muloqotga intilish, o’quvchilarning hayotiga qiziqish, samimiylik, o’ziga tanqidiy qarash, do’stona muomala, vazminlik, or-nomus, vatanparvarlik, e’tiqodlilik, prinsipiiallik, hamdardlik, emotsional madaniyat va boshqa ko’plab fazilatlar.

Bo’lajak o’qituvchida bo’lishi shart bo’lgan asosiy fazilat bu — insonparvarlikdir. Gumanistik munosabatlar o’quvchining shaxsiga bo’lgan qiziqish, unga hamdardlik qilish, yordam berish, fikrini hurmat qilish, individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, uning o’qish faoliyatiga nisbatan yuqori talabchanlik hamda shaxsiy rivojiga bo’lgan e’tibor orqali namoyon bo’ladi. O’quvchilar bu holatlarni anglay boshlaydilar, dastlab bexosdan, keyinchalik ongli tarzda insonparvarlik bilan munosabatda bo’lish tajribasini egallab boradilar.

Bo’lajak o’qituvchi — doimo faol va ijodiy shaxsdir. U o’quvchilarning kundalik hayotini tashkil etuvchi yetakchi bo’lib xizmat qiladi. Faqat kuchli irodali, shaxsiy faolligi yuqori bo’lgan insongina o’quvchilarni ergashtira oladi, ularni qiziqitira oladi. Bo’lajak o’qituvchi — bu namunadir, unga ergashish istagini uyg’otuvchi yetakchidir. Shu sababli pedagog o’zida quyidagi sifatlarni rivojlantirishi zarur: ixtirochilik, zukkolik, qat’iyatlilik. U har qanday holatda ham mustaqil qaror qabul qila olishga tayyor bo’lishi kerak.

Kasbiy jihatdan muhim bo’lgan fazilatlar qatoriga sabr-toqat va o’zini tuta bilish kiradi. Har qanday vaziyatda bo’lajak o’qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida o’zining yetakchilik

mavqeini saqlab qolishi zarur. O‘quvchilar bo‘lajak o‘qituvchining ruhiy tushkunligi, ikkilanishi yoki o‘jizligini na sezishlari, na ko‘rishlari lozim. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchi doimo o‘z harakatlari va xatti-harakatlarini nazorat qilishga, o‘quvchilarga nisbatan g‘azablanmaslikka, arziyas narsalardan bezovta bo‘lmaslikka o‘rganishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchining sezgirligi – bu o‘ziga xos barometr bo‘lib, o‘quvchilarning holatini, kayfiyatini sezish, ayniqsa yordamga muhtoj bo‘lganlarga o‘z vaqtida ko‘mak berish imkonini beradi. Pedagog uchun tabiiy holat – bu o‘z shogirdlarining hozirgi holati va kelajagi uchun mas‘uliyatni chuqur his etuvchi kasbiy xavotir holatidir. Bunday bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kelayotgan avlod taqdiri uchun shaxsiy javobgarligini anglaydi.

Adolat – bu bo‘lajak o‘qituvchining ajralmas kasbiy sifati hisoblanadi. O‘z kasbining tabiatiga ko‘ra, pedagog doimiy ravishda o‘quvchilarning bilimlari, ko‘nikmalari va xatti-harakatlarini baholashi zarur bo‘ladi. Shuning uchun baholovchi mulohazalar o‘quvchining rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi juda muhim. Aynan baholar orqali o‘quvchilar bo‘lajak o‘qituvchining obyektivligini baholaydilar. Bo‘lajak o‘qituvchining axloqiy obro‘sinini hech narsa adolatli bo‘lish qobiliyatidek mustahkamlay olmaydi.

Pedagogik jarayondagi keskinlik va zo‘riqishni yumshatishda hazil-mutoyiba katta ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchining nutqida latifalar, maqollar, aforizmlar, iliq tabassumlar bo‘lishi kerak. Bular sinfda ijobiy emotsional muhit yaratadi, o‘quvchilarga o‘zlariga va vaziyatga kulgili nigoh bilan qarash imkonini beradi.

O‘z kasbiga muhabbat – bu bo‘lajak o‘qituvchining ajralmas sifati bo‘lib, u holda haqiqiy pedagog bo‘lish mumkin emas. Ushbu sifatning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: vijdonlilik va fidoyilik, tarbiyaviy natijalarga erishishdan zavqlanish, o‘ziga va o‘z pedagogik malakasiga nisbatan doimiy o‘zib boruvchi talabchanlik.

Zamonaviy bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining qiyofasi asosan uning bilimdonligi (eruditsiyasi) va yuqori madaniyat darajasi bilan belgilanadi. Bo‘lajak o‘qituvchi har doim o‘quvchilar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi va ushbu namunaviylik u qanday harakat qilish kerakligi, qanday yashash, muloqot qilish, fikr bildirish kerakligini ko‘rsatadigan me‘yor bo‘lishi lozim.

Bugungi sivilizatsiyalashgan jamiyatda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi alohida e‘tibor talab qiluvchi figura hisoblanadi. Agar ushbu kasb vakillari orasida yetarli darajada kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lmagan shaxslar faoliyat yuritrsa, bu eng avvalo, o‘quvchilarning jabr ko‘rishiga olib keladi. Shu boisdan, jamiyat bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga mas‘uldir. Chunki faqat shunda bolalar bilan ishlashga intellektual va axloqiy jihatdan yetuk pedagoglar tayyor bo‘ladi.

Shu jihatdan qaraganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarligini takomillashtirish zarurati bugungi kunda o‘ta dolzarb masalaga aylangan. Bu tayyorgarlik faqat kasbiy malaka bilan cheklanib qolmay, balki bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy sifatleri, moslashuvchanligi, tashabbuskorligi, psixologik barqarorligi kabi omillarni ham qamrab olishi lozim. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z faoliyatida globalizatsiya va texnologik jarayonlar ta’siridagi o‘zgarishlarga moslashgan, turli toifadagi o‘quvchilar bilan samarali ishlay oladigan, innovatsion fikrlovchi mutaxassis bo‘lishi kerak.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy qiyofasini rivojlantirish – faqatgina bilim berish jarayoni emas, balki shaxsning ichki madaniyati va kasbiy mas‘uliyatini shakllantirishdir. Tadqiqot xulosalari shuni ko‘rsatadiki:

1. Kasbiy va shaxsiy fazilatlar bir-birini inkor etmaydi, balki o‘zaro to‘ldiradi.
2. Insonparvarlik va adolat – pedagogning ma’naviy poydevori hisoblanadi.
3. Zamonaviy o‘qituvchi raqamli ko‘nikmalarni yuksak axloqiy me‘yorlar bilan birlashtira olishi lozim.

Pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida talabalarning nafaqat metodik tayyorgarligiga, balki ularning psixologik barqarorligi va innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida” Qaror. <https://lex.uz/uz/docs/4814154>

2.Ибрагимов А. А. УМУМТАЪЛИМ МАКТАБИ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ КАСБ СТАНДАРТИ: АМАЛИЁТГА КИРИТИШ, МУНОСАБАТ ВА ТАҲЛИЛ // Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 10 (107). – С. 47-56.

3.Подласый И.П. Педагогика. В-2кн. Книга 1. М., ВЛАДОС, 2000, 96-с.

4.Самарцева Е.Ю. Профессионально значимые личностные качества учителя элитарной школы. //Вестник Томского государственного педагогического университета. 2011. – № 11., 29-с.

5.Рондырев-Ильинский В.Б. Методика обучения студентов педагогических специальностей к проведению практических тренировок по действиям при возникновении чрезвычайных ситуаций пожароопасного характера // Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета ГПС МЧС России» - 2016 год. Выпуск №1. С. 141.

Dars jarayonida vaqt taqsimoti

IYIU Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya talabasi
Shokirova Xamida
xamida258@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada dars jarayonida vaqt taqsimotining ilmiy-nazariy asoslari pedagogik va psixologik yondashuvlar kontekstida tahlil qilinadi. Vaqt resursining didaktik tizimdagi o‘rni, uning strukturaviy-komponentli modeli hamda ta’lim samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar yoritiladi. Dars bosqichlarining optimal davomiyligi o‘quvchilarning yosh, individual va kognitiv xususiyatlari asosida asoslab beriladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida vaqtni boshqarishning metodologik prinsiplari va amaliy mexanizmlari ilmiy jihatdan tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: vaqt menejmenti, didaktik tizim, pedagogik jarayon, kognitiv faollik, ta’lim samaradorligi, rejalashtirish strategiyasi, refleksiya, motivatsion omil.

Аннотация: В статье анализируются научно-теоретические основы распределения времени на уроке в контексте педагогических и психологических подходов. Рассматривается место временного ресурса в дидактической системе, его структурно-компонентная модель и факторы, влияющие на эффективность обучения. Обосновывается оптимальная продолжительность этапов урока с учетом возрастных и когнитивных особенностей учащихся.

Ключевые слова: управление временем, дидактическая система, педагогический процесс, когнитивная активность, эффективность обучения, стратегия планирования, рефлексия.

Abstract: The article analyzes the scientific and theoretical foundations of time allocation in the classroom within pedagogical and psychological frameworks. The role of time as a structural component of the didactic system and its influence on learning effectiveness are examined. The optimal duration of lesson stages is justified based on students’ cognitive and age-related characteristics. Methodological principles and practical mechanisms of classroom time management are also discussed.

Keywords: time management, didactic system, pedagogical process, cognitive activity, learning effectiveness, planning strategy, reflection.

Kirish

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan uning tashkiliy va strukturaviy jihatdan to‘g‘ri loyihalashtirilishiga bog‘liq. Dars – bu pedagogik tizimning markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, unda vaqt omili asosiy resurs sifatida namoyon bo‘ladi⁸⁷. Vaqtning didaktik jihatdan to‘g‘ri

⁸⁷ Jan amos komenskiy. *Velikaya didaktika*. – moskva: 1982.

taqsimlanishi bilimlarni o‘zlashtirish intensivligi, kognitiv faollik dinamikasi hamda refleksiv jarayonlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy-pedagogik manbalarda vaqt resursi ta’lim samaradorligini belgilovchi determinativ omil sifatida e’tirof etiladi. Xususan, jan amos komenskiy ta’lim jarayonining izchilligi va bosqichma-bosqichlik tamoyillarini ishlab chiqib, vaqtni tizimli tashkil etish zarurligini asoslagan.

Dars jarayoni murakkab dinamik tizim bo‘lib, unda maqsad, mazmun, metod, vosita va natija komponentlari o‘zaro uzviy bog‘langan. Ushbu tizimda vaqt strukturaviy integrator vazifasini bajaradi. Har bir didaktik bosqich ma’lum vaqt chegarasiga ega bo‘lib, uning ortiqcha yoki yetishmasligi pedagogik samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi⁸⁸.

Dars jarayonida vaqt taqsimoti o‘quvchilarning psixik rivojlanish darajasi bilan uzviy bog‘liqdir. Lev vygotsky tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi ta’lim jarayonini o‘quvchining imkoniyat darajasiga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, jean piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning tafakkur bosqichlari darsdagi vaqt yuklamasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqat barqarorligi qisqa muddatli bo‘lsa, yuqori sinflarda analitik faoliyat uchun ko‘proq vaqt ajratish mumkin⁸⁹.

Kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi dars vaqtini faqat ma’lumot berishga emas, balki interaktiv faoliyat, muammoli vaziyatlar va refleksiv tahlilga yo‘naltirishni talab etadi. John dewey tajribaviy ta’lim konsepsiyasida o‘quv jarayonida faol ishtirokni ustuvor deb biladi, bu esa vaqtni qayta taqsimlashni taqozo etadi.

Natijada, an’anaviy monologik bayon o‘rnini dialogik va interaktiv metodlar egallaydi, bu esa vaqt menejmentini strategik darajada rejalashtirishni talab qiladi.

Xulosa

Dars jarayonida vaqt taqsimoti pedagogik jarayonning samaradorligini belgilovchi fundamental omillardan biridir. Vaqt resursining ilmiy asosda rejalashtirilishi didaktik tizimning barqaror ishlashini, o‘quvchilarning kognitiv faolligini hamda refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Pedagog darsni loyihalash jarayonida yosh va individual xususiyatlarni, motivatsion omillarni hamda metodik strategiyalarni kompleks ravishda hisobga olishi lozim. Shunday yondashuvgina zamonaviy ta’lim talablariga mos, samarali va natijador pedagogik faoliyatni ta’minlay oladi⁹⁰.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jan amos komenskiy. *Velikaya didaktika*. – Moskva: 1982.
2. Lev vygotsky. *Pedagogicheskaya psixologiya*. – Moskva: 1991.
3. Jean piaget. *The psychology of intelligence*. – London: 1950.
4. John dewey. *Democracy and education*. – New York: 1916.

FINLANDIYA INNOVATSION TA’LIMI

Anorqulova Shaxlo Uzoqboyevna
YIU Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Finlandiyaning innovatsion ta’lim tizimi, uning shakllanish bosqichlari, asosiy tamoyillari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlari ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. Finlandiya ta’lim modelining ustuvor yo‘nalishlari sifatida tenglik, ishonch, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va o‘qituvchining kasbiy maqomi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, integrativ yondashuv va kompetensiyaga asoslangan

⁸⁸ Lev vygotsky. *Pedagogicheskaya psixologiya*. – Moskva: 1991.

⁸⁹ Jean piaget. *The psychology of intelligence*. – London: 1950.

⁹⁰ John dewey. *Democracy and education*. – New York: 1916.

o‘qitish mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqotda Finlandiya tajribasining xalqaro baholash dasturlaridagi natijalari ham tahlil qilinadi. Mazkur modelning samaradorlik omillari va boshqa mamlakatlar ta’lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik erkinlik, ta’lim sifati, integrativ o‘qitish, raqamli texnologiya, tenglik tamoyili.

Аннотация. В статье рассматривается инновационная система образования Финляндии, этапы её становления и основные принципы функционирования. Особое внимание уделяется вопросам равенства, доверия, профессиональной автономии учителя и развитию критического мышления учащихся. Анализируются современные педагогические подходы, компетентностная модель обучения и роль цифровых технологий в образовательном процессе. Отдельно рассматриваются результаты Финляндии в международных исследованиях качества образования. Делается вывод о возможностях адаптации финского опыта в других странах.

Ключевые слова: инновационное образование, компетентностный подход, педагогическая автономия, качество образования, интегративное обучение, цифровые технологии, принцип равенства.

Abstract

This article analyzes Finland’s innovative education system, its developmental stages, and fundamental principles. Particular attention is paid to equality, trust, teacher autonomy, and the development of students’ critical thinking skills. Modern pedagogical approaches, competency-based learning models, and the integration of digital technologies are examined. The study also highlights Finland’s performance in international educational assessments. The findings emphasize the effectiveness factors of the Finnish model and its potential applicability in other educational contexts.

Keywords: innovative education, competency-based approach, teacher autonomy, education quality, integrative learning, digital technologies, equality principle.

Kirish

XXI asrda ta’lim tizimining modernizatsiyasi global rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Shu jihatdan, Finlandiya ta’lim tizimi jahonda eng samarali va barqaror modellardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mamlakatning ta’lim sohasidagi muvaffaqiyati, avvalo, inson kapitaliga qaratilgan uzoq muddatli strategik siyosat natijasidir.⁹¹

Finlandiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifati faqat qat’iy nazorat yoki ko‘p miqdordagi test sinovlari bilan emas, balki o‘qituvchi va o‘quvchiga ishonch muhitini yaratish orqali ta’minlanadi. Mazkur maqolada Finlandiyaning innovatsion ta’lim tizimi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Finlandiyada zamonaviy ta’lim modeli XX asrning 70-yillarida tub islohotlar asosida shakllandi. 1972-yildan boshlab yagona umumiy maktab (comprehensive school) tizimi joriy etildi. Ushbu islohotning asosiy maqsadi barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishdan iborat edi.

Ta’lim tizimi markazlashgan bo‘lsa-da, maktablarga keng pedagogik erkinlik berilgan. O‘qituvchilar dars mazmunini tanlashda mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega. Bu esa ijodkorlik va innovatsion yondashuvni rag‘batlantiradi.⁹²

Finlandiya ta’limining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- **Tenglik tamoyili** – barcha o‘quvchilarga bir xil sifatli ta’lim berish;
- **Ishonch muhiti** – nazoratdan ko‘ra mas’uliyatga asoslangan boshqaruv;

⁹¹ Sahlberg, P. (2011). *Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* Teachers College Press.

⁹² Simola, H. (2005). *The Finnish Miracle of PISA. Comparative Education*, 41(4).

- **Kompetensiyaviy yondashuv** – bilimdan ko‘ra ko‘nikma va amaliy malakaga urg‘u berish;
- **Integrativ o‘qitish** – fanlararo bog‘liqlik asosida ta’lim berish;
- **Individual rivojlanishga e’tibor** – har bir o‘quvchining qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish.

Finlandiyada an’anaviy baholash tizimi o‘rniga rivojlantiruvchi baholash modeli qo‘llaniladi. O‘quvchilar o‘rtasida raqobat emas, hamkorlik muhiti shakllantiriladi.

Finlandiyada o‘qituvchilik kasbi eng nufuzli sohalardan biridir. O‘qituvchi bo‘lish uchun magistr darajasiga ega bo‘lish majburiy hisoblanadi. Pedagoglar mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi.

O‘qituvchining kasbiy erkinligi yuqori bo‘lib, davlat tomonidan ortiqcha tekshiruv va byurokratik yuklama mavjud emas. Bu esa sifatli va ijodiy pedagogik faoliyatni ta’minlaydi.

Finlandiya maktablarida raqamli texnologiyalar keng qo‘llaniladi. Ammo texnologiya maqsad emas, balki vosita sifatida qaraladi. O‘quv jarayonida elektron platformalar, interaktiv metodlar va loyiha asosida o‘qitish usullari keng tatbiq etilgan.

Shuningdek, maktablarda psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi rivojlangan. O‘quvchilar uchun bepul tushlik, transport va o‘quv qurollari taqdim etiladi. Bu esa ijtimoiy tenglikni ta’minlaydi.

Finlandiya o‘quvchilari OECD tomonidan tashkil etiladigan PISA dasturida yuqori natijalarni qayd etgan. Xususan, 2000–2012-yillar oralig‘ida matematika, o‘qish savodxonligi va tabiiy fanlar bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallagan.

Mazkur natijalar Finlandiya ta’lim modelining samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Finlandiyaning innovatsion ta’lim tizimi ishonch, tenglik va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan barqaror modeldir. Ta’lim jarayonida o‘qituvchining kasbiy erkinligi, o‘quvchining individual rivoji va ijtimoiy adolat ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Finlandiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifatini oshirish uchun ortiqcha nazorat emas, balki sifatli pedagogik tayyorgarlik, ishonch muhiti va ilmiy asoslangan yondashuv muhimdir. Ushbu model boshqa mamlakatlar uchun ham samarali namuna bo‘la oladi.

References:

Используемая Литература:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sahlberg, P. (2011). *Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* Teachers College Press.
2. Sahlberg, P. (2015). *Finnish Lessons 2.0*. Teachers College Press.
3. OECD (2019). *PISA 2018 Results*. Paris: OECD Publishing.
4. Simola, H. (2005). The Finnish Miracle of PISA. *Comparative Education*, 41(4).
5. Aho, E., Pitkänen, K., & Sahlberg, P. (2006). *Policy Development and Reform Principles of Basic and Secondary Education in Finland*. World Bank.

Texnika fanlarini o‘qitishda IoT asosidagi energiya monitoringi tizimi.

O‘rishev Ilyosjon Musurmonqul O‘g‘li.
Farg‘ona davlat texnika universiteti energetika muhandislik fakulteti 42-22 guruh talabasi
urishevilyosxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada narsalar internet (IOT) texnologiyalariga asoslangan elektr energiysaini monitoring qilish tizimini ishlab chiqish va amaliy qo‘llash masalalari yoritilgan. Taklif etilayotgan tizim WeMos D1mini (ESP8266) mikrokontrolleri va ACS712 tok sensori yordamida elektr yuklamaning joriy iste’molini real vaqt rejimida o‘lchash va mosafadn monitoring qilish imkonini beradi. O‘lchangan ma’lumot Wi-Fi orqali bulutli platformalarga uzatiladi va mobil ilovalar yordamida vizuallashtiriladi. Energiya sarfi belgilangan chegaradn oshganda foydalanuvchiga SMS yoki elektron pochta orqali avtomatik ogohlantirishlar yuboriladi. Tizimning arzonligi o‘rnatish qulayligi va mashtablash imkoniyati uni uy-joy va sanoat obyektlarida enrgiya samaradorligini oshirish uchun istiqbolli yechimga aylantiradi.

Kalit so‘zlar: IoT, enrgiya monitoring tizimi, masafaviy monitoring, ESP8266, WeMos D1mini, ACS712 tok sensori, bulutli texnologiyalar, avtomatik ogohlantirish.

Kirish

Narsalar interneti (IoT) tez rivojlanayotgan sanoat bo'lib, u "Aqlli va xavfsiz uy", "Aqlli shahar", "Virtual marketing", "Aloqa va navigatsiya" uskunalari, "Virtual muhandislik" kabi texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Bunday texnologiyalar allaqachon sanoat, biznes, sog'liqni saqlash va iste'mol tovarlari kabi deyarli barcha segmentlarni qamrab olgan. IoT IT sanoatidagi asosiy tendentsiyalardan biridir [1]. Narsalar interneti (IoT) hozirda tez rivojlanayotgan yangi sohadir. Internet bilan bog'liq narsalar hayotni yanada funktsional va qulay qilish uchun mo'ljallangan. Aql va kommunikatsiya tufayli uskunada yangi funktsiyalar to'plami paydo bo'ladi: monitoring, boshqarish, optimallashtirish, avtonomiya [2-4].

Qurilmalarni internetga ulash iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Iste'molchilar o'z xarajatlarini nazorat qilishlari va vaqtni boshqarishlari mumkin, ishlab chiqaruvchilar esa qurilmalarning ishlashini nazorat qilishlari, ularga texnik xizmat ko'rsatish muammosini osonroq hal qilishlari, shuningdek, yangi daromad keltiruvchi tuzilmalarni taklif qilishlari mumkin.

Energetika sohasida axborot tizimlarining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy tendentsiya Smart Grid konsepsiyasidir. Smart Grid konsepsiyasiga ko'ra, kelgusi yillarda energetika sohasida IT rivojlanishining ustuvor yo'nalishi aqlli (aqlli) hisoblagichlarni keng joriy etishdir. Aqlli elektr hisoblagichlari kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni kuzatib borish va amalga oshirish uchun tarmoq texnologiyalaridan foydalangan holda to'plangan ma'lumotlarni uzatish uchun aloqa vositalari bilan ta'minlangan.[5-6]

Ushbu tadqiqotda IoT (Internet of Things) texnologiyalariga asoslangan energiya monitoringi tizimini ishlab chiqish, joriy etish va samaradorligini baholash uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayoni bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lib, apparat vositalarini tanlash, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish hamda tizim samaradorligini baholashni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot obyekti sifatida sanoat korxonalari va tijorat binolarida foydalaniladigan elektr energiyasi iste'mol jarayonlari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa IoT texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida energiya sarfini monitoring qilish, tahlil qilish va boshqarish imkonini beruvchi axborot tizimidir.[7]

Apparaturaviy ta'minotni tanlash.

Energiya monitoringi tizimini yaratishda quyidagi apparat komponentlardan foydalanildi:

Tok va kuchlanish datchiklari (sensorlar) – elektr energiyasi iste'molini aniqlash uchun (masalan, SCT-013 tok transformatori).

Aqlli hisoblagichlar – elektr energiyasini aniq o'lchash va raqamli formatda uzatish uchun.

Mikrokontrollerlar (ESP32, Arduino yoki Raspberry Pi) – sensorlardan ma'lumotlarni yig'ish va uzatish vazifasini bajaradi.

Aloqa modullari (Wi-Fi, GSM, LoRa) – yig'ilgan ma'lumotlarni markaziy serverga uzatish uchun tanlandi.

Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish.

Tizimning dasturiy qismi uch asosiy darajadan tashkil topdi:

Edge daraja – mikrokontrollerlarda ishlovchi dasturiy ta'minot sensorlardan olingan ma'lumotlarni dastlabki filtrlash va paketlashni amalga oshiradi.

Server (Cloud) darajasi – ma'lumotlarni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash uchun bulutli platforma (Firebase, ThingsBoard yoki AWS IoT) qo'llanildi.

Foydalanuvchi interfeysi – veb yoki mobil ilova orqali energiya iste'molini grafiklar, jadvallar va hisobotlar ko'rinishida aks ettiradi.[8]

Energiya iste'moli haqidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, har 1–5 soniyada) sensorlar orqali o'lchandi. O'lchangan ma'lumotlar mikrokontroller tomonidan qayta ishlanib, simsiz aloqa tarmoqlari orqali serverga uzatildi. Ma'lumotlarning aniqligini oshirish maqsadida shovqinlarni kamaytiruvchi raqamli filtrlash algoritmlari qo'llanildi. 1. Yig'ilgan ma'lumotlar statistik va analitik usullar yordamida tahlil qilindi:


2. Energiya sarfining o‘rtacha, maksimal va minimal qiymatlari hisoblandi;
3. Yuklama grafigi va pik (cho‘qqi) iste‘mol vaqt oralig‘i aniqlandi;
4. An‘anaviy monitoring tizimlari bilan taqqoslab, energiya tejamkorligi darajasi baholandi.

Shuningdek, mashinaviy o‘rganish elementlari yordamida energiya sarfidagi g‘ayritabiiy holatlar (nosozlik yoki ortiqcha sarf) aniqlash usullari sinovdan o‘tkazildi.[9]

Ishlab chiqilgan IoT asosidagi energiya monitoringi tizimi tajriba-sinovdan o‘tkazildi. Sinov jarayonida tizimning: uzluksiz ishlash barqarorligi, ma‘lumot uzatish kechikishi, energiya tejash samaradorligi. Ko‘rsatkichlari baholandi. Olingan natijalar amaldagi energiya monitoringi usullari bilan solishtirildi.


Tizim samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

1. energiya sarfini kamaytirish foizi;
2. real vaqt monitoring aniqligi;
3. ekspluatatsiya xarajatlarining qisqarishi;
4. tizimni kengaytirish va integratsiya qilish imkoniyati[10].



1-rasm. IoT tizimining strukturalari

IoT moduliga asoslangan quvvatni monitoring qilish tizimi WeMos D1 mini platformasining bir qismi bo‘lgan ESP8266 mikrokontrolleriga asoslangan. Mikrokontroller WiFi orqali MQTT brokeriga ma‘lumotlarni uzatishni tashkil qiladi. ACS712 o‘zgaruvchan va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tokni o‘lchashi mumkin bo‘lgan tok sensori sifatida ishlatiladi, shuningdek, yuk (o‘zgaruvchan/to‘g‘ridan-to‘g‘ri tok yuki) va o‘lchash birligi (mikrokontrollerning bir qismi) o‘rtasida izolyatsiyani ta‘minlaydi. Elektr energiyasini monitoring qilish tizimining prototipi 2-rasmda ko‘rsatilgan.



2-rasm. Elektr energiyasini monitoring qilish tizimining prototipi

Node MCUV3 yoki WeMos D1 ning dizayn versiyasida ESP8266 chipidagi IoT modulidan foydalanish, u Internet orqali ma‘lumotlarni uzatish qurilmasi va mikrokontroller boshqaruvi vazifasini bajaradi. Bu usul xususiyatlari, hajmi, narxi jihatidan eng katta afzalliklarga ega va shuning uchun elektr energiyasini monitoring qilish tizimini amalga oshirish uchun ishlatiladi.



3-rasm. WeMos D1 mini-modulning port taqsimoti

WeMos D1 mini-modulning port taqsimoti 3-rasmda ko'rsatilgan. Modul 11 ta umumiy maqsadli portlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi portlar qo'shimcha funktsiyalarga ega: GPIO1, GPIO3 - UART, GPIO5 / D1, GPIO4 / D2 - I²C / TWI, D5..D8 - SPI, D1..D7 - PWM chiqishlari (PWM), A0 - ADC dan analog chiqish.

Tok sensori modulga A0 orqali ulangan. Ushbu modulni ulash uchun shunchaki + 5V kuchlanishni qo'llang.[7]

Xulosa

Maqolada WeMos IoT moduli va ACS712-30 sensoriga asoslangan elektr energiyasini monitoring qilish tizimini minimal narxda va uy avtomatlashtirish tizimiga moslashish imkoniyati bilan amalga oshirishning amaliy jihatlarini taklif qilingan. Simsiz texnologiyalardan foydalanish bir qator afzalliklarni beradi: o'rnatish va ishlatish qulayligi, masshtablash va yechimning qulayligi, mobil qurilmalarni integratsiyalash.

Taklif etilayotgan tizim uzoq masofalarda elektr jihozlarning asosiy iste'molchilari tomonidan elektr energiyasi va quvvat iste'mol qilish rejimini tezda kuzatib borish va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa qulaylikni oshiradi. Simsiz texnologiyalar yangi tizimlarni ta'mirlash, ta'mirlash va o'rnatishda jozibador tanlovdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V. Kharchenko (Ed.), Internet of Things for Industry and Human Application, volume 1 of Fundamentals and Technologies, Ministry of Education and Science of Ukraine, National Aerospace University KhAI, 2019 (in English).
2. M. Schwartz, Internet of Things with ESP8266, 2nd. ed., Saint Petersburg, BHV-Peterburg, 2019 (in Russian).
3. V. Petin, Arduino and Raspberry Pi in the Internet of Things projects, 2nd. ed., Saint Petersburg, BHV-Peterburg, 2019 (in Russian).
4. S. Tsyulnyk, Mobile applications and online WI-FI monitoring platforms of weather stations, Open educational e-environment of modern University, volume 9, 2020, pp. 181–192. doi: 10.28925/2414-0325.2020.9.15. (in Ukrainian).

**“Уй – дарахт – инсон” методикаси психологияда расмни методика
шаклланишининг асоси сифатида.**

Т.Б.Норимбетов. Ипак Йўли инновациялар
Университет доценти, психол. ф. н.

Н.Т.Норимбетова. Ипак Йўли инновациялар
Университет ўқитувчиси.

Аннотация.

Рисуночная методика в современной психологии занимает особое место для изучения детско - родительских отношений психологических исследованиях. Изучаемая методика является одно из первых вариантов в формирование рисуночных методики. Начиная во – второй половины XX и начало XXI столетия рисуночная методика стало одна из основных

методов в изучение семейных взаимоотношений, в частности детско-детских и детско – родительских отношений в современной психологии. Методика используется символы, такие как дом, дерево, человек(ДДЧ) очень удобно в применении и легко интерпретируется в обработке полученных результатов.

Аннотация.

Ҳозирги замон психологиясида расмли методика психологик тадқиқотларда кенг қўлланилади. Бу методика ёрдамида оилавий муносабатларнинг ажралмас қисми бўлган ота-она ва фарзанд муносабатлар кенг таҳлил қилинади. Ўрганилиётган методика расмли методикаларнинг дастлабки вариантларидан бири бўлиб замонавий психологияда унинг турли вариантлари мавжуд. Методика XX асрнинг иккинчи ярмидан ҳозирги кунга қадар кенг қўлланилади. Бунга сабаб методика ёрдамида оиладаги болалар орасидаги ва ота-она фарзанд муносабатларидаги психологик кўрсаткичларни ўрганишга ёрдам беради. Методика жуда оддий бўлиб унда уй, дарахт, инсон рамзларидан фойдаланилади. Уни қўллаш ва олинган натижаларни қайта ишлашда тадқиқотчига қийинчилик туғдирмайди.

Калит сўзлар: Ассоциация, синзетивлик, клиник тадқиқот, вербал, новербал, апперцептив, рамзлар, дарахт, уй, инсон, лотин, славян тиллари, интеллект, тараққиёт, индивидуал, психоаналитик ёндошув. этнопсихология, минтақавий хусусиятлар, функциялар.

Кириш

Замонавий психологияда расмли методикалардан фойдаланиш анъана тусига кирган. Бу методикалар асосан ёш болаларда уларнинг психологик хусусиятларини, ёш тараққиётини, оиладаги муносабатларини ўрганишда ва фарзандлар орасидаги маъсулиятни ўрганишда жуда муҳим саналади. Расмли методиканинг дастлабки вариантларидан бири бу **“Уй– дарахт– инсон”** методикаси бўлиб, уни **1938 йилда АҚШлик** клиницист **Джон Бук** томонидан клиник тадқиқотларда синалувчиларнинг шахсий ривожланиши, синзетивлиги, эгилувчанлиги, иш қобилияти, ота-она ва фарзандлар орасидаги маъсулиятни ҳамда шахснинг бошқа шахслар ва ўраб турган муҳит билан муносабатларини аниқлашда, эркин ҳолда **“уй–дарахт–инсон”** расмини чизиш орқали маълумот тўплашга мўлжалланган методика сифатида киритилган.

“Уй– дарахт– инсон” методикаси икки фазали методика бўлиб унинг **биринчи фазасида** ижодий, тизимланмаган новербал жараён бўлиб эркин тарзда расм чизади. **Иккинчи фазасида** вербал, апперцептив, тизимлаштирилгал формал шакилда бўлиб бу босқичда синалувчи чизилган расмларга, расм объектларига, теварак-атрофидаги нарсаларга ва расм чизишда юзага келган Ассоциацияларга ёзма равишда тушунтириб беришга ҳаракат қилади.

Материаллар, усуллар, натижалар.

Джон Бук томонидан олиб борилган дастлабки тадқиқотлар шуни кўрсатдики, расм чизиш жараёнида синалувчилар ўзларини жуда эркин тутишган ҳатто ўзларини мутлоқ ёпиқ тутадиган синалувчилар ҳам эркин тарзда расм чизишга киришиб кетади. Расм чизишдаги танаффуслар бу синалувчиларда вербал тарзда, яъни сўз ёрдамида чизилаётган объектлар ҳақида тушунча беришга ҳаракат қилади.

“Уй – дарахт– инсон” методикаси қуйидаги сабабларга кўра оилавий муносабатларни ўрганишда қўлланила бошланган;

1. Ушбу методика кичик ёшдаги болаларга ҳам қўллаш мумкин;
2. Методика ҳамма ёш тоифасидаги хусусан катта ёшдаги синалувчиларга мос келиб улар зудлик билан расм чизишга киришиб кетади;
3. Расмлар ҳар ҳил бўлишига қарамасдан синалувчиларнинг интеллектуал қобилиятини ва унинг шахси, индивидуал хусусиятлари ҳақида тадқиқотчи маълумотга эга бўлиши мумкин.

Расимли методикада асосан рамзлар кенг қўлланилади. Бу рамзлар бир–биридан фарк қилиб бири кўп аҳамиятли бўлса, иккинчиси бир аҳамиятли бўлиши мумкин. Рамзларда универсал тил мавжуд бўлиб психик мазмундаги онгсиз, аффектив образларни онгли, тушунарли кўринишга ўтказиши ва ноаниқ бўлган шахслараро муносабатлардаги муносабатларни ва айtilган сўзларнинг маъносини иштрокчиларга тушунарли қилади. Рамзлар ўраб турган муҳитнинг интеграл психик кўринишини белгилаб беради. Шу сабабли, методикадаги дарахт, уй, инсон тушунчалари рамзлар сифатида фойдаланилади.

Дарахт олам ўқи марказининг ва олам яратилишининг рамзи ҳисобланади. Унинг ривожланиши, ҳаётнинг пайдо бўлганлигини англатади. Дарахт қадимда борлиқни англатиб унинг шохлари осмонга интилса, томирлари пастга ер бағрига қараб ривожланади, танаси эса уч оламнинг боғланишини ифодалайди. Бунда илдизлари ер остига қараб, яъни дўзахга, танаси(ўрта қисми)ер устида, тепа қисми(шохлари) осмонга қараб. Афсоналарга кўра дарахт шохларида қушлар уя қуради, томирларида эса дахшатли илонлар ётади. Славян тилларида дуб дарахт маъносини англатади Дарахт рамзи инсон тушунчаси билан боғлиқ бўлиб у инсоннинг қадимги авлодининг рамзи ҳисобланади (лотин тилидаги *populus*-халқ, немис тилидаги *parrel*-терак). Оиланинг ривожланиши ва кўпайиши ўсаётган дарахтга ўхшайди. Дарахт танаси (унинг асоси) эпик ривоятларда ота рамзи ёки авлод рамзи, шохлари эса болалар, ўсиб келаётган авлод рамзидир. Бу готлар тилида *ans*-авлод, яъни тана авлоднинг бошланиши. Славян тилларида новда ёш барглари, шохлари ёшликнинг рамзидир. Шу сабабли эпик ривоятларда одамлардаги қўл, оёқ, бармоқ, тирноқ ўсимликларга ўхшатилади. Одам оёғи билан ерда бўлади шу сабабли дарахт лотин тилидаги - *pada*, *pedis* - тоvon, томир, *sakha*- қўллар ўсимталар, сочлар эса майсалардир. Ривоятларга кўра одам ўлгандан кейин унинг руҳи дарахтга айланади.

Уй— умумхалқ маданиятида оила бу авлоднинг бирлигини, оиланинг қадриятларини, бахти ва иқболини кўрсатади. Уй бизни ўраб турган оламда очиқ—ёпиқ, хавфли—хавсиз, ташқи—ички кўриниш сифатида намоён бўлади. Бу маънода уй бир томондан ҳимоя функциясини, иккинчи томондан инсон ва унинг ички дунёсини англатади. Афсоналарга кўра уй эгасининг тақдирини белгилайди, уй эгасининг ўлими уйнинг бузилишини билдиради. Уйнинг деворлари инсонни ҳимоялаб, талофатлардан асрайди, икки олам орасидаги табиат олами ва маданият олами орасидаги чегара функциясини бажаради. Психоаналитиклар олиб борган эмпирик тадқиқотлар шуни кўрсатадики уй яшаш жойи сифатида тана ва фикрнинг, руҳнинг хар-хил босқичлари ҳақида кенг ассоциасини юзага келтиради. Оламни тасаввур қилишда уй алоҳида модуль сифатида намоён бўлиб унинг деворлари оламнинг тўрт томони, пойдевори асос, уйининг томи оламнинг уч даражаси; ер ости, ер усти ва осмон кўринишини шакиллантириб уй рамзи мутлоқ ҳимоя, микро ва микро оламни тасвирлайди.

Инсон- борлиқни яратувчи ва уни шакиллантирувчи рамз сифатида намоён бўлади. Инсон яратган олам каби ўзида моддий ва маънавий, табиий ва дунёвий кўринишларни ифодалайди. Инсоннинг сочи ривоятларга кўра ҳосилдорликни, одамларда табиий жараёнларга нисбатан ривожланишини англатади. Славян халқлари ривоятларига кўра соч фикирлаш рамзи сифатида, узун сочлар эса қайғу аломати сифатида қаралади. Инсоннинг оёқлари инсоннинг илдизлари (авлодлари) билан боғлиқ бўлиб, барқарорлик, вазифаларини бажарувчи рамз сифатида қаралади. Оёқлар хар доим ерга боғланган худди дарахлартнинг илдизи каби, шу сабабли лотин тилидаги *pedis* ва санскрит тилидаги *pada*- одамнинг оёғинигина эмас балки дарахт илдизини ҳам англатади.

Хулоса

“Уй – дарахт – инсон” методикаси рамзларга асосланган бўлишига қарамасдан Ғарб психологиясида кенг қўлланилади. Республикамизда ушбу методика ёрдамида ўтказилган аҳамиятли тадқиқотлар деярли йўқ. Яқин чет эл психологиясида ушбу методика ёрдамида тадқиқотлар амалга оширилган. Жумладан Ю.А.Аксенова томонидан олиб борилган тадқиқотларда 7-8 ёшли болаларда бу рамзларнинг тўлиқ фойдаланиш имконияти мавжудлигини (50% тушунишини) аниқлаб берди. Методика ёрдамида аниқ маълумотлар олиш мумкин деган хулосага келади. Шу сабабли “Уй – дарахт – инсон” тест методикаси

муаллифнинг фикрича болалардаги индивидуал хусусиятларни аниқлашда муҳим ўрин эгаллаб ушбу методикани проектив методлар гуруҳига киритиш мумкин деб таъкидлайди. “Уй – дарахт – инсон” методикасидан фойдаланишда ташқи таъсирлар ҳам мавжуддир. Булар:

– Расмларда аниқ объектлар танланган бўлса ҳам синалувчига қандай уй, қандай дарахт, қандай одамнинг расмини чизиш ва унинг хажми айтилмайди;

–Расм чизишда уйнинг образи, кўриниши, дарахтнинг хажми, образи ва ёши, инсонинг миллати, ёши, фаолият тури айтилмайди;

–Синалувчи расм чизишда унга ўзига таниш бўлган материаллар,предметлар яъни ўзига таниш объектлар проекциясини чизиш имкониятига эга бўлади;

–Расм чизиш жараёнида синалувчиларда эмоциональ реакциялар юзага келиши мумкин. Булар расм чизиш жараёнида тўлиқ ёки қисман расм фрагментларида намоён бўлиши мумкин.

“Уй – дарахт – инсон” методикасига хулоса қилиб қуйдагиларни таъкидлаш мумкин:

1) “Уй – дарахт – инсон” методикаси болаларда ва катталарда интеллектини аниқлаш воситаси сифатида фойдаланиш мумкин, унинг тор ва ноанъанавий методадилогик ёндашувга эга эканлигига қарамасдан;

2) “Уй – дарахт – инсон” методикаси расм чизиш жараёнида инсон интеллекти ҳақидаги асосий маълумотларга таянган ҳолда ташқи муносабатларини ихтиёрий ва ихтиёрсиз қайд қилишларга асосланган ҳолда таҳлил қилади;

3) Расм чизиш жараёнида новербал фазадаги асосий вазифаси образларни яратиш ва уларни қалам ёрдамида расм чизишда икки ўлчамли ёки уч ўлчамли кобинацияларни хотирасида амалга ошириши керак бўлади;

4) Расм чизиш жараёнининг соддалиги туфайли расм жараёнида оғзаки баён қила олмаган яширин интеллектуал қобилиятларини расм чизиш жараёнида намоён қилиши мумкин;

5) Расм чизиш жараёнида этнопсихологик ва минтақавий хусусиятларни ҳисобга олишга эътибор қаратилмаган. Бу хусусиятлар расм чизиш жараёнида психологик тўсиқ сифатида таъсир кўрсатиши мумкин.

Адабиётлар.

1. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. М.: Ц 2001г.
2. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб.: 2005г.
3. Шишова Е.О. Качественные и количественные методы исследований в психологии. Казань-2014
4. Т.В.Norimbetov.,N.T.Norimbetova. Kichik maktab yoshida o‘yin va o‘quv faoliyati motivlarinig psixologik xususiyatlari. TDPU ilmiy axborotnomasi - Nauchniy vestnik TDPU 2020 yil 6-son.173-178 bet.
- 5.Т.Б. Норимбетов, Н.Т.Норимбетова - Влияние учебных действий к мыслительным действиям мл. школьников в учебной деятельности.- «ORIENTAL RENAISSANCE » №4 2021 Impact Factor 5.423. стр. 383-391.
- 6.Т.В.Norimbetov. - Ijtimoiy psixologik trening.- O‘quv uslubiy qo‘llanma – Toshkent. “Innovatsiya Ziya” 2022. 111.bet.
7. Ахмедов К.М., Норимбетов Т.Б., & Норимбетова Н.Т. (2025). СОЦИАЛИЗАЦИЯ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА ЧЕРЕЗ ТРУДОВУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ. Multidisciplinary journal of science and technology, 5(2), 328–332.

Оилада фарзандлар ўртасидаги юзага келадиган низоли вазиятлар ва уларнинг олдини олишда воситачинингўрни.

Т.Б.Норимбетов. Ипак Йўли инновациялар
Университет доценти, психол. ф. н.

Н.Т.Норимбетова. Ипак Йўли инновациялар
Университет ўқитувчиси.

Аннотация.

Замонавий психологияда оила ва оилавий муносабатлар кенг ўрганилмоқда. Оиланинг асосий функцияларидан бири бу тарбия саналади. Оилавий муносабатлардаги фарзандлар орасидаги муносабатларни ўрганиш жуда долзарб ҳисобланади. Ушбу муносабатлар психологияда сиблинг муносабатлар деб номланиб кўплаб тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Сиблинг муносабатларда вақти вақти билан низолар содир бўлади. Бу низоларни ҳал қилишда воситачилар ёки маслаҳатчилар иштрокини талаб қилади. Воситачи сифатида асосан ота оналар ёки оиланинг катта аъзолари низоларни ижобий ҳал қилишга ҳаракат қилишади. Ушбу мақолада биз низоларни ижобий ҳал қилиш учун воситачиларга тавсияномалар хавола этамиз.

Аннотация.

В современной психологии широко изучается семья и семейных взаимоотношении. Основным функциям семьи относятся воспитание детей. “Детско-детское” отношение в семье является очень актуальным и оно в психологии получило название сиблинговое отношение. В этих отношениях иногда происходит конфликты которое требует немедленного решение. В решение этих конфликтов необходимо участие посредников. Обычно в семье роли посредников вступает родители или взрослые члены семьи. В данной статье мы предлагаем некоторую рекомендацию посредникам чтобы решать возникающие конфликты между детьми в положительном русле.

Калит сўзлар: Оила, оилавий муносабатлар, фарзандлар ўртасидаги муносабатлар, сиблинг, низолар, деструктив, конструктив. вақтинчалик, ўткинчи в.хх. низоли вазиятлар, ота она, оиланинг катта аъзолари, воситачилар, маслаҳатчилар, тавсиялар, кўрсатмалар.

Кириш

Замонавий психологияда оиладаги фарзандлар ўртасидаги ўзаро муносабатлар сиблинг муносабатлар деб номланиб бу борада кенг қамровли тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Кўплаб тадқиқотлар ушбу муносабатларнинг турли қирраларини ўрганмоқда. Шунга қарамадан ушбу муносабатларда юзага келадиган низоли вазиятлар бизнинг назаримизда қамроқ ўрганилган. Низоли вазиятлар одамлар орасидаги ўзаро муносабатларда ҳар доим ҳамроқ ҳисобланади. Ушбу низоли вазиятлар фарзандлар ўртасида ҳам доимий ва ажралмас кўриниш сифатида намоён бўлади.

Фарзандлар орасидаги низоли вазиятлар катталар орасидаги низолардан умуман фарқ қилади. Улардаги низолар катталардаги каби деструктив ёки конструктив кўринишга эга бўлмайди балки вақтинчалик, ўткинчи кўринишга эга бўлади. Фарзандлар орасидаги низоли вазиятлар турли сабабларга кўра, кундалик турмушда, ўйин ёки ўқиш фаолиятида, мулоқатдаги келишмовчиликларда юзага келиши мумкин. Бола ўз олдига қўйган мақсадларини рўёбга чиқаришда фикрлар қарама қаршилигининг юзага келиши оқибатида низоли вазиятлар содир бўлади.

Низоларнинг келиб чиқиш сабабларини аниқлаш ва уларнинг олдини олишда оиладаги катталарнинг ўрни ўта муҳим саналади. Оила тарбиясида ушбу муомма жуда долзарб бўлиб уни таҳлил қилиш ҳар доим ўз аҳамиятини йўқатмайди.

Оилавий муносабатлардаги энг асосий ва самарали тарбия усулларидан бири бў хамкорлик, яъни оила аъзоларининг у ёки бу муоммани ҳал қилишда ўзаро ҳамкорлигига катта эътибор қаратилади. Оиладаги фарзандлар орасидаги низоли вазиятларда ота она ва оиланинг катта аъзолари томонидан болалар ўртасида юзага келган низоларнинг келиб чиқиш сабаблари, мотивлари, боланинг низоли вазиятларда мақсадга қаратилган тасаввурлари, ички кечинмаларини ва руҳий ҳолатларини аниқлаш талаб қилинади. Бундан ташқари фарзандлар орасидаги низоларнинг олдини олишда миллий, минтақавий ва этник хусусиятларга ҳам эътибор қаратиш талаб этилади.

Материаллар, усуллар, натижалар.

Оилада фарзандлар орасида юзага келадиган низоли вазиятларни ҳал қилишда асосан ота она, бобо, буви ва оиладаги катта фарзандлар маслаҳатчи. воситачи вазифасини

бажаради. Ушбу воситачиларнинг самарадорлиги низоларнинг олдини олишда ва уларни ижобий хал қилишда намоён бўлади. Низоларни хал қилишда воситачилар иштирокида жуда муҳим психологик вазиятни юзага келтиради, яъни низоли вазиятни хал қилиш учун воситачи низодаги у ёки бу фарзанднинг томонини олмаслиги керак, уларни мурасага чақириб, ўзаро ҳамкорликни юзага келтирган ҳолда келиб чиққан низонинг умумий ечимни топиш керак бўлади.

Низоли вазиятлар ва уларнинг келиб чиқиш сабаблари, ривожланиш генезислари, низоларнинг олдини олиш бўйича кўплаб тадқиқотлар психология фанида ҳар томонлама амалга оширилган. Биз ушбу тадқиқотлар натижаларига асосланиб ва ўзимиз томонимиздан олиб борилган тадқиқот натижалари асосида фарзандлар ўртасида юзага келадиган низоли вазиятларнинг олдини олиш учун оиланинг катта аъзолари ва ота оналарга яъни низони хал қилишга ёрдам берадиган шахсларга қуйидаги тавсияларни кўрсатиб ўтмоқчимиз.

Оиладаги фарзандлар орасидаги низоли вазиятларни самарали ва ижобий хал қилиш учун биз маслаҳат берувчи воситачига яъни оиланинг катта аъзоларига ва ота оналарга қуйидаги тавсияларни тақлиф этамиз:

- ✚ Низода ишток этувчи фарзандлар воситачининг ҳаққоний ва одил қарор қабул қилишига ишониши керак;
- ✚ Воситачи низога алоқаси йўқ нейтрал шахс бўлиши керак;
- ✚ Низо иштрокчилари якуний қарор қабул қилиш учун воситачининг иштрокига икки томон ҳам рози бўлиши керак;
- ✚ Низодаги воситачи низода иштрок этувчи иккала томонни алоҳида алоҳида эшитиши ва вазиятни тўғри баҳолай олиши керак.
- ✚ Воситачининг асосий вазифаси низонинг келиб чиқиши бўйича ахборот тўплаш, вазият бўйича томонларнинг фикрларини эшитиш ва ўзича қарор қабул қилмаслиги керак;
- ✚ Воситачи ўз мавқейдан фойдаланиб низода иштрок этувчиларнинг бирининг ёки иккаласининг ҳам томонини оладиган бўлса, низонинг хал қилинишида олинган ижобий натижа ҳозирда ва келажакда таъсир этмаслигига ва келажакда тақрорланмаслигини кафолатлай олиши керак;
- ✚ Воситачи низо иштрокчиларининг иккаласини ҳам низони хал қилишда уларнинг нуқтай назарини, қарашларини ва ҳисларини ҳисобга олиши керак;
- ✚ Воситачи низо иштрокчиларининг иккаласига ҳам баробар ёрдам берган ҳолда низони хал қилиш учун иккала томон ҳам ўзларини чеклаши кераклигини акс ҳолда оқибати салбий бўлишини тушинтириши керак;
- ✚ Воситачи фарзандлар орасидаги низоларни хал қилиши учун бола яшаётган муҳитни, минтақавий хусусиятларни, тарбия усулларини ва этник хусусиятларни ҳисобга олиши керак;

Юқоридаги тавсиялардан кўриниб турибдики, воситачи бу фарзандлар орасидаги низоли вазиятларда тасодифий иштрокчи эмас балки низони самарали хал қилишдаги асосий шахс ҳисобланади. Низоли вазиятларда воситачи ролини бажарувчи шахс ўз ҳатти ҳаракатларига мантиқий тарзда жавоб бера олиши керак. Фақат шундагина низолар ижобий хал қилинади. Акс ҳолда низоли вазиятлар салбий оқибатларга олиб келиши мумкин.

Хулоса

Оилавий муносабатларда аниқсиз оталар ўз мавқейдан фойдаланиб аксарият ҳолларда низоларни хал қилишда ўз ҳатти ҳаракатларида мантиқий ечим қабул қилмайди. Оқибатда низоларни хал қилишда низоларнинг келиб чиқиш сабабига эътибор бермайди ва вазиятга қараб низоларни хал қилишга ҳаракат қилади. Бундай шароитда ота оналар қуйидаги кўрсаткичларга амал қилишлари керак:

1. Низоларнинг келиб чиқиш сабабларини таҳлил қилиш; бундай ҳолларда ота она;
 - Фарзандларнинг қизиқишлари низоли вазиятларда қандай тарзда эътиборга олинган.
 - Низоларнинг асосий сабаблари ва низолар келиб чиқишига сабабчи бўлган омилларни аниқлаш.

- Низо иштрокчиларининг низодан олдинги муносабатларини таҳлил қилиш.
- 2. Низоларнинг предмети таҳлил қилиш. Ота она низоли вазиятларни таҳлил қилишда низоларнинг мақсади, кундалик ҳаётидаги келишмовчиликлар ва ўзаро муносабатлардаги шахсий адоватларни ўрганиши керак. Бундай ҳолларда ота она;
 - Шахсий муносабатларни таҳлил қилиши.
 - Шахсий муносабатларда ёки фаолият турларида келишмовчиликларни ўрганиши.
 - Низолар келиб чиқишининг реал даражасини ўрганиш.
 - Низоли вазиятларда фарзандларнинг қайси бири фаол ёки қайси бири пассив эканлигини аниқлаш.
 - Низони бошлаган фарзанднинг мақсадини аниқлаш.

Хулоса қилиб фарзандлар орасидаги низоларда унинг оқибатларини аниқлаш. Низолар фарзандлар ўртасида келишмовчиликларни кучайтириши, муносабатларини ёмонлаштириши ёки фарзандлар орасида меҳр оқибатни кучайтириши. Уларни ахил қилиши мумкин. Ушбу низоларнинг қай даражада намоён бўлиши низони ечишга ҳаракат қилган воситачи, маслаҳатчининг хатти ҳаракатларига, қабул қилган ечимига боғлиқ бўлади.

Адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-3808-сон Қарори.
2. Алешина Ю. Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. – М.: Независимая фирма «Класс», 2000. – 208 с.
3. Баркан А.И. Практическая психология для родителей, или Как научиться понимать своего ребенка. -М.: АСГ - ПРЕСС, 1999. - 432 с.
4. Вишнякова Н.Ф. Конфликтология. - Минск, 2002.
5. Давлетшин М.Г. Оиладagi низолар психологияси ва уларни бартараф этиш йўллари. Ўзбек оиласининг этнопсихологик муаммолари. //Республика илмий-амалий анжумани, маърузалар қисқа баёни. - Тошкент, 1993. -Б. 33-34.
6. Т.В. Norimbetov. Sharq allomalari asarlarida bilimga qiziqishni shakllantirishda oylaning o‘rni haqida fikrlar. -Т.: “Oyla” Ilmiy-amaliy markazi konferentsiyasi maqolalar to‘plavi, 2018. -262-265 betlar.
7. Шоумаров Ғ.Б., Соғинов Н.А. Ота-она ва фарзанд муносабатларини шаклланишининг ижтимоий психологик жиҳатлари. /Ўзбекистон Республикаси вазирлар маҳкамаси ҳузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази. –Тошкент, 2019. - 55 б.

Интернет ресурслари.

1. <http://www.ziyo.net>
2. www.edu.uz
3. <http://www.psyinst.ru>
4. <http://www.psygrad.ru>
5. WWW.I-U.RU
6. <http://textshare.tsx.org>

JAMIYATNING IJTIMOIIY-MADANIY GENOTIPI

*Eshemov Abdurahim Ravshan O‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti
Biologiya ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi
E-mail: eshemovabdirahim@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning ijtimoiy-madaniy genotipi tushunchasi sotsiologik, falsafiy va antropologik yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilinadi. Madaniy genotipning tarkibiy elementlari, uning ijtimoiy tizim barqarorligini ta’minlashdagi roli va globallashuv sharoitida milliy kodlarning transformatsiyalashuv muammolari ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada genotipik xususiyatlarning modernizatsiya jarayonlariga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy genotip, madaniy matrix, arxetip, ijtimoiy meros, mentalitet, sotsiokultural tizim, kognitiv filtr, milliy o‘zlik.

Аннотация: В данной статье представлен углубленный анализ концепции социокультурного генотипа общества на основе социологического, философского и антропологического подходов. Научно обоснованы структурные элементы культурного генотипа, его роль в обеспечении стабильности социальной системы и проблемы трансформации национальных кодов в условиях глобализации. В статье также рассматривается влияние генотипических характеристик на процессы модернизации.

Ключевые слова: Социальный генотип, культурная матрица, архетип, социальное наследие, mentalitet, социокультурная система, когнитивный фильтр, национальная идентичность.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the concept of the socio-cultural genotype of society based on sociological, philosophical and anthropological approaches. The structural elements of the cultural genotype, its role in ensuring the stability of the social system and the problems of transformation of national codes in the conditions of globalization are scientifically substantiated. The article also considers the impact of genotypic characteristics on modernization processes.

Key words: Social genotype, cultural matrix, archetype, social heritage, mentality, sociocultural system, cognitive filter, national identity.

Kirish: Zamonaviy ijtimoiy fanlarda jamiyatning rivojlanish traektoriyasini tushunish uchun uning «ichki dasturi»ni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-madaniy genotip - bu jamiyatning tarixiy tajribasi davomida kristallashgan, avloddan-avlodga o‘tadigan va ijtimoiy xulq-atvorni belgilaydigan axborotlar, qadriyatlar va normalar majmuidir. Bu tushuncha jamiyatning nima uchun aynan ma’lum bir yo‘ldan ketayotganini, nega ba’zi islohotlarni qabul qilib, boshqalarini rad etishini tushuntirib beruvchi kalit hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy genotipning ilmiy-nazariy asoslari: Genotip tushunchasi ijtimoiy fanlarga biologiyadan analogiya sifatida kirib kelgan bo‘lsa-da, u o‘ziga xos mazmun kasb etadi.

P. Sorokin yondashuviga ko‘ra, bu «madaniy tizimning o‘zagi» bo‘lib, u jamiyatning barcha sohalarini (iqtisod, siyosat, huquq) birlashtirib turadi.

K. Yung nuqtai nazaridan, bu «jamoaviy ongsizlik» (collective unconscious) va arxetiplar bilan bog‘liq bo‘lib, insonlarning tug‘ma madaniy intuitsiyasini belgilaydi.

M. Veber talqinida esa, bu ijtimoiy harakatlarning «ma’no strukturasi» bo‘lib, xo‘jalik yuritish va ijtimoiy munosabatlar uslubini belgilaydi (masalan, «protestant etikasi»).

Genotipning strukturaviy komponentlari: Ijtimoiy-madaniy genotip murakkab, ko‘p qatlamli tizim bo‘lib, quyidagi bloklarni o‘z ichiga oladi:

Kognitiv-lingvistik Til nafaqat aloqa vositasi, balki dunyoni ko‘rish usulidir. Tilning grammatik strukturasi va semantikasi millatning mantiqiy fikrlash genotipini belgilaydi. Masalan, «Siz» va «Sen» murojaatining semantik farqlari ijtimoiy masofa va iyerarxiya kodlarini saqlaydi.

Aksiologik Bu genotipning «yuragi»dir. Bu yerda hayot va o‘lim, ezgulik va yovuzlik, adolat va qonun, shaxs va jamoa o‘rtasidagi ustuvorliklar joylashgan.

Sharq genotipida: Jamoaviylik (kollektivizm), oilaviy markazlashuv, ma’naviy kamolot.

G‘arb genotipida: Individualizm, ratsionalizm, pragmatizm, shaxsiy erkinlik.

Praksiologik Insonlarning kundalik hayotdagi harakatlari: to‘ylar, marosimlar, mehnat qilish uslubi, nizolarni hal qilish tartibi. Bu «ijtimoiy skriptlar» ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Genotipning funksiyalari va ijtimoiy reproduksiya: Ijtimoiy-madaniy genotip jamiyat hayotida uchta asosiy funksiyani bajaradi:

Integratsiya: Turli ijtimoiy guruhlarini yagona «Biz» tushunchasi atrofida birlashtirish.

Identifikatsiya: Insonning o‘zini muayyan madaniy muhitga mansubligini his qilishi.

Filtratsiya: Tashqi muhitdan kelayotgan axborotlarni milliy manfaatlarga mos ravishda saralash.

Transformatsiya va inqiroz: genotipning o‘zgarishi: Genotip mutlaqo o‘zgarmas (statik) emas, u ham evolyutsiya qiladi. Biroq, bu jarayon juda sekin kechadi.

Adaptiv transformatsiya: Genotipning aslini saqlagan holda yangi texnologik va iqtisodiy sharoitlarga moslashishi (Masalan, Yaponiyaning «Yapon ruhi - G‘arb texnikasi» formulasi).

Genotipik eroziya: Tashqi madaniy agressiya natijasida jamiyatning o‘z ichki kodlaridan voz kechishi. Bu ko‘pincha jamiyatda anomiya (qadriyatsizlik) va ijtimoiy depressiyaga olib keladi.

O‘zbek jamiyatining ijtimoiy-madaniy genotipi xususiyatlari: O‘zbekiston jamiyati genotipi asrlar davomida Islom sivilizatsiyasi, Turkiy davlatchilik an‘analari va Buyuk Ipak yo‘li chorrahasidagi muloqotlar natijasida shakllangan. Uning o‘ziga xos jihatlari:

Mahalla fenomeni: Ijtimoiy nazorat va o‘z-o‘zini boshqarishning genetik kodi.

Oila-sentrizm: Shaxsiy manfaatlardan oila manfaatlarining ustuvorligi.

Vertikal iyerarxiya: Yoshi ulug‘larga va ustozlarga bo‘lgan alohida hurmat kodi.

Xulosa va ilmiy takliflar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning ijtimoiy-madaniy genotipi shunchaki o‘tmishdan qolgan meros emas, balki millatning strategik resursidir. Ushbu genotipni o‘rganish va unga asoslanib davlat qurilishini amalga oshirish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Ijtimoiy barqarorlik mexanizmi: Madaniy genotip jamiyat uchun “ma’naviy immunitet” vazifasini o‘taydi. Agarda mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlar xalqning genotipik kodlariga (masalan, adolatparvarlik, jamoaviylik, oila ustuvorligi) mos kelsa, ijtimoiy anomiya va qarshiliklar darajasi keskin kamayadi.

Modernizatsiya va an‘ana sintezi: Dunyo tajribasi (Yaponiya, Singapur, Germaniya) shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy sakrashga faqat o‘z genotipini saqlab qolgan va uni texnologik yutuqlar bilan boyitgan jamiyatlarga erishadi. «O‘zbek modeli»ning muvaffaqiyati ham genotipdagi «bag‘rikenglik» va «mehnatsevarlik» kodlarini zamonaviy bozor iqtisodiyoti tamoyillari bilan qanchalik uyg‘unlashtira olishimizga bog‘liq.

Globalashuv va xavfsizlik: Bugungi kunda «yumshoq kuch» (soft power) orqali amalga oshirilayotgan mafkuraviy xurujlar aynan jamiyat genotipini buzishga, uning tarixiy xotirasini o‘chirishga qaratilgan. Shuning uchun milliy genotipni ilmiy asosda o‘rganish milliy xavfsizlikning ajralmas qismidir.

Amaliy takliflar: Ta’lim tizimida «Milliy genotip va zamonaviylik» mavzularini fanlararo integratsiya qilish;

Raqamli muhitda milliy madaniy kodlarni targ‘ib qiluvchi kontentlar (IT-mahsulotlar, sun‘iy intellekt algoritmlari uchun milliy ma’lumotlar bazasi) yaratish;

Ijtimoiy-madaniy genotipni saqlashning huquqiy asoslarini (nomoddiy madaniy merosni himoya qilish doirasida) takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Mirziyoyev Sh.M.** «Yangi O‘zbekiston strategiyasi». - Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2021.
2. **Sorokin P.A.** «Social and Cultural Dynamics: A Study of Change in Major Systems of Art, Truth, Ethics, Law and Social Relationships». - New York: American Book Company, 1937–1941. (*Ijtimoiy-madaniy dinamika asoschisi*).
3. **Spengler O.** «Der Untergang des Abendlandes» (The Decline of the West). - Munich, 1918. (*Madaniy tiplar va genotiplar haqidagi klassik asar*).
4. **Huntington S.P.** «The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order». - New York: Simon & Schuster, 1996. (*Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va madaniy kodlar*).
5. **Gumilyov L.N.** «Etnogenez i biosfera Zemli». - Moskva: Ayris-press, 2004. (*Etnik genotip va energiya nazariyasi*).

6. **Gofman A.B.** «Traditsiya, kotoroy net: dobrodetel i porok v sotsiologicheskoy teorii». - M.: Fond «Pragmatika kulturi», 2004.
7. **Saidov A.X.** «O‘zbekiston sivilizatsiyasi: tarixiy-huquqiy va madaniy jihatlar». - Toshkent, 2015.
8. **Levada Yu.A.** «Ot mneniy k ponimaniyu: Sotsiologicheskie ocherki». - M.: Moskovskaya shkola politicheskix issledovaniy, 2000.
9. **Inglehart R., Welzel C.** «Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence». - Cambridge University Press, 2005. (*Qadriyatlar transformatsiyasi bo‘yicha global tadqiqotlar*).
10. **Zunnunov A.** «O‘zbek pedagogikasi tarixi». - Toshkent: «Sharq», 2004. (*Milliy tarbiya genotipi haqida*).

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutq o‘stirish metodikasi yuzasidan ayrim tavsiyalar

**Angren universiteti
o‘qituvchisi
Shadiyeva
Dilfuza Urinbayevna**

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim tashkilotida nutqni rivojlantirish — bu muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, so‘z boyligini oshirish, grammatik qurilishni o‘zlashtirish, tovush madaniyatini tarbiyalash va bog‘lanishli nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan majmuaviy pedagogik jarayon ekanligi sabab ushbu maqolada maktabgacha ta’limda nutq o‘stirish metodikasiga oid tavsiyalar asosida ko‘rsatmalar, metodik mashqlar, bolalar nutq ravonligi, uning rivojlanishi bo‘yicha turli masalalar yoritib berilgan. Shuningdek, didaktik o‘yinlar, badiiy adabiyot mutolaasi, suhbatlar, tovush talaffuzi bo‘yicha maslahatlar hamda maktabga tayyorgarlikni ta’minlovchi rivojlantirish metodlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim tizimi, nutq o‘stirish, ravon nutq, lug‘at boyligi, she’rlardan foydalanish usullari, rivojlantiruvchi o‘yinlar, faol so‘z boyligi, ma’nodosh so‘zlar, zid ma’noli so‘zlar.

Аннотация: Развитие речи в дошкольной образовательной организации представляет собой комплексный педагогический процесс, направленный на формирование коммуникативных навыков, расширение словарного запаса, освоение грамматического строя, воспитание звуковой культуры речи и развитие связной речи. В связи с этим в данной статье на основе рекомендаций по методике развития речи в дошкольном образовании представлены указания, методические упражнения, а также освещены различные вопросы, связанные с беглостью речи детей и её развитием. Кроме того, рассматриваются дидактические игры, чтение художественной литературы, беседы, рекомендации по произношению звуков и методы развития, обеспечивающие подготовку к школе.

Ключевые слова: система дошкольного образования, развитие речи, связная речь, словарный запас, методы использования стихотворений, развивающие игры, активный словарный запас, синонимы, антонимы.

Abstract: Speech development in preschool education is a comprehensive pedagogical process aimed at forming communication skills, enriching vocabulary, mastering grammatical structures, cultivating sound culture, and developing coherent speech. Accordingly, this article presents guidelines and methodological exercises based on recommendations for speech development methods in preschool education, and examines various issues related to children's speech fluency and its development. It also discusses didactic games, reading of literary works, conversations, recommendations on sound pronunciation, and developmental methods that ensure readiness for school.

Keywords: preschool education system, speech development, coherent speech, vocabulary, methods of using poems, developmental games, active vocabulary, synonyms, antonyms.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsadi - maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma’naviy me’yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan, mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir. Ma’lumki, zamonaviy dunyoda chiroyli va to‘g‘ri nutq — yuksak madaniyat va yaxshi ta’lim ramzidir. Shuning uchun farzandingiz atrofdagilar bilan oson muloqot qila olishi va o‘z fikrlarini aniq ifoda etishi uchun uning nutqiga bolaligidan e’tibor berishimiz kerak. Bolaning lug‘at boyligini oshirish birinchidan tafakkur va boshqa ruhiy jarayonlar rivoji bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan nutq tuzilishining barcha qismlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, bolaning lug‘at zaxirasini boyitish va aniqlash orqali biz bir vaqtning o‘zida tilning grammatik tuzilishini shakllantiramiz hamda bog‘lanishli nutqini rivojlantiramiz.

Bola lug‘at boyligini eng faol ravishda 2 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan davrda to‘ldiradi. Bu yoshda ko‘plab bolalar ayrim tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladi, shuning uchun atrofdagilar bilan muloqotda ma’lum qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. 3–4 yoshda bola taxminan mingta so‘zni biladi. U shaxs olmoshlarini to‘g‘ri qo‘llaydi, ko‘proq savol beradi, rasmda nima chizilganini aytib berishni yaxshi ko‘radi, katta-kichikni, chiroyli narsalarni bir-biri bilan solishtiradi. 4–5 yoshda eng rivojlangan bolalar o‘z nutqidagi kamchiliklarni payqay boshlaydi, gapirishdan uyaladi, «qiyin» tovushli so‘zlardan qochishga harakat qiladi.

Lug‘at boyligini muntazam oshirib borgan sari, bola gap tuzilishini ham murakkablashtiradi. Bola so‘zlar yordamida faqat o‘zi tushuna oladigan narsalarni ifoda etadi. Shuning uchun uning lug‘atida avval aniq ma’noli so‘zlar, keyinroq esa umumlashtiruvchi ma’nodagi so‘zlar paydo bo‘ladi. Shuningdek, lug‘at zaxirasining boyishi bolaning tasavvur doirasi kengayishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Farzandning lug‘at boyligi tobora boyib borishi uchun, avvalo ota-onalar o‘zlarining har doim ham mukammal bo‘lmagan nutqiga e’tibor berishlari kerak. Kattalar suhbat yorqin va ta’sirchan so‘zlar hamda iboralarga boy bo‘lishi muhim. Bola so‘zlarni faqat bilibgina qolmasdan, ularni amalda qo‘llay olishi ham kerak. Shuning uchun bolalar bilan imkoni boricha ko‘proq muloqot qilish va ularga kitob o‘qib berish zarur. Bu borada ayniqsa she’rlar foydali, degan fikr bor. She’rlarni muntazam tinglash va takrorlash, bola so‘zlarni ohang bilan aytishni o‘rganadi, bu esa ularni yod olish jarayonini ancha osonlashtiradi. She’rlar orqali bola bir xil talaffuzga ega bo‘lgan turli so‘zlar hamda ma’nosi o‘xshash bo‘lgan turli so‘zlar mavjudligini bilib oladi. She’rlardan quyidagicha foydalanish mumkin:

1. Faol takrorlash orqali: Bolalar tarbiyachi ortidan harakatlar va tovushlarni takrorlashi kerak.
2. Emotsiyani jalb qilish orqali: She’rni ifodali o‘qish, muhim so‘zlarni ovoz bilan alohida ta’kidlash.
3. Barmoq o‘yinlaridan foydalanish orqali: Barmoqlar ishtirok etadigan she’rlar bevosita miyaning nutq markazlarini rivojlantiradi. Masalan, nutqni rivojlantirish uchun she’r turlarini tavsiya etamiz:

“Til va nutq markazi”da
O‘rganamiz harflarni,
Bog‘chamizning o‘zida
O‘qiyamiz so‘z, gaplarni

“San’at markazi” bizga
O‘rgatar rasm chizish.
Va uni bo‘yab sizga,
Chiroyli taqdim etish.

***** *****
Laylak keldi, yoz bo‘ldi.
Qanoti qog‘oz bo‘ldi.
Kunlari isib ketdi-yu,
Bolalarga soz bo‘ldi.
Laylakning bo‘yi novcha
Tumshug‘i bor tarnovcha,
Lapanglaydi yurganda,
Uyasidan ko‘chganda
Uzun ekan oyog‘i,
xuddi cholning tayog‘i.
Qanoti ola ekan,
Sayrashga balo ekan.

-Oting nima, qizaloq?
-Menmi, tog‘a, Lolaman.
-Ol mayizdan, bir hovuch.
- Yo ‘q, odobli bolaman.
Hovuchingiz kattaroq,
Siz bersangiz olaman....

- Karimaxon, qayga ketding?
- Kel, sochimni tarayapman.
- Qatiqni tez olib chiq.
- Hozir, opa, qarayapman.
- Ozroq edi, ichib qo‘yma,
- Ichganim yo ‘q, yalayapman.

Bolalar bog‘chasida nutqni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan she’rlar — bu qisqa, ritmik asarlar bo‘lib, ular tovushga taqlid qilish, barmoq gimnastikasi va harakatlarni birlashtiradi. Ular 1–6 yoshli bolalarning so‘z boyligini kengaytiradi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni mashq qildiradi, izchil nutq va fonematik eshitish qobiliyatini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rivojlantiruvchi o‘yinlar faol so‘z boyligini oshirishga, bog‘lanishli nutqni rivojlantirishga, narsalarni tasvirlab berish hamda sinonim va antonimlardan foydalanish mahoratini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ular mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat va ijtimoiy ko‘nikmalar kabi turli xil mahorat hamda qobiliyatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan. Maktabgacha ta’limda bolaning so‘z boyligini, lug‘atini boyitish uchun quyidagi ta’limiy va samarali o‘yinlarni misol keltiramiz:

«**Bir so‘z bilan ayt**» (umumlashtirish): Tarbiyachi predmetni tasvirlaydi, bola esa uni bir so‘z bilan aytadi (masalan, tishni tozalashga yordam beradi— shetka va pasta: Bolani burni oqqanda kerak bo‘ladi-dastrumol: chelakchada ichidagi narsalardan turli shakllar yasash mumkin-lego.

«**Do‘st so‘zlar**» (sinonimlar): O‘xshash ma’noli so‘zlarni topish (zebra — eshak, chiroyli — go‘zal, ochki- durbin, ruchka- qalam)

«**Qarshi so‘zlar**» (antonimlar): Jumlani tugallash: «Shakar shirin, limon esa ..., paxta-yumshoq, taxta esa, Daraxt -katta, buta esa,».

«**Men 5 tasini bilaman...**» (guruhlash): To‘pni irg‘itib, beshta meva, hayvon, gul va h.k.ni aytish.

«**predmetni tasvirla**» (sifatlar): Bola predmetning iloji boricha ko‘proq belgilarini aytadi (qanday? — qizil, yog‘och, silliq, Shirin, katta v.h.k).

«**Qanday bo‘ladi...**» (xususiyatlarni tasvirlash): Nima baland bo‘ladi (uy, odam, daraxt), nima keng bo‘ladi (daryo, ko‘cha, yo‘l).

«**To‘rtinchisi ortiqcha**» (tasniflash): Qaysi predmet mos kelmasligini aytish (stol, stul, shkaf, qo‘g‘irchoq: ruchka, daftar, kitob, lola).

«**Bolasini ayt**»: Arslon — arsloncha, sigir — buzoq, echki-uloqcha, it-kuchukcha, mushuk- xumpar yoki mushukcha.

«**Avval nima, keyin nima?**» (fe‘llar): Rasmlar asosida hikoya tuzish. Tanish manzara rasmlari yoki ertaklar yaxshi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ifodali nutqni rivojlantirishning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

Bolalar nutqini boyitish: Bolalarning nutq so‘z boyligi va grammatik ko‘nikmalarini oshirish.

Ijodkorlikni rivojlantirish: Bolalarning ijodiy fikrlash va ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Jamiyatda muloqot qobiliyatini shakllantirish: Bolalarga jamiyatda va muloqot jarayonida o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashni o‘rgatish.

Didaktik o‘yinlar va mashg‘ulotlar: O‘yinlar va turli didaktik mashg‘ulotlar orqali bolalarning nutq qobiliyatlarini oshirish.

Maktabga tayyorgarlik: Bolalarni maktabga tayyorlashda, ular nutqining rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratish.

Nutq terapiyasi: Bolalarda nutq bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun logopedik mashg‘ulotlar o‘tkazish.

Rasmiy nutq mashg‘ulotlari: Bolalarga to‘g‘ri talaffuz, intonatsiya va nutq ritmini o‘rgatish.

Badiiy asarlarni o‘qish va tahlil qilish: Badiiy adabiyotlardan parcha o‘qish, bolalarning tahlil qilish va muhokama qilish ko‘nikmalarini oshirish.

Ovozli o‘yinlar: Nutq terapevtik o‘yinlar orqali bolalarning nutq qobiliyatlarini rivojlantirish.

Lug‘at boyitish: Bolalarning lug‘at boyligini oshirish uchun yangi so‘zlar bilan tanishtirish va ularni faol nutqda qo‘llashga o‘rgatish.

Individa lyondashuv: Har bir bolaga individual yondashish, uning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish.

Turli uslub va metodlar: Bolalarning nutq rivojlanishi uchun turli uslub va metodlardan foydalanish, jumladan hikoya qilish, dialog, rolli o‘yinlar.

Qo‘llab-quvvatlovchi muhit: Bolalarni ijodiy nutq bilan shug‘ullanishga rag‘batlantiruvchi qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish.

Kompleks rivojlanish: Bolalarning nutq qobiliyatlari bilan birga, ularning ijodiy fikrlash, muloqot qobiliyatlari va ijtimoiy ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

O‘z-o‘zini ifodalash: Bolalar o‘z his-tuyg‘ulari, fikrlari va orzularini to‘liq ifodalay oladigan darajada rivojlanadi.

Maktabga tayyorgarlik: Bolalar maktabga borishgacha bo‘lgan davrda barcha kerakli nutq ko‘nikmalarini egallaydilar, bu esa ularning ta‘limdagi muvaffaqiyatiga katta hissa qo‘shadi.

Rolli o‘yinlar: Bolalar uchun turli rollarni ijro etish orqali nutq qobiliyatlarini oshirish. Masalan, doktor bo‘lish, Tarbiyachi rolini bajarish va hokazo.

She‘r va qo‘shiqlarni yodlash: Bolalar uchun mos she‘rlar va qo‘shiqlarni yodlab, ularni ijro etish orqali nutq intonatsiyasi va talaffuzini rivojlantirish.

Nutq musobaqalari: Bolalar uchun turli nutq musobaqalari va tanlovlar tashkil etish, ularda ishtirok etish orqali o‘z nutqlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratish.

Kitob o‘qish va hikoya qilish: Kitob o‘qish va hikoya qilish orqali bolalarning fantaziyasini oshirish va so‘z boyligini kengaytirish.

O‘yinchoqlar bilan o‘yinlar: O‘yinchoqlar bilan o‘yinlar orqali bolalarning ifodali nutq qobiliyatlarini oshirish. Masalan, o‘yinchoq hayvonlar yoki figuralar orqali hikoya qilish, hikoya tuzish.

Biz aytmoqchi bo‘lgan masala yuzasidan yana ko‘plab bahs-munozarali misollarni keltirishimiz mumkin. Zero, maqsadimiz maktabgacha ta‘lim taraqqiyotiga bir ozgina hissa qo‘shish. Dengizday ummonda bu metodlarimiz bir tomchidaydir, ammo timchida ham quyosh aks etishi dilimizga umid uyg‘otaveradi.

INNOVATSION IQTISODIYOTDA EKOLOGIK LOYIHALARNI RAQAMLI PR ORQALI TARG‘IB QILISH VA IQTISODIY SAMARADORLIK (KPI) TAHLILI

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti mustaqil
tadqiqotchisi, O‘rmon agentligi bosh mutaxassisi
Djurayeva Dilnoza Fazliddin qizi
Email: dfazliddinovna@mail.ru
Tel: +998 94-817-88-68*

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida atrof-muhit muhofazasi va "yashil" siyosatni targ‘ib qilishda raqamli PR (Digital PR) vositalarining o‘rni tadqiq etilgan. O‘zbekiston misolida ekologik loyihalarning media-kampaniyalari va ularning samaradorligini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlar (KPI) tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy resurslarni tejash va ijtimoiy mas‘uliyatni oshirishdagi ahamiyati statistik ma‘lumotlar asosida yoritib berilgan. Bugungi kunda raqamli PR va innovatsion iqtisodiyot o‘zaro bog‘liqlik jarayonlari iqtisodiy afzalliklar misolida ko‘rib chiqilgan. Ekologik PR-kampaniyalarning an‘anaviy va raqamli ko‘rsatkichlari qiyosi jadval orqali aks ettirilgan.

Аннотация: В данной статье исследуется роль инструментов цифрового пиара (Digital PR) в защите окружающей среды и продвижении «зеленой» политики в условиях инновационной экономики. На примере Узбекистана анализируются медиа-кампании экологических проектов и ключевые показатели эффективности (KPI) для оценки их результативности. На основе статистических данных освещается значение цифровых технологий в экономии ресурсов и повышении социальной ответственности. Сегодня процессы взаимосвязи цифрового PR и инновационной экономики рассматриваются на примере экономических преимуществ. Сравнение традиционных и цифровых показателей экологических PR-кампаний отражено в виде таблицы.

Abstract: This article examines the role of Digital PR tools in environmental protection and the promotion of "green" policies within an innovative economy. Using Uzbekistan as a case study, the media campaigns of ecological projects and the key performance indicators (KPIs) used to evaluate their effectiveness are analyzed. Based on statistical data, the significance of digital technologies in saving economic resources and increasing social responsibility is highlighted.

Today, the interconnected processes between digital PR and the innovative economy are examined through the lens of economic advantages. A comparison of traditional and digital performance indicators for environmental PR campaigns is presented.

Kalit so‘zlar: *innovatsion iqtisodiyot, raqamli PR, ekologik siyosat, KPI, Yashil makon, raqamli transformatsiya, iqtisodiy samaradorlik, SMM-analitika.*

Ключевые слова: *Инновационная экономика, цифровой PR, экологическая политика, KPI (ключевые показатели эффективности), Яшил макон (Зеленый край), цифровая трансформация, экономическая эффективность, SMM-аналитика.*

Key words: *Innovative economy, digital PR, environmental policy, KPI (Key Performance Indicators), Yashil Makon (Green Nation), digital transformation, economic efficiency, SMM analytics.*

Kirish. Globallashuv va iqlim o‘zgarishi sharoitida innovatsion iqtisodiyotning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri — barqaror rivojlanishni ta’minlashdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi" doirasida ekologik madaniyatni yuksaltirish va davlat siyosatini keng ommaga yetkazish muhim vazifa qilib belgilangan. Bu jarayonda an’anaviy PR vositalaridan raqamli (Digital) PRga o‘tish iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yuqori samara bermoqda.

Bugungi kunda raqamli PR va innovatsion iqtisodiyot o‘zaro bog‘liq bo‘lib bormoqda. Innovatsion iqtisodiyot — bu bilim va texnologiyalarga asoslangan tizim bo‘lib, unda axborot eng qimmatli resurs hisoblanadi. Raqamli PR ekologik siyosatni ilgari surishda quyidagi iqtisodiy afzalliklarga ega:


Resurs tejamliligi: Qog‘ozbozlik va bosma materiallardan voz kechish orqali atrof-muhitga zararni kamaytirish. Strategik va tizimli islohotlarga misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlagan. Bu hujjat barcha sohalarda qog‘ozbozlikdan voz kechish va jarayonlarni to‘liq raqamlashtirish bo‘yicha "yo‘l xaritasi" hisoblanadi. Shuningdek, Prezidentning 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4699-son Qarori ham davlat xizmatlarini qog‘ozsiz shaklga o‘tkazishni jadallashtiradi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi qaroriga muvofiq Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi (project.gov.uz) joriy etilgani, bu esa idoralararo qog‘ozbozlikni keskin kamaytirdi.

Qamrov kengligi: Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yilgi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari soni aholining 94,2 foizini tashkil etmoqda. Mazkur raqamlarni yillar kesimida o‘lishini quyidagi jadval orqali ko‘rishimiz mumkin. Anhor.uz ma‘lumotlariga muvofiq, uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvlarida internetdan foydalanish ko‘rsatkichi erkaklar orasida 95,3%, ayollar orasida esa 93,1% ni tashkil etmoqda. Shaharlarda qamrov 94,3% bo‘lsa, qishloq joylarda ham bu ko‘rsatkich deyarli tenglashib, 93,9% ga yetgan. Bu raqamli tafovut (digital divide) kamayib borayotganidan dalolat beradi.

Qayta aloqa (Feedback): Ijtimoiy tarmoqlar orqali aholining fikrini real vaqt rejimida olish imkoniyati. U yerda yozilgan matn, joylangan audio va video ko‘rinishdagi ma‘lumotlarning sanasi (yil, oy, kun, soat)ni bilish imkoniyati bor. Shuningdek istalgan post tagida izoh qoldirish tugmasi orqali fikr-mulohazalarni bildirish, savollarga javob topish mumkin.

O‘zbekistonda ekologik siyosatning raqamli targ‘iboti: "yashil makon" umummilliy dasturi misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsam, O‘zbekistondagi eng yirik ekologik loyiha — "Yashil makon" umummilliy loyihasi bo‘lib, uning doirasida har yili 200 million tup ko‘chat ekish maqsad qilingan. Ushbu loyihaning targ‘ibotida raqamli PR vositalari (Telegram-botlar, ijtimoiy tarmoqlar, video-roliklar) hal qiluvchi rol o‘ynaydi. "Yashil makon" loyihasining raqamli targ‘iboti nafaqat axborot berish, balki shaffoflikni ta‘minlash va jamoatchilik nazoratini



o‘rnatishga xizmat qilmoqda. "Yashil makon" elektron platformasi (yashilmakon.eco) bu loyihaning "miyasi" hisoblanadi. Platforma orqali geolokatsiya - har bir ekilgan ko‘chatning aniq koordinatalari va fotosuratlar bazaga kiritiladi. Masofadan turib (kosmik monitoring orqali) ko‘chatlarning ko‘karish darajasini kuzatish imkoniyati yaratilgan. Qaysi hududda qancha va qanday turdagi daraxt ekilganini istalgan foydalanuvchi onlayn ko‘ra oladi. Mobil ilovalar va "Yashil to‘lov" tizimida raqamli rag‘batlantirish mexanizmi joriy etilgan. Masalan, "Puls" platformasi yoki bank ilovalari orqali ekologik aksiyalarda qatnashganlik uchun bonuslar berish amaliyoti o‘rganilmoqda. Ba‘zi hududlarda aholi o‘z hovlisiga ko‘chat ekish uchun raqamli arizalar berish tizimi sinovdan o‘tkazildi. Targ‘ibotda Telegram eng samarali vositadir. @Eco_monitoring_bot: Fuqarolar noqonuniy daraxt kesilishi yoki sug‘orish tizimidagi muammolar haqida foto/video hisobotlarni tezkor yuborishlari mumkin.

Kontent strategiyasi: "Yashil makon" doirasida virusli (tez tarqaluvchi) qisqa videolar (Reels, Shorts) orqali yosh avlodning ekologik madaniyatini yuksaltirishga urg‘u berilmoqda.

Raqamli PRning o‘ziga xosligi sifatida bloggerlar va jamoatchilik faollari o‘z sahifalarida "Challenge"lar tashkil etib, ekish jarayonini shaxsiy namuna sifatida ko‘rsatishmoqda.

Vizualizatsiya: Loyihaning natijalari infografikalar va "Oldin va Keyin" formatidagi sun‘iy yo‘ldosh tasvirlari orqali xalqqa yetkazilmoqda, bu esa loyihaga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Ushbu raqamli vositalar loyihani shunchaki "ko‘chat ekish" kampaniyasidan "ekologik ma’lumotlar boshqaruvi" darajasiga olib chiqdi.

Umuman olganda mazkur jadvalda raqamli va an’anaviy PR o‘rtasidagi sezilarli tafovutni ko‘rish mumkin.

Ko‘rsatkich	An’anaviy PR	Raqamli PR (Digital PR)
Xarajatlar	Yuqori (TV, gazeta, banner)	Past (tabiiy qamrov, maqsadli reklama)
Interaktivlik	Bir tomonlama	Ikki tomonlama (direct engagement-auditoriya bilan hech qanday vositachilarsiz, yuzma-yuz yoki interaktiv tarzda bog‘lanish usuli)
KPI baholash	Taxminiy	Aniq (daqiqalar ichida)
Maqsadli auditoriya	Umumiy	Segmentlangan (targeting)

Jadval 1: Ekologik PR-kampaniyalarning an’anaviy va raqamli ko‘rsatkichlari qiyosi

Innovatsion iqtisodiyotda har qanday investitsiya, jumladan, PR-kampaniyalari ham aniq ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanishi kerak. Ekologik siyosatda qo‘llaniladigan asosiy KPI'lar quyidagilar:

Qamrov (Reach): Xabarni ko‘rgan odamlar soni. Masalan, Ekologiya vazirligining rasmiy kanali orqali "Yashil makon" haqidagi videoning 500,000+ marta ko‘rilishi.

Jalb qilinganlik (Engagement Rate - ER): Layk, izoh va "share"lar soni. Bu ko‘rsatkich aholining ekologik tashabbuslarga nisbatan xayrixohligini ifodalaydi.

Konversiya (Conversion Rate) – yakuniy samaradorlik: Masalan, onlayn platforma orqali ko‘chat ekish istagini bildirgan yoki ko‘ngilli sifatida ro‘yxatdan o‘tganlar soni.

CPA (Cost Per Action): Bitta ishtirokchini loyihaga jalb qilish uchun sarflangan xarajat.

Brand Analytics Statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 5,35 milliondan oshgan. Bu esa ekologik siyosatni targ‘ib qilish uchun ulkan maydondir. Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ba’zi hududlarda raqamli targ‘ibot bilan amaliy ishlar o‘rtasida uzilishlar mavjud. Masalan, Zarnews.uz manbasida 2024-yil bahor mavsumida Samarqand viloyatida 11,6 million ko‘chat ekilgan bo‘lsa-da, sug‘orish tizimi va monitoring kamchiligi tufayli 200 mingdan ziyod ko‘chat qurib qolgani qayd etilgan. Bu yerda Digital PR faqat "ekish" jarayonini emas, balki "parvarishlash" mas’uliyatini ham targ‘ib qilishi maqsadga muvofiq.

Raqamli PR-instrumentlaridan to‘g‘ri foydalanish innovatsion iqtisodiyot uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Digital Monitoring: Ko‘chatlarni GPS-koordinatalar asosida xaritaga kiritish (Yashil makon platformasi).

Crowdsourcing: Aholidan noqonuniy daraxt kesilishi yoki chiqindilar haqida foto-hisobotlarni qabul qilish (masalan, "Eko-nazorat" boti).

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, innovatsion iqtisodiyot sharoitida ekologik siyosatni targ‘ib qilish faqat axborot berish emas, balki raqamli ma’lumotlar asosida jamiyat ongini o‘zgartirish jarayonidir. Raqamli PR vositalari an’anaviy usullarga qaraganda xarajatlarni 30-40 foizga kamaytirish va natijadorlikni aniq KPI orqali baholash imkonini beradi.

O‘zbekistonda bu tizimni yanada takomillashtirish uchun davlat idoralarining raqamli komplaens va ochiq ma’lumotlar siyosatini kengaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari

1. Sh.Mirziyoev, Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T:O‘zbekiston, 2021-y.
 2. T.Kuyliyev, Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi intellekt va ekologik ongni shakllantirish-Toshkent, 2024, -C. 45
 3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Internet foydalanuvchilari statistikasi (2025).
 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil makon" umummilliy loyihasi to‘g‘risidagi farmon va qarorlari. Lex.uz.
 5. Brand Analytics. "Социальные сети:цифры и тренды, 2024".
 6. "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi funksiyalari tahlili". Anticorruption.uz.
 7. Zarnews.uz. "Yashil makon" loyihasi ijrosi tahlili (2024).
 8. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. Pearson UK
 9. Kotler, P., & Armstrong, G. (2020). Principles of Marketing. Pearson
 10. Saidov, A. (2022). O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va ekologik barqarorlik. Toshkent
- THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON SCIENCE AND EDUCATION IN UZBEKISTAN**

Gafarova Dinara Tashevna,
senior lecturer
Department of Economics,
Asian International University,
Bukhara, Republic of Uzbekistan

Abstract. This article examines the impact of digital technologies on the development of science and the education system in the Republic of Uzbekistan amid the emergence of a digital economy. It examines the digitalization of the educational environment, the implementation of information and communication technologies, and the development of IT infrastructure and human capital. Using statistical data for 2024–2025, key trends are identified, including increased internet coverage, an increase in student enrollment, and the development of IT education. The key challenges of digitalization are identified, and areas for further development are proposed.

Keywords: digitalization, education, science, digital technologies, innovations, human capital, IT education, digital economy.

In today's world, digital transformation is a critical factor in socioeconomic development. Science and education play a key role in shaping an innovative economy, and digital technologies are becoming a tool for enhancing their effectiveness.

The Republic of Uzbekistan is implementing a digital development strategy aimed at modernizing all spheres of public life. The introduction of digital technologies into education and research is of particular importance.

The purpose of this study is to analyze the impact of digital technologies on the development of science and education in Uzbekistan based on statistical data for 2024–2025.

One of the key factors in the digitalization of society, including in education, is the development of internet infrastructure. According to official statistics, internet penetration in the country will reach 94.2% in 2025, an increase compared to 2024 [1].

Increased internet accessibility facilitates:

- the development of distance education;
- the implementation of digital educational platforms;
- expanded access to scientific information.

Furthermore, investment in the digital economy is increasing, facilitating the development of educational and scientific infrastructure [2].

Digitalization of education is a priority area of state policy. Educational institutions are implementing the following:

- Electronic educational resources;
- Distance learning platforms;
- Digital assessment technologies.

Research in this area shows that the use of digital technologies contributes to improving the quality of education and the effectiveness of learning [3].

An important area is the development of international cooperation aimed at implementing innovative educational technologies [6].

The higher education system is demonstrating steady growth. According to statistics, the number of students in the 2024-2025 academic year exceeded 1.4 million [9].

At the same time, IT education is developing:

- ✓ the number of educational programs is increasing;
- ✓ the number of students in IT fields is growing;
- ✓ artificial intelligence programs are being implemented [3].

Digital technologies facilitate the development of scientific activity by providing access to international databases and accelerating research.

Developing digital competencies is a key condition for economic development.

In 2025:

- More than 600 IT centers are operating;
- Tens of thousands of citizens are undergoing digital skills training [2].

However, digital literacy remains insufficient—about 15% of the population possesses basic skills [4]. This requires intensifying government policy in the field of education and professional development. The digitalization of science is accelerating scientific research, developing interdisciplinary approaches, and integrating into the international scientific community.

The development of artificial intelligence and big data analysis technologies is opening up new opportunities for scientific research.

Despite these positive trends, the following challenges remain:

1. Digital inequality—differences in access to technology between regions [3].
2. Insufficient digital skills [4].
3. Limited infrastructure at some educational institutions.

A shortage of IT specialists.

Based on the above, the following prospects for the development of science and education can be identified, which are related to:

- the implementation of artificial intelligence;
- the development of online education;
- expansion of international cooperation;
- the development of digital educational platforms.

Further growth of the educational technology market and the increasing role of digital competencies in the economy are expected [5].

Digital technologies have a significant impact on the development of science and education in the Republic of Uzbekistan.

Growing internet coverage, the development of IT education, and the growing number of students are creating the conditions for the emergence of an innovative economy.

However, challenges remain, including digital inequality and insufficient digital skills. Overall, it can be concluded that digitalization is a strategic factor in the sustainable development of society.

References

1. Государственный комитет по статистике Республики Узбекистан. Использование сети Интернет населением в 2025 году [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://stat.uz> (дата обращения: 20.03.2026).
2. Government of Uzbekistan. Digital development report 2025 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://gov.uz> (дата обращения: 20.03.2026).
3. Digitalization of education in Uzbekistan // Inlibrary. – 2025. – № 3. – С. 45–52.
4. Strategy.uz. Digital skills development in Uzbekistan [Электронный ресурс]. – 2025. – Режим доступа: <https://strategy.uz> (дата обращения: 20.03.2026).
5. UNDP. Digital Economy in Uzbekistan. – 2025. – 120 p.
6. UNESCO. Education and innovation in Uzbekistan [Электронный ресурс]. – 2025. – Режим доступа: <https://uza.uz> (дата обращения: 20.03.2026).
7. Higher Education in Uzbekistan: Transition to Digital Learning // ResearchGate. – 2026.
8. Global CIO. Current aspects of digitalization in Uzbekistan. – 2024.
9. Gov.uz. IT education development statistics [Электронный ресурс]. – 2026. – Режим доступа: <https://gov.uz> (дата обращения: 20.03.2026).

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ НАУКИ И БИЗНЕСА В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Гафарова Динара Ташевна,
старший преподаватель
кафедры «Экономика»,
Азиатский международный университет,
г.Бухара, Республика Узбекистан

Аннотация. В статье исследуются особенности взаимодействия науки и бизнеса в условиях формирования инновационной экономики. Рассматриваются механизмы трансфера технологий, развитие научно-производственных связей и роль частного сектора в финансировании исследований. На основе статистических данных за 2025–2026 гг. проведён анализ динамики инвестиций в исследования и разработки, инновационной активности предприятий и сотрудничества университетов с бизнесом. Представлен эконометрический анализ влияния затрат на НИОКР на экономический рост. Сделаны выводы о необходимости усиления интеграции науки и бизнеса как ключевого фактора устойчивого развития.

Ключевые слова: инновационная экономика, НИОКР, наука, бизнес, технологический трансфер, цифровизация, эконометрический анализ.

Современная инновационная экономика характеризуется усилением взаимодействия науки и бизнеса как ключевого фактора экономического роста. Согласно концепции национальной инновационной системы, развитие технологий происходит в результате взаимодействия научных организаций, предприятий и государства [6].

В условиях цифровизации усиливается роль:

- научных исследований
- коммерциализации технологий
- партнерства университетов и бизнеса

Цель данной статьи — показать взаимодействие науки и бизнеса и оценить его влияния на экономическое развитие. Взаимодействие науки и бизнеса рассматривается как ключевой элемент инновационной экосистемы.

Основные формы взаимодействия:

- совместные научные исследования
- корпоративные лаборатории
- венчурное финансирование
- технологический трансфер

Исследования показывают, что качество научных исследований является более значимым фактором сотрудничества, чем географическая близость [7]. Кроме того,

современная модель инновационного развития характеризуется переходом от линейной модели к сетевой. Приведем некоторые цифры инновационной деятельности Узбекистана за 2025–2026 годы.

Таблица 1 – Основные показатели инновационной деятельности
(2025–2026 гг.)

Показатель	2025	2026 (оценка)	Изменение, %
Внутренние затраты на НИОКР (% ВВП)	1,9	2,1	+10,5
Доля бизнеса в финансировании НИОКР (%)	48	52	+8,3
Количество инновационных предприятий (%)	23	26	+13,0
Объем инвестиций в инновации (млрд \$)	1,8	2,2	+22,2

Рост затрат на НИОКР подтверждается международной статистикой, где фиксируется увеличение инвестиций в инновации и исследования.

По данным Всемирная организация интеллектуальной собственности, инновационная активность стран продолжает расти, что отражается в Глобальном инновационном индексе 2025 года. Представим некоторые данные о структуре процесса взаимодействия науки и бизнеса.

Таблица 2 – Структура взаимодействия науки и бизнеса

Форма взаимодействия	Доля, % (2025)	Доля, % (2026)
Совместные исследования	35	38
Контрактные НИОКР	27	29
Стартапы при университетах	18	21
Технологические парки	20	22

Данные таблицы свидетельствуют о росте интеграции научных организаций и бизнеса.

Для оценки влияния взаимодействия науки и бизнеса на экономический рост используется модель:

$$GDP = \beta_0 + \beta_1 R\&D + \beta_2 Innov + \varepsilon$$

где:

- GDP — темп роста ВВП
- R&D — затраты на исследования и разработки
- Innov — уровень инновационной активности.

Сделав соответствующие вычисления данной регрессионной модели и результаты представляем в таблице.

Результаты оценки модели (OLS):

Переменная	Коэффициент	t-статистика
Константа	1,2	2,1
R&D	0,85	3,8
Innov	0,63	2,9

Интерпретация результатов данной модели:

- увеличение затрат на НИОКР на 1% приводит к росту ВВП на 0,85%
- рост инновационной активности положительно влияет на экономический рост.

Полученные результаты подтверждают выводы международных исследований о ключевой роли науки и инноваций в экономике.

Несмотря на положительные тенденции, существуют следующие проблемы:

1. Недостаточное финансирование научных исследований
2. Слабая коммерциализация научных разработок
3. Разрыв между академической наукой и бизнесом
4. Недостаточное развитие венчурного капитала

Например, в докладе Конференции ООН по торговле и развитию подчеркивается, что существует необходимость стимулирования частных инвестиций и обмена данными для развития инноваций во всех странах.

Перспективы взаимодействия науки и бизнеса связаны с развитием цифровых платформ, внедрением искусственного интеллекта, расширением государственно-частного партнерства, развитием стартапов-экосистем и пр. В современных условиях усиливается роль сетевых инновационных экосистем.

Взаимодействие науки и бизнеса является ключевым фактором развития инновационной экономики. Проведённый анализ показал, что наблюдается рост инвестиций в НИОКР в стране, увеличивается роль бизнеса в данном направлении, наблюдается положительное влияние инноваций на экономический рост государства в целом. Эконометрическая модель подтвердила значимость научных исследований для развития экономики.

Таким образом, усиление интеграции науки и бизнеса является стратегическим направлением экономической политики нашего государства.

Список литературы

1. OECD. Science, Technology and Innovation Outlook 2025. – Paris: OECD Publishing, 2025.
2. World Intellectual Property Organization. Global Innovation Index 2025 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.wipo.int> (дата обращения: 24.03.2026).
3. UNCTAD. Technology and Innovation Report 2025. – Geneva, 2025.
4. Индикаторы цифровой экономики: 2025. – М.: НИУ ВШЭ, 2025.
5. Глобальный инновационный индекс – 2025 // Обзор. – 2025.
6. Национальная инновационная система // Энциклопедия.
7. Abramo G., D’Angelo C. University–industry collaboration model // Research, 2018.
8. Доклад о цифровизации и инновациях // Global CIO. – 2024.
9. Инновации и инвестиции. – 2025. – №2.

FUNDAMENTAL PEDAGOGIK BILIMLAR ASOSIDA AXBOROTNI HIMOYALASH BO‘YICHA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi

“Iqtisodiyot va muhandislik fanlari” kafedrasi assistenti,

Boymanov Jasur Isroil o‘g‘li.

Tel:997552959

El.Pochta manzili: jasurboymanov432@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi fundamental pedagogik bilimlar asosida talabalarni axborotni himoyalashga o‘rgatish jarayonining samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Axborot xavfsizligi bo‘yicha ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarda axborotni himoyalashga oid nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning takomillashtirilgan metodikasi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: fundamental pedagogik bilimlar, axborotni himoyalash, axborot xavfsizligi, ta‘lim samaradorligi, pedagogik metodika, innovatsion yondashuv, interfaol metodlar, kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, oliy ta‘lim

Аннотация: В данной работе рассматриваются вопросы повышения эффективности обучения защите информации на основе фундаментальных педагогических знаний. Проанализирована значимость использования современных педагогических подходов, инновационных методов и интерактивных технологий в процессе преподавания информационной безопасности. Также предложена усовершенствованная методика формирования у студентов теоретических знаний, практических навыков и профессиональных компетенций в области защиты информации.

Ключевые слова: фундаментальные педагогические знания, защита информации, информационная безопасность, эффективность обучения, педагогическая методика, инновационный подход, интерактивные методы, компетенция, профессиональная подготовка, высшее образование

Annotation: This thesis discusses the issues of improving the effectiveness of education in information protection based on fundamental pedagogical knowledge. The importance of applying modern pedagogical approaches, innovative methods, and interactive techniques in the process of teaching information security is analyzed. In addition, an improved methodology for developing students’ theoretical knowledge, practical skills, and professional competencies in the field of information protection is proposed.

Keywords: fundamental pedagogical knowledge, information protection, information security, educational effectiveness, pedagogical methodology, innovative approach, interactive methods, competence, professional training, higher education

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot resurslari jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, axborotning noqonuniy tarqalishi, buzilishi, o‘g‘irlanishi, yo‘qolishi va ruxsatsiz foydalanilishi bilan bog‘liq xavf-xatarlar ham ortib bormoqda. Mazkur holat axborot xavfsizligini ta‘minlash, ayniqsa, yosh avlod va talabalarda axborotni himoyalash madaniyatini shakllantirishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Talabalarni axborotni himoyalashga o‘rgatish jarayoni faqat texnik bilimlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu jarayonda fundamental pedagogik bilimlar, ya’ni ta’limning maqsadga yo‘naltirilganligi, didaktik tamoyillar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, interfaol metodlar va kompetensiyaviy ta’lim asoslari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, axborotni himoyalash bo‘yicha ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Axborotni himoyalash bo‘yicha ta’lim samaradorligini oshirish, avvalo, ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishni talab qiladi. Fundamental pedagogik bilimlar bu borada nazariy va amaliy asos vazifasini bajaradi. Ular yordamida o‘quv materialini tizimli, izchil va talabalar yosh xususiyatlariga mos ravishda yetkazish imkoniyati yaratiladi.

Axborotni himoyalashni o‘qitishda quyidagi pedagogik omillar muhim ahamiyatga ega:

1. Maqsadga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish: Har bir mashg‘ulotda talabalarda qanday bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar shakllantirilishi aniq belgilanishi lozim. Masalan, parol xavfsizligi, ma’lumotlarni shifrlash, antivirus vositalari, tarmoq xavfsizligi va foydalanuvchi autentifikatsiyasi bo‘yicha amaliy bilimlar berilishi zarur.

2. Interfaol metodlardan foydalanish: An’anaviy ma’ruza usullari bilan bir qatorda “Aqliy hujum”, “Case-study”, “Klaster”, “Muammoli vaziyat”, “Loyiha metodi”, “SWOT-tahlil” kabi interfaol metodlardan foydalanish talabalar faolligini oshiradi. Bu usullar orqali talabalar nafaqat nazariy bilim oladi, balki real hayotiy vaziyatlarda axborot xavfsizligi muammolarini hal qilish ko‘nikmalarini ham egallaydi.

3. Kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash: Hozirgi ta’lim tizimida bilimni yodlashdan ko‘ra uni amaliyotda qo‘llash muhimroq hisoblanadi. Shu sababli, axborotni himoyalash fanini o‘qitishda talabalarni kasbiy faoliyatda zarur bo‘ladigan kompetensiyalar bilan qurollantirish talab etiladi. Bunga xavfsiz ishlash qoidalariga rioya qilish, tahdidlarni aniqlash, himoya vositalaridan foydalanish va axborot xavfsizligi bo‘yicha qaror qabul qilish kiradi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish: Elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, simulyator dasturlar, taqdimotlar va onlayn testlar orqali ta’lim sifati oshiriladi. Ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarda fayllarni shifrlash, zararli dasturlarni aniqlash, ma’lumotlarni zaxiralash va tiklash bo‘yicha topshiriqlar berish samarali natija beradi.

5. Talabalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish: Axborot xavfsizligi doimiy ravishda yangilanib boradigan soha bo‘lgani uchun talabalar mustaqil izlanishga o‘rgatilishi kerak. Bunda ularga zamonaviy tahdidlar, phishing, ijtimoiy muhandislik, zararli dasturlar va tarmoq hujumlari haqida mustaqil tahlil qilish vazifalari berilishi maqsadga muvofiq.

Fundamental pedagogik bilimlarga tayangan holda ishlab chiqilgan metodika ta’lim samaradorligini bir necha yo’nalishda oshiradi:

- ✓ o’quv materialining tushunarililigi ortadi;
- ✓ talabalar darsga qiziqishi kuchayadi;
- ✓ nazariy bilim amaliy ko’nikmaga aylanadi;
- ✓ kasbiy kompetensiyalar shakllanadi;
- ✓ axborot xavfsizligi madaniyati rivojlanadi.

Shuningdek, o’qitish jarayonida diagnostika va baholash mezonlarini to’g’ri tanlash ham muhimdir. Testlar, amaliy topshiriqlar, keyslar, mini-loyihalar va portfoliolar orqali talabalar bilimni kompleks baholash mumkin. Bu esa ta’lim natijalarining haqqoniyligini ta’minlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, fundamental pedagogik bilimlar asosida axborotni himoyalash bo’yicha ta’lim samaradorligini oshirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Axborot xavfsizligi sohasida raqobatbardosh, bilimli va amaliy ko’nikmaga ega mutaxassislarni tayyorlash uchun o’qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, interfaol metodlarni va kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish zarur. Talabalarni axborotni himoyalashga o’rgatishda fundamental pedagogik yondashuvlardan foydalanish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki ularda axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi hamda kelajak kasbiy faoliyatida zarur bo’ladigan kompetensiyalarni mustahkamlaydi. Shu bois, mazkur yo’nalishda takomillashtirilgan metodikani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. G’aniyev S.K., Karimov M.M. Axborot xavfsizligi asoslari. – T.: O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi nashriyoti, 2018.
3. Sodiqov A.A. Kiberxavfsizlik asoslari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2020.
4. Raxmonov A. Kriptografiya va axborotni himoyalash usullari. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019.
5. Tolipov O’Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: “Fan”, 2006.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste’dod”, 2008.

JAMIYATDAGI IJTIMOIIY TENGSIZLIKNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xusanov Samariddin Maxmadaminovich

Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD) v.b. dotsenti

UBS universiteti Toshkent filiali

samariddin.hm_90@mail.ru

+998946298665

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy tengsizlikning kelib chiqish sabablari, uning inson ruhiyati va ijtimoiy xulq-atvoriga ta’siri o’rganiladi. Shuningdek, tengsizlik sharoitida shakllanadigan stereotiplar, diskriminatsiya va ijtimoiy stratifikatsiyaning psixologik jihatlari yoritiladi. Muallif tomonidan ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish yo’llari hamda jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlashning muhim omillari ko’rsatib beriladi.

Kalit so’zlar: ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy psixologiya, stratifikatsiya, diskriminatsiya, stereotip, ijtimoiy adolat, ijtimoiy guruh

Jamiyat taraqqiyoti davomida ijtimoiy tengsizlik muammosi doimo dolzarb bo’lib kelgan. Ijtimoiy tengsizlik deganda, jamiyat a’zolarining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy imkoniyatlar

bo‘yicha notekis taqsimlanishi tushuniladi. Bu jarayon nafaqat moddiy resurslar, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy maqom kabi omillar orqali ham namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, tengsizlik inson ongida muayyan stereotiplar va qarashlarning shakllanishiga olib keladi. Masalan, yuqori ijtimoiy qatlam vakillari o‘zlarini ustun deb bilishlari mumkin, past qatlam vakillari esa o‘z imkoniyatlarini cheklangan deb his etishadi. Bu holat “o‘z-o‘zini baholash” darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

Shuningdek, ijtimoiy tengsizlik diskriminatsiya va ijtimoiy ajralish (segregatsiya) kabi salbiy hodisalarni yuzaga keltiradi. Ayrim guruhlar millati, jinsi, dini yoki ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra kamsitilishi mumkin. Bu esa jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy stratifikatsiya tizimi ham tengsizlikning asosiy omillaridan biridir. Stratifikatsiya jamiyatni turli qatlamlarga ajratadi va bu qatlamlar o‘rtasida imkoniyatlar tengsizligini yuzaga keltiradi. Natijada ijtimoiy mobilitet (ya’ni, bir qatlamdan boshqasiga o‘tish imkoniyati) cheklanadi.

Ijtimoiy tengsizlik nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy hodisa, balki chuqur psixologik ildizlarga ega bo‘lgan murakkab jarayondir. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan, tengsizlik insonning o‘zini anglash tizimi, ya’ni “Men-konsepsiya”siga bevosita ta’sir qiladi.

Birinchidan, ijtimoiy identifikatsiya nazariyasiga ko‘ra, inson o‘zini ma’lum bir ijtimoiy guruh a’zosi sifatida qabul qiladi. Agar bu guruh jamiyatda past maqomga ega bo‘lsa, shaxsda o‘zini past baholash, ishonchsizlik va ijtimoiy passivlik rivojlanadi. Aksincha, yuqori maqomdagi guruh vakillarida ustunlik hissi va ba’zida boshqalarga nisbatan stereotipik qarashlar shakllanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tengsizlik frustratsiya (ruhiy qoniqmaslik)ni yuzaga keltiradi. Inson o‘z ehtiyojlarini qondira olmaganda yoki imkoniyatlari cheklanganda, ichki ziddiyat paydo bo‘ladi. Bu holat agressiya, depressiya yoki ijtimoiy norozilik ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Frustratsiya-agressiya gipotezasiga ko‘ra, tengsizlik ijtimoiy ziddiyatlarning psixologik asosini tashkil etadi.

Uchinchidan, stereotiplar va kamsitish (diskriminatsiya) ijtimoiy tengsizlikni mustahkamlovchi asosiy psixologik mexanizmlardan biridir. Stereotiplar inson tafakkurini soddalashtiradi, biroq ko‘pincha noto‘g‘ri umumlashtirishlarga olib keladi. Masalan, ayrim ijtimoiy guruhlar “kamroq qobiliyatli” yoki “kamroq mehnatkash” sifatida baholanadi, bu esa ularning imkoniyatlarini yanada cheklaydi.

To‘rtinchidan, kognitiv dissonans nazariyasi orqali ham tengsizlikni tushuntirish mumkin. Insonlar o‘z e’tiqodlari va real holat o‘rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytirishga harakat qiladi. Masalan, boy insonlar o‘z muvaffaqiyatini faqat mehnat bilan izohlab, tizimli tengsizlik omillarini inkor etishi mumkin. Bu esa mavjud ijtimoiy tizimni psixologik jihatdan “oqlash”ga xizmat qiladi.

Beshinchidan, “o‘z-o‘zini baholash” darajasi ijtimoiy tengsizlik bilan chambarchas bog‘liq. Past ijtimoiy maqomdagi shaxslar ko‘pincha o‘z qadr-qimmatini past baholaydi. Bu esa ularning motivatsiyasi va ijtimoiy faolligini kamaytiradi. Natijada “psixologik to‘siq” yuzaga kelib, inson o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmaydi.

Ijtimoiy tengsizlik shaxsning o‘z-o‘zini baholashiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Past ijtimoiy maqomdagi insonlarda o‘z qadr-qimmatini past baholash kuzatiladi. Bu esa ularning:

1. tashabbuskorligini kamaytiradi
2. ijtimoiy faolligini pasaytiradi
3. muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini susaytiradi

Natijada “psixologik to‘siq” yuzaga keladi va inson o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqara olmaydi.

Shuningdek, ijtimoiy tengsizlik sharoitida odamlar turli psixologik moslashuv strategiyalaridan foydalanadi. Ba’zilar passiv moslashuvni tanlab, mavjud holatni qabul qiladi. Boshqalar esa faol strategiyani qo‘llab, ijtimoiy harakatlar, norozilik yoki o‘z ustida ishlash orqali vaziyatni o‘zgartirishga harakat qiladi.

Ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish uchun davlat va jamiyat tomonidan kompleks chora-tadbirlar ko‘rilishi zarur. Jumladan, ta’lim tizimini rivojlantirish, teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy himoya dasturlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, jamiyatda tolerantlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash ham tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tengsizlik murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar, balki inson psixologiyasi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Uning ijtimoiy-psixologik jihatlarini chuqur o‘rganish orqali insonlarning o‘zini anglash darajasi, o‘z-o‘zini baholashi, motivatsiyasi hamda jamiyatdagi xulq-atvor mexanizmlarini yaxshiroq tushunish mumkin. Ayniqsa, stereotiplar, diskriminatsiya, ijtimoiy identifikatsiya va frustratsiya kabi omillar tengsizlikning shakllanishi va mustahkamlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish faqat iqtisodiy islohotlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu jarayonda psixologik yondashuvlar, jumladan, empatiyani rivojlantirish, ijtimoiy bag‘rikenglikni oshirish, stereotiplarni bartaraf etish va shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Insonlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, tenglik va adolat tamoyillarini shakllantirish orqali sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O‘zbekiston strategiyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Tajfel H. Social Identity and Intergroup Relations. – Cambridge, 1982.
4. Festinger L. A Theory of Cognitive Dissonance. – Stanford, 1957.
5. Allport G. The Nature of Prejudice. – New York, 1954.
6. Maslow A. Motivation and Personality. – New York, 1970.
7. Giddens A. Sotsiologiya. – Toshkent, 2015.
8. Myers D. Social Psychology. – New York, 2013

AXBOROT XAVFSIZLIGIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI TASNIFLASH

**Nizamova Barno Baxtiyorovna, Yengil sanoat muhandisligi kafedrası,
Katta o‘qituvchisi,
Farg‘ona davlat texnika universiteti.**

Anotatsiya: Sun’iy intellekt tadqiqotining turli kichik sohalari ma’lum maqsadlar va muayyan vositalardan foydalanishga qaratilgan. Sun’iy intellekt tadqiqotlarining an’anaviy maqsadlariga fikrlash, bilimlarni taqdim etish, rejalashtirish, o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash, idrok etish va robototexnikani qo‘llab-quvvatlash kiradi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy ong, sun’iy intellekt, robotlar, matematik optimallashtirish, sivilizatsiyasi.

Sun’iy ong, insonlar yoki hayvonlar tomonida ko‘rsatiladigan tabiiy ongdan farqli o‘laroq, mashinalar tomonidan ko‘rsatiladigan ongdir. Yetakchi sun’iy ong darslik kitoblari bu sohani ongli agentlarni o‘rganish deya ta’riflaydi: o‘z muhitini fahmlaydigan va maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish imkoniyatini maksimal darajada oshiradigan amallarni amalga oshiruvchi har qanday sistema. Xalq orasida sun’iy ong atamasi ko‘pincha o‘rganish va “muammolarni yechish” kabi inson idroki bilan bog‘laydigan kognitiv funksiyalarni taqlid qiladigan mashinalarni tasvirlashda ishlatiladi, biroq bu ta’rifni yirik sun’iy ong tadqiqotchilari rad etishadi. Sun’iy intellekt 1956-yilda akademik intizom sifatida asos solingan. Soha ko‘p optimizm davrlarini bosib o‘tdi, so‘ngra umidsizlik va mablag‘ yo‘qotildi, biroq 2012-yildan keyin chuqur o‘rganish barcha oldingi sun’iy intellekt usullaridan oshib ketganidan so‘ng, moliyalashtirish va qiziqishda katta o‘sish kuzatildi. Sun’iy intellekt tadqiqotining turli kichik sohalari ma’lum maqsadlar va muayyan vositalardan foydalanishga qaratilgan. Sun’iy intellekt tadqiqotlarining an’anaviy maqsadlariga fikrlash, bilimlarni taqdim etish, rejalashtirish, o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash, idrok etish va robototexnikani qo‘llab-quvvatlash kiradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun sun’iy intellekt tadqiqotchilari qidiruv va matematik optimallashtirish, rasmiy mantiq, sun’iy neyron tarmoqlar va statistika, operatsiyalarni o‘rganish va iqtisodiyotga asoslangan usullarni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli muammolarni hal qilish usullarini moslashtirdilar va birlashtirdilar. Odatda, robotlar deganda, ko‘pchilikning ko‘z oldiga insonlardek gaplasha oladigan, ularning o‘rniga barcha

yumushlarni bajara oladigan yordamchilar keladi. Ammo bu nisbatan kengroq tushuncha. Aslida, mobil qurilmangizdagi dasturlar: google-tarjimon, lug‘atlar, turli xil o‘yinlar va hokazolar ham sun‘iy intellektga yaqqol misol bo‘la oladi. Sun‘iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi. Hozirda Sun‘iy intellekt turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi. Hozirga kelib sun‘iy intellekt keng ko‘lamda ommalashib kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Masalan, Xitoydagi Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo‘q. Hisob-kitoblar bilan bog‘liq barcha jarayonlar sun‘iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyofasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi. sun‘iy intellekt haqidagi bahs-munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etib kelmoqda. Mutaxassislar hanuzgacha bir to‘xtamga kelishgani yo‘q. Ba‘zilar ularning ommalashib odamlar o‘rnini egallab borayotgani natijasida ommaviy ishsizlik ko‘rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishdalar. Mutaxassislarning boshqa bir guruhi esa Sun‘iy intellekt ga ijobiy munosabatda bo‘lish kerakligini uqtirishmoqda. Hatto IT- sohasidagi milliarderlar orasida ham turli qarashlar mavjud. Jumladan, SpaceX asoschisi Ilon Mask SIning butun boshli sivilizatsiyani barbod qilishiga ishonchi komil. Maskning fikricha, insoniyat sivilizatsiyasi uchun asosiy xavfdir. Sun‘iy intellekt mehnat bilan bog‘liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko‘ra yaxshiroq bajara olishadi. Ilg‘or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun‘iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko‘rmay qolishlari mumkin. Shuningdek, Microsoft rahbari Bill Geyts ham uning zarariga to‘xtalib o‘tadi. Bir necha o‘n yildan so‘ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, Sun‘iy intellekt shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi. Bu borada Ilon Maskning fikriga qo‘shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushunolmayman, – deydi Geyts. “Boshqalar” deganda Geyts Facebook egasi Mark Sukerbergni nazarda tutgan bo‘lsa, ajab emas. Chunki, Mark SIga nisbatan ijobiy munosabatda ekanligini bildirar ekan: “Yangi texnologiyalar har doim ham yaxshilik yoki yomonlik qilish maqsadida yaratilishi mumkin. Sun‘iy intellekt ning keng tarqalishi ortidan keladigan ijobiy natijani esa, yaqin 5-10 yil ichida ko‘ramiz”, deya Ilon Maskning fikriga e’tiroz bildirgan edi. Bugungi kunda ayrim davlatlarda robot-hamshiralalar, xaydovchisiz transport vositalari, buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Hatto politsiya xodimlarining ba’zi vazifalarini ham maxsus robotlar bajarishyapti. Olimlar ularning tashqi ko‘rinishini imkon qadar odamlarnikiga o‘xshatishga urinishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.T. Yulchieva, B.A. Maxmudova. „Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari“ fanidan tajriba mashg‘ulotlarini o‘tkazishga oid uslubiy ko‘rsatma va masalalar to‘plami. T.: T D IU, 2009-y.
2. O.T. Xayitmatov, S.X. Fayzullaev va boshqalar. Informatika va axborot texnologiyalari. — T.: TKTI, 2005.
3. S.S. G ‘ulom ovning um um iy tahriri ostida. Iqtisodiy masalalami shaxsiy kompyuterlarda yechish texnologiyalari. — T.: T D IU, 2005.
4. Tom Simonit. "Hisoblashda 2014 yil: sun'iy intellektidagi yutuqlar". MIT
5. Cukier, Kennet, "Robotlarga tayyormisiz? AI kelajagi haqida qanday o'ylash kerak", en:Tashqi ishlar, jild. 98,
6. Boden, Margaret, Mind As Machine, en:Oxford University Press, 2006.

UCH O‘LCHAMLI BO‘SAG‘AVIY FUNKSIYALAR VA ULARNING ZAMONAVIY TEXNIKA VA MATEMATIKADAGI QO‘LLANILISHI

*Tuxtayeva Marg‘uba Shuxrat qizi
Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt*

Annotatsiya. Mazkur maqolada uch o‘lchamli bo‘sag‘aviy funksiyalar tushunchasi, ularning matematik modeli va zamonaviy texnika hamda amaliy masalalardagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Xususan, tasvirlarni qayta ishlash, sun‘iy intellect va signallarni qayta ishlash sohalarida ushbu funksiyalarning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida uch o‘lchamli bo‘sag‘aviy funksiyaning matematik ifodasi, xossalari va qo‘llanish samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, bo‘sag‘a qiymatini tanlash muammolari va uning natijalarga ta’siri ham tahlil qilinadi. Adaptiv va global threshold usullarining afzalliklari solishtirilib, ularning turli sharoitlardagi samaradorligi baholanadi. Olingan natijalar uch o‘lchamli ma’lumotlarni qayta ishlashda yanada aniq va samarali algoritmlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Bo‘sag‘aviy funksiya, 3D model, thresholding, tasvirni segmentatsiya qilish, sun‘iy intellect, signalni qayta ishlash.

Kirish

Zamonaviy matematika va texnika fanlarining rivojlanishi natijasida murakkab ko‘p o‘lchovli ma’lumotlarni qayta ishlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, uch o‘lchamli (3D) ma’lumotlar – tibbiy tasvirlar, kompyuter ko‘rish tizimlari va sensorlardan olingan signallar bilan ishlash dolzarb muammolardan biridir. Bo‘sag‘aviy funksiyalar (threshold functions) ma’lumotlarni ajratish, klassifikatsiya qilish va segmentatsiya qilishda keng qo‘llaniladi. Ikki o‘lchamli holatlarda bu yondashuv yaxshi o‘rganilgan bo‘lsada, uch o‘lchamli fazoda ularning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq tahlil qilish zarur.

Asosiy qism

Bo‘sag‘aviy funksiya – bu kirish qiymatini ma’lum chegaraviy qiymat bilan taqqoslab, chiqishda diskret natija beruvchi funksiya hisoblanadi. Oddiy ko‘rinishda u quyidagicha ifodalandi:

$$f(x) = \begin{cases} 1, x \geq T \\ 0, x < T \end{cases}$$

x – kirish signali

T – bo‘sag‘a (threshold)qiymat

Uch o‘lchamli fazoda funksiya quyidagicha kengaytiriladi:

$$f(x, y, z) = \begin{cases} 1, g(x, y, z) \geq T \\ 0, g(x, y, z) < T \end{cases}$$

bu yerda

$g(x, y, z)$ – uch o‘lchamli ma’lumot

T – chegaraviy qiymat

Bunday funksiya fazodagi nuqtalarni ikki turga ajratadi: obyektga tegishli nuqtalar va fon(background) nuqtalar.

Uch o‘lchamli bo‘sag‘aviy funksiyalarning xossalari:

Diskretlilik- chiqish faqat 0 yoki 1 qiymatlarni qabul qiladi.

Nolinearlik – funksiya chiziqli emas.

Tez hisoblanish – algoritmik jihatdan sodda.

Moslashuvchanlik – global va local threshold sifatida ishlatilishi mumkin.

Zamonaviy texnikada qo‘llanilishi:

Tasvirlarni segmentatsiya qilish

3D bo‘sag‘aviy funksiyalar tibbiy tasvirlarda (MRI, CT) obyektlarni ajratishda qo‘llaniladi.

Masalan:

- O‘simtani aniqlash;
- Organlarni segmentatsiya qilish;

Sun‘iy intellect va mashinali o‘qitish

Bo’sag‘aviy funksiyalar neyron tarmoqlarda aktivatsiya funksiyasi sifatida ishlatiladi. Masalan:

- perceptron model
- binar klassifikatsiya

Signalni qayta ishlash. Uch o‘lchamli signal (vaqt+fazo)tahlilida shovqinni ajratish uchun qo‘llaniladi.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 3D bo’sag‘aviy funksiyalar hisoblash jihatdan samarali, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda tezkorlikni ta’minlaydi, ammo noto‘g‘ri threshold tanlansa, aniqlik pasayadi

Shu sababli adaptiv (moslashuvchan) threshold algoritmlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Uch o‘lchamli bo’sag‘aviy funksiyalar zamonaviy matematika va texnika fanlarida muhim o‘rin egallaydi. Ular tasvirlarni segmentatsiya qilish, sun’iy intellekt va signalni qayta ishlashda samarali vosita hisoblanadi. Kelajakda ushbu funksiyalarni optimallashtirish va adaptiv algoritmlar bilan integratsiya qilish ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Gonzalez R.C., Woods R.E. *Digital Image Processing*. — Pearson, 2018.
2. Bishop C.M. *Pattern Recognition and Machine Learning*. — Springer, 2006.
3. Otsu N. *A Threshold Selection Method from Gray-Level Histograms*. — IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics, 1979.
4. Jain A.K. *Fundamentals of Digital Image Processing*. — Prentice Hall, 1989.
5. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. *Deep Learning*. — MIT Press, 2016.

TO‘QUVCHILIK KORXONALARIDA GAZLAMA SIFATINI OSHIRISHDA TEXNOLOGIK PARAMETRLARNING O‘RNI

Valiyev Nodirbek G‘ulomjon o‘g‘li,
t.f.f.d. (PhD), Farg‘ona davlat texnika
universiteti, nodirbekvaliyev@mail.ru

Abstract. Mazkur maqolada to‘quvchilik korxonalarida gazlama sifatini oshirishda tanda tayyorlash, ohorlash, taranglikni rostlash, arqoq tashlash va dastgoh rejimining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Gazlama sifatiga ta’sir etuvchi asosiy nuqsonlar - ip uzilishi, notekis zichlik, qirra buzilishi va yo‘l-yo‘l ko‘rinishlarning kelib chiqish sabablari yoritiladi. Shuningdek, avtomatik to‘xtatish hamda sensorli nazorat vositalari yordamida nuqsonlarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: to‘quvchilik, gazlama sifati, tanda, arqoq, ohorlash, taranglik, texnologik parametrlar

Kirish

To‘qimachilik sanoatida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, avvalo, sifatli gazlama olishga bog‘liq. Gazlama sifati esa faqat yakuniy ko‘rinish bilan emas, balki uning mustahkamligi, bir tekisligi, qirqim bo‘yicha barqarorligi va keyingi pardoqlash bosqichlariga yaroqliligi bilan baholanadi. Shu sababli to‘quvchilik korxonalarida sifat masalasi butun texnologik zanjir tanda tayyorlash, ohorlash, to‘quv va o‘rash jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqilishi kerak.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tayyor gazlamadagi ko‘p nuqsonlar to‘quv dastgohining o‘zida emas, balki undan oldingi bosqichlarda yuzaga kelgan kamchiliklardan kelib chiqadi. Demak, sifatni oshirish uchun jarayonning barcha parametrlarini uyg‘un boshqarish zarur.

1. Tanda tayyorlash va ohorlashning ahamiyati

Tanda to‘quv jarayonining asosiy tayanchi bo‘lib, uning sifati butun gazlama tuzilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tandalash vaqtida iplarning bir xil taranglikda yig‘ilishi, soni va joylashuvi texnologik talabga mos bo‘lishi kerak. Agar tanda o‘rami notekis bo‘lsa, to‘quv vaqtida kenglik bo‘yicha kuchlanish bir xil taqsimlanmaydi va gazlamada zichlik farqlari paydo bo‘ladi.

Ohorlash jarayoni tanda ipining pishiqligini oshiradi, tukdorligini kamaytiradi va ishqalanishga chidamliligini yaxshilaydi. Biroq ohor tarkibining haddan tashqari quyuq yoki

suyuq bo‘lishi, quritish rejimining noto‘g‘ri tanlanishi va namlikning me’yordan chetga chiqishi ipning xossalari yomonlashtiradi. Shu bois tanda tayyorlash va ohorlash bo‘limlarida texnologik intizom yuqori bo‘lishi gazlama sifatining birinchi shartidir.

2. To‘quv dastgohida asosiy parametrlar

To‘quv dastgohida sifatni belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar - tanda tarangligi, homuza hosil bo‘lishi, arqoq tashlash aniqligi va urish kuchidir. Tanda tarangligi ortib ketsa ip uzilishi ko‘payadi, kamayib ketsa homuza barqaror ochilmaydi. Natijada arqoq noto‘g‘ri o‘tadi va gazlama sirtida bo‘sh yoki siyrak joylar hosil bo‘ladi.

Homuza hosil bo‘lishining sinxronligi ham muhimdir. Agar romlar yoki boshqa ish organlari bir maromda ishlamas, arqoq ipi tanda oralig‘idan kerakli yo‘nalishda o‘tmaydi. Arqoq tashlashdan keyingi urish jarayoni esa iplarni kerakli zichlikda joylashtiradi. Urish kuchining ortiqcha bo‘lishi matoni qattiqlashtirsa, kam bo‘lishi arqoq zichligini pasaytiradi. Shuning uchun ushbu parametrlar yagona tizim sifatida boshqarilishi lozim.

3. Gazlamada uchraydigan nuqsonlar va ularni kamaytirish

To‘quvchilikda ko‘p uchraydigan nuqsonlarga tanda uzilish izlari, arqoq yetishmasligi, yo‘l-yo‘l chiziqlar, qirra nuqsonlari va notekis zichlik kiradi. Tanda uzilishi odatda ip sifati past bo‘lganda, taranglik ortiqcha bo‘lganda yoki ohorlash yetarli bo‘lmaganda yuz beradi. Yo‘l-yo‘l ko‘rinishlar esa iplarning chiziqli zichligi bir xil bo‘lmaganda yoki taranglik kenglik bo‘yicha teng taqsimlanmaganda paydo bo‘ladi.

Nuqsonlarni kamaytirish uchun har bir assortiment bo‘yicha alohida texnologik karta tuzish, ip partiyalarini sinchiklab saralash, mikroiqlimni nazorat qilish va uskunalarni profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish zarur. Jarayondagi kichik og‘ishlar o‘z vaqtida aniqlansa, katta hajmdagi nuqsonli mahsulotning oldi olinadi.

4. Avtomatlashtirish va sifat nazorati

Zamonaviy to‘quv korxonalarida avtomatik to‘xtatish tizimlari, uzilish datchiklari va sensorli monitoring vositalari sifatni oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bunday qurilmalar tanda yoki arqoq uzilganda dastgohni zudlik bilan to‘xtatadi, nuqson hajmini kamaytiradi va xomashyo isrofini oldini oladi. Shuningdek, taranglik, ishlab chiqarilgan metr miqdori va nuqsonlar soni bo‘yicha ma’lumot to‘planishi texnologik tahlilni yengillashtiradi.

Elektron nazorat vositalari yordamida qaysi dastgohda uzilish ko‘proq, qaysi partiyada nuqson oshgani yoki qaysi rejim sifatsizlikka olib kelgani tez aniqlanadi. Bu esa sifatni faqat nazorat qilish emas, balki tezkor boshqarish imkonini ham beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, to‘quvchilik korxonalarida gazlama sifatini oshirish tanda tayyorlash, ohorlash, taranglikni rostlash, homuza hosil qilish, arqoq tashlash va urish jarayonlarining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Sifat faqat bitta ko‘rsatkich bilan emas, balki butun texnologik tizimning barqaror ishlashi bilan ta’minlanadi.

Shu sababli korxonalarda ilmiy asoslangan texnologik rejimni tanlash, uskunalarni muntazam profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish va zamonaviy nazorat vositalarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ana shunda gazlama nuqsonlari kamayadi, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi va raqobatbardosh mahsulot olish imkoniyati kengayadi.

Adabiyotlar

1. Boymuratov B.X., Daminov A.D. To‘quvchilik texnologiyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

2. Valiev N.G., Bobojanov X.T. Razrabotka novoy struktury platelno-kostyumnoy tkani iz naturalnogo shyolka // Mejdunarodnaya nauchnaya konferensiya posvyashchennaya 150-letiyu so dnya rojdeniya professora N.A. Vasileva: sbornik nauchnyx trudov. 26 maya 2021 g., CHast 2. Moskva: RGU im. Kosygina, 2021. S. 86–89.

3. Valiyev N.G. To‘qimachilik iplarining cho‘zilish deformatsiyasini Veb-kamera asosida aniqlash: usullar tahlili va qurilma Konsepsiyasi // Innovatsion tadqiqotlar axborotnomasi Ilmiy-nazariy, metodik jurnali 2026 3-son. S. 50-54.

4. Alimboyev E.Sh., Sidiqov P.S., Hasanov B.K., Rahimxo‘jayev S.S., Yunusxo‘jayeva M.R., Qodirova D.N. To‘quvchilik maxsus texnologiyasi va jihozlari. - Toshkent: Ilm-Ziyo, 2007.

5. Valiyev N.G‘., Daminov A.D. Ipak matolarining tahlili asosida ularning turlarini kengaytirish // “TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT – 2023” xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman ma’ruzalar to‘plami. 26–27 aprel 2023. Farg‘ona: FarPI, 2023. B. 303–306.

6. Daminov A.D., Valiyev N.G‘. Iplarining deformatsiyalarini aniqlash usullari // to‘qimachilik va yengil sanoatda ilmhajmdor innovatsion texnologiyalar va dolzarb muammolar yechimi 29-30 noyabr 2024. 1-TOM Farg‘ona: FarPI, 2024. B. 319–322.

GLOBALLASHAYOTGAN DUNYODA SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTI ASOSIDA KOMIL INSONNI SHAKLLANTIRISH

Ipak yoli innovatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi

Yuldasheva Inobat Ashuraliyevna.

Kimyo texnologiya instituti katta o‘qituvchisi

Abdulkhakimova Navbahor Tairjanovna.

Annotatsiya: Ushbu maqolada komil insonni shakllantirishda sharq mutafakkirlari va buyuk ajdodlarimiz ma’naviy merosidan, milliy va ma’naviy qadriyatlar asosida dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlay oladigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lgan yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, milliy qadriyatlar, sog‘lom fikrlash, zamonaviy fikrlaydigan, ma’naviy tahdid, buyuk ajdodlar, ma’naviy meros, ma’naviy qadriyatlar, komil inson.

Средство защиты молодого поколения от духовных угроз в глобализирующемся мире.старшего преподавателя Университета инноваций Шелкового пути

Юлдашева Инобат Ашуралиевна.

старшего преподавателя Института химической технологии

Абдулхакимову Навбахор Тайржановну.

Аннотация: В данной статье рассматривается воспитание молодежи с широким мировоззрением, независимым мышлением, высоким интеллектуальным и духовным потенциалом на основе идей национальной независимости, основанных на духовном наследии наших великих предков и национальных и духовных ценностях, для защиты молодого поколения от духовных угроз.

Ключевые слова: духовность, национальные ценности, здоровое мышление, современное мышление, духовная угроза, великие предки, духовное наследие, духовные ценности, совершенный человек.

A means of protecting the younger generation from spiritual threats in a globalizing world.

Senior teacher of the Silk Road Innovation University

Yuldasheva Inobat Ashuraliyevna.

Senior teacher of the Institute of Chemical Technology

Abdulkhakimova Navbakhor Tairjanovna.

Abstract: This article discusses the spiritual heritage of our great ancestors and the education of young people with broad worldviews, independent thinking, and high intellectual and spiritual potential based on national and spiritual values to protect the younger generation from spiritual threats.

Keywords: spirituality, national values, common sense, modern thinking, spiritual threat, great ancestors, spiritual heritage, spiritual values, perfect human being.

Odamzod paydo bo‘lib, ko‘p ming yillik taraqqiyot jarayonida o‘zini o‘rab olgan, tabiat, turli hodisalar, voqealar hayotiy tajribalarni kuzatgan, ularning sabablari va qonuniyatlari to‘g‘risida mushohada qilgan, turli tasavvur va tushunchalar hosil qilib kelgan. Ma’naviyat insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qo‘shadigan, aql va zakovatni kengaytiradigan va mustahkamlaydigan vositadir.

Sharq sivilizasiyasi va ma’naviyatida islom davri ta’sirining o’rni yuksak sanaladi. Bu davrda islom g’oyalari yoyuvchi muqaddas kitoblar “Qur’on” va “Xadis”larning Turkistonga kirib kelishi bu erlik xalqlar hayotida ham yuksak ma’naviy o’zgarishlar yasadi. Bu davrga kelib Turkiston o’lkasida yuksak qomusiy bilimlar egalari sharqda g’arbni lol qoldirgan buyuk siymolar etishib chiqdilar. Markaziy Osiyo diniy va dunyoviy ilmlarning markaziga aylandi. Inson tushunchasini yuksaklikka ko’taruvchi islom ilmi xalq xayotiga chuqur singib, o’zining g’oyat teran ma’nosiga ega bo’ldi.

Din ilmining bilimdonlaridan Xazrat Naqshband ta’limoti markazida ham komil insonni shakllantirish g’oyasi turadi. Komil inson, bu- dunyo xoyu-xavaslaridan ustun turuvchi, ilmli-ma’rifatli bo’lishi lozim. Bu yo’l orqali insonlar mavjud dunyoning tilsimlarini o’rganishlari va bilishlari kerak. Xazrat bu ta’limotni o’rganuvchilarga piru ustoz bo’lib ta’lim berganlar.

Xullas din va dunyoviy ilmlar Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviyatini boyitib rivojlantirib kelgan. Shuning uchun Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning “Biz Sharq sivilizasiyasi va madaniyatiga mansubligimiz bilan faxrlanamiz. Sharq sivilizasiyasi va madaniyati esa doimo xalqni bo’lg’usi o’zgarishlarga ma’naviy va ruhiy jixatdan tayyorlashga intilib kelgan”- deb takidlagan edi.

Chorizm mustamlakachilari safida bo’lib, yurtimizda yovuzlikning tantanasini o’z ko’zi bilan ko’rgan va kuzatgan olim N.I.Veselovskiy shunday deb yozgan edi: “Biz Turkistonga madaniyat olib keldik, deb o’ylabmiz. Osiyoliklarni bo’ysundirdik deb o’yladik ammo bularda xam shunday yuksak oliy bir tuyg’u borki, bu millat va uning iftixoridir. Siyosiy o’lim og’ir milliy o’lim undan xam og’irroqdir. Bizning xukumronligimizda esa ular shunday xolga tushdilar. Bas shunday ekan xukumronligimizga qarshi g’alayonlar ro’y bersa, ajablanishga aslo o’rin yo’q.”

Shunday bo’ldi xam millatimiz asliy ozodlikka erishdi. O’z mavqeiga, o’z gerbiga, madxiyasi, o’z bayrog’i, o’z konstitusiyasiga ega bo’ldi. O’zbekistonni butun dunyo tan oldi. Ammo bu yurtning ozodligini, mustaqilligini, farovonligini ko’ra olmaydigan yovuz kuchlar paydo bo’la boshladi. Bu kunlarda din niqobi ostida murg’ak qalblarni zaxarlab, xalq orasiga turli shov-shuvlarni kiritishga, ularni ongini zaxarlashga, milliy iftixorini toptashga xarakat qila boshladilar. Psixologik jixatdan olib qaraganda o’spirinlik davrining o’ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu yoshda bolalarda dunyoqarash, etiqod o’z-o’zini anglash juda keng tarkib topa boshlaydi. Ayni shu davrda xayotiy yo’nalish, kasbiy yo’nalish tanlab olinadi. Ana shu jixatdan olib qaraydigan bo’lsak, o’spirinlik davri xayotiy pozisiyalarni mustaxkamlanadigan davridir.

Ilk o’spirin yoshidagi o’quvchilar o’zlarining ma’naviy xislatlariga, axloqning maromiga va mohiyatiga jiddiy munosabatda bo’lishadi. Ular axloqiy turkumlar, birliklar mazmunini chuqur anglay boshlaydilar, xar qanday axloqiy tushunchalarni nozikligi va ko’p ma’noli, purviqor ekanligini tushunushga xarakat qiladilar. Masalan, burch, vijdon, g’urur, qadr-qimmat faxrlanish, ma’suliyat, vatanparvarlik, fidoyilik, or-nomus kabi tushunchalarni chuqur tahlil qila oladilar. Lekin, ularning barchasi takidlab o’tilgan axloqiy tushunchalarni yuksak darajada anglaydi, degan xulosaga kelish asos bo’la olmaydi. Xuddi shu boisdan to’g’ri axloqiy qarashlar, tasavvurlar tarkib topishi uchun adolatli turmush tarzini o’zi etarli deb xulosa chiqarish yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o’qituvchi va murabbiylar xotirjamlikka chek qo’yib, sog’lom muhitni yaratish, barqaror shaxsni tarkib toptirish uchun doimo izlanishda bo’lishlari zarur, toki milliy g’oya va milliy istiqlol mafkurasi ularning ongiga singib borsin.

Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko’rsatmoqdaki, maktabda, o’quv yurtlarida tarbiya izchil olib borilmasa, yigit va qizlarda chinakkam g’oyaviy barqaror e’tiqod shakllanishi qiyin kechadi.

Ilk o’spirinlarda axloqiy tushunchalarni oqilona shakllantirish, nojo’ya xulq-atvor chet el fil’mlarining mazmuni ma’naviyat va ruhiyatga salbiy tasir etishni muttasil tushuntirish lozim. Iloji boricha filmlarni umumiy tahlil qilish yaxshi natija beradi. Ular to’g’risida baxslar uyushtirish lozim. Ijtimoiy turmushda uchraydigan bazi bir yaramas yurish-turishlarga, illatlarga sarqitlarga qaqshatgich zarba berish, ularning ta’siridan yigit va qizlarni asrash, yot tashviqot mohiyatiga qarshi kurash olib borish o’qituvchilar jamoasining bosh vazifasidir. Ba’zan o’spirinlar xayoti jarayonida muammoli vaziyatlarga tushib qolgan paytlari bo’ladi. Bunday vaziyatda bazi maqsadlarni amalga oshirish bo’yicha faoliyat jarayonida inson shu maqsadlarini amalga oshirishga xalaqit beradigan to’siq va qiyinchiliklar uchraydi. Muammoli vaziyatga tushib qolgan

inson qanday yo‘l tutadi? Ayrim irodasiz kishilar o‘z yo‘llariga qiyinchilik va to‘siqlarga uchrab o‘z maqsadlariga etishdan voz kechadilar. O‘spirin vaziyatdan chiqish maqsadida noto‘g‘ri fikr yuritib turli oqimlarga qo‘shilib ketishlari mumkin. Ota-onalar, o‘qituvchilar o‘spirinni ruhiy xolatlarini nazorat qilib turishlari maqsadga muvofiqdir.

Globalashuv jarayoni xayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqdaki jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarni inson aql-zakovatisiz, uning ongli munosabatlari tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ko‘rinib turibdiki inson tafakkuri bu buyuk in‘om. U o‘z tafakkurining kuchi bilan amalda juda ko‘p yangiliklarni jamiyatga, insoniyatga bergan. Biz tarbiya jarayonida sharq allomalarining boy ma’naviy merosida oila va jamiyatda yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish ulardagi fikr va dunyo qarashni tarbiyalovchi omillar to‘g‘risidagi qarashlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hayot tafakkur tarzidagi mustaqillik elementlari asriy an‘analrga ega ekan. Masalan, milloddan avval yaratilgan Avestoda xam shunday g‘oyalar mavjudki, biz ularning bugungi kunda xam o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganligini qayd etamiz.

Qadimgi ajdodlarimiz yaratgan Avesto dunyodagi eng qadimiy noyob bilimlar xazinasidir. Unda olamdagi barcha diniy, dunyoviy tabiiy fanlar bo‘yicha teran fikrlar bildirilgan. Jumladan, Avestoda yaxshi fikr tarbiyasi xaqida quyidagi mulohazalar uchraydi “Tarbiya hayotning eng muhim tirligi bo‘lib xisoblanishi lozim. Xar bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o‘qishni, so‘ngra yozishni o‘rganish bilan yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin. Men yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman.”

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, zardo‘shliylarning muqaddas kitobi-“Avesto” da ham buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida insonda yuksak ahloqiy fazilatlarini kamol toptirishda oila va milliy qadriyatlar masalasi asosiy o‘rinni egallagan. Yoshlar bizning kelazagimiz, ular ota -ona va ajdodlarimiz ishini davom ettiruvchilar hisoblanadi. Bizning asosiy maqsadimiz-milliy va ma’naviy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson deganda eng avvalo, dunyoqarashi keng, vatanparvar mustaqil zamonaviy fikrlay oladigan, hulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘la oladigan, mas’uliyatli va sog‘lom kishilarni tushunamiz. Inson faqat tarbiya orqaligina komillikga erishadi, Uning ma’naviy darajasi atrofida yuz berayotgan voqea -hodisalarni qanday qabul qilishi va mustaqil baholay olishiga bog‘liq. Shunday ekan, ta’lim tizimi va mahallada yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini mustahkamlashda milliy qadriyatlarga oid boy ma’naviy merosimizdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelazagimizni mard oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.-2017. B.148.
2. O. Musurmonova. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T.-1996.B.57
- 3.Muzayyamxon Farmonova. Qadriyatlar-Ma’naviy kamolot sari. Ilmiy uslubiyo qo‘llanma. T. -2019. B. 4.
4. Muhammadjon Quronov. Milliy tarbiya. ”Ma’naviyat” T-2007. B.
5. Jalolov A, Xonazarov Q. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘at. T-1998. B.114

FITOTERMINLARNI TARTIBGA SOLISH MUAMMOLAARI

*Djurabayeva Zamira Axmedovna,
Andijon davlat pedagogika instituti
dotsentu, PhD
zamiradjurabayeva-1958@gmail.com
+99891-168-40-17*

Abstract: Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri tabiatni muhofaza qilishning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan o‘simliklar dunyosini muhofaza qilish sanaladi.⁹³ Respublikamiz florasi rang-barang bo‘lib, o‘simliklarning miqdori 4500 tani tashkil etadi. Ularning 2000 dan ziyodi yem-xashak, 1000 tasi bol beruvchi, 700 tasi dorivor, 530 tasi bo‘yoqli, 660 tasi efir moyli,

⁹³ Назаров К.А. Миллий боғларни муҳофаза қилиш: ҳуқуқий жиҳатлар//Экология хабарномаси.-2002.-1-сон.-12-13- бетлар.

350 tasi ozuqabop, 270 tasi xushbo‘y, ziravor, 450 tasi teri oshlovchi o‘simliklar sanaladi. O‘simliklarning 1-12 foizi muhofazaga muhtoj.⁹⁴

1991-yili O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”ga o‘simliklarning 163 tasi kiritilgan edi. 1999-yilga kelib ularning soni 301 taga yetdi. Bu tashvishli holat, albatta. Sababi kamyob, yo‘qolib borayotgan o‘simliklar, butalar, daraxtlar bilan birgalikda ularning nomlari ham iste’moldan butunlay chiqib ketmoqda. Shu bois, ekofitonimlar (ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan daraxt va o‘simlik nomlari)ning xususiyatlarini tadqiq etish, ularni yosh avlodga o‘rgatish nafaqat ekologiya birligi zamonaviy tilshunoslikning o‘tkir muammolaridan biri bo‘lib qoldi.

Bundan shu narsa anglashiladiki, bugungi kunda har tomonga bong urilayotgan ekologik tanglikka, ekologik halokatga hammamiz birdek aybdor ekanmiz. Toki har bir insonda ekologik ong, ekologik madaniyat shakllanmas va rivoj topmas ekan, bu borada biron qadam oldinga yura olmaymiz. Ekologik madaniyat va ekologik ongni shakllantirish va takomil toptirishning asosiy quroli esa bu tildir. Masalaning qonuni jihatlari allaqachon o‘z tasdig‘ini topdi. Hukumatimiz tomonidan tegishli qonuniy hujjatlar qabul qilindi. 1992-yil dekabr oyida “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, 1993-yil 7-mayda “Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”, 1995-yil 31-avgust kuni “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”, 1997-yil 27-dekabrda “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, 1999-yil 15-aprelda “O‘rmon to‘g‘risida” qabul qilingan Qonunlarda mamlakatimizdagi o‘simliklar dunyosini saqlab qolishning qonuniy asoslari yaratib berildi.

Kalit so‘zlar: *til, ekologiya, ekolinguistika, fitonim, leksik-sematik guruhlar, termin, atama, so‘z, ekologik ong.*

Abstract: *One of the most pressing issues today is the protection of flora, which is a component of nature conservation. Our republic's flora is diverse, comprising 4,500 plant species. Of these, over 2,000 are forage plants, 1,000 are fruit-bearing, 700 are medicinal, 530 are dye-producing, 660 are oil-bearing, 350 are edible, 270 are aromatic and spice-producing, and 450 are leather-producing. Between 1 and 12 percent of plants require protection.*

In 1991, 163 plants were included in the Red Book of the Republic of Uzbekistan. By 1999, this number had reached 301. This is undoubtedly an alarming situation. The reason is that, along with rare and endangered plants, shrubs, and trees, their names have also completely fallen out of use. Therefore, studying the properties of ecophytonyms (names of trees and plants of ecological significance) and teaching them to the younger generation has become a pressing issue not only in ecology but also in modern linguistics.

This means that we are all equally to blame for the environmental crisis and environmental destruction raging everywhere today. Until environmental awareness and environmental culture are developed and fostered in every person, we will not be able to make any progress in this direction. Language is the primary tool for developing and improving environmental culture and awareness. The legal aspects of this issue have already been confirmed. The relevant legal documents have been adopted by our government. The laws "On Nature Protection" of December 1992, "On Specially Protected Natural Areas" of May 7, 1993, "On Plant Quarantine" of August 31, 1995, "On the Protection and Use of Flora" of December 27, 1997, and "On Forests" of April 15, 1999, created the legal basis for preserving our country's flora.

Keywords: *language, ecology, ecolinguistics, phytonym, lexical-semantic groups, term, word, environmental awareness.*

Asosiy qism. Ёшлар ҳамиша ўта синчков, қизиқувчан бўлади, улар катталарга тақлид қилишни яхши кўради. Агар биз – ёши катта инсонлар уларга табиатни севишни, асраб-авайлашни ўргатадиган бўлсак, улар ҳам ўз навбатида табиатга ўта эҳтиёткорона муносабатда бўладиган, ўсимликлар ва ҳайвонот дунёсини асл ҳолида сақлайдиган авлод бўлиб етишади.

Ёшларга биринчи галда уларнинг атрофини ўраб турган ўсимликлар олами – экофитонимлар ҳақида етарлича маълумот бериш, уларга ўсимликлар остида яшириниб

⁹⁴ Определитель растений Средней Азии, 10 томов.-Ташкент, 1968-1993 гг.; Флора Узбекистана, 6 томов.-1941-1962 гг.; Растительный покров Узбекистана, 4 томов.-1971-1984 гг.

ётган номларни ўргатиш мақсадга мувофиқдир. Сабаби ҳар бир ном остида ҳамюртларимизнинг она табиатга нисбатан бўлган чексиз меҳр-муҳаббати, дунёқараши яшириниб ётибди. Экофитонимларни қуйидаги гуруҳларга тақсимлаб, улар орасидаги фарқларни тушунтириб бориш фойдадан ҳоли эмас. Атрофимиздаги инсонларнинг хатти-ҳаракатлари шундан дарак бермоқдаки, улар ўзларининг ҳавойи орзу-умидларини рўёбга чиқариш, табиатдан бир муддат баҳра олиш ниятида ноёб, бебаҳо, қайта тикланмас бойликларга катта зарар етказмоқдалар. Бу ҳақда улар ҳатто билмайдилар ҳам. Табиат кучоғига ташриф бурган олимларимиздан бири шундай деб ёзади: “*Экспедиция жараёнида биз юртимизда ўсаётган кўплаб гиёҳлар, ўсимлик ҳамда буталарнинг қандай номланишидан ўрта ва ёш авлоднинг беҳабарлигини англадик. Назаримизда, бу бизнинг она табиатга нисбатан эътиборсизлигимиз, экологик билимимизнинг етарли эмаслигидан далолат.*”⁹⁵

Ҳамюртларимиздан бири А.Нишонов бу ҳақда шундай деб ёзади: “*Эсимда, болалик йилларимда Қўйтош тоғ этакларида қир-адирлар ястаниб ётар эди. Биз болалар гулбарра теришга чиқардик. Ўшанда юзлаб ўқувчиларнинг ҳар бири бир тутам-бир тутам гулбарра* ковлаб олар ва нодир *гулларни пиёзи* билан бирга сувга қўйиб томоша қилардик.

Бола эканмиз, кўп нарсага ақлимиз етмаган экан. Ўқитувчиларимиз ҳам табиат кучоғида ўзимизни қандай туттишимиз кераклиги ҳақида сабоқ беришмаган эканлар. Биз севган гулларимизнинг йўқолиб кетишига ўзимиз сабабчи бўлган эканмиз, бунини энди англаб етдим.

Ҳеч кимга сир эмаски, ҳар йили шу аснода табиатни ваҳшиётна талаш, ҳатто қир-адир, бўзларни ўзбошимчалик билан бузиш ҳолатлари узлуксиз давом этиб келмоқда. Ҳозир ҳам табиатни асрашда аҳвол ўзгаргани йўқ. Айниқса, баҳор чоғида **лолақизгалдоқлар, лолалар, бинафшалар, қоқи ўт (момақаймоқ) гуллари** жуда кўплаб нобуд қилинади. **Равочларни таг-томири билан олиш, кийик ўт, зираворлар, ковулларга шафқатсизларча қирон келтириш одат** тусига кириб қолган.”⁹⁶

Шу боис, она табиатда ўсаётган турфа ўсимликлар ва уларнинг хусусиятларини, фойдали ва зарарли томонларини, хусусан, биринчи галда тил белгиларини, уларнинг номланишини ёш авлодга қайта ва қайта ўргатиш даркор. Тўплаган маълумотларимиз асосида ўсимлик номларинини қуйидаги гуруҳларга ажратдик. Экофитонимларнинг маъновий гуруҳларини ўрганиш, ёшларнинг фикрлаш қобилиятини ўстиради, уларни бир-бирига солиштириш, зарурий хулосалар чиқариш имконини беради.

1. Экофитонимларнинг маъновий гуруҳлари. 1. Дарахт номлари: *қора арча, оқ саксовул, қора саксовул, ўрик арча, савр арча, Федченко наъматаги, Корельков учқати, қорақанд, пуфанақ, иргай, Ўрта Осиё ноки, чизикпояли пилдироқ меваси, Федченко пилдироқ меваси, загозак, тубулғу, шилви* ва шу кабилар.

2. Бута номлари: *қора саксовул, ёввойи анжир, ёввойи узум, чилон жийда, писта* ва ҳ.к.

3. Ўсимликлар номлари: *беҳэтмак, нормушк, қизғиш асрагул, ракодес астрагули, зарҳалланган кийикпанжа, Ангрен мумсиги, учқат (ажойиб шилви), болқурай (майда мевали дорема), кўпгулли фергания, Северцов муғултовияси, Афлотун пиёзи, Эдуард холмони, пушти сирач, Зарафшон парписи, оқ парпи (Талас парписи), суғур ўт, Туркистон фумариоласи, Олой наталиелласи, Олой хиёли, Ольга сорбарияси, Шокаптар ламиропаппуси, базулбанг, омонқора, мармарак, Эрон зираси, анзур пиёз, Пском пиёзи, тилла ранг суғурўт, тулкиқуйруқ, туяқорин, исириқ, оқ жусан, қизилбурун, қўнғирбош, эшакмия, ширинмия, девпечак, қизил кандир, чаканда, зогоза, торон, сачратқи, шотара,*

⁹⁵ Тожибоев К. Она табиат тухфаси//Халқ сўзи, 2013 йил, 12 апрель 70-сон.-4-саҳифа.

⁹⁶ Нишонов А. Ўсимлик дунёсига қирон келтирмайлик//Экология хабарномаси, 2008 йил, 10-сон.- 46-47 бетлар.

бобуна, итбурун, кўк сутлама, чойўт, қуёнсуяк, санчиқўт, коврак, савринжон, бўзnoch, эрмон, қаровин ширачи, ботқоқ тошёрари⁹⁷ каби.

Баъзи бир экофитонимларнинг биологик ва лингвистик хусусиятлари ҳақида маълумот бериш ёш авлоднинг табиат ҳақидаги билимларини бойитади, ҳаётий тажрибаларини ортишига хизмат қилади. Масалан, ковул мевасини жайралар севиб истеъмол қилганлиги учун юртимиз аҳолиси уни “жайрабодринг” деб ҳам аташади. Қадимда Форишда яшовчи маҳаллий аҳоли ковул меваси ва гулидан “кабарбо” деб номланган шўрва тайёрлаганлар.⁹⁸

Ёки лола номларини олиб кўрайлик. Лола билан боғлиқ ўнлаб фитонимлар мавжуд. Сохта қўшгул лола, Бутков лоласи, сарғиш лола, чипор лола, Фарғона лоласи (жавгаза лола), Грейс лоласи (қизил лола), тарғил лола, Корольков лоласи, Чимён лоласи, Туркистон лоласи каби.

Бир пайтлари юртимизда бу ноёб ўсимликнинг ўнлаб турлари мавжуд бўлган ва улар кўриниши, ҳиди, гули ва баргининг шаклига қараб муайян ном (атама) билан аталган, аммо ҳамюртларимизнинг уларга нисбатан бефарқлиги, салбий муносабати туфайли лола турлари ва уларнинг ифодаловчи номлар бутунлай йўқолиб кетган.

Бу ўринда Бобурнинг қуйидаги хотираларини эслаб ўтиш жоиз: “Бу доманада ранго-ранга ҳар навъ лола бўлур. Бир қатла санаттим, ўттиз икки-ўттиз уч навъ гайри мукаррар лола чиқди. Бир навъ лола бўлурким, андин андак қизил гул иди келур, **лолаи гулбўй** дер эдук. Дашти Шайхда бир парча ерда бўлур, ўзга ерда бўлмас. Яна ушбу доманада Парвондин қуйироқ **садбарг лола** бўлур...”⁹⁹ Демак, юртимизда лолаи гулбўй ва садбарг лола мавжуд бўлган. Афсуски, табиатга бўлган салбий муносабатимиз туфайли улар ва шу билан бирга номлари ҳам мангуликка йўқ бўлиб кетган. Бунга яшил гулли ширачни ҳам қўшишимиз мумкин. 1926 йили Зоминда охириги марта яшил гулли ширач қайд этилган.

II. Экофитонимларнинг тарқалиш ҳудудларини ифодаловчи терминлар: микрофлора, дендрофлора, интродукция–карантин кўчатхонаси, ботаника боғи, полиз, дала ҳовли, фермер хўжалиги, деҳқон хўжалиги, томорқа, оранжерея, кўчатхона, парваришхона, яйлов, боғ-роғ, ўрмон, арпаханзор, ялтирбошзор, қасмалдоқзор, қилтиқзор, эфемерзор, бугдойиқзор, яйлов турлари, рангзор яйлов турлари, эфемерли яйлов, қўнғирбошли яйлов каби.

III. Экофитонимларнинг кўриниши, шаклини ифодаловчи терминлар: ўт, ўт-ўлан, майса, кўчат каби.

IV. Экофитонимларнинг сифатини ифодаловчи терминлар: танқис, ноёб, камёб, доривор, техник, озиқ-овқатбop, ёғочбop, табиий, маданий, бегона, ёввойи, тиканли, лалмикор, эндемик, сийрак, нодир, бир йиллик, мавсумий, кўп йиллик, пояли, поясиз, вегетатив, дуккакли, ўтсимон, бутасимон, ёғочланган, тукли, сертук, ҳидли, тўп гулли, туганак илдизли, наштарсимон, сербарг, резаворсимон, тор ареалли, қўзоқ каби.

Мисоллар: **Майин тукли** қандим, **Палецкий қандими**, **мантей қандими** (жузгунлар) каби буталар **камёб**, **эндем** турлар бўлиб, **фақатгина** Қизилқумда, **ниҳоятда** кичик майдонлардагина тарқалган.

Билмадим, бу **сассиқ** ковракнинг ишқибози ким? Эшитишимча, ширасидан қандайдир **қиммат** дори тайёрланар эмиш.¹⁰⁰

V. Экофитонимларнинг қисмларини ифодаловчи терминлар: хас-хашак, хазон, новда, чивик, шох-шабба, тўнғак, пўк, пўстлоқ, томир, барг, қаламча, пиёз, туганак, мева сингари.

VI. Экофитонимларни парваришлаш ва муҳофаза қилиш билан боғлиқ терминлар: уруғ, эсмоқ, сепмоқ, маданийлаштирмоқ, парваришламоқ, кўкартирмоқ, бутамоқ, шакл бермоқ, ўсимликлар генетик фонди, селекция каби.

⁹⁷ Бу ҳақда тўлиқроқ маълумот олиш учун қаранг: “Красная книга Узбекской ССР, Т.1-.2. –Ташкент: Фан, 1983-984; Холиков С., Зокиров К., Мадумаров Т. Фарғона водийсининг Ўзбекситон “Қизил китоби”га киритилган ўсимлик ва ҳайвонлари.-Андижон: Шахрихон туман босмахонаси, 1992.- 4-30 бетлар ва ҳ.

⁹⁸ Шарофий Ш. Жайрабодринг мўъжизаси//Қишлоқ ҳаёти, 2012 йил 14 август, 4-саҳифа.

⁹⁹ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: Юлдузча, 1990.-124-бет.

¹⁰⁰ Бойназаров Ў. Табиат - иккинчи онамиз//Нуқуқ, 2012-йил, 25-октябр,43-сон, 12-саҳифа.

Мисол: “Ободонлаштириш мақсадида экилган дарахтларни **санитар, чиройшакл (формовка) бериш** учун дарахт ён шакллари кесиб, уларга кўрк бахи этишда ҳанузгача маълум қўлланмалар мавжуд эмас.”¹⁰¹

VII. Экофитонимларни парваришлаш билан боғлиқ шахс номлари: *боғбон, ўрмончи, ўрмон беги, назоратчи, бионазоратчи, ихтисослашган фумигация отряди, Ўзбекистон Республикаси Ўсимликлар карантини бош давлат инспекцияси, инспектор каби.*

VIII. Экофитонимларнинг ўсишига салбий таъсир кўрсатувчи ҳолатларни ифодаловчи терминлар: *пайҳонлаш, қирқилиш, кесиш, арралаш, йиқитилиш, nobуд қилиш, узиш, юлиш ва хоказолар.*

IX. Экофитонимларга зарар келтирувчи ҳолатлар ва воситалар номи билан боғлиқ терминлар: *ёнгин, гармсел, қурғоқчилик, депрессия, пахта яккаҳоқимлиги, боқибегамлик, бегона ўт, браконьерлик, тирик замбуруғ, бактерия, вирус, кана, ҳашарот каби.*

Ўсимликлар ва дарахтларни асраб-авайлаш ёки уларга зарар келтиришнинг қандай оқибатларга олиб келишини ҳамюртларимизга атрофлича тушунтириш лозим. Кўриниб турибдики, ўсимликлар ва дарахтлар нафақат она табиатнинг кўрки, балки улар она тилимизнинг битмас-туганмас хазинаси, ноёб бойлиги ҳамдир. Экологияни тилсиз тасаввур қилиш қийин. Хар бир тур, уни ўраб турган флора ва фауна дунёси остида минглаб сўзлар яшириниб ётади. Уларнинг лисоний жиҳатларини ўрганиш орқали инсонлар қалбида табиатга меҳр-муҳаббат, шафқат туйғуларини шакллантириш ва такомил топтириш барча фанлар зиммасидаги долзарб вазифадир. Бу эса давр талаби саналади.

KOMPOZIT PLASTINKALARDA ENERGIYA YONDASHUVI ORQALI KUCHLANISH VA DEFORMATSIYANI BAHOLASH

Butayev Ruslan Buriboyevich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti,

E-mail: butayevruslantop@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy kompozit yupqa plastinkalarda kuchlanish va deformatsiyani baholashning energetik yondashuv asosidagi nazariy usullari tahlil qilinadi. Reissner-Mindlin va Kirxgoff-Lyav nazariyalariga asoslangan diferensial tenglamalar, ortotrop qatlamlarning A-B-D deformatsiya matritsafari va variatsion metodlar yordamida statik va shear deformatsiyalarining analitik ifodasi keltiriladi. Ritz va Galerkin usullari asosida taxminiy yechimlar quriladi. Olingan natijalar aerokosmik, avtomobil va sport konstruktsiyalarida optimallashtirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kompozit plastinka, energiya yondashuvi, deformatsiya, kuchlanish, ortotrop laminat, Reissner-Mindlin nazariyasi, A-B-D matritsa, variatsion metod, Ritz usuli.


KIRISH

Zamonaviy muhandislik va sanoatda kompozit materiallar asosidagi konstruktsiyalar tobora keng qo'llanilmoqda. Yuqori mustahkamlik-og'irlik nisbati, korroziyaga chidamliligi va anizotrop xossalarni boshqarish imkoniyati tufayli uglerod tolali, shisha tolali va aramid asosidagi laminatlar aerokosmik, avtomobil, qurilish va sport muhandisligida ustunlik qozonmoqda.

Kompozit yupqa plastinkalarning kuchlanish va deformatsiyasini aniqlash muhandislik hisob-kitoblarining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Masalaning murakkabligi uchta omil bilan belgilanadi: (1) har bir qatlam anizotrop elastiklik moduliga ega; (2) qatlamaro bog'lanish (coupling) A-B-D matritsasining B tarkibiy qismi orqali ifodalanadi; (3) qalinlik nisbatiga qarab qirquvchi deformatsiyalar (shear) sezilarli bo'lishi mumkin. Shu sababli energetik (variatsion) yondashuv Ritz va Galerkin metodlari bilan birgalikda kuchli nazariy asos hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — energetik yondashuv asosida Kirxgoff-Lyav va Reissner-Mindlin nazariyalarini taqqoslab, A-B-D matritsasi yordamida kuchlanish va deformatsiyani tahlil qilishdir.

¹⁰¹ Собиров Ў. Ўсимликлар дунёсини муҳофаза қилиш соҳасидаги айрим мулоҳазалар ва айрим фикрлар// Экология хабарномаси, 2006 йил, 6-сон.-9-10бетлар.



1-rasm. Kompozit laminat plastinkaning qatlam tuzilishi va A-B-D matritsasi komponentlari

NAZARIY ASOS VA MATEMATIK MODEL

2.1. Kirxgoff-Lyav klassik plastinka nazariyasi (CLT)

Klassik laminat nazariyasi (CLT) Kirxgoff gipotetikasiga asoslanadi: deformatsiyadan oldin o'rta yuzaga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziqlar deformatsiyadan keyin ham to'g'ri va perpendikulyar qoladi. Bu taxmindan qirquvchi deformatsiyalar e'tibordan chetda qoladi. Deformatsiya-joy tenglamasi:

$$\varepsilon_x = \varepsilon_x^0 + z \cdot \kappa_x, \quad \varepsilon_y = \varepsilon_y^0 + z \cdot \kappa_y, \quad \gamma_{xy} = \gamma_{xy}^0 + 2z \cdot \kappa_{xy}$$

bu yerda ε^0 — o'rta yuzaning cho'zilish deformatsiyalari, κ — egrilik kattaliklari, z — o'rta tekislikdan masofa. A-B-D tuzilmaviy munosabat:

$$\begin{bmatrix} N \\ A \\ B \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} A & B & D \end{bmatrix} \begin{bmatrix} \varepsilon^0 \\ \kappa \end{bmatrix} \quad [M] = \begin{bmatrix} B & D \end{bmatrix} \begin{bmatrix} \kappa \end{bmatrix}$$

bu yerda A_{ij} , B_{ij} , D_{ij} — mos ravishda cho'zilish, bog'lovchi va egilish matritsalar. Ular qatlamlarning transformatsiya qilingan elastiklik matritsalar $[\bar{Q}]^{(k)}$ orqali integratsiya yo'li bilan aniqlanadi.

2.2. Reissner-Mindlin nazariyasi (FSDT)

Qalin plastinkalar va shear deformatsiyalar muhim bo'lgan holatlarda birinchi darajali qirquvchi deformatsiya nazariyasi (FSDT) qo'llaniladi. Unda plastinka kinematikasi ψ_x va ψ_y burilish burchaklari bilan kengaytiriladi:

$$u = u_0 + z \cdot \psi_x, \quad v = v_0 + z \cdot \psi_y, \quad w = w_0(x, y)$$

Shear kuchlanishlar qirquvchi tuzatish koeffitsienti $k_s = 5/6$ bilan hisobga olinadi. Bu nazariya $h/a > 0.05$ bo'lgan holatlarda CLT ga nisbatan ancha yuqori aniqlik beradi. Asosiy boshqaruvchi tenglama:

$$D_{11}w_{,xxxx} + 2(D_{12} + 2D_{66})w_{,xxyy} + D_{22}w_{,yyyy} = q(x, y)$$

ENERGETIK YONDASHUV VA VARIATSION METODLAR

Energetik yondashuv deformatsiyalangan plastinkaning umumiy potensial energiyasi Π ni minimal qilish printsiptiga asoslanadi. Umumiy potensial energiya ichki deformatsiya energiyasi U va tashqi yuklanish potensial energiyasi V dan iborat: $\Pi = U + V \rightarrow \min$.

$$U = \frac{1}{2} \iint_{\Omega} \{\varepsilon^0, \kappa\}^T [A \ B; B \ D] \{\varepsilon^0, \kappa\} dA + \frac{1}{2} k_s \iint_{\Omega} \{\gamma\}^T [A_{44} \ A_{45}; A_{45} \ A_{55}] \{\gamma\} dA$$

3.1. Ritz usuli


Ritz usulida ko'chish maydoni chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi funksiyalar majmuasi orqali taxmin qilinadi: $w(x, y) = \sum \sum C_{mn} \cdot X_m(x) \cdot Y_n(y)$. Minimal energiya sharti $\partial \Pi / \partial C_{mn} = 0$ algebraik tenglamalar sistemasini $K \cdot C = F$ ko'rinishida beradi. Sharnirli tayanch uchun sinusoidal funksiyalar $X_m = \sin(m\pi x/a)$, $Y_n = \sin(n\pi y/b)$ qo'llanilganda Ritz usuli Navye yechimiga muqobil bo'ladi:

$$w_{max} = (16q_0/\pi^6) \sum_m \sum_n [mn \cdot D_{mn}^*]^{-1}, \quad D_{mn}^* = m^4 D_{11}/a^4 + 2(D_{12} + 2D_{66})m^2 n^2/a^2 b^2 + n^4 D_{22}/b^4$$

3.2. Galerkin usuli

Galerkin usuli qoldiq funksiyani koordinata funksiyalariga perpendikulyar qilish tamoyiliga asoslanadi. Boshqaruvchi tenglama $L(w) = q_0$ uchun taxminiy yechim $w \approx \sum C_i \varphi_i$

tanlanadi va shartdan $\iint R \cdot \varphi_j dA = 0$ algebraik sistema hosil bo'ladi. Bu usul assimetrik yuklanish va noxiziqli masalalar uchun ham samarali.



2-rasm. Plastinkada kuchlanish taqsimoti qatlamlar bo'yicha (chap) va deformatsiya yuzasi $w(x,y)$ konturli ko'rinishi (o'ng)

KUCHLANISH VA DEFORMATSIYANI BAHOLASH

CLT asosida bir qatlamli ortotrop plastinka uchun to'liq analitik yechim quyidagicha: kuchlanish momentlari $M_x = -D_{11}w_{,xx} - D_{12}w_{,yy}$ va $M_y = -D_{12}w_{,xx} - D_{22}w_{,yy}$ formulalari bilan aniqlanadi. Maksimal egilish (plastinka markazida):

$$w_{max}(a/2, b/2) = 5q_0a^4 / (384 \cdot D^{eff}) \quad [sharnirli\ tayanch, kvadrat\ plastinka]$$


bu yerda D^{eff} — samarali egilish qattqlik. Qalindlik bo'yab kuchlanish taqsimoti chiziqli bo'ladi, ammo har bir qatlamda elastiklik moduli farqlanishi tufayli «qatlam sakrash» (layer-jump) effekti kuzatiladi. FSDT da shear tuzatish:

$$w_{FSDT} = w_{CLT} \cdot [1 + (D^{eff} / k_s \cdot A_{44} \cdot a^2) \cdot f(m, n)]$$

Bu tuzatma ayniqsa $h/a > 0.1$ bo'lganda (2-5% dan yuqori) muhim ahamiyat kasb etadi. Maksimal kuchlanish tashqi qatlamlarda kuzatiladi: $\sigma_{max} = (E_1 / (1 - \nu_{12}\nu_{21})) \cdot (h/2) \cdot \kappa_{max}$. Kritik qatlam uchun Tsai-Wu yoki Hashin chidamlilik mezonlari tekshiriladi.

MATERIALLAR XOSSALARINI SOLISHTIRISH

Quyidagi diagrammada CFRP, GFRP, Aramid (Kevlar) kabi zamonaviy kompozit materiallar va an'anaviy metallar — alyuminiy, po'lat, titan — solishtirma mustahkamligi va elastiklik moduli bo'yicha taqqoslanmoqda. Bu ko'rsatkichlar konstruksiyani optimallashtirish bosqichida material tanlashda asosiy mezon hisoblanadi.



1-diagramma. Kompozit va an'anaviy materiallarning solishtirma mustahkamligi va elastiklik moduli taqqoslash

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, CFRP (uglerod tolali plastik) solishtirma mustahkamligi $850 \text{ kN} \cdot \text{m/kg}$ bilan barcha materiallardan 2–4 baravar ustun turadi. Elastiklik moduli bo'yicha CFRP 180 GPa qiymati bilan alyuminiydan (70 GPa) va titan (114 GPa) dan ancha yuqori, ammo

po'latdan (210 GPa) past. Bu esa massani kamaytirgan holda yuqori qattqlikni ta'minlash zarurati bo'lganda kompozitlarni optimal tanlov qiladi.

SONLI USULLAR BILAN INTEGRATSIYA

Chekli elementlar usuli (FEM) variatsion formulirovka asosida quriladi. Har bir element uchun lokal qattqlik matritsasi $k_e = \iint_{\Omega} B^T \cdot D \cdot B \, dA$ ko'rinishida yoziladi, bu yerda B — deformatsiya-ko'chish matritsasi. Shear-locking muammosidan qochish uchun qisqartirilgan integratsiya (reduced integration) yoki MITC elementlari qo'llaniladi. Global $K \cdot u = F$ sistemasini yechgandan so'ng har bir tugun uchun ko'chish, moment va kuchlanish qiymatlari aniqlanadi.

FEM natijalari analitik Ritz yechimi bilan taqqoslaganda 1–3% farq ko'rsatadi. Reissner-Mindlin MITC elementi CFRP laminatlar uchun CLT asosidagi elementlarga qaraganda shear deformatsiyalarini 8–12% aniqroq aks ettiradi. Quyidagi jadvalda ikki asosiy nazariya xususiyatlari taqqoslanadi.

Ko'rsatkich	CLT (Kirxgoff)	FSDT (Mindlin)
Qirquvchi deformatsiya	Hisobga olinmaydi	Hisobga olinadi ($k_s=5/6$)
Aniqlik sohasi	$h/a < 0.05$	$h/a < 0.20$
Kinematik o'zgaruvchilar	3 ta (u_0, v_0, w_0)	5 ta ($u_0, v_0, w_0, \psi_x, \psi_y$)
Maksimal og'ish farqi	Asos (taqqoslash)	2-15% yuqori aniqlik
Hisoblash murakkabligi	Past	O'rta
Qo'llanish sohasi	Yupqa laminatlar	Qalin kompozitlar

1-jadval. CLT va FSDT nazariyalarining asosiy xususiyatlari taqqoslash

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, FSDT nazariyasi ko'proq kinematik parametrlarni talab qilishiga qaramay, qalin kompozit plastinkalar va katta qirquvchi yuklanishlar uchun ancha aniq natijalar beradi. Amaliy muhandislikda $h/a < 0.05$ bo'lganda CLT qo'llanilishi tavsiya etiladi; qalinroq plastinkalar uchun FSDT yoki yuqori darajali nazariyalar (HSDT) afzal ko'riladi.

XULOSA

Ushbu maqolada energetik yondashuv asosida kompozit yupqa plastinkalarda kuchlanish va deformatsiyani baholashning nazariy usullari tizimli bayon etildi. Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. Kirxgoff-Lyav (CLT) nazariyasi yupqa plastinkalar ($h/a < 0.05$) uchun yetarli aniqlik beradi; qalin plastinkalar uchun esa FSDT (Reissner-Mindlin) zarur.
2. A-B-D matritsasi laminatning barcha mexanik xossalarini yaxlit qamrab oladi; $B \neq 0$ bo'lgan asimmetrik laminatlarda cho'zilish-egilish bog'lanishi hisobga olinishi shart.
3. Ritz usuli sharnirli tayanch uchun to'liq analitik yechim beradi; Galerkin usuli esa murakkab chegaraviy shartlar va assimetrik masalalar uchun universal.
4. CFRP solishtirma mustahkamligi va qattqlik-massa nisbati bo'yicha an'anaviy metallardan sezilarli ustunlik ko'rsatib, zamonaviy konstruksiyalarda keng qo'llanilishini asoslantiradi.

Kelgusida tadqiqot nochiziqli geometrik ta'sirlar, dinamik yuklanish va AI-asosida kompozit qatlamlar tartibini optimallashtirishni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov, S. "Kompozit materiallar va laminat plastinkalar nazariyasi". — Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. — 312 b.
2. Qodirov, B. "Yupqa plastinkalarning elastik va qovushqoq deformatsiyalari". — Toshkent: O'zbekiston Texnika Universiteti nashriyoti, 2020. — 245 b.
3. Власов, В. 3. «Теория упругости и пластинки». — Москва: Наука, 2015. — 480 с.
4. Кулик, С. А. «Ортотропные композитные плиты: анализ напряжений». — СПб.: БХВ-Петербург, 2017. — 256 с.
5. Ковалев, М. И. «Ламинаты и слоистые материалы». — Москва: Машиностроение, 2016. — 340 с.

6. Reddy, J. N. Mechanics of Laminated Composite Plates and Shells. — 2nd ed. — CRC Press, 2004. — 858 p.
7. Noor, A. K. Advances in Structural Mechanics of Composite Laminates. — Springer, 2012. — 412 p.
8. Daniel, I. M., Ishai, O. Engineering Mechanics of Composite Materials. — Oxford Univ. Press, 2006. — 432 p.
9. Mindlin, R. D. "Influence of rotatory inertia and shear on flexural motions of elastic plates" // J. Appl. Mech. — 1951. — Vol. 18. — P. 31–38.
10. Reissner, E. "The effect of transverse shear deformation on the bending of elastic plates" // J. Appl. Mech. — 1945. — Vol. 12. — P. 69–77.
11. Lekhnitskii, S. G. Theory of Elasticity of an Anisotropic Body. — Mir Publishers, 1981. — 430 p.
12. Vinson, J. R. Plate and Shell Structures: Elasticity, Stability, and Vibration. — Springer, 2005. — 380 p.

МИРОВОЗЗРЕНИЕ МОЛОДЕЖИ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Мирзакулов М.Т.

менеджер по научно-инновационной деятельности,

международным

связям и академической мобильности

Университета инноваций Шёлкового пути

MUZ.201516@gmail.com

Аннотация: В данной статье исследуется мировоззрение современной молодежи Узбекистана, его природа, содержание и сущность. В частности, на основе исторического и современного подхода рассматривается преемственность в мировоззрении молодежи и уделяется внимание гармонии инноваций и традиций.

Ключевые слова: мировоззрение, мировоззрение молодежи, инновационная деятельность, социальная жизнь, устойчивое развитие.

Анотация: Мазкур мақолада замонавий Ўзбекистон ёшларининг дунёқараши, унинг табиати, мазмун моҳияти тадқиқ этилган. Хусусан, ёшлар дунёқарашига тадрижийлик асосида ёндашиш ва унда инновация ҳамда анъаналар уйғунлигига аҳамият қаратилиши тарихийлик ва замонавийлик асосида ёритилган.

Калит сўзлар: дунёқараш, ёшлар дунёқараши, инновацион фаолият, ижтимоий ҳаёт, барқарор тараққиёт.

Annotation: This article explores the worldview of modern Uzbek youth, its nature, content, and essence. In particular, it examines the continuity in the worldview of young people based on a historical and modern approach, and highlights the harmony between innovation and tradition.

Keywords: worldview, youth worldview, innovative activity, social life, sustainable development.

Роль молодёжи в Узбекистане имеет глубокие исторические корни и всегда была ключевой для развития общества и становления государственности. Это не просто демографическая группа, а активная сила, формирующая будущее страны. Как подчеркнул глава государства Ш.Мирзиёев: “Каждый успех нашей молодежи — это наша сила, наш потенциал, наша надежда на будущее. Сегодня наши дети осваивают передовые направления и опережают время. Если мы поддержим их, обеспечим качественное образование и условия для развития, они добьются еще более высоких результатов” (<https://president.uz/ru/lists/view/8277>).

Таким образом, сегодня молодые люди играют важную роль в формировании мировоззрения и своей социализации, в устойчивом развитии. Сегодня совершенно очевидно, что поступок человека с нулевым уровнем развития отражается на его образе мышления и мировоззрении.

Естественно, под мировоззрением следует понимать - это система взглядов человека на мир, место человека в нем, отношение к окружающей действительности и к себе, а также обусловленные этими взглядами основные жизненные убеждения, идеалы и принципы. Это

целостное представление о мире, которое формируется на основе мироощущения, мировосприятия и миропонимания. Мировоззрение включает в себя не только знания о мире, но и ценностные ориентации, идеалы, принципы деятельности и поведение человека(1.1). Это означает, что проблема мировоззрения это не просто набор разрозненных представлений, а организованная структура, в которой взаимосвязаны различные аспекты восприятия мира. Как наша молодёжь видит мир, как она оценивает его и как взаимодействует с ним, каковы его жизненные ориентации, позиции, активность?

Следует изучать проблему не только в реалиях сегодняшнего дня, но и в историческом ракурсе. В конце концов, полезно оглянуться на прошлое.

В историческом контексте молодое поколение всегда перенимало прогрессивный опыт предыдущих поколений, развивало, творило и бережно хранило знания и традиции.

В период расцвета исламской цивилизации на территории современного Узбекистана (IX-XV века) молодые ученые, мыслители и деятели культуры, такие как Ал-Хорезми, Ал-Фергани, Ибн Сина (Авиценна), Аль-Бируни, Мирзо Улугбек, сыграли колоссальную роль в развитии науки, медицины, астрономии, философии и искусства (5, 38-51). Они были молодыми, когда создавали свои великие труды, и их идеи повлияли на весь мир (1,69 – 81).

Молодое поколение всегда было вовлечено в передачу национальных традиций, обычаев, ремёсел и устного народного творчества. От поколения к поколению передавались знания о земледелии, архитектуре, поэзии, что формировало уникальную культурную идентичность региона.

В конце XIX - начале XX века, на фоне колониального господства, молодые джаиды (реформаторы) стали движущей силой национального пробуждения. Они стремились к просвещению, модернизации и освобождению, видя в образовании и самосознании ключ к будущему. Их идеи, хоть и не всегда реализовывались при жизни, заложили фундамент для последующей борьбы за независимость.

В Советском Союзе прогрессивная молодёжь Узбекистана активно участвовала в программах по ликвидации неграмотности, осваивала новые профессии, внося свой вклад в индустриализацию и коллективизацию. Они были основными кадрами для новых заводов, фабрик и колхозов.

В период Великой Отечественной войны молодые узбекистанцы героически сражались на фронтах Второй мировой войны и самоотверженно трудились в тылу, демонстрируя мужество и патриотизм. Многие молодые люди, которые не были призваны на фронт, работали на промышленных предприятиях и в сельском хозяйстве, обеспечивая армию всем необходимым.

В послевоенные годы молодёжь активно участвовала в восстановлении разрушенного хозяйства, освоении новых земель, строительстве городов и промышленных объектов. Комсомольские стройки стали символом энтузиазма и самоотдачи молодого поколения.

После обретения независимости молодёжь стала активным участником процесса формирования новой государственности, освоения принципов рыночной экономики и демократических ценностей. Молодые специалисты, получившие образование как внутри страны, так и за рубежом, внесли вклад в развитие различных сфер жизни Республики.

С первых дней независимости Узбекистан уделяет огромное внимание развитию человеческого капитала, в частности, молодёжи. Активно внедряются новые образовательные стандарты, поддерживаются талантливые студенты, создаются условия для освоения современных технологий. Сегодня молодёжь Узбекистана является движущей силой в развитии IT-сектора, цифровизации и инноваций.

Стоит отметить, что с философской точки зрения мировоззрение молодых людей и их отношение к семье для развития государства и общества реализуются на основе преемственности. Преемственность, в широком смысле, это связь между прошлым и настоящим, при которой элементы прошлого сохраняются и передаются в настоящее, обеспечивая непрерывность развития. В контексте различных сфер, таких как наука,

образование, культура и общество, преемственность подразумевает сохранение и передачу знаний, опыта, традиций, ценностей от одного поколения к другому. Преемственность важна, так как она позволяет не начинать каждый раз с нуля, а строить новое на основе накопленного опыта и знаний, обеспечивая непрерывное развитие и прогресс.

Современная молодежь Узбекистана активно участвует в общественной жизни, внося предложения по улучшению социальной сферы, экологии, развитию спорта и культуры. Государство признает их голос и создает платформы для диалога, такие как "Молодёжный парламент" и различные форумы.

Современный Узбекистан переживает период динамичных преобразований, затрагивающих все сферы жизни общества. В эпицентре этих изменений находится молодое поколение – активная, амбициозная и быстро адаптирующаяся сила, чье мировоззрение формируется под влиянием как многовековых традиций, так и стремительно развивающихся глобальных тенденций. Понимание их взглядов, ценностей и стремлений является ключевым для определения будущего страны.

Мировоззрение узбекской молодежи глубоко укоренено в **традиционных ценностях**. Уважение к старшим (ота-она хурмати), почитание семьи (оила муқаддас), гостеприимство (меҳмондўстлик), скромность (камтарлик) и трудолюбие (меҳнатсеварлик) по-прежнему являются фундаментальными принципами, передаваемыми из поколения в поколение. Эти ценности формируют основу их межличностных отношений, поведения в обществе и отношения к труду. Институт семьи остается чрезвычайно важным, и решения молодых людей часто принимаются с учетом мнения старших родственников (2).

Muammo-muzokara usullari: «miya hujumi» (brainstorming), «dumaloq stol», «klaster», savol-javob sessiyalari kabi metodlar, darsdagi masalalarni birgalikda muhokama qilish va tahlil qilishga yordam beradi. Bu metodlar o‘quvchilarga mantiqan fikrlashni va turli fikrlarni baholashni o‘rgatadi. Masalan, “Aqliy hujum” metodida dars savoli yoki muammosi sinfda muhokama qilinadi va har bir bola o‘z takliflarini bayon qiladi.

Guruh va juftlik ishlari (kooperativ ta’lim): o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linib, berilgan topshiriq ustida hamkorlikda ishlaydi. Bu usul o‘zaro muloqot, bir-biridan o‘rganish va jamoaviy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, sinf bo‘ylab joylashgan o‘rindoshlari bilan juftlikda o‘yinli mashqlar yoki muammolarni hal qilish vazifalarini bajarish.

Vizual va texnologik vositalar: interaktiv doska, planshet yoki kompyuter asosida ishlaydigan o‘yin va ilovalar yordamida o‘qitish ham samarali. Bunday usul o‘quv materialini yanada yaqqolroq tasavvur etishga yordam beradi va muvaffaqiyatlilikni oshiradi.

Ilova usullari va internet-resurslar: masofaviy loyihalar, onlayn viktorinalar yoki video materiallar orqali boshlangan mavzuni mustahkamlash mumkin. Bu o‘quvchilarni o‘zlashtirilgan ma’lumotni mustaqil tekshirishga ham undaydi.

Interfaol metodlardan foydalanish darslardan ko‘proq natija olish, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Masalan, ilg‘or tajribalar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun quvnoq va rangli metodlardan (tushunarsiz kontseptsiyalarni o‘yina asosida tushuntirish, masalan, ko‘paytirish jadvalini o‘rgatishda “Aqliy hujum” kabi o‘yinlar) foydalanish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, interfaol metodlarning samarasi uchun dars va maqsad aniqligi, mavzuga mos metod tanlanganligi ham muhim omillardir.

Quyida boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlarni qo‘llashga misol bo‘la oladigan ikkita mashg‘ulot ssenariysi keltiriladi:

Matematika darsida “Aqliy hujum” metodi (1-sinf): Masalan, 1-sinfda ko‘paytirish jadvalini o‘rgatishda doskaga o‘rnatilgan badiiy ko‘rgazma (tabiat manzarali surat) yoniga qo‘yonchalar rasmi yopishtiriladi, ularning o‘rtasida esa bir-biriga olib keladigan matematik misollar yashiriladi. O‘qituvchi sinfga uchragan masalani e’lon qilib, bolalardan uni yechishni so‘raydi. Har bir misol o‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri javob bilan yechilgach, qo‘yonchalar qadam tashlaydi va oxirida yana birga uchrashadi. Ushbu o‘yinchilar faol shug‘ullanuvchi mashg‘ulot bo‘lib, har bir o‘quvchi savollarga javob berish va muammo ustida fikr yuritishda ishtirok etadi. Natijada bolalar jamoaviy ishlashni o‘rganib, mavzuni o‘ziga xos qiziqarli tarzda o‘rganadi.

Ona tili darsida “Singan tuxum” metodi: Til darsida lug‘at yoki imlo qoidalarini mustahkamlash maqsadida xar bir “tuxum” shaklida qog‘oz bo‘laklari tayyorlanadi. Masalan,

birlikka 2-3 ta jumboq qismlari (savol va javoblar, yoki so‘z guruhlar) yozilgan ikki bo‘lakdan iborat “tuxumlar” tayyorlanadi. O‘qituvchi bo‘laklarni aralashtirib, o‘quvchilarga taqsimlaydi. Bolalar birinchi qismdan o‘z javoblarini o‘qib, to‘g‘ri mos keladigan ikkinchi bo‘lakni topib, bo‘laklarni birlashtiradi. Dars yakunida singan «tuxum»lar yana to‘liq «tuxum»ga aylanadi, savol-javoblar juftlashib, mavzu bo‘yicha bilimlar mustahkamlanadi. Bu usul o‘quvchilarning fikrlash darajasini oshiradi va mashg‘ulotni qiziqarli qiladi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta‘lim metodlari boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni ijodiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega. Bunday usullar sinfda o‘qish jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarga mustaqil o‘ylash, muammolarni birgalikda yechish va bahs-munozarada ishtirok etish ko‘nikmalarini beradi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, interfaol yondashuvlar dars sifatini oshiradi va bolaning ta‘limga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Shu asosda taklif etiladi: boshlang‘ich sinf dars rejalarida interfaol metodlarga joy ajratish, o‘qituvchilarning ushbu usullar bo‘yicha malakasini oshirish, darslik va uslubiy qo‘llanmalarda interfaol misollarni kiritish zarur. O‘quv-metodik markazlarda interfaol pedagogika bo‘yicha seminarlar o‘tkazish va tajriba almashish, hamda zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini joriy etish orqali dars samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. *Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi*. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013.

2.Ikromova O.E. «Boshlang‘ich ta‘lim sifat va samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish». *Educational Research in Universal Sciences*, Vol.3, Special Issue 1, 2024, pp.357–358.

3.Xhemajli A. “Advantages of interactive teaching in early school age.” *Academic Journal of Business, Administration, Law and Social Sciences*, Vol.8, No.2, 2022.

4.Muhammed Sharibboyeva S. *Boshlang‘ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi*. Onlayn resurs: Arxiv.uz, 2023.

ЎСМИРЛАР ХУЛҚИДАГИ НУҚСОНЛАРНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ: ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЁНДАШУВ

Кайпназарова Сарбиназ Бисенбаевна

Ангрен Университети, Психология таълим ёналиши 1-босқич магистранти

Kaipnazarovasarbinaz756@gmail.com

+99894900888

Норимбетов Т.Б

Илмий раҳбар

Аннотация:

Mazkur tezis o‘smirlar xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, xulqiy og‘ishlarning kelib chiqish omillari hamda ularni bartaraf etishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘smirlar xulqidagi salbiy o‘zgarishlarning ijtimoiy, oilaviy va individual-psixologik determinantlari aniqlanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, o‘smirlar xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda kompleks yondashuv asosida psixoprofilaktika, psixodiagnostika va psixokorreksiya usullarining uyg‘un tizimi ishlab chiqilgan. Natijalar o‘smirlar bilan ishlovchi pedagog va psixologlar faoliyatida samarali foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Аннотация. Данная тезисная работа посвящена изучению научно-теоретических основ коррекции поведенческих нарушений у подростков. В исследовании рассматриваются психологические особенности подросткового возраста, причины возникновения отклоняющегося поведения, а также современные психолого-

педагогические подходы к его коррекции. Особое внимание уделяется социальным, семейным и индивидуально-психологическим факторам, влияющим на формирование поведенческих нарушений. Научная новизна исследования заключается в разработке комплексного подхода к коррекции поведенческих отклонений у подростков, включающего методы психопрофилактики, психодиагностики и психокоррекции. Полученные результаты могут быть использованы в практической деятельности педагогов и психологов, работающих с подростками.

Калит сўзлар: Ўсмирлар психологияси, хулқ-атвор бузилишлари, девиант хулқ, коррекцион психология, педагогик коррекция, ижтимоий-психологик мослашув, стресс ва эмоционал ҳолатлар, оилавий муҳит таъсири, тарбия усуллари, психологик диагностика, психокоррекция методлари, когнитив-хулқ-атвор терапияси, шахс ривожланиши, ижтимоий девиация, психологик профилактика.

Ключевые слова: Психология подростков, поведенческие нарушения, девиантное поведение, коррекционная психология, педагогическая коррекция социально-психологическая адаптация, стресс и эмоциональные состояния, влияние семейной среды, методы воспитания, психологическая диагностика, методы психокоррекции, когнитивно-поведенческая терапия, развитие личности, социальная девиация, психологическая профилактика.

Кириш:

Ҳозирги кунда таълим тизимида ўсмирлар хулқидаги салбий ўзгаришларни бартараф этиш долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Ўсмирлик даври шахс шаклланишида муҳим босқич бўлиб, ушбу даврда турли психологик ва ижтимоий омиллар таъсирида хулқ-атворда оғишлар юзага келиши мумкин. Педагогик диагностика коррекцион тадбирларни амалга оширишнинг асосий босқичи ҳисобланади. У орқали ўсмирнинг шахсий хусусиятлари, қизиқишлари, ижтимоий муносабатлари ва муаммолари аниқланади.

Материаллар, методикалар ва муҳокама:

Педагогик диагностика ўз моҳиятига биноан коррекцион тадбирларни амалга оширишни назарда тутди. Тарбия жараёнида жамият томонидан қабул қилинган хатти-ҳаракатлар, қоидалар ва меъёрлардан чекинган ўспиринларнинг хулқидаги нуқсонларни коррекциялаш улар тўғрисида тўлиқ ахборотга эга бўлишни талаб қилади.

Психокоррекция ва ривожланиш-шахснинг шаклланиши ва рухий ривожланишидаги салбий нуқсонларни бартараф этиш шахс ва жамоага фаол ижобий рухий таъсир ўтказиш, ҳар бир шахснинг мавжуд имкониятларини намоён этишига шарт-шароит яратиш. Психокоррекция машғулотлари орқали ўқувчилар руҳиятидаги нуқсонлар бартараф этилади.

Ўсмирларнинг хулқ-атворини ўрганиш ижтимоий гуруҳ ҳисобланмиш гуруҳ жамоасида олиб борилади. Педагогик муаммони ҳал этишда асосий аҳамият ўқитувчи ва ўқувчи-талаба ҳамда гуруҳ жамоаси ўртасидаги муносабатларга қаратилади.

: Бугунги кунда хулқ-атвордаги умумий муносабатларни диагностика ва коррекция қилиш учун ягона назария мавжуд бўлмасада, ўспиринлар жамоасидаги ижтимоий муносабатларни қуйидаги хусусий комплекслар орқали аниқлаш мумкин:

1) гуруҳий нормалар; 2) гуруҳий таркиб; 3) гуруҳдаги муносабатлар.

Кейингилари ўз навбатида расмий ва норасмий каби гуруҳларга бўлиниши мумкин. Расмий гуруҳ педагог томонидан назорат остига олинган таълим-тарбия мақсадларига хизмат кўрсатса, ноформал муҳитда, педагог аралашувисиз турли жараёнлар кечиши мумкин. Бунда дўстлик, меҳр-оқибат, сабр-тоқат, меҳнатсеварлик билан бирга ўжарлик, ёлғончилик каби ҳислатлар ҳам шаклланиши ҳеч гап эмас. Аммо шу нарсани таъкидлаш жоизки, ноформал гуруҳларнинг пайдо бўлиши-табиий ҳодиса, чунки ўқувчи-талаба ўзининг маълум жамоага тааллуқлилиги, ўз хоҳиш-иродасини намоён қила оладиган гуруҳга алоқадор эканлиги, масъуллигини тўлиқ ҳис этиши лозим.

Кўп ҳолларда шахснинг уни ўраб турган атроф-муҳитга нисбатан муносабати, бошқа кишилар билан муносабатга кириша олиши, хулқи, жамоат жойларида ўзини тутиш каби умуминсоний қадриятларни ўзлаштириши билан боғлиқ бўлган кўникмаларни эгаллаши уларда манфаат, муносабат, қадрият, интизом, дунёқараш, хавфсизлик(меҳнат хавфсизлиги) каби эмоционал ҳолатлардан келиб чиқиши мумкин.

Таълим тизимида муаммоли ўқитишни тўғри ташкиллаштириш ҳам ўқувчиларнинг камолотида муҳим аҳамият касб этади. Масалан, тақдим қилинаётган ўқув материалида берилган ахборот устида амаллар бажарилиб, ундаги муаммо ечимини топишга ҳаракат қилиш, изланаётган миқдор ўртасидаги боғлиқликни аниқлаш ёшларнинг ахлоқий категорияларни тез илғаб олишига замин яратади.

Ўсмирларда ижобий хислатларни ва фазилатларни шакллантириш мақсадида қуйидаги намунавий диагностик саволлардан фойдаланиш мумкин.

Психокоррекция жараёни шахс ривожланишидаги салбий ҳолатларни бартараф этишга қаратилган бўлиб, у ўқувчида ижобий хислатларни шакллантиришга хизмат қилади. Бу жараёнда индивидуал ва гуруҳий машғулотлар муҳим аҳамиятга эга

Ўсмирлар хулқини ўрганишда гуруҳ муносабатлари муҳим ўрин тутади. Гуруҳий нормалар, гуруҳ таркиби ва ўзаро муносабатлар таҳлил қилиниши лозим. Расмий ва норасмий гуруҳлар таъсири алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, айниқса норасмий муҳитда шахснинг ички эҳтиёжлари намоён бўлади.

Тадқиқот натижаларига кўра, ўсмир хулқи қуйидаги омиллар таъсирида шаклланади:

- оила муҳити
- таълим муассасаси
- тенгдошлар гуруҳи
- шахсий қизиқишлар ва эҳтиёжлар

Муаммоли ўқитиш технологиясини қўллаш ўсмирларда мустақил фикрлаш ва масъулият ҳиссини ривожлантиради. Бу эса хулқ-атвори ижобий томонга ўзгартиришга ёрдам беради.

Хулосалар:

Ўсмирлар хулқидаги нуқсонларни коррекциялаш масаласи замонавий психология ва педагогиканинг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Илмий-назарий таҳлиллар шуни кўрсатадики, ўсмирлик даври шахс ривожланишида ўта муҳим босқич бўлиб, бу даврда юзага келадиган хулқ-атвордаги оғишлар кўп ҳолларда биологик, ижтимоий ва психологик омиллар таъсирида шаклланади.

Илмий-назарий манбаларга таяниб айтиш мумкинки, самарали коррекцион ишлар қуйидаги тамойилларга асосланиши лозим:

- индивидуал ёндашув;
- тизимлилиқ ва изчиллик;
- профилактика ва эрта аралашув;
- ижтимоий муҳит билан ҳамкорлик..

Хулоса қилиб айтганда, ўсмирлар хулқидаги нуқсонларни коррекциялаш жараёни илмий асосланган, комплекс ва тизимли тарзда ташкил этилган тақдирдагина юқори самара беради. Бу эса ўз навбатида, соғлом шахсни шакллантириш, жамиятда ижтимоий мослашувни таъминлаш ва девиант хулқнинг олдини олишда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Божович Л.И. Ё и её формирование в детском возрасте. –М, Просвещение, 2008,- 464 с.
2. Кон И.С. Психология ранней юности. М,Просвещение,1989,-256 с.
3. Выготский Л.С. Педагогическая психология .- М,Педагогика, 1991.-480 с.
4. А.Н.Леонтьев. Деятельност. Сознание. Личность.-М,Смысл, 2005,352 с.
5. Ўсмир психологиясига оид тадқиқотлар

TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA ZAMONAVIY AMALIY KUZATISHLAR NATIJASIDA ISH VAQTIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna

Namangan davlat texnika universiteti professori

nabidjanovanargiza@gmail.com

Mamatqulova Saida Raxmatovna

Farg‘ona davlat texnika universiteti, Yengil sanoat muhandisligi kafedrası,

Katta o‘qituvchi (PhD)

Anotatsiya: Quyidagi maqolada yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishda kiyim tikishda materiallardan foydalanish texnologiyasining nazariy va amaliy jihatlarini ko‘rib chiqiladi. Ushbu mahsulotlar asosida tayyorlanadigan yarim fabrikatlarning fizik-mexanik xususiyatlari, ularni shakllantirish usullari hamda presslash va sintezlash jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur texnologiyaning samaradorligi, resurs tejamligi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, presslash jarayoni, sinterlash, kukun metallurgiyasi, fizik-mexanik xususiyatlar, innovatsion texnologiya, ishlab chiqarish samaradorligi.

Kirish. Bugungi kunda mehnatni me‘yorlashtirish ish jarayonini ilmiy asosda o‘lchash va standartlash orqali mehnat natijasi, ish vaqti, ish haqi, quvvat va tannarx o‘rtasidagi bog‘liqliklarni belgilaydigan boshqaruv vositasidir. O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, mehnatni normalashtirish muayyan ishlab chiqarish sharoitida ish/operatsiya uchun eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan vaqt miqdorini aniqlash, shuningdek xodimlar guruhlarini soni va asbob-uskunalar soni o‘rtasidagi maqbul nisbatni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tikuv-trikotaj korxonalarida me‘yorlashning o‘ziga xosligi operatsiyalar ko‘pligi, qisqa sikl, yordamchi harakatlar ulushining kattaligi, material (elastik trikotaj, qafhtamlar, chok geometriyasi) va inson omili (charchoq, statik poza, takroriy harakatlar)ga yuqori sezgirlik bilan belgilanadi. Mehnat me‘yorlashtirish nazariyasi sanoatlashuv sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarini standartlash ehtiyojidan kelib chiqqan bo‘lib, XX asr boshlarida Frederik Uinslou Teylor “qoidaga ko‘ra ishlash” (rule of thumb) o‘rniga harakat va vaqtni aniq o‘lchash orqali “eng yaxshi usul”ni topish zarurligini asoslagan. Bu yondashuv taym-stadi (stopwatch time study)ning klassik asosi sifatida qabul qilingan[1].

O‘zbekiston mehnat qonunchiligi me‘yorlarning mazmunan turlarini (vaqt normasi, ishlab chiqarish normasi, xizmat ko‘rsatish normasi, xodimlar soni normasi va boshqalar) belgilab, hamda bir turdagi ishlar uchun namunaviy (tarmoq, tarmoqlararo, kasbiy va boshqa) mehnat me‘yorlarini vakolatli vazirlik tasdiqlashini ko‘zda tutadi.

Namunaviy me‘yoriy hujjatlarda (2025 yilgi namunaviy nizom) me‘yor ishlab chiqishdan oldin ish joylarining tashkiliy-texnik tayyorgarligini tekshirish, kamchiliklarni bartaraf etish, me‘yor ishlab chiqishda tahliliy, yig‘ish va xronometraj usullaridan foydalanish, shuningdek tarmoq/tarmoqlararo/kasbiy me‘yorlarni vakolatli organlar ishlab chiqib vazirlikka tasdiqlash uchun kiritish tartibi bayon qilingan. “Doimiy” va “vaqtinchalik” me‘yorlar konsepsiyasi ham muhim: ish jarayoni o‘zgarganda me‘yorlar qayta ko‘rib chiqilishi, vaqtinchalik me‘yorlar esa belgilangan muddatdan keyin doimiyga almashtirilishi zarurligi aytiladi[2].

Xronometraj (stopwatch) ish vaqti sarfini sikllar bo‘yicha o‘lchashga asoslanadi; namunaviy nizomda xronometraj takrorlanuvchi elementlarni bajarish uchun zarur vaqtni o‘lchash usuli sifatida ta‘riflanib, yalpi va tanlanma turlarga ajratiladi. Analitik yondashuvlarda operatsiya elementlarga ajratilib, elementlar vaqti normativ bazadan hisoblanadi yoki tadqiq orqali o‘lchanadi; tahliliy usulda mehnat jarayoni elementlari tahlil qilinib, standartlar asosida hisoblash yoki kuzatish natijalariga ko‘ra me‘yor ishlab chiqilishi ta‘riflangan.

Tikuv sanoatida SMV (standard minute value) tushunchasi operatsiya uchun standart vaqtni daqiqada ifodalaydi. Ochiq manbalarda SMV “standart shart-sharoitda malakali operator vazifani bajarishi uchun kerak bo‘ladigan vaqt (allowances bilan)” deb ta‘riflanadi va uning aniq

belgilanishi ishlab chiqarishni rejalashtirish hamda tannarxga ta’sir qilishi qayd etiladi. Raqamli time-motion analytics yo‘nalishida video va kompyuter vijn asosida operatsiya elementlarini avtomat ajratish, inson tahlilchisining xatolarini kamaytirish, aniqlik va prezionni oshirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan; bunday avtomat model “stopwatch”ga xos inson xato faktorini pasaytirishini ta’kidlaydigan tezislar mavjud.

O‘zbekistonda me‘yorlarni ishlab chiqish va joriy etishning huquqiy-tashkiliy talabi qat’iy: me‘yorlar tashkiliy-texnologik sharoit tahlili asosida ishlab chiqilishi, sifat va ilmiy asoslanganlik, bir xil sharoitda bir xil me‘yor qo‘llash ta’minlanishi, joriy etish/almashtirish/qayta ko‘rib chiqish jamoa shartnomasida yoki kasaba uyushmasi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi hamda xodim kamida ikki oy oldin ogohlantirilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi mehnatni normalashtirishni muayyan ish/operatsiya uchun yo‘l qo‘yladigan vaqtni belgilash, xodimlar va uskuna o‘rtasidagi maqbul nisbatni aniqlash hamda mehnat natijasi va haq to‘lash o‘lchovi o‘rtasida muvozanatni ta’minlash vositasi sifatida ta’riflaydi. Shu bilan birga, mehnat normalarini joriy etish/almashtirish/qayta ko‘rib chiqish jamoa shartnomasida (yoki u bo‘lmasa — kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishuvda) belgilanishi, xodim esa kamida 2 oy oldin ogohlantirilishi shartligi qonun darajasida mustahkamlangan[3].

2025 yilda kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan tasdiqlangan Mehnat normalarini ishlab chiqish va joriy qilish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom korxonada me‘yor ishlab chiqishdan oldin ish joylarining tashkiliy-texnik tayyorgarligini tekshirish, kamchiliklarni bartaraf etish va me‘yorlash usullarini (tahliliy, yig‘ish, xronometraj) to‘g‘ri tanlashni amaliyotga “prosedura” sifatida joriy qiladi.

2025 yilgi namunaviy nizom korxona darajasida me‘yor ishlab chiqishdan oldin ikki muhim talabni prosedura sifatida mustahkamlaydi: yangi me‘yorlar bo‘yicha ish joylarining tashkiliy-texnik tayyorgarligini tekshirish va ishni tashkil etishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek mehnat sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish. Ushbu “audit → tayyorgarlik” bosqichi bajarilmasa, me‘yor real ish sharoitidan uzilib qolishi va nizolar chiqishi xavfi keskin oshib ketadi (ayniqsa ishbay tizimda).

Mehnati normalarining asosiy turlari O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida aniq ta’riflangan: vaqt normasi, ishlab chiqarish normasi, xodimlar soni normasi, xizmat ko‘rsatish normasi, shuningdek boshqariluvchanlik va malaka normalari. Tikuv-trikotaj korxonalarida ushbu turlar “operatsiya–liniya–syex” darajalarida o‘zaro bog‘lanib ketadi: operatsiya vaqti (SMV/Nvr) o‘zgarishi ishlab chiqarish normasiga, ishbay narxga va hatto liniya shtat tarkibiga ta’sir qiladi.

Ishbay tizimda me‘yorlar tuzilishi yanada “zich” bog‘lanadi: qonunda ishbay narx tarif stavkalari va ishlab berish normalari (yoki vaqt normalari)dan kelib chiqib belgilanishi, ishbay narxni tarif stavkasi/ishlab berish normasi orqali yoki tarif stavkasi×vaqt normasi orqali hisoblash mumkinligi ko‘rsatilgan. Demak, vaqt normasiga har qanday tuzatish ishbay narxga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi va shu sababli joriy etishda kasaba uyushmasi bilan kelishish hamda 2 oy oldin ogohlantirish tartibi qat’iy bajarilishi zarur[4].

Korxona me‘yorlari “me‘yor” sifatida amal qilishi uchun ular lokal (ichki) hujjat maqomida o‘z ifodasini topishi shart. Mehnat kodeksi ichki hujjatlarga xodim holatini yomonlashtiruvchi qoidalarni kiritish taqiqlanishi, shuningdek qonun/jamoa shartnomasida kelishish talab qilingan masalalar bo‘yicha ish beruvchi kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishishni albatta amalga oshirishi kerakligini belgilaydi.

Tadqiqotda tikuv-trikotaj korxonalari xodimlarining psixologik holati (stress, charchoq, motivatsiya, diqqat va g‘aybatchilik) ish vaqti sarfi va mehnat unumdorligiga ta’siri ilmiy tarzda o‘rganildi. Ilmiy manbalarga ko‘ra, smenadagi stress va uyquchanlik darajasi yuqori bo‘lganda ish samaradorligi pasayadi. Shu sababli, tadqiqotda ishchi psixikasini baholash uchun Ilmiy o‘lchamlar (NASA-TLX, Karolinska Sleepiness Scale, UWES)dan foydalanish va ularni ish vaqti parametrlari bilan regressiya tahlil qilish tavsiya qilingan.

Ishchi charchoq va stressning iqtisodiy oqibatlarini bo‘yicha ILO va ISO standartlari ishchi salomatligi va ish vaqti tuzilishi ustidan nazorat qo‘yadi. ISO 45003 standart menejment tizimida psixoiijtimoiy xavflarni boshqarish yo‘nalishlarini belgilaydi. Ish bilan bog‘liq stress atamasiga

BMT ta’rifi mos: “xodim qabul qilayotgan ish yuklamasi va bosimlarga psixik-emosional reaksiya, bu uning qobiliyatiga mos kelmaydi”. Ikkinchi tomondan, Utrext shkalasi (UWES) ishga sodiqlik (uboglik) darajasini o‘lchab, motivatsiya va charchoqning ish samarasiga ta’sirini ko‘rsatishi aniqlangan[5].

Ish vaqtlarini tahlil qilishda so‘rovnoma metodikasi kabi empirik usullarning ham asosi bor. NASA-TLX psixologik ish yuklama darajasini baholash uchun ko‘pincha ishlatiladi; tadqiqotlarda TLX natijalari charchoq, emosional stress va shamollanish darajasi bilan yaqin bog‘liqligi aniqlangan. Karolinska Sleepiness Scale (KSS) uyquchanlik darajasini sub’yektiv baholaydi; ushbu shkala uyquchanlikni tezkor baholashda ishlatiladi va butun dunyoda tasdiqlangan. UWES esa ishlarning mehr-shuhrati darajasini o‘lchab, motivatsiya va charchoq bilan teskari korrelyasiya (baland UWES — past charchoq) ko‘rsatadi. Bu oltita shkala tikivchilarning zehniy va emosional holatini kompleks baholash imkonini beradi[6].

Tikuv-trikotaj ishlab chiqarishida mehnat me’yorlari mehnat muhofazasi va ish sharoiti hujjatlari bilan ham uzviy bog‘liq: sohaviy mehnat muhofazasi qoidalarida korxonada jamoa shartnomasi (mehnat sharoiti va mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bilan), ish o‘rinlarini attestatsiya qilish kartalari, nazorat jurnallari, kasblar bo‘yicha yo‘riqnomalar kabi hujjatlar yuritilishi talab qilinadi. Bu hujjatlar me’yorni asoslash (ish sharoiti, xavf/og‘irlik omillari) va allowances’ni belgilashda muhim manba bo‘ladi.

2025 yilgi namunaviy nizomga ko‘ra, me’yor ishlab chiqishdan oldin ish joylarining tashkiliy-texnik tayyorgarligi tekshirilishi va kamchiliklar bartaraf etilishi shart; me’yor ishlab chiqishda esa tahliliy usul, yig‘ish usuli hamda xronometraj usuli qo‘llanishi mumkin.

Bunday tahlil mehnat me’yorlashtirishda jismoniy omillar bilan birga psixofiziologik omillar ham kiritilishi zarurligini ko‘rsatadi. Ilmiy hamjamiyat va siyosat miqyosida xodimlarning psixik salomatligi va ish sharoitini yaxshilash muhim vazifa ekanligi tasdiqlanmoqda.

Adabiyotlar

1. Tadjikuziyev R. M. (2022). Technology of repair of press molds for production of machine parts from steel coils, aluminum alloys. American Journal of Applied Science And Technology, 2(04), 1-11.
2. Tadjikuziyev R. M. (2022). Analysis of Pollution of Automobile Engines Operating in the Hot, HighDust Zone of Uzbekistan. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 7, 15-19.
3. Tadjikuziyev R. M. (2024). Aplikation of automatic ARC injection molding technologi in pipe production and repair. Eurasian Journal of Engineering Technology and devopment, 2(04), issue 5, ISSN(E): 2938-3617.
4. Tadjikuziyev R. M. (2024). Teknikal service centers: Centralizatsion of technical service according to industry directions. SJ of innovation. Reforms and devopment. ISSN (E): 26751-7731, V 26. www.sjird,journalspark.org.
5. Tadjikuziyev R. M. (2025). Manufacturing of automative parts from composite materials: resource shortoges, technological processes, and innovative solutions. Eurasian Journal of Engineering Technology and devopment, ISSN(E): 2938-3778, V 3, I 2.
6. Tadjikuziyev R. M. (2025). Анализ технологий производства листовой стали и листового проката в Узбекистане. Eurasian Journal of Engineering Technology and devopment, ISSN(E): 2720-5746, www.ejid.journalspark.org.

MEDIAMATNLAR ASOSIDA TALABALARDA KRITIK FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Kurbanova Zaynab Burxanovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada mediamatnlr vositasida o‘zbek tili ta’limi jarayonida talabalarning tahliliy nutq va kritik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Muallif talabalarning intellektual salohiyatini oshirishda motivatsion,

tashkiliy, individual va uslubiy sharoitlarning o‘rnini tahlil qiladi. Tadqiqotda leksik-grammatik materialni tizimli o‘zlashtirish, psixologik qo‘llab-quvvatlash va muloqot muhitini yaratish kabi omillarning tahliliy nutqni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: mediamatn, kritik fikrlash, tahliliy nutq, pedagogik shart-sharoitlar, kompetensiya, motivatsiya, muloqot muhiti, individual yondashuv.

Аннотация: В статье освещаются педагогические условия развития компетенций критического мышления и аналитической речи студентов в процессе обучения узбекскому языку на основе медиатекстов. Автор анализирует роль мотивационных, организационных, индивидуальных и методических условий в повышении интеллектуального потенциала студентов. В исследовании научно обосновано значение таких факторов, как системное освоение лексико-грамматического материала, психологическая поддержка и создание коммуникативной среды в формировании аналитической речи.

Ключевые слова: медиатекст, критическое мышление, аналитическая речь, педагогические условия, компетенция, мотивация, коммуникативная среда, индивидуальный подход.

Abstract: The article highlights the pedagogical conditions for developing critical thinking and analytical speech competencies of students in the process of teaching the Uzbek language based on media texts. The author analyzes the role of motivational, organizational, individual, and methodological conditions in enhancing the intellectual potential of students. The research scientifically substantiates the importance of factors such as the systematic mastery of lexical and grammatical material, psychological support, and the creation of a communicative environment in the formation of analytical speech.

Keywords: media text, critical thinking, analytical speech, pedagogical conditions, competence, motivation, communicative environment, individual approach.

Bugungi bolalar yetuk, savodli va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs bo‘lib yetilishlari kerak, bu esa o‘z ona tilining boyligi va salohiyatidan to‘liq foydalanmasdan turib mumkin emas. Nutq - bu lingvistik resurslardan: so‘zlar, iboralar va jumalardan foydalanishga asoslangan aqliy faoliyat shakli. U muloqot, ma’lumot yetkazish, his-tuyg‘ular va his-tuyg‘ularni ifoda etish va boshqalarga ta’sir o‘tkazish funktsiyalarini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq ijtimoiy hayotda muhim vositadir. O‘quvchilar uchun u muvaffaqiyatli maktab ta’limining asosiy vositasidir. Nutq shunchaki fikrlarni yetkazmaydi, balki ularni shakllantiradi. Uni takomillashtirishning kaliti chuqur, mazmunli fikrlashni rivojlantirishdir. Nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirish faqat intellektual faoliyatning yaxlit tizimini o‘zlashtirish bilan mumkin. Shuning uchun maktab o‘quvchilarining nutqi ustida ishlashda materialni tayyorlash, uni tizimlashtirish, mavzuga oid vazifalarni tanlash, to‘g‘ri tuzish va mantiqiy operatsiyalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Mediamatnlar asosida o‘zbek tili ta’limida talabalarni tahliliy nutq va kritik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarga aniqlik kiritish psixologik-pedagogik adabiyotlarda muammoning qay darajada ekanligini, jamiyatning ijtimoiy tartibini, davlat ta’lim standartini, talabalar individual ta’limini faollashtirish darajalari hamda mezonlarini o‘z ichiga qamrab olishini nazarda tutgan holda tadqiqotimizning mazmunidan kelib chiqqan holda talabalarining tahliliy nutq va kritik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda quyidagi pedagogik **shartlarni** belgilab oldik:

Motivatsiya va qiziqishni shakllantirish sharti - talabalarining tahliliy nutq va kritik fikrlash faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish va ularni tilda muloqot qilishga undash uchun o‘qituvchi turli motivatsion usullardan foydalanishi zarur. Buning uchun: mavzularni talabalarining qiziqishi va ixtisosligiga mos tanlash; hayotiy vaziyatlarga yaqin muloqot mashqlarini o‘tkazish; talabalarining shaxsiy fikrini erkin ifoda etishga sharoit yaratish; muvaffaqiyatlarini ijobiy baholash orqali ularda ishonch uyg‘otish lozim.

Dasturiy ta’minot sharti shundan iboratki, talabalarining tahliliy nutq va kritik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda individual rivojlantirish dasturining tarkibiy elementlari bo‘lgan, yo‘nalishning malaka talablarida keltirilgan o‘quv fanlari va materiallari bilan o‘qitish vositalari va usuli o‘rtasidagi bog‘liqlikni e’tiborga olgan holda tanlangan bilim, ko‘nikma va

malakalarni amaliy qo‘llash istiqboliga ega bo‘lish lozim. Bu shart o‘qitish samaradorligini, mashg‘ulot mazmunini to‘g‘ri tanlashga va o‘quv materialini o‘qitish jarayoni maqsadiga mos holda tuzishga bog‘liqligini o‘zida aks ettiradi

Leksik va grammatik materialni tizimli o‘zlashtirish sharti — tahliliy nutq va kritik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishi uchun so‘z boyligi va grammatik qoidalarni avtomatlashtirish zarur. Buning uchun: leksik materialni mavzular bo‘yicha tizimlashtirib berish; grammatik qoidalarni og‘zaki nutq bilan bog‘lab, muloqot mashqlarida qo‘llash; har bir yangi qoidani turli vaziyatli o‘yinlar, dialog va rol o‘yinlari orqali mustahkamlash zarur. Shu orqali talabalar nazariy bilimni amaliy muloqotga tatbiq qila oladilar.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash sharti — talabalardagi qo‘rquv, ishonchsizlik va uyalish to‘siqlarini yo‘qotish uchun qulay muhit yaratish zarur. Buning uchun: o‘qituvchi tomonidan ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi munosabat; xatolarni qattiq tanqid qilmasdan, ularni tuzatishga yo‘naltirish; jamoaviy va juftlikdagi mashqlar orqali talabalarni faoliyatga jalb qilish lozim. Bunday psixologik muhit talabalarda erkin so‘zlash imkoniyatini kuchaytiradi.

Muloqot muhitini yaratish sharti — **darsdan tashqari vaqtda ham muloqot muhitini yaratish muhim**. Shu maqsadda: klublar, debat-munozara to‘garaklarini tashkil etish; xorijiy tilda kutubxona va media resurslardan foydalanish; turli xalqaro onlayn forum va loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini berish zarur. Bu sharoit talabalarga tilni faqat auditoriyadagina emas, balki hayotiy vaziyatlarda ham qo‘llash imkonini beradi.

Individual va differentsial yondashuv sharti — **guruhda talabalarning til darajalari turlicha bo‘lganligi sababli, ularga mos individual yondashuv zarur**. Shuning uchun: kuchli talabalar uchun murakkab topshiriqlar, qiyinlanayotganlar uchun soddaroq mashqlar berish; mustaqil ish va individual topshiriqlar orqali har bir talabaning imkoniyatini hisobga olish; darsda hamkorlik asosida o‘qitish metodlarini qo‘llash lozim.

Mediamatnlar asosida o‘zbek tili ta’limida tahliliy nutq va kritik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik shartlardan kelib chiqqan holatda biz quyida talabalarning og‘zaki nutqni rivojlantirishining pedagogik shart-sharoitlarga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Talabalarda tahliliy nutq va kritik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi **didaktik sharoitlarga** amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

Motivatsion sharoitlar: talabalarning kasbiy rivojlanishida individual faoliyatning o‘rni va rolini asoslash, talabalarda individual faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilishehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitinila’minlash.

Talabalarning tahliliy nutq va kritik fikrlashga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun qulay psixologik va o‘quv muhitini yaratish talab etiladi. Bunda o‘qituvchi mashg‘ulotlarni jonli, qiziqarli va interfaol usullar orqali olib borishi kerak. Motivatsion sharoitda: baholashning rag‘batlantiruvchi usullari; talabalarning erkin fikr bildirish imkoniyatlari; hayotiy vaziyatlarga yaqin mashg‘ulotlar tashkil etilishi muhimdir;

Til muhiti sharoiti — **tahliliy nutq va kritik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun talabalarda doimiy til muhiti bo‘lishi zarur**. Bu sharoitda: o‘zbek tilida suhbatlashish klublari; darsdan tashqari turli munozara va debat mashg‘ulotlari; til resurslari (kitob, film, audio, onlayn platformalar) keng qo‘llanilishi lozim.

Tashkiliy sharoitlar: individual faoliyatni tashkil etish usullari va shakllaridan foydalanish; talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning individual imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandard yechimlar qabul qilishga undash; individual faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

O‘quv jarayonida tahliliy nutq va kritik fikrlash mashqlarini tizimli tashkil etish uchun tashkiliy sharoit yaratilishi lozim. Bunda: vaqtni oqilona taqsimlash; og‘zaki mashqlarni muntazam qo‘llash; rolli o‘yinlar va vaziyatli mashg‘ulotlarni rejalashtirish muhim o‘rin tutadi;

Individual sharoitlar: talabalarda individual faoliyat uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi individual faolligini ta‘minlash, har bir talabada uning individual faoliyatga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning individual faoliyatini muntazam rag‘batlantirish; o‘quv jarayonini talaba shaxsning xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish.

Guruhda talabalarining tilni bilish darajasi turlicha bo‘ladi. Shu sababli sharoitlarni individuallashtirish zarur. Bu sharoitda: kuchli talabalar uchun murakkabroq vazifalar, qiyinlanayotganlar uchun soddaroq mashqlar berish; mustaqil ish topshiriqlarini individual tayinlash; talabalarni bir-biriga yordamchi sifatida jalb qilish kerak bo‘ladi.

Uslubiy sharoitlar: Mediamatnlar asosida o‘zbek tili ta‘limida talabalarining tahliliy nutq va kritik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va veb texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mustaqil tarzda axborotni qidirish, ular ustida qayta ishlashning amaliy muammolarni bartaraf etishga talabalarining individual tarzda faoliyatini amalga oshirishning uslubiy ta‘minotini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaev S. Ta‘limda nutq madaniyati. – Toshkent, 2020.
2. G‘ulomov A., Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. – T.: “O‘qituvchi”, 1995.
3. Kamilova D. Yozma nutqni rivojlantirish metodikasi // Tamaddun Nuri ilmiy jurnali. – 2022. – №3. – B. 112–118.
4. Karimov B. Yozma nutqni rivojlantirish metodikasi // Ta‘lim fanlari, 2019.
5. Mirzaeva D. Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar // Ilmiy tadqiqotlar, 2022.
6. Qodirov T. Mediamatnlar va ta‘lim jarayoni // Pedagogika jurnali, 2021.
7. Rasulov M. Maktabda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish usullari // Worldly Journals International Journal of Research. – 2023. – №4. – B. 45–52.
8. To‘xtayeva N. O‘quvchilar nutqiy kompetensiyasini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasi // E-Conference Zone. – 2023. – B. 67–72.

OLIY TA‘LIMDA KASBIY YO‘NALISHLARGA MUHANDISLIK FIZIKASI FANINI O‘QITISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

p.f.f.d(PhD)., N.B.Butayeva
n9504738@gmail.com tel: (90) 159 02 81

Mamlakatimizda masofaviy ta‘lim tizimini hozirgi kunda yangi axborot texnologiyalari vositalari asosida shakllantirish, hamda zamonaviy ta‘lim axborot resurslari va portallarni yaratish ta‘limni yanada axborotlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Mobil dastur-bu mobil qurilmaga, (telefon, kommunikator, smartfon va hokazolarga o‘rnatilgan komponentdir) mobil platformani (Android, iOS, BlackBerry, HP webOS, Symbian OC ba Windows Mobile), bog‘lash uchun mobil server va nazorat foydalanuvchi interfeysi hamda biznes-mantiqiy qurilma bo‘lib hisoblanadi [2].

Ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili va o‘zimizning pedagogik amaliyotimiz talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishda odatiy qiyinchiliklarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Professor-o‘qituvchilar duch keladigan mavjud qiyinchiliklar:

- o‘quv materiallarining hajmi katta bo‘lganligi sababli talabalarga didaktik materiallarni tizimli va tartibli uzatishda yuzaga keladigan muammolar;
- didaktik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun individual yondashuvi asosida talabalarda texnologik kompetentligini rivojlantirishning mos shakllari va usullarini yaratish uchun nihoyatda katta hajmdagi ishlarni amalga oshirish;

- ta’lim tizimining mazmuni, ma’nosi, maqsadlari, vazifalari, shaxsiy natijalarni monitoring qilish va baholash tizimidan kelib chiqqan holda o’qitishning sur’ati, shakllari va usullarini tanlash

- tizimli yondashuv asosida talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari, ta’lim maqsadlari va natijalarini belgilash uchun talabaning qiziqishlari va ta’lim talablari asosida uning barcha qobiliyatlari va iste’dodlarini keyinchalik amalga oshirish maqsadida ochib berish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash;

- talabalarining shaxsiy fazilatlarini hisobga olgan holda butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratish;

- talabalarda texnologik kompetentligini rivojlantirishga nisbatan qiziqish va motivasiya uyg‘otuvchi omillar hamda o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil ravishda tashkil etishga qaratilgan yondashuvlar, talabalarining kasbiy faoliyatini boshqarish va nazorat qilish kabi muammolar [3]. O‘z navbatida, tizimli yondashuv asosida talabalarda texnologik kompetentligini rivojlantirish jarayonida quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishadi:

- ta’lim jarayonida kasbiy faoliyat ko‘nikmalarining yetishmasligi ya’ni adabiyotlar bilan ishlash, ma’ruzalarni yozib olish, o‘qilganlarni tahlil qilish, o‘qigan ma’lumotlarini umumlashtirish, qisqa yozuvlar va oqilona xulosalar chiqarish;

- didaktik materiallar, axborot texnologiyalari, internet resurslaridan oqilona foydalanish ko‘nikmasining yetishmasligi;

- o‘ziga yuklangan vazifalarni hal qilish jarayonida ong, mustaqillik va faollikning yetarli darajada namoyon bo‘la olmasligi;

- kasbiy faoliyatning eng muhim xususiyati unga nisbatan motivasiyalarning mavjudligi va rivojlanganligi, ya’ni o‘rganilayotgan fanda o‘z mohiyatini topgan bilish ehtiyojidan iborat shart-sharoitlardir.

Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlariga aniqlik kiritish psixologik-pedagogik adabiyotlarda muammoning qay darajada ekanligini, jamiyatning ijtimoiy tartibini, davlat ta’lim standartini, talabalar mustaqil ta’limini faollashtirish darajalari hamda mezonlarini o‘z ichiga qamrab olishini nazarda tutgan holda tadqiqotimizning mazmunidan kelib chiqqan holda talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda quyidagi didaktik shartlarni belgilab oldik:

Dasturiy ta’minot sharti – talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish dasturining tarkibiy elementlari bo‘lgan, tanlangan ta’lim yo‘nalishining malaka talablarida keltirilgan o‘quv fanlari va materiallari bilan o‘qitish vositalari va usuli o‘rtasidagi bog‘liqlikni e’tiborga olgan holda tanlangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy qo‘llash istiqboliga ega bo‘lish lozim. Bu shart o‘qitish samaradorligini, mashg‘ulot mazmunini to‘g‘ri tanlashga va o‘quv materialini o‘qitish jarayoni maqsadiga mos holda tuzishga bog‘liqligini o‘zida aks ettiradi. U barcha predmetlar bo‘yicha o‘quv materiallari o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rnatishni va bir predmetdagi o‘quv materialini boshqa predmetdagi o‘quv materialini bilan to‘ldirilishi talab etiladigan o‘quv jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Metodologik shart – bunda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kasbiy faoliyatda qo‘llashni, mashg‘ulot mazmuni va tashkil etilishi esa, mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi vaziyat va o‘zaro bog‘liqlikda doimiy ravishda qo‘llash va takomillashtirishni ta’minlaydi. Bu shart o‘qitish samaradorligining talaba rivojlanish darajasi va unda kasbiy ko‘nikmalari shakllanganligiga bog‘liqligini o‘zida aks ettiradi. Bu shartni joriy etishda o‘quv jarayonini talaba bilimlarni mustaqil kasbiy faoliyat jarayonida oladigan tartibda tashkil etish talab qilinadi.

Natijaviy shart – bu o‘qitishning shunday tashkiliy shakli va talabaning o‘quv faoliyatini boshqarish vositasini tanlash hisoblanadiki, “Maxsus dastur asosida kasbiy rivojlanish shkalasi” talabaning kasbiy faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish ta’minlasin. Bu o‘quv materialini o‘zlashtirish sifati, ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini nazorat qilishni shunday tashkil etishki, bunda u nafaqat mashg‘ulot yakuni bo‘yicha, balki talabaning o‘quv-biluv jarayonida amalga oshiriladi [6].

Bu shart o‘qitish samaradorligini oshirish va talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlanishida uning kasbiy faoliyatini boshqarish va nazorat qilish vositalarini to‘g‘ri tanlashga bog‘liqligini

o‘zida aks ettiradi. U mashg‘ulotlarda talabalar rivoji va pedagogik jarayonlarni boshqarishga oid bir qator masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu shartda talabada mustaqillik va individuallik darajasi uzluksiz o‘sishi ro‘y beradi va buning uchun talabaning kasbiy faoliyatiga rahbarlik qilish va mashg‘ulot mazmunini tashkil etish talab etiladi.

Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi didaktik sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

Tashkiliy sharoitlar – kasbiy faoliyatni tashkil etish usullari va shakllaridan foydalanish, talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash, texnologik kompetentlikni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qaytaishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tadbiq etish.

Motivatsion sharoitlar – talabalarning shaxsiy rivojlanishida kasbiy faoliyatning o‘rni va rolini asoslash, talabalarda kasbiy faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash.

Kommunikativ sharoitlar – talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslarini belgilab olish, o‘quv jarayonida talabalarda individual faoliyatga ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalarni aniqlash, talabalarda individual faoliyatini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirish kabilar.

Konstruktiv sharoitlar – talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan talabalarning individual tarzda o‘z-o‘zini rivojlantirishga ruhiy jihatdan safarbar qilish, kasbiy faoliyatga o‘rgatish, shakllantirish va rivojlantirishning samarali metodlarini ishlab chiqish.

Texnologik sharoitlar – talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabada uning kasbiy faoliyatga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning kasbiy faoliyatini muntazam rag‘batlantirish; o‘quv jarayonini talaba shaxsning xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda takomillashtirish.

O‘quv-uslubiy sharoitlar: – talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish va talabalarning kasbiy faolligini jadallashtirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mustaqil tarzda axborotni qidirish, ular ustida qayta ishlashning amaliy muammolarni bartaraf etishga talabalarning individual tarzda kasbiy faoliyatini amalga oshirishning o‘quv-uslubiy ta’minotini ishlab chiqish.

Tadqiqotimiz jarayonida talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, mustaqil tarzda axborotni qidirish, ular ustida qayta ishlashning amaliy muammolarni bartaraf etishga talabalarning kasbiy faoliyatini amalga oshirishning asosiy vositasi “Muhandislik fizikasi” fanidan elektron o‘quv qo‘llanma ishlab chiqildi mazkur elektron o‘quv qo‘llanmaning quyidagi didaktik imkoniyatlari mavjud:

- elektron o‘quv qo‘llanma “Muhandislik fizikasi” fanidan yaratilgan barcha didaktik materiallari (ma’ruza matnlari, elektron o‘quv qo‘llanmalar)ni o‘zida mujassam qilgan va yuqorida keltirilgan talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan didaktik shart-sharoitlar ishlab chiqilgan [5];

- elektron o‘quv qo‘llanmani kompyuter xotirasiga ko‘chirib olish orqali har qanday turdagi internet bouzerlari orqali offlayn foydalanish imkoniyatiga ega;

- elektron o‘quv qo‘llanmaga joylashtirilgan testlarni yechilishi natijalari tizimning onlayn va offlayn holatida ham oldindan belgilangan professor-o‘qituvchining elektron pochtaiga jo‘natiladi;

- talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan kasbiy topshiriqlar joylashtirilgan;

- talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish dasturi joylashtirilgan bo‘lib, talaba o‘zining kasbiy faoliyatini ushbu dastur asosida mustaqil tarzda tashkil etishi, natijalarini tahlil qilib borish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони.
2. Дьяченко, С. А. (2007). Электронные средства обучения в деятельности преподавателя. *Среднерусский вестник общественных наук*, (2).
3. Пулатова, Д. Т. (2015). Таълим жараёнига электрон ахборот таълим ресурсларини жорий этишнинг педагогик шарт-шароитлари. *Современное образование (Узбекистан)*, (7).
4. Iskandarovich, U. I. (2021). Theoretical Fundamentals of Introduction of Electronic Educational Tools to the Educational Process. *Central asian journal of theoretical & Applied sciences*, 2(1), 1-7.
5. Умиров, И. (2021). Таълим жараёнида электрон таълим воситаларини қўллашнинг педагогик-психологик омиллари. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
6. Daniyarovna, H. S. (2021). The Contents of Students' Independent Education and Methods of Implementation. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1445-1456.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA FAN VA TA'LIMNING STRATEGIK ROLI

**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

Feruza Ravshanova Baxriddinovna.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyat rivojlanishida fan, ta'lim va madaniyatning o'zaro bog'liqligi hamda ularning davlat taraqqiyotidagi strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif "uchlik" tamoyili asosida jamiyatning intellektual va ma'naviy qiyofasini shakllantirish masalalariga to'xtalib o'tadi.

Kalit so'zlar: Intellektual salohiyat, innovatsiya, madaniy meros, uzluksiz ta'lim, raqamli iqtisodiyot, inson kapitali.

XXI asrda davlatlarning dunyo arenasidagi o'rni ularning tabiiy boyliklari bilan emas, balki bilimlar iqtisodiyoti va madaniy darajasi bilan belgilanmoqda. Fan, ta'lim va madaniyat jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi uchta asosiy ustun hisoblanadi. Agar ta'lim jamiyatning poydevori bo'lsa, fan uning harakatlantiruvchi kuchi, madaniyat esa uning ma'naviy qonidir.

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi faqat bilim berish maskani emas, balki raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash poligoniga aylandi. Inson kapitalini shakllantirish, ta'limga kiritilgan investitsiya kelajakda iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Uzluksiz ta'lim (Life-long learning): Texnologiyalar tez almashayotgan davrda insonning butun umri davomida bilim olishi jamiyatning moslashuvchanligini oshiradi. Ilm-fanning rivoji to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarish samaradorligi va hayot sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

Fundamental va amaliy fanlar: Yangi texnologiyalar, sun'iy intellekt va biotexnologiyalar sohasidagi yutuqlar jamiyatning global muammolarini (energetika, ekologiya, tibbiyot) hal etishga xizmat qiladi.

Fan yutuqlari orqali jamiyatning barcha jabhalariga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi boshqaruv va xizmat ko'rsatishni yangi bosqichga olib chiqadi. Madaniyat esa jamiyatning o'zligini anglatuvchi va uni inqirozlardan saqlab qoluvchi immunitetdir.

Fan va ta'lim qanchalik rivojlanmasin, agar u madaniy va axloqiy me'yorlarga tayanmasa, jamiyat inqirozga yuz tutishi mumkin.

Ta'limda madaniy diplomatiya tuzish esa davlatning xalqaro maydondagi nufuzi uning madaniy merosi va zamonaviy san'ati orqali mustahkamlanadi.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TALABALARNING TIZIMLI, TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH: VIRTUAL REALLIK VA MEDIA VOSITALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Butayev Ruslan Buribayevich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘ZMU Amaliy matematika kafedrası dotsenti
Abduvasiyev Sardor Bahrom og‘li
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti o‘qituvchisi
(sabduvasiyev@mail.ru)

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim talabalarining tizimli, tanqidiy va ijodiy tafakkurini integrativ rivojlantirish muammosi tahlil qilinadi. Virtual reallik va zamonaviy media vositalarining didaktik salohiyati asosida talabalarda murakkab tizimlarni yaxlit idrok etish, axborotni tanqidiy baholash va ijodiy yechimlar ishlab chiqish kompetensiyalarini shakllantirishning metodik asoslari ishlab chiqilgan. Tadqiqotda ushbu uch turdagi tafakkurning o‘zaro sinergetik bog‘liqligi hamda ularni rivojlantirishda virtual va media vositalarning integratsiyalashgan modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: virtual reallik, media vositalar, tizimli tafakkur, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, integrativ yondashuv, raqamli ta’lim.

Аннотация. В данной статье анализируется проблема интегративного развития системного, критического и творческого мышления студентов высшего образования в условиях цифровой трансформации. На основе дидактического потенциала виртуальной реальности и современных медиасредств разработаны методические основы формирования у студентов компетенций целостного восприятия сложных систем, критической оценки информации и выработки творческих решений. В исследовании предлагается интегрированная модель развития указанных трёх типов мышления на основе виртуальных и медиасредств.

Ключевые слова: виртуальная реальность, медиасредства, системное мышление, критическое мышление, творческое мышление, интегративный подход, цифровое образование.

Abstract

This article analyzes the problem of integrative development of systemic, critical and creative thinking of higher education students in the context of digital transformation. Based on the didactic potential of virtual reality and modern media tools, methodological foundations for developing students' competencies in holistic perception of complex systems, critical evaluation of information and development of creative solutions are developed. The study proposes an integrated model for the development of these three types of thinking based on virtual and media tools.

Key words: virtual reality, media tools, systemic thinking, critical thinking, creative thinking, integrative approach, digital education.

Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim oldida tubdan yangi talablar paydo bo‘lmoqda. Bugungi talaba axborot bilan to‘yingan, tez o‘zgaruvchan muhitda murakkab muammolarni mustaqil hal qila oladigan intellektual qobiliyatlarga ega bo‘lishi zarur. Bu esa tizimli tafakkur, tanqidiy fikrlash va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishni taqozo etadi. Ushbu uch turdagi tafakkur bir-birini to‘ldiruvchi va sinergetik ta’sir ko‘rsatuvchi bo‘lib, zamonaviy mutaxassisning “intellektual uchburchagi”ni tashkil etadi.

Tizimli tafakkur murakkab obyektlarni yaxlit holda, elementlar va ular orasidagi bog‘lanishlarni hisobga olgan holda tahlil qilish imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash axborotni faol tahlil qilish, manba ishonchliligini tekshirish va asosli qaror qabul qilish qobiliyatidir. Ijodiy fikrlash esa mavjud bilimlarni qayta kombinatsiyalash va original yechimlar topish ko‘nikmasidir.

An’anaviy o‘qitish metodlari ko‘pincha bilimlarni fragmentar tarzda bayon qiladi, natijada talabalarda “bo‘laklangan bilimlar” sindromi yuzaga keladi. Shu sababli, ushbu uch turdagi tafakkurni rivojlantiruvchi yangi didaktik vositalarni izlash dolzarb muammo hisoblanadi.

Virtual reallik (VR) vositalari va zamonaviy media vositalari bu borada katta salohiyatga ega. VR immersivlik, interaktivlik va yuqori vizuallik xususiyatlari bilan murakkab tizimlarni modellashtirib, tizimli tafakkurni rivojlantiradi. Media vositalar (ijtimoiy tarmoqlar, videohostinglar, raqamli hikoyachilik) esa media matnlarni tahlil qilish, manipulyatsiyani aniqlash va raqamli mahsulotlar yaratish orqali tanqidiy va ijodiy fikrlashni faollashtiradi. VR va media vositalarining integrativ qo‘llanilishi o‘zaro sinergetik ta‘sir ko‘rsatadi.

Mazkur maqolaning **maqsadi** – virtual reallik va media vositalari asosida talabalarda tizimli, tanqidiy va ijodiy tafakkurni integrativ rivojlantirishning didaktik asoslari va metodik modelini asoslashdan iborat.

Quyida uch xil tyrdagi tafakkurnig o‘zaro bog‘liqligini jadval sifatida ko‘rishimiz mumkun.

. Tizimli, tanqidiy va ijodiy tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi

Uch turdagi tafakkurning o‘zaro aloqasini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

Tafakkur turi	Asosiy vazifasi	Rivojlanish mexanizmi	VR va media vositalarining roli
Tizimli tafakkur	Murakkab tizimlarni yaxlit idrok etish	Modellashtirish, tahlil, sintez	VR da 3D modellarni o‘rganish, elementlararo bog‘lanishlarni vizuallashtirish
Tanqidiy fikrlash	Axborotni baholash, manipulyatsiyadan himoyalanih	Diskurs tahlil, argumentatsiya, refleksiya	Media matnlarni tahlil qilish, onlayn muhokamalar, dalillarni solishtirish
Ijodiy fikrlash	Original va moslashuvchan yechimlar yaratish	Divergent tafakkur, kombinatsiya, transformatsiya	VR da loyihalash, raqamli hikoyachilik, kreativ topshiriqlar

1-jadval. Tizimli, tanqidiy va ijodiy tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan tahlildan ko‘rinib turibdiki, tizimli, tanqidiy va ijodiy tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning rivojlanishida virtual reallik (VR) va media vositalari alohida o‘rin tutadi. Ushbu vositalarning har biri o‘ziga xos didaktik funksiyalarni bajaradi. Quyida mazkur vositalarning integrativ didaktik salohiyati batafsil tahlil qilinadi.

Virtual reallik texnologiyalari o‘zining uchta asosiy xususiyati – immersivlik (chuqur jalb etilish), interaktivlik va yuqori darajadagi vizuallik bilan an’anaviy o‘qitish vositalaridan keskin farq qiladi. Immersivlik talabaning o‘quv jarayoniga to‘liq “cho‘mib ketishi”ni ta‘minlab, uning diqqatini maksimal darajada jamlaydi va o‘rganilayotgan obyekt yoki jarayon bilan hissiy aloqa o‘rnatishga yordam beradi. Interaktivlik esa talabaga virtual obyektlar bilan bevosita muloqot qilish, ularning parametrlarini o‘zgartirish va natijalarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Yuqori vizuallik murakkab tizimlarning tuzilishi va dinamikasini aniq, tushunarli va estetik jihatdan jozibador tarzda namoyish etadi.


Zamonaviy media vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, videohosting platformalar, interaktiv veb-saytlar, raqamli hikoyachilik vositalari) esa asosan tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Media matnlarni kritik tahlil qilish, manipulyativ usullarni aniqlash, turli manbalarni solishtirish, onlayn muhokamalarda argumentatsiya qilish – bu jarayonlarning barchasi talabaning analitik qobiliyatlarini faollashtiradi. Shu bilan birga, raqamli hikoyachilik va media mahsulotlar yaratish kreativ fikrlashni rag‘batlantiradi.

VR va media vositalarini integratsiyalashgan holda qo‘llash orqali talabalarda uch turdagi tafakkurni rivojlantirish quyidagi bosqichli model asosida amalga oshiriladi.

Bosqich nomi	Didaktik vazifa	VR vositasi	Media vositasi	Rivojlanadigan tafakkur turi
1-bosqich: Idrok va tushunish	Murakkab tizimning tuzilishi va funksiyalari bilan tanishtirish	VR da 3D modelni kuzatish, tizim ichida navigatsiya qilish	Video material, infografika, animatsiya	Tizimli tafakkur (boshlang‘ich daraja)
2-bosqich: Tahlil va baholash	Tizim elementlari va ular orasidagi bog‘lanishlarni tahlil qilish, muqobil nuqtai nazarlarni solishtirish	VR da interaktiv tahlil, elementlarni ajratib ko‘rsatish	Matnli va videomanbalarni kritik tahlil qilish, onlayn muhokama	Tanqidiy fikrlash
3-bosqich: Sintez va yaratish	Mavjud bilimlar asosida yangi yechim yoki loyiha ishlab chiqish	VR da loyihalash, modifikatsiya qilish, yangi variantlar yaratish	Raqamli hikoyachilik, video yoki blog yaratish, prezentatsiya	Ijodiy fikrlash
4-bosqich: Refleksiya va transfer	O‘z faoliyati natijalarini baholash, xatolarni tahlil qilish, bilimlarni yangi vaziyatga qo‘llash	VR da natijalarni qayta ko‘rish, stsenariyni o‘zgartirish	Onlayn baholash, guruhli refleksiya, portfolio yuritish	Barcha uch tur (yuqori daraja)

2-jadval. VR va media vositalari asosida tafakkurni rivojlantirishning bosqichli modeli

Ushbu model bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi talaba faoliyatiga asoslangan. Har bir bosqichda talaba passiv kuzatuvchidan faol bilish subyektiga, so‘ngra kreator va



refleksiv baholovchiga aylanadi.


1-rasm VR va media vositalarining o‘zaro integratsiyasi.

Yuqoridagi 1-rasm VR va media vositalarining o‘zaro integratsiyasi hamda ularning tafakkur turlari bilan bog‘liqligi umumiy sxematik tarzda aks ettirilgan. Mazkur modelda VR vositalari asosan tizimli tafakkurni, media vositalari esa tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Biroq, ushbu vositalarning har biri tafakkurning qaysi turiga qanchalik samarali ta’sir ko‘rsatishi masalasi alohida tahlilni talab qiladi. Quyidagi 2-rasm VR va media vositalarining har bir tafakkur turiga ta’sir koeffitsiyenti miqdoriy jihatdan ifodalangan.


2-rasm. VR va media vositalarining tafakkur turlariga ta’sir koeffitsiyenti

2-rasm keltirilgan ustunli diagramma VR vositalari tizimli tafakkurni (9 ball), media vositalari esa tanqidiy (9 ball) va ijodiy fikrlashni (8 ball) rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ushbu ko‘rsatkichlar statik xarakterga ega bo‘lib, o‘quv jarayonining turli bosqichlarida tafakkur rivojlanishining dinamik o‘zgarishlarini aks ettirmaydi.

Tafakkur



rivojlanishi bosqichma-bosqich sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lib, uning dinamikasini o‘rganish modelning amaliy ahamiyatini ochib berishda muhimdir. Quyidagi 3-rasm talabalarning tafakkur rivojlanish dinamikasi to‘rt bosqich kesimida chiziqli grafik shaklida ifodalangan.



3-
rasm.

Talabning tafakkur rivojlanish dinamikasi (bosqichlar kesimida)

3-rasmda keltirilgan chiziqli grafik tizimli, tanqidiy va ijodiy tafakkurning o‘quv jarayonining turli bosqichlarida turlicha intensivlikda rivojlanishini ko‘rsatdi. Tizimli tafakkur dastlabki bosqichlarda (idrok va tushunish) nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa (60%), ijodiy fikrlash keyingi bosqichlarda (yaratish va refleksiya) keskin o‘shib boradi (20% dan 92% gacha). 4-bosqich (refleksiya)da barcha uch turdagi tafakkur 85-92% darajasiga yetishi ularning o‘zaro sinergetik ta’siridan dalolat beradi. Ushbu natijalar taklif etilayotgan bosqichli modelning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi va VR hamda media vositalarini integrativ qo‘llash tafakkurning barcha turlarini uyg‘un rivojlantirish imkonini berishini ko‘rsatadi

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim talabalarida tizimli, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Ushbu uch turdagi tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivoji zamonaviy mutaxassisning raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omildir. Virtual reallik va zamonaviy media vositalari bu borada yuqori didaktik salohiyatga ega. VR vositalari immersivlik, interaktivlik va vizuallik xususiyatlari bilan tizimli tafakkurni rivojlantirsa, media vositalari tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu ikki vosita turini alohida emas, balki integratsiyalashgan holda, bosqichma-bosqich murakkablashuvchi model asosida qo‘llash tafakkurning barcha turlarini uyg‘un rivojlantirish imkonini beradi. Taklif etilayotgan didaktik model talabning bilish faoliyatini idrok, tahlil, yaratish va refleksiya bosqichlarida bosqichma-bosqich faollashtirib, natijada tizimli, tanqidiy va ijodiy tafakkurning barqaror shakllanishiga erishish mumkin. Kelgusida ushbu modelni eksperimental sinovdan o‘tkazish, turli ta’lim yo‘nalishlariga moslashtirish va samaradorlik ko‘rsatkichlarini miqdoriy jihatdan aniqlash dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Abduvasiyev S.B.** Virtual reallik muhitidan foydalanib talabalarning murakkab tizimlarni anglash kompetensiyasini rivojlantirish // *Ta’lim va taraqqiyot* ilmiy-uslubiy jurnali. – 2025. – № 6. – B. 1100–1105.
2. **Abduvasiyev S.B.** Virtual reallik texnologiyalari yordamida talabalarning kognitiv faoliyatini va tizimli tafakkurini faollashtirish // *Ta’limda istiqbolli izlanishlar* xalqaro ilmiy-metodik jurnali. – 2026. – № 2. – B. 148–152.
3. **Avliyoqulov N.X.** Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2018.
4. **Mirzahmedov B.M.** Zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida kompetensiyalarni rivojlantirish. – Toshkent, 2019.

QOVUSHQOQ–ELASTIK YARIM TEKISLIK BILAN CHEGARALANGAN KO‘P QATLAMLI SILINDRIK QOBIQDA GARMONIK TO‘LQINLARNING SPEKTRAL XUSUSIYATLARI

*Isayev Nurbek Faxriddin o‘g‘li,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
+998938221693*

*Isayeva Sarvinoz Boytemir qizi,
Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan
maktab Jizzax filiali o‘qituvchisi
+998991351397*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qovushqoq–elastik yarim tekislik bilan chegaralangan ko‘p qatlamli silindrik qobiqda garmonik to‘lqinlarning spektral xususiyatlari nazariy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqotda ko‘p qatlamli qobiqning strukturaviy xususiyatlari, har bir qatlamning elastik parametrlari hamda tashqi muhitning qovushqoqlik ta’siri hisobga olingan holda matematik model shakllantiriladi. Garmonik to‘lqinlarning tarqalish jarayoni spektral tahlil asosida o‘rganilib, xos chastotalar, modalar va ularning energiya taqsimoti aniqlanadi. Shuningdek, yarim tekislik bilan o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladigan dispersiya va so‘nish effektlari tahlil qilinadi. Olingan natijalar ko‘p qatlamli konstruksiyalarni loyihalash, akustik va vibroizolyatsiya tizimlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: qovushqoq–elastik yarim tekislik, ko‘p qatlamli silindrik qobiq, garmonik to‘lqinlar, spektral tahlil, xos chastotalar, modalar, dispersiya, so‘nish, elastiklik nazariyasi, matematik modellash.

Ko‘p qatlamli silindrik qobiq konstruksiyalari zamonaviy muhandislikda keng qo‘llaniladi. Bunday tizimlar quvurlar, rezervuarlar, energetik qurilmalar va aviatsiya elementlarida uchraydi. Ushbu strukturalarda to‘lqin jarayonlarini o‘rganish ularning mustahkamligi, barqarorligi va akustik xossalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda qovushqoq–elastik muhit bilan o‘zaro ta’sir qiluvchi qobiq tizimlari alohida e’tibor qozonmoqda. Chunki real sharoitlarda konstruksiyalar ko‘pincha ideal elastik emas, balki energiya yutuvchi muhit bilan chegaralangan bo‘ladi. Bu esa to‘lqinlarning tarqalishiga, ularning so‘nishiga va spektral tarkibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — qovushqoq–elastik yarim tekislik bilan chegaralangan ko‘p qatlamli silindrik qobiqda garmonik to‘lqinlarning spektral xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilishdir.

Ko‘rib chiqilayotgan tizim radiusi RRR bo‘lgan ko‘p qatlamli silindrik qobiqdan iborat. Har bir qatlam o‘zining elastik moduli, zichligi va qalinligi bilan tavsiflanadi. Qobiq tashqi tomondan qovushqoq–elastik yarim tekislik bilan chegaralangan.

Tizim quyidagi asosiy farazlar asosida o‘rganiladi:

- deformatsiyalar kichik;
- materiallar izotrop va chiziqli elastik;
- tashqi muhit Kelvin–Voigt modeli bilan tavsiflanadi;
- to‘lqinlar garmonik ko‘rinishda tarqaladi.

Harakat tenglamalari elastiklik nazariyasining asosiy tenglamalaridan olinadi:

$$\nabla \cdot \sigma + \rho \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = 0$$

bu yerda σ — kuchlanish tenzori, u — siljish vektori, ρ — zichlik.

Ko‘p qatlamli qobiq uchun har bir qatlamda alohida harakat tenglamalari yoziladi va ular chegaraviy shartlar orqali o‘zaro bog‘lanadi. Qatlamlar orasida quyidagi shartlar bajariladi:

- siljishlarning uzluksizligi;
- kuchlanishlarning uzluksizligi.

Tashqi qovushqoq–elastik yarim tekislik bilan chegarada esa quyidagi shartlar qo‘llaniladi:

- kuchlanishlar muvozanati;
- dissipativ kuchlar hisobga olinadi.

Yechim garmonik shaklda izlanadi:

$$u(r, \theta, z, t) = U(r)e^{i(\omega t - kz)}$$

bu yerda ω — burchak chastota, k — to‘lqin soni.

Natijada tizim uchun dispersiya tenglamasi hosil qilinadi. Ushbu tenglama spektral xususiyatlarni aniqlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Spektral xususiyatlarning tahlili

Olingan dispersiya tenglamasi asosida quyidagi muhim xususiyatlar aniqlanadi:

1. Xos chastotalar

Tizimning xos chastotalari qatlamlar soni, ularning mexanik xossalari va tashqi muhit parametrlariga bog‘liq. Qovushqoq muhit mavjudligi xos chastotalarning kamayishiga olib keladi.

2. Dispersiya

To‘lqin tezligi chastotaga bog‘liq bo‘lib, dispersiya hodisasi yuzaga keladi. Ko‘p qatlamlilik dispersiya egri chiziqlarining murakkablashuviga olib keladi.

3. So‘nish effektlari

Qovushqoq–elastik muhit energiyaning bir qismini yutadi. Natijada to‘lqin amplitudasi vaqt o‘tishi bilan kamayadi. So‘nish darajasi muhitning qovushqoqlik koeffitsientiga bog‘liq.

4. Modalar tuzilishi

Tizimda bir nechta modalar mavjud bo‘lib, ular radial va uzunlamas yo‘nalishlarda farqlanadi. Har bir moda o‘ziga xos spektral xususiyatlarga ega.

5. Natijalar va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

- ko‘p qatlamli struktura spektral zichlikni oshiradi;
- tashqi qovushqoq muhit to‘lqinlarning so‘nishini kuchaytiradi;
- elastik parametrlar o‘zgarishi modalar soniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliy jihatdan bu natijalar vibratsiyani kamaytirish, akustik izolyatsiya va konstruksiyalarni optimallashtirishda qo‘llanishi mumkin.

Mazkur maqolada qovushqoq–elastik yarim tekislik bilan chegaralangan ko‘p qatlamli silindrik qobiqda garmonik to‘lqinlarning spektral xususiyatlari o‘rganildi. Matematik model ishlab chiqilib, dispersiya tenglamasi hosil qilindi. Tahlillar natijasida xos chastotalar, modalar va so‘nish effektlari aniqlanib, ularning tizim parametrlariga bog‘liqligi ko‘rsatildi.

Kelgusida ushbu modelni nolinear muhitlar va murakkab geometrik shakllar uchun kengaytirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.M.Mirsaidov, K.Ismayilov “Elastiklik nazariyasi”. Toshkent “Mashhur-Press” 2023.
2. Qosimov A., O‘rinov O “Kompozit qobiqlar va ularning dinamikasi”. – Toshkent: TTYMI nashriyoti, 2020.
3. Qodirova M., Karimov X “Qobiqli konstruksiyalar nazariyasi”. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
4. M.M.Mirsaidov, K.Ismayilov “Elastiklik nazariyasi”. Toshkent “Mashhur-Press” 2023.

QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHIT TA’SIRIDA SUYUQLIK BILAN TO’LDIRILGAN SILINDRIK QOBIQDA GARMONIK TO’LQINLAR TARQALISHI VA DIFRAKSIYASI

*Isayev Nurbek Faxriddin o‘g‘li,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
+998938221693
Isayeva Sarvinov Boytemir qizi,
Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan*

Annotatsiya: Mazkur maqolada qovushqoq-elastik muhit bilan o‘ralgan, suyuqlik bilan to‘ldirilgan silindrik qobiqda garmonik to‘lqinlarning tarqalishi va difraksiyasi masalasi o‘rganiladi. Tadqiqot davomida qobiqning mexanik xossalari, ichki suyuqlikning gidrodinamik ta’siri hamda tashqi muhitning qovushqoqlik va elastiklik xususiyatlari hisobga olingan holda matematik model ishlab chiqiladi. Garmonik to‘lqinlarning tarqalish qonuniyatlari, rezonans hodisalari va to‘lqinlarning qobiq chegaralarida sinishi hamda qaytishi tahlil qilinadi. Shuningdek, difraksiya jarayonining xususiyatlari va uning tizim parametrlariga bog‘liqligi aniqlanadi. Olingan natijalar muhandislik, akustika va gidromexanika sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: qovushqoq-elastik muhit, silindrik qobiq, garmonik to‘lqinlar, difraksiya, suyuqlik dinamikasi, rezonans, to‘lqin tarqalishi, elastiklik nazariyasi, gidromexanika, matematik modellashirish.

Hozirgi zamon mexanikasi va matematik fizikasida murakkab muhitlarda to‘lqin jarayonlarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, qovushqoq-elastik muhit bilan o‘ralgan va ichki qismi suyuqlik bilan to‘ldirilgan silindrik qobiqda to‘lqinlarning tarqalishi masalasi muhandislik, geofizika, akustika va biotexnologiya sohalarida keng qo‘llaniladi.

Bunday tizimlar quvurlar, neft-gaz transporti, suv osti konstruksiyalari hamda biologik tizimlar (masalan, qon tomirlari) modellashirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli garmonik to‘lqinlarning tarqalishi va difraksiyasini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur ishning maqsadi — qovushqoq-elastik muhit ta’sirida suyuqlik bilan to‘ldirilgan silindrik qobiqda garmonik to‘lqinlarning tarqalish qonuniyatlari va difraksion xususiyatlarini o‘rganishdir.

Ko‘rib chiqilayotgan sistema uch asosiy qismdan iborat:

- ichki qism — siqiluvchan yoki siqilmaydigan suyuqlik;
- o‘rta qatlam — elastik silindrik qobiq;
- tashqi muhit — qovushqoq-elastik muhit.

Quyidagi farazlar qabul qilinadi:

- tebranishlar kichik amplitudali (chiziqli nazariya qo‘llaniladi);
- muhit izotrop va bir jinsli;
- jarayonlar garmonik vaqtga bog‘liq:

$$e^{i\omega t}$$

Suyuqlik uchun Euler yoki Navye-Stoks tenglamalarining chiziqshashtirilgan ko‘rinishi qo‘llaniladi:

$$\rho \frac{\partial \vec{v}}{\partial t} = -\nabla p$$

Bu yerda:

- ρ — zichlik
- p — bosim
- $\vec{v}$ — tezlik

To‘lqin tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\nabla^2 p - \frac{1}{c^2} \frac{\partial^2}{\partial t^2} = 0$$

Silindrik qobiq uchun elastiklik nazariyasiga asoslangan tenglama qo‘llaniladi:

$$D \nabla^4 w + \rho_h h \frac{\partial^2 w}{\partial t^2} = p_{ichki} - p_{tashqi}$$

Bu yerda:

- w — radial siljish
- D — egilish qattiqligi
- h — qobiq qalinligi

Tashqi muhit viskoelastik model orqali ifodalanadi (Kelvin–Voigt modeli):

$$\sigma = E\varepsilon + \eta \frac{\partial \varepsilon}{\partial t}$$

Bu yerda:

- E — elastiklik moduli
- η — qovushqoqlik koeffitsienti

Masala quyidagi chegaraviy shartlar bilan to‘ldiriladi:

- tezliklar uzluksizligi
- kuchlanishlarning uzluksizligi
- qobiq va muhit orasida siljish mosligi

Matematik tarzda:

$$v_{suyuqlik} = \frac{\partial w}{\partial t}$$

Yechimlar odatda quyidagi ko‘rinishda izlanadi:

$$w(r, \theta, z, t) = W(r)e^{i(kz - \omega t)}$$

Natijada dispersiya tenglamasi olinadi. Bu tenglama:

- to‘lqin tezligi
- so‘nish koeffitsienti
- rezonans chastotalarni aniqlash imkonini beradi.

Qovushqoq-elastik muhit mavjudligi:

- to‘lqin amplitudasining kamayishiga
- faza siljishiga olib keladi.

Difraksiya — to‘lqinlarning to‘siqlar yoki notekisliklar atrofida og‘ishi hodisasidir.

Silindrik qobiqda difraksiya quyidagi hollarda yuzaga keladi:

- tashqi muhitda notekisliklar mavjud bo‘lsa
- qobiqda nuqsonlar yoki qalinlik o‘zgarishi bo‘lsa
- tashqi to‘lqinlar bilan o‘zaro ta’sirda

Difraksion maydonni aniqlash uchun:

- Bessel funksiyalari
- silindrik koordinatalar usuli qo‘llaniladi.

Yechimlar odatda:

$$p(r, \theta) = \sum A_n J_n(kr) e^{in\theta}$$

ko‘rinishda ifodalanadi.

Mazkur maqolada qovushqoq-elastik muhit ta’sirida suyuqlik bilan to‘ldirilgan silindrik qobiqda garmonik to‘lqinlarning tarqalishi va difraksiyasi o‘rganildi.

Asosiy natijalar:

- tizim uchun matematik model tuzildi
- dispersiya xususiyatlari aniqlandi
- qovushqoqlik va elastiklikning ta’siri baholandi
- difraksiya hodisasining asosiy qonuniyatlari ko‘rsatildi

Olingan natijalar:

- muhandislik konstruksiyalarini loyihalashda
- akustik tizimlarda
- biologik modellashtirishda

qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

5. Qodirov A., Mamatqulov O “**Qobiqlar mexanikasi asoslari**”. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Qosimov A., O‘rinov O “**Kompozit qobiqlar va ularning dinamikasi**”. – Toshkent: TTYMI nashriyoti, 2020.
7. Qodirova M., Karimov X “**Qobiqli konstruksiyalar nazariyasi**”. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.

8. M.M.Mirsaidov, K.Ismayilov “Elastiklik nazariyasi”. Toshkent “Mashhur-Press” 2023.

АВТОМОРФИЗМЫ AW^* -АЛГЕБР ТИПА I

Bekmatov Sh. – Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti, f.m.f.n. dotsent.

Bekmatov D. Sh. – Toshkent Perfect University katta o‘qituvchisi.

Abduganiyeva Y. – Olmaliq davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi.

Аннотация: В работе найден общий вид автоморфизмов конечных AW^* -алгебр типа I. Структурная теория C^* -модулей начинается с работ И. Капланского, использовавшего эти объекты для алгебраического подхода к теории W^* -алгебр [1,2]. Изучение автоморфизмов операторных алгебр начинается с работы И. Капланского, доказавшего, что всякий автоморфизм AW^* -алгебры типа I, оставляющий центр неподвижным является внутренним.

В этой заметке мы изучим общий вид автоморфизмов конечных однородных AW^* -алгебр типа I.

Ключевые слова: автоморфизм, AW^* -алгебры, C^* -модули, W^* -алгебры, *-алгебры, аннулятор, дискретность, проектор, оператор, унитарная алгебра, тождественность.

Пусть A – вещественная или комплексная *-алгебра, S – непустое подмножество A . Положим

$$R(S) = \{x \in A : sx = 0 \text{ для всех } s \in S\}$$

и назовем $R(S)$ *правым аннулятором* S . Аналогично определяется *левый аннулятор*

$$L(S) = \{x \in A : xs = 0 \text{ для всех } s \in S\}.$$

Определение 1. *-алгебра A называется *бэровской *-алгеброй*, если правый аннулятор любого непустого множества $S \subset A$ порождается проектором, т.е. $R(S) = gA$ для некоторого проектора $g \in A$ (т.е. $g^2 = g = g^*$).

Поскольку $L(S) = (R(S^*))^* = (hA)^* = Ah$, то определение симметрично и может быть дано в терминах левых аннуляторов.

Определение 2. Вещественная или комплексная C^* -алгебра A , являющаяся бэровской *-алгеброй, называется соответственно *вещественной* или *комплексной AW^* -алгеброй*.

Очевидно, что всякая вещественная (соответственно, комплексная) W^* -алгебра является вещественной (соответственно, комплексной) AW^* -алгеброй.

Вещественная или комплексная C^* -алгебра A называется *дискретной*, или *типа I*, если M изоморфна AW^* -алгебре с абелевым коммутантом.

Пусть M – W^* -алгебра типа I, z – центральный проектор в M . Предположим, что в M существует семейство $\{p_\alpha\}$ попарно ортогональных, эквивалентных абелевых проекторов, таких, что $z = \sum p_\alpha$. Тогда кардинальное число n семейства $\{p_\alpha\}$ зависит только от M , и не зависит от выбора $\{p_\alpha\}$. Такой центральный проектор z называется *n-однородным*. Если $z=1$, то говорят, что M – типа I_n .

Пусть A произвольная алгебра с центром $Z(A)$ и пусть $T : A \rightarrow A$ – автоморфизм. Ясно, что T переводит $Z(A)$ на себя. На самом деле, для всех $x \in A$ и $a \in Z(A)$ имеет место

$$T(a)T(x) = T(ax) = T(xa) = T(x)T(a),$$

Это означает, что $T(a) \in Z(A)$.

Оператор $T: A \rightarrow A$ называется $Z(A)$ -линейным, если $T(ax) = aT(x)$ для всех $a \in Z(A)$ и $x \in A$. Легко видеть, что автоморфизм $T: A \rightarrow A$ унитарной алгебры A является $Z(A)$ - линейной, если и только если оно тождественно на $Z(A)$.

Пусть M – AW^* -алгебра типа I_∞ с центром $Z(M)$ и $\phi: Z(M) \rightarrow Z(M)$ автоморфизм. Из [1, Теорема1] получим, что ϕ продолжается до $*$ -автоморфизмов на всю алгебру M , который обозначим через T_ϕ .

Теорема 1. Пусть M – AW^* -алгебра типа I_∞ . Тогда всякий автоморфизм T на M единственным образом представляется в виде

$$T = T_a T_\phi \quad (1)$$

где T_a внутренний автоморфизм порождённый элементом $a \in M$,

и T_ϕ $*$ -автоморфизм порождённый автоморфизмом ϕ на $Z(M)$.

Доказательство. Пусть ϕ сужение T на центр $Z(M)$. Тогда ϕ переводит $Z(M)$ себя. По [1, Теорема1] существует автоморфизм T_ϕ такое, что $T_\phi|_{Z(M)} = \phi$. Обозначим $S = T \circ T_\phi^{-1}$ так как $T|_{Z(M)} = T_\phi|_{Z(M)}$ то как $S|_{Z(M)} = id_{Z(M)}$. По теореме Капланского [2] существует элемент $a \in M$ такое, что $S = T_a$. Так как $S = T \circ T_\phi^{-1}$ то $T = T_a T_\phi$.

Предположим, что $T = T_a \circ T_\phi = T_b \circ T_\phi$, где $a, b \in M$ и ϕ, φ автоморфизмы на $Z(M)$. Тогда $T_b^{-1} \circ T_a = T_\phi \circ T_\phi^{-1}$. Отсюда $T_{b^{-1}a} = T_{\varphi \circ \phi^{-1}}$ так как $T_{b^{-1}a}$ тождественно действует на центри, то $\varphi \circ \phi^{-1} = id_{Z(M)}$. Это означает, что то $\varphi = \phi$. Поэтому $T_a = T_b$. Теорема доказана.

Аналогичный результат для конечных однородных AW^* -алгебра был получен в [4].

Литература:

1. I. Kaplansky, Algebras of type I, Ann. of Math. 56 (1952), 460-472.
2. I. Kaplansky, Modules over operator algebras, Amer. J. Math. 75 (1953), 839-859.
3. S. Albeverio, Sh. Ayupov, K. Kudaybergenov and R. Djumamuratov, Automorphisms of central extensions of type I von Neumann algebras, Studia Mathematica, № 1, (2011) 1-11.
4. Нурманов М. Ш. Автоморфизмы конечных однородных AW^* -алгебр типа I, Республиканская конференция “Математическая физика”, Бухара, 26-27 ноября 2015 г.

ANIQ INTEGRALNING AMALIY TADBIQLARI

Bekmatov Sh. – Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti, f.m.f.n. dotsent.

Bekmatov D. Sh. – Toshkent Perfect University katta o‘qituvchisi.

Abduganiyeva Y. – Olmaliq davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Matematik taxlil oliy matematikaning dastlabki va ayni vaqtda asosiy bo‘limi bo‘lib hisoblanadi. Matematika fanining tobora intensiv rivojlanishi, yangi tushunchalar, yangi g‘oyalar bilan boyib borishi bilan uning fan va texnikaning turli sohalariga tadbiiq doirasi kengayib bormoqda, matematika inson faoliyatining barcha sohalariga kirib bormoqda. Matematik tahlil metodlarini bilmay turib tabiatda sodir bo‘layotgan jarayonlarni, tabiiy fanlar va texnikaviy adabiyotlarda ko‘rilayotgan masalalarni tushunib yetish qiyindir. Ammo aniq integralning amaliy tatbiqlari bu bilan chegaralanib qolmasdan, bulardan tashqari uning yordamida yana juda ko‘p masalalar o‘z yechimini topadi.

Tayanch so‘zlar: yuza, funksiya, mehnat unumdorligi, hajm, daromad, egri chiziq, talab funksiyasi, narx, bozor muvozanati, uzluksizlik.

Tekislikdagi geometrik shakllarning yuzalarini hisoblash. Bizga ma’lumki, $y = f(x) \geq 0$ funksiya grafigi, $x = a$ va $x = b$ vertikal to’g’ri chiziqlar hamda $y = 0$, ya’ni OX koordinata o’qi bilan chegaralangan egri chiziqli trapetsiyaning yuzasi aniq integral orqali

$$S = \int_a^b f(x) dx \quad (1)$$

formula bilan hisoblanadi. Bu formulani umumiyroq hollarda qaraymiz.

Agar $[a; b]$ kesmada $f(x) \leq 0$ bo’lsa, unda tegishli egri chiziqli trapetsiya OX o’qidan pastda joylashgan va aniq integral qiymati manfiy son bo’ladi. Shu sababli bu holda egri chiziqli trapetsiya yuzasi

$$S = -\int_a^b f(x) dx = \left| \int_a^b f(x) dx \right| \quad (2)$$

formula orqali topiladi.

Aniq integralning ayrim iqtisodiy tatbiqlari. Aniq integral tushunchasi kiritilayotganda, o’zgaruvchan mehnat unumdorligi bo’yicha mahsulot hajmini aniqlash masalasini ko’rgan edik. Masalan, korxonada mehnat unumdorligi har bir ish kuni davomida

$$z = f(t) = -0,0033t^2 - 0,089t + 20,96$$


funksiya bilan berilgan bo’lsin. Bunda $0 \leq t \leq 8$ bo’lib, t vaqtni soatda ifodalaydi. Bu korxonaning yil (258 ish kuni) davomida ishlab chiqargan mahsulot hajmini topamiz:

$$\begin{aligned} Q &= 258 \int_0^8 (-0,0033t^2 - 0,089t + 20,96) dt = 258 \cdot (-0,0011t^3 - 0,0445t^2 + 20,96t) \Big|_0^8 = \\ &= 258 \cdot (-0,5632 - 2,848 + 167,68) = 258 \cdot 164,2688 = 42381,3504 \end{aligned}$$

Demak, bu korxona bir yilda 42381 dona mahsulot ishlab chiqaradi. Biz bu yerda yana bir qator iqtisodiy masalalarni aniq integral yordamida yechilishi bilan tanishamiz.

Djini koeffitsiyentini hisoblash masalasi. Aholi o’rtasida daromadni qanchalik darajada notekis taqsimlanganligini ifodalovchi $y=f(x)$, $x \in [0,1]$, funktsiyani qaraymiz (keyingi betdagi 1-rasmga qarang). Bunda y – daromad ulushini, x – aholi ulushini belgilaydi.

Bu



funksiya grafigini ifodalovchi OBA egri chiziqli Lorents egri chizig‘i deyiladi.

Daromad aholi o’rtasida tekis taqsimlangan holda $y=x$ bo’ladi va bunda Lorents egri

1-rasm bissektisadagi OA kesmaga aylanadi. Shu sababli har qanday $x \in [0,1]$ uchun $0 \leq f(x) \leq x$ qo’sh tengsizlik bajariladi. Bunda OABO geometrik shakl yuzasi qanchalik katta bo’lsa, daromadni notekis taqsimlanish darajasi ham shunchalik katta bo’ladi. Shu sababli aholi o’rtasida daromadni

notekis taqsimotini o’lchovi sifatida OABO shakl yuzasini OAC uchburchak yuzasiga nisbati olinadi. Bu nisbat Djini koeffitsiyenti deb ataladi va k orqali belgilanadi. Bu yerda yuzalarni aniq integral orqali ifodalab, Djini koeffitsiyenti uchun quyidagi formulani hosil etamiz:

$$k = \frac{S_{OABO}}{S_{OAC}} = \frac{\int_0^1 [x - f(x)] dx}{\int_0^1 x dx} = 2 \int_0^1 [x - f(x)] dx \quad \text{Masalan, } 1 \text{ nts egri chizig‘i } y=x/(3-2x),$$

$x \in [0,1]$, funksiya bilan berilgan holda Djini koeffitsiyentini (11) formula bo’yicha hisoblaymiz:

$$k = 2 \int_0^1 \left(x - \frac{x}{3-2x} \right) dx = 2 \int_0^1 \left(x + \frac{x-1,5+1,5}{2x-3} \right) dx = 2 \int_0^1 \left(x + \frac{1}{2} + \frac{3}{2} \cdot \frac{1}{2x-3} \right) dx =$$


$$= 2 \left(\frac{x^2}{2} + \frac{x}{2} + \frac{3}{4} \cdot \ln|2x-3| \right) \Big|_0^1 = 2 \left(1 - \frac{3}{4} \cdot \ln 3 \right) \approx 0,352$$

Iste'molchi va ishlab chiqaruvchining yutuqlari masalasi. Dastlab talab va taklif funksiyalari tushunchalarini kiritamiz.

Mahsulot birligining narxi p va shu mahsulotni iste'molchi tomonidan xarid qilinish halmi q orasidagi bog'lanishni ifodalovchi $p=f(q)$ funksiya talab funksiyasi deb ataladi. Iqtisodiyotda narx p , hajm (miqdor) q harfi bilan belgilanadi va shu sababli talab funksiyasi an'anaviy $y=f(x)$ ko'rinishda yozilmasdan, $p=f(q)$ ko'rinishda yozildi (2-rasmga qarang).

Mazmuniga asosan bu funksiya kamayuvchi bo'ladi, chunki mahsulot narxi p oshishi bilan bu mahsulotni xarid qilish hajmi q kamayadi (yuqoridagi chizmaga qarang).

Mahsulot birligining narxi p va shu mahsulotni ishlab chiqarilish hajmi q orasidagi bog'lanishni



ifodalovchi $p=g(q)$ funksiya taklif funksiyasi deb ataladi. Mazmuniga asosan bu funksiya o'suvchi bo'ladi, chunki mahsulot narxi p oshishi bilan bu mahsulotni ishlab chiqarish hajmi q oshadi (yuqoridagi chizmaga qarang).

Talab va taklif funksiyalarning grafiklari qandaydir bir $E_0(q_0, p_0)$ nuqtada kesishadi. Bu nuqtada iste'molchining talabi hajmi va ishlab chiqaruvchining taklif hajmi o'zaro teng bo'ladi. Bunday holat bozor muvozanati deb ataladi. Bozor muvozanatini keltirib chiqaruvchi mahsulot hajmi q_0 va narxi p_0 qiymatlari berilgan talab va taklif

funksiyalari bo'yicha
$$\begin{cases} f(q) = p \\ g(q) = p \end{cases} \quad (4)$$
 tenglamalar sistemasidan topiladi.

Bozor muvozanati shartida iste'molchilar o'zlarining q_0 hajmdagi talablarini qondirishlari uchun mahsulot birligining p_0 narxda xarid qilib, jami $p_0 q_0$ miqdorda xarajat qilishlari mumkin. Ammo bir qism iste'molchilar u yoki bu sabablar bo'yicha mahsulot xarid qilishni bozor muvozanati erishiladigan vaqtgacha kutib o'tira olmaydilar. Bundan tashqari ishlab chiqaruvchi ham o'z mahsulotini iloji boricha p_0 narxdan yuqoriroq bahoda sotishga harakat qiladi. Shu sababli iste'molchi talab etgan q_0 hajmdagi mahsulotni ishlab chiqaruvchi bozorga birdaniga chiqarmasdan va uning hammasini birdaniga p_0 narxda sotmasdan, u o'z mahsulotini Δq_i ($i=1, 2, 3, \dots, n$) hajmdagi kichik-kichik partiyalarda bozorga chiqarib, uni $f(q_i) > p_0$ narxda sotadi. Natijada iste'molchi o'ziga kerak bo'lgan q_0 hajmdagi mahsulotni xarid qilish uchun $p_0 q_0$ miqdorda xarajat qilish o'rniga

$$S_n(f) = \sum_{i=1}^n f(q_i) \Delta q_i$$

miqdor xarajat qiladi. Mahsulot ishlab chiqarish va uni xarid qilish jarayonlari uzluksiz ravishda ro'y berib turadi. Shu sababli $f(x)$ talab funksiyasini uzluksiz va mahsulotni kichik-kichik Δq_i hajmli partiyalar soni $n \rightarrow \infty$ deb olish mumkin. Bu holda, aniq integral ta'rifiga asosan, iste'molchining q_0 hajmdagi mahsulotni xarid qilish uchun qilgan xarajatining asl qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S = \lim_{n \rightarrow \infty} S_n(f) = \lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{i=1}^n f(q_i) \Delta q_i = \int_0^{q_0} f(q) dq$$

Bu yerdan ko‘rinadiki, agar iste‘molchi o‘zi talab etgan q_0 hajmdagi mahsulotni p_0 bozor muvozanati narxida xarid qilganda, uning xarajatlari

$$CS = S - p_0 q_0 = \int_0^{q_0} f(q) dq - p_0 q_0 = \int_0^{q_0} [f(q) - p_0] dq$$

miqdorda kam bo‘lar edi. Shu sababli CS iste‘molchining yutug‘i, ba‘zan esa iste‘molchining ortiqcha xarajati deb yuritiladi. Yuqoridagi 2-rasmda bu ko‘rsatkich p_0 EOC egri chiziqli trapetsiya yuzasi kabi ifodalanadi.

Xuddi shundek, ishlab chiqaruvchi bozor muvozanatida o‘zi taklif etgan q_0 hajmdagi mahsulotni p_0 narxda sotganda $p_0 q_0$ miqdordagi pul mablag‘iga ega bo‘lar edi. Ammo u bozor muvozanati bo‘lishini kutib o‘tirmasdan, Δq_i hajmda ($i=1, 2, 3, \dots, n$) ishlab chiqargan mahsulotini darhol bozorga chiqarib, uning har birligini $g(q_i) < p_0$ narxda sotadi. Natijada ishlab chiqaruvchining q_0 hajmdagi mahsulotni sotish orqali erishgan asl pul mablag‘i quyidagicha bo‘ladi:

$$S = \lim_{n \rightarrow \infty} S_n(g) = \lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{i=1}^n g(q_i) \Delta q_i = \int_0^{q_0} g(q) dq < p_0 q_0$$

Shunday qilib, ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini bozor muvozanati shartida sotganda

$$PS = p_0 q_0 - \int_0^{q_0} g(q) dq = \int_0^{q_0} [p_0 - g(q)] dq$$

qoshimcha pul mablag‘iga ega bo‘lar edi.

Shu sababli PS ishlab chiqaruvchining yutug‘i deb ataladi. Yuqoridagi 2-rasmda bu ko‘rsatkich P $p_0 E_0$ egri chiziqli trapetsiya yuzasi kabi ifodalanadi.

Masalan, talab funksiya $p=f(q)=240-q^2$, taklif funksiya esa $p=g(q)=q^2+2q+20$ ko‘rinishda bo‘lganda iste‘molchi va ishlab chiqaruvchi yutuqlarini aniqlaymiz. Buning uchun dastlab ushbu tenglamalar sistemasini yechamiz:

$$\begin{cases} p = 240 - q^2 \\ p = q^2 + 2q + 20 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} p = 240 - q^2 \\ 240 - q^2 = q^2 + 2q + 20 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} p = 240 - q^2 \\ q^2 + q - 110 = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} p_0 = 140 \\ q_0 = 10 \end{cases}$$

Demak, bozor muvozanati narxi $p_0=140$, hajmi esa $q_0=10$ bo‘ladi. Unda, (6) formulaga asosan, iste‘molchining yutug‘i

$$CS = \int_0^{q_0} [f(q) - p_0] dq = \int_0^{10} [240 - q^2 - 140] dq = \left(100q - \frac{q^3}{3} \right) \Big|_0^{10} = 666, (6) \approx 667$$

ishlab chiqaruvchining yutug‘i esa, (7) formulaga asosan,

$$PS = \int_0^{q_0} [p_0 - g(q)] dq = \int_0^{10} [120 - q^2 - 2q] dq = \left(120q - \frac{q^3}{3} - q^2 \right) \Big|_0^{10} = 766, (6) \approx 767$$

Adabiyotlar

1. G.Fixtengolts “Matematik analiz asoslari”. I, II tom – Toshkent O‘qituvchi 1970
2. T.A.Azlarov, X.Mansurov. “Matematika analiz”. 1-qism. T. ,O‘qituvchi 1986
3. T.A.Azlarov, X.Mansurov. “Matematika analiz”. 2 – qism. T. , O‘qituvchi 1989
4. Azlarov T.A., Mansurov H. Matematika analiz . – T.,2006.
5. Xojiyev J. Algebra va sonlar nazariyasi. – T.: O‘zbekiston 2001.
6. Jurayev T.J., Xudoyberganov R.X., Vorisov A.K., Mansurov X. Oliy matematika asoslari.-T.: O‘zbekiston 1999.
7. Soatov Y.U. Oliy matematika. –T.: O‘qituvchi, 1-jild, 2-jild, 1994., 3-jild, 1996.

8. Общий курс высшей математике для экономистов. /Под ред. В.И. Ермакова. – М.:ИНФРА-М, 2006.
9. Высшая математика для экономистов./Под ред. Н.Ш.Кремера. –М.:ЮНИТИ,2006.
10. Красс М.С., Чупрынов Б.П. Математика для экономического бакалаврианта. –М.:Дело, 2006.
11. Шипачев В.С. Курс высшей математики. –М.: Проспект, 2005.
12. Солодовников А., Бабайев А.А., Браилов А.В. Математика в экономике. –М.: Финансы и статистика, 2004.
13. Коршунова Н., Плясунов В. Математика в экономике.- М.: Вита пресс, 2004.

MATEMATIKA FANINI O‘QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING BIR USULI HAQIDA

Bekmatov Sh. - f.-m. f.n., Ipak yo‘li
innovasiyalar universiteti «Iqtisodiyot va
amaliy matematika» kafedrasida dotsenti
Abduganieva Yu.Sh. – Islom Karimov nomidagi
TDTU Olmaliq filiali “Matematika
va informatika” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: geometrik masalalarni yechishda vektor metodi so‘ngi paytlarda yetakchi metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada vektor metodning amaliy tadbirlariga katta e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: geometrik masalalar, vektor metod, masalani vektor tilida ifodalash

Professional ta’limda matematika fanini o‘qitishda masalalar yechishga katta e‘tibor qaratilishi va ular bilimlarining samaradorli(sifatli), asosan, o‘quvchilarning masalalarni mustaqil yechishiga qaratilishiga katta e‘tibor berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ko‘pchilik abiturentlar stereometriyaga oid masalalarni yechishga qiynalishadi. bunday masalalarni yechishda vektorlar algebra metodini qo‘llashi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu ma’noda stereometriya masalalarini yechish yoqasida aytilgan metodni tadbir etilsa katta imkoniyatlarga ega bo‘lamiz.

Geometrik masalalarni yechishning vektor metodi so‘ngi paytlarda yetakchi metodlardan biri hisoblanadi. U o‘quvchilar va talabalar uchun egallanishi qiyin bo‘lgan metodlardan biridir. Bu holatni bartaraf etishning yo‘llaridan biri vektorlar algebrasi elementlaridan kerakli darajadagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarurdir.

Stereometrik masalalarni yechishda an’anaviy metodning qo‘llanilishi bizni yetarlicha qiyinchiliklarga olib keladi, ya’ni murakkab trigonometrik hisoblashlar, aniq geometrik yasashlar va hisoblashlar bilan bog‘liq bo‘lib qolgan turli xil vaziyatlardir. Bunday vaziyatlardan chetlab o‘tishga vektorlar algebrasining qo‘llanilishi katta imkoniyat yaratadi.

O‘quvchilarni yuqorida takidlangan masalalarni yechishda, xususan nuqtalar to‘plamini topishga o‘rgatish hamma vaqt ham o‘qitish jarayonining eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi va shunday bo‘lib qolmoqda.

Ta’kidlab o‘tish zarurki, stereometrik masalalarni yechishda vektor metodning tadbirlariga va qo‘llashga o‘quvchilarning qiziqishi tanlangan mavzuning izohli dolzarbligining takidlanishidir.

Geometrik masalalarni yechishda vektor metodining tadbirlariga bag‘ishlangan bir qator ishlarni ([1],[2],[3],[4],[5],[6]) o‘rganish ularda vektorlar algebrasining qo‘llanishiga doir masalalar juda ham kam sonli ekanligini ko‘rsatadi.

Shuning uchun bu ilmiy uslubiy ishni bajarishdan maqsadimiz bu kamchiliklarni to‘ldirish va bu bilan bog‘liq ba’zi bir mulohazalarimizni e‘tiboringizga yetkazishdan iborat.


Odatda vektor metodni qo‘llab yechiladigan aksariyat masalalar shartida foydalanish lozim bo‘lgan vektorlar oshkor holda ko‘rsatilmagan bo‘ladi. Shuning uchun bunday masalalarni yechishda vektor algebrasini qo‘llash imkoniyatini yuzaga chiqarish uchun berilgan masala shartini vektor tilida ifodalay olish malakasiga ega bo‘lish juda muhim. Berilgan masala shartini vektor tilida ifodalashni, bu masalaning vektor modeli deb qarash mumkin.

Bizga ma’lum bo‘lgan affin va metrik masalalarni vektorlar algebrasidan foydalanib yechish mumkin. Shunga doir quyidagi masalalarni keltirishni lozim deb bildik.

Masala. $ABCA_1B_1C_1$ uchburchakli prizmaning AA_1, BB_1, CC_1 , qirralarida mos ravishda shunday D, E, F nuqtalar olinganki, ular

$$\overrightarrow{AD} = k \cdot \overrightarrow{AA_1}, \overrightarrow{BE} = m \cdot \overrightarrow{BB_1}, \overrightarrow{CF} = n \cdot \overrightarrow{CC_1}$$

shartlarni qanoatlantiradi. Prizmaning A uchi va BB_1C_1C yoqining simmetriya markazi S nuqta orqali o'tkazilgan l to'g'ri chiziq DEF tekislik bilan O nuqtada kesishadi. $x = AO:AS$ nisbatini toping.



Yechish. Masalada qaraladigan vektorlarni $\overrightarrow{AB} = \overrightarrow{e_1}$, $\overrightarrow{AC} = \overrightarrow{e_2}$, $\overrightarrow{AA_1} = \overrightarrow{e_3}$ lar bilan belgilaymiz.

U holda $\overrightarrow{AD} = k\overrightarrow{e_3}$, $\overrightarrow{AE} = \overrightarrow{e_1} + m\overrightarrow{e_3}$, $\overrightarrow{AF} = \overrightarrow{e_2} + n\overrightarrow{e_3}$,

$$\overrightarrow{AS} = \frac{1}{2}(\overrightarrow{e_1} + \overrightarrow{e_2} + \overrightarrow{e_3}),$$

$$\overrightarrow{AO} = p\overrightarrow{AS} \text{ bo'ladi.}$$

Bularga ko'ra esa

$$\overrightarrow{DE} = \overrightarrow{e_1} + (m - k)\overrightarrow{e_3}, \quad \overrightarrow{DF} = \overrightarrow{e_2} + (n - k)\overrightarrow{e_3},$$

$$\begin{aligned} \overrightarrow{DO} &= \overrightarrow{AO} - \overrightarrow{AD} = p\overrightarrow{AS} - \overrightarrow{AD} \\ &= \frac{p}{2}(\overrightarrow{e_1} + \overrightarrow{e_2}) + \left(\frac{p}{2} - k\right)\overrightarrow{e_3}. \end{aligned}$$

vektor tengliklarni hosil qilamiz. Ba uchun vektorlar komplanar bo'lganligi uchun vektorlarning komplanarlik shartigiga ko'ra $\overrightarrow{DO}$, $\overrightarrow{DE}$ va $\overrightarrow{DF}$ vektorlar yuqorida topilgan ifodalarni qo'ysak,

$$\frac{p}{2}(\overrightarrow{e_1} + \overrightarrow{e_2}) + \left(\frac{p}{2} - k\right)\overrightarrow{e_3} = x[\overrightarrow{e_1} + (m - k)\overrightarrow{e_3}] + y[\overrightarrow{e_2} + (n - k)\overrightarrow{e_3}]$$

bo'ladi. Lekin $\overrightarrow{e_1}, \overrightarrow{e_2}, \overrightarrow{e_3}$ vektorlar komplanar emas. Shuning uchun bu tenglikning chap va o'ng tomonlaridagi $\overrightarrow{e_1}, \overrightarrow{e_2}, \overrightarrow{e_3}$ vektorlarga ko'ra yoyilmalar teng (vektorning berilgan bazasiga ko'ra yoyilmasining yagonalik xossasi) bo'ladi:

$$\frac{p}{2} = x, \frac{p}{2} = y, \quad \frac{p}{2} - k = (m - k)x + (n - k)y.$$

$$\text{Bu yerda } \frac{p}{2} - k = \frac{p}{2}(m - k) + \frac{p}{2}(n - k) \text{ yoki } \frac{p}{2}(1 + 2k - m - n) = k$$

ni topamiz. Agar bu yerda $1 + 2k - m - n \neq 0$ bo'lsa, O nuqta mavjud bo'lib, izlanayotgan nisbat $\frac{AO}{AS} = \frac{2k}{1 + 2k - m - n}$ ga teng bo'ladi.

Bu yerda k, m, n larga tayin sonli qiymatlar berib va S nuqtaning BB_1C_1C yoqdagi vaziyatni turlicha tanlab, turli xususiy hollarga kelinadi. DEF tekislik AS to'g'ri chiziqqa parallel bo'lishi uchun $m + n = 2k + 1$ shartning bajarilishi lozimligi ravshan. Xususiy hollarning biri, $k = 0$ va $m + n = 1$ bo'lganda DEF tekislik AS to'g'ri chiziq orqali o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Годман Э.Г., Скопей З.А. "Решение геометрических задач аналитическим методом" Просвещение 1979
2. Гусев Г.А., Хан Д.А. "Методика решения геометрических задач с помощью векторов" мат.в шк. журнал №3 1978
3. Глейзер Г.Д. "Повышение эффективности обучения математики в школе" Просвещение 1989
4. Saybullayeva H.M. "GEOMETRIYA" Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun, O'qituvchi 2007

TO'G'RI BURCHAKLI UCH QATLAMLI PLASTINANING TEBRANISHLARI

Kulanov Ikrom Burxonovich,
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
E-mail: ikulanov76@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada kosmik apparatlarning itargich tizimlarida quyosh yelkani sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan to‘g‘ri burchakli uch qatlamli plastinaning erkin ko‘ndalang tebranishlari analitik va raqamli usullar yordamida o‘rganilgan. To‘ldiruvchi qavatidagi ko‘ndalang siljishni hisobga oluvchi (Grigolyuk modeli) yupqa elastik plastinalarning ikki o‘lchamli nazariyasi asosida sharnirli mahkamlangan plastina uchun boshqaruvchi differensial tenglama va xususiy chastotalar hamda tebranish shakllari uchun yopiq formulalar keltirib chiqarilgan. Analitik natijalar SHELL91 qatlamli elementlaridan foydalanib ANSYS dasturiy majmuasida olingan chekli elementlar yechimi bilan taqqoslangan.

Kalit so‘zlar: uch qatlamli plastina; erkin tebranishlar; quyosh yelkani; chekli elementlar metodi; ko‘ndalang siljish; xususiy chastotalar

Quyosh yelkanlari yoqilg‘i sarflamasdan quyosh nurlanishi bosimidan foydalanadigan itargich tizimlar sifatida doimiy qiziqish uyg‘otib kelmoqda [1, 2]. Tsiolkovskiy va Tsander tomonidan 1920-yillarda birinchi marta taklif etilgan bu konsepsiya nazariy jihatdan o‘rganilgan va bir qator missiyalar doirasida orbitada sinovdan o‘tkazilgan. Katta yupqa yelkan konstruksiyasi quyosh shamoli va nurlanish bosimidan uzluksiz dinamik yuklamalar oladi; shuning uchun uning xususiy chastotalari va tebranish shakllarini to‘g‘ri aniqlash missiyaning ishonchiligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Uch qatlamli sendvich konstruksiya — yengil to‘ldiruvchi bilan ajratilgan ikkita qattiq tashqi qatlam — yoyiladigan yelkan uchun tabiiy tanlovdir: u yuqori qattqlik/massa nisbatini ta‘minlaydi va o‘rilishi mumkin bo‘ladi. Klassik Kirxhoff–Lov plastina nazariyasi tashqi qatlam va to‘ldiruvchi modullari nisbati katta bo‘lgan hollarda elastiklikni kam baholaydi, bu esa o‘zak qavatidagi ko‘ndalang siljishni hisobga olishni zarur qiladi. Ushbu ishda ikkita muqarrar model taqqoslanadi: qalinlik bo‘ylab kesma deformatsiyalarning taxmin qilingan taqsimotiga asoslangan Grigolyuk modeli [3] va Tovstik asimptotik modeli [4].

Plastina modeli va boshqaruvchi tenglamalar

$a \times b$ o‘lchamdagi to‘g‘ri burchakli uch qatlamli plastinani ko‘rib chiqaylik. Karteziyan koordinatalar (x_1, x_2, z) to‘ldiruvchining o‘rta yuzasiga biriktirilgan. Plastina ikkita bir xil tashqi qavatdan (qalinligi $h_1 = h_2$, Yung moduli E_1 , Puasson koeffitsienti ν_1 , zichligi ρ_1) va o‘zak qavatidan (qalinligi $h_3 = 2c$, moduli E_3 , ν_3 , zichligi ρ_3) iborat. Umumiy qalinlik $h = h_1 + h_2 + h_3$.

Modul nisbati $\eta = E_1/E_3 \leq 10$ bo‘lganda Grigolyuk modeli qo‘llaniladi. O‘lchamsiz qattqlik parametrlari γ_k va qalinlik nisbatlari t_k ($k = 1, 2, 3$) kiritilganda, $\sum t_k = 1$ shartida ekvivalent egilish qattqligi quyidagicha yoziladi:

$$D = \frac{Eh^3}{12(1-\nu^2)} \cdot \theta$$

bu yerda E va ν — sendvichning samarali moduli va Puasson koeffitsienti, $\theta = t_3^2 + 4\gamma_1(t_3^2 + 3t_1t_3 + 2t_1^2)$ — o‘lchamsiz qattqlik omili. Kichik erkin ko‘ndalang tebranishlarning chiziqli tenglamasi (tashqi kuchlar yo‘q) quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$D \frac{\partial^4 w}{\partial x_1^4} + 2D \frac{\partial^4 w}{\partial x_1^2 \partial x_2^2} + D \frac{\partial^4 w}{\partial x_2^4} = \lambda w$$

bu yerda λ — chastota parametri. Perimetri bo‘ylab sharnirli mahkamlangan plastina uchun chegaraviy shartlar:

$$w = \frac{\partial^2 w}{\partial x_1^2} = \frac{\partial^2 w}{\partial x_2^2} = 0$$

Analitik yechim

ni qanoatlantiruvchi yechim quyidagi ko‘rinishda izlanadi:

$$w(x_1, x_2) = C \cdot \sin\left(\frac{p\pi x_1}{a}\right) \cdot \sin\left(\frac{q\pi x_2}{b}\right)$$

bu yerda p va q — mos ravishda x_1 va x_2 yo‘nalishlari bo‘yicha yarim to‘lqinlar soni, C — ixtiyoriy amplituda. (2) ga qo‘yib, chastota parametri uchun ifoda olinadi:

$$\lambda = D\pi^4 \left(\frac{p^2}{a^2} + \frac{q^2}{b^2} \right)^2$$

Minimum $p = q = 1$ da (asosiy shakl) erishiladi. Siklik xususiy chastota ω bilan λ o‘rtasidagi bog‘liqlik:

$$\lambda = 4\pi^2 \omega^2 \cdot \sum \rho_k h_k$$

bu yerda yig‘indi uchala qavat bo‘yicha olinadi. Gerts hisobidagi xususiy chastota $f = \omega/(2\pi)$ formuladan topiladi.

Raqamli natijalar

Plastina materiallari: alyuminiy tashqi qatlamlar ($E_1 = 70 \text{ GPa}$, $\rho_1 = 2712 \text{ kg/m}^3$, $\nu_1 = 0,32$) va maylar (PET) o‘zagi ($E_3 = 2,5 \text{ GPa}$, $\rho_3 = 1400 \text{ kg/m}^3$, $\nu_3 = 0,30$). Qavat qalinliklari: $h_1 = h_2 = 2 \text{ mm}$, $h_3 = 25 \text{ mm}$. To‘ldiruvchi bo‘ylab ko‘ndalang siljish taqsimot funksiyasi $f(z) = z$ qabul qilinadi.

1-jadval. Materiallarning xossalari.

Material	E (GPa)	ρ (kg/m ³)	ν
Alyuminiy	70	2712	0,32
Maylar (PET)	2,5	1400	0,30

(4)–(5) formulalardan hisoblangan xususiy chastotalar 2-jadvalda ANSYS SHELL91 chekli elementlar natijalari bilan taqqoslangan. To‘r yaqinlashuvi tahlili 30×30 elementli to‘r yetarli ekanligini tasdiqlaydi.

2-jadval. Qovurg‘asiz plastinaning xususiy chastotalari.

Shakl	Yarim to‘lqinlar (p–q)	Analitik (Hz)	ChEM (Hz)	Xato (%)
1	1–1	1,194	1,190	0,3
2	1–2	2,986	2,979	0,7
3	2–2	4,778	4,760	1,8
4	3–3	5,973	5,962	1,1

Qovurg‘alarning ta’siri

To‘qqizta bir tekis joylashtirilgan alyuminiy qovurg‘a (qalinligi 20 mm, balandligi 30 mm, SHELL63 elementlari bilan modellandirilgan) x_1 yo‘nalishiga parallel mahkamlanadi. Ularning mavjudligi xususiy chastotalarni sezilarli darajada oshiradi, bu 3-jadval natijalarida o‘z aksini topgan. Birinchi to‘rtta tebranish shakli sifat jihatdan bir xil bo‘lib qoladi; farq 2- va 4-shakllarda namoyon bo‘ladi.

3-jadval. Qovurg‘alarning xususiy chastotalarga ta’siri (Hz).

Shakl	Yarim to‘lqinlar	Qovurg‘asiz	Qovurg‘ali
1	1–1	1,190	1,453
2	1–2	2,979	3,601
3	2–2	4,760	5,813
4	3–1	5,962	7,435

Quyosh shamoli yuklamasi

Quyosh shamolining yelkan yuzasiga ta’sir etuvchi normal bosimi quyidagi formula bilan taxminiy aniqlanadi:

$$p = \frac{1}{2} \rho v^2$$

bu yerda ρ — plazma zichligi ($\rho_{\text{havo}}/7 \approx 0,175 \text{ kg/m}^3$ deb olinadi), v — quyosh shamoli tezligi (300–1200 km/s). Tahlil uchun o‘rtacha normal bosim $p \approx 500 \text{ Pa}$ qabul qilinadi. Ushbu bir tekis ko‘ndalang yuklanma ta’sirida plastina markazidagi maksimal bukilish qovurg‘asiz holatda 290 mm, qovurg‘ali holatda esa atigi 110 mm ni tashkil etadi — bu 62 % kamayish bo‘lib, qovurg‘alar o‘tkazuvchi kanal vazifasidan tashqari konstruktiv jihatdan ham foydali ekanligini tasdiqlanadi.

Xulosa

Ko‘ndalang siljishni hisobga oluvchi ikki o‘lchamli sendvich plastina modeli (Grigolyuk modeli) quyosh yelkani panelini ifodalovchi uch qatlamli to‘g‘ri burchakli plastinaning xususiy tebranish chastotalari va statik bukilishlarini aniqlash uchun qo‘llanildi. Asosiy xulosalar:

- Yopiq ko‘rinishdagi analitik chastota formulalari ANSYS ChEM natijalari bilan 2 % aniqlikda mos tushadi.
- Uch qatlamli plastina va unga teng umumiy qalinlikdagi hamda samarali modulga ega bir qatlamli plastina deyarli bir xil chastotalar va tebranish shakllarini ko‘rsatadi.
- To‘qqizta alyuminiy qovurg‘a xususiy chastotalarni 20–25 % ga oshiradi va quyosh shamoli bosimi ostidagi maksimal bukilishni ikki martadan ko‘proq kamaytiradi.

Keyingi tadqiqotlarda qovurg‘alar soni va ko‘ndalang kesim geometriyasining ko‘p qatlamli kosmik yelkan konstruksiyalarining tebranish spektri va statik deformatsiya maydoniga ta’siri o‘rganilishi rejalashtirilgan.

Adabiyotlar

- [1] Polyaxova E. N. Quyosh yelkanida kosmik parvoz: muammolar va istiqbollar. Moskva: Nauka, 1986.
- [2] Wright J. Space Sailing. Abingdon: Routledge, 1992.
- [3] Grigolyuk E. I., Chulkov P. P. Uch qatlamli qobiqlarning barqarorligi va tebranishi. Moskva: Mashinostroenie, 1973.
- [4] Morozov N. F., Tovstik P. E., Tovstik T. M. Ko‘p qatlamli plastinalarning egilish qattiqligi. Izvestiya RAN, 2020, № 5, 7–12-betlar.
- [5] Janhun P. Electric sail for spacecraft propulsion. J. Propulsion and Power, 2004, 20(4), 763–764.
- [6] Tikhonov A. A. va boshq. Yuzaki zaryad ta’sirida dumaloq uch qatlamli plastinaning deformatsiyasi. Sci. Pub. State Univ. Novi Pazar, 2024, 16(1), 39–45.
- [7] Naumova N. V., Ivanov D. N. ANSYS da konstruksiyalarning statik deformatsiyalari, tebranishlari va barqarorligi. SPb.: SPbDU, 2007.

(2) va (3) TURIZM INDUSTRIYASIDA MARKETINGDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Isayev Saidamir Ikromxo‘jayevich
IYIU ta’lim sifati nazorat qilish bo‘lim boshlig‘i
Isayeva Yulduz Ubaydullayevna
Angren Shahar 20-maktab o‘qituvchi

Annotatsiya. Bu maqolada turizm industriyasida marketingdan foydalanish xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Turizm sohasidagi marketing marketing innovatsiyalarining muallifining ta’rifi taklif etiladi, turizm sohasidagi marketing asosiy elementlari kontekstida innovatsion marketing kompleksini shakllantirish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Turistik tashkilotning innovatsion marketing faoliyatining asosiy yo‘nalishlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *xizmat ko‘rsatish bozori, xizmat, aymaq, marketing, turizm, mehmonxona xizmatlari, madaniy xizmatlar, maishiy xizmatlar, kommunal xizmat.*

Turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi va eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Mavzuning dolzarbligi shundaki, turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotida asosiy rollardan birini egallab turibdi va ayni paytda dunyodagi eng daromadli biznes turlaridan biri hisoblanadi. Turizm bizneslari marketingda innovatsiyalar uchun mavjud bo‘lgan axborot texnologiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan virtual tashkilotlarga aylandi, shuningdek, Facebook, Instagram va

boshqalar kabi ijtimoiy media muhitida boshqa platformalardan foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqlardan bunday foydalanish innovatsiyalarni yaratmoqda, chunki sayyohlar turistik tajribalarning birgalikdagi dizaynerlari, ishlab chiqaruvchilari, sotuvchilari va hammualliflariga aylanishmoqda. Marketing va brendingda raqamli texnologiya qabul qilingandan beri brending strategiyalari usullari, vositalari va jarayoni o‘zgarib bormoqda. Turizm bu jismoniy shaxslar yoki sayohatchilar guruhiga sayohat tajribasini yetkazib beruvchi faoliyat, xizmatlar, jarayon va sanoat to‘plami, tijorat xizmatlaridan foydalangan holda dam olish, dam olish va zavqlanish uchun uydan uzoqda vaqt o‘tkazadigan. Innovatsiya -bu yangi siyosat, tuzilma, usul, jarayon, yangi g‘oya, mahsulot yoki xizmatni joriy etish yoki o‘zgartirish yoki mavjud mahsulotlar yoki mavjud mahsulotlar uchun yangi bozorlarni yoki hatto yangi marketing usulini o‘zgartirishning bilimga asoslangan o‘zgartirish jarayoni.

Turizm industriyasida marketing faoliyatlari XX asr oxirlarida, tunash va sayohat byurolari bilan birgalikda Angliya va keyinchalik Yevropa qit‘asida amalda qo‘llanila boshlagan. Turizm marketingining tizimli (tizimtik) bir shaklda inobatga olinishi va o‘rganilishi 1950-yillarda Yevropada amalda qo‘llanilgan. Ikkinchi jahon urushigacha lyuks bir iste‘mol soha bo‘lgan turizm tarmog‘i, urushdan keyin Yevropadagi sanoatlashuv harakati bilan birga rivojlanishga va tarqalishga boshlagan. Iste‘molchilarning sotib olish imkoniyatlari ortgan va turizm tarmog‘i xalqaro bir xususiyat qozonib talab va taklif muvozanati buzilishni boshlagan. 1936- yildan e‘tiboran Yevropada pullik ruxsat haqining berilishi bilan ishchilar, mutaxassislar ta‘tilga chiqib turizm harakatlariga qatnashganlar. Tunash muassasalarida o‘zgarish ortgan, yangi tunash tarmoqlari yuzaga kelgan. Sayohat qilgan insonlar soni har yili tez sur‘atlarda ortib borgan. Ta‘tilga chiqish nisbati Yevropada jami aholining 60% ini tashkil qilgan.

Marketing innovatsiyasi – bu tashkilot o‘z mahsuloti va xizmatlarini, g‘oyalarini, shuningdek, o‘z mijozlarining ehtiyojlarini samarali qondirish uchun marketing jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish uchun amal qiladigan qobiliyat va jarayon. Innovatsiyalar zamonaviy jamiyatning eng muhim elementlaridan biriga aylanib bormoqda va biznesning global tabiati o‘zgarib bormoqda. Innovatsiyalar va marketing innovatsiyalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borildi, ular adabiyotda kuzatilgan asosiy sohalardan biri hisoblanadi; chuqur o‘rganilmagan, lekin nisbatan katta foyda keltiradi. Bu shunchaki korxonalar o‘zlarini hozirgi va potentsial mijozlariga sotishning yangi usullari sifatida aniqlanadi. Innovatsiyalarga katta e‘tibor qaratilayotganining asosiy sabablaridan biri shundaki, kompaniyalar muvaffaqiyat qozonmoqda va ushbu innovatsion mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlar asosida raqobatdosh ustunlikka erisha olishmoqda.

Turizm ijtimoiy sohaning bir qismi bo‘lib, dam olish uchun sharoit yaratish, sog‘liqni saqlashni ta‘minlash, iste‘mol jarayoniga xizmat ko‘rsatish, aholining umumiy ma‘lumot va madaniy darajasini shakllantirish kabi bir qator funktsiyalarni bajaradi. Milliy turizm balansining rivojlanish dinamikasini farovonlik va mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish ko‘rsatkichlaridan biri sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Dunyodagi eng daromadli biznes turlaridan biri bo‘lgan turizm butun dunyo turistik mintaqalarida ham katta foyda keltirishi mumkin. Ba‘zi ekspertlar mamlakatning sayyohlik salohiyatini yuqori baholaydilar. 2016- yilga kelib, biz yiliga 40 million chet ellik sayyohlarni qabul qilish ko‘rsatkichiga erishamiz, ichki turizmning hajmi esa xizmat ko‘rsatadigan 50 milliongacha o‘sishi kerak .

Marketing – bu oxirgi iste‘molchilar va ayniqsa, to‘rtta marketing Psi tashkilot barcha asosiy sohalarda innovatsiyalardan foydalanishiga ishonch hosil qiladi. Jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan dunyo odamlarning turmush tarzini o‘zgartirdi va o‘zgarishlarga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqardi, shuning uchun marketing innovatsiyasini o‘rganish va amalga oshirish uchun yanada muhimroq tushunchaga aylantirdi. Mavjud mijozlar doimo yangi ishlanmalarni izlaydilar, potentsial mijozlar esa marketing innovatsiyasi soyaboni ostidagi ko‘plab sohalardan biri bo‘lgan farqlovchi omilni xohlashadi. Muvaffaqiyatli bo‘lish uchun har bir tashkilot innovatsion bo‘lishni talab qiladi va marketing innovatsiyalari ularga mikrodan makro darajagacha, orzu qilgan mavqega ega bo‘lishga yordam beradi.

Marketing atamasiga 500 dan ortiq ta‘riflari berilgan. Ularning asosida inglizcha “market” (bozor) so‘zi yotadi. SHu sababli ko‘pincha marketing deganda ishlab chiqarishni aniq

iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirishga yo’naltirishni talab etuvchi bozor sharoitlarida xo‘jalik yuritish, boshqarish falsafasi tushuniladi. Kengroq qaralganda Turizm marketingi individual va guruhli turistlar uchun mahsulot yaratgan va ularni ayirboshlagan holda o‘zlariga kerak bo‘lgan xizmatlarga ega bo‘ladigan ijtimoiy-boshqaruvchilik jarayonidir.

Bu jarayonning asosida: “bo‘sh vaqt”, “ehtiyoj”, “istak (xohish)”, “talab”, “xizmat”, “ayirboshlash”, “savdo” va “bozor” kabi tushunchalar yotadi. Bo‘sh vaqt – har qanday inson bo‘sh vaqtga ega bo‘lmasa sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Insonlarda ishdan yoki bayram ta’tillarini mavjud bo‘lishi sayohat qilishga bo‘lgan ehtiyojini tug‘diradi.

Ehtiyoj– qondirilishi lozim bo‘lgan qandaydir zaruratdir. Inson o‘zining qandaydir ehtiyojini qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, u yoki bu ehtiyojni qisqartiradi yoki boshqasi bilan almashtiradi.

Istak (xohish) – insonning shaxsiyati va madaniy darajasiga mos ravishda aniq shaklga kirgan ehtiyojdir. Masalan, bo‘sh vaqtning bo‘lishi dam olish turlarini tanlash, ulardan turizmga bo‘lgan ehtiyojga; u esa, o‘z navbatida turistik mahsulotni sotib olishga bo‘lgan xohishga aylanadi. Bu erda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, turli mintaq va mamlakatlarda umumiy ehtiyojlar madaniy, tarixiy, geografik va boshqa omillar ta’sirida turli-tuman istaklarga bo‘linib ketishadi. Ovqatga bo‘lgan birgina ehtiyojni o‘zini turli mamlakat fuqarolari turlicha oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol etib qondirishadi. Bir mamlakat ichida yashovchi odamlar ham ma’lum bir ehtiyojni turlicha tovarlar xarid etgan holda qondirishadi.

Talab – to‘lov qobiliyati bilan ta’minlangan istakdir. Berilgan resurs imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda insonlar o‘zlariga eng ko‘p foyda va qoniqish keltiradigan mahsulotlarni xarid etish yo‘li bilan o‘z istaklarini qondirishadi. Xizmat- bozorda aniq ehtiyojni qondirish maqsadida foydalanish uchun taklif etilishi mumkin bo‘lgan barcha xizmatlar to‘plami hisoblanadi. Turistik xizmatlar dam olish, sayohat qilish, tanishish, rekreatsiya, ziyorat va boshqa ehtiyojni qondirishi mumkin bo‘lgan barcha ne’matlar (moddiy buyumlar, xizmatlar, insonlar, 17 tashkilotlar, faoliyat turlari, g‘oyalar)dir. Turizm marketingida tovar, mahsulot, xizmat kabi tushunchalarni sinonim sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayirboshlash – kimdandir o‘ziga istalayotgan mahsulotni unga buning o‘rniga boshqa nimanidir taklif etib olish akti(jarayoni)dir.

Savdo (bitim) – o‘z ichiga kamida ikki manfaatdor tomonni hamda sotuv shartlari, muddatlari va joyi to‘g‘risidagi kelishuvni olgan ikki taraf o‘rtasidagi sotuv operatsiyasidir.

Bozor – qandaydir mahsulotning mavjud va istiqboldagi sotuvchilari va xaridorlarining yig‘indisidir, bu shunday joydirki, unda savdo amalga oshiriladi. Aynan bozorda ishlab chiqarilgan mahsulot va unga sarflangan mehnat o‘zining ijtimoiy ahamiyatini isbotlaydi, iste’molchilar tomonidan tan olinadi. U zamonaviy jamiyatda jismoniy o‘ringa ega bo‘lishi shart emas. (Buning ustiga, turizmga tovar iste’molchiga qarab emas, iste’molchi tovarga qarab harakat qiladi). Tovarni ko‘rsatish, reklama qilish, buyurtma qabul qilish uchun zamonaviy aloqa vositalaridan foydalaniladi. Shuningdek, marketingda bozor deganda aniq mahsulot xaridorlari tushuniladi. Masalan, madaniy turistik mahsulot xaridorlari, safari xaridorlari, yoqilg‘i xaridorlari, qimmatbaho metall xaridorlari.

O‘zbekiston Respublikasida turizmni tezkor rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida farmon imzolandi. “O‘zbekiston Respublikasida turizmni tezkor rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan imzolandi. Mazkur farmonga binoan, mamlakatda shu yilning 1-fevralidan e’tiboran 45 davlat fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan e’tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz rejim belgilanadi. Shu bilan birga, 76 davlat fuqarolari uchun viza rejimi soddalashtiriladi. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Tashqi ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatining 2019 yilning 1-fevralidan elektron kirish vizasi oluvchi mamlakatlar ro‘yxatini kengaytirish, 15 martdan esa 30 kun davomida amal qilinuvchi elektron vizalar turlari (ikki martalik, konsullik yig‘imi 35 AQSH dollari miqdorida;

Ko‘p martalik, konsullik yig‘imi 50 AQSH dollari miqdorida) tizimini joriy qilish, shuningdek alohida xorijiy fuqarolar guruhlariga qo‘shimcha vizalar toifasini yo‘lga qo‘yishga oid takliflari qabul qilindi. 106 mamlakat fuqarolariga O‘zbekistonda turar-joy sotib olish huquqi taqdim etiladi. Buning uchun ushbu davlatlar fuqarolari O‘zbekiston hududlaridan muayyan

summadagi ko‘chmas mulk inshootlarini xarid qilishlari kerak bo‘ladi. Xorijiy mamlakatlar fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini olish huquqi berilishi uchun quyidagi shartlarga amal qilish talab qilinadi. Toshkent viloyati va Toshkent shahrida – 400000 AQSH dollari ekvivalentidan kam bo‘lmagan miqdorda; Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida – 200000 AQSH dollari ekvivalentidan kam bo‘lmagan miqdorda; Qoraqalpog‘iston Respublikasi va respublikaning boshqa viloyatlarida – 100000 AQSH dollari ekvivalentidan kam bo‘lmagan miqdorda ko‘chmas mulkni sotib olgan taqdirda xorijiy mamlakatlar fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini olish huquqi beriladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, bandlikni ta‘minlash, odamlarimizning daromadi va hayot sifatini oshirishning muhim omil va yo‘nalishlaridan biri sifatida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining 2017- yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish” muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berildi. Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalarni hal etishda shahar va qishloqlarimizda xizmat ko‘rsatish sohasini izchil rivojlantirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish masalasi o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning tez rivojlanuvchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki ishlab chiqarishning murakkablashuvi va bozorning tovarlar bilan to‘ldirilishi natijasida xizmatlarga bo‘lgan talab o‘sa boshlaydi. Xizmat ko‘rsatish sohasi aholiga yangi zamonaviy va sifatli xizmat turlari ko‘rsatish, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va aholini, birinchi navbatda, qishloq joylarda bandlik masalasini hal etishda eng muhim vositadir.

Xizmat ko‘rsatish sohasi moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejaydi, insonning bo‘sh vaqtini ko‘paytiradi, uning mehnatining ijodiy mazmunini oshiradi, ish vaqtidan tashqaridagi oqilona bo‘lmagan xarajatlarni qisqartiradi, insonlar hayotini yanada qulay hamda yoqimli qiladi va shu orqali aholining barcha ijtimoiy guruhlari, qatlamlarining hayotiy manfaatlarini yuzaga chiqaradi.

Marketing tadbirlarini hayotga tadbqiq etish marketingni boshqarish tizimini talab qiladi. Bu o‘z navbatida strategik va joriy rejalashtirishdan iborat bo‘ladi. Marketing rejalashtirish boshqarishni tashkil etish va nazoratni o‘z ichiga oladi. Marketing strategiyasi — bu qo‘yilgan maqsadlarga erishish bo‘yicha marketing yo‘nalishlari va ayrim tadbirlarini tasvirlovchi, uzoq va o‘rta muddatli prinsipial qarorlardir. Strategiya — bu raqobat ustunliklarini korxona natijalariga aylantirish bo‘yicha tadbirlar tizimidir. Marketing strategiyasini tanlash ichki va tashqi muhit shartlari bilan cheklangan bo‘lib, ularning asosiylari quydagilar: - bozorning makondagi joyi (lokal, mintaqaviy, milliy, xalqaro); - bozorni o‘zlashtirish darajasi (eski, turdosh, yalpi bozor); - bozorni qayta ishlash hajmi (bir segment, bir necha segment, butun bozor); - bozorni qayta ishlash usuli (differensiatsiyalangan, differensia-siyalashmagan); - marketingning muayyan vositasida mujassamlanish (narx, sifat); - birlamchi maqsad (bozor ulushi, rentabellik); - raqobatdoshlarga munosabat (agressiv, neytral); - kooperatsiyaga munosabat (mumkin, mumkin emas); - o‘shish sur‘atlariga munosabat (tez, asta-sekin, nollik, manfiy); - innovatsiyalarga munosabat (birinchilardan bo‘lib, imitatsiya).

Ko‘rinib turibdiki, madaniy turizm mamlakatimiz uchun istiqbolli sanalgan turizm turlaridan biridir. Shu sababli, uni rivojlantirish borasida izchil siyosat yuritilmoqda, turizm sohasini rivojlantiruvchi tadbirlar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Oqilona yuritilayotgan turistik siyosatni o‘lkamizda yangi yaratilayotgan turistik tashkilotlarning soni kun sayin oshib borishidan ham ko‘rsa bo‘ladi. 265 Turizmni rivojlantirishda e‘tiborga olinish lozim bo‘lgan yana bir tomon – turistik resurslarni ulardan kelgusi avlod ham manfaat olishlari uchun saqlab qolish masalasi o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Shuni inobatga olgan holda mamlakatimizda qurilayotgan

har bir yangi bino qurilish uslubi, dizayni kabi jihatlari bilan shu atrofda boshqa binolarga mos bo‘lishini ta’minlash zarur. Qayta ta’irlangan mashhur ziyoratgohlarimizda milliy qurilish san’ati an’analariga sodiq qolindi. Endigi masala, xususiy sektor tomonidan tarixiy maskanlarimizda qurilayotgan yangi binolarda ham shu muhit usulidan keskin farqlanishning oldini olishni ta’minlashdir.

Shuningdek, tarixiy binolar ta’irlayotganda uning asl ko‘rinishi saqlab qolish muhimdir. Bunda qayta ta’irlash bahonasida bino tashqi bezaklarining hammasini butunlay ko‘chirib, bu bezaklarni yangi qurilish materiallari bilan qaytadan yaratish binoning tarixiy qadrini tushirib yuborishi mumkin. Chunki, madaniy turizm ixlosmandlarini aynan shu tarixiylikka jalb etgan bo‘lishi mumkin. ya’ni, tarix bilan qiziquvchi madaniy turistlarni eski usulda qurilgan yangi bino emas, aynan eski binoning o‘zi ko‘proq qiziqtiradi. Shu sababli, ta’irlash ishlarini amalga oshirganda bu kabi xatolarga yo‘l qo‘yilishining oldi olinishi zarur bo‘ladi. So‘zsizki, turistlarni jalb etuvchi tabiiy boyliklarimizning saqlab qolinishi ham muhim masaladir. Mamlakatimizda bu borada maxsus choralar ko‘rilayotgani tahsinga sazovordir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston madaniy turizmni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, uning rivojlanishi O‘zbekistonning xalqaro aloqalari rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Xalqaro aloqalarning rivojlanishi xalqimizning boshqa millatlar bilan yanada yaqinlashtiradi, bu esa, o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi. O‘zaro hamkorlikning kuchayishi O‘zbekistonga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning o‘sishiga olib kelishi mumkin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Голубков Е.П. Маркетинговые исследования: теория, методология и практика: учебник / Е.П. Голубков. 4-е изд., перераб. и доп. –М.: Издательство “Финпресс”, 2008. – 496 с.
2. Ibodov K.M. Turizmda marketing. –T. “Fan va texnologiya”, 2019. –356 bet.
3. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. М.: Эксмо, 2007. С.127.
4. Карпова Г.А., & Волошинова М.В. (2022). МАРКЕТИНГОВЫЕ ИННОВАЦИИ В СФЕРЕ ТУРИЗМА. Инновации и инвестиции, (9), 4-8.
5. Komilova F.K. “Turizm marketingi”. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Uzinkomsentr”, 2003.
6. Komilova F.K. “Xalqaro turizm bozori”. o‘quv qo‘llanma. –T.: “TDIU”, 2001.
7. Ro‘ziev S.S. Turizm marketingi. –T.: «Avto-nashr bosmaxonasi», 2006 y.

ANALYSIS OF SYNTHETIC AND COTTON FABRICS USED IN COSTUME FABRICS

Xaydarova Mashxura Qurbonali qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti,

Email: dadajonovamashxura@gmail.com

+99893 972 68 00

Farg‘ona, O‘zbekiston

Abstract: In this article, the physical, mechanical, hygienic and aesthetic properties of artificial and natural fabrics used as costume fabrics are compared with the indicators of fabrics blended with artificial fibers. Also, the main parameters of the fabrics, such as air permeability, moisture absorption, strength, and torsion stability, were analyzed. The analyzes show that cotton fiber is distinguished by high hygienic properties. At the same time, when cotton fiber is blended with artificial fibers, the elasticity and abrasion resistance of the fabrics increase.

Keywords: cotton fiber, artificial fiber, suit, linear density, fabric structure, decorativeness, air permeability, deformation

Cotton fiber is valued as the main raw material in the textile industry. Its naturalness, hygienic properties, environmental friendliness and high processing capabilities make cotton fabrics one of the most widely used materials in the world. Today, expanding the range of cotton fiber fabrics

and developing new types of them is one of the main tasks of textile enterprises. When forming the range of fabrics, their physical and mechanical characteristics, appearance, hygienic and aesthetic properties are studied in depth. Cotton fiber fabrics have such advantages as high hygroscopicity, air permeability, softness and comfort. They are also characterized by compatibility with the human body, non-irritating to the skin and resistance to washing. Such properties allow cotton fabrics to be widely used in the production of everyday clothing, underwear and children's clothing. The range of cotton fiber fabrics is very wide, and they differ in weaving method, yarn density, processing technology and the addition of mixed fibers. Nowadays, along with pure cotton fabrics, blended fiber options are also widely used.

1. schedule

Pattern types	Knit types	Yarn composition	Weave structure	Field of use
Geometric pattern	Polester-viscose	50% polyester, 50% viscose	Jacquard	Men's classic costume
Floral pattern	Cotton lyocell blend fabric	70% cotton , 30% lyocell	Jacquard + yellowish	Women's costume
Minimalist pattern	Elastan knit fabric	90% polyester, 10% elastane(spandex)	Knit structure	Sport costume
Ethnic pattern	Mint fiber fabric	100% natural yarn	Yellowish structure	Traditional clothes

One of the current urgent tasks is to create new production facilities and modernize existing industrial enterprises, organize deep processing of cocoon raw materials, increase the production and quality of finished cotton fabrics, and increase the export of finished products from natural cotton. The creation of an improved resource-saving technology for preparing cotton yarn for weaving is of great importance in the current market economy and in an increasingly competitive environment for the production of products that are competitive in the world market, and for increasing the export potential of the industry. In addition to pure cotton, blended fabrics play a significant role in enriching the assortment. Blended fabrics combine technological and aesthetic indicators and increase the functional capabilities of fabrics.

- Wool + polyester fabrics: have high strength, shape retention, crease resistance and quick drying. The addition of polyester gives the fabric wash resistance and elasticity.

- Wool + viscose fabrics: viscose fiber gives the fabric softness and shine, while wool fiber provides heat retention and air permeability. Such a combination improves hygienic and aesthetic indicators.

The table below shows the structural structure and fiber composition of the fabrics in the assortment of suiting fabrics woven from artificial fibers. (2-schedule)

2. schedule

№	Weave types	Raw material	Relative density	(№) thread count	1 (dm) number of threads	Shrinkage	fabric (dm) Number of threads	Weave type	1m ² fabric weight	Weave structure
1	Suit fabric			75/5		5,9		x	260	
	warp	50% W 50% P	55/2N _m		275		291			

	weft	50% W 50% P	55/2N _m		288		305			
2	c			90/3		21		2/1	166	
	warp	100% W	40/1N _e		270					
	weft	96% W 4% EA	39/1N _e		275					
3	Costume fabric			90/3		12		2/1	155	
	warp	50% W 50% P	76/2N _m		270		302			
	weft	50% W 50% P	50/1N _m		323		361			
4	Costume fabric			90/4		6				
	warp	65%P 35% Vk	36/2N _e		360		381	2/1	270	
	weft	65%P 35% Vk	36/2N _e		240		254			
5	Costume fabric			80/4		9		2/1	320	
	warp	65%P 35% Vk	30/2N _e		320		349			
	weft	65%P 35% Vk	30/2N _e		225		245			

- Wool + polyester fabrics: have high strength, shape retention, crease resistance and quick drying. The addition of polyester gives the fabric wash resistance and elasticity.

- Wool + viscose fabrics: viscose fiber gives the fabric softness and shine, while wool fiber provides heat retention and air permeability. Such a combination improves hygienic and aesthetic indicators. Based on the analysis, in order to expand the range of suit fabrics, adding artificial fiber to the fiber composition of fabrics on the same basis as natural fiber, i.e. cotton, makes the fabric more shiny, aesthetically competitive, elastic and durable.

Conclusion

The conducted analyses show that cotton fiber fabrics, with their high hygroscopicity, air permeability and environmental friendliness, serve as the main raw material in the production of clothing. In addition to pure cotton fabrics, wool + polyester and wool + viscose blends also play an important role in the formation of the assortment. As a result, these fabrics can be widely used in women's suits, everyday and special clothing.

Literature

1. Alimova X.A. Technology of fabric production based on natural fibers in textiles. – Tashkent, 2020.
2. Doniyorov B.B. Technology of high-performance yarn production. – Tashkent, 2019.
3. Mardonov B.M. Cotton fiber and its processing technology. – Tashkent, 2018.
4. Kadirova M. Innovative approaches to forming an assortment of fabrics. – Tashkent, 2021.

UMURTQA POG‘ONASI PATOLOGİYALARI BO‘LGAN BEMORLARGA KORSETLARI KONSTRUKTSIYASINI ERGONOMIK VA BIOMEKANIK ASOSLARDA TAKOMILLASHTIRISH

Yaxyojonova Mohidil Husan qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti

Email: mohidilyaxyonova4@gmail.com

+99894 528 77 00

Annotatsiya: Ushbu maqolada umurtqa pog‘onasi patologiyalari bilan og‘rigan bemorlar uchun maxsus bel korsetlarining konstruksiyasini ergonomik va biomekanik tamoyillar asosida takomillashtirish masalalari keng qamrovda ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot jarayonida umurtqa pog‘onasining anatomik-biomekanik xususiyatlari, bel sohasiga tushadigan statik va dinamik yuklamalar, shuningdek, bemorlarning individual antropometrik ko‘rsatkichlari batafsil o‘rganildi.

Taklif etilgan konstruksiya elastik va yarim qattiq elementlarning optimal kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv nafaqat bel sohasidagi yuklamani teng taqsimlash, umurtqa segmentlarini barqarorlashtirishga yordam beradi, balki bemorning kundalik faoliyati va harakat erkinligini saqlashga imkon yaratadi. Shu bilan birga, konstruksiya uzoq muddatli foydalanishda qulaylikni ta‘minlaydi. Olingan natijalar maxsus tibbiy korsetlarni loyihalash va ishlab chiqarishda ergonomik-biomekanik talablarni samarali qo‘llashga xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: maxsus bel korsetlari, umurtqa pog‘onasi patologiyalari, ergonomika, biomekanika, konstruktiv yechim, bemor qulayligi.

Kirish. Umurtqa pog‘onasi patologiyalari, jumladan spondilolistez, disk churrasi, osteoxondroz va boshqa degenerativ-distrofik o‘zgarishlar, bugungi kunda keng tarqalgan. Bu holatlar bemorlarning kundalik hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi, mehnat qobiliyatini cheklaydi va turli harakatlarda noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois, umurtqa pog‘onasining patologik holatlarini davolash va rehabilitatsiya qilish tibbiyot va injeneriya sohalarida dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Konservativ davolash usullarida maxsus bel korsetlarining qo‘llanilishi keng tarqalgan. Korsetlar umurtqani tashqi mexanik qo‘llab-quvvatlash, patologik harakatlarni cheklash va belga tushadigan yuklamani kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bemorning mushak faoliyati saqlanib, umurtqa segmentlaridagi ortiqcha stress kamayadi.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mavjud korset modellarining ko‘pchiligi standart konstruksiyaga ega bo‘lib, bemorning individual anatomik va biomekanik xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmaydi. Natijada, terapevtik samaradorlik pasayadi, uzoq muddatli foydalanishda charchoq va noqulaylik yuzaga keladi. Shu sababli ergonomik va biomekanik asosda, bemorning individual anatomiyasiga moslashtirilgan korsetlar ishlab chiqish zarurati mavjud.



1-rasm. Umurtqa pog‘onasi skaleti

Takomillashtirilgan bel korsetlarining konstruksiyasi bir nechta muhim komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- **Biomekanik taqsimot:** Korsetda elastik va yarim qattiq elementlar optimal nisbatda qo‘llaniladi. Bu bel sohasiga tushadigan yuklamani teng taqsimlash, umurtqa segmentlarini barqarorlashtirish va mushaklarning tabiiy faolligini saqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, patologik segmentlarning harakatlari cheklanadi, lekin bemorning kundalik harakatlari uchun zarur bo‘lgan minimal harakat erkinligi saqlanadi.
- **Ergonomik moslashuv:** Korset bemorning individual tana tuzilishiga moslashadi, uzoq muddatli foydalanishda charchoq va noqulaylikni kamaytiradi. Uning kiyish va sozlash tizimi bemor uchun qulay bo‘lib, kundalik faoliyatdagi harakatlarni cheklamaydi.
- **Foydalanish qulayligi:** Korsetning konstruksiyasi intuitiv va qulay bo‘lib, kiyish va chiqarish jarayoni murakkablik tug‘dirmaydi. Shu bilan birga, ortiqcha qattiq elementlar harakatni cheklamaydi va bemor uchun maksimal komfortni ta’minlaydi.

Optimal kombinatsiya tufayli konstruksiya umurtqa segmentlarini samarali barqarorlashtiradi, belga tushadigan yuklamani teng taqsimlaydi va patologik harakatlarni cheklaydi. Shu tarzda, takomillashtirilgan konstruksiya bemorning individual anatomik xususiyatlariga moslashadi va uzoq muddatli foydalanishda qulaylikni ta’minlaydi.

Korsetning ergonomik jihatdan moslashuvi bemorning individual anatomiyasini hisobga oladi. Bu uzoq muddatli foydalanishda charchoq va noqulaylikni sezilarli darajada kamaytiradi, reabilitatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Biomekanik jihatdan, korset bel sohasiga tushadigan statik va dinamik yuklamalarni teng taqsimlaydi, mushaklarning ortiqcha yuklanishini kamaytiradi va umurtqa segmentlarining patologik harakatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, elastik va yarim qattiq elementlarning kombinatsiyasi bemorning harakat erkinligini saqlab qoladi, lekin segmentlarni barqarorlashtirishni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, korset konstruksiyasida ishlatilgan materiallar bemorning tana haroratiga mos, terlashni kamaytiruvchi va uzoq muddatli foydalanishda qulay bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bu esa reabilitatsiya jarayonining uzluksizligi va bemorning motivatsiyasini oshiradi.

Takomillashtirilgan bel korsetlari klinik amaliyotda bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ular bel og‘rig‘ini kamaytiradi, mushak faolligini qo‘llab-quvvatlaydi va umurtqa segmentlarini barqarorlashtiradi. Shu bilan birga, ergonomik moslashuv tufayli bemor korsetni kundalik hayotda bimalol ishlata oladi, ish faoliyatini davom ettiradi va jismoniy faolligini saqlaydi.

Korsetning biomekanik va ergonomik jihatdan takomillashtirilganligi nafaqat terapevtik samaradorlikni oshiradi, balki bemorning psixologik qulayligini ham ta’minlaydi. Uzoq muddatli foydalanishdagi qulaylik bemorning harakat motivatsiyasini oshiradi va reabilitatsiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Xulosa. Takomillashtirilgan bel korsetlarini loyihalashda ergonomik va biomekanik tamoyillarni integratsiyalashgan holda qo’llash muhim ahamiyatga ega. Optimal yuk taqsimoti umurtqa pog’onasining patologik segmentlarini barqarorlashtirishga yordam beradi. Individual anatomik moslashuv uzoq muddatli foydalanishda charchoqni kamaytiradi, kundalik harakat erkinligini saqlaydi va reabilitatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Mazkur yondashuv maxsus bel korsetlarini ishlab chiqarish, klinik amaliyotga joriy etish va bemorlar uchun qulay va samarali konstruksiyalar yaratishda nazariy va amaliy asos bo’lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ergonomik-biomekanik tamoyillarga asoslangan yondashuv bemorlarning hayot sifatini yaxshilash va ularning reabilitatsiya jarayonini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatqulova Saida Raxmatovna, & Yaxyojonova Mohidil Husan qizi. (2025). Ayollar ko’ylagini o’lchamga tayyorlash va qomatda kiyim nuqsonlarini aniqlab bartaraf etish. YANGI O’ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, [php/TTVAL/article/view/3916](http://TTVAL/article/view/3916).
2. Yaxyojonova Mohidil Husan qizi (2025). O’smir yoshdagi qizlar ust kiyimlarining tashqi ko’rinishi badiiy xususiyatlari. Izlanuvchi ilmiy-metodik jurnali.
3. McGill, S.M. (2007). *Low Back Disorders: Evidence-Based Prevention and Rehabilitation*. 2nd Edition. Human Kinetics.
4. Yaxyojonova Mohidil Husan qizi. (2025). Bel sohasidagi kasalliklarni davolashda bel korsetlarining (lumbar belt) ta’siri haqida ilmiy tahliliy tadqiqot. Multidisciplinary journal of science and technology, 5(11), 535–538. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17650162>.

ASOSIY EKin SIFATIDA SOYA EKILIB, TAKRORIY EKin SIFATIDA TARIQNI KO’K MASSA HOLIDA TUPROQQA QAYTARISHNI TUPROQNING HAJM MASSASIGA TA’SIRI

*Ollaberganova Mahliyo Matyoqub qizi
Toshkent davlat Agrar universiteti doktoranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada asosiy ekin sifatida soya yetishtirish hamda takroriy ekin sifatida tariqni ko’k massa (siderat) holida tuproqqa qaytarishning tuproq hajm massasiga ta’siri o’rganilgan. Tadqiqotlar sug’oriladigan tipik bo’z tuproqlar sharoitida olib borilgan bo’lib, 2024–2026 yillar davomida tuproqning 0–30 va 30–50 sm qatlamlarida hajm massasi ko’rsatkichlari aniqlangan va tahlil qilingan. Natijalarga ko’ra, har ikki qatlamda ham tuproq hajm massasining kamayishi kuzatilib, bu tuproqning g’ovakligi ortganligini va fizik holati yaxshilanganligini ko’rsatadi. Soya ekinining biologik azot fiksatsiyasi xususiyati hamda tariqning ko’k massa holida tuproqqa qaytarilishi natijasida organik modda miqdori ortib, tuproq strukturasi yaxshilanishiga erishilgan. Tadqiqot natijalari asosida mazkur agrotexnik tadbir tuproq unumdorligini oshirishning samarali va ekologik jihatdan maqbul usuli sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so’zlar: soya, tariq, siderat, ko’k massa, tuproq hajm massasi, tuproq zichligi, tuproq unumdorligi, tipik bo’z tuproqlar, organik modda, biologik azot fiksatsiyasi, tuproq strukturasi, agrotexnika

Аннотация: В данной статье изучено влияние возделывания сои в качестве основной культуры и заделки проса в почву в виде зеленой массы (siderата) в качестве повторной культуры на объемную массу почвы. Исследования проводились в условиях орошаемых типичных сероземов в 2024–2026 гг. Были определены и проанализированы показатели объемной массы почвы в слоях 0–30 и 30–50 см. Результаты показали снижение объемной массы в обоих слоях, что свидетельствует об улучшении пористости и

физических свойств почвы. Биологическая фиксация азота соей и заделка зеленой массы проса способствовали увеличению содержания органического вещества и улучшению структуры почвы. Полученные результаты позволяют рекомендовать данный агротехнический прием как эффективный и экологически безопасный способ повышения плодородия почвы.

Ключевые слова: соя, просо, сидерат, зеленая масса, объемная масса почвы, плотность почвы, плодородие почвы, типичные сероземы, органическое вещество, биологическая фиксация азота, структура почвы, агротехника

Annotation: This article investigates the effect of soybean cultivation as a main crop and the incorporation of millet as green manure (siderate) as a secondary crop on soil bulk density. The research was conducted under irrigated typical gray soils during 2024–2026. Soil bulk density was determined and analyzed in the 0–30 cm and 30–50 cm layers. The results showed a decrease in bulk density in both layers, indicating improved soil porosity and physical properties. Biological nitrogen fixation by soybean and the incorporation of millet green biomass contributed to an increase in organic matter content and improvement of soil structure. Based on the results, this agrotechnical practice is recommended as an effective and environmentally sustainable method for improving soil fertility.

Keywords: soybean, millet, green manure, siderate, soil bulk density, soil density, soil fertility, typical gray soils, organic matter, biological nitrogen fixation, soil structure, agrotechnics

Kirish. Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida tuproq unumdorligini saqlash va oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sug‘oriladigan yerlarda tuproqning fizik xossalari, jumladan hajm massasi (zichligi)ni maqbul darajada ushlab turish yuqori va barqaror hosil olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tuproq hajm massasi uning suv-havo rejimi, ildizlarning rivojlanishi hamda oziq moddalarining o‘zlashtirilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda tuproq unumdorligini oshirishda biologik usullardan, xususan, dukkakli ekinlar va siderat ekinlardan samarali foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. Don dukkakli ekinlar ichida soya o‘simligi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u ildizida yashovchi tuganak bakteriyalar yordamida atmosferadagi erkin azotni o‘zlashtirib, tuproqni biologik azot bilan boyitadi. Bu esa tuproq unumdorligini oshirish bilan birga, uning fizik holatini ham yaxshilaydi.

Shu bilan birga, takroriy ekin sifatida ekiladigan siderat o‘simliklar, jumladan tariqni ko‘k massa holidan tuproqqa qaytarish tuproqning strukturaviy holatini yaxshilash, organik modda miqdorini oshirish hamda hajm massasini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Ko‘k massa tuproqqa singdirilganda, u chirish jarayonida gumus hosil qiladi va tuproqning g‘ovakligini oshirib, zichlashuv darajasini pasaytiradi.

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi — asosiy ekin sifatida soya yetishtirilib, takroriy ekin sifatida tariqni ko‘k massa holidan tuproqqa qaytarishning tuproq hajm massasiga ta’sirini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot natijalari tuproqning fizik xossalari yaxshilash, uning unumdorligini oshirish va barqaror agroekotizimni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida asosiy ekin sifatida soya va takroriy ekin sifatida tariqni ko‘k massa holidan tuproqqa qaytarishning tuproq unumdorligiga ta’sirini baholashda tuproqning dastlabki fizik ko‘rsatkichlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda tuproqning hajm massasini aniqlash maqsadida tajriba dalasida kanvert usulida dalaning beshta joyidan analiz uchun namuna olindi. Olingan namunalar laboratoriya sharoitida quritilib, ularning quruq massasi aniqlandi hamda hajmga nisbatan hisoblab chiqildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tajriba dalasi tuproqning dastlabki hajm massasi g/sm³ (2024 y)

	Tuproq nomi	Kesma chuqurligi	Hajm og‘irli, g/sm ³
1	K-1	0-30 30-50	1, 316 1,406

2	K-2	0-30 30-50	1,318 1,416
3	K-3	0-30 30-50	1,323 1,413
4	K-4	0-30 30-50	1,319 1,408
5	K-5	0-30 30-50	1,320 1,411

Tajriba dalasida o‘tkazilgan tahlillar natijasida tuproqning hajm massasi ko‘rsatkichlari qatlamlar bo‘yicha farqlanishi kuzatildi. Yuqori qatlamda hajm massasi nisbatan pastroq bo‘lib, bu qatlamda organik moddaning ko‘proq to‘planganligi va agrotexnik ishlovlarning ta’siri bilan izohlanadi. Pastki qatlamda esa hajm massasining ortib borishi kuzatildi, bu esa tuproqning zichlashganligini va g‘ovaklikning kamayganligini ko‘rsatadi.

Tuproqning hajm massasi ortib borishi natijasida uning umumiy g‘ovakligi kamayadi, bu esa suvning tuproqqa singish tezligini pasaytiradi hamda aeratsiya jarayonlarini cheklaydi. Bunday sharoitda o‘simlik ildiz tizimining rivojlanishi qiyinlashadi va oziqa elementlarining o‘zlashtirilishi susayadi. Shu sababli hajm massasi yuqori bo‘lgan tuproqlarda agrotexnik tadbirlar orqali ularni yumshatish va strukturani yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

Olib borayotgan ilmiy ishimizning uchinchi yili hajm massasini aniqlash maqsadida tajriba dalasida kanvert usulida dalaning beshta joyidan analiz uchun namuna olindi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tuproqning hajm massasini o‘zgarishi, g/sm³ (2026 y)

	Tuproq nomi	Kesma chuqurligi	Hajm og‘irli, g/sm ³
1	K-1	0-30 30-50	1, 248 1,338
2	K-2	0-30 30-50	1,255 1,345
3	K-3	0-30 30-50	1,260 1,350
4	K-4	0-30 30-50	1,245 1,335
5	K-5	0-30 30-50	1,252 1,342

Tajriba dalasi tuproqlarining uchinchi yil bahorgi hajm massasi ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, tuproq qatlamlari bo‘yicha ma’lum darajada farqlanish kuzatildi. 0–30 sm qatlamda hajm massasi 1,248–1,260 g/sm³ oralig‘ida bo‘lib, 30–50 sm qatlamda esa ushbu ko‘rsatkich 1,338–1,345 g/sm³ oralig‘ida bo‘ldi.

Tajriba dalasida tuproqning hajm massasi 2024 va 2026 yillar bahorgi ko‘rsatkichlari asosida solishtirilib tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, asosiy ekin sifatida soya

yetishtirilib, takroriy ekin sifatida tariqni ko‘k massa holida tuproqqa qaytarish tuproqning fizik xossalriga, xususan hajm massasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

2024 yil bahorida tuproqning **0–30 sm qatlamida** hajm massasi 1,316–1,323 g/sm³ oralig‘ida bo‘lgan bo‘lsa, 2026 yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,245–1,260 g/sm³ gacha kamayganligi kuzatildi. Demak, yuqori qatlamda hajm massasi o‘rtacha **0,06–0,07 g/sm³ ga kamaygan**.

Xuddi shuningdek, **30–50 sm qatlamda** 2024 yilda hajm massasi 1,406–1,416 g/sm³ ni tashkil etgan bo‘lsa, 2026 yilda bu ko‘rsatkich 1,335–1,350 g/sm³ gacha pasaygan. Bu esa quyi qatlamda ham hajm massasi **taxminan 0,06–0,08 g/sm³ ga kamayganligini** ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, asosiy ekin sifatida soya yetishtirish hamda takroriy ekin sifatida tariqni ko‘k massa holida tuproqqa qaytarish tuproqning fizik xossalriga, xususan hajm massasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. 2024–2026 yillar davomida olib borilgan kuzatuvlar asosida tuproqning har ikki qatlamida hajm massasining sezilarli darajada kamayganligi aniqlandi.

Xususan, 0–30 sm qatlamda hajm massasi o‘rtacha 0,06–0,07 g/sm³ ga, 30–50 sm qatlamda esa 0,06–0,08 g/sm³ ga kamayganligi kuzatildi. Bu esa tuproqning zichlanish darajasi pasayib, uning g‘ovakligi ortganligini ko‘rsatadi. Natijada tuproqning suv o‘tkazuvchanligi, nam sig‘imi va havo almashinuvi yaxshilangan.

Soya ekinining ildiz tizimi orqali tuproqda biologik jarayonlar faollashib, ayniqsa tuganak bakteriyalar ishtirokida biologik azot fiksatsiyasi sodir bo‘ladi. Bu jarayon tuproqning oziq moddalarga boyishini ta’minlabgina qolmay, balki uning strukturaviy holatini ham yaxshilaydi. Natijada tuproq zarrachalari orasidagi bog‘lanish mustahkamlanib, agregatlarning barqarorligi ortadi.

Takroriy ekin sifatida tariqni ko‘k massa holida tuproqqa qaytarish esa tuproqni qo‘shimcha organik modda bilan boyitadi. Ko‘k massa chirishi natijasida gumus hosil bo‘lib, bu o‘z navbatida tuproqning agregat holatini yaxshilaydi, kapillyar va nokapillyar g‘ovaklar nisbatini optimallashtiradi hamda hajm massasining kamayishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tuproq hajm massasining kamayishi o‘simlik ildizlarining chuqurroq qatlamlarga kirib borishini osonlashtiradi, oziq moddalarning o‘zlashtirilishini yaxshilaydi va umumiy agroekologik holatni barqarorlashtiradi. Bu esa kelgusida yuqori va sifatli hosil olish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xalikov B., Bo‘riev Ya., Bo‘riev T. Almashlab ekish dalalarida tuproqning agrofizik xossalari // Paxtachilikdagi dolzarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma’ruzalari asosidagi maqolalar to‘plami. -Toshkent, 2009. -B. 141-142.
2. Haydarov K., Mo‘minov K. Eroziyaga uchragan tipik bo‘z tuproqlarda kuzgi-qishki oraliq ekinlardan foydalanish // Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishda yosh olimlarning erishgan yutuqlari va muammolar. Stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchi va yosh olimlarning ilmiy- amaliy konferensiyasi. Samarqand, 2011. -B. 13-15.
3. Haydarov K.F., Mo‘minov K.M. G‘o‘za hosildorligiga irrigatsiya eroziyasiga uchragan erlarda sideratlar va sug‘orish texnikasi elementlarining ta’siri // Qishloq xo‘jaligi resur tejamkor texnologiyalarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish. Respublika ilmiy-amaliy konf. ma’ruzalar to‘plami. 1-qism. - Samarqand, 2014. - B. 24-27.
4. Oripov R., Sanaqulov A. Sideratlarning tuproq xossalari, ho‘za hosildorligiga ta’siri va ular orasidagi bog‘liqlik // Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi ustuvor yo‘nalishlar va ularning echimlari. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy-amaliy konferensiyasi. Samarqand, 2011. -B. 45-48.
5. Tojiev M., Tojiev K., Mamaraimov T. Takroriy va siderat ekinlarning tuproqni agrofizik xossalriga ta’siri // Qishloq xo‘jaligida yangi tejamkor agrotexnologiyalarni joriy etish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruzalari to‘plami. - Toshkent, 2011. -B. 94-95.

**Rahmonova Gulchehra Zokirjon qizi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti bosh mutaxassisi**

Abstract: This paper explores the modern challenges in physics education, emphasizing the integration of international research findings and innovative teaching practices. It examines how contemporary pedagogical approaches can enhance student engagement, conceptual understanding, and practical skills in physics. The study highlights successful strategies adopted worldwide, including active learning, technology integration, and inquiry-based methods, and discusses their applicability in diverse educational contexts. By bridging theory and practice, this work aims to provide educators with insights and actionable approaches to improve the quality and effectiveness of physics teaching.

Keywords: Physics education, innovative teaching, international research, active learning, STEM pedagogy, inquiry-based learning, pedagogical strategies.

Abstract: The paper investigates the propagation characteristics of harmonic waves in a cylindrical shell filled with a two-layer viscous-elastic material. Using the Donnell-Mushtari-Vlasov shell theory and the Kelvin-Voigt viscoelastic model for the two filler layers, the dispersion relations, phase velocities and attenuation coefficients are derived analytically and solved numerically. The influence of the viscosity and elasticity moduli of each layer on wave damping and propagation speed is analyzed in a wide frequency range. The results show that the two-layer filler significantly increases wave attenuation compared to a single-layer or empty shell, which is of great importance for vibration control, structural health monitoring and noise reduction in aerospace, pipeline and machine-building structures. Numerical simulations confirm good agreement with known experimental data.

Keywords: harmonic waves, cylindrical shell, two-layer viscoelastic filler, wave propagation, dispersion relations, attenuation coefficient, Kelvin-Voigt model, vibration damping.

Kirish Zamonaviy texnika va muhandislikda silindrik qobiqlar aviatsiya, raketasozi, neft-gaz quvurlari, mashinasozlik va qurilishda asosiy konstruksiya elementlaridan biri hisoblanadi. Garmonik to‘lqinlarning tarqalishi strukturaning dinamik mustahkamligi, vibratsiya darajasi va charchoq muddatiga bevosita ta’sir qiladi. Ichki bo‘shliqni ikki qatlamli qovushqoq-elastik material (to‘ldiruvchi) bilan to‘ldirish to‘lqinlarning attenuatsiyasini (so‘nishini) keskin oshirishi va keraksiz tebranishlarni pasaytirishi mumkin. Ushbu maqolada ikki qatlamli qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili silindrik qobiqda garmonik to‘lqinlar tarqalishining nazariy va amaliy xususiyatlari o‘rganiladi.[1]

Adabiyotlar tahlili Silindrik qobiqlarda to‘lqin tarqalishi bo‘yicha klassik tadqiqotlar A.W. Leissa (1973), V.I. Gulyaev va boshqalar tomonidan olib borilgan. Ko‘p qatlamli va viskoelastik muhitlarda to‘lqinlar o‘rganilishi T. Naciri (1990), J.N. Barshinger (2004) va I.I. Safarov (2016, 2025) ishlarida aks etgan. Ikki qatlamli to‘ldiruvchili qobiqlar bo‘yicha tadqiqotlar kam bo‘lib, asosan bitta qatlamli yoki suyuqlik to‘ldirilgan holatlar o‘rganilgan. Ushbu ishda ikki qatlamli viskoelastik to‘ldiruvchining o‘ziga xos ta’siri birinchi marta kompleks tahlil qilinmoqda.[3]

Tadqiqot metodikasi Silindrik qobiqning harakat tenglamalari Donnell-Mushtari-Vlasov nazariyasiga asoslanadi. Ichki to‘ldiruvchi ikki qatlamdan iborat: 1-qatlam (ichki) va 2-qatlam (tashqi), har biri Kelvin-Voigt viskoelastik modeliga bo‘ysunadi.[4]

Materialning konstitutsiyaviy tenglamasi:

$$\sigma_{ij} = \lambda \varepsilon_{kk} \delta_{ij} + 2\mu \varepsilon_{ij} + \eta \frac{\partial \varepsilon_{ij}}{\partial t}$$

bu yerda λ, μ , – Lamé koeffitsientlari, η – viskozlik koeffitsienti.

Garmonik to‘lqin shaklida yechim qabul qilinadi:

$$w(r, \theta, z, t) = W(r)e^{i(kz - \omega t)}$$

Bu yerda k – to‘lqin soni, ω – chastota.

Chegaraviy shartlar qobiq va to‘ldiruvchi qatlamlar orasidagi uzluksizlikni, shuningdek, ichki va tashqi yuzalardagi bosim va siljish shartlarini hisobga oladi. Natijada dispersiya tenglamasi olingan bo‘lib, u transsendental tenglama shaklida bo‘ladi va numerik yechiladi (MATLAB yoki Python SciPy kutubxonasi yordamida).

Natijalar va muhokama Hisoblar natijasida quyidagilar aniqlandi:

- Ikki qatlamli to‘ldiruvchining viskozligi to‘lqin attenuatsiyasini 3,5–6,8 baravar oshiradi (bitta qatlamli holatga nisbatan).
- 1-qatlam viskozligining oshishi past chastotalarda (0–500 Hz), 2-qatlam viskozligining oshishi esa yuqori chastotalarda (500–2000 Hz) kuchli ta’sir ko‘rsatadi.
- Fazaviy tezlik dispersiyasi to‘ldiruvchi qatlamlar moduli o‘zgarganda 15–28 % ga pasayadi.
- Mod shakllari tahlili shuni ko‘rsatdiki, asosiy o‘qsimon modda (axisymmetric mode) eng kuchli attenuatsiyaga uchraydi.[5]

Natijalar ANSYS dasturida chekli elementlar usuli bilan solishtirilganda xatolik 2,4 % dan oshmadi. Bu natijalar quvur liniyalari, samolyot korpuslari va tebranishni pasaytirish tizimlarini loyihalashda amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa Ikki qatlamli qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili silindrik qobiqda garmonik to‘lqinlar tarqalishi dispersiya va attenuatsiya parametrlarini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Taklif etilgan matematik model va numerik yondashuv muhandislik konstruksiyalarining tebranish xavfsizligini bashorat qilish va optimallashtirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Kelgusida eksperimental tekshiruvlar va uch qatlamli to‘ldiruvchilar uchun modelni kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Adabiyotlar

1. Safarov I.I., Teshayev M.Kh., Boltayev Z.I. Diffraction of harmonic viscoelastic waves in multilayered cylindrical structures // Innworld. 2025. № 467.
2. Gulyaev V.I., Bazhenov V.A., Lizunov P.P. Propagation of harmonic waves in a cylindrical shell (Timoshenko model). 2003.
3. Zhou Y. et al. Wave Propagation in the Viscoelastic Functionally Graded Cylindrical Shell // Materials. 2023. Vol. 16.
4. Levitsky S.P. Wave propagation in a cylindrical viscous layer between two thin coaxial shells // Int. J. Eng. Sci. 2004.
5. Usmanov B.Sh. On the propagation of intrinsic viscoelastic waves in cylindrical shells // IOP Conf. Ser.: J. Phys. 2022.

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY

KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA

MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA DASTURIY VOSITALARNING O‘RNI

N.X.Islamova

**Termiz davlat muhandislik va
agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi**

Muallif: Islamova Nihola Xurram qizi

Lavozimi: O‘qituvchisi

Tashkilot: Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

E-mail: _imona2023@gmail.com

Annotatsiya : Mazkur maqolada matematika va texnika fanlarining zamonaviy rivojlanish bosqichidagi nazariy hamda amaliy muammolari keng tahlil qilinadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) sharoitida matematik modellashtirish, optimallashtirish va algoritmik yondashuvlarning ahamiyati ortib borayotgani asoslab beriladi. Shuningdek, muhandislik ta’limida zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish orqali bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Fanlararo integratsiya va innovatsion yondashuvlar ilmiy hamda amaliy muammolarni samarali hal etishda muhim omil ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Keywords matematika, texnika, modellashtirish, sun‘iy intellekt, Big Data, muhandislik, algoritmlar

Abstract : This article analyzes the modern theoretical and practical problems of mathematics and engineering sciences at the current stage of development. In particular, the growing importance of mathematical modeling, optimization, and algorithmic approaches is substantiated in the context of digital technologies, artificial intelligence, and Big Data. Furthermore, the issues of developing professional competencies of future engineers through the use of modern software tools in engineering education are discussed. Interdisciplinary integration and innovative approaches are considered as key factors in effectively solving both scientific and practical problems.

Keywords: mathematics, engineering, modeling, artificial intelligence, Big Data, engineering education, algorithms

Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish davrida matematika va texnika fanlari jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi. Ushbu fanlar nafaqat nazariy bilimlar tizimini shakllantiradi, balki real hayotdagi murakkab muammolarni hal etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Texnologik taraqqiyot sur‘atlarining ortib borishi matematik usullar va texnik yechimlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda[1].

Zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida matematika va texnika fanlari o‘rtasidagi integratsiya tobora chuqurlashib bormoqda. Bu esa yangi ilmiy yo‘nalishlar va muammolarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur maqolada aynan shu muammolar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Matematika fanining zamonaviy nazariy muammolari quyidagilar

Matematika fanida bugungi kunda hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator murakkab nazariy muammolar mavjud. Ular quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, murakkab tizimlarni modellashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Iqtisodiy, texnik va biologik tizimlar ko‘p o‘zgaruvchili va nolinear xarakterga ega bo‘lib, ularni matematik jihatdan ifodalash murakkab hisoblanadi.

Ikkinchidan, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq muammolar mavjud. Big Data texnologiyalari rivojlanishi bilan matematik statistika va ehtimollar nazariyasining yangi metodlariga ehtiyoj ortmoqda[2].

Uchinchidan, optimallashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘plab texnik va iqtisodiy jarayonlarda optimal yechimni topish katta hisoblash resurslarini talab qiladi. Shu sababli tezkor va samarali algoritmlar ishlab chiqish zarur. Shuningdek, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish tizimlari uchun matematik asoslarni takomillashtirish ham zamonaviy matematikaning dolzarb muammolaridan biridir.

Texnika fanlarining zamonaviy amaliy muammolari quyidagilar texnika fanlari amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, ularning asosiy vazifasi nazariy bilimlarni real tizimlarda qo‘llashdan iborat. Bugungi kunda texnika fanlarida quyidagi muammolar alohida ahamiyatga ega:

Birinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy sanoatda robotlashtirish va aqlli tizimlarni joriy etish kengaymoqda, biroq bu jarayon murakkab texnik va matematik muammolarni keltirib chiqaradi[3].

Ikkinchidan, energiya samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biridir. Energiya resurslaridan oqilona foydalanish uchun matematik modellar va optimallashtirish usullaridan keng foydalaniladi.

Uchinchidan, ekologik muammolarni kamaytirish texnika fanlari oldidagi muhim vazifadir. Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish matematik hisob-kitoblar asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, texnik tizimlarda yuzaga keladigan noaniqliklar va xatoliklarni kamaytirish ham muhim muammolardan biri hisoblanadi[4].

Matematika va texnika fanlari integratsiyasi zamonaviy ilm-fan rivojida matematika va texnika fanlarining integratsiyasi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu integratsiya quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lad kompyuter modellashtirish, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish, signal va tasvirlarni qayta ishlash, raqamli texnologiyalar va simulyatsiya tizimlari. Masalan, sun’iy intellekt tizimlari matematik algoritmlar asosida ishlaydi. Neyron tarmoqlar, regressiya modellari va optimallashtirish usullari matematikaning texnika bilan uyg‘unlashgan shaklidir.

Shuningdek, texnik qurilmalarni loyihalashda matematik modellashtirish asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Bu esa murakkab jarayonlarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

Muhandislik ta’limida dolzarb muammolar

Bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayonida bir qator muammolar mavjud. Jumladan nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi nomutanosiblik, zamonaviy dasturiy vositalardan yetarli foydalanilmasligi, innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy

etishning sustligi. Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi choralarni ko‘rish zarur, zamonaviy dasturiy vositalarni (MATLAB, Python va boshqalar) o‘quv jarayoniga joriy etish, loyiha asosida o‘qitish metodlarini qo‘llash; virtual laboratoriyalarni tashkil etish. Bu esa talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi[2].

Xulosa Matematika va texnika fanlari zamonaviy jamiyat rivojida muhim rol o‘ynaydi. Ularning o‘zaro integratsiyasi yangi ilmiy yo‘nalishlar va texnologiyalarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, nazariy va amaliy muammolarni hal etish uchun innovatsion yondashuvlar, zamonaviy algoritmlar va dasturiy vositalardan foydalanish zarur.

Kelajakda ushbu fanlarning rivoji sun‘iy intellekt, raqamli texnologiyalar va katta ma’lumotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi[5].

Adabiyotlar

1. Gilbert Strang. *Introduction to Linear Algebra*. MIT Press, 2016.
2. Press W. *Numerical Recipes*. Cambridge University Press, 2007.
3. MIT OpenCourseWare. <https://ocw.mit.edu>
4. Goodfellow I. *Deep Learning*. <https://www.deeplearningbook.org>
5. Atkinson K. *Numerical Analysis*. Wiley, 2008.

TA’LIMiy QADRIYATLAR VA MADANIY MEROSNI O’RGANISHNING INTEGRATIV PSIXOLOGIK MODEL

**N.N.Shomurotova-University of business and science universiteti
professori, psixologiya fanlari nomzodi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’limiy qadriyatlar va madaniy merosni o‘rganish jarayonining psixologik asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Global axborot almashinuvi, madaniy ta’sirlarning kuchayishi va ta’lim paradigmasining insonparvarlashuvi sharoitida shaxsning qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirish, tarixiy xotirani mustahkamlash hamda madaniy identifikatsiyani rivojlantirish dolzarb pedagogik-psixologik muammoga aylanmoqda. Maqolada ta’limiy qadriyatlarning mohiyati, ularning shaxs ongida interiorizatsiyalanish mexanizmlari, madaniy merosning ijtimoiy ong va individual kamolotdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Ta’limiy qadriyatlar, madaniy meros, psixologik yondashuv, kognitiv rivojlanish, sotsiokultural ta’lim, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, madaniy identifikatsiya, aksiologik yondashuv, interiorizatsiya, motivatsiya, refleksiya.

Zamonaviy ta’lim tizimida bilim berish funksiyasi endilikda yakka holda yetarli deb qaralmaydi. Ta’limning samaradorligi nafaqat o‘quvchi muayyan ma’lumotni qay darajada o‘zlashtirgani, balki u mazkur bilimni qanday qadriy asosda talqin qilishi, ijtimoiy muhitda qanday namoyon etishi va madaniy tajriba bilan qanday bog‘lay olishi bilan ham belgilanadi. Shu ma’noda ta’limiy qadriyatlar va madaniy merosni o‘rganish masalasi pedagogika, psixologiya, aksiologiya va madaniyatshunoslik tutashgan nuqtada shakllanayotgan muhim ilmiy yo‘nalishdir.

Ta’limiy qadriyatlar deganda ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va intellektual yo‘nalishini belgilovchi me’yorlar, ideal va ustuvorliklar tizimi tushuniladi. Bular orasida insonparvarlik, tarixiy ong, milliy o‘zlik, ijtimoiy mas’uliyat, estetik sezgirlik, bilishga intilish va madaniy hurmat alohida ahamiyatga ega. Madaniy meros esa jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan moddiy va nomoddiy boyliklari, ramzlari, urf-odatlar, san’ati, tili, xotirasi va qadriy tajribasini o‘zida mujassam etadi. Ta’lim jarayonida madaniy merosni

o‘rganish shaxsning o‘z tarixiy ildizlarini anglashiga, ijtimoiy-madaniy identifikatsiyasini mustahkamlashga, turli madaniy kontekstlarga nisbatan ongli va hurmatli munosabat shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq madaniy merosni o‘qitish faqat tarixiy faktlar yoki estetik namunalarni yetkazish bilangina cheklanib qolsa, uning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi salohiyati to‘liq ochilmaydi. Shu bois mazkur jarayonni psixologik nuqtai nazardan izohlash muhimdir. Qadriyatning qabul qilinishi, mazmunning anglanishi, tarixiy obrazlarning emotsional idrok etilishi, ijtimoiy tajribaning o‘zlashtirilishi va o‘quvchi shaxsida mustahkam e‘tiqodga aylanishi murakkab psixik mexanizmlar bilan bog‘liq.

Ta’limiy qadriyatlar va madaniy merosni o‘rganish bo‘yicha ilmiy manbalar bir necha yo‘nalishda shakllangan. Birinchi yo‘nalish aksiologik yondashuv doirasida qadriyatlarni ta’lim mazmunining markaziy komponenti sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvda ta’lim jarayoni shaxsning baholash mezonlari, ma’naviy orientatsiyasi va hayotiy pozitsiyasini shakllantirish vositasi sifatida ko‘riladi. Qadriyatlar shaxsning tashqi ijtimoiy me‘yorlarni ichki ishonchga aylantirish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi yo‘nalish psixologik rivojlanish nazariyalari bilan bog‘liq. Piagetning [4] kognitiv rivojlanish haqidagi qarashlari bolalarning ma’naviy va madaniy mazmunni yoshga xos bilish strukturalari orqali o‘zlashtirishini tushuntirishda muhimdir. Uning fikricha, bola tashqi ma’lumotni passiv qabul qilmaydi, balki uni mavjud sxemalari asosida assimilyatsiya va akkomodatsiya qiladi. Demak, madaniy merosga oid bilimlar ham shaxsning kognitiv tayyorgarligi va tajriba tuzilmasiga mos ravishda o‘zlashtiriladi.

Vygotskiyning [7] sotsiokultural nazariyasi esa madaniy mazmunni o‘rganishning ijtimoiy tabiatini asoslaydi. Unga ko‘ra, har qanday oliy psixik funktsiya avval ijtimoiy maydonda, keyin individual ongda shakllanadi. Bu qarash madaniy merosni o‘rganishda til, muloqot, hamkorlik, ramziy vositalar va kattalar yo‘llanmasining hal qiluvchi ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Faoliyat nazariyasi vakillari Leontyev va Rubinshteyn [6] inson ongining faoliyatda shakllanishini asoslab, qadriyatlarning real amaliy harakat, maqsad, motiv va ijtimoiy vazifalar bilan bog‘liq holda o‘zlashtirilishini ko‘rsatganlar. Bu nuqtai nazar madaniy merosni o‘qitishda faqat tinglash va yodlash emas, balki ishtirok etish, tahlil qilish, taqqoslash, amaliy rekonstruksiya qilish kabi usullar zarurligini ko‘rsatadi.

Maslow [3] va Rogersning insonparvar psixologiyasi esa qadriyatlarning shakllanishini shaxsning o‘zini ro‘yobga chiqarishi, ichki erkinligi va ma’noli hayotga intilishi bilan bog‘laydi. Ular nuqtai nazarida ta’lim faqat tashqi nazorat tizimi emas, balki shaxsning ichki salohiyatini ochib beruvchi rivojlantiruvchi muhitdir. Shu bois madaniy merosni o‘rganish o‘quvchining shaxsiy tajribasi, qiziqishi va emotsional ehtiyojlari bilan uyg‘unlashgandagina samarali bo‘ladi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’limiy qadriyatlar va madaniy meros masalasi ko‘p o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni yagona integrativ psixologik model asosida ko‘rib chiqish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, qadriyatlarning interiorizatsiyasi, madaniy identifikatsiyaning shakllanishi va tarixiy xotiraning pedagogik-psixologik mexanizmlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilish dolzarbdir.

Ta’limiy qadriyatlar ta’limning insoniy maqsadini ifodalaydi. Ular shaxs xulq-atvorini, bilish faoliyatini va ijtimoiy munosabatini yo‘naltiruvchi ichki mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologik nuqtai nazardan qadriyat tashqi me‘orning ichki ehtiyoj va e‘tiqodga aylanishi natijasidir. Shuning uchun qadriyatni o‘rgatish bilan qadriyatni shakllantirish ayni jarayon emas. O‘rgatish axborotni uzatadi, shakllantirish esa ichki qabul, ma’no berish va mustahkamlashni talab etadi.

Qadriyatlarning psixologik mazmuni uch qatlamda ko‘rinadi. Birinchi qatlam kognitiv bo‘lib, bunda o‘quvchi muayyan qadriyatning mazmuni, kelib chiqishi va ijtimoiy ahamiyatini anglaydi. Ikkinchi qatlam emotsional-baholovchi bo‘lib, bunda qadriyatga nisbatan munosabat, hurmat, qiziqish yoki daxldorlik hissi shakllanadi. Uchinchi qatlam xulqiy-amaliy bo‘lib, bunda qadriyat kundalik xatti-harakat, tanlov va mas’uliyatli pozitsiyada namoyon bo‘ladi.

Piaget nuqtai nazaridan qaralganda, qadriyatlar yoshga xos tafakkur strukturalariga mos ravishda anglanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchi ko‘proq aniq obrazlar va misollar orqali qadriyatni qabul

qilsa, yuqori sinf o‘quvchisi mavhum tushunchalarni tahlil qilish, qiyoslash va tanqidiy baholashga qodir bo‘ladi. Demak, ta’limiy qadriyatlarni shakllantirishda yosh psixologiyasi bilan uyg‘un metodlar tanlash zarur.

Maslowning [3] ehtiyojlar ierarxiyasi nuqtai nazaridan esa qadriyatlar shaxsning yuqori darajadagi ehtiyojlari bilan bog‘lanadi. O‘zini anglash, hurmatga sazovor bo‘lish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish ehtiyojlari rivojlangan sari shaxs ma’naviy va madaniy qadriyatlarni chuqurroq o‘zlashtira boshlaydi. Rogers esa ta’lim muhitining qabul qiluvchi, empatik va rivojlantiruvchi bo‘lishi qadriy shakllanishning asosiy sharti ekanini ko‘rsatadi. Bunday muhitda o‘quvchi qadriyatlarni qo‘rqituvchi yoki formal talab bilan emas, ichki ishonch bilan qabul qiladi.

Madaniy meros jamiyatning tarixiy tajribasini saqlovchi va avloddan avlodga uzatuvchi ramziy mexanizmdir. U moddiy obidalar, yozma manbalar, san’at namunalari, til, urf-odat, marosim, xalq og‘zaki ijodi, hunarmandchilik an’analari va ma’naviy ideallarda mujassam bo‘ladi. Shaxs madaniy meros bilan tanishar ekan, u nafaqat tarixiy ma’lumot oladi, balki “men kimman?”, “men qaysi an’ana davomchisiman?”, “jamiyatim qaysi ma’nolar asosida yashaydi?” kabi identifikatsion savollarga javob topa boshlaydi.

Tarixiy xotira individual eslab qolishdan farqli ravishda jamiyatning o‘z o‘tmishini anglash va ma’nolantirish usulidir. O‘quvchi tarixiy xotira bilan tanishgan sari o‘zligini vaqt va makon ichida ko‘ra boshlaydi. Bu esa ijtimoiy ongning shakllanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy ong shaxsning jamiyat qadriyatlari, umumiy manfaatlar va tarixiy mas’uliyatga nisbatan ongli munosabatidir. Madaniy meros shu ongning mazmuniy asosini yaratadi.

Vygotskiy [7] ta’kidlaganidek, madaniyat inson psixikasining tashqi sharoiti emas, balki uning ichki qurilishida ishtirok etuvchi vositadir. Demak, madaniy meros bilan ishlash o‘quvchi tafakkurining rivojlanishiga, ramziy idrokiga, til boyligiga, tarixiy tasavvuriga va emotsional sezgirligiga bevosita ta’sir qiladi.

Madaniy merosning shaxs kamolotidagi o‘rni uning faqat konservativ emas, balki ijodiy tabiatida ham ko‘rinadi. Merosni o‘rganish shaxsni o‘tmishga qaytarib qo‘ymaydi; aksincha, u hozirgi zamon muammolariga tarixiy ong bilan qarash, qadriyatlarni zamonaviy kontekstda qayta talqin qilish imkonini beradi. Shunday ekan, madaniy merosni ta’limda o‘rganish ijtimoiy moslashuv va innovatsion fikrlashga zid emas, balki ularning ma’naviy zaminini mustahkamlaydi.

Kognitiv yondashuv madaniy meros va qadriyatlarni o‘zlashtirishni bilish jarayonlari bilan bog‘laydi. Bu yondashuvda idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur va konseptual tushunish markaziy o‘rinda turadi. O‘quvchi tarixiy va madaniy mazmunni to‘g‘ri anglash uchun ularni tasniflaydi, qiyoslaydi, sabab-oqibat aloqalarini aniqlaydi va umumlashtiradi.

Sotsiokultural yondashuv madaniy o‘zlashtirishni ijtimoiy hamkorlik va til vositasida tushuntiradi. Vygotskiyga ko‘ra, o‘quvchi madaniy ma’nolarni boshqalar bilan muloqotda, o‘qituvchi va tengdoshlar ko‘magida o‘zlashtiradi. “Yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi madaniy merosni o‘qitishda ayniqsa muhim: o‘quvchi mustaqil anglay olmaydigan ma’noni yo‘naltirilgan suhbat, savol-javob, birgalikdagi tahlil orqali o‘zlashtiradi. Bu yondashuv madaniy identifikatsiya va jamoaviy xotira shakllanishining psixologik asosini ochadi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda qadriyat faol harakat jarayonida shakllanadi. Leontyev ta’kidlaganidek, ong faoliyatda vujudga keladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa o‘quvchining individual ma’no hosil qilish jarayoniga e’tibor qaratadi. Rogers va Maslowning insonparvar g‘oyalari asosida ta’lim o‘quvchining ichki dunyosi, ehtiyojlari, qiziqishlari va o‘zini anglash jarayoniga tayangan holda qurilishi kerak. Madaniy meros o‘quvchi uchun tashqi talab emas, shaxsiy kashfiyot va ma’naviy o‘sish manbai bo‘lib qolishi lozim.

Aksiologik yondashuv esa barcha yondashuvlarni qadriyat markaziga birlashtiradi. Bu yondashuvda savol “nima bilish kerak?” bilan tugamaydi; “nega bu muhim?”, “bu shaxs va jamiyat hayotiga qanday ma’no olib kiradi?” degan savollar asosiy o‘ringa chiqadi. Aksiologik yondashuv madaniy merosni bilish obyektidan hayotiy mezonga aylantiradi.

Milliy o‘zlik va madaniy identifikatsiya shaxsning ma’lum tarixiy-madaniy jamiyatga daxldorligini anglashidir. Bu tuyg‘u buyruq yoki shior orqali emas, balki psixologik jihatdan izchil

tashkil etilgan ta’limiy tajriba orqali shakllanadi. Mazkur jarayonning birinchi mexanizmi **identifikatsiyadir**. O‘quvchi tarixiy qahramonlar, mutafakkirlar, san’atkorlar, xalq obrazlari bilan tanishar ekan, ulardagi fazilatlar bilan o‘zini qiyoslaydi va muayyan ideallarni ichki namuna sifatida qabul qiladi. Ikkinchi mexanizm **interiorizatsiyadir**. Tashqi ijtimoiy ma’no asta-sekin shaxsning ichki e’tiqodiga aylanadi. Bunda o‘qituvchining sharhi, oilaviy muhit, tengdoshlar fikri va madaniy tajriba birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Uchinchi mexanizm **refleksiyadir**. O‘quvchi “bu meros menga nimani anglatadi?”, “uning bugungi hayotdagi ahamiyati nima?” kabi savollar ustida o‘ylaganda qadriyatlar shaxsiy mazmun kasb etadi. To‘rtinchi mexanizm **emotsional rezonansdir**. Madaniy merosga oid obrazlar, kuy-qo‘shiqlar, me’moriy obidalar, tarixiy hikoyalar va marosimlar kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatganda, qadriy munosabat barqarorroq shakllanadi. Faqat faktga asoslangan o‘qitishdan farqli ravishda, emotsional jihatdan boy tajriba xotirada chuqurroq saqlanadi. Beshinchi mexanizm esa **ijtimoiy tasdiqdir**. O‘quvchi o‘z qadriy munosabatining jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini ko‘rsa, bu munosabat yanada mustahkamlanadi. Shu bilan birga, milliy o‘zlikni shakllantirish tor millatchilik yoki boshqalarni inkor etishga aylanmasligi lozim. Sog‘lom madaniy identifikatsiya o‘z merosini hurmat qilish bilan birga boshqa madaniyatlarga nisbatan ochiqlik va muloqot madaniyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu nuqtada aksiologik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning uyg‘unligi zarur.

Madaniy merosni o‘rganish samaradorligi psixik jarayonlar va shaxsiy-ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siriga bog‘liq. Motivatsiya bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchidir. Agar o‘quvchi merosni “imtihon uchun material” sifatida qabul qilsa, o‘zlashtirish yuzaki bo‘ladi. Agar u mazkur bilimni o‘zligini anglash, oilaviy xotira, mahalliy tarix yoki jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘lasa, ichki motivatsiya shakllanadi. Refleksiya o‘quvchining o‘z munosabati va tajribasini anglashiga yordam beradi. Bu bosqich bo‘lmasa, qadriyat tashqi ma’lumot darajasida qoladi. Emotsional qabul qilish ayniqsa muhim omildir. Rubinshteynning fikricha [6], ong va kechinma o‘zaro bir butunlikda mavjud. O‘quvchi qalbiga ta’sir etmagan mazmun uzoq muddatli ma’naviy omilga aylanishi qiyin. Shu sababli tarixiy xotira va madaniy merosni o‘qitishda badiiy matn, vizual material, jonli hikoya, sahnalashtirish, ekskursiya va musiqiy tajribadan foydalanish samaralidir. Ijtimoiylashuv esa qadriyatlarni barqarorlashtiradi. Oila, mahalla, ta’lim muassasasi va media muhiti o‘quvchining madaniy qarashlariga ta’sir ko‘rsatadi. Agar ta’limda o‘rganilgan qadriyatlar kundalik ijtimoiy tajribada tasdiqlansa, ularning amaliy kuchi ortadi; aks holda kognitiv dissonans yuzaga kelishi mumkin.

Yuqoridagi yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’limiy qadriyatlar va madaniy merosni o‘rganish bitta psixologik model bilan cheklanmaydi. Kognitiv yondashuv mazmunni tushunishni, sotsiokultural yondashuv ma’no almashinuvini, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv amaliy o‘zlashtirishni, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv individual mazmun yaratishni, aksiologik yondashuv esa baholash va yo‘nalish berishni ta’minlaydi. Ularning har biri mustaqil holda muhim bo‘lsa-da, alohida qo‘llanganda ma’lum cheklovlarga ega.

Mazkur modelning ilmiy yangiligi shundaki, unda qadriyatlar shakllanishi faqat tarbiyaviy ta’sir natijasi sifatida emas, balki kognitiv-emotsional-refleksiv-integrativ jarayon sifatida talqin qilinadi. Bunda madaniy identifikatsiya tayyor ideologik konstruktsiya emas, balki ma’no hosil qilishning dinamik natijasi deb qaraladi. Bu yondashuv milliy o‘zlikni zamonaviy ochiqlik, tanqidiy tafakkur va madaniyatlararo hurmat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Ta’limiy qadriyatlar va madaniy merosni o‘rganish shaxs kamoloti, tarixiy xotira, ijtimoiy ong va madaniy identifikatsiya shakllanishining muhim psixologik-pedagogik omilidir [8]. Qadriyatlar shaxs ongiga tayyor shaklda ko‘chmaydi; ular anglash, emotsional qabul qilish, refleksiya, ijtimoiy tasdiq va amaliy faoliyat jarayonida interiorizatsiyalanadi. Shu sababli madaniy merosni o‘qitish jarayoni faktlarni yetkazish bilan cheklanmay, ma’no hosil qilish va shaxsiy pozitsiya shakllantirishga yo‘naltirilishi zarur.

Maqolada Piaget, Vygotskiy, Bruner, Leontyev, Rubinshteyn, Maslow va Rogers qarashlari ta’limiy qadriyatlar masalasini turli qirralardan izohlab berildi. Kognitiv yondashuv bilish strukturalarini, sotsiokultural yondashuv muloqot va vositachilikni, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv amaliy o‘zlashtirishni, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv individual ma’no va ichki

o‘rishni, aksiologik yondashuv esa baholash va ma’naviy yo‘nalishni asoslaydi. Ularni integratsiyalash ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Maqolaning ilmiy yangiligi sifatida madaniy merosni o‘rganishning integrativ psixologik modeli taklif qilindi. Ushbu modelga ko‘ra, samarali o‘qitish anglash, hissiy rezonans, ijtimoiy dialog, faol tajriba va interiorizatsiya birlikda tashkil etilgandagina natija beradi. Mazkur yondashuv nazariy jihatdan qadriyatlar shakllanishining ko‘p qatlamli tabiatini ochib beradi, amaliy jihatdan esa ta’lim mazmuni va metodlarini qayta ko‘rib chiqishga asos bo‘ladi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin: madaniy merosni fanlararo asosda o‘qitish; dialogik va loyiha metodlaridan keng foydalanish; refleksiv topshiriqlar tizimini yaratish; mahalliy madaniy kontekstga tayanish; multimodal va interaktiv vositalardan foydalanish; o‘qituvchilarning psixologik-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish. Shu asosda ta’lim jarayoni o‘quvchilarda milliy o‘zlik, qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotira va madaniy ochiqlikni uyg‘un ravishda shakllantiruvchi rivojlantiruvchi makonga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bruner, J. (1997). The culture of education. Harvard University Press.
2. Leontiev, A. N. (1978). Activity, consciousness, and personality. Prentice-Hall.
3. Maslow, A. H. (1987). Motivation and personality (3rd ed.; rev. by R. Frager et al.). Harper & Row.
4. Piaget, J., & Inhelder, B. (2000). The psychology of the child. Basic Books.
5. Rogers, C. R., & Freiberg, H. J. (1994). Freedom to learn (3rd ed.). Merrill.
6. Rubinshtein, S. L. (2024). Osnovy obshchey psikhologii. Piter.
7. Vygotsky, L.S. (2012). Thought and language (Rev. and expanded ed.). MIT Press.
8. Shomurotova N.N. Ta’lim sifatini takomillashtirish-yoshlarni o‘zlik qadriyatlarini shakllantiruvchi omil sifatida. Markaziy osiyo mamlakatlarida madaniy hayot va ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojining dolzarb muammolari”. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya – T.: Tafakkur, 2020. – 501-506 b.

MATEMATIKANI O‘RGANISHDA PSIXOLOGIK DETERMINANTLAR VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

**Samatova Muyassar Nabiyeвна
Termiz Davlat Muhandislik va
Agrotexnologiyalar Universiteti o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu tezis matematika ta’limida o‘quvchi psixologiyasini belgilovchi determinantlar va ularning o‘zlashtirish samaradorligiga ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqot maqsadi motivatsiya, matematika tashvishi, o‘zini o‘zi baholash, ishchi xotira va metakognitsiyaning o‘zaro bog‘liqligini asoslashdir. Metodologik asos sifatida kognitiv va ijtimoiy-kognitiv yondashuvlar integratsiyasi qo‘llanadi. Ilmiy yangilik determinantlar mexanizmini baholash ko‘rsatkichlari bilan bog‘lab talqin etishdadir.

Kalit so‘zlar. matematika ta’limi, matematika tashvishi, akademik motivatsiya, o‘zini o‘zi samaradorlik, ishchi xotira, metakognitsiya, ta’lim samaradorligi

Abstract. This thesis analyzes the determinants shaping students’ psychology in mathematics education and their impact on learning effectiveness. The aim of the study is to substantiate the interrelationship between motivation, mathematics anxiety, self-assessment, working memory, and metacognition. As a methodological foundation, the integration of cognitive and socio-cognitive approaches is employed. The scientific novelty lies in interpreting the mechanism of determinants through their association with assessment indicators.

Keywords: mathematics education, mathematics anxiety, academic motivation, self-efficacy, working memory, metacognition, learning effectiveness

Аннотация. В данной работе анализируются детерминанты, определяющие психологию учащихся в математическом образовании, и их влияние на эффективность усвоения знаний. Цель исследования заключается в обосновании взаимосвязи мотивации, математической тревожности, самооценки, рабочей памяти и метакогниции. В качестве методологической основы используется интеграция когнитивного и социально-когнитивного подходов. Научная новизна заключается в интерпретации механизма детерминант через их связь с показателями оценки.

Ключевые слова: математическое образование, математическая тревожность, академическая мотивация, самоэффективность, рабочая память, метакогниция, эффективность обучения.

Matematikani o‘rganish jarayoni ko‘pincha faqat mantiqiy amallar va mashqlar miqdori bilan izohlanadi, biroq real ta’lim amaliyotida natijadorlik o‘quvchining psixologik holati, o‘z imkoniyatlarini qanday talqin qilishi hamda o‘quv vaziyatini qanday boshqarishi bilan uzviy bog‘langan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, matematika fanida abstrakt tushunchalar, bosqichma-bosqich isbotlash va xatoga nisbatan sezgir baholash mexanizmlari kuchli bo‘lgani sababli affektiv omillar tez faollashadi va kognitiv resurslarni qayta taqsimlaydi. Shuning uchun psixologik determinantlarni aniqlash va ularning ta’lim samaradorligiga ta’sir mexanizmini tushuntirish matematika didaktikasini takomillashtirish, diagnostika va individual yordam strategiyalarini ilmiy asoslash uchun dolzarbdir. Tesisning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, motivatsion, affektiv va kognitiv determinantlar bir-birini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi aloqa zanjiri orqali o‘zlashtirishni belgilaydi; bu zanjirni faqat bir omil bilan izohlash metodik jihatdan yetarli emas.

Psixologik determinantlar ichida akademik motivatsiya matematik faoliyatning yo‘nalishini belgilovchi bazaviy omil bo‘lib, u maqsad qo‘yish, topshiriq tanlash, tirishqoqlik va xatodan keyingi qayta urinishga ta’sir qiladi. Motivatsiya mazmunan ichki qiziqish va tashqi rag‘batlardan tarkib topadi, biroq matematika o‘rganishda barqaror natija ko‘proq ma’noli ichki motivlar, ya’ni tushunishga intilish, muammoni yechishdan qoniqish, kompetensiyani oshirish ehtiyoji bilan bog‘lanadi. O‘quvchi matematikani “menda chiqmaydi” degan e’tiqod bilan qabul qilsa, hatto yuqori intellektual salohiyat mavjud bo‘lsa ham, murakkab vazifalardan qochish va minimal strategiyalarni tanlash ehtimoli ortadi. Banduraning o‘zini o‘zi samaradorlik konsepsiyasi nuqtai nazaridan, shaxsning “men bajara olaman” degan e’tiqodi nafaqat emotsional barqarorlikni, balki kognitiv strategiyalarni tanlashni ham boshqaradi [4]. Matematika ta’limida o‘zini o‘zi samaradorlik ko‘pincha oldingi muvaffaqiyat tajribasi, o‘qituvchining fikr-mulohazasi va sinfdagi ijtimoiy taqqoslashlar orqali shakllanadi; demak, o‘qitish metodikasi motivatsion determinantlarga bevosita aralashuvchi omil sifatida ko‘rilishi lozim.

Affektiv determinantlarning eng ko‘p o‘rganilgani matematika tashvishi bo‘lib, u topshiriqni bajarish yoki baholash vaziyatida yuzaga keladigan qo‘rquv, taranglik va o‘zini nazorat qilishning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Matematika tashvishi natijani ikki yo‘l bilan pasaytiradi: birinchidan, diqqatni vazifadan hissiy xavotirga ko‘chirib, ishchi xotira resurslarini band qiladi; ikkinchidan, qochish xulqini kuchaytirib, mashq va tajriba hajmini kamaytiradi. Ishchi xotira modeli nuqtai nazaridan, masalani yechishda oraliq natijalarni ushlab turish va ularni qayta ishlash zarur; tashvish esa shu resursni cheklab, oddiy xatolar ehtimolini oshiradi [6]. Bunday holatda o‘quvchi xatoni “qobiliyatsizlik isboti” sifatida talqin qilishi mumkin, bu esa o‘zini o‘zi baholashni pasaytiradi va keyingi vazifalarga kirishishdan avval ham salbiy kutilmalarni mustahkamlaydi. Shuning uchun tashvishni faqat emotsional muammo emas, balki kognitiv ishlov berish sifatini pasaytiruvchi determinant sifatida ko‘rish zarur.

Kognitiv determinantlar ichida metakognitsiya, ya’ni o‘z fikrlash jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash ko‘nikmalari matematika o‘zlashtirishning sifat ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘langan. Metakognitiv strategiyalar mavjud bo‘lmaganda o‘quvchi masalani yechishga shoshilinch kirishadi, ma’lumotni strukturaviy tahlil qilmaydi, xatoni aniqlash va tuzatishda sistematik usulga ega bo‘lmaydi. Flavell asoslagan metakognitiv yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi o‘zining bilish chegaralarini anglagan sari to‘g‘ri strategiya tanlash imkoniyati ortadi [5].

Matematika fanida bu, masalan, masala shartini qayta ifodalash, chizma yoki jadvalga o‘tkazish, yechim yo‘lini taxminiy rejalashtirish, tekshiruv amallarini qo‘llash kabi harakatlarda namoyon bo‘ladi. Metakognitsiya motivatsiya bilan ham bog‘liq: o‘zini boshqarish ko‘nikmasi kuchli o‘quvchi qiyin vazifada ham jarayonni nazorat qila olgani uchun tashvish kamroq kuchayadi va muvaffaqiyat ehtimoli ortadi. Shu nuqtai nazardan, determinantlar o‘rtasida vositachilik aloqalari mavjud: masalan, motivatsiya metakognitiv faollikni oshiradi, metakognitsiya esa tashvishning salbiy ta’sirini qisman kompensatsiya qiladi.

Ta’lim samaradorligini psixologik determinantlar bilan bog‘lashda “samaradorlik” tushunchasi faqat yakuniy baho emas, balki kompetensiyaning barqarorligi, transfer qobiliyati va mustaqil fikrlash darajasi bilan o‘lchanishi lozim. PISA kabi baholash yondashuvlarida matematik savodxonlik real vaziyatlarda matematik model tuzish va qaror qabul qilishga yo‘naltiriladi; bu esa chuqur tushunish va strategik fikrlashni talab qiladi [7]. Demak, determinantlarni tahlil qilishda reproduktiv ko‘nikmalar bilan bir qatorda konstruktiv va refleksiv faoliyat ko‘rsatkichlari ham e’tiborga olinishi kerak. O‘zbek ta’lim amaliyotida tez-tez uchraydigan muammo shundaki, baholashning yuqori ulushi nazorat ishlaridagi yakuniy javobga qaratilib, jarayoniy fikrlash, izoh va dalillash madaniyati kamroq rag‘batlantiriladi; bu holat tashvishni kuchaytirishi va metakognitiv strategiyalarni “keraksiz”dek ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun pedagogik dizayn determinantlar bilan moslashgan bo‘lishi, ya’ni xatoni o‘rganish resursi sifatida talqin qiladigan, formative baholashdan keng foydalanadigan muhitni yaratishi maqsadga muvofiq.

Determinantlarni amaliy diagnostika qilishda kompleks yondashuv zarur: motivatsiya va o‘zini o‘zi samaradorlikni so‘rovnomalar, suhbat va o‘quv kundaliklari orqali; matematika tashvishini vaziyatli va barqaror komponentlarga ajratgan holda; ishchi xotira yuklamasini esa topshiriq murakkabligi va vaqt cheklovi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin. Shu bilan birga, diagnostika faqat o‘lchash emas, balki ta’limiy qaror qabul qilish uchun xizmat qilishi kerak: masalan, yuqori tashvish aniqlangan guruhda topshiriqlarni kichik bosqichlarga ajratish, yechim strategiyalarini ochiq o‘rgatish, juftlikda ishlash va og‘zaki izoh berish orqali kognitiv yuklamani me‘yorlashtirish mumkin. Rus psixologiya maktabida faoliyat yondashuvi ta’limni shaxsning faoliyatini tashkil etish orqali rivojlantirish g‘oyasini ilgari suradi; bu yondashuv matematika o‘qitishda har bir amalni maqsad, vosita va nazorat bilan bog‘lab qurish zarurligini ko‘rsatadi [2]. O‘zbek pedagogik tadqiqotlarida ham o‘quv motivatsiyasini shakllantirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish va baholashning tarbiyaviy funksiyasini kuchaytirish masalalari dolzarb yo‘nalish sifatida talqin qilinadi [1]. Ushbu qarashlarni integratsiyalash natijasida determinatlarning ta’sir mexanizmi “o‘quv vaziyati dizayni – psixologik holat – kognitiv ishlov – natija” zanjiri ko‘rinishida konseptual model sifatida talqin etilishi mumkin.

Model doirasida ilmiy yangilik shundaki, determinantlar alohida omillar sifatida emas, balki pedagogik sharoitlar orqali boshqariladigan dinamik tizim sifatida izohlanadi. Masalan, o‘qituvchining fikr-mulohazasi faqat “to‘g‘ri-noto‘g‘ri” formatida berilsa, o‘quvchi xatoni shaxsiy qobiliyat bilan bog‘lab qo‘yadi va tashvish kuchayadi; aksincha, fikr-mulohaza jarayoniy bo‘lib, xatoning sababi va tuzatish yo‘lini ko‘rsatsa, o‘zini o‘zi samaradorlik ortadi va metakognitiv monitoring faollashadi. Shuningdek, topshiriqlarni differensiallash faqat qiyinlik darajasini pasaytirish emas, balki ishchi xotira yuklamasini optimallashtirish orqali murakkab fikrlashga yo‘l ochish deb talqin qilinadi. Xalqaro tadqiqotlarda ham ta’limdagi psixologik omillar, xususan growth mindset, o‘zini boshqarish va baholash amaliyotining affektiv oqibatlarini o‘quv natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi qayd etiladi [3]. Biroq bunday g‘oyalarni mahalliy kontekstga moslashtirishda sinfning ijtimoiy-psixologik iqlimi, ota-onaning kutilmalari va milliy baholash tizimining xususiyatlari hisobga olinishi zarur; aks holda, universal tavsiyalar yuzaki qo‘llanib, kutilgan samarani bermasligi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, matematika ta’limidagi samaradorlik psixologik determinantlar bilan shartlangan ko‘p omilli hodisa bo‘lib, motivatsiya va o‘zini o‘zi samaradorlik o‘quv faoliyatining energiya va yo‘nalishini belgilaydi, matematika tashvishi esa kognitiv resurslarni cheklab, natijani pasaytirishi mumkin. Metakognitsiya va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari ushbu salbiy ta’sirlarni yumshatadigan, chuqur tushunish va transferni

ta’minlaydigan markaziy mexanizm sifatida namoyon bo’ladi. Ta’lim amaliyotida determinantlarni hisobga olgan pedagogik dizayn, jarayoniy fikr-mulohaza, formative baholash va kognitiv yuklamani me’yorlashtirish orqali matematik kompetensiyani barqaror rivojlantirishga erishish mumkin. Shuningdek, diagnostika tizimini natijaga emas, balki o’quv jarayonidagi psixologik holat va strategiyalarni aniqlashga yo’naltirish o’qituvchi uchun individual yordam va differensial ta’limni ilmiy asoslash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Yo’ldoshev J. G., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent, O’qituvchi, 2013. 320 b.
2. Leontev A. N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. Moskva, Smysl, 2005. 352 s.
3. Dweck C. S. Mindset: The New Psychology of Success. New York, Random House, 2006. 276 p.
4. Bandura A. Self-efficacy: The Exercise of Control. New York, W. H. Freeman, 1997. 604 p.
5. Flavell J. H. Cognitive Development. Englewood Cliffs, Prentice-Hall, 1985. 320 p.
6. Baddeley A. D. Working Memory. Oxford, Oxford University Press, 1986. 289 p.
7. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris, OECD Publishing, 2023. 325 p.

TA’LIM MUASSASALARI RAHBAR KADRLARINING KOMMUNIKATIV-LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

*(PhD) v.b. dotsent. Egamov Jo’shqin Jumanazar o’g’li
Ipak yo’li innovatsiyalar universiteti*

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda oliy ta’lim tashkilotlari rahbar kadrlarining kommunikativ-liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari ilmiy asosda yoritilgan. Ishda kommunikativ strategiyalar, liderlik uslublari hamda ta’lim-tarbiya jarayonlarini boshqarish asosiy komponentlar sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda rahbarlar uchun zarur bo’lgan tashkiliy-pedagogik, axborot-kommunikatsion, psixologik, amaliy va monitoring mexanizmlari tizimli ravishda ko’rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar. Kommunikativ kompetensiya, liderlik kompetensiyasi, oliy ta’lim, boshqaruv samaradorligi, kommunikativ strategiyalar, transformatsion liderlik, servissh-liderlik, ta’lim-tarbiya boshqaruvi, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, emotsional intellekt, mentoring, coaching, monitoring va baholash, professional rivojlanish.

Oliy ta’lim muassasalarida rahbar-xodimlarning kommunikativ-liderlik kompetensiyani qo’llash mexanizmlarini joriy etish, tashkilotning samaradorligini oshirish va xizmat ko’rsatish sifatini yaxshilash uchun zarurdir. Kommunikativ-liderlik kompetensiya – bu rahbarlarning o’z jamoalarida muvaffaqiyatli hamkorlikni ta’minlash va jamoani maqsadlarga yo’naltirish uchun zarur bo’lgan ko’nikma va strategiyalar to’plamidir [1]. Bu model, asosan, uch asosiy mexanizmni o’z ichiga oladi: kommunikativ strategiyalar, liderlik uslublari va ta’lim-tarbiya jarayonlarini boshqarish.

Birinchi mexanizm – kommunikativ strategiyalar. Bu strategiyalar rahbarlarning jamoa bilan muloqotini tashkil etishga qaratilgan bo’lib, ularning ichida ochiq va aniq kommunikatsiya, qabul qilish va xabardorlikni oshirish, fikr almashish jarayonlarini qo’llab-quvvatlash kabi elementlar mavjud. Kommunikativ strategiyalarni amalga oshirishda, rahbarlar xodimlar bilan muntazam uchrashuvlar, qayta aloqa tizimlari va onlayn platformalar orqali o’zaro bog’lanishni kuchaytiradilar. Bu usullar, o’z navbatida, jamoaning motivatsiyasini oshiradi va tashkilot ichidagi qarorlarni qabul qilish jarayonlarini yanada shaffof qiladi. Kommunikativ strategiyalar tashkilot rahbarlarining jamoa bilan samarali muloqotini tashkil etishda muhim rol o’ynaydi. Bu strategiyalar, asosan, ochiq va aniq kommunikatsiyani, qabul qilish va xabardorlikni oshirishni, hamda fikr almashish jarayonlarini qo’llab-quvvatlashni o’z ichiga oladi.

Ochiq va aniq kommunikatsiya jamoaning motivatsiyasini oshirish va qarorlarni qabul

qilish jarayonlarini adolatli amalga oshirish uchun juda muhimdir. Rahbarlar tomonidan maqsadli va aniq ma’lumotlarni yetkazish, xodimlar bilan ochiq suhbatlarni tashkil etish, ularning fikrlarini tinglash va qayta aloqa o’rnatish tashkilot ichida to’g’ri tushunishni va jamoaning ishtirokini oshiradi. Muntazam uchrashuvlar rahbarlar va xodimlar o’rtasida ishonch va o’zaro hurmat muhitini yaratadi, bu esa umumiy maqsadlarga erishish uchun zarurdir [2; 29-35-b]. Qayta aloqa tizimlari, masalan, anonim so’rovlar, xodimlarning fikr-mulohazalarini o’z vaqtida qabul qilish va ularga javob berish imkoniyatini beradi. Bu tizimlar, shuningdek, rahbarlarga jamoaning ehtiyojlari va muammolarini aniqlashda yordam beradi. Onlayn platformalar, masalan, ichki chat guruhlari yoki e-mail tizimlari, muloqotni tez va samarali tashkil etish uchun ishlatiladi. Ushbu platformalar orqali rahbarlar va xodimlar o’rtasida doimiy aloqada bo’lish mumkin bo’lib, bu tashkilot ichidagi muammolarni tezkor hal qilish imkoniyatini yaratadi.

Yuqoridagi usullar jamoaning motivatsiyasini oshiradi va qarorlarni qabul qilish jarayonlarini yanada shaffof qiladi. Kommunikativ strategiyalar orqali rahbarlar jamoaning ishtirokini va anglashini kuchaytiradilar, bu esa umumiy tashkilot maqsadlariga erishishni osonlashtiradi. Shunday qilib, kommunikativ strategiyalar rahbarlarning samarali rahbarlik qilishda va jamoa bilan muvaffaqiyatli muloqot o’rnatishda asosiy mexanizm hisoblanadi.

Ikkinchi mexanizm – liderlik uslublari. Kommunikativ-liderlik kompetensiya uslublari rahbarning o’z jamoasi bilan o’zaro munosabatlarini tashkil qilishda asosiy rol o’ynaydi. Bu uslublar ko’plab yondashuvlarni o’z ichiga oladi, masalan, ishtirokchi liderlik, transformatsion liderlik va servissh-liderlik. Ishtirokchi liderlik rahbarning xodimlar bilan birgalikda qarorlar qabul qilish jarayonini o’z ichiga oladi, transformatsion liderlik esa rahbarlarning innovatsiyalarni joriy etish va xodimlarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvni anglatadi [3; 141-149-b]. Servissh-liderlik esa rahbarlarning xodimlarning ehtiyojlariga javob berish va ularni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuvdir.

Uchinchi mexanizm – ta’lim-tarbiya jarayonlarini boshqarish. Bu jarayonlarning samarali boshqarilishi rahbarlarning kommunikativ-liderlik kompetensiya qobiliyatlarini yanada kuchaytirishga yordam beradi. Ta’lim va trening dasturlari orqali rahbarlar va xodimlar uchun kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantirish, motivatsiya strategiyalarini o’rganish va liderlik qobiliyatlarini oshirish mumkin. Bunday dasturlarni joriy etish orqali, tashkilot ichidagi o’zaro aloqalar yaxshilanadi va jamoaning umumiy maqsadlarga erishish qobiliyati oshadi [4; 56-66-b]. Ta’lim va trening dasturlari orqali rahbarlar va xodimlarga kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantirish, motivatsiya strategiyalarini o’rganish va liderlik qobiliyatlarini oshirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu dasturlarni joriy etish orqali tashkilot ichida o’zaro aloqalar yaxshilanadi va jamoaning umumiy maqsadlarga erishish qobiliyati oshadi.

Zamonaviy texnologiyalar tezkor sur’atda rivojlanayotgan bir davrda, texnika sohasi uchun mas’ul bo’lgan oliy ta’lim tashkilotlari rahbarlaridan nafaqat yuqori kasbiy tayyorgarlik, balki kuchli kommunikativ va liderlik kompetensiyalariga ega bo’lish talab qilinmoqda. Bunday kompetensiyalarni rivojlantirish esa puxta o’ylangan, ilmiy asoslangan va tizimlashtirilgan mexanizmlar orqali amalga oshirilishi lozim. Yuqoridagi mexanizmlardan tashqari quyida aynan texnika yo’nalishidagi oliy ta’lim tashkilotlari rahbar kadrlarining kommunikativ-liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda qo’llanilishi mumkin bo’lgan asosiy mexanizmlariga alohida to’xtalib o’tamiz.

1. Tashkiliy-pedagogik mexanizmlar. Bu mexanizmlar rahbar kadrlarning o’qitish va boshqaruv jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Ular quyidagilardan iborat:

- Maxsus modul asosida tashkil etilgan malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglar;
- Ichki institutlashtirilgan professional rivojlanish markazlari orqali uzluksiz o’rganish imkoniyatlarini yaratish;
- Rahbarlarni akademik va boshqaruv faoliyatini birlashtirgan shaklda rivojlantirish: ochiq darslar, ilmiy-tashkiliy tadbirlar orqali;
- Akademik hamjamiyat bilan faol kommunikatsiyani yo’lga qo’yish uchun norasmiy uchrashuvlar, tarmoq muhokamalari.

2. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosidagi mexanizmlar. Raqamli muhitda samarali boshqaruv olib borish va onlayn yetakchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda quyidagilar muhim hisoblanadi:

- Masofaviy aloqa va boshqaruv platformalari (Zoom, MS Teams, Google Meet) orqali virtual liderlikni o‘rganish;
- LMS (Learning Management System) asosida tashkil etilgan rahbarlar uchun onlayn modul kurslari;
- Raqamli kommunikatsiya etikasini o‘rgatuvchi amaliy mashg‘ulotlar;
- Elektron portfoliolar orqali rahbarlar kompetensiyalarini baholash va rivojlanish xaritasini yaratish.

3. Psixologik va emotsional mexanizmlar. Liderlikda emotsional barqarorlik va shaxslararo aloqalarni boshqarish qobiliyati alohida o‘rin tutadi:

- Emotsional intellektni rivojlantiruvchi treninglar (stressni boshqarish, empatiya, emotsional tafakkur);
- Rahbarlar uchun professional psixologik qo‘llab-quvvatlov xizmatlari (individual maslahatlar, refleksiya sessiyalari);
- Muloqotdagi emotsional ifoda va ijtimoiy sezgirlikni oshiruvchi rolli o‘yinlar.

4. Faoliyatga integratsiyalashgan amaliy mexanizmlar. Rahbar kadrlarning real sharoitda o‘z liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishlari uchun quyidagilar muhim:

- Tashkilot ichidagi yoki xalqaro loyihalarda faol ishtirok etish orqali transformatsion yetakchilikni amaliyotga tadbiq qilish;
- "Ish joyida o‘qitish" (on-the-job learning) yondashuvi orqali tajriba orttirish;
- Jamoaviy boshqaruv mashqlarida kommunikatsion rollarni sinab ko‘rish.

5. Coaching, mentoring va peer-learning mexanizmlari. Yetakchilik kompetensiyasini individuallashtirilgan yondashuvlar orqali chuqurlashtirish mexanizmlaridir:

- Tajribali rahbarlar tomonidan yangi rahbarlar uchun mentoring tizimini yo‘lga qo‘yish;
- Coaching metodlari asosida rahbar shaxsiy kompetensiya profili ustida ishlaydi;
- Tengdoshlar (peer-learning) orqali o‘zaro tajriba almashinuvi, ochiq muloqot maydonlari.

6. Monitoring va baholash mexanizmlari. Rivojlanish samaradorligini aniqlash, tahlil qilish va takomillashtirish uchun quyidagilar muhim:

- 360 darajali baholash tizimi: o‘z-o‘zini, hamkasblarni, jamoani va yuqori rahbariyatni jalb qilgan holatda;
- Kompetensiyalarni o‘lchash uchun indikatorlar tizimi: masalan, kommunikatsiya sifati, liderlik tashabbuslari soni;
- Doimiy refleksiya asosida shaxsiy rivojlanish rejasini yangilab borish.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun tashkilotlar turli xil metod va strategiyalarni qo‘llaydi. Bu jarayonlar rahbarlarning kommunikativ-liderlik kompetensiyalarini oshirish va jamoaning motivatsiyasini kuchaytirishga yordam beradi. Kommunikativ-liderlik kompetensiya qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali, rahbarlar va xodimlar o‘rtasida samarali kommunikatsiya o‘rnatiladi [5; 971-974-b]. Bu, o‘z navbatida, rahbarlarning jamoani boshqarish va ularning ish faoliyatini nazorat qilish qobiliyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim tashkilotlari rahbarlarining kommunikativ-liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimli yondashuvni talab etadi. Kommunikativ strategiyalar samarali muloqotni ta’minlaydi, liderlik uslublari esa boshqaruv samaradorligini oshiradi. Zamonaviy AKT vositalari, treninglar, psixologik qo‘llab-quvvatlash hamda monitoring tizimlari orqali rahbarlarning kasbiy rivojlanishi ta’minlanadi. Natijada, ushbu mexanizmlarni kompleks qo‘llash oliy ta’lim muassasalarida samarali boshqaruvni shakllantiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Templeton S., Johnson M. (2021). Digital Communication Strategies for Academic Leaders. Routledge.
2. G‘ulomov N. Shaxslararo munosabatda liderlik //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – В. 29-35.
3. Xuvaydullayev I., Xuvaydullayeva I. Liderlik strategiyasini shakllantirishda inson resurslarini boshqarish tizimining roli // Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A8. – В. 141-149.
4. Rayimaliyev Sh. “Liderning ijtimoiy-psixologik fenomenologiyasi va uni shakllanish, rivojlanish mexanizmlari”. Ustozlar uchun 60.1 (2024): – В. 56-66.
5. Rizayeva, N. Q. “Liderlik haqida tushuncha, turlari va liderlik qobiliyatini shakllantirish”. Fan, ta’lim va amaliyotning integratsiyasi (2022): – В. 971-974.

ИЗОБРЕТАТЕЛЬСКИЕ НАВЫКИ И УМЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Куйчиев Одил Рахимович, к.т.н., доцент,
Джизакский политехнический институт,
Тел:+99890-516-33-00, Odil1963@inbox.ru
Республика Узбекистан, г. Джизак

Аннотация: В статье излагаются пути повышения эффективности формирования изобретательских умений и навыков студентов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: усвоение, навыки, умение, экспонат, патент, заявка, экспертиза, признак.

Abstract: The article presents ways to improve the effectiveness of developing students' inventive skills and abilities in higher education institutions.

Keywords: assimilation, skills, ability, exhibit, patent, application, expertise, feature.

Усвоение студентами высших технических учебных заведений основы изобретательских знаний включает не только знания, но и умение, навыки, которые вырабатываются путём специально организованных мероприятий [1].

Как любой процесс это мероприятия также начинается с формирования и выбора целей управление, то есть с постановки целей, которая в свою очередь, начинается с анализа нынешнего состояния объекта управления, возможностей и тенденций его развития. Обеспечение качества в высшем техническом образовании связано, в частности, и с организацией обучения основам знаний и навыкам в области изобретательства. В таблице 1 приведены уровни сформированности умений самостоятельной деятельности студентов.

Таблица 1

Уровни сформированности умений самостоятельной деятельности студентов

Умения	Уровень		
	Нижний	Средний	Высокий
Мотивационные	Отсутствие либо низкая информация о видах и формах целях и задачах самостоятельной работы. Отсутствие навыков постановки и достижения цели.	Наличие некоторых информации о значении самостоятельной работы, интерес самостоятельной деятельности неустойчив, активность периодическая. Постановка цели и ее достижения требует некоторой поддержки.	Информированность о роли и задачах самостоятельной работы, стойкий интерес к самостоятельной деятельности, активность, умение ставить цель и достигать её.

Организационные	Навыки организации и планирования выражены слабо, нечеткое разграничение этапов самостоятельной деятельности, использование средств и методов, отсутствие навыков оценки затрат времени.	Существует представление и некоторые практические навыки по организации и планированию самостоятельной работы, но применение их в ходе обучения носит эпизодический характер, не всегда адекватная оценка временных затрат.	Активно используется планирование и оценка временных затрат различных видов самостоятельной работы, использование того средств или методов происходит осознанно.
Деятельностные	Наличные определенной базы знаний и отдельных видов самостоятельной работы, присутствует неумение их рационально и грамотно использовать	Довольно обширная база знаний, знание различных видов самостоятельной деятельности, однако присутствует неумение их комбинирование при решении сложных вопросов.	Значительный объем знаний и умение применять разнообразные виды самостоятельной работы с наибольшей эффективностью в конкретном случае.
Коммуникативные	Необщительность замкнутость, отсутствие навыков коллективной работы, нетерпимость к критике.	Навыки работы в коллективе слабо выражены, в ходе работы не всегда проявляет активности и берет на себя инициативу.	Общительный, позитивное отношение к групповым формам работы, есть навыки работы в коллективе.
Умения контроля и корректировки	Отсутствует навыки самоконтроля, корректировки и оценки результатов деятельности, направленность на получение удовлетворительной оценки.	Зачастую недостаточно развиты навыки адекватной самооценки, самоконтроль и самокорректировка действие носит непостоянный эпизодический характер.	Регулярная адекватная самооценка, навыки самоконтроля и самокорректировки действий в зависимости от целей.

Из всего перечисленного следует, что в высшей школе должна учиться наиболее способная молодёжь, имеющая определенный уровень общего развития личности. То есть качества, соответствующие выполнению в будущем ответственной профессиональной и изобретательской деятельности.

Высшие учебные заведения по сравнению с другими ступенями непрерывного образования призваны решать двойную задачу: развивать у студентов на высоком уровне творческое мышление, творческую деятельность и одновременно на достаточно ранней стадии обучения распознавать и особенно развивать у студентов изобретательские способности [2].

Успешному выполнению этой задачи способствует научно-производственной характер обучения, который определяется конкретными признаками и формами.

Раннее привлечение студентов к исследовательской работе имеет важное значение для развития творческого мышления и творческой деятельности для выполнения их особых изобретательских способностей.

В последние годы сложились определенные формы такой работы: участие студентов в исследовательских проектах научных групп, в самостоятельных студенческих исследовательских группах, работа под руководством ученых в конструкторских бюро над проектированием молодежных объектов. Один студент, долгое время работающий над решением определенной проблемы, может добиться хороших результатов в исследовании. Экспонаты выставок работы вузов, центральной выставки работ студентов и молодых ученых показывают, каких успехов могут достичь студенты. Кроме того такие мероприятия стимулируют и ориентируют деятельность всех студентов [3].

Творчество, как было показано, непосредственно связано с личностью, с индивидуальными интересами, склонностями, мотивами, чертами характера. Поэтому необходимо всем студентам в соответствии с их индивидуальными различиями представлять, определенную возможность выбора. В последние годы студенты получили возможность самим определять содержание своей работы, углубленно изучать по выбору часть предметов, посещать факультативы. Кроме того на старших курсах осуществляется специализация. Все это создает благоприятную возможность для выбора задач практики, включая участие в изобретательствах. Надо постараться осуществить на основе единых учебных планов и программ большую индивидуализацию [4].

Однако некоторые преподаватели возражают против такой гибкости в обучении. Тем самым возможности выбора их «рекомендациями» или количеством времени для самостоятельной работы. Такое отношение преподавателей должно быть, как можно скорее изменено. Во-первых, речь идет в том, что надо «учить учиться» [5].

Студенты особенно 1 курса, должны быстрее привыкать к новым условиям жизни и обучения. Во-вторых, студентам необходимо так же интенсивно осваивать специфические методы научной работы в какой-либо области, как и получаемые знания. Еще больше внимания следует уделять методологическим знаниями о творческой работе [6].

Тренировочные курсы для молодых изобретателей тоже должны войти в курс обучения в высшей школе. Следует развивать личные контакты преподавателей и студентов.

Способность к творческому мышлению и изобретательской деятельности является комплексной и характеризуется не только высоким уровнем развития интеллекта, общих и специальных интеллектуальных способностей, но и интересами, желанием, терпением, старанием и характером студента.

Литература:

1. Куйчиев О. Р. и др. Формы, методы и содержание трудового воспитания //Общество. – 2020. – №. 1. – С. 73-76.
2. Куйчиев О. Р. Физико-механические характеристики арахиса //Universum: технические науки. – 2022. – №. 2-2 (95). – С. 36-38.
3. Куйчиев О. Р. Твердость почвы при уборке арахиса//Илмий мақолалар тўплами. – 2022. – С. 361.
4. Ли А., Куйчиев О. Орудие для формирования противомембранного экрана //Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 59-61.
5. Quychiyev O. R. et al. Информатика ва ахборот технологиялари йўналишида виртуал тушунча //Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. – 2024. – Т. 2. – №. 25. – С. 225-229.
6. Raximovich K. O. et al. XXI asr axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish muammolari //Pedagogical sciences and teaching methods. – 2024. – Т. 3. – №. 29. – С. 119-124.

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA “AXLOQ” KONSEPTOSFERASIGA OID PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

**Bobojonova Shohsanam Sharifboyevna,
Navoiy davlat universiteti doktoranti**

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda “axloq” konseptosferasining psixologik yondashuvlar asosida tadqiq etilishi tizimli ravishda yoritiladi. Tadqiqot jarayonida axloqiy tushunchalarning inson ongida shakllanish mexanizmlari, ularning kognitiv, emotsional hamda ijtimoiy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, psixolingvistik, kognitiv va diskursiv yondashuvlar doirasida axloq konseptining til tizimidagi namoyon bo‘lish xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari axloq konseptining murakkab psixik va lingvistik hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: axloq konseptosferasi, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, diskurs, emotsional komponent, konsept, lingvokulturologiya, tafakkur.

Hozirgi vaqtda “konsept” termini ilmiy muomalaga faol kirib keldi va antroposentrik tilshunoslikning, xususan, kognitiv lingvistikaning asosiy termini sifatida ta’riflanadi. Ammo olimlar orasida mazkur terminga ta’rif berishda, uni tasniflash va tadqiq etishda qabul qilingan turli ta’riflar mavjud. To‘g‘ri, mazkur terminga u yoki bu darajada fikr mulohazalar bildirilgan, ularning talqinlari xilma-xilligi ko‘p jihatdan bilishning turli sohalariga vakillarining ushbu hodisani tadqiq qilishga bo‘lgan katta qiziqishi bilan ta’rif va tasnif etilgan. Konseptga ta’rif berishga urinayotgan olimlar bir qarashda juda o‘xshash bo‘lib ko‘rinadigan belgilarni – konsept va tushuncha, konsept va konseptualizatsiya, “ma’no”, “mazmun”, “tushuncha” va boshqalarni farqlash muammosiga duch kelishadi.

Tilshunoslikda konsept tushunchasi inson tafakkuri va til o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi muhim ilmiy kategoriya hisoblanadi. Xususan, “axloq” konsepti insonning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u turli fanlar kesishmasida o‘rganilmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlarda axloq konseptosferasini psixologik yondashuvlar asosida o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki axloqiy tushunchalar nafaqat til birliklari, balki inson ongida shakllanuvchi murakkab kognitiv tuzilmalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Axloq konseptosferasini o‘rganishda kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va ijtimoiy psixologiya yondashuvlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kognitiv yondashuvga ko‘ra, konseptlar inson ongida tajriba asosida shakllanadi va kategoriyalash jarayonida tizimlashtiriladi.

Psixolingvistik yondashuv esa til birliklarining idrok qilinishi va qayta ishlanish mexanizmlarini o‘rganadi.

Kognitiv lingvistikada konseptning tabiati, uning tuzilishi va funksiyalari, shuningdek, konseptning inson konseptosferasidagi o‘rni, ya’ni uning boshqa konseptlar bilan bog‘liqligi o‘rganiladi. Kognitiv lingvistika – bu til va tafakkur, ong, ularning o‘zaro aloqadorlikdagi o‘rni va o‘zaro bog‘liqligi asosiy rol o‘ynaydigan yo‘nalishdir. Konsept esa kognitiv tilshunoslikdagi asosiy tushunchalardan biridir.

Konseptlarning turli matnlarda namoyon bo‘lishi dunyo tillari egalarining til ongida dunyo manzarasining aks etishidagi asosiy, eng muhim jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Alohida til egasining konseptosferasi, shuningdek, til jamoasining konseptosferasi doimiy o‘zgarish jarayonida bo‘ladi, bu esa ushbu yo‘nalishda ularni tadqiq qilishga bo‘lgan qiziqishni belgilaydi. Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada “konseptuallashtirish” atamasi dunyoning til orqali milliy idrok etilishi, anglanishi, tushunilishi va uni aqliy tafakkur hamda tasvirlar orqali ifodalanish jarayonini ifodalaydi. Har bir til dunyoni o‘ziga xos tarzda konseptuallashtirish usullariga ega. Bu usullar millatning tarixi, madaniyati, qadriyatlari, ma’naviyati, urf-odatlar va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq.

Axloqiy tushunchalar inson ongida ko‘p qatlamli tuzilma sifatida shakllanadi. Ular kognitiv modellar, emotsional reaksiyalar va ijtimoiy tajribalar asosida yuzaga keladi.

Masalan, “halollik”, “vijdon”, “or-nomus” kabi tushunchalar nafaqat semantik mazmun, balki baholovchi va emotsional komponentga ham ega.

Diskursiv jihatdan esa axloqiy birliklar nutqda baholash, normativ tartibga solish va ijtimoiy ta’sir ko’rsatish funksiyalarini bajaradi.

Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, axloq konsepti universal xususiyatlarga ega bo’lishi bilan birga, milliy-madaniy omillar ta’sirida o’ziga xos shakllanadi. Bu esa lingvokulturologik yondashuv zarurligini asoslaydi. Har bir jamiyatda axloqiy qadriyatlar til orqali mustahkamlanadi va ijtimoiy ongda barqarorlashadi.

Xulosa qilib aytganda, axloq konseptosferasi inson ongida kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillar uyg’unligida shakllanadigan murakkab tizimdir.

Til esa ushbu tizimni ifodalovchi va uzatuvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.
2. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2012.
3. Mahmudova N. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent, 2018.
4. Rasulova G. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2020.
5. Haidt J. The Righteous Mind. – 2012.
- 6 Chomsky N. Language and Mind. – 2006.

RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA O’QUVCHILARNING TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Yuldashova S.S. – Ipay yo’li

Innovatsiyalar universiteti kotta o’qituvchisi(PhD)

sayyoryuldasheva08@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim sharoitida texnologiya darslarida o’quvchilarni texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim jarayonlari, undagi muammolar va ularning pedagogik yechimlari hamda bu orqali ta’lim sifatini yaxshilash haqida so’z boradi.

Tayanch iboralar: raqamli ta’lim, kompetensiya, innovatsiya, texnik ijodkorlik, uzviylik, ishlab chiqarish, texnologiya, metod, malaka, muammo, sifat, natija.

ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

Юлдашова С.С. – старший

преподаватель(PhD) в Университете

инноваций Шелкового пути

sayyoryuldasheva08@gmail.com

Аннотация. В данной статье говорится об образовательных процессах, направленных на развитие технологической компетентности учащихся на технологических занятиях в среде цифрового образования, проблемах и их педагогических решениях и тем самым повышении качества образования.

Ключевые слова: компетентия, инновация, техническое творчество, органическая связь, производство, технология, метод, навык, проблема, качество, результат

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING STUDENTS' TECHNOLOGICAL COMPETENCES IN DIGITAL EDUCATION

Yuldashova S.S - Lecturer at Silk

Road Innovation University (PhD)

sayyoryuldasheva08@gmail.com

Annotation. This article talks about educational processes, problems and their pedagogical solutions aimed at developing students' technological competence in technological classrooms in a digital educational environment, thereby improving the quality of education.

Keywords: competence, innovation, technical creativity, organic communication, production, technology, method, skill, problem, quality, result.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo‘lgani singari kabi raqamli texnologiyalarni talim sohasiga ham yangilikliklar kirityapti. Raqamli texnologiyalar taraqqiy etgan asrda eng muhim omil bu ma’lumotlar hisoblanadi. Ularni to‘plab, o‘rganishlar asosida xulosalar chiqarishda Big Data texnologiyasining ahamiyati katta. Undan qo‘pincha salmoqli ma’lumotlarning prognozli tahlillariga yoki ma’lumotlardan qiymat chiqarib olishning boshqa usullariga murojaat qilishda ham foydalaniladi. Bugungi kunda har qanday mamlakatda innovatsion kadrlar bazasini maqsadli shakllantirishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu ta’lim tizimidir. Raqamli transformatsiya jarayonini amalga oshirish ta’lim tizimi uchun faqatgina raqamli transformatsiyaga kompleks yondashuv bilan hal qilish mumkin bo‘lgan yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Ta’lim jarayoni raqamli transformatsiyasi raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatga o‘tishning global jarayonlari bilan belgilanadi. Bu istiqbollar qanday bo‘lishini asosan ta’lim belgilaydi. Ta’limning raqamli transformatsiyasi konsepsiyasi bir qator mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan. “Raqamlashtirish” atamasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mustahkamlash bilan bog‘liq holda paydo bo‘ldi. Ba’zi olimlar, masalan, D.Bell, D.Medous, P.Kuusi bu tushunchani axborotni raqamlarga tarjima qilish va shu bilan birga, ta’limning infratuzilmaviy, boshqaruv, xulq-atvor va madaniy komponentlari deb hisoblaydilar. Ta’lim muhitining asosiy tarkibiy qismlari, hozirgi kunda shubhasiz, raqamli axborot ta’lim muhitini shakllantirish va uni umumiy ta’lim tizimiga integratsiyalash jarayonida, elektron ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. SHaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini shakllantirishda, raqamli axborot ta’lim muhitini shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Bu uning shaxsiy qobiliyatlarini bilim va faoliyat sub’ekti sifatida aniqlashga asoslanib, o‘z navbatida har kimning muqobil ta’lim shakllarini o‘rganish orqali o‘z rivojlanish yo‘nalishini tanlash huquqini tan olishga asoslanadi.

Umumiy o‘rta talim maktablarida o‘quvchilarga talim berishning zamonaviy innovatsion uslublarni joriy etish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, yani 2030-yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo‘yicha jaxonda etakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muxim shartlardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi aloxida takidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat maxsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkinligi asoslab berildi.

Iqtisodiyotning barcha soxalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini ishlab chiqish va joriy etish vaziflari belgilandi. Bu esa sanoatning etakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, soxaga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali korxonalar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, zamonaviy muxandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi.

Maktab o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy muammolari texnologiya ta’limi moddiy bazasining etarli emasligi, maktab va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlikning puxta tashkil etilmaganligi bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa raqamli iqtisodiyot va raqamli talim sharoitida eng dolzarb va xal qilinishi lozim bo‘lgan masalalardan biridir. Pedagogik tajribalar shundan dalolat beradiki, o‘quvchilarning amaliy tayyorgarligi hozirgi vaqtda ko‘proq maktab o‘quv ustaxonalari qoshida amalga oshiriladi. O‘quv ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyasi va moddiy-texnik ta’minotining cheklangan imkoniyatlari maktab o‘quvchilarining mehnat va texnologik tayyorgarligi yo‘nalganligini o‘zgartirishga olib keladi. Amaliyot ko‘rsatadiki, maktab ustaxonalaridagi o‘qitish ko‘p holda hunarmandchilik sohasiga, qo‘l mehnati sohasiga qaratilgan, bu esa texnologik ta’limning cheklanishiga, maqsad va vazifalarning amalga oshmasligiga olib keladi.

Yana bir muhim jihat — mamlakatimizda aholi eng ko‘p to‘qnash kelayotgan sohalarni raqamlashtirish, odamlarning og‘irini engil qilishga ustuvorlik qaratilyapti. Jumladan, sog‘liqni saqlash, kadastr, ijtimoiy himoya, qishloq xo‘jaligi, ta‘lim yo‘nalishlarini raqamlashtirish bo‘yicha amaliy jarayonlar boshlandi va tez orada o‘zining ijobiy samaralarini beradi.

Zamonaviy maktab o‘quvchilari egallashi lozim bo‘lgan texnologik ta‘lim – bu texnologik o‘zgarishlar, bizni o‘rab turgan tevarak-atrofdagi barcha narsani takomillashtirishga bo‘lgan turlicha yondashishlar bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishga yo‘naltirilgan integrativ bilimlar ko‘lamidir. Bu jarayonda raqamli ta‘limni texnologiya fani uchun qanday afzalliklari borq –degan savol o‘rtaga chiqadi.

Texnologik ta‘lim g‘oyasi maktab o‘quvchilarining texnologik tayyorgarligini, ularning texnologik jamiyat sharoitidagi roliga qaratilgan yangi texnologiya fanida mujassam bo‘lgan. Ishlab chiqarishdagi integratsiyalashuv va ilg‘or texnologiyalarning takomillashuvi xar bir bitiruvchidan malum bir kasb yoki xunar egasi bo‘lish uchun kamida biror bir texnologik jarayonni puxta amalga oshirish qobiliyatini talab etadi. Bu esa o‘z navbatida texnologik tayyorgarlikni talab etadi.

Texnologik tayyorgarlik – bu maktab o‘quvchilarining ongida olamning texnologik manzarasini shakllantirish asosida ularni amaliy faoliyatga tayyorlash jarayonidir. Milliy pedagogikamizda texnologiya ta‘limi loyihasini joriy etish, o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish muammo sifatida etarlicha o‘rganilmagan va bu sohadailmiy tadqiqotlar deyarli olib borilmagan. Texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish mazmunini aniqlash va maktab o‘quv jarayonida qo‘llashga oid ilmiy asoslangan yondashuvlarning mavjud emasligi ham ishni ancha murakkablashtiradi. Ayni jarayonda raqamli talimning quyidagi avzalliklari namayon bo‘ladi:

Eng avvalo ma‘lumotlarning yagona mukammal bazasi shakllanadi;

- Doimiy tarzda umumiy holatda yangilanish (UPDATE) olib borish qulaylashadi;
- Maktabda o‘qituvchi va o‘quvchilar vaqtdan unumli foylanadi;
- Katta songa ega auditoriyalarni tashkil qilish mumkin;
- Ta‘lim sifati oshadi, o‘qituvchining darsdagi nazorati va faoliyatini oshiradi;
- Nazorat mamlakat miqiyosida yakdil bir markazlashgan holga keladi;
- Uyda ota- ona ta‘lim tizimiga uzviy bog‘lana oladi va farzandini mustaqil tarzda tekshirish imkoniyati yaratiladi;

Raqamli ta‘lim o‘z ichiga raqamli sinfxona, raqamli kutubxona, raqamli uyni ham qamrab oladi. Texnologik fani uchun muxim ish obekti xisoblangan Raqamli laboratoriya va raqamli o‘quv ustaxona tushunchasi esa ancha keng imkoniyatga ega bo‘ladi. O‘quvchilar turli fanlar bo‘yicha raqamli o‘quv ustaxonasidan foydalana oladilar, bunda:

- Jihozlar masalasidagi muammolar bo‘lmaydi, barchasi raqamli dasturga aylantiriladi;
- Xavfsiz va ko‘p bora takrorlash imkoniyati;

O‘zgaruvchan zamonaviy shart-sharoitlarda o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishida texnologik kompetensiyaning potensial ahamiyatini hisobga olish muammo echimini topishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Texnologik ta‘limni maktab amaliyotida zamon talablaridan kelib chiqqan holda keng va samarali joriy etish uchun hozirgi sharoitda maktab o‘quvchilarining texnologik tayyorgarligi holati va uning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilish lozim bo‘ladi.

Taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo‘shilishimiz uchun, eng avvalo, ilg‘or zamonaviy axborot-kommunikatsiya, internet hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi bilimlarni chuqur egallash orqali yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish kerak. Negaki, biz geografik joylashuvimizga ko‘ra quruqlik orqali yirik suv havzalaridagi portlarga chiqishimiz uchun kamida ikki davlat chegarasidan o‘tishimizga to‘g‘ri keladi. Bu ham vaqt nuqtai nazaridan, ham iqtisodiy jihatdan jahon bozoridagi o‘rnimizga salbiy jihatdan ta‘sir qilishi bor gap. Buning echimi aql-zakovat, yangi innovatsiyalar va malakali kadrlar salohiyatiga bevosita bog‘liq. O‘zbekiston kelajagi buyuk bo‘lishi uchun bugungi kun dunyo ta‘limining u hattoki zamonaviy bo‘lsada undan ham oshib kelajakka sakrashi lozim. Shundagina kelajak texnologiyalar o‘zbek ta‘limi zahirida yaratiladi. Buning natijasida iqtisod va siyosat, jamiyat mavqei oshadi. Yo‘qsa, boshqalar yaratgan

texnologiya va bilimni o‘zlashtirish uchun umrni sarflayveramiz. Dunyoda o‘z o‘rnimizni topa olishimiz uchun esa shunchaki hali ochilmagan kelajak bilimlari tomonga sakrash kerak xolos.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Селезнева А.Л. Виртуальные интерактивные стенды // Гуманитарные научные исследования. 2013. No 43.
2. Саданова Б., Олейникова А. Применение возможностей виртуальных лабораторий в учебном процессе технического вуза. Молодой учёный. Научный журнал. No 4 (108) / 2016
3. Allambergenova M., Kunnazarov A., Kazbekova E. Creation of pedagogical software for practical Training in computer science //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – No. 12. – C. 86-91.
4. 2. Qo‘ysinov O.A.- Mehnat ta‘limi kichik mutaxassisini tayyorlashda amaliy ta‘lim olish jarayonini tashkil etish . Pedagogik ta‘lim. Toshkent, 2008. - №1. – B.152 – 155

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDA YARMARKA SAVDOSI VA UNING IQTISODIY INTEGRATSIYADAGI ROLI

Rajabov Vohid Muhammad –

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti tarix fani o‘qituvchisi

Anotatsiya; Mazkur maqolada XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligida yarmarka savdosining shakllanishi va rivojlanishi hamda uning iqtisodiy integratsiyadagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda davriy matbuot materiallari, xususan “Birjevie vedomosti” gazetasi ma’lumotlari, shuningdek, A.N. Kuropatkin, N.P. Ostroumov, A.V. Krivoshin kabi mualliflarning xotiralari va publitsistik asarlaridan foydalanilgan. Arxiv hujjatlari va rasmiy statistik ma’lumotlar asosida yarmarkalarning nafaqat mahalliy savdo markazi, balki umumimperiyaviy moliyaviy va iqtisodiy tizimning muhim instituti sifatida faoliyat yuritgani asoslab beriladi. Shuningdek, yarmarka savdosi orqali Turkistonning Rossiya imperiyasi iqtisodiy makoniga integratsiyalashuvi, savdo infratuzilmasining rivojlanishi va shahar iqtisodiyotining transformatsiyasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari yarmarkalarning mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va bozor munosabatlarini kengaytirishdagi muhim rolini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar; Turkiston general-gubernatorligi, yarmarka savdosi, iqtisodiy integratsiya, savdo infratuzilmasi, paxta bozori, Rossiya imperiyasi, savdo aylanmasi, moliyaviy munosabatlar, arxiv manbalari, Toshkent yarmarkasi, Samarqand iqtisodiyoti, bozor tizimi.

Iqtisodiy yo‘nalishdagi nashr “Birjevie vedomosti” gazetasi Toshkent yarmarkasini asosan birja va moliyaviy nuqtayi nazardan tahlil qilgan. Unda paxta narxlarining dinamikasi, Turkiston paxtasining Rossiya bozoridagi ulushi, savdo kreditlari va veksellarni muomalasi, yarmarka davrida amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar haqida ma’lumotlar keltirilgan¹⁰². Bu holat yarmarkaning faqat mahalliy savdo maydoni emas, balki umumimperiyaviy moliyaviy jarayonlar bilan bog‘liq iqtisodiy institut sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda foydalanilgan shaxsiy xarakterdagi manbalar – kundaliklar, xizmat xotiralari va publitsistik asarlar – Turkiston yarmarka savdosining amaliy faoliyatini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalar rasmiy hisobotlardan farqli ravishda voqelikning bevosita ishtirokchi yoki kuzatuvchi tomonidan berilgan subyektiv, ammo qimmatli tasvirini taqdim etadi. A.N. Kuropatkin Turkistondagi iqtisodiy jarayonlarni harbiy-ma’muriy nuqtayi nazardan baholar ekan, savdo aylanmasini o‘lka taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichi sifatida talqin qilgan “O‘lkaning iqtisodiy jonlanishi, avvalo, savdo aylanmasining kuchayishi va imperiyaning ichki guberniyalari bilan aloqalarning kengayishida namoyon bo‘ladi”¹⁰³. Kuropatkin savdo aylanmasini iqtisodiy integratsiyaning asosiy mexanizmi deb hisoblagan. Uning qaydlari yarmarka savdosining imperiya markazi bilan iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish vositasi bo‘lganini

¹⁰² Биржевые ведомости. – Санкт-Петербург, 1861-1917 сонлари.

¹⁰³ Дневник А.Н. Куропаткина. – Москва... – С. 214.

tasdiqlaydi. Kuropatkin harbiy shaxs bo‘lgani sababli uning baholarida strategik-davlatchilik manfaatlari ustuvor. Shu bois, uning qaydlari rasmiy hisobotlar bilan qiyosiy tahlil qilinganda yanada to‘liq tasvir hosil bo‘ladi.

N.P. Ostroumov o‘z asarida K.P. Kaufman faoliyatini baholab, savdo siyosatiga alohida to‘xtalgan. “Yarmarkalarni tashkil etish va savdo munosabatlarini tartibga solish Turkiston o‘lkasining xo‘jalik hayotini mustahkamlashga xizmat qildi.”¹⁰⁴. Keltirilgan ma’lumot Kaufman davrida yarmarka savdosining institutsionallashtirishini ko‘rsatadi. Ostroumov Kaufman siyosatini ijobiy baholaydi, bu esa asarda muayyan apologetik ruh mavjudligini anglatadi. Ostroumov xotiralari rasmiy siyosatning tasvirini ochib berib borsada, ularni tanqidiy tahlil qilish talab etiladi.

A.V. Krivoshin Turkiston safari haqida yozgan asarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sotilishi masalasini quyidagicha ta’riflagan: “O‘lkaning paxtasi va boshqa mahsulotlarini sotish savdo markazlari va yarmarka yig‘imlari orqali ta’minlanadi.”¹⁰⁵. Ushbu ma’lumot yarmarkaning paxtachilik va eksport iqtisodiyoti bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Muallif iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan fikr yuritadi, shu bois uning baholarida amaliy-iqtisodiy yondashuv ustuvor.

Turkistonning iqtisodiy ahamiyati va yarmarkalar faoliyati to‘g‘risida arxiv manbalarida bir qancha ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, A. Stetkevich “Turkiston Rossiya uchun zararli emas, aksincha, u xom ashyo manbai va fabrika mahsulotlari uchun bozor vazifasini bajaradi”¹⁰⁶. Yarmarkani savdosi imperiya iqtisodiy manfaatlarining amaliy ifodasi sifatida talqin qilgan. Shuningdek, G.P. Fedorov yarmarka kunlaridagi holatni quyidagicha tasvirlagan. “Yarmarka kunlarida savdo sezilarli darajada jonlanadi; vaqtinchalik omborlar va savdo rastalari quriladi, savdogarlar oqimi ortadi”¹⁰⁷. Yarmarka shahar infratuzilmasining vaqtinchalik kengayishiga sabab bo‘lgani qayd etilgan. S.Yu. Vitte esa, o‘z xotiralarida “Hukumatning vazifasi imperiya chet o‘lkalarini bosqichma-bosqich yagona iqtisodiy tizimga jalb etishdan iborat edi”¹⁰⁸. Keltirib o‘tilgan fikr va xotirlar Turkiston yarmarkalarini umumimperiya iqtisodiy siyosati kontekstida tushunish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi shaharlar, jumladan Samarqand va Toshkent iqtisodiy hayotida savdo infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishi murakkab tarixiy-iqtisodiy jarayon sifatida kechganini ko‘rsatdi. Arxiv hujjatlari, rasmiy ma’muriy hisobotlar, statistik ma’lumotlar hamda ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili mazkur davrda shahar iqtisodiyotining transformatsiyasi savdo muassasalari faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lganini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi jamg‘armalarida saqlanayotgan materiallar shahar bozorlari, yarmarkalar va karvonsaroylar nafaqat mahalliy savdo ehtiyojlarini ta’minlagan, balki mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni rivojlantiruvchi muhim institut vazifasini bajarganini ko‘rsatadi.

Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi materiallari tahlili shaharlarda savdo infratuzilmasi davlat ma’muriy siyosati doirasida rivojlantirilganini ko‘rsatadi. Savdo rastalari, vaqtinchalik omborlar, karvonlar joylashtiriladigan hududlar tashkil etilgani haqidagi ma’lumotlar shahar iqtisodiy muhitining institutsional shakllana boshlaganidan dalolat beradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari Toshkent yarmarkalar iqtisodiy tarixini o‘rganishda arxiv manbalarining ahamiyatini yana bir bor tasdiqlab, shahar iqtisodiyoti evolyutsiyasini yangi ilmiy yondashuv asosida talqin qilish imkonini beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Биржевые ведомости. – Санкт-Петербург, 1861-1917 сонлари.
2. Дневник А.Н. Куропаткина. – Москва... – С. 214.

¹⁰⁴ Остроумов Н.П. Константин Петрович фон Кауфман – устроитель Туркестанского края. – Ташкент, 1899. – С. 148.

¹⁰⁵ Кривошеин А.В. Записки... – Полтава, 1912. – С. 55.

¹⁰⁶ Стеткевич А. Убыточен ли Туркестан для России? – Ташкент, 1899. – С. 23.

¹⁰⁷ Федоров Г.П. Моя служба в Туркестанском крае // Исторический вестник. 1916. Т. 133. № 9. – С. 798.

¹⁰⁸ Витте С.Ю. Воспоминания. Т. I. – М., 1960. – С. 312.

3. Остроумов Н.П. Константин Петрович фон Кауфман – устроитель Туркестанского края. – Ташкент, 1899.
4. Кривошеин А.В. Записки... – Полтава, 1912.
5. Стеткевич А. Убыточен ли Туркестан для России? – Ташкент, 1899.
6. Федоров Г.П. Моя служба в Туркестанском крае // Исторический вестник. 1916. Т. 133. № 9.
7. Витте С.Ю. Воспоминания. Т. I. – М., 1960.

AXBOROT MADANIYATI ASOSIY KOMPETENSIYA SIFATIDA PEDAGOGIK MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Abdusamatova Hilola Odiljon qizi.

**Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar
universiteti “Aniq va tabbiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi
(abdusamatovahilola1991@mail.com)**

Annotatsiya. Oliy ta’limda axborot madaniyatini asosiy kompetensiya sifatida shakllantirish va pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishga bag‘ishlanadi. Tadqiqot maqsadi axborotni izlash, tanlash, baholash, qayta ishlash va akademik muloqotda qo‘llash ko‘nikmalarini integrativ yondashuvda rivojlantirishdir. Metodologiya kompetensiyaviy, tizimli-faoliyat va konstruktivistik yondashuvlarga tayanadi. Ilmiy yangilik sifatida modul-kontekst, diagnostika va refleksiya birligiga asoslangan mexanizm modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: axborot madaniyati; axborot savodxonligi; media savodxonlik; kompetensiyaviy yondashuv; tanqidiy fikrlash; akademik halollik; raqamli didaktika

Аннотация: в статье рассматривается проблема совершенствования педагогических механизмов формирования информационной культуры как ведущей компетенции в системе высшего образования. Целью исследования является комплексное развитие умений поиска, отбора, критической оценки, обработки информации, а также её применения в академической коммуникации. Методологическую основу составляют компетентностный и системно-деятельностный подходы. Научная новизна заключается в обосновании модели механизма, основанной на интеграции модульно-контекстного обучения, диагностики и рефлексии.

Ключевые слова: информационная культура; информационная грамотность; медиаграмотность; компетентностный подход; критическое мышление; академическая добросовестность; цифровая дидактика.

Abstract: The study is aimed at developing information culture as a core competence in higher education and improving the pedagogical mechanisms that ensure it. The objective is to integrate competencies in information search, selection, evaluation of reliability, processing, and application in scientific and academic communication. The approach is based on competency-based and system-activity methodologies. The scientific novelty lies in the proposed mechanism model that integrates instructional modules, assessment criteria, and reflective practice.

Keywords: information culture; information literacy; media literacy; competency-based approach; critical thinking; academic integrity; digital didactics.

Kirish: Axborot madaniyatining oliy ta’limdagi dolzarbli shundaki, bugungi ta’lim natijalari faqat predmet bilimlari bilan cheklanmaydi, balki talabanning axborot muhitida mustaqil harakatlana olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Axborot oqimining ko‘payishi, sun’iy intellekt vositalari, ochiq ma’lumotlar bazalari hamda raqamli platformalar kengaygani sari talabanning axborotni tanlash va talqin qilishdagi xatari ham ortadi: yuzaki o‘qish, manbaga tayanmasdan xulosa chiqarish, plagiatga moyillik, yolg‘on yoki past sifatli kontentni “dalil” sifatida qabul qilish. Shu sababli axborot madaniyati pedagogik jihatdan umumkasbiy va shaxsiy rivojlanishning tayanch kompetensiyasi sifatida ko‘riladi; u tanqidiy fikrlash, akademik halollik, kommunikativ madaniyat, raqamli xavfsizlik va kasbiy qaror qabul qilish bilan bevosita bog‘liq integrativ sifatdir. Mazkur tezisning konseptual asosida axborot madaniyati “axborot ehtiyojini anglash, izlash strategiyasini tanlash, manbani ishonchlilik mezonlari bilan baholash, axborotni qayta ishlash va

ilmiy-etik me’yorlar asosida taqdim etish” kompetensiyalari tizimi sifatida talqin qilinadi, bu talqinda axborot savodxonligi va media savodxonlik o‘zaro to‘ldiruvchi komponentlar bo‘lib xizmat qiladi [1], [5].

Tadqiqot muammosi shundaki, amaliyotda axborot madaniyatini shakllantirish ko‘pincha alohida mavzu yoki bir martalik trening darajasida qolib ketadi; o‘quv rejasida u tizimli natija sifatida dizayn qilinmaydi, baholash mezonlari esa fragmentar bo‘ladi. Bunday sharoitda talaba axborotni izlash texnikasini qisqa muddatda o‘zlashtirishi mumkin, biroq manbani tanqidiy baholash, iqtibos va bibliografik rasmiylashtirish, argument qurish va ilmiy muloqot madaniyatini barqaror malakaga aylantira olmaydi. Demak, mexanizmlarni takomillashtirish deganda faqat metodlar ro‘yxatini ko‘paytirish emas, balki kompetensiya shakllanishini boshqaradigan didaktik tizimni qayta loyihalash, ya’ni maqsad-natija, mazmun, faoliyat, baholash va refleksiya birlikda ishlaydigan pedagogik konstruksiyani yaratish nazarda tutiladi. Kompetensiyaviy yondashuvda natija “biladi” komponenti bilan cheklanmay, “qila oladi” va “mas’uliyat bilan qo‘llaydi” darajalariga ko‘tarilishi zarur; shu nuqtai nazardan axborot madaniyati talabaning o‘quv va tadqiqot faoliyatiga singdirilgan metakompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi [2].

Oliy ta’lim sharoitida axborot madaniyatini asosiy kompetensiya sifatida shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish uchun konseptual va amaliy modelni asoslashdan iborat. Mazkur maqsad quyidagi metodologik tayanchlarga suyanadi: tizimli yondashuv axborot madaniyatini elementlar va aloqalar majmui sifatida ko‘rib, o‘qitish jarayonida “parchalangan” ko‘nikmalarni yagona natija sari yo‘naltiradi; faoliyat yondashuvi talabaning axborot bilan ishlashini amaliy vazifalar, muammoli topshiriqlar, tadqiqot loyihalari orqali tashkil etishni talab etadi; konstruktivistik qarash esa bilimning tayyor shaklda berilmasdan, manbalarni solishtirish, dalillash, qayta interpretatsiya qilish jarayonida “qurilish”ini ta’kidlaydi [3]. Natijada pedagogik mexanizm talaba faoliyatining bosqichma-bosqich murakkablashuviga asoslangan dizayn sifatida tushuniladi.

Takomillashtirilayotgan mexanizmning birinchi tayanchi modul-kontekstli integratsiyadir. Ya’ni axborot madaniyati alohida kurs sifatida ajralib qolmasdan, fanlar mazmuniga o‘quv topshiriqlari orqali singdiriladi: masalan, ijtimoiy-gumanitar fanlarda manbalar tanqidi, dalil va qarshi dalil, birlamchi va ikkilamchi manbalar farqi; tabiiy va texnik fanlarda ma’lumotlar to‘plami, o‘lchash xatolari, grafik va jadval etikasi; pedagogik fanlarda esa ta’limiy kontentni ekspertiza qilish, metodik materiallarning ishonchliligini baholash, mualliflik huquqi va ochiq litsenziyalar masalalari. Bunday integratsiya “axborot bilan ishlash”ni mazmundan ajratmaydi va talabaning real kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olishini kuchaytiradi. Mazkur yondashuvda o‘qituvchi axborot resurslariga yo‘naltiruvchi “nazoratchi” emas, balki izlanish strategiyasini qurishga yordam beruvchi fasilitator sifatida namoyon bo‘ladi; bunda topshiriqlar talabaning mustaqil tanlovi va qarorini talab qiladigan darajada ochiq bo‘lishi muhim [5].

Ikkinchi tayanch diagnostika va mezonlarga asoslangan baholash tizimidir. Axborot madaniyati “ko‘rinmas” kompetensiya bo‘lgani uchun uni oddiy test bilan to‘liq o‘lchab bo‘lmaydi; shu sababli mezonli rubrikalar va portfel yondashuvi samaraliroq hisoblanadi. Taklif etilayotgan mexanizmda baholash uch qatlamda amalga oshiriladi: kirish diagnostikasi talabaning mavjud izlash odatlari, manba tanlash mezonlari, iqtibos madaniyati haqidagi boshlang‘ich darajani aniqlaydi; jarayoniy baholash loyihaviy ishlar, annotatsiya va bibliografiya tuzish, manba ishonchliligi bo‘yicha ekspert xulosasi kabi mahsulotlar orqali monitoring qiladi; yakuniy baholash esa integrativ vazifa asosida, ya’ni muammo bo‘yicha ilmiy minitaqdimot, yozma tahliliy sharh yoki tadqiqot taklifi shaklida amalga oshiriladi. Mezonlar ishonchlilik, dolzarblik, dalillash sifati, iqtibos va bibliografik rasmiylashtirish, akademik halollik, raqamli xavfsizlik va muloqot madaniyati indikatorlarini qamrab oladi. Bu yerda bibliografik savodxonlikning ahamiyati alohida: manbani to‘g‘ri rasmiylashtirish nafaqat texnik talab, balki intellektual mehnatni e’tirof etish va tekshiriluvchanlikni ta’minlash orqali ilmiy muloqotning legitimligini mustahkamlaydi [1], [2].

Uchinchi tayanch refleksiv amaliyot va metakognitiv qo‘llab-quvvatlashdir. Talaba ko‘pincha “qidirib topdim” bilan “to‘g‘ri tanladim”ni farqlamaydi; shu sababli o‘qitishda refleksiv

savollar, izlanish kundaligi, “manba tanlash qarori”ni yozma asoslash, xatolar tahlili kabi metodlar zarur. Refleksiya mexanizmining ichki dvigateli bo‘lib, u talabaning strategiyasini ongli qiladi: qaysi kalit so‘zlar ishladi, qaysi bazalar samarali bo‘ldi, manbani nima uchun ishonchli deb bildi, qarama-qarshi pozitsiyalarni qanday solishtirdi, xulosaga qanday keldi. Bu jarayonda tanqidiy fikrlashning mantiqiy amallari shakllanadi: dalilni fakt bilan adashtirmaslik, umumlashtirish chegarasini ko‘rish, kontekstni hisobga olish, metodologik cheklovlarni tan olish. Shuningdek, refleksiya akademik halollikning preventiv mexanizmi sifatida ishlaydi: talaba o‘z fikri va o‘zlashtirilgan g‘oyalar chegarasini aniq ajratishni o‘rganadi, plagiatning nafaqat jazoga olib kelishi, balki ilmiy ishonchni yemirishi haqidagi tushunchani ichkilashtiradi [4].

Takomillashtirishning to‘rtinchi yo‘nalishi raqamli didaktika va axborot xavfsizligi komponentini muvozanatli kiritishdir. Raqamli platformalar ta’limni boyitadi, ammo ular bilan ishlash madaniyati shakllanmasa, ma’lumotlar maxfiyligi, soxta manbalar, manipulyativ kontent, “filtr pufagi” kabi xavflar kuchayadi. Shu sababli mexanizmga minimal zarur xavfsizlik ko‘nikmalari: parol gigiyenasi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, ruxsat va litsenziya masalalari, manbaning kelib chiqishi va moliyalashtirish motivlarini tekshirish kabi indikatorlar kiritiladi. Bu yondashuv nazariy ogohlantirish bilan cheklanmay, amaliy vaziyatlar orqali beriladi: masalan, bir xil mavzuga doir turli platformalardagi ma’lumotlarni solishtirish, manipulyativ sarlavhalarni aniqlash, ma’lumotlar “izini” tekshirish, rasm va jadval kelib chiqishini verifikatsiya qilish. Xalqaro tadqiqotlarda bu turdagi ko‘nikmalar media va axborot savodxonligi doirasida barqaror kompetensiya sifatida qaraladi [6].

Taklif etilayotgan modelning ilmiy yangiligi shundaki, u axborot madaniyatini “o‘qitiladigan mavzu”dan “o‘qitishni tashkil etuvchi mexanizm” darajasiga ko‘taradi: modul-kontekstli integratsiya mazmunni ta’minlaydi, diagnostika va rubrikalar boshqaruvni va o‘lchovchanlikni beradi, refleksiya esa barqaror odat va mas’uliyatli qo‘llashni shakllantiradi. Modelning amaliy qiymati shundaki, u turli yo‘nalishlarda bir xil yadro indikatorlar asosida ishlay oladi, lekin kontekstga moslashuvchan: fan xususiyatiga qarab topshiriqlar va manbalar bazasi yangilanadi. Natijada axborot madaniyati bitiruvchining kasbiy kompetensiyalarini qo‘llab-quvvatlovchi universal resursga aylanadi: u ilmiy izlanishda metodologik tozalikni, amaliy qarorlarda dalillarga tayanganlikni, akademik muloqotda esa etik va tekshiriluvchan taqdimotni ta’minlaydi.

Xulosa. Axborot madaniyatini asosiy kompetensiya sifatida shakllantirish oliy ta’lim natijalarining sifat ko‘rsatkichini belgilovchi omildir, chunki u talabaning axborot ehtiyojini ongli boshqarish, manbani tanqidiy baholash, axborotni qayta ishlash va ilmiy me‘yorlarda taqdim etish qobiliyatini bir butun tizimga keltiradi. Takomillashtirilgan pedagogik mexanizm modul-kontekstli integratsiya, mezonli diagnostika va baholash hamda refleksiv amaliyot birligiga tayanib, axborot bilan ishlashni barqaror malakaga aylantirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv natijaga yo‘naltirilgan o‘qitish dizaynini kuchaytiradi, akademik halollikni preventiv asosda qo‘llab-quvvatlaydi va raqamli muhitda mas’uliyatli, dalillangan fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Полонский В. М. Научно-педагогическая информация: словарь-справочник. Москва: Новая школа, 1995. 256 с.
2. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. 40 с.
3. Виготский Л. С. Мышление и речь. Москва: Лабиринт, 1999. 352 с.
4. Bretag T. (ed.). Handbook of Academic Integrity. Singapore: Springer, 2016. 1100 p.
5. Eisenberg M. B., Berkowitz R. E. Information Problem-Solving: The Big6 Skills Approach. Norwood: Ablex Publishing, 1990. 156 p.
6. UNESCO. Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. Paris: UNESCO Publishing, 2011. 192 p.

AXBOROTLASHGAN TA’LIM MUHITIDA MATEMATIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA MUHANDISLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Mingyasharova Sevara Abdulla qizi

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti

o‘qituvchisi. E-mail: sevara3433@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborotlashgan ta’lim muhiti sharoitida matematik modellashtirish asosida muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari tizimli yondashuvda tahlil etiladi. Tadqiqotda modellashtirish jarayonining raqamli vositalar bilan uyg‘unlashuvi orqali talabalarda analitik tafakkur, tizimli fikrlash va muammoli vaziyatlarda asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanish mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirishga qaratilgan didaktik model ishlab chiqilib, uning funksional imkoniyatlari asoslab beriladi. Natijalar matematik modellashtirishning muhandislik ta’limidagi ustuvor metod sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Matematik modellashtirish, muhandislik kompetensiyalari, axborotlashgan ta’lim, raqamli texnologiyalar, didaktik model, kasbiy tayyorgarlik.

Asosiy qism. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy oliy ta’lim tizimida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi [1]. Natijada shakllangan axborotlashgan ta’lim muhiti nafaqat texnik vositalar majmui, balki pedagogik yondashuvlar, metodik ta’minot va o‘quv jarayonini boshqarish mexanizmlarining integratsiyalashgan tizimi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday muhitda ta’lim jarayoni moslashuvchan, ochiq va interaktiv tus oladi, bu esa bilimlarni chuqur va ongli o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, axborotlashgan muhitda tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarining mustaqil ishlash faolligini oshiradi, ularni faqat bilim iste’molchisi emas, balki uni yaratuvchi subyekt sifatida shakllantiradi [2]. Ayniqsa, muhandislik yo‘nalishida bu yondashuv alohida ahamiyatga ega, chunki ushbu sohada murakkab tizimlarni tahlil qilish va optimal yechim ishlab chiqish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Matematik modellashtirish muhandislik faoliyatining nazariy asosini tashkil etuvchi muhim ilmiy metodlardan biri hisoblanadi [3]. U real obyekt va jarayonlarni matematik ifoda orqali aks ettirish, ularni tahlil qilish va prognozlash imkonini beradi. Modellashtirish jarayoni odatda muammoni aniqlash, matematik modelni qurish, hisoblashlarni amalga oshirish va natijalarni tahlil qilish bosqichlaridan iborat.

Mazkur jarayon talabalarda tizimli fikrlashni shakllantiradi. Talaba model ustida ishlash jarayonida muammoni chuqur tahlil qiladi, turli yechim variantlarini solishtiradi va eng maqbul qarorni tanlaydi. Bu esa uning analitik tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv muhim metodologik asos sifatida qaraladi [4]. Muhandislik kompetensiyasi bilim, ko‘nikma va malakalarning uyg‘unlashgan tizimi bo‘lib, u mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali bajarish qobiliyatini belgilaydi. Ushbu kompetensiyalar tarkibiga nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasi va refleksiv tahlil qobiliyati kiradi.

Matematik modellashtirish aynan shu komponentlarning kompleks rivojlanishini ta’minlaydi. Chunki modellashtirish jarayoni talabalardan nafaqat bilim, balki faol tahlil, izlanish va qaror qabul qilishni talab etadi. Shu jihatdan u nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lovchi muhim vosita hisoblanadi.

Axborotlashgan ta’lim muhitida matematik modellashtirishni samarali tashkil etish zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Xususan, MATLAB, GeoGebra kabi dasturlar yordamida murakkab hisoblashlar qisqa vaqt ichida amalga oshiriladi, natijalar esa grafik va vizual shaklda taqdim etiladi [5]. Bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot davomida matematik modellashtirish asosida muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik model ishlab chiqildi. Ushbu model muammoni anglash, model

qurish, natijalarni olish va ularni tahlil qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Modelning afzalligi shundaki, u talabaning faol ishtirokini ta’minlaydi va bilimlarni mustaqil egallashga yo’naltiradi.

Amaliy natijalar shuni ko‘rsatdiki, modellashtirish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalar bilimni chuqurroq o‘zlashtiradi, ularning mustaqil ishlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati sezilarli darajada rivojlanadi. Ayniqsa, real muammolar asosida ishlab chiqilgan modellar talabalarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, matematik modellashtirish muhandislik ta’limida faqat o‘qitish usuli emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. U talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va ilmiy izlanishga intilishni rivojlantiradi.

Shuningdek, modellashtirish fanlararo integratsiyani ta’minlab, bilimlarni kompleks o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Bu esa zamonaviy muhandislik ta’limining muhim talablardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, axborotlashgan ta’lim muhiti sharoitida matematik modellashtirishdan foydalanish muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonining sifatini oshirish, uni modernizatsiya qilish va bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalangan adabiyotlar:


1. To‘xtayev B. Raqamli ta’lim muhiti va uning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2023.
2. Abduqodirov A. Axborot texnologiyalari va ta’lim. – Toshkent, 2021.
3. Boymurodov E. Matematik modellashtirish asoslari. – Toshkent, 2020.
4. Karimov N. Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi. – Toshkent, 2020.
5. Usmonov R. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent, 2023.
6. Mingyasharova S.A. Bo‘lajak muhandis texnologlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion asoslari - Multidisciplinary Scientific Journal. 2023.
7. Mingyasharova S.A. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari, “Ta’lim, fan va innovatsiya” junali 2022-yil 4-son

O‘SIMLIK URUG‘LARIGA EKISH OLDDIDAN ISHLOV BERISH BO‘YICHA MAVJUD USULLARNING TAHLILI

Jizzax politexnika instituti, professor v.b.,
t.f.n., TURON FA akademigi

Xudayberdiyev Abduaziz Abduvaliyevich

Malumki, hozirgi kunda qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida ularga ekish oldidan juda ko‘p usullar bilan ishlov beriladi. Ekish oldidan ishlov berish usullari bir-biridan urug‘ga ta’sir qilish jarayoni bilan farq qiladi. Ular har xil samaradorlikka va yo‘nalishga ega. Ularning eng samaralisini to‘g‘ri tanlab olish kerak Urug‘larga ishlov berishda adgeziya jarayoni katta rol o‘ynaydi. Bu jarayonning kechish sxemasi 1-rasmda keltirilgan/



1- rasm. Urug‘larni qobiqlashda adgeziya jarayoni

Ekish oldidan ishlov berishda qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘i quritiladi va har xil qo‘shimchalardan tozalanadi. Hozirgi kunda quyidagi usullardan foydalaniladi: saralash (kalibrovkalangan); mikroblerden tozalash (dorilash); skarifikatsiya; ho‘llash; barbotirlash; inkrustatsiya; qobiqlash.

Saralash – bu urug‘larni aerodinamik xossalari va o‘lchamlariga qarab fraksiyalarga ajratish. Ko‘p ishlatiladigan usul o‘lchamlariga (uzunligi, eni, qalinligi) asosan fraksiyalarga ajratishdir.

Skarifikatsiya – urug‘ning suv o‘tkazmaydigan qismi buziladi, buning natijasida, uni namlikdan shishi engillashadi, o‘rish jarayoni tezlashadi, unib chiqishi oshadi. Skarifikatsiya uch xil bo‘ladi: **termik, kimyoviy, mexanik**.

Termik skarifikatsiyada urug‘lar avval qaynoq suvga, so‘ngra muzdek suvga solinadi. Bu ish bir necha bor qaytariladi natijada, urug‘ning po‘sti asta-sekin yoriladi, ichiga namlik kiradi va bahorda ijobiy temperaturada issiqlik olgandan so‘ng urug‘ o‘nib chiqadi.

Kimyoviy skarifikatsiyada po‘stloq konsentratsiyalangan kislotalar bilan yumshatiladi.

Mexanik skarifikatsiyada urug‘ po‘stlog‘i shlifovka mashinalarida yupqalashtiriladi.

Skarifikatsiyaning afzalliklari shundan iboratki, urug‘lar tez unib chiqadi, bu o‘simliklarning atrof - muhitda yaxshi sharoit bo‘lmaganda ham hosilni etilishiga olib keladi. Kamchiligi esa shundaki, tashqi ta‘sir natijasida, urug‘larning shikastlanish ehtimoli katta.

Ivitish (namlash)-bu usulda urug‘lar suyuq eritmalarga butunlay cho‘kkuncha solib qo‘yiladi. Bu usul urug‘larning unib chiqishini tezlashtiradi va erta hosil etishtirilishiga zamin tayyorlaydi. Ivitish jarayoni bir necha bor qaytariladi. Har bir ivitishdan so‘ng urug‘lar kerakli namlik ko‘rsatkichigacha quritiladi.

Barbotirlash – bu urug‘larga kislorodga to‘yintirilgan suvda ishlov berish. Bu usul urug‘larning o‘nib chiqish va o‘rishini tezlashtiradi. Bu usulning mohiyati shundaki, urug‘lar

suvga cho‘ktiriladi va idishga tinmasdan kislorod yoki havo berib turiladi. Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, u juda qimmatga tushadi.

Zararli mikroblardan tozalash – bu urug‘lardagi kasalliklarga va hasharotlarga qarshi kurashish va ularning o‘simlikka o‘tishini bartaraf etish. Bu usulda mikroorganizmlarni urug‘lar to‘qimasiga saqlanish payti o‘tishini bartaraf etadi, ularning o‘sinh energiyasi va unib chiqish dinamikasini oshiradi. Urug‘larda patogen mikrofloralarni mavjudligi ularning unib chiqishini pasaytirib, kasallangan o‘simliklar sonini oshiradi. Kasalliklar va hasharotlarning o‘simlikka va urug‘ga ta’sirini yo‘q qilish uchun termik ishlov beriladi va zaharli ximikatlar bilan dorilanadi.

Quruq dorilash – bu jarayonda urug‘ ustiga poroshokka o‘xshash preparatlar ta’sir qildiriladi (bulanadi). Bu usul oddiy hisoblanadi. Kamchiligi shundan iboratki, infeksiyalarning kamayish samarasi past, preparatlar urug‘larga yaxshi yopishmaydi, ishchilarning sanitar-gigiena sharoiti yomon bo‘ladi va atrof-muhit zararlanadi.

Yarim quruq dorilash – ya’ni urug‘lar yuzasiga suvli suspenziya yoki eritmalar bilan ishlov beriladi. Ahamiyatlisi shundan iboratki, infeksiyalar samarali yo‘q qilinadi. Kamchiligi urug‘larning namligi oshib ketadi, qo‘l mehnatini talab qiladi va unumdorligi past.

Ho‘l quriq (mokroe) dorilash – urug‘lar yaxshilab namlanadi yoki suyuq (eritma, suspenziya, emulsiya) preparatlarda 2 soat davomida namlanadi. Bu usulning ahamiyatli tomoni shundaki, yuqori zararli infeksiyalar yo‘q qilinadi. Kamchiligi ba’zi bir ximikatlar urug‘ga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Namlab dorilash – urug‘ sirtiga suspenziyalar, poroshoksimon preparatlar namlash bilan bir vaqtda beriladi yoki namlash keyin bajariladi. Foydali tomoni suyuqlikni yaxshi me’yorlash mumkinligi sababli, preparat kam sarflanadi, bir yo‘la mikro va makro o‘g‘itlar pestitsidlari qo‘shiladi, urug‘lar kam namlanadi, shuning uchun qurish jarayoni tezlashadi.

Plyonka hosil qiladigan tarkiblar bilan dorilash–urug‘lar yuzasiga plyonka hosil qiladigan tarkibdagi pestitsidlar qo‘shiladi va ular mustahkam qobiq hosil qiladi. Shu sababli, ko‘p vaqt o‘z holatini saqlab qoladi. Yaxshi xislatlari: tashish paytida va saqlashda urug‘lar yuzasidan himoyalaydigan-oziqlantiradigan moddalar tushib ketmaydi hamda namlangan tuproqqa qo‘shilib ketmaydi, atrof-muhitga zararli moddalar tarqamaydi, unib chiqish va o‘sinh energiyasi yaxshilanadi. Kamchiligi jarayonning amalga oshirilish murakkab.

Inkrustatsiyalash – urug‘lar yuzasida o‘ralgan plyonka hosil qiladigan eritma o‘sinhni tezlatadigan va o‘simliklarning rivojlanishini jadallashtiradigan moddalar qo‘shiladi. Bu moddalar urug‘lar yuzasini mustahkamlaydi, ularni dorilaydi, mikro jarohat joylarini yopib, ularni tuproqdagi zararli patogen mikrofloralardan himoyalaydi. Urug‘lar yuzasidagi biologik faol moddalarning tushib ketishini kamaytiradi. Suyuq substansiyalar unib chiqishni tezlashtiradi, substansiya o‘z ichiga quyidagilarni oladi: auksinlar, gereraauksinlar va boshqa o‘sinhni ta’minlaydiganlar.

Qobiqlash – qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini sharsimon yoki ellipssimon shaklda himoyalaydigan – oziqlantiradigan birikmalar bilan qobiq qatlami hosil qilishdir. Bu usulda urug‘larning shakli va o‘lchamlari ancha-muncha o‘zgaradi.

Urug‘lar yuzasiga sun’iy qobiq hosil qilishning uchta asosiy usuli mavjud [31; 140-b., 32; 24-b.]:

- 1) ketma-ket qobiqlash;
- 2) granulalarni presslash;
- 3) tabletkalarni shtampovka qilish

Urug‘larni ketma-ket qobiqlash quyidagicha amalga oshiriladi. Navlarga ajratilgan va saralangan urug‘lar qobiqlash qurilmasining aralashtiradigan kamerasiga joylashtiriladi va u erda elimli suyuqlik bilan namlanadi. Har bir urug‘ yuzasida yuqa suyuq qatlam hosil bo‘ladi. Juda namlanib ketishga yo‘l qo‘yilmaydi. Urug‘lar bir-biriga nisbatan erkin harakat qilishlari kerak. Ko‘proq namlansa, urug‘lar o‘zaro yopishib qoladi, bu bir qobiqda ikki yoki uch urug‘ bo‘lib qolishiga olib keladi.

Qobiqlash qurilmasida urug‘lar harakati bir tekis bo‘lgandan so‘ng uning ichiga bo‘laklab quruq birikma – to‘ldiradigan birikma tashlab turiladi va ular namlangan urug‘ sirtiga yopishadi.

Oziqlantiradigan yuqa qobiq paydo bo‘ladi. Bu jarayon kerakli shakl va o‘lchamga ega bo‘lguncha davom ettiriladi. Faol harakat natijasida, aralashtiradigan kamerada kerakli shakl va o‘lchamga ega bo‘lgan zichlangan qobiq paydo bo‘ladi.

Tabletkalarni shtampovka qilish – asosan, AQSH va Yaponiyada qo‘llaniladi. Bu usul farmatsevtikada ishlatiladigan dorilar, tabletkalar ishlab chiqarish mashinasi ish jarayoniga o‘xshaydi. Qishloq xo‘jaligida bu usul qand lavlagi urug‘ini shtampovka qilishda ishlatilishi mumkin. Natijada, qobiq bir xil o‘lchamda bo‘lib, saralashni talab qilmaydi. Usulning kamchiligi urug‘lar katta bosimga duchor bo‘ladi, qurilma universal emas, boshqa o‘simlik urug‘lariga almashtirish ko‘p xarajat talab qiladi.

Granulalarni zichlash orqali qobiqlash usuli – AQSHda o‘tlarning urug‘lariga ishlov berishda qo‘llaniladi. Granulaning sferik shakli kompress mashinada bosish orqali hosil qilinadi. Granulaning o‘lchami 6-9 mm bo‘lib, har bir granula ichida 3-25 ta urug‘ bo‘ladi [33; 29-32-b.].

Shuni ta’kidlash kerakki, urug‘ yuzasini qatma-qat qobiqlash usuli keng tarqalgan. Bu usul orqali ko‘p qatlamli qobiq hosil qilish mumkin. Bu esa mazkur usulning boshqa usullardan afzalligini ta’kidlaydi.

Qatma-qat qobiq hosil qilish usuli universal usul bo‘lib, ko‘pgina o‘simlik urug‘larini qobiqlashda ishlatilishi mumkin. Yana shuni ta’kidlash joizki, qobiqlash qurilmasining narxi boshqalarga nisbatan ancha arzon.

Foydalaanilgan adaabiyotlar

1. Сорокин М.А., Гольдберг Г.А. Состояние и перспективы сортирования посевных семян //Хлопководство. – Москва, 1979. –№2.–С. 6-8.
2. 28. Хаджиев А.Х., Йўлдошев О.К., Джураев Р.Х. Экологоадаптивная технология подготовки семян для раннего и точного сева // “INNAVAISION-2000” Халқаро илмий анжуман материаллари. – Бухоро, 2000. – Б. 79-81.
3. 29. Хаджиев А.Х., Росабоев А.Т., Йўлдошев О.К. Тукли чигитларни қобиқлаш технологияси ва техник воситалар мажмуасини такомиллаштириш//Пахтачилик ва дончиликни ривожлантириш муаммолари: Халқаро илмий-амалий конференция маърузалари асосидаги мақолалар тўплами. – Тошкент, 2004. – Б. 301-304.

EKINLAR URUG‘INI QOBIQLASH JARAYONIDA ERITMANI PURKASH MOSLAMALARI

Jizzax politexnika instituti, professor
v.b., t.f.n., TURON FA akademigi

Xudayberdiyev Abduaziz Abduvaliyevich

Qobiqlash texnologiyasida urug‘larga kerakli elimli suyuqlikni purkash ham asosiy jarayon hisoblanadi chunki, purkash usuli sababli, elimli suyuqlik chigitlar yuzasiga kerakli miqdorda purkash zarur. Bu zaruriyatni keraklicha amalga oshirish uchun purkash konstruksiyalari va ularni joylashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borish kerak.

Qishloq xo‘jaligida purkagichlar kimyoviy ishlov berishda va qisqa vaqt ichida katta maydonlarga mineral o‘g‘itlarni purkab chiqishda ishlatiladi.

Purkagichlar 3 xil bo‘ladi: **osma**, **tirkama** va **o‘ziyurar**.

Osma purkagichlar konstruksiyasi juda oddiy va arzon. Bak hajmi 200-1200 litr atrofida bo‘ladi. Shtanga eni 10-18 metrni tashkil etadi. Bunday purkagichlar 80 gektar maydongacha ishlatiladi. Ular traktorlarga osib qo‘yiladi, harakatni quvvat olish validan oladi.

Tirkama purkagichlar konstruksiyasi juda murakkab bo‘lib, uning baki katta sig‘imga ega bo‘lib, shtanga kengligi 18-24 metrni tashkil etadi. Shtangalar uchdan ettigacha seksiyaga ega bo‘lib, bir-biriga bog‘liqsiz alohida ishlaydi. Boshqaruv bloki har bir seksiyaga yuborilayotgan suyuqlikni nazorat qilib turadi.

O‘ziyurar purkagich mashinalar eng qimmat turi hisoblanadi. Ular o‘simliklarni o‘sish vegetatsiyasining oxirgi bosqichida ishlatilishi mumkin. Ular balandligi juda yuqori bo‘lgan o‘simliklarga ishlov berishda ishlatiladi. U avtonom mashina bo‘lib, xo‘jalikdagi traktorni boshqa

ishlardan jalb qilmaydi. Suyuqlik sig‘imi va ishlov berish kengligi bo‘yicha tirkamali purkagichlarga o‘xshashdir.

Qishloq xo‘jalik o‘simliklariga ishlov berishda purkagichning kichik muammosi bor, unga ko‘p narsa bog‘liqdir, bu suv zarrachalagichdir. U texnikada forsunka deb nomlanadi. Suv zarrachalagich purkash jarayonining sifatli va samarali amalga oshirilishiga olib kelishi kerak. Forsunka purkagichning bir qismi bo‘lib, uncha qimmat bo‘lmaydi. Forsunka ishlab chiqarishga qo‘llanila boshlaganidan beri konstruksiyasida uncha katta revolyusion o‘zgarish bo‘lmagan. Bugungi kunda bozorda juda ko‘p forsunkalar mavjud. Ularning bir-biridan farqi ishlab chiqarilgan materiall (plastmassa, keramika, po‘lat) bosimga ishlash qobiliyati va suv zarrachalash burchagidadir. Suv zarrachalagichlar to‘rt xil bo‘ladi: an‘anaviy tekis elpig‘ichli bog‘lam ko‘rinishida (juda kichik) zarrachalarni hosil qiladi (bosim 1,36-4,08 atm), chiqish joyida cheklagich bilan (deflektorli suv zarrachalagich) past bosimda ishlaydigan teshikli forsunkalar va yuqori bosimda ishlaydigan teshikli forsunkalar. Suv zarrachalagichlar funksional vazifalariga qarab ikki xil bo‘ladi: **tirqishli va injektorli**.

Tirqishli suv zarrachalagichlar juda arzon chunki ular optimal ob-havo sharoitidagina ishlaydi. Havo harorati 20-25°S, nisbiy namligi 60-65 foiz, shamol tezligi 2 m/s bo‘lishi kerak.

Injektorli suv zarrachalagichlar yuqori texnologik hisoblanadi. U optimal bo‘lmagan ob-havo sharoitida ham ishlaydi, ya‘ni yuqori shamol tezligida, namlikda va haroratda. Injektorli suv zarrachalagichlar uzun va qisqa o‘lchamli bo‘ladi. Uzun suv zarrachalagichlar suyuqlik tomchilarining havoda bo‘lish davrini qisqartiradi, parlanishni bartaraf etadi. Qisqa suv zarrachalagichlar sifatli purkash uchun optimal variantdir. Suyuqlikning bekorga sarflanishini kamaytiradi hatto, katta tezlikdagi shamolda ham. Purkagich uchun ishlatiladigan suv zarrachalagichlar plastika yoki keramikadan ishlangan bo‘lishi mumkin. Ikkala material ham dorilar, agressiv moddalarga chidamli. Keramik suv zarrachalagichlar katta konstruktiv boylikka ega, ya‘ni u plastikadan tayyorlanganga qaraganda yaroqlilik davri 5-10 barobar katta, buning uchun har bir ishlov berish jarayoni tugagandan unga kerak texnik qarov o‘tkazilib turilishi lozim.

Qobiqlash qurilmasi ichida elimli suyuqlikning tekis sepilishi katta ahamiyatga ega chunki, urug‘lar uzasiga sepilayotgan elimli suyuqlik sifat elementi ham hisoblanadi demak, jarayonning sifati birikmalarni tekis va intensiv purkalishiga bog‘liqdir.

Zarrachalab sepish (suyuqlikni) – suyuqlik oqimini juda ko‘p tomchilarga bo‘lib, uni fazoga teng tarqatishdir. Quyida mavjud zarrachalash usullarini ko‘rib chiqamiz:

Gidravlik zarrachalash. Suyuqlikni tomchilarga bo‘linib ketishining asosiy energetik omili siqilish bosimi hisoblanadi. Zarrachalagichdan o‘tayotib suyuqlik katta tezlik va zarrachalagich konstruksiyasiga asosan zarrachalar kerakli shaklni oladi. Gidravlik usul orqali olinadigan zarrachalar qo‘pol va bir xil bo‘lmaydi chunki, birikmalar elimsimon bo‘ladi. Shunga qaramasdan sodda konstruksiyaga ega bo‘lgani uchun keng miqyosda ishlatiladi;

Mexanik zarrachalash. Bu usulda suyuqlik energiyani tez aylanayotgan ish organidan oladi. Ish organi bilan birga aylanma harakatni olgan suyuqlik birikmasi markazdan qochma kuch hisobiga, zarrachalagichdan uchib chiqib ko‘p tomchilarga ajraladi. Afzalligi shundan iboratki, u juda yopishqoq suyuqlik birikmalarini ham zarrachalab tashlaydi, konstruksiyasi murakkab emas. Mexanik zarrachalagichlar asossan, juda yopishqoq suyuq birikmali eritmalarini zarrachalashda ishlatiladi.

Pnevmatik zarrachalash. Bu usulda havoning yuqori tezlikdagi oqimi energiyasi suyuqlikka ta’sir ettiriladi. Shu sababli, suyuqlik avval qavatlari alohida iplarga, so‘ngra esa tomchilarga ajraladi. Afzalliklari: suyuq birikma ko‘p harajat talab qilmaydi, konstruksiyasi ishonchli, yuqori yopishqoq suyuqliklarni ham zarrachalay oladi. Kamchiligi: ko‘p energiya va alohida uskuna talab qiladi.

Akustik zarrachalash. Ko‘p tomonlama pnevmatik usulga o‘xshaydi. Suyuqlik energiyani gaz oqimi bilan birgalikdagi harakatidan oladi. Ammo, bu usulda gazga ultratovush chastotasi qo‘shiladi shu sababli, bir xil va yupqa tomchilar olinadi. Bu usul kam harajatli va kelajakda ishlatish ehtimoli katta. Kamchiligi shundan iboratki, konstruksiyasi pnevmatik usulga nisbatan murakkabdir.

Elektrostatik zarrachalash. Suyuqlik sepish payti yoki undan oldin elektrostatik zaryad oladi. Kulon kuchlari hisobiga, suyuqlik oqimi shunday o‘lchamdagi tomchilarga ajraladiki, bu holatda tomchilarning o‘zaro itarilish kuchlari yuzadagi siqilish kuchlari bilan muvozanatlashadi. Bu usulning kamchiligi uning qimmatligidir.

Ultratovush zarrachalash. Suyuqlik ultratovush chastotasida tebranayotgan generator ichiga qo‘yiladi. Uning ichidan kichik tomchilar bo‘linib chiqadi. Bu usulning konstruksiyasi juda qimmat va samaradorligi past.

Pulsatsiya zarrachalash. Bu usulning e‘tiborli tomoni shundan iboratki, zarrachalanib sepilayotgan oqim bosimi yoki sarfi pulsatsiyalanadi. Bu paytda suyuqlik plyonkasi (yoki oqimi) da yuzaki energiya ko‘payadi, oqimning muvozanati yo‘qoladi va buning oqibatida juda yuqalashadi. Pulsatsiya usuli yuqoridagi hamma usullarga hamohang bo‘lishi mumkin. Afzalligi: sifati, ya’ni bir xil maydalanish oshadi, energiya harajati ko‘paymasdan boshqa usulga qo‘shish mumkin, konstruksiyada o‘zgarishlar ko‘p bo‘lmaydi.


Oldindan gazga to‘yintirib zarrachalash. Suyuqlik zarrachalagichgacha yoki undan oldin gazga to‘yintiriladi. Suyuqlikka qo‘shilgan gaz ko‘piksimon bo‘lib, bosim ostida qisilib, ba’zi hollarda unda erib ketadi. Energiyaning oshishi hamda ko‘piklarni tez shishib ketishi va suyuqlikni zarrachalagichdan chiqayotganda gazning desorbatsiya (bir necha bo‘linishi)si natijasida, suyuqlik tomchilari gidravlik zarrachalanishga qaraganda kichik tomchilarga bo‘linib ketadi.

Elektrogidravlik zarrachalanish. Suyuqlik oqimining zarrachalagich qismiga qo‘shimcha yuqori voltli elektr zaryadi yordamida energiya beriladi. Hosil bo‘lgan plazmali shnurda temperatura bir necha ming gradusga, bosim esa bir necha ming atmosferaga ko‘tarilib ketadi. Bu payt yuqori tezlikdagi tomchilar oqimi otilib chiqadi va ular impuls o‘rtasida zarrachalagichdan chiqqan tomchilarga etib borib, yana qo‘shimcha bo‘laklarga bo‘linadi.

Kombinatsiyalangan zarrachalash usuli. Yuqorida ko‘rib chiqilgan usullarning bir nechtasidan baravariga foydalanish mumkin. Masalan , pnevmatik va gidravlik usuldan birga foydalanilsa, kam energiya xarajat qilib, pnevmatik usuldagi ko‘rsatgichlardan yaxshi natija olish mumkin.

Yuqoridagi zarrachalagichlarni o‘rganib chiqib, shu xulosaga kelish mumkinki, qobiqlash qurilmasi ichida oddiy va universal usuli mexanik zarrachalashdir.

1.- rasmda mexanik zarralagichlar tasvirlangan.



1-rasm. Mexanik zarrachalagichlar

Mexanik zarrachalagichlar ikki guruhga bo‘linadi: suyuqlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishchi elementga yuboriladi (1-rasm, a,v,g,d,e,j) va bo‘ktiriladi (1-rasm, b,z). Birinchi guruhdagi zarrachalagich quyidagi elementli bo‘ladi: diskli, pallali, yulduzchali, naychali va reaktiv. Ikkinchi

guruhga diskli va konusli elementlar kiradi. Shuni takidlash kerakki, tomchining o‘lchamlari qancha kichik bo‘lsa, urug‘larning qobiqlanish yuzalarining yig‘indisi shuncha ko‘p bo‘ladi va ishlov berish samarali kechadi.

Yuqoridagi konstruksiyalar tahlil qilingandan so‘ng shunday xulosaga kelish mumkin, mexanik zarrachalash usuli o‘zining tuzilishi murakkab emasligi, narxi arzonligi, kam energiya talab qilishi, kerakli o‘lchamdagi tomchilar olish mumkinligi kabi afzalliklarga ega.

Foydalangan adabiyotlar

1. Изразль Ю.А. Экология и контроль состояния природной среды. - М.: Гидрометеиздат, 1994. - 560 с.
2. Техника и технология безопасного применения средств защиты растений / Ж.Р. Дидио, Д.К. Фишер и др. - М.: Агропромиздат, 2001. - 186 с.
3. Мейсахович Я.А. Наземное малообъемное опрыскивание сельскохозяйственных растений. - М.: Агропромиздат, 2003. - 132 с.

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARINI TASHKIL QILISH

Burhon AHMEDOV,

Jizzax politexnika instituti. “Umumtexnika fanlari” kafedrasida dotsenti.

Akobirbek NURALIEV,

Jizzax politexnika instituti 211-24 MKQ va E guruhi talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqola kasb-hunar texnikumlarida texnika mutaxassisliklari o‘quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etish masalasiga bag‘ishlangan. Fizika fanini, test shaklida nazorat qilish muammosi muhokama qilinadi. Baholash vositalarini shakllantirishda talabalarining ishtirok etish imkoniyati masalasi ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: talabalarining mustaqil ishi, uyga vazifa, sinov, baholash vositalari

Аннотация. Данная статья посвящена вопросу организации в профессиональных техникумах самостоятельной работы учащихся младших курсов технических специальностей. Обсуждается проблема оптимального выбора видов для достижения цели максимально целостного представления о дисциплинарном курсе, форма самоконтроля в виде тестирования. Также рассмотрен вопрос о возможности участия студентов в формировании оценочных средств.

Ключевые слова: самостоятельная работа студентов, домашнее задание, тестирование, оценочные средства

Annotation. This article is devoted to the issue of organizing independent work of junior students in technical specialties in professional colleges. The problem of the optimal choice of species to achieve the goal of the most complete understanding of the disciplinary course, a form of self-control in the form of testing is discussed. The issue of the possibility of students' participation in the formation of assessment tools is also considered.

Keywords: independent work of students, homework, testing, evaluation tools

Kasbiy ta'limning asosiy vazifasi - bu shaxsning intellektual rivojlanishi, mutaxassisning o'z-o'zini o'rganish, o'z-o'zini tarbiyalash va individual ijodkorlik uchun ichki ehtiyojini shakllantirishdir. Bunga o'qitishning mavjud shakllari va usullarini doimiy ravishda tahlil qilish yordam beradi. 15 yildan ko'proq vaqt oldin, kasb-hunar texnikumlarida o'qitish tajribasiga asoslangan kasb-hunar ta'limida sifatli ta'lim tamoyillari shakllantirildi.

Mustaqil ishlashning asosiy ko'nikmalari o'rta maktabda amal qiladi deb taxmin qilinadi. Biroq, tajriba ko'pincha buning aksini tasdiqlaydi. Kasb-hunar texnikumlarining birinchi yilida o'zlarini anglash, tubdan farq qiladigan talablar va o'quv sharoitlariga duch kelgan talabalarining katta qismi ularga moslashishga qiynalishadi, ular mustaqil ishlashning maqbul usulini izlash uchun ko'p vaqt sarflaydilar. Masalan, birinchi yil talabalarining 70% gacha materialni tizimlashtirish usulidan foydalanilmaydi

Kasb-hunar texnikumlari talabalarini uchun kasbiy mutaxassisliklarini o'rganish rejalarida o'quv yuklamasi soatining o'rtacha 30% talabalarining mustaqil ishlariga ajratiladi, bu haftasiga taxminan 20-22 soatni tashkil etadi. Shundan kelib chiqadiki, vaqtning muhim qismi mustaqil

ishlarga bag‘ishlangan. Amalga oshirilayotgan mustaqil ta’lim turlari qisman O‘zbekiston Respublikasi Davlat Ta’lim Standartining talablari bilan tartibga solinadi (ma’ruzalar, seminarlar, test sinovlari va h.k), lekin faoliyatning o‘ziga xos turi fanning predmeti mazmuni, darajasi bilan belgilanadi. Talabalarining tayyorligi va topshiriqlarni amalga oshirish uchun boshqa sharoitlar o‘rganiladi. [1] Talabalarining sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining ishiga bog‘liq. Bu yerda nafaqat o‘quvchilarni darsga oldindan tayyorgarlik ko‘rish, balki kelajakdagi topshiriqlarni bajarish uchun sarflanadigan vaqtni bashorat qilish ham muhimdir, shuning uchun talabalar uyda o‘qitish faoliyatida sarflagan sa’y-harakatlari erishilgan natijalar darajasiga optimal darajada mos keladi. Kasb-hunar kollejlari 1-2 kurs texnika mutaxassisliklarning kunduzgi bo‘lim talabalar tomonidan o‘rganiladigan fizika tarkibidagi 1-blokning asosiy (majburiy) qismi fanlariga tegishlidir. Fan bo‘yicha o‘quv dasturini o‘zlashtirish uchun ajratilgan soat miqdori 216 dan 396 gacha (mutaxassislikka qarab). Ulardan testlar va imtihonlarga tayyorgarlik vaqtini hisobga olgan holda 94 soatdan 140 soatgacha davom etadi.[2] Muammoni hal qilishda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun o‘rtacha haftada 1 soat auditoriya darslari ajratiladi, bu o‘rganilayotgan materialning kutilayotgan hajmi va talabalarining tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda sezilarli darajada yetarli emas. Bundan tashqari, maktab davomida o‘quvchilar odatda ko‘proq uy nazoratini bajaradilar. Kasb-hunar texnikumlarida hozirgi uy vazifalarini bajarish ko‘proq mahoratni rivojlantirishning tavsiyalar xususiyatiga ega bo‘lib, keyinchalik imtihon yoki test sinovlarida kuzatiladi. Interfaol muloqot uchun ajratilgan aniq dars soatlari sharoitida o‘qituvchining vazifasi o‘quv rejasida nazarda tutilgan vaqt oraliq‘iga rioya qilgan holda talabalarining intizom bo‘yicha o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini rejalashtirish, yo‘naltirish va boshqarishdir.[3] Kasb-hunar texnikumlarining moddiy bazasi imkoniyatlariga muvofiq, sinfdan tashqari mustaqil ishlar an’anaviy va noan’anaviy shakllarda tashkil etilishi mumkin. So‘nggi paytlarda bu borada ko‘p ishlar qilingan bo‘lib, laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish, nazariy sinovlar bo‘yicha treninglarni o‘tkazish uchun maxsus ishlab chiqilgan internet saytlaridan foydalanish hisoblanadi. Internet- saytlaridan foydalanishning afzalligi shundaki, ular sinfdan tashqari mustaqil ishlarni vaqtincha boshqarish va sozlash imkoniyatini beradi. Ammo, shu bilan birga, "qisqa savol-javob" shaklida faqat mashg‘ulotlardan foydalanish, qoida tariqasida, talaba faoliyatini hodisaning o‘rnini anglamay, olingan savolga aniq javob izlashga yo‘naltiriladi.[4] Shunday qilib, yakuniy nazorat vaqtiga qadar talabalar o‘qigan kurslari to‘g‘risida eng to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlarini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha mustaqil ishlari turlaridan foydalanish zaruriyati tug‘iladi.. Yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik shakllari har xil bo‘lishi mumkin, ammo har qanday holatda ham ular talabalarni boshidanoq taqdim etilgan materialni tahlil qilishga undashga qaratilgan. Birinchi va ikkinchi semestrlarda birinchi kurs talabalarining bir nechta guruhlar uchun "Fizika" fanidan yakuniy nazorat mashg‘ulotlariga tayyorgarlik shakli sifatida umumlashtiruvchi test tuzish uchun topshiriq taklif qilindi. Ushbu uy vazifasini bajarish uchun qo‘shimcha motivatsiya - o‘qituvchining har bir imtihon chiptasida ular tuzgan testlardan savol bo‘lishi shart. Topshiriq "o‘tdi o‘tmadi" tizimi bo‘yicha baholandi, uning tarkibi quyidagi talablarga javob berishi kerak edi:

- 1) har bir test 4-6 savoldan iborat bo‘lib, albatta kursning turli bo‘limlarini nazarda tutmagan;
- 2) har bir test topshirig‘i 4-5 javobni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular turlari bo‘yicha ham aniq, ham noaniq bo‘lishi mumkin; testning ilovasida to‘g‘ri javoblar ko‘rsatilishi va sharhlanishi kerak;
- 3) test topshiriqlaridan kamida bittasi sifatli savol bo‘lishi kerak;
- 4) topshiriqlar oliy ta’lim jarayonida ko‘rib chiqilgan materialni aks ettirishi kerak, ya’ni maktab o‘quv dasturi doirasidan tashqarida bo‘lishi kerak;
- 5) har xil guruh talabalar tomonidan taklif qilingan test topshiriqlari takrorlanmasligi kerak.[5]

Ushbu uy vazifasini semestr tugashidan bir hafta oldin bajarish tavsiya etilgan. Sinov turlari talabalarni butun dars materiallarini ko‘rib chiqishga, o‘tkazib yuborilgan yoki tushunilishi qiyin bo‘lgan maslahatlarni konsultatsiya uchun o‘zlari aniqlashga undashga qaratilgan edi. Bundan tashqari, bayon qilingan talabalarining oxirgi qismi, o‘rganilgan materialni o‘rganishda jamoaviy o‘zaro ta’sirni nazarda tutgan. Umumlashtiruvchi testlarni tayyorlash uchun taklif qilingan va taklif qilinmagan har xil guruh talabalarining o‘quv faoliyati natijalarini taqqoslash ushbu turdagi

topshiriqlarning o'quv natijalariga ijobiy ta'siri to'g'risida birma-bir xulosa qilishga imkon beradi. Ayniqsa, birinchi semestrda o'qishning birinchi yilida seziladi. Sinovni (imtihonni) o'z vaqtida topshirish mezoniga ko'ra yaxshilanish 10-20% atrofida o'zgargan, ikkinchi semestrda bu ko'rsatkich 5% dan oshmagan. Baholash vositalarini shakllantirish an'anaviy ravishda o'qituvchining imtiyozini deb hisoblanadi.[6] Aynan u taqdim etilgan kursning ko'lamini va asosiy masalalarini to'liq tushunadi. Ammo talabalarning formuladan o'tgan test savollari qisman imtihon chiptalariga qo'shilishi to'g'risida xabardorligi talabalarni testlarning to'liqligiga ko'proq e'tibor berishga undadi va aslida ularni baholash vositasiga qo'shilishiga imkon berdi va shu bilan o'rganishni nazorat qilish funksiyasini o'z zimmasiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. G'G' Jo'raev R.X., Xusanov J.X., Masudov X.F va b. -T.: Sharq, 2001. - 192 b.
2. Maxmudov Yu.G'. Fizikadan savol va masalalar to'plami. O'rta maktab va hunar-texnika bilim yurtlari uchun. -T.: O'qituvchi, 1991. -224 b.
3. Мирзахмедов Б.М. Проблема содержания прикладных вопросов физики в разных типах средних учебных заведений: Дис...д-ра.пед.наук.-М.:1981.322л.
4. Tursunmetov K.A., Uzoqov A.A, Bo'riboev I. Xudoyberganov A.M. Fizikadan masalalar to'plami. -T.: O'qituvchi, 2001. -256 b.
5. Axmedov B. Fizikadan didaktik topshiriqlar to'plami.// Metodik tavsiyanoma. -Jizzax, Jiz PI, 2007.- 14 b.
6. Axmedov B., Inatov X., Ne'matova Sh. O'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini tashkil etish //J. Xalq ta'limi . -2009 -1-son -B. 70-73

TEXNIKA FANLARINI O'QITISHDA IOT ASOSIDAGI ENERGIYA MONITORINGI TIZIMI

O'rishev Ilyosjon Musurmonqul o'g'li.

Farg'ona davlat texnika universiteti

energetika muhandislik fakulteti 42-22 guruh talabasi urishevilyosxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada narsalar internet (IOT) texnologiyalariga asoslangan elektr energiysaini monitoring qilish tizimini ishlab chiqish va amaliy qo'llash masalalari yoritilgan. Taklif etilayotgan tizim WeMos D1mini (ESP8266) mikrokontrolleri va ACS712 tok sensori yordamida elektr yuklamaning joriy iste'molini real vaqt rejimida o'lchash va mosafadn monitoring qilish imkonini beradi. O'lchangan ma'lumot Wi-Fi orqali bulutli platformalarga uzatiladi va mobil ilovalar yordamida vizuallashtiriladi. Energiya sarfi belgilangan chegaradn oshganda foydalanuvchiga SMS yoki elektron pochta orqali avtomatik ogohlantirishlar yuboriladi. Tizimning arzonligi o'rnatish qulayligi va mashtablash imkoniyati uni uy-joy va sanoat obyektlarida enrgiya samaradorligini oshirish uchun istiqbolli yechimga aylantiradi.

Kalit so'zlar: IoT, enrgiya monitoring tizimi, masafaviy monitoring, ESP8266, WeMos D1mini, ACS712 tok sensori, bulutli texnologiyalar, avtomatik ogohlantirish.

Kirish

Narsalar interneti (IoT) tez rivojlanayotgan sanoat bo'lib, u "Aqlli va xavfsiz uy", "Aqlli shahar", "Virtual marketing", "Aloqa va navigatsiya" uskunalari, "Virtual muhandislik" kabi texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Bunday texnologiyalar allaqachon sanoat, biznes, sog'liqni saqlash va iste'mol tovarlari kabi deyarli barcha segmentlarni qamrab olgan. IoT IT sanoatidagi asosiy tendentsiyalardan biridir [1]. Narsalar interneti (IoT) hozirda tez rivojlanayotgan yangi sohadir. Internet bilan bog'liq narsalar hayotni yanada funktsional va qulay qilish uchun mo'ljallangan. Aql va kommunikatsiya tufayli uskunada yangi funktsiyalar to'plami paydo bo'ladi: monitoring, boshqarish, optimallashtirish, avtonomiya [2-4].

Qurilmalarni internetga ulash iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Iste'molchilar o'z xarajatlarini nazorat qilishlari va vaqtni boshqarishlari mumkin, ishlab chiqaruvchilar esa qurilmalarning ishlashini nazorat qilishlari, ularga texnik xizmat ko'rsatish

muammosini osonroq hal qilishlari, shuningdek, yangi daromad keltiruvchi tuzilmalarni taklif qilishlari mumkin.

Energetika sohasida axborot tizimlarining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy tendentsiya Smart Grid konsepsiyasidir. Smart Grid konsepsiyasiga ko'ra, kelgusi yillarda energetika sohasida IT rivojlanishining ustuvor yo'nalishi aqlli (aqlli) hisoblagichlarni keng joriy etishdir. Aqlli elektr hisoblagichlari kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni kuzatib borish va amalga oshirish uchun tarmoq texnologiyalaridan foydalangan holda to'plangan ma'lumotlarni uzatish uchun aloqa vositalari bilan ta'minlangan.[5-6]

Ushbu tadqiqotda IoT (Internet of Things) texnologiyalariga asoslangan energiya monitoringi tizimini ishlab chiqish, joriy etish va samaradorligini baholash uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayoni bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lib, apparat vositalarini tanlash, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish hamda tizim samaradorligini baholashni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot obyekti sifatida sanoat korxonalari va tijorat binolarida foydalaniladigan elektr energiyasi iste'mol jarayonlari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa IoT texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida energiya sarfini monitoring qilish, tahlil qilish va boshqarish imkonini beruvchi axborot tizimidir.[7]

Apparaturaviy ta'minotni tanlash.

Energiya monitoringi tizimini yaratishda quyidagi apparat komponentlardan foydalanildi:

Tok va kuchlanish datchiklari (sensorlar) – elektr energiyasi iste'molini aniqlash uchun (masalan, SCT-013 tok transformatori).

Aqlli hisoblagichlar – elektr energiyasini aniq o'lchash va raqamli formatda uzatish uchun.

Mikrokontrollerlar (ESP32, Arduino yoki Raspberry Pi) – sensorlardan ma'lumotlarni yig'ish va uzatish vazifasini bajaradi.

Aloqa modullari (Wi-Fi, GSM, LoRa) – yig'ilgan ma'lumotlarni markaziy serverga uzatish uchun tanlandi.

Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish.

Tizimning dasturiy qismi uch asosiy darajadan tashkil topdi:

Edge daraja – mikrokontrollerlarda ishlovchi dasturiy ta'minot sensorlardan olingan ma'lumotlarni dastlabki filtrlash va paketlashni amalga oshiradi.

Server (Cloud) darajasi – ma'lumotlarni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash uchun bulutli platforma (Firebase, ThingsBoard yoki AWS IoT) qo'llanildi.

Foydalanuvchi interfeysi – veb yoki mobil ilova orqali energiya iste'molini grafiklar, jadvallar va hisobotlar ko'rinishida aks ettiradi.[8]

Energiya iste'moli haqidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, har 1–5 soniyada) sensorlar orqali o'lchandi. O'lchangan ma'lumotlar mikrokontroller tomonidan qayta ishlanib, simsiz aloqa tarmoqlari orqali serverga uzatildi. Ma'lumotlarning aniqligini oshirish maqsadida shovqinlarni kamaytiruvchi raqamli filtrlash algoritmlari qo'llanildi.

1. Yig'ilgan ma'lumotlar statistik va analitik usullar yordamida tahlil qilindi;
2. Energiya sarfining o'rtacha, maksimal va minimal qiymatlari hisoblandi;
3. Yuklama grafigi va pik (cho'qqi) iste'mol vaqt oralig'i aniqlandi;
4. An'anaviy monitoring tizimlari bilan taqqoslab, energiya tejamkorligi darajasi baholandi.


Shuningdek, mashinaviy o'rganish elementlari yordamida energiya sarfidagi g'ayritabiiy holatlar (nosozlik yoki ortiqcha sarf) aniqlash usullari sinovdan o'tkazildi.[9]

Ishlab chiqilgan IoT asosidagi energiya monitoringi tizimi tajriba-sinovdan o'tkazildi. Sinov jarayonida tizimning: uzluksiz ishlash barqarorligi, ma'lumot uzatish kechikishi, energiya tejash samaradorligi. Ko'rsatkichlari baholandi. Olingan natijalar amaldagi energiya monitoringi usullari bilan solishtirildi.

Tizim samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:


1. energiya sarfini kamaytirish foizi;
2. real vaqt monitoring aniqligi;
3. ekspluatatsiya xarajatlarining qisqarishi;

4. tizimni kengaytirish va integratsiya qilish imkoniyati[10].



1-rasm. IoT tizimining strukturalari

IoT moduliga asoslangan quvvatni monitoring qilish tizimi WeMos D1 mini platformasining bir qismi bo'lgan ESP8266 mikrokontrolleriga asoslangan. Mikrokontroller WiFi orqali MQTT brokeriga ma'lumotlarni uzatishni tashkil qiladi. ACS712 o'zgaruvchan va to'g'ridan-to'g'ri tokni o'lchashi mumkin bo'lgan tok sensori sifatida ishlatiladi, shuningdek, yuk (o'zgaruvchan/to'g'ridan-to'g'ri tok yuki) va o'lchash birligi (mikrokontrollerning bir qismi) o'rtasida izolyatsiyani ta'minlaydi. Elektr energiyasini monitoring qilish tizimining prototipi 2-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. Elektr energiyasini monitoring qilish tizimining prototipi

Node MCU V3 yoki WeMos D1 ning dizayn versiyasida ESP8266 chipidagi IoT modulidan foydalanish, u Internet orqali ma'lumotlarni uzatish qurilmasi va mikrokontroller boshqaruvi vazifasini bajaradi. Bu usul xususiyatlari, hajmi, narxi jihatidan eng katta afzalliklarga ega va shuning uchun elektr energiyasini monitoring qilish tizimini amalga oshirish uchun ishlatiladi.



3-rasm. WeMos D1 mini-modulining port taqsimoti

WeMos D1 mini-modulining port taqsimoti 3-rasmda ko'rsatilgan. Modul 11 ta umumiy maqsadli portlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi portlar qo'shimcha funktsiyalarga ega: GPIO1, GPIO3 - UART, GPIO5 / D1, GPIO4 / D2 - I²C / TWI, D5..D8 - SPI, D1..D7 - PWM chiqishlari (PWM), A0 - ADC dan analog chiqish.

Tok sensori modulga A0 orqali ulangan. Ushbu modulni ulash uchun shunchaki + 5V kuchlanishni qo'llang.[7]

Xulosa

Maqolada WeMos IoT moduli va ACS712-30 sensoriga asoslangan elektr energiyasini monitoring qilish tizimini minimal narxda va uy avtomatlashtirish tizimiga moslashish imkoniyati bilan amalga oshirishning amaliy jihatlarini taklif qilingan. Simsiz texnologiyalardan foydalanish bir qator afzalliklarni beradi: o'rnatish va ishlatish qulayligi, masshtablash va yechimning qulayligi, mobil qurilmalarni integratsiyalash.

Taklif etilayotgan tizim uzoq masofalarda elektr jihozlarning asosiy iste'molchilari tomonidan elektr energiyasi va quvvat iste'mol qilish rejimini tezda kuzatib borish va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa qulaylikni oshiradi. Simsiz texnologiyalar yangi tizimlarni ta'mirlash, ta'mirlash va o'rnatishda jozibador tanlovdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V. Kharchenko (Ed.), Internet of Things for Industry and Human Application, volume 1 of Fundamentals and Technologies, Ministry of Education and Science of Ukraine, National Aerospace University KhAI, 2019 (in English).

2. M. Schwartz, Internet of Things with ESP8266, 2nd. ed., Saint Petersburg, BHV-Peterburg, 2019 (in Russian).

3. V. Petin, Arduino and Raspberry Pi in the Internet of Things projects, 2nd. ed., Saint Petersburg, BHV-Peterburg, 2019 (in Russian).

4. S. Tsyruynyk, Mobile applications and online WI-FI monitoring platforms of weather stations, Open educational e-environment of modern University, volume 9, 2020, pp. 181–192. doi: 10.28925/2414-0325.2020.9.15. (in Ukrainian).

DIGITALIZATION IN MODERN TECHNICAL SCIENCES AND ITS THEORETICAL FOUNDATIONS

*Isroilova Navruza Bakhtiyorjon kizi, assistant
Oripov Jasurbek Ikromjon ugli, Phd
Fregana state technology university*

Abstract: This article analyzes the role of digitalization in modern technical sciences, as well as its theoretical foundations and practical significance. The study highlights the optimization of production processes, improvement of efficiency, and minimization of human factors through the implementation of digital technologies. In addition, the main principles of digitalization, information systems, and the impact of automated control processes on the development of technical sciences are examined. The article also provides scientifically grounded proposals for addressing the challenges arising in the process of digital transformation in modern industrial sectors.

Keywords: digitalization, digital technologies, technical sciences, theoretical foundations, automation, information systems, digital transformation, innovative technologies, production efficiency.

In recent decades, rapid advancements in science and technology have led to the emergence of digitalization as a key driver of development across various sectors, particularly in technical sciences. Digitalization refers to the integration of digital technologies into all aspects of scientific research, engineering processes, and industrial production, fundamentally transforming traditional approaches and methodologies. As a result, it has become an essential component in enhancing productivity, accuracy, and efficiency within modern technical systems.

The growing complexity of industrial processes and the increasing demand for high-quality, cost-effective production have necessitated the adoption of advanced digital solutions. Technologies such as automation systems, data analytics, artificial intelligence, and smart control mechanisms are now widely used to optimize operations and reduce the influence of human error. These developments are closely associated with the concept of Industry 4.0, which emphasizes interconnected systems, real-time data exchange, and intelligent decision-making.

From a theoretical perspective, digitalization is grounded in several fundamental principles, including systems theory, information processing, and cyber-physical integration. These principles provide a scientific basis for understanding how digital tools and platforms can be effectively applied to solve complex engineering problems. Furthermore, the integration of information systems and automated control technologies plays a crucial role in shaping the modern landscape of technical sciences.

Despite its numerous advantages, the process of digital transformation also presents several challenges. These include issues related to data security, system integration, high implementation costs, and the need for skilled professionals capable of managing digital infrastructures. Addressing these challenges requires a comprehensive theoretical framework combined with practical solutions tailored to specific industrial contexts.

Therefore, the study of digitalization in technical sciences, along with its theoretical foundations and practical implications, remains a highly relevant and important research area. This article aims to explore these aspects, analyze current trends, and propose effective approaches for the successful implementation of digital technologies in modern technical fields.

Digitalization in technical sciences is based on a set of fundamental theoretical concepts that define its structure, functionality, and application in various fields. At its core, digitalization relies on the transformation of physical processes into digital formats, enabling efficient data collection, processing, and analysis. This transformation is supported by advances in information and communication technologies, which provide the necessary infrastructure for integrating digital tools into engineering and industrial systems.

One of the key theoretical foundations of digitalization is systems theory, which considers technical processes as interconnected and interdependent systems. According to this approach, each component of a system interacts with others through the exchange of information, allowing for coordinated and optimized performance. Digital technologies enhance this interaction by enabling real-time monitoring and control, thus improving overall system efficiency and reliability.

Another important concept is information theory, which focuses on the transmission, processing, and storage of data. In the context of technical sciences, information serves as a critical resource for decision-making and process optimization. The use of digital platforms allows for the rapid analysis of large volumes of data, often referred to as “big data,” which can be used to identify patterns, predict outcomes, and improve system performance.

Cyber-physical systems (CPS) also play a central role in the theoretical framework of digitalization. These systems integrate computational algorithms with physical processes, creating intelligent environments where machines can communicate, learn, and adapt autonomously. This concept is closely linked to automation and smart manufacturing, where production systems are capable of self-regulation and continuous improvement.

Furthermore, the theory of automation and control systems provides the basis for implementing digital technologies in technical processes. Automated control systems use sensors, feedback mechanisms, and algorithms to regulate operations with minimal human intervention. This leads to increased precision, reduced operational costs, and enhanced safety in industrial environments.

In addition, the concept of digital transformation extends beyond technological changes and includes organizational and methodological shifts. It requires the adaptation of existing processes, the development of new competencies, and the integration of innovative approaches to problem-solving. As a result, digitalization is not only a technical phenomenon but also a

multidisciplinary process that combines engineering, computer science, and management principles. Thus, the theoretical foundations of digitalization in technical sciences provide a comprehensive framework for understanding its impact and potential. These theories support the development of advanced technologies and guide their effective implementation in modern industrial and scientific practices.

In conclusion, digitalization has become a fundamental factor in the development of modern technical sciences, significantly influencing both theoretical approaches and practical applications. The integration of digital technologies into engineering and industrial processes has led to increased efficiency, improved accuracy, and enhanced productivity. The theoretical foundations of digitalization, including systems theory, information theory, cyber-physical systems, and automation principles, provide a solid framework for understanding and implementing these technological advancements.

The study has shown that digital transformation not only optimizes production processes but also enables intelligent decision-making through data analysis and real-time monitoring. At the same time, it contributes to reducing human errors and improving the overall quality of technical systems. However, the implementation of digital technologies also presents certain challenges, such as high costs, data security concerns, and the need for highly qualified specialists.

Therefore, addressing these challenges requires a balanced approach that combines strong theoretical knowledge with practical solutions. Future research should focus on developing more efficient digital tools, improving system integration, and enhancing the sustainability of technological processes. Overall, digitalization remains a key direction for innovation and progress in technical sciences, ensuring their continued evolution in the context of global technological development.

References

6. Schwab, K. (2016). *The Fourth Industrial Revolution*. World Economic Forum Publishing.
7. Rogers, D. L. (2016). *The Digital Transformation Playbook: Rethink Your Business for the Digital Age*. Columbia Business School Publishing.
8. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W. W. Norton & Company.
9. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). “How Smart, Connected Products Are Transforming Competition.” *Harvard Business Review*.
10. Lasi, H., Fettke, P., Kemper, H. G., Feld, T., & Hoffmann, M. (2014). “Industry 4.0.” *Business & Information Systems Engineering*, 6(4), 239–242.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATDA TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Esheva Sarvinoz Axmatovna

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti

katta o‘qituvchisi

E-mail: sarvinovzaripova22022022@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish (Lean Production) tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish masalalari yoritilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoatda tejamkor ishlab chiqarishni (Lean Production) takomillashtirish — narsalar interneti (IoT), sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va avtomatlashtirish texnologiyalarini joriy etish orqali resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishni anglatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, tejamkor ishlab chiqarish, Lean Production, sanoat, innovatsiya, samaradorlik, raqamlashtirish.

Bugungi kunda jahonda raqamli iqtisodiyot jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Bu jarayon sanoat korxonalarining faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko’rsatib, ishlab chiqarishni

optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, tejankor ishlab chiqarish (Lean Production) konsepsiyasini raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Lean Production tizimi dastlab ishlab chiqarishdagi isrofgarchiliklarni kamaytirish, jarayonlarni soddalashtirish va mijoz uchun qiymat yaratishga qaratilgan bo‘lsa, raqamli iqtisodiyot ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirish imkonini bermoqda.

Tejankor ishlab chiqarish – bu ishlab chiqarish jarayonida ortiqcha xarajatlarni kamaytirish, vaqtni tejash va maksimal samaradorlikka erishishga qaratilgan boshqaruv tizimidir. Uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- a) ortiqcha harakatlarni kamaytirish;
- b) ortiqcha zaxiralarni qisqartirish;
- c) ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish;
- d) sifatni doimiy ravishda yaxshilash (Kaizen);
- e) mijoz talablariga moslashuvchanlik.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarida quyidagi texnologiyalar keng joriy etilmoqda:

- a) sun‘iy intellekt (AI);
- b) katta ma’lumotlar (Big Data);
- c) IoT (Internet of Things);
- d) bulutli hisoblash (Cloud Computing);
- e) avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari.

Mazkur texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, nosozliklarni oldindan aniqlash va qaror qabul qilishni tezlashtirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida Lean tizimini takomillashtirish quyidagi natijalarga olib keladi:

- a) ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi;
- b) mahsulot sifatining oshishi;
- c) ishlab chiqarish jarayonining shaffofligi;
- d) resurslardan samarali foydalanish;
- e) inson omiliga bog‘liq xatoliklarning kamayishi.

Masalan, IoT texnologiyalari yordamida uskunalarining ishlash holati doimiy nazorat qilinib, rejalashtirilmagan to‘xtashlar kamaytiriladi.

Lean Production tizimini raqamli iqtisodiyotga moslashtirishda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- a) yuqori boshlang‘ich investitsiya xarajatlari;
- b) malakali kadrlar yetishmasligi;
- c) texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi;
- d) o‘zgarishlarga qarshilik (organizatsion muammo).

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- a) xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- b) davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish;
- c) bosqichma-bosqich raqamlashtirish strategiyasini ishlab chiqish;
- d) innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tejankor ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Raqamli texnologiyalarni Lean Production tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Kelgusida sanoat korxonalarida to‘liq raqamlashtirilgan Lean tizimlarini joriy etish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va global bozorda mustahkam o‘rin egallash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum, 2017.
2. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company, 2014.
3. Xolboyev S. X. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari, TDIU ilmiy jurnali, 2022, №4.
4. Ibragimov U. Sh. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni, Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2023, №2. 1232 WWW.INFOCOM.UZ “RAQAMLI IQTISODIYOT” ILMIY-ELEKTRON JURNALI | 11-SON
5. Tursunov B. O. Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. // “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, 2022, №3.
6. Karimov Z. A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish strategiyalari. // “Innovatsion rivojlanish” ilmiy jurnali, 2021, №2.
7. Rajabov M. M. Korxonalarda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning zamonaviy yondashuvlari. // “Iqtisodiyot va moliya” jurnali, 2020, №1.
8. Abdug‘aniev A. A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida resurslarni boshqarishning kompleks modeli. // Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy axborotnomasi, 2023, №2.
9. https://www.academia.edu/126848295/Yangi_ozbekiston_iqtisodiyoti
10. Saidov I. I. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarining raqamli transformatsiyasi: holat va istiqbollari. // “Milliy iqtisodiyot” ilmiy-amaliy jurnali, 2022, №1.
11. <https://jrpsjournal.in/>

**INNOVATSION IQTISODIYOT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA
IQTISODIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

Esheva Sarvinoz Axmatovna

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti
katta o‘qituvchisi

E-mail: sarvinazaripova22022022@gmail.com

Abdurashidova Mahliyo Shuxrat qizi

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti
2-kurs talabasi

E-mail: amahliyo221@gmail.com

Annotatsiya.

Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli texnologiyalar, xususan, sun‘iy intellekt (AI) algoritmlaridan foydalanishning kontseptual asoslari hamda uning savdo korxonalaridagi strategik o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati, elektron tijorat bozorining joriy konyunkturasi va undagi o‘sish dinamikasi iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida yoritilgan. Shuningdek, sohani rivojlantirishdagi dolzarb masalalar, biznes-jarayonlarni optimallashtirishning afzalliklari hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ustuvor vazifalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, savdo korxonalari, elektron tijorat, raqamli transformatsiya, iqtisodiy samaradorlik, investitsion muhit.

KIRISH

XXI asr iqtisodiyoti innovatsiyalar va raqamlashtirish jarayonlari bilan tubdan o‘zgarib bormoqda. An‘anaviy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimlari o‘rmini zamonaviy, texnologik yechimlarga asoslangan model egallamoqda. Innovatsion rivojlanish har bir davlatning raqobatbardoshligini ta‘minlovchi omilga, raqamli iqtisodiyot esa global iqtisodiy muhitning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu maqolada innovatsion taraqqiyot va raqamli iqtisodiyotning mohiyati, ularning o‘zaro bog‘liqligi va O‘zbekiston tajribasi misolida tahlil qilinadi.

Innovatsion rivojlanish tushunchasi va uning iqtisodiyotdagi roli. Innovatsion rivojlanish — bu yangi g‘oyalarni yaratish, ularni mahsulot, xizmat yoki texnologiya ko‘rinishida joriy etish orqali

iqtisodiy o‘rinishga erishish jarayonidir. Bu jarayon ilmiytadqiqot ishlari, texnologik yangiliklar, ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslashish orqali amalga oshadi. Innovatsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, bandlikni rivojlantiradi va raqobatbardoshlikni ta’minlaydi. Innovatsiyaning asosiy shakllari: Mahsulot innovatsiyasi – yangi yoki yaxshilangan mahsulotlar yaratish. Jarayon innovatsiyasi – ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish usullarini takomillashtirish. Tashkiliy innovatsiya – boshqaruv, axborot oqimlari, resurs taqsimoti sohasidagi yangiliklar. Marketing innovatsiyasi – bozorni o‘rganish, narx siyosati yoki mijozlar bilan aloqadagi yangi yondashuvlar. Innovatsiyaning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati – Iqtisodiy o‘rinishni jadallashtiradi. Innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, bu esa yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning o‘rinishga olib keladi.

Raqobatbardoshlikni ta’minlaydi masalan Texnologik yangiliklarga asoslangan mahsulot va xizmatlar ichki va tashqi bozorda ustunlik beradi, Ish o‘rinlari yaratadi masalan Innovatsion sohalarda yangi kasblar, yangi talablar va bandlik turlarini yuzaga keltiradi. Ilm-fan va ta’lim bilan bog‘liqligini mustahkamlaydi. Innovatsiyalar ilmiy tadqiqotlarga asoslangan bo‘lib, bilimga asoslangan iqtisodiyot shakllanishiga xizmat qiladi. Resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Energiya tejamkor texnologiyalar, chiqindisiz ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlar ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi. Tadqiqotning vazifalari esa sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish bosqichlarini tadqiq qilish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or boshqaruvni qo‘llashni kengaytirishra ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma’lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish, taqqoslash, iqtisodchi olimlarning qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha izlanishlari hamda sohaga doir xulosalar tahlil qilinib fikr mulohaza yuritildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Innovatsion iqtisodiyot — bu faqatgina yangi g‘oyalar emas, balki raqamli texnologiyalar, xususan, sun‘iy intellekt (AI), bulutli texnologiyalar (Cloud Computing) va katta ma’lumotlar (Big Data) kabi instrumentlarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish zanjiriga integratsiyalashuvidir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion muhitning samaradorligi bevosita inson kapitali sifati va raqamli infratuzilma bilan belgilanadi. O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli shakllantirilmoqda. Raqamli texnologiyalar sharoitida iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismlari. Tadqiqot davomida iqtisodiy o‘rinishni ta’minlovchi quyidagi asosiy raqamli komponentlar aniqlandi: sun‘iy intellekt (AI) savdo korxonalarida biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish, mijozlar segmentatsiyasini amalga oshirish va talabni prognozlash orqali operatsion samaradorlikni oshiradi. Elektron platformalar va E-commerce: Amazon va Alibaba kabi global modellar asosida mahalliy marketpleyslar rivojlanishi, tranzaksiya xarajatlarini (transaction costs) optimallashtirmoqda.

Fintech va Raqamli to‘lovlar: Click, Payme va blokcheyn tizimlari orqali moliyaviy oqimlarning shaffofligi ta’minlanib, yashirin iqtisodiyot ulushi qisqartirilmoqda.

Iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va davlat strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasining 2019–2021 va 2022–2030 yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyalari iqtisodiyotni texnologik transfer bosqichiga olib chiqdi. Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi 5 yilda davlat xizmatlarining 80% dan ortig‘i raqamli formatga o‘tkazildi, bu esa iqtisodiy munosabatlarda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etdi, IT-parklar va startup ekotizimi: Innovatsion mahsulotlarni prototiplashtirish va tijoratlashtirish jarayoni 3D simulyatsiyalar hisobiga bir necha barobar tezlashdi.

Kiberxavfsizlik: raqamli iqtisodiyotning barqarorligi uchun axborot resurslarini himoya qilish tizimlari jadal modernizatsiya qilinmoqda.

Savdo korxonalarida innovatsiyalarning ahamiyati. Raqamli transformatsiya sharoitida savdo korxonalari nafaqat tovar sotish, balki ma’lumotlar tahlili (Data Analytics) orqali qiymat yaratish markazlariga aylanmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omilidir. Kelgusida raqamli savodxonlikni oshirish va “Industry 4.0” elementlarini joriy etish iqtisodiy rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘lib qoladi.

Xulosa va takliflar

XXI asr global iqtisodiyoti innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar asosida shakllanmoqda. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat iqtisodiy o‘shishning muhim manbai, balki davlatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi strategik omilga aylandi. Innovatsiyalar iqtisodiyotga yangi turtki beradi, texnologik yangilanishni ta’minlaydi va inson kapitalidan samarali foydalanishga yo‘l ochadi. Raqamli iqtisodiyot esa bu innovatsiyalarning amaliyotga tez va keng miqyosda tatbiq etilishiga imkon yaratadi. O‘zaro bog‘liq holda rivojlanayotgan innovatsion va raqamli yo‘nalishlar sanoat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, moliya va davlat boshqaruvi kabi asosiy sohalarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, Big Data, blokcheyn, raqamli to‘lov tizimlari va elektron hukumat kabi texnologiyalar iqtisodiy faoliyatda shaffoflik, tezkorlik va samaradorlikni oshirmoqda. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishlarda izchil siyosat olib borilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “Innovatsion rivojlanish strategiyasi” kabi muhim dasturlar orqali mamlakat innovatsion iqtisodiyotga o‘tish yo‘lida mustahkam zamin yaratmoqda. Ilm-fan, texnologiya, AKT va inson kapitaliga yo‘naltirilgan islohotlar natijasida raqamli transformatsiya va innovatsion muhit shakllanmoqda. Xulosa qilib aytganda, innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot bir-birini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi omillar bo‘lib, ularning uyg‘unligi har bir mamlakat iqtisodiy salohiyatini ochib berishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston bu yo‘nalishda salmoqli yutuqlarga erishmoqda va bu strategik yondashuv milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

10. Lean Enterprise Institute. "Lean Thinking and Practice."
<https://www.lean.org/lexicon-terms/lean-thinking-and-practice/>
11. Ohno, T. (1988). Toyota Production System: Beyond Large-Scale Production. Productivity Press.
12. Manufacturing Tomorrow. (2023). "The 8 Wastes of Lean Manufacturing."
<https://www.manufacturingtomorrow.com/article/2023/03/the-8-wastes-of-leanmanufacturing/20284>
13. Womack, J.P., Jones, D.T. (1996). Lean Thinking: Banish Waste and Create Wealth in Your Corporation. Simon & Schuster.
14. Shavqiyev, E., Yarmuxammedova, B. (2025). "Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslari tejamkorligini ta’minlash yo‘llari." Modern Education and Development, 20(2), 55–58. <https://inlibrary.uz/index.php/mead/article/view/95079>
15. Womack, J.P., Jones, D.T., Roos, D. (1990). The Machine That Changed the World. Free Press.
16. Liker, J.K. (2004). The Toyota Way: 14 Management Principles from the World’s Greatest Manufacturer. McGraw-Hill.
17. Antonio, A. (2024). "Lean Manufacturing and Its Impact on Production Efficiency." JRIBM, 11: 025. <https://www.interestjournals.org/articles/leanmanufacturing-and-its-impact-on-production-efficiency.pdf>
18. Lean Enterprise Institute. (2022). Research Reports on Lean Manufacturing Adoption and Impact. <https://www.lean.org/>
19. OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2023.

11. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi
12. Rustamov, I. A. (2023). Raqamli iqtisodiyot asoslari.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. 2020-yil 5-oktyabr

ТЕМИР АТАМАСИ ҚАНДАЙ ПАЙДО БЎЛГАН?

Мирзақкулов Турсунали Ўтаевич, филология фанлари доктори, Ипак йўли инновациялар университети профессори
Мирзакулова Феруза Турсуналиевна, Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети магистри

Калит сўзлар: темир, демир, темир қозик, пакир, мис, Илоқ давлати

Кишилиқ жамиятининг пайдо бўлиши тарихгача ва тарихий деб икки даврга ажратилади. Тарихгача бўлган давр ҳақида кўплаб фаразлар, қарашлар мавжуд. Тарихий давр ибтидоий ҳаётдан бошланиб, у ҳақда ашъвий далиллар - тош қуроллар, қояларга ўйилган турли тасвирлар сақланиб қолган. Меҳнат инсоннинг аниқ бир мақсадга қаратилган фаолиятидир. Кутилган натижага тезроқ ва кўнгилдагидек эришиш, бунда вақт ва меҳнат сарфини камайтириш, уларни тежаш эҳтиёжи туфайли, инсон тажрибаси ва кўникмаларининг такомиллашуви янгидан янги меҳнат қуролларининг яратилишига олиб келди. Ана шундай эҳтиёж темир маъданини аниқлаш ва ундан турли қуроллар, уй-рўзғор буюмлари яшаш имконини яратди. Кейинчалик саноат инқилоби туфайли темир буюмлар, воситалар инсоният ҳаётининг барча соҳаларидан мустаҳкам ўрин олди.

Тил, тарих, этнография, этногеография каби фанлар эришган натижалар бугунги кунда ЕвроОсиё кенгликларида қадимги даврлардан яшаб келган қавмлар ва халқларнинг тилларини Олтой тиллари оиласи деб умумлаштиришга олиб келди. Энди бу тил оиласига туркий тиллар, мўғул тиллари, тунгусс-маньчжур тиллари ва шартли равишда корейс ва япон тиллари киритилмоқда.

Ўзбек тили туркий тиллар гуруҳига мансуб бўлиб, қозоқ, қирғиз, уйғур, туркман, озарбайжон, турк, татар, бошқирд, чуваш, ёқут, қрим-татар каби 30 дан ортиқ тиллардан ташкил топган.

Бу халқлар ҳам инсоният цивилизацияси ривожига муносиб ҳисса қўшиб келганлар. Инсоният тарихида қадимги цивилизация ўчоқлари экваторга яқин минтақалар, жумладан, Шарқ минтақалари – Корея, Хитой, Ҳиндистон, Ўрта Осиё, Яқин Шарқ ва айрим бошқа ҳудудларда жойлашган.

Темир сўзи демир, дамир, темир, тимур, темур каби шаклларда деярли барча Олтой тиллари ва уларнинг шеваларида сақланиб қолган. Бу сўз турк тили орқали эса славян тиллари, жумладан, болгар ва серб тилларига ҳам ўтган.

Дунёнинг жуда кенг ҳудудларига тарқалган бу сўзнинг келиб чиқиши (этимологияси) ни айрим олимлар қадимги ҳинд тили- санскритча қора- қизил металл маъносини англатувчи тамра, тамрака сўзи билан боғлайдилар, бошқа олимлар эса умумолтой тилларидаги термур шаклининг қисқаришидан ҳосил бўлган сўз деб тахмин қиладилар. Албатта, бу борада аниқ бир фикрга келиш қийин. Сабаби, темир ва у билан боғлиқ ҳунармандчилик қадимги даврларга бориб туташади. Фойдали қазилмалардан темир ажратиб олиш инсон турмушини янги босқичга олиб чиққан, унинг меҳнاتини енгиллаштирган, кўплаб фойда ва қулайликлар яратган.

Туркий эл ва қавмларнинг ўз даврида юксак маданий савияси ва салоҳиятини кўрсатувчи милонинг VII асри ва VIII аср бошларига оид Ўрхун -Енисей ёдгорликлари (Қултегин ҳама Тонюқуқ тошбитиклари) да Темир қапуғ (“Темир дарвоза”) ибораси учрайди. Ибора таркибидаги қапуғ, қопқа сўзи тарихий даврларда йўл ўтган тоғ дарасининг энг тор қисмини- “дарвоза” маъносини англатган.

Олимларнинг фикрича, темир сўзи тошбитиклар яратилган даврдан анча олдин ҳам ишлатилишда бўлган.

Қадимги ёдгорликларда **Темир қозик** бирикмаси ҳам қайд этилган. Бу кўхна астрономик тушунча аجدодларимизнинг ўша даврлардаги самовий билимлари ҳам юқори даражада бўлганлигини кўрсатади. Темир қозик атамаси ”Қутб юлдузи” - “Полярная звезда” маъносини билдирган. Бу каби тушунчалар осмон жисмларининг ўзига хос ўринлашиш ҳолатини билиш, дунё томонларини белгилаш, фасллар алмашинуви, об-хавони кузатиш каби ҳаётий эҳтиёжлардан келиб чиққан.

Алишер Навоийнинг “Тарихи анбиё ва ҳукамо” асарида қайд этилишича, Довуд пайғамбар худодан бир ҳунар сўраган: “Яратувчи Тангри унга темирчилик, совутсозлик ҳунарини каромат қилди. Яна бир мўъжизаси шу эдики, темир унинг қўлида мумдек юмшарди, қийинчилик тортмай истаган асбобин ясар, ясалгандан кейин эса темир яна ўз ҳолига бориб қотарди.”

Темирчи ва темирчилик қадимдан юқори ҳурмат ва эътиборга сазовор бўлган. Темирчи уста ноёб касб эгаси бўлиб, бу касбни эгаллаш юксак маҳорат, малака ва тажрибани талаб этган.

Жамиятларда даврлар оша аجدодлардан авлодларга ўтувчи, ўзига хос сир - синоатни жамлаган касб-ҳунар эгалари- темирчилар сулоласи шаклланган. Шаҳар ва қишлоқларда темирчилар маҳаллалари, бозорларда темирчилар расталари ва дўкони кўпая борган. Довуд пайғамбар темирчиларнинг пири, ҳимоячиси деган ақида, эътиқод халқ онгидан мустаҳкам ўрин ола бошлаган.

Темирчилар сулоласига мисол тариқасида ҳудудимиздаги Оҳангарон шахрининг пайдо булиши тарихини келтириш мумкин. Оҳангарон сўзи тожик тилидан олинган бўлиб, оҳан-темир, оҳангар-темирчи, оҳангарон- темирчилар дегн маънони билдиради.

Рус – немис олими Макс Фасмер немис тилида яратилган ва қарийб қирқ йиллик умрини сарфлаган тўрт жилдлик “ Рус тилининг этимологик луғати “(Этимологический словарь русского языка “, 3 – нашри, С.-Петербург, 1996 йил, 174-бет)да темирчи (“кузнец”) маъносидаги блехчий сўзи рус тилига Европа тилларидан эмас, балки туркий тиллардан олинган бўлиши мумкин деб кўрсатади, яъни географик тарқалиши ва сўз ясалиш хусусияти ҳисобга олинса, рус – славян тилларига бошқирд ва татар тиллари учун асос бўлган қадимги булғор тилидан ўзлашган. Туркий тилларда кенг тарқалган уддабурон , ақлли , донишманд маъноларини билдирадиган биликчи, билгучи сўзлари блехчий шаклида рус – славян тилларига мослашган кўриниш сифатида баҳоланади.

Қадимги тилимизда темирчи маъносида тархон, дархон сўзи ҳам ишлатилган, кейинчалик сўзнинг бу маъноси унутилиб, уста, тадбиркор, солиқлар ва айбланишдан озод қилинган шахс, юқори мансаб ва хусусий мулк эгаси каби маъноларни ифодалаган. Айни шу маънолари билан рус – славян тилларига кенг тарқалганлигини М.Фасмер ўз луғатида махсус қайд этади (IV жилд, 25 – бет).

Ўзбек халқ шеваларидан Поп шевасида дархон сўзи “озод киши” маъносида ишлатилса, курама шевасида дарқанчилик “кенгчилик, ўзини эркин сезмоқ, мўл-қўлчилик” каби маъноларда ишлатилади.

Ҳозирги илмий талқинга кўра, темир болғаланганда яссиладиган, исталган шаклга кирадиган, углерод билан қўшилганда пўлат ва чўян ҳосил қиладиган қорамтир кумуш рангли оғир металл ҳисобланади.

Темир сўзи ҳозирги тилимизда бир қанча кўчма маъноларни билдиради. Темир дафтар, темир интизом, темир ирода, темир қанот (чумчук болалари- полапонлар ҳақида), темир хотин, темирни қизигида бос, гапга темирчи(эзма, мижғов) каби маънолар бир қанча даврларнинг маҳсулидир.

Демак, сўзлар борлиқдаги турли нарса, белги,ҳаракат ва жараёнлардаги энг асосий маънони ифодалаб, якка шахс ва ижтимоий онг, тафаккур тараққиётини ўрганишда бебаҳо манбадир.

Мис (бақир) атамаси

Мис атамаси тожик тилидан олинган бўлиб, рангли металллардан бирини англатади. Қадимги даврларда – мис олина бошланган даврлардан бошлаб, ушбу металл бақир атамаси билан юритилган. Ушбу атама туркий тиллар ва уларнинг шеваларида мис, қизил мис, ҳатто бронза, латунь, мис аралашмаси (окись меди) каби маъноларни билдиради.

Оҳангарон водийсида ташкил топган Илоқ давлатида жаҳон бозори эҳтиёжлари учун олтин ва кумуш тангалар чиқарилган бўлса, маҳаллий муомала учун мис тангалар тайёрланган. Ҳозирги Оҳангарон яқинида жойлашган Хонободда Соҳибқирон Амир Темурнинг зарбхоналаридан бири жойлашган бўлиб, таркиби юқори сифатли тангалар давлат хазинасини бойитишга хизмат қилган.

Мис тангалар маҳаллий бозорларда кўп ишлатилганлигидан бақир атамаси “майда мис танга”, “кичик муомала бирлиги” маъноларини билдирган. Ўзбек тилида ушбу бирлик “пақир” шаклида келиб, икки тийинлик чақа” қийматини ифодалаган. Шу асосда кўчма маъноли “бир пақирга қиммат, ҳеч нарсага арзимади” каби иборалар пайдо бўлган.

Ўрта асрларда ва ундан кейин йармақ (“Девону луғотит турк” асарида), ақча, пайса каби пул бирлиги (танга) муомалада бўлган. Ўрхун – Енисей ёдномаларида ағри, ағи-баргга ўхшаш қилиб тайёрланган олтин танга.

“Қадимги туркий луғат” да бақир ўлчов бирлиги сифатида тўрт граммдан камроқ ёки 0,1 унция миқдорни билдириши қайд этилган. Тошкент, Қашқадарё шеваларида пақир сўзи “мис чақа” маъносида ишлатилади.

Бақир (мис)дан турли идиш ва анжомлар ясалган: пақир (челак), мис кўвача, мис қумғон, мис қозон, мис қўшқулоқ (кастрюль), эшик ҳалқалари кабилар. Агар уста мисдан ясалган идишларни сифатсиз тайёрлаган бўлса, иссиқ суюқлик қуйилиши билан мис эритмаси юзага қалқиб чиққан. Шу асосда халқ тилида “миси чиқди” ибораси пайдо бўлган. Бу ибора кўчма маънода алдамчилик, ёлғончилик, фирибгарликнинг фош бўлиши маъносини касб этган. Мис рангига ўхшашликка кўра планеталардан бири- Марс “Бақир соқим” деб номланган. Юпитер юлдузи- Эрантуз, Мизон юлдузи- Қорақуш, Сурайё юлдузи- Хулкар, Етти қароқчи- Йетикан, Кутб юлдузи- Темирқозиқ атамалари борлик (коинот) ни кузатиш, самовий жисмлар ҳақидаги билимларни умумлаштириш натижалари ҳисобланади.

Буюк Алишер Навоий асарларида ўн саккиз минг олам етти қават осмон каби тушунчалар ишлатилади. Ер юзасидаги маъданлар Ой ва Қуёшдан олинган:

Чарх еткурди ою кундин хишт,
Ясанур деб ер узра етти биҳишт

ТЎРКУНЛАБ КЕТМОҚ ЁКИ ТУРК, ТУРКИЙ АТАМАЛАРИ ҲАҚИДА

Мирзақкулов Турсунали Ўтаевич, филология фанлари доктори, Ипак йўли инновациялар университети профессори
Мирзақулова Феруза Турсуналиевна, Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети магистри

Ўзбек миллий тилининг асосларидан бири қипчоқ лаҳжаси ҳисобланади. Қипчоқ лаҳжасига мансуб қурама шевасида тўркунлаб кетмоқ ибораси ишлатилади. Бу ибора жуда қадимий бўлиб, туркий кабилалар бирлашмалари шаклланаётган даврдаги кўпгина кабилаларга тегишли сўзлардан ҳисобланади. Ибора мазмунидан келин ота-онасиникига тўрт кунга кетди маъносини ҳам англаш мумкин. Аслида тўркун сўзи умум- туркий сўз бўлиб, қадимдан қуйидаги ўзаро яқин шакл ва маъноларда ишлатилган: туркун- “қабила тўпланадиган жой”, “қариндош-уруғлар”, “ота-она уйи” каби.

Маҳмуд Кошғарийнинг XI асрда яратилган “Девону луғотит турк” асарида туркун- “халқ”, “қабила”, “ота-она уйи” маъноларини билдиради. Қирғиз тилида эса тўркун “аёл кишининг ота-онаси ва қариндош-уруғлари” маъносидадир.

Академик В.В. Радловнинг “Туркий лаҳжалар луғати” да бу сўзга “ота, ота-она, аёлниң барча қариндош-уруғлари” деб изоҳ берилган.

Бошқирд тилида туркен “ота-она уйи”. “Қадимги туркий луғат” (“Древнетюркский словарь”, Л.,1969 581- бетда) туркун, тўркун “уруғ”, “қабила”, “қон-қариндошлар уйи” маънолари қайд этилган. Мўғул тилида торгун (қўплик шакли торгут) “она томондан қариндош-уруғлар”, “аёлнинг қариндошлари” мазмунини англатади. Академик А.Н.Кононовнинг кўрсатишича, тўркун-туркун сўзининг ўзаги тура, туру, тўру шаклида бўлиб, “пайдо бўлмоқ”, “туғилмоқ”, “келиб чиқмоқ” маъноларини билдирган. Бурят тилида турэхэ, мўғулча торох “туғмоқ”, “туғилмоқ”. Кейинчалик туркун сўзининг қисқариши натижасида турк атамаси “хукмрон қабилага тегишли зодагонлар оиласига мансуб шахс” маъносида ишлатилган. Олимларнинг фикрича, турк атамаси “ҳоқонликни ташкил этган қабилалар уюшмаси”, “ҳарбий –сиёсий уюшма” каби маъноларни ҳам ифодалаган.

Араб тилидаги илмий манбаларда турк атамаси ЕвроОсиё ҳудудларида келиб чиқиши ва тил яқинлигига эга бўлган халқларга нисбатан қўллана бошлаган.

М.Кошғарий “Девону луғотит турк” асарида “Мовароуннаҳрдан Шарққача бўлган ўлкаларни турк шаҳарларидан деб ҳисоблашнинг асоси шуки, Самарқанд - Семизканд, Тошканд- Шош, Ўзканд, Тунканд номларининг ҳаммаси туркчадир. Канд туркча шаҳар демакдир. улар бу шаҳарларни қурдилар ва шундай ном қўйдилар. Ҳозиргача ҳам шундай келмоқда”, -деб ёзади.(III жилд, 164-бет)X-XI асрларда қорлуқ –чигил, қипчоқ, ўғуз каби қабилаларнинг бирлашуви асосида ўзбек халқи шаклланди. Бу халқ турк ва унинг тили туркий тил атамаси билан бошқа халқ ва тиллардан фарқланди.

Амир Темур салтанати ва ҳазрат Алишер Навоий даврида ўзбеклар турк ва ўзбек адабий тилини туркий тил деб номлаш кенг ёйилди.

Алишер Навоий фахр билан ёзади :

Турк назмида чу тортиб мен алам,

Айладим ул мамлакатни якқалам

Мазмуни: мен турк (ўзбек) назмида байроқ кўтариб, ул мамлакатни ягона адабий тилга бирлаштирдим.

Тахти фармонимга олибмен осон,

Черик чекмай Хитодин то Хуросон.

Мазмуни : Кўшин тортмай Хитодин Хуросонгача бўлган ерларни қўл остим (тахти фармоним) га осонлик билан бирлаштирдим.

Атоқли адиб Чингиз Айтматов 80-йилларида Алишер Навоий даври ўзбек маданияти ҳақида фикр юритар экан : “Византия маданияти славян маданиятига қай даражада таъсир ўтказган бўлса, ўзбек маданияти ҳам Ўрта Осиё халқлари маданиятига шу даражада таъсир ўтказган”, - деб ёзган эди.

Аниқ бўладики, қадимда “ота-она уйи”, “қариндош - уруғлар” маъносини ифодаладиган ва курама шевасида ҳозир ҳам ишлатиладиган тўркун сўзидан “қабилалар уюшмаси”, “қабилалар яшайдиган макон-манзил” маъносидаги турк атамаси пайдо бўлган ва бу атама кейинчалик ижтимоий-сиёсий атама сифатида ўзбек халқи, унинг тили маъносида қатъийлашган. А.Навоий ўзбек тилининг мақоми ва мавқеини форсий тил билан чоғиштирган ҳолда турк тили, турк алфози (нутки), туркий тил номи билан абадий мустаҳкамлади.

Ҳозирги даврда турк атамаси Туркия давлатида яшайдиган асосий этник бирлашмани англатади, келиб чиқиши бир бўлган, тил яқинлигига эга бўлган 30 дан ортиқ халқлар ва уларнинг тиллари туркий халқлар ва туркий тиллар деган ном билан юритилади.

TUPROQQA ISHLOV BERUVCHI MASHINALAR ISHCHI ORGANLARINING YEYILISHINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA TEXNIK JIHATDAN OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Maxmudov Ikrorxon Rustamxon o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti t.f.f.d. (PhD) doktoranti

ikhrorbek_tm2019@mail.ru +998 93 364 94 93

Annotatsiya. Tuproqqa ishlov beruvchi qishloq xo‘jaligi mashinalari intensiv mexanik va abraziv muhitda ishlashi sababli ularning ishchi organlari tez yeyilishga uchraydi. Ushbu maqolada tuproqqa ishlov beruvchi mashinalarning asosiy turlari, ularning tez yeyiladigan detallari, yeyilish mexanizmlari hamda yeyilishga ta’sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy asoslari keng yoritilgan. Tadqiqot tribologiya va materialshunoslik yondashuvlari asosida olib borilib, yeyilishga chidamlilikni oshirish yo‘llari bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar. tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar, tez yeyiladigan detallar, ishchi organlar, abraziv yeyilish, tribologiya, xizmat muddati.

Kirish. Zamonaviy qishloq xo‘jaligida tuproqqa ishlov berish jarayoni ekin yetishtirish texnologiyasining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon pluglar, chizel-kultivatorlar, diskli boronalar, frezalar va turli tipdagi kultivatorlar yordamida amalga oshiriladi. Mazkur mashinalarning ishchi organlari tuproq bilan uzluksiz aloqada bo‘lib, yuqori bosim, ishqalanish va zarbli yuklamalar ta’sirida ishlaydi [1].

Ishchi organlar tarkibiga kiruvchi lemexlar, disklar, chizel tishlari, kultivator panjalari va kesuvchi qirralar tez yeyiladigan detallar turiga kiradi. Ularning yeyilishi natijasida mashinaning ish sifati yomonlashadi, tuproqni maydalash va ag‘darish samaradorligi pasayadi, yonilg‘i sarfi ortadi va texnik xizmat ko‘rsatish davri qisqaradi [2]. Shu sababli, tez yeyiladigan detallarning yeyilish muammosini ilmiy asosda o‘rganish va samarali yechimlar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-texnik masala hisoblanadi.

So‘nggi yillarda yeyilishga chidamli materiallar va sirtini mustahkamlash texnologiyalariga qiziqish ortib bormoqda. Biroq, xozirga kelib ekspluatatsiya sharoitida yuzaga keladigan murakkab yeyilish jarayonlarini to‘liq tavsiflovchi ilmiy-nazariy tadqiqotlar yetarli darajada emas [3]. Shu bois ushbu ilmiy maqola mazkur muammoning ilmiy-nazariy asoslarini yoritishga qaratilgan.


Materiallar va usullar. Mazkur tadqiqot ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tribologiya va materialshunoslik fanlarining fundamental qonuniyatlariga tayangan holda olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida tuproqqa ishlov beruvchi mashinalarning ishchi organlari va ularning tez yeyiladigan ishchi organlari (lemex, dolota, disk) tanlandi.

Yeyilish jarayonlari quyidagi asosiy mexanizmlar bo‘yicha o‘rganildi:

- **abraziv yeyilish** – tuproq tarkibidagi qattiq mineral zarrachalar ta’sirida yuzaga keladi;
- **adgezion yeyilish** – ishchi organ materiali bilan tuproq zarralari orasidagi yopishish natijasida sodir bo‘ladi;
- **zarbli va toliqish yeyilishi** – notekis tuproq sharoitida va yuqori tezliklarda kuzatiladi [4].

Tahlil jarayonida tuproqning granulometrik tarkibi, namligi, zichligi, ish tezligi, ishchi organ materiali qattiqligi, mikrostrukturasi va kimyoviy tarkibi yeyilishga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida baholandi. Nazariy hisoblash va tahlillarda Archard yeyilish modeli hamda unga asoslangan tribologik tenglamalardan foydalanildi [5].

Chizel-kultivator lemexlari tuproqqa ishlov berish natijasida yeyilib yaroqsiz xolga ya’ni, inkor holatiga kelgan paytdagi ko‘rinishi keltirilgan (1-rasm, a). Ushbu ishchi organlar 10 ga yerni haydashga yetadi. Abraziv yeyilish sharoitida tuproqqa ishlov berish natijasida yeyilib, yaroqsiz xolga kelgan lemex ishchi organlari kesuvchi tig‘ining to‘mtoqlashib (o‘tmaslashib) qolgan qismi kesib, olinib uning o‘rniga lemex standartida keltirilgan shakl va o‘lchamlaridan chiqib ketmagan xolda SHX15SG, material tarkibli po‘lat ressa materialidan va shuningdek St10, St45, materiallaridan shu yerning o‘zida yeyilgan joyini kesib uning o‘rniga yuqoridagi materiallardan payvandlab qayta tiklab, tuproqqa ishlov berish jarayonlari olib boriladi [10].



1-rasm. Mavjud ishchi organlar ko‘rinishi

Bundan tashqari ushbu uchastkada lemex ishchi organi bilan birga mahkamlanadigan dolota ishchi organlarini xam yeyilgan yuzasini E42, Arsenal, elektrodleri yordamida yoki uning o‘rniga maxsus uchlikni payvandlab qayta tiklab mexanik ishlov beriladi. Dolota ushbu agregatda tuproqni yorib berish va chuqurroq botishini ta‘minlab beruvchi ishchi organ hisoblanadi. Uning shakli murakkab va cho‘yandan materialidan quyish orqali tayyorlanadi (1-rasm, b). 1- v – rasmda, yeyilish natijasida yaroqsiz holatga kelgan va mahalliy xom ashyolarni eritib quyish orqali tayyorlangan lemex ishchi organlari keltirib o‘tilgan [11; 234-236-b.].

Natijalar. Ilmiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tuproqqa ishlov beruvchi mashinalarda eng ustun yeyilish turi abraziv yeyilish bo‘lib, u ayniqsa qumli va qattiq tuproqlarda kuchli namoyon bo‘ladi [6]. Lemexlar va chizel tishlari kabi kesuvchi detallar eng tez yeyiladigan elementlar ekanligi aniqlandi.

Ish tezligi oshishi bilan ishchi organ sirtida kontakt kuchlanishlari ortib, yeyilish intensivligi sezilarli darajada oshadi. Material qattiqligi oshirilganda yeyilish kamayishi kuzatilgan bo‘lsa-da, haddan tashqari qattiq va mo‘rt materiallarda zarbali yeyilish va yorilish xavfi ortishi aniqlangan [7].

Shuningdek, ishchi organ sirtining holati (silliqligi, qoplama mavjudligi) yeyilish jarayoniga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi qayd etildi. Sirtini termik va kimyoviy-mexanik mustahkamlash usullari detallar resursini oshirish imkonini beradi.

Muhokamalar. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tez yeyiladigan detallar muammosini hal etishda kompleks yondashuv zarur. Faqat material qattiqligini oshirish yeyilishga qarshi yetarli choralar bermaydi, chunki bu holatda mo‘rtlik va yorilish ehtimoli ortadi [8].

Yeyilishga chidamlilikni oshirish uchun ishchi organlarning konstruktiv shaklini optimallashtirish, ish burchaklarini to‘g‘ri tanlash ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, sirtini mustahkamlash (qotishma bilan qoplash, borlash, nitridlash) usullari keng istiqbolga ega [9].

Ma‘lumki qishloq xo‘jaligi sohasida ekinlarni ekishga tayyorlash va tuproqqa ishlov berishda turli xil agrotexnik tadbirlar olib borilib, ushbu tadbirlarda asosiy vosita sifatida qishloq xo‘jaligi mashinalari va ishchi organlari jalb qilinadi. Ushbu mashinalarning ishchi organlari doimiy ravishda og‘ir sharoitlarda ishlaydi va tez yeyilib yaroqsiz xolga kelib qoladi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi mashinalarining ishchi organlari ekspluatatsion ishonchliligini oshirish bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mashinasozligining dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammoni yechish yo‘lida asosiy e‘tibor qishloq xo‘jaligi mashinalarining ishchi organlarini ishlab chiqarishda an‘anaviy turdagi materiallardan foydalanmasdan ilmiy asoslangan yangi zamonaviy abraziv yeyilishga chidamli materiallarni yaratish va ularni asoslash orqali ularning xossalari yaxshilashga qaratiladi [13; 21 – 22-b.]. Yuqorida yuzaga kelayotgan muammolardan kelib chiqib, tuproqqa ishlov beradigan chizel-kultivator lemexi kabi ishchi organlarni resursini xamda yeyilishga chidamli materiallarini asoslash dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu masalaning yechish maqsadida Andijon mashinasozlik instituti tadqiqotchilari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Buning uchun hozirda tuproqqa ishlov berishda qo‘llanib kelinayotgan chizel-kultivator lemexlari va mahalliy xomashyolardan foydalanib, quyib tayyorlangan namunalar olinib, o‘rnatilgan tartibda, ularning materiali tarkibi, strukturasi, qattiqligi, termik ishlov berilish darajasi, fizik mexanik xossalari va turli abraziv

muhitlarda yeyilishga chidamlilik kabi ko‘rsatkichlarini o‘rganilib, tahlil qilinib va baholab ularning resursini oshirish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar olib borildi.

Avvalgi tadqiqotlar bilan solishtirganda, ushbu ishda tez yeyiladigan detallarning yeyilishi tuproq–material–ish rejimi tizimi doirasida kompleks tahlil qilindi. Bu esa keyingi tajribaviy tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Xulosalar. Tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar va ularning tez yeyiladigan detallari og‘ir tribologik sharoitda ishlaydi. Yeyilish jarayoni tuproq xususiyatlari, ish rejimi va material parametrlari bilan chambarchas bog‘liq. Ilmiy-nazariy tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, optimal material tanlash, ishchi organ geometriyasini takomillashtirish va sirtini mustahkamlash texnologiyalarini qo‘llash orqali tez yeyiladigan detallarning xizmat muddatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ushbu natijalar qishloq xo‘jaligi mashinalarini loyihalash va ekspluatatsiya qilishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Godwin, R.J. “A review of the effect of implement geometry on soil failure and implement forces.” *Soil and Tillage Research*, 2007.
2. Upadhyaya, S.K., Williams, T.H. “Wear of agricultural tillage tools.” *Journal of Agricultural Engineering Research*, 1998.
3. Hutchings, I.M., Shipway, P. *Tribology: Friction and Wear of Engineering Materials*. Butterworth-Heinemann, 2017.
4. Stachowiak, G.W., Batchelor, A.W. *Engineering Tribology*. Elsevier, 2014.
5. Archard, J.F. “Contact and rubbing of flat surfaces.” *Journal of Applied Physics*, 1953.
6. Zum Gahr, K.H. *Microstructure and Wear of Materials*. Elsevier, 1987.
7. Totten, G.E. *Steel Heat Treatment Handbook*. CRC Press, 2006.
8. Meng, H.C., Ludema, K.C. “Wear models and predictive equations.” *Wear*, 1995.
9. Bayhan, Y. “Reduction of wear via hardfacing of ploughshare.” *Turkish Journal of Agriculture and Forestry*, 2006.
10. Maxmudov I.R. “Tuproqqa ishlov beradigan mashinalar ishchi organlari uchun yeyilishga bardoshli materiallarni ishlab chiqish va ulardan lemexlar tayyorlash” Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiya. Toshkent-2025 y.-127 b.
11. Maxmudov I.R., Chizel-kultivator lemexlarining dala sinovi natijalari tahlili // Farg‘ona politexnika institutining ilmiy-texnika jurnali. –Farg‘ona: FarPI, 2024. -Tom 28. №4. 234-236-b.

ELEMENTAR LANDSHAFT MORFOLOGIYASI

Xakimov Olimjon Nematovich g.f.f.d (PhD), dosent.

O‘zbekiston Respublikasi, Angren shahar,

Angren universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada elementar landshaftlarning morfologik tuzilishi, ularning maydoni, shakli, vertikal kesmasi va rang xususiyatlari kompleks ilmiy tahlil qilinadi. Elementar landshaftlarning shakllanishida relyef, tuproq hosil bo‘lish jarayonlari, tog‘ jinslarining fizik-kimyoviy nurashi, yer osti suvlarining geokimyoviy rejimi hamda tirik moddaning roli asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Elementar landshaft, landshaft morfologiyasi, vertikal kesmsi, tirik modda qatlami, tuproq yarusi, nurash po‘sti, yer osti suvlari, relyef omili, geokimyoviy jarayonlar,

landshaft rangi, idioxromatik rang, alloxromatik rang, psevdoxromatik rang, temir valentligi, gley jarayonlari, antotsianlar.

Морфология элементарного ландшафта

Хакимов Олимжон Нематович, доктор философии по географическим наукам (PhD), доцент.

доценту кафедры педагогики и психологии Ангренского университета, город Ангрен, Республика Узбекистан

Аннотация: В данной статье проводится комплексный научный анализ морфологической структуры элементарных ландшафтов, их площади, формы, вертикального разреза и цветовых характеристик. В формировании элементарных ландшафтов в качестве основных факторов рассматриваются рельеф, процессы почвообразования, физико-химическое выветривание горных пород, геохимический режим подземных вод и роль живого вещества.

Ключевые слова: Элементарный ландшафт, морфология ландшафта, вертикальный разрез, слой живого вещества, почвенный ярус, кора выветривания, подземные воды, фактор рельефа, геохимические процессы, цвет ландшафта, идиохроматический цвет, аллохроматический цвет, псевдохроматический цвет, валентность железа, глеевые процессы, антоцианы.

Elementary landscape morphology

Khakimov Olimjon Nematovich Doctor of Philosophy in Geographical Sciences (PhD), Associate Professor.


Associate Professor of the Department of Pedagogy and Psychology of Angren University, city of Angren, Republic of Uzbekistan

Abstract: This article provides a comprehensive scientific analysis of the morphological structure of elementary landscapes, their area, shape, vertical section, and color characteristics. In the formation of elementary landscapes, the main factors are considered to be relief, soil formation processes, physical and chemical weathering of rocks, the geochemical regime of groundwater, and the role of living matter.

Keywords: Elementary landscape, landscape morphology, vertical section, living matter layer, soil layer, weathering crust, groundwater, relief factor, geochemical processes, landscape color, idiochromatic color, allochromatic color, pseudochromatic color, iron valency, gley processes, anthocyanins.

Elementar landshaftlarning morfologik xususiyatlari kam o‘rganilgan. Ayrim ishlarda elementar landshaftning maydoni va shakli, vertikal kesmasi va qalinligi haqida ma’lumotlar keltirilib, elementar landshaftning rang-baranglik sababini tushuntirishga harakat qilingan.

Elementar landshaftning maydoni va shakli ko‘pincha relyefga, kamdan-kam hollarda tog‘ jinslariga bog‘liq bo‘ladi. Elementar landshaft bir necha kvadrat metrdan kvadrat kilometrgacha va undan ham ko‘proq maydonni egallashi mumkin (G‘arbiy Sibirning pastqam botqoqlilari; O‘rta Osiyoning sho‘rxoklari va taqirlari). Elementar landshaftlar dumaloq, ellipssimon, yo‘l-yo‘l, zigzagsimon, yoysimon, shoxlanuvchi va ba’zi boshqa shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Elementar landshaftning vertikal kemasi yaruslarga yoki gorizontlarga bo‘linadi (1-rasm).



1 – расм. O‘rmon (a) va botqoqlik (b) landshaftlarining vertikal tuzilishi: 1 - tirik modda qatlami, 2 - tuproq, 3 - yer osti suvlari, 4 - nurash qobig‘i

Elementar landshaft vertikal kesmasining yer ustki qismida tirik modda qatlami ajratilgan. Bu yarus uchun organogen elementlar (S, N, O, H) konsentratsiyasi xarakterlidir. Ularning uchuvchan shakldagi birikmalari yerga yaqin havoning o‘ziga xos tarkibini belgilaydi. Tirik modda qavatining qalinligi nam tropik o‘rmonlarda maksimal, cho‘llardagi suvo‘tlar va lishayniklar jamoalarida minimal bo‘ladi.

Undan pastda tuproq qatlami joylashgan bo‘lib, uning qalinligi tuproq hosil bo‘lish jarayonining jadallik darajasi bilan belgilanadi. Bu yarusda tuproq qatlamlari ajralib turadi, ular bir-biridan elementlar miqdori va ularning birikishi bilan farq qiladi. Tuproq qatlamida tirik organizmlar va organo-mineral birikmalar o‘rtasida o‘zaro ta’sir jarayonlari sodir bo‘ladi.

Tuproq qatlamidan pastda tog‘ jinsi joylashgan bo‘lib, u yerda fizik-kimyoviy jarayonlar sodir bo‘ladi, bu jarayonlar umumiy nom bilan - nurash jarayonlari deb ataladi. Bu yarus nurash po‘stining yarusi deb ataladi.

Landshaft vertikal kesmasining eng pastki yarusi yer osti suvlari yarusidir. Bu yarusda sodir bo‘ladigan jarayonlarning geokimyoviy xususiyatlari suvlar va suvni o‘z ichiga olgan jinslarning rejimi va tarkibi, shuningdek, nurash qobig‘i va tuproq yaruslaridan keladigan kimyoviy elementlarning tarkibi bilan belgilanadi.

Elementar landshaftlarda alohida yaruslar bo‘lmasligi mumkin. Masalan, ba’zan yuqori suvli gorizont landshaftdan tashqarida bo‘ladi (tog‘ elyuvial landshafti), boshqa hollarda nurash po‘sti yoki tuproq bilan qo‘shilib ketadi (torfli-botqoq tuproq), uchinchi hollarda nurash po‘sti tuproq bilan qo‘shilib ketadi (tog‘ tuproqlari).

Landshaft ko‘rinishi (rangi) muhim morfologik xususiyatdir. Hozirgi zamon tasavvurlariga ko‘ra, rang spektrning ko‘rinadigan sohasida elektromagnit nurlanishning ma’lum diapazonini kristallning tanlab yutishi yoki qaytarishidan iborat fizik hodisadir (A. N. Platonov, 1976).

Mineral birikmalarning ranglarini ularning kelib chiqishiga qarab birinchi marta A. Ye. Fersman (1936) idioxromatik, ya’ni o‘ziga xos ranglarga; mineral kristalida ikkinchi darajali elementlar - xromoforlar (titan, temir, marganes, xrom va boshqalar) borligidan kelib chiqadigan alloxromatik ranglarga; interferension hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan psevdoxromatik ranglarga ajratdi.

Landshaftning ko‘rinishi (rangi) eng ko‘p tarqalgan elementlar va minerallarga, organik birikmalarga bog‘liq. Kremniy ionlarining yig‘indisi kvars qumiga shaffoflik beradi. Dasht va cho‘l landshaftlari tuproq hosilalarining oq rangi tarkibida kalsiy, natriy (sho‘rxoklar po‘stlog‘i, ohakli konkretsiyalar) mavjudligi bilan izohlanadi. Tuproqlar yarusi va nurash qobig‘ida uch valentli temir va uning gidrofil birikmalari mavjudligi natijasida qizil va sariq rang tushlari ustunlik qiladi. Botqoqlashgan tuproqlar gleyli qatlamlarining yashil-ko‘k rangi ikki valentli temir bilan belgilanadi. Rang tushlari jinsning namlanganlik darajasiga qarab ham o‘zgaradi. Nam tog‘ jinsi o‘ziga o‘xshash quruq tog‘ jinsiga nisbatan yorqinroq va to‘qroq tusga ega.

Yuksak o‘simliklarning rangini (zarg‘aldoqdan ko‘k ranggacha) deyarli barcha o‘simlik to‘qimalarida uchraydigan antotsianlar hosil qiladi. Antotsianlar guruhiga polifenollar kiradi. Antotsianlarning rangi ularning tuzilishi va erituvchining fizik xususiyatlari bilan belgilanadi. Fenol gidroksil guruhlari (OH) miqdorining ortishi bilan rang pushti rangdan ko‘k rangga, gidroksil guruhlarning (CH₃) metillanishi esa teskari yo‘nalishda o‘zgaradi. Bundan tashqari, antotsianlar muhit reaksiyasi, shuningdek, metall ionlari ta’sirida rangini o‘zgartiradi. Masalan, sianidin kislotali eritmada qizil rangga ega, pH ortishi bilan qizil rangning intensivligi kamayadi va ishqoriy reaksiyada rang ko‘k, so‘ngra yashil rangga aylanadi. Sianidin va uning hosilalari eritmasiga oldindan eritilgan alyuminiy xlorid qo‘shilgandan so‘ng eritmaning rangi qizildan ko‘k rangga o‘tadi.

Havo haroratining pasayishi yuksak o‘simliklar barglari rangining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi, bu ularda asosan sianidin hosilalarining to‘planishi bilan izohlanadi (S. S. Tanchev, 1980).

Elementar landshaftlarning morfologik tuzilishi ularning tabiiy-geografik mohiyatini ochib beruvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, maydon, shakl, vertikal yaruslarning mavjudligi va ko‘rinish (rang) xususiyatlari orqali landshaft ichki jarayonlarini aniqlash imkonini beradi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, elementar landshaftlarning maydoni va shakli asosan relyef sharoitlari bilan belgilanib, tog‘ jinslari ikkilamchi rol o‘ynaydi, bu esa landshaftlarni geomorfologik asosda tahlil qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Vertikal kesmaning tirik modda, tuproq, nurash po‘sti va yer osti suvlari yaruslariga ajralishi modda va energiya almashinuvi jarayonlarining uzluksizligini ko‘rsatadi. Ayrim landshaftlarda ushbu yaruslarning qo‘shilib ketishi yoki yo‘qligi ularning genetik va evolyutsion xususiyatlarini aniqlashda muhim diagnostik belgi hisoblanadi. Ayniqsa, nurash jarayonlari va yer osti suvlari bilan bog‘liq geokimyoviy muhit landshaftlarning meliorativ holati va ekologik barqarorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston sharoitida ham innovatsion rivojlanish bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar va davlat dasturlari amalga oshirilgan. Jumladan, “Innovatsion rivojlanish strategiyasi”, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarining hisobotlarida innovatsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash va texnologik modernizatsiya masalalari alohida ta’kidlangan.

Mahalliy olimlardan A. O‘lmasov, Sh. Abdullayev va boshqa iqtisodchi tadqiqotchilar ishlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda davlatning tartibga soluvchi va qo‘llab-quvvatlovchi roli muhim ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, ularning tadqiqotlarida innovatsiyalarni joriy etish orqali sanoat tarmoqlarining samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion rivojlanish iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveri bo‘lib, uni samarali amalga oshirish uchun davlat siyosati, ilmiy salohiyat va xususiy sektor hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Mazkur tezisda respublikamizda innovatsion jarayonlarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati hamda innovatsiyalarning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni tahlil qilindi. O‘rganishlar natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, innovatsion rivojlanish iqtisodiy o‘shishni ta’minlovchi eng muhim omillardan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shuningdek, ilmiy-texnik taraqqiyot va startup ekotizimni rivojlantirish innovatsion jarayonlarning jadallashuviga xizmat qilishi, bunda davlatning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati va xususiy sektor ishtiroki muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratadi.

Tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston iqtisodiyotida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish uchun ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, startup loyihalarni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish hamda innovatsion faoliyatga investitsiyalar hajmini oshirish zarur. Bu esa o‘z navbatida mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schumpeter J. A. *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press, 1934.
2. Solow R. M. *A Contribution to the Theory of Economic Growth*. Quarterly Journal of Economics, 1956.
3. Romer P. M. *Endogenous Technological Change*. Journal of Political Economy, 1990.
4. OECD. *Oslo Manual: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data*. OECD Publishing, latest edition.
5. World Bank. *World Development Report: Knowledge for Development*. Washington, D.C.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion rivojlanish strategiyasi”ga oid farmon va qarorlari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi materiallari va hisobotlari.
8. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hujjatlari.
9. Abdullayev Sh., iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish bo‘yicha ilmiy maqolalar va o‘quv qo‘llanmalar.
10. O‘lmasov A., iqtisodiy nazariya va milliy iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy ishlari.

АРТПЕДАГОГИКАНИНГ ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

И.М.Иманкулова

**Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)**

**Х.М. Иманкулов Оҳангарон шаҳар
7- махсус мактаб ўқитувчиси**

**Х.А.Холдарова Ангрэн шаҳар
Технологиялар техникуми ўқитувчиси**

Аннотация. Ушбу мақолада артпедагогиканинг имконияти чекланган болаларга йўлга қўйилиши орқали уларнинг ижодий қобилиятларини юзага чиқариш, шакллантириш ва ривожлантириш хусусида сўз боради.

Калит сўзлар: имконияти чекланган, артпедагогика, хореография, санъат, пластик ҳаракатлар, экспериментал спектакль, рақс терапия.

Бугунги кунда замонавий таълим тараққиёти янги босқичга кўтарилди. Таълим билан барабар тарбия ҳам бу борада устиворлик қилмоқда. Аниқроқ қилиб айтадиган бўлсак, таълим кўп йиллар давомида мавжуд бўлган шаклда, лекин яқин вақтгача алоҳида бўғин сифатида ажратилмаган, балки ўрганиш билан бирга бўлган жараён эди. Ҳозирги замонавий таълимда ўқитиш методикалари тўғрисида жуда кўп сонли дастурлар, ўқув қўлланмалар, дарсликлар, китоблар, илмий мақолалар, диссертациялар мавжуд. Бу асарларнинг аксарияти умумтаълим мактабларида таҳсил олаётган мусиқа ва спорт мактаблари, турли ансамбл ва гуруҳларда қатнашадиган энг соғлом болаларга бағишланган. Оғир ҳасталикка чалинганлар, болалигиданоқ “ногирон бола” ташхиси қўйилганлар ҳам шу жамият вакили ва улар ҳам эътиборга ва алоҳида таълим-тарбияга муҳтож. Замонавий таълимда бугунда айнан ногиронлиги мавжуд бўлган болаларнинг таълими, тарбияси борасида кўплаб изланишлар олиб борилмоқда. Артпедагогика мана шу изланишлар самарасида юзага келган фанлар қаторига кириб, у орқали болаларда мавжуд истеъдод қирралари юзага чиқади, шаклланади ва ривожланади.

“2019 йил 1 январь ҳолатига кўра, Ўзбекистон бўйича расмий тарзда 710 мингга яқин ногиронлиги бўлган шахс рўйхатга олинган. Уларнинг 101 минг нафари - 16 ёшгача бўлган имконияти чекланган болалардан иборат. 2019 йил ҳолатига кўра, 710 мингга яқин ногирон фуқароларнинг 609 минг нафари 16 ёшдан катталар ва уларнинг бор-йўғи 10 фоизи олий маълумотли ҳисобланади.”[1] Ҳозирда республикамизда 86 та жисмоний ёки ақлий ривожланишда нуқсони бор болалар учун ихтисослаштирилган мактаб-интернатлар мавжуд. 21 та санаторий туридаги мактаб интернатлар бор. Уларнинг 16 таси Тошкент шаҳрида жойлашган. Артпедагогика фани айнан мана шундай махсус мактабларда ўтилиши муҳим саналади.

Артпедагогика фани унинг таркибига кирувчи театр терапия, мусиқа терапия, кўғирчоқ терапия, эртақ терапия, рақс терапия... кабилар имконияти чекланган болаларда тенгдошлари ва катталар билан ижодий муносабатда бўлиш қобилиятини ривожлантириш (шу жумладан, уларни тадбирларга тайёргарлик кўришда фаол қўшма фаолиятда) индивидуаллик ва ижодкорликни ривожлантиришга ёрдам бериш ниҳоятда муҳим ҳисобланади. Рақс терапияси орқали болаларнинг ижодий фаолияти жараёнида ижобий ижтимоий тажрибани ўзлаштиришга ҳисса қўшиш, рақс ўйинлари орқали болаларнинг мулоқот қобилиятларини ривожлантириш, ижодий фаолиятни рағбатлантириш орқали саҳнада ҳам, ҳаётда ҳам ўзини намоён қилиш учун барқарор мотивацияни шакллантириш зарур. Табиийки, ногиронлиги бор болада жамият ҳаётига киришиш, атрофдаги олам билан мулоқот олиб бориши айни мана шу ҳаракатлар натижасида шаклланади. “Ҳиссий ва иродавий муаммоларни ҳал қилиш учун, рақс пайтида боланинг салбий мулоқот тажрибасига эга бўлмасдан, табиий равишда бошқа болалар билан ўзаро муносабатда бўлиши муҳимдир. Ҳатто ўзларига тегишга ҳеч қачон рухсат бермайдиган болалар ҳам рақс пайтида бир-бирларининг қўлларини ушлаб туришади. Рақсга тушаётганда ҳамма бир-бирига қарайди ва муайян ҳаракатларни

бажаради. Аста-секин, болалар ўз ҳаракатларини бошқа одамларнинг ҳаракатлари билан мувофиқлаштиришни ўрганадилар, кейин эса рақс янада тартибли ва ритмик бўлади.” [2]

Рақс терапиясида - пластик ҳаракатлар ва инсон танасининг экспрессив позицияларининг ритмик, аниқ ва узлуксиз ўзгариши орқали бадиий тасвирларда яратиладиган санъат орқали уни ижро этаётган бола онгида, танасида ижобий ўзгаришлар юз беради. Рақс эса мусиқа билан узвий боғлиқ. Хореографик ҳаракатларнинг ҳиссий ва мажозий мазмуни оҳанг ва ритм мусиқа терапияси билан чамбарчас боғланган. “Имконияти чекланган болалар учун хореография - бу уларнинг ривожланиши ва тузатишининг ўзига хос соҳаси бўлиб, унда шахснинг хусусиятлари ва фазилатларининг ақлий, жисмоний ва ижтимоий параметрларида ижобий ўзгаришлар юз беради.”[3] Ақлий, жисмоний ва ижтимоий параметрларни ногиронлиги бор болада тўлиқ шакллантириш ва ривожлантириш қаторида унинг ижодий қирраларини очиш устоз-мураббий, педагогдан катта маҳорат, кучли билим ва тажриба талаб этади. “Ўқитувчилар олдида қийин вазифа турибди: бир томондан, ногирон бола учун ривожланаётган муҳитни яратиш, бошқа томондан, вазиятнинг доимий ўзгаришига қарамай, унга ўзини адекват тутишни ўрганишга ёрдам бериш керак. Рақснинг тузилиши, унинг аниқ намунаси боланинг шахсий хатти-ҳаракати учун ташқи ёрдамни ташкил қилади.”[4] Бу жараёнда педагог ва ногиронлиги бор бола тайёргарлик кўраётган маконнинг айни вазифа бажаришга тайёрлиги муҳим. Рақс терапиясини ижроси учун табиийки, эркин ҳаракатланишга қулай бўлган кенг майдон муҳим.

“Ҳар қандай санъат асари томошабинни ҳаяжонга солиши, уни ҳаракатнинг шеригига айлантириши, сахнада содир бўлаётган воқеаларга ҳамдард бўлиши керак. Рассом бу вазифани бажаришда хореографнинг ёрдамчиси ҳисобланади. У фойдаланадиган воситаларни танлаш асар жанрига, унинг услубига, ғоя орқасига боғлиқ. Хореографик жанр кераксиз объектлар билан тўлдирилган бўлмаган, эркин сахна майдонини талаб қилади. Буни рассом ўз ишида ҳисобга олиши керак. Лекин асар услубини, унинг характерини, ҳатто хореографнинг индивидуал қўлёмасини ҳам ҳисобга олиш керак” [5] “Хореографнинг рассом билан ишлаши давомида улар, қоида тариқасида, ушбу спектакл қайси сахнада намойиш этилишини билишади. Бинобарин, рассом сахнанинг ўлчамини, техник ва ёруғлик жиҳозларини ҳисобга олади, ўз ижодий концепциясини унинг имкониятлари, декоратив дизайнни ўзгартириш тезлиги, панжара баландлиги, тўсиқлар сони билан тўлдиради. Бу шартларнинг барчаси одатда рассом ва хореограф томонидан қўлланиладиган сахна режасида акс эттирилган.” [6]

Лилия Севастянова бундан 40 йиллар аввал биринчи экспериментал спектаклларни “Лик” студиясини ташкил этиб, айнан ногиронлиги бор ёшлар жамоаси билан биргаликда сахнада намойиш этди. Ҳозирда унинг жамоаси 30 дан ортиқ кишини бирлаштирган. Булар профессионал актёрлар, ёш студия ходимлари, шунингдек, оғир жисмоний ва руҳий касалликлари бўлган 20 га яқин ногиронлар: кўр, қар ва соқовлар, ногиронлар аравачаси фойдаланувчилари, мия фалаж, ақлий заифлик синдроми, ўсишда нуқсонлар ва бошқалар. (7 ёшдан 40 ёшгача). Жамоа фаолияти ҳамisha инновацион ва тадқиқотчиликка асосланган. Ижодкор бугун асарлар томошабинга тушунарли бўлиши учун замонавий шаклга эга бўлган сахна тилини интуитив равишда қидирди, моҳиятида чуқур киришди. Айнан импровизация тажрибаси ва санъатда жисмоний эмас, балки маънавийга эътибор қаратилиши Ҳаракат театрига сўнгги йилларда ногиронлар билан ижодий ва тарбиявий ишларни олиб бориш имконини берди. “Мен юрганимни орзу

қиламан...” (2004), “Камалак фестивали” (2005), “Хаёт мавзуларида импровизациялар” (2006) спектакллариининг мавзулари ва номлари ихтиро қилинмаган, реал ҳаётдан олинган. Спектакллариининг хореографияси ҳам махсус тузилган эмас, балки рақс жараёнида импровизацияси, актёрлар ва ногиронларнинг ички бирлиги ва ўзаро таъсири рамзий, ва нутқ имо-ишоралари ва ҳаракатларида мужассамланганда тўлдирилиб туғилгандир.

Халқаро ногиронлар куни муносабати билан тайёрланган 2021 йилнинг 14-декабр куни Ўзбекистон давлат рус драма театри сахнасида “Лик” ҳаракатлар театри жамоасининг халқаро ногиронлар куни муносибати билан “Рақс спектакли” намойиши бўлиб ўтди. Хореография санъати орқали имконияти чекланган болаларни жамиятдаги фаоллигини оширишда ушбу театр-студиянинг хизмати алоҳидалигини таъкидлаш зарур. “Инклюзив таълим ва имконияти чекланган болалар || ЮНИСЕФ Инклюзив таълим соҳасидаги илғор сиёсат ногирон болалар ҳаётида ижобий ўзгаришларни амалга оширмоқда. 2007 нафар болаларга 4000 та рақамли эшитиш аппаратлари тарқатилди. Бунинг учун Республика Педиатрия маркази мутахассислари Жиззах, Бухоро, Қашқадарё, Фарғона, Андижон, Хоразм вилоятлари, Қорақалпоғистон Республикаси ва Тошкент шаҳридаги ихтисослаштирилган мактаб-интернатларнинг 2338 ўқувчиларини ташхисдан ўтказдилар.”[6]

Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан ногиронлиги бўлган шахсларни ишга қабул қилган иш берувчиларга ҳар бир ходим учун 6 ойда БҲМнинг 1,5 бараварида (405 минг сўм) субсидия, шунингдек, Ёшларга оид давлат сиёсатини қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари ҳисобидан ҳар йили 500 нафаргача ногирон ёшларга бир қанча субсидия ажратилмоқда. Рақс аслида шахсни шакллантириш жараёнини белгилашда муҳим омил ҳисобланади. У ҳамма учун очик бўлган оммавий санъат тури. Рақс терапиясини таълимда, артпедагогика фанида қўллаш натижасида тизимли ҳаракатлардан иборат машғулотлар рўйхатини тузиб чиқиш амалиётчи педагог олдидаги бош масала. Ҳукумат ва давлатимиз томонидан ногиронлиги бўлган инсонлар, хусусан болаларга яратилаётган имконият ва шарт-шароитлар сони кўп. Муҳими, эътибор ўз манзили ва эгаларини топаётганлигидадир. Таълим ва тарбиядаги энг нозик жиҳат атроф борлиқ мулоқотни оширишда артпедагогика ва унинг таркибидаги санъатга доир терапиялар алоҳида ўрин тутиши тажрибаларда синалди. Хореографик таълим ва тарбия туфайли имконияти чекланган болалар учун ихтисослаштирилган махсус мактаб ўқувчилари умумий эстетик ва рақс маданиятига эга бўладилар.

Артпедагогика фани орқали ногирон болаларнинг ички қобилиятларини ривожлантириш профессионал артпедагог амалиётчи ўқитувчининг маҳоратига боғлиқ. Артпедагогиканинг имконияти чекланган болалар таълими ва тарбиясида қўллаш, арт терапияни нозик идрок этиш болалардаги истеъдод қирраларини барвақт аниқлаш ва уларни юзага чиқариш, ривожлантиришга ёрдам беради. Шунингдек, инклюзив таълим тизимида артпедагогика технологияларидан (педагогик ва терапевтик) фойдаланиш ногирон болани санъат орқали ижтимоийлаштириш; мусиқа терапияси, изотерапия, театр терапияси, рақс терапияси, кўғирчоқ терапияси технологияларини қўллаган ҳолда психологик ёрдам кўрсатиш имкониятларини ҳам очиб беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Файбуллаева З. “Имконияти чекланган болалар ҳам Ўзбекистон фуқаролари» - инклюзив мусиқа таълими муаммолари ҳақида”. Ойбек Исоков, Ўзбекистон ногиронлар уюшмаси раиси билан суҳбат. 17.06.2020
2. Яровенко А.Б. Хореография. Как работать с детьми с ограниченными возможностями здоровья.- <https://www.proddenka.org/metodicheskie-razrabotki/242276-horeografijakak>
3. Алымова Г.И. Организация работы с детьми с ограниченными возможностями здоровья с учётом требований ФГОС в хореографии. <https://nsportal.ru/shkola/dopolnitelnoeobrazovanie/library/2018/03/31/>
4. Кукушкина С.Е. Обучение спортивным танцам на колясках детей с нарушениями опорно-двигательного аппарата (методические рекомендации). ГБОУ «Центр «Динамика» VI вида №616.
5. В.Ванслов Изобразительное искусство и музыкалики театр "советский художник", М., 1963
5. Imankulova I. The Role and Importance of Stage Technology and Technology in the Development of Modern Stenography (On the Example of the Alisher Navoi State Academic Theater) // CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN VOLUME: 02 ISSUE: 11 | 2021– P. 18-22
6. Иманкулова И., Худойназарова Ш. Имконияти чекланган болалар учун хореография таълимининг ўрни ва аҳамияти. Инклюзив таълим: имконияти чекланган болалар ва рақс санъати мавзусидаги IV Халқаро илмий - амалий конференцияси. Ўзбекистон давлат хореография академияси. Т., “Фан ва таълим полиграф”, 2022. –528б.
- 4.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKTNING AXBOROT TIZIMLARIDAGI O’RNI

Nosirjonov Asilbek Nosirjon o’g’li

2-bosqich talabasi, Axborot texnologiyalari

Olmalik filiali NUST “MISIS”

Email: nosirjonov899@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy axborot tizimlarida sun’iy intellekt texnologiyalarining tutgan o’rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Sun’iy intellektning rivojlanish bosqichlari, asosiy yo’nalishlari hamda turli sohalarida qo’llanilishi ko’rib chiqiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash, qaror qabul qilish va avtomatlashtirish jarayonlarining samaradorligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellektning raqamli iqtisodiyot sharoitida muhim omil ekanligini ko’rsatadi.

Keywords: sun’iy intellekt, axborot tizimlari, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, mashinaviy o’qitish, big data

Kirish

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga kirib bormoqda. Ayniqsa, axborot tizimlarining rivojlanishi va takomillashuvi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining paydo bo’lishi axborot tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Sun’iy intellekt — bu inson tafakkuriga xos bo‘lgan fikrlash, o‘rganish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini kompyuter tizimlari orqali amalga oshirishga qaratilgan texnologiyalar majmuasidir. Bugungi kunda ushbu texnologiya turli sohalarda keng qo‘llanilib, inson faoliyatini yengillashtirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — sun’iy intellektning axborot tizimlaridagi o‘rmini tahlil qilish va uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini yoritishdan iborat.

1. Sun’iy intellekt tushunchasi va rivojlanish bosqichlari

Sun’iy intellekt tushunchasi ilk bor XX asrning o‘rtalarida shakllana boshlagan bo‘lib, uning nazariy asoslari 1950-yillarda ishlab chiqilgan. Dastlab bu soha faqat oddiy hisoblash amallari va mantiqiy masalalarni yechishga qaratilgan edi. Ilk tadqiqotlar kompyuterlarni inson kabi fikrlashga o‘rgatish g‘oyasiga asoslangan bo‘lib, bu yo‘nalish keyinchalik alohida ilmiy soha sifatida shakllandi.

Sun’iy intellekt rivojlanishining dastlabki bosqichida ekspert tizimlar va algoritmik yondashuvlar ustunlik qilgan. Bu tizimlar oldindan belgilangan qoidalar asosida ishlagan va murakkab bo‘lmagan masalalarni hal qilishga mo‘ljallangan edi. Biroq vaqt o‘tishi bilan ma’lumotlar hajmining ortishi va hisoblash texnikasining rivojlanishi sun’iy intellekt imkoniyatlarini kengaytirishga olib keldi.

XXI asrga kelib, sun’iy intellekt yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) va yuqori unumdor hisoblash tizimlarining paydo bo‘lishi ushbu sohaning jadal rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Natijada sun’iy intellekt nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham turli sohalarda keng qo‘llanila boshlandi.

Sun’iy intellekt quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- **mashinaviy o‘qitish (Machine Learning)** – kompyuterlarning ma’lumotlar asosida mustaqil ravishda o‘rganish va prognoz qilish qobiliyatini ta’minlaydi;
- **chuqur o‘rganish (Deep Learning)** – ko‘p qatlamli neyron tarmoqlar orqali murakkab masalalarni hal qilish imkonini beradi;
- **tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing)** – inson tilini tushunish, tahlil qilish va qayta ishlashga xizmat qiladi;
- **kompyuter ko‘rish (Computer Vision)** – tasvir va videolarni tahlil qilish, obyektlarni aniqlash va tanib olish imkonini yaratadi.

Mazkur texnologiyalar yordamida kompyuter tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor va samarali tarzda qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa turli jarayonlarni avtomatlashtirish, murakkab masalalarni tahlil qilish va aniq qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sun’iy intellekt rivojlanishining zamonaviy bosqichida neyron tarmoqlar alohida o‘rin tutadi. Ular inson miyasi faoliyatiga o‘xshash tarzda ishlaydi va katta hajmdagi ma’lumotlardan o‘rganish orqali yuqori aniqlik darajasiga erishadi. Ayniqsa, chuqur neyron tarmoqlar tasvirni tanish, nutqni aniqlash va murakkab prognozlash vazifalarida samarali qo‘llanilmoqda.

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari sanoat, tibbiyot, ta’lim, moliya va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilib, inson faoliyatini yengillashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli sun’iy intellektni rivojlantirish zamonaviy ilm-fan va texnologiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

2. Sun’iy intellektning axborot tizimlarida qo‘llanilishi

Zamonaviy axborot tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlashga mo‘ljallangan murakkab tizimlar hisoblanadi. Ushbu tizimlarda sun’iy intellekt

texnologiyalarining qo‘llanilishi ularning samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda.

Sun‘iy intellekt axborot tizimlarida birinchi navbatda ma’lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash jarayonlarida keng qo‘llaniladi. An’anaviy usullardan farqli ravishda, sun‘iy intellekt algoritmlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor va aniq tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa tashkilotlarga muhim qarorlarni qisqa vaqt ichida qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Axborot tizimlarida sun‘iy intellektning qo‘llanilish yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- **ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish** – katta hajmdagi ma’lumotlardan foydali axborotni ajratib olish;
- **qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimlari** – menejerlar va mutaxassislariga optimal qarorlarni tanlashda yordam berish;
- **avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari** – ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish;
- **foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish** – mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va individual xizmat ko‘rsatishni tashkil etish.

Masalan, bank va moliya tizimlarida sun‘iy intellekt kredit risklarini baholash, firibgarlik holatlarini aniqlash va mijozlarga mos xizmatlarni taklif qilishda qo‘llaniladi. Tibbiyot sohasida esa sun‘iy intellekt yordamida kasalliklarni erta aniqlash, diagnostika jarayonlarini takomillashtirish va davolash usullarini optimallashtirish mumkin.

Shuningdek, elektron tijorat tizimlarida tavsiya etuvchi (recommendation) algoritmlar keng qo‘llanilib, foydalanuvchilarga ularning qiziqishlariga mos mahsulot va xizmatlarni taklif etadi. Bu esa mijozlar qoniqishini oshirish va savdo hajmini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Sun‘iy intellekt asosida yaratilgan chatbotlar va virtual yordamchilar ham axborot tizimlarining muhim qismiga aylanib bormoqda. Ular foydalanuvchilarga 24/7 rejimda xizmat ko‘rsatish imkonini berib, inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi.

Bundan tashqari, sun‘iy intellekt axborot xavfsizligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. U tarmoqlardagi shubhali faoliyatni aniqlash, kiberhujumlarni oldindan prognoz qilish va tizimlarni himoya qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, sun‘iy intellekt texnologiyalarining axborot tizimlarida qo‘llanilishi nafaqat jarayonlarni avtomatlashtirish, balki boshqaruv samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va yuqori natijalarga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

3. Sun‘iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari va muammolari

Sun‘iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy axborot tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu texnologiyalar turli sohalarda keng qo‘llanilib, ko‘plab ijobiy natijalarga erishishga imkon bermoqda. Shu bilan birga, sun‘iy intellektni joriy etish jarayonida ayrim muammolar va cheklovlar ham mavjud.

Sun‘iy intellektning asosiy afzalliklaridan biri — bu katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor va aniq qayta ishlash imkoniyatidir. An’anaviy usullarga nisbatan sun‘iy intellekt algoritmlari murakkab tahliliy vazifalarni qisqa vaqt ichida bajaradi. Bu esa tashkilotlarga tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, sun‘iy intellekt yordamida ko‘plab jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin. Natijada inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamayadi, mehnat unumdorligi oshadi va resurslardan samarali foydalanish ta’minlanadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirilgan tizimlar mahsulot sifatini nazorat qilish va nosozliklarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Yana bir muhim afzallik — bu prognozlash imkoniyatidir. Sun’iy intellekt tarixiy ma’lumotlar asosida kelajakdagi jarayonlarni bashorat qilishga yordam beradi. Bu esa biznes, moliya va iqtisodiyot sohalarida strategik rejalashtirishni samarali amalga oshirish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining ayrim muammolari ham mavjud. Avvalo, ushbu texnologiyalarni joriy etish katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Kuchli hisoblash resurslari, zamonaviy dasturiy ta’minot va malakali mutaxassislar zarur bo’ladi.

Ikkinchi muhim muammo — bu ma’lumotlar sifati bilan bog’liq. Sun’iy intellekt tizimlari to’g’ri ishlashi uchun katta hajmdagi va sifatli ma’lumotlar talab etiladi. Agar ma’lumotlar noto’g’ri yoki yetarli bo’lmasa, tizim natijalari ham ishonchsiz bo’lishi mumkin.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt bilan bog’liq axborot xavfsizligi va maxfiylik masalalari ham dolzarb hisoblanadi. Ma’lumotlarning noqonuniy foydalanilishi yoki tizimlarga kiberhujumlar jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yana bir muhim jihat — bu etik muammolardir. Sun’iy intellekt qaror qabul qilish jarayonida inson omilining kamayishi ayrim ijtimoiy va huquqiy savollarni yuzaga keltiradi. Masalan, avtomatlashtirilgan tizimlar tomonidan qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik masalasi hali to’liq hal etilmagan.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari katta imkoniyatlarga ega bo’lishiga qaramay, ularni samarali qo’llash uchun mavjud muammolarni bartaraf etish va xavfsizlik, etik hamda huquqiy masalalarga alohida e’tibor qaratish zarur.

XULOSA

Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy axborot tizimlaridagi o’rni va ahamiyati atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, avtomatlashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining turli sohalarda, jumladan, moliya, tibbiyot, ta’lim va sanoatda keng qo’llanilishi ularning samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda. Bu esa raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellektning ahamiyati tobora ortib borayotganligini tasdiqlaydi.

Biroq, sun’iy intellektni joriy etish bilan bog’liq muammolar — moliyaviy xarajatlar, ma’lumotlar sifati, axborot xavfsizligi va etik masalalar ham mavjud. Shu sababli ushbu texnologiyalarni rivojlantirishda kompleks yondashuv, zamonaviy infratuzilma va malakali mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari kelajakda axborot tizimlarining ajralmas qismiga aylanadi va jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo’lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Russell S., Norvig P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. – Pearson, 2021.
2. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. *Deep Learning*. – MIT Press, 2016.
3. Nilsson N. *The Quest for Artificial Intelligence*. – Cambridge University Press, 2010.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalariga oid farmonlari.
5. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent, 2008.
6. Zamonaviy axborot texnologiyalari bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2022.

ZAMONAVIY DIZAYNDA KOSTYUMNI BADIY LOYIHALASHNING YANGI USULLARINI ISHLAB CHIQISH

Mamatqulova Saida Raxmatovna

Farg‘ona davlat texnika universiteti, Yengil sanoat muhandisligi kafedrası,
katta o‘qituvchi (PhD),

E-mail: sm.mamatqulova@ferpi.uz

Abdumitalova Muqaddas Ro‘zimatjon qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti
1-bosqich 43-25 TBTNA magistratura talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada kostyumni badiiy loyihalashning zamonaviy usullari tahlil qilinib, kostyumni badiiy loyihalashda zamonaviy texnologiyalar, kompyuter grafikasi hamda yangi materiallardan foydalanish dizayn sifatini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion dizayn yondashuvlari asosida yangi loyihalash usullarini ishlab chiqish masalalari ko‘rib chiqiladi va ko‘rsatilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: yengil sanoat, energiya tejash, ekologik toza ishlab chiqarish, sanoat texnologiyalari, ekologik xavfsiz materiallar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, kimyoviy moddalar minimallashtirish.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar sanoat, san‘at, ta‘lim va ko‘plab boshqa sohalarda yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Shu bilan birga, kiyim-kechak va moda sanoatida ham zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. An‘anaviy qo‘l mehnatiga asoslangan kostyum yaratish jarayoni, endilikda virtual muhitda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan murakkab, ammo samarali texnologiyalar yordamida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Shu sababli, kostyumni virtual badiiy loyihalash sohasidagi yangi yondashuvlar va usullarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biriga aylangan.

Kostyum dizayni o‘z ichiga nafaqat kiyimni yaratish, balki uning estetik qiyofasi, funksional imkoniyatlari va foydalanuvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda loyihalashni oladi. An‘anaviy tarzda, badiiy loyihalash jarayoni qo‘l san‘ati, eskiz chizish, mato va materiallarni tanlash hamda kiyim namunalarini tayyorlashni o‘z ichiga olgan ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, bu jarayon ko‘pincha vaqt va resurs talab qiluvchi hamda inson omiliga bog‘liq bo‘ladi. Biroq, raqamli texnologiyalar va virtual reallik vositalarining rivojlanishi tufayli ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish, tezlashtirish va yanada samarali qilish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Virtual badiiy loyihalash usullari nafaqat dizaynerlarga o‘z g‘oyalarini aniqroq ifodalashga yordam beradi, balki mijozlar bilan interaktiv aloqani osonlashtiradi, narx va vaqt xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, bugungi kunda sanoat va ilm-fan sohasida yangi texnologiyalar, jumladan, sun‘iy intellekt, 3D modellash, simulyatsiya, virtual va kengaytirilgan reallik kabi innovatsiyalar keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat mahsulot sifatini yaxshilash, balki dizayn jarayonini tubdan qayta ko‘rib chiqishga yordam bermoqda. Aynan shu nuqtada kostyumni virtual badiiy loyihalashning yangi usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurati tug‘iladi.

Zamonaviy dasturiy ta‘minot vositalari va algoritmlar yordamida, kostyum dizayni ko‘proq ijodiy va eksperiment qilish uchun qulay maydonga aylanadi. Shu sababli, ushbu ilmiy ishning asosiy vazifasi — kostyumni virtual badiiy loyihalashning yangi usullarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish yo‘llarini o‘rganishdan iborat. Bu borada mavjud usullar va texnologiyalar tahlil qilinib, ularning afzalliklari hamda kamchiliklari aniqlanadi. Shuningdek, yangi yondashuvlar yordamida dizayn jarayonini optimallashtirish va virtual muhitda badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirish masalalari o‘rganiladi. Ilmiy ishning dolzarbligi nafaqat zamonaviy moda sanoatining raqamli transformatsiyasi bilan bog‘liq, balki iqtisodiy samaradorlik, ekologik tozalikka oid masalalar va mijozlarning shaxsiylashtirilgan ehtiyojlariga javob berish talablaridan

ham kelib chiqadi. Virtual loyihalash texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarida qoldiq materiallar kamayadi, qayta ishlash imkoniyatlari oshadi va natijada ishlab chiqarish samaradorligi ortadi. Bu esa atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirlarni kamaytirish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda moda sanoati raqamli texnologiyalarni faol joriy qilmoqda, ammo kostyumni aynan badiiy jihatdan virtual muhitda loyihalash bo‘yicha yangi usullar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois, ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borish, yangi texnologiyalarni sinab ko‘rish va amaliyotga tatbiq etish zarurati mavjud. Ilmiy ishda ko‘rib chiqiladigan masalalar sifatida, virtual modellash jarayonlari, badiiy dizayn printsiplari, 3D grafik vositalari, sun‘iy intellekt yordamida dizaynni takomillashtirish imkoniyatlari va ularning amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Shuningdek, ushbu ishda ko‘zda tutilgan maqsadlardan biri — kostyumni virtual loyihalash jarayonida inson omilini minimallashtirish va jarayonni avtomatlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Buning uchun yangi algoritmlar va dasturiy ta‘minot yechimlari ishlab chiqiladi. Bu nafaqat loyihalash sifatini oshirishga, balki ish jarayonini sezilarli darajada soddalashtirishga imkon beradi. Kostyum dizayni sohasida raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish orqali, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois, ushbu ilmiy ish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u zamonaviy moda sanoati uchun yangi texnologiyalarni yaratish va qo‘llash borasida muhim qadam bo‘ladi. Natijada, ushbu ilmiy ish natijasida kostyumni virtual badiiy loyihalash jarayonlarining yangi usullari ishlab chiqilib, ularning samaradorligi va amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Bu esa moda va kiyim-kechak sanoatida zamonaviy innovatsiyalarni joriy qilish va raqamli iqtisodiyot talablariga moslashishda muhim rol o‘ynaydi.

Yoritish tizimlarini optimallashtirish. Yengil sanoat korxonalarida yoritish tizimlarining energiya samaradorligini oshirish juda muhimdir. LED yoritgichlar va sensorli tizimlar yordamida ishlab chiqarish hududlarida yoritishning faqat zarur bo‘lgan qismlarida ishlatilishi ta‘minlanadi, bu esa energiya sarfini sezilarli darajada qisqartiradi.

Yengil sanoatning ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlariga qaratilgan yondashuvlar hamda texnologiyalar ham samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Bu sohadagi asosiy maqsad atrof-muhitga minimal zarar etkazish va resurslarni tejashdir[4].

Bugungi kunda tabiiy xomashyo va ekologik toza materiallarga talab ortib bormoqda. Paxta, bambuk, lana va boshqa tabiiy tolalar yordamida ishlab chiqarilgan matolar, shuningdek, ekologik sertifikatlariga ega bo‘lgan sintetik materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish atrof-muhitni himoya qilishga xizmat qiladi; Kimyoviy moddalar va bo‘yoqlardan foydalanishni minimallashtirish. Yengil sanoatdagi bir qator ishlab chiqarish jarayonlari bo‘yicha bo‘yoq va kimyoviy moddalar ishlatiladi. Bu moddalar atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlari bo‘yicha bo‘yoq moddalari va kimyoviy moddalarni minimallashtirish yoki ekologik xavfsiz alternativalarini qo‘llash zarurdir; Suv resurslarini tejash va qayta ishlash. Yengil sanoatning boshqa bir muhim jihati bu ishlab chiqarish jarayonlarida suvdan foydalanishning samaradorligini oshirishdir. Suvni qayta ishlash tizimlari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatilgan suvni qayta tiklash mumkin, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va suv resurslarining tejashiga yordam beradi; Ekologik sertifikatlariga erishish[5].

Ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirgan korxonalar uchun xalqaro ekologik sertifikatlariga ega bo‘lish imkoniyati mavjud. Bu sertifikatlar mahsulotning atrof-muhitga bo‘lgan ta’sirini kamaytirganini tasdiqlaydi va iste’molchilar uchun yuqori sifatli ekologik mahsulotlarni taklif etishda yordam beradi[6].

Xulosa. Yengil sanoatning ekologik toza ishlab chiqarishga va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan yondashuvlari butun sanoat tarmog‘ining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishlar, nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, balki atrof-muhitni himoya qilishga ham katta hissa qo‘shadi. Kelajakda yengil sanoat korxonalari

energiya samaradorligini oshiradigan, resurslarni tejaydigan va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etishga yanada e’tibor qaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Tursumatova Shaxlo Samiyevna, & Mamatqulova Saida Raxmatovna. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(05), 1–10.
- [2]. Raxmatovna.M.S.(2022). Analysis of women’s clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. International Journal of Advance Scientific Research. 2(03). 16-21.
- [3]. Raxmatovna.M.S.(2022). Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knitting production; basic raw materials, their composition and properties. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5, May, 2022.7
- [4]. Raxmatovna.M.S.(2021). The description of perspective fashion trends in men’s clothing. Innovative Technological: Methodical Research Journal, 2(10), 15-20.
- [5]. Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. The American Journal of Engineering and Technology, 3(9), 18-23.
- [6]. Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).

JANUBIY KOREYADA TA’LIM TIZIMI

To‘xtayeva Shodiyona
shodiyonatoxtayeva65@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Janubiy Koreyada ta’limning kelib chiqishi uning rivojlanish tarixi, tarixiy yaponiya-koreya urushidan cheklanishi va ikkinchi jahon urushidan so‘ng uning rivojlanishi, IQ darajasi oshishi va uning rivojini haqida ishlari olib boriladi.

Kalit so‘zlar: Koreya, ta’lim tizimi, ta’limning rivojlanishi, Kores tili, xususiy maktablari, koreya-yaponiya urushi

Education system and history of development in South Korea

To‘xtayeva Shodiyona
shodiyonatoxtayeva65@gmail.com

Abstract: The article deals with the history of the origin of education in South Korea, its limitations due to the historical Japanese-Korean War and its development after the Second World War, the increase in IQ and its development.

Keywords: Korea, education system, development of education, Korean language, private schools, Korean-Japanese war

Koreyada ta’lim tizimi qanday kelib chiqishi?

Koreyaning zamonaviy ta’lim tizimi rasman Yaponiya mustamlakasidan ozod bo‘lgan 1945-yildan boshlangan. Ammo kengroq qaraydigan bo‘lsak, koreyslarda ta’lim tizimi 1894-yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan, deyish mumkin.[1], [2] 1881-yili Koreyadagi Choson xukumati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish maqsadida maxsus armiya tuzadi va g‘arbliklar harbiy san’atdan dars bera boshladilar. Bu o‘z navbatida chet tili va boshqa fanlar ta’limini yuzaga kelishini ta’minladi. Garchi 1882 yili maxsus qo‘shin uchun darslar to‘xtab qolgan bo‘lsa-da, bir qancha amaliy fanlar darsi davom etaverdi.[1-3] Bu davrda asta-sekinlik bilan Gvangxevon, Bejexakdan, Ixvaxakdan kabi shaxsiy ta’lim muassasalari ham vujudga kelib boshladi va keyinchalik universitetlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.[4]

Ta’lim tizimini rivojlanishi

1894-yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtirilib, mamlakat ta’lim tizimini boshqaruvchi institut tashkil etildi. Shu bilan birga 1895-yildan boshlang‘ich maktablar va maktab uchun kadrlar tayyorlaydigan pedagogika maktablari tuzildi.

Bundan tashqari bir qancha xususiy maktablar ochilib, 1900-yilda ular faoliyatini tartibga solib turadigan «Xususiy maktablar to‘g‘risidagi qonun» qabul qilindi. 1910yili Koreya va Yaponiya o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Koreya Yaponiyaning rasman mustamlakasiga aylantirildi. Natijada bu mamlakat ta’lim tizimiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Yapon mustamlakachilari Koreyaning ta’lim tizimini keskin o‘zgartirish yo‘lidan bordi va xususiy maktablar faoliyati cheklab qo‘yildi. Bu davrda 1911-yil 23-avgustda qabul qilingan «1-Choson ta’lim buyrug‘i» amal qildi. Unga ko‘ra, koreys va yapon fuqarolarining farqli ta’lim siyosati olib borildi. Ya’ni, maxalliy xalq faqat 4 yil mobaynida boshlang‘ich ta’lim olar, o‘rta va oliy ta’lim berilmas edi. Bu yapon mustamlakachiligining uzoq o‘ylangan rejaları qatoriga kirardi. Ammo 1919-yili boshlangan norozilik harakatlari oqibatida Yaponiya xukumati biroz yon berishga majbur bo‘ldi va buyruqqa o‘zgartirish kiritib, boshlang‘ich ta’lim 4 yildan 6 yilga uzaytirildi. 1922-yil 4-fevralda «2-Choson ta’lim buyrug‘i» qabul qilindi. Bu buyruqqa ko‘ra, ta’lim muddatlari uzaytirildi. Ya’ni, oddiy maktablarda ta’lim 6 yil, ayollar maktablarida esa 5 yil etib belgilandi. Shuningdek, asta-sekinlik bilan universitetlar ham paydo bo‘la boshladi. Jumladan, 1924-yili Kyongson Davlat Universiteti ochildi. O‘sha yili Xitoy-Yaponiya urushi boshlanishi munosabati bilan mustamlaka Koreyada nazorat yanada kuchaytirildi.[4][5][6] *Kores tilini nima uchun inqirozga yuz tutdi?*

Oddiy maktablar va boshlang‘ich maktablar, yuqori va o‘rta maktablar birlashtirildi. Koreys tili fanlari kamaytirilib, imperiya xalq demokratiyasi fani kiritildi.

1943-yil 3-avgustda «4-Choson ta’lim buyrug‘i» imzolandi va yapon mustamlakachiligining ta’lim soxasidagi zo‘ravonligi kuchaydi. Jumladan, o‘rta va yuqori maktabalarda ta’lim 4 yilgacha kamaytirilib, koreys tili fani dasturidan olib tashlandi. Uning o‘rniga yapon tili darslari kiritildi.[5] Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o‘laroq, 1944-yilgi Koreya umumiy Arxiv qo‘mitasi ma’lumotlariga qaraganda o‘sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor-yo‘g‘i 13, 8%ni tashkil etgan. 1945-yili Ikkinchi Jahon urushi bilan birga Koreyadgi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreada tabiiyki boshqa soxalar qatori ta’lim tizimini o‘zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo «Ta’limni rivojlantirish qo‘mitasi» tashkil etildi va qo‘mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo‘yildi. Ta’lim tizimi tadqiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963-yillardan boshlab esa ta’lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e’tibor kuchaydi. 1981-yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta’lim berish va xususiy ta’lim maskanlari faoliyatini qonunan ta’qiqlab qo‘ydi. Lekin maktabda mustaqil shug‘ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. 1992-yilga kelib esa boshlang‘ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun xukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar yaratildi.

Zamonaviy Koreya ta’lim tizimi

Zamonaviy Koreya ta’lim tizimida boshlang‘ich maktablarning roli muhim. Koreyada boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo‘lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o‘qishga kirishga xuquqli bo‘lib, buning uchun maktab mas’ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo‘ladi.[4] O‘quv yili esa 1-mart Koreya respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2 martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlang‘ich ta’lim majburiy etib belgilangan. Boshlang‘ich ta’limda 1 yil ikki semestrda bo‘lingan holda olib boriladi. Boshlang‘ich ta’limdan keyingi «zinapoya» vazifasini o‘rta ta’lim bajaradi. O‘rta ta’lim Koreya respublikasida 3 yil davom etadi. O‘rta ta’lim ham majburiy bo‘lib, bir o‘quv yili 1 martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. Darslar 45 daqiqadan etib belgilangan bo‘lib, bir yilda 1222 soatni tashkil etadi.[4][5][6] O‘rta ta’lim maktablarida davlat tili, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san’at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o‘qitiladi. Shuningdek, o‘rta maktabda o‘quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko‘pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, yapon, rus, arab tillari) kabilarni kiritish mumkin. O‘rta maktab tugatilgach yuqori maktablarda ta’lim davom ettiriladi. Yuqori maktablar bir necha

turlarga bo‘linadi: davlat yuqori maktablari (Koreya Ta’lim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi), Umumiy yuqori maktablar (Har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi), xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o‘qitish fanlariga ko‘ra ham bir qancha turlarga bo‘linadi: umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo‘jaligi, sanoat, dengiz xo‘jaligi, axborot), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili maktabi, jismoniy tarbiya maktabi, san‘at maktablari. Koreya Respublikasida Ta’lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo‘ladi.[7]

IQ reytingida dunyoda yetakchilardan bo‘lish siri nimada?

Bugungi kunda dunyoda ta’limga e’tibor har qachongidanda yuqori. Boisi, davlat kelajagi uchun yoshlarning ilmi bo‘lishi o‘ta muhim masala. Bunga Janubiy Koreya ta’lim tizimini yaqqol misol qilib keltirish mumkin. Janubiy Koreya ta’lim tizimi dunyodagi eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. Buni koreys xalqining o‘qish va hisoblash qobiliyati, ya’ni matematikaga oid bilimlari yuqoriligidan ham bilish mumkin. Qolaversa, intellektuallik koeffitsiyenti (ing. intelligence quotient, qisqartma nomi IQ), odamning turli test uslublari asosida aniqlanadigan aqliy rivojlanish ko‘rsatkichi, bilim saviyasi bo‘yicha dunyoda 2-o‘rinda turadi.[6]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika tarixi, A. Zunnunov, “Sharq” nashriyoti, Toshkent-2004, 332-bet
2. Pedagogika tarixidan xrestomiya, "Husanxoljayev M.. T., Toshkent-1963, 130bet.
3. Pedagog va amalyot, Janet Soler, Ketil Xoll, Patrissiya Merfi, ingliz tili, SAGE nashri, 2012 yil, 21-iyun, 232-bet
4. Education Fever Society, Politics, and the Pursuit of Schooling in South Korea, University of Hawaii Press nashriyoti, Inglizcha, 30-sentabr, 2002
5. Oltmish yillik Koreya ta’limi, Chong Jae Li, Seul milliy universiteti matbuoti, Koreyscha, 2010-yil
6. Janubiy Koreyaning ta’limdan chiqishi, Vashington universiteti matbuoti, Inglizcha, Adrien Lo, Nensi Abelmann, Su Ah Kvon, Sumi Okazaki, 2017 yil
7. Yaponiya va Koreyada ta’limni qayta baholash, Teylor va Frensis, Inglizcha, 168-bet, Elektron kitob, Xyonjon bog‘i, , 2013 yil 18 iyul

STRESS VA UNING OILAGA TA’SIRI

Xudoyberdiyeva Go`zal
Iyu pedagogika va psixologiya
fakulteti talabasi

madinasotiboldiyeva212@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda stress tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari hamda oila muhitiga ko‘rsatadigan psixologik va ijtimoiy ta’siri yoritiladi. Shuningdek, stressni kamaytirish va sog‘lom oilaviy muhitni shakllantirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: stress, oila, psixologik zo‘riqish, nizolar, emotsional holat, ijtimoiy muhit.

Аннотация: В данной тезисной работе рассматривается понятие стресса, причины его возникновения, а также его психологическое и социальное влияние на семейную среду. Проанализированы способы снижения стресса и формирования здорового семейного климата.

Ключевые слова: стресс, семья, психологическое напряжение, конфликты, эмоциональное состояние, социальная среда.

Abstract: This thesis examines the concept of stress, its causes, and its psychological and social impact on the family environment. It also analyzes ways to reduce stress and create a healthy family climate.

Keywords: stress, family, psychological tension, conflicts, emotional state, social environment.

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida inson hayoti turli ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar ta’sirida murakkablashib bormoqda. Natijada stress holatlari keng tarqalgan muammoga aylangan. Stress nafaqat shaxsning ruhiy va jismoniy salomatligiga, balki uning oilaviy munosabatlariga ham sezilarli ta’sir ko’rsatadi.

Asosiy qism

Stress atamasi ilm-fanga XX asrda kirib kelgan bo‘lib, ushbu tushunchani ilmiy asosda tadqiq qilgan olimlardan biri Hans Selye hisoblanadi. U stressni organizmning tashqi va ichki ta’sirlarga nisbatan umumiy moslashuv reaksiyasi sifatida ta’riflagan.

Stressning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

iqtisodiy qiyinchiliklar;	-
muammolar;	- ish joyidagi
- farzand tarbiyasi bilan bog‘liq masalalar;	- oilaviy kelishmovchiliklar;
bilan bog‘liq tashvishlar.	- sog‘liq
stress holatida bo‘lishi butun oila muhitiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Jumladan:	Oilada bir a’zoning doimiy

1. **Muloqotning buzilishi** – stress ostidagi shaxs tajovuzkor yoki loqayd bo‘lib qolishi mumkin.

2. **Nizolar sonining ortishi** – kichik muammolar katta kelishmovchiliklarga aylanadi.

3. **Farzandlar ruhiyatiga ta’sir** – bolalar ota-onadagi zo‘riqishni sezadi va bu ularning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir etadi.

sovuqlik – oila a’zolari o‘rtasida mehr va tushunish kamayadi.

4. Emotsional

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, surunkali stress oilaviy ajralishlar, ruhiy tushkunlik va hatto zo‘ravonlik holatlarining ortishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. *Aholi ruhiy salomatligini mustahkamlash bo‘yicha metodik tavsiyalar*. Toshkent, 2020.

Stressni kamaytirishning samarali yo‘llari:

- o‘zaro ochiq muloqot;	- oilaviy
qo‘llab-quvvatlash;	- vaqtni to‘g‘ri
taqsimlash;	- psixologik maslahat olish;
- sog‘lom turmush tarziga rioya qilish.	

Xulosa

Stress zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, u shaxs va oila hayotiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratish, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish stressning salbiy oqibatlarini kamaytiradi. Demak, stressni boshqarish nafaqat individual, balki oilaviy farovonlikni ta’minlashning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E. G‘oziyev. *Umumiy psixologiya*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2010.
2. G‘. B. Shoumarov. *Oila psixologiyasi*. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008.
3. V. Karimova. *Ijtimoiy psixologiya*. Toshkent: Noshir, 2012.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. *Psixologiya fanidan o‘quv qo‘llanma*. Toshkent, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. *Aholi ruhiy salomatligini mustahkamlash bo‘yicha metodik tavsiyalar*. Toshkent, 2020.
6. Oila ilmiy-amaliy tadqiqot markazi. *Zamonaviy oila va psixologik muammolar*. Toshkent, 2019.

TAKOMILLASHTIRILGAN BARABANLI DON QURITGICHNING MATEMATIK MODEL VA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARUVINI TADQIQ ETISH


Olimov Bobir Komiljon o‘g‘li,
Andijon davlat texnika inistituti

tayanch doktoranti,
tel: +99893-255-91-99
olimovbobir1993@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada takomillashtirilgan barabanli don quritgichning konstruktiv yechimi, quritish jarayonining matematik modeli hamda sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv yondashuvi tahlil qilinadi. Qurilma uch bosqichli tuzilishga ega bo‘lib, dastlabki pnevmatik quritish, asosiy barabanli quritish va yakuniy mavxum qaynash qatlamli sovitish-quritish qismlaridan tashkil topgan. Ishda namlikning kamayishi, quritish tezligi, issiqlik balansi va boshqaruv parametrlarining o‘zaro bog‘liqligi formulalar asosida ifodalangan. Taklif etilgan model quritish samaradorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va yakuniy namlikni barqaror boshqarish uchun nazariy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: don quritish, barabanli quritgich, matematik model, sun’iy intellekt, namlik, issiqlik almashinuvi, boshqaruv.

Kirish. Don mahsulotlarini quritish saqlashga yaroqli, sifat ko‘rsatkichlari barqaror va texnologik jihatdan qayta ishlashga mos mahsulot olishning asosiy bosqichlaridan biridir [1]. Quritish jarayonida namlik, harorat, havo sarfi va materialning qatlam bo‘ylab harakati o‘rtasidagi bog‘lanish murakkab bo‘lgani sababli, jarayonni matematik modellashtirish va optimal boshqarish dolzarb masala hisoblanadi [2]. So‘nggi tadqiqotlarda quritish jarayonlarini real vaqt rejimida tavsiflash va boshqarish uchun mashinaviy o‘rganish, neyron tarmoqlar va data-driven modellar qo‘llanilishi taklif etilgan [3]. Shu bois takomillashtirilgan barabanli don quritgichni yaratishda konstruktiv yechimlar bilan bir qatorda, uning matematik modelini ishlab chiqish va sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv algoritmlarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Qurilmaning tuzilishi va ishlash prinsipi. Taklif etilayotgan don quritgich uchta asosiy bo‘g‘indan iborat: dastlabki quritgich, asosiy quritgich va yakuniy quritgich (1-rasm). Dastlabki quritgich pnevmatik quritish prinsipi asosida ishlaydi va unda nam material qizdirilgan havo oqimida muallaq holda harakatlanib, asosan sirt namligidan xalos bo‘ladi. Asosiy quritgich aylanuvchi baraban, quyosh kollektori, nur qaytargich va elektrokaleriferlar yordamida ishlaydi; baraban aylanishi don massasining bir tekis aralashishini va namlikning faol chiqishini ta’minlaydi [1].



1-rasm. Takomillashtirilgan barabanli don quritgich sxemasi.

Yakuniy quritgich esa mavxum qaynash qatlamli sovitish-quritish kamerasidan iborat bo‘lib, unda donning qoldiq namligi me’yoriy qiymatgacha kamaytiriladi. Bunday ko‘p bosqichli tuzilma quritish jarayonining turli bosqichlarida issiqlik va massa almashinuvini boshqarishga imkon beradi hamda mahsulot sifatini yaxshilaydi [4].

Quritish jarayonining matematik modeli

Quritish jarayonini issiqlik va massa almashinuviga asoslangan bog‘langan tizim sifatida qarash mumkin. Donning namligi vaqt bo‘yicha kamayishi quyidagi kinetik tenglama orqali ifodalanadi:

$$\frac{dX}{dt} = -k(X - X_{eq})$$

Bu yerda X — joriy namlik miqdori, X_{eq} — muvozanat namligi, k — quritish tezligi koeffitsienti [2]. Ushbu tenglama quritish davomida namlikning eksponensial kamayishini tavsiflaydi.

Muvozanat namligi havo harorati va nisbiy namlikka bog‘liq holda empirik ko‘rinishda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$X_{eq} = a + bT_a + c \ln(\varphi)$$

Bu yerda T_a — qurituvchi agent harorati, φ — havoning nisbiy namligi, a , b , c — tajriba orqali aniqlanadigan koeffitsientlar [3].

Don haroratining o‘zgarishi issiqlik balansi tenglamasi asosida yoziladi:

$$m_p c_p \frac{dT_p}{dt} = \alpha A (T_a - T_p) - r_w m_p \frac{dX}{dt}$$

Bu yerda m_p — don massasi, c_p — solishtirma issiqlik sig‘imi, T_p — don harorati, α — issiqlik berish koeffitsienti, A — issiqlik almashinuvi yuzasi, r_w — bug‘lanishning yashirin issiqligi [2]. Ushbu tenglama donning qizishi va namlik bug‘lanishi uchun sarflanadigan energiyani birgalikda tavsiflaydi.

Baraban bo‘ylab donning harakati ham hisobga olinsa, namlikning koordinata va vaqt bo‘yicha o‘zgarishi quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{\partial X}{\partial t} + v_s \frac{\partial X}{\partial z} = -k_m (X - X_{eq})$$

bu yerda v_s — donning baraban bo‘ylab siljish tezligi, z — uzunlik koordinatasi, k_m — massa almashinuv koeffitsienti. Mazkur model qurilmaning uzunligi, qiyaligi va aylanish tezligi namlikning bir tekis kamayishiga qanday ta’sir qilishini baholash imkonini beradi.

Namlik chiqarilishi foizi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$W_{rem} = \frac{W_i - W_d}{W_i} \cdot 100\%$$

Bu yerda W_i — materialning boshlang‘ich massasi, W_d — quritishdan keyingi massa.

Mazkur formula yordamida don massasining kamayishiga qarab chiqarilgan namlik ulushi aniqlanadi.

Quritish tezligi quyidagicha hisoblanadi:

$$R_d = \frac{W_i - W_d}{t}$$

Bu yerda t — quritish vaqti. Ushbu ifoda vaqt birligida qancha namlik chiqarilayotganini ko‘rsatadi.

Quritgich ichidagi donni qizdirish uchun sarflanadigan issiqlik miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q = mc\Delta T$$

Bu yerda m — don massasi, c — donning solishtirma issiqlik sig‘imi, ΔT — haroratlar farqi.

Sun’iy intellekt asosida boshqaruv modeli

Qurilma sensorlar orqali harorat, namlik, havo sarfi, baraban aylanish tezligi va mahsulot kirish parametrlari haqidagi ma’lumotlarni uzluksiz yig‘adi. Ushbu ma’lumotlar asosida neyron tarmoq modeli qurilib, chiqishdagi namlikni bashorat qilish mumkin [3].

Bunda kirish vektori quyidagi ko‘rinishda berilishi mumkin:

$$u(k) = [T_a(k), \dot{m}_a(k), n(k), X_{in}(k), T_{in}(k)]$$

Chiqish kattaligi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$\hat{X}_{out}(k+1) = ANN(u(k))$$

Bu yerda ANN — o‘rgatilgan sun’iy neyron tarmoq modeli [2]. Bunday model boshqaruv parametrlarini tanlash va quritish rejimini optimallashtirish imkonini beradi.

Boshqaruv maqsad funksiyasi quyidagi ko‘rinishda yozilishi mumkin:

$$J = \sum_{i=1}^{N_p} (X_{ref} - \hat{X}_{out}(k+i))^2 + \lambda \sum_{j=0}^{N_c-1} \Delta u^2(k+j)$$

Bu yerda X_{ref} — talab etilgan yakuniy namlik, N_p — bashorat qarori, N_c — boshqaruv istiqboli, λ — cheklov koeffitsienti [3]. Mazkur funksiyani minimallashtirish orqali yakuniy namlikni talab qilingan qiymatga yaqinlashtirish va energiya sarfini kamaytirish mumkin.

Xulosa

Takomillashtirilgan barabanli don quritgichning ko‘p bosqichli tuzilishi namlikni bosqichma-bosqich chiqarish, issiqlik va massa almashinuvini jadallashtirish hamda mahsulot sifatini saqlash imkonini beradi. Taklif etilgan matematik model don namligi, harorati va energiya sarfi o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodalaydi, sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv esa jarayonni real vaqt rejimida optimallashtirish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sargar, P. M., Wani, S. A., Pawar, S. B. Design and Development of a Conductive Rotating Drum Type Solar Dryer // International Journal of Engineering Research in Mechanical and Civil Engineering (IJERMCE). — 2024. — Vol. 11, Issue 1.
2. Khan, M. I. H., Sablani, S. S., Joardder, M. U. H., Karim, M. A. Application of machine learning-based approach in food drying: opportunities and challenges // Drying Technology. — 2020. — Vol. 40. — P. 1051–1067.
3. Martynenko, A., Misra, N. N. Machine learning in drying // Drying Technology. — 2020. — Vol. 38. — P. 596–609.
4. B. Olimov, B. Bekkulov, E. Safarov Development of An Improved Rotary Paddy Dryer // American Journal of Applied Science and Technology // 2026. Vol. 06, Issue 032026.

O‘ZBEKISTONDA TA’LIMYIY QADRIYATLAR VA TARBIYA USTUVORLIGINI O‘RGANISHDA PEDAGOGIK HAMDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Narzulloeva Ra’no Mardonovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

ranonarzulloyeva024@gmail.com

Ilhomova Dilbar

2-bosqich talaba

ilhomova92@gmail.com

Bo’tayeva Sabina

2-bosqich talaba

botayevasabina19@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda ta’limiy qadriyatlar va tarbiya ustuvorligining mazmuni, ularning milliy tarbiya an’analari bilan bog‘liqligi hamda zamonaviy islohotlar sharoitida tutgan o‘rni yoritiladi. Milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligi interfaol ta’lim metodlari, innovatsion texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish, oila-mahalla hamkorligi, xalq og‘zaki ijodi va an’anaviy marosimlarning pedagogik imkoniyatlari misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, tarbiyani o‘rganishda shaxs rivojlanishi, motivatsiya, ijtimoiy muhit, milliy identitet va etnopsixologik omillarni inobatga oluvchi psixologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: ta’limiy qadriyatlar; tarbiya ustuvorligi; milliy an’analar; pedagogik yondashuv; psixologik yondashuv; mahalla; milliy-zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligi

Abstract. The article examines educational values and the priority of upbringing in Uzbekistan, focusing on their roots in national traditions and their role within ongoing educational reforms. It explores the harmony of national and modern values through interactive teaching methods, innovative technologies, project-based learning, family–mahalla cooperation, and the pedagogical potential of oral folklore and traditional ceremonies. Psychological approaches to studying upbringing are discussed, including motivation, social environment, ethnopsychological factors, moral development, and identity formation in children. The paper concludes with practical recommendations to improve value-oriented and personality-centered educational practices in Uzbekistan’s education system.

Keywords: educational values; priority of upbringing; national traditions; pedagogical approach; psychological approach; mahalla; harmony of national and modern values

Kirish. Mustaqillikning ilk yillaridanoq O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor berilgani, ta’lim-tarbiya tizimi isloh qilinayotgani yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ta’limiy qadriyatlar va tarbiya ustuvorligi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida yetuk, ijtimoiy faol, ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalash ta’lim konsepsiyalari va islohotlarining mazmunini belgilab bermoqda.¹ Bu jarayonda milliy madaniy meros, xalq pedagogikasi, mahalla va oila institutining tarbiyaviy salohiyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda psixologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois O‘zbekistonda ta’limiy qadriyatlar va tarbiya ustuvorligini o‘rganish, pedagogik hamda psixologik asoslangan model va texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekistonda ta’limiy qadriyatlar va milliy tarbiya an’analari

Bilamizki, o‘zbek ta’limiy qadriyatlarining ildizlari xalqning ko‘p asrlik ma’naviy merosida – ma’rifiy-ta’limiy manbalar, xalq og‘zaki ijodi, dostonlar, maqol va matallarda mujassamlangan. Ular esa o‘z navbatida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, halollik, jamiyatga sadoqat, o‘z kasbiga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Qadimdan mahalla “institut” jamoaviy nazorat va qo‘llab-quvvatlash orqali bolalar va yoshlar tarbiyasining muhim maktabi bo‘lib kelgan, unda hamjihatlik, birodarlik, o‘zaro yordam qadriyat sifatida qaraladi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab to hozirga qadar milliy qadriyatlar davlat ta’lim siyosati, o‘quv dasturlari, tarbiyaviy konsepsiyalar bilan uyg‘unlashtirilib, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlarning integratsiyasi yo‘lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Tarbiya ustuvorligini ta’minlashda pedagogik yondashuvlar

Zamonaviy tadqiqotlar tarbiya ustuvorligini ta’minlash uchun milliy qadriyatlarni ta’lim mazmuni va texnologiyalariga chuqur integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ta’limni shunchaki bilim berish, ma’lumotlar to‘plamini yetkazish deb emas, balki tarbiya va shaxs kamolotini ta’minlovchi, **shaxsni shakllantirish asosi** deb bilish — inson kapitalini rivojlantirishning bosh omilidir. Ushbu yondashuvning asosiy jihatlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Ta’lim va tarbiya: Uzviy birlik

Pedagogik jarayonda bilim (kognitiv rivojlanish) va tarbiya (axloqiy shakllanish) bir-biridan ajralmasdir.

➤ **Bilim:** Intellektual salohiyatni oshiradi.

➤ **Tarbiya:** Bilimdan to‘g‘ri maqsadda foydalanish uchun ma’naviy filtr vazifasini o‘taydi.

Zero, "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir." degan edi *Abdulla Avloniy*.² Zero, **tarbiya — ta’limning mazmuni hamdir**. Pedagogik nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda ta’lim mazmuni faqat Davlat ta’lim standartlari (DTS) bilan emas, balki **ijtimoiy ideal** bilan ham belgilanadi. *Akhmedjanovich (2025)*³ va *Xaydarova (2021)*⁴ tadqiqotlariga ko‘ra, o‘quv dasturlariga "Tarbiya" fanining integratsiya qilinishi — ta’limning tarbiyaviy funksiyasini institutsionallashtirishning muhim bosqichi hisoblanadi.

2. Shaxs kamoloti va kompetensiyalar

Zamonaviy tadqiqotlar ta’limda faqat "nimani bilish" emas, balki "kim bo‘lib yetishish"ga urg‘u beradi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Bosqich	Ta’rifi	Natija
Kognitiv	Faktlar va nazariyalarni o‘zlashtirish	Bilimli utaxassis
Psixologik	Iroda, hissiy intellekt (EQ) va motivatsiya	Barqaror shaxs
Ijtimoiy	Jamiyatda muloqot qilish va mas’uliyatni his etish	Faol fuqaro

Bugungi kunda interfaol ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, muammoli o‘qitish, sport va san’at orqali tarbiya, xalq og‘zaki ijodidan foydalanish kabi metodlar orqali o‘quvchilar, talabalar va umuman ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, fuqarolik mas’uliyati va ma’naviy immunitet shakllantiriladi. Milliy va sekulyar qadriyatlar uyg‘unligida ta’lim tizimini tashkil etish, ayniqsa, san’at, madaniyat, jismoniy tarbiya, “kurash” kabi milliy sport turlarida tarbiyaviy imkoniyatlardan foydalanish samarali yo‘nalish sifatida ko‘riladi. Shuning qatorida, o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy va kasbiy kompetensiyasini milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezi asosida rivojlantirish muhim shart sifatida ta’kidlanadi.

Pedagogik yo‘nalishlar va misollar

Figure 1 Tarbiya ustuvorligini ta’minlovchi pedagogik yo‘nalishlar.

	Yo‘nalish	Qisqa mazmun
1.	Milliy–zamonaviy integratsiya	Milliy qadriyatlarni interfaol, loyihaviy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish
2.	Vatanparvarlik tarbiyasi	Sport, tarixiy shaxslar, “kurash” orqali fuqarolik ruhini mustahkamlash
3.	Mahalla–oila–maktab hamkorligi	Ijtimoiy nazorat va qo‘llab-quvvatlov orqali tarbiyaviy samaradorlikni oshirish

3. Tarbiya ustuvorligini o‘rganishda psixologik yondashuvlar

O‘tkazilgan psixologik tadqiqotlar milliy va an’anaviy qadriyatlar ta’lim oluvchilarning axloqiy rivoji, “men” konsepsiyasi, etnik identiteti va ijtimoiy moslashuviga kuchli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Qiyosiy etnopsixologik ishlar (o‘zbek, qozoq, qirg‘iz an‘analari tahlili), taqiqlovchi iboralar, marosimlarning shaxsda xulq normalari, kundalik madaniyat, mehnat intizomi, estetik did va munosabatlarni shakllantirishdagi o‘rnini yoritadi. Mahalla va oila makonida farzandlardan maslahat so‘rash, kattalar roziligini izlash kabi urf-odatlar emotsional yaqinlik, ishonch va ijtimoiy identitetni mustahkamlaydi. Shuningdek, psixologik yondashuvlar qadriyatlarning ichkilashtirilishi, yoki o‘zlashtirilishi (internalizatsiya), motivatsiya va ijtimoiy rol o‘zlashtirilishi jarayonlarini tahlil etib, tarbiyaviy ishlarni yosh va individual xususiyatlarga moslashtirish zarurligini asoslaydi. Psixologik yondashuv tahliliga ko‘ra qadriyatlar shunchaki qoidalar emas, balki shaxsning **ichki e’tiqodiga** aylanish jarayoni deyiladi va quyidagicha tavsiflanadi:

Mexanizm: Bilim → Hissiy munosabat → Motiv → Xulq-atvor.

Gasanova o‘zining “Pedagogik mahorat” darsligida ta’kidlaganidek, agar ta’lim jarayonida psixologik qulaylik va subyekt-subyekt munosabati o‘rnatilmasa, qadriyatlar "shunchaki ma'lumot" bo‘lib qoladi va shaxs kamolotiga xizmat qilmaydi.⁵ Shuningdek, G. Gasanova o‘z izlanishlarida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarni shunchaki axborot almashinuvi emas, balki **ma’naviy-ruhiy muloqot** sifatida talqin etadi.⁶ Olimaning ushbu asarida ta’limning insonparvarlashuvi masalasi markaziy o‘rin tutadi.

4. Milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligi: integratsion model

Integratsion modelning markazida milliy qadriyatlar (vatanparvarlik, ma’naviyat, jamoaviylik, hurmat, mehnatsevarlik) hamda zamonaviy qadriyatlar (innovatsion fikrlash, raqamli madaniyat, inson huquqlari, pragmatik dunyoqarash)ning uyg‘un tizimi turadi. Tadqiqotlarda “Sharq axloqi – G‘arb texnologiyasi” tamoyiliga yaqin yondashuvlar qo‘llab-quvvatlanadi, hamda milliy ruhda global kompetensiyalarga ega shaxsni tarbiyalash zarurligi ta’kidlanadi. Ba’zi tadqiqotchi olimlarning fikricha o‘quv dasturlarida milliy meros, xalq maqollari, marosim va an’analarni aks ettiruvchi mavzularni ko‘paytirish, ularni raqamli resurslar va interfaol metodlar orqali talabalarga yetkazish samarali yo‘nalish ekanligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, oilada va mahallada ma’naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyaning yagona konsepsiyasini shakllantirish tarbiya ustuvorligini amaliy jihatdan ta’minlaydi.

5. "Raqamli avlod tarbiyasi"

"Raqamli avlod tarbiyasi" — bu nafaqat texnologik, balki chuqur pedagogik va psixologik transformatsiya jarayonidir. O‘zbekona an’naviy tarbiya metodlarini zamonaviy "**Z**" (1997–2012) va "**Alfa**" (2012-yildan keyin) avlodlariga moslashtirish, milliy o‘zlikni saqlab qolgan holda global dunyoga integratsiyalashuvni talab etadi.⁷

➤ **Raqamli avlodning psixologik portreti va muammolar tahlili**

An'naviy usullarni moslashtirishdan avval, maqsadli auditoriyaning o'ziga xosliklarini tushunish lozim:

✓ **Klipcha fikrlash (Clip Thinking):** Axborotni qisqa, yorqin va tezkor qismlarda qabul qilish. Bu uzoq davom etadigan "nasihatomuz" suhbatlarning samaradorligini pasaytiradi.

✓ **Vizuallashuvga moyillik:** Matndan ko'ra tasvir va videolarga ishonchning yuqoriligi.

✓ **Gadjetlarga bog‘liqlik:** Smartfon ular uchun shunchaki asbob emas, balki ijtimoiy muhit va o'zini namoyon qilish maydonidir.

➤ **An’naviy tarbiya usullarini moslashtirish strategiyalari**

O'zbek pedagogikasining oltin qoidalari — **andisha, kattaga hurmat, qanoat va mehnatsevarlikni** quyidagi zamonaviy formatlarda taqdim etish mumkin:

➤ **Nasihatdan — "Storitelling" (Hikoiyachilik) ga o'tish**

An’naviy "bola odobli bo'lishi kerak" degan quruq o'gitlar o'rniga, milliy qahramonlar yoki ajdodlarimiz hayotini **vizual kontent** orqali yetkazish.

✓ **Amaliy yechim:** Alisher Navoiy yoki Amir Temur hayotini "short-video" (qisqa metrajli) formatida, ularning mantiqiy qarorlariga urg'u bergan holda ko'rsatish. Bu klipcha fikrlashga mos keladi.

➤ **"Ibrat" metodini raqamli makonga ko'chirish**

O'zbek tarbiya tizimida "ota-onaning namunasi" eng muhim usul hisoblanadi.

✓ **Amaliy yechim:** Ota-ona farzandidan gadjetni olib qo'yishdan avval, o'zi ham "raqamli gigiyena"ga amal qilishi (ovqat ustida telefon ishlatmaslik, kitob o'qish namunasi ko'rsatish) lozim. Shunda "andisha" va "hurmat" tushunchalari tabiiy shakllanadi.

➤ **Jamoaviylikni (Mahalla institutini) virtual formatda tiklash**

"Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" tamoyilini ijtimoiy tarmoqlardagi sog'lom hamjamiyatlar orqali amalga oshirish.

✓ **Amaliy yechim:** Farzandning qiziqishlariga mos (robototexnika, san'at, IT) ijobiy va milliy qadriyatlarga zid bo'lmagan guruhlariga a'zo qilish orqali uning "gadjetga bog'liqligi"ni foydali tomonga yo'naltirish.

➤ **Ilmiy-tahliliy xulosalar**

Tadqiqotlar va pedagogik kuzatuvlar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Xususiyat	An'anaviy yondashuv	Zamonaviy moslashuv (Gibrid tarbiya)
Axborot berish	Uzoq suhbat va pand-nasihat	Interaktiv muloqot va vizual keyslar
Intizom	Qat'iy taqiq va nazorat	Tanlash huquqi va raqamli etika

Xususiyat	An'anaviy yondashuv	Zamonaviy moslashuv (Gibrid tarbiya)
Qadriyat	Ma'lumot sifatida o'rgatish	Shaxsiy tajriba va loyihalar orqali singdirish

G. Gasanova ta'kidlaganidek, ta'lim va tarbiyada **subyekt-subyekt** munosabati o'rnatilmas ekan, har qanday texnologiya ham, qadriyat ham "shunchaki ma'lumot" bo'lib qolaveradi.⁸ "Z" va "Alfa" avlodi uchun tarbiya — bu **buyruq emas, balki hamkorlikdir**. O'zbekona tarbiyaning mazmunini (ma'naviyatni) saqlab qolgan holda, uning shaklini (yetkazish usulini) raqamli texnologiyalar tiliga o'girish — bugungi kunning eng asosiy pedagogik vazifasidir. Farzandni smartfondan ajratish emas, smartfon ichidagi dunyoni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish samaraliroq yo'ldir.

Xulosa. O'zbekistonda ta'limiy qadriyatlar va tarbiya ustuvorligini ta'minlash milliy meros, mahalla va oila institutining tarbiyaviy salohiyatini zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirishga tayanadi. Pedagogik jihatdan interfaol texnologiyalar, sport va san'at, xalq og'zaki ijodi, oila-maktab-mahalla hamkorligi asosida vatanparvar, ma'naviy yetuk shaxsni shakllantirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Psixologik yondashuv esa qadriyatlarning ichkilashtirilishi, identitet va motivatsiya jarayonlarini hisobga olib, tarbiyaviy ishlarni yosh, madaniy va individual xususiyatlarga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu asosda milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg'unligiga tayangan integratsion model tarbiya ustuvorligini ilmiy va amaliy jihatdan ta'minlashning muhim yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son.
2. Avloniy, A. "Turkiy guliston yoxud axloq". – Toshkent: "O'qituvchi", 1992. – 160 b.
3. Akhmedjanovich, N. M. (2025). Ta'lim tizimini institutsionallashtirish va "Tarbiya" fanining integratsiyasi. *O'zbekiston innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 1(1), 40-55-betlar.
4. Xaydarova, S. (2021). "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasining pedagogik asoslari. *Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar*, 4(2), 15-22-betlar.
5. Gasanova, G. "Pedagogik mahorat". Darslik. – Toshkent: "Barkamol fayz media", 2018. – 232 b.
6. Gasanova, G. K. "Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi". Monografiya. – Toshkent: "Fan", 2012.
7. Xaydarova, S. (2022). "Raqamli avlod tarbiyasida milliy va zamonaviy yondashuvlar". – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo".
8. Gasanova, G. K. "Pedagogik mahorat". Darslik. – Toshkent: "Voriz-Nashriyot", 2017. – 216 b.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Туйчибоев Х.Х.

Студент кафедры «ИТиАТПП»

Алмалыкского филиала НИТУ МИСИС

г.Алмалык, Республика Узбекистан

Аннотация: В данной статье рассматриваются пути повышения экономической эффективности промышленных предприятий на основе цифровых технологий. В условиях современной цифровой экономики процессы цифровой трансформации становятся одним из ключевых факторов устойчивого развития промышленного сектора, поскольку они обеспечивают значительное повышение производительности труда, снижение производственных затрат и оптимизацию систем управления технологическими

процессами. Особое внимание уделяется применению современных цифровых решений, таких как искусственный интеллект, технологии Big Data, Интернет вещей (IoT) и системы автоматизированного управления SCADA, которые позволяют осуществлять мониторинг и анализ производственных данных в реальном времени. Результаты исследования показывают, что комплексное внедрение цифровых технологий способствует повышению конкурентоспособности, устойчивости и инвестиционной привлекательности промышленных предприятий.

Ключевые слова: цифровые технологии; промышленность; экономическая эффективность; автоматизация; искусственный интеллект; Big Data; оптимизация.

Введение

В современных условиях глобальной экономики уровень конкурентоспособности промышленных предприятий во многом определяется степенью внедрения цифровых технологий и глубиной их интеграции в производственные и управленческие процессы. Цифровая трансформация становится неотъемлемой и стратегически важной частью развития промышленного сектора, поскольку она обеспечивает не только повышение эффективности производственных процессов, но и существенное улучшение качества управления предприятием в целом.

Использование современных цифровых решений позволяет оптимизировать производственные цепочки, повысить прозрачность технологических операций, а также обеспечить более точное планирование и прогнозирование производственных результатов. Кроме того, внедрение цифровых технологий способствует рациональному использованию материальных, энергетических и человеческих ресурсов, снижению издержек и повышению устойчивости предприятий к внешним экономическим изменениям.

В результате цифровая трансформация становится ключевым фактором обеспечения долгосрочной конкурентоспособности промышленных предприятий в условиях быстро меняющейся мировой экономики.

Основная часть

Одним из ключевых направлений повышения экономической эффективности промышленных предприятий является автоматизация производственных процессов. Автоматизированные системы управления позволяют минимизировать влияние человеческого фактора, повысить точность технологических операций и обеспечить стабильность производства. В результате снижаются производственные издержки и уменьшаются потери ресурсов.

Важную роль в повышении эффективности играют технологии искусственного интеллекта и анализа больших данных (Big Data). Они позволяют обрабатывать большие объемы информации и принимать оптимальные управленческие решения в реальном времени. Например, анализ данных с производственных линий позволяет оптимизировать энергопотребление и прогнозировать возможные неисправности оборудования.

Технологии Интернета вещей (IoT) также активно внедряются в промышленность. Использование датчиков и интеллектуальных устройств обеспечивает постоянный мониторинг технологических процессов и повышает уровень их управляемости.

Особое значение цифровые технологии имеют в сложных технологических процессах. Например, в процессах флотации параметры, такие как уровень pH, расход воздуха, концентрация реагентов и плотность пульпы, могут автоматически регулироваться с помощью интеллектуальных систем управления. Это позволяет повысить качество продукции и снизить технологические потери.

Кроме того, внедрение систем SCADA и ERP способствует интеграции всех производственных и управленческих процессов предприятия в единую информационную систему. Это обеспечивает оперативный контроль, прозрачность процессов и ускорение принятия решений.

Цифровые технологии оказывают системное влияние на экономическую эффективность промышленных предприятий, обеспечивая оптимизацию производственных затрат, более рациональное использование материальных и энергетических ресурсов, повышение качества выпускаемой продукции, снижение уровня аварийности и простоев технологического оборудования, а также ускорение и повышение точности управленческих процессов.

Обсуждение

Несмотря на значительные преимущества цифровых технологий, их эффективное внедрение в промышленный сектор требует комплексного подхода и наличия ряда ключевых условий. В первую очередь, это подготовка и наличие высококвалифицированных кадров, обладающих знаниями в области цифровых систем, автоматизации, анализа данных и управления современными информационными технологиями. Без достаточного уровня профессиональной компетенции персонала невозможно обеспечить полноценную эксплуатацию и развитие цифровых решений на предприятиях.

Кроме того, важнейшим фактором является развитие современной цифровой и технологической инфраструктуры, включающей высокоскоростные сети передачи данных, вычислительные ресурсы, системы промышленного интернета вещей и интегрированные платформы управления производством.

Не менее значимую роль играет инвестиционная поддержка, поскольку внедрение цифровых технологий требует значительных финансовых затрат на оборудование, программное обеспечение, обучение персонала и модернизацию производственных процессов.

Также необходимо учитывать уровень цифровой грамотности сотрудников, так как успешная цифровая трансформация невозможна без способности персонала эффективно использовать новые инструменты и адаптироваться к быстро меняющимся технологическим условиям. В связи с этим предприятиям необходимо внедрять программы постоянного обучения и повышения квалификации.

В целом, адаптация предприятий к условиям цифровой экономики предполагает не только техническое обновление, но и организационные, кадровые и управленческие изменения, направленные на формирование гибкой и инновационно-ориентированной производственной системы.

Заключение

Таким образом, цифровые технологии играют ключевую роль в повышении экономической эффективности промышленных предприятий. Их внедрение позволяет оптимизировать производственные процессы, снизить затраты и повысить конкурентоспособность предприятий. В перспективе дальнейшее развитие цифровой экономики будет способствовать еще более глубокому внедрению интеллектуальных систем управления в промышленности.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Основы цифровой экономики : учебное пособие. – Ташкент : 2022. – 210 с.
2. Системы автоматизации промышленности : учебное пособие. – Ташкент : 2021. – 185 с.
3. Искусственный интеллект и анализ данных : учебное пособие. – Ташкент : 2023. – 240 с.
4. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva : World Economic Forum, 2016. – 172 p.
5. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – 4th ed. – Pearson, 2021. – 1152 p.
6. OECD. Digital Economy Outlook 2023. – Paris : OECD Publishing, 2023. – 320 p.

7. Porter M. E., Heppelmann J. E. How Smart, Connected Products Are Transforming Competition // Harvard Business Review. – 2014. – Vol. 92, No. 11. – P. 64–88.

AXBOROT TIZIMLARIDA INTEGRATSIYA MODELLARI SAMARADORLIGINI KO‘P MEZONLI TAHLIL QILISH

Xolmuminov Oybek Tuxtayevich

O‘zbekiston jahon tillari universiteti

“Zamonaviy axborot texnologiyalari

va sun‘iy intellekt” kafedrası o‘qituvchisi

xolmuminovoybek26@gmail.com

Karimov Norbek Najmiddin o‘g‘li

O‘zbekiston jahon tillari universiteti

“Zamonaviy axborot texnologiyalari

va sun‘iy intellekt” kafedrası o‘qituvchisi

norbek1194@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda axborot tizimlarida qo‘llaniladigan integratsiya modellari samaradorligi ko‘p mezonli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Modellar moslashuvchanlik, kengayuvchanlik, real vaqt rejimida ishlash, murakkablik va ishonchlilik kabi mezonlar bo‘yicha baholanadi va o‘zaro taqqoslanadi. Tadqiqot natijasida yagona universal model mavjud emasligi aniqlanib, turli yondashuvlarni birlashtirgan gibrid integratsiya modeli optimal yechim sifatida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: axborot tizimlari, integratsiya modellari, microservices, event-driven, SOA, API, gibrid model

Kirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida turli sohalarda qo‘llanilayotgan axborot tizimlari soni va murakkabligi keskin ortib bormoqda. Har bir tizim odatda alohida platforma, dasturlash tili va ma’lumotlar bazasiga asoslangan holda ishlab chiqiladi, bu esa ularning o‘zaro moslashuvi va integratsiyasini murakkablashtiradi. Natijada, tashkilotlar va boshqaruv tizimlari oldida turli manbalardan kelayotgan ma’lumotlarni yagona muhitda birlashtirish, ularni samarali qayta ishlash va tezkor qaror qabul qilishni ta’minlash kabi dolzarb vazifalar yuzaga kelmoqda[1].

Axborot tizimlarida integratsiya - bu turli mustaqil tizimlar, servislar va ma’lumotlar manbalarini o‘zaro bog‘lash hamda ularning yagona funksional muhitda ishlashini ta’minlash jarayonidir. Integratsiya darajasi tizimning umumiy samaradorligi, moslashuvchanligi va kengayuvchanligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlovchi, real vaqt rejimida monitoring va tahlil talab qilinadigan tizimlarda integratsiya muammosi yanada muhim ahamiyat kasb etadi[2].

So‘nggi yillarda axborot tizimlarini integratsiya qilishda turli arxitektura yondashuvlari shakllandi. Jumladan, xizmatga yo‘naltirilgan arxitektura (SOA), mikroxizmatlar arxitekturasi (Microservices), hodisaga asoslangan arxitektura (Event-Driven Architecture), korporativ xizmatlar shinasi (ESB), API asosidagi integratsiya va ma’lumotlar integratsiyasi (ETL/ELT) kabi modellardan keng foydalanilmoqda. Har bir model o‘zining arxitektura tamoyillari, afzalliklari va cheklovlariga ega bo‘lib, ular turli tizim talablariga qarab tanlanadi[3].

Shu bilan birga, yagona universal integratsiya modeli mavjud emasligi sababli, mavjud yondashuvlarni chuqur tahlil qilish, ularni muayyan mezonlar asosida taqqoslash va aniq vazifalar uchun eng optimal modelni tanlash zarurati yuzaga keladi. Ayniqsa, ko‘p manbali ma’lumotlar bilan ishlovchi zamonaviy tizimlarda samarali integratsiya modelini tanlash tizimning barqaror ishlashi va rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi[4].

Ushbu tezisning maqsadi axborot tizimlarida qo‘llaniladigan integratsiya modellari (SOA, Microservices, Event-Driven, ESB, API-based va Data Integration) samaradorligini ko‘p mezonli tahlil asosida baholash, ularni asosiy mezonlar bo‘yicha taqqoslash hamda tizim talablari asosida optimal integratsiya modelini aniqlashdan iborat[5].

Asosiy qism. Axborot tizimlarida integratsiya jarayonini samarali tashkil etish uchun turli arxitektura modellari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular tizimlar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi, ma’lumot almashinuvi usuli va boshqaruv mexanizmlariga ko‘ra farqlanadi. Ushbu tadqiqot doirasida eng keng qo‘llaniladigan integratsiya modellari - SOA, Microservices, Event-Driven Architecture, ESB, API-based integratsiya va Data Integration (ETL/ELT) - ko‘rib chiqiladi[4].

SOA (Service-Oriented Architecture) modeli xizmatlarga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, unda tizim funksiyalari mustaqil xizmatlar (services) sifatida tashkil etiladi va ular standart protokollar orqali o‘zaro aloqa qiladi. SOA modeli korporativ darajadagi tizimlarda keng qo‘llanilib, xizmatlardan qayta foydalanish (reusability) va markazlashgan boshqaruvni ta’minlaydi. Biroq ushbu modelda xizmatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik nisbatan yuqori bo‘lib, tizim moslashuvchanligini cheklashi mumkin[1].

Microservices arxitekturasi SOA ning evolyutsion rivojlangan shakli hisoblanadi. Ushbu modelda tizim kichik, mustaqil va avtonom xizmatlarga bo‘linadi, har bir xizmat alohida deploy qilinadi va o‘z ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lishi mumkin. Bu yondashuv tizimning kengayuvchanligini (scalability) va moslashuvchanligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, mikroxizmatlar asosidagi tizimlar monitoring, xavfsizlik va xizmatlararo kommunikatsiyani boshqarish nuqtai nazaridan murakkab hisoblanadi[2].

Event-Driven Architecture (EDA) hodisaga asoslangan integratsiya modeli bo‘lib, tizim komponentlari o‘zaro “event”lar orqali muloqot qiladi. Bu modelda biror hodisa yuz berganda (masalan, ma’lumot yangilanishi), tegishli xizmatlar avtomatik ravishda ishga tushadi. EDA real vaqt rejimidagi tizimlar, IoT va monitoring platformalari uchun juda samarali bo‘lib, tizimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kamaytiradi (loose coupling). Biroq bunday tizimlarda hodisalarni kuzatish va boshqarish murakkab bo‘lishi mumkin[4].

ESB (Enterprise Service Bus) modeli markazlashgan integratsiya yondashuvi bo‘lib, barcha tizimlar yagona “shina” orqali bog‘lanadi. ESB ma’lumotlarni marshrutlash, transformatsiya qilish va orkestratsiya vazifalarini bajaradi. Ushbu model yirik korporativ tizimlarda samarali ishlaydi, biroq markazlashgan tuzilma sababli “single point of failure” muammosi yuzaga kelishi va tizim moslashuvchanligi pasayishi mumkin[5].

API-based integratsiya zamonaviy web va mobil tizimlarda keng qo‘llaniladigan yondashuv bo‘lib, tizimlar o‘zaro RESTful API yoki boshqa interfeyslar orqali bog‘lanadi. Ushbu model soddaligi, tezkorligi va platformalararo moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. API orqali integratsiya qilish tizimlarni tez rivojlantirish imkonini beradi, ammo murakkab biznes jarayonlarini boshqarishda qo‘shimcha mexanizmlarni talab etadi[5].

Data Integration (ETL/ELT) modeli asosan ma’lumotlarni yig‘ish, transformatsiya qilish va saqlashga qaratilgan bo‘lib, analitik tizimlar va ma’lumotlar omborlarida keng qo‘llaniladi. ETL (Extract, Transform, Load) va ELT (Extract, Load, Transform) jarayonlari orqali turli manbalardan olingan ma’lumotlar yagona formatga keltiriladi. Ushbu model real vaqt rejimida emas, balki ko‘proq batch (to‘plamli) ishlov berishga mos keladi[6].

Shunday qilib, har bir integratsiya modeli o‘zining arxitektura yondashuvi va qo‘llanish sohasi bilan farqlanadi. Ularni to‘g‘ri tanlash tizimning funksional talablari, ma’lumot oqimi va ishlash tezligiga qo‘yiladigan talablar asosida amalga oshirilishi lozim.

Tahlil

Ushbu tadqiqotda integratsiya modellari samaradorligi ko‘p mezonli tahlil yondashuvi asosida baholandi. Har bir model bir nechta muhim mezonlar - moslashuvchanlik, kengayuvchanlik, real vaqt rejimida ishlash imkoniyati, tizim murakkabligi va ishonchlilik - bo‘yicha kompleks tarzda o‘rganildi. Ushbu yondashuv turli integratsiya modellari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash va ularning amaliy samaradorligini baholash imkonini beradi.

Axborot tizimlarida integratsiya modellari samaradorligini baholash uchun ularni bir qator muhim mezonlar asosida tahlil qilish zarur. Ushbu mezonlarga arxitektura turi, moslashuvchanlik (flexibility), kengayuvchanlik (scalability), real vaqt rejimida ishlash imkoniyati, boshqaruv murakkabligi, ishonchlilik va qo‘llanish sohasi kiradi. Har bir model ushbu mezonlar bo‘yicha turlicha natijalarni ko‘rsatadi[7].

Birinchidan, arxitektura yondashuvi nuqtai nazaridan SOA va ESB modellari markazlashgan tizimlarga yaqin bo‘lib, boshqaruvni soddalashtiradi, ammo tizimning umumiy moslashuvchanligini cheklaydi. Aksincha, microservices va event-driven arxitekturalari tarqatilgan (distributed) yondashuvga asoslangan bo‘lib, tizim komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni kamaytiradi va mustaqil rivojlanish imkonini beradi.

Ikkinchidan, moslashuvchanlik va kengayuvchanlik mezonlari bo‘yicha microservices modeli eng yuqori natijani ko‘rsatadi. Har bir xizmat alohida ishlashi sababli tizimni kengaytirish yoki o‘zgartirish boshqa komponentlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Event-driven yondashuv ham yuqori moslashuvchanlikka ega bo‘lib, yangi xizmatlarni tizimga qo‘shish hodisalar orqali oson amalga oshiriladi. SOA va ESB modellari esa nisbatan konservativ bo‘lib, o‘zgarishlar markaziy boshqaruvga bog‘liq.

Uchinchi muhim jihat - real vaqt rejimida ishlash. Bu borada event-driven arxitektura eng samarali model hisoblanadi, chunki u hodisalarga darhol javob qaytaradi va tizimlar o‘rtasida tezkor ma’lumot almashinuvini ta’minlaydi. Microservices modeli ham real vaqtga yaqin ishlash imkonini beradi, ammo u ko‘proq sinxron va asinxron API chaqiriqlariga bog‘liq. SOA, ESB va ETL asosidagi data integratsiya modellari esa ko‘proq kechikish (latency) bilan ishlaydi va real-time tizimlar uchun unchalik mos emas.

To‘rtinchidan, boshqaruv va ekspluatatsiya murakkabligi ham muhim omil hisoblanadi. Microservices va event-driven arxitekturalari yuqori moslashuvchanlikni ta’minlasa-da, ularni boshqarish, monitoring qilish va xavfsizligini ta’minlash ancha murakkab. Xizmatlar sonining ko‘pligi, tarmoq chaqiriqlari va loglarni kuzatish zarurati bu tizimlarni murakkablashtiradi. SOA va ESB modellari esa markazlashganligi sababli boshqaruv nisbatan osonroq, ammo moslashuvchanlik hisobiga.

Beshinchidan, ishonchlilik va barqarorlik mezonlari bo‘yicha markazlashgan tizimlar (SOA, ESB) barqarorroq ishlashi mumkin, ammo ular “single point of failure” muammosiga ega. Tarqatilgan tizimlarda (microservices, EDA) esa nosozliklar lokal darajada qoladi, ya’ni bitta xizmat ishdan chiqsa, butun tizim to‘xtab qolmaydi. Bu esa ularning ishonchligini oshiradi.

Quyidagi jadvalda integratsiya modellari asosiy mezonlar bo‘yicha kengaytirilgan tarzda taqqoslangan:

Mezoni	SOA	Microservices	EDA	ESB	API-based	Data Integration
Arxitektura	Markazlashgan	Tarqatilgan	Hodisaviy	Markazlashgan	Yengil	Ma’lumotga yo’naltirilgan
Moslashuvchanlik	O‘rtacha	Yuqori	Juda yuqori	Past	Yuqori	O‘rtacha
Kengayuvchanlik	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	Past	Yuqori	O‘rtacha
Real-time	Past	O‘rtacha	Yuqori	Past	O‘rtacha	Past
Murakkablik	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha	Past	O‘rtacha
Ishonchlilik	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	Past	O‘rtacha	Yuqori
Qo‘llanish sohasi	Korporativ tizimlar	Web/Cloud	IoT/Monitoring	Enterprise	Web/Mobile	Analitika

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har bir integratsiya modeli muayyan vazifalar uchun samarali bo‘lib, universal yechim sifatida qaralmasligi kerak. Ayniqsa, zamonaviy axborot tizimlarida ko‘p hollarda bir nechta modellarning kombinatsiyasiga asoslangan gibrid yondashuv qo‘llanilmoqda[8].

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, integratsiya modeli tanlash jarayoni ko‘p mezonli optimallashtirish masalasi sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, axborot tizimlarida integratsiya modellari tizimning umumiy samaradorligi, moslashuvchanligi va barqaror ishlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega. SOA, Microservices, Event-Driven Architecture, ESB, API-based va Data Integration kabi modellarning har biri o‘ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo‘lib, ular turli sharoit va vazifalarda turlicha natija beradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, an’anaviy va markazlashgan boshqaruv talab etiladigan korporativ tizimlarda SOA va ESB modellari ma’lum darajada samarali bo‘lsa-da, ularning moslashuvchanligi va kengayuvchanligi cheklangan. Zamonaviy, tez rivojlanayotgan va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishllovchi tizimlarda esa microservices va API-based integratsiya modellari ustunlik qiladi. Real vaqt rejimida ishllovchi, hodisalarga tezkor javob beruvchi tizimlar uchun event-driven arxitektura eng maqbul yechim sifatida ajralib turadi. Data Integration (ETL/ELT) modeli esa analitik tizimlar va ma’lumotlar omborlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, yagona universal integratsiya modeli mavjud emasligi aniqlanib, tizimning funksional talablari, ma’lumot oqimi xususiyatlari va ishlash tezligiga qo‘yilgan talablar asosida model tanlash zarurligi asoslab berildi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori samaradorlikka ko‘pincha bir nechta integratsiya yondashuvlarini birlashtirgan **gibrid model** orqali erishiladi. Xususan, microservices, API-based va event-driven arxitekturalar kombinatsiyasi zamonaviy axborot tizimlari uchun optimal yechim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, integratsiya modelini to‘g‘ri tanlash axborot tizimlarining samarali ishlashi, kelgusida kengaytirilishi va turli sharoitlarga moslashishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, olib borilgan tahlillar integratsiya modelini tanlash jarayonini ko‘p mezonli optimallashtirish masalasi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dragoni, N., et al. (2021). Microservices: Migration of a mission critical system. *IEEE Software*, 38(3), 68–75.
2. Taibi, D., Lenarduzzi, V., & Pahl, C. (2020). Architectural patterns for microservices: A systematic mapping study. *Journal of Systems and Software*, 150, 77–97.
3. Gannon, D., et al. (2020). Cloud-native applications and microservices architecture. *IEEE Cloud Computing*, 7(2), 10–20.
4. Zhang, Q., Chen, M., & Li, L. (2022). Event-driven architecture in modern distributed systems: A survey. *Future Generation Computer Systems*, 130, 276–290.
5. Alshuqayran, N., Ali, N., & Evans, R. (2021). A systematic mapping study in microservice architecture. *Service-Oriented Computing and Applications*, 15(2), 87–100.
6. Pahl, C., Jamshidi, P., & Zimmermann, O. (2021). Microservices: A systematic mapping study and guidelines for architects. *IEEE Software*, 38(1), 80–87.
7. Villamizar, M., et al. (2020). Evaluating the monolithic and microservice architecture pattern to deploy web applications in the cloud. *Journal of Systems and Software*, 143, 74–87.
8. Waseem, M., Liang, P., & Shahin, M. (2022). Microservices architecture: A systematic literature review. *IEEE Access*, 10, 12345–12360.

ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA STRATEGIK BOSHQARUV

Paizbekov Timurlan Kurbanbayevich

Ipak yo‘li va innovatsiyalar universiteti rektor maslahatchisi

Email: Azizapaiz@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy menejment tizimida raqamli transformatsiyaning o‘rni va strategik boshqaruvdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkilot faoliyatini samarali tashkil etish, boshqaruv qarorlarini ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilish hamda raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, Agile, Lean va Scrum kabi innovatsion boshqaruv yondashuvlari va ularning amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy menejmentda raqamli transformatsiya muhim strategik omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: menejment, strategik boshqaruv, raqamli transformatsiya, innovatsion yondashuvlar, Agile, Lean, Scrum, samaradorlik

KIRISH. Raqamli transformatsiya zamonaviy menejment tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda, chunki u tashkilot faoliyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tubdan qayta tashkil etish, biznes jarayonlarni optimallashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya faqat texnologik yangilanish bilan cheklanib qolmay, balki tashkilotning strategiyasi, boshqaruv modeli va korporativ madaniyatini ham o‘zgartirishni talab etadi, bu esa uni kompleks va ko‘p qirrali jarayonga aylantiradi.

Mazkur jarayonning mohiyati, avvalo, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish, avtomatlashtirish darajasini oshirish va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirishda namoyon bo‘ladi. Bunda sun‘iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) va turli raqamli platformalar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Natijada tashkilotlar yanada moslashuvchan, tezkor va raqobatbardosh tizimga ega bo‘lib, o‘z faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, an’anaviy menejment va raqamli menejment o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. An’anaviy boshqaruv tizimida qarorlar ko‘pincha rahbarning tajribasi va subyektiv yondashuviga asoslangan holda qabul qilinadi hamda jarayonlar ko‘p hollarda qo‘lda yoki qisman avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshiriladi. Aksincha, raqamli menejmentda qarorlar real vaqt rejimida olinadigan aniq va tahlil qilingan ma’lumotlarga tayangan holda qabul qilinadi, bu esa boshqaruv sifatini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, avtomatlashtirish darajasining yuqoriligi inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirib, umumiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy tashkilotlarda raqamli transformatsiyaning zarurati bir qator muhim omillar bilan izohlanadi. Eng avvalo, global raqobatning keskinlashuvi kompaniyalarni tezkor va innovatsion yechimlarni joriy etishga majbur qilmoqda. Shu bilan birga, iste’molchilarning talab va ehtiyojlari tobora ortib borayotgani xizmat ko‘rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi. Bundan tashqari, texnologik taraqqiyot tashkilotlar oldida yangi imkoniyatlarni ochib berib, ularni raqamli tizimlarga o‘tishga undamoqda.

Ushbu jarayonlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, raqamli transformatsiya ayrim sohalarda tezroq joriy etilayotganini ko‘rish mumkin. Xususan, bank-moliya sektori, elektron tijorat, telekommunikatsiya va IT xizmatlari bu borada yetakchi o‘rinlarni egallaydi, chunki ushbu sohalarda raqamli texnologiyalar bevosita samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, bank tizimlarida mobil ilovalar, onlayn to‘lov tizimlari va sun‘iy intellekt asosidagi xizmatlar keng joriy etilgan bo‘lsa, elektron tijorat sohasida raqamli platformalar orqali mijozlar bilan tezkor va samarali aloqalar yo‘lga qo‘yilgan.

Biroq ayrim sohalarda, jumladan sanoat va davlat boshqaruvi tizimlarida raqamli transformatsiya jarayoni nisbatan sekin kechmoqda, bu esa asosan infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, yuqori moliyaviy xarajatlar hamda malakali mutaxassislar yetishmasligi bilan bog‘liq. Shu sababli bu sohalarda transformatsiya jarayonini jadallashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Agar raqamli transformatsiya joriy etilmagan kompaniyalar faoliyatiga nazar tashlansa, ular bir qator jiddiy muammolarga duch kelayotganini ko‘rish mumkin. Jumladan, bunday tashkilotlarda raqobatbardoshlik darajasi pasayadi, biznes jarayonlar sekin va samarasiz kechadi, mijozlar ehtiyojlarini qondirish darajasi yetarli bo‘lmaydi hamda qaror qabul qilish jarayonlarida

kechikishlar yuzaga keladi. Natijada innovatsion rivojlanish sustlashadi va kompaniya bozorda o‘z mavqeini yo‘qotish xavfi ostida qoladi.

Shu boisdan zamonaviy sharoitda raqamli transformatsiyani joriy etish nafaqat tashkilot rivoji uchun muhim imkoniyat, balki uning barqaror faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini ta’minlash uchun zaruriy shart sifatida namoyon bo‘lmoqda.

2. Raqamli transformatsiyaning afzalliklari va muammolari

Raqamli transformatsiya zamonaviy tashkilotlar faoliyatini tubdan o‘zgartirib, boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonning asosiy afzalliklari, avvalo, tezkorlik, aniqlik va umumiy samaradorlikning ortishida namoyon bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar yordamida tashkilotlar katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash, real vaqt rejimida tahlil qilish va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, avtomatlashtirish orqali inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamayadi, mehnat unumdorligi oshadi va resurslardan samarali foydalanish ta’minlanadi. Natijada tashkilotlar raqobatbardoshligini oshirib, bozor sharoitlariga tez moslashadi.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida bir qator muammolar ham yuzaga keladi. Jumladan, yuqori moliyaviy xarajatlar, malakali kadrlar yetishmasligi hamda axborot xavfsizligi bilan bog‘liq risklar ushbu jarayonni murakkablashtiradi. Ayniqsa, kiberxavfsizlik masalalari bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Amaliy jihatdan qaranganda, O‘zbekistonda bank va to‘lov tizimlarining raqamlashtirilishi sezilarli ijobiy natijalar bermoqda, biroq ayrim hududlarda infratuzilma yetishmasligi muammosi saqlanib qolmoqda. Global miqyosda esa yirik kompaniyalar ko‘proq kiberhujumlar va ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda.

Shu sababli risklarni kamaytirish uchun xavfsizlik tizimlarini kuchaytirish, kadrlar tayyorlash va transformatsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Venn diagramma: Afzalliklar va muammolar taqqoslanishi



Diagramma izohi: Yuqoridagi Venn diagrammada raqamli transformatsiyaning ikki asosiy tomoni — afzalliklar va muammolar — o‘zaro taqqoslangan. Diagrammaning chap qismida tezkorlik, aniqlik, samaradorlik va avtomatlashtirish kabi ijobiy jihatlar aks etgan bo‘lsa, o‘ng qismida yuqori xarajatlar, kadrlar yetishmasligi va xavfsizlik risklari kabi muammolar ko‘rsatilgan.

Diagrammaning kesishgan qismida esa har ikkala holatga xos umumiy jihatlar, ya’ni texnologiyaga bog‘liqlik, boshqaruv tizimining o‘zgarishi va rivojlanish zarurati ifodalangan. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya bir vaqtning o‘zida ham imkoniyat, ham muammo sifatida namoyon bo‘ladi va uni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Zamonaviy menejment tizimida raqamli transformatsiya va strategik boshqaruv o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, tashkilotlarning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirish, qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, innovatsion boshqaruv yondashuvlari, xususan Agile, Lean va Scrum modellari tashkilotlarga moslashuvchanlik va tezkorlikni ta’minlab beradi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Porter M. Competitive Advantage. – 1985.
2. Kotler P. Marketing Management. – 2016.
3. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence. – 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli iqtisodiyotga oid farmonlari.
5. Zamonaviy menejment va IT bo‘yicha ilmiy maqolalar.

UDK: 004.932

ECHOKARDIOGRAFIK TASVIRLARDA DASTLABKI ISHLOV BERISH USULLARI

Olimjonova Saodat G‘ulomjon qizi
assistent, International school of
finance technology and science institute Samarqand filiali
solimjonova95@mail.ru
Muxtoraliev Nozima
Talaba, International school of finance
technology and science institute Samarqand filiali
nozimamuxtaraliyeva@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada echokardiografik tasvirlarni kompyuter yordamida tahlil qilishdan oldin amalga oshiriladigan dastlabki ishlov berish usullari ko‘rib chiqiladi. *Spekl-shovqinni* kamaytirish, kontrastni yaxshilash (CLAHE algoritmi), tasvir normalizatsiyasi va segmentatsiyaga tayyorlash bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, CLAHE algoritmi (kesma chegarasi $CL=3,0$; panjara o‘lchami 8×8) echokardiografik tasvirlarning SSIM ko‘rsatkichini 18,7% ga, PSNR ko‘rsatkichini esa 17,2% ga yaxshilaydi va bu chuqur o‘rganish modellarining klassifikatsiya aniqligini 5,4 foiz punktga oshiradi.

Kalit so‘zlar: echokardiografiya, dastlabki ishlov berish, CLAHE, spekl-shovqin, tasvir sifati, chuqur o‘rganish, chap qorincha.

Kirish. Echokardiografiya — yurak tuzilishi va funksiyasini baholashda eng keng tarqalgan noninvaziv usul bo‘lib, jahon tibbiyot amaliyotida yiliga 100 milliondan ortiq tekshiruv o‘tkaziladi [1]. Biroq ultratovush tasvirlarining o‘ziga xos kamchiliklari — spekl-shovqin (speckle noise), past kontrastlilik, anatomik tuzilmalar chegarasining noaniqligi avtomatik tahlil tizimlarini joriy etishda jiddiy to‘siq bo‘lib kelmoqda [2].

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt (SI) va chuqur o‘rganish (deep learning) asosidagi tizimlar echokardiografik tasvirlarni tahlil qilishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Ghorbani va boshqalar (2020) EchoNet modelini 2,6 million tasvirda o‘qitib, chap qorincha (CQ) baholashida yetakchi kardiologlar darajasiga yaqinlashdi [3]. Ouyang va boshqalar (2020) esa video asosida LVEF ni avtomatik hisoblashda klinik standartlarga mos natija ko‘rsatdi [4].

Ammo bu tadqiqotlarning muhim qismi tasvirni oldindan qayta ishlash bosqichini yetarlicha tadqiq etmagan. Holbuki, tasvir sifati bevosita modelning o'rganish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Ushbu maqolada echokardiografik tasvirlar uchun samarali dastlabki ishlov berish pipeline tahlil qilinib, har bir bosqichning diagnostik natijaga ta'siri miqdoriy baholanadi.

Dastlabki Ishlov Berish Bosqichlari:

1. Spekl-Shovqinni Kamaytirish

Ultratovush tasvirlari uchun xos bo'lgan spekl-shovqin (speckle noise) kogerent ultratovush to'lqinlarining interferensiyasi natijasida yuzaga keladi. Bu shovqin tasvirning vizual sifatini yomonlashtiradi va avtomatik segmentatsiya algoritmlarining aniqligini pasaytiradi [5].

Eng keng tarqalgan spekl-filtratsiya usullari: Median filtr — tez va oddiy, ammo qirralarni yo'qotadi. Anizotropik diffuziya filtri (Perona-Malik) — qirralarni saqlab, homojen hududlardagi shovqinni kamaytiradi. BM3D (Block-Matching and 3D Filtering) — zamonaviy va samarali, lekin hisoblash xarajati yuqori. Tadqiqotimizda anizotropik diffuziya filtri optimallik va tezlik muvozanati jihatidan afzal topildi: SSIM 0,712 dan 0,791 ga ko'tarildi.

2. Kontrastni Yaxshilash: CLAHE Algoritmi

Contrast-Limited Adaptive Histogram Equalization (CLAHE) algoritmi Pizer va boshqalar (1987) tomonidan taklif etilgan bo'lib, adaptiv gistogramma tenglashtirish (AHE) usulining takomillashtirilgan shaklidir [6]. CLAHE ning asosiy ustunligi — kesma chegarasi (clip limit) mexanizmi orqali shovqin kuchayishini nazorat ostida saqlab, lokal kontrastni maqsadli oshirishi.

Algoritm quyidagi qadamlardan iborat: (1) tasvir teng o'lchamli bloklarga (tiles) ajratiladi; (2) har bir blok uchun alohida gistogramma hisoblanadi; (3) gistogramma qiymatlari belgilangan kesma chegarasidan oshmasligi uchun «qirtiladi»; (4) ortiqcha piksel qiymatlari qayta taqsimlanadi; (5) bilinear interpolatsiya orqali bloklar o'rtasidagi chegaralar silliqatlanadi.

Parametrlarni optimallashtirishda CL=1,0 dan 8,0 gacha va panjara o'lchami 4×4 dan 32×32 gacha bo'lgan qiymatlar sinaldi. Ekokardiografik tasvirlar uchun optimal natija CL=3,0 va TGS=8×8 kombinatsiyasida qayd etildi. Bu sozlamada SSIM 0,791 dan 0,847 ga, PSNR esa 28,3 dB dan 31,4 dB ga ko'tarildi. Haddan ortiq CL qiymatlari (>5,0) shovqin kuchayishiga, juda kichik TGS qiymatlari (4×4) esa sun'iy artefaktlarga olib keldi.

3. Geometrik normalizatsiya va o'lchamlashtirish

Turli ultratovush apparatlarida olingan tasvirlar turli o'lchamda (300×400 dan 768×1024 pikselgacha) bo'lishi mumkin. Chuqur o'rganish modellari uchun barcha kirish tasvirlar bir xil o'lchamga keltirilishi shart. ResNet-50 va VGG-16 uchun 256×256, EfficientNet-B4 uchun 380×380 piksel o'lchami tanland [7]. O'lchamlashtirish vaqtida bilinear interpolatsiya ishlatildi. Bundan tashqari, tasvirning to'rtburchak skanerlash sektori (ultratovush konusi) tashqarisidagi qora hududlar tasvir tahlilida ortiqcha o'rinni egallashining oldini olish uchun maskalash amalga oshirildi.

4. Piksel Qiymatlarini Normalizatsiya Qilish

Kulrang tasvir (grayscale) piksel qiymatlari [0, 255] dan [0,0; 1,0] oralig'iga keltirildi. Keyin ImageNet statistiklari asosida kanallar bo'yicha standartlashtirish amalga oshirildi. Bu bosqich transfer learning samaradorligini oshirdi, chunki oldindan o'qitilgan modellar ImageNet ma'lumotlari bilan ishlashga moslashtirilgan.

Natijalar va Muhokama. Dastlabki ishlov berish pipeline ining har bir bosqichlari SSIM va PSNR ko'rsatkichlariga ta'siri quyidagi jadvalda keltirilgan:

Ishlov berish bosqichi	SSIM	PSNR (dB)	Klassifikatsiya aniqligi (%)
Asl tasvir (bazaviy)	0,712	26,8	91,0
+ Anizotropik diffuziya	0,791	28,3	92,4
+ CLAHE (CL=3,0; 8×8)	0,847	31,4	94,6
+ Normalizatsiya	0,847	31,4	95,3

Ishlov berish bosqichi	SSIM	PSNR (dB)	Klassifikatsiya aniqligi (%)
To'liq pipeline (EfficientNet-B4)	0,847	31,4	96,2

1-jadval. Dastlabki ishlov berish bosqichlarining tasvir sifati va klassifikatsiya aniqligiga ta'siri

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, to'liq ishlov berish pipeline i bazaviy tasvirga nisbatan klassifikatsiya aniqligini 5,2 foiz punktga oshirdi. Har bir bosqich kumulativ hissa qo'shdi, bunda CLAHE bosqichi eng katta o'zgarishni ta'minladi (+2,2 foiz punkt). Bu natijalar tasvirni dastlabki qayta ishlashning chuqur o'rganish modellarining o'rganish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Kardiologlar baholashi natijalariga ko'ra, CLAHE bilan ishlov berilgan tasvirlarda chap qorincha devori chegarasi, trabekulyar tuzilma va papillyar muskul ko'rinishi sezilarli darajada yaxshilangan. 10 nafar sertifikatlangan kardiologdan 8 tasi (80%) CLAHE tasvirlarini diagnostika uchun afzal ko'rdi.

Xulosa. Echokardiografik tasvirlarni dastlabki qayta ishlash chuqur o'rganish asosidagi diagnostika tizimlarining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan to'rt bosqichli pipeline — anizotropik diffuziya filtrlash, CLAHE kontrastni yaxshilash (CL=3,0; TGS=8×8), geometrik normalizatsiya va piksel standartlashtirish — EfficientNet-B4 modelida 96,2% klassifikatsiya aniqligiga erishishga imkon berdi. Kelajakdagi tadqiqotlarda 3D echokardiografiya tasvirlari uchun pipeline ni moslashtirish, diffuzion modellar asosida tasvir yaxshilashning CLAHE bilan solishtirilishi, hamda real vaqt rejimida ishlash uchun algoritmlarning tezlashtirish imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Lang R.M. et al. Recommendations for Cardiac Chamber Quantification by Echocardiography in Adults. // J. Am. Soc. Echocardiogr. — 2015. — Vol. 28, No. 1. — P. 1–39.
2. Fatemi O. et al. Ultrasound image quality assessment: a multi-modality approach. // Ultrasonics. — 2020. — Vol. 105. — P. 106118.
3. Ghorbani A. et al. Deep learning interpretation of echocardiograms. // NPJ Digit. Med. — 2020. — Vol. 3. — P. 10. DOI: 10.1038/s41746-019-0216-8
4. Ouyang D. et al. Video-based AI for beat-to-beat assessment of cardiac function. // Nature. — 2020. — Vol. 580. — P. 252–256. DOI: 10.1038/s41586-020-2145-8
5. Uddin M.S. et al. Feature Enhancement in Medical Ultrasound Videos Using CLAHE. // J. Imaging Inform. Med. — 2020. — Vol. 33, No. 2. — P. 325–342.
6. Pizer S.M. et al. Adaptive histogram equalization and its variations. // Comput. Vision Graphics Image Process. — 1987. — Vol. 38, No. 2. — P. 99–123.
7. Tan M., Le Q. EfficientNet: Rethinking Model Scaling for Convolutional Neural Networks. // Proc. ICML. — 2019. — P. 6105–6114. arXiv: 1905.11946
8. Zhang J. et al. A deep learning framework assisted echocardiography with diagnosis and lesion localization. // Sci. Rep. — 2023. — Vol. 13. DOI: 10.1038/s41598-022-27211-w

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH VA MANTIQUIY TAFAKKURINI O‘STIRISHDA TA‘LIM METODLARINING AHAMIYATI

G‘afforova Zarnigor Abdumo‘min qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy ta‘lim metodlarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlarning samaradorligi tahlil qilingan.

Аннотация: В статье освещается роль и значение современных методов обучения в формировании мировоззрения и развитии логического мышления учащихся начальных классов. Также анализируется эффективность интерактивных методов.

Annotation: This article highlights the role and importance of modern educational methods in shaping the worldview and developing logical thinking of primary school students. It also analyzes the effectiveness of interactive methods.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, dunyoqarash, mantiqiy tafakkur, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, malaka oshirish maktabi, kasbiy faoliyat.

Ключевые слова: начальное образование, мировоззрение, логическое мышление, интерактивные методы, педагогические технологии, школа повышения квалификации, профессиональная деятельность.

Keywords: Primary education, worldview, logical thinking, interactive methods, pedagogical technology, advanced training school, professional activity.

Bugungi kunda yurtboshimiz Sh.M. Miromonovich ham ta‘lim sohasida chuqur islohotlar olib bormoqda. Ayniqsa maktabgacha ta‘lim va boshlang‘ich ta‘lim sohalarida tubdan o‘zgarishlar olib borildi. Xususan “Matematika” fanini boshlang‘ich ta‘lim, o‘rta ta‘lim, oliy ta‘limda ham o‘rganilish sifatini oshirish uchun yangi darsliklar tuzildi, turli tanlovlar tashkillandi, talabalar uchun O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika instituti tashkillandi va aynan “Matematika” fanini yanada chuqurroq o‘rganish uchun qaror va farmoyishlar qabul qilindi. “Matematika ko‘p fanlarga yo‘l ochadi. Uni talabalar shaharchasida barpo etganimiz bejiz emas. Matematika instituti ta‘lim va ilm-fan o‘rtasida uzviylikni ta‘minlashi, mamlakatimiz rivojiga zamin yaratishi kerak”, - deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 12-iyun kuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika institutiga tashrifida so‘zlagan nutqidan o‘rganilib joriy hayotimizga tadbiq qilinmoqda. Shuni ochiq aytish joizki, biz qanchalik ilm olsak, shunchalik ongimiz, tasavvurimiz, hayotimiz, fikrlash dunyoyimiz rivojlanadi hamda hayotimizdagi turli xil muammolarning yo‘qolishiga, shaxsiy, kasbiy faoliyatimizni yuksalishiga yo‘l ochadi.

Dunyoqarash – bu shaxsning borliq haqidagi bilimlari, qarashlari, e‘tiqodi va munosabatlarining tizimidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dunyoqarash shakllanishi quyidagi omillar asosida amalga oshadi:

- ta‘lim jarayoni;
- o‘qituvchi shaxsi;
- oila va ijtimoiy muhit;
- axborot vositalari.

Dunyoqarashning kengligi o‘quvchining bilim doirasi, fikrlash darajasi va ijtimoiy faoliyatiga bog‘liqdir.

Mantiqiy tafakkur – bu voqea va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy tafakkur quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

- konkret fikrlash;
- solishtirish va tahlil qilish;
- umumlashtirish;
- xulosa chiqarish.

Mazkur jarayonda ta‘lim metodlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ta‘lim metodlari – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘quv faoliyatini tashkil etish usullaridir.

Ular quyidagicha tasniflanadi:

- an‘anaviy metodlar (ma‘ruza, tushuntirish);
- interaktiv metodlar (bahs, aqliy hujum);
- muammoli ta‘lim metodlari;
- o‘yin texnologiyalari;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Interaktiv metodlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan:

- “Aqliy hujum” – tez fikrlashni rivojlantiradi;
- “Klaster” – tushunchalarni tizimlashtiradi;
- “Debat” – mustaqil fikr bildirishni o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin orqali ta’lim eng samarali usullardan biridir. O‘yinlar orqali:

- o‘quvchilarning qiziqishi ortadi;
- mantiqiy fikrlash rivojlanadi;
- jamoaviy ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.

Muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilar:

- mustaqil fikrlashga o‘rganadi;
- muammoni hal qilish yo‘llarini izlaydi;
- ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Zamonaviy darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish:

- darsni qiziqarli qiladi;
- vizual tasavvurni kuchaytiradi;
- o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga undaydi.

Tajriba-sinov ishlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borildi. Unda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- interaktiv metodlar;
- o‘yin texnologiyalari;
- muammoli vaziyatlar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish va mantiqiy tafakkurini o‘stirishda ta’lim metodlarini o‘rgatish orqali quyidagi natijalarga erishildi:

o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasi oshdi;

- savollarga mustaqil javob berish ko‘nikmasi rivojlandi;
- darsga qiziqish kuchaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda ta’lim metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri tanlangan metodlar o‘quvchilarning bilimni mustahkamlash bilan birga ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv, muammoli va innovatsion metodlardan keng foydalanish zarur.

- interaktiv metodlardan keng foydalanish;
- o‘yin texnologiyalarini darslarga joriy etish;
- AKT vositalaridan samarali foydalanish;
- o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

Yurtimizda ayni damda olib borilayotgan islohotlarning asosiy omilidan biri bu har bir shaxsni fikrlashga, mantiqan tahlil qilishga o‘rgatishdir. Mantiqiy fikrlash bu o‘z-o‘zidan mantiq ilmi va uning tarixi bilan uzviy bog‘liq. Mantiq ilmi esa juda qadimdan paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan. Xususan mantiq ilmiga doir ilk tasavvurlarni qadimgi yunon olimlari Perminid, Aristotel, Demokrit, Platon, Suqrot kabi olimlar asarlarida so‘z brogan. Undan so‘ng esa Abu Nasir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Bedil, Umar Hayyom kabi olimlar tomonidan o‘z asarlari yordamida mantiq ilmi chuqur talqin qilingan. Shu tariqa yangi o‘rta asr Yevropasida ham mantiq ilmini yangi yo‘nalishlari o‘rganila boshlagan. Bu jarayonda T.Gobbs, V.Leybnist, V.F.Gegel, I.Kant, R.Dekart, F.Bekon kabilar o‘z xissasini qo‘shgan. Vatanimizda mantiq tushuncha va masalalari bilan M.M.Xayrullayev, E.Yu.Yusupov, V.Qobulov, I.Rahimov, M.Sharipov, O.Imomxo‘jayev, D.Fayzixo‘jayeva va boshqa olimlar mantiq ilmiga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni ta’lim tizimining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda o‘quvchilar tafakkurining poydevori shakllanadi, ularda sabab–natija bog‘lanishlarini tushunish, tahlil qilish, solishtirish,

umumlashtirish va xulosa chi qarish ko‘nikmalari rivojlanadi. Matematika darslari esa bu jarayon uchun eng qulay muhitni yaratadi. Chunki matematika fani nafaqat hisob-kitoblarni o‘rgatadi, balki mantiqiy fikrlashni, aniq mulohaza yuritishni, mustaqil fikr bildirishni talab qiladi. Matematik topshiriqlar o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi, ularda muammoni yechishga yo‘naltirilgan izlanish faoliyatini shakllantiradi. Ayniqsa, mantiqiy mazmundagi masalalar, qiziqarli topshiriqlar, kombinatorik holatlar, ketma-ketliklarni aniqlash, mantiqiy bog‘liqliklarni topishga yo‘naltirilgan mashqlar o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini kengaytiradi. Bu jarayon o‘qituvchidan ham yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni talab etadi. Har bir topshiriq o‘quvchining yosh xususiyatlariga, bilish imkoniyatlariga va qiziqishlariga mos ravishda tanlanishi zarur. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari va ijodiy yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi. Bugungi kunda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda raqamli o‘quv vositalari, virtual topshiriqlar va multimediali dasturlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning motivatsiyasini yanada oshiradi. Ular orqali o‘quvchi masalani faqat yechmaydi, balki uning mazmunini tushunishga, mantiqiy bog‘lanishni izlab topishga o‘rganadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, xatolarni tahlil qilish va t o‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyatlari shakllanadi. Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida mantiqiy mazmundagi topshiriqlardan tizimli foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur salohiyatini kengaytiradi, ularda tahliliy, ijodiy va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantiradi. Shu bois, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida muntazam ravishda qo‘llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni,
2. 2020-yil 12-iyun kuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika institutiga tashrifida so‘zlagan nutqidan
3. Jo‘rayev, A. (2020). Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
4. Xo‘jayev, M., & Tursunova, G. (2021). Matematika darslarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish usullari. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.
5. Ahmedova M. umumiy tahrir ostida. Falsafa. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – T.: 2006-y.– B 506, 495bet.
6. Baratov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. – T.: O‘qituvchi, 2005-y. – B 418,236-bet.
7. Berdieva O. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar // Xalq ta’limi. – Toshkent. – 2003-y
8. G‘afforova T. va b.1-sinf O‘qish darsligi. – T.: Sharq. 2015-y
9. G‘afforova T. va b. 2- sinf O‘qish darsligi. – T.: Sharq. 2015-y.

O‘ZBEK SAN‘ATINING XALQARO FESTIVALLARDA NAMOYON BO‘LISHI

Shokirov Toxirjon Nurmamatovich –
*Farg‘ona davlat universiteti musiqa
ta’limi va madaniyat kafedrasi katta o‘qituvchisi.*

Shokirov Toxirjon Nurmamatovich
Farg‘ona davlat universiteti, f.f.b.f.d. (PhD)
toxir1304@gmail.com +998916570207

ORCID ID 0000 0002 2056 2970

Abdullaeva Madina Shavkatjon qizi
*- Farg‘ona davlat universiteti musiqa
ta’limi va san‘at yo‘nalishi I kurs magistri.*

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘zbekiston san‘atining xalqaro festivallarda tutgan o‘rni, uning ta‘siri va ko‘rsatilayotgan yutuqlari haqida ilmiy tahlillarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek ijodkorlarining xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari, ularning festival va tanlovlarda qatnashishdan olgan tajribalari milliy san‘atning rivojlanishiga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqolada san‘atning turli yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan loyihalar va ular orqali milliy madaniyatning global nufuzi oshirilayotgani haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek san‘ati, xalqaro festival, milliy madaniyat, ijodkorlar, san‘at rivoji.

**Проявление узбекского искусства на
международных фестивалях**

Аннотация. В данной статье содержится научный анализ роли узбекского искусства в международных фестивалях, его влияния и достижений. Анализируются успехи узбекских художников на международной арене, их опыт участия в фестивалях и конкурсах, вклад в развитие национального искусства. Кроме того, в статье представлена информация о проектах, которые реализуются на международном уровне в различных областях искусства и о том, как благодаря им увеличивается глобальное влияние национальной культуры.

Ключевые слова: узбекское искусство, международный фестиваль, национальная культура, художники, развитие искусства.

The Representation of Uzbek Art at International Festivals

Abstract. This article contains scientific analyses of the place of Uzbek art in international festivals, its influence and achievements. The successes of Uzbek artists in the international arena, their experience gained from participating in festivals and competitions, and their contribution to the development of national art are analyzed. In addition, the article provides information on projects implemented internationally in various areas of art and the global influence of national culture through them.

Keywords: Uzbek art, international festival, national culture, artists, art development.

KIRISH. O‘zbekiston san‘ati boy va xilma-xil madaniy merosga ega bo‘lib, u xalqaro maydonda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Xalqaro festivallar madaniy almashinuv va san‘atning global miqyosda tanilishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, bu festivallar milliy san‘atni yangi bosqichga olib chiqishda vosita vazifasini bajaradi. Xalqaro maydonda o‘zbek san‘atining muvaffaqiyatli targ‘ib qilinishi uchun ijodkorlarning doimiy harakatlari, ularning tajriba almashuvi va xalqaro hamkorliklari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. San‘atning turli yo‘nalishlari, jumladan, musiqiy ijrochilik, amaliy san‘at, kino va teatr san‘ati, xalqaro festivallar orqali katta e‘tiborni tortmoqda. Ayniqsa, Sharq musiqasi, milliy raqs va hunarmandchilik mahsulotlari xalqaro maydonda o‘ziga xos brendga aylangan. Shuningdek, xalqaro festivallar nafaqat ijodkorlar uchun tajriba almashish maydoni, balki yangi madaniy-ijodiy loyihalarni boshlash uchun ham platforma bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonlar natijasida O‘zbekiston san‘ati nafaqat boy madaniy merosni saqlab qolmoqda, balki uni zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan boyitib, dunyo miqyosida tanilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbek san‘atining xalqaro maydondagi o‘rnini tadqiq qilishda keng miqyosdagi adabiyotlar va tadqiqotlar o‘rganildi. Jumladan, milliy va xorijiy nashrlarda chop etilgan maqolalar, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, shuningdek, festival natijalariga oid statistik ma‘lumotlar asos sifatida qabul qilindi.

Karimov o‘zining “O‘zbekiston san‘ati va madaniyati” asarida milliy san‘atning xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlarini yoritib, bu yutuqlarni global miqyosda tan olish jarayonlariga chuqur e‘tibor qaratgan [1:145]. Shuningdek, Qodirovning “Xalqaro festivallarda o‘zbek san‘atining yutug‘i” kitobi milliy san‘atning rivojlanishidagi asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatib beradi [3:98]. Ushbu asar milliy san‘atning dunyo miqyosida muvaffaqiyatli targ‘ib qilinishida xalqaro festivallarning o‘rni haqida batafsil tahlillarni o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga, xorijiy manbalar orasida UNESCO hisobotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, UNESCOning 2020 yilgi hisobotida o‘zbek san’atining turli yo‘nalishlari xalqaro miqyosda e’tirof etilgani va ularning madaniy almashinuvga qo‘shgan hissasi qayd etilgan. Ayniqsa, milliy musiqiy cholg‘u asboblari va raqs san’atining yuksak baholanishi e’tiborga molik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekistonning xalqaro festivallardagi muvaffaqiyatlari milliy san’at rivoji uchun muhim poydevor yaratmoqda. Ushbu muvaffaqiyatlar nafaqat ijodiy salohiyatni oshirish, balki O‘zbekistonning xalqaro madaniy maydondagi imidjini mustahkamlashda ham katta rol o‘ynamoqda. Masalan:

1. “Sharq taronalari” festivali: Bu festival O‘zbekiston musiqasining xalqaro miqyosda tanilishi uchun muhim platforma bo‘ldi. 2019-yilgi festivalda milliy cholg‘u asboblari ijrochilari yuqori o‘rinlarni egallab, xalqaro musiqiy jamoatchilikda katta taassurot qoldirdi [1:68].

2. Kinematografiya yutuqlari: O‘zbek filmlari so‘nggi yillarda xalqaro kinofestivallarda muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. Masalan, “To‘maris” filmi 2020-yilgi “Global Film Awards” festivalida mukofotga sazovor bo‘ldi. Bu kabi muvaffaqiyatlar milliy kino sanoatining imkoniyatlarini dunyo miqyosida ko‘rsatib bermoqda [3:45].

3. Amaliy san’at va hunarmandchilik: O‘zbekiston hunarmandlari xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarda ishtirok etib, milliy madaniyatni targ‘ib qilishda katta hissa qo‘shmoqdalar. Misol uchun, 2022-yilda tashkil etilgan “Crafts of the World” festivalida Samarqandlik ustalar xalqaro tanlovda oltin medalni qo‘lga kiritdilar.

4. Raqs san’ati: Milliy raqs ansambllari xalqaro festivallarda faol ishtirok etib, O‘zbekiston raqs madaniyatining boy an‘analarini dunyo jamoatchiligiga yetkazmoqda. Jumladan, “Raqs va madaniyat kunlari” festivali doirasida namoyish etilgan “Lazgi” raqsi UNESCOning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilganligi diqqatga sazovordir.

Natijalar ko‘rsatadiki, xalqaro festivallardagi ishtirok nafaqat milliy san’atning dunyoda tan olinishiga, balki ijodkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochilishiga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bunday tadbirlar orqali xalqaro madaniy hamkorlik yanada mustahkamlanib, milliy va xalqaro madaniyat o‘rtasida uzviy bog‘liqlik shakllanmoqda. Turli san’at yo‘nalishlarida erishgan yutuqlari xalqaro festival va tanlovlarda yuqori baholandi.

XULOSA

Xalqaro festivallarda o‘zbek san’atining ishtiroki milliy madaniyatni rivojlantirish va uni dunyo maydonida tanitishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadbirlar orqali san’atkorlar nafaqat o‘z ijodiy salohiyatlarini namoyish etish imkoniga ega bo‘lishadi, balki milliy madaniyatni targ‘ib qilishda ham muhim rol o‘ynashadi. Birinchidan, xalqaro festivallar milliy san’atni yangi bosqichga olib chiqish uchun kuchli platforma vazifasini bajaradi. Ushbu tadbirlar nafaqat san’atkorlarga, balki milliy madaniyatga ham keng imkoniyatlar ochadi. Xususan, bunday festival va ko‘rgazmalarda ishtirok etgan o‘zbek musiqachilari, raqqoslar, hunarmandlar va kinoijodkorlari xalqaro e’tirofga sazovor bo‘lmoqda. Ikkinchidan, xalqaro festivallar doirasida erishilgan yutuqlar madaniy hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bunday tadbirlar nafaqat O‘zbekiston madaniy merosining boyligini namoyon etadi, balki xorijiy san’atkorlar bilan o‘zaro tajriba almashinuvi jarayonini ham tashkil etadi. Uchinchidan, xalqaro festival va tanlovlarda ishtirok etish milliy san’atning ijodkorlik doirasini kengaytirib, san’at asarlarining innovatsion yondashuvlarini rivojlantiradi. Masalan, “Sharq taronalari” va “Raqs va madaniyat kunlari” kabi tadbirlarda qatnashgan san’atkorlar o‘z asarlariga xalqaro elementlarni qo‘shish orqali ularni yanada boyitib, yangi asarlar yaratmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Karimov A. “O‘zbekiston san’ati va madaniyati”. Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
2. Mahmudov H. “Sharq musiqasi va uning global ta’siri”. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Qodirov R. “Xalqaro festivallarda o‘zbek san’atining yutug‘i”. Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2021.
4. UNESCO hisobotlari, 2020 yil.

ИНТЕГРАЦИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЧЕБНЫЕ ПРОГРАММЫ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Файзиева Машхура Косимовна
базовый докторант,

Институт макроэкономических и региональных исследований
e-mail: mashhurafayziyeva2023@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается необходимость трансформации образовательного процесса в условиях перехода к устойчивому развитию. Автор анализирует барьеры внедрения концепции циркулярной экономики в школьные и вузовские программы, предлагая системные решения по формированию нового типа экономического мышления у молодежи. Особое внимание уделено междисциплинарному подходу и практико-ориентированному обучению.

Ключевые слова: циркулярная экономика, экономика замкнутого цикла, устойчивое развитие, образовательные программы, экологическое мышление, интеграция образования, зеленая экономика.

Введение. Современная глобальная экономика находится на этапе перехода от линейной модели («взять-произвести-выбросить») к циркулярной (круговой). Этот переход требует не только технологических инноваций, но и глубокой трансформации общественного сознания. Образование выступает ключевым инструментом этой трансформации. Интеграция принципов циркулярной экономики в учебные программы является стратегической задачей, направленной на подготовку специалистов, способных минимизировать отходы и максимизировать ценность ресурсов.

Анализ текущих проблем и обоснование. Переход к циркулярной модели имеет колоссальный экономический и социальный потенциал. По данным фонда Эллен Макартур, внедрение принципов круговой экономики может принести Европе чистую экономическую выгоду в размере 1,8 триллиона евро к 2030 году [1]. Согласно прогнозам Международной организации труда, этот процесс создаст около 24 миллионов новых рабочих мест к 2030 году [2]. Однако на данный момент только 8,6% мировой экономики является циркулярной [3].

Несмотря на актуальность, процесс интеграции в образование сталкивается с рядом барьеров:

1. **Фрагментарность знаний:** Вопросы экологии и экономики часто преподаются изолированно, что не дает учащимся целостной картины.
2. **Отсутствие методической базы:** Наблюдается дефицит учебников и пособий, адаптированных под реалии экономики замкнутого цикла.
3. **Недостаточная подготовка кадров:** Педагоги зачастую не обладают компетенциями для объяснения современных моделей, таких как «совместное потребление» или «продукт как услуга».

Предлагаемые решения. Для успешного внедрения циркулярных принципов предлагается комплексный подход:

- **Междисциплинарная интеграция:** Концепция замкнутого цикла должна пронизывать различные дисциплины — от химии и биологии до маркетинга и права.
- **Применение STEM-технологий:** Использование проектного метода обучения позволяет учащимся самостоятельно находить решения локальных экологических проблем через практику.
- **Партнерство с бизнесом:** Привлечение представителей «зеленого» сектора экономики для проведения лекций и организации практик.

Заключение. Интеграция циркулярной экономики в образование — это долгосрочная инвестиция в устойчивое будущее. Решение проблем нехватки кадров и

методических материалов позволит сформировать поколение, для которого бережливое отношение к ресурсам станет естественной нормой жизни. Образовательные учреждения должны стать не просто источниками знаний, а инкубаторами инноваций в области устойчивого развития [4].

ЛИТЕРАТУРА

1. Эллен Макатур. Навстречу циклической экономике: экономическое обоснование ускоренного перехода / Фонд Эллен Макатур. – М. : ЭМФ, 2015. – 100 с.
2. Мир занятости и социальных перспектив 2018: Озеленение с рабочими местами / под ред. Международной организации труда. – Женева : МОТ, 2018. – 194 с.
3. Отчет о разрыве в циркулярности 2023 / под ред. Circle Economy. – Амстердам : CE, 2023. – 64 с.
4. Образование в интересах устойчивого развития: Дорожная карта / под общ. ред. ЮНЕСКО. – Париж : ЮНЕСКО, 2021. – 72 с.

MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA TEXNIKA FANLARIDA ZAMONAVIY MUAMMOLARNI HAL ETISH MASALALARI

X.Islamov

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Muallif. X.Islamov

Manba nomi. tezis

Ish joyi lavozimi Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Konferensiya yo‘nalishi (seksiya) raqami 1.

Moqola va tezisning nomi Matematik modellashtirish va texnika fanlarida
zamonaviy muammolarni hal etish masalalari

Telefon +998932055511

Email E –mail: xislomov@inbox.ru

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika va texnika fanlarining zamonaviy nazariy hamda amaliy muammolari tahlil qilinadi. Xususan, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) sharoitida matematik modellashtirish, optimallashtirish usullari hamda algoritmik yondashuvlarning o‘rni yoritiladi. Tadqiqotda murakkab muhandislik masalalarini hal etishda fanlararo integratsiya va zamonaviy dasturiy vositalarning ahamiyati ta’kidlanadi. Shuningdek, innovatsion ta’lim texnologiyalari orqali bo‘ljak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqola xulosasida zamonaviy ilmiy va texnik muammolarni hal etishda matematik usullar va hisoblash vositalaridan samarali foydalanish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar matematika, texnika, modellashtirish, sun‘iy intellekt, Big Data, optimallashtirish, algoritmlar

Abstract This article analyzes modern theoretical and practical problems of mathematics and engineering sciences. In particular, the role of mathematical modeling, optimization methods, and algorithmic approaches in the context of digital technologies, artificial intelligence, and Big Data is highlighted. The study emphasizes the importance of interdisciplinary integration and modern software tools in solving complex engineering problems. Furthermore, it discusses the development of professional competencies of future engineers through innovative educational technologies. The article concludes that effective use of mathematical methods and computational tools is essential for addressing contemporary scientific and technical challenges.

Keywords mathematics, engineering, modeling, artificial intelligence, Big Data, optimization, algorithms

Zamonaviy davrda matematika va texnika fanlari insoniyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va avtomatlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi ushbu fanlar oldiga yangi vazifalar va murakkab muammolarni qo‘ymoqda[5].

Matematika fundamental fan sifatida texnika va muhandislik sohalarining nazariy asosini tashkil etadi. Texnika fanlari esa matematik modellar va hisoblash usullarini amaliyotga tatbiq etish orqali real muammolarni hal etishga xizmat qiladi. Shu bois matematika va texnika fanlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik bugungi kunda yanada kuchayib bormoqda[2].

Matematika fanining zamonaviy nazariy muammolari deb quyidagilarni aytish mumkin zamonaviy matematika fanida quyidagi muhim nazariy muammolar ajralib turadi bular

1. Murakkab tizimlarni modellashtirish

Hozirgi kunda iqtisodiyot, ekologiya, tibbiyot va texnika sohalarida murakkab tizimlarni matematik modellashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu tizimlar ko‘p omilli, noaniq va dinamik xarakterga ega bo‘lib, ularni aniq modellashtirish qiyin.

2. Noaniqlik va ehtimollik masalalari

Real jarayonlarda noaniqlik mavjud bo‘lib, ularni ehtimollik nazariyasi va matematik statistika orqali o‘rganish zarur. Masalan, katta ma’lumotlarni tahlil qilishda statistik usullar muhim ahamiyatga ega.

3. Optimallashtirish muammolari

Resurslardan samarali foydalanish uchun optimallashtirish masalalari keng qo‘llaniladi. Bunda chiziqli va nochiziqli dasturlash, diskret optimallashtirish usullari muhim rol o‘ynaydi.

4. Sun‘iy intellekt va matematik algoritmlar

Sun‘iy intellekt algoritmlarining asosida matematik modellar yotadi. Neyron tarmoqlar, regressiya modellari, klassifikatsiya algoritmlari matematik metodlarga asoslanadi.

Texnika fanlarining zamonaviy amaliy muammolari texnika fanlari asosan matematik nazariyalarni amaliyotga qo‘llash bilan bog‘liq. Bu yo‘nalishda quyidagi muammolar dolzarb hisoblanadi:

1. Yuqori aniqlikdagi hisoblashlar zamonaviy muhandislik masalalarida yuqori aniqlik talab qilinadi. Masalan, aerodinamika, qurilish, robototexnika sohalarida hisoblash xatolari katta muammolarga olib kelishi mumkin.

3. Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish

Bulutli texnologiyalar, IoT (Internet of Things), Big Data tizimlarini texnika sohalariga joriy etish hali ham muammoli jarayon hisoblanadi.

4. Energiya va resurslardan samarali foydalanish

Texnika sohasida energiya tejash va ekologik xavfsizlik muhim masalalardan biridir. Bu yerda matematik optimallashtirish muhim rol o‘ynaydi.

Matematik modellashtirish va uning ahamiyati matematik modellashtirish – real jarayonlarni matematik ifodalar orqali tasvirlashdir. Bu usul orqali murakkab tizimlarni tahlil qilish, prognoz qilish, optimal yechimlarni topish mumkin[1].

Masalan, ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish uchun quyidagi model qo‘llanilishi mumkin, xarajat funksiyasi minimallashtiriladi, resurslar cheklov sifatida olinadi, natijada optimal ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi. Bu jarayon texnika va iqtisodiyotda keng qo‘llaniladi.

Raqamli texnologiyalar va ularning o‘rni zamonaviy muammolarni hal qilishda quyidagi texnologiyalar muhim ahamiyatga ega:

Sun‘iy intellekt (AI) avtomatik qaror qabul qilish, tasvirni aniqlash, prognozlash kabi vazifalarda qo‘llaniladi.

Big Data katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beradi. Bulutli hisoblash (Cloud Computing)

Masofaviy serverlarda hisoblash imkonini beradi va katta resurslarni tejaydi.

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy muhandis quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak, matematik modellashtirishni bilish, algoritmik fikrlash, dasturiy vositalardan foydalanish; muammolarni tahlil qilish va yechim toppish. Buni amalga oshirish uchun quyidagilar muhim o‘rin tutadi.

- interaktiv o‘qitish usullari,
- virtual laboratoriyalar,
- simulyatsiya keng joriy etilishi lozim.

Fanlararo integratsiya ahamiyati matematika va texnika fanlari boshqa sohalar bilan integratsiyada rivojlanadi tibbiyotda – diagnostika modellari, iqtisodiyotda – prognozlash, ekologiyada – muhitni modellashtirish. Bu esa kompleks muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi[2].

Xulosa matematika va texnika fanlarining zamonaviy rivojlanish bosqichi shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishlar nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliy ahamiyati bilan ham jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi o‘rin egallamoqda. Raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar sharoitida matematik usullar va texnik yechimlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida mavjud nazariy yondashuvlarni takomillashtirishni, yangi matematik modellarni ishlab chiqishni hamda ularni real jarayonlarga moslashtirishni talab etadi[4]

Shu bilan birga, texnika fanlarida yuzaga kelayotgan murakkab masalalar matematik bilimlarning chuqur integratsiyasini talab qilmoqda. Ayniqsa, yuqori aniqlikdagi hisoblashlar, optimallashtirish, prognozlash va boshqaruv jarayonlarida matematik modellashtirish muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy dasturiy ta‘minot vositalari esa ushbu jarayonlarni tezlashtirish va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda[3].

Bugungi kunda fanlararo integratsiya alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki real muammolar ko‘pincha bir nechta fan doirasida hal etiladi. Matematika, texnika, informatika va boshqa sohalarining o‘zaro uyg‘unligi ilmiy va amaliy muammolarni kompleks yondashuv asosida yechishga xizmat qiladi. Bu esa yangi ilmiy natijalar va innovatsion texnologiyalarni yaratishga zamin bo‘ladi.

Shuningdek, bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli vositalar va amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni katta. Talabalarda mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va samarali yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Aynan shu jihatlar ularning kelajakdagi professional faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishini ta‘minlaydi[5].

Umuman olganda, matematika va texnika fanlarining uyg‘un rivojlanishi zamonaviy ilm-fan va ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni yanada rivojlantirish kelajakda yanada murakkab va dolzarb muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi[1].

Adabiyotlar

1. Kolmogorov A.N. Matematik analiz asoslari. Moskva, 2018.
2. Boylestad R. Engineering Analysis. Pearson, 2020.
3. Goodfellow I. Deep Learning. MIT Press, 2016.
4. Press W. Numerical Recipes. Cambridge University Press, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim standartlari va ilmiy maqolalar to‘plami.

ПОСТРОЕНИЕ КОНЕЧНОМЕРНЫХ АППРОКСИМИРУЮЩИХ ПОДПРОСТРАНСТВ, ИНТЕРПОЛЯЦИОННЫЕ И БАЗИСНЫЕ ФУНКЦИИ

Абдуллаев Обид — кандидат ф.м.н., доцент кафедры теоретической и инженерной механики Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова.

E-mail: abdullayev2006@inbox.ru

Тураев Рустам – 2-курс магистр. Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова. Кафедра «Теоретической и инженерной механики»

Континуальная проблема формулируется на языке дискретной задачи. Для этого определяются конечные элементы, множество узлов, аппроксимирующие области, ряд конечномерных подпространств, которым должны принадлежать решения дискретной проблемы, указывается алгоритм построения кусочно-полиномиальных функций, как для перемещений, так и для напряжений /деформаций/.

Ключевые слова: проекционно-сеточный алгоритм, конечномерные подпространства, дискретизация, множество узлов для перемещений, напряжений и деформаций, полиномиальные функции, носители функций, сужения, линейная оболочка, гильбертова пространство, линейный оператор.

Construction of finite-dimensional approximating subspaces, interpolation and basis functions.

Abstract: A continuous problem is formulated in the language of a discrete problem. To this end, finite elements, a set of nodes, approximating domains, and a series of finite-dimensional subspaces to which the solutions of the discrete problem must belong are defined. An algorithm for constructing piecewise polynomial functions is specified for both displacements and stresses/strains.

Key words: projection-grid algorithm, finite-dimensional subspaces, discretization, set of nodes for displacements, stresses and strains, polynomial functions, supports of functions, restrictions, linear span, Hilbert space, linear operator.

Построение смешанных проекционно-сеточных алгоритмов МКЭ основывается на дискретизации исходной континуальной задачи, описываемой системой уравнений (1) – (3).

$$\begin{cases} (\varepsilon, \varpi)_X = (Bu, \varpi)_X, & \forall \varpi \in X \\ (\sigma, \tau)_X = (\mathcal{D}\varepsilon, \tau)_X - (\mathcal{D}\zeta, \tau)_X, & \forall \tau \in X \\ (\sigma, Bv)_X = \langle \rho, v \rangle_U, & \forall v \in U \end{cases} \quad (1)$$

$$\quad (2)$$

$$\quad (3)$$

В результате бесконечномерные пространства U и X , элементами которых являются искомые функции $(u, \sigma, \varepsilon) \in U \times X \times X$, аппроксимируются некоторыми конечномерными подпространствами $U_h \subset U$ и $X_h \subset X$ соответственно. Символ h понимается как определяющий параметр семейства конечномерных подпространств U_h и X_h стремящийся в пределе к нулю.

Конструирование конечномерных подпространств осуществляют в МКЭ при помощи кусочно-полиномиальных базисных функций, имеющих конечный носитель в Ω . С этой целью строят при помощи сетки дискретизацию $\mathcal{T}_h$ на множестве Ω , характеризующую следующим основными свойствами:

$$\mathcal{T}_h = \left\{ \bigcup_{m=1, \dots, N_m(h)} \bar{\Omega}_m = \bar{\Omega}; \quad \Omega_m \cap \Omega_l = \emptyset, \quad \forall m \neq l; \right. \\ \left. \max_{m=1, \dots, N_m(h)} h_m \leq h; \quad h_m \leq cs_m, \quad \forall \Omega_m \right\} \quad (4)$$

Здесь h_m - диаметр шара, описанного вокруг подмножества Ω_m ;

s_m - диаметр вписанного в Ω_m шара; $N_m(h)$ - количество подмножеств Ω_m , на которые разбито множество Ω ; c - константа, независимая от параметра h .

Для того, чтобы полностью описать дискретизацию необходимо ввести в рассмотрение соответствующие множества узлов интерполяции.

Обозначим через

$$\mathcal{E}_h = (x_\alpha)_{\alpha=1}^{N_\alpha(h)}, \quad \mathcal{Y}_h = (x_\gamma)_{\gamma=1}^{N_\gamma(h)} \quad (5)$$

- множества узлов интерполяции, в которых разыскиваются значения перемещений и напряжений (деформаций) соответственно. Множества $\mathcal{E}_h$ и $\mathcal{Y}_h$ согласуются с разбиением $\mathcal{T}_h$ и в общем случае не совпадают.

Алгоритм построения кусочно-полиномиальных базисных функций заключается в следующем. На объединении подмножеств Ω_m , примыкающих к каждому узлу сетки, строят полиномиальные функции с конечным носителем, равным выбранному объединению.

Коэффициенты полинома в каждом подмножестве Ω_m задают таким образом, что бы обеспечить однозначное определение полинома на всем множестве Ω . преимущества такого базиса состоит в том, что носители его функций гораздо меньше Ω и базис «почти ортогонален».

Обозначим через $\lambda_{h\alpha}^{(m)}(x)$ и $\omega_{h\gamma}^{(m)}(x)$ – полиномиальные функции координат, задаваемые в пределах подмножества Ω_m . Условимся считать, что функция $\lambda_{h\alpha}^{(m)}(x)$ соответствует узлу $x_\alpha \in \bar{\Omega}_m$ из множества $\mathcal{E}_h$, а функция $\omega_{h\gamma}^{(m)}(x)$ – узлу $x_\gamma \in \bar{\Omega}_m$ из множества $\mathcal{Y}_h$. Кроме того, функции $\lambda_{h\alpha}^{(m)}(x)$ и $\omega_{h\gamma}^{(m)}(x)$ принимают значение равные единице в узле, которому они соответствуют и нулю во всех остальных узлах $x_\beta \in \bar{\Omega}_m$ из множества $\mathcal{E}_h$ и $x_\mu \in \bar{\Omega}_m$ из множества $\mathcal{Y}_h$, т.е.

$$\lambda_{h\alpha}^{(m)}(x_\beta) = \delta_{\alpha\beta}; \forall x_\alpha, x_\beta \in \bar{\Omega}_m \quad (6)$$

$$\omega_{h\gamma}^{(m)}(x_\mu) = \delta_{\gamma\mu}; \forall x_\gamma, x_\mu \in \bar{\Omega}_m \quad (7)$$

где $\delta_{\alpha\beta}$ и $\delta_{\gamma\mu}$ обозначают символы Кронекера:

$$\delta_{\alpha\beta} = \begin{cases} 1, & \alpha = \beta \\ 0; & \alpha \neq \beta \end{cases} \quad \delta_{\gamma\mu} = \begin{cases} 1, & \gamma = \mu \\ 0; & \gamma \neq \mu \end{cases} \quad (8)$$

Определим теперь кусочно-полиномиальных базисных функций $(\varphi_{h\alpha}(x))_{\alpha=1}^{N_{\alpha}(h)}$ и $(\psi_{h\gamma}(x))_{\gamma=1}^{N_{\gamma}(h)}$. Для этого каждому узлу сетки $x_\alpha \in \mathcal{E}_h$ и $x_\gamma \in \mathcal{Y}_h$ сопоставим функцию $\varphi_{h\alpha}(x)$ и $\psi_{h\gamma}(x)$, принимающую значения равные единице в узле, которому она соответствует, и нулю во всех остальных узлах множества $\mathcal{E}_h$ и $\mathcal{Y}_h$ соответственно, т.е.

$$\varphi_{h\alpha}(x_\beta) = \delta_{\alpha\beta}; \forall x_\alpha, x_\beta \in \mathcal{E}_h \quad (9)$$

$$\psi_{h\gamma}(x_\mu) = \delta_{\gamma\mu}; \forall x_\gamma, x_\mu \in \mathcal{Y}_h \quad (10)$$

На каждом из подмножеств $\bar{\Omega}_m$, которые содержат узел $x_\alpha \in \mathcal{E}_h$ и $x_\gamma \in \mathcal{Y}_h$ функции $\varphi_{h\alpha}(x)$ и $\psi_{h\gamma}(x)$ зададим равными $\lambda_{h\alpha}^{(m)}(x)$ и $\omega_{h\gamma}^{(m)}(x)$ соответственно. Вне пределов этих подмножеств функции $\varphi_{h\alpha}(x)$ и $\psi_{h\gamma}(x)$ тождественно равны нулю. Носителями функций $\varphi_{h\alpha}(x)$ и $\psi_{h\gamma}(x)$ является объединение подмножеств $\bar{\Omega}_m$, связанных с узлом $x_\alpha \in \mathcal{E}_h$ и $x_\gamma \in \mathcal{Y}_h$, т.е.

$$\sup p \varphi_{h\alpha}(x) = \{x | x \in \Lambda_{h\alpha}\} \quad (11)$$

$$\sup p \psi_{h\gamma}(x) = \{x | x \in \Lambda_{h\gamma}\} \quad (12)$$

где $\Lambda_{h\alpha}$ и $\Lambda_{h\gamma}$ – совокупность подмножеств $\bar{\Omega}_m$, которые содержат узел $x_\alpha \in \mathcal{E}_h$ и $x_\gamma \in \mathcal{Y}_h$ соответственно:

$$\Lambda_{h\alpha} = \{\bar{\Omega}_m | x_\alpha \in \bar{\Omega}_m\}, \quad (13)$$

$$\Lambda_{h\gamma} = \{\bar{\Omega}_m | x_\gamma \in \bar{\Omega}_m\}, \quad (14)$$

Таким образом, функции $\varphi_{h\alpha}(x)$ и $\psi_{h\gamma}(x)$ определяются соотношениями:

$$\varphi_{h\alpha}(x) = \begin{cases} \lambda_{h\alpha}^{(m)}(x), & \forall x \in \Lambda_{h\alpha} \\ 0, & \forall x \notin \Lambda_{h\alpha} \end{cases} \quad (15)$$

$$\psi_{h\gamma}(x) = \begin{cases} \omega_{h\gamma}^{(m)}(x), & \forall x \in \Lambda_{h\gamma} \\ 0, & \forall x \notin \Lambda_{h\gamma} \end{cases} \quad (16)$$

Наборы таких функций принимаются в МКЭ в качестве базисных.

Множество кусочно-полиномиальных функций, построенных с помощью линейных комбинаций

$$v_{hi}(x) = \sum_{x_\alpha \in \mathcal{E}_h} v_{hi}(x_\alpha) \varphi_{h\alpha}(x), \quad \forall x \in \Omega$$

$$\tau_{hij}(x) = \sum_{x_\gamma \in \mathcal{Y}_h} \tau_{hij}(x_\gamma) \psi_{h\gamma}(x), \quad \forall x \in \Omega$$

определяют пространства конечных элементов $\Phi_h(\Omega)$ и $\Psi_h(\Omega)$. Сужения $v_{yi}(x)|_{x \in \bar{\Omega}_m}$ и $\tau_{hij}(x)|_{x \in \bar{\Omega}_m}$ ассоциируют с «локальной» интерполяцией:

$$v_{hi}(x)|_{x \in \bar{\Omega}_m} = \sum_{x_\alpha \in \bar{\Omega}_m} v_{hi}(x_\alpha) \lambda_{h\alpha}^{(m)}(x) \quad (19)$$

$$\tau_{hij}(x)|_{x \in \bar{\Omega}_m} = \sum_{x_\gamma \in \bar{\Omega}_m} \tau_{hij}(x_\gamma) \omega_{h\gamma}^{(m)}(x) \quad (20)$$

Считается что пространства $\Phi_h(\Omega)$ и $\Psi_h(\Omega)$ удовлетворяют включениям:

$$\Phi_h(\Omega) \subset H^1(\Omega), \Psi_h(\Omega) \subset L_2(\Omega) \quad (21)$$

Тогда

$$U_h = \{v_h | v_h = (v_{hi})_{i=1}^n, v_{hi} \in \Phi_h(\Omega), v_{hi}|_{\Gamma_u} = 0\}, \quad (22)$$

$$X_h = \{\tau_h | \tau_h = (\tau_{hi})_{i,j=1}^n, \tau_{hij} = \tau_{hji}, \tau_{hij} \in \Psi_h(\Omega)\} \quad (23)$$

- аппроксимирующие пространства для перемещений и напряжений (деформаций), причем $U_h \subset U$ и $X_h \subset X$.

В дополнение к пространствам U_h и X_h введем в рассмотрение конечномерные пространства V_h и Z_h , элементами которых являются сеточные функции $\hat{v}_h = (\hat{v}_{h\alpha})_{\alpha=1}^{N_\alpha(h)}$ и $\hat{\tau}_h = (\hat{\tau}_{h\gamma})_{\gamma=1}^{N_\gamma(h)}$ соответственно, причем $\hat{v}_{h\alpha} = (v_{hia})_{i=1}^n$ и $\hat{\tau}_{h\gamma} = (\tau_{hij\gamma})_{i,j=1}^n$

Пространства V_h и Z_h определим следующим способом: $\hat{v}_h \in V_h$ и $\hat{\tau}_h \in Z_h$, и в том случае, если $P_h \hat{v}_h \in U_h$ и $R_h \hat{\tau}_h \in X_h$. Операторы P_h и R_h задают линейные отображения V_h на U_h и Z_h на X_h и определяются с помощью соотношений:

$$v_{hi}(x) = (P_h \hat{v}_h)_i(x) = \sum_{x_\alpha \in \mathcal{E}_h} v_{hia} \varphi_{h\alpha}(x), \quad \forall \hat{v}_h \in V_h, \quad (24)$$

$$\tau_{hij}(x) = (R_h \hat{\tau}_h)_{ij}(x) = \sum_{x_\gamma \in \mathcal{Y}_h} \tau_{hij\gamma} \psi_{h\gamma}(x), \quad \forall \hat{\tau}_h \in Z_h, \quad (25)$$

Используя условия (2.6) и (2.7) заключаем, что

$$\hat{v}_{hi}(x_\alpha) = v_{hia}, \quad \forall x_\alpha \in \mathcal{E}_h \quad (26)$$

$$\tau_{hij}(x_\gamma) = \tau_{hij\gamma}, \quad \forall x_\gamma \in \mathcal{Y}_h \quad (27)$$

Следовательно, любая функция из пространств U_h и X_h однозначно определяется набором узловых значений для перемещений, напряжений и деформаций. Указанному набору числовых параметров соответствует функции

$$v_h = P_h \hat{v}_h, \quad \forall \hat{v}_h \in V_h \quad (28)$$

$$\tau_h = R_h \hat{\tau}_h, \quad \forall \hat{\tau}_h \in Z_h \quad (29)$$

принадлежащие заданным пространствам U_h и X_h соответственно. Тогда P_h и R_h можно определить как операторы продолжения, поскольку они восполняют функции $v_h \in U_h$ и $\tau_h \in X_h$ всюду в Ω и по их узловым значениям.

Введем в рассмотрение набор кусочно-полиномиальных функций $(\mu_{hia}(x))_{\alpha=1}^{N_\alpha(h)}$ ($i = 1, \dots, n$), каждая из которых задаётся с помощью соотношений:

$$\mu_{hia}(x) = \frac{1}{2} \frac{\partial \varphi_{h\alpha}(x)}{\partial x_i} = \begin{cases} \frac{1}{2} \frac{\partial \lambda_{h\alpha}^{(m)}(x)}{\partial x_i}, & \forall x \in \Lambda_{h\alpha} \\ 0, & \forall x \notin \Lambda_{h\alpha} \end{cases} \quad (30)$$

Линейную оболочку функций $(\mu_{hia}(x))_{\alpha=1}^{N_\alpha(h)}$ обозначаем через Y_h , т.е.

$$Y_h = \{\bar{\tau}_h | \bar{\tau}_h = (\bar{\tau}_{hij})_{i,j=1}^n, \bar{\tau}_{hij} = \bar{\tau}_{hji}, \bar{\tau}_{hij}(x) = \sum_{x_\alpha \in \mathcal{E}_h} v_{hia} \mu_{hja}(x) + v_{hja} \mu_{hia}(x), \forall \hat{v}_h \in V_h\}$$

Покажем что функции $(\mu_{hia}(x))_{\alpha=1}^{N_{\alpha}(h)}$ линейно независимы. Действительно, в противном случае нашлись бы такие элементы $\hat{v}_h \in V_h$, тождественно не равны нулю, что

$$\sum_{x_{\alpha} \in \varepsilon_h} v_{hia} \mu_{hja}(x) + v_{hja} \mu_{hia}(x) = \frac{1}{2} \frac{\partial}{\partial x_j} \sum_{x_{\alpha} \in \varepsilon_h} v_{hia} \varphi_{ha}(x) + \frac{1}{2} \frac{\partial}{\partial x_i} \sum_{x_{\alpha} \in \varepsilon_h} v_{hja} \varphi_{ha}(x) =$$

$$\frac{1}{2} \left(\frac{\partial v_{hi}}{\partial x_j} + \frac{\partial v_{hj}}{\partial x_i} \right) = (Bv_h)_{ij} = 0; \quad i, j = 1, \dots, n.$$

Так как $U_h \subset U$, однородные уравнения (2.29) имеют в U_h только нулевое решение:

$$\sum_{x_{\alpha} \in \varepsilon_h} v_{hia} \varphi_{ha}(x) = 0, \quad i = 1, \dots, n \quad (33)$$

Но тогда в силу линейной независимости функции $(\varphi_{ha}(x))_{\alpha=1}^{N_{\alpha}(h)}$ $v_{hia} = 0$ для всех $\alpha = 1, \dots, N_{\alpha}(h)$ и $i = 1, \dots, n$. Таким образом, приходим к противоречию.

Следовательно, соотношения $Y_h = BU_h$ и $U_h \subset U$ определяют Y_h как гильбертово пространство, которое является замкнутым подпространством гильбертова пространства X . Обозначая через $B_h = BP_h$ линейный оператор, действующий из V_h на Y_h определяемую с помощью соотношений

$$(B_h \hat{v}_h)_{ij} = \sum_{x_{\alpha} \in \varepsilon_h} v_{hia} \mu_{hja}(x) + v_{hja} \mu_{hia}(x) \quad (34)$$

Закключаем что Y_h – образ оператора B_h . Следует отметить, что выбор сетки, а также выбор базисных функций $(\varphi_{ha}(x))_{\alpha=1}^{N_{\alpha}(h)}$ и $(\psi_{hy}(x))_{\gamma=1}^{N_{\gamma}(h)}$, удовлетворяющих условиям (9), (10) и определяющих способ восполнения функций $v_h \in U_h$ и $\tau_h \in X_h$ по формулам (24) и (25), неоднозначны. От выбора сетки и базисных функций зависят вид и свойства возникающей смешанной проекционно-сеточной схемы.

Список литературы:

1. Абдуллаев О., Чирков А.Ю. смешанная проекционно-сеточная схема МКЭ решение краевых задач теории упругости /Самарканд Госуниверситет – Самарканд, 1989. – 74 с.
2. Зенкевич О. Метод конечных элементов в технике. М.: Мир 1975 г. – 56 с.
3. Карпиловский В.С. Метод конечных элементов и задачи теории упругости. – Киев:«Софія А», 2022. – 275 с.
4. Марчук Г.И., Агошков В.И. Введение в проекционно-сеточные методы. – М.Наука, 1981. –416 с.
5. Рейснер Э. О некоторых вариационных теоремах теории упругости // Проблемы механики сплошной среды. – М.: АН СССР, 1961. С.328-337
6. Постнов В.А., Хархурим И.Я. Метод конечных элементов в расчетах судовых конструкций. Л.: Судостроение, 1974. -344 с.
7. Соболев С.Л. Некоторые применения функционального анализа в математической физике. – М.: Наука, 1988. – 333с
8. Сливкер В.И. Смешанный вариационный принцип строительной механики, порождаемый выпуклым функционалом // Исследования по теоретическим основам расчета строительных конструкций. – Л.:, 1983 г. С 114-121.

YOSHLAR TARBIYASI — JAMIYATNING MADANIY, MA’NAVIY VA IJTIMOIIY RIVOJLANISHINI BELGILOVCHI MUHIM PEDAGOGIK OMIL

Sadilloeva Toliba Bahrilloyevna

Oriental universiteti magistiri

(Samarqand kompusi +998915286744)

Anotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy yoshlar tez o‘zgarayotgan dunyoda yuzma-yuz kelayotgan muhim masalalarni va ularga xos asosiy tendensiyalarni batafsil tahlil qiladi. Unda yoshlar hayotiga ta’siri imkoniyatlari, ta’lim va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, yoshlarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik ishtiroki, ruhiy salomatlik muammolari va global ta’sirlar sharoitida milliy o‘zlikni saqlash kabi beshta asosiy yo‘nalish keng ko‘rinishda yoritilgan. Maqolada O‘zbekistonda olib borilayotgan yoshlar siyosati tajribasi va kelajakdagi vazifalar ham taqdim etilgan.

Zamonaviy yoshlar uchun murakkab va integratsiyalangan yondashuv mamlakatning barqaror taraqqiyoti va kelajagi uchun ahamiyatli sarmoya ekanligini takidlaydi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekistonning yoshlari, yoshlar masalalari, zamonaviy tendensiyalar, raqamli o‘zgarish, ta’lim, ijtimoiy faoliyat, ruhiy sog‘liq, yoshlar siyosati, uzluksiz ta’lim jarayonlari.

Hozirgi kunda yoshlar jamiyatning eng asosiy harakatlantiruvchi elementi bo‘lib, kelajakni shakllantiruvchi shaxslar deb ataladi. Jahon bo‘yicha demografik o‘zgarishlar bilan bir qatorda, yoshlar uchun paydo bo‘layotgan muammolar va imkoniyatlar ham ortib bormoqda. Tez o‘zgaruvchan axborot davrida yoshlar muammolariga doir bir qator muhim tendensiyalar mavjud, ularni anglash va ularga to‘g‘ri javob berish har bir davlat va jamiyatning dolzarb vazifasidir.

Hozirgi avlodning hayoti raqamli texnologiyalar bilan bevosita bog‘liq. Ushbu smartfonlar internet va ijtimoiy tarmoqlar bilan kattalashgan “raqamli tub aholi” avlodi hisoblanadi. Bu tendensiya bir qator imkoniyatlarni yaratadi:

Jahon axborotiga yetkazib berish: Yoshlar bilim, yangiliklar va turli madaniyatlar haqida ma’lumotlarni tezkor ravishda olishlari mumkin.

Onlayn ta’lim va ko‘nikmalar: MOOC (Massive Open Online Courses) platformalari va onlayn kurslar yordamida yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, til o‘rganish va malakalarni oshirish imkoniyatlari ko‘paygan.

Raqamli tadbirkorlik: Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn savdo va frilanserlik platformalari yoshlarga yangi biznes va daromad imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

Muloqot va hamkorlik: Turli davlatlardagi tengdoshlari bilan bog‘lanish, fikrlar almashish va xalqaro loyihalarda faol ishtirok etish osonlashdi.

Biroq, bu tendensiyaning salbiy tomonlari ham bor: raqamli qaramlik, kiberxavfsizlik xavflari, axborotning me’yoridan oshishi (infoxication), shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi va ijtimoiy tarmoqlardagi “mantiqiy echo-chamberlar” (o‘z fikrini tasdiqlovchi ma’lumotlar bilan cheklanish) muammolari yoshlarga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin.

An’anaviy ta’lim tizimlari doimo tez o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga mos kelmaydi. Shu sababli, yoshlarga oid ta’lim masalalarida quyidagi tendensiyalar muhim ahamiyatga ega:

Ko‘nikmalarga asoslangan ta’lim ehtiyoji: Faqat diplom emas, balki amaliy ko‘nikmalar (soft skills: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, aloqa) va raqamli savodxonlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Doimiy ta’lim (Lifelong Learning): Yangi bilimlarni davomli ravishda o‘rganish, malakalarni oshirish va qayta ta’lim olish zarurati kuchayib bormoqda.

Kasbiy ta’lim va hunarmandchilikning yangilanishi: Oliy ta’lim bilan birga, kasb-hunar ta’limiga qaratilgan e’tibor ortib, mehnat bozori uchun keraksiz amaliy mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifaga aylanmoqda.

Gig-iqtisodiyot va frilanserlik: Yoshlar o‘rtasida an’anaviy ish joylaridan ko‘ra, loyihalar asosida ishlash, frilans va mustaqil tadbirkorlikka qiziqish ko‘paymoqda. Bu esa ularni o‘z-o‘zini boshqarish va doimiy ravishda ko‘nikmalarini yangilashga majbur qiladi.

An’anaviy ta’lim tizimlari tez o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga har doim ham mos kelavermaydi. Shu sababli, yoshlar masalasida ta’limga oid quyidagi tendensiyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

Yoshlar jamiyatdagi muammolarga befarq emas va o‘z ovozlari ega bo‘lishni xohlaydilar.

Volontyorlik va ijtimoiy loyihalar: Ekologiya, inson huquqlari, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi sohalarida volontyorlik va ijtimoiy loyihalarda yoshlarning ishtiroki ortib bormoqda.

Siyosiy jarayonlarda ishtirok etish istagi: Yoshlar o‘zlarining kelajagiga ta’sir qiluvchi qarorlar qabul qilish jarayonlarida faolroq ishtirok etishni istaydilar.

O‘z-o‘zini ifoda etish platformalari: Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va videobloglar yoshlarga o‘z fikrlarini, ijodkorligini va qadriyatlarini ifoda etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Ruhiy salomatlik masalalarining ahamiyati. texnologik o‘rish va jamiyatdai

tezkor o‘zgarishlar yoshlar psixologiyasiga katta ta’sir qilmoqda.

Stress, depressiya va xavotir: Akademik yuklama, ijtimoiy bosim, kelajakdagi

noaniqlik va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri (masalan, mukammallikka intilish) yoshlar orasida ruhiysalomatlik muammolarining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Psixologik yordamga talab: Ruhiy salomatlik muammolari haqida xabardorlik oshmoqda, lekin stigmani yengish va sifatli psixologik yordamga erishishni ta’minlash zarur.

O‘zbekiston hukumati yoshlar muammolariga jiddiy ahamiyat bermoqda. “Yoshlar ishlari agentligi”ning yaratilishi, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” kabi tizimlarning joriy etilishi, yosh tadbirkorlarga taqdim etilayotgan imkoniyatlar, ta’lim va kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar bunga yaqqol misoldir.

Kelajakda yoshlar muammolarida quyidagi jihatlariga ahamiyat berish zarur:

Integratsiyalashgan usul: Yoshlar bilan shug‘ullanishda ta’lim, ish, sog‘liq, madaniyat va sport sohalarini o‘z ichiga olgan kompleks strategiyalarni tayyorlash.

Raqamli ko‘nikmalarni oshirish: Faqat kodlash emas, balki raqamli xavfsizlik, axborotni filtrlash, onlayn muloqotning etikasi bo‘yicha ta’lim berish.

Tadbirkorlik sharoitlarini yaxshilash: Startaplar uchun moliyaviy va mentorlik ko‘magini oshirish, ayniqsa, qishloq hududlaridagi yoshlar uchun.

Ruhiy sog‘liqni saqlashga diqqat: Maktablarda va universitetlarda psixologik yordam tashkiliy xizmatlarini oshirish, ruhiy salomatlikka oid stigma bilan kurashish.

Yoshlarning fikrlarini e’tiborga olish: Qarorlar qabul qilishda yoshlar fikrlari va tashabbuslarini hisobga olish uchun yangi platformalarni yaratish lozim.

Xulosa: qilib shuni aytish joizki: Yoshlar har qanday jamiyatning bebaho boyligidir. Ular duch kelayotgan tendensiyalar ham imkoniyatlar, ham qiyinchiliklar ularning kelajagini belgilaydi. Bu tendensiyalarni tushunish, ularga moslashish va yoshlarga har tomonlama ko‘mak berish orqali biz nafaqat bugungi avlodning muvaffaqiyatini, balki butun mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlaymiz. Yoshlarga investitsiya kiritish, aslida, o‘z kelajagimizga kiritilgan eng katta sarmoyadir.

Internet manbaalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. (Rasmiy veb-saytidagi hisobotlar, tahlillar va statistik ma’lumotlar). Izoh: yoshlar.gov.uz manbasida e’lon qilingan tadqiqotlar va faoliyat hisobotlari.

2. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (Yoshlar bandligi va mehnat bozoridagi holat bo‘yicha statistik ma’lumotlar va tahlillar). Izoh: mehnat.uz saytidagi statistika va hisobotlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurazakov, A. (2020). “Chet tillarini o‘qitish metodikasi”. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

2. Qodirov, S. (2019). “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va chet tili o‘qitish”. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.

3. Rahmonov, A. (2021). “Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot”. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.

4. Ismoilov, I. (2020). “Chet tilini o‘qitishda individual yondashuv”. Andijon: Andijon Davlat Universiteti.

5. Xudoyberdiyeva, M. (2021). “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni”. Namangan: Namangan Davlat Universiteti.

CHEKLI ELEMENTLAR METODINING NAZARIY ASOSLARI. BIR VA IKKIO‘LCHOVLI FAZOLAR

Usmonova Nilufar 1-kurs magistir Sharof
Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Muhandislik fizikasi instituti, Nazariy va injenerlik mexanikasi kafedrası.
Abdullayev Obid fizika-matematika fanlari
falsafa doktori, dots. Sharof Rashidov

nomidagi Samarqand davlat universiteti
muxandislik fizikasi instituti naraziy va injinerlik kafedrası.
Elektron pochta: abdullayev2006@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola elastiklik nazariyasi masalasini chekli elementlar metodi bilan yechishning asosiyg‘oyasi haqida fikr yuritiladi. Bunga sabab chekli elementlar metodining boshqa sonli metodlarga nisbatan sodda va universal xarakterga egaligidir. Matematik nuqtai nazardan qaralganda tegishli differensial tenglama chekli ayirmali tenglamalar bilan emas balki soha chekli elementlarga ajratiladi. Bu esa izlanayotgan kattaliklarni ko‘phadlar yordamida approksimatsiya qilishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: elastiklik nazariyasi, ko‘chishlar, deformatsiyalar, kuchlanishlar, approksimatsiyalovchifunksiyalar, qattqlik matritsasi, chegaraviy shartlar.

Theoretical Foundations of the Finite Element Method. One- and Two-Dimensional Spaces. CHEKLI ELEMENTLAR METODINING NAZARIY ASOSLARI. BIR VA IKKIO‘LCHOVLI FAZOLAR.

Annotation: This article discusses the main idea of solving problems of the theory of elasticity using the Finite Element Method. The reason for this is that the Finite Element Method has a simpler and more universal character compared to other numerical methods. From a mathematical point of view, the corresponding differential equation is not replaced by finite difference equations; instead, the domain is divided into finite elements. This makes it possible to approximate the unknown quantities using polynomial functions.

Keywords: theory of elasticity, displacements, deformations, stresses, approximating functions, stiffness matrix, boundary conditions.

Kirish. Hisoblash mexanikasining ko‘pgina masalalarini analitik usulda yechib bo‘lmaydi. Shuning uchun ularni yechishga sonli usullar ishlatiladi xususan chekli elementlar metodi (CHEM). CHEM ning boshqa metodlardan afzalligi shundaki u universal hisoblanadi. Bu metod yordamida chegarasi murakkab geometrik shaklda va ixtiyoriy chegaraviy shartlarda ishlay oladi. Tekislikda uchburchak, fazoda tetraedr shaklidagi hisoblash to‘ri istalgan murakkab shakldagi jismni diskretlashtira oladi. Bu usulni kompyuterda amalga oshirish uchun ko‘p dasturlar ishlab chiqilgan.

CHEM ni yutug‘i bilan birga uning kamchiliklari ham bor. Asosiy kamchilik hosil bo‘lgan algebraik tenglamalar sistemasi juda katta tartibli bo‘ladi. Natijada matritsalar koeffitsiyentlari xotirada saqlash maxsus usul talab etadi va hosil bo‘lgan tenglamalar sistemasini yechishda ham maxsus yondashish kerak bo‘ladi.

Ushbu dissertatsiyada CHEM ning ayrim nazariy asoslariga to‘xtalgan, ular sodda misollarda ko‘rsatilgan.

Bugungi kunda CHEM muhandislik tahlilning ajralmas qismi bo‘lib qoldi. CHEM paketlari fanning barcha sohalarida ishlatiladi, bular qurilish konstruksiyalarining tahlili, qattiq, suyuq jismlar, hamda ularning o‘zaro ta’siri masalalarida. Bu metodning muhim xossasi shundaki metodlar yuqori aniqlik bilan tuziladi va ular ishonchli ishlashidadir. Metodning keng qo‘llanilishi bundan keyin ham uning tadbiqu yanada kengayishini bildiradi. CHEM ning tez rivojlanishi EHM ning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir. EHM si yordamida CHEM muhandislik ishlarida samarali qo‘llaniladi. CHEM nazariyasidan ko‘rinadiki uning ikkita xossasi muhimdir: samaraliligi va muhandislik analiziga tadbiqu etilishi.

Dastlab CHEM elastiklik nazariyasining va qurilish mexanikasining murakkab masalalarini yechishga bag‘ishlangan edi, ma’lum bo‘ldiki u chekli ayirmalar metodidan ancha samarali ekan. Bu metod sohaning geometrik murakkab chegaraga ega bo‘lgan holda ayniqsa yaxshi samara beradi. Matematik nuqtai nazardan qaraganda bu metod Rits, Galyorkin metodlarining umalashmasidir. Shuning uchun ham bu metod xususiy hosilali tenglamalarda ko‘p ishlatiladi.

Rits metodida differensial tenglama bevosita yechilmaydi, buning o‘rniga dastlabki masala ekvivalent variatsion masalaga keltiriladi, uning yechimi esa $\sum q_1 \varphi_1$ ko‘rinishda berilgan $\varphi_1(x)$ basis funksiyalarining kombinatsiyasi ko‘rinishida izlanadi. q_1 noma’lum koeffitsiyentlar masalaga tegishli bo‘lgan variatsion prinsipdan izlanadi.

CHEM da $\varphi_1(x)$ basis funksiyalar bo‘lakli-polinomial bo‘lib, tugun atrofidagina noldan farqli bo‘lib, sohaning qolgan qismida esa nolga teng bo‘ladi. Bu tugun atrofida $\varphi_1(x)$ darajasi yuqori bo‘lmagan ko‘phadlardan tuziladi, shuning uchun ham barcha hisoblashlar sodda bo‘ladi.

Faraz qilaylik yechilishi kerak bo‘lgan masala variatsion shaklda berilgan bo‘lsin: shunday U funksiya topilsinki bu funksiyada potensial energiya funksionali minimum qiymat olsun.

Minimallashtirishning zarurligi, U funksiya uchun differensial tenglamaga keladi. Bu differensial tenglamani yechish uchun taqribiy usullarni qo‘llash kerak bo‘ladi. Rits, Galyorkin metodining g‘oyasi shundan iboratki $\varphi_1, \varphi_2, \dots, \varphi_n$ chekli sondagi bazis funksiyalari tanlab olinadi, $\sum q_1 \varphi_1$ kombinatsiyalar ichidan funksionalga minimum beradigani tanlab olinadi. Bu Rits approksimatsiyasidir. Noma'lum q_1 lar differensial tenglamalardan emas, N ta algebraic tenglamalar sistemasidan topiladi, ularni yechish uchun esa EHM dan foydalaniladi. Bu metodni nazariy asoslash juda oson: minimallashtirish jarayoni U funksiyaga eng yaqin bo‘lgan kombinatsiyani beradi.

Shunday qilib φ_1 bazis funksiyalarini, potensial energiyani minimallashtirish uchun qulay qilib tanlash kerak.

CHEM ning asosiy g‘oyasi juda sodda. Ish sohani mayda bo‘laklarga bo‘lishdan boshlanadi. Ularning tuzilishi EHM tomonidan darhol topilishi kerak. Ular uchburchaklar yoki to‘rtburchaklar bo‘lishi mumkin. Shundan so‘ng har bir element ishida bazis funksiyasi-odatda u ko‘had bo‘ladi, U uchinchi yoki to‘rtinchi darajali bo‘lishi mumkin. Chegaraviy shartlarni uchburchak yoki to‘rtburchak tomoni bo‘yicha olish qulaydir. Hisoblash aniqligi sohani kichik elementlarga ajratish orqali belgilanadi. EHM bunda ko‘proq ishlaydi ammo dastur bitta bo‘ladi. Asosiy masala U noma'lum yechimni approksimatsiyalovchi bo‘lakli ko‘phadlar yordamida aniqligini tadqiqot qilishdan iborat. Matematik jihatdan xatoni baholash juda yuqori bo‘lishi kerak, yana bir matematik masala xatoning kamayishi tezligini aniqlashdan iborat (bu masalalar elementlar sonining oshishi bilan bog‘liqdir).

Masalaning fizik qo‘yilishi biror konstruksiyaga yuk qo‘yilishidan iboratdir. Fizik masalaning matematik modeli differensial tenglamalar sistemasiga olib keladi, bu esa masalaning matematik qo‘yilishidir. CHEM matematik masalani yechadi. CHEM sonli metod bo‘lgani uchun olingan natijaning aniqligi masalasi muhim hisoblanadi. Agar aniqlikka erishilmasa masalani qaytadan ishlashga to‘g‘ri keladi, masalan parametrlarni aniqlashtirish (masalan elementlarni kichraytirish) kerak bo‘ladi, bu jarayon kerakli aniqlikka erishguncha davom ettiriladi.

Muhandislik amaliyotida asosiy moment kerakli matematik modelni tanlashdadir. Matematik model shunday tanlanadiki u ishonchli va samarali bo‘lishi kerak. 0

Umuman olganda eng to‘liq matematik model-uch o‘lchovli model bo‘lib nochiziqli hadlar hisobga olinishidir.

Matematik modelning samaradorligi. Eng samarali model, yechimni kerakli aniqlikda beradi, uni topish uchun sarf harakat dastlabki berilganlardan ortiq emas

Matematik modelning ishonchliligi. Tanlangan matematik model ishonchli bo‘ladi agar uning yordamida olingan yechim aniqligi eng to‘la matematik model yordamida olingan yechim bilan ma'lum aniqlikda mos tushsa.

Shuning uchun tanlangan matematik model yordamida olingan yechimni baholash uchun, masalani yanada yuqori tartibli matematik model yordamida, yanada murakkabroq hadlarni hisobga olgandagi natija bilan taqqoslash kerak bo‘ladi.

Quyida ayrim faktlarni keltiramiz

1. Qanday natija olinishiga qarab matematik modelni tanlash.

2 Eng samarali matematik model-yetarlicha aniqlikdagi yechimni eng kam sart harakat bilan topish.

3. CHEM ning natijasida olingan ma'lumot matematik modelga qo‘yilgan ma'lumotdan oshmaydi.

4. Matematik modelning ishonchliligi olinganyechim aniqligini baholash bilan bog‘liq bunda eng to‘la matematik model bilan olingan natija aniqligi bahosiga taqqoslanadi

Birinchi qadamda geometrik model quriladi, buning uchun turlicha dasturlar mavjud, masalan AutoCAD, SolidWorks va boshqalar. Navbatdagi qadamda materialning xossalarini berish kerak, chegaraviy masalalarni berish kerak, yuklanishni berish kerak. Shundan so‘ng CHEM ni qo‘llash kerak bo‘ladi.

Modelning geometriyasi, shu bilan birga boshqa ma’lumotlar yetarlicha murakkabligini hisobga olib, ularni soddalashtirish kerak bo‘ladi, bundan maqsad qulay matematik modelni tuzishdir. Agar masala to‘g‘ri qo‘yilsa CHEM to‘g‘ri yechimni beradi va to‘r yetarlicha kichik bo‘lsa yetarlicha aniqlikda yechim olinadi.

CHEM ning turg‘unligi deganda hisoblashlar natijalari materiallar parametrlari, chegaraviy shartlar, yuklanish parametrlaridan kichik bog‘lanishi ko‘zda tutiladi. CHEM turg‘unmas bo‘lsa u ishonchli emasdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Галлагер Р. Метод конечных элементов. Основы: Пер. с англ. — М.: Мир, 1984
2. Деклу Ж. Метод конечных элементов: Пер. с франц. — М.: Мир, 1976
3. Зенкевич О. Метод конечных элементов в технике — М.: Мир, 1975.
4. Зенкевич О., Морган К. Конечные элементы и аппроксимация: Пер. с англ. — М.: Мир, 1986
5. Серерлинд Л. Применение метода конечных элементов — М.: Мир, 1979. — 392 С.

OLIY TA’LIMDA KASBIY YO’NALISHLARGA MUHANDISLIK FIZIKASI FANINI O’QITISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

p.f.f.d(PhD), N.B.Butayeva

n9504738@gmail.com tel: (90) 159 02 81

Mamlakatimizda masofaviy ta’lim tizimini hozirgi kunda yangi axborot texnologiyalari vositalari asosida shakllantirish, hamda zamonaviy ta’lim axborot resurslari va portallarni yaratish ta’limni yanada axborotlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Mobil dastur-bu mobil qurilmaga, (telefon, kommunikator, smartfon va hokazolarga o‘rnatilgan komponentdir) mobil platformani (Android, iOS, BlackBerry, HP webOS, Symbian OC va Windows Mobile), bog‘lash uchun mobil server va nazorat foydalanuvchi interfeysi hamda biznes-mantiqiy qurilma bo‘lib hisoblanadi [2].

Ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili va o‘zimizning pedagogik amaliyotimiz talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda odatiy qiyinchiliklarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Professor-o‘qituvchilar duch keladigan mavjud qiyinchiliklar:

- o‘quv materiallarining hajmi katta bo‘lganligi sababli talabalarga didaktik materiallarni tizimli va tartibli uzatishda yuzaga keladigan muammolar;
 - didaktik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun individual yondashuvi asosida talabalarda texnologik kompetentligini rivojlantirishning mos shakllari va usullarini yaratish uchun nihoyatda katta hajmdagi ishlarni amalga oshirish;
 - ta’lim tizimining mazmuni, ma’nosi, maqsadlari, vazifalari, shaxsiy natijalarni monitoring qilish va baholash tizimidan kelib chiqqan holda o‘qitishning sur’ati, shakllari va usullarini tanlash
 - tizimli yondashuv asosida talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari, ta’lim maqsadlari va natijalarini belgilash uchun talabaning qiziqishlari va ta’lim talablari asosida uning barcha qobiliyatlari va iste’dodlarini keyinchalik amalga oshirish maqsadida ochib berish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash;
 - talabalarning shaxsiy fazilatlarini hisobga olgan holda butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratish;
 - talabalarda texnologik kompetentligini rivojlantirishga nisbatan qiziqish va motivasiya uyg‘otuvchi omillar hamda o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil ravishda tashkil etishga qaratilgan yondashuvlar, talabalarning kasbiy faoliyatini boshqarish va nazorat qilish kabi muammolar [3].
- O‘z navbatida, tizimli yondashuv asosida talabalarda texnologik kompetentligini rivojlantirish jarayonida quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishadi:

- ta’lim jarayonida kasbiy faoliyat ko‘nikmalarining yetishmasligi ya’ni adabiyotlar bilan ishlash, ma’ruzalarni yozib olish, o‘qilganlarni tahlil qilish, o‘qigan ma’lumotlarini umumlashtirish, qisqa yozuvlar va oqilona xulosalar chiqarish;
- didaktik materiallar, axborot texnologiyalari, internet resurslaridan oqilona foydalanish ko‘nikmasining yetishmasligi;
- o‘ziga yuklangan vazifalarni hal qilish jarayonida ong, mustaqillik va faollikning yetarli darajada namoyon bo‘la olmasligi;
- kasbiy faoliyatning eng muhim xususiyati unga nisbatan motivasiyalarning mavjudligi va rivojlanganligi, ya’ni o‘rganilayotgan fanda o‘z mohiyatini topgan bilish ehtiyojidan iborat shart-sharoitlardir.

Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlariga aniqlik kiritish psixologik-pedagogik adabiyotlarda muammoning qay darajada ekanligini, jamiyatning ijtimoiy tartibini, davlat ta’lim standartini, talabalar mustaqil ta’limini faollashtirish darajalari hamda mezonlarini o‘z ichiga qamrab olishini nazarda tutgan holda tadqiqotimizning mazmunidan kelib chiqqan holda talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda quyidagi didaktik shartlarni belgilab oldik:

Dasturiy ta’minot sharti – talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish dasturining tarkibiy elementlari bo‘lgan, tanlangan ta’lim yo‘nalishining malaka talablarida keltirilgan o‘quv fanlari va materiallari bilan o‘qitish vositalari va usuli o‘rtasidagi bog‘liqlikni e’tiborga olgan holda tanlangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy qo‘llash istiqboliga ega bo‘lish lozim. Bu shart o‘qitish samaradorligini, mashg‘ulot mazmunini to‘g‘ri tanlashga va o‘quv materialini o‘qitish jarayoni maqsadiga mos holda tuzishga bog‘liqligini o‘zida aks ettiradi. U barcha predmetlar bo‘yicha o‘quv materiallari o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rnatishni va bir predmetdagi o‘quv material boshqa predmetdagi o‘quv material bilan to‘ldirilishi talab etiladigan o‘quv jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Metodologik shart – bunda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kasbiy faoliyatda qo‘llashni, mashg‘ulot mazmuni va tashkil etilishi esa, mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi vaziyat va o‘zaro bog‘liqlikda doimiy ravishda qo‘llash va takomillashtirishni ta’minlaydi. Bu shart o‘qitish samaradorligining talaba rivojlanish darajasi va unda kasbiy ko‘nikmalari shakllanganligiga bog‘liqligini o‘zida aks ettiradi. Bu shartni joriy etishda o‘quv jarayonini talaba bilimlarni mustaqil kasbiy faoliyat jarayonida oladigan tartibda tashkil etish talab qilinadi.

Natijaviy shart – bu o‘qitishning shunday tashkiliy shakli va talabaning o‘quv faoliyatini boshqarish vositasini tanlash hisoblanadiki, “Maxsus dastur asosida kasbiy rivojlanish shkalasi” talabaning kasbiy faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish ta’minlasin. Bu o‘quv materialini o‘zlashtirish sifati, ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini nazorat qilishni shunday tashkil etishki, bunda u nafaqat mashg‘ulot yakuni bo‘yicha, balki talabaning o‘quv-biluv jarayonida amalga oshiriladi [6].

Bu shart o‘qitish samaradorligini oshirish va talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlanishida uning kasbiy faoliyatini boshqarish va nazorat qilish vositalarini to‘g‘ri tanlashga bog‘liqligini o‘zida aks ettiradi. U mashg‘ulotlarda talabalar rivoji va pedagogik jarayonlarni boshqarishga oid bir qator masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu shartda talabada mustaqillik va individuallik darajasi uzluksiz o‘sishi ro‘y beradi va buning uchun talabaning kasbiy faoliyatiga rahbarlik qilish va mashg‘ulot mazmunini tashkil etish talab etiladi.

Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi didaktik sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

Tashkiliy sharoitlar – kasbiy faoliyatni tashkil etish usullari va shakllaridan foydalanish, talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash, texnologik kompetentlikni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qaytaishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan

interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tadbiq etish.

Motivatsion sharoitlar – talabalarining shaxsiy rivojlanishida kasbiy faoliyatning o‘rni va rolini asoslash, talabalarda kasbiy faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash.

Kommunikativ sharoitlar – talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslarini belgilab olish, o‘quv jarayonida talabalarda individual faoliyatga ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalarni aniqlash, talabalarda individual faoliyatini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirish kabilar.

Konstruktiv sharoitlar – talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan talabalarining individual tarzda o‘z-o‘zini rivojlantirishga ruhiy jihatdan safarbar qilish, kasbiy faoliyatga o‘rgatish, shakllantirish va rivojlantirishning samarali metodlarini ishlab chiqish.

Texnologik sharoitlar – talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabada uning kasbiy faoliyatga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning kasbiy faoliyatini muntazam rag‘batlantirish; o‘quv jarayonini talaba shaxsning xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda takomillashtirish.

O‘quv-uslubiy sharoitlar: – talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish va talabalarining kasbiy faolligini jadallashtirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mustaqil tarzda axborotni qidirish, ular ustida qayta ishlashning amaliy muammolarni bartaraf etishga talabalarining individual tarzda kasbiy faoliyatini amalga oshirishning o‘quv-uslubiy ta’minotini ishlab chiqish.

Tadqiqotimiz jarayonida talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, mustaqil tarzda axborotni qidirish, ular ustida qayta ishlashning amaliy muammolarni bartaraf etishga talabalarining kasbiy faoliyatini amalga oshirishning asosiy vositasi “Muhandislik fizikasi” fanidan elektron o‘quv qo‘llanma ishlab chiqildi mazkur elektron o‘quv qo‘llanmaning quyidagi didaktik imkoniyatlari mavjud:

- elektron o‘quv qo‘llanma “Muhandislik fizikasi” fanidan yaratilgan barcha didaktik materiallari (ma’ruza matnlari, elektron o‘quv qo‘llanmalar)ni o‘zida mujassam qilgan va yuqorida keltirilgan talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan didaktik shart-sharoitlar ishlab chiqilgan [5];

- elektron o‘quv qo‘llanmani kompyuter xotirasiga ko‘chirib olish orqali har qanday turdagi internet bouzerlari orqali offlayn foydalanish imkoniyatiga ega;

- elektron o‘quv qo‘llanmaga joylashtirilgan testlarni yechilishi natijalari tizimning onlayn va offlayn holatida ham oldindan belgilangan professor-o‘qituvchining elektron pochtaiga jo‘natiladi;

- talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan kasbiy topshiriqlar joylashtirilgan;

- talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish dasturi joylashtirilgan bo‘lib, talaba o‘zining kasbiy faoliyatini ushbu dastur asosida mustaqil tarzda tashkil etishi, natijalarini tahlil qilib borish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси прездентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони.
2. Дьяченко, С. А. (2007). Электронные средства обучения в деятельности преподавателя. *Среднерусский вестник общественных наук*, (2).
3. Пулатова, Д. Т. (2015). Таълим жараёнига электрон ахборот таълим ресурсларини жорий этишнинг педагогик шарт-шароитлари. *Современное образование (Узбекистан)*, (7).

4. Iskandarovich, U. I. (2021). Theoretical Fundamentals of Introduction of Electronic Educational Tools to the Educational Process. *Central asian journal of theoretical & Applied sciences*, 2(1), 1-7.
5. Умиров, И. (2021). Таълим жараёнида электрон таълим воситаларини қўллашнинг педагогик-психологик омиллари. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
6. Daniyarovna, H. S. (2021). The Contents of Students' Independent Education and Methods of Implementation. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1445-1456.

KONSTRUKSIYA QISMLARINI MARKAZIY SIQILISHDAGI ELEMENTLARNI HISOBLASH

Jizzax politexnika instituti
“Umumtexnika fanlari” kafedrası mudiri
p.f.f.d., dosent Narbekov Nodir Narmatovich

Annotasiya: Ushbu maqolada turlicha ko‘ndalang kesim yuzalarga ega bo‘lgan siqiluvchi elementlarni siquvchi kuch tasirida hosil bo‘ladigan kuchlanishlarni aniqlash va mustahkamliklarini hisoblash misollar yordamida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Konstruksiya, kesim yuza, kuchlanish, mustahkamlik, siqiluvchi element, siquvchi kuch, ustuvorlik.

Kundalik turmushimizda foydalaniladigan barcha konstruksiyalar, mashina, mexanizmlar va detallar o‘zini ishlash jarayonlarida xavf tug‘dirmasdan benuqson ishlashi uchun mustahkamlik, bikirlik va ustuvorlik shartlarini qanoatlantirishi lozim. Ishlash sharoitida konstruksiya elementlari turli xil deformatsiyalarga qarshilik qilishi lozim. Shu jarayonda konstruksiya elementlarini materialini va ko‘ndalang kesim yuzalarini to‘g‘ri tanlash ham ularni buzilmasdan ishlashiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada siquvchi kuchlar tasirida bo‘lgan konstruksiya elementlarini mustahkamligini baholashni ko‘rib chiqamiz.


Konstruksiyalarning siqiluvchi elementlariga ustunlar, tirgaklar, fermalarni ustun va tirgaklari va ayrim elementlari ishlaydi. Kesim yuzalarida siquvchi N kuch ta'sirida siqiluvchi kuchlanish paydo bo‘ladi. Yog‘och materiallar siqilishga cho‘zilishga nisbatan yaxshi ishlaydi. Chunki, bu holda ko‘z, yoriqlar va boshqa nuqsonlarning mustahkamlikka ta'siri juda kam bo‘ladi. Shu sababli, siqiluvchi elementlar tayyorlash uchun II-toifali ya'ni, hisobiy qarshiligi $R_s=13$ MPa bo‘lgan materiallardan foydalaniladi. Kesim yuzasining o‘lchamlari 13 sm dan katta bo‘lgan bruslar nisbatan yaxshi ishlaydi, chunki bu holda kesilgan tolalarning foiz miqdori taxtalarga qaraganda kam bo‘ladi. Shu sababli, hisobiy qarshiligi ham yuqori, ya'ni $R_c=15$ MPa ga teng bo‘ladi. Ayniqsa, aylana kesim yuzali yog‘ochlarda bu qiy-mat ancha yuqori $R_c=16$ MPa, chunki, bu holda tolalar umuman kesilmagan bo‘ladi.

Siqilayotgan elementlarni mustahkamligi va turg‘unligi ko‘ndalang kesim yuzasiga (A), ularning uzunligiga (l) va uchlarining birikishiga bog‘liq. Bu bog‘liqlik bo‘ylama egilish koeffisienti (σ) bilan e'tiborga olinadi. Siqiluvchi yog‘och elementlar mustahkamlik va turg‘unlik bo‘yicha quyidagicha hisoblanadi.

$$\sigma = \frac{N}{A} \leq R_c; \quad \sigma = \frac{N}{A \cdot \varphi} \leq R_c$$

Birinchi formula element uzunligi qalinligining 7 barobarigacha bo‘lgan elementlar uchun mustahkamlikka, ikkinchisi yuqoridagi qiymatdan katta bo‘lgan elementlar uchun ustuvorlikka hisoblanadi. Agar kesim yuzasi elementning to‘liq yuzasiga teng deb olinsa, yoki kuchsizlanish maydoni umumiy maydonning 1/4 qismidan oshmasa, u holda $A_h = A_{br}$ ga teng. Agar yuqoridagi ko‘rsatkich 25% dan ko‘p bo‘lsa, yoki nisbat 1/4 dan oshsa $A_h = 2/3 A_{nt}$ teng bo‘ladi. Agar kuchsizlangan yuzalar tashqi qirralarga chiqadigan bo‘lsa, yoki simmetrik bo‘lmagan kuchsizlanish bo‘lsa u holda $A_h = A_{nt}$ ga teng bo‘ladi. Bo‘ylama egilish koeffisienti elementning hisobiy uzunligiga (l_0), kesim yuzasining inersiya radiusiga (r) va sterjen egiluvchanligi (φ) ga bog‘liq. $\varphi = l_0/r$. U holda, $\varphi = 3000 / 2$ bo‘ladi, agar $\varphi > 70$ bo‘lsa; $\varphi = 1 - 0,8$

(/100)2 bo‘ladi, agar 70 bo‘lsa. Hisobiy uzunlik siqiluvchi sterjenlarni uchlarini birikishiga bog‘liq (1-rasm).



1-rasm. Markaziy siqiluvchi sterjenlarning hisobiy sxemasi.

Kesim yuzasining inersiya radiusi (r) kesim yuzasiga (A) va kesimning yuzasining inersiya momentiga (J) bog‘liq.

$$r = \sqrt{\frac{J}{A}}$$


Inersiya radiusi chorqirralar uchun 0,289h ga, aylana shakl materiallar uchun esa 0,25d ga teng bo‘ladi. Siqiluvchi elementlarning egiluvchanligi ham (ϕ) chegaralangan bo‘lib, bu qiymat quyidagicha bo‘ladi.

- a) ustun va fermalarning belbog‘lari uchun 120 gacha;
- b) boshqa elementlar uchun 150 gacha;
- v) siqiluvchi bog‘lovchilar uchun esa 200 gacha bo‘ladi;

Agar kesim yuzasini egiluvchanligi va hamdai hisobiy qarshilik R_s ma’lum bo‘lsa siqiluvchi elementning yuk ko‘tarish qobiliyati quyidagicha aniqlanadi


$$N = AR_s$$

Siqilayotgan elementning deformasiyalanish sxemasi 2.b-rasmda keltirilgan.



2-rasm. a) standart namuna; b) bo‘ylama kuchlanish va deformasiyaning bog‘lanish diagrammasi.

Agar egiluvchanlik (ϕ) qiymati berilgan bo‘lsa, u holda bo‘ylama egilish koeffisientini (ϕ) Eyler egri chizig‘i orqali aniqlash mumkin. ning qiymati doimo 1 dan kichikdir.



3-rasm. Bo‘ylama egilish koeffisienti va egiluvchanlik diagrammasi.

Shunday qilib, bo‘ylama egilish koeffitsientining qiymati aniqlanib, yuqorida keltirilgan formulalar orqali siqiluvchi elementlarning mustahkamligi tekshiriladi.

Bundan ko‘rinadiki konstruksiya elementlari siquvchi kuch tasirida bo‘lsa faqatgina siqilish deformasiyasiga qarshilik ko‘rsatmasdan, bo‘ylama egilishga xam qarshilik ko‘rsatar ekan. Xulosa qilib aytganda konstruksiya elementlari xisob ishlari bajarilganda ular tayyorlangan material va ko‘ndalang kesim yuzasi alohida inobatga olinib, mustahkamliklari to‘laqonli bajarilishi tekshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Mamatqulov Yog‘och va plastmassa konstruksiyalari. O‘quv qo‘llanma Samarqand 2019 yil
2. K.M.Mansurov Materiallar qarshiligi. Darslik. Toshkent 1983 yil
3. N.N.Narbekov Materiallar qarshiligi. Darslik. Toshkent 2023 yil
4. A.Usmanqulov., K.Ismayilov., O.K.Odilov., Sh.R.Yaxshiboev Materiallar qarshiligi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2018 yil
5. Narmatovich, N. N. (2021). Methodology Of Training Engineers For Professional Activity On The Basis Of Module-Competent Approach. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(12).

OLIY TA’LIMDA KASBIY YO’NALISHLARGA MUHANDISLIK FIZIKASI FANINI O’QITISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar
vazirligi 2-sonli Toshkent akademik litseyi
“Umumta’lim fanlar” kafedrasini boshlig‘i
p.f.f.d(PhD), N.B.Butayeva
n9504738@gmail.com tel: (90) 159 02 81

Mamlakatimizda masofaviy ta’lim tizimini hozirgi kunda yangi axborot texnologiyalari vositalari asosida shakllantirish, hamda zamonaviy ta’lim axborot resurslari va portallarni yaratish ta’limni yanada axborotlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Mobil dastur-bu mobil qurilmaga, (telefon, kommunikator, smartfon va hokazolarga o‘rnatilgan komponentdir) mobil platformani (Android, iOS, BlackBerry, HP webOS, Symbian OC ba Windows Mobile), bog‘lash uchun mobil server va nazorat foydalanuvchi interfeysi hamda biznes-mantiqiy qurilma bo‘lib hisoblanadi [2].

Ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili va o‘zimizning pedagogik amaliyotimiz talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda odatiy qiyinchiliklarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Professor-o‘qituvchilar duch keladigan mavjud qiyinchiliklar:

- o‘quv materiallarining hajmi katta bo‘lganligi sababli talabalarga didaktik materiallarni tizimli va tartibli uzatishda yuzaga keladigan muammolar;
- didaktik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun individual yondashuvi asosida talabalarda texnologik kompetentligini rivojlantirishning mos shakllari va usullarini yaratish uchun nihoyatda katta hajmdagi ishlarni amalga oshirish;
- ta’lim tizimining mazmuni, ma’nosi, maqsadlari, vazifalari, shaxsiy natijalarni monitoring qilish va baholash tizimidan kelib chiqqan holda o‘qitishning sur’ati, shakllari va usullarini tanlash
- tizimli yondashuv asosida talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari, ta’lim maqsadlari va natijalarini belgilash uchun talabaning qiziqishlari va ta’lim talablari asosida uning barcha qobiliyatlari va iste’dodlarini keyinchalik amalga oshirish maqsadida ochib berish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash;
- talabalarning shaxsiy fazilatlarini hisobga olgan holda butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratish;

- talabalarda texnologik kompetentligini rivojlantirishga nisbatan qiziqish va motivasiya uyg‘otuvchi omillar hamda o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil ravishda tashkil etishga qaratilgan yondashuvlar, talabalarining kasbiy faoliyatini boshqarish va nazorat qilish kabi muammolar [3]. O‘z navbatida, tizimli yondashuv asosida talabalarda texnologik kompetentligini rivojlantirish jarayonida quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishadi:

- ta’lim jarayonida kasbiy faoliyat ko‘nikmalarining yetishmasligi ya’ni adabiyotlar bilan ishlash, ma’ruzalarni yozib olish, o‘qilganlarni tahlil qilish, o‘qigan ma’lumotlarini umumlashtirish, qisqa yozuvlar va oqilona xulosalar chiqarish;

- didaktik materiallar, axborot texnologiyalari, internet resurslaridan oqilona foydalanish ko‘nikmasining yetishmasligi;

- o‘ziga yuklangan vazifalarni hal qilish jarayonida ong, mustaqillik va faollikning yetarli darajada namoyon bo‘la olmasligi;

- kasbiy faoliyatning eng muhim xususiyati unga nisbatan motivatsiyalarning mavjudligi va rivojlanganligi, ya’ni o‘rganilayotgan fanda o‘z mohiyatini topgan bilish ehtiyojidan iborat shart-sharoitlardir.

Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlariga aniqlik kiritish psixologik-pedagogik adabiyotlarda muammoning qay darajada ekanligini, jamiyatning ijtimoiy tartibini, davlat ta’lim standartini, talabalar mustaqil ta’limini faollashtirish darajalari hamda mezonlarini o‘z ichiga qamrab olishini nazarda tutgan holda tadqiqotimizning mazmunidan kelib chiqqan holda talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda quyidagi didaktik shartlarni belgilab oldik:

Dasturiy ta’minot sharti – talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish dasturining tarkibiy elementlari bo‘lgan, tanlangan ta’lim yo‘nalishining malaka talablarida keltirilgan o‘quv fanlari va materiallari bilan o‘qitish vositalari va usuli o‘rtasidagi bog‘liqlikni e’tiborga olgan holda tanlangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy qo‘llash istiqboliga ega bo‘lish lozim. Bu shart o‘qitish samaradorligini, mashg‘ulot mazmunini to‘g‘ri tanlashga va o‘quv materialini o‘qitish jarayoni maqsadiga mos holda tuzishga bog‘liqligini o‘zida aks ettiradi. U barcha predmetlar bo‘yicha o‘quv materiallari o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rnatishni va bir predmetdagi o‘quv material boshqa predmetdagi o‘quv material bilan to‘ldirilishi talab etiladigan o‘quv jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Metodologik shart – bunda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kasbiy faoliyatda qo‘llashni, mashg‘ulot mazmuni va tashkil etilishi esa, mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi vaziyat va o‘zaro bog‘liqlikda doimiy ravishda qo‘llash va takomillashtirishni ta’minlaydi. Bu shart o‘qitish samaradorligining talaba rivojlanish darajasi va unda kasbiy ko‘nikmalari shakllanganligiga bog‘liqligini o‘zida aks ettiradi. Bu shartni joriy etishda o‘quv jarayonini talaba bilimlarni mustaqil kasbiy faoliyat jarayonida oladigan tartibda tashkil etish talab qilinadi.

Natijaviy shart – bu o‘qitishning shunday tashkiliy shakli va talabaning o‘quv faoliyatini boshqarish vositasini tanlash hisoblanadiki, “Maxsus dastur asosida kasbiy rivojlanish shkalasi” talabaning kasbiy faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish ta’minlasin. Bu o‘quv materialini o‘zlashtirish sifati, ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini nazorat qilishni shunday tashkil etishki, bunda u nafaqat mashg‘ulot yakuni bo‘yicha, balki talabaning o‘quv-biluv jarayonida amalga oshiriladi [6].

Bu shart o‘qitish samaradorligini oshirish va talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlanishida uning kasbiy faoliyatini boshqarish va nazorat qilish vositalarini to‘g‘ri tanlashga bog‘liqligini o‘zida aks ettiradi. U mashg‘ulotlarda talabalar rivoji va pedagogik jarayonlarni boshqarishga oid bir qator masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu shartda talabada mustaqillik va individuallik darajasi uzluksiz o‘sishi ro‘y beradi va buning uchun talabaning kasbiy faoliyatiga rahbarlik qilish va mashg‘ulot mazmunini tashkil etish talab etiladi.

Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarining bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi didaktik sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

Tashkiliy sharoitlar – kasbiy faoliyatni tashkil etish usullari va shakllaridan foydalanish, talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash, texnologik kompetentlikni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qaytaishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tadbiiq etish.

Motivatsion sharoitlar – talabalarining shaxsiy rivojlanishida kasbiy faoliyatning o‘rni va rolini asoslash, talabalarda kasbiy faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash.

Kommunikativ sharoitlar – talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslarini belgilab olish, o‘quv jarayonida talabalarda individual faoliyatga ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalarni aniqlash, talabalarda individual faoliyatini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirish kabilar.

Konstruktiv sharoitlar – talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan talabalarining individual tarzda o‘z-o‘zini rivojlantirishga ruhiy jihatdan safarbar qilish, kasbiy faoliyatga o‘rgatish, shakllantirish va rivojlantirishning samarali metodlarini ishlab chiqish.

Texnologik sharoitlar – talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faoliligini ta’minlash, har bir talabada uning kasbiy faoliyatga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning kasbiy faoliyatini muntazam rag‘batlantirish; o‘quv jarayonini talaba shaxsning xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda takomillashtirish.

O‘quv-uslubiy sharoitlar: – talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish va talabalarining kasbiy faoliligini jadallashtirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mustaqil tarzda axborotni qidirish, ular ustida qayta ishlashning amaliy muammolarni bartaraf etishga talabalarining individual tarzda kasbiy faoliyatini amalga oshirishning o‘quv-uslubiy ta’minotini ishlab chiqish.

Tadqiqotimiz jarayonida talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, mustaqil tarzda axborotni qidirish, ular ustida qayta ishlashning amaliy muammolarni bartaraf etishga talabalarining kasbiy faoliyatini amalga oshirishning asosiy vositasi “Muhandislik fizikasi” fanidan elektron o‘quv qo‘llanma ishlab chiqildi mazkur elektron o‘quv qo‘llanmaning quyidagi didaktik imkoniyatlari mavjud:

- elektron o‘quv qo‘llanma “Muhandislik fizikasi” fanidan yaratilgan barcha didaktik materiallari (ma’ruza matnlari, elektron o‘quv qo‘llanmalar)ni o‘zida mujassam qilgan va yuqorida keltirilgan talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan didaktik shart-sharoitlar ishlab chiqilgan [5];
- elektron o‘quv qo‘llanmani kompyuter xotirasiga ko‘chirib olish orqali har qanday turdagi internet bouzerlari orqali offlayn foydalanish imkoniyatiga ega;
- elektron o‘quv qo‘llanmaga joylashtirilgan testlarni yechilishi natijalari tizimning onlayn va offlayn holatida ham oldindan belgilangan professor-o‘qituvchining elektron pochtaiga jo‘natiladi;
- talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan kasbiy topshiriqlar joylashtirilgan;
- talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish dasturi joylashtirilgan bo‘lib, talaba o‘zining kasbiy faoliyatini ushbu dastur asosida mustaqil tarzda tashkil etishi, natijalarini tahlil qilib borish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

7. Ўзбекистон Республикаси президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони.

8. Дьяченко, С. А. (2007). Электронные средства обучения в деятельности преподавателя. *Среднерусский вестник общественных наук*, (2).
9. Пулатова, Д. Т. (2015). Таълим жараёнига электрон ахборот таълим ресурсларини жорий этишнинг педагогик шарт-шароитлари. *Современное образование (Узбекистан)*, (7).
10. Iskandarovich, U. I. (2021). Theoretical Fundamentals of Introduction of Electronic Educational Tools to the Educational Process. *Central asian journal of theoretical & Applied sciences*, 2(1), 1-7.
11. Умиров, И. (2021). Таълим жараёнида электрон таълим воситаларини қўллашнинг педагогик-психологик омиллари. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
12. Daniyarovna, H. S. (2021). The Contents of Students' Independent Education and Methods of Implementation. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1445-1456.

O‘ZBEKISTONDA YANGICHA BAHOLASH TIZIMI: ZAMONAVIY TA’LIMNING MUHIM OMILI

Isroilova Oysanam,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
Ilmiy rahbar: dots. Sh.Almamatova

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida joriy etilgan yangicha baholash tizimining mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillari, pedagogik va metodik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, an’anaviy va zamonaviy baholash tizimlari o‘rtasidagi farqlar, kompetensiyaviy yondashuv, formativ va summativ baholash, xalqaro baholash dasturlari hamda kredit-modul tizimining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Maqolada yangi baholash tizimining ta’lim sifati va o‘quvchi shaxsini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: baholash tizimi, kompetensiyaviy yondashuv, formatif baholash, summativ baholash, ta’lim sifati, kredit-modul tizimi, pedagogik texnologiya, xalqaro baholash dasturlari.

XXI asr ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va xalqaro mehnat bozori ehtiyojlari zamonaviy, mustaqil fikrlovchi, kreativ va kompetent kadrlarni tayyorlashni talab qilmoqda. Shu sababli dunyoning ko‘plab davlatlarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o‘quvchilar bilimini baholash tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Chunki ta’lim sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biri bu — baholash tizimidir. Baholash nafaqat o‘quvchi bilimini aniqlash vositasi, balki o‘qitish jarayonini boshqarish, motivatsiya berish va ta’lim samaradorligini oshirishning muhim mexanizmi ham hisoblanadi.

An’anaviy baholash tizimida ko‘proq o‘quvchining yodlab olgan bilimlari tekshirilgan bo‘lsa, bugungi zamonaviy baholash tizimi o‘quvchining olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan. Shu jihatdan yangi baholash tizimi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi.

Pedagogikada baholash — bu ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini aniqlash hamda ularning rivojlanish darajasini tahlil qilish jarayonidir. Baholash o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O‘quvchining bilim darajasini aniqlash;

2. Ta’lim samaradorligini nazorat qilish;
3. O’quvchini rag’batlantirish;
4. Kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish;
5. O’qitish metodlarini takomillashtirish.

Mashhur pedagog olim B. Blum baholashni ta’lim jarayonining muhim komponenti sifatida e’tirof etgan. Uning fikricha, baholash natijasi o’quvchi rivojlanishini aniqlash bilan birga o’qitish sifatini ham belgilaydi. Shuningdek, u baholashni faqat natijani aniqlovchi vosita emas, balki o’quv jarayonini takomillashtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qilgan¹¹².

Zamonaviy pedagogikada baholash faqat natijani emas, balki o’quv jarayonining o’zini ham qamrab oladi. Bu esa baholashning rivojlantiruvchi xarakterini kuchaytiradi.

Shu o’rinda ana’anaviy baholash tizimi haqida ham fikr yuritsak. An’anaviy baholash tizimi uzoq yillar davomida maktab va oliy ta’lim muassasalarida qo’llanib keldi. Ushbu tizim asosan 5 ballik baholash mezoniga tayangan. An’anaviy tizimning asosiy xususiyatlari: o’qituvchi markaziy subyekt hisoblanishi; baholashning yakuniy natijaga qaratilishi; nazariy bilim ustuvorligi; o’quvchining passiv ishtiroki.

Mazkur tizimning ayrim kamchiliklari ham mavjud:

1. O’quvchi bilimining haqiqiy darajasi to’liq aniqlanmaydi.
2. Baholashda subyektivlik kuzatiladi.
3. Mustaqil fikrlash va ijodkorlik yetarli baholanmaydi.
4. Baholash jarayoni ko’proq jazolash vositasi sifatida qabul qilinadi.
5. O’quvchi shaxsiy rivojlanishiga kam e’tibor beriladi.

Natijada o’quvchilar ko’proq baho uchun o’qishga odatlanib qolgan, bilimning amaliy ahamiyati esa ikkinchi planga tushib qolgan. Shunga binoan yurtimizda baholashning yangicha shakli joriy etilishi va umumta’lim maktablariga tadbiq etilishi maqsadga muvofiq edi. 2023-yil 16-avgustda “Tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 248-sonli buyrug’i ayni shu vazifa va maqsadlarni ko’zlab chiqarilgan buyruq edi¹¹³.

O’zbekistonda joriy etilayotgan yangi baholash tizimi xalqaro tajribalar va kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirilmoqda. Ushbu tizimning asosiy maqsadi — o’quvchini mustaqil fikrlovchi, ijodkor va amaliy faoliyatga tayyor shaxs sifatida rivojlantirishdir. Yangi tizim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- 1. Shaffoflik.** Baholash mezonlari oldindan aniq belgilanadi va o’quvchilarga tushuntiriladi.
- 2. Obyektivlik.** Baholash aniq kriteriyalar asosida amalga oshiriladi.
- 3. Uzlaksizlik.** Baholash faqat yakuniy nazorat emas, balki butun o’quv jarayoni davomida olib boriladi.
- 4. Rivojlantiruvchanlik.** Baholash o’quvchining kamchiliklarini aniqlab, uni rivojlantirishga xizmat qiladi.
- 5. Kompetensiyaviylik.** Bilimni amaliyotda qo’llash darajasi asosiy mezon sifatida qaraladi.

Zamonaviy baholash tizimining asosini formativ va summativ baholash tashkil qiladi.

Formativ baholash — o’quv jarayonida muntazam ravishda olib boriladigan baholash turidir. Uning asosiy maqsadi o’quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatishdir. Baholashning bu

¹¹² Bloom, B. S. (1971). *Handbook on Formative and Summative Evaluation of Student Learning*. New York: McGraw-Hill.

¹¹³ <https://hujjat24.uz/product/yangi-baholash-tizimi-tahlillari-va-tashkiliy-asoslari>

shakli –dars mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar faoliyatini kuzatish hamda ularning bilim va ko‘nikmalarini o‘lchash hamda natijani yaxshilash uchun ko‘rsatmalar berish jarayoni hisoblanadi. Mazkur jarayonda usul va natijalar asosiy maqsad sifatida qamrab olinadi. Shunga muvofiq quyidagi baholash usullaridan foydalaniladi: savol-javob, testlar, mini-loyihalar, portfolio, taqdimot, esse yozish, kuzatish, refleksiya. Bu baholash turi o‘quvchiga o‘z ustida ishlash imkonini beradi hamda quyidagi afzalliklarga ega:

1. O‘quvchini rag‘batlantiradi;
2. O‘qishga qiziqishni oshiradi;
3. O‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi;
4. Kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etishga yordam beradi.

Summativ baholash — ma’lum bosqich yakunida o‘quv natijalarini aniqlash uchun qo‘llanadi. Baholashning bu shakli “ma’lum davrda yoki ma’lum bob yuzasidan berilgan bilimlarning darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Ya’ni, o‘qituvchi muayyan miqdorda mavzularni qamrab olgan bobni o‘quvchiga yetkazib bergach, o‘quvchilarning ushbu bob yuzasidan olgan bilimlari aniqlanadi. Avvalgi baholash tizimida bu choraklar bo‘yicha nazorat ishlari ko‘rinishida bo‘lgan”¹¹⁴.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchini kompetent shaxs sifatida shakllantirish hisoblanadi. Kompetensiya — bu shaxsning bilim, ko‘nikma va tajribalarni amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatidir. J. Dewey ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchini real hayotga tayyorlash ekanligini ta’kidlaydi. Shu sababli baholash ham amaliy kompetensiyalarni aniqlashga xizmat qilishi lozim¹¹⁵. Ta’lim jarayonida quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi:

1. Kommunikativ kompetensiya;
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
3. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
4. O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;
5. Milliy va umummadaniy kompetensiyalar;
6. Matematik savodxonlik kompetensiyasi.

Yangicha baholash tizimi aynan shu kompetensiyalarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu vazifalar negiizida Xalqaro baholash dasturlariga hamohanglik va yurtimiz o‘quvchilarini bu jarayonga tayyorgarligini oshirish maqsadi yotadi.

Lekin afsuski yangi tizimni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud:

1. O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi;
2. Ayrim hududlarda texnik imkoniyatlarning cheklanganligi;
3. Baholash mezonlarini to‘liq tushunmaslik;
4. Hujjatbozlikning ortib ketishi;
5. Ota-onalarning eski tizimga o‘rganib qolganligi.

Bu muammolarni bartaraf etish va yangi tizimni samarali amalga oshirish uchun o‘qituvchilar malakasini oshirish, metodik qo‘llanmalarni ko‘paytirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda joriy etilayotgan yangicha baholash tizimi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tizim an’anaviy baholashdan tubdan farq qilib, o‘quvchining kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

¹¹⁴ Qo‘qonboyeva Sh., Yulchiyeva M., Kukonboyev B. Ta’lim jarayonida yangicha baholash tizimi // *Advances in Science and Education*, 2025, 20–22. Volume 01, Issue 03.

¹¹⁵ Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.

Formativ va summativ baholash, kredit-modul tizimi, xalqaro baholash mezonlari hamda raqamli texnologiyalar ta’limning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda ushbu tizimni yanada takomillashtirish orqali O‘zbekiston ta’limini xalqaro darajaga olib chiqish mumkin. Zero, zamonaviy baholash tizimi — sifatli ta’limning muhim omilidir.

ADABIYOTLAR:

1. Bloom, B. S. (1971). *Handbook on Formative and Summative Evaluation of Student Learning*. New York: McGraw-Hill.
2. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
3. Qo‘qonboyeva Sh., Yulchiyeva M., Kukonboyev B. Ta’lim jarayonida yangicha baholash tizimi // *Advances in Science and Education*, 2025, 20–22. Volume 01, Issue 03.
4. <https://hujjat24.uz/product/yangi-baholash-tizimi-tahlillari-va-tashkiliy-asoslari>

YIGIRISH TEXNOLOGIYASIDA PILIK VA IP SIFATINI BARQARORLASHTIRISHNING TEXNIK YECHIMLARI

Valiyev Nodirbek G‘ulomjon o‘g‘li, t.f.f.d.
(PhD), Farg‘ona davlat texnika universiteti, nodirbekvaliyev@mail.ru

Abstract. Mazkur maqolada yigirish texnologiyasida pilik va ip sifatini barqarorlashtirishga ta’sir etuvchi asosiy texnik omillar tahlil qilinadi. Tolaning fizik-mexanik xossalari, cho‘zish tizimi, pilik tarangligi, eshish darajasi, pakovka shakllanishi hamda uskunalarning ishlash barqarorligi mahsulot sifatini belgilovchi muhim omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy yigirish uskunalarida avtomatik nazorat, sensorli monitoring va parametrlarni optimallashtirish orqali notekislikni kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritiladi. Maqola texnologik jarayonni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: yigirish texnologiyasi, pilik, ip sifati, taranglik, eshish, pakovka, avtomatik nazorat.

Kirish. To‘qimachilik sanoatida ip sifati tayyor mahsulotning mustahkamligi, silliqdagi, tashqi ko‘rinishi va keyingi texnologik jarayonlardagi barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yigirish jarayonida hosil bo‘ladigan pilik va ipning bir tekisligi, uzilishlar soni, eshish darajasi va o‘ram sifatining barqaror bo‘lishi korxona samaradorligi uchun muhim hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda yigirish mashinalarining texnik holatini nazorat qilish, jarayon parametrlarini muvofiqlashtirish va mahsulot sifatini real vaqt rejimida kuzatish dolzarb masalaga aylangan.

Yigirish texnologiyasi bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichdagi kichik og‘ish keyingi jarayonlarda sezilarli sifat muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, pilikning notekisligi eshish jarayonida ipning ayrim joylarida qalin, ayrim joylarida esa ingichka hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Natijada uzilishlar soni ortadi, ishlab chiqarish tezligi pasayadi va tayyor mahsulot sifati yomonlashadi.

Pilik va ip sifatiga ta’sir etuvchi omillar

Pilik va ip sifatini belgilovchi birinchi omil tolalarning xossaligidir. Tolaning uzunligi, ingichkaligi, pishiqligi, elastikligi va namlikni ushlash xususiyati yigirish jarayonining barqaror kechishiga ta’sir qiladi. Bir xil xossalarga ega bo‘lmagan tolalar aralashmasi ishlatilganda pilikning notekisligi ortadi, cho‘zish tizimida tolalar turlicha harakatlanadi va natijada ip sifati pasayadi.

Ikkinchi muhim omil pilikning chiziqli zichligidir. U quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$T = m / l$$

bu yerda T — chiziqli zichlik, m — massa, l — uzunlik.

Chiziqli zichlikning barqaror bo‘lishi keyingi eshish jarayonida ipning bir maromda hosil bo‘lishini ta’minlaydi. Agar pilikning ayrim qismlarida zichlik yuqori, ayrim qismlarida past bo‘lsa, yigirish vaqtida ipning tuzilishi notekis bo‘ladi.

Uchinchi omil tolalarning cho‘zish apparatidan o‘tish tartibidir. Cho‘zish valiklarining tezliklari o‘zaro mos bo‘lmasa yoki siqish kuchi noto‘g‘ri tanlansa, tolalar nazoratsiz siljiydi. Bunday holatda pilik strukturasida notekislik paydo bo‘ladi. Demak, cho‘zish tizimidagi har bir juft valikning texnik sozligi va aylanish tezligi aniqlik bilan boshqarilishi kerak.

Eshish darajasi va taranglikni boshqarish

Ip hosil qilishda eshish jarayoni tolalarni bir-biriga biriktirib, mahsulotga mustahkamlik beradi. Ammo eshish miqdorining ortib ketishi ipni qattiqashtiradi, kam bo‘lishi esa pishiqlikni pasaytiradi. Shu sababli eshish koeffitsiyenti optimal qiymatda tanlanishi lozim. U amaliyotda quyidagi ko‘rinishda baholanadi:

$$\alpha = Z \sqrt{T}$$

bu yerda α — eshish koeffitsiyenti, Z — 1 metrga to‘g‘ri keladigan eshishlar soni, T — ipning chiziqli zichligi.

Mazkur bog‘lanishdan ko‘rinadiki, ip zichligi va eshish soni o‘zaro uyg‘un tanlanmasa, sifat ko‘rsatkichlari buziladi. Yigirish uskunalarida urchuq aylanish tezligi, chiqish tezligi va ip tarangligi bir-biriga moslashtirilishi zarur.

Taranglikni boshqarish ham muhim texnik masaladir. Taranglik me’yordan ortsa, ip uzilishi ko‘payadi; me’yoridan past bo‘lsa, o‘ram bo‘sh hosil bo‘ladi va pakovkaning zichligi yetarli bo‘lmaydi. Shuning uchun yo‘naltiruvchi elementlar, taranglik rostlagichlar, prujinali disklar va tormozlovchi qurilmalar ip harakatini silliq saqlashda katta rol o‘ynaydi. Taranglikning keskin o‘zgarishi aksariyat hollarda uzatma mexanizmlaridagi nosozlik, valiklar yuzasining yeyilishi yoki noto‘g‘ri sozlangan bosim natijasida yuzaga keladi.

Pakovka hosil qilish sifati va uning texnologik ahamiyati

Yigirish texnologiyasining yakuniy bosqichlaridan biri pakovka hosil qilishdir. Sifatli pakovka keyingi to‘quv, bo‘yash yoki qayta ishlash jarayonlarida mahsulotning oson yechilishini, saqlash va tashish qulayligini ta‘minlaydi. Pakovkaning zichligi, shakli va qatlamlarining joylashish tartibi uning sifat ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

Pakovka hosil bo‘lishida g‘altak tezligi bilan ip berilish tezligi o‘rtasidagi mutanosiblik katta ahamiyatga ega. Agar pakovka diametri ortib borayotgan bo‘lsa, aylanish tezligi mos ravishda qayta hisoblanishi kerak. Aks holda, ipning tarangligi o‘zgaradi va o‘ram sirtida nosimmetrik qatlamlar hosil bo‘ladi. Ayniqsa, konussimon pakovka shakllantirishda karetkaning harakat masofasi, yo‘nalishi va qaytish chastotasi texnologik nuqtai nazardan aniq belgilanishi lozim.

Sifatli pakovka quyidagi afzalliklarni beradi: ipning uzilmay yechilishi, zich va kompakt o‘ram hosil bo‘lishi, transport va omborlash jarayonlarida shaklning saqlanishi hamda mahsulot sifati yomonlashmasdan keyingi bosqichlarga uzatilishi. Demak, pakovka jarayoni faqat o‘rash emas, balki mahsulot sifatini saqlashning muhim texnik bosqichidir.

Zamonaviy texnik yechimlar va avtomatik nazorat

Hozirgi vaqtda yigirish uskunalarida avtomatik nazorat elementlaridan keng foydalanilmoqda. Sensorlar yordamida ip uzilishi, taranglik tebranishi, valik tezligi, namlik va harorat kabi ko‘rsatkichlar kuzatilib boriladi. Bu esa inson omili ta‘sirini kamaytiradi va nuqsonlarning dastlabki bosqichdayoq aniqlanishiga yordam beradi.

Masalan, ip uzilishi sodir bo‘lganda avtomatik to‘xtatish tizimi ishlab, xomashyo isrofi kamayadi. Shuningdek, notekislikni nazorat qiluvchi elektron qurilmalar pilik yoki ipning qalinlashgan va ingichkalashgan joylarini aniqlab, operatorga signal beradi. Bunday tizimlar ayniqsa yuqori tezlikda ishlovchi zamonaviy mashinalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avtomatlashtirishning yana bir muhim jihati texnologik parametrlarni optimallashtirishdir. Ya‘ni, mashinaning ish tezligi, cho‘zish miqdori, eshish soni va o‘rash tartibi ma‘lum xomashyo turiga mos ravishda tanlanadi. Bu esa universal emas, balki xomashyoning real xususiyatlariga asoslangan boshqaruvni ta‘minlaydi. Natijada sifat va unumdorlik o‘rtasida maqbul muvozanat hosil bo‘ladi.

Amaliy tavsiyalar

Yigirish korxonalarida pilik va ip sifatini barqarorlashtirish uchun quyidagi texnik tavsiyalar muhim hisoblanadi. Avvalo, xomashyo partiyalarini xossalari bo‘yicha saralash va bir xillikni ta‘minlash lozim. Ikkinchidan, cho‘zish apparati valiklari, bosim elementlari va yo‘naltiruvchilar muntazam profilaktik ko‘rikdan o‘tkazilishi kerak. Uchinchidan, taranglik rostdash qurilmalari har bir assortiment bo‘yicha alohida sozlanishi zarur. To‘rtinchidan, o‘ram

hosil qilish mexanizmlarida pakovka diametri ortishiga mos ravishda aylanish tezligini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, avtomatik nazorat va sensorli monitoring vositalarini ishlab chiqarish liniyasiga joriy etish tavsiya etiladi.

Xulosa

Demak, yigirish texnologiyasida pilik va ip sifatini barqarorlashtirish ko‘p omilli texnik jarayon bo‘lib, unda xomashyo sifati, cho‘zish tizimi, eshish darajasi, taranglik boshqaruvi, pakovka shakllanishi va uskunalarining soz holati o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi. Mahsulot sifatini yaxshilash uchun faqat bitta parametрни emas, balki butun texnologik tizimni kompleks boshqarish zarur.

Zamonaviy avtomatik nazorat vositalari va texnik optimallashtirish usullari orqali notekislikni kamaytirish, uzilishlarni qisqartirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Shu bois yigirish sanoatida texnik boshqaruv va monitoring tizimlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Valiyev N.G‘., Daminov A.D. Ipak matolarining tahlili asosida ularning turlarini kengaytirish // “TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT – 2023” xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman ma’ruzalar to‘plami. 26–27 aprel 2023. Farg‘ona: FarPI, 2023. B. 303–306.
2. Valiyev N.G. To‘qimachilik iplarining cho‘zilish deformatsiyasini Veb-kamera asosida aniqlash: usullar tahlili va qurilma Konsepsiyasi // Innovatsion tadqiqotlar axborotnomasi Ilmiy-nazariy, metodik jurnali 2026 3-son. S. 50-54.
3. Daminov A.D., Valiyev N.G‘. Iplarining deformatsiyalarini aniqlash usullari // to‘qimachilik va yengil sanoatda ilmhajmdor innovatsion texnologiyalar va dolzarb muammolar yechimi 29-30 noyabr 2024. 1-TOM Farg‘ona: FarPI, 2024. B. 319–322.
4. Boymuratov B.X., Daminov A.D. To‘quvchilik texnologiyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
5. Bobojanov X.T. Yigirish mashinalari parametrlarini optimallashtirish yo‘li bilan ipning deformasion xossalarini yaxshilash va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish. Dis. d.t.n. Namangan, 2019, s. 91-115.

ELASTIKLIK NAZARIYASI MASALALARINI YECHISHDA ARALASH CHEKLI ELEMENTLAR METODINI QO‘LLASH.

Nematov Jaloliddin. 2-kurs magistir. Sharof rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Nazariy va injenerlik mexanikasi kafedrası .

Abdullayev Obid - fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dots. Sharof rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Nazariy va injenerlik mexanikasi kafedrası.

Annotatsiya: Elastiklik nazariyasi masalasini yechish uchun aralash chekli elementar metodini qo'llash shakillantirilgan. Aralash approksimatsiyaning korrektiligi va yaqinlashishi masalasi qaralgan. Yaqinlashishni baholashda umumlashgan funksiyalar nazariyasidan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: elastiklik nazariyasi, chekli elementlar metodi, aralash sxema, approksimatsiya.

Hozirgi vaqtda elastiklik nazariyasi masalalarini yechishda chekli elementlar metodi keng tadbiiq etilmoqda. Chekli elementlar metodi (ChEM) tadbiiq etishda kamchiliklar ham bor. Kamchiliklarning eng kattasi kuchlanish va deformatsiyaning uzilish bilan approksimatsiya qilinishidir, bundan tashqari kuchlanish va deformatsiyaning ko'chishga nisbatan tartibli pastligidir. Shu bilan birga kuchlanish asosiy noma'lum funksiya hisoblanadi, shuning uchun ko'chishlar ancha yuqori aniqlikda topilishi kerak.

Shu munosabat bilan elastiklik nazariyasi masalasini sonli yechishda aralash chekli elementlar metodi (AChEM) dolzarb hisoblanadi, ularga ko'chishlar bilan bir qatorda kuchlanish va deformatsiyalar ham qatnashadi. AChEM ni qo'llashdan asosiy maqsad, ko'chishlar aniqlik darajasi bilan kuchlanish va deformatsiyalar aniqlik darajasini barobar qilishdir. Shu bilan birga jism sirtida statik munosabatlarning aniq bajarilishidir. AChEM faqat ko'chishlarni emas balki kuchlanish va deformatsiyaning ham uzluksiz bo'lishiga erishishdir. Variatsion printsip tadbiiq etiladi. U.Babushka [1] va F.Bpezzi [2] birinchi bo'lib aralash sxema yechilishining nazariyasini ishlab chiqdilar. AChEM ning umumiy nazariyasi [3] da keltirilgan. AChEM ning elastiklik nazariyasimasalasiga tadbiiqini S.N.Atluri, O.S.Zenkevich, P.P.Voroshko, A.S.Saxarov, S.E.Ymanskiy ishlarida ko'rsatilgan.

Biroq aniqlikda yutuq bo'lsa ham uning elastiklik nazariyasi masalalariga tadbiiqi cheklidir. Ustuvorlik va yaqinlashish shartini qanoatlantiruvchi approksimatsiyaning tuzish qiyindir. Shu bilan birga diskret masalani sonli yechish dolzarb hisoblanadi. Bu masalalarni yechish, ushbu maqolaning asl maqsadi bo'ladi.

Faraz qilaylik jism $\Omega \in R^n$ ($n = 2,3$) sohani egallagan bo'lsin va u silliq Γ chegaraga ega bo'lsin. Γ_u qismida ko'chishlar, Γ_σ qismida esa kuchlanishlar ya'ni sirt kuchlari berilgan bo'lsin. Bundan tashqari jism massaviy kuchlar hamda boshlang'ich deformatsiyalarga ega bo'lsin. Faraz etaylik u kuchishlar Γ_u da bir jinsli chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin, kuchlanish, to'la va boshlang'ich deformatsiyalar tenzorlari σ, ε va ξ lar bo'lsin. Ko'chishlar va deformatsiyalar orasidagi bog'lanish

$$\varepsilon = BU \quad (1)$$

bu yerda B-chiziqli differensial operator. B operatorning aniqlanish sohasini U orqali, qiymatlar sohasini esa Y orqali belgilaymiz.

U va Y qism to'plamlar V va X gilbert fazolarga tegishli bo'ladi, ularda skalyar ko'paytmani quyidagicha kiritamiz: $(*,*)_V$ va $(*,*)_U$. U holda Korm [4] teoremasiga asosan U to'plam $(*,*)_U = (B*, B*)_Y$ skalyar ko'paytma asosida U gilbert fazosi ekanligi kelib chiqadi. $V = [H^1(\Omega)]^n$ bo'lib, bu yerda $H^1(\Omega)$ to'plam Ω da birinchi tartibli hosilalari kvadratlari bilan

integrallanuvchi funksiyalar to‘plamidir. $X = [L_2(\Omega)]^m$ bu Ω da kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalar to‘plami. Agar $m = 6$ bo‘lsa $n = 3$, agar $m = 3$ bo‘lsa $n = 2$ bo‘ladi.

Kuchlanish va deformatsiyalar orasidagi bog‘lanish

$$\sigma = D(\varepsilon - \xi) \quad (2)$$

bu yerda D –chiziqli operator bo‘lib, elastik jismning fizik tabiati bilan bog‘liq. D –o‘z-o‘ziga qo‘shma, musbat aniqlangan va chegaralangan operator, $D: X \rightarrow X$. U holda shunday m va M musbat sonlar topiladi

$$\sqrt{m}\|*\|_X \leq \|*\|_D \leq \sqrt{M}\|*\|_X \quad (3)$$

U^* orqali U ga qo‘shma fazoni belgilaymiz va $\rho(v)$ orqali U^* da bo‘lgan chiziqli, uzluksiz funksionalni belgilaymiz, $u, v \in U$ elementda aniqlangan. U da aniqlangan chiziqli uzluksiz funksional deganda, $v \in U$ ko‘chishlarda jismga qo‘yilgan tashqi kuchlarning ishi tushuniladi.

Lagranj variatsion tenglamasini tadbqiq etib [6] statik munosabatlarni quyidagicha yozamiz:

$$(\sigma, Bv)_X = \rho(v), \quad \forall v \in U \quad (4)$$

(1), (2), (4) tenglamalar elastiklik nazariyasining umumlashgan chegaraviy masalasini ko‘chishlarda ifodalashga imkon beradi:

$$(Bu, Bv)_D = \rho(v) + (\xi, Bv)_D, \quad \forall v \in U \quad (5)$$

(5) tenglama yechimining mavjudligi va yagonaligi $a(*, *)$; $U * U \rightarrow R$ bu chiziqli formaning koertsitivligi va simmetrikligidan kelib chiqadi, u quyidagicha aniqlanadi:

$$a(*, *) = (B*, B*)_D \quad (6)$$

(3) tenglikka asosan ushbuni hosil qilamiz:

$$m\|v\|_U^2 \quad \forall v \in U \quad (7)$$

Natijada, (5) tenglama ixtiyoriy $\rho \in U^*$ va $\xi \in X$ larda yagona yechimga ega bo‘ladi.

(5) tenglamadan u ko‘chishlar topiladi, deformatsiya va kuchlanishlar esa ulardan olingan hosila bilan bog‘liq bo‘lgani uchun aniqligi pasayadi. Bunga alternativ usul sifatida chegaraviy masalani shunday shakillantiramizki unda deformatsiya bevosita argument sifatida kirsin, ya’ni ko‘chishlardan hosila sifatida emas. Umumlashgan chegaraviy masalani ushbu tenglamalar sistemasi orqali ifodalaymiz:

$$(\varepsilon, \eta)_D = (Bu, \eta)_D, \quad \forall \eta \in X; \quad (8)$$

$$(\varepsilon, Bv)_D = \rho(v) + (\xi, Bv)_D, \quad \forall v \in U$$

bu elastiklik nazariyasi umumlashgan chegaraviy masalasini ko‘chishlar va deformatsiyalarda ifodalaydi.

ChEM dastlabki kontinual (8) masalani diskretlashga asoslangan. Cheksiz o‘lchamli $U \times X$ fazo chekli o‘lchamli $U_h \times X_h$ fazo bilan approksimatsiya qilinadi, h-chekli o‘lchamli fazolarni aniqlovchi parametr, limiti nolga intiladi.

Chekli o‘lchamli fazolarni tuzish uchun bazis funksiyalar sifatida bo‘lakli-polinomial funksiyalarni olamiz. Bunday bazisning qulayligi shundaki, ularni hosil qiluvchi soha juda kichik (Ω ga nisbatan) bazis esa “deyarli ortogonal”.

Faraz qilaylik approksimatsiyalovchi fazolar $U_h \times X_h$ bo‘lib

$U_h \times X_h \subset U \times X$ bo‘lsin. U holda (8) ga o‘xshash diskret masalani shakllantiramiz. Shunday $(u_h, \varepsilon_h) \in U_h \times X_h$ juftlik topilsinki, ular ushbu tenglamalar sistemasini qanoatlantirsin;

$$\begin{aligned}(\varepsilon_h, \eta_h)_X &= (Bu_h, \eta_h)_X, \quad \forall \eta_h \in X_h; \\(\varepsilon_h, Bv_h)_X &= \rho(v_h) + (\xi, Bv_h)_X, \quad \forall v_h \in X_h\end{aligned}\quad (9)$$

(9) tenglamalar sistemasini elastiklik nazariyasi masalasini aralash proyeksiya-to‘rli sxemasini beradi, ular ko‘chishlar va deformatsiyalarda bo‘ladi.

Diskret masalani yechilishi. Dastlab $X_h \subset X$ va $Y_h \subset Y$ fazolar orasida moslik o‘rnatamiz. Ma’lumki Y_h to‘plam B operatorning qiymatlari to‘plamidir, bu operator $U_h \subset U$ qism fazosida aniqlangan ya’ni

$Y_h = BU_h$. Natijada Y_h qism fazo Y fazo uchun approksimatsiyalovchi qism fazosidir. Har ikki X_h va Y_h fazolar X gilbert fazosining chekli o‘lchovli, yopiq, chiziqli qismlaridir, biroq ular bir-birining qism fazosi emas, buning ustiga X_h va Y_h lar kesishmaydi ham.

Har bir $\bar{\tau}_h \in Y_h$ elementga uning X_h dagi ortogonal proyeksiyasini mos qo‘yamiz. Buning uchun har bir h ga va ixtiyoriy $\bar{\tau}_h \in Y_h$ element uchun, proyeksiyalovchi I_h operatorni aniqlaymiz. U holda $I_h \bar{\tau}_h - \bar{\tau}_h \in Y_h$ ning X_h dagi ortogonal proyeksiyasi bo‘ladiv natijada ushbuni yozish mumkun bo‘ladi.

$$(\bar{\tau}_h - I_h \bar{\tau}_h, \eta_h)_X = 0, \quad \forall \eta_h \in X_h \quad (10)$$

Ortoproyektordan foydalanib, $I_h; Y_h \rightarrow X_h$. (9) tenglamalarni quyidagicha yozib olamiz:

$$\begin{aligned}(\varepsilon_h, \eta_h)_X &= (I_h Bu_h, \eta_h)_X, \quad \forall \eta_h \in X_h; \\(\varepsilon_h, I_h Bv_h)_X &= \rho(v_h) + (\xi, Bv_h)_X \quad \forall v_h \in U_h\end{aligned}\quad (11)$$

Ustvorlik sharti. Faraz etaylik har bir h uchun va har bir $\bar{\tau}_h \in Y_h$ uchun ushbu tengsizlik o‘rinli bo‘lsin;

$$d \|\bar{\tau}_h\|_X \leq \|I_h \bar{\tau}_h\|_X, \quad 0 < d \leq 1. \quad (12)$$

Bu yerda d o‘zgarmas bo‘lib h dan bog‘liq emas. U holda har bir h uchun (9) diskret masala bir qiymatli yechiladi. Shunday qilib (12) shart (9) diskret masalaning korrektligini ta’minlaydi, $\varepsilon_h = I_h Bv_h$ esa $Bv_h \in Y_h$ ning X_h dagi ortogonal proyeksiyasidir.

Xulosa qilib aytganda aralash chekli elementlar metodi yordamida elastiklik nazariyasi chegaraviy massalarini korrekt qo‘yilishi mumkin. Keltirilgan natijalar uch va ikki o‘lchamli elastiklik nazariyasi masalalarini har xil aralash chekli elementlar metodi yordamida hal qilinishi mumkin. Bu metodning davomi mualliflarningkeyingi ishlarida bayon etiladi.

Adabiyotlar

1. Babushka I. Error bounds for limit element method // Namer. Math. -1971. -16, NO. 3. -P.322-333.
2. Bressi F. On the existence uniqueness and approximation, of saddle-point problems arising from Lagrangian multipliers // Rev. Francaise Automat. Informat. Recherche Operationnelle. -1974.-R.r-P.129-151
3. Babushka I., Olden J., and Lee J. K. Mixed-hybrid finite element approximations of the second-order elliptic boundary-value problems // TICOM Reports 75. - 1971.-7.
4. Соболев С.Л., Некоторые применения функционального анализа в математической физике - М.: Наука 1988-336с
5. Тимошенко С.П Гудер ДЖ, Теория упругости-М: Наука 1975-575с

TEMURIYLAR DAVRIDA ANIQ FANLARNING RIVOJLANISHI

*Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti
dotsenti E.T. Achilov*

*Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti
boshlang‘ich ta‘lim 4-kurs talabasi*

Maxamadjonova Nihola Rovshanbek qizi

Tel; +99894-037-21-08

Tel; +99893-429-47-75

Annotatsiya: Amir Temur va Temuriylar davrida aniq fanlar, xususan astronomiya va matematika sohalarining rivojlanishi yoritilgan. Tadqiqot davomida Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy hamda Ali Qushchi kabi buyuk olimlarning ilmiy faoliyati va ularning jahon ilm-faniga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.

Shuningdek, Samarqand shahrida tashkil etilgan rasadxona va uning ilmiy faoliyati, yulduzlar harakatini o‘rganishdagi yutuqlar hamda matematik hisoblash usullarining takomillashuvi haqida ma’lumot beriladi.

Mazkur ish Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyotining yuqori bosqichga ko‘tarilganini va bu davr olimlarining kashfiyotlari bugungi zamonaviy fan rivojiga asos bo‘lib xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur davri, Temuriylar davri, aniq fanlar, astronomiya, matematika, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Samarqand rasadxonasi, yulduzlar katalogi, trigonometriya, ilm-fan rivoji, o‘rta asr astronomiyasi.

Amir Temur davri (XIV asr oxiri – XV asr boshlarida) Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy va harbiy yuksalish, balki ilm-fan, madaniyat va ma’rifat rivojlangan davr sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda davlat boshqaruvi mustahkamlanib, iqtisodiy hayot tiklandi, savdo-sotiq rivojlandi va natijada ilmiy faoliyat uchun qulay muhit yuzaga keldi.

Ayniqsa, aniq fanlar – matematika, astronomiya, geometriya, geodeziya va muhandislik sohalari sezilarli darajada taraqqiy etdi.

Birinchidan, Amir Temur ilm-fanga katta e’tibor bergan hukmdor edi. U o‘z davlatida olimlar, mutafakkirlar va san’atkorlarni qo‘llab-quvvatladi. Turli mamlakatlardan ilm ahllarini Samarqandga taklif qilib, u yerda ilmiy markaz shakllanishiga asos soldi. Samarqand o‘sha davrda Sharqning eng yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Bu esa aniq fanlar rivoji uchun mustahkam zamin yaratdi.

Ikkinchidan, qurilish va me’morchilik sohasidagi ulkan bunyodkorlik ishlari aniq fanlarning rivojiga turtki bo‘ldi. Amir Temur tomonidan barpo etilgan saroylar, masjidlar, madrasalar, ko‘priklar va boshqa inshootlar yuqori darajadagi muhandislik bilimlarini talab etardi. Geometriya, algebra va fizika qonunlaridan amaliy foydalanish orqali murakkab inshootlar qurildi. Bu jarayonda muhandislar va ustalar tajriba orttirib, ilmiy bilimlarni amaliyotda qo‘llashni yanada rivojlantirdilar.

Uchinchidan, astronomiya fanining rivojlanishi uchun ham muhim shart-sharoitlar yaratildi. Amir Temur davrida osmon jismlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bordi. Bu esa keyinchalik uning avlodlari davrida, ayniqsa, Ulug‘bek zamonida yanada yuksak bosqichga ko‘tarildi. Astronomik kuzatuvlar olib borish, taqvimlarni aniqlashtirish va yulduzlar xaritasini tuzish ishlari aynan Temuriylar davrida keng rivojlandi. Bu davr aniq fanlarning keyingi taraqqiyoti uchun poydevor vazifasini o‘tadi.

To‘rtinchidan, matematika fanining rivojlanishi ham ushbu davrda muhim ahamiyat kasb etdi. Savdo-sotiq, soliq tizimi va qurilish ishlarida hisob-kitoblarning aniqligi talab etilgani sababli matematik bilimlarga ehtiyoj ortdi. Algebra va arifmetika asoslari keng qo‘llanildi, hisoblash usullari takomillashtirildi. Bu esa iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynadi.

Beshinchidan, geografiya va geodeziya fanlari ham rivojlandi. Amir Temur keng hududlarni boshqargani sababli yer o‘lchash, masofalarni aniqlash va xaritalar tuzish zarurati tug‘ildi. Harbiy yurishlar, savdo yo‘llari va diplomatik aloqalar uchun aniq geografik ma’lumotlar talab etildi. Natijada bu sohalarda ham sezilarli yutuqlarga erishildi.

Shuningdek, Amir Temur davrida ilmiy bilimlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham rivojlandi. Bu davrda ilm va hunar uyg‘unlashgan holda taraqqiy etdi. Ustoz-shogird an’analari kuchaydi, bilimlar avloddan-avlodga o‘tkazildi. Madrasalarda diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham o‘qitila boshlandi, bu esa ilmiy tafakkurning kengayishiga olib keldi.

Amir Temur davrida (XIV–XV asrlar) ilm-fan, ayniqsa aniq fanlar juda rivojlangan. Bu davrda astronomiya, matematika va geodeziya sohalarida yirik olimlar yetishib chiqqan. Quyida o‘sha davrning eng mashhur aniq fan olimlari keltiriladi:

★ 1. **Mirzo Ulug‘bek**

Amir Temurning nabirasi, buyuk astronom va matematik.

Samarqandda mashhur rasadxona qurdirgan.

“Zij-i Ulug‘bek” asari orqali yulduzlar katalogini tuzgan.

Uning hisob-kitoblari juda aniq bo‘lib, Yevropada ham uzoq vaqt foydalanilgan.

★ 2. **Qozizoda Rumi**

Ulug‘bekning ustozlaridan biri.

Matematika va astronomiya bo‘yicha yirik olim.

Samarqand rasadxonasida faoliyat yuritgan.

Trigonometriya rivojiga katta hissa qo‘shgan.

★ 3. **G‘iyosiddin Jamshid Koshiy**

O‘z davrining eng buyuk matematiklaridan biri.

π (pi) sonini juda aniq hisoblagan.

“Miftah al-hisob” asari mashhur.

Ulug‘bek rasadxonasida ishlagan.

★ 4. **Ali Qushchi**

Astronom va matematik olim.

Ulug‘bekning shogirdi.

Astronomiya va matematika rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Keyinchalik Istanbulda faoliyat olib borgan.

★ 5. **Muiniddin Koshiy**

Astronomiya va matematikaga oid ishlari bilan tanilgan.

Samarqand ilmiy muhitining vakili.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davrida aniq fanlarning rivojlanishi davlat siyosati, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy yuksalish bilan chambarchas bog‘liq edi. Ilm-fanga berilgan e‘tibor, olimlarning qo‘llab-quvvatlanishi va amaliy ehtiyojlarning ortishi natijasida matematika, astronomiya, geometriya va boshqa aniq fanlar sezilarli darajada taraqqiy etdi. Bu davr keyingi Temuriylar zamonidagi ilmiy yuksalish, xususan, Ulug‘bek davridagi buyuk kashfiyotlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qildi. Temuriylar davrida Samarqand dunyoning yirik ilmiy markazlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, astronomiya va matematika sohalari yuqori darajada rivojlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzo Ulug‘bek merosi va uning ilmiy ahamiyati // Ulugh Beg’s Observatory and Its Scientific Legacy. – London: Academic Press, 2021.

2. G‘iyosiddin Jamshid Koshiyning matematik qarashlari // Astronomy in Central Asia from Ulugh Beg to Modern Times. – New York: Springer, 2022.
3. Ali Qushchi va astronomiya rivoji // Journal of Islamic Science. – 2023. – №2. – B. 45–60.
4. The Scientific Contributions of Mirzo Ulug‘bek // International Journal of Astronomy. – 2020. – Vol. 15. – P. 112–120.
5. Al-Kashi and the Development of Decimal Fractions // Mathematics History Review. – 2021. – Vol. 8. – P. 77–89.
6. O‘zbekiston tarixi (Temuriylar davri). – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
7. Astronomiya tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
8. UNESCO. Ulugh Beg and the Timurid Scientific Renaissance. – 2022.

ZAMONAVIY AXBORIY TELEVIDENIYEDA TELEBOSHLOVCHI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASI VA DASTUR SAMARADORLIGI

Yulduz Zohidova,

**O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)**

Annotatsiya. Ushbu tezisda teleaxborot dasturlari boshlovchilarining kasbiy mahorati, auditoriya bilan muloqot o‘rnatishdagi o‘rni hamda telemuloqot samaradorligini ta‘minlovchi omillar tahlil qilinadi. Teledasturlar faoliyatida boshlovchining roli, uning lisoniy va audiovizual obrazi, ekrandagi xatti-harakati, nutqi va ijrochilik mahorati tomoshabin qabul qilishiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi yoritilgan. Shuningdek, axborot dasturlarida uchrayotgan ayrim kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari haqida xulosalar keltirilgan. Mazkur ishda teleboshlovchi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar, amaliy tavsiyalar va zamonaviy media amaliyotiga mos keluvchi kommunikativ strategiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari axboriy televideniye samaradorligini oshirish, teleboshlovchi instituti rivojini ta‘minlash hamda auditoriya bilan sifatli muloqotni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: teleboshlovchi, telemuloqot, auditoriya, axborot dasturi, kommunikativlik, professionalizm, teleqiyofa, telekommunikator, ekran obrazi.

Televideniye va har bir teledastur – murakkab tizim. O‘zbekiston davlat va nodavlat telekanallarida turli informatsion, ko‘ngilochar va tahliliy ko‘rsatuvlar namoyish etilmoqda. Mazkur dasturlarning auditoriyaga ta‘sir qilish bosqichini to‘g‘ri baholash uchun axboriy televideniening ichki va tashqi jihatlarini o‘rganish davr talabi. Zamonaviy axboriy televidenie informatsiyaning olamshumulligiga katta urg‘u bermokda. Bu informatsiyada yangi tendensiyalarning paydo bo‘lgani, adresant – adresat o‘rtasidagi munosabat va televideniya ish faoliyati tubdan o‘zgargani bilan bog‘liq. Televizion amaliyotda yangilikni shaxsiylashtirish uslubi vujudga keldi, buning samarasi o‘laroq tomoshabinning teleko‘rsatuvlarga munosabati ijobiy tomonga o‘zgardi. Teleboshlovchi keng omma auditoriyasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi shaxs sifatida gavdalanadi, shu sabab uning ma’naviy qadriyatlar va jamiyatda ideallarni shakllantirishdagi vazifasi katta.

Bugungi kunda tomoshabinlar tanlovi turli-tumanligi, auditoriyaning qarashlari va qiziqishlari har xil ekanini ijtimoiy tarmoqlar orqali, xususan tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma orqali bilish mumkin. So‘rovnoma natijalari va kuzatuvlar hamda to‘plangan amaliy tajribalardan kelib chiqish aytish mumkinki, «Axborot 24» dasturi boshlovchilarining ko‘rsatuvni tayyorlash, ish tartibini tuzishda ishtirok etmasligi, podvodkalarini mas‘ul muharrirlarning yozishi, muxbirlar bilan zanjir reaksiyasi asosida ishlash mexanizmining buzilgani teleaxborot

tarqatuvchilarning faoliyatiga, efir olib borish mahoratiga muayyan ma’noda salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. «Yangi davr» dasturida ba’zi boshlovchilarning professionalizm yetishmasligi ko’zga tashlanadi. «Toshkent 24» dasturida esa ekranda bir qolipda turib, yangilik yetkazish, ortiqcha harakat qilmaslik, dolzarb mavzu doirasida suhbatdoshni studiyaga taklif eta olmaslik, kiyinish uslubining bir xilligi, rejissura tomonidan yirik planda ko’rsata olmaslik. «Markaziy studiya» dasturi boshlovchilarida o’tkir va siyosiy mavzularni yoritishda salohiyat, tajriba va professionallik yetishmasligi, sentimentalistik qarashlar mavjudligi, ko’p hollarda ular nutqida tautologiya, g’aliz jumlarlar uchrashi, podvodkalarining tahrir qilinmaganligi kabi holatlar uchraydi. «Zamon» dasturida telekommunikatorlarning podvodkasiga kreativ yondashilsa-da, ba’zi hollarda muxbirning telelavhasidagi gaplarni so’zma-so’z ko’chirib olish va takrorlanishlar uchrashini ta’kidlash joiz. Bundan ko’rinib turibdiki, teleyangiliklar boshlovchilaridan o’z ustida tinimsiz ishlashi, har bir sohadan boxabar bo’lishi, xabar yetkazishning yangi usullarini qo’llashi, o’z imijini yaratishi, xorij tajribasidan unumli foydalanishi talab etilmoqda (Zohidova, 2022).

Har qanday boshlovchining lisoniy audiovizual obrazi uning ekrandagi harakati, o’zini tutish odobi, kiyinish madaniyati, auditoriya bilan muloqot qilish san’ati, yoqimli ovozi va nutqiga qarab belgilanadi. Tomoshabin o’z bilimi, saviyasi, dunyoqarashi, tafakkuri va ijtimoiy mavqeidan kelib chiqqan holda teleqiyofaning ko’rsatuvni olib borish mahoratiga, uning yetkazayotgan xabariga baho beradi, fikr-mulohaza bildiradi. Ekrandagi obrazning madaniyati, aqli, tajribasi, ichki dunyosi boyligi muhim ahamiyat kasb etadi, insoniy kamtarinlik bilan o’z kasbiga, o’z malakasiga, o’ziga bo’lgan ishonchini ko’rsata oladi. Ijodiy guruh bilan yaxshi munosabat o’rnata olgan va odamlar bilan munozara qilish hislatiga ega bo’lgan boshlovchi ko’rsatuvni ham qiziqarli olib borishga, tomoshabinni sodir bo’lgan voqeaga hamnafas qilishga intiladi. Bunday holatda boshlovchi va tomoshabin real «vaqt birligi»da bo’ladi, faqat adresantgina emas, balki adresat ham o’zini voqeaning guvohi bo’lgandek his etadi. Fransuz ruhshunosi Alen Brasser ta’kidlaganidek, «inson yolg’on so’zlashi, istagancha gapirishi mumkin, ammo uning ko’z qarashi va qo’l harakatlari buni fosh qilib qo’yadi, bunday paytda so’zdan ko’ra, bu ishoralar ko’proq narsani anglatadi.» (Казакевич, 2012)

Boshlovchining ijrochilik mahorati orqali xabarni ta’sirchan tarzda yetkazish qobiliyati haqida so’z yuritganda, «jamoaviy axborot spektakli»ni tayyorlash doirasida ekrandagi obrazning o’z «men»ini kiritish mahorati tashqi ko’rinishning asosiy vositasi bo’lgan ko’zlar nigohi va yuzdan to’g’ri foydalana bilishni taqozo etadi. Zero, ekrandagi teleqiyofa xabarlar mohiyatini ifodalovchi o’ziga xos ko’zgu bo’lib xizmat qiladi.

Telekommunikator faoliyatidagi asosiy tamoyillardan yana biri axborotning to’liq va batafsil ifodalanishi, matn tuzish prinsiplariga asoslanishidir. Unga ko’ra matn mazmuni tomoshabinda shubha va savol tug’dirmaydigan darajada mukammal ifodalanilishi lozim. Boshlovchining nutqi fakt va hujjatlilik, aqliy va hissiy tahlil tamoyillariga tayanadi, shuning uchun u o’z muloqot tilini me’yoridan ortiq badiiylashtirishi, ta’sirchan tasviriy ifoda vositalarini keragidan ortiq qo’llashi soxtalikka olib keladi. Eng avvalo, uning auditoriyaga taqdim etayotgan axboroti ishonchli, yetarli faktlarga asoslangan va shaxsiy munosabatdan holi bo’lishi talab etiladi (Смирнова, 2010).

Bugun boshlovchi nafaqat ma’lumot tarqatishda, balki axborotning tomoshabin idrok etishida vositachi vazifasini bajarishi lozim. Xabar yetkazuvchilar boshlovchi hisoblanadi, lekin barcha boshlovchilar xabar yetkazuvchi bo’la olmaydi, ya’ni telesuflyordan matnni shunchaki o’qib berish yoki voqeani xuddi ko’z o’ngida sodir bo’lgandek aytib berish orqali auditoriyani zamon va makonga birlashtirib, studiyadagi axborot manbai saqllovchisi sifatida gavdalanish mumkin. Shu ma’noda boshlovchi tomoshabinning axborotni qanday qabul qilayotganligini

tasavvur qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi juda muhim. Bunda uning boshlovchi-rejissyor nuqtai nazaridan emas, boshlovchi-tomoshabin nuqtai nazaridan kelib chiqib, auditoriya hayotini anglashga qaratilgan yo‘nalishda harakat qilishi maqsadga muvofiq.

So‘nggi paytlarda zamonaviy televideniening tarbiyaviy ahamiyati va efirga uzatilayotgan xabarning mazmun-mohiyati uchun mas’uliyat hissi yo‘qolib borayotgani ko‘p e’tirof etilmoqda. Aslida OAVning bu turi insoniyatning ichki olamiga yanada chuqurroq kirib borishi va uning ruhiyati bilan hisoblashishi kerak. Zamonaviy va kelajakdagi televidenie – bu asosiy rolni jurnalist o‘ynaydigan muallif-shaxsiy televidenie. Bunday TVda aniq va teran muallif pozitsiyasi, takrorlanmas uslub va tahliliy mushohada talab qilinadi. Tomoshabin teleekran orqali boshlovchi bilan tenglashishga harakat qiladi: teleauditoriya telekanalga emas, aynan unga ishonadi. Har bir telekanal yangiliklar dasturini tayyorlash haqida bosh qotiradi, kun davomida teleadresat ushbu dastur orqali asosiy voqealarni biladi. Bunda studiyada faoliyat yurituvchi boshlovchi turli mavzu va telejanrlar o‘rtasidagi o‘tish ko‘prigi vazifasini bajaradi, lavha va reportajlarga mohirona navbat beradi, o‘z qarashlarini ifodalaydi, tomoshabin bilan telemuloqot o‘rnatish orqali e’tibor markazida bo‘ladi.

Muhim siyosiy, ijtimoiy muammolarga bag‘ishlangan va to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatiladigan dasturning jamiyatga qay darajada ta’sir ko‘rsatishi barchaga ma’lum. So‘nggi yillarda telekanal rahbariyati tomonidan jonli efirning o‘rnini bosadigan ma’lum tendensiyalar qo‘llanilmoqda. Ko‘pgina empirik manbalarni o‘rganib, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, ekran muloqoti samaradorligini oshirish uchun boshlovchi kommunikativ to‘siqlarni bartaraf etishi, ma’lumot yetkazishning usullarini ishlab chiqishi, muloqot texnikasini bilishi, auditoriyaning qiziqishlarini o‘rganishi, matn sifatini oshirishi lozim. Afsuski, ba’zi axborot dasturlarida boshlovchilarning podvodkasini muharrirlar gazeta uslubida yozib beradi, ayrim kommunikatorlar esa dunyo sahnida, qo‘yingki, mamlakatimizda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar, islohotlarning mohiyatini tushunmagan holda ko‘r-ko‘rona quruq matnni o‘qib beradi.

Tahlilga tortilgan empirik materiallar asosida telemuloqot samaradorligiga erishishning usullari aniqlandi:

- teleboshlovchining ko‘rsatuvga to‘g‘ri tanlanishi;
- axborot dasturini haftaning ma’lum kunlariga bo‘lib, aniq bir boshlovchi nomi bilan bog‘lash;
- teleadresantning professionalizm, kommunikativlik, kreativlik, tashabbuskorlik, ichki tuyg‘uni rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvchanlik, mas’uliyat kabi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi;
- boshlovchining jonli efirda ishlashi;
- teleqiyofaning dastur so‘ngida auditoriyaning kayfiyatini ko‘taruvchi lavhaga navbat berishi;
- telekommunikatorning xayrlashuvdagi so‘zlari.

Informatsion dastur boshlovchilarining ayrimlarida bazaviy jurnalistik bilim(matn bilan ishlash mahorati, qiziqarli mavzularni topish va ularni auditoriya ehtiyojlariga moslashtirish hamda muloqot qilish mahorati) va kasbiy kompetensiyalar yetishmaydi. Bunga oliy ma’lumotga ega bo‘lmaganlarga efir olib borish imkoniyati berilayotgani, ularning soha sirlari va kasb etikasini yaxshi bilmasligi bilan bog‘liq. Shuning uchun informatsion dasturni yanada jonlantirish maqsadida boshlovchi faoliyati rivojiga xizmat qiladigan quyidagi taklif va tavsiyalarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

- informatsion dasturlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot sifatini oshirish va buning uchun boshlovchilarning kasbiy mahoratini kuchaytirish;
- televizion axborot ko‘rsatuvlarini efirga uzatish uchun har bir jihatga katta e‘tibor qaratish;
- kommunikatorning jonli muloqotda fikrni aniq ifodalay olishi;
- boshlovchi tadqiqotchilar va raqobatchilarning tajribasidan unumli foydalanishi va uni ish faoliyatiga tadbiq etishi;
- professional darajada tayyorlangan axborot dasturi auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish vositasi yordamida odamlar hayotiga farovonlik baxsh etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Zohidova, Yu. 2021. Televidenie va shaxs: teleyangiliklarda boshlovchining o‘rni (ijtimoiy vaziyat, jurnalist pozitsiyasi va mahorat masalalari). — T.: «Mumtoz so‘z». — B. 41.

Казакевич, А. 2012. Самоучитель мудрости. Учебник для тех, кто любит учиться, но не любит, когда его учат. — М.: Центрполиграф. — Б. 56.

Смирнова, И. 2010. Коммуникативная компетентность телеведущего: критерии эффективности речевого поведения: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — М. — Б. 19.

Muallif haqida:

ZOHIDOVA Yulduz — filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti «Xalqaro va audiovizual jurnalistika» kafedrası dotsenti, yulduz.zohidova83@mail.ru

COMMUNICATIVE SKILLS OF NEWS PROGRAM ANCHORS ON TELEVISION AND FACTORS INFLUENCING THE AUDIENCE

Abstract. This thesis analyzes the professional skills of television news program anchors, their role in establishing communication with the audience, and the factors that ensure the effectiveness of televised communication. The study highlights the role of the anchor in television programs, as well as how their linguistic and audiovisual image, on-screen behavior, speech, and performance skills influence audience perception. In addition, the paper discusses certain shortcomings observed in news programs and provides conclusions on ways to eliminate them.

Keywords: TV Anchor, telecommunication, audience, news program, communicativeness, professionalism, TV image, screen image.

About the Author:

ZOHIDOVA Yulduz — PhD in Philological Sciences, head department of International and Audiovisual Journalism» of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, yulduz.zohidova83@mail.ru

TALABALARNING INNOVATSION FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Sariboyev Nurali Abdunazarovich,
GulDPI o‘qituvchis
E-mail : sariboyevnurali5@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada talabalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, ularning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, innovatsion fikrlash tushunchasi, uning tarkibiy komponentlari hamda uni shakllantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kreativ yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari va ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion fikrlash, pedagogik texnologiya, kreativlik, interfaol metodlar, ta’lim jarayoni, kompetensiya, AKT, muammoli ta’lim, loyiha metodi

Аннотация: В данной научной статье рассматривается важность современных педагогических технологий в развитии инновационного мышления учащихся, его теоретических и практических основ. Также анализируется концепция инновационного мышления, его структурные компоненты, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии и творческие подходы, способствующие его формированию. По результатам исследования, интеграция современных педагогических технологий в образовательный процесс способствует повышению самостоятельности мышления учащихся, навыков решения проблем и творческого потенциала.

Ключевые слова: инновационное мышление, педагогические технологии, креативность, интерактивные методы, образовательный процесс, компетентность, ИКТ, проблемно-ориентированное обучение, проектный метод

Abstract: This scientific article discusses the importance of modern pedagogical technologies in the development of students' innovative thinking, their theoretical and practical foundations. Also, the concept of innovative thinking, its structural components, and interactive methods, information and communication technologies, and creative approaches that serve to form it are analyzed. According to the results of the study, the integration of modern pedagogical technologies into the educational process serves to increase students' independent thinking, problem-solving skills, and creative potential.

Keywords: innovative thinking, pedagogical technology, creativity, interactive methods, educational process, competence, ICT, problem-based learning, project method

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan asosiy talab – bu raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan va innovatsion yondashuvga ega mutaxassislarni tayyorlashdir. Shu nuqtai nazardan, talabalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish oliy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion fikrlash – bu yangi g‘oyalarni ilgari surish, muammolarni noodatiy usullar bilan hal qilish va mavjud bilimlarni yangi sharoitlarda qo‘llay olish qobiliyatidir. Bu jarayon esa bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning faolligini oshirish va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va muammoli ta’lim usullari innovatsion fikrlashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion fikrlash va pedagogik texnologiyalar muammosi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Pedagogik texnologiyalar nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lgan V.P.Bespalko ta‘lim jarayonini texnologiyalashtirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, pedagogik texnologiya – bu aniq natijaga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Shuningdek, M.V.Klarin interfaol metodlarning ta‘lim samaradorligini oshirishdagi rolini asoslab bergan. U ta‘lim jarayonida talabalarni faol subyektga aylantirish zarurligini ta‘kidlaydi.

Xorijiy tadqiqotchilar, jumladan J.Guilford va E.Torrance kreativ fikrlashni innovatsion faoliyatning asosi sifatida ko‘rsatadi. Ularning tadqiqotlarida divergent fikrlash, ya‘ni turli xil yechimlarni topish qobiliyati muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekistonlik olimlardan N.Muslimov, B.Farberman va boshqalar pedagogik texnologiyalarni milliy ta‘lim tizimiga moslashtirish va ularni amaliyotga joriy etish masalalarini o‘rganganlar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion fikrlashni rivojlantirish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalishda kompleks yondashuv zarur.

Talabalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (interfaol usullar, loyihaviy ta‘lim, raqamli vositalar) ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirib, o‘quv jarayonini faollashtiradi. Ular talabalarni muammolarni mustaqil hal qilishga, kreativ yondashuvga va tahliliy ko‘nikmalarni oshirishga o‘rgatadi.

Asosiy jihatleri:

Interfaol usullar (keys-stadi, breynstorming): Talabalarni faol ishtirokchiga aylantirib, ijodiy va notiqlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Loyihaviy o‘qitish: Talabalarning analitik va konstruktorlik fikrlash qobiliyatlarini oshirishga, real loyihalarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Raqamli texnologiyalar: Axborotni tahlil qilish, tezkor ma‘lumot qidirish va yangi g‘oyalarni raqamli muhitda modellashtirish imkonini beradi.

Innovatsion yondashuv: Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirib, talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qituvchini bilim beruvchidan ko‘ra, yo‘naltiruvchi (fasilitator) rolini o‘ynashga o‘tkazib, talabaning mustaqil innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Innovatsion fikrlashning tarkibiy komponentlari, jumladan, talabalarda innovatsion fikrlash quyidagi komponentlar orqali shakllanadi:

- Kreativ fikrlash – yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
- Tanqidiy fikrlash – axborotni tahlil qilish va baholash;
- Muammoli fikrlash – murakkab vaziyatlarga yechim topish;

- Refleksiv fikrlash – o‘z faoliyatini baholash.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari

1. Interfaol metodlar. “Beyin shturmi”, “Klaster”, “Debat”, “Case-study” kabi metodlar talabalarning fikrlash faolligini oshiradi. Bu metodlar orqali talabalar muammolarni jamoaviy muhokama qilish va innovatsion yechimlar topishga o‘rganadilar.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). Multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, onlayn platformalar ta’lim jarayonini vizuallashtirish va interaktiv qilish imkonini beradi. Bu esa talabalarning qiziqishini oshiradi va mustaqil o‘rganishga undaydi.

3. Muammoli ta’lim texnologiyasi. Muammoli vaziyatlarni yaratish orqali talabalar mustaqil fikrlashga majbur bo‘ladilar. Bu esa ularning innovatsion yondashuvini rivojlantiradi.

4. Loyiha metodi. Talabalar real hayotiy muammolar asosida loyihalar ishlab chiqadilar. Bu jarayon ularda ijodkorlik, hamkorlik va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

5. STEAM yondashuvi. Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi orqali kompleks fikrlash rivojlanadi.

Tajriba natijalari (nazariy asoslangan)

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

- Interfaol metodlar qo‘llanilganda talabalarning darsdagi faolligi 30–40% ga oshadi;
- AKT vositalaridan foydalanish bilimni o‘zlashtirish darajasini 25–35% ga yaxshilaydi;
- Loyiha asosida o‘qitish talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Natijada talabalarda quyidagi o‘zgarishlar kuzatiladi:

- yangicha fikrlash qobiliyati shakllanadi;
- muammolarga kreativ yondashuv paydo bo‘ladi;
- innovatsion g‘oyalar ishlab chiqish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ularni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish quyidagi natijalarga olib keladi:

- talabalar faolligi oshadi
- mustaqil va tanqidiy fikrlash rivojlanadi
- kreativ yondashuv shakllanadi
- innovatsion kompetensiyalar rivojlanadi

Shu bois, oliy ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarni keng qo‘llash, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish va innovatsion ta’lim muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bespalko V.P. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi. – Moskva, 1995.
2. Klarin M.V. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Moskva, 2000.
3. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York, 1967.
4. Torrance E.P. Creativity in Education. – USA, 1970.
5. Muslimov N.A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2015.
6. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2012.
7. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2010.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.

ZAMONAVIY OILALAR VA UNDAGI MUAMMOLAR

Nurilloeva Gulchiroy Habibjon qizi

Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 4-kurs talabasi

+998978722791

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy oilalarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, oilaviy munosabatlarning bugungi davrdagi o‘zgarishlari hamda oilalarda uchrayotgan muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy jamiyat sharoitida oilaviy munosabatlarga ta’sir qiluvchi iqtisodiy, psixologik va ijtimoiy omillar o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, oilalarda yuzaga kelayotgan muammolar ko‘pincha muloqot yetishmovchiligi, iqtisodiy bosim, raqamli texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish va tarbiyaviy kamchiliklar bilan bog‘liq. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ham beriladi.

Kalit so‘zlar: oila, zamonaviy oila, oilaviy munosabatlar, oila muammolari, ijtimoiy muhit, tarbiya, psixologik muhit, raqamli texnologiyalar.

Abstract

This article analyzes the role of modern families in social life, the changes in family relationships in the present era, and the problems observed within families. During the research process, economic, psychological, and social factors influencing family relationships in the context of modern society were studied. The results show that the problems arising in families are often associated with a lack of communication, economic pressure, improper use of digital technologies, and shortcomings in upbringing. The article also provides scientifically grounded recommendations for addressing these issues.

Keywords: family, modern family, family relationships, family problems, social environment, upbringing, psychological environment, digital technologies.

Аннотация

В данной статье анализируется роль современных семей в социальной жизни, изменения семейных отношений в настоящее время, а также проблемы, возникающие в

семьях. В ходе исследования были изучены экономические, психологические и социальные факторы, влияющие на семейные отношения в условиях современного общества. Результаты показывают, что проблемы в семьях чаще всего связаны с недостатком общения, экономическим давлением, неправильным использованием цифровых технологий и недостатками в воспитании. В статье также представлены научно обоснованные рекомендации по устранению данных проблем.

Ключевые слова: семья, современная семья, семейные отношения, проблемы семьи, социальная среда, воспитание, психологическая среда, цифровые технологии.

Kirish. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. Inson shaxs sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi va axloqiy qadriyatlarni egallashi avvalo oilada boshlanadi. Shu sababli har bir jamiyat rivojida oilaning barqarorligi va mustahkamligi muhim omil sifatida qaraladi. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, globallashuv hamda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonlarning turmush tarziga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlar oilaviy munosabatlarda ham yangi o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Oila a’zolarining ijtimoiy rollari, kundalik faoliyati va qadriyatlari zamonaviy sharoitga mos ravishda yangilanib bormoqda. Shu bilan birga, zamonaviy oilalarda turli muammolar ham yuzaga kelmoqda. Ular orasida iqtisodiy qiyinchiliklar, muloqot yetishmovchiligi, tarbiya bilan bog‘liq muammolar hamda raqamli texnologiyalar ta’siri alohida o‘rin tutadi. Ushbu muammolar nafaqat oilaning ichki muhitiga, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Olimlarning fikriga ko‘ra, oiladagi sog‘lom psixologik muhit insonning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli zamonaviy oilalarda yuzaga kelayotgan muammolarni ilmiy jihatdan o‘rganish va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biridir. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy oilalarda uchraydigan muammolarni tahlil qilish hamda ularning ijtimoiy-psixologik sabablarini aniqlashdan iborat. Zamonaviy jamiyat sharoitida oilaning tuzilmasi va ichki munosabatlari sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Avvallari keng tarqalgan ko‘p avlodli oilalar o‘rnini asosan yadroviy oilalar egallamoqda. Bu jarayon urbanizatsiya, migratsiya va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yadroviy oilalarda ota-ona va bolalar o‘rtasidagi muloqot intensivligi ortgan bo‘lsa-da, katta avlodning tarbiyaviy ta’siri nisbatan kamayib bormoqda. Zamonaviy oilalarda ijtimoiy rollar taqsimoti ham sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Ayollarning ta’lim olishi va mehnat bozorida faolligi ortishi oilaviy munosabatlarda tenglik tamoyillarini kuchaytirdi. Natijada, ota-ona rollarining an’anaviy chegaralari qayta ko‘rib chiqilmoqda. Bu holat ijobiy jihatlari bilan birga, oilaviy mas’uliyatning noto‘g‘ri taqsimlanishi yoki rollar chalkashuvi kabi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayrim hollarda bu holat oilaviy nizolar va psixologik zo‘riqishga sabab bo‘lmoqda.

Ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlar oilaviy muloqotda ham namoyon bo‘lmoqda. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi oila a’zolari o‘rtasidagi bevosita muloqotning qisqarishiga olib kelmoqda. Virtual muloqot real muloqotni to‘liq almashtira olmagan sababli, emotsional yaqinlikning susayishi, begonalashuv va tushunmovchiliklar kuchaymoqda. Ayniqsa, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi muloqotda bu holat tarbiyaviy qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy oilalarda stress va psixologik bosim darajasi ham oshib bormoqda. Iqtisodiy beqarorlik, ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, tezkor hayot sur’ati oilaviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu omillar oilaviy konfliktlarning ko‘payishiga, emotsional charchash va ruhiy tushkunlik holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro tushunish va qo‘llab-quvvatlash

zarurati yanada ortadi. Metodologiya. Mazkur tadqiqotda zamonaviy oilalarda uchraydigan muammolarni o‘rganish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi.

Birinchidan, oila psixologiyasi va pedagogikasi sohasidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu metod zamonaviy oilalar bilan bog‘liq nazariy qarashlarni o‘rganishga yordam berdi

Ikkinchidan, taqqoslash metodi qo‘llanildi. Bu metod yordamida an‘anaviy oilalar bilan zamonaviy oilalarning xususiyatlari taqqoslab tahlil qilindi.

Uchinchidan, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali oilaviy munosabatlarda uchraydigan muammolar tizimli ravishda o‘rganildi. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida oilaviy munosabatlarga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanib, ularning tahlili amalga oshirildi.

Oila hayoti davomida har xil muammolar paydo bo‘lishi tabiiy hol. Ammo muammolarning ildizi, ularning sabablari to‘g‘ri anglanmasa, ular inqirozga aylanadi. Bugungi kunda oilalarda uchrayotgan asosiy muammolar quyidagilar:

1. Iqtisodiy muammolar —ish o‘rinlarining yetishmasligi, kam daromad, kredit va qarzдорlik, yashash sharoitining og‘irligi. 2. Ma’naviy muammolar —oila a’zolari o‘rtasida mehr-oqibatning kamayishi, hurmatning yo‘qolishi, diniy va axloqiy qadriyatlarning susayishi. 3. Psixologik muammolar —stress, tushkunlik, muloqot yetishmasligi, oilaviy roldan norozilik. 4. Tarbiyaviy muammolar —farzandlar tarbiyasiga befarqlik, ota-onaning o‘zaro ziddiyatlari tufayli bola ruhiyatiga salbiy ta’sir. 5. Ijtimoiy muammolar —migratsiya, ota-onaning uzoq vaqt ajralib yashashi, oilaviy nazoratning susayishi

Natijalar. Tadqiqot natijalari zamonaviy oilalarda quyidagi muammolar ko‘proq uchrashini ko‘rsatdi. Iqtisodiy muammolar Oila barqarorligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri iqtisodiy sharoitdir. Daromadning yetarli emasligi yoki moddiy qiyinchiliklar oilada stress holatini kuchaytiradi. Natijada oila a’zolari o‘rtasida kelishmovchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Muloqot yetishmovchiligi Ko‘plab zamonaviy oilalarda oila a’zolari o‘rtasida samarali muloqot yetarli darajada shakllanmagan. Ish bilan bandlik, vaqt yetishmasligi yoki turli shaxsiy qiziqishlar oila a’zolarining bir-biriga e’tiborini kamaytiradi. Raqamli texnologiyalar ta’siri Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi oilaviy munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Oila a’zolarining virtual muhitga haddan tashqari berilib ketishi real muloqotning kamayishiga olib keladi. Tarbiya bilan bog‘liq muammolar. Zamonaviy sharoitda ota-onalarning ish bilan bandligi sababli farzand tarbiyasiga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi kuzatiladi. Bu holat bolalarda psixologik muammolar yoki xulq-atvordagi og‘ishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Muhokama. Olib borilgan tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy oilalarda yuzaga kelayotgan muammolar ko‘p jihatdan ijtimoiy va psixologik omillarning o‘zaro ta’siri bilan izohlanadi. Ayniqsa, iqtisodiy beqarorlik oilaviy muhitga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Moliyaviy yetishmovchilik oila a’zolarida doimiy xavotir, ruhiy zo‘riqish va stress holatlarini yuzaga keltirib, bu esa o‘z navbatida o‘zaro munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo‘ladi. Natijada turmush o‘rtoqlar o‘rtasida kelishmovchiliklar kuchayib, oilaviy nizolar yuzaga kelish ehtimoli ortadi.

Shu bilan birga, zamonaviy oilalarda muloqot madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi ham muhim muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Oila a’zolarining bir-birini tinglamasligi, o‘z fikrini ochiq ifoda eta olmasligi yoki hissiy ehtiyojlarning e’tibordan chetda qolishi o‘zaro tushunmovchiliklarni chuqurlashtiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali kommunikatsiya mavjud bo‘lmagan oilalarda nizolar tez-tez yuzaga keladi va ularni konstruktiv tarzda hal qilish qiyinlashadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi zamonaviy oilaviy munosabatlarga yangi omillarni olib kirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan me’yoridan ortiq foydalanish oila a’zolari o‘rtasidagi bevosita muloqotni qisqartiradi, hissiy yaqinlikni susaytiradi hamda oilaviy birdamlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim hollarda virtual muhitga haddan tashqari berilish real ijtimoiy aloqalarning zaiflashuviga olib keladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy oilalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, ishonch va ochiq muloqot tamoyillarini rivojlantirish zarur. Shuningdek, hissiy qo‘llab-quvvatlash, empatiya va bir-birini tushunishga intilish oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Faqatgina shunday yondashuv orqali oilaviy nizolarni kamaytirish va barqaror ijtimoiy muhitni ta’minlash mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyat taraqqiyotida oila ijtimoiy tizimning eng muhim va ajralmas bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi. Oila nafaqat demografik jarayonlarni ta’minlovchi, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarining shakllanishi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim institut hisoblanadi. Ayniqsa, oiladagi sog‘lom psixologik muhit farzandlarning barkamol, ijtimoiy faol va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy oilalarda yuzaga kelayotgan muammolar ko‘p qirrali bo‘lib, ular asosan iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Iqtisodiy beqarorlik, ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar, shuningdek, shaxslararo munosabatlardagi muvozanatning buzilishi oilaviy nizolarning kuchayishiga olib keladi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi ham oilaviy munosabatlarning mazmuniga yangi ta’sir ko‘rsatib, ayrim hollarda bevosita muloqotning qisqarishiga sabab bo‘lmoqda.

Mazkur muammolarni samarali bartaraf etish uchun oilaviy munosabatlarda tizimli yondashuvni qo‘llash zarur. Xususan, oila a’zolari o‘rtasida ochiq va konstruktiv muloqotni rivojlantirish, o‘zaro hurmat va ishonch tamoyillarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, farzand tarbiyasiga ongli va mas’uliyatli yondashish, ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish zarur. Raqamli texnologiyalardan foydalanishda esa me’yorni saqlash, virtual va real hayot o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday qilib, mustahkam va sog‘lom oila jamiyatning barqaror rivojlanishida asosiy tayanch omil bo‘lib xizmat qiladi. Oila institutining mustahkamlanishi nafaqat ijtimoiy muammolarning kamayishiga, balki kelajak avlodning har tomonlama barkamol, ijtimoiy mas’uliyatli va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Musurmonova O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Abdullaeva Sh. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent, 2018.

4. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton, 1968.
5. UNICEF. Family and Parenting Support Programs Report. – New York, 2021.
6. WHO (World Health Organization). Family, Parenting and Child Development Guidelines. – Geneva, 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent, 2023. Giddens A. Sociology. – Cambridge University Press, 2017.
8. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Harvard University Press.
9. https://scholar.google.com/scholar?q=related:zJZnxi1-WZYJ:scholar.google.com/&scioq=Zamonaviy+oilalar+va+undagi+muammolar+&hl=ru&as_sd t=0,5
10. Safiya U., Vazira I. OILADAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI //Modern education and development. – 2025. – T. 38. – №. 4. – C. 328-332.

TABIY TOLALARINI DASTLABGI ISHLASHDA CHIGITLI PAXTANI MAYDA IFLOSLIKlardan TOZALASH TEXNOLOGIYASINING ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

BAXTIYOROVA O‘G‘ILOY ANVARJON QIZI

Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy boyligimiz chigitli paxtani qayta ishlash jarayonida yirik va mayda iflosliklardan tozalashda turli muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni yechimini toppish maqsadida chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasi boshqa modellarga nisbatan yetarli darajada samaradorliroq ekanligi tahlil qilish natijasida aniqlandi.

Аннотация. В данной статье наше национальное богатство сталкивается с различными проблемами переработки хлопка-сырца от крупных и мелких примесей. Чтобы найти решение этих проблем, в результате анализа было установлено, что машина для очистки семенного хлопка от мелких примесей более эффективна, чем другие модели.

Annotation. In this article, our national wealth is faced with various problems in the processing of seed cotton from large and small impurities. In order to find a solution to these problems, it was determined as a result of the analysis that the machine for cleaning seed cotton from small impurities is more efficient than other models.

Kalit so‘zlar. arrali baraban, kolosnikli panjara, to‘rli yuza, ta‘minlovchi valik, cho‘tkali baraban, ifloslik bunker.

Ключевые слова. Пильный барабан, колосниковая решетка, сетчатая поверхность, подающий ролик, щеточный барабан, грязевой бункер.

Keywords. saw drum, colosnik grid, mesh surface, supply roller, brush drum, dirt hopper.

Kirish. Respublikamizda yetishtirilayotgan asosiy paxta xom ashyosini miqdori yuqori navlarga to‘g‘ri kelishini inobatga olsak, va ularda 8-9 % namlik mavjud bo‘lib, ularni quritishda sovuq havodan foydalanib quritiladi yoki umuman quritish barabanlaridan o‘tkazilmaydi. Namlik 9-10 % bo‘lganda esa, 1-2% namlikni qochirish uchun quritish barabanlarida paxta xom ashyosini qayta ishlanadi. Bu uslub bilan paxta quritilganda ko‘p sarf harajat talab qiladi. Hozirgi kunda ishlab chiqarishga qo‘yilayotgan talablarga bu uslubda paxtani quritish javob bermaydi. Shuning uchun bunday namlikdagi paxta xom ashyosini boshqa uslublarda quritish jarayonini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.


Paxta tozalash korxonasining ish unumdorligi va samaradorligini oshishi, pasayishi chigitli paxtani quritish tozalash, texnologik jarayonlariga bog‘liq. Hozirgi kunda paxta navlarini turlarini ko‘payishi va qiyin tozalanuvchi deb ataluvchi aloxida navlarini kelib chiqishi sababli chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash texnologiyasi va texnikasini takomillashtirishni talab etmoqda.

Hozirgi kunda paxta tozalash koxonalarining tozalash bo‘limlarida 1XK va 6A-12M rusumli paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunalaridan keng foydalanilmoqda. 1XK uskunasi boshqa uskunalaridan afzallik tomoni ish unumdorligi va tozalash samaradorligining yuqoriligidir. Shuningdek 1XK rusumli uskunaga xizmat ko‘rsatish va uni qayta ta‘mirlash birmuncha oson.

Respublikamizda yetishtirilayotgan asosiy paxta xom ashyosini miqdori yuqori navlarga to‘g‘ri kelishini inobatga olsak, va ularda 8-9 % namlik mavjud bo‘lib, ularni quritishda sovuq havodan foydalanib quritiladi yoki umuman quritish barabanlaridan o‘tkazilmaydi. Namlik 9-10 % bo‘lganda esa, 1-2% namlikni qochirish uchun quritish barabanlarida paxta xom ashyosini qayta ishlanadi. Bu uslub bilan paxta quritilganda ko‘p sarf harajat talab qiladi. Hozirgi kunda ishlab chiqarishga qo‘yilayotgan talablarga bu uslubda paxtani quritish javob bermaydi. Shuning uchun bunday namlikdagi paxta xom ashyosini boshqa uslublarda quritish jarayonini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Chigitli paxta xom ashyosini mayda iflosliklardan tozalash uskunasi quritish jarayonini amalga oshirish asosida 1XK tozalash uskunasi takomillashtirish maqsad qilindi.

1XK rusumli mayda iflosliklardan tozalash uskunasi ishlayotgan jarayonni quyidagicha: Chigitli paxta ta’minlash valiklari ustiga o’rnatilgan shaxtaga tushiriladi. Bir-biriga qarshi aylanuvchi ta’minlash valiklari chigitli paxtani qoziqchali barabanga bir tekis o’zatadi. Qoziqchali baraban soat strelkasi bo’yicha aylanib o’z navbatida chigitli paxtani titkilab turli sirt ustidan olib o’tadi va ikkinchi barabanga uzatadi. Shu tartibda chigitli paxta hamma barabanlarda tozalanib mayda iflosliklardan ajratiladi. Ajratilgan iflosliklar barabanlar tagidagi turli sirt teshiklari orqali ifloslik bunkerlarining qiya devorlari buylab pastga tushadi va pnevmatransport bilan so’rib olinadi. Tozalangan chigitli paxta esa uskunadan chiqarilib keyingi texnologik jarayonga uzatiladi.



1-rasm. 1XK rusumli mayda iflosliklardan tozalash uskunasi sxemasi


1-taominlash valiklari; 2-qoziqchali-parrakli barabanlar;
(yuza); 4-ifloslik bunkerlari; 5-nov.

3-to’rli sirt

Qoziqchali barabanlarga (2) paxta tushadi va qoziqchalar bilan titilib, to’rli yuzaga (3) uriladi.

Natijada chigitli paxta silkitilib, mayda iflosliklardan tozalanadi. To’rli yuza orqali ajralib chiqqan iflosliklar bunkerlarga (4) tushib, yig’uvchi shnek yordamida tashqariga chiqarib ketadi.


1-XK rusumli mayda iflosliklardan tozalash mashinasini texnologik jarayonlar takomillashtirish maqsadida ishlab chiqarish sharoitida ilmiy tadqiqot ishlari o’tkazildi va tahlil qilindi. Natijalar shuni ko’rsatdiki birinchi qoziqli barabandan hosil bo’lgan havo oqimi tarkibida mayda iflosliklar (tuproq va g’o’za bargining zarachalari) havo bilan aralashib keyingi bo’limlarga o’tishi va yana paxtaga tushishi aniqlandi. Shu muamolarni o’rganish maqsadida birinchi qoziqli baraban tepa qismiga barabanda aylanishda hosil bo’lgan xavoni so’rib oluvchi moslama tayyorlandi va tajriba sinovlari o’tkazildi.



2-rasm. Taklif etilayotgan quritish tozalash jarayonlari mavjud bo‘lgan 1XK uskunasi-ning ko‘ngdalang qirqim sxemasi

1-ta’minlovchi valiklar, 2-issiq havo berish quvuri, 3-qoziqchali baraban, 4-to‘rli yuza, 5-ifloslik bunkeri, 6-tuynuk, 7-chiqish bo‘g‘zi.

Chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunasi-ning qoziqchali barabanlari ustidan issiq havo berish orqali namligi past bo‘lgan (8-9%) paxtani quritishni taklif qilindi.



3-rasm. 1XK tozalash uskunasi-ga issiqlik berish quvuri sxemasi.

XULOSA

1-XK rusumli mayda iflosliklardan tozalash mashinasini texnologik jarayonlar takomillashtirish maqsadida ishlab chiqarish sharoitida ilmiy tadqiqot ishlari o‘tkazildi va tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki birinchi qoziqli barabandan hosil bo‘lgan havo oqimi tarkibida mayda iflosliklar (tuproq va g‘o‘za bargining zarachalari) havo bilan aralashib keyingi bo‘limlarga o‘tishi va yana paxtaga tushishi aniqlandi. Shu muamolarni o‘rganish maqsadida birinchi qoziqli

baraban tepa qismiga barabanda aylanishda hosil bo‘lgan xavoni so‘rib oluvchi moslama tayyorlandi va tajriba sinovlari o‘tkazildi.

Adabiyotlar:

1. F.B.Omonovning umumiy taxriri ostida tayyorlangan. “Paxtani dastlabki ishlash” bo‘yicha spravochnik(ma’lumotnoma). Toshkent - “Voriz” - 2008 y.
2. Y.Z.Zikriyoyev “Paxtani dastlabki qayta ishlash” o‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Mehnat” 2002 y.satdi
3. Балтабаев С.Д., Парпиев А.П. “Сушка хлопка-сырца”. Учебник. Ташкент. “Ўқитувчи”, 1980г.

SARJA O‘RILISHI XOSSALARINI O‘RGANISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Valiyev Nodirbek G‘ulomjon o‘g‘li, t.f.f.d. (PhD)

Farg‘ona davlat texnika universiteti, nodirbekvaliyev@mail.ru

Abduxalloqova Nozima Murodjon qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti, talaba, xolmatovanozima91@gmail.com

Abstract: Ushbu maqolada sarja o‘rilishining strukturaviy xususiyatlari, fizik-mexanik ko‘rsatkichlari va sanoatdagi qo‘llanilish yo‘nalishlari bilan bir qatorda, uning xossalarini o‘rganishda uchraydigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Xususan, ip tekisligini baholash, diagonal yo‘nalishni aniqlash, iplararo bo‘shliqlarni obyektiv o‘lchash, laboratoriya va ishlab chiqarish natijalari o‘rtasidagi farqlar hamda ularning mahsulot sifati bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy o‘lchash uskunolari, raqamli tasvir tahlili va 3D modellashtirish asosida ushbu muammolarni kamaytirishning samarali yo‘llari taklif etiladi. Qo‘shimcha ravishda ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri ko‘rsatib beriladi.

Keywords: sarja o‘rilishi, diagonal yo‘nalish, gazlama, fizik-mexanik xossalar, raqamli tahlil, texnik tekstil.

Jahon to‘qimachilik sanoatida gazlamaning o‘rilish turi uning mustahkamligi, egiluvchanligi, havo o‘tkazuvchanligi, estetik ko‘rinishi va ekspluatatsion xizmat muddatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan sarja o‘rilishi amaliy va nazariy jihatdan alohida ahamiyatga ega. U gazlama sirtida uzluksiz diagonal chiziqlar hosil qilishi, iplararo kuchlanishni nisbatan teng taqsimlashi va materialga elastikroq xarakter berishi bilan ajralib turadi. Natijada sarja o‘rilishli gazlamalar kundalik kiyim-kechakdan tortib maxsus himoya va texnik materiallarga bo‘lgan keng sohada qo‘llaniladi.

Sarja o‘rilishida iplarning o‘zaro kesishish tartibi ma’lum bir rapport asosida takrorlanadi. Odatda u a/b ko‘rinishida ifodalanib, masalan 2/1 yoki 3/1 sarja shakllari eng ko‘p uchraydi. 3/1 sarjada asos ipi uch arqoq ustidan va bir arqoq ostidan o‘tadi. Har bir keyingi qatorda iplarning siljishi diagonal effektning uzluksiz hosil bo‘lishiga olib keladi. Aynan shu strukturaviy tuzilish tufayli tekis o‘rilishga nisbatan kesishish nuqtalari kamayadi, iplarning erkinroq egilishi ta’minlanadi va gazlamaning sirt ko‘rinishi silliqroq bo‘ladi. Bu esa kiyimbop matolarda qulaylik, texnik matolarda esa ishqalanishga chidamlilikni oshiradi.

Sarja o‘rilishli materiallarning fizik-mexanik xossalari asosan ishlatilayotgan tolalarning turi, ipning buram darajasi, asos va arqoq zichligi hamda pardoqlash usullariga bog‘liq. Paxta asosidagi sarja matolar gigroskopikligi va gigiyenik qulayligi bilan ajralib tursa, polyester yoki aralash tolali variantlar burishishga kamroq moyilligi va shakl barqarorligi bilan afzallik beradi. Himoya kiyimlari uchun ishlab chiqariladigan aramidli sarja matolarda esa issiqqa chidamlilik va mexanik zarbaga qarshilik birinchi o‘ringa chiqadi. Shu sababli sarja o‘rilishini baholashda faqat o‘rilish sxemasini emas, balki xomashyo va texnologik ishlov omillarini ham birgalikda tahlil qilish talab etiladi.

Sarja o‘rilishning amaliy ustunliklari ko‘p. Denim, gabardin, diagonal, paltobop va ish kiyimlari uchun mo‘ljallangan ko‘plab matolar aynan shu o‘rilish asosida ishlab chiqariladi. Bunday gazlamalarda deformatsiyaga qarshilik nisbatan yuqori bo‘ladi, tikuvchanlik yaxshilanadi

va shaklni ushlab turish qobiliyati kuchayadi. Oqartirish, bo‘yash va pardozlash jarayonlarida ham sarja o‘rilishli matolar texnologik jihatdan qulay hisoblanadi. Ayniqsa, asos va arqoq ranglari farq qiladigan denim matolarda diagonal tuzilma vizual effektini yanada aniq namoyon etadi. Aramid, meta-aramid yoki karbon tolalari bilan ishlab chiqarilgan sarja o‘rilishli texnik matolar esa issiqqa chidamlilik, mexanik zarbaga bardoshlilik va filtrlash samaradorligi kabi xususiyatlari bilan ahamiyatlidir.

Biroq sarja o‘rilishi xossalarini o‘rganishda bir qator muammolar mavjud. Birinchi muammo ipning tekisligi va tarangligiga oid ko‘rsatkichlarni yetarli aniqlikda baholash bilan bog‘liq. Agar ipda ingichka-qalin joylar, tugunaklar yoki buramning notekisligi bo‘lsa, gazlama sirtidagi diagonal chiziqlar ravon chiqmaydi. Ko‘plab korxonalarda ishlatilayotgan an‘anaviy nazorat usullari bunday nuqsonlarni to‘liq qayd etolmaydi. Natijada laboratoriya xulosalari bilan real ishlab chiqarish natijalari o‘rtasida tafovut yuzaga keladi.

Ikkinchi muammo diagonal yo‘nalish burchagi, rapportning aniqligi va iplararo bo‘shliqlarni obyektiv o‘lchashdagi qiyinchilikdir. Amaliyotda bu ko‘rsatkichlar ko‘pincha vizual kuzatuv yoki soddalashtirilgan laboratoriya usullari orqali baholanadi. Vaholanki, diagonalning ravshanligi, qiyalik burchagi va iplararo masofa gazlamaning nafaqat tashqi ko‘rinishiga, balki mustahkamlik, havo o‘tkazuvchanlik va yeyilishga chidamlilik singari ko‘rsatkichlariga ham bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun sarja o‘rilishini o‘rganishda faqat kuzatuvga tayanish yetarli emas.

Uchinchi muammo laboratoriya sharoiti bilan ishlab chiqarish muhiti o‘rtasidagi farq bilan bog‘liq. Tajriba jarayonida olinadigan namunalar ko‘pincha kichik hajmli bo‘ladi, ularda dastgoh tezligi, ip kuchlanishi, namlik va pardozlash jarayonlari ishlab chiqarishdagidek to‘liq takrorlanmaydi. Holbuki, aynan shu omillar sarja o‘rilishli gazlamalarda diagonalning ravshanligi, zichlik, sirtidagi silliqlik va yakuniy deformatsiya xususiyatlarini keskin o‘zgartirishi mumkin. Demak, sarja o‘rilishi bo‘yicha tadqiqotlar ishlab chiqarish parametrlariga yaqinlashtirilgan sharoitda olib borilishi lozim.

To‘qimachilik korxonalarida sarja o‘rilishli gazlamaning sifatiga ta’sir qiluvchi yana bir muhim omil — dastgoh parametrlarining barqaror ishlashidir. Agar asos iplarining kuchlanishi bir xilda ushlab turilmasa yoki arqoq tashlash ritmida og‘ishlar yuz bersa, diagonal yo‘nalish notekis chiqishi, rapport buzilishi yoki ayrim joylarda sirt deformatsiyasi paydo bo‘lishi mumkin. Bu holat ayniqsa zichligi yuqori bo‘lgan denim va texnik gazlamalarda yaqqol ko‘rinadi. Demak, sifat nazorati faqat tayyor matoda emas, balki to‘quv jarayonining o‘zida ham uzluksiz olib borilishi kerak.

Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta ilmiy-texnologik yondashuvlarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Avvalo, ip tekisligini baholashda Uster Tester turidagi yuqori aniqlikdagi uskunalar va elektron monitoring vositalaridan foydalanish kerak. Ikkinchidan, diagonal chiziqlarni baholashda raqamli tasvirlarni qayta ishlash usullarini joriy etish foydali bo‘ladi. Bunda gazlama yuzasi skaner yoki yuqori aniqlikdagi kamera orqali olinib, maxsus dasturlar yordamida diagonal yo‘nalish burchagi, takrorlanish davri va sirt bir xilligi hisoblanadi. Uchinchidan, 3D modellashirish usullari yordamida iplarning fazoviy joylashuvi, deformatsiya darajasi va bo‘shliqlar tizimini oldindan tahlil qilish mumkin.

1-jadval. Sarja va tekis o‘rilishlarning ayrim xossalari

Ko‘rsatkich	Sarja o‘rilishi	Tekis o‘rilish
Mustahkamlik	Yuqori	O‘rtacha
Egiluvchanlik	Yaxshi	Pastroq
Yeyilishga chidamlilik	Yuqori	O‘rtacha
Sirt ko‘rinishi	Diagonal, silliqroq	Soddaroq
Tikuvchanlik	Qulay	Nisbatan cheklangan
Qo‘llanish sohasi	Denim, forma, texnik mato	Yengil maishiy matolar

Quyidagi jadvalda sarja va tekis o‘rilishning ayrim asosiy xossalari umumlashtirilgan. Taqqoslash natijalari sarja o‘rilishli gazlamalarda egiluvchanlik, yeyilishga chidamlilik va texnologik moslashuvchanlik yuqoriroq ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tekis o‘rilishning ham ayrim mahsulotlar uchun soddalik va barqarorlik nuqtai nazaridan afzalliklari mavjud. Demak, o‘rilish turini tanlashda mahsulotning vazifasi, foydalanish sharoiti va talab etiladigan fizik-mexanik ko‘rsatkichlar birgalikda hisobga olinishi zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sarja o‘rilishi to‘qimachilik sanoatida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan strukturaviy yechimlardan biridir. Uning diagonal tuzilishi gazlamaga mustahkamlik, egiluvchanlik va estetik ko‘rinish beradi. Biroq ushbu o‘rilish xossalarini chuqur o‘rganish jarayonida ip tekisligi, taranglik barqarorligi, diagonalni o‘lchash aniqligi va laboratoriya natijalarining ishlab chiqarish bilan mosligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Zamonaviy o‘lchash uskunolari, raqamli tahlil hamda 3D modellashdan foydalanish ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar ishonchliligini oshirib, sarja o‘rilishli mahsulotlar sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojaliyev D.O‘. To‘qimachilik materialshunosligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Yigitaliyeva N.A., To‘xtaboyev M.K. To‘qimachilik mahsulotlari sifati va ularni baholash. – Toshkent: Oliy ta‘lim, 2021.
3. Abdumalikov A.A., Turg‘unov M.Z. To‘qimachilik sanoati asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019.
4. Nazarova M.A. To‘quvchilik texnologiyasi: darslik. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2022.
5. Valiyev N.G. To‘qimachilik iplarining cho‘zilish deformatsiyasini Veb-kamera asosida aniqlash: usullar tahlili va qurilma Konsepsiyasi // Innovatsion tadqiqotlar axborotnomasi Ilmiy-nazariy, metodik jurnali 2026 3-son. S. 50-54.
6. Karimov B.X., Bozorov S.S. Gazlama tuzilishi va xossalari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
7. Ergashev R., Yo‘ldoshev B. Tikuv mahsulotlarini loyihalash va texnologiyasi. – Toshkent: Turon ziyo, 2020.
8. Raximov O‘.O‘. To‘qimachilik tolalari va iplar texnologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2018.

PAXTA CHIGITINI TASHISHDA PNEVMOTRANSPORTI USKUNASINI RESURSTEJAMKOR KONSTRUKSIYASINING TEXNOLOGIK TAXLILI

Imomnazarov Xurshidbek Xushnazar o‘g‘li

Farg‘ona davlat texnika univesiteti, Assistent

Annotatsiya: Ushbu maqolada paxta chigiti pnevmotransport tizimlarida qo‘llaniladigan resurstejamkor separatorning aerodinamik, texnologik va energetik xususiyatlari ilmiy asosda taxlil qilingan. Separatorning konstruktiv yechimlari, havo-mahsulot aralashmasini ajratish jarayonidagi oqim dinamikasi va energiya tejamkorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, optimallashtirilgan separator an‘anaviy turdaga yig‘uvchi turdagi shnek uskunasi nisbatan ajratish samaradorligini 10–15 % ga oshiradi, energiya sarfini esa 18–25 % ga kamaytiradi.

Kalit so‘zlar: *pnevmotransport, paxta chigiti, separator, resurstejamkor texnologiya, aerodinamika,modellash, inertsiya ajratish, havo–mahsulot aralashmasi, turbulentlik, energiya tejamkorligi, ajratish samaradorligi, texnologik jarayon oqimlari.*

Dunyo paxta sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarida paxtaning dastlabki miqdor va sifat ko‘rsatkichlari yomonlashadi, tannarxi ko‘tariladi. Bu holat, paxtaga ishlov beruvchi mashinalar ishchi organlari tomonidan ko‘rsatiladigan kuchli zarbaviy ta‘sir, hamda, muayyan miqdordagi moddiy va energetik xarajatlar sababli yuz beradi. Bunda, asosiy ishlab chiqarish bilan bir qatorda, xomashyoni pnevmotransport yordamdatashish

jarayonlarining alohida ahamiyati bo‘lib, bu jarayonlar qurilmalarning o‘ta yuqori tezlik va quvvat sarfi bilan amalga oshadi

Paxta chigitini pnevmatik transport tizimlarida tashish yengil sanoat korxonalarida uzluksiz ishlab chiqarish jarayonining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Havo–mahsulot aralashmasidan chigitni ajratib olish uchun separatorlardan foydalaniladi. An’anaviy separatorlar konstruksiyasida energiya sarfi yuqori, aerodinamik yo‘qotishlar katta va ajratish samaradorligi yetarli emasligi kuzatiladi. Shu bois, zamonaviy texnologik talablarga javob beruvchi resurstejamkor separatorlarni yaratish dolzarb hisoblanadi.[1-3]

Paxta chigiti pnevmotransporti yengil sanoat korxonalarida xom ashyo oqimini uzluksiz va sanitariya talablariga mos ravishda tashish uchun muhim texnologik bo‘g‘indir. Havo-mahsulot aralashmasini chigitdan ajratish jarayonining samaradorligi umumiy ishlab chiqarish unumdorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

An’anaviy siklonlar va separatorlar ko‘pincha: yuqori energiya sarflashi, havo oqimlarining katta yo‘qotilishi, ajratish aniqligining pastligi, chigitning mexanik shikastlanishi kabi kamchiliklarga ega. Shu bois **resurstejamkor separator** yaratish hozirgi ilmiy-texnik rivojlanishning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir [3].

Havo oqimini turg‘un (stationary) va noturg‘un (unsteady) rejimlarda CFD (Computational Fluid Dynamics) tahlillari orqali hisoblash jarayoni quyidagi parametrlarni o‘z ichiga oldi:

- oqim tezligi: **14–22 m/s**
- bosim differensial: **320–480 Pa**
- chigit donalarining o‘rtacha diametri: **6–11 mm**

Energiya tejallishi asosan oqimning yo‘nalishini keskin o‘zgartirmasdan, silliq aerodinamik kanallar orqali boshqarish natijasida ta’minlanadi.

1-jadval

№	Ko‘rsatkich	An’anaviy separator	Resurstejamkor separator
1	Ajratish samaradorligi	82–87 %	92–96 %
2	Chigitning shikastlanishi	7–9 %	3–4 %
3	Oqim yo‘qotilishi	18–24 %	8–12 %

Ventilyator quvvatiga bo‘lgan talab 18–25 % ga kamayadi. Buning sababi:

- oqim qarshiligini optimallashtirish,
- ichki kameradagi turbolentlikni kamaytirish,
- g‘alvirsiz ajratish mexanizmini qo‘llash [4-5].

Xulosa

Xulosa qilib aytgando‘tkazilgan taxlillar shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan resurstejamkor separator: havo-mahsulot aralashmasini ajratish aniqligini **10–15 %** ga oshiradi, energiya sarfini **20 % gacha** kamaytiradi ushbu separatorni sanoat korxonalariga joriy etish yengil sanoatning texnik-iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu separatorni amaliyotga joriy etish paxta tozalash korxonalarida energiya tejamkorligini oshiradi va chiqindi miqdorini kamaytiradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-son.
2. Karimov B., Abduraxmonov D. *Paxta mahsulotlari texnologiyasi*. – Toshkent: Fan, 2021.
3. Ismoilov A. *Pnevmotransport tizimlarida aerodinamik jarayonlar*. – Toshkent, 2020.
4. Rahimov O. va boshq. “Resurstejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish yo‘nalishlari”, *O‘zbekiston Texnika Jurnali*, №4, 2022.

5. Zubairov S. “Paxta chigitini ajratish tizimlarining CFD modellashirilishi”, *Texnologik jarayonlar jurnali*, 2023.
6. International Cotton Advisory Committee (ICAC). *Seed Cotton Processing and Handling Handbook*. 2020.

Qo‘y juni tolalarining sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash

Toshtemirov Kosim Abdullxayevich, Farg‘ona davlat texnika universiteti,
toshtemirov@mail.ru

Annotatsiya. Jun tolalaridan to‘quvchilik mahsulotlar ishlab chiqarishda asosan ingichka tolali qo‘y junlaridan 97-98% qo‘llaniladi. Qolgan 2% echki, tuya va boshqa xayvonlarni junlaridan foydalaniladi. Jun tolasidan tayyorlangan mahsulotlar tabiiyligi, ko‘rkamligi, mustahkamligi, mayinligi va issiqlikni yaxshi saqlay olishi bilan ajralib turadi, bundan tashqari inson sog‘ligiga foydasi borligi xamda inson tanasini yurgada massaj qilishi va umurtqa pog‘onasini davolashi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada jun tolasining tuzilishi va uning xususiyatlari, xamda inson salomatligiga foydali jixatlari, jun tolalarini sifat ko‘rsatkichlari aniqlash xamda dastlabki ishlash texnologiyasi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В производстве ткацких изделий из шерстяных волокон в основном используется 97-98% тонковолокнистой овечьей шерсти. Остальные 2% составляют шерсть коз, верблюдов и других животных. Изделия из шерстяного волокна отличаются естественностью, красотой, прочностью, мягкостью и хорошей теплоудерживающей способностью, кроме того, они полезны для здоровья человека, а также для массажа тела человека и лечения позвоночника. В данной статье представлена информация о структуре шерстяного волокна и его свойствах, а также полезных аспектах для здоровья человека, определении показателей качества шерстяных волокон и технологии первичной обработки.

Abstract. In the production of weaving products from wool fibers, 97-98% of fine-fiber sheep wool is mainly used. The remaining 2% consists of wool from goats, camels, and other animals. Products made from wool fiber are distinguished by their naturalness, beauty, durability, softness, and good heat retention properties; furthermore, they are beneficial for human health, as well as for massaging the human body and treating the spine. This article provides information on the structure of wool fiber and its properties, as well as its beneficial aspects for human health, determination of wool fiber quality indicators, and primary processing technology.

To‘qimachilik sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biri bu jun yigirish va dastlabki ishlov berish sanoatidir. Tarmoq korxonalarida junni qayta ishlash, sof jundan yoki uning boshqa tolalar (asosan kimyoviy tolalar) aralashmasidan har xil chiziqli zichlikdagi iplar, jun gazlamalar, har xil texnik va maxsus gazlamalar, gilam va gilam mahsulotlari, trikotaj mahsulotlari kigiz-namat va fetr buyumlar, noto‘qima materiallar ishlab chiqariladi. Junning yaxshi yoki yomon ekanligi quyidagicha aniqlash mumkin bo‘ladi: Namangan davlat texnika universiteti, 2025-yil 16-17-aprel 98 “Ilm-fan, texnologiya va sanoat integratsiyasi: muammo va yechimlar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 1. Junning chiziqli zichligi. Jun tolalarining chiziqli zichligi turli jismoniy xususiyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Umuman olganda, jun qanchalik nozik bo‘lsa, uning chiziqli zichligi shunchalik bir xil, mustahkamligi yuqori, jingalak, zich, yumshoq yaltiroq, yuqori yog‘li va terli, ammo uzunligi qisqaroq bo‘ladi. Shuning uchun chiziqli zichlik jun sifatining muhim ko‘rsatkichidir. Ipning metrik nomerini aniqlash uchun ma‘lum uzunlikdagi (100 m) ipni kalava qilib o‘rab va uni tarozida tortib, uzunligini og‘iriligiga bo‘lish kerak: Bunda: N - ipning nomeri; $N = \frac{G}{L}$ - uzunligi, metr; G - og‘irligi, gramm; O‘zDSt ga muvofiq yigiruv fabrikalarida tolalar, iplar va yarim fabrikatlarning yo‘g‘onlikga to‘g‘ri kelgan massaning bevosita miqdori bilan aniqlanadi. Massa birligi uchun gramm, uzunlik birligi uchun kilometr qabul qilingan. Mana shu xarakteristika teks deb ataladi. $T = \frac{L}{m}$ 100 m (L 10 m G , текс) Bunda: T – mahsulotning yo‘g‘onligi, teks; m – mahsulotning massasi, g; L - mahsulotning uzunligi, km; L – mahsulotning uzunligi, m; Shu O‘zDStga muvofiq teksni katta va kichik birliklarda ham keltirish mumkin. Masalan, mahsulotning yo‘g‘onligi 1 teksdan kichik bo‘lsa, millitek (mg/km), bordi-yu, 1000 teksdan katta bo‘lsa, kiloteks (kg/km) da ifodalanadi. $1000 \text{ T} \text{ M} = T = 0.001 \text{ T K}$ Bunda: TM –

mahsulotning yo‘g‘onligi, milliteks; TK – mahsulotning yo‘g‘onligi, lekin kiloteks; Jun tolalarining past chiziqli zichligi ipning mustahkamligi va tekisligi uchun foydalidir. Biroq, juda nozik jun yigirish paytida nuqsonlarga ko‘proq moyil bo‘ladi. Jun tolalarining chiziqli zichligi ham jun matolarning sifati va uslubi bilan chambarchas bog‘liq. Junning chiziqli zichligining tez-tez qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlari o‘rtacha diametr, sifat soni va teks raqamini o‘z ichiga oladi. Agar tolaning diametrini taqsimlash mumkin bo‘lsa, diametrning o‘zgarishi koeffitsienti jun partiyasining chiziqli zichligi notekisligini ifodalash uchun ishlatilishi mumkin. Jun tolalari diametri jihatidan juda farq qiladi, eng kichik qoziq diametri taxminan 7 mm ni tashkil qiladi. Eng qalin diametri 240 mm ga yetishi mumkin. Xuddi shu junda ham diametr farqi 5 dan 6 m gacha bo‘lishi mumkin. Junning chiziqli zichligidagi farqning sabablari murakkab, jumladan, qo‘ylarning zoti, yoshi, jinsi, junning o‘sish joyi va oziqlanish sharoitlari. Xuddi shu qo‘ylarda yelkadagi sochlar eng nozik, keyin esa tana tomonidagi, bo‘yin va orqadagi sochlar. Old bo‘yin, dumba va qorindagi sochlar qalinroq, tomoq, pastki oyoq va quyruqdagi sochlar eng qalin. Sifatni hisoblash - jun sanoatida uzoq vaqtdan beri qo‘llanilgan junning chiziqli zichligi ko‘rsatkichi. Hozirgi vaqtda tijoriy operatsiyalar, jun to‘qimachilik sanoatida navlarni Namangan davlat texnika universiteti, 2025-yil 16-17-aprel 99 “Ilm-fan, texnologiya va sanoat integratsiyasi: muammo va yechimlar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ajratish va tasma tayyorlash jarayonlarini shakllantirish muhim asos sifatida sifat ko‘rsatkichlariga asoslanadi. Ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi, yigiruv usullarini takomillashtirish, to‘qimachilik sifatiga qo‘yiladigan talablarni doimiy ravishda takomillashtirish va tolalar ishlashini tadqiq qilishning rivojlanishi bilan jun sifatini hisoblash asta-sekin o‘zining asl ahamiyatini yo‘qotdi. Hozirgi vaqtda junning sifat ko‘rsatkichi faqat ma’lum diapazondagi o‘rtacha diametrli junning noziklik ko‘rsatkichini ifodalaydi. 2. Jun tolalarining uzunligi. Tabiiy jingalaklarning mavjudligi tufayli jun tolalarining uzunligi tabiiy uzunlik va tekis uzunlikka bo‘linishi mumkin. Tolalar to‘plamining uchlari orasidagi chiziqli masofa, u tabiiy ravishda jingalak bo‘lganda, uning uzunligini ko‘rsatish uchun odatda ishlatiladigan tabiiy uzunlik deyiladi. Jun tolalarining jingalaklarni olib tashlaganidan keyin tekislangandan keyin uzunligi tekislangan uzunlik deb ataladi. 3. Jundan jingalak. Jun tolalarining jingalak bo‘lishi jun ko‘rpaning shakli, tolalarning chiziqli zichligi, elastikligi, birlashishi va yumshoqlik xususiyatlariga bog‘liq. Jun tolalari chuqur va sayoz jingalaklarga ega. Jingalakning chuqurligiga, ya’ni to‘lqin balandligiga va uzunligiga, ya’ni to‘lqin kengligiga ko‘ra, jingalak shakli uchta toifaga bo‘linishi mumkin, biri zaif jingalak. Ushbu turdagi jingalak jingalak yoyining yarmidan kam aylanasi, tolaning uzunligi bo‘ylab nisbatan to‘g‘ri bo‘lishi va kamroq jingalaklarga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi. 4. Jun tolalarining namlik assimilyatsiya qilish. Jun tolalarining namlikni singdirishi namlikning qayta tiklanishi bilan ifodalanadi. Jun umumiy tolalar orasida eng kuchli namlikni yutish xususiyatiga ega. Umumiy atmosfera sharoitida namlikning qayta tiklanishi 15% dan 17% gacha. 5. Jun tolalarining mustahkamligi va cho‘zilishi. Jun tolalarining cho‘zilish kuchi keng tarqalgan tabiiy tolalar orasida eng past bo‘lib, uzilish uzunligi atigi 9-18 km. Odatda, junning nozikligi qanchalik nozik bo‘lsa, medullar qatlami qanchalik kam bo‘lsa, uning kuchi shunchalik yuqori bo‘ladi. Jun tolalarining cho‘zilganidan keyin cho‘zilish qobiliyati ko‘p ishlatiladigan tabiiy tolalar orasida eng kattasidir. Buzilish cho‘zilishi quruq holatda 25 foizga - 35 foizga, nam holatda esa 25 foizga - 50 foizga yetishi mumkin. Tashqi kuchlarni olib tashlaganingizdan so‘ng, cho‘zilishning elastik tiklanish qobiliyati tez-tez ishlatiladigan tabiiy tolalar orasida eng yaxshisidir. 6. Jun tolalarining kimyoviy barqarorligi. Jun tolalari gidroksidiga qaraganda kislotaga chidamli. Suyultirilgan va konsentrlangan kislotalar qisqa vaqt ichida junga ozgina zarar etkazadi, shuning uchun kislotalar ko‘pincha xom jun yoki jundan o‘t changi kabi o‘simlik aralashmalarini olib tashlash uchun ishlatiladi. Sirka kislotasi va chumoli kislotasi kabi organik kislotalar junni bo‘yashda muhim bo‘yash promouterlari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2. B.X. Boymuratov, A.D.Daminov Toquvchilik texnologiyasi Toshkent – “Fan va texnologiya” –

2016 Namangan davlat texnika universiteti, 2025-yil 16-17-aprel 100 “Ilm-fan, texnologiya va sanoat integratsiyasi: muammo va yechimlar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 3. Prabir Kumar Banerjee Principles of fabric formation. CRC Press Taylor & Francis Group. 2015. UK. 469 pages. 4. Abduraxmanova, Sh. R. (2023). O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3 (03), 31-39.

IP YIGIRUV ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA TEXNOLOGIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI IP SIFATINI YAXSHILASH

Valiyev Nodirbek G‘ulomjon o‘g‘li, t.f.f.d. (PhD)

Farg‘ona davlat texnika universiteti, nodirbekvaliyev@mail.ru

To‘xtasinova O‘g‘iloy Baxromjon qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti, talaba, toxtasinovaogiloy311@gmail.com

Abstract: Ushbu maqolada ip yigiruv korxonalarida texnologik jarayonlarni optimallashtirish orqali ip sifatini oshirishning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda paxta tolasining fizik-mexanik xossalari, yigirish tizimining asosiy bosqichlari hamda ularning ip mustahkamligi, tekisligi, tukliligi va uzilishlar soniga ta’siri tahlil qilingan. Xom ashyoni saralash va aralashtirish, tarash hamda cho‘zish rejimlarini maqbullashtirish, burama miqdori va urchuq tezligini mos tanlash, shuningdek, avtomatlashtirilgan monitoring vositalaridan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan.

Keywords: ip yigirish, texnologik optimallashtirish, paxta tolasini, ip sifati, mustahkamlik, tekislik, avtomatlashtirilgan nazorat

Kirish

To‘qimachilik sanoatida ip sifati tayyor mahsulot raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Ayniqsa, paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarda ipning mustahkamligi, tekisligi, tukliligi va barqaror chiziqli zichligini ta’minlash ishlab chiqarish samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli ip yigiruv korxonalarida texnologik jarayonlarni optimallashtirish masalasi texnik, iqtisodiy va sifat menejmenti nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Ip yigirish ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, tolani ochish va tozalashdan boshlab, tarash, cho‘zish, piliklash, yigirish hamda o‘rashgacha bo‘lgan operatsiyalar majmuini o‘z ichiga oladi. Ushbu zanjirdagi har bir texnologik bosqich tolalarning joylashuvi, parallelizatsiyasi, shikastlanish darajasi va nihoyat tayyor ipning fizik-mexanik xossalari ta’sir ko‘rsatadi. Jarayon parametrlari o‘zaro uyg‘un holda tanlanmasa, ipning notekisligi ortadi, uzilishlar ko‘payadi va ishlab chiqarish tannarxi oshadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ip yigiruv ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayonlarning ip sifati bilan bog‘liqligini tahlil qilish, muhim boshqariluvchi omillarni ajratib ko‘rsatish hamda sifatni oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor optimallashtirish yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan bayon etishdan iborat.

Tadqiqot materiali va usullari

Tadqiqot obyekti sifatida paxta tolalaridan ip ishlab chiqaruvchi korxonalardagi asosiy texnologik bosqichlar qabul qilindi. Tahlilda xom ashyo sifati va texnologik parametrlarning ip xossalari ta’siri bo‘yicha nazariy manbalar, amaliy ishlab chiqarish talablari hamda sohada qo‘llanilayotgan nazorat ko‘rsatkichlari umumlashtirildi.

Ip sifatini baholashda mustahkamlik (sN/tex), tekislik (Uster %), cho‘ziluvchanlik (%), tuklilik indeksi, uzilishlar soni (marta/soat) va chiziqli zichlik (teks) kabi ko‘rsatkichlar asosiy mezon sifatida qaraldi. Bunga qo‘shimcha ravishda, paxta tolalarining uzunligi, nozikligi, namligi, mustahkamligi va aralashmalar miqdori kabi kirish parametrlari jarayonning keyingi bosqichlari uchun aniqlovchi omil sifatida baholandi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslash va texnologik bosqichlar bo‘yicha funksional baholash usullaridan foydalanildi. Bunda har bir operatsiyaning sifatga ta’siri alohida ko‘rib chiqilib, jarayonlararo uzviylik prinsipiga tayangan holda optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar shakllantirildi.

Ip sifatiga ta’sir etuvchi asosiy texnologik omillar

Xom ashyoni to‘g‘ri tanlash va aralashtirish yigirish jarayonining boshlang‘ich sifat zaxirasini belgilaydi. Uzunligi, nozikligi va mustahkamligi jihatidan bir-biriga yaqin tolalarning maqsadli aralashmasi keyingi bosqichlarda oqim barqarorligini yaxshilaydi. Aksincha, tolalar xossalariidagi katta tafovutlar notekislikni kuchaytiradi, tarash va cho‘zish bosqichlarida qo‘shimcha yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi.

Tozalash va tarash bosqichlari ip sifatining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur jarayonlarda tolalar ochiladi, mayda aralashmalar ajratiladi va tolalar nisbatan parallel holatga keltiriladi. Tarash mashinalarida ish organlarining texnik holati, ta‘minotning bir me‘yorda berilishi hamda texnologik sozlamalarning aniqligi pilta tuzilishini barqarorlashtiradi. Natijada keyingi cho‘zish jarayonida tolalar oqimi bir xilroq bo‘lib, tayyor ipning tekisligi yaxshilanadi.

Cho‘zish bosqichida valiklar orasidagi tezliklar nisbati, bosim kuchi va ta‘minot parametrlari ehtiyotkorlik bilan tanlanishi lozim. Cho‘zish nisbati ortiqcha bo‘lsa, tolalarning siljishi kuchayib, notekislik va uzilishlar soni ortadi. Optimal rejim tanlanganda esa tolalar yaxshiroq taqsimlanadi, pilta tuzilishi barqarorlashadi va yigirish mashinasiga uzatilayotgan materialning sifat darajasi oshadi.

Yigirish bosqichida ipga beriladigan burama miqdori, urchuq aylanish tezligi va chiqarish tezligining o‘zaro muvofiqligi tayyor mahsulot sifatini belgilaydi. Burama kam bo‘lsa, ipning mustahkamligi pasayadi; ortiqcha burama esa mahsulotni qattiqlashtiradi, tuklilikni o‘zgartiradi va unumdorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ipning nominal chiziqli zichligiga mos burama koeffitsiyentini tanlash ilmiy asoslangan boshqaruv qarori bo‘lishi kerak.

Optimallashtirish yo‘nalishlari va amaliy ahamiyati

Ip yigiruv korxonalarida optimallashtirish avvalo xom ashyo, uskuna va texnologik rejimlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashga qaratilishi zarur. Bunda tolalar partiyasini kirishda sifat bo‘yicha saralash, aralashmalar ulushini me‘yorlashtirish va ishlab chiqarish liniyasiga uzatiladigan xom ashyoning barqarorligini ta‘minlash muhim vazifa hisoblanadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — jarayon parametrlarini operativ nazorat qilishdir. Zamonaviy sensorlar, Uster turidagi monitoring tizimlari va kompyuterlashtirilgan boshqaruv vositalari yordamida notekislik, uzilishlar soni hamda uskunalarining yuklanish darajasini real vaqt rejimida kuzatish mumkin. Bunday yondashuv nuqsonlarni erta bosqichda aniqlash, rejimlarni o‘z vaqtida tuzatish va sifatning barqarorligini ta‘minlash imkonini beradi.

Uchinchi yo‘nalish energiya va resurs tejamkorligini kuchaytirish bilan bog‘liq. Uskunalarining optimal yuklama rejimida ishlashi, texnik xizmat ko‘rsatishning rejaliligi hamda chang ajralishini kamaytiruvchi muhandislik yechimlari bir tomondan tannarxni pasaytirs, ikkinchi tomondan mehnat sharoitini yaxshilaydi. Shu sababli texnologik optimallashtirishni faqat mahsulot sifati emas, balki korxonaning umumiy ishlab chiqarish samaradorligi bilan bog‘liq kompleks tizim sifatida baholash lozim.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ip sifatini oshirish uchun alohida bitta operatsiyani emas, balki butun texnologik zanjirni uyg‘un boshqarish zarur. Xom ashyo sifati, tarashning aniqligi, cho‘zishning barqarorligi va yigirish parametrlarining mosligi birgalikda yuqori natija beradi. Demak, korxonalarda sifatni boshqarish tizimini texnologik monitoring bilan integratsiyalash eng maqbul strategik yondashuv hisoblanadi.

Xulosa

Ip yigiruv ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayonlarni optimallashtirish tayyor ipning mustahkamligi, tekisligi, tuklilik va umumiy sifat barqarorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Xom ashyoni to‘g‘ri tanlash va aralashtirish, tarash hamda cho‘zish parametrlarini

maqbullashtirish, yigirish bosqichida burama va tezlik rejimlarini ilmiy asosda belgilash yuqori sifatli mahsulot olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, avtomatlashtirilgan nazorat vositalari, energiya tejankor yondashuvlar va profilaktik texnik xizmat ko‘rsatish tizimlarini keng joriy etish ishlab chiqarishdagi uzilishlarni kamaytiradi, nuqsonli mahsulot ulushini qisqartiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shu bois ip yigirish sanoatida sifatni oshirish masalasi texnologik jarayonlarni kompleks va uzluksiz boshqarish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5989-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2-sonli Farmoni.

3. Jo‘rayev A.T., Xolmatov I.U. Paxta tolalarini qayta ishlash texnologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

4. Valiyev N.G. To‘qimachilik iplarining cho‘zilish deformatsiyasini Veb-kamera asosida aniqlash: usullar tahlili va qurilma Konsepsiyasi // Innovatsion tadqiqotlar axborotnomasi Ilmiy-nazariy, metodik jurnali 2026 3-son. S. 50-54.

5. Valiyev N.G., Daminov A.D. Ipak matolarining tahlili asosida ularning turlarini kengaytirish // “TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT – 2023” xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman ma’ruzalar to‘plami. 26–27 aprel 2023. Farg‘ona: FarPI, 2023. B. 303–306.

6. Valiev N.G., Bobojanov X.T. Razrabotka novoy struktury platelno-kostyumnoy tkani iz naturalnogo shyolka // Mejdunarodnaya nauchnaya konferensiya posvyashchennaya 150-letiyu so dnya rojdeniya professora N.A. Vasileva: sbornik nauchnyx trudov. 26 maya 2021 g., CHast 2. Moskva: RGU im. Kosygina, 2021. S. 86–89.

FUNDAMENTAL PEDAGOGIK BILIMLAR ASOSIDA TALABALARDA AXBOROTNI HIMOYALASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi

